Шу туфайли ушбу тизим бугунги кунда дунёда кенг оммалашмоқда. Таълим жараёнини максимал даражада индивидуаллаштириш, глобал ахборот ресурсларидан интерактив фойдаланишни таъминлаш, жамоавий ахборот маҳсулотини яратиш, илмий-амалий муаммоларни жамоавий муҳокама қилишда иштирок этиш, лаборатория асбоб-ускуналарида масофавий равишда тажриба-тадқиқот фаолиятини амалга ошириш, у ёки бу шаклда ўқув жараёнига қайтиш имкониятига эга бўлиш масофавий таълим ҳисобланади. Бунда янги билимларни олиш ва зарурий компетентликни ўзлаштиришда норасмий, бир текис бўлмаган таълим асосий рол ўйнайди. Иккинчидан, таълим хизматлари истеъмолчиси ушбу имкониятдан исталган вақтда ва исталган даврда фойдаланиши мумкинлигини кўзда тутаяди.

Шунингдек, ҳар бир инсон бутун умр давомида ўз билим, кўникма ва дунёқарабини кенгайтириш ҳамда касбий компетентлигини, ўзгарувчан, мураккаб ва ўзаро боғлиқ дунёга мослашиш қобилиятини ривожлантиришни ўрганиш имкониятига эга бўлиши керак. Хусусан, таълимни анъанавий таълим муассасаларида, таълим олувчиларга маълум шаклда олиб бориш тўхтатилмоқда. Узлуксиз таълим тизимининг кўлами, унинг салоҳияти ўсиб бораётган иқтисодиёт ва ижтимоий соҳани ривожлантириш эҳтиёжларига мос келмайди. Жамиятнинг юқори малакали мутахассисларга бўлган эҳтиёжини самарали ҳал қилиш учун аҳолининг таълимга бўлган турли хил талаблари ва долзарб амалиёти, шунингдек, шахсни ривожлантириш муаммосини ҳал қилиш мақсадида масофавий таълимни қўллаб-қувватлаш зарур.

Масофавий таълимнинг афзаллиги, ўқитиш хоналари, доскалар, столлар ва бошқа ўқув қуроллари зарур эмас, асосан ўқув-услубий материаллар тайёрлаш ҳамда интернет трафик учун сарфланади. Ўқув-услубий материаллар қанчалик тушунарли ва батафсил бўлса, шунчалик талабага фойдали бўлади.

Катталарга эса масофавий таълимда ўз меҳнат фаолиятидан ажралмаган ҳолда таълим олиш ва малака оширишларига имконият яратилади. Бундан ташқари, масофадан туриб ўқиганда бир неча курсларда бир вақтнинг ўзида таълим олиш имкони мавжуд.

Шу билан бир қаторда масофавий (электрон) ўқитишни жорий этиш орқали қуйидаги вазифаларни амалга ошириш назарда тутилади:

масофавий, электрон ва аралаш таълимни жорий этиш орқали ҳар йили ўқитиладиган талабалар сонини сезиларли даражада оширишга эришиш;

талабаларнинг муайян соҳаларидаги қобилиятини аниқлаш имкониятини берувчи аниқ ва ҳар томонлама диагностикасини амалга ошириш асосида масофавий курсларни ташкил этиш;

талабаларини ўқитиш бўйича белгиланган вазифаларнинг сифатли бажарилишини таъминлаш;

масофавий ва анъанавий ўқитиш шакллариини интеграциялаш орқали ўқув жараёни самарадорлигини оширишга эришиш;

ахборот-коммуникация ва масофадан ўқитиш технологияларини жорий этиш;

масофадан ўқитиш – талабалар таълим жараёнига хос бўлган барча компонентларни (мақсад, мазмун, усул, ташкилий шакллар, воситалар) интернет технологияларидан фойдаланган ҳолда масофадан туриб амалга ошириладиган ўқитиш шакли ҳисобланади;

электрон ўқитиш – ахборот-коммуникация технологиялари воситалари, электрон таълим ресурслари ёрдамида амалга ошириладиган ўқитиш тизими;

аралаш ўқитиш (“Blended Learning”) – бу анъанавий ўқиш билан электрон шаклда мустақил ўқишнинг интеграцияси бўлиб, ўқув жараёнининг айрим элементлари электрон таълим муҳитида олиб борилади;

адаптив ўқитиш – бу тингловчиларнинг тайёргарлиги, қобилияти, мақсадлари, мотивацияси ва бошқа хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда индивидуал ўрганишга асосланган ўқитиш модели ҳисобланади;

on-line режимида (синхрон) ўқитиш – масофадан туриб реал вақт режимида машғулотларни олиб бориш;

off-line режимида (асинхрон) ўқитиш – масофадан туриб электрон ўқув ресурсларини мустақил ўзлаштириш;

амалий машғулотлари – умумлаштирувчи хусусиятга эга бўлган амалий машғулот, лаборатория иши, семинар-тренинг, интерфаол машғулотлар кўринишида ташкил этилади;

оммавий очик онлайн курслар (МООС) – бу интернет орқали кўпчилик кириш имконияти мавжуд бўлган онлайн курслар.

Шундай қилиб, исталган ҳажмдаги ахборотни етарлича юқори тезликда исталган масофага узатиш имконияти Интернет тармоғи имкониятларидан фойдаланишнинг жадал ривожланаётган йўналиши – масофавий таълимни белгилаб берди. Одатда, зарур илмий-техник салоҳиятга эга бўлган таълим муассасалари негизида нафақат масофавий таълим муассасалари ўқувчиларини ўқитиш, балки педагог кадрлар малакасини ошириш тизимида масофавий таълим технологияларидан фойдаланиш юқори самара беради.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида”ги қонуни, 23 сентябрь 2020 йил. ЎРҚ-637.

2. Бегимкулов У. Масофавий ўқитиш ва педагогик таълим // Педагогик таълим, – Тошкент. 2004. – № 5. – Б.19 – 21.

3. Каримов К. А. Професионал таълим тизими раҳбар ва педагог кадрлари малакасини ошириш тизимининг инновацион ва ташкилий-дидактик тамойиллари //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. – Т. 2. – №. 5. – С. 521-526.

4. Karimov K.A. Development of Information and Didactic Supply of Development of Distance Training of Leaders and Teachers of the Professional Education System //Central asian journal of social sciences and history. – 2022. – Т. 3. – №. 5. – С. 107-111.

ANIQ VA TABIIY FANLARNI O‘QITISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH USTUVOR OMIL SIFATIDA

Masharipov Madiyor Palvannazirovich

Toshkent shahar xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini xududiy markazi “Aniq va tabiiy fanlar metodikasi kafedrası katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada malaka oshirish tizimida ta'lim sifat va samaradorligini oshirishda axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish usullari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Edraw Max, Crosword Forge, Mind Maple, AvtoPlay, iSpringPro, Crocodile.ICT, Crocodile Physics, Crocodile Chemistry, Phet

Аннотация: В данной статье изложены методы эффективного использования информационных технологий в повышении качества и эффективности образования в системе повышения квалификации.

Ключевые слова: Edraw Max, Crosword Forge, Mind Maple, AvtoPlay, iSpringPro, Crocodile.ICT, Crocodile Physics, Crocodile Chemistry, Phet

Abstract: This article describes the methods of effective use of information technologies in improving the quality and efficiency of education in the system of advanced training.

Keywords: Edraw Max, Crosword Forge, Mind Maple, AvtoPlay, iSpringPro, Crocodile.ICT, Crocodile Physics, Crocodile Chemistry, Phet.



Ta'lim tizimiga raqamli texnologiyalarni tadbiq etilishi, o'z navbatida tizimida ko'p imkoniyatlarni ochib bermoqda. Jumladan: malaka oshirish tizimida online, ananaviy va masofaviy malaka oshirishning muqobil shakllari, maktablarda internet va masofaviy ta'lim, online, virtual ta'lim, virtual laboratoriyalar, 3D texnologiyalar ta'lim jarayonida ijobiy natijalar bermoqda. Bu albatta ta'lim oluvchi yoshlarni ta'lim jarayonlarini qiziqarli o'tkazish, bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, texnik vositalardan madsadli, samarali foydalanishdagi muhim vazifalarni bajarib bermoqda. Bugungi kunda ta'lim jarayonida samara beruvchi ko'plab kompyuter amaliy dasturlari va pedagogik dasturiy vositalar mavjud bo'lib bulardan ta'lim jarayonini samaradorligini oshirishda foydalanish maqsadga muvofiqdir. O'quv jarayonlari uchun ko'rgazmali didaktik tarqatma materiallar va elektron ta'lim resurslarini tayyorlashga mo'ljallangan dasturlar: Edraw Max, Crosword Forge, Mind Maple, AvtoPlay, iSpringPro va boshqalarni keltirishimiz mumkin.

Ta'lim jarayonida foydalaniladigan dars vositalari (darslik, tarqatma materiallar, texnik vositalar va boshqalar) dars jarayonini qiziqarli va o'qituvchi hamda o'quvchilar uchun ko'plab imkoniyatlar beradi.


Ushbu dasturlar yordamida pedagogik faoliyatda ta'lim jarayonini samaradorligini oshirishda foydalanish juda katta samara beradi. **Edraw Max** dasturining asosiy vazifasi- flaer va didaktik tarqatma materiallar tayyorlash.


Shular bilan bir qatorda aniq

va




tabiiy fanlarni o'qitishda Crocodile.ICT, Crocodile Physics, Crocodile Chemistry, Phet, Yanka va boshqa dasturlardan virtual laboratoriyalarda foydalanish katta samara beradi.







Matematika fanini o‘qitishda misol, masallar va grafiklar bilan ishlar olib boriladi. Grafiklar va geometrik fazoviy jismlarning tasvirlari bilan ishlash, misol va masallar yechishda matematik paket dasturlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bular: “Maple”, “Mathcad”, “Grafics”, “Microsoft Matemates”, “Gegebra” va boshqalardir.



Jivaya Geometriya dasturi murakkab tasvirlarni yaratish va uning qiymatlarini hisoblash, geometrik tasvirlarni turli gradus ostida ko‘rish imkoniyatini beradi. Yuqori sinflarda geometriya fanidagi fazoviy jismlarni doska yordamida chizish va uning tomonlarini ko‘rsatib berishda ayrim muammolar mavjud bo‘lib, ularni hozirgi raqamlashtirish davrda kompyuter texnologiyalarining amaliy dasturlari yordamida amalga oshirish imkoniyatlarini bermogda.




aqliy, ijodiy fikrlash va boshqalarni rivojlantirishda mustahkam zamin bo‘la oladi.

Adabiyotlar ro‘yhati:

1. Sh.Mirziyoyev. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta‘minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Toshkent – 2016. Sh.Mirziyoyev. “Erkin va farovon, demokratik

Dastur orqali mashishg‘ulotdagi muammolarni hal etish va dars jarayonlarini mazmunli va qiziqarli tashkil etish va o‘quvchilardagi ko‘plab g‘oyalarni yuzaga chiqarish imkoniyatlarini beradi. Zamonaviy usullar yoki o‘qitishning samarasini oshirishga yordam beruvchi kompyuter dasturlaridan foydalanish o‘quvchilarda ta‘limga qiziqishini oshirish, kompyuter savodxonligini va mantiqiy,



O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz”. Toshkent – 2016.

2. Sh.Mirziyoyev. “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz”. Toshkent – 2016.

3. S.S.Jumanazarov, M.Masharipov va boshqalar “Talim jarayoniga AKT”. T.:2019yil

4. A.Mahkamov, M.Masharipov “Talim jarayoniga AKT qo‘llash”. T.:2021yil

ҚИСКА МУДДАТЛИ КУРСЛАР ОРҚАЛИ ЎҚИТУВЧИЛАРДА РАҚМЛИ САВОДХОНЛИКНИ ШАКЛЛАНТИРИШ МАСАЛАЛАРИ

Daminov Otabek Abdualimovich, Жуманазаров Сирожиддин Салайдинович

Сирдарё вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини худудий маркази катта ўқитувчиси

odaminov@gmail.com

Тошкент шаҳар халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини худудий маркази доценти, т.ф.н.

sj_pochta@mail.ru

Аннотация. Ушбу мақолада умумтаълим мактаби ўқитувчилари учун замонавий рақамли технологиялар бўйича қисқа муддатли курсларни ташкил этиш масаласи қаралган.

Таянч сўзлар: рақамлаштириш, рақамли технологиялар, ахборот-коммуникация технологиялари

Аннотация. В данной статье рассматривается вопрос организации краткосрочных курсов по современным цифровым технологиям для учителей общеобразовательных школ.

Ключевые слова: цифровизация, цифровые технологии, информационно-коммуникационные технологии

Annotation. This article discusses the issue of organizing short-term courses on modern digital technologies for teachers of secondary schools.

Keywords: digitalization, digital technologies, information and communication technologies

Бугунги ахборот маконида таълим тизимида рақамли технологияларни кенг қўлланилиши шунчаки ҳайратланарли эмас. Сўнгги йилларда таълимни рақамлаштириш борасида бир қанча ишлар қилинмоқда, турли хил ишланмалар жорий этилмоқда

Малака ошириш тизимида олиб борилаётган машғулотлар тингловчиларни замонавий рақамли технологиялар ҳақидаги билимлари ривожлантирилиши билан бирга, ундан самарали фойдаланиш борасидаги кўникмалари ҳам шакллантирилмоқда. Шу билан бирга бу борада ҳам анча муаммолар борлиги сезилмоқда. Жумладан, таълимга рақамли технологияларни самарали тадбиқ қилиш ҳамда таълим мазмуни ва сифатини янада ошириш учун нималарга эътиборни қаратиш кераклиги бугунги куннинг асосий долзарб муаммоларидан биридир.

Мазкур муаммони ечиш учун қуйидагиларга эътиборни қаратиш лозим:

1. Таълим муассасаларини замонавий ахборот-коммуникация технологиялари билан таъминлаш ҳамда интернет инфратузилмасини яхшилаш, мобиль операторлар томонидан кўрсатилаётган хизматлар сифатини ошириш.

2. Ўқув жараёнини ташкил этишда рақамли технологиялардан самарали фойдаланиш қўламини кенгайтириш, ахборот ресурслари, ўқитиш воситалари ва масофавий ўқитиш технологияларини ривожлантириш.

3. Педагог кадрларнинг касбий маҳоратини узлуксиз ривожлантириш ҳамда замонавий ахборот-коммуникация технологиялари ва таълим технологияларининг мустаҳкам интеграциясини таъминлаш.

4. Ўқув машғулотларига замонавий рақамли технологияларни самарали қўллаш, интерфаол ва мультимедиа тақдимотлар яратиш ҳамда таълим ресурсларидан фойдаланиш бўйича ўқитувчиларнинг қисқа муддатли малакасини ошириш учун курсларни ташкил қилиш ва ўтказиш.

Малака ошириш жараёнида ўтказилган сўровномалар ҳамда дарс машғулотларини кузатиш орқали шу нарса маълум бўлдики кўпгина ўқитувчиларимизда таълимга рақамли

технологияларни тадбиқ этилиши борасида турлича қарашлар ва фикрлар мавжуд. Жумладан, тингловчиларнинг рақамли технология, медиасаводхонлик ва медиатаълим борасидаги етарлича маълумотларга эга эмаслиги ҳам турлича қарашларни вужудга келтирмоқда. Шунинг учун ҳам юқорида келтирилган муаммоларни бартараф этишда қисқа муддатли курсларни ташкил этиш мақсадга мувофиқ бўлади.

Мазкур қисқа муддатли курсларни ташкил этиш орқали нафақат ўқитувчиларнинг рақамли технологиялар борасидаги бўлиқлари тўлдирилади, балки унинг обрўси ва фаолиятининг самарадорлиги ҳам ошади. Чунки, бугунги кун ўқитувчисисининг обрўси ва касбий фаолиятининг самарадорлиги нафақат дарс мазмунидаги билимлар даражаси ва унинг педагогик қobiliятига эмас, балки муайян ўқув материални тўплаш, қайта ишлаш ва ўқитишда ўқитувчининг қанчалик замонавий рақамли технологиялардан хабардорлиги ва дарс жараёнига самарали қўллаш даражасига ҳам боғлиқ боғлиқ бўлади.

KOMPYUTER GRAFIKASINING AXBOROTLASHGAN JAMIYATDAGI AHAMIYATI

D.B.Abduraximov, T.Q.Nosirov, F.S.Alimov

Guliston davlat universiteti, pedagogika fanlari nomzodi, donier_5@mail.ru

Guliston davlat universiteti, magistrantlari.

Annotatsiya. *Ushbu maqolada kompyuter grafikasi, uning rivojlanib borishi, axborotlashgan jamiyatdagi ahamiyati, ilm va fanning sohalarida qo'llanilishi, Adobe Photoshop grafik redaktori imkoniyatlari keltirilgan.*

Аннотация. *В данной статье рассмотрены компьютерная графика, её развитие, значение в информированном обществе, применение в областях науки и техники а также возможности графического редактора Adobe Photoshop.*

Annotation. *This article discusses computer graphics, its development, its importance in an informed society, its application in the fields of science and technology, as well as the capabilities of the Adobe Photoshop graphic editor.*

XXI asr - axborotlashuv asri, ya'ni axborot texnologiyalari insonning hayotiy fazosining ajralmas qismidan iborat bo'layotgan asrdir. Axborotlar inson tafakkuri va fikrlash qobiliyatini qay darajada shakllanishiga ta'sir etuvchi asosiy omildir. Shu sababli zamonaviy jamiyat inson faoliyatining deyarli barcha sohalariga kirib borishga muvaffaq bo'lgan kompyuter va axborot texnologiyalarining kuchli ta'siri bilan ajralib turadi. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini milliy iqtisodiyotimizning barcha tarmoq va sohalariga keng va jadal kirib borishi axborotlashgan jamiyatni shakllantirishga zamin yaratmoqda. «Axborotlashgan iqtisodiyot», «Elektron hukumat», «Elektron boshqaruv», «Masofaviy ta'lim», «Ochiq ta'lim», «Elektron ta'lim» kabi tushunchalar hayotimizga keng kirib keldi.

Psixologlarning aniqlashicha inson 80% axborotni ko'rish kanallari orqali qabul qiladi. Har qanday hajmdagi axborotlar inson tomonidan uning ko'rish kanallari orqali qabul qilinganda yaxshi o'zlashtiriladi. Katta hajmdagi axborotlarin ba'zan boshqa shaklda qabul qilish qiyin.

Mashina grafikasi deganda obyektlarning hajm modellarini yaratish, saqlash, ishlov berish va EHM lar yordamida ularni namoyish etish tushuniladi. Kompyuter grafikasi yangi informatsion texnologiyalar orasida to'xtovsiz rivojlanib borayotgan yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ma'lumotlarni grafik ko'rinishida tasvirlash XX asrning 50-yillarida dastlab katta EHM larda amalga oshirilgan edi. Asosan, harbiy va ilmiy izlanishlarda qo'llanilgan. Grafik ma'lumotlarni qayta ishlash texnologiyasi shaxsiy kompyuterlarda 80-yillarda, keskin jadallashdi. Xozirga kelib shaxsiy kompyuterda dasturiy ishlash uchun foydalanuvchiga grafik interfeysi standart bo'lib qoldi.

Kompyuter grafikasi ilm va fanning barcha sohalarida, ayniqsa iqtisodiy ko'rsatkichlarni tahlil qilishda muvoffaqiyatli qo'llanilishi mumkin. Kompyuter grafikasi dunyo fanida yangi fundamental fan hisoblanib, o'tgan asrning 90—chi yillarida paydo bo'ldi va ishlab chiqarishning barcha sohasida kadrlar tayyorlab berishda o'ziga xos mustaqil ahamiyatga egadir.

Kompyuter grafikasining juda tez rivojlanib borishi va undagi texnikaviy, dasturiy

vositalarining yangilanib borish bu sohadagi yangi yo‘nalishlarni tinmay o‘rganib borishni taqozo etadi. Kompyuter grafikasi deyarli har bir injenerlik va ilmiy sohalarda masovafiy va ovoqli vositalarda axborotni uzatishda ishlatiladi. Meditsina va ishbilarmonlar reklamalarida hamda charchog‘ni chiqarish va shu kabi sohalarda ishlatiladi. Oxirgi yillarda bu sohada juda katta o‘zgarishlar yuz berdi, ya‘ni 16 mln.dan ortiq rang va turlarini o‘zida aks ettira oladigan displeylar, grafik axborotlarni kirituvchi moslama - skanerlar, grafik ish stansiyalari, dasturiy vositalar sohasida esa haqiqiy kompyuter dunyosini kashf qila oladigan amaliy dasturlar vjudga keldi.

Grafikli axborotlarni **analogli** yoki **diskretli** ko‘rinishlari mavjud. Analogli ko‘rinishlarda fizik kattalik cheksiz kattalikdagi qiymat qabul qiladi. Shu bilan birga uning qiymati muttasil ravishda o‘zgarib boradi. Diskret ko‘rinishlarda fizik kattalik bir necha so‘nggi qiymatni qabul qiladi. Shu bilan birga uning qiymati sakrash tartibida o‘zgarib boradi. [1], [2], [3].

Grafikli axborot **analog** ko‘rinishlarda tasvir aksi bo‘lib xizmat qilishi mumkin, rangi vaqti bilan o‘zgarishi mumkin. Tasvir **diskret** ko‘rinishlarda alohida turli rangli nuqtalardan tashkil topgan va purkovchi printer yordamida chop qilingan bo‘ladi. qog‘oz, foto va kinoplenkada analog ko‘rinishida saqlauvchi grafik tasvir, kompyuterning raqam (diskret) formatiga qayta tuzilishi mumkin. Grafik axborot analogli shakldan diskretli shaklga **diskretlash** yo‘li bilan o‘tadi, yani grafik tasvirni aloxida elementlari uzilishsiz tasvirlanadi.

Diskretlashtirish - bu aniq bir kod bilan berilgan har bir diskret qiymatlar to‘plamiga uzluksiz tasvirlarni qayta tuzish. Kompyuterda grafik obyektlarni yaratish va saqlash quyidagi ko‘rinishda bo‘lishi mumkin: **rastrli tasvir ko‘rinishi** va **vektorli tasvir ko‘rinishi**. Tasvirning har bir turi uchun kodlashning o‘z usuli qo‘llaniladi.

Rastrli tasvir ko‘rinish ma‘lum miqdordagi nuqtalar (piksellar)dan tashkil topgan, ma‘lum miqdordagi qatorlarda ifodalanadi. *Masalan*, barg tasviri aniq joylangan deb ta‘riflanadi va shar bir nuqtaning rangi huddi mozaika kabi tasvir hosil qiladi.

Bunday fayllarni tayyorlash uchun **Paint**, **Photoshop** va **Corel DRAW** kabi grafik redaktorlardan foydalaniladi. Hozirgi kunda katta hajmdagi axborotlarni ba‘zan boshqa shaklda qabul qilish qiyinroq. *Masalan*, biror kompaniyaning kunlar bo‘yicha bir yillik aksiyalarini kursi ko‘rsatilgan jadvalni grafik asosda tuzilsa, bunda kursning bir yoqlama o‘zgarish grafigi darhol ko‘rinadi, lekin ularni jadvaldan anglash uchun vaqt va malaka talab qilinadi. shuning uchun grafik ma‘lumotlarning ulushi har qanday turdagi kasb bilan bog‘liq faoliyatda qat‘iy o‘smoqda.

Shunday ekan tasvirlar va grafika bilan ishlaydigan vosita va bu vositalar bilan to‘g‘ri ishlay oladigan mutaxassislar talab qilinadi. Ehtiyoj doim taklifni keltirib chiqaradi, shuning uchun grafik tasvirlarni avtomatlashtirishga mo‘ljallangan dastur ta‘minotlar bozori juda turli xil va kengdir.

Adobe Photoshop - Adobe Inc. firmasi tomonidan ishlab chiqilgan va tarqatilyotgan ko‘pfunksiyali grafik redaktor. Asosan rastrli tasvirlar bilan ishlashga mo‘ljallangan, biroq bir nechta vektorli vositalariga ega. Dastur Adobe firmasi mahsuloti sifatida mashhur va rastrli tasvirlarni tahrirlashda dunyoda eng oldi brendi hisoblanadi. Hozirda Photoshop macOS, Windows platformalariga, iOS, Windows Phone va Android mobil tizimlariga moslashtirilgan. Yana Windows 8 va Windows 8.1 uchun Photoshop Express versiyasi ham mavjud. Adobe Photoshop tasvirlarni tahrirlashdagi professional redaktor hisoblanadi. [4].

Xulosa qilib aytganda, Adobe Photoshop dasturi foydalanuvchiga foto suratlar bilan ishlashda katta qulayliklar taklif qiluvchi, suratlarini boshqarish ular ustida amallar bajarish, ularni tahrirlash, ularga nom berish hamda ko‘rimlilik darajasini oshirishda katta samarali dasturdir. Asosan Adobe Photoshop dasturi jurnalistlar, reklama agentliklari uchun ko‘p samarali dastur hisoblanadi. Dastur yordamida suratlarini o‘zlarining maqolalari uchun ajoyib fon yaratishlari, kerakli suratlarini joylashlari hamda tekstlarni ham istalgan ko‘rinish, o‘lcham va dizaynda joylash imkoniyatlari mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mamarajabov M., Nabiulina L., Tursunov S. Kompyuter grafikasi va Web dizayn. Pedagogika OTM lari uchun darslik. Toshkent, “Cho‘lpon”, 2013.- 376 b.
2. Tillayev A.I. “Fotodizayn, Adobe PhotoShop”. O‘quv qo‘llanma. Toshkent, “Adib”. 2014. 156 b.

3. N.N.Zaripov «Kompyuter grafikasi» O'quv qo'llanma – Buxoro, BuxDU, 2020. 200 b.
4. Rafael Concepcion, Adobe Photoshop CC and Lightroom CC for Photographers, Second Edition, Classroom in a Book, 2019.

ТАЪЛИМ МУҲИТИДА РАҚАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИ ТРАСФОРМАЦИЯЛАШ

Мирзаев Акрамжон Ўктамжонович

АнДДУ, Бошланғич таълим методикаси кафедраси доценти в. б.

akramjonmirzayev008@gmail.com

Аннотация. Мақолада рақамли дунёда таълим тизимида рақамли технологияларни трансформациялашнинг аҳамияти ва долзарблиги келтирилган.

Аннотация. В статье подчеркивается важность и актуальность трансформации цифровых технологий в системе образования в цифровом мире.

Annotation. The article emphasizes the importance and relevance of the transformation of digital technologies in the education system in the digital world.

Рақамлаштириш ва рақамли дунё ҳаётимизни барча бўлагини камраб олди. Дунёда сал кам 4 миллиардга яқин инсонлар интернетга кириш имкониятига эга ва 5 миллиарддан ортиқ инсонлар мобил курилмалардан фойдаланишади. Интернетнинг кўлами ва мобил телефонларнинг ривожланиши инсонларнинг ўзаро мулоқотига, дунё янгиликларини тез фурсатда ўзлаштиришига ҳамда атроф дунёни кўришга кенг имкониятлар яратди.

Шунинг учун бутун дунёда турли дастурлар, суний интелект, интернет веб саҳифалари ва рақамлаштириш жадал суратларда ўсиб бормоқда. Бу ўзгаришлар таълим соҳасига ҳам ўз таъсирини олиб кирди. Мактабгача таълим муассасаларидан тортиб ўрта таълим ва олий таълим тизимида ўз ўрнига эга бўлиб борапти.

Умумий ўрта таълимда рақамли муҳитни ташкил этиш ва уни амалга оширишнинг ҳозирги кундаги долзарб масалалардан бири. Бу масаланинг долзарблиги 2019 йилда бошланган Совид-19 пандемия даврининг бошланишида аниқ бўлди. Таълим муассасаларида рақамли таълим муҳитини ташкил этишда нималарга аҳамият беришимиз ва нималарни амалга оширишимизни қуйида келтирилган:

- таълимга рақамли технологияларни трансформациялашни амалга ошириш;
- таълим муҳитида рақамли саводхонликни ташкил этиш;
- таълимда рақамли кўникмаларни шакллантириш;
- талимда рақамли малакаларни ривожлантириш;
- таълимда рақамли компетентлик ва рақамли муҳитда ишлай оладиган қобилиятларни ривожлантириш;
- таълимда рақамли педагогикани ташкиллаштириш;
- ўқитувчиларнинг рақамли компетенсларини ривожлантириш.

Бошланғич синфлардан тортиб олий таълимгача рақамли трансформациларнинг тенденциялари таълим соҳаси жуда катта таъсир ўтказётганлигини Совид-19 пандемия даврида яна ҳам тезлаштирди. Ўқувчилар, талабалар ва профессор-ўқитувчиларга ўқишни давом эттиришда ва уларнинг фаолиятларини самарали ташкил этиш учун турли технологияларни жалб этиш керак бўлди.

Трансформациялаш сўзининг ўзаги трансформатор сўзи бўлиб, “трансформатор” лотинча сўзидан олинган бўлиб, “ўзгартираман” деган маънони билдиради. Тенденция сўзи лотинча “тен-дере” олинган бўлиб, йўналмоқ, интилмоқ маъносини англатади.

Сем Дилмегани таълимда рақамли трансформацияни “Таълимдаги рақамли трансформация барча иштирокчилар учун ўқитиш ва ўрганиш имкониятларини яхшилаш учун таълим жараёнларни ва маҳсулотларни рақамлаштиришни англатади” деб таърифлаган. [1]

Акаш Такйар таълимда рақамли трансформацияни “Рақамли трансформация маълумотлар ва технологиялардан фойдаланиш орқали мижозлар талабларини самарали қондириш учун ташкилотнинг асосий бизнес операцияларини яхшилашни англатади. Таълим

соҳасида мақсадли мижоз талаба, профессор-ўқитувчилар, ходимлар ва битирувчилар бўлиши мумкин ва таълим секторини рақамлаштириш талабалар ва профессор-ўқитувчилар учун фойдали бўлиши мумкин” деб таърифлаган. [2]

Рақамли трансформация – янги рақамли технология имкониятларидан самарали фойдаланиб, жараёнда операцияларни қўллаш малакасига эга бўлиб ривожлантириш жараёнидир. [3]

Таълим тизимини рақамли трансформациялашга муаллифлик таърифимизни келтирамыз. Таълим тизимини рақамли трансформациялаш бу таълим бериш ва таълим олишда рақамли технологияларни қўллашга йўлтирилган имкониятлар. Яъни таълимда ўқитувчиларнинг билимларни беришда ва ўқувчиларнинг таълим олишда рақамли технологиялардан фойдаланиш.

Таълим муҳитида рақамли трансформациялаш тенденциялар ўқитувчи ва ўқувчиларнинг таълим жараёнининг қизиқарли ва самарали ўтишига ундайди. Бу билин улар ўз билимларини оширади, кўникмаларини шакллантиради, малакаларини ривожлантиради.

Адабиётлар.

1. Sem Dilmegani. 12 Digital transformation trends & use cases in education in 2022. <https://research.aimultiple.com/digital-transformation-in-education/>

2. Akash Takyar. Digital transformation in education industry. <https://www.leewayhertz.com/digital-transformation-in-education/>

3. Барно Сайфутдиновна Абдуллаева. Таълимда рақамли иктисодиётни ривожлантириш истикболлари. Таълим тизимида инновация, интеграция ва янги технологиялар / V Республика илмий-амалий конференцияси материаллари. Наманган, НамДУ, 2020 – 5 б.

PROFESSIONAL TIZIMINING INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARI

O. Burxiyev

Guliston davlat universiteti RTTM boshlig'i

Annotatsiya: Ushbu maqolada muallif kasb-hunar ta'limi tizimining innovatsion ta'lim texnologiyalarini ko'rib chiqadi, ularni amaliyotga tatbiq etish jihatlarini tahlil qiladi, mazmuni va tavsifini mazmun talablari bilan bog'laydi. Shu bilan birga, mualliflar teskari ta'lim texnologiyasidan, simulyatsiya va masofaviy ta'limdan foydalangan holda VR-ta'limdan foydalanishning alohida dolzarbligini ta'kidlaydilar.

Аннотация: В данной статье автор рассматриваются инновационные образовательные технологии системы профессионального образования, анализируются аспекты их внедрения в практическую деятельность, соотносится их содержание и описание с требованиями к содержанию. Вместе с тем, авторами подчеркивается особая актуальность применения технологии перевернутого обучения, VR-обучения с применением симуляций и дистанционного образования.

Abstract: In this article, the author considers innovative educational technologies of the vocational education system, analyzes the aspects of their implementation in practice, correlates their content and description with the content requirements. At the same time, the authors emphasize the particular relevance of using the technology of flipped learning, VR-learning with the use of simulations and distance education.

Turli xil innovatsion ta'lim texnologiyalari mavjud bo'lib, ulardan ba'zilar:

- Aqliy hujum;
- muammoli ta'lim;
- repetitor yordami;
- teskari ta'lim;
- munozaralar;
- VR texnologiyalari;
- Masofaviy ta'lim.

Shunday ekan, kasb-hunar ta'limi o'qituvchilari tomonidan qo'llaniladigan innovatsion texnologiyalarni atroflicha tahlil qilish maqsadga muvofiq:

1. Aqliy hujum. Ushbu ta'lim texnologiyasi o'quv jarayonida bir guruh talabalarning jamoaviy boshlang'ichlarini rag'batlantirish usullaridan biri bo'lib, ularni o'quv jarayonida keyingi faollashtirish; uning qo'llanilishi bir lahzalik yechimni talab qiladigan muammoni shakllantirishni o'z ichiga oladi, bu shunchaki cheklangan shart-sharoitlarni (vaqt chegaralarini) yaratadi, bunda o'quvchilar har xil variantlarni taklif qiladilar. Muammoni hal qilish uchun berilgan vaqt oxirida, o'qituvchi muhokamani va talabalarning eng yaxshi taklifini birgalikda tanlashni tashkil qiladi - bu yondashuv har bir talabaga jamoa faoliyatida qatnashish imkonini beradi; Bu usuldan eng samarali foydalanish guruhli o'zaro ta'sir bilan uyg'unlashganda, o'qituvchi 3-4 kishidan iborat kichik guruhlarni tuzsa, ularning har biri muammoning yagona yechimini taklif qiladi [8]. Albatta, shuni hisobga olish kerakki, "aqliy hujum" usulidan foydalanish butun mashg'ulot davomida amalga oshirilmaydi, ammo undan foydalanish, masalan, talabalarning miya faolligini oshirish uchun istiqbolli yo'nalish hisoblanadi. o'qituvchi uchun faoliyat.

2. Muammoli ta'lim. Ushbu innovatsion texnologiya aqliy hujumga biroz o'xshaydi, lekin faqat umumiy ma'noda. Agar miya hujumi muammoni tezda hal qilishni nazarda tutsa, muammoli ta'lim boshqa texnologiyaga asoslanadi. Shunday qilib, o'qituvchi ko'pincha munozarali va aniq "to'g'ri" javobga ega bo'lmagan muammoli savollardan foydalanadi - ularga qarshi talabalar asta-sekin, bosqichma-bosqich, ko'pincha mavjud bo'lgan ko'plab variantlardan faqat bittasi bo'lgan muammoni hal qilish tomon harakat qilishadi. Ushbu texnologiyadan foydalanishda o'quvchining faol pozitsiyasi va jamoaviy nuqtai nazarni shakllantirish ham alohida o'rin egallaydi - ba'zi talabalar muhokama davomida bir xulosaga kelishadi, boshqalari esa muhokama maydonini yaratadi. Shu bilan birga, muammoli ta'lim o'qituvchi tomonidan aqliy hujumga qaraganda ko'proq vaqt davomida qo'llanilishi mumkin, chunki agar aqliy hujumning mohiyati muammoning nostandart yechimini tezda shakllantirishdan iborat bo'lsa, o'qituvchi tomonidan aqliy hujumga qaraganda uzoqroq vaqt davomida foydalanish mumkin. keyin muammoli ta'lim muammoning eng to'liq (aniq va rejalashtirilgan) kompleks yechimini shakllantirishga qaratilgan [2].

3. Repetitor yordami. Ushbu turdagi innovatsion ta'lim texnologiyalari o'quvchilarning mustaqil faoliyatini tashkil etish usuli bo'lib, uning natijalari va natijalari o'qituvchi bilan qo'shimcha muhokama qilinadi. Repetitorni qo'llab-quvvatlashni tashkil etishda o'qituvchining roli - yordamni tashkil qilish, natijaga bosqichma-bosqich harakat qilish, shuningdek, to'liq mustaqillikni joriy etish orqali talabaning motivatsiyasini oshirish bilan talabaning kognitiv qiziqishiga asoslangan vaziyat va umumiy sharoitlar yaratish. [4].

4. Flipped learning. Ushbu innovatsion ta'lim texnologiyasi hozirgi bosqichda eng istiqbolli va dolzarb hisoblanadi; uning mohiyati o'qituvchi va talabalarning "rollar almashishi"da yotadi, bunda barcha ma'ruza materiallari talabalar tomonidan amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rishda qulay (darsdan bo'sh) vaqtda mustaqil ravishda o'rganiladi, bunda talabalar amaliy topshiriqlar, laboratoriya ishlarini bajaradilar. va o'qituvchi bilan birgalikda faol madaniy va ijodiy tadbirlarda ishtirok etish. Ta'kidlash joizki, flipped ta'lim o'quv jarayoniga Internet texnologiyalarini faol joriy etishni ham o'z ichiga oladi, bunda ta'lim mazmuni o'quv quroliga aylanadi. Shu bilan birga, teskari ta'lim hali ham o'qituvchining nafaqat qo'shiqchi sifatida, balki o'quv jarayonining faol ishtirokchisi sifatida ishtirok etishini ham o'z ichiga oladi - u barcha ma'ruza materialini zamonaviy texnologiyalar orqali shakllantiradi va ularni talabalarga yo'naltiradi, masalan, video materiallar, matnlar, fayllar, kitoblar shaklida, turli onlayn tarmoq resurslari yoki platformalar orqali, masalan, EIOS, Moodle [3]. Shuni ham hisobga olish kerakki, ushbu yondashuv elektron ta'lim muhiti orqali o'tkaziladigan o'quv mashg'ulotlari soatlari sonining potentsial ko'payishini, ularning amaliy mashg'ulotlar bilan munosabatlarini to'g'irlash imkoniyatini nazarda tutadi.

5. Munozara. Ushbu o'quv texnologiyasi nafaqat innovatsion, balki o'yin texnologiyalariga ham tegishli bo'lib, oldindan belgilangan qoidalar va tartiblarga muvofiq muhokama sessiyasini o'tkazishni o'z ichiga oladi. Munozarani tashkil etishning asosi bo'lib o'quvchilarning oldindan o'rganadigan oldindan tayyorlab qo'yilgan mavzu bo'lib, bu ularga mustaqil ravishda muhokamaga tayyorlanish imkonini beradi. Albatta, bahslar, birinchi navbatda, talabaning shaxsiy va

kommunikativ fazilatlarini shakllantirishga yordam beradi, ma'lumotni etkazish va taqdim etish qobiliyati, ishonchli manbalardan tayyorlanish va h. k.

6. VR texnologiyalari. Ushbu ta'lim sohasi, ayniqsa, kasb-hunar ta'limi tizimi uchun eng istiqbolli va zamonaviy yo'nalishlardan biridir. Ushbu texnologiyaning joriy etilishi nazariy jihatdan qaraganda amaliy xarakterga ega bo'lib, o'yin simulyatorlari va VR ta'lim texnologiyalaridan foydalanish orqali o'quvchilar faoliyatini tashkil etish imkonini beradi. Talabaning faol faoliyati nazariya va amaliyot o'rtasidagi bog'liqlik tamoyiliga asoslanadi, bunda ikkinchisi zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish orqali amalga oshiriladi. Qimmatbaho asbob-uskunalarni doimiy yangilab turishni talab qiladigan tor profilli fanlar bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash tizimini ko'rib chiqsak (masalan, dastgohlar) - VR texnologiyalarini joriy etish istiqbollari nisbatan arzon alternativaga aylanmoqda. Shuni ta'kidlash kerakki, VR-texnologiyalar ham foydalanishda ba'zi cheklovlarga ega bo'lib, ular foydalanish vaqtini cheklash, o'quvchilarning sog'lig'i, maxsus dasturiy ta'minot, simulyator dasturlarini ishlab chiqish, etarlicha kuchli kompyuter uskunalari mavjudligi va boshqalar bilan bog'liq. Yuqoridagi barcha cheklovlarni chetlab o'tib, ushbu innovatsion ta'lim texnologiyasini keng joriy etish istiqboli nafaqat talabalarda qiziqish va motivatsiyani oshirishga, balki nazariy bilimlarni mustahkamlash bilan amaliy ko'nikma, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishga yordam beradi.

7. Masofaviy ta'lim. Ushbu turdagi interfaol ta'lim texnologiyalari o'qituvchining o'quv jarayonini tashkil etishda ijodkorligi uchun katta imkoniyatlarga ega. Masofaviy texnologiyalar yuqoridagi deyarli barcha interaktiv texnologiyalarni bog'lash va birlashtirish hamda o'quv jarayoni jarayonida ularni birlashtirish imkonini beradi. Shu bilan birga, ularni amalga oshirish uchun har bir talaba mustaqil ishlash, faollik, o'z-o'zini tashkil qilish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak; yuqori motivatsion fon talab qilinadi [7]. Masofaviy ta'limning o'ziga xos afzalliklari va kamchiliklari mavjud bo'lib, o'qituvchi ularni o'quv jarayoniga boshqa texnologiyalarni joriy etish orqali qoplashi mumkin. Shunday qilib, masofaviy ta'limning asosiy afzalliklari quyidagilardir: talabaning ma'lum bir joy va vaqtga bog'lanishining yo'qligi, Internet orqali ma'lumotlarga kirish erkinligi, kunduzgi ta'lim bilan birlashtirish imkoniyati, moslashuvchanlik va yuqori moslashuvchanlik, ommaviy xarakter. Shunday qilib, Yuqoridagi innovatsion ta'lim texnologiyalari kasbiy tayyorgarlikning umumiy tamoyillariga rioya qilish asosida mutaxassislarni ham shaxsiy, ham kasbiy tayyorlashning yaxlit tizimini qurishning ajralmas qismi hisoblanadi. Shunday qilib, rivojlantirish uchun eng dolzarb va istiqbolli ta'lim texnologiyalari quyidagilardir: teskari ta'lim, VR-ta'lim, masofaviy ta'lim, ularning har biri o'quv jarayonini to'g'ri tashkil etish bilan nafaqat ta'limga innovatsiyalarni sifatli joriy etishga hissa qo'shadi. samaradorlikni oshirishda, balki barkamol, moslashuvchan va harakatchan mutaxassislarni tayyorlashning umumiy tizimlarini shakllantirishda ham ifodalanadi [6].

Demak, ta'lim jarayoniga innovatsion ta'lim texnologiyalarini joriy etish o'qituvchidan alohida prognostik, tashkiliy, ijodiy va boshqa qobiliyatlarni, talabalarni faol o'quv va kognitiv faoliyatga jalb qilish uchun yuqori motivatsiya bilan birgalikda, uning doirasida bilim, ko'nikma, ko'nikma va malakalarni shakllantirish amalga oshiriladi. Shu bilan birga, o'qituvchi o'quv jarayonini aniq rejalashtirishi kerak - yuqoridagi texnologiyalarning ba'zilar qisqa muddatli foydalanish istiqboliga ega (masalan, aqliy hujum) va o'qituvchi tomonidan doimo foydalana olmaydi, chunki. natijada ularning umumiy ishlashi pasayadi.

Demak, o'qituvchi faol ta'lim faoliyatini olib borishda zamonaviy voqelikka aniq va o'z vaqtida moslashishi kerak.

Adabiyotlar:

1. Boluchevskaya O. A. Innovatsion ta'lim texnologiyalari // Psixologiya va pedagogika: metodologiya va amaliy qo'llash muammolari. - 2010. - 15-son. - S. 285-286.

2. Braun A., Bimrose J. Innovatsion ta'lim texnologiyalari // Rossiyada oliy ta'lim. - 2007. - 4-son. - S. 98-100.

3. Vinnikova I. S. "Sug'urta tashkilotida moliyaviy tahlil" fanini o'rganishda Moodle elektron ta'lim muhitidan foydalanish xususiyatlari // To'plamda: Rossiyada moliyaviy xizmatlar tizimida sug'urta: o'rni, muammolari, transformatsiyasi. XVIII Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari: 2 jildda. - 2017. - S. 216-220

4. Demina O. S. Innovatsion ta'lim texnologiyalari // Innovatsiyalarni boshqarish: nazariya, metodologiya, amaliyot. - 2014. - 9-son. - S. 127-131.

5. Demtsura S. S., Plujnikova I. I., Gordeeva D. S., Yakupov V. R., Alekseeva L. P. Zamonaviy innovatsion ta'lim texnologiyalari // BGJ. - 2020 yil - 4-son (33). - S. 57-61.

6. Urakova E. A. Uzluksiz ko'p bosqichli oliy kasbiy ta'limning o'ziga xos xususiyatlari // Kasbiy va pedagogik muammolarni hal qilishda innovatsion yondashuvlar. Butunrossiya ilmiy-amaliy konferentsiyasi materiallari asosida maqolalar to'plami. Minin universiteti. - 2021. - S. 55-57.

7. Xijnaya A. V., Beketova Yu. A., Zaxarova N. A. Kasb-hunar ta'limida ta'lim texnologiyalari // To'plamda: Ijtimoiy va texnik xizmatlar: muammolar va rivojlanish yo'llari. VI Butunrossiya ilmiy-amaliy konferentsiyasi materiallari asosida 307-maqolalar to'plami. Minin universiteti. - 2019. - S. 55-57.

8. Hijnaya A. V., Maksimova K. A., Bakulina N. A. O'quv platformasi moodle asosida talabalarning mustaqil ishini tashkil etish // To'plamda: Kasbiy va pedagogik muammolarni hal qilishda innovatsion yondashuvlar. Butunrossiya ilmiy-amaliy konferentsiyasi materiallari asosida maqolalar to'plami. Minin universiteti. - 2019. - S. 197-201 y.

TA'LIM OLISH SHAKILLARI VA MASAFAVIY TA'LIM

Mardonqulov Jasur Amirdidinovich

Jizzax viloyat xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi "Aniq va tabiiy fanlar metodikasi" kafedrasi katta o'qituvchisi.

Email: jasurmardonqulov@gmail.com, tel: +99899 356 05 90

Аннотация: В данной статье выражена основная мысль о том, что в век информационных технологий быстро и качественно доставлять информацию.

Annotation: This article expresses the main idea that in the age of information technology, quickly and efficiently deliver information.

Kalit so'zlar: axborot, texnologiya, axborot savodxonlik, audiokonferensiya, videokonferensiya.

Ключевые слова: информация, технология, информационная грамотность, аудиоконференция, видеоконференция.

Key word: information, technology, information literacy, audioconference, videoconference.

O'bekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xalq ta'limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 25-yanvardagi PQ-4963-son hamda Vazirlar Mahkamasining "Xalq ta'limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" 2022-yil 17-yanvardagi 25-son qarorida xalq ta'limi tizimi rahbar va mutaxassis xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirishga qo'yiladigan majburiy talablarni belgilaydi.

Uzluksiz kasbiy rivojlantirishda ta'lim olishning quyidagi shakllaridan foydalaniladi:

ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta'lim olish;

ishlab chiqarishdan ajralmagan holda ta'lim olish;

masofaviy ta'lim;

dual ta'lim;

mustaqil ta'lim;

malaka oshirishning muqobil shakllari.

Masofaviy ta'lim o'quv rejalari va dasturlariga muvofiq ta'lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko'nikmalarni axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda internet jahon axborot tarmog'idan foydalangan holda masofadan turib olishni nazarda tutadi.

Axborotlashgan jamiyat asrida axborotning tez va sifatli aylanishini ta'minlash mamlakat taraqqiyoti va ravnaqining bosh mezoniga aylanmoqda. Axborot texnologiyalarining jamiyat har bir sohasiga keng ko'lamda kirib kelishi ular faoliyati samaradorligining oshib borishiga xizmat qilmoqda.

Jumladan, o'qituvchilarni kompyuter savodxonligi va internet tarmog'idan foydalanish bilim va ko'nikmalariga ega bo'lishi zamonaviy o'qituvchiga o'z axborot-ta'lim muhitini kengaytirish, kasbiy rivojlanish va mustaqil ta'lim olishi uchun sharoitlar yaratish, respublikamizdagi barcha axborot sayt va resurslaridan o'z pedagogik faoliyatida foydalanish, hamkasblari bilan muloqot qilish, dolzarb masalalar muhokamasida ishtirok etish, tar-moqning turli: elektron pochta, telekonferensiya, chat, forum va shu kabi tadbirlarida ishtirok etish, hamkasblari bilan muloqot qilish, dolzarb masalalar muhokamasida ishtirok etish, o'zining tajribasiga asoslangan ishlanmalarini Internet tarmog'iga joylashtirish va ommalashtirish, masofadan o'qish va bilim olish imkoniyatini beradi.

Axborot texnologiyalarini oliy ta'lim, xususan ta'lim muassasalarida auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarda elektron qo'llanmalar, virtual stendlar, internet tarmog'i imkoniyatlaridan foydalanilgan holda masofaviy ta'limni joriy etish orqali izchil nazariy hamda amaliy tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ta'lim jarayonida masafaviy ta'lim usulidan foydalanish masalasiga asosan jahon miqyosida yangi pedagogik texnologiyalarga o'tish bilan bog'liq muammasi sifatida e'tibor qaratilmoqda.

Masofaviy ta'limning imkoniyatlaridan foydalanish yuqori natija beradi, deb hisoblaymiz. Masofaviy ta'lim – bu turli geografik mintaqalarda joylashgan o'quvchi, talaba va tinglovchini bir-biri bilan bog'lovchi jarayon bo'lib, o'zaro aloqalar maxsus texnologiyalar yordamida amalga oshirilib, unda pochta, telefaks orqali tipografik bosma materiallar almashish, audiokonferensiya, videokonferensiya, kompyuter orqali virtual konferensiya kabi turlicha qo'llaniladi. [3]

Masofadan o'qitish shakli bo'yicha malaka oshirishda dars mashg'ulotlari professor-o'qituvchining tinglovchilar bilan internet jahon axborot tarmog'i orqali interaktiv dasturiy tizimlardan foydalangan holda (real vaqt rejimida) jonli muloqot tarzida amalga oshiriladi.

Mashg'ulotlarning bir qismi tinglovchilar bilan kontakt-sessiyalar (auditoriyadagi yuzma-yuz muloqot) tarzida amalga oshirilishi mumkin.

Ta'lim muassasasidan uzoqda yashovchilar qatnab o'qish uchun sharoiti bo'lmaganlar, malakasini oshirishni xohlovchilar, nogironlar va yana boshqa turli sabablarga ko'ra, bevosita oliy ta'lim muassasalarida bilim olish imkoniyatiga ega bo'lmaganlar o'rtasida masofadan turib, bilim va ta'lim olishga talab ortib borishi tabiiy. Ayniqsa ish bilan band bo'lgan katta yoshdagi kishilar, ikkinchi mutaxassislik bo'yicha ta'lim olishni xohlovchilar uchun masofaviy ta'lim qulay vositadir. O'zbekistonda masofaviy ta'lim tizimining rivojlanishi, xalqimizga faqat sifatli ta'lim berishnigina ta'minlab qolmasdan, u yana mamlakatimizning ta'lim xizmatlari xalqaro bozorida o'z o'rnini egallashiga ham imkon yaratadi.

Axborot olamida o'zining muhim o'rniga ega bo'lib borayotgan iqtisodiy rivojlanishning yangi bosqichi inson hayotida tanlagan kasblarini qayta o'zgartirishlari va muntazam ravishda, malakalarini oshirib borishlarini talab etmoqda. Shuning uchun ham ta'lim sohasi ham jamiyat hayotining iqtisodiy sohasida o'ziga xos ahamiyatga ega bo'lib, ta'lim faoliyati esa, jamiyat iqtisodiy rivojlanishining muhim bo'lagi bo'lib qolmoqda. Bugungi kunda O'zbekistonda masofaviy ta'lim tizimida asosan, aholining quyidagi qatlami muhimdir:

- kichik shahar, tuman va qishloqlardagi o'rta umumta'lim maktablari o'quvchilari;
- turli darajadagi menedjerlar;
- boshqaruvning hududiy tashkilotlari rahbarlari;
- harbiy xizmat zobitlari tarkibi;
- mehnat birjalarida ro'yxatdan o'tgan, ishsiz va ish joyi qisqartirilgan kishilar;
- ikkinchi oliy ma'lumot olmoqchi bo'lgan yoki kasbini o'zgartirmoqchi bo'lgan kishilar;
- ilmning biror-bir sohasida o'z malakasini oshirish istagi bo'lgan kishilar;
- nogironlar muhtoj hisoblanadi. [3]

Masofadan o'qitish shakli bo'yicha o'qitish jarayonida tinglovchilar faoliyati nazorati, ta'lim jarayonini muvofiqlashtirish va boshqarish ixtisoslashtirilgan ta'lim tashkiloti tomonidan amalga oshiriladi.

Masofadan turib amalga oshiriladigan o'quv kursi dasturini to'liq o'zlashtirgan tinglovchilarga belgilangan hajmdagi kredit ballari beriladi.

Adabiyotlar

- 1) O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni 2020-yil 23-sentabr.
- 2) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xalq ta'limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 25-yanvardagi PQ-4963-son qarori.
- 3) Vazirlar Mahkamasining "Xalq ta'limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" 2022-yil 17-yanvardagi 25-son qarori.
- 4) A.N.Aripov, T. K.Iminov "O'zbekiston axborot-komunikatsiya texnologiyalari sohasi va menejment masalalari" O'zbekiston. Toshkent-2005. 98-bet.

www.lex.uz

www.masofa.uzedu.uz

www.ziyonet.uz

TA'LIM JARAYONIDA KORPORATIV TARMOQ TEXNOLOGIYALARINING O'RNI

Taniberdiev Akbarjon Abduganievich,

Guliston davlat universiteti katta o'qituvchi,

E-mail: akbargdu@mail.ru

Annotatsiya: Maqolada ta'lim jarayonida korporativ tarmoq texnologiyalariga asoslangan axborot-metodik ta'minotni yaratish va ta'lim portalida masofali o'qitishni tashkil qilishda umumlashtirilgan o'qitish texnologiyalari va tizimlarini yaratish, tashkil etilgan ta'lim portalini imkoniyatlari haqida fikrlar bayon qilingan.

Аннотация: В статье рассматривается создание информационно-методического обеспечения на базе корпоративных сетевых технологий в образовательном процессе и создание обобщенных технологий и систем обучения при организации дистанционного обучения на образовательном портале, возможности созданного образовательного портала.

Abstract: The article discusses the creation of information and methodological support based on corporate network technologies in the educational process and the creation of generalized technologies and learning systems for organizing distance learning on an educational portal, the possibilities of the created educational portal.

Jahonda yosh avlodni intellektual rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan elektron o'quv-metodik resurslarni shakllantirish, ta'lim sifatini oshiruvchi mexanizimlarni yaratish, ta'lim sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bugungi kunda mustaqil ta'lim olish imkonini beruvchi matnli kontent, audio, videomateriallar, ta'lim beruvchi funktsiyalarini to'liq takrorlay oluvchi sun'iy intellekt elementlarini qo'llash, ta'lim oluvchilarning istalgan joydan masofaviy ta'lim resurslaridan foydalana olish imkoniyatlarini kengaytirish bo'yicha ilmiy-tadqiqotlarga alohida e'tibor berilmoqda.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda ta'lim tizimiga raqamli texnologiyalarni joriy etish bo'yicha me'yoriy hujjatlar ishlab chiqilmoqda. Amalga oshirilayotgan ishlar portal texnologiyalariga asoslangan axborot-metodik ta'minotni yaratish va rivojlantirishning kontseptual tamoyillarini aniqlashtirish, fanlar bo'yicha integrallashgan o'quv-ilmiy resurslarni yaratishga qo'yiladigan talablarni takomillashtirish, fanlarning o'quv-metodik resurslarini optimal taqdim etish imkoniyatini yaratuvchi portal tarkibiy tuzilmasini hamda uning dasturiy platformasini ishlab chiqish, portal texnologiyalariga asoslangan axborot-metodik ta'minotdan ta'lim jarayonida foydalanish metodikasini takomillashtirish, sohada keng qamrovli islohotlarni amalga oshirish, fanlar bo'yicha yaratilayotgan axborot ta'lim resurslari hamda metodik ta'minotni yagona tizimga soluvchi, portal texnologiyalariga asoslangan axborot-metodik tizimni ishlab chiqish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Korporativ so'zi korporatsiya so'ziga mos kelib, lotincha "corporatio" - birlashma, uyushma, hamjamiyat degan ma'nolarni bildiradi. Korporativ tarmoq deganda katta tashkilotning mahalliy tarmog'i tushuniladi. Korporativ tarmoq ya'ni korxona tarmog'ida korxonada bajarilayotgan barcha ishlarni avtomatlashtirish jarayoni amalga oshiriladi.

Ta'lim muassasalarida korporativ tarmoq asosida tashkil etilgan ta'lim portalida masofali o'qitishni tashkil qilishda umumlashtirilgan o'qitish texnologiyalari va tizimlarini yaratish muhim ahamiyatga ega. Umumlashtirilgan o'qitish texnologiyalari va tizimlariga ta'lim portalida joylashtirilgan o'quv dasturlari, rejalar, darsliklar, o'quv va metodik qo'llanmalar, seminar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarining mazmuni, test tizimlari majmuasini keltirish mumkin.

Korporativ tarmoq asosida tashkil etilgan ta'lim portali masofali ta'lim tizimining rivojlanishiga, shu bilan birga, uning asosiy vositasi hisoblanib, masofali ta'limning tashkiliy-uslubiy va me'yoriy-huquqiy bazasining rivojlanishiga, ta'lim oluvchilar va pedagoglarni mutlaqo yangi vositalar bilan ta'minlashga, pedagogik tadqiqotlarni rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Korporativ tarmoq asosida tashkil etilgan ta'lim portallariga masofali o'qitish amalga oshiriladigan ta'lim muassasalari o'quv jarayonini tashkil etish va boshqarish, uning tuzilmalari, moliyaviy-xo'jalik ishlarini yuritish, o'quv reja va dasturlar, o'quv materiallari, testlar va boshqalar haqidagi veb saytlar majmuasi joylashtiriladi

Korporativ tarmoq asosida tashkil etilgan ta'lim portali quyidagi imkoniyatlarga ega:

- fan bo'yicha ta'lim mazmuniga ega bo'lgan axborot resurslar;
- turli yo'nalishlar bo'yicha o'quv kurslari;
- teskari aloqani ta'minlash;
- kerakli axborotlarni tez topishga yordam berish;
- gipermatnli tushuntirishlarga ko'p marta murojaat qilishda vaqt hisobini e'tiborga olish;
- ekranga ma'lumotlarni chiqarishda kompyuterning multimediali imkoniyatlaridan foydalanish;

- predmetning har bir bo'limi bo'yicha o'quvchilarning o'zlashtirish darajalariga mos holda bilimlarini baholay olish;

- predmetning o'quv axborot bazalarini yangilash imkoniyatini yaratish va boshqalar.

Xulosa o'rnida ta'lim jarayonida korporativ tarmoq texnologiyalaridan foydalanish ta'lim muassasalarida yagona axborot ta'lim muhitini bosqichma-bosqich shakllantirishga yo'naltirilib, ta'lim va tarbiyaviy, ilmiy, boshqaruv va boshqa jarayonlarda axborot almashish intensivligini oshirish, avtomatlashtirish imkonini beradi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Abduqodirov A. A., Pardaev A. X. Masofali o'qitish nazariyasi va amaliyoti. Monografiya. T.: Fan. 2009. -146 b.

2. D. E. Toshtemirov. Ta'lim portali: yaratish tamoyillari, mazmuni va foydalanish metodikasi. Monografiya. Guliston sh. 2015. - 156 b.

3. S. X. Dottoev. Ta'lim jarayonlarining axborot-metodik ta'minotini amalga oshirishning portal texnologiyalari. P. f. f. dok... dis. avtoref. – T: TDPU, 2021. 45 b.

TA'LIM SIFAT VA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O'RNI

Norbekov Doston Keldibekovich

Jizzax VXTXQTMOHM katta o'qituvchi

norbekovdoston@gmail.com

Hozirgi kunda umumiy o'rta ta'limning biror o'quv fanini to'liq ravishda yoki uning qaysi qismini AKTdan foydalanib o'tsa qanday samara berishini, yoki AKTni qo'llashning pedagogik tamoyillarini, uning psixologik xususiyatlarini, uning bilish jarayoniga ta'sir qilish mexanizmi va omillarini, shuningdek yana boshqa ko'p jihatlarini kompleks tadqiq qilish dolzarb bo'lib bormoqda.

Bu esa ta'lim tizimida, xususan o'quv jarayonlarini tashkil etish va amalga oshirish, o'quv-uslubiy ta'minotni rivojlantirish, ayniqsa o'quv mashg'ulotlarini o'tish va o'zlashtirish samaradorligini oshirish borasida yangicha mazmun va mohiyat shakllanishiga asos yaratmoqda.

Bunday ulkan vazifani muvaffaqiyatli amalga oshirishda o'qituvchi va talabalarga davlat tilida kerakli o'quv adabiyotlarini yetkazish alohida ahamiyatga ega.

Uslubiy ko'rsatma umumta'lim maktablarida faoliyat ko'rsatayotgan o'qituvchilari uchun

mo'ljallangan bo'lib, unda ta'lim tizimida, xususan o'quv jarayonlarini tashkil etish va amalga oshirish, o'quv-uslubiy ta'minotni rivojlantirish, ayniqsa o'quv mashg'ulotlarini o'tish va o'zlashtirish samaradorligini oshirish borasida yangicha mazmun va mohiyat shakllanishiga bilimlarni o'z ichiga olgan.

Ta'lim tizimida multimediali o'quv kurslarini yaratish va foydalanish samaradorligi

Ta'lim sohasidagi barcha islohatlarning asosiy maqsadi ma'naviy jihatdan mukammal rivojlangan insonlarni tarbiyalash, ta'lim tizimini takomillashtirish, dars jarayonlarini yangi pedagogik va axborot texnologiyalari asosida har tomonlama zamon talabiga mos ravishda amalga oshirishdan iboratdir. Shuning uchun ham bugungi kunda ta'lim - tarbiya tizimida kompyuter va axborot texnologiyalarining zamonoviy texnologiyalaridan samarali foydalanishga alohida e'tibor berilmoqda. Bu esa ta'lim jarayonida o'quvchilarga turli fanlardan bilim beruvchi pedagog kadrlarni axborot texnologiyalarining zamonaviy vositalaridan foydalanishlari uchun, eng avvalo bu sohadagi bilim va malaka darajalarini oshirish, ta'lim tizimini texnik jihatdan ta'minlash, internetdan foydalanish imkoniyatlarini to'la yaratib berish orqaligina samarali natijaga erishish mumkin.

Ta'lim tizimi sifati va samaradorligini oshirishning asosiy usul-laridan biri o'quv jarayonida zamonaviy axborot kommunikasion texnologiyalarni, shu jumladan multimediyali o'quv kurslarini qo'llash, o'qituvchi va o'quvchining interfaol o'zaro aloqalarini ta'minlash, multimediali o'quv kurslari va darsliklarini ishlab chiqishda yuqori malakali kadrlarni jalb etishdan iborat bo'ladi.

Multimedia axborotlarni har xil ko'rinishlarda tasvirlash va dinamik obrazlarini yaratish, uni ko'rish va eshitish organlari orqali qabul qilish va tasavvur etish imkoniyatlarini yaratadi.

Multimedia texnologiyalarida an'anaviy texnologiyalarga qaraganda axborotlar matn ko'rinishda emas, balki tasvir, ovoz va harakatlar ko'rinishida ifodalanilishi o'quvchilarni darslarda faolroq, diqqatliroq intiluvchan va qiziquvchan bo'lishga o'rgatadi, chunki tavsiya qilinadigan har bir axborot ularning ishtiroki va harakati orqali amalga oshiriladi.

Ta'lim tizimida multimedia texnologiyalari nazariy, amaliy, ko'rgazmali, ma'lumotli, trenajyorli va nazorat qismlarini birlashtirish yo'li bilan o'quvchilarga ijobiy va samarali ta'sir etuvchi vosita hisoblanadi. Bundan tashqari ta'lim tizimida multimediali o'quv kurslaridan foydalanish nazariy materiallarning namoyishlarini sifatli video yozuvlari, virtual laboratoriya ishlari va amaliyotlarni, turli jarayonlarning imitasion animasiyali modellarini yaratish imkonini beradi, bu uchun o'quvchilarning o'quv sinflari, kompyuter sinflari, o'qitishning texnik vositalari xonasida, uslubiy xonalarda, kutubxonalarda amaliy shug'ullanishlarini tashkillashtirish lozim bo'ladi.

Ta'lim tizimida foydalaniladigan barcha multimediali o'quv kurslari amaliy tadbiquddan va tajribadan o'tgan bo'lishi bilan birga, o'ziga xos pedagogik-psixologik xususiyatlarga ham ega bo'lishi kerak.

Multimediali o'quv kurslarining pedagogik-psixologik xususiyatlari bilim va ko'nikmalarni shakllantirish uchun foydalaniladigan o'quv materiallarining tasvirlanish hamda ifodalanish formasiga va ko'rinishiga bog'liq bo'ladi. Ular faqatgina misol va masalalar yechish, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini bajarish jarayonidagina emas, balki butun o'quv jarayonida o'quvchilarni bilim, malaka va ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilishi lozim.

Ta'lim tizimida yaratilayotgan multimedia o'quv kurslarining asosiy xususiyatlaridan biri, shu mavzuni o'rganishning ma'lum bir nozik jihatlari bilan aniqlanadi, ular esa o'z navbatida katta sondagi ko'rgazmali materiallarni talab qiladi, chunki ularning ishtirokisiz jonli dunyoning turli tumanligini, uni qurishni zarurligini, biologik, ximik va fizika jarayonlarning hosil bo'lish mexanizmini va rivojlanishini to'liq namoyish qilib bo'lmaydi.

Ta'lim tizimi uchun multimediali o'quv kurslarini yaratishda shu sohaning asosiy didaktik masalalaridan biri – o'qitishni modellashtirish va tasavvurlash obyektlariga ta'sir qilishning umumiy metodlari muhim o'rinlardan birini egallaydi.

Multimedia o'quv kurslari avvalgi tradision o'quv qo'llanmalardan ko'p jihatlari bilan farq qiladi. Shu jumladan, o'quv materiallarini o'quvchilarga tavsiya etish multimediali: grafika, animasiya, video, ovozli va tovushli harakatlar, real voqeya va hodisalarni modellashtirish kabi boshqa ko'plab elementlar orqali amalga oshiriladi, chunki ular natural obyektlar va ko'rgazmali qurollarning kamchiliklarini ma'lum bir miqdorda yoki to'liq qoplash imkonini beradi. Bu esa

o'quvchilarni o'rganayotgan mavzular bo'yicha bilim va malakalarni shakllantirishda va mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega bo'ladi. chunki ular natural obyektlar va ko'rgazmali qurollarning kamchiliklarini ma'lum bir miqdorda yoki to'liq qoplash imkonini beradi. Multimedia o'quv kurslarida o'quv materiallarini to'ldiruvchi va uning qabul qilish darajasini oshiruvchi ko'rgazmali vositalari alohida jadvallar, grafik sxemalar, rasmlar va boshqalardan iborat bo'lgan slaydlar, videofilmlar va boshqa shunga o'xshash ko'rgazmali nazariy materiallar orqali tasvirlanilishi mumkin.

Multimedia o'quv kurslarini yaratishda va ulardan foydalanish lokal kompyuter va Internet tarmog'i keng imkoniyatlarni ochib beradi. Multimediali o'quv kurslarini butun dunyo kompyuter tarmog'iga joylashtirilishi, ulardan o'quv jarayoni foydalanishda to'g'ridan-to'g'ri murojoat qilish, o'quvchilarga axborotlarni topish, izlash va o'rganish faoliyatini shakllantirish va kengaytirish imkoniyatlarini yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, multimedia o'quv kurslarini yaratishda eng avvalo turli dasturiy vositalar bilan yaratiladigan interfaol komponentalarga asosiy e'tiborni qaratish lozim.

BULUTLI XIZMATLAR VAULARDAN TA'LIM JARAYONIDA FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Avazov Tohir Shakarovich

Jizzax VXTXQTMOHM katta o'qituvchisi

avazovtohirshakarovich2507@gmail.com

Annatsiya: *Ushbu ishda bulutli texnologiyalarni ta'lim jarayonida qo'llashning imkoniyatlari qarab chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *ta'lim jarayoni, bulutli texnologiyalar, bulutli xizmat, Google xizmatlari, internet.*

Mamlakatning jadal rivojlanishi ta'lim sohasidagi o'zgarishlarga olib keladi, bu axborotlashtirish jarayonida eng aniq ifodalanadi.

Zamonaviy texnik vositalarning xarakteristikalarini deyarli har kuni o'zgarib, takomillashib bormoqda va har qanday ta'lim muassasasi o'zining texnik bazasini zamonaviy kompyuterlarning tez o'zgaruvchan imkoniyatlariga mos ravishda yangilashi va o'quv jarayonini kompyuter texnologiyalaridagi eng so'nggi yangiliklar bilan ta'minlay olishi dargumon.

Xuddi shu holat dasturiy ta'minot bilan bog'liq bo'lib, u talabalar uchun axborot xizmatlarini ko'rsatish uchun katta moddiy xarajatlarni talab qiladi. Rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, yuqoridagi muammolarni hal etishning eng zo'r yechimi ta'lim jarayoniga "bulutli hisoblash"ni joriy etishdir.

"Bulutli hisoblash" (inglizchadan Cloud computing, shuningdek, "bulutli (tarqalgan) ma'lumotlarni qayta ishlash" atamasi ishlatiladi) ostida kompyuter resurslarini foydalanuvchiga internet xizmati ko'rinishida taqdim etish.

Bulutli xizmatlar konsepsiyasi maktab tomonidan foydalaniladigan resurslarni ishlab chiqarish, texnik xizmat ko'rsatish, qayta ishlash va xavfsizligi uchun asosiy yukni axborot infratuzilmasidan tarmoq xizmatining ma'lumotlar markazlariga (ma'lumotlarni saqlash va qayta ishlash markazlari) o'tkazish g'oyasiga asoslanadi.

Bu g'oya hammaga ma'lum – Gmail. com, Mail. ru. Yandex. ru va boshqalarda Webmail akkauntiga ega bo'lgan barchamiz bulutli elektron pochta xizmatidan foydalanamiz.

Google, Yandex yoki Amazon kabi internet gigantlari maktab tarmog'i ma'murlariga qaraganda bizning ma'lumotlarni saqlash, viruslar va xakerlardan himoya qilish va qayta ishlash uchun ko'proq imkoniyatlarga ega. Oddiy foydalanuvchilar va tashkilotlar uchun bulutli tizimlarning asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat:

1) Cheksiz hisoblash quvvati - protsessorlar soni, operativ xotira miqdori va bulutli tizimlarda disk maydoni nazariy jihatdan cheklanmagan.

2) Foydalanuvchilar bulutli xizmatlarga kirish dasturiy ta'minotni mustaqil ravishda o'rnatishlari va sozlashlari shart emas, oddiy veb-brauzer bo'lsa yetarli.

- 3) Foydalanuvchilar qimmatbaho uskunalar sotib olishlari shart emas.
- 4) Ba'zi vazifalarni bajarish uchun vaqt va energiyani tejash, shuningdek, alohida hollarda, jihozlar egallagan maydon.
- 5) Tashkilotlar infratuzilmani joylashtirish xarajatlariga ega bo'lmaydi.
- 6) Tashkilotlar o'rnatilgan tizimlarni texnik qo'llab-quvvatlash va modernizatsiya qilish xarajatlarini kamaytirishdan, tizimni joylashtirishga vaqt yo'qligi sababli amalga oshirishning yuqori tezligidan foyda oladi.
- 7) Ta'lim talab etilmaydi - ko'pchilik foydalanuvchilar allaqachon veb-brauzerlar va Internet xizmatlaridan qanday foydalanishni bilishadi.
- 8) Dasturiy ta'minot xizmati sifatining yuqori darajasi - odatda bulutli tizimlarga yuqori malakali mutaxassislar xizmat ko'rsatadi.

Asosiy kamchiliklari:

- 1) Xavfsizlik bilan bog'liq muammolar tufayli barcha ma'lumotlarni uchinchi tomon provayderiga nafaqat saqlash, balki qayta ishlash uchun ham ishonib topshirish mumkin emas.
- 2) Har bir "bulut" ilovasi olingan natijalarni siz uchun qulay shaklda va kerakli ma'lumot tashuvchida saqlashga imkon bermaydi.
- 3) Bulutli provayderda texnik nosozlik tufayli foydalanuvchilar tomonidan ma'lumotlarni yo'qotish xavfi.
- 4) Erkinliklarni yo'qotish:
 - a) Ko'pgina bulutli xizmatlar aniq standartlarga ega emas. Shuning uchun, birprovayderdan boshqasiga o'tishda va provayder o'zining bulut xizmatlarini yangilaganda, muammolar paydo bo'lishi mumkin (tanlash erkinligi);
 - b) Internetga kirish zarurati. Butun sayyoramiz hali ishonchli yuqori tezlikdagi Internet (harakat erkinligi) bilan qamrab olinmagan.

Ta'limda bulutli texnologiyalardan foydalanishga misol sifatida quyidagilarni aytish mumkin:

- elektron kundaliklar;
- elektron jurnallar;
- talabalar va o'qituvchilar uchun shaxsiy kabinetlar;
- interaktiv qabul qilish;
- talabalar ma'lumot almashishlari mumkin bo'lgan mavzuli forumlar;
- talabalar o'qituvchi yo'qligida yoki uning rahbarligida ham muayyan ta'lim muammolarini hal qilishlari mumkin bo'lgan ma'lumotlarni qidirish.

Eng umumiy ma'noda, bugungi kunda bulut ichida mavjud bo'lgan ta'lim xizmatlarini uchta keng toifaga bo'lish mumkin: saqlash, ma'lumotlarni qayta ishlash va hamkorlik.

Ta'lim uchun zamonaviy bulutli hisoblash xizmatiga misol sifatida Google Apps Education Edition (ta'lim muassasalari uchun):



Google xizmatlari odamlar o'rtasidagi tarmoqqa yo'naltirilgan muloqot va hamkorlik imkoniyatlari ushbu muhitda ta'lim uchun muhimdir. Google xizmatlari sizga o'rganishni yuqori darajada differentsiallashtirish, bilim nazoratini yaxshilash, o'rganish uchun ijobiy motivatsiyani ta'minlash, o'quv jarayonini oqilona tashkil etish, dars samaradorligini oshirish, tadqiqot ko'nikmalarini rivojlantirish, turli ma'lumot tizimlari, elektron kutubxonalardan foydalanish imkonini beradi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Demina O. S. Innovatsion ta'lim texnologiyalari // Innovatsiyalarni boshqarish: nazariya, metodologiya, amaliyot. - 2014.
2. Urakova E. A. Uzluksiz ko'p bosqichli oliy kasbiy ta'limning o'ziga xos xususiyatlari // Kasbiy va pedagogik muammolarni hal qilishda innovatsion yondashuvlar. Butunrossiya ilmiy-amaliy konferentsiyasi materiallari asosida maqolalar to'plami. Minin universiteti. - 2021
3. Demtsura S. S. , Plujnikova I. I. , Gordeeva D. S. , Yakupov V. R. , Alekseeva L. P. Zamonaviy innovatsion ta'lim texnologiyalari // BGJ. - 2020 yil

ЭЛЕКТРОН ЎҚИТИШ ЖАРАЁНИДА ЎҚУВ – МЕТОДИК ТАЪМИНОТНИ ЯРАТИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ

Давронова Шахло Фармоновна

Бухоро давлат тиббиёт институти ассистенти (PhD).

E-mail: davronova.shahlo@mail.ru

Ахборот телекоммуникация соҳасидаги жиддий ўзгаришлар, хусусан ахборот технологияларининг жадал суръатлар билан ривожланиши таълим, ишлаб чиқариш ва кишилиқ жамиятининг турли жабҳаларига янги ахборот коммуникация воситаларининг кириб келишига олиб келди. Интернет глобал компьютер тармоғининг ривожланиши бутун дунё таълим тизимини такомиллаштиришнинг янги йўналишларини очилишига сабаб бўлди. Жумладан, ўқув муассасаларининг техник таъминотининг кескин ўзгариши, дунёвий ахборот ресурсларига кенг йўл очилиши ўқитишнинг янги шакл ва усулларида фойдаланиш заруратини келтириб чиқарди.

Замонавий ахборот ва коммуникация технологиялари воситаларини таълим жараёнига кириб келиши анъанавий ўқитиш усулларида кўшимча равишда янги ўқитиш шакли - электрон ўқитиш яратилишига омил бўлди. Электрон таълимда талаба ва ўқитувчи фазовий биригидан ажралган ҳолда ўзаро махсус яратилган ўқув курслари, назорат шакллари, электрон алоқа ва Интернетнинг бошқа технологиялари ёрдамида доимий мулоқотда бўладилар. Интернет технологиясини қўллашга асосланган электрон ўқитиш жаҳон ахборот таълим тармоғига кириш имконини беради. Бундай ўқитиш жараёнида талаба интерактив режимда мустақил ўқув-услубий материалларни ўзлаштиради, турли ахборот манбалари билан ишлаш ва улардан фойдаланиш малакасига эга бўлади, ўқитувчининг бевосита раҳбарлигида назорат ишларини бажаради.

Таълим тизимида электрон ўқитиш жараёнини самарали ташкил қилишда турли электрон ахборот таълим ресурслари жумладан, электрон ўқув адабиётларини яратишга алоҳида аҳамият бериш талаб этилади. Чунки, электрон ўқитиш асосан таълим олувчининг мустақил ўрганишига асосланган ўқув фаолияти ҳисобланади. Электрон ўқитишда замонавий ахборот технологияларнинг, шу жумладан, компьютернинг дастурий воситалари асосида яратилган ўқув – услубий материаллардан фойдаланишдан асосий мақсад замонавий ахборот – таълим услубини шакллантириш замонавий ахборот – педагогик, ахборот ва компьютер технологияларини қўллаш орқали таълим жараёнининг самарадорлиги, сифати ва унумдорлигини ошириш, узлуksиз таълим тизимида замонавий ўқув манбалари электрон ўқув дарсликларини кенг қўллаш, уларнинг маълум маънода кутубхоналарини ташкил этиш, таълимнинг масофадан ўқитиш усуллариини амалда жорий этиш ва умумжаҳон электрон ўқув тизимига киришдан иборат.

Узлуksиз таълим тизими учун ўқув адабиётларнинг янги авлодини яратиш концепциясида электрон дарсликка қуйидагича таъриф берилган: “Электрон дарслик – компьютер ва ахборот – коммуникация технологияларига асосланган ўқув услубини қўллашга, мустақил таълим олишга ҳамда фанга оид ўқув материаллари, илмий маълумотларнинг ҳар томонлама самарадор ўзлаштирилишига мўлжалланган электрон ўқув адабиёти ҳисобланади”. Демак, электрон дарслик яратишнинг асосий мақсади мустақил таълим олишга қаратилган экан.

Таълим тизими учун яратилган электрон ўқитиш тизимлари камида учта қисмдан

иборат бўлиши мақсадга мувофиқдир. Уларга таълим бериш, машқлар бажариш ва назорат қилиш қисмларини келтириш мумкин.

Электрон дарсликнинг таълим беришга мўлжалланган қисмида ўқув материалларини тақдим этганда, унинг ўқувчилар томонидан тушуниш даражасига алоҳида эътибор бериш керак. Тақдим этилаётган ўқув материаллари таълим олувчилар учун содда, қулай, кўргазмали ва яхши ўзлаштириш учун изоҳли маълумотлар билан тўлдирилган кўринишда тавсия этилган бўлиши, шунингдек, ўқув материалларида керакли таърифлар, таянч иборалар, калит сўзларга муружаат қилишга қўшимча имкониятлар яратилиши лозим.

Электрон ўқитиш учун яратиладиган ўқув – услубий материалларга қуйидаги талаблар қўйилади:

- фан мазмуни давлат стандартлари ва ўқув мақсадларига мос келиши;
- мустақил таълим олишни таъминлаши;
- фан бўйича етарли миқдорда маълумотларни ўзида жамлаши;
- фан бўйича машқ ва масалалар билан таъминланган бўлиши;
- бошқа фанлар билан ўзаро боғланиши;
- ўз – ўзини баҳолаш, назорат қилиш ва бошқалар.

Электрон ўқитиш учун ўқув – услубий материаллар яратиш мураккаб жараён бўлиб, уларни яратишда бир қанча турли йўналишдаги мутахассислар жалб этилади. Уларга фан ўқитувчилари, психологлар, дастурчилар, дизайнерлар, компьютер графикаси усталари кабиларни келтириш мумкин. Шунингдек, ўқув – услубий материалларни яратишда замонавий педагогик технологияларнинг ютуқларидан фойдаланиш мақсадга мувофиқдир.

Электрон ўқитиш учун яратиладиган ўқув – услубий материаллар таълим олувчиларнинг мустақил тайёргарлик кўникмаларини ривожлантиришга, ўзлаштирилган билимларни амалиёт билан боғлашга, таълим – тарбияни ўзаро уйғунликда олиб боришга, ҳамда билимларни мустаҳкамлашга хизмат қилади.

Ҳозирги кунда республикамизнинг Олий таълим муассасаларида электрон ўқитиш тизимини фанлар бўйича мустақил ишларни ташкил этишда жорий этиш - талабалар билан интерфаол мулоқот ўрнатиш, ҳар бир талабанинг қобилиятига қараб индивидуал ёндошиш, ягона ахборот-таълим муҳитидан фойдаланиш, шунингдек ўргатувчи, назорат қилувчи дастурий мажмуалардан фойдаланиш ҳамда билимлар ва маълумотлар базасидан жамoa бўлиб фойдаланиш, шунингдек талабаларнинг ахборот маданиятини шакллантириш имкониятларини беради.

Адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрьдаги “Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-5847 – сонли Фармони.

2. Davronova Sh F. The role and importance of cloud technology in ensuring the quality of education. // European journal of research and reflection in educational sciences. – vol 7.12 (2019). – Page. 820-824.

3. Davronova, S. F. (2020). ISSUES OF ENSURING THE QUALITY OF EDUCATION IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS ON THE BASIS OF ELECTRONIC RESOURCES. Scientific Bulletin of Namangan State University, 2(10), 403-409.

4. Davronova, S. (2020). APPLICATION OF ELECTRONIC EDUCATIONAL RESOURCES IN THE PROCESS OF TEACHING PROGRAMMING TO FUTURE COMPUTER SCIENCE TEACHERS. InterConf.

5. Davronova, S. F. (2020). THE ROLE AND IMPORTANCE OF ELECTRONIC EDUCATIONAL RESOURCES IN THE ACTIVITIES OF THE TEACHER. Scientific Bulletin of Namangan State University, 2(3), 457-465.

INFORMATIKADAN ELEKTRON AXBOROT-TA'LIM RESURLARI MUHITINI YARATISH VA ULARDAN TA'LIMDA FOYDALANISH METODIKASI

M. K. Ibragimova, K. A. Choriyev

Termiz davlat universiteti, o'qituvchi

mohigul9618@gmail.com

Termiz davlat universiteti, o'qituvchi

chorkamol@mail.ru

Annotatsiya: Informatikaning umumiy asoslarini o'rganish eng ommabop dasturlar bilan tanishishni o'z ichiga olishi kerak. MS Windows qobig'i va MS Office dasturiy paketi o'rganilishi lozim. Bu dasturlarni o'zlashtirishni foydalanish fani ham deb atash mumkin.

Kalit so'zlar: montaj plata, tovush plata, apparatli vosita, maxsus dastur, grafika, matn, animatsiya, multimedia, gipermatn.

Abstract: Learning the basics of computer science should include an introduction to the most popular programs. The MS Windows shell and the MS Office software package need to be explored. Mastering these programs can also be called the science of use.

Keywords: mounting board, soundboard, hardware board, special software, graphics, text, animation, multimedia, hypertext.

"Informatika" elektron axborot-ta'lim resurslarining (EATR) gipermatn hujjatlarini ishlab chiqishda quyidagi instrumental vositalardan foydalanilgan: Microsoft Front-Page (HTML-Hyper Text Markup Language), Alliare Home Site (HTML), Microsoft Power Point, Microsoft Word va boshqalar.

EATRning illyustratsion o'quv materiallarini (turli manzaralar) yaratishda, rasterli yoki vektorli rasmlar bilan ishlovchi dasturlardan foydalanish zarur bo'ladi. Ularga Corel Draw, Corel Xara, Corel Photo Paint, Adobe Photo Shop, Adobe Illustrator va boshqalar kiradi.

Shuningdek, illyustratsion o'quv materiallar-roliklarni yaratishda Web-animatsiyalardan foydalangan: Disreet 3D Studio MAX, Alais Wave Front, Maya, Light Wave, SoftImage 3d, Adobe Image Ready, Gif Animator, Macromedia Flash, Adobe Premier va boshqalar.

Tovush bilan kechadigan yozuvlar va tovushni tahrir qilish SonicFoundry SoundForge, Wave Lab, Sound Recorder va boshqa dasturlar yordamida amalga oshirilgan.

Ma'lumotlar bazasidan foydalanish zarurati tug'ilganda, Microsoft Excel kabi ma'lumotlar bazasi yordamga chaqiriladi. EATR yoxud o'quv qo'llanma uchun illyustrativ materiallarni yaratishda, shuningdek, skanerlar, videoqamrash (biror bir animatsion jarayondan zaruriy fragmentni ushlab) va montaj platalari, tovush platalari kabi apparatli vositalardan foydalaniladi.

Matnli protsessorlar va maxsus dasturlar yordamida EATRni yaratishda, o'quvchida undan qisman foydalana olmaslik bilan bog'liq muammolar tug'ilishi ham tabiiy. Gap shundaki, foydalanuvchi darslikni yaratish dasturiga ega bo'lishi zarur bo'ladi. Shuningdek, darslikni dunyo Internet tarmog'iga joylashtirish bilan bog'liq muammo ham tug'iladi.

HTML gipermatn hujjatlaridan foydalanishda bunday muammolar tug'ilmaydi, chunki HTML-Internet tizimining gipermatnli tili hisoblanadi va HTML hujjatlarini o'qish dasturi Microsoft Windows ning operatsiya tizimi tarkibiga kiradi. Ta'kidlash joizki, bunda EATRning imkoniyatlari va mukammalligi faqat dasturchining qobiliyat darajasi bilan chegaralanadi.

Multimedia - bu tovush, video, grafika, matn, animatsiyalar yordamida insonning kompyuter bilan muloqotini ta'minlovchi dasturiy va apparat vositalar majmuasi hisoblanadi. Multi- medianing tinglovchini faollashtirish, hayratlantirish imkoniyat- lari katta. Gipermatn bilan ishlash jarayonida tinglovchi ta'lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi. Gipermatnlar bo'yicha tanlangan o'tishlar orqali o'qilgan materiallardan xulosalarni chiqarish lozim bo'ladi. Multimedia va gipermatn vositalaridan foydalanish o'quv materiallarini taqdim etilish sifatini oshiradi, keng masshtabli bahslarni tashkil etadi va qulay interfeysni ta'minlaydi.

Informatikaning umumiy asoslarini o'rganish eng ommabop dasturlar bilan tanishishni o'z ichiga olishi kerak. Boshlang'ich bosqichda, albatta, MS Windows qobig'i va MS Office dasturiy paketi o'rganilishi lozim. Bunday grafik qobiqlar bilan ishlash ko'nikmasining shakllanishi kelajakda

muhim ahamiyatga ega bo'lishi mumkin, chunki oddiy va tushunarli dasturlar kompyuter texnologiyalarining amaliy metodlarini o'rganishni dastlabki bosqichida qo'l keladi. MS Office komponentlari ma'lum ma'noda universal sanalgani uchun o'quvchilar ularni o'zlashtirishlari orqali rivojlanish uchun mustahkam asosga ega bo'ladilar.

Tayyorgarlikning ikkinchi bosqichi-grafika bilan ishlashga o'rganish. Bu bosqich grafikaning turlariga mos ravishda bir qancha kichik bosqichlarga bo'linadi: rastrli; vektorli; uch o'lchamli; animatsiyali (harakatli).

O'rganish ketma-ketligi juda muhim emas, ammo animatsiya asoslari bilan tanishishni statik grafikaning barcha turlarini o'zlashtirgandan keyin amalga oshirish maqsadga muvofiq.

Birinchi bosqichdagi kabi grafikani o'rganishni eng ommaviy redaktorlardan boshlash kerak. Rastrli grafika uchun Adobe PhotoShop dasturi qo'l keladi. Bu dasturda rastrli rasmlar bilan ishlashning samarali metodlari mujassamlashgan. Bundan tashqari, mazkur dasturning oxirgi versiyalari vektorli jarayonlarning ma'lum bir imkoniyatlariga ega. Agarda boshlang'ich ko'nikmalar zaruriyati bo'lsa, u holda Windows va Office ning standart dasturlari MS Paint va MS Photo Editor dan foydalanish mumkin. Bu ikki dastur ma'lum bir doirada PhotoShopning imkoniyatlari va metodlarini takrorlaydi.

Rastrli grafika vositalarini o'rganishda urg'uni yangi tasvirlarni yaratishga emas, balki tayyor tasvirlarni tahrirlashga qaratmoq darkor. Chunki o'quvchi o'rgatuvchi dasturlarni yaratishda rassom sifatida emas, balki tahrirchi, korrektor sifatida kasbiy faoliyat olib boradi. Rastrli tahrirlagichlar birinchi navbatda skaner yordamida olingan yoki Internetdan olingan tasvirlarni tahrirlashda yordam beradi.

Ommaviyligi jihatdan Corel Draw muhariri birinchi qatorlarda turadi. Adobe firmasining yanada sodda muharir- laridan biri-Illustrator sanaladi. Bu ikki dastur vektor grafikasining keng imkoniyatli vositasini tashkil qiladi. Vektorli muharrirlar turli grafiklarni va chizmalarni yaratish va tahrirlash uchun eng yaxshi vositadir.

Uch o'lchamli grafika umumiy dasturning majburiy qismiga kirishi shart emas, chunki u faqat real ob'ektlarni modellash- tirishda ishlatiladi. Ammo 3D ni o'rganishni tabiiy-matematik yo'nalishlar bo'yicha o'qituvchilar tayyorlash kurslariga kiritish maqsadga muvofiq. Eng ko'p tarqalgan uch o'lchamli redaktorlar sifatida 3D Studio Max va Maya larni qarash mumkin. Ular uncha murakkab bo'lmagan interfeysga ega. Rastrli va vektorli grafika bilan ishlash bilimlariga ega bo'lib, uch o'lchamli grafikada ishlash ko'nikmasini tezda o'zlashtirish mumkin. Animatsiyali (harakatli) grafikani yaratishni bir-biriga yaqin interfeysga ega yuqorida keltirilgan muharrirlarda amalga oshirish imkoniyati mavjud. Ular asosan grafika turlari bilan farqlanadi: rastrli grafika uchun Adobe ImageReady, vektorli grafika uchun – Corel R. A. V. E., uch o'lchamli grafika uchun esa – 3D Studio Max o'rinli.

Keyingi bosqichda ovoz bilan ishlash metodlari o'rganiladi. Bu yerda ovozlarni yozish, tahrirlash va qayta yaratish muammolari muhim hisoblanadi. Bu muammolarni Sound Forge dasturi yordamida hal etish mumkin. Undan tashqari, mazkur dastur yordamida ovozlarni tahrirlash, ovozga maxsus effektlarni qo'shish imkoniyatlariga ham ega. Ovozlarni eshitish uchun ommabop bo'lgan Winamp dasturidan foydalanish mumkin. Ammo multimedia mahsulotlarida ovoz namoyish etiladigan dastur bilan integrallashgan bo'lib, eshitish uchun maxsus vositalarni talab etmaydi. Grafika yaratish va ovoz bilan ishlash bilimiga va metodlariga ega bo'lg'usi o'qituvchi keyingi navbatda multimedia mahsulotlarini namoyish etish va yaratish vositalarini o'rganadi. Bunga birinchi navbatda html-dasturlash, ya'ni WYSIWYG-muharriri turiga mansub MS Word, MS FrontPage, Macromedia Dreamweaver bilan ishlash, Shuningdek, murakkabroq bo'lgan multimediali interfaol namoyish yaratish dasturi bo'lgan Macromedia Flash, grafika va ovozni qayta ishlash va animatsiya yaratish dasturi bo'lgan Adobe AfterEffect va boshqa dasturlarni taklif etish mumkin. Bu bosqichda o'quvchi o'zi o'rgatuvchi multimedia ilovalarini yaratishni bilishi zarur.

Metodik bosqich bo'lajak o'qituvchiga "qanday va qaysi vositalar bilan o'quv materiallarini o'quvchiga yetkazish kerak?" degan savolga javob berishi shart. Bu bosqichda o'quvchilar o'zlarining grafika bo'yicha bilimlari asosida va kompyuterning audio imkoniyatlarini bilgan holda, qaysi vaziyatlarda axborotlarni qanday uzatish maqsadga muvofiqligini aniq bilishlari lozim.

Shunday qilib, kurslar yakunida bo‘lajak o‘qituvchi o‘quv jarayonida multimedia dasturlaridan foydalanish bo‘yicha o‘zining fikrlarini amalga oshirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Unda boshqa dasturiy mahsulotlardan foydalanish, o‘zining xususiy dasturiy mahsulotlarini taqqoslash bo‘yicha yondashuvlar shakllanadi. Ta‘lim tizimida EATR yaxshi samara berishi va ularga katta ehtiyoj mavjudligi aniqlandi. Elektron o‘quv adabiyotlari yaratish, ulardan masofali ta‘limda foydalanishning pedagogik imkoniyatlari ochib berildi. Shular asosida AL lar uchun “Informatika” fanidan EATR yaratildi. Yaratilgan EATR lari mamlakatimizning ko‘pchilik AL larda amaliyotida tajriba-sinovdan o‘tdi. Sinov natijalaridan elektron o‘quv-metodik majmualarni takomillashtirish jarayonlarida foydalanildi.

Adabiyotlar:

1. Abduqodirov A. A., Xaitov A., Shodiev R. Axborot texnologiyalari. Akademik litsey va akademik litseylar uchun darslik. -T:«O‘qituvchi», 2002. 144 b.
2. Лапчик М. П. Структура и методическая система подготовки кадров информатизации школы в педагогических ВУЗах: Дисс. ... докт. пед. наук. - М., 1999. - 382 с.
3. Lutfullaev M. X. Multimediali elektron darsliklar asosida ta‘lim tizimi samaradorligini oshirish // Ta‘lim va tarbiya. -2003. -3-4-sonlar -B. 55-57.
4. Muslimov N. A. Bo‘lajak kasb ta‘limi o‘qituvchilarini kasbiy shakllantirish. Monografiya. - T. : Fan, 2004. - 128 b.
5. Sattorov A. Informatika va hisoblash texnikasi asoslari. Pedagogika instituti talabalari uchun o‘quv qo‘llanma. - T. : “O‘qituvchi”, 1996. - 224 b.

ZAMONAVIY MAKTABDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR

Xaydarov Anvar Djurayevich

*Guliston davlat universiteti “Amaliy matematika va axborot texnologiyalari” kafedrasi
o‘qituvchisi*

Annotatsiya: *Ta‘limda axborot texnologiyalaridan foydalanishning dolzarbligi butun jamiyatni raqamlashtirish bilan bog‘liq. Zamonaviy texnologiyalarning joriy etilishi raqamli iqtisodiyotning yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirmoqda. Maqolada "Ta‘limni raqamli o‘zgartirish" tushunchasining mohiyati ochib berilgan, maktabda IT dan foydalanishning afzalliklari va kamchiliklari aniqlangan.*

Аннотация: *Актуальность использования информационных технологий в образовании связана с цифровизацией общества в целом. Внедрение современных технологий отвечает потребностям цифровой экономики в подготовке высококвалифицированных специалистов. В статье разъясняется сущность понятия «цифровая трансформация образования», выявляются преимущества и недостатки использования ИТ в школе.*

Abstract: *The relevance of the use of information technology in education is related to the digitization of society as a whole. The introduction of modern technologies meets the needs of the digital economy for the training of highly qualified specialists. The article explains the essence of the concept of “digital transformation of education”, identifies the advantages and disadvantages of using IT in school.*

Kalit so‘zlar: *ta‘limni raqamlashtirish, ta‘limning raqamli transformatsiyasi, axborot texnologiyalari, raqamli texnologiyalar, 21-asr kompetentsiyalari.*

Hozirgi vaqtda raqamli texnologiyalar (IT) butun dunyoda qo‘llanila boshlandi, bu esa inson faoliyatining barcha sohalarida sezilarli o‘zgarishlarga olib keldi. Insonning umumiy turmush tarzi, ishlab chiqarish faoliyati jarayonida odamlar o‘rtasidagi munosabatlar modernizatsiya qilinmoqda, iqtisodiyot va zamonaviy ta‘lim o‘zgartirilmoqda. Zamonaviy iqtisodiyot axborotni ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatning barcha sohalarida mahsuldorlikning asosiy komponenti sifatida ko‘rib chiqadi. Ta‘limni raqamlashtirish raqamli iqtisodiyotni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. So‘nggi paytlarda ta‘lim sifatini, unga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali oshirishga tobora ko‘proq e‘tibor qaratilmoqda [1, p. 17]. Barcha malaka darajasidagi mutaxassislar endi ega bo‘lishi kerak [2, p. 22]:

- matematika savodxonligining yuqori darajasi;

- puxta tabiatshunoslik va gumanitar tayyorgarlik;
- ko'pincha "XXI asr kompetensiyalari" deb ataladigan qobiliyatlar;
- texnologiya sohasidagi kuchli bilim, ko'nikma va malakalar (dizayn tafakkuri; raqamli savodxonlik;

- algoritmik fikrlash; yo'naltirilgan yoki tanqidiy fikrlash va boshqalar). Shunday qilib, raqamli iqtisodiyotning talablari barcha talabalar XXI asrda inson uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarga ega bo'lishidir. Ushbu kompetensiyalar quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi: tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, muloqot va muvofiqlashtirish [2, p. 29]. Tanqidiy fikrlash - bu ma'lumotlar oqimida harakat qilish, sabab-oqibat munosabatlarini ko'rish, to'g'ri tanlash va xulosalarni shakllantirish qobiliyati.

Ijodkorlik - bu qolip bo'yicha harakat qilmaslik, o'zgaruvchan va nostandart sharoitlarda adashib qolmaslik, narsalarga boshqa tomondan qarash qobiliyatidir. Muloqot omili muhim mahorat bo'lib, o'z nuqtai nazariga zarar bermasdan umumiy fikrga kelish qobiliyatiga, nafaqat odamni tinglash, balki uni eshitish qobiliyatiga, boshqalar bilan samarali muloqot qilish qobiliyatiga yordam beradi. Muvofiqlashtirish (boshqacha aytganda, hamkorlik) kasbiy soha bilan bog'liq bo'lib, uni hal qilish uchun umumiy maqsad va vazifalarni shakllantirish, mas'uliyatni taqsimlash, natijani baholash qobiliyatidan iborat. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi "Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Kontsepsiyasi" to'g'risidagi PF-5712-sonli Farmoni har bir o'quvchida mustaqil ta'lim olish qobiliyatini, ya'ni o'z ta'limini boshqarish qobiliyatini rivojlantirish vazifasini belgilab berdi. Ta'limning raqamli transformatsiyasi bu muammoni hal qilishi kerak.

Ta'limning raqamli transformatsiyasi nima? TEC - bu har bir talabaning ta'lim natijalarini samarali yaxshilash uchun ta'limning rejalashtirilgan qismini, uning mazmunini, o'quv ishlarini tashkil etish usullari va shakllarini, shuningdek jadal rivojlanayotgan raqamli muhitda erishilgan natijalarni monitoring qilish va baholash tizimlarini o'zgartirish. Pedagogik innovatsiya bu pedagogik faoliyatdagi yangilik, o'qitish va tarbiya mazmuni hamda texnologiyasidagi o'zgarishlar, ularning samaradorligini oshirishga qaratilgan.

Innovatsiya - innovatsiya natijasi sifatida tushuniladi va innovatsion jarayon uchta asosiy bosqichning rivojlanishi sifatida qaraladi: g'oyani yaratish (ma'lum bir holatda, ilmiy kashfiyot), amaliy jihatlarida g'oyalarni rivojlantirish va yangiliklarni amaliyotga tatbiq etish. [2] Maktab darsi faqat bosma darsliklar va daftarlar, oddiy doska va bo'r bilan bog'langaniga ko'p yillar o'tmadi.

Endi o'quv jarayoni turli xil raqamli texnologiyalarni o'z ichiga olishi mumkin: onlayn kurslar, turli interaktiv kontentga ega darsliklarning elektron versiyalari, onlayn darslar, interfaol doskalar, telefon va planshetlar uchun o'quv ilovalari, multimedia proyektorlari va boshqalar. Bu zamonaviy texnologiyalarning barchasi o'quvchilarga ta'lim jarayonida ko'rinish va interaktivlikni oshirish orqali o'quv materialini yaxshiroq o'zlashtirishga yordam beradi (videolar, materialni taqdimot shaklida taqdim etish va boshqalar). Ta'limni raqamlashtirish o'rganish uchun yangi imkoniyatlar beradi, tegishli ta'lim dasturlarini joriy etish orqali uni qiziqarli va shaxsiylashtiradi.

Axborot texnologiyalaridan nafaqat dars vaqtida, balki darsdan tashqarida ham (turli to'garaklar, fakultativ mashg'ulotlarda) foydalanish mumkin. Masalan, robototexnika, dasturlash va hokazolar bo'yicha to'garaklar davomida talabalarga ma'lum amaliy bilim va texnologiyalardan foydalanishga o'rgatish mumkin. AT dan o'quv jarayonining turli bosqichlarida qo'llanilishi mumkin: materialni taqdim etish, olingan bilimlarni tekshirish, materialni mustahkamlash, o'z-o'zini o'rganish va hokazo. O'quv jarayonida foydalanish mumkin bo'lgan axborot vositalarini ko'rib chiqamiz. Raqamli ta'lim vositalarini o'z ichiga oladi [2, p. 264]: - umumiy foydalanuvchi (ofis vositalari, Internet bilan ishlash vositalari, ommaviy axborotni qidirish vositalari, ma'lumotlar bazalari va boshqalar); - o'quv kompyuter simulyatorlari va simulyatorlar; - virtual laboratoriyalar; - o'quv o'yinlari; — ixtisoslashtirilgan raqamli muhitlar/asboblar (masalan, kompyuter dasturlarini ishlab chiqish, matematik o'zgartirishlar va hisob-kitoblarni amalga oshirish, dizaynni avtomatlashtirish va boshqalar). Raqamli vositalar matematika, informatika va texnologiyalarni o'rganish uchun raqamli o'quv va uslubiy to'plamlarning asosini tashkil qilishi kerak va ulardan foydalanish usuli uslubiy materiallarning tabiiy qismi bo'lishi kerak. O'quv simulyatorlari,

simulyatorlar, virtual laboratoriyalar va o'quv o'yinlari turli xil ta'lim mazmuni uchun katta imkoniyatlarni taqdim etadi.

Keyingi avlod sinfi aqlli gadjetlar, virtual reallik ko'zoynaklari, maxsus dasturiy ta'minot va ta'lim VR kontenti bilan ta'minlangan. Bu talabalar uchun zararli va xavfli omillar bo'lmagan sharoitlarda virtual laboratoriya ishlarini, amaliy mashg'ulotlarni bajarish, tajribalar o'tkazish imkonini beradi. Ilgari o'quv jarayoni doirasida mavjud bo'lmagan tajribalar endi oddiy sinfda (masalan, radioaktiv nurlanish darajasini o'lchash, turli sharoitlarda elektr tokining o'zgarishini tahlil qilish, dvigatelning ishlash tamoyillarini) o'rganish mumkin bo'ldi. VR ko'zoynaklar yordamida siz tarixni o'rganishingiz, tarixiy voqealarni kuzatishingiz va hatto ularda ishtirok etishingiz mumkin. Ushbu trening immersiv deb ataladi, u "mavjudlik effekti" ni yaratadi va real dunyoda amalga oshirish mumkin bo'lmagan tajribani yashashga imkon beradi. Elektron ta'limni boshqarish tizimlari an'anaviy o'quv materiallari imkoniyatlarini kengaytiruvchi vosita sifatida harakat qilishi mumkin. Masalan, YaKlass, Google Class, iSpring Suite va boshqalar. Ta'limda elektron tizimlarning imkoniyatlari juda xilma-xildir: o'quvchilarga individual yondashish, bu esa o'z navbatida shaxsning individual xususiyatlarining (diqqat, xotira, ijodkorlikni shakllantirish) rivojlanishiga yordam beradi, o'quv jarayonida ko'rinishni oshirish, o'rganish talabalar uchun qiziqarli, o'ynoqi va hayajonli tarzda amalga oshiriladi, bu umuman o'rganishga hissiy munosabatga ijobiy ta'sir qiladi; shuningdek, bolalarning hatti-harakatlari.

Talabalar uchun to'g'ridan-to'g'ri ta'lim jarayoniga ITni joriy etishning afzalliklari va kamchiliklarini ko'rib chiqing. Shunday qilib, maktab amaliyotida axborot texnologiyalaridan foydalanishning afzalliklari quyidagilardan iborat: - o'quvchilarning kompyuter texnologiyalarini o'zlashtirishi, ularsiz ularning ongli hayotini tasavvur etib bo'lmaydi; - multimedia tufayli maktab o'quv dasturini osonroq o'zlashtirish; - o'quv samaradorligini oshirish; - talaba kasal bo'lganda o'quv materiallaridan foydalanish imkoniyati; - o'quvchining individual va kognitiv xususiyatlarini hisobga olgan holda o'rganish tezligini tanlash qobiliyati; — fikrlash moslashuvchanligini, maqsad qo'yish, o'z-o'zini tarbiyalash ko'nikmalarini rivojlantirish [6].

Maktab o'quvchilari uchun axborot texnologiyalaridan foydalanishning kamchiliklari quyidagilarni o'z ichiga olishi mumkin: - talabalarni chalg'itish. Tadqiqotlar ko'rsatadi raqamli qurilmalar bolalarni o'quv jarayonidan chalg'itishi. Biroq, darsda multimedaning etishmasligi diqqatni jamlashga yordam bermaydi; - talabalarining muloqot qobiliyatlari va boshqalar bilan o'zaro munosabatiga salbiy ta'sir ko'rsatish. Ko'p vaqtini turli xil qurilmalarda: telefonlar, planshetlar va hokazolarda ishlashga sarflaydigan yigitlarning muloqot qilish qobiliyati pasaygan.

Haqiqiy odamlar bilan muloqot qilish va o'z nuqtai nazarini shakllantirish va ifodalash amaliyotini kamaytirish, klip tafakkurining ta'siri mustaqil fikrlash qobiliyatining pasayishiga yordam beradi; - o'quvchilarning mustaqilligi va aqliy faolligining pasayishi. Vazifalarni bajarish uchun kognitiv qobiliyatingizni yoqish shart emas, siz tarmoqda kerakli ma'lumotlarni topishingiz mumkin; — texnologik resurslardan foydalanishning turli darajalari. Har bir oila planshet, smartfon, noutbuk sotib olishga qurbi yetmaydi; - axborot sifatiga ishonch yo'qligi, tarmoqda u har doim ham yuqori sifatli va tasdiqlangan emas; - jismoniy rivojlanish bilan bog'liq muammolar. Statik holatda uzoq vaqt qolish va ekran orqasida ishlash ko'rishning buzilishiga va tayanch-harakat tizimining buzilishiga olib keladi. Talabalar raqamli muhit bilan chambarchas bog'langan, shuning uchun o'quv jarayonida IT dan foydalanish bugungi rivojlanayotgan dunyoda hayotning zaruriy tarkibiy qismidir.

XXI-asrning kompetensiyalarini egallash muvaffaqiyatli shaxsning muhim tarkibiy qismidir. AT ta'lim sifatini va o'quv dasturini o'zlashtirishni sezilarli darajada yaxshilash uchun barcha imkoniyatlarga ega va ulardan foydalanishning ko'rib chiqilgan afzalliklari kamchiliklardan ustundir. Ammo o'qituvchining ishining ahamiyatini unutmang. Faqat tajribali, zamonaviy o'qituvchi, talabalar uchun zarur bo'lgan mazmunni tanlay oladi, AT ni joriy etgan holda o'quv jarayonini eng yuqori samaradorlik va talabalar uchun minimal salbiy oqibatlar bilan metodik va to'g'ri qura oladi va tashkil etadi.

Adabiyotlar:

1. Kasb-hunar ta'limida o'quv jarayoni: universitetlar uchun darslik / V. I. Blinov [va boshqalar]; V. I. Blinovning umumiy tahriri ostida. - M. : Yurayt nashriyoti, 2020. - 314 b.

2. G. N. Ibragimova, Interfaol o'qitish metodlari va texnologiyalari talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish. I Monografiya. - T. : «Fan va texnologiyalar», 2016. -77-b A. Yu. Uvarov, I. D. Frumin tomonidan tahrirlangan. - M. : Oliy maktab nashriyoti. Iqtisodiyot, 2019. - 342 b.

3. Grigoryev. Ta'limni axborotlashtirish. Asosiy asoslar: pedagogika oliy o'quv yurtlari talabalari va o'qituvchilar malakasini oshirish tizimi talabalari uchun darslik / S. G. Grigoriev, V. V. Grinshkun. - M. : MGPU. 2005. - 241 b.

4. S. V. Titova. Ta'limda kompyuter texnologiyalaridan foydalanishning ba'zi nazariy muammolari / S. V. Titova // Moskva universiteti axborotnomasi. 2015. No 4. S. 39–54. Kravchenko

5. Yu. A. Kravchenko, O'quv jarayonlarini qo'llab-quvvatlash uchun kengaytirilgan haqiqat texnologiyasidan foydalanish xususiyatlari / Yu. A. Kravchenko, A. A. Lezhebokov, S. V. Pashchenko// Ochiq ta'lim. 2014. No 3. S. 49–54.

VIRTUAL VOSITALARDAN FOYDALANGAN HOLDA AMALIY MASHG'ULOTLARNI TASHKIL ETISH USULLARI

Rizayeva Ma'mura Ismoilovna

2-kurs talabasi

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlar milliy davlatchilik va suverenitetni mustahkamlash, xavfsizlik va huquq-tartibotni, jamiyatda qonun ustuvorligini, inson va xuquq erkinliklarini, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik muhitini ta'minlash uchun muhim poydevor bo'ldi, xalqimizning munosib hayot kechirishi, jahon talablari darajasida ta'lim olishi va kasb egallashi, fuqarolarimizning bunyodkorlik salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratildi.

Ta'lim sohasida axborot – hisoblash texnikasini qo'llash o'quv – tarbiyaviy ishlarining mukammalligi va samaradorligini oshirish, pedagogik jarayonning natijaviyligini ta'minlash imkonini beradi. Shu bilan birga fikrlash usuli, o'quv faoliyatining barcha turlari va usullarida o'zgartirishlar zarur, shu sababli ma'lum afzalliklar va shuning bilan birga ma'lum muammolar paydo bo'ladi. Ularni shartli ravishda pedagog o'qituvchilar axborot texnologiyalari tizimining muammolari sifatida aniqlash mumkin. Ushbu muammolarni o'rganish o'qitish nazariyasi va amaliyotida markaziy o'rinlardan birini egallaydi.

Shu sababli ta'lim jarayoni kompyuter texnikasini o'qitish vositasi sifatida qo'llash strategiyasiga, shu bilan birga mos o'quv dasturlarni va ularni qo'llash metodikasini ishlab chiqishga ma'lum to'g'irlashlar kiritishni talab etadi. Kompyuter texnologiyalarining ta'limda joriy qilinishi ilmiy-texnikaviy taraqqiyot natijasi sanalib, obyektiv va muqarrar jarayon bo'lgani sababli kompyuter texnologiyalarini joriy qilishning bir usuli sifatida ta'limni virtuallashtirish muammosi chindanda dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Jadal rivojlanayotgan Internet gipertizimida o'z ifodasini topgan zamonaviy axborot texnologiyalari va kompyuter telekommunikasiyalari axborot to'plash va unga kirish uchun prinsipial jihatdan yangi imkoniyatlarni kashf qiladi, biroq bunda mazkur texnologiyalarning yuqori darajasi bilan ulardan ta'limda foydalanishning yetarlicha ishlanmaganligi o'rtasida ziddiyat yuzaga keladi.

Bugungi kunda virtual borliq inson madaniy faoliyatining turli sohalarida qo'llanilmoqda. Virtual borliqdan eng avvalo u vujudga kelgan sohada, fanda, jumladan fizikada suyuqlik va gazlar dinamikasini modellashtirishda, kimyoda kimyoviy reaksiyalar modelini tuzishda, geologiya va geografiya fanlarida foydalanilmoqda.

Virtual borliq – bu sun'iy hosil qilinadigan axborot muhiti bo'lib, u atrof-muhitni odatiy usulda tasavvurni turli texnik vositalar asosida hosil qilinadigan axborotlar bilan almashtirishga qaratiladi. Ta'limiy maqsadlarda virtual reallik vositalarini ishlab chiqishga qaratilgan axborotlarni vizuallashtirish vositalarini yaratish boshqa texnik vositalar yordamida erishib bo'lmaydigan pedagogik samarani berishi mumkin. Virtual borliq **immersivlik** va **interfaollik** tushunchalari bilan bog'liq.

Interfaollik foydalanuvchi real vaqtda virtual borliqdagi obyektlar bilan o'zaro muloqotda bo'lib ularga ta'sir ko'rsatishga ega bo'ladi. Interfaol topshiriqlar. Bunda misollar sonining ko'pligi va ularning tasodifiy tarzda generatsiya etilganligi sababli topshiriqlar takrorlanmaydi, jami urinishlar soni, ulardan to'g'ri bajarilganlari soni, umumiy baho foizda ko'rsatiladi. Bu o'qituvchi va o'quvchilarga interfaol topshiriqlardan trenajyor sifatida foydalanishga imkon beradi.

Virtual vositalar elektron – ta'limiy muhitda real hayotiy obyektlar hatti-harakatini modellashtirib, o'quvchi va talabalarga asosan fizika, kimyo, biologiya, matematika, geometriya, informatika kabi ilmiy-tabiiy fanlardan yangi bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishga imkon beradi.

Virtual vosita bu platforma bo'lib, faqatgina belgilangan vaqtda mavzu yuzasidan amaliy ishdur, shuning bilan birga yangi bilimlarni egallash uchun ilmiy muhitdagi bizning belgilangan hatti-harakatlardir. Boshqacha aytganda, virtual vosita integrasiyalangan axborot muhiti bo'lib, o'quv, o'quv-metodik, amaliy, ma'lumotnoma, nazorat-o'qitish va nazorat-test materiallarini o'z ichiga oladi.

Virtual vosita -matematik modellarni qurishda keng imkoniyatlarga ega hamda amalda yagona dasturiy-hisoblash kompleksi bo'lgan turli tabiiy (fizik) hodisalarni tadqiq qilish apparati bolib hisoblanadi..

Virtual vositalarni yaratishning maqsadlaridan biri – o'rganish jarayonini har tomonlama, to'liq vizuallashtirish, asosiy vazifalardan biri – o'quvchini o'rganish jarayonining mazmun-mohiyati to'liq idrok etish va tushunishdir.

Virtual vositalarning vazifalari:

- ko'rgazmali illyustratsiya va o'rganiladigan qonunlarning to'g'riligini isbotlash;
- o'tkaziladigan tajribalarning mutlaqo xavfsizligi hamda sinfda havoning tozaligini ta'minlash;

- tajribalarni yakka tartibda bajarish imkoniyati, bu esa ta'lim oluvchilar mustaqilligining, ularning konstruktorlik qobiliyati va texnik uddaburonligining rivojlanishiga ta'sir o'tkazmay qolmaydi;

- dars vaqtida virtual vosita ishlarini bajarish nazariy hamda amaliy mashg'ulotlar o'rtasidagi to'siqlarni bartaraf etadi, bu o'qitish sifat va samaradorligi, o'quvchilarning mustaqil bilish faolligi ortishiga ko'maklashadi;

- virtual axborot-ta'lim vositasi tadqiqotchilik xarakteridagi eksperimentlarni o'tkazish uchun keng imkoniyatlar taqdim etadi, ma'lum metodik jihatdan asoslangan vaziyatlarda ulardan real vosita qurilmalariga qo'shimcha sifatida foydalanish mumkin;

- kompyuterdagi vosita nostandart va muammoli vaziyatlarda o'quvchilarning subyektiv tajribasini ta'minlaydi.

- ta'lim muassasasi o'quv jarayoniga ochiq dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalarni joriy qilish;

- seminar mashg'ulotlari doirasida amaliy topshiriqlarni bajarish;

- malaka oshirish bo'yicha mashg'ulotlarni o'tkazish;

Virtual vositalarning imkoniyatlari:

- qimmat vosita asboblari sotib olishga ehtiyojning yo'qligi;

- vosita shart-sharoitlarida bajarilishi prinsipial mumkin bo'lmagan jarayonlarni modellashtirish imkoniyati;

- xavfsizlik;

- vaqt va resurslarning tejallishi;

- bajarilgan vosita natijalarining avtomatik tarzda hisoblanishi

- virtual vositalarni masofaviy ta'limda qo'llash imkoniyatining mavjudligi

- virtual jarayonni boshqarish kompyuterning zimmasiga tushishini hisobga olib, kiritilayotgan parametrlarni o'zgartirib, tajribalar seriyasini o'tkazish imkoniyati mavjudligi;

- o'tkazilayotgan vosita tajribasini vaqtning boshqa masshtablarida kuzatish mumkinligi.

Bundan tashqari, virtual axborot-ta'lim vositasi sharoitida o'quv modellashtirish orqali

bilimning yangi sohalarini o'rganishda o'quvchilarning atrof olamdagi hodisalarni bilishga oid mustaqil faolligi ortadi, hayotiy faoliyati davomida yuzaga keladigan muammolarning yechimi variantlarini mustaqil topish malakasi, olingan bilimlarni amaliyotda qo'llashga tayyorlik shakllanadi.

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etishda virtual vositalardan foydalanish samaradorligi quyidagilardan iborat:

- ✓ amaliy topshiriqlarning elektron shaklda, audio, video, animasiyalarni qo'llagan holda berilishi talabalarda kuchli qiziqish uyg'otadi.

- ✓ vosita topshiriqlari natijalarining avtomatik tarzda jamlanishi, o'qituvchiga yengillik yaratadi.

- ✓ virtual vositali amaliy mashg'ulot topshiriqlarining talabalar tomonidan qayta takroriy bajarilishi asosida ko'nikma va malakalarning tarkib topish jarayoni jadallashadi.

- ✓ virtual vositali amaliy mashg'ulot topshirig'i natijalarining serverning elektron bazasida saqlanishi, natijalarni o'zgartirishga imkon bermaydi.

Adabiyotlar

1. Radjabov B. Sh., Xidirova Ch. M. O'quv jarayonini virtuallashtirish tizimining komponentalari va dasturiy ta'minoti. //TATU xabarleri, 2009. №3. B. 83-85.

2. Begimqulov U. SH. Pedagogik ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari. –T. : “Fan” 2007.

3. Allayorov S. P., Toshtemirov D. E., Jo'raev U. S. Informatika fanidan laboratoriya mashg'ulotlarini avtomatlashtirishning imkoniyatlari//GulDU axborotnomasi. – Guliston, 2003. - № 2. – B. 73-76

ADVANTAGES AND DISADVANTAGES OF USING INFORMATION TECHNOLOGIES IN CLASS

Rakhmonova Barno Shagdarovna

Tashkent military academic lyceum “Temurbeklar maktabi”

Annotation: *Providing new technology to the students in a classroom can certainly help the educational environment both teachers and students. Information technology allows children to use their curiosity in multiple ways. They can try new things without embarrassment. This process allows them to work hard, if they wish a different strategy helps them to learn more effectively. Unfortunately, there are some disadvantages of the new technology in class too, because of distracting the students from their education sometimes.*

Key words: *computer, Internet, program, advantages and disadvantages, opportunity, collaboration skills, learning environment, eye health issues;*

Annotatsiya: *Sinfda o'quvchilarga yangi texnologiyani taqdim etish ta'lim muhitiga kata yordam beradi va bolalarning o'sha fanga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshirishga imkon beradi. O'quvchilar uyalmasdan yangi narsalarni sinab ko'ra oladilar. Bu jarayon esa bolalarga qattiq ishlay olish imkonini beradi. Afsuski, dars jarayonida zamonaviy texnologiyalarning kamchiliklari ham yuzaga keladi, chunki ular ba'zida o'quvchilarni o'qishdan chalg'itadi.*

Kalit so'zlar: *kompyuter, Internet, dastur, afzallik va kamchiliklar, imkoniyatlar, hamkorlik ko'nikmalari, o'quv muhiti, ko'z salomatligi muammolari;*

Most public school teachers keep at least one computer in their classroom. But far beyond the reach of simple convenience they need a variety of other tech devices at school—LCDs or projectors, digital cameras, and interactive whiteboards. But the question must be asked: what are the pros and cons of having technology in the classroom?

Does classroom technology help students learn?

There are many of the benefits of new technology options for students. Instead of having a single computer for a class to use, we can now deliver students learn at their desk with items.

Our development of the Internet has helped us to include more technological access to information in the modern classroom as well. Now students get to play interactive learning games,

compete against other students.

Providing technology to students in a classroom can certainly help the educational environment, but it also requires equal access for all students, everyone should receive the same opportunities to success. That is why each teacher and parent should periodically review the advantages and disadvantages of technology in education. So there are some advantages of information technology in education.

All devices help children to stay motivated during the learning process. Most students don't like to go to school if they feel like they are wasting their time. When there is technology allowed in the classroom, then teachers have an opportunity to let kids work without disturbing others. They can look up additional information about a subject they are learning about that day, play educational games that reinforce the lesson, or work on advanced material using some programs or websites. Because many of today's technology options allow students to see how well they are doing compared to the average of all users, it gives them a chance to work harder for themselves and their education.

Many of the programs can encourage learning with rewards or award certificates, which helps to make the lessons fun as well. Therefore, it encourages more communication between teachers and parents. When there is technology in the classroom, then there are more opportunities for parents and teachers to connect with each other. Using a blog for the classroom can help parents get to see what their children are learning each day. Apps and software options allow teachers to instantly report on a child's behavior to let parents know in real-time what is happening throughout the day. There are options for chat boxes, instant messaging, and other forms of communication as well.

You easily understand that technology options in the classroom are very affordable. Although the cost of having technology in the classroom can't be affordable sometimes. The cost of students' computers, tablets and other class essentials are cost much. However, it creates new ways to learn for today's student. There are three critical forms of intelligence that we can see in children today: emotional, creative, and instructional. The traditional classroom environment, which typically encourages lecture-based lessons, focuses on more the latter option. Standardized tests and similar activities do the same. When kids have access to technology today, then those who excel outside of the standard learning setup can still achieve their full potential.

Technology allows children to use their curiosity in multiple ways. They can try new things without embarrassment. This process allows kids to work hard, if they wish a different strategy helps them to learn more effectively.

In addition, technology allows us to give students access to data from a single location. Technology allows them to access everywhere and they can easily find everything which they need for their course projects or referats from a central resource. Instead of spending all of that time searching for something specific or waiting for the library to order and wait for it, they can ask a few questions on Google and find what they need.

Moreover, using technology in the classroom encourages collaboration of a teacher and the students. Students keep in their mind very little of the information they receive when a teacher lectures from a textbook. When there are interactive lessons on a chalkboard or whiteboard, kids can remember about 20% of what they were taught. If a teacher encourages a small group discussion, that percentage can increase.

Technology gives us an easy way to develop collaboration skills for students using online tools that encourage them to work together in safe ways. If they can then practice what they were taught immediately, there is very little that they will forget.

It encourages students to stay engaged with their learning environment, because most of the students get bored very easily if they feel like they already know what is being taught in their classroom. By introducing technology to the classroom, there are fewer places where repetitive learning must take place. Teachers can introduce new subjects, try new techniques, or use different projects to encourage ongoing learning, which creates more overall engagement.

Unfortunately, there are some disadvantages of technology in class too, because of distracting the students from their education sometimes. When the students play video games, they can find themselves reacting with addiction-like behaviors. Their focus is on the entertainment they receive

more than anything else. If the educational environment uses reward-based games to encourage learning, then the student might be more concerned with what they receive through the app instead of what they are learning. Their parents and teachers have to set and enforce healthy boundaries when using technology at home or in the classroom to ensure healthy results are possible.

Unfortunately, sometimes the students can cheat easily using their devices. They can send that data to anyone else with a phone. So there must also be strict rules about using the technology during quizzes or tests when an exact measurement of students' knowledge is needed to evaluate.

As far as I am concern that technology in the classroom could create medical problems for some students. Eye strain occurs when they look at a computer screen for too long. Symptoms of this issue include back pain, eye pain, neck pain, feelings of tiredness, blurred vision, and problems with focus. Continuous heavy computer usage may lead to issues with early myopia, with a prevalence rate of more than 60% for those older than the age of 12. For some people, the impact of this health issue is cumulative, which means the time they spend in front of a phone, tablet, and television can contribute to eye health issues as well.

Encouraging the use of tech might help to create more learning opportunities, but it can also lead to a lifestyle that is more inactive. When children sit for too long during the day, then they face the same health challenges that adults do when not getting enough exercise. There can be problems with obesity, hyperactivity, muscle fatigue, sleeping problems, and metabolism issues with prolonged sitting. That is why any school that introduces technology to the classroom should also encourage at least 30 minutes of moderate physical activity whenever possible.

Technology in the classroom opens more doors, introduces new experiences, and creates more opportunities for self-discovery. The positive aspects that occur with school integration typically outbalance any of the issues that a district might conflict.

USED LITERATURE:

1. By Danni White – (Published on April 14, 2021), Advantages and Disadvantages of Information and Communication Technology, Business community management. 3(2), 56–68.

2. Ellis, R. (2003). What is ICT? What is the Meaning or Definition of ICT? Oxford University Press.

3. Adam Sibuyi. 04 Oct 2016. Importance of Education. International Journal of Language Academy, 3(2), 56–68.

БЎЛАЖАК МУҲАНДИСЛАРНИ КАСБИЙ ФАОЛИЯТГА ТАЙЁРЛАШГА ҚАРАТИЛГАН ДАСТУРИЙ ВОСИТАЛАРНИНГ ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИГА ТАДБИҚИ ВА МЕТОДИКАСИ

Санақулов Фурқат

*“ТИҚХММИ” Миллий тадқиқот университети хузуридаги Қариш ирригация ва
агротехнологиялар институти “Математика ва табиий фанлар” кафедраси стажёр
ўқитувчиси*

sanaqulov001@gmail. com

Аннотация: Ушбу тезисда талабларга асосан физикадан амалий машғулот жараёнида Matlab математик дастурий пакетлар ёрдамида математик моделилаштириш услубларини талабаларга ўргатиш методикасини кўрсатиб ўтилган.

ВНЕДРЕНИЕ И МЕТОДЫ ПРОГРАММНЫХ СРЕДСТВ, НАПРАВЛЕННЫХ НА ПРОФЕССИОНАЛЬНУЮ ПОДГОТОВКУ БУДУЩИХ ИНЖЕНЕРОВ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЙ ПРОЦЕСС

Аннотация: В данной тезисе показана методика обучения студентов методам математического моделирования с использованием математических программных пакетов Matlab в процессе практических занятий по физике на основе требований.

APPLICATION AND METHODOLOGY IN THE EDUCATIONAL PROCESS OF SOFTWARE FOR PREPARATION OF FUTURE ENGINEERS FOR PROFESSIONAL ACTIVITY

Abstract: This thesis describes the methodology of teaching students the methods of mathematical modeling using Matlab mathematical software packages in the process of practical training in physics in accordance with the requirements.

Техника олий таълим муассасалари бакалаврият таълим йўналиши ўқув режа фанлари блоклари мазмунига қўйилган умумий талабларга кўра умумқасбий фанлар блокида модели тасаввурларни амалда қўллаш, ихтисослик фанлари блокида эса объектлар ва жараёнларни, жумладан амалий дастурлар пакетларини ва математик моделлаштиришнинг элементларини қўллашни билиши кераклиги келтириб ўтилган.

Ўқитишнинг 4 поғонали методи – касбий ҳаракатларни бажариш кўникмаларини ўргатиш методи бўлиб, “тушунтириш”, “нима қилиш келаклигини кўрсатиб бериш”, “кўрсатилган тарзда қайтариш”, “машқ қилиш”.

1-поғона. Амалиёт ўқитувчиси оғзаки равишда талабаларга нима қилиш кераклигини тушунтиради.

2-поғона. Амалиёт ўқитувчиси муаммоли масалани дастурий пакет ёрдамида математик моделлаштириш, графиклар ҳосил қилишни бажариб кўрсатади.


Масала. Горизонтга бурчак остида отилган жисм 1 м баландликдан 30° бурчак остида 20 м/с тезлик билан отилган. Matlab/Simulink муҳитида жисмнинг оғирлик кучи таъсири остидаги ҳаракатини математик моделлаштириш орқали ўқиш узоклигини аниқланг. Ҳавонинг қаршилигини ҳисобга олинмасин. Эркин тушиш тезланиши $g = 9.81\text{ м/с}^2$.

Масаланинг аналитик ечими (3-масала ечими).

Келтириб ўтилган масаланинг аналитик ечимини Matlab/Simulink муҳитида моделини ишлаб чиқамиз ва график кўринишда тасвирлаймиз. Simulink library browser номли кутубхона панелидан керакли блоклар *integrator* (интеграл сигнал), *Gain* (кириш сигналига ўзгармас коэффициент кўпайтириш), *Constant* (ўзгармас сигналли манба), *Display* (рақамли сигналларни сон кўринишида тасвирлаш), *Scope* (виртуал осциллограф), *XY Graph* (виртуал график қурувчи), *Relational operator* (алоқа ўрнатувчи оператор), *Stop simulation* (симуляцияни тўхтатувчи) танланади. Блокларга тегишли катталиклар қийматларини киритиб тегишли натижаларга эга бўлинади (1-расм) [1].

3-поғона. Талабалар ўқитувчи томонидан кўрсатиб ўтилган усулда такроран бажарадилар.

4-поғона. Талабалар олинган натижаларни таҳлил қилишлари ва қўшимча компоненталар имкониятларидан фойдаланиб янада мураккаб масалаларни моделлаштиришлари мумкин [2, 3].



1-расм. Matlab амалий математик дастурий пакетида динамик жараённи моделлаштириш

Физик жараёнларни, геометрик объектларни ва функция графикларини моделлаштиришда турли хил кўринишдаги чизиқли алгебраик тенгламалар системаси ва

бошқа турдаги тенгламаларга дуч келинади. Математик моделлаштириш тенгламалар системасини ечишда алоҳида аҳамиятга эга. Тенгламалар системасини ечишда уларнинг хусусиятларидан келиб чиққан ҳолда услуб танлаб олинади. Танлаб олинган услубларни ҳар бирининг ўзига хос хусусияти мавжуд бўлиб, талабадан уларни ечиш учун махсус билим, малака ва кўникмалар талаб қилинади. Тенгламалар системаси таркибидаги номаълумлар сонининг ортиши билан уларни ечимини аниқлаш мураккаблашиб бораверади. Ушбу қийинчиликларни ҳал қилишда дастурий воситалардан фойдаланиш тенгламалар системасининг ечимини топишни сезиларли даражада соддалаштиради [4], [4-320-б], [5].

Биз қуйида математикадан амалий машғулотларда чизикли алгебраик тенгламалар системасини Simulink усулида моделлаштириш ва Matlab функциялари ёрдамида бир неча услублар ёрдамида ечимини топиш методикасини кўрсатиб ўтамыз.

Амалий машғулот жараёнида талабаларни ўқита кичик гуруҳга ажратган ҳолда ўқитишнинг **“Баҳс-мунозара”** методидан фойдаланамиз.

1-гуруҳ талабалари тенгламалар системасини аналитик усулда ечимини топадилар. Чизикли алгебраик тенгламалар системаси ва унинг аналитик ечими 16-иловада келтирилган.

2-гуруҳ талабалари Matlab дастурий пакетининг ишчи ойнасига тўғридан-тўғри кодларни киритиш орқали тенгламалар системасининг ечимини топадилар.

3-гуруҳ талабалари Matlab дастурий пакетининг Simulink муҳитида чизикли алгебраик тенгламалар системасини математик моделлаштириш услубларини амалга оширадилар.

Тенгламалар системасининг аналитик, матрица ва моделлаштириш услубларида топилган ечимлари бўйича амалиёт ўқитувчиси назоратида баҳс-мунозара ўтказилади, усуллар қиёсий таҳлил қилинади ва тегишли хулосалар қабул қилинади.

Matlab математик дастурий пакетида Simulink усулида моделлаштириш, чизикли алгебраик тенгламалар системасини матрица ва Matlabнинг стандарт функцияси ёрдамида ечиш методикасини кўрсатиб ўтдик. Бу усуллардан математик моделлаштириш ишлаб чиқаришда автоматлаштириш, ишлаб чиқилган моделларнинг тўғрилигини баҳолашда фойдаланиш мумкин. Matlab/simulink усулида моделлаштириш дастурий инжиниринг таълим йўналиши талабалари учун катта аҳамиятга эга бўлиб ҳозирги замонавий математика, физика, рақамли техника, электр занжирлар назарияси, сонли усуллар ва дастурлаш каби фанларни чуқурроқ ўрганишлари, шу билан бирга бўлажак дастурчилар касбий фаолиятга тайёргарлашда самарали натижалар беради.

Matlab математик дастурий пакетидан таълим жараёнида фойдаланиш услубларини кўрсатиб ўтдик. Ушбу дастурнинг устунлик томони унда дастурлаш имкониятининг ҳам мавжудлигидир. Амалий жиҳатдан Matlab дастури шу синфга кировчи дастурларга нисбатан юқори имкониятга эга. Бунга сабаб Matlab дастурий воситасининг махсус мураккаб математик моделлаштиришларни амалга оширувчи Simulink муҳитининг мавжудлигидир. Таълим жараёнида энг замонавий ахборот-коммуникация технологияларини қўллаган ҳолда математик ва табиий-илмий фанларни ўқитишда амалий математик дастурий пакетлардан фойдаланиш таълим сифатини оширишда муҳим аҳамиятга эга.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида»ги Фармони. // Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари тўплами. – Т., 2017. Б. 39.

2. Хамидов В. С. Таълим тизимида кескин бурилишга сабаб бўлган 4 дастур ҳақида. «Infocom. uz», - Тошкент. 2010, №1, -54-57 б.

3. Шоштаева Е. Б. Интегральная технология обучения как основа повышения качества образовательного процесса: автореф. дис. канд. пед. наук. //Е. Б. Шоштаева. – Карачаевск: 2003. – С. 23.

4. Хамидов В. С. Таълим тизимида кескин бурилишга сабаб бўлган 4 дастур ҳақида. «Infocom. uz», - Тошкент. 2010.

5. Turaev S. J. Methods of the using of software program Microsoft Excel in practical and laboratory occupation on physics, *Scientific Bulletin of Namangan State University*: 2019.

6. Психология и педагогика /Под ред. Абульхамовой К. А., Васиной Н. В., Лаптева Л. Г., Сластенина В. А. – М. : «Совершенство», 1998.

7. Махмадиев Б. С. MathCAD тизимида ишлаш асослари. Ўқув қўлланма. – Қарши. 2012. – 144 б.

8. Тураев С. Ж., Хўжаев Л. Х., Пардаев Б. А. Matlab/Simulink мухитида динамик системаларни моделлаштириш ва Borland Delphi7 дастурлаш тилида графигини ўрганиш.

FANINI O'QITISHDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEKNOLOGIYALARINING O'RNI

Davletov Asqarali Aslanovich

Sirdaryo viloyati Sirdaryo tumani 21-maktab kimyo fani o'qituvchisi

Annotasiya. Ushbu maqolada kimyo darslarida o'quvchilar kompetensiyasini rivojlantirishda AKTning o'rni to'g'risida fikr yuritilgan

Kalit so'zlar: axborot texnologiyalari, kompyuter texnologiyalari, animasiyalar, texnik vositalar, tasviriy ko'rgazma.

THE ROLE OF INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGIES IN TEACHING SCIENCE

Davletov Askarali Aslanovich Chemistry teacher at school No. 21 in Syrdarya district of Syrdarya region.

Annotation. This article discusses the role of ICT in developing students' competencies in chemistry.

Keywords: information technology, computer technology, animation, hardware, visual exhibition.

Bugungi kun ta'limining asosiy maqsadlaridan biri zamonaviy ta'lim tizimida yuqori sifatli texnologiyalarni joriy etib, ta'lim samaradorligini oshirish va ta'lim tizimini takomillashtirish, ta'lim jarayoniga axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini keng ko'lamda joriy etishdan iborat. Shaxsning mukammal shakllanishi uchun ta'lim va tarbiya uzviy bog'liqlikda olib borilishi kerak. Dunyoviy bilimlarni shaxs tomonidan mukammal o'zlashtirilishi uchun bugungi kunda kompyuter va axborot texnologiyalarining o'rni salmoqli bo'lib, bugungi kunda insonni shu texnologiyalarsiz tasavvur qilish ancha mushkul. Shaxsning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda ta'lim, tarbiya jarayoniga yondashish an'anaviy pedagogika sohasida juda yaxshi o'rganilgan va o'z samarasiga egadir.

Bugungi axborotlashgan, texnologiyalar jadal sur'atlar bilan o'sib borayotgan zamonda ta'lim, tarbiya sohasida zamonaviy axborot texnologiyalarini, elektron dasturiy vositalarni to'g'ri qo'llash shaxsning mukammal shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Ta'limda zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etilishi:

fanning barcha sohalarini axborotlashtirishni;

o'quv faoliyatni intellektuallashtirishni;

integratsiya jarayonlarini chuqurlashtirishni;

-ta'lim tizimi infratuzilmasi va uni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishga olib keladi.

Buning natijasida o'quvchining bilimlarni puxta egallashiga, o'rganilayotgan hodisa va jarayonlarni modellashtirish orqali fan sohasining chuqur o'zlashtirilishiga, o'quv faoliyatining xilma-xil tashkil etilishi hisobiga uning mustaqil faoliyatini kengayishiga, o'rganilayotgan jarayon va hodisalarni kompyuter texnologiyalari vositasida taqdim etish, o'quvchilarda fan asoslariga qiziqishni va faollikni oshirishga olib keladi.

Yuqorida qayd qilib o'tilgan o'qitishning ilg'or pedagogik texnologiyalari bilan birgalikda yana o'yinli o'qitish, kompyuterli o'qitish, faol(majmuaviy) o'qitish texnologiyalari ham mavjudki, ular tavsiflangan ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan bog'liqlikda shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalar deb ataladi hamda quyidagi funktsiyalarni bajarishga amaliy yordam ko'rsatadi:

o'quvchiga insonparvarlik nuqtai nazaridan yondashish, ular shaxsini hurmat qilish, ular o'quv manfaatining ustivorligini ta'minlashga erishish;

hamkorlikda o'qish, demokratiya, tenglik, o'zaro hurmatni yo'lga qo'yish, orqali o'quvchi shaxsini yaxlit shakllantirishni amalga oshirish;

o'quvchini, o'quv – tarbiya ishlarining obekti emas, balki subekti sifatida tan olgan holda faoliyat samaradorligini oshirishni yo'lga qo'yish; – qar bir o'quvchining qobiliyatli inson deb bilib uning istedodini ro'yobga chiqarishga yordamlashish;

hamma vaqt o'quvchining mustaqilligi, tashabbuskorligi, tadbirkorligini qo'llab quvvatlash;

o'quvchi shaxsining individualligi serqirraligini amalda isbotlay olish, uning imkoniyatlarini ochib berishga ko'maklashishdan iborat.

Bunday yondashuv o'quvchi shaxsini pedagogik jarayon markaziga qo'yib, uni rivojlantirishga, tabiiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga va shu asosida uning faolligini oshirishga shart – sharoit yaratadi. Ta'lim jarayonida texnik vositalardan foydalanish juda muxim o'rinni egallaydi. Ushbu vositalar yordamida mashg'ulotlarni zamonaviy talablarga javob beradigan tarzda olib borish hamda ta'lim oluvchilarning diqqatini jalb etishda keng foydalanish mumkin. Ta'lim beruvchi texnika vositalari, ya'ni kompyuterlar, elektron darsliklar, internet tizimi va boshqa vositalar o'quv axborotini o'zlashtirilishi kerak bo'lgan ma'lumotlarni ta'lim oluvchilarga etkazib

beruvchi texnik vositalardir. Axborot beruvchi texnika vositalariga turli elektromexanik asboblardan, mashg'ulotda ko'rgazmali tasvirlarni ko'rsatishga mo'ljallangan demonstratsion ostsillograflar va ularning o'lchov asboblari, shuningdek, televizor, videoproektor, smartfon mobil aloqa vositalari, tovushli multimedia texnologiyalari va boshqa vositalar kiradi.

Hozirgi kunda o'quv jarayoniga axborot texnologiyalarini joriy qilmasdan, pedagogik texnologiyalar hamda ta'lim metodikasi bilan bog'liq boshqa innovatsiyalardan foydalanmasdan turib, maktab oldida turgan vazifalarni muvaffaqiyatli hal qilib bo'lmaydi. Shundan kelib chiqib, o'quv jarayonini intensivlashtirish muammolarini hal qilish turli xil metodlar va pedagogik yondashuvlarni izlash va ulardan unumli foydalanishni taqozo etadi. Zamonaviy didaktik talablarni, ayniqsa, tabiiy fanlar bo'yicha, avtomatlashtirilgan o'qitish tizimlarining texnik imkoniyatlari hamda kompyuterlardan foydalangan holda muvaffaqiyatli amalga oshirish mumkin.

O'qitish jarayonida kompyuterlardan foydalanish real namoyish tajribalarini amalda qo'llash mumkin emasligi sababli o'quvchilar o'zlashtirishida ma'lum qiyinchiliklar tug'diradigan turli tabiiy hodisalar va kimyoviy jarayonlarni mavhumlik darajasida ham ilmiy jihatdan to'liq tushuntirish imkonini beradi. Kompyuterda o'rgatuvchi dasturlar kimyoviy jarayonlar mexanizmlarini chuqurroq anglashga, asosiy e'tiborini o'rganilayotgan materialning muhim jihatlariga qaratishga yordam beradi, bilim va malakalarni rivojlantirish, olingan bilimlarni amalda qo'llash vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Kimyo ta'limining maqsadi o'quvchilarni kimyo fani asoslari va atrofimizdagi olamni bilish metodlari bilan tanishtirishdan iborat. Bu borada, ob'ektiv sabablarga ko'ra o'rganilishi qiyin bo'lgan quyidagi bo'lim va mavzular alohida o'rin tutadi:

- vizual kuzatish imkoni bo'lmagan jarayonlar va hodisalarni o'qitish;
- og'zaki tushuntirilganda qiyin qabul qilinadigan, mavhum fikrlash va uni talab qiluvchi, model tasavvurlardan foydalanib oson tushuntirish mumkin bo'lgan mavzular;
- portlovchi, zaharli, noyob va qimmatbaho reaktivlardan foydalaniladigan murakkab kimyoviy eksperimentlar;
- maxsus qurilmalarni talab qiluvchi tajribalar.

Mavzularni chuqur o'zlashtirish uchun bu tajribalar va laboratoriya ishlarini o'rganishga alohida e'tibor qaratish kerak bo'ladi.

Animatsion dasturlar. Masalan eritmalar mavzusi bo'yicha ishlab chiqilgan animatsiyalar eshitilgan nazariy materialni 2-3 daqiqada ko'rgazmali namoyish qilinadi. Ko'z bilan ko'rish mumkin bo'lmagan momentlar, jarayon mexanizmi, ionlar, molekularning harakatini ko'rsatish bilan nazariy material mustahkamlanadi. NaCl kristall panjarasining emirilishi, suv molekulari va kristall panjarasining ionlari bir-biri bilan o'zaro ta'siri, gidratlangan ionlar hosil bo'lishi, kristall panjaraning qatlamlarining sekin-asta eritmaga o'tishi, shu yo'l bilan suv molekulari va bromovodorodning o'zaro ta'siri, gidratlangan brom ioni va gidroksoniy ionlari hosil bo'lishi ko'rsatiladi. Elektrolitlarning erish jarayonini qiyoslash uchun shakar – nolektrolitning suvda erish mexanizmini talabalar kompyuter ekranida, rangli tasvirda, ma'ruzachining ovozli sharhlashi bilan birga dinamik

rivojlanishini ko'radilar. Animatsiyalar albatta o'qituvchining tushuntirishi, izohidan keyin beriladi, chunki busiz ular zarur ta'limiy, rivojlantiruvchi va tarbiyaviy vazifani bajara olmaydilar

Demak, kimyo fanini o'qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish ta'lim samaradorligini oshirish, o'quvchilarning fan asoslarini o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishlari va ehtiyojlarini rivojlantirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1.Kompetensiyaviy yondasuvga asoslangan Davlat ta'lim standarti va oquv dasturi; Kimyo, Toshkent-2017 y

2.Ismatov I.Sh., Omonov H.T., Mahmudov Yu.G., Kenjayev D.M., Qo'chqorov M.A., Xolmirzayev Z.J. Xolmatova D.B. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida kimyo fanini o'qitishni takomillashtirish texnologiyalari. "Yangi nashr" Toshkent-2016

3.Uzedu.uz

INTERNET RESOURCES AS A LEARNING TOOL

Imomova Nilufar Abditolibovna

English teacher of tashkent military academic lyceum "Temurbeklar maktabi"

Аннотация: Статья раскрывает ресурсы изучения через интернет, вопросы интегрированных подходов преподавания, эффективность применения технологий в образовательном процессе, а также обеспечения быстрого и удобного доступа к огромному объёму материала во время практических занятий. Использование интернета - это способ достижения основной цели и обеспечение развития личности в информационном пространстве.

Annotation: The article reveals the resources of study through the Internet, issues of integrated teaching approaches and the effectiveness of using Internet technologies in the educational process. It provides with quick and convenient access to huge materials during the practical lessons. Using the Internet is a way to achieve the main goal and ensure the development in the information space.

Key words: Internet, source, information, online websites, opportunity, resource, information technologies, communicative, useful, accentuate, video-link, virtual lessons, translator, user, discussion, useful, analysis, synthesis, comparison, choice, ability, auspicious atmosphere, interactive approach.

Ключевые слова: Интернет, источник, информация, интернет-сайты, возможность, ресурс, информационные технологии, коммуникативный, полезный, акцентировать, видеосвязь, виртуальные уроки, переводчик, пользователь, обсуждение, полезный, анализ, синтез, сравнение, выбор, умение, благоприятная атмосфера, интерактивный подход.

SOURCE OF INFORMATION THROUGH THE INTERNET

Today the Internet is the largest and most convenient source of information in all spheres. There are more than millions of Internet sites which store great amount of useful information about everything: fashion, history, music, sports, science, cooking and so on. Every user can download his or her favorite films and songs, listen to radio channels or play games. Even learning or practicing foreign languages is possible.

Certainly, there is an enormous variety of possible resources that can be used by people in their spare time and that can act as additional sources of knowledge. The Internet has provided us with wonderful opportunities to stay linked, get rich of up-to-date and current information and search out resources from finding a new job to practicing English with huge amounts of online grammar exercises, reading, writing, listening and speaking activities.

Using the Internet in learning languages

Instructional games

Online websites, video classes or lectures

Effective video-links, communication through chats

Musical audio files

Movies without subtitles

Online translators and dictionaries

Current news

TEACHING THROUGH THE INTERNET

Teaching communicative language through the Internet accentuates by the importance of development students' ability and desire to use effectively foreign language in communication. The basic importance is applied to understanding, to transfer meaning of content and expression, and the studying structure and vocabulary of foreign language serves for this purpose. In addition to, the students' needs to master the technique of the Internet is more responsible for their own learning.

In order to have some excellent study skills, the ability to evaluate speech and success, identify and solve educational problems students need to develop the ability to manage with situation where their language resources are not sufficient enough. The development of students' independence through a global network is a progressive process that must be frequently encouraged. Potentially, the most essential task facing language teachers is to find the best ways to guide students to a gradually increasing independence.

INTERNET IN TEACHING PROCESS

The forms of teaching are changing rapidly with the progress of technology. Technology has taken on a bigger role, even in physical classrooms. Most of the teaching methods used in auditory can be applied efficiently. Nevertheless, the effective teaching methods through the Internet will help simplify the delivery of virtual lessons.

The most common methods of teaching are presentations. This technique impacts on students, most of whom are visual learners. Presentations allow you to include visuals and make complex information and data easier to understand, making the lesson more engaging. It also allows to share with the students after the lesson for revision and studying.

It is necessary to encourage the socio-psychological atmosphere in which the student is involved, the confidence that he is respected as a person with his own views, interests, strengths and weakness. The atmosphere is characterized by this spirit of mutual assistance, in which foreign language learning through the Internet is a socially-conditioned experience. We need time to create the communication through Internet.

The Internet assists with form of speaking skills in original teaching language, as well as in teaching vocabulary and grammar. It consequently provides with an authentic and efficiency interest.

Furthermore, the Internet develops skills that are considerable for foreign language. This is foremost due to the mental operations: analysis, synthesis, abstraction, identification, comparison, verbal and semantic prediction and pre-emption, etc. Therefore, skills and abilities that are generated using Internet technologies are beyond the foreign language competence, even in the "language" aspect. Internet develops social and psychological characteristics of students: their self-confidence and their ability to work as a team, creating an auspicious and favorable atmosphere for teaching speaking of an interactive approach.

The internet has revolutionized the world, including the process of learning a language. The internet makes it more available to learn a language, more entertaining, more social and faster. Nothing can replace the hard work involved in learning a new language, but the Internet can certainly make the process more fun.

Used Literature:

1. ICTs in Education for people with special Needs. Specialized Course.// UNESCO Institute for information Technologies in Education.

2. Zhanghongling "The development tendency of the modern foreign language teaching and the computer-assisted instruction. Computer-Assisted Foreign Lang. Education", Brown, H.D.(2001).

TA'LIM TIZIMI AXBOROT-KUTUBXONA MUASSASALARIDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISHNING O'ZIGA XOSLIGI

Инсанов Исмомил Туйчиалиевич

Namangan VTXQTMOHM Pedagogika, psixologiya va ta'lim texnologiyalari kafedrasi muduri.

Тел.рақами: 933731984

Аннотация: Mazkur maqolada axborot kutubxona muassasalarida kitobxonlar bilan ishlashda interfaol usullardan foydalanish hamda kutubxonachilar kasbiy mahoratini oshirishga ko‘maklashuvchi interaktiv tadbirlar berilgan.

Аннотация: В данной статье представлены интерактивные мероприятия способствующие по повышению профессионального мастерства библиотекарей и использованию интерактивных методов работы с читателями в информационно-библиотечных учреждениях.

Annotation: In given clauses is spoken about search of new methods, ways and modes of work with the readers, improving knowledge and pedagogical skill of the librarians for increase of a learning efficiency

Hozirgi ta’lim–tarbiya tizimini rivojlantirishda tarbiya jarayonini insonparvarlashtirish alohida ahamiyatga ega. Umuman tarbiya jarayonida faoliyat va munosabatlarni insonparvarlashtirish, demokratlashtirish va erkinlashtirish innovatsion yondashuv deb qabul qilinmoqda [1,5-b]. Kitobxonlar bilan ishlash tizimini olib borishda kutubxonachi o‘quvchi shaxsini hurmat qilish, uni e‘zozlash, kechirimli bo‘lish, kitob bilan ishlash jarayonida o‘zini-o‘zi rivojlantirish uchun ijodiy muhit yaratish, unga nisbatan do‘stona munosabatda ish yuritish, ehtiyoji, qiziqishi, shaxsiy fazilati iqtidori, ichki imkoniyatlarini ishga solishni maqsad qilib olishi kerak. Kutubxonachi shu jarayonda sub’ekt-sub’ekt hamkorligida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni ijodiy muhitda olib boradi va kutilgan samaradorlikka erishadi.

Uzluksiz ta’lim tizimidagi o‘zgarishlar, kitobxonning axborot olishga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish uchun zarur sharoitlarning yaratilishini taqozo etadi. Bolalarga bilim va tarbiya beruvchi asosiy manba kitobdir. Kitob o‘qish maktabdagi ta’lim jarayoni bilan uzviy bog‘liqdir, chunki bolalar muntazam o‘qish san’ati bilan maktabda tanishadilar. Shu o‘rinda maktabda o‘quvchining o‘quv fanlarini egallashi, bilimlarni o‘zlashtirishi va o‘z ustida mustaqil ishlashiga bog‘liq bo‘lib, bu jarayon kutubxonalar zimmasiga yuklatilgandir [2, 4-b]

Zamonaviy kutubxonachining o‘rni va roli, o‘z-o‘zidan uning izlanuvchanligida, o‘zligini anglashida, bor mahoratini ishga solib «jarayon»ni amalga oshirishidadir [1,54-b]. Kutubxonachi tarbiya texnologiyasining loyihalovchisi ekanini anglab olmog‘i va shu yo‘nalishda boshqalarni ergashtirmog‘i lozim. Umumta’lim maktab kutubxonalari faoliyatini o‘quvchilar ongida milliy istiqloq g‘oyasini shakllantirish, ularni mustahkam e‘tiqod egasi etib tarbiyalashning muhim markazi sifatida faoliyatni tizimli takomillashtirish yo‘llarining nazariy va amaliy jihatdan asoslab berish ham muhim o‘rin egallaydi. Bu esa ushbu yo‘nalishdagi ilmiy-tadqiqot va izlanishlarni muntazam olib borish lozimligini taqozo qilmoqda [3,58-b]

Bugun o‘quvchilar o‘zlari uchun qiziqarli bo‘lgan ko‘pgina ma’lumotlarni, asosan, ommaviy axborot vositalari va internet saytlaridan olishga muvaffaq bo‘lmoqdalar. Bu ijobiy hodisa, albatta. Lekin bunday harakat natijasida o‘quvchilarning ko‘pchiligi kitob mutolaasiga loqayd bo‘lib qolishmoqda. Ayniqsa, badiiy kitoblarning o‘quvchilar tomonidan o‘qilish darajasi qoniqarli emasligi kuzatishlarmiz natijasida ma’lum bo‘ldi.

Turli axborot vositalari orqali kirib kelayotgan ma’lumotlarning barchasi ham o‘quvchining ma’naviy darajasi, madaniyatini yuksaltirishga xizmat qila olmaydi.

Kitobxonga bo‘lgan ishonchning yuqoriligi, muloqot madaniyatining yetuk darajada bo‘lishi, o‘quvchining majburlashdan voz kechish va aksincha, ularni rag‘batlantirishning ustunligi tufayli kitobxonlikni oshirishdan ko‘zlangan niyatga erishish maqsadida o‘quvchi faoliyatidagi kamchiliklarni bartaraf etishning samarali yo‘llarini izlash zarur.

Ta’lim sohasida bo‘layotgan o‘zgarishlar, yangiliklardan boxabar bo‘lish va ularni amaliyotda qo‘llash, darslik, dastur va qo‘llanmalarining, boshqa kerakli adabiyotlarning elektron variantlariga ega bo‘lish albatta, ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini ta’minlashga, ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Axborot-kutubxona muassasalarida kitobxonlar bilan o‘tkaziladigan **“Ma’lumotlar ombori”** nomli noan’anaviy tadbir ham kitobxonlikni oshirishda alohida ahamiyat kasb etadi. “Ma’lumotlar ombori” tadbirini tashkil etishda, albatta aniq voqea yoki respublikadagi ijtimoiy–siyosiy, iqtisodiy,

fan va madaniyat yangiliklariga tayanish hamda o'quvchilar yosh xususiyatlarini hisobga olinishi lozim. Tadbir davomida o'tkaziladigan suhbat uchun asosiy manba sifatida gazetalar, jurnallar, Internet ma'lumotlari va o'quvchilarni dars davomida olgan bilimlari bo'lishi mumkin. Bu ma'lumotlar dalillar asosida, qiziqarli bo'lishi kerak. Suhbatga materiallar tayyorlashda, kitobxonlar uchun mavzu bo'yicha savollar oldindan tayyorlab qo'yilishi lozim. Savollarning ba'zilar dalillarga asoslangan, ba'zilar esa, fikrlar bildirishga qaratilgan bo'lishi, kitobxonalarni mantiqan o'ylashga, dalillarni aniq keltirishga va faollashtirishga olib keladi.

"Ma'lumotlar ombori" tadbiri davomida o'quvchilar mavzu bo'yicha yana qanday ma'lumotlarga ega ekanliklari, manbalarni qайдan olish lozimligi kabi savollar orqali ularni kitobga bo'lgan ijobiy munosabatini yanada mustahkamlanadi. Bunday tadbirlarni "Raqamli iqtisodiyot nima?", "Globalashuv jarayoni va ekologiya", "Ta'lim va yoshlar", "Internet: nima yaxshi-yu, nima yomon?", "Yangi O'zbekiston yuksaklik sari" kabi mavzularda o'tkazilishi maqsadga muvofiq. Bunda o'quvchilar kutubxonachi yordamida ma'lumotlarni to'plab, qiziqarli tarzda rasmlar va plakatlar ko'rgazmalari, kitob va vaqtli matbuot nashrlari hamda, videoroliklar, videofilmlar va slaydlar orqali ishtirokchilarga ma'lumotlarni yetkazishadi. Bunday interfaol tadbirlar orqali kutubxonachilar o'quvchilarda axborotni qidirish, o'rganish va tahlil qilish qobiliyatini oshirish, tadqiqotchilik ko'nikmalari va tajribasini, tadbirlarda qatnashish orqali kommunikatsiya qilish ko'nikmalariga ega bo'lish, hamda o'z-o'zini boshqarish, faollik, hamkorlik va hozirjavoblik, izlanuvchanlik kabi sifatlarini shakllantirishga erishadilar.

Адабиётлар:

- 1.Yo'ldoshev E.Kutubxonada bolalar o'qishiga rahbarlik qilish.- T.: «Yangi asr», 2019.- 128 bet
2. Murodxo'jaeva.Z. Kasbiy faoliyatni tashkil etish talablari.-// KUTUBXONA-UZ, 2020 yil, 4- son, 57 b.

PYTHON DASTURLASH TILINING KELIB CHIQISH TARIXI VA SINTAKSISI

Avazov Tohir Shakarovich

*Jizzax VXTXQTMOHM katta o'qituvchisi ,
avazovtohirshakarovich2507@gmail.com*

Annatsiya: *Ushbu ishda Python dasturlash tilining kelib chiqish tarixi va sintaksisi hamda ta'lim jaryonida qo'llashning imkoniyatlari qarab chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *ta'lim jarayoni, texnologiya, internet, dasturlash, dasturlash tillari.*

O'zbekiston Respublikasining mustaqillik odimlarini dadil qo'ygan hozirgi davrda axborotlashgan jamiyat qurish masalasi mamlakatimiz kelajagi uchun naqadar katta ahamiyat kasb etayotgani bizga sir emas. Internet hayotimizning bir bo'lagiga aylandi va biz uning xizmatlaridan har kuni foydalanib kelimiz. Respublikamizda o'qitish texnologiyalarini zamonaviylashtirishni jadallashtirish dolzarb ahamiyatga ega. Chunki, hozirgi kunda milliy ta'lim tizimining salohiyati iqtisodiy rivojlanishini yanada yuqori pog'onasiga ko'tarilishga amaliy imkoniyatni ta'minlovchi asosiy ijtimoiy manba sifatida gavdalanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 11-maydagi "2022-2026 yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-134-son farmoni va PQ-241-sonli qarorlari fikrimizning amaliy ifodasidir.

Respublikamiz ta'lim tizimidagi asosiy vazifalardan biri, jahon talablariga mos keluvchi axborot texnologiyalarini o'qitish jarayoniga qo'llashdan iboratdir. O'zbekistonda ta'lim tizimining axborotlashtirilishi xalqaro hamjamiyatda ham tanolindi.

Python - mustaqil dasturlarni ishlab chiqishda va dasturlarning keng ko'lamdagi dasturlarida skriptlarni yaratish uchun ishlatiladigan mashhur dasturlashtili. Bu kuchli, portativ, qulay va bepul tildir. Ko'p sohalarda ishlaydigan dasturchilar, Pythonning samaradorlik va yuqori sifatli dasturiy ta'minotni ishlabchiqishga yo'naltirilganligi kichik va yirik loyihalarda ham strategik afzalliklarga ega bo'lishiga ishonadi.

Python foydalanuvchilari soni butun dunyo bo'ylab 1 million kishiga yaqin bo'lgan raqamdir (2011 yildan boshlab). Ushbu smeta turli statistik ko'rsatkichlarga asoslanadi, masalan, yuklashlar soni

va ishlab chiquvchilar tadqiqotlari natijalari. Python ochiq manba kodli dastur bo'lib, uni ishlatish uchun hech qanday litsenziyatalab qilinmaydi. Python nafaqat shaxsiy foydalanuvchilar tomonidan qo'llanilgan, balki real daromad keltiradigan mahsulotlarni yaratish uchun kompaniyalar tomonidan ham qo'llaniladi.

Python hozirgi kunda ko'plab yirik kompaniyalar tomonidan har qanday muammolarni hal qilish uchun ishlatiladigan eng mashhur va samarali yuqori darajali dasturlash tillaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun, bu ishning maqsadi Python dasturiy tilini umumiy nuqtai nazardan ko'rib chiqish hamda amaliyotda qo'llanilish usullarini batafsil o'rganishdir.

Python dasturlash tilini yaratilishi 1980-yil oxiri 1990-yil boshlaridan boshlangan. O'sha paytlarda uncha taniqli bo'lmagan Gollandiyaning CWI institutidagi Gvido van Rossum ABC tilini yaratilish proektida ishtirok etgan edi. ABC tili Basic tili o'rniga talabalarga asosiy dasturlash konsepsiyalarini o'rgatish uchun mo'ljallangan til edi. Bir kun Gvido bu ishlardan charchadi va 2 hafta davomida o'zining Macintoshida boshqa oddiy tilning interpretatorini yozdi, bunda u albatta ABC tilining ba'zi bir g'oyalari o'zlashtirdi. Shuningdek, Python 1980-1990-yillarda keng foydalanilgan Algol-68, C, C++, Modul3 ABC, SmallTalk tillarining ko'plab xususiyatlarini o'ziga olgandi. Gvido van Rossum bu tilni internet orqalitarqata boshladi. Bu paytda o'zining "Dasturlash tillarining qiyosiy taqrizi" veb sahifasi bilan internetda to 1996-yilgacha Stiv Mayevskiy ismli kishi taniqli edi.

Bir qancha vaqt o'tib Gvido Gollandiyadan Amerikaga ko'chib o'tdi. Uni CNRI korporatsiyasiga ishlashga taklif etishdi. U o'sha yerda ishladi va korporatsiya shug'ullanayotgan proektlarni Python tilida yozdi va bo'sh ish vaqtlarida tilni interpretatorini rivojlantirib bordi. Bu 1990-yil Python 1.5.2 versiyasi paydo bo'lguncha davom etdi. Gvidoning asosiy vaqti korporatsiyani proektlarini yaratishga ketardi bu esa unga yoqmasdi. Chunki uning Python dasturlash tilini rivojlantirishga vaqti qolmayotgandi. Shunda u o'ziga tilni rivojlantirishga imkoniyat yaratib bera oladigan homiy izladi va uni o'sha paytlarda endi tashkil etilgan BeOpen firmasi qo'llab quvvatladi. U CNRI dan ketdi, lekin shartnomaga binoan u Python 1.6 versiyasini chiqarib berishga majbur edi. BeOpen da esa u Python 2.0 versiyani chiqardi. 2.0 versiyasi bu oldinga qo'yilgan katta qadamlardan edi. Bu versiyada eng asosiysi til va interpretatorni rivojlanish jarayoni ochiq ravishda bo'ldi.

Shunday qilib 1.0 versiyasi 1994-yil chiqarilgan bo'lsa, 2.0 versiyasi 2000-yil, 3.0 versiyasi esa 2008-yil ishlab chiqarildi. Hozirgi vaqtda uchinchi versiyasi keng qo'llaniladi.

Pythonning kengayishi va C va C++ tizimlariga qo'shilish qobiliyati boshqa tizimlar va komponentlarning xatti-harakatlarini tavsiflash uchun qulay va moslashuvchan tildir. Misol uchun, C til kutubxonasi bilan integratsiya Pythonga kutubxona qismlarini tekshirish va ishlatish imkonini beradi va Pythonni dasturiy ta'minot mahsulotlariga kiritish bu mahsulotlarni qayta taqsimlamasdan yoki manbakodi bilan ta'minlamasdan dasturiy mahsulotlarni sozlash imkonini beradi.

PYTHON DASTURLASH TILIDA STANDART KUTUBXONA MODULLARI

Nizamov Akmal Shaxobiddinovich, Mavlyanov Mo'minjon Akramovich, F.X. Eshmonova

Sirdaryo VXTXQTM OHM o'qituvchisi, Guliston shahar 1-umumta'lim maktabi o'qituvchisi,

Sardoba tuman 12-maktab informatika fani o'qituvchisi

Bugungi kunda Axbarot texnologiya kirib bormagan soxa qolmadi, iqtisodiyotni turli soxalarini olib qaraymiz va boshqa soxalarni olib qaraymizmi Axbarot texnologiyalari bilan ishlash, uni bu soxalarga qo'llash dolzarbligini yo'qotgani yo'q.

Axbarot texnologiyalarining soxalaridan biri bo'lgan dasturlash tilixam kundan – kunga rivojlanib bormoqda. Xususan dasturlash tillaridan biri "python" dasturlash tilixam bugungi kunda dasturchilar orasida mashxurlikga erishib bormoqda. Python dasturlash tili xaqida qisqcha aytadigan bo'lsak, bu turli sohalar uchun yuqori darajadagi umumiy maqsadli dasturlash tili hisoblanadi. Uning dizayn falsafasi muhim chekinishdan foydalangan holda kodning o'qilishiga urg'u beradi. Uning til konstruksiyalari va obyektga yo'naltirilgan yondashuvi dasturchilarga kichik va yirik loyihalar uchun aniq, mantiqiy kod yozishda yordam berishga qaratilgan. Shuningdek Python sun'iy intellekt hamda ma'lumotlar muhandisiligi sohalarining tili hisoblanadi.

Python deyarli barcha platformalarda ishlay oladi, xususan Windows, Linux, Mac OS X, Palm OS, Mac OS va boshqalar shular jumlasidandir. Python Microsoft. NET platformasi uchun yozilgan realizatsiyasi ham mavjud bo‘lib, uning nomi — IronPython dasturlash muhitidir.

Python dasturlash tilining yanabir imkoniyatlaridan biri uning kutubxonasi, yani modullaridir Python dasturlash tilining kutubxonasida 200dan ortiq standart modullari bo‘lib, ularning ortiqcha yoki keraksizi yo‘q. Dastur tuzish jarayonida vazifasiga qarab modullardan foydalanamiz. Masalan, matematik ifodalarni hisoblash uchun `math`, grafik interfeysli dasturlar yaratish uchun `tkinter`, fayl va papkalar bilan ishlashda `os` va boshqa standart modullar bor.

Modullar bu o‘zida funksiyalar, klasslar, ro‘yxatlar, o‘zgaruvchilarni saqlovchi python fayllaridir. Modullar ikkiga bo‘linadi: standart modullar va foydalanuvchilar tomonidan yaratilgan modullar. Standart modullar python dasturlash muhiti bilan birga o‘rnatilgan bo‘ladi. Modullardan foydalanish uchun ularni quyidagicha dastur kodlariga bog‘lashimiz kerak.

```
import math
```

```
print(math.pi)
```

Barcha funksiyalarini olish uchun:

```
from math import *
```

```
print(pi)
```

Modulni nomini o‘zgartirib olish:

```
import math as m
```

```
print(m.pi)
```

Modullardagi funksiya, o‘zgaruvchilarni ko‘rish uchun `dir()` funksiyasidan foydalanamiz. `dir()` funksiyasi barcha modullar uchun amal qiladi. Masalan,

```
import math
```

```
print(dir(math))
```

Standart modullar. 1. Math-matematik ifodalarni, masalalarni hisoblashda foydalaniladi.

Funksiya	Vazifasi	Funksiya	Vazifasi
<code>sqrt(x)</code>	x ni kvadrat ildizi.	<code>log10(x)</code>	x ning 10 lik logarifmini hisoblaydi.
<code>pow(x, n)</code>	x ning n chi darajadi.	<code>sin(x)</code>	x ning sinusini hisoblaydi.
<code>factorial(x)</code>	x ning faktorialini hisoblaydi.	<code>cos(x)</code>	x ning kosinusini hisoblaydi.
<code>abs(x)</code>	x ning modulini hisoblaydi.	<code>tan(x)</code>	x ning tangesini hisoblaydi.
<code>ceil(x)</code>	x ni katta songacha yaxlitlaydi.	<code>asin(x)</code>	x ning arksinusini hisoblaydi.
<code>round(x, n)</code>	x sonini nuqtadan keyin n ta belgigacha yaxlitlaydi.	<code>acos(x)</code>	x ning arkkosinusini hisoblaydi.
<code>floor(x)</code>	x ni kichik songacha yaxlitlaydi.	<code>atan(x)</code>	x ning arktangesini hisoblaydi.
<code>log(a, b)</code>	b asosga ko‘ra a logarifmini hisoblash.	<code>degrees(x)</code>	Radiandan gradusga o‘tkazish.
<code>e</code>	e o‘zgarmas kattalik	<code>radians(x)</code>	Gradusdan radianga o‘tkazish.
<code>pi</code>	Pi o‘zgarmas kattalik		
<code>round(x, n)</code>	x sonini nuqtadan keyin n ta belgigacha yaxlitlaydi.	<code>acos(x)</code>	x ning arkkosinusini hisoblaydi.

Masala. Kiritilgan sonni sinusi, kosinusi, tangensini hisoblovchi dastur tuzing.

```
import math
```

```
n=int(input("Son kiriting: "))
```

```
print("Sinusi", math.sin(n))
```

```
print("Kosinusi", math.cos(n))
```


```
print("Tangensi", math.tan(n))
```

1. **Turtle**-bu modul yordamida ekranda turli shakl va chiziqlarni chizishimiz mumkin. Pythonni o'rganuvchilar ham birinchi shu moduldan o'rganishni boshlashadi.
- 2.

Funksiya	Vazifasi	Funksiya	Vazifasi
forward()	Oldinga yurgizdirish.	speed()	0.. 10 oraliqdagi tezligi.
backward()	Orqaga yurgizdirish.	pendown()	Qalamni tushirib chizish mumkin.
right()	O'nga burish.	penup()	Qalamni ko'tarish.
left()	Chapga burish.	pensize()	Chiziq qalinligi.
bgcolor()	Fon rangi.	pencolor()	Chiziq rangi.
title()	Sarlavha nomi.	clearscreen()	Ekranni tozalash.

Turtle modulining boshqa ko'plab funksiyalari bor. Masala. Geometrik figura chizamiz.

```
import turtle as t
t. bgcolor("blue")
t. color("white")
t. left(10)
t. circle(80)
t. speed(0)
for i in range (80):
    t. forward(10+i)
    t. right(40)
    t. left(10)
    t. circle(100)
    t. forward(10+i)
    t. right(40)
    t. left(10)
    t. circle(80)
import turtle as t
t. bgcolor("blue")
t. color("red")
t. left(10)
t. circle(100)
t. speed(0)
for i in range (100):
    t. forward(100-i)
    t. right(40)
    t. left(10)
    t. circle(100)
    t. forward(100-i)
    t. right(40)
    t. left(10)
    t. circle(100)
```



3. Random-bu modul tasodifiy sonlarni olishda yoki ro'yxat elementlarini tasodifiy aralashtirishda foydalaniladi.

Funksiya	Vazifasi	Funksiya	Vazifasi
random()	0 va 1 dan birini oladi.	choice()	Ro'yxatdan tasodifiy elementni olish
randint(a, b)	a va b oraliqdan tasodifiy sonni olish	shuffle()	Ro'yxatni aralashtirish

randrange(a, b, c)	a va b oraliqdan tasodifiy sonni c qadam bo'yicha olish	uniform(a, b)	a va b oraliqdan tasodifiy sonni olish
--------------------	---	---------------	--

```
import random
print("Tasodifiy son:", random.randint(1, 100))
```

Xulosa. Python dasturlash tilining standart modullari, funksiyalari haqida butun boshli kitob yozsa bo'ladi. Ushbu maqola orqali ko'p foydalaniladigan ayrim funksiyalar haqida ma'lumot berib o'tdim. Pythonda F1 klavishini bosib qolgan funksiyalar haqida ma'lumot olish mumkin. Dastur tuzish jarayonida ko'p vaqt sarflamaslik va ish sifati, unumdorligini oshirish uchun standart modul, funksiyalar haqida batafsil o'rganish muhim ahamiyatga ega.

AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Irgasheva Ch. A.

Sirdaryo tumani 39 maktab amalyotchi psixolog

Annotatsiya: Ta'limda axborot texnologiyalaridan foydalanish ta'lim jarayonini takomillashtirishning zamonaviy usullaridan biri bo'lgan o'qitishning ko'plab shakllari va usullarini diversifikatsiya qilish imkonini beradi.

Аннотация: Использование информационных технологий в образовании позволяет разнообразить широкую палитру форм и методов обучения, которые являются одним из современных путей совершенствования учебного процесса. **Abstract:** The use of information technology in education allows you to diversify a wide range of forms and methods of teaching, which are one of the modern ways to improve the educational process.

Ayni paytda mamlakatimizning ko'plab fuqarolari zamonaviy ta'lim tizimiga faol qiziqish bildirmoqda. Ko'pincha, ularning ko'pchiligi o'z farzandlarining ta'limi haqida qayg'uradigan maktab o'quvchilarining ota-onalari. Hatto o'quv jarayoni bilan bevosita bog'liq bo'lmagan odamlar ham ta'lim sohasidagi muammolarni payqashlari mumkin, ammo o'qituvchilar, albatta, mavjud muammolar va qarama-qarshiliklarni eng aniq bilishadi. Axborot texnologiyalari inson faoliyatining barcha jabhalarida qo'llaniladi, jamiyatdagi axborot oqimlari yordamida tarqaladi va global axborot makonini tashkil etadi. Bugungi kunda dunyoda ular yanada keng tarqalmoqda, chunki jamiyat axborotni yangilashga muhtoj. Jamiyat hayotining deyarli barcha sohalarida axborot texnologiyalaridan foydalaniladi. Ushbu jarayonning samarali tashkil etish uchun ta'limni kompyuterlashtirishdir. Bugungi kunda O'zbekistonda bir qator islohatlar amalga oshirilmoqda. Ta'lim vazirligi o'quv jarayonini axborotlashtirishga katta e'tibor qaratmoqda, chunki axborot texnologiyalaridan foydalanish talabalarni o'qitishning pedagogik usullarini sezilarli darajada oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni qabul qilinib, Harakatlar strategiyasining to'rtinchi "Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishi"ning to'rtinchi "Ta'lim va fan sohasini rivojlantirish" bandidan kelib chiqqan holda uzluksiz malaka oshirish tizimiga alohida e'tibor qaratildi. Shu asosda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 26-sentyabrda «Pedagog kadrlarni tayyorlash, xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori qabul qilindi. Unda uzluksiz malaka oshirish tizimi samaradorligini yanada takomillashtirish, o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini doimiy rivojlantirish masalasiga alohida e'tibor qaratildi. Kompyuter texnologiyalari inson faoliyatining barcha sohalariga kirib keldi va kirib kelmoqda. Elektron kompyuterlar ishlatilmaydigan biron bir sanoatni tasavvur qilib bo'lmaydi. Ta'lim sohasi ham bundan mustasno emas va kompyuterlashtirilgan. Bundan tashqari, kompyuterlar qo'shimcha o'rganish vositasi sifatida qaralmaydi, lekin uning samaradorligini sezilarli darajada oshirish uchun mo'ljallangan yaxlit ta'lim jarayonining ajralmas qismi sifatida [4]. Ammo ta'lim masalalarini hal qilish uchun kompyuter har doim ham to'liq ishlatilmaydi. Buning sababi

shundaki, axborot texnologiyalari maktabda hali o'zining munosib qo'llanilishini topmagan. Maktablarda xukumatimiz tomonidan kompyutr jamlamalari bilan jihozlash ishlari ohirgi besh yillikda sezilarli darajada o'zgard, lekin kompyuter texnologiyalarining barcha imkoniyatlari foydalanish amalga oshirilmagan. Ko'pgina o'qituvchilar yangi axborot texnologiyalari imkoniyatlari ko'nikmalariga ega emaslar. Ko'pgina hollarda maktabda kompyuterdan foydalangan holda darslarni o'qitishning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda informatika o'qituvchilari olib boradilar, ular alohida fanlarni o'qitish uchun kompyuter texnologiyalaridan foydalanishda maktablarda metodist informatiklar etishmaydi. Ba'zida o'qituvchilar shunday deyishadi: "Bizga buni o'rgatilmagan. Bizga bu material berilmagan». Ammo, shunga qaramay, zamonaviy o'qituvchilarga qo'yiladigan talablar o'qituvchilarning o'z-o'zini tarbiyalash sohasidagi vakolatlarga ega bo'lishini ta'minlaydi.

Ta'lim tizimini modernizatsiya qilish jamiyatning innovatsion rivojlanishi imkoniyatlarini kengaytiradi. U ta'limni rivojlantirishning yangi konseptual yondashuvlarini amalga oshirishga asoslanadi. Endilikda yangi Ta'lim va fan sohasini rivojlantirish, ta'lim standartlari ma'lum kompetensiyalar va universal ta'lim faoliyatini shakllantirishga qaratilgan eng yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanishga asoslangan talabalarni o'qitishda tizimli-faollik yondashuvini joriy etishga imkon beradi. ATni amaliyotga joriy etish modernizatsiyaning eng muhim yo'nalishlaridan biridir. Bu nafaqat bilim darajasini oshirish, balki axborot kompetensiyasini rivojlantirish, shaxsning intellektual salohiyatini yuzaga chiqarish imkonini beradi. So'nggi besh yillikda maktab ta'limida keng ko'lamli kompyuterlashtirish amalga oshirilmoqda: tobora ko'proq o'quv xonalari kompyuterlar bilan jihozlangan, tobora ko'proq media resurslari darsliklarni taklif qilmoqda. Endi maktab sinfini o'qituvchi kompyuterisiz tasavvur qilib bo'lmaydi, interaktiv doska va boshqa kompyuter uskunalari. Axborot texnologiyalari foydalanuvchilarga dasturiy va texnik vositalardan foydalanish asosida qo'yiladigan talablarga muvofiq ma'lumotlar, ma'lumotlar va bilimlarni yig'ish, to'plash, saqlash, qidirish, qayta ishlash, tahlil qilish, berish usullari va usullarini o'z ichiga oladi. Axborot texnologiyalarining quyidagi uchta asosiy komponenti mavjud: texnik vositalar majmui; dasturiy ta'minot; tashkiliy-uslubiy ta'minot tizimlari. Aloqa vositalari va axborot tashuvchilari yordamida axborot texnologiyalari odamlarga nafaqat hozirgi zamon, balki o'tmishdagi voqealardan ham xabardor bo'lish imkonini beradi. Axborot texnologiyalari ikki turga bo'linadi: analog; raqamli. Analog texnologiyalar axborot ma'lumotlarini uzluksiz tasodifiy o'zgaruvchi ko'rinishida ifodalaydi; Raqamli axborot texnologiyalari axborotni ikkilik arifmetika ko'rinishida tasvirlashning diskret usulidan foydalanadi. Axborotning raqamli ko'rinishi ko'proq shovqinlardan himoya qiladi, shu jumladan aloqa kanallari orqali uzatish paytida. Shunday qilib, axborot texnologiyalari va informatika bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir. Informatika - ularni avtomatlashtirish, yaratish va ishlatish usullari, vositalari va texnologiyalari haqidagi fan. Informatika fan sifatida o'quvchilar tafakkurini shakllantira oladigan shunday mazmunni qamrab oladi. Masalan, bular "tushunchalar", "axborotni strukturalash", "mulohaza yuritish" va hokazo mavzulardir. Demak, informatika o'quv predmeti sifatida o'z mazmuniga ko'ra o'quvchilarda axborot bilan ishlash usullarini, fikrlash usullarini shakllantirishga chaqiriladi. [2]. Informatika darslarida dunyoni tizimli idrok etish shakllanadi, turli xil tabiiy va ijtimoiy hodisalarning yagona axborot aloqalarini rivojlantirish, tizimli fikrlash rivojlanadi, uning darajasi ko'p jihatdan axborotni tezkor qayta ishlash va uning asosida asosli qarorlar qabul qilish qobiliyati bilan belgilanadi, bu maktab o'quvchilaridan va o'qituvchilardan qo'shimcha imkoniyatlarni talab qiladi. har doim yangi metodlar va o'qitish vositalaridan foydalanish [3]. Har bir maktab mavzusida kompyuter texnologiyasi grafik, audio va video fayllarni namoyish qilish imkoniyatini beruvchi katta yordam berishi mumkin. Bundan tashqari, juda ko'p turli xil dasturlar mavjud Uning yordamida siz ob'ekt modellarini har tomonlama ko'rib chiqishingiz, har qanday hodisa yoki jarayonni taqlid qilishingiz, har qanday murakkab hisob-kitoblarni bajarishingiz va batafsil tahlillarni taqdim etishingiz mumkin. Bularning barchasi sizga ko'pincha etishmayotgan vaqtni sezilarli darajada tejash imkonini beradi, bu sizga haqiqiy hayotda ko'pincha qiyin yoki imkonsiz bo'lgan narsalarni qilish imkonini beradi

ADABIYOTLAR:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 27 июндаги “Ёшлар –

кељагагимиз” Давлат дастури тўғрисида”ги ПФ-5466-сон Фармони. // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 15. 08. 2018 й., 07/18/3907/1706-сон

2. Polat E. S. Masofaviy ta’limning pedagogik texnologiyalari - Masofaviy ta’lim: qo’llash sohalari, muammolari va rivojlanish istiqbollari / Xalqaro ilmiy-amaliy Internet konferentsiyasi - M. - 2005. - B. 50-55. Skakovskaya L. N. O’quv jarayonini modernizatsiya qilish yo’lida / L. N. Skakovskaya, N. A. Luchinina, V. V. Migal // Rossiya oliy ta’lim. -2010 yil. - N 3. - S. 61-67.

3. Fedotova, E. L. Fan va ta’limda axborot texnologiyalari: Darslik / E. L. Fedotova, A. A. Fedotov. - M. : ID FORUM, NITs INFRA-M. - 2013. - 336 b. Sulla R. V.,

4. Masofaviy ta’limning pedagogik texnologiyalari - Masofaviy ta’lim: qo’llash sohalari, muammolari va rivojlanish istiqbollari / Xalqaro ilmiy-amaliy Internet konferentsiyasi —.

TA’LIM JARAYONIDA MASOFAVIY TA’LIMNING O’RNI

Juraqulova Muqaddas Rabbimovna, Abdulazova Mavjuda Ibrohimovna

Sayxunobod tumani 23-maktab,.

Sayxunobod tumani 16-maktab boshlang’ich sinf o’qituvchilari.

Annotasiya: Maqolada oliy ta’lim tizimida masofaviy ta’limni joriy etish texnologiyalari, ta’limni boshqarish tizimlarining funksiyalari, ularga qo’yiladigan talablar xususida fikr yuritilgan.

Tayanch so’z va iboralar: masofaviy ta’lim, elektron ta’lim, ta’limni boshqarish tizimi, o’quv kontentini boshqarish tizimi

Аннотация: В статье рассматриваются некоторые аспекты технологии внедрения дистанционного обучения в высших учебных заведениях..

Ключевые слова и понятия: дистанционное обучение, электронное обучение, системы управления обучением, системы управления учебным контентом

Annotation: In the article is considered some aspects of distance learning technology introduction into higher educational institutions.

Keywords: distance learning, electronic training, learning management systems, control systems of educational content

Zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalari vositalarini ta’lim jarayoniga kirib kelishi an’anaviy o’qitish usullariga qo’shimcha ravishda yangi o’qitish shakli – masofaviy o’qitishning yaratilishiga omil bo’ldi.

Masofaviy ta’limda tinglovchi fazoviy bir-biridan ajralgan holda o’zaro maxsus yaratilgan o’quv kurslari, nazorat shakllari, elektron aloqa va internetning boshqa texnologiyalari yordamida doimiy muloqotda bo’ladilar. Internet texnologiyasini qo’llashga asoslangan masofaviy o’qitish jahon axborot ta’lim tarmog’iga kirish imkonini beradi, integratsiya va o’zaro aloqa tamoyiliga ega bo’lgan yangi funksiyalarni bajaradi.

Masofaviy o’qitish barcha ta’lim olish istagida bo’lganlarga o’z malakasini uzluksiz oshirish imkonini yaratadi. Bunday o’qitish jarayonida tinglovchi interaktiv rejimda mustaqil o’quv-uslubiy materiallarni o’zlashtiradi, nazoratdan o’tadi, o’qituvchining bevosita rahbarligida nazorat ishlarini bajaradi va guruhdagi boshqa “virtual o’quv guruhi” a’zolari bilan muloqotda bo’ladi. Masofaviy ta’lim jarayonini qo’llash asosan ikki xil ko’rinishda amalga oshiriladi. Birinchi sharti bu texnik jihozlar bo’lsa, ikkinchi sharti maxsus dasturiy ta’minotlar bilan ta’minlanganligidir:

1. Texnik jihozlar bilan ta’minlanganlik: kompyuterlar, tarmoq qurilmalari, yuqori tezlikdagi internet tarmoqlari, videokonferentsiya jihozlari va hokazo.

2. Dasturiy ta’minotga shu soha uchun mo’ljallangan dasturlar to’plami kiradi.

Masofaviy ta’limni tashkil etishda o’quv jarayonini boshqaruvchi tizimlar asosiy o’rin tutadi.

O’qitish tarkiblashtirilgan va rekursiv jarayonni ifodalaydi. Bilimlar almashish, ekspert baholash va konsensusni shakllantirish orqali bir xil o’qitish ssenariylarida jalb etilgan barcha ishtirokchilar hamda ob’ektlar intellektual faoliyat yo’nalishida yaqinlashishlari lozim. Bundan tashqari, ular o’zaro har xil turdagi ommaviy axborot vositalari orqali ma’lumot almashish imkoniga ega bo’lishlari lozim. Shunday qilib har xil o’qitish predmetlari va ob’ektlari asosida turli o’qitish jarayonlarini qurish muhim ahamiyatga egadir

Zamonaviy axborot va kommunikasiya texnologiyalari vositalarining ta'lim jarayoniga kirib kelishi an'anaviy o'qitish usullariga qo'shimcha ravishda yangi o'qitish shakli – masofaviy o'qitishning vujudga kelishiga omil bo'ldi. Nima uchun bugungi kunda ta'limda axborot texnologiyalarini joriy etishning nazariy asosini yaratish, masofaviy ta'lim kurslarini yaratish va amaliyotga tatbiq etish zaruriya-ti paydo bo'ldi? Birinchidan, o'qituvchining o'quv jarayonining tashkilotchisi sifatida emas, balki bilimlarni egallash manbalaridan biriga aylanib qolayotganligi bo'lsa, ikkinchidan, ilmiy-texnik taraqqiyotning rivojlanayotgan bosqichida axborotlarning keskin ortib borayotganligi va ulardan o'qitish jarayonida foydalanish uchun vaqtning chegaralanganligi, shuningdek, talabalarni kasbiy faoliyatga mukammal tayyorlash talablari ta'lim tizimiga zamonaviy texnologiyalarni joriy etishni taqozo etmoqda. Mamlakatimizda ta'lim sohasida ro'y berayotgan tub yangilanishlar har bir ta'lim muassasasida o'quv jarayoni metodik ta'minotini rivojlantirishni talab etadi.

zamonaviy axborot va kommunikasiya texnologiyalarining keng joriy etili-shi, xususan ta'limni boshqarish tizimlari asosida masofaviy ta'lim kurslarini joriy etish:

- fan sohasini axborotlashtirish;
- o'quv faoliyatini intellektualashtirish;
- ta'lim tizimidagi ishtirokchilar integratsiya jarayonlarini chuqurlashtirish;
- ta'lim tizimi infratuzilmasi va uni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishga olib keladi.

Pedagogik ta'lim jarayonlarini zamonaviy axborot texnologiyalari asosida samarali tashkil etish:

– masofaviy o'quv kurslari va elektron adabiyotlarni yaratuvchi jamoaga pedagoglar, komp'yuter dasturchilari, tegishli mutaxas-sislarning birlashuvi;

Malaka oshirish tizimida masofaviy ta'limning keng joriy etilishi:

- zamonaviy kasbiy bilimlarni egallash;
- o'rganilayotgan hodisa va jarayonlarni modellashtirish orqali fan sohasining chuqur o'zlashtirilishi;
- o'quv faoliyatining xilma-xil tashkil etilishi hisobiga pedagogning mustaqil faoliyati sohasining kengayishi;
- interaktiv muloqot imkoniyatlarining joriy etilishi asosida o'qitish jarayonini individuallashtirish va differensiyalashtirish;
- sun'iy intellekt tizimi imkoniyatlaridan foydalanish orqali pedagogning o'quv materiallarini o'zlashtirish strategiyasini egallashi;
- axborot jamiyati a'zosi sifatida unda axborot madaniyatining shakllanishi;
- o'rganilayotgan jarayon va hodisalarni komp'yuter texnologiyalari vositasida taqdim etish, talabalarda fan asoslariga qiziqish va faollikni oshirishga olib kelishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

Demak, ta'lim oluvchilar uchun mustaqil bilim olish imkoniyatlarini oshirish, ta'limning elektron axborot resurslarini shakllantirish va rivojlantirish uchun zarur sharoitlarni yaratish, ta'lim mazmunini takomillashtirishning zaruriy shartlaridan biri sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Sabirova D. A. Oliy ta'lim muassasalarida masofaviy ta'limni joriy etish texnologiyalari.. – Zamonaviy ta'lim jurnali, 2016 yil, №11
2. Taylaqov U. N. Xalq ta'limi xodimlari malakasini oshirish tizimida axborot-kommunikasiya texnologiyalarini qo'llash muammolari. – Zamonaviy ta'lim jurnali, 2015 yil, №6
3. Begimkulov U. Sh. Pedagog kadrlar malakasini oshirish tizimida masofaviy ta'-limni tashkil etish. // «Maktab va hayot» jurnali. T. , 2006, 6-son. –25-27-b.

MASOFIY MALAKA OSHIRISH TA'LIMINI TASHKILY SHAKLLARI VA AFZALLIKKARI

Nasiba Yunusmetova, Pulatova Shoir

Milliy markaz katta o'qituvchisi

Sirdaryo viloyati Guliston shahar 6-maktabning boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi

Annatsiya: maqolada malaka oshirishda masofaviy ta'limni shakllari, afzalliklari va ularni amalda oshirish imkoniyatlari yoritilgan

Kalit so'zlar: masofaviy ta'lim, axborot, axborot va telekommunikatsiya texnologiyalari.

Dunyoning barcha davlatlarida masofaviy ta'lim shakllarini rivojlantirish dolzarb masala hisoblanadi. Ushbu ta'lim tizimi 70-larning boshida Evropada va AQShda jadal rivojlandi. Masofaviy ta'lim-Internet va zamonaviy axborot va telekommunikatsiya texnologiyalari orqali ta'lim olish shakli hisoblanadi. Uzluksiz takomillashtirilishi, uzluksiz malaka oshirish, o'z-o'zini baholash, universal axborot almashish tizimlarini yaratish imkonini beradi. Masofaviy ta'limda masofadan turib zamonaviy vositalar yordamida o'quv axborotlarini almashish amalga oshiriladi.

Masofaviy ta'lim sirtqi ta'lim bo'lib, o'qituvchi bilan tinglovchi o'rtasidagi muloqot kompyuter, telekommunikatsiya qurilmalari va internet orqali amalga oshiriladi. O'quv jarayonida tinglovchi o'quv materiallarini va topshiriqlarni o'z kompyuteriga yuklab oladi, bajarilgan test va nazorat ishlarini o'qituvchiga internet yoki elektron pochta orqali yuboradi.

Bundan tashqari, tinglovchi o'z o'qituvchisi yoki tyutoriga savollar bilan murojaat qilishi va ularga o'z vaqtida javob olishi mumkin. Masofaviy o'qitish tizimi – masofaviy o'qitish shartlari asosida tashkil etiladigan o'qitish tizimidir. Barcha ta'lim tizimlari kabi masofaviy o'qitish tizimi o'zining tarkibiy maqsadi, mazmuni, usullari, vositalari va tashkiliy shakllariga ega. Masofaviy o'qitishning pedagogik texnologiyalari – tanlangan o'qitish kontseptsiyasiga asoslangan masofaviy ta'limning o'quv-tarbiyaviy jarayonini ta'minlovchi o'qitish metodi va uslublar majmuasidir. Key-texnologiya – masofaviy ta'limda matnli, audiovizual va multimediali (keys) o'quv uslubiy materiallar majmuasi qo'llanishiga asoslanadi. TV-texnologiya – masofaviy o'qitishni tashkil qilishning shunday uslubiki, u talabalarga o'quv-metodik ma'lumotlarni televidenie vositasi yordamida etkazishga xizmat qiladi va tashqi aloqani ixtiyoriy interaktiv usullardan biri bilan o'rnatishga asoslanadi. Masofaviy o'qitishning ta'lim tizimida bir-biridan farqlanuvchi model va shakllari mavjud bo'lib, ular quyidagi qo'llanish shartlari bilan farqlanadi:

- geografik shartlar (masalan, mamlakat hududi, markazdan uzoqlanganligi, iqlimi);
- mamlakat axborotlashuvi va kompyuterlashtirilishining umumiy darajasi;
- kommunikatsiya va transport vositalarining rivojlanish darajasi;
- ta'lim jarayonida axborot va kommunikatsiya texnologiyalari vositalarining qo'llanish darajasi;
- ta'limda qo'llaniladigan an'analar;
- masofaviy o'qitish tizimi uchun ilmiy pedagog kadrlar mavjudligi, ularning salohiyati va boshqalar.

Yurtimiz O'zbekiston kuchli iqtisodiyotga ega bo'lgan, ezgu istiqbolli huquqiy davlat qurargan, xalqimizning axborot savodxonligini hamda huquqiy madaniyatini oshirish hayot va zamon talabidir. Bu talab-maqсадni ro'yobga chiqarishda endi shakllanayotgan interaktiv ta'lim xizmatidan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Masofaviy o'qitish ta'lim berishda ikki asosiy yondashuvni izohlab beradi – bular kengaytirish va transformatsiya modellari. Kengaytirish modelida o'qitish texnologiyasi hozirgi ana'naviy usuldan deyarli farq qilmaydi.

Transformatsiya modeli o'qituvchi va tinglovchi hamkorligi uchun axborotkommunikatsiya texnologiyalari vositalarini o'zida mujassam qiladi. Masofaviy ta'limning bu zamonaviy usul va texnologiyalari nazariy va amaliy ta'lim pedagogikasiga virtual sinf, o'quv-telekommunikatsiya loyihalari, koordinator, teskari aloqa, moderator, muloqot texnologiyasi, kompyuter aloqasi, telekonferentsiya kabi yangi tushuncha va atamalarni olib kirdi.

Bu texnologiya deyarli raqamli aloqaga asoslangan bo'lib, multimedia dasturlari va gipermedialarni o'z ichiga oladi. U o'quvchiga axborot massivlarini o'zlashtirish tartibini nazorat qilish usullarini kuzatib borish imkonini beradi. Masofaviy o'qitishning bir necha texnologiyalari va ularni tashkil qilish usullari mavjud bo'lib, ulardan masofaviy o'qitish tizimini yo'lga qo'yish va rivojlantirishda keng foydalanilmoqda. Bu texnologiyalarni shartli ravishda to'rt guruhga ajratish mumkin: - audio (ovoz), ya'ni telefoniya, audiokonferentsiya va qisqa to'lqinli radio kabi interaktiv texnologiyalarni o'z ichiga oladi; - video, ya'ni o'zgarmas statik rasmlar (slaydlar), animatsion (harakatdagi) tasvirlar (plyonkalar, videokassetalar), real vaqtdagi audiokonferentsiya imkoniyatlari

va animatsion tasvirlarni o'z ichiga oladi.

Shuni aytib o'tish kerakki, real vaqtdagi audiokonferentsiya bilan birgalikda uzatilayotgan animatsion tasvir bir tomonlama yoki ikki tomonlama videotasvir, yoki bo'lmasa, bir tomonlama yoki ikki tomonlama audiokonferentsiyadan tashkil topgan bo'lishi mumkin; - bosmadan chiqarilgan tarqatma materiallar; bunday materiallarga o'quv darsliklari, fan bo'yicha qo'llanmalar, o'quv dasturlari, ma'ruza matnlari va boshqa qo'shimcha hujjatlar kiradi; - elektron ma'lumotlar, bunday ma'lumotlarni boshqa kompyuterga yoki kompyuterlarga uzatish mumkin bo'ladi. Shu sababli bu erda "elektron ma'lumot" degan atama ishlatilmoqda. Bugungi kunga kelib ko'pgina kompyuterlar global internet tarmog'iga, ma'lum bir yo'nalish yoki soha bo'yicha qurilgan korporativ tarmoqqa (intranet) ulangan. Bu esa keng miqyosda masofaviy o'qitishni yo'lga qo'yish imkonini beradi.

Masofaviy o'qitishni tashkil qilishning keng tarqalgan, boshqalari bilan solishtirganda samaraliroq bo'lgan ikki usuli mavjuddir. Bular – videokonferentsiya texnologiyasiga asoslangan masofaviy o'qitish usuli va internetG'intranet (InternetG'Intranet) tarmog'ida veb-texnologiyaga asoslangan masofaviy o'qitish usulidir. Videokonferentsiya texnologiyasi asosida qurilgan masofaviy o'qitish tizimini sinxron ko'rinishdagi masofaviy o'qitish deb atash ham to'g'ri bo'ladi. Bunga sabab, o'quv jarayoni ham o'qituvchi uchun, ham o'quvchi uchun real vaqt mobaynida amalga oshadi. Masofaviy o'qitishning bunday ko'rinishini tashkil qilishning bir necha usullari mavjud bo'lib, ular asosan videokonferentsiya uchun ishlatiladigan aloqa kanalining turiga qarab farqlanadi.

Bugungi kunda videokonferentsiya aloqasi uchun asosan ikki xil aloqa kanallaridan foydalaniladi. Bular – ISDN va internet kanallaridir. Videokonferentsiya aloqasi jarayoni uchun maxsus qurilmalar ishlatilib, ular aloqa kanallari orqali audioovoz, videotasvir yuborish bilan bir qatorda boshqa multimedia imkoniyatlariga ham ega bo'ladi. Yuqorida aytib o'tilganidek, bunday o'qitish usulida o'quv jarayonini ikki tomonlama – ham o'qituvchi, ham o'quvchilar tomonidan sinxronlash zaruriyati paydo bo'ladi. Ya'ni, o'qitish jarayonida ikkala tomonda bir vaqtning o'zida ham o'qituvchining, ham o'quvchilarning qatnashishi talab qilinadi. Ba'zi hollarda bunday talab noqulayliklarni keltirib chiqaradi, ayniqsa, agar o'qituvchi va o'quvchilar o'zaro geografik noqulay joylashgan bo'lsa (ular orasidagi vaqt anchagina farq qiladigan bo'lsa). Ammo real vaqt mobaynidagi muloqot va axborot almashinuvi masofaviy o'qitish jarayoni samarasini oshiradi. Internet/intranet tarmog'ida veb-texnologiyaga asoslangan masofaviy o'qitish usuli ancha arzon, sodda va asinxron ko'rinishdagi masofaviy o'qitish usuli hisoblanadi. Internet/intranet texnologiyalarining bugungi kunda erishgan yutuqlari esa oldindan tayyorlab qo'yilgan audioaxborotni, videotasvirni va boshqa multimedia ilovalarini tarmoq bo'yicha uzatish imkonini beradi. Bunda ular o'zlariga qulay joy va vaqtda masofaviy o'qitish platformasiga murojaat qilishlari mumkin. Bu usul videokonferents texnologiyaga asoslangan masofaviy o'qitish usulidan farq qilib, undan foydalanuvchi o'qituvchi va o'quvchilardan bir vaqtning o'zida masofaviy o'qitish jarayonida qatnashish talab qilinmaydi, o'quvchilar o'quv materiallari (elektron ma'ruza matnlari, videorolik va boshqalar)ni ikkinchi tomonda o'qituvchi bo'lmagan taqdirda ham qayta ko'rib o'rganishlari mumkin. Bu holda masofaviy o'qitishning bu usulida o'quv jarayonining asosiy elementi bo'lmish – o'qituvchi va o'quvchi orasida qanday qilib muloqot va savol-javob o'tkaziladi, degan savol tug'ilishi mumkin.

O'qituvchi va o'quvchi orasidagi muloqotni elektron pochta, e'lonlar taxtasi va forumlardan, ChAT ilovalar va ovoqli pochталardan foydalanish yo'li bilan amalga oshirish mumkin. Undan tashqari Internet/intranet texnologiyalari bugungi kunga kelib tarmoq orqali turli multimedia ilovalarini uzatish imkonini bermoqda, bu esa, o'z navbatida, masofaviy o'qitishning samarasini oshirmoqda (virtual laboratoriyalar, interaktiv test dasturlari). Qo'llanilayotgan texnologiya masofaviy o'qitishni yo'lga qo'yish va uni uzatishda asosiy rol o'ynashiga qaramasdan, masofaviy o'qitishda ishtirok etayotgan o'qituvchilar asosiy e'tiborlarini axborot tashish texnologiyasiga emas, aksincha, o'qitish natijasiga qaratishlari lozim. Samarali masofaviy o'qitish jarayonini tashkil qilish yo'lidagi birinchi qadamlarga o'quvchilarning talablarini aniqlash, o'quv materiallarining mazmunini tanlash va o'qituvchi uchun o'quv jarayonidagi mavjud chegaralarni aniqlash ishlari kiradi. Shuni aytib o'tish joizki, bu amallar o'quv jarayonini tashkil qilib beruvchi texnologiyani tanlashdan avval qilinadigan amallardir.

Masofaviy o'qitishning ko'p muhitliliigi o'quv dasturlarini rejalashtirish va kurslarni ishlab

chiqish tamoyillarida o‘z aksini topadi. Masofaviy ta’lim respublikamizda ta’lim tizimiga yangi kirib kelayotgan usul bo‘lib, hozirda bu jarayonga jiddiy e’tibor berib kelinmoqda va uning asoslari yaratilmoqda

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 15 avgustdagi 234-son qarori, Xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish to‘g‘risida Nizomi
2. Abdukadirov A.A., Pardayev A.X. Masofali o‘qitish nazariyasi va amaliyoti (monografiya). – T.: «Fan», 2009.
3. F.Umarova, A.Ubbiyeva, F.Gaibnazarova, N.Jo‘rayev “O‘quvchi shaxsini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim. ”Umumta’lim maktablari o‘qituvchilari uchun o‘quv modullari. 2- modul, 2-nashr. T., “Bekimmachoq-plyus”.2013.
4. F.Umarova, A.Ubbiyeva, F.Gaibnazarova, N.Jo‘rayev “O‘quvchi shaxsini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim. ”Umumta’lim maktablari o‘qituvchilari uchun o‘quv modullari. 3- modul, 2-nashr. T., “Bekimmachoq-plyus”.2013..

HOZIRGI VAQTDA MASOFALI O‘QITISHDA O‘QUV-USLUBIY VOSITALARDAN FOYDALANISH

Musurmankulov Qilichbek O‘rolovich, Mirzajonova Shaxnoza

Guliston davlat universiteti o‘qituvchisi

Guliston davlat universiteti talabasi

Agar inson ilm nuri bilan o‘z yo‘lini yoritmasa, zulmat va nodonlik ko‘chasida qoladi.

Sh.M.Mirziyoyev

Annotatsiya: Ushbu maqolada Masofali o‘qitishda o‘quv-uslubiy vositalardan foydalanishni yanada takomillashtirish va ta’lim tizimida o‘qitishning zamonaviy shakllari va usullarini qo‘llashni nazarda tutilgan.

Respublikamizda ma’naviy yetuk, chuqur bilimli, jismonan sog‘lom bo‘lgan barkamol avlodni voyaga yetkazish yo‘lida bir qancha amaliy ishlar bajarilmoqda. Shuningdek, ta’lim tizimida o‘qitishning zamonaviy shakllari va usullarini qo‘llash, zamonaviy axborot texnologiyalaridan unumli foydalanish, masofali o‘qitish texnologiyalarini joriy qilish masalalari dolzarb muammolardan biri bo‘lib kelmoqda edi.

Ammo ayrim vujudga kelgan sabablar, muammolar va albatta xalqning foydasini ko‘zlagan holda boshqa rivojlangan mamlakatlar ya’ni boshqa ko‘zga ko‘rinarli o‘zining alohida ta’lim-tarbiya, sport, harbiy va shunga o‘xshash sohalar, yo‘nalishlarda yetarlicha yutuq va shu bilan birgalikda bu darajada rivojlanmagan qatori bixning ham mamlakatimiz “masofali o‘qitish” tizimiga bir qancha muddat davomida o‘tishga majbur bo‘ldi. Albatta bu hammaga ham birdek yoqavermaydi. Ammo har bir ishning yutuq va kamchiligi bo‘lgani kabi bu tizimningha o‘ziga yarasha afzalliklari mavjyd. “Masofaviy o‘qitish”- o‘zi nima degan savol ko‘pchilikni qiziqtirishi mumkin albatta. Bu tabiiy hol.

“Masofaviy o‘qitish”-abrorot kommunikatsiya texnologiyalari va ilmiy asoslangan o‘qitish usullarini qo‘llab ta’lim olish shakllaridir. Ya’ni hozirgi rivojlangan XI- asrdagi ixtirolardan foydalangan holda masofaviy ta’lim olish yoki ta’lim berish jarayonidir. Bunda o‘quvchi va o‘qituvchi orasidagi masofa qancha bo‘lishidan qat’iy nazar bilim olishi va bilim berishi nazarda tutiladi. Bu jarayon o‘quvchining qayerdaligi va vaqtga bog‘liq bo‘lmagan holda bajariladi. Ya’ni yuqorida aytib o‘tganimizdek oradagi masofa qancha bo‘lishiga qaramasdan ta’lim berish va olish nazarda tutiladi. Yana shuni ta’kidlab o‘tish mumkinki, hozirda mamlakatimiz ta’lim tizimida sezilarli darajada o‘zgarishlar ro‘y berayotganligi kun sayin yaqqol ko‘zga tashlanmoqda. Masofaviy o‘qitish (MO‘) tizimini ham bunga misol qilsak bo‘ladi. Hozirda bu jarayon mamlakatimiz bo‘ylab keng qo‘llanilayotganligi ham quvonarli albatta. Buning uchun eng kerakli narsa yuqorida aytib o‘tganimizdek internet tarmog‘i kerak bo‘ladi albatta. Biz bilamizki hozirgi kunda yoshlarimizning ko‘pi internet tarmoqlariga vaqtlarini bekor o‘tkazib kelmoqdalar. To‘g‘ri ayrim yoshlar internetdan to‘g‘ri foydalanishlari ham mumkin. Ammo afsuski bunday yoshlar juda ozchilikni tashkil qiladi. Hozirgi kunda internetning imkoniyatlari juda ham kata. Internetni turlisohalarga tatbiq qilish

mumkin. Masalan: Elektron kutubxonalar, telemeditsina, telemetrologiya, electron tedbirkorlik va shu jumladan masofaviy o'qitish. Umuman olganda nafaqat hozirgi davr balki bundan oldin ham bilimga va bilim olishga va bilim olishga e'tibor katta bo'lib kelmoqda. Masofaviy o'qitishmi yoki auditoriyalar, sinflarda o'quvchi yuzma-yuz o'tirgan holdami, qanday tarzda bo'lmasin bilimga etibor katta va albatta bu to'g'ri. Bizdan oldingi ajdodlarimiz ham qanday holatda bo'lmasin ilm olish, bilimga nisbatan juda iliq fikrlarni bildirib o'tgandir. Shulardan biri Yusuf xos Hojib shunday degan: "Bilimni buyuk, o'quvni ulug' bil. Bu ikkisi tanlangan bandasini ulug'laydi. Zakovat qayerda bo'lsa, ulug'lik bo'ladi. Bilim kimda bo'lsa buyuklik oladi". Ya'ni, o'qib ulug'langan insonga bilim tufayli buyuk shaxs sifatida qaratiladi. Bu ikkisini tanlagan shaxs har doim ulug'lanadi. Donolik, aqllilik bilan ulug'langan bilim bilan buyuk hisoblanadi. Umuman olganda bu ikkisi ham bir xil narsa ammo bularning ham o'ziga xos farqlanadigan tomonlari mavjud.

TA'LIM AXBOROT MAKONIDA QAROR QABUL QILISH PSIXOLOGIYASI

Irgasheva Ch. A.

Sirdaryo tumani 39 maktab amalyotchi psixolog

Annotatsiya: *Axborot makonida qarorlar qabul qilish masalalari ikki jihatda tahlil qilinadi: shaxsning qaror qabul qiluvchi faoliyat sub'ekti va ob'ekti sifatidagi pozitsiyasidan, axborot makonining ta'siri ostida bo'lgan va ishlab chiqilgan vazifalarni bajaruvchi shaxs sifatida.*

Аннотация: *Анализируются вопросы принятие решения в информационном пространстве в двух аспектах: с позиции человека как субъекта деятельности вырабатывающего решения и объекта, как тот, кто находится под воздействием информационного пространства и исполняет выработанное решение.*

Abstract: *The issues of decision-making in the information space are analyzed in two aspects: from the position of a person as a subject of activity that makes a decision and an object, as one who is under the influence of the information space and executes the developed decision.*

Bugungi kunda zamonaviy jamiyat axborot texnologiyalari yutuqlaridan faol foydalanmoqda. Ularni qo'llashning dolzarbligidan kelib chiqib, ta'lim tizimiga axborot texnologiyalarini jalb qilish muammosi pedagogik jamoatchilik e'tiborini tortmay qolmaydi. Uning ishtirokchilari o'quvchi-bolaning shaxsiyatiga ta'sir qiluvchi ham axborot, ham axborot-psixologik texnologiyalardan foydalanadilar. Shu bilan birga, qaror qabul qilish uzatilayotgan axborotni qayta ishlashning barcha darajalarida markaziy nuqtasi hisoblanadi. Ilmiy adabiyotlarda qaror qabul qilish kontseptsiyasining semantik ma'nolarini ochib beruvchi bir qator ta'riflar keltirilgan: axborotni qayta ishlashning markaziy tartibi; maqsadga erishish uchun tegishli harakatlar; psixikaning aks ettiruvchi va tartibga soluvchi funktsiyalari; mantiqiy-psixologik, operativ, funksional-dinamik aqliy faoliyat va boshqalar [1]; [4]; [5].

Yuqoridagilarga qo'shimcha ravishda, psixologik darajada axborot makonida qaror qabul qilish, uni ta'minlaydigan shart sifatida, majburiy ravishda ikki jihatni o'z ichiga oladi: axborot jarayonlari tizimining mavjudligi (me'yorlar, printsiplar, qoidalar, baholashlar, ijtimoiy munosabatlar, ijtimoiy munosabatlar, ijtimoiy munosabatlar, ijtimoiy munosabatlar, ijtimoiy munosabatlar va boshqalar). niyatlar, xabardorlik darajasi va boshqalar) qaysi axborotni qayta ishlash va qaror qabul qiluvchilarning o'zaro ta'siri. Shu bilan birga, inson uchun bunday makonni tashkil qilish ham ikki jihatdan harakat qiladi: sub'ekt sifatida, ya'ni ma'lumotni uzatuvchi va qaror qabul qiluvchi va ob'ekt yoki ta'sir ostida bo'lgan shaxs sifatida. axborot maydoni va ishlab chiqilgan qarorni amalga oshiradi.

Natija - axborot makonida tayyorlangan yechim bilan birga, bir ishtirokchidan boshqasiga ma'lumotni maqsadga muvofiq ravishda uzatish. Zamonaviy o'qituvchi doimiy ravishda axborot sharoitida bo'ladi, u raqamli ta'lim maydoni bilan ishlaydi. Shu munosabat bilan, o'qituvchi ko'pincha makonning sharoitlari va tashkil etilishini hisobga olish emas, balki mustaqil qaror qabul qilish kerak bo'lgan holatlarga duch keladi. Bu o'qituvchidan psixologik fon rolini o'ynashi mumkin bo'lgan murakkab dinamik ijtimoiy va ijtimoiy-texnik tizimlarni (tashqi sabablarga ko'ra, ba'zan esa majburiy) o'rganishni talab qiladi. Shuning uchun qaror qabul qilish jarayoni shaxsiy va individual

bo'ladi. Shu munosabat bilan, keling, bir zumda qaror qabul qilish aktiga e'tiborimizni qaratamiz.

Umuman olganda, qaror qabul qilish axborot va axborot-evristik qidiruvning ishlashi bilan bog'liq. Qidiruv dasturlari idrok etilayotgan axborotning tarkibiy tahliliga asoslanadi [1]. Bundan tashqari, biz qaror qabul qilish jarayoni deterministik-stokastik (tasodifiy) xususiyatga ega ekanligini umumlashtiramiz va ta'kidlaymiz, bunda tizim ham bashorat qilingan, ham tasodifiy qiymatlarni o'z ichiga olgan miqdorlarda tavsiflanadi. Keng ma'noda, qaror qabul qilish jarayoni, M. Kats [2] va E. Nelson [3] fikrlariga ko'ra, 72 vaqt ichida rivojlanish bilan bog'liq har qanday jarayon sifatida, tasodifiy jarayon bo'ladi (ehtimollar nazariyasi), chunki, stokastik tizimlar, Bu tasodifiy omillar ta'siri ostida o'zgarishlar sodir bo'lgan tizimlar. Shunday qilib, qaror qabul qilish fikrlash jarayoni va iroda harakati sifatida belgilanadi, muammoni hal qilish va bir yoki bir nechta maqsadlarga erishish uchun eng yaxshi yoki maqbul harakat yo'nalishini aniqlash uchun barcha tadbirlarni o'z ichiga oladi [4].

O'quv jarayonini amalga oshirib, o'qituvchi (o'qituvchi) ilgari ma'lum bo'lgandan yangi yoki noma'lumga o'tishni ta'minlaydi va mustaqil tanlov bilan qaror qabul qilish vazifasini qo'yadi. Muammolarning eng muhim, ammo yarim tizimli yechimlari bilan ishlash jarayoni sifatida qaror qabul qilish nima. Belarus ilmiy maktabining vakili va zamondoshi, psixolog M. A. Kremen, yuqori darajada tuzilgan qarorlarni aniqlash misolidan boshlab, yarim tizimli yechimlarni tavsiflaydi va aytadiki, yarim tizimli qarorlar ko'pincha nostandart muammoli vaziyatlarda qabul qilinadi, ular tuzilishida yangilik, noaniqlik va boshqalar bilan ajralib turadi. ijodiy yondashish va ularni ma'lum tarzda hal etish muvaffaqiyatga olib kelmaydi [4]. Shu tarzda qabul qilingan qarorlar, axborot makonini tashkil etishning zamonaviy raqamli sharoitida insonga qimmatga tushadigan va ularning darajasi boshqaruv darajasidan yuqori bo'lgan xatolarga yo'l qo'yish imkoniyatiga olib keladi. Shu bilan birga, berilgan vaziyatlarda "noto'g'ri qaror" tushunchasi loyqa bo'lib qoladi, chunki taklif qilingan yechimlarni baholash uchun ko'plab mezonlarning mavjudligi qiyinlashtiradi va ba'zan ma'lum darajada yagona ob'ektiv, eng to'g'ri yechimni tanlashdan mahrum qiladi. [4]. 73 Yarim tuzilgan vazifalarni yechishdagi xatolar manbalari quyidagilardan iborat: inson imkoniyatlarining cheklanganligi (katta hajmdagi axborotni idrok etish); solishtirilgan muqobillarning ko'p o'lganligi; har bir muqobil uchun mezonlarni baholashning subyektiv xususiyati; muqobillarning to'liq ro'yxatini olish qiyinligi; muqobillarni solishtirishda sub'ektivlik (maqsadlarga erishish darajasining reyting mezonlari); har bir muqobil uchun mezonlarni baholashning sub'ektiv xarakteri ("ikki tomonlama" sub'ektivizm - baholashning sub'ektivizmi va mezonlarning ahamiyatini hisobga olishning subyektivligi); tanlov ob'ektiv emas, balki eng maqbul alternativ [4].

Chunki qaror qabul qiluvchi shaxs, ya'ni jamoaviy qaror qabul qiluvchi subyekt yoki shaxslar guruhidir. U (ular) qiyin vaziyatlarda u bilan ishlash qobiliyatini talab qiladigan zarur ma'lumotlarni yig'ish va qayta ishlash bilan bog'liq harakatlar algoritmini, ya'ni tashkilotning berilgan sharoitlari va jihatlarida miqdoriy ma'lumotlarni jalb qilish bilan tahlil qilishni amalga oshiradi. Ushbu harakatlarning har biri qaror qabul qiluvchining sub'ekti va ob'ekti sifatida atrof-muhit axborot makonining ichki va tashqi qonunlari bilan belgilanadigan shaxsning ichki va tashqi psixologik mexanizmlari majmuasini amalga oshirish, axborot jarayonlarini rivojlantirish bilan bog'liq.

Shunday qilib, axborot maydoni kasbiy makonda o'zgarishlarni amalga oshirish vazifasini qo'yadi. Biroq, shu bilan birga, bunday sharoitda shaxsning o'zini, ya'ni o'qituvchini, talabani o'qitish qaror qabul qilish, raqamli makon bilan ishlash va unda bo'lish zarurati va muhimligini ko'rsatadi. hayotni tashkil etishning barcha jabhalarida mustaqil qarorlar qabul qilishga bugun tayyor bo'ling.

ADABIYOTLAR:

1. B. F. Lomova Muhandislik psixologiyasi asoslari. – M., Oliy maktab, 1977
2. Kac, M. Dalgalanish hodisalari / M. Kac, J. Logan. – EW Montroll, JL Lebowitz, Shimoliy Gollandiya, Amsterdam, 1976
3. Nelson, E. Quantum Fluctuations / Nelson. E. – Princeton University Press, Princeton, 1985
4. Kremen M. A. Boshqaruv qarorlarini qabul qilishning psixologik jihatlar. Ma'ruza kursi. – [Elektron resurs] Kirish rejimi: file:///E:/psychic Kirish sanasi: 17. 08. 2020y

TA'LIM JARAYONIDA MEDIYA SAVODXONLIKNING AHAMIYATI

Zarifa Normatova, Maftuna Esanova
Sirdaryo viloyat, Sayxunobod tumani 26-maktab
Sirdaryo viloyat, Sayxunobod tumani 39-maktab

Kalit so'zlar: *uslub, dars, o'qituvchi, o'quvchi, texnologiya*

Ключевые слова: *Метод, урок, учитель, ученик, технология*

Key word: *Methot, teaching, the lesson, teacher, pupil, texnologik*

O'zbekiston Respublikasida davlatimiz tomonidan yoshlarga bo'lgan e'tibor, ularni har tomonlama kamol toptirish, o'sib kelayotgan yosh avlodda darslarni zamonaviy va innovatsiyon texnologiyalar, mediya ta'lim asosida tashkil etishning o'rni beqiyosdir.

Media ta'lim interfaol, o'quvchiga individual ta'sir etadigan usul sifatida ta'lim jarayoniga jadal sur'atlar bilan kirib kelmoqda. Media ta'lim o'quvchini mustaqil fikr yuritishga, ijodkorlik faoliyatlarini rivojlantirishga, axborot olish, uni qayta ishlash, umumlashtirish, xulosa chiqarishga o'rgatadi. O'quv xonalariga matbuot, televidenie, radio, kino, video va internet olib kiritilmoqda.

Bularning barchasi media ta'lim nomi bilan ta'lim jarayonini tashkil etishga yordam bermoqda. Zamonaviy ta'limda media ta'limning asosiy mazmuni mediamadaniyat (kino san'ati, badiiy televidenie va badiiy media) tilini, uning tarixini bilish, tushunishdir. Uning pedagogik strategiyasi mediamatnlarni badiiy tahlil qila olish, uni talqin qilish asosida baho berishdan iboratdir.

Media qanday shakllanadi, u haqiqatni ifodalaydimi, kimning manfaatini ko'zlaydi, uning mazmuni nimalardan iborat va o'quvchilar uni qanday qabul qiladilar – bu savollar hozirgacha turli munozaralarni tug'dirmoqda. Lekin shuni yodda tutish kerakki, media ta'limning markazida o'quvchi shaxsi turadi, uning qiziqish, xohish, istaklarini hisobga olish, olingan axborot asosida tanqidiy fikrlashga o'rgatish kerak. Turli davlatlar olimlarining fikrlariga ko'ra, media ta'lim-tarbiyaviy, ta'limiy ahamiyatga ega bo'lib, o'quvchilarni o'quv-bilish jarayonida kreativ fikrlashga o'rgatadi. Media ta'limning eng muhim vazifalaridan biri yosh avlodni tobora jadallashib borayotgan axborot oqimida, har xil axborotni olish, tushunib yetish, uning inson psixikasiga ta'sirini bilish va undan to'g'ri, maqsadli foydalanishga o'rgatishdan iborat. Mediata'lim olingan axborotni integratsiya qilish, shu asosida shaxsiy fikrni bildirish va qayta olishga chorlaydi. O'z fikrini erkin bildirish, shaxsiy rivojlanish, turli axborot xurujlariga qarshi fikr bildirish orqali o'quvchining ijtimoiy faolligi oshadi, media axborotdan faol va to'g'ri foydalanish madaniyati shakllanadi. Shu orqali berilayotgan axborot haqida fikr yurita boshlaydi. Shuning uchun ham media mashg'ulotlar:

«Badiiy-imitatsiyali», kichik senariylar, mediamatnlar tuzish, uni interfaol usulda namoyish etish;

Teatrlashgan vaziyat hosil qilish (mediamatn asosida ayrim epizodlarni sahnalashtirish, mediamatn jarayonini namoyish etish);

Tasviriy-imitatsiya tayyorlash (afishalar yaratish, fotoko'rgazma, ma'lum mavzudagi asarlar rasmlarini namoyish etish) kabilarni tushunish, qo'llay olish ko'nikmasini hosil qiladi.

Yuqoridagi didaktik materiallarni tayyorlash, namoyish etish, tahlil asosida xulosa qilish, emotsional qabul qilish orqali nafis san'atni tushunishga olib keladi. Bu holat o'quvchining umumintellektual rivojlanishida, bilim olishi, tarbiya topishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Media mashg'ulotlar berilayotgan axborotni qabul qilish, o'zlashtirish jarayonida ikkita yangi komponent ishtirokini ta'minlaydi.

1. Media mashg'ulotlarda kompyuterlar universal holda qo'llanishi bilan xarakterlanadi.

2. An'anaviy texnologiyalar vositalari yoniga dasturli vositalar to'ldiruvchi bo'lib kiradi.

Dasturiy ta'minot ayrim mavzularni o'qitish va o'zlashtirish uchun mediata'lim qulay muhit yaratadi. Unda ta'lim mazmuni aniq, ravon shakllantirilgan bo'ladi, chizmalar, rasmlar, jadvallar, videofragmentlar, ovozli, animatsion ta'minot kreativ bilan namoyish etiladi. Mediamashg'ulotlarning afzal jihati shundaki, ta'lim jarayonida o'quvchilarning mustaqil ijod qila olish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Shu munosabat bilan mediamashg'ulotlar mazmunini belgilash, tashkil etishda faqatgina o'quv fani mazmuni nuqtayi nazaridan yondashmasdan, balki uning ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi tomonlarini ham hisobga olish kerak bo'ladi. Media mashg'ulotlar

kompyuterlashtirilgan o'quv xonalarida, multimedia proyektor yordamida o'tkaziladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ishmuhamedov R. J., Abduqodirov A. , Pardayev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar (ta'lim muassasalari o'qituvchilari, tarbiyachilari, guruh rahbarlari uchun amaliy tavsiyalar). T. : Iste'dod, 2010.
2. Ishmuhamedov R. J. , Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. T. : "Nihol" nashriyoti, 2013, 2016. 279b.
3. Mutalipova M. , Imomov M. Ta'limda ilg'or xorijiy tajribalar moduli bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. T. :TDPU, 2017.

BIOLOGIYA FANINI O'QITISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARI

Samatova Nigora Abduvaxobovna

Sirdaryo viloyati Boyovut tuman 8-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi biologiya fani o'qituvchisi
samatovanigora@mail.com
+998943500523

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Biologiya fani o'qitish metodikasi, axborot texnologiyalari hamda Biologiya fanini o'qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish haqida ma'lumotlar berilgan.*

Annotation: *This article provides information on the methods of teaching biology, information technology and the use of information technology in teaching biology.*

Аннотация: *В данной статье представлена информация о методах обучения биологии, информационных технологиях и использовании информационных технологий в обучении биологии.*

Uzluksiz ta'lim tizimida tashkil etiladigan o'qitish jarayonining samaradorligini orttirish yuzasidan qabul qilingan me'yoriy hujjatlarda pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish muhim vazifa sifatida belgilangan. Darhaqiqat, axborotlar globallashtirilgan davrda ta'lim-tarbiya jarayonida pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda o'qitish samaradorligini orttirish dolzarb muammo sanaladi. Tabiiy fanlar, shu jumladan, biologiyani o'qitishda axborot texnologiyalardan foydalanish uchun biologiya ta'limi mazmunining o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olish zarur. Biologiyani o'qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish orqali o'quvchilarning o'quv motivlarini rivojlantirish, tabaqalashtirilgan ta'limni tashkil etish, o'quvchilarning o'zlashtirgan bilimlarini nazorat qilish va baholash, ta'lim oluvchilarning mustaqil va ijodiy izlanishlarini tashkil etish mumkin.

Biologiyani o'qitishda axborot texnologiyalarining yuqorida qayd etilgan vazifalarini e'tiborga olgan holda ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanish yo'llarini belgilash va amaliyotga joriy etish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri sanaladi. Biologiya o'quv fanini o'qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish quyidagi didaktik maqsadlarni amalga oshirishga zamin tayyorlaydi:

1. Axborot texnologiyalari biologiyani o'qitishda ko'zda tutiladigan ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarni amalga oshirish imkonini beradigan o'quv materialini yig'ish, saralash, unga didaktik ishlov berish, tarqatish va ta'lim jarayonida foydalanishga zamin yaratadi.

2. Har bir o'quvchida mavjud iqtidor, ehtiyoj, qiziqish va o'quv motivlariga mos holda tahsil olish trayektoriyasi, tempini belgilash, zarur hollarda axborot dasturlaridan takroran foydalanish imkonini beradi.

3. Biologiya darslarining strukturasini tubdan o'zgartiradi, darsning borishi, xarakteri, o'quvchilarning bilish faoliyatini obyekt-subyekt munosabatidan, subyekt-subyekt munosabatiga, ya'ni o'quvchilar o'quv maqsadlariga erishish uchun pedagogik jarayonning faol ishtirokchisiga aylantiradi.

4. O'quvchilarda mustaqil, ijodiy, mantiqiy va tizimli fikr yuritish ko'nikmalarini rivojlantirishga zamin tayyorlaydi.

5. O'quv yurtida amalga oshirish imkoni bo'lmagan hollar (kerakli jihozlar bo'lmagan,

o'tkaziladigan tajribalar o'quvchilar sog'ligi uchun zararli, uzoq davom etadigan, ishlab chiqarish korxonalarining texnologiyalarini o'rganish)da tajribalarni virtual namoyish qilish imkonini beradi.

6. O'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini o'stirish, o'quvchilarning o'quv bilish faoliyatini faollashtirish va o'quv motivlarni orttirishga zamin tayyorlaydi.

7. Ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini aniqlash maqsadida teskari aloqa, ya'ni qisqa muddat ichida o'quvchilarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash va baholash imkoniyati vujudga keladi.

Uzluksiz ta'lim tizimida pedagogik faoliyat ko'rsatayotgan o'qituvchilarning oldidagi muhim vazifalardan biri o'quvchilarning fan asoslarini o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishlarini orttirish, mustaqil va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish asnosida ularning barkamolligini ta'minlash sanaladi.[2]

Ushbu muammolarni hal etishda axborot texnologiyalarining mahsullari muhim ahamiyat kasb etadi. Axborot texnologiyalari mahsullaridan foydalanilgan darslar axborotlarga boy, ko'rgazmali, interfaol bo'lib, vaqtdan unumli foydalanish, har bir o'quvchining o'z tempi bo'yicha bilim olish, o'qituvchi esa, o'quvchilar bilan tabaqalashtirilgan va individuallashtirilgan ta'limni amalga oshirish imkoniyati vujudga keladi, shu bilan bir qatorda o'qitishda natijalarini nazorat qilish va baholash uchun zamin yaratadi.

Biologiya fani mazmunidagi hujayra, to'qima, kimyoviy elementlarning molekula, atomning tuzilishi, modda va energiya almashinuvi, fotosintez, oqsillar biosintezi, biotexnologiya va gen injeneriyasiga doir jarayonlarni o'quvchilar bevosita kuzatish imkoniyati bo'lmaydi, mazkur jarayonlarni vizual holatga aylantirish ko'zlangan natijani beradi. Jumladan:

- o'quvchilarning hujayra, to'qima, kimyoviy elementlarning molekula, atomning tuzilishi, modda va energiya almashinuvi, fotosintez, oqsillar biosintezi jarayoni haqida tasavvur hosil qilish, abstraksiyalash va xotirada saqlash imkonini bo'ladi;
- o'quvchilarning motivlari va o'zlashtirish darajasi e'tiborga olgan holda zarur hollarda takroran o'rganish va o'quvchilarning bilimidagi bo'shliqlarni to'ldirish imkonini beradi;
- biologik jarayonlarni animatsiyalar tarzida virtuallashtirish o'quvchilar ko'rgazmali-obrazli fikr yuritish va o'quv materialini to'liq o'zlashtirishga zamin tayyorlaydi;
- biologiya darsida animatsiyalardan foydalanish darsning barcha bosqichlarida o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirishga olib keladi.

Biologiyani o'qitishda axborot texnologiyalarning quyidagi mahsullaridan foydalanish mumkin: Har bir mavzu mazmuniga asosan ko'rgazmalilikni amalga oshirish, ya'ni taqdimot materiallari, biologik jarayonlarning animatsiyasi, virtual laboratoriya va amaliy ishlar, ishlab chiqarish korxonalariga virtual ekskursiya, biologik jarayonlarning modellashirilgan dasturi, biologik jarayonlarning ta'limiy dasturlari, o'quvchilarning mavzular bo'yicha o'zlashtirgan bilimlarini nazorat qilish va baholash uchun nazorat dasturlari, o'quvchilarning mustaqil tahsili va ishi uchun o'quv-axborot saytlari, didaktik o'yinga asoslangan animatsiyalar, qiyinchilik darajasi turlicha bo'lgan ijodiy topshiriqlar dasturi.[3]

Biologiyani o'qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari juda katta. Barcha tabiiy fanlar kabi biologiyani o'qitishda tabiiy vositalar muhim o'rin tutadi, lekin tasviriy vositalarni kompyuter xotirasiga joylab, ulardan mavzuni o'rganish jarayonida foydalanish mumkin.[4]

Xulosa: Biologiya o'qituvchisi ta'lim-tarbiya jarayonida pedagogik va axborot texnologiyalarini uyg'unlashtirishda o'qitish metodlarining turlarini, ularga mansub uslublarni, foydalanish yo'llarini yaxshi bilishi lozim. Ta'lim-tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish uchun ularning tarkibiga kiradigan o'qitish metodlarini aniqlash, ularning ichida tizim hosil qiluvchi etakchi metodlarni ajratib ko'rsatish zarurati vujudga keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. I.J.O. Tolipova, A.T. G'ofurov. Biologiya ta'limi texnologiyalari. — T.: O'qituvchi, 2002.[1]
2. J.O. Tolipova, A.T. G'ofurov. Biologiya o'qitish metodikasi. Pedagogika oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik. — T.: Moliya-iqtisod, 2007.[2]
3. J.O. Tolipova, A.T. G'ofurov. Biologiya o'qitish metodikasi. O'quv-metodik qo'llanma. —

T.: «Bilim» 2004.[3]

4. Azimov va boshqalar. Biologiya. Metodik qo'llanma. — T.: Abu Ali ibn Sino nomidagi Tibbiyot nashriyoti. 2002[4]

SCIENTIFIC, THEORETICAL AND METHODOLOGICAL BASES OF INFORMATION COMPETENCE DEVELOPMENT APPROACH TO TEACHERS OF GENERAL SECONDARY EDUCATION TECHNOLOGY

Muattar Kadraliyeva

a technology teacher at School No. 2 in Gulistan

Abstract: *Studies aimed at determining the effectiveness of modern education show that the level of achievement of educational goals is measured by the level of mental activity of students in secondary education. Learning material based on the use of students' self-management, self-management methods and techniques. The picture shows the purpose of the study*

Keywords: *technology, virtual, individualization, linking, integration, synthesis, project, education.*

"Information technology", taking into account the role of polytechnic education and technological training in improving the methodological training of technology teachers in the field of teaching information technology and the continuous development of information competencies based on innovative approaches, the formation of an able-bodied person in the information environment. The need to study the field of education and its main goal - the formation of a new technical and economic thinking and technoethics in order to ensure the life of the younger generation, its interaction with animate and inanimate nature and interaction. It can be assessed as the integration of humanitarian, natural science and technological knowledge, complementing each other.

As a result, the polytechnic development of youth, acquaintance with modern and promising technologies for the transformation of materials, energy and information, taking into account economic, environmental and entrepreneurial knowledge, the acquisition of general labor skills and abilities, creative and aesthetic development of students. To acquire the skills and abilities necessary for life, including including the culture of behavior and conflict-free communication in the process of work, self-awareness of students, choosing a career based on themselves, learning the world of professions, providing practical experience of elements of professional activity.

Achieving these goals includes:

1) To develop in students the qualities of a person who thinks creatively, actively and needs action in new socio-economic conditions, easily adapting to the needs of the product from its sale;

Students should be able to:

- a) determine the needs and opportunities of their activities;
- b) search and use of the necessary information;
- c) promotion of ideas for solving problems (design development and choice of technologies);
- g) planning, organization and execution of work (start-up of the installation, operator activity);
- d) evaluation of the results of the stages of work, adjustment of their activities and the fulfillment of the conditions for the sale of the products of the activity;
- e) or mation of knowledge and skills in the use of means and methods of converting materials, energy and information into finished consumer goods and services in conditions of limited resources and freedom of choice; prepare students for informed career choices and humane achievement of their life goals through differentiated learning;

Formation of a creative approach to the quality of work; develop different personal qualities and the ability to professionally adapt to changing socio-economic conditions. In the process of teaching the direction "Information technology" the following tasks should be performed:

- 1) formation of knowledge about the most widespread and promising technologies and the system of mental, sensory and physical behavior;
- 2) to acquire basic vital knowledge and skills of housekeeping and family

- farming;
- 3) familiarity with the basics of modern products and services;
 - 4) development of students' independence and ability to solve creative and inventive problems;
 - 5) make sure that students understand themselves, get to know the world of professions, take tests for choosing a profession in order to choose a career that suits them;
 - 6) education of industriousness, enterprise, teamwork, humanity and kindness, purposefulness, conscientiousness, responsibility and order, culture of behavior and conflict-free communication (moral education);
 - 7) education of respect for nature and natural resources; the formation of an active ecological life position in educational and labor activities (ecological education);
 - 8) develop the basic concepts of market economy, management and marketing and the ability to apply them when selling their products and services;
 - 9) teach students to use consumer goods as objects of labor, to design them in accordance with the requirements of design and arts and crafts to increase their competitiveness in sales.

Development of the child's artistic initiative (aesthetic education). The listed goals and objectives are intended for implementation during the academic year, from the first to the leventh grade. What is the role of math teachers in achieving them? Its main tasks - along with the formation of accounting rules and skills in students - are to teach students to learn, communicate, think correctly, instill a habit of systematic work, show the first valuable directions based on the learned elements. Technological knowledge, etc. To solve the main task of the field of education "Information technology" and the entire education system - creative. Personal shaping often depends on the teachers in the school.

How school teachers teach children to respond to work depends on whether they will become in the future: creative thinkers or simply passive creators. It is well known that primary school students, when encouraged and guided by a teacher, can identify the needs and opportunities of their activities, find and

apply the necessary information, plan their work and solve problems that arise.

Have the ability to decide, evaluate, and correct their performance. Later it will serve as a basis for assimilating the content of education "Information Technologies" in middle and high school.

Technology consists of vocational education - the formation of ideas about the work of adults, professions and industries, accounting rules and the study of the interests and abilities of students. The level of development of competence largely depends on innate abilities, conditions of education and upbringing. Psychological research shows that abilities are present in movement and development.

They are highly flexible, even when compensatory mechanisms of one ability are replaced with another if necessary. Therefore, when preparing students for an informed career choice, it is important to take a cut of the development of skills, determine the propensity for a particular type of profession in technology, and plan further work based on the results obtained.

With the help of tests proposed by L. Z. Krasnovsky, it is possible to determine which type of profession is preferred and develop skills. Certain psychological requirements are imposed on each type of profession. For example, for human-technical professions, clear vision, hearing, vibration, kinesthetic

perception, good coordination of movements, developed technical and creative thinking, switching attention from one subject to another and must have a resume, observation skills.

All of these qualities are formed mainly in the process of practical work in texnology lessons for schoolchildren, as well as in solving technical and technological problems.

REFERENCES:

1. Abdukodirov A. A. , Karimov K. M. , Yuldoshev I. A. Methods of using case technology in teaching specific sciences. -T. : "Science and Technology", 2015.
2. U. Begimkulov, T. Shoimardonov and others. Information and methodological support of the continuity of the educational process on the basis of electronic support. Materials of the international conference. Saint Petersburg (Russia), 2012

TA'LIM SIFATINI TA'MINLASHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING IMKONIYATLARI

Allamuratova Amina Zaripbaevna

*Nukus shaxar 33-sonli tasviriy san'atga ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabi matematika
fani o'qituvchisi*

Fan, texnika va texnologiyalar taraqqiyotining bugungi darajasi bilan bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish jarayoni orasidagi mavjud nomuvofiqlikni bartaraf etish zarurati oliy ta'lim tizimida zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarining etarli joriy etilmaganligi sababli yanada yuqori dolzarblik kasb etmoqda.

Fan va texnikaning mavjud yangiliklari ularni o'quv dasturlari va darsliklari mazmuniga jadal kiritishni talab etadi va bu orqali o'quvchilarning zamonaviy bilimlarini shakllantirishga zamin yaratadi. Zamonaviy o'qitish texnologiyalarining joriy etilishi va turli metodik yondashuvlar esa, o'z navbatida, o'quvchilarda ko'plab fundamental tushunchalarni nisbatan engil va mustahkam shakllanishiga qulay sharoit yaratadi.[1;12]

Ma'lumki, fan va texnika jadal sur'atlar bilan rivojlanayotgan bugungi kunda ko'plab ilmiy bilimlar, tushuncha, tasavvurlar va axborotlar hajmi keskin ortib bormoqda. Bu bir tomondan fan va texnikaning yangi bo'limlari va sohalarining shakllanishini ta'minlayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, fanlar orasida hukmron bo'lgan chegaralarni buzib, integratsiya jarayonini jadallagirishni talab etadi.

Ta'lim yo'nalishlari «boshidan kechirayotgan» bunday differentsiyalashish va ishefatsiya jarayonlarining o'qitishda o'z aksini etarli darajada topa olmayotgani ham bugungi oliy ta'lim tizimida ma'lum muammolarni keltirib chiqarmoqda. Xususan, ta'lim mazmuni va tuplangan boy ilmiy axborotlarning unda aks etishi orasida uzilish vujudga kelmoqda. [2;42]

Shu sababdan o'qitishni va o'quv materiallarini bayon etishni takomillashtirish tamoyillarini qayta qarab chiqish zarur. Bunday muammolarni bartaraf etishda ta'lim jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etish va ulardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Zamonaviy ta'lim tizimi shaxsga yo'naltirilgan xarakterga ega bo'lishi, ya'ni shaxsning har xil xususiyati va sifatiga e'tibor qilgan holda differentsiyalangan bo'lishi zarur.

Shaxsga yo'naltirilgan o'qitish avvalo ta'limning paradigmasini o'zgartiradi. Shu paytga qadar mavjud ta'lim tizimida o'qitish ustuvor sanalgan bo'lsa, ayni paytda jamiyatning axborotlashuvi davrida ustuvorlik - o'qishga o'rgatishga yo'naltirilgan. Shu sababdan ta'limning o'qituvchi-darslik-o'quvchi paradigmasi o'quvchi-darslik o'qituvchi paradigmasi bilan o'rin almashishi zarurdir. Zamonaviy pedagog kadrlar yangi statusga ega bo'lib, uning vazifasi eng avvalo o'quvchilarning mustaqil bilim olish faoliyatini tashkil etishga, bilimlarni mustaqil egallashga va ularni amaliyotda qo'llash malakalarini shakllangirishga qaratilmoo'i lozim. [3;16] Ushbu maqsadlarni amalga oshirish jarayonida o'qituvchi o'qitishning metodlari, texnologiyalarini shunday tanlashi kerakki, ular o'quvchilarga tayyor bilimlarni o'zlashtirishigagina yordam berib qolmasdan, ayni paytda, ularda bilimlarni turli manbalardan mustaqil ravishda o'zlashtirish, shaxsiy nuqtai nazarining shakllanishi, uni asoslashi, erishilgan bilimlardan yangi bilimlar olishida foydalanish malakalariga ega bo'lishlariga ham vosita bo'lishi lozim. Bunday o'qitishni rivojlantiruvchi ham deyish mumkin.

Shakl va mazmunning rang-barangligi o'quvchining qiziqishi, imkoniyati va shaxsiy xususiyatidan kelib chiqib, taklif etilayotgan hollardan tanlash imkoniyatini beradi. Bunday imkoniyat ta'lim tizimida ham o'z aksini topishi zarur. Ko'p sathli o'qitish mazkur muammoning echimi bo'la oladi deyish mumkin.

Hozirga paytdagi o'quv mashg'ulotlarining tashkil etilishi o'quvchidan kundalik fanlar majmuasi bilan ham, ular bo'yicha beriladigan topshiriqlar majmuasi bilan hisoblashishni talab qiladi. Bu esa amalda ko'plab muammolarni keltirib chiqaradi.

Bunday sharoitda o'quvchilar alohida olingan (uzi juda qiziqadigan) biron bir fanga butun diqqat-e'tiborini tiliq qarata olmaydi. Mazkur hollarda, nazarimizda, modulli o'qitish eng yaxshi

echim hisoblanadi.

O'qitish nazariyasida yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini bir-biridan ajratish mumkin emas, chunki yangi pedagogik texnologiyalarning keng joriy etilishi ta'lim paradigmasini o'zgartiradi va faqat zamonaviy axborot texnologiyalarini yangi pedagogik texnologiyalarning imkoniyatlaridan samarali foydalanishni ta'minlaydi.

Adabiyotlar:

1. Taylaqov N.I. Ta'lim tizimida zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning istiqbollari //Ta'lim va tarbiya. -T.: - 2002. -№1-2.27-30 b.

2. Хамдамов Р.О. О проблеме подготовки кадров и области информационных технологии в Республике Узбекистан. Журнал «Известия Буждународной Академии наук высшей школы». № 1 (19/2002). - с.130-142.

3. Begimqulov U.SH. Pedagogik ta'limda axborot texnologiyalaridan foydalanish muammolari va istiqbollari // "Info. Kom Uz" jur. №3, 2006.- 64-65 betlar.

2-Sho'ba.
MODERN APPROACHES AND INNOVATIONS IN EDUCATION
(Ta'lim sohasida zamonaviy yondashuvlar va innovasiyalar)

TA'LIM JARAYONIDA KREATIVLIKNI RIVOJLANTIRISH USULLARI

Himmataliyev Do'stazar Omonovich, Itolmazova Gulzoda Qurbongeldiyevna

Pedagogika fanlari doktori, professor.

*Chirchiq Davlat Pedagogika instituti Pedagogika fakulteti Ta'limmuassasalarini boshqaruvi
mutaxassisligi (yo'nalishi) 1-kurs magistranti.*

Annotasiya: Ushbu maqolada ta'limjarayonida zamonaviy yondashuvlar va innovasiyalar hqaida ma'lumotlar berilgan. Shu bilan birga o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish va ta'lim sifatini oshirishda kreativlikni shakllantirish, rivojlantirishning, zamonaviy yo'llaridan foydalanishning afzallik tomonlari va samarasi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Kreativlik, innovatsiya, ijtimoiylik, yaratuvchanlik, yaxlitlik.

Аннотация: В данной статье представлена информация о современных подходах и инновациях в образовательном процессе. При этом обсуждались преимущества и эффективность формирования, развития, использования современных методов творчества в развитии профессиональной компетентности педагогов и повышении качества образования.

Ключевые слова: Творчество, инновации, социальность, креативность, целостность.

Annotation; This article is modern in the educational process approaches and innovations are reported in the about as follows development of professional competence of teachers and formation of creativity in improving the quality of education, advantage of development, use of modern ways thought about the sides and samari.

Key words: Creativity, innovation, creativity integrity.

Bugungi kunda ta'lim jarayoning yashin tezligida rivojlanish uchun xilma-hil pedagogic texnologiyalar, zamonaviy pedagogic usullar ishlab chiqilib ta'lim jarayoniga tadbqiq etib kelinyabdi.

Barchaga ayonki, qaysi zamonda ilm-u fanga, madaniyatga alohida e'tibor qaratilgan bo'lsa, o'sha davrda taraqqiyot bo'lgan, farovonlik yuz bergan, xalqning ma'naviyati yuksak darajaga ko'tarilgan. Jamiya trivojining hozirgi bosqichida kreativ, nostandart fikrlaydigan, o'z sohasida yangi usullarni taklif qilaoladigan professional mutaxassislarga ehtiyoj tobora ortmoqda. Har bir soha uchun kadrlarni tayyorlash ta'lim beruvchining zimmasiga yuklatilgan vazifadir.

Biz yashayotgan olam kundan -kunga tanib bolmas darajada o'zgaryabti, rivojlanib borayapti. Har bir sohada kun talabiga mos holda ish yuritish talab etilmoqda. Shu jumladan o'sib kelayotgan avlod bilan ishlaydigan o'qituvchilarga ham ko'plab talablar va masulyat yuklanmoqda. O'qituvchi zamonaviy o'quvchilar nima bilan yashayotganini tushinishi hamda ularga mos holda bo'lishi darkor.

Hozirgi paytda jamiyatning maktab oldiga qo'yayotgan talablari kun sayin ortib bormoqda va bu talablarga to'g'ri yondashgan holda ularni amalda bajarish o'qituvchining vazifasidir. Pedagogik faoliyat inson mehnatining eng murakkab sohalaridan biridir. Hozirgi jamiyatimizda o'qituvchi eng faol pozitsiyadagi shaxs sifatida zamonaviy bilimlarini egallab borishi, tinimsiz izlanuvchan va fidoiy bo'lishi lozim chunki, u kechiktirib bo'lmas jarayon shaxsni intellektual hamda ma'naviy qashshoqlikdan qutqarib qoladi. Hozirgi zamon standartlarini amalga tadbqiq etish o'qituvchidan nafaqat yuqori malakani va doimiy kasbiy rivojlanishni, balki o'z ishiga ijodiy yondashishni talab etadi. O'qituvchining kreativligi o'z tajribasini qayta ko'rib chiqishi va yaxshilashi hammaga ma'lum narsalarni o'zgartira olishi va ijodiy foydalana olishi sifat jihatdan yangiliklarni yaratishi juda katta ahamiyatga ega bo'lib bormoqda.

Kreativlik tushunchasi (lot., ing. «create»-yaratish, «creative»yaratuvchi, ijodkor) ingliz tilidan tarjima qilinganda ijod ma'nosini anglatadi.

Kreativlikni: ijodga intilish, hayotga ijodiy yondashish, o'ziga doimiy tanqidiy nazar solish va tahlil etish deyish mumkin. Hozirgi zamon psixologiya va pedagogika lug'atlariga asoslanib

o'qituvchining kreativligi deb uning fikirlaridagi sezgilaridagi, muloqotdagi, alohida faoliyat turidagi, ijodiy yondashish, bilish darajasi deb ta'riflash mumkin. Kreativlik insonda mavjud ma'lumotlarni qayta ishlab chiqarish va ularni cheksiz yangi modelini yaratishga javob beradi.

«Kreativlik otasi» nomi bilan mashhur Pol Torrans to'rtta kreativlik konikmasini aniqlagan. Uning olib borgan tadqiqotlari shundan dalolat beradiki, mazkur kreativ ko'nikmalarni shakllantirish va ularni baholash mumkin:

1. Ravonlik. Ko'plab g'oyalarni o'ylab topish ko'nikmasi ko'p degan so'zga asoslanadi.
2. Moslashuvchanlik. Turli g'oyalarni o'ylab topish ko'nikmasi o'zgartirish degan so'zga asoslanadi.
3. O'ziga xoslik. Boshqalarga o'xshamagan, ajralib turuvchi g'oyani o'ylab topish ko'nikmasi noyob degan so'zga asoslanadi.
4. Yaratuvchanlik. G'oyalarni kengaytirish ko'nikmasi qo'shish degan so'zga asoslanadi.

Kreativlik darslarida pedagoglardan ajoyib g'oyalarni o'ylab topish (o'ziga xoslik); ularni kengaytirish (ishlab chiqish); yoki boshqa g'oyalar bilan solishtirish va ulardagi bog'liqlikni topish (moslashuvchanlik) talab etilganda, mazkur ko'nikmalar bir-biri bilan kesishadi.

Patti Drepeau tomonidan ham shaxsda kreativlik sifatlari ni muvaffaqiyatli rivojlantirishning to'rtta yo'li ko'rsatilgan:

- Kreativ fikirlash ko'nikmasini shakllantirish;
- Amaliy kreativ harakat ko'nikmalarini rivojlantirish
- Kreativ faoliyat jarayonlarni tashkil etish;
- Kreativ mahsulot (ishlanma) lardan foydalanish.

Xorijiy pedagoglar, xususan, Patti Drapeauning fikricha, bir shaxsning ayniqsa o'qituvchining kreativligi boshqalarni ijodiy jarayonini tashkil etishga ruhlantiradi.

«Kreativlik yuqumli xususiyatga egadir; kreativ bo'lish uchun kishi ko'proq kreativ insonlar bilan muloqot qilishi va hamisha izlanishda bo'lishi lozim. Har qanday ko'nikmani shakllantirish mumkin bo'lganiday, kreativ fikirlash qobiliyati yoki ko'nikmasini ham rivojlantirish mumkin. Bu bo'lajak pedagoglarga ham taalluqli bo'lib, kreativlik ustida ishlash bo'lajak pedagoglarga noodatiy tarzda fikirlashga yordam beradi. Biroq, bo'lajak pedagoglarni ruhlantirish va kreativ bo'lishga undash o'qituvchining qay darajada malakali ekanligiga bo'liq. Kreativlik bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar va kreativlik ko'nikmasini shakllantirishda qo'llanma sifatida xizmat qiladi. Bu auditoriyadagi muhit, bo'lajak pedagoglarda fikirlash tarzining shakllanishi, o'qituvchining yondashuv va strategiyalari elementlarini o'z ichiga oladi».

Kreativlikni shakllantirish asosida bolaga tarbiya berish:

- o'quvchilarni - qiziqarli; - murakkab vazifalar;
- aniq maqsad va vaqt bilan ta'minlash
- o'quvchilarga - kreativlik muvozanatsizlik xissini yuzaga keltirishini anglatish;
- bezovtalik va qo'rquv hissidan xalos bo'lishga yordam berish;
- kreativ yondashuv asosida boshqa ko'nikmalarni bilan rivojlantirishga yordam berish;
- «qutqarib» qolish emas, balki yo'l yo'riq ko'rsatish
- Tarbiyalanuvchilarni - suhbatlar orqali rag'batlantirish;
- konstruktiv sharhlar bilan ta'minlash;
- yangi ko'rsatmalar bilan tanishtirib borish
- o'zlarida kreativlikning boshqa turlarini ham rivojlantira olishlari;
- guruhda ishlay olishlari;
- hissiy jihatdan erkin va ijobiy fikirlarga ega bo'lishlari uchun poydevor bo'ladigan muhitni yaratish.

Haligacha ta'lim tizimida ko'plab yondashuv va metodlar ijodiy fikirlash emas, talqin va tahlilga, ya'ni berilgan ma'lumotni tushunib, to'g'ri yetkazishga, nari borsa, bir necha axborotni umumiyalashtirib, xulosa chiqara olishga yo'naltirilgan.

Salmoqli amaliy ishlar olib borilayotganiga qaramay, ko'pchilik o'qituvchilar hali hanuz shaxs o'zlarida hamda o'quvchilardak kreativlik sifatlarini qanday qilib samarali shakllantirish tajribasini o'zlashtir muammolari hsmom dolzarb.

Balki darslarni avvaldan o'ylab, rejalashtirib o'tilishi bolalar uchun qiziq bo'lmayotgandir, balki ta'lim mazmunining muayyan qolipga o'quvchilar uchun hech qanday stimul bermayotgandir, rag'bat bildirmayotgandir

Pedagog ijodiy faoliyatni tashkil etishda muammoli masalalarni yechish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, shuningdek, pedagogik xarakterdagi ijod mahsulotlarini yaratishga alohida e'tibor qaratish zarur.

Muammoli masala va vaziyatlarni hal qilar ekan, pedagogning masala yechimini topishga ijodiy yondashishi unda hissiy-irodaviy sifatlarning rivojlanishiga yordam beradi. Pedagog o'z oldiga muammoli masalalarni qo'yish orqali mavjud bilimlari va hayotiy tajribalariga zid bo'lgan dalillar bilan to'qnash keladi. Buning natijasida o'z ustida ishlash, mustaqil o'qib o'rganishga nisbatan ehtiyoj sezadi. Pedagogning ilmiy-tadqiqot ishlariva ilmiy yoki ijodiy loyihalarni amalga oshirishi unda kreativlikpotentsialini yanada rivojlantiradi.

O'quv mashg'ulotlarining avvaldan rejalashtirilishidan voz kechish, bo'lajak pedagoglarda tanqidiy, kreativ tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish, ularni ijodiy fikirlash, yangi g'oyalarni o'ylab topishga majbur qilish ta'lim olishga bo'lgan munosabatni o'zgartirish, ularni yutuqlarga erishishga rag'batlantirishda asosiy omil bo'ladi. O'qituvchining ijodkor va kreativ bo'lishi yoki bo'lmasligi emas, balki darslarni ijodkorlik, kreativlik ruhida tashkil etish, yangi g'oyalarni ta'lim jarayonida sinab ko'rishga intilishi zarur.

Kreativ yondashuv – o'quvmanbalarini samarali yaratishning muhim omili. Yuqorida bildirilgan fikrlarga tayangan holda “kreativlik” tushunchasini quyidagicha sharhlash mumkin:

Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg'ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Kreativlik iqtidorning muhim omilisifatida ham aks etadi. Qolaversa, kreativlik zehni o'tkirlikni belgilabberadi, “oquvchilar e'tiborini dars jarayoniga faol jalb etishni ta'minlaydi”. O'qituvchida kreativlik xususiyatlari bugungi kun talab darajasida bo'lsagina uning ta'lim berish jayonidagi faolligida, berayotgan bilim sifatida, o'quvchi shaxsini shakllantirishda, o'z sohasi bo'yicha ko'plab yutuqlarga erishishning kafolati bo'la oladi.

Adabiyotlar ro'yxati :

1. Robert I. Ta'lim bo'yicha zamonaviy texnologiyalar. -Maktab matbuoti 2000yil
2. Abdullaeva Sh. , Axatova.D. Pedagogik texnologiyalar. Nayoii, 2003 yil
3. Tursunoy Ziyodova “Mediya Trening.gramatik slaydlar to'plami Toshkent 2017 yil.
4. 2020 17yil “Правда востока” gazetasining 56- soni
5. Serikov V.V. Orientatsiya na lichnost kak paradigma sovremennogo obrazovaniya // Gegyarlt. Nauchno-metod. jurnal. - № 1. – 1998. – S.1-5.
6. Arziqulov D. N. Kasbiy kamolotning psixologik o'ziga xos xususiyatlari.T.:2002,-21bet
7. Bozorov E, Musurmonova O. “O'qituvchining ijodkorligi-davr talabi”, Toshkent “O'qituvchi”, 1990
8. Boldirev N.I.Sinf rahbarlari.-T.:O'qituvchi,.1975.-b.
9. Jumaniyozova M. “Muammoli ta'lim jarayonida o'quvchiga qo'yiladigan talablar” 2005y.4.son.40-bet.
10. www.pedagog.uz
11. www.ziynet.uz.

УМУМТАЪЛИМ МАКТАБЛАРИ ЎҚУВЧИЛАРИНИ ЎҚИТИШНИНГ КРЕАТИВ МЕТОДЛАРИ

*Химматалиев Дўстназар Омонович, Абдиева Ўзоза, Тиловбердиев Шохрух Музаффар ўғли педагогика фанлари доктори, профессор,
“Педагогика” факультети, “Мақтаб менежменти” йўналиши талабалари, Тошкент вилояти Чирчиқ давлат педагогика институти*

Аннотация. Мақолада умумтаълим мактаблари ўқувчиларини ўқитишнинг креатив

методлари, креатив фикрлаш кўникмасини шакллантириш, ўқувчиларда аста-секин креатив вазифаларни бажаришга нисбатан қизиқиш орттириш, шунингдек, креатив тафаккурни эгаллаш масалалари ёритилган.

Калим сўзлар: креатив фикрлаш, креатив муҳит, қизиқиш, тафаккур, ўқув-билиш муҳити.

Умумтаълим мактабларида дарсларнинг аввалдан режалаштирилиши, ўқувчиларда танқидий, креатив тафаккурни шакллантириш ва ривожлантириш, уларнинг жодий фикрлаш, янги ғояларни ўйлаб топишга ундаш, ижобий ютуқларга эришишни рағбатлантириш – креатив ўқитиш методларидан фойдаланишни талаб этади.

Методлар таснифи ўқувчиларга:

- 1) атрофдаги дунёни билиш (когнитив);
- 2) ўқув маҳсулотларини яратиш (креатив);
- 3) таълимжараёнини (ташқилий фаолиятни) ташкил этишга ёрдам беради.

Бу таснифдан келиб чиққан ҳолда, ўқитишнинг куйидаги методларини келтириш мумкин:

Ўқитишнинг когнитив методлари – ўқувчилар томонидан билимларни идрок этиш ва таҳлил қилишнинг турли усуллари ўз ичига олган таълим методлари: эмпатия, семантик кўриш, образли кўриш, рамзий кўриш, таққослаш, эвристик саволлар, эвристик кузатиш, тадқиқот, фактлар, тушунчалар, қоидалар, гипотезалар ва назарияларни қуриш, хатоларни олдиндан тахмин қилиш.

Креатив ўқитиш методлари – бу ўқувчилар томонидан ўз таълим маҳсулотларини яратишга қаратилган усуллардир.

Таълим жараёнини ташкил этиш усуллари – улар 3 гуруҳга бўлинади: ўқитувчи, ўқувчи ва таълим раҳбарлари.

Ўқувчиларда креатив фикрлаш кўникмасини шакллантиришдан олдин синфда қулай муҳитни яратиш лозим. Креатив муҳитда таълимолаётган ўқувчиларда аста-секин креатив вазифаларни бажаришга нисбатан қизиқиш ортади, шунингдек, креатив тафаккурга эга ўқитувчини кузатиш натижасида креатив фикрлашга мойил бўлади.

Креативлик характеридаги ўқув-билиш муҳити ўқувчиларда таълимжараёнида катта аҳамиятга эга бўлган танқидий ва креатив фикрлаш кўникмасининг ривожланишига олиб келади.

Таълим жараёнидаги креативлик – ўқувчиларнинг ўқишга қизиқишларини орттирувчи креатив саволлар тузиш, турли расм, тасвир, жадвал, диаграмма, рамзий ифодалардан фойдаланиш, таълим олувчиларга баён этилаётган ўқув ахборотлари билан мутлақо алоқаси бўлмаган ғоялар ўртасидаги ўзаро боғлиқликни топиш каби вазифаларни бериш, кичик гуруҳларда ишлашларини таъминлаш каби ҳаракатларда акс этади.

Ўқитувчилар томонидан ўқувчиларнинг креатив фикрлашларига эришиш, ўқув-билиш фаолиятларида ижодий маҳсулотларни яратишларини таъминлашга ундаш, рағбатлантириш ўқувчиларнинг умумий ва касбий билимларини бойитиш билан бирга уларда дунёқарашни бойитиш, тасаввурни кенгайтириш, ижтимоий ва табиий борлиққа ижобий муносабатни шакллантиришга ҳам хизмат қилиши зарур.

Креатив фикрлаш кўникмасини машққилдириш натижасида ўқувчилар янги маънога бой алоқаларни ўрнатиш, янги ғояларни яратиш ва янгича фикрлашга мойил буладилар.

Доимий равишда олиб борилган машққлар натижасида янгича креатив фикрлаш одатий ва автоматик характерга эга бўлади.

Умумтаълим мактаблари ўқувчиларини ўқитишнинг креатив ўқитиш методлари ўқувчиларнинг ўз қарашларини ҳимоя қилишлари, креативлик муҳитига сингиш, креатив фикрлашни одатга айлантиришлари учун асос бўлади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Нишонов С. Воспитание совершенного человека в развитии педагогической мысли эпохи возрождения Востока: Пед. фанлари докт. дисс. автореф. – Т., 1998. – 37 б.
2. Эрназарова Г.О., Исроилов Қ.Т. Бўлғуси тарих ўқитувчиларида креативликни

ривожлантиришнинг педагогик технологиялари/ Academikresearch in educational sciences (ARES), ISSN 2181-1385, volume 2, issue 4, april 2021, p.1613-1619.

3. Florida, R. (2002). The Rise of the Creative Class: And How it's transforming work, leisure, community and everyday life. New York: Perseus Book Group.

“ИЛК ҚАДАМ” ДАВЛАТ ЎҚУВ ДАСТУРИ АСОСИДА РИВОЖЛАНИШ МАРКАЗЛАР ҲАМДА “STEAM ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯСИ”НИНГ ИНТЕГРАЦИЯСИ

Ф.Р.Кадилова, Ю.Р.Махмутазинова

*Мактабгача таълим ташкилотлари директор ва мутахассисларини қайта тайёрлаш ва
уларнинг малакасини ошириш институти профессори, халқаро педагогик таълим фанлар*

Академияси академиги, педагогика фанлари доктори

Низомий номидаги ТДПУ ўқитувчиси

Аннотация: Ушбу мақолада “Илк қадам” давлат ўқув дастурига мувофиқ мактабгача таълим ташкилотларида ривожланиш марказлар ҳамда STEAM таълим технология интеграциясини жорий этиш методикаси очиб берилган. Шунингдек интеграция ёндошуви асосида дидактик ўйинлар орқали болаларда коммуникатив компетенцияни ривожлантириш методлари ёритилган.

В данной статье раскрывается методика интеграции центров развития в соответствии государственной учебной программой «Илк қадам» и использование STEAM технологии в дошкольных образовательных организациях. А также на основе интеграционного подхода посредством дидактических игр освещены методы развития коммуникативной компетенции у дошкольников.

This article reveals a methodology for integrating development centers in accordance with the State Clothing Program “Ilk kadam” and the use of STEAM technology in preschool educational organizations. As well as on the basis of an integration approach through didactic games, methods of developing communicative competence among preschoolers are highlighted.

Таянч сўзлар: мактабгача таълим, STEAM, технология, ривожланиш, ривожланиш марказлари, интеграция, инновация, коммуникатив компетенция, ривожланиш таълимий ўйинлар, мантикий фикрлаш.

Ключевые слова: дошкольное образование, STEAM, технология, развитие, центры развития, интеграция, инновация, коммуникативная компетенция, развитие, дидактические игры, логическое мышление.

Key words: preschool education, STEAM, technology, development, development centers, integration, innovation, communicative competence, development, didactic games, logical thinking.

Мактабгача таълим ташкилотларида болаларга таълим-тарбия беришда, интеллектуал, жисмоний, маънавий-ахлокий, этик ва эстетик жиҳатдан ривожлантиришга, шунингдек уларни мактабга тайёрлашга қаратилган узлуксиз таълим бугунги кунда долзарб масалалардандир. Дарҳақиқат ҳар бир бола ривожланишининг замини мактабгача даврдан бошланади.

“Илк қадам” давлат ўқув дастури мазкур масалаларга йўналтирилган. Бизинг олиб борган тадқиқот ишимиз ушбу ҳужжатга оид “Тил ва нутқ”, “Қуриш-яшаш ва математика” ривожланиш марказларининг мазмун таркибий қисмлари ўртасидаги боғлиқликни жорий этиш, яъни интеграцияга йўналтирилган. Интеграцион ёндашув асосида болаларни ривожлантириш - асосий масалаларимиздан этиб белгиланди.

Боланинг ривожланиши деганда биз унинг танаси тузилиши, психологияси ва ҳуққидаги биологик жараёнлар ҳамда атроф-муҳит таъсирида рўй берадиган ўзгаришларни назарда тутумиз.

Мактабгача ёшдаги болаларни ривожланишида коммуникатив компетенция катта аҳамиятга эга. Чунки унинг ёрдамида тарбияланувчилар мулоқот воситаларидан турли вазиятларда фойдалана билиш кўникмасини аста-аста англаб борадилар.

Коммуникатив компетенцияни ривожлантириш учун катталар, жумладан тарбиячи бола билан педагогик жараёнда қуйидаги вазифаларни амалга ошириши лозим:

- Хар бир боланинг катталар ва тенгдошлари билан мулоқот қилиш доирасини кенгайтириш. Масалан, мактабгача таълим ташкилотида бошқа гуруҳ тарбиячиси, мудира, методист, психолог, дефектолог, жисмоний тарбия йўриқчиси, мусиқа раҳбари, меҳмонлар, тенгдошларининг ота- онаси билан мулоқот қилиши.

- Болага ўз ихтиёри билан катталарнинг саволларига жавоб беришига, ўз ўрнида ўзи ҳам уларга савол бериши, миннатдорчилик билдириш, суҳбатдошига мурожаат қилишнинг турли усулларида фойдаланишни ўргатиш.

- Атрофдагилар билан мулоқот қилишида, суҳбат ва мунозараларда ўз фикрини билдириш қобилиятини ривожлантириш. Мустақил ҳолда “Ассалому-алайкум”, “Раҳмат”, “Илтимос”, “Хайр”, “Мумкинми” “Марҳамат” каби илтифотли сўзларни айта олишга одатлантириш.

- Тарбияланувчига атрофдагиларни ҳурмат қилиш муҳимлигини тушунтириш, шулар қаторида оила аъзоларига эътиборли бўлишга ўргатиш, заруратга қараб ёрдам сўраб, мурожаат этишини рағбатлантириш.

- Тенгдошлари билан саломлашиш, хайрлашиш, ўзаро фикрлашиш, мулоқотдан мамнунлигини сўз билан ифодалашга ўргатиш.

Юқорида кўриб чиқилган вазифалар “Тил ва нутқ” марказига тааллуқли. Энди уни “Қуриш-ясаш ва математика” маркази билан қуйидагича интеграциялаштирамиз.

“Қуриш-ясаш ва математика” маркази болаларни фикр юритишга, изланишга қаратилган. Ушбу марказда болалар айириш, қўшиш, катталиқни билиш, катта-кичик, баланд-паст, кенг-тор, предметларни узунлиги, эни, қалинлигига кўра таққослаш, геометрик шаклларни фарқлаш ва солиштиришга, турли қурилмаларни қуриш-ясаш, лойиҳалашга ўрганадилар.

Мактабгача ёшдаги болаларда билиш жараёнларининг ҳамда интеллектуал англаш қобилиятларини намоён бўлишида элементар математик тасаввурлар – “Сон-санок”, “Геометрик шакллар”, “Миқдор ва катталиқ”, “Фазода мўлжал олиш” ва “Вақт” бўйича илк тушунчалар ривожланади. Янги билимларни болалар турли хил методлар орқали катталар ёрдамида интеграциялаш асосида эгаллайди. “Тил ва нутқ” маркази мисолида кўриб чиқамиз. Қизиқарли кўргазмаликлар қўлланилиб, геометрик шакллар ва рақамлар намоиш қилинади ҳамда номлари айтилади. Киритилган материални мустаҳкамлаш мақсадида таълимий ўйинлар ўтказилади. Масалан:

1. “Ким тўғри геометрик шаклнинг номини айтади?”. Тарбиячи геометрик шакллардан бирортасини намоиш қилади. Ўйин иштирокчиларидан биринчи номини тўғри айтган болага ушбу геометрик шакл берилади.

Ўйиннинг охирида геометрик шаклларни энг кўп етган бола ғолиб ҳисобланади.

2. “Ким тўғри геометрик шаклларни ясайди?” ўйини. Иштирокчиларга қуйидаги геометрик шакллар тарқатилади: тўртбурчак, тўғри тўртбурчак, доира, овал. Шунга доир улар кичик гуруҳларга бўлинади. 1чи гуруҳ – “Доира”, 2чи гуруҳ – “Тўғри тўртбурчак”, 3чи гуруҳ – “Учбурчак” 4чи гуруҳ – “Овал” шаклини ҳамкорликда бир-бирларини қўлларини ушлаган ҳолда акс эттиришади. “Компот” деган командани эшитганда, болалар бошқа командалар билан аралашиб, хонанинг истаган жойида юриши, югуриши, сакраши мумкин. Бироқ номи айтилган геометрик шаклга мувофиқ, масалан “Овал!”, муносиб команда қўл ушлашиб, уни ҳосил қилиши керак. Бошқа командалар эса тўғрими ёки нотўғрими, хатолик бўлса, уни қандай тузатиш лозимлигига ёрдам беради.

Кейинги босқичларда гуруҳларнинг алмашуви ҳам ўйиннинг сифатини оширади. Сўнг оддийдан мураккабга қараб “Жуфтингни топ!”, “Геометрик шакллардан, ким тезроқ уй ясайди” каби ўйинлар мақсади такомиллашиб боради. “Солиштириб, топинг” ўйинида эса тарбияланувчилар намоиш қилинган геометрик шаклларга мувофиқ хонадаги предметларни топиб, номларини баён этадилар. Масалан:

-Тарбиячи: “Тўғри тўртбурчак”ни намоиш қилади.

- Болалар “Тўғри тўртбурчак: стол, эшик, шкаф, китоб ва х.к.

Ўйин жараёнида мантикий фикрлаш, фазовий муносабатларни идрок этиш ва тушуна олиш – буюмларнинг бир-бирига нисбатан ва атроф-муҳитдаги жойлашуви ҳамда вақтни билиш - кун қисмлари, ўлчов бирликлари, тақвимий билимлар, кўникмалар ривожланади.

Иллюстратив ёрқин, қизиқарли кўргазмаликлар, тарқатма материаллар, ўйинлар орқали тарбияланувчилар ҳамкорликда ишлашга, тасвирлаш, таққослаш, солиштириш, мантикий фикрлашга ўрганадилар. Мантикий фикрлаш жараёнида иштирокчиларнинг математик тасаввурлари шаклланиб, луғати бойитилади, мустаҳкамланади, фаоллашади. Шу билан бирга уларда коммуникатив компетенция ривожланади.

Юқорида кўриб чиқилган ривожланиш марказлар STEAM таълим технологияси билан интеграциялашса, таълимнинг сифати ва самараси янада ошади. Эслатамиз STEAM: **Science** – фан, **Technology** – технология, **Engineering** – муҳандислик, **Art** – санъат ва ижод, **Mathematics** – математика маъносини билдиради¹. Ушбу технология таълим жараёнини ташкил этишда муҳим аҳамият касб этади. Жумладан STEAM таълим технологияси билан “Қуриш-яшаш ва математика” маркази интеграцияси болаларда элементар математик тасаввурларни шакллантиришда мантикий фикрлаш, **Engineering** – илк техник ижодкорлиги, муҳандислик қобилиятларини тўғри йўналтириб, билиш жараёнларини ривожланишига, **Art** – санъат ва ижоддаги креативлик, ижодий изланиш, **Technology** – замонавий инновацион технологиялар ва уларнинг қоидалари билан танишиб боришга имкон яратади. **Science** – илк экспериментал тадқиқотчилик фаолиятни тушуниш, яхлит мазмунни намоён этиб, амалда синаб кўришга ёрдам беради. Интеграция орқали болаларда ижодкорлик ривожланади, улар бир вазифани бажариш жараёнида ҳам қуриш яшаш, ҳам математика билан шуғулланиб, нутқи орқали катталар ва тенгдошлар билан мулоқот қилишга, ўз фикрини билдиришга, уни исботлашга, ҳаракатларини ифодалашга ўрганадилар. Уларнинг мулоқотида айириш, қўшиш, катталиқни билиш, таққослаш каби математик тасаввурлар кенгайиб, шаклланиб боради, ўз ишларини таҳлил қилиш жараёнида турли хил иборалар, ўзаро мулоқот қўлланилиб, коммуникатив компетенция ривожланади. Демак, мактабгача таълим ташкилотларида ривожланиш марказлар ҳамда “STEAM технологияси”нинг интеграцияси таълимнинг сифат, самарадорлигини оширишда катта аҳамиятга эга.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 22 декабрдаги “Мактабгача таълим ва тарбиянинг давлат стандартини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПҚ-802-сонли қарори.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 майдаги ПҚ-4312-сонли қарори асосидаги Ўзбекистон Республикаси мактабгача таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш Концепцияси.

3. Қодирова Ф.Р. ва бошқ. “Мактабгача педагогика” “Тафаккур” нашриёти (дарслик) Тошкент, 2019, 685 бет.

4. Қодирова Ф.Р., Қодирова Р.М. «Болалар нутқини ривожлантириш назарияси ва методикаси» Тошкент, 2006, “Истиқлол” нашриёти (дарслик), 300 бет.

5. STEAM is an innovative method of teaching and should be implemented across Europe. More and more institutions should work together to share ideas and develop further projects. Participant at steam education Conference, Porto 2019 (<https://steameducation.eu/bookinginformation.html>).

¹ STEAM is an innovative method of teaching and should be implemented across Europe. More and more institutions should work together to share ideas and develop further projects. Participant at steam education Conference, Porto 2019 (<https://steameducation.eu/bookinginformation.html>).

“ИЛК ҚАДАМ” ДАВЛАТ ЎҚУВ ДАСТУРИГА МУВОФИҚ РИВОЖЛАНИШ МАРКАЗЛАРИДА ШАХСГА ЙЎНАЛТИРИЛГАН ЁНДАШУВ АСОСИДА ТАЪЛИМИЙ ЖАРАЁННИ ТАШКИЛ ЭТИШ

Ф.Р.Кадирова, М.З.Файзуллаева

*Мактабгача таълим ташкилотлари директор ва мутахассисларини қайта тайёрлаш ва
уларнинг малакасини ошириш институтининг профессори, халқаро педагогик таълим
фанлар Академияси академиги, педагогика фанлари доктори*

*Мактабгача таълим ташкилотлари директор ва мутахассисларини қайта тайёрлаш ва
уларнинг малакасини ошириш институти катта ўқитувчиси*

Илк ва мактабгача ёшдаги болалар ривожланишига қўйиладиган давлат талаблари ва “Илк қадам” давлат ўқув дастурига мувофиқ ҳар бир бола мактабгача таълим ташкилотида катталарнинг эътиборида бўлиб, баркамол ривожланиши учун унга ташкилий-педагогик шароитларни яратиб бериш муҳим вазифалардандир. МТТ мутахассиси мактабгача педагогика, таълим методикаси, психология бўйича билимларга эга бўлиши билан бир қаторда тарбияланувчиларнинг яккама-якка ривожланиш кўрсаткичлари тўғрисида, ҳар бири ўзига яраша ёндашув ва муносабат талаб қилишини назарда тутди.

Мазкур ҳужжатларга оид шахсга йўналтирилган ёндашувни ривожланиш марказларида амалга ошириш лозим. Шахсга йўналтирилган ёндашув – боланинг хоҳиш-истаклари, фикрлаш ва ҳаракатларини инобатга олган ҳолда унинг шахси, ўзига хос хусусиятлари, қобилиятини ривожлантиришга йўналтирилган ёндашув. Таълим жараёнида бир вақтнинг ўзида болаларнинг ўйнаши, ривожланиши ва ўрганиши учун имконият яратиш ҳамда педагог уларни кузатиб бориши, ҳар бири тўғрисидаги маълумотни ўрганиши ва таҳлил қилиши, зарур бўлса йўналтириши, қўллаб-қувватлаш лозим. Кузатувлар педагогларга ҳар бир бола тўғрисида анча маълумот олишга ёрдам беради, яъни, нимани кутиш, қандай ютуқ ва камчиликлар мавжуд, у билан олиб борилган мулоқотда нимани ўзгартириш лозим ҳамда қандай методлар орқали жорий қилиниши керак.

Кузатиш мақсадли, мазмунли, тизимли ва шахсга йўналтирилган ёндашув асосида олиб борилиши даркор. “Илк қадам” давлат ўқув дастурида белгиланган ривожланиш марказлардаги таълимий жараёнларни ташкил этиш муҳим аҳамиятга эга. Биз олиб борган ривожланиш марказлар – мавзули режалаштириш бўйича болаларнинг қизиқишлари ва эҳтиёжларини инобатга олиб, таълим сифати, самараси, шахсий тажриба ошириладиган муҳит яратилишига интилдик.

Ривожланиш марказларида шахсга йўналтирилган ёндашув – бу педагогнинг эътиборини бола шахсига, унинг нафақат интеллектуал қобилиятлари ва фуқаролик масъулият ҳиссини, балки ҳиссий, эстетик, ижодий мойилликларини ривожлантиришга қаратишдир. Биз ҳар бир болага унинг хусусиятларини, ҳаётий қадриятларини, интилишларини аниқлаш асосида ўзларининг ривожланиш йўллари танлаш ҳуқуқи мавжуд эканлигини тушунтиришни лозим топамиз.

Шахсга йўналтирилган таълим ривожланиш марказларида боланинг ўзи, шахс сифатида – ўзининг хоҳиш-истаклари, ниятлари, мақсадлари, ноёб кичик ҳаёт тажрибаси эътиборга сазовор эканлигини ҳис қилади. Шу муносабат билан таълим жараёни **“билимларни каттадан болага ўтқазिश” моделидан, “бола ташаббуслари маъқулланадиган ва у таълим жараёнида фаол иштирок этадиган” моделга** йўналтирилиши замонавий ёндашувдир.

Шахсга йўналтирилган таълимнинг мақсади: болани ўзига хос шакллантириш учун зарур бўлган ўзини-ўзи англаш, ривожлантириш, мослаштириш, бошқариш, ҳимоя қилиш, тарбиялаш механизмларини киритишдан иборат.

Илк ва мактабгача ёшдаги болалар ривожланишига қўйиладиган давлат талаблари ва “Илк қадам” давлат ўқув дастурига мувофиқ ривожланиш марказларида шахсга йўналтирилган ёндашув асосида таълимий жараённи ташкил этиш ўз тамойилларига эга. Мисол тариқасида ўзини намоён қилиш тамойилини кўриб чиқайлик. Ҳар бир болада ўзининг

интеллектуал, коммуникатив, бадий ва жисмоний қобилиятларини намоён қилиш эҳтиёжи мавжуд. Унинг табиий ва ижтимоий қобилиятларини намоён этиш ва фикр билдириш истагини рағбатлантириш ва қўллаб-қувватлаш жуда муҳимдир. Бундай ёндашув орқали педагог томонидан турли вазиятларда болага топшириқлар берилганда, у унга юклатилган мажбуриятларни қабул қилиб, уларни бажаришга, ўз хоҳиш истаклари, қизиқишларини билдиришга, бошқаларга намуна бўлишга ҳаракат қилади, вазифани бажариб бўлгач шахсий қарор қабул қилишга аста-секин ўрганади.

Индивидуаллик тамойили асосида таълимий жараён ташкил этилганда МТТнинг асосий вазифаси бола шахсиятининг шаклланиши учун шароит яратиш. Ривожланиш марказларида таълимий фаолиятни ташкил этишда иштироқчининг индивидуал хусусиятларини (фёъл атвори, одатлари, қизиқиши, интилиши, ривожланишида бўшлиқ томони) ҳисобга олиш ҳамда унинг келгуси ривожланишига ҳар томонлама ҳисса қўшиш, босқичма-босқич ўйлаб, режалаштирилади.

Танлаш тамойили асосида таълимий жараёни ташкил этишнинг мақсади, мазмуни, шакллари ва усулларини қўллашда субъектив ваколатларга эга шароитда бола яшаши ва тарбияланиши, педагогик жиҳатдан маъқуллиги, танлов унинг индивидуал хусусиятлари ва субъективлики ривожлантириш, қобилиятларини намоён қилиш, айнан бунинг учун мактабгача ёшдаги гуруҳларда *ривожлантириш марказлари* фаолияти зарурдир.

Ишонч ва қўллаб-қувватлаш тамойили асосида таълимий жараён ташкил этилганда педагогик фаолиятни инсонпарварлик, шахсга йўналтирилган таълим ва тарбия технологиялари билан бойитиш катта аҳамиятга эга. Болага ишонч, ўзини-ўзи англаш ва ўзини “мен”лигига бўлган интилишларини қўллаб-қувватлаш, ортиқча талаблар ва ҳаддан ташқари назорат ўрнатмаслик лозим. Ташқи таъсирлар эмас, балки ички мотиватсия болани ўқитиш ва тарбиялашнинг муваффақиятини таъминлайди.

Ривожланиш марказларида шахсга йўналтирилган ёндашув ҳар бир боланинг индивидуал хусусиятига мос келадиган таълим ва тарбия усул ва воситаларини қўллашга имкон яратади.

Тадқиқот технологияси орқали болалар “Фан ва табиат” марказида мустақил изланиш, тажриба-синов орқали хулоса чиқаришга ўргатилади. Бунда уларга тайёр билим берилмайди. Муаммоли вазиятда изланиш, кашфиёт орқали ўрганиш, тажриба-синов ўтқазилган шароит яратилади.

Коммуникатив технология орқали иштироқчилар ўз фикрини баён этиш, баҳслашиш, мунозара юритиш, тасаввурларини эркин нутқ воситасида ифодалашга ўргатилади.

Ўйин технологияси орқали ўйин давомида билим, кўникма ва малакага эга бўлиш учун уларга шароит яратилади. Таълимий, воқеабанд ўйинлар ташкил этилади.

Рефлексия технологияси орқали болаларга саволлар берилиб улар фикр юритишга, уни таҳлил қилишга ўргатилади.

Демак, педагоглар шахсга йўналтирилган таълимда боланинг қизиқишлари, мойиллиги, эҳтиёжлари, истаклари қондирилишини, ижодий салоҳиятини ривожлантириш, шахсий фазилатларини (*ташаббуси, мустақиллиги, ижодкорлиги*) шакллантиришни доимо назарда тутишлари лозим. Педагоглар “Илк қадам” давлат ўқув дастурига мувофиқ ривожланиш марказларда нафат билим бериш, уни мустаҳкамлаш, фаоллаштиришга эътиборларини қаратишлари зарур. Болаларни ўйлашга, фикр билдиришга ундаш шахсга йўналтирилган ёндашувга хос муҳим белгилардандир.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Мактабгача таълим ва тарбиянинг давлат стандарти. Тошкент, 2020 й.
2. Сай Е.Ф., Грошева И.В., Назарова В.А., Исмаилова М.А. Ўзбекистон Республикаси Илк ва мактабгача ёшдаги болалар ривожланишига қўйиладиган давлат талаблари ва “Илк қадам” давлат ўқув дастурини мактабгача таълим муассасалари амалда қўллаш бўйича тренерлар учун қўлланма. Тошкент, 2019 й.
3. Шин А.В., Мирзиёева Ш.Ш., Грошева И.В., Микаилова У.Т., Сулейманова Ю.Т.,

Даукаева А.Г., Власова Е.Н., Галимова Э.Ф. “Шахсга йўналтирилган ёндашув асосида таълим жараёнини режалаштириш”. Методик қўлланма. Тошкент, 2020 й.

4. Қодирова Ф.Р. в бошқ. Мактабгача педагогика “Тафаккур” нашриёти (дарслик). Тошкент, 2019 й.

“ИЛК ҚАДАМ” ДАВЛАТ ЎҚУВ ДАСТУРИГА МУВОФИҚ РИВОЖЛАНИШ МАРКАЗЛАР ИНТЕГРАЦИЯСИ АСОСИДА БОЛАЛАРНИ КИТОБХОНЛИККА ТАЙЁРЛАШ

Ф.Р.Қадирова, Д.М.Махмудова

Мактабгача таълим ташкилотлари директор ва мутахассисларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш институти профессори, халқаро педагогик таълим фанлар Академияси академиги, педагогика фанлари доктори

Мактабгача таълим ташкилотлари директор ва мутахассисларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш институтининг мустақил тадқиқотчиси

Аннотатсия: Ушбу мақолада мактабгача таълим ташкилотларида “Илк қадам” давлат ўқув дастурига мувофиқ ривожланиш марказлар интеграцияси асосида болаларни китобхонликка тайёрлашда эртақлардан, турли ҳил ўйинлар ва креатив кўргазмали материаллардан фойдаланиш методикаси ёритилган.

Аннотация: В данной статье освещается методика использования сказок, различных видов игр и креативных наглядных материалов в дошкольных образовательных организациях при подготовке детей к чтению на основе интеграции центров развития в соответствии с государственной образовательной программой “Илк қадам”.

Annotation: In this article the method of using fairy tales, Various kinds of games and creative visual materials in pre-school educational institutions, preparing children for reading on the basis of integration of development centres in accordance with the state educational program “Ilk kadam”.

Мамакатимиз Президенти Ш.М.Мирзиёев 2019 йилнинг 19 март куни илгари сурган бешта муҳим ташаббус катта аҳамият касб этади. Ушбу мақолада тўртинчи ташаббус – ёшлар ўртасида **китобхонлик**ни тарғиб қилиш ва уларни ривожлантириш ҳақида фикрлашамиз.

С анализом информации тесно связаны организация маркетинговых исследований или создание маркетинговой службы, что, также, представляет новшество в деятельности дошкольного образовательного учреждения. Маркетинговые исследования содержат внутренний и внешний анализ деятельности ДООУ. Внутренний анализ позволяет руководителю оценить среду внутри учреждения (кадровые резервы, материальные условия), соответствие образовательных услуг запросам адресных групп, перспективы на образовательном рынке, деятельность учреждения в сравнении с другими. Внешний - включает анализ образовательного рынка, окружающей среды, потребителей и «образа дошкольного учреждения» (степень его престижности и признания, популярности в профессиональном педагогическом сообществе), дает руководителю и коллективу достаточно объективную картину деятельности учреждения. Итогом маркетинговых исследований является сравнение полученных результатов и реальных фактов деятельности ДООУ, которое позволит выявить проблемы, которые необходимо решить, выделить наиболее значимые несоответствия, а затем определить цели и задачи.

Организация, как функция управления дошкольным образовательным учреждением, по мнению С.А. Езоповой и И.А. Селиверстовой, направлена на создание рациональной организационной структуры учреждения с целью достижения целей деятельности в оптимальный срок и при оптимальных затратах, материальных, финансовых и трудовых ресурсов. Качество управления дошкольным учреждением зависит от организации использования управленческих решений, от распределения и закрепления за каждым членом педагогического коллектива четких функциональных обязанностей, от создания гибких организационных отношений в процессе совместной деятельности, от выбора структуры организации.

Как отмечает И.А. Селиверстова, организационная деятельность руководителя дошкольного учреждения – это целостная, непрерывная, поэтапная, циклическая система действий [1].

Организационная деятельность руководителя состоит из четырех этапов: выбор и формулировка цели деятельности; отбор средств реализации целей данной деятельности и отбор и подготовка исполнителей; определение организационных отношений между ними и оценка результатов деятельности.

М. Мескон, Ф. Хедоури, М. Альберт выделяют аспекты организационного процесса в управлении социальными системами. Одним из них является деление организации на подразделения соответственно целям и стратегиям. Другим аспектом устройства организации является взаимоотношения полномочий, которые связывают высшее производство с низшими уровнями работающих и обеспечивают возможность распределения и координации задач.

Рассмотрим реализацию первого аспекта – создание организационной структуры в управлении дошкольным образовательным учреждением. В теории управления социальными системами, в том числе образовательными, выделяют горизонтальные и вертикальные разделение труда, линейную, линейно-функциональную, матричную структуры управления [4].

Анализ научной и методической литературы показывает, что в дошкольных учреждениях в настоящее время чаще всего используется линейная структура организации, горизонтальное и вертикальное распределение труда.

Линейная структура дошкольного учреждения исследована учеными: Т.П. Колодяжной, А.И. Селиверстовой, Л.М. Волобуевой и другими. Все они выделяют первый уровень – это управление высшего звена, который занимает руководитель дошкольного учреждения. Второй уровень – управление среднего звена: заместители руководителя, завхоз, методист, главный бухгалтер и т.д. Л.М. Волобуева выделяет дополнительно третий уровень управления в ДООУ – это управление низшего звена, куда входят педагогические работники и обслуживающий персонал. А.И. Селиверстова делит участников управления низшего звена на две группы: воспитателей и специалистов автор относит к третьему уровню управления, а учебно-воспитательный и обслуживающий персонал к четвертому уровню [4].

Относительным нововведением в организационной структуре ДОУ в современных условиях является использование линейно-функциональной и матричной структуры организации. Примером линейно-организационной структуры в ДОУ будет участие в управлении ДОУ попечительского совета, Совета педагогов и других выборных органов, которым заведующий детским садом может делегировать часть своих полномочий.

Делегирование ряда полномочий, прав руководителя ДОУ управленческому аппарату, педагогу и другим сотрудникам позволяет на деле превратить дошкольное учреждение в самоуправляющуюся систему, развивающую демократические основы управления.

Матричная структура организации в управлении дошкольного учреждения на сегодняшний день встречается достаточно редко, хотя предлагается учеными: К.Ю. Белой. Л.В. Поздняк и др. Матричная организация представляет собой простой, гибкий и динамичный способ объединения специалистов, обладающих различными функциональными знаниями, опытом и квалификацией в программно-целевые группы для решения образовательных задач.

Структура управления конкретного ДОУ является в достаточной степени индивидуальной.

Нововведениями также будет, использование заведующим детским садом в своей работе разных форм НОУТ (научная организация труда): годовой план-график, циклограммы управленческой деятельности, схемы, таблицы, в которых сгруппированы периодически повторяющиеся виды деятельности, определена их продолжительность и последовательность в течение всего учебного года (В.П. Дуброва, Е.П. Милашевич, П.И. Третьяков, Л.В. Поздняк и другие), технологические схемы планирования личного труда (В.И. Зверева).

В деятельность руководителя дошкольного образовательного учреждения, можно отнести организацию разных форм работы ДОУ, разных форм работы с персоналом и с родителями, являющимися основными потребителями образовательных услуг. Это открытие групп кратковременного пребывания детей разного возраста, групп выходного дня, организацию оказываемых на дому патронажных услуг для детей - инвалидов в сочетании с кратковременным пребыванием в ДОУ, организацию детских праздников и развлечений на дому, маркетинговые исследования, проектный метод, инновационные объединения педагогов (матричные подразделения), тьюторство (работа тьютора по научно-методической работе), организация проекта сетевого взаимодействия дошкольных образовательных учреждений.

Таким образом, качество и эффективность управленческой деятельности в современном ДОУ напрямую зависят от выбора ее содержания и организации.

ЛИТЕРАТУРА

1. Менеджмент : учеб. пособие / под ред. В.В. Лукашевича, Н.И. Астаховой. – М. : ЮНИТИ-ДАНА, 2007. – 256 с.
2. Курбонов Ш., Сейтхалилов Э. Таълим тизимини бошқариш. – Т.: «Турон-Иқбол», 2006. –101-б.
3. Новые педагогические и информационные технологии в системе образования: учеб. пособие для студентов пед. вузов и системы повышения квалификации пед. кадров / под ред. Е.С. Полат. – М. : Академия, 2010. – 368 с.
4. Поздняк, Л. В. Управление дошкольным образованием : учеб. пособие для вузов / Л.В. Поздняк, Н.Н. Лященко. – М. : Академия, 2000. – 432 с.
5. Сафонова, О.А. Программно-целевое управление развитием дошкольного учреждения : дис. ... докт. пед. наук : 13.00.01 / О.А. Сафонова. – Н. Новгород, 2004. – 316 с.

УМУМТАЪЛИМ МАКТАБ ЎҚУВЧИЛАРИДА ЎЗARO ҲАМКОРЛИКДА ТАДБИРКОРЛИК КЎНИКМАЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ

*Химматалиев Дўстназар Омонович, Исакова Нозина Шердоровна, Искандарова Гулрух
Пирмаматовна*

педагогика фанлари доктори, профессор,

“Таълим муассасалари бошқарув” мутахассислиги 2 курс битирувчи магистрантлари

Аннотация. Ушбу мақолада умумтаълим мактаб ўқувчиларини оила билан ҳамкорликда тадбиркорлик фаолиятига тайёрлаш, ўқувчиларда ўзаро ҳамкорликда тадбиркорлик кўникмаларини шакллантириш мазмун-моҳияти ва амалга ошириш механизмлари ҳақида сўз юритилади.

Калим сўзлар: умумтаълим мактаби, ўқувчи, оила, тадбиркорлик фаолияти, касбий сифат, ишлаб чиқариш, тадбиркорлик кўникмаси, оилавий тадбиркорлик.

Жаҳонда ўқувчиларда тадбиркорлик фаолияти учун зарур касбий сифатларни ривожлантириш ва ишлаб чиқаришни ташкил этиш соҳасида билим ва кўникмаларни таркиб топтириш, касбий-меҳнат таълими ва касбга йўналтириш жараёнида тадбиркорлик фаолиятига жадал тайёрлашга доир илмий изланишлар олиб борилмоқда. Айниқса, тадбиркорлик кўникмаларини ривожлантиришга ёрдам кўрсатиш учун таълимий муҳитни структуралаштириш ва қўллаб-қувватлаш воситаларини ишлаб чиқиш, тадбиркорлик таълимини жорий этишнинг фаолиятга йўналтирилган, ўқув фани сифатида, модулли, умумтаълимий ёндашув моделларидан самарали фойдаланиш, бизнес асослари ва тадбиркорлик амалиётини ўргатишга доир таълимий дастурларни ишлаб чиқишга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Шунингдек, ҳар бир ўқувчини тадбиркорлик билан шуғулланишнинг фундаментал асосларини эгаллаши, тадбиркорлик фаолиятига доир амалий кўникмаларни ўзлаштиришига эришишнинг педагогик механизмларини такомиллаштириш муҳим аҳамият касб этади.

Республикамизда “Yoshlar – kelajagimiz” Давлат дастури доирасида ўқувчиларни тадбиркорлик фаолиятига йўналтириш, оилавий тадбиркорликни ривожлантириш, мактаб ва оила ҳамкорлиги асосида ўқувчиларда тадбиркорлик қобилиятини шакллантиришга доир қатор ислохотлар амалга оширилмоқда. Шу билан бирга мактаб ва оила ҳамкорлиги асосида ўқувчиларда тадбиркорлик кўникмаларини ривожлантиришнинг педагогик модели ва интегратив технологиясини ишлаб чиқиш зарурияти мавжуд.

Шарқ фалсафасида, инсонларнинг кундалик эҳтиёжлари ва уларни қондириш воситаларини кидириш эмас, балки ҳар бир инсоннинг шахс сифатидаги зарурий эҳтиёжларини тадқиқ қилиш муаммолари муҳим аҳамият касб этади. Инновацион иқтисодиёт ривожланиб бораётган ҳозирги даврда тадбиркорлик оиланинг даромадини кўпайтиради, фаровонлигини таъминлайди. Бугунги кунда замонавий тадбиркорликнинг энг муҳим белгилари доимо янгиликка интилиш, хом ашёдан унумли, оқилона фойдаланиш, иқтисодий ўсишни таъминлашдан иборат. Тадбиркорлик жамиятдаги ижтимоий-иқтисодий муносабатларнинг муҳим белгиси сифатида, ижтимоий-иқтисодий тараққиётни таъминлайди. Ҳар бир инсоннинг шахсий қобилияти, меҳнат ва касб маҳоратини намоён қилиш имкониятини беради. Замонавий шароитда мактаб ва оила олдида турган асосий вазифа нафақат таълим бериш, балки ўқувчи шахсини шакллантириш, мақсадли касбга йўналтириш ва ҳаётий фаолиятга тайёрлашдан иборат бўлмоғи лозим. Мактаб ўқув режалари ва уларни амалга ошириш шакллари академик тавсифга эга бўлиб қолмаслиги, таълим-тарбия мазмунини кўпроқ реал ҳаёт билан алоқадор бўлишини тақозо этади. Бунинг учун мактаб ва оила ҳамкорлигига алоҳида ёндашув талаб этилади. Хорижий мамлакатлар, жумладан, АҚШ, Англия, Франция, Япония, Жанубий Корея, Россия каби давлатлар педагоглари ва тадбиркорлари ҳам ўқувчиларда тадбиркорлик кўникмаларини ривожлантиришда мактаб ва оила тарбиясининг потенциал имкониятларидан тўлиқ фойдаланилмаёганлигини алоҳида эътироф этишади. Кўпчилик тадбиркорлар ишчи-ходимларда замонавий шароитда муҳим аҳамият касб этувчи аналитик ва тизимли фикрлаш, ташаббускорлик ва коммуникабеллик, қарорлар қабул қилиш ва масъулиятлилиқ сифатларининг мавжуд бўлишини талаб этишгани боис, ривожланган давлатларда ўқувчиларга иқтисодий билим асослари ва тадбиркорлик фанларини ўқитиш дастурлари кенг жорий этилганлигини эътироф этиш зарур. Мазкур тажрибаларни ҳисобга олган ҳолда, республикамизда мактаб ва оила ҳамкорлиги асосида ўқувчиларда тадбиркорлик кўникмаларини ривожлантиришнинг педагогик механизмларини

такомиллаштириш муҳим аҳамиятга эга

Бозор иқтисодиёти шароитида ўқувчиларни ҳаётий фаолиятга тайёрлаш уларда тадбиркорлик кўникмаларини ривожлантиришни тақозо этади. Мазкур вазифанинг долзарблигини қуйидаги ижтимоий омиллар орқали асослаш мумкин: тадбиркорлик нуфузи, унинг истиқболли ривожланишининг ўсиб бориши; ўқувчиларда ҳўжалик юритишнинг янги шакллари қизиқишнинг намоён бўлиши. Тадбиркорлик кўникмаси – ижтимоий-иқтисодий билимларни амалий фаолиятда қўллай олиш, кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик соҳасида маълум тажрибага эга бўлиш, фаолиятни ташкил этиш жараёнида юзага келадиган муаммоларни кўра билиш ва бартараф этиш, инновацион ғояларни излаш ва ўйлаб топиш, топшириқларни бажариш жараёнида қатъий интизомга риоя қилиш ва уддабуронлик, шахсий қизиқиш ва эҳтиёжларини жамоа манфаатлари билан уйғунлаштириш лаёқати йиғиндисидир. Ўқувчиларда тадбиркорлик кўникмасини ривожлантириш – инновацион ғояларни излаб топиш ва амалга ошириш, ностандарт вазиятларга мослаштириш, ташқи таъсирларга ўзининг шахсий фикри билан қарши тура олиш, жавобгарлик ва масъулиятни ўз зиммасига олиш, аксиологик муносабат, фаолиятга тайёрлик, ўз-ўзини назорат қилиш, моддий маҳсулотларга эҳтиёткорона муносабатда бўлиш, қўйилган мақсадга эришишдаги қатъийлик, ишга уддабуронлик билан ёндашиш, ташкилотчилик, коммуникативлик, ижодийлик, бошқарувга доир сифат ва хусусиятларни таркиб топтиришга йўналтирилган тизимли жараён.

Фаол тадбиркорликни ривожлантириш ўқувчиларга мактаб ҳамда оилада тадбиркорликка доир пухта билимларни бериш, уларда иқтисодий фаолиятни ташкил этиш, шу жумладан, тадбиркорлик кўникмаларини ривожлантиришни тақозо этади. Тадбиркорлик соҳасида олиб борилаётган ислохотлар замонавий шароитда ўқувчиларнинг маънавий-ахлоқий жиҳатдан етук бўлишинигина эмас, айтилиши мумкин, рўзғорда тежамкор, ҳўжаликни юритишда тадбиркор бўлишларига эришишдек педагогик вазифани ҳам ижобий ҳал этиш мақсадга мувофиқдир. Умумтаълим мактаби ва оила ҳамкорлигини йўлга қўйиш жараёнида ўқувчиларда миллатпарварлик, тежамкорлик, уддабуронлик, зийраклик ва тадбиркорлик каби фазилатларнинг тарбияланишига эришилади. Умумтаълим мактаби ва оила ҳамкорлиги асосида ўқувчиларда тадбиркорлик кўникмаларини ривожлантиришда қуйидаги педагогикпсихологик шарт-шароитларни ҳисобга олиш мақсадга мувофиқдир:

1) ўқувчи қобилиятини олдиндан баҳолаш. Ўқувчининг муайян фаолият турини қай даражада ўзлаштира олишини ота-она олдиндан аниқлаши зарур;

2) ўқувчининг меҳнатини унинг кучига яраша тақсимлаш. Меъёрдан ортиқ талаб унинг толиқиши, ўзига нисбатан ишончсизлик ҳиссининг ортиши, ишдан бўйин товлашига олиб келади;

3) истеъдодни рағбатлантириш. Ўқувчининг хатти-ҳаракатига ота-онанинг муносабати – майл ва қизиқишларини муносиб баҳолаш, уларга далда бериш, рағбатлантириш ўқувчиларда муайян фаолиятга қизиқишни орттиради;

4) талабчанлик.

Ота-оналар ва ўқитувчиларнинг ўқувчининг муайян ҳаракатни бажариши давомида ишни синчковлик билан пухта, виждонан бажариши, асбобускуналар, меҳнат қуролларига эҳтиёткор, хом ашёга нисбатан тежамкор бўлишни талаб этиши лозим.

Замонавий шароитда муҳим аҳамият касб этувчи аналитик ва тизимли фикрлаш, ташаббускорлик ва коммуникабеллик, қарорлар қабул қилиш ва масъулиятлилик сифатларининг мавжуд бўлишини талаб этилгани боис, ривожланган давлатлардаги ўқувчиларга иқтисодий билим асослари ва тадбиркорликни ўқитиш дастурларини кенг жорий этиш лозим. Бу эса мактаб ва оила ҳамкорлиги асосида ўқувчиларда тадбиркорлик кўникмаларини ривожлантиришнинг педагогик механизмларини такомиллаштириш муҳим аҳамиятга эгаллигини кўрсатади.

MUAMMOLI TA'LIM –FIZIKA O'QITISHDA INNOVATSION YONDOSHUV SIFATIDA

G.S. Uzoqova, S.Allanazarova

Qarshi Davlat Universiteti dotsenti, Fizika fakulteti talabasi

E-mail: uzoqova66@mail.ru

Annotatsiya: Maqolada ta'lim tizimida zamonaviy yondoshuv hisoblangan innovatsion texnologiyalardan ta'lim jarayonida samarali foydalanish to'g'risida fikr yuritiladi.

Zamonaviy ta'lim usullardan biri bo'lgan muammoli ta'limni fizika darslariga tadbiri va samaradorligi ilmiy- metodik jihatdan asoslangan.

Аннотация: В статье рассматривается эффективное использование инновационных технологии в образовательном процессе, которые является одним из современных методов обучения

Научно-методическом аспекте обосновано применения проблемного обучения на уроках физики, которое является одним из современных методов обучения, играющую очень важную роль среди инновационных технологий.

Annotation: The article discusses the effective use of innovative technologies in the educational process, which is one of the modern teaching methods

The article substantiates the scientific and methodological aspect of the application of innovative technology, including problem-based learning in physics lessons, that

Mamlakatimizda barcha ijtimoiy-iqtisodiy sohalar qatorida ta'lim sohasida ham chuqur islohotlar amalga oshirilmoqda. Hozirgi sharoitda innovatsion texnologiyalarni ta'lim tizimiga samarali tadbiriq etish davlat buyurtmasi hisoblanadi.

Innovatsion ta'lim XX asrning o'rtalarida ijtimoiy-iqtisodiy muammolar o'tkirlashgan paytda nisbatan qisqa davrda kasbiy ko'nikmalarni egallash uchun o'qitish tizimiga ehtiyoj yuzaga kelganda paydo bo'lgan. O'sha paytda industrial masalalar o'rganilib, ularning nazariy va texnologik qo'llanilishi bo'yicha yo'riqnoma ishlab chiqilgan. Bu innovatsion ta'limning dastlabki ko'rinishi bo'lib, hali ta'lim va kasbga o'qitish uchun moslashtirilmagan edi.

Fizika ta'limi konsepsiyasida bayon qilingan goyalarni, unda ko'zda tutilgan vazifalarni amalga oshirish yo'llari me'yoriy xujjatlarda o'z aksini topgan. Bu vazifalarni bajarishni ta'minlashda ta'lim tizimida innovatsion ta'lim muhim o'rin egallaydi. Ta'lim tizimini rivojlantirishdan asosiy maqsad xar bir ta'lim oluvchidagi qobiliyat ko'nikma va malakalarini rivojlantirish ularda yuksak axloqiy fazilatlarni shakllantirishdan iborat.

Mustaqil va ongli yondashuv orqaligina ularga singdirilgan bilim va malakalar kelajakda biror kasbni egallashda etuk inson bo'lib etishishlariga ko'maklashadi. Buning uchun bilimlarni puxta o'zlashtirishlari uchun o'quvchilarni mumkin qadar ko'proq mustaqil fikrlashga undaydigan o'qitish metodlaridan foydalanish ijobiy natija beradi. YUqoridagi fikrlarga tayanib, davr talabiga mos zamonaviy usullardan biri bo'lgan innovatsion ta'limni fizika darslariga tadbiriqini o'rganishga e'tibor qaratdik. Uning dolzarbliqi quyidagi omillar bilan aniqlanadi.

1. Fizika fanining eksperimental fan ekanligi.

2. Namoyish tajribalarining ko'p qismini ta'lim jarayonida aniq ko'rsatish imkoniyatlarini cheklanganligi.

3. Bilim berish ,ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda tajribalarning muhimligi.

4. Tajribalarni muhokama qilish yordamida muammoli ta'limni yaxshi amalga oshirish mumkinligi.

6. Tajribalar ko'rsatishda o'quvchilarning yoshini, oldin egallagan bilim doirasini to'liq hisobga olish.

7. Muammoli o'qitish metodi jarayonida singdirilgan bilim va malakalar kelajakda biror kasbni egallashda dunyoni ilmiy tushunishlariga fizikani o'rganishga bo'lgan qiziqishlari ortishiga ko'maklashadi.

Muammoli vaziyat quyidagi tartibda ifodalanadi.

Muammoli vaziyat eng birinchi bosqich bo'lib o'quvchilar onggiga qiziqish xissini

uygʻotadi. Oʻylash qobiliyatini faollashtiradi, oʻquvchi oʻzining bilimi nimaga qodirligiga ishonch hosil qiladi va natijada oʻtilgan oʻquv materiallarini qayta ongida shakllantirishga majburlaydi. Bunday vaziyatni yaratishda oʻqituvchi bilim bilan bir vaqtda shu vaziyatni xosil qilishga imkoniyat yaratishga qiziqarli tajribalar, tushunchalar asosiy rol oʻynaydi. Muammoli vaziyat toʻrt bosqichdan iborat. Xar bir bosqich alohida vaziyatlarga ega;

Birinchisi- eng sodda bosqich bunda oʻquvchilar koʻrsatgan vaziyatni kuzatish bilan boshlanadi.

Ikkinchi bosqichning nomi qidiruvchi deb ataladi, yaʼni oʻquvchilar oʻqituvchi yordamida qidiruv topish moslamasi bilan shugʻullanadi.

Uchinchi bosqich taxminlar deb ataladi. Oʻquvchilar oʻqituvchining taxminlariga fikrlarga asoslangan xamda muammoli vaziyatda mustaqil masalani yechishga intiladi.

Turtinchi bosqichning nomi xulosa deb nomlanadi. Bunda qaerdan? Nimadan? Nima uchun? Qachongacha? degan taxminlarni qaerdan qilib chiqishi, nimadan boshlaganligi, masalalarning isbotlari oʻquvchilar tomonidan toʻliq javob berilishi sharti qoʻyiladi.

Muammoli vaziyatni yaratishdan oʻqituvchilar muammoli tajribaga koʻproq eʼtibor berish kerak. Muammoli tajriba muammoli vaziyatning eng asosiy chiqish yoʻlidir. Muammoli tajriba ikkala tomonidan koʻp kuzatish, koʻp bilim talab etadi. Shuningdek oʻqituvchi va oʻquvchilar bir-birini tushunishi kerak.

Muammoli tajribani asosiy bosqichi – bu oʻquvchini faollikka chorlash oʻquvchidan dadil, isbot talab qilinadi, masalani yechish usullarini, talab qilishi muammoli tajribalarda oʻquvchi bekor qolmasligi kerak. Koʻpincha muammoli tajribalardan oʻquvchilar tomonidan “Nima uchun?” degan savollar beriladi. Bu savolni javobini oʻquvchilar oʻqituvchi bilan birgalikda yechishi kerak. Muammoli vaziyat va muammoli tajribalar oʻquvchilarda juda katta qiziqish uygʻotadi va fizika darsining samaradorligini, qiziqarli oʻtishini taʼminlaydi. Masalan: oʻqituvchi kapillyar xodisa haqidagi masalani va ularning sanoatda va qishloq xoʻjaligidagi ahamiyatini bayon etishda, oʻquvchilarga tutash idishlarda bir necha jinsli suyuqliklar qanday balandliklarda turishi haqida nimlar bilishlarini eslashni taklif etadi. Oʻquvchilarga shisha kapilyarlar tarqatiladi va ularda rangli suyuqlik koʻtarilishi xodisalarini kuzatish talab qilinadi. Kuzatiladigan xodisa oʻquvchilarda tutash idishlarda boʻladigan xossa bilan goʻyo qarama-qarshi boʻlishi muammoli vaziyatni vujudga keltiradi. Bu oʻqituvchining xikoyasi, yoki suxbatida ularni juda diqqat bilan faol ishtirok etishiga taʼsir etadi. Bunda oʻqituvchi ular uchun yangi boʻlgan xodisani taxlil etib beradi.

Muammoli vaziyatni yuzaga keltirish yoʻli bilan dars boshida oʻquv muammosini qoʻyishi ham oʻqituvchining oʻquv materiallarini bundan keyingi bayonini xarakteri aniqlab berilmaydi. Agar bu muammoli vaziyat muammoning yoki muammoli masalani taʼriflashga imkoniyat bermasa uni hal etish uchun oʻquvchilarga etarli bilim boʻlsa u holda yangi materialni bayon etishni muammoli bayon etish shaklida olib borish maqsadga muvofiq boʻladi. Muammoli bayon etishga misol qilib, Molekulyar fizika boʻlimidagi “Harorat” tushunchasini oʻrganishni keltiramiz.

Avvalo fizika oʻrganishning birinchi bosqichida oʻquvchilarning “xarorat” haqidagi bilimlariga tayanib sistemaning issiqlik muvozanati (barcha mikroskopik parametrlar istagancha uzoq vaqt davomida oʻzgarmay qolaveradigan xolat issiqlik muvozanati deb ataladi) haqidagi tushunchani kiritamiz va issiqlik muvozanatida boʻlgan jismlar uchun bir xil kattalik sifatidagi xaroratga Maksvell bergan taʼrifni aytdik. Bu kattalikni son bilan qanday ifodalash mumkin? deb savol tashlandi. Oʻquvchilarga xarorat termometr bilan oʻlchanishini eslatdim. Ammo bu holatda xarorat, birinchidan, termometrik jismning xossasiga ikkinchidan esa sanoq nuqtalarining tanlanishiga bogʻliq. Demak oʻquvchilar oʻlchagan xarorat shartli kattalik boʻlib, u aniq fizik maʼnoga ega emas ekan degan fikrga keladilar. Soʻng yana yangi muammo vujudga keltiriladi. YAʼni shunday fizik kattalikni topish kerakki, u haroratning oʻlchovi boʻlsin. Bu kattalik qanday xossalarga ega boʻlishi kerak? Bu savolga oʻquvchilar ilgari xaroratga berilgan taʼrifdan foydalanib javob berdilar. YAʼni bu kattalik muvozanat holatda boʻlgan jismlar uchun bir xilda boʻlishi kerak.

SHundan keyin bunday kattalikni faqat tajribadan topish mumkinligini tushuntiriladi, va xarorat jismining ichki energiyasiga bogʻliqligini eslatiladi. Natijada oʻquvchilar xarorat issiqlik muvozanatida boʻlgan jismlarda bir xil boʻlib u molekulalarning oʻrtacha kinetik energiyasiga teng

bo‘ladi degan xulosaga keladilar. Bu molekullarning kinetik energiyasining qanday o‘lchash mumkin deb savol beriladi va yangi muammo paydo bo‘ladi.

Demak, muammoni yechishda tajribalarning ahamiyati juda katta bo‘lib bu esa o‘quvchilarning fizik xodisalarini to‘liq, mantiqan tushunishlarini ta‘minlaydi, darsning samaradorligini oshiradi.

Bilimlarni o‘zlashtirish psixologiyasi bo‘yicha zamonaviy tadqiqotlarning ko‘rsatishicha muammoli vaziyat vujudga keltirilganda fikrlash faolligi ortib boradi. O‘quvchilarning dars mavzusini muhimligi, ahamiyatini ongli tushunib, olishlari faqat o‘qituvchilarning og‘zaki tushuntirishlari asosidagina vujudga kelmas ekan, balki, buning uchun o‘qituvchi tomonidan maxsus tashkil etiladigan muammoli vaziyatlar o‘qituvchilarning o‘z-o‘zlarini faoliyatlarida xam vujudga keladi. SHu sababli muammoli o‘qitish hozirgi vaqtda innovatsion texnologiyalar orasida juda katta ahamiyat kasb etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Golish L.V. Zamonaviy ta‘lim texnologiyalari: mazmuni, loyihalashtirish va amalga oshirish. Ekspress qo‘llanma. – T., 2001.
2. Малафеев Р.И. Проблемное обучение физики.-М., Просвещение, 1998.
3. Muhammedov G.I. , To‘raqulov X.A. O‘qitish tadqiqotlarining ilmiy-nazariy asoslari. – T., Fan, 2004. – 228 b
4. Nuriddinov B. «O‘qituvchilar malakasini oshirishda faol o‘qitish metodlaridan foydalanishning ilmiy pedagogik asoslari». Fan nom.il. dar. disser. avtoreferati – T.,2002
5. Yusupov A., Saidov T. Ta‘limda innovatsion texnologiyalarni qo‘llash.-T., 2006.

INSONPARVARLIK PEDAGOGIKASI – ZAMONAVIY TA‘LIM SOHASIDAGI USTUVOR YONDOSHUV

G.S. Uzoqova, M.Остонова

QarshiDavlat Universiteti dotsenti

QarshiDavlat Universiteti mazummranti

E-mail: uzoqova66@mail.ru

Annotatsiya: *Maqolada zamonaviy ta‘lim nazariyasi va amaliyotida asosiy konsepsiya hisoblangan “Insonparvarlik pedagogika”si to‘g‘risida fikr yuritiladi.*

Ta‘limni insonparvarlashtirish-uning mazmuni, tamoyillari, shakl va metodlarini zamonaviy talablar asosida yangilash, takomillashtirish, ularning o‘zaro aloqasi va birligini ta‘minlash orqali shaxsni har tomonlama shakllantirish va rivojlantirishga yunalitiruvchi ta‘limiy konsepsiya ekanligi ilmiy- metodik jihatdan asoslangan.

Аннотация: *В статье освещаются вопросы обучения гуманизации, которая считается основным понятием теории и практике в современной образования.*

Научно-методически обоснована обучение гуманизации - это образовательная концепция, на том факте, которая ведет к всестороннему формированию и развитию личности.

Важное значение в воспитании личности имеет духовная подготовленность всесторонне развитого молодого поколения и современный научный обоснований подход к воспитанию будущего подрастающего поколения.

Annotation: *The article highlights the issues of teaching humanization, which is considered the main concept of theory and practice in modern education.*

Humanization training is scientifically and methodologically substantiated - this is an educational concept, based on the fact that leads to the comprehensive formation and development of the personality.

Of great importance in the upbringing of the personality is the spiritual readiness of the comprehensively developed young generation and the modern scientific substantiation of the approach to the upbringing of the future rising generation.

Pedagogik hamkorlik g‘oyalari bugungi kunda pedagogik texnologiyalar mazmuniga singdirilgan va “XXI asr ta‘limi Konsepsiyasi” asosini tashkil etadi. “Insonparvarlik pedagogika”si

zamonaviy ta'lim nazariyasi va amaliyotidagi asosiy konsepsiya bo'lib, ta'limning bosh maqsadi shaxsning o'z-o'zini faollashtirishidir.

Insonparvarlik ta'limotining asoschilaridan biri Karl Rodjersdir. O'zining pedagogik qarashlarini K.Rodjers inson xulqidagi o'zgarishlar asosi sifatidagi uning qobiliyatlari shaxsiy tajribalarga tayangan holda o'sadi, rivojlanadi va o'rgatiladi, deb yozadi "Freedom to learn for the 80's" kitobida. Kimnidir o'zgartirish, unga tayyor tajribani uzatish kerak emas. Faqat uning rivojlanishiga imkon beruvchi muhitni yaratish lozim. K.Rodjers bunday muhitni yaratishni "qulaylashtirish" (ingl. facilitate) deb ataydi.

K.Rodjers an'anaviy pedagogikaning quyidagi qoidalaridan qoniqish hosil qilmaydi:

- o'qituvchi bilimlarni bayon etadi, o'quvchilar ularni o'zlashtirishga harakat qiladi.
- dars va imtihonlar–ta'limning asosiy tarkibiy qismlari. Dars bilimlarni shakllantirish shakli, imtihon esa egallangan bilimlar darajasini aniqlash jarayoni.

- o'qituvchi boshqaruvchi, ta'lim oluvchilar esa unga bo'ysunuvchilar sifatida aks etadi.

K. Rodjers ta'limning ikki turini ajratib ko'rsatadi: oddiy bilimlar, faktlar bilan qurollantiradigan axborot va ta'lim oluvchilarga ularning o'z-o'zini o'zgartirishi va o'z-o'zini rivojlantirishi uchun zaruriy, haqiqiy bilimlar beruvchi ahamiyatli ta'lim. Insonni shaxs sifatida shakllantiruvchi ta'lim shaxsga yo'naltirilgan yoki K. Rodjers fikricha, ahamiyatli ta'limdir.

Zero, insonparvarlik dunyoda insonga eng oliy qadriyat sifatida qarash-ning yaxlit konsepsiyasidir. Bu konsepsiyaning asosi–shaxs qadr–qimmatini himoya etish, uning ozod, erkin rivojlanishga bo'lgan huquqining tan olinishi; buning uchun (hayotda, mehnatda, o'kishda) mos qulay shart–sharoitlar yaratishdan iboratdir. SHuning uchun ham hozirgi davrda ta'limni insonparvarlashtirishni uning tarkibiy kismiga kiritish zarur va muhim sanaladi, lekin uni ta'limning tarkibiy qismiga kiritish deganda faqat o'quv fanlari tarkibidagina emas, balki insonning qadr–qimmatini yuqori qo'yuvchi o'zaro munosabatlar madaniyatini tarkib toptiruvchi ta'lim muhitini yuzaga keltirish talab etiladi. Ta'limni insonparvarlashtirish–uning mazmuni, tamoyillari, shakl va metodlarini yangilash, ularning o'zaro aloqasi va birligini ta'minlash orqali shaxsni har tomonlama shakllantirish va rivojlantirishga yunaltilishdir.

Insonparvarlik pedagogikasi shaxsga yo'naltirilgan. Uning farqli belgilariga quyidagilar kiradi:

- shaxsning psixik, jismoniy, intellektual, axloqiy rivojlanishini birgalikda egallashi va unda aniq doiradagi ko'nikma va malakalarni shakllantirish;

- erkin, mustaqil fikrlovchi va harakatlanuvchi shaxs, turli xil vaziyatlarda asosli tanlash qobiliyatiga ega insonparvar–fuqaroni shakllantirishga butun kuchni to'plash;

- o'quv–tarbiya jarayonini samarali qayta yo'naltirishga erishish uchun tegishli shart–sharoitlarni ta'minlash.

"O'qituvchi–ta'lim oluvchi" munosabatlaridagi hamkorlik, bu faoliyatning borishi va natijalarining birgalikdagi tahlili, ma'naviy dunyoda bir–biriga samimiylik, o'zaro bir–birini tushunish, kattalar va bolalarning hamkorlikdagi rivojlantiruvchi faoliyati g'oyasi.

An'naviy ta'lim pedagogik jarayonda o'kituvchining sub'ekt sifatida, o'quvchini esa ob'ekt sifatida ishtirokiga asoslangan. Bu qoida o'kuvchi o'z o'kuv faoliyatining subekti haqidagi tasavvur bilan almashinadi. "ta'lim oluvchi– ta'lim oluvchi" munosabatlari hamkorlikning turli shakllari (hamkorlik, birga qatnashish, birga ijod qilish, birgalikda boshqarish) faoliyatida amalga oshadi .

Insonparvarlik pedagogikasining uchta asosiy yo'nalishi mavjud:

- shaxsiy–insonparvar yondashuv;

- didaktik faollashtiruvchi va rivojlantiruvchi majmua;

- tarbiya konsepsiyasi;

SHaxsiy–insonparvar yondashuvning o'zi esa:

- ta'lim–tarbiya jarayonining shaxsga yo'naltirilganligi;

- pedagogik muloqotni insonparvarlashtirish va demokratiyalash;

- to'g'ridan–to'g'ri majbur qilishni bekor qilish;

- ijobiy rag'batlantirishning muhimligi;

- o'qituvchi–ta'lim oluvchi munosabatlari usuli - ta'qiqlash emas, yo'naltirish;

- boshqarish emas, birgalikda boshqarish;

- majburlash emas, ishon tirish;
- buyruq berish emas, tashkillashtirish;
- chegaralamaslik, erkin tanlashni yo‘lga qo‘yish.
- Zamonaviy ta‘limda natijalarga olib kelmaydigan tug‘ridan–to‘g‘ri majburlashdan metod sifatida voz kechish:

- majburlovsiz, ishonchga asoslangan talabchanlik;

Didaktik faollashtiruvchi va rivojlantiruvchi majmua:

- ta‘lim mazmuni shaxs rivojlanishining mazmuni sifatida qaraladi;
- bilim, ko‘nikma va malakalarni hosil qilish va umumlashgan fikrlashga o‘rgatish;
- fanlarni integratsiyalash, umumlashtirishga o‘tilishi;
- ta‘limning variativligi va tabaqalashganligi;
- o‘rgatishning ijobiy rag‘batlaridan foydalaniladi

Tarbiya konsepsiyasi:

- barcha tarbiyaviy tizimlar markazida ta‘lim oluvchi shaxsini qo‘yish;
- tarbiyaga insonparvar yondashuv, umuminsoniy qadriyatlarni shakllan-tirish;
- ta‘lim oluvchining ijodiy qobiliyatlarini, uning individualligini rivojlantirish;
- milliy va madaniy an‘analar ruxidatarbiyalash;
- individual va jamoaviy tarbiya.

Ta‘lim tizimini modernizatsiyalashda, ta‘limni jahon andazalari larajasiga ko‘tarishda insonparvarlik pedagogikasi, ya‘ni Oila, maktab va ijtimoiy muhit ta‘lim oluvchilarni zamonaviy talablar darajasida shakllantiruvchi muhim ijtimoiy institutlar sifatida aks etadi. Natijalar barcha tarbiya manbalarining birgalikdagi harakatida aniqlanadi. Bundan shaxsga yunaltirilgan ta‘limning asosini tashkil etuvchi, ijtimoiy institutlariga ta‘sir etuvchi hamkorlikda boshqarish g‘oyasi kelib chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar po‘yxati:

1. Mirziyoev SH.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat‘iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. –T.: “O‘zbekiston” NMIU. 2018. –592 b.
2. Роджерс К. К науке о личности// История зарубежной психологии.–Тексты.–М.: Изд-во МГУ, 1996.–С.253– 257.
3. Белоухин Д.А. Основы личностно–ориентированной педагогики.–М.: Воронеж, 1997.–92 с.
4. Гальперин П.Я.Основные результаты исследований по проблеме формирования умственных действий и понятий. –М.:МГУ, 1965. - 150 с
5. Eshmirzayeva M. “Shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim asosida talabalarning kasbiy kompetentligini shakllantirish.: Avtoref...diss. ped. fan. nom. Samarqand, 2019. - 50 b.

AGEBRA DARSLARINI KOMPETENSIYAVIY YONDOSHUV ASOSIDA TASHKIL QILISH USULLARI

O. Berdiyeva., Nazarova Gulsina, Raxmatova Feruza

Termiz Davlat Universiteti dotsenti.

Termiz Davlat Universiteti 1-kurs magistrantlari

Annotatsiya: *Mazkur maqolada algebra darslarini kompetensiyaviy yondoshuv asosida tashkil etishning samarali usullari to‘g‘risida fikr yuritilgan.*

Tayanch iboralar: *kompetensiyaviy yondashuv, bilim, ko‘nikma, malaka, kompetentsiya, kommunikativ kompetentsiya.*

Matematika olamni, dunyoni bilishning asosi bo‘lib, tevarak-atrofimizdagi voqea va hodisalarning o‘ziga xos qonuniyatlarini ochib berishda ahamiyati juda katta bo‘lib, vaholanki matematik bilimlarsiz ishlab chiqarish va fanning rivojlanishini tassavur qilib bo‘lmadi. Shuning uchun ham *matematik madaniyat* -umuminsoniy madaniyatning tarkibiy qismi hisoblanadi. Hozirda matematika fanini nazariylashtirgan holda o‘qitishga yondashishdan, formalizmdan ma‘lum darajada voz kechib, o‘quvchining kundalik hayotida matematik bilimlarni tatbiq eta olish salohiyatini

shakllantirish va rivojlantirishga erishish, o'quvchilarning mustaqil fikrlash ko'nikmalarini namoyon qilish va faollashtirishga e'tiborni kuchaytirishimiz lozim.

Matematik ta'limga kompetentsiyaviy yondashuv kasbiy, shaxsiy va jamiyatdagi kundalik hayotda uchraydigan holatlarda samarali harakat qilishga imkon beradigan turli ko'rinishdagi malakalarni o'quvchilar tomonidan egallashni nazarda tutadi. Shunday qilib, kompetentsiyaviy yondashuvda matematik ta'limning asosini amaliy, tadbqiqiy yo'nalishlarini kuchaytirishga qaratiladi.

Masalaga an'anaviy yondashish usuli:

Tayyor masala shartlarini tahlil qilish

Masala yechilishining usulini aniqlash yechish jarayoni

Olingan natijani etalon javob bilan formal solishtirish.

Masalaga muammo sifatida yondashish usuli:

Muammoli vaziyatni tahlil qilish

Muammo qo'yilishi

Etmaydigan ma'lumotlarni izlash va gipotezalarni (ilmiy taxminlarni) shakllantirish

Gipotezalarni tekshirish va muammoli vaziyatga oid yangi bilimlarga ega bo'lish

Muammoni masalaga aylantirish

Masala yechilishining usulini izlash yechish jarayoni

Olingan natijani tekshirish yechimning to'g'riligini asoslash.

Kompetentsiyaviy yondashuvning asosiy maqsadi maktab bitiruvchisining ijtimoiy hayotga moslashishiga yordam berishdan iborat.

Umumiy o'rta ta'limning malaka talablari umumta'lim fanlari bo'yicha ta'lim mazmunining majburiy minimumi va yakuniy maqsadlariga, o'quv yuklamalari hajmiga hamda ta'lim sifatiga qo'yiladigan talablardan iborat bo'lib, u quyidagilardan tashkil topadi:

bilim - o'rganilgan ma'lumotlarni eslab qolish va qayta tushuntirib berish;

ko'nikma - o'rganilgan bilimlarni tanish vaziyatlarda qo'llay olish;

malaka - o'rganilgan bilim va shakllangan ko'nikmalarni notanish vaziyatlarda qo'llay olish va yangi bilimlar hosil qilish;

kompetensiya - mavjud bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik faoliyatda qo'llay olish qobiliyati.

Kompetentsiyaviy yondashuv nuqtai nazaridan qaralganda, ta'lim jarayoning mohiyati - o'quvchilarning turli hayotiy vaziyatlarda, kundalik turmushda vujudga keladigan muammolarni avval o'zlashtirgan bilim, ko'nikmalari va tajribalari asosida hal qilish layoqatlarini (qobiliyatlarini) rivojlantirishdan iborat buladi. Bu esa o'z navbatida o'quvchilarga nafaqat bilim, ko'nikma va malakalarni berish, balki ularni kundalik turmushda, hayotiy vaziyatlarida qo'llay olish layoqatlarini (kompetentsiyalarini) shakllantirishni ko'zda tutadi.

Matematika fanidan egallagan kompetensiyalari darajalariga qo'yiladigan talablar ta'lim mazmuniga muvofiq ishlab chiqilgan, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim bo'yicha uzviy bo'lib, Xalqaro standartlarga moslashtirish maqsadida ta'lim mazmuni va matematik kompetensiya deskriptorlari (Trends in international matematis and siene studi enter (TIMSS)) baholash standartlariga o'zaro bog'liq holda olindi hamda ular sodda va tushunarli shaklda berildi.

Shu nuqtai nazardan matematika fanini o'qitishda zamonaviy talablar va kompetentsiyaviy yondashuvni oshirish zarur. Algebra darslarida fanga oid kompetensiyalardan foydalanish aniq hisob kitoblarga asoslangan holda kundalik faoliyatda, fan va texnika yangiliklaridan foydalana olish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi. Boshqacha aytganda o'quvchilar algebra darslarida o'rganilgan kompetensiyalar yordamida kundalik hayotda yuzaga keladigan muammolarni hal etish uchun matematikani to'g'ri qo'llay olishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. T. : "O'zbekiston". -2017. -102b

2. Mirziyoyev Sh. M. 2020-yil 7-maydagi "Matematika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4708-son Qarori.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi № 187-sonli Qarori.

4. S. Alixonov. Maktabda matematika o‘qitish: Ped. oliy bilimgothalarining matematika fak. talabalari va maktab o‘quvchilari uchun qo‘llanma. T. : “O‘qituvchi” -1992-yil, 200b

2-SINF MATEMATIKA FANINI MILLIY O‘QUV DASTURI ASOSIDA O‘QITISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Atayeva Baxrinisa Abduvaxidovna
Sirdaryo viloyat XTXQTMOHM katta o‘qituvchisi
+99897245 68 06

Annotatsiya. Mazkur maqolada 2-sinf matematika fanini milliy o‘quv dasturi asosida o‘qitishda darsliklarning afzalliklari, bolalarda hayotiy kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilganligi, integratsiyaviy yondashuv asosida yaratilganligi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: milliy o‘quv dasturi, matematika, xalqaro baholash, integratsiya.

Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Matematika hamma fanlarga asos. Bu fanni yaxshi bilgan bola aqlli, keng tafakkurli bo‘lib o‘sadi, istalgan sohada muvaffaqiyatli ishlab ketadi”.

Matematika fani asoslarini yaratishga ulkan hissa qo‘shgan Muhammad al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg‘oniy, Abu Rayhon Beruniy va Mirzo Ulug‘bek kabi buyuk allomalarimizga munosib yosh avlodni tarbiyalash, zamonaviy bilimlarni o‘quvchilarga yetkazish hamda mamlakatimiz yoshlarining matematika sir-asrorlaridan bahramand bo‘lishlariga sharoit yaratib berish uchun ham qarz, ham farz hisoblanadi.

Matematika olamni, dunyoni bilishning asosi bo‘lib, tevarak-atrofimizdagi voqea va hodisalarning o‘ziga xos qonuniyatlarini ochib berishda juda katta ahamiyatga ega. Matematik bilimlarsiz ishlab chiqarish va fanning rivojlanishini tasavvur qilib bo‘lmaydi. Shuning uchun ham matematik madaniyat umuminsoniy madaniyatning tarkibiy qismi hisoblanadi va matematika jamiyatimizning barcha jabhalariga juda katta madaniy hissa qo‘shadi.

Ma’lumki, matematika fani inson aqlini charxlaydi, diqqatini rivojlantiradi, ko‘zlangan maqsadga erishish uchun qat’iyat va irodani tarbiyalaydi, algoritmik tarzda tartib-intizomlilikka o‘rgatadi va eng muhimi, mulohaza yuritish, muammolarni hal qilish, innovatsiyalarga chorlaydi hamda tafakkurni kengaytiradi.

Mamlakatimizning dunyo hamjamiyatiga integratsiyalashuvi, fan-texnika va texnologiyalar rivojlanishi yosh avlodning o‘zgaruvchan dunyoda raqobatbardosh bo‘lishi uchun fanlarni mukammal egallashini taqozo etadi. Bu esa ta’lim tizimiga, jumladan, matematikani o‘rgatishga ham xalqaro tajriba va andozalarni joriy etish orqali ta’minlanadi.

Ta’limiy yutuqlarni baholash xalqaro uyushmasi (IEA) tomonidan tashkil etilgan TIMSS – matematika va tabiiy fanlar ta’lim sifatining xalqaro monitoringi dasturini ham keltirish mumkin. Ushbu tadqiqot o‘quvchilarning turli davlatlarda matematika va tabiiy fanlardan bilim darajasi hamda sifatini solishtirishga, milliy ta’lim tizimidagi farqlarni aniqlashga ko‘maklashadi.

Matematik ta’limga kompetensiyaviy yondashuv kasbiy, shaxsiy va jamiyatdagi kundalik hayotda uchraydigan holatlarda samarali harakat qilishga imkon beradigan turli ko‘rinishdagi malakalar o‘quvchilar tomonidan egallanishini nazarda tutadi. Shunday qilib, kompetensiyaviy yondashuvda matematik ta’limning asosi amaliy, tadbqiqiy yo‘nalishlarini kuchaytirishga qaratiladi.

Bolalarga matematikadan qanday qilib samarali foydalanishni batafsil o‘rgatish, shuningdek, ularni tanishtirish, barcha ko‘nikma, vosita va bilimlarni o‘zlashtirishlariga ko‘maklashish o‘quvchilarni har qanday vazifaga ishonch, yil davomida ishtiyoq bilan o‘qishlari uchun zarur bo‘lgan tushunchalar bilan ta’minlaydi. Hammamiz farzandlarimizning matematikada muvaffaqiyat qozonishini xohlaymiz. Ko‘pincha matematikadan sinovga tayyorgarlik materiallariga haddan tashqari ishonish o‘quv vaqtini o‘g‘iraydi, shu bilan birga, o‘rganish va motivatsiyaga zarar yetkazadi.

Darslik hamda o'quv metodik qo'llanmani yaratishda xalqaro davlatlarning ilg'or tajribalari o'rganilgan. Xalqaro tashkilotlar ekspertlarining tavsiyalari inobatga olingan. Darslikda mavzular sodda, tushunarli tilda, hayotiy masalalar yordamida yoritilgan va rang-barang rasmlar bilan bezatilgan. Fanlararo integrasiya ta'minlangan. Darslik asosan o'quvchilarda matematik bilim, tasavvur, tafakkur, mantiqiy va mustaqil fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, ularning imkoniyatlari, yoshi, individual xususiyatlari, XXI asr ko'nikmalariga ega bo'lishlarini inobatga olgan holda yozilgan. Topshiriqlar soddadan murakkabga tomon spiralsimon tarzda rivojlanib borilishi inobatga olingan.

Darslikda 7 ta shartli belgi keltirilgan:

- o'quvchilar tomonidan og'zaki bajariladi (o'qituvchi tomonidan qo'shimcha savollar berilishi mumkin). Ularning ijodiy, mantiqiy, mustaqil fikrlash qobiliyatlari shakllantiriladi hamda og'zaki nutqi rivojlantiriladi;

- o'quvchilar tomonidan daftar va doskada yozma ravishda bajariladi. Topshiriq mustaqil bajariladi va natijalar o'zaro taqqoslanadi, rag'batlantiriladi;

- o'qituvchi va o'quvchilar tomonidan birgalikda amalga oshiriladi. Bunda o'qituvchiga ijodiy ishlashi uchun imkoniyat yaratiladi, ya'ni bunday topshiriqlar turli o'yinlar, tarqatma materiallar, metodlardan foydalangan holda bajariladi. Muammoni yozma yoki og'zaki tarzda bajarish o'qituvchining ixtiyoriga havola etiladi;

- o'quvchilar mustaqil ravishda bajarishlari uchun imkoniyat yaratiladi. Dastlab o'quvchilarning fikrlari asosida muammo tahlil qilinadi, yechimga yaqinlashishda qiyinchilikka duch kelgan paytda o'quvchilar uchun "aqliy hujum" tarzida yo'naltiruvchi savollar beriladi;

- sonlar, shakllar, ifodalarning qiymatlari, rasmlarda berilgan narsalarni taqqoslash, farqlash, solishtirish, tartiblash amalga oshiriladi;

- o'quvchilar tomonidan topshiriqlar amaliy bajariladi: chizadi, yasaydi, qirqadi, bo'yaydi, yelimlaydi. Bajarilgan ish taqdimot qilinadi va o'qituvchi hamda tengdoshlari tomonidan rag'batlantiriladi;

- uyga beriladigan topshiriq mazmuni o'qituvchi tomonidan tushuntiriladi, yo'llanma, ko'rsatma beriladi.

Har bir bob so'ngida o'tilgan mavzular bo'yicha "Nazorat ishi" materiallaridan namuna keltirilgan. Shuningdek, har bir nazorat ishidan keyin xatolar ustida ishlash mavzusi o'qituvchining ijodiy faoliyatidan kelib chiqqan holda mustaqil ishlash imkoniyatini yaratadi. O'qituvchi xatolar ustida ishlash darsida nazorat ishi natijalariga ko'ra o'quvchilarda mavzular bo'yicha aniqlangan bo'shliqlarni bartaraf etish maqsadida xatolarni tushuntiradi, o'quvchilar esa nazorat ishida berilgan topshiriqlarga o'xshash topshiriqlarni bajaradi va xulosalar chiqaradi.

Darslik oxirida qo'shimcha o'rganish uchun tavsiya sifatida "Qiziqarli va mantiqiy topshiriqlar" keltirilgan. Ulardan mavzuni o'zlashtirishda yaxshi natijalarga erishayotgan o'quvchilar bilan ishlashda foydalanish yoki o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishlarini oshirish uchun ham foydalanish mumkin. Shunda o'quvchilar asosiy tushunchani mustahkamlagandan so'ng qiziqarli topshiriqlar kutishadi. Bu topshiriqlarni o'quv yili yoki dars so'ngida emas, balki dars jarayonida barcha o'quvchilarga muammo sifatida taqdim etish orqali o'quvchilarning o'ziga bo'lgan ishonchini, do'stona hamkorlikni his qilishiga imkoniyat yaratiladi hamda bu ularga ishonch va shijoat bag'ishlaydi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, milliy o'quv dasturi asosida 2-sinf uchun yaratilgan matematika darsligi va o'quv metodik qo'llanmasi o'quvchilarning bugungi kun talabi darajasida mantiqiy fikrlashga yo'naltirilgan holda, STEAM texnologiyasi va xalqaro baholash tadqiqotlarida qatnashish imkoniyatlarini inobatga olgan holda topshiriqlarni o'zida mujassam etgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risi"da 2022-yil 11-may PF-134-sonli Farmoni.

2. L. O'. O'rinboyeva va boshq. Matematika 2-sinf. Metodik qo'llanma: o'qituvchilar uchun metodik qo'llanma – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021.

3. L.O'rinboyeva va boshq. Matematika 2-sinf: darslik – Toshkent: Respublika ta'lim markazi,

DARSLARNI INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TASHKIL ETISH

Azizova Dilnoz Yoʻldashevna,
Qashqadaryo VXTXQTM OHM oʻqituvchisi

Abstract: Innovative pedagogical technologies are about the system of improving the educational process based on advanced tools, methods, techniques and methods. Involvement of students in lessons is especially effective in primary education, as a result of the use of pedagogical technologies in the classroom.

Keywords: innovation, technological approach, motive, curriculum, technological approach, communication

Annotatsiya: Innovatsion pedagogik texnologiyalar taʼlim-tarbiya jarayonini ilgʻor vositalari, metodlar, texnik vositalar, usullariga tayanib takomillashtirish tizimi haqida. Ayniqsa boshlangʻich taʼlim jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda darslarni qiziqarli olib borish natijasida oʻquvchilarni darsga jalb etish samarali boʻladi.

Kalit soʻzlar: innovatsiya, texnologik yondashuv, motiv, oʻquv dastur, texnologik yondashuv, kommunikatsiya

Yurtimizda taʼlim mazmuniga alohida eʼtibor qaratilib, DTS oʻquv dasturlarining yangi tahrirdagi variantlari joʻy etildi, innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida oʻquv jarayonining samaradorligi oshirish maqsadida pedagogik texnologiyalardan, axborot kommunikatsiya vositalaridan foydalanilmoqda. Boshlangʻich sinf oʻquvchilarini oʻqitishda oʻquvchilarning dunyoqarashini kengaytirish, bilimlarni keng va oson oʻzlashtirish maqsadida innovatsion pedagogik texnologiyalarning usul, vosita va shakllarini toʻgʻri tanlab, ulardan foydalanish muhim sanaladi. Oʻqish darslarini tashkil etishda pedagogik texnologiyalarning koʻpgina metodlaridan foydalaniladi.

Hozirgi davrda innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida taʼlimni tashkil etishga katta eʼtibor qaratilmoqda. Innovatsion pedagogik texnologiya oʻquvchilar qobiliyati, imkoniyati va ehtiyojlarini hisobga olgan holda, taʼlim shakllarini amalga oshirish uchun koʻzlangan natijaga erishishda eng qulay yoʻl va usullarni tanlash va ishlab chiqish mahorati ekan, u haqiqatdan ham taʼlim jarayonining faolligini oshiradi, oʻquvchilarning mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, oʻquvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, bilimlarni mustahkam oʻzlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish koʻnikma va malakalarini shakllantiradi.

Shuning uchun ham taʼlim ishiga texnologik yondashuv katta ahamiyatga ega.

Taʼlim ishiga texnologik yondashuv:

- taʼlim jarayoni maqsadini aniq belgilashni;
- oʻqish-oʻqitish jarayonini uzviy bogʻliq bosqichlar, fazalar, amallarga ajratish, boʻlishni;
- taʼlim jarayonida moʻljallangan natijaga erishish uchun bajariladigan harakatlarni muvofiqlashtirish, ketma-ket, bosqichma-bosqich amalga oshirishni;
- loyihalashtirilgan ishlar, amallarning barchasini bir xil bajarishni nazarda tutadi.

Innovatsion pedagogik texnologiyada taʼlim jarayonining maqsadini belgilash muhim boʻlib, u rejalashtirilgan natijalarni kafolatlashi lozim. Shuning uchun ham oʻqituvchilar maqsadni aniq belgilashga alohida eʼtibor qaratishlari zarur. Har bir oʻqituvchi avvalo oʻzi oʻqitadigan oʻquv predmeti va har bir oʻtiladigan darsi maqsadini aniq belgilashi kerak. Shuni taʼkidlash lozimki, belgilangan maqsad asosida oʻtkaziladigan didaktik jarayonning aniq loyihasi ishlab chiqilsa, uni amalga oshirish osonlashadi.

Didaktik jarayonning samarali oʻtishida motivlar muhim oʻrin tutadi. Chunki qiziqib, aniq maqsad asosida egallangan bilimlarga samarali boʻladi. Motiv kishini biror ish-harakatni bajarishga undovchi daʼvat, turtki. Shunday ekan, oʻqituvchilar oʻquvchida oʻqish motivlarini hosil qilishga intilishlari va uni oʻstirishlari kerak. Motivlar oʻquvchilarni bilim, koʻnikma, malaka, va kompetensiyalarni oson egallashlariga yordam beradi. Motiv oʻquvchida bilim olishga ishtiyoq va

qiziqish uygʻotadi. Oʻqituvchilar bundan mohirlik bilan foydalanishlari va oʻquvchilarga beriladigan mustaqil ishlar tizimini ishlab chiqishlari foydadan xoli boʻlmaydi. Oʻquvchi yoshiga va psixologik xususiyatlariga mos didaktik oʻyinlar va mustaqil ishlar vositasida hosil qilish mumkin. Boshlangʻich sinf oʻqituvchilarining har bir darsni tashkil etish uchun turli didaktik oʻyinlardan foydalanishlari yaxshi samara beradi.

Mavzuning barcha oʻquvchilar tomonidan oʻzlashtirilishiga erishish; oʻquvchilarning ravon va toʻgʻri, ongli va ifodali oʻqishining takomillashuviga erishish; Mashgʻulotga oʻquvchilarning faol qatnashuviga erishish; ularning oʻqish motivlarini qiziqitirish, oʻquvchilarni faollashtirish yoʻllarini belgilash va qoʻyilgan maqsadga toʻliq erishish; Pedagogik texnologiyalarni oʻzlashtirish va boshlangʻich taʼlimda uni qoʻllash yoʻllarini izlash va takomillashtirish, oʻz ustida ishlash; Boshlangʻich sinf oʻquvchilarida oʻqish motivlarini oʻstirish ustida ishlash; Darsni hayotiy tajribalar bilan bogʻlash. Turli mashqlar vositasida tez oʻqish malakalari takomillashadi. Vatan haqidagi tushunchalari kengayadi, Vatanga muhabbat shakllanadi, Vatandan gʻururlanish, yaʼni milliy gʻumr shakllanishiga asos yaraladi. Matn bilan mustaqil ishlashga oʻrganish. Oʻz fikrini erkin bayon etishga oʻrganish; oʻrganilganlar asosida ertak, maqol, hikmatli soʻzlar, tez aytishlarni oʻrganish, oʻrtoqlari fikrini maʼqullash yoki yangi fikrlarni aytishga oʻrganish.

Ayniqsa boshlangʻich taʼlim jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda darslarni qiziqarli olib borish natijasida oʻquvchilarni darsga jalb etish samarali boʻladi. Shunday darslarda bolalar diqqati toʻliq jalb etiladi, xotirasi yaxshi ishlaydi. Motivlar oʻquvchilarning bilimlarini chuqur egallashlariga yordam beradi. Shuning uchun ham boshlangʻich sinf oʻqituvchilari taʼlim jarayonini qiziqarli motivlar asosida tashkil etishga eʼtibor qaratishlari zarur.

Darsni tashkil etish jarayonida barcha oʻquvchilarga tushunarli, oson, qiziq boʻlgan usullarni tanlashi va qoʻllay olishi, koʻrgazmali qurollardan foydalanishi, yangi ishlab chiqarilayotgan texnik vositalarni tadbiq qilishi, taʼlim oluvchilarni ijodiy, mustaqil ishlashga undashi, pedagogik texnologiyalardan toʻgʻri va unumli foydalanishi maqsadga muvofiqdir.

Foydalangan adabiyotlar.

1. Ishmuhamedov R. , Abduqodirov A. , Pardayev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar. T.: 2010-yil. [25, 39, 71-b]
2. Ibragimov R. Boshlangʻich maktab oʻquvchilarida bilish, faoliyatini shakllantirishning didaktik asoslari. Diss. T. , 2009-yil. [12, 96-b]
3. Sayidaxmedov N. S. Pedagogik maxorat va pedagogik texnologiya. – Toshkent, 2008-yil. . [17, 53-b]
4. T. Gʻafforova. Boshlangʻich taʼlimda zamonaviy pedagogik texnologiyalar. Oʻquv qoʻllanma – T. , Tafakkur 2011. [19, 56-b]
5. Azizxoʻjayeva Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat- T. , 2006 yil. [27, 85-b]

BOSHLANGʻICH SINFLARDA BADIY ASARNI TAHLIL QILISH KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH YOʻLLARI

Urimbayeva Vasila Begimqulovna

Sirdaryo viloyati Oqoltin tumani 1-IDUM boshlangʻich sinf oʻqituvchisi

Telefon: +998975689888

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlangʻich sinf oʻqish darslarida badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasini shakllantirish yoʻnalishlari tahlil qilingan.

Kalit soʻzlar: davlat taʼlim standarti, oʻqish, badiiy asar, kompetensiya.

Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi “Umumiy oʻrta va oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimining davlat taʼlim standartlarini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi 187-sonli Qaroriga asosan adabiyot fani boʻyicha umumiy oʻrta va oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimi muassasalari bitiruvchilariga qoʻyiladigan malaka talablari belgilangan. Bulardan biri badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasini shakllantirishdir. Badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasidagi birinchi talab matndagi soʻz va gaplarning maʼnolarini tushuna oladi deb berilgan. Buni amalga oshirishda lugʻat ustida ishlash yoʻnalishlaridan foydalanamiz. Masalan:

”Qodir boboning orzusi” hikoyasi asosida quyidagi lugʻat ishi oʻtkaziladi:

Shukronalik- shukur qilish, qanoatlilik

Shirin oʻy- shirin xayol


Turna qator- qator boʻlib tizilib, birining ketidan biri

Asar mazmunidan taʼsirlana oladi kompetensiyasini shakllantirishda bolalarda hikoyadan taʼsirlanish jarayoni ”Doʻstlik” hikoyasida qahramonlarga boʻlgan munosabatni koʻrsata olishi bilan baholaymiz:

-Vova qanday bola?

-Abduqodirga taʼrif bering.

Oʻrganilgan asarlarning nomi, muallifi, mazmuni va qahramonlarini ajrata oladi kompetensiyasida 4-sinf oʻqish fanidan asar nomi: ”Bahor taʼrifida”, muallif: Yusuf Xos Hojib, mazmuni: Sharqdan bahor nasimi esib keldi, olamni bezamoq uchun fidavs yoʻlini ochdi. Oq rang ketib, boʻz yerni alvon rang qopladi, olam oʻziga oro berib bezanmoq taraddudiga tushdi. Zerikarli qishni bahor nafasi haydadi, musaff bahor yana oʻz hukmiga kirdi. Uyquga kirgan daraxtlar yana yashil toʻn kiydi, oq, sariq, koʻk, qizil rangli harir yopinchiqlar bilan bezandi. Bu bilan bir qatorda ”Organayzer” metodi asosida tahlil qilish ham mumkin:



Asar qahramonlariga munosabat bildiradi kompetensiyasi boʻyicha oʻquvchilar 4-sinf ”Danak ichidagi daraxt” matnidagi qahramonlarga munosabat bildiradi olishi lozim boʻladi: Raʼnoning qaysi xislatlari sizga yoqdi?

Oʻqilgan asar mazmuniga doir savol va topshiriqlarga javob bera oladi kompetensiyasini shakllantirishda matn asosidagi quyidagi savollarga javob bera oladi:

1. ”Danak ichidagi daraxt” matni muallifi?
2. Yozuvchi Raʼnolarning hovlisini nima uchun bogʻga oʻxshatadi?
3. Raʼno danak ichidagi daraxt bilan nimalarni gaplashdi?
4. Danak ichidagi daraxt qanday qilib koʻkarib chiqdi?
5. Nima uchun Raʼnolarning hovlisidagi oʻrik daraxtini koʻrgani uch yildan keyin kelishi aytilgan?

Oʻqish darslarida badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasini shakllantirish jarayonida multimediadan, interfaol metodlardan, mantiqiy fikrlashga undovchi savol va topshiriqlardan unumli foydalanish asosida oʻquvchilarda fanga oid kompetensiyalarni shakllantirish imkonini yuzaga keltiramiz.

Xulosa qilib aytish mumkinki, oʻquvchining badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasini shakllantirishda mustaqil oʻqish koʻnikmalarini rivojlantirish hamda oʻquvchi yoqtirgan badiiy asarning janri ham muhim ahamiyat kasb etishini unutmasligimiz darkor. Chunki bola yoqtirgan badiiy asar janri hikoya, ertak, sheʼr, rivoyat, masal boʻlishidan qatʼiy nazar unda mustaqil oʻqish koʻnikmalarini rivojlantirish va kompetensiyalarini shakllantirish imkoniyati yuzaga keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi № 187-sonli Qarori.

2. Qosimova K va b.q. Darslik “Ona tili o‘qitish metodikasi”. T-2009.

3. Matchon S va b . 4-sinf o‘qish darsligi T-2020.

ONA TILI VA O‘QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA INTERFAOL METODLARNI QO‘LLASH ASOSIDA DARS SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Madraximova Dilafruz Abdujabborovna

Sirdaryo viloyati Oqoltin tumani 1-IDUM boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

+99897 2453386

Annotatsiya. Mazkur maqolada ona tili va o‘qish savodxonligi fanida “Sinkveyn” va “Matn tahlili” metodlari asosida darslar tashkil etish imkoniyatlari ko‘rsatilgan holda namunalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: ona tili va o‘qish savodxonligi, interfaol metod, “Sinkveyn” metodi, “Matn tahlili” metodi.

«Interfaol» tushunchasi inglizcha «interact» so‘zidan olingan bo‘lib «inter» – «birgalikda», «act» – «harakat kilish») ma’nosini anglatadi.

Interfaol metod-ta’lim jarayonida o‘quvchilar hamda o‘qituvchi o‘rtasidagi faollikni oshirish orqali o‘quvchilarning bilimlarni o‘zlashtirishini faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Interfaol metodlarni qo‘llash dars samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Interfaol usullarni qollash natijasida:

O‘quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, uni asoslagan holda himoya qila bilish, sog‘lom muloqot, munozara, bahs olib borish ko‘nikmalari shakllanib, rivojlanib boradi.

Zamonaviy ta’limni tashkil etishda qo‘yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir.

Interfaol mashg‘ulotlarni tashkil qilishda quyidagilarni xisobga olish lozim:

O‘quv rejadagi fanlarni o‘qitishda qaysi mavzular bo‘yicha interfaol darslar tashkil qilish maqsadga muvofiqligini hisobga olish zarur. Bunda har bir mavzu bo‘yicha mashg‘ulotning maqsadiga to‘liq erishishni ta’minlaydigan interfaol yoki an’anaviy mashg‘ulot turlaridan foydalanish ko‘zda tutiladi.

Interfaol mashg‘ulotning samarali bo‘lishi uchun o‘quvchilar yangi mashg‘ulotdan oldin uning mavzusi bo‘yicha asosiy tushunchalarni va dastlabki ma’lumotlarni bilishlarini ta’minlash zarur.

Interfaol mashg‘ulotda o‘quvchilarning mustaqil ishlashlari uchun an’anaviy mashg‘ulotga nisbatan ko‘p vaqt sarflanishini hisobga olish zarur.

Quyida 1-sinf ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida interfaol metodlarni qo‘llash imkoniyatlaridan namunalar keltiramiz:

Sinkveyn usuli (5 qator yoki qofiyasiz she‘r)

Sinkveyn- fransuz tilida “5 qator” ma’nosini bildiradi. Sinkveyn- ma’lumotlarni sintezlash (bir butunga keltirish)ga yordam beradigan qofiyalanmagan she‘r bo‘lib, unda o‘rganilayotgan tushuncha(mavzu) to‘g‘risidagi axborot yig‘ilgan holda, o‘quvchi so‘zi bilan turli variantlarda va turli nuqtai nazar orqali ifodalanadi.

Ot _____

Sifat _____, _____

Fe‘l _____, _____, _____

Gap _____, _____, _____.

Ma’nodoshi _____

“Tug‘ilgan kuning bilan” mavzusi asosida quyidagicha sinkveyn tuzish mumkin:

Tug‘ilgan kun

Yoqimli, hayajonli


Kutiladi, tabriklashadi, maqtashadi.

9-may –mening tug‘ilgan kunim.

Shukurona kun.

”Matn tahlili” metodi murakkab va ko‘p tarmoqli bo‘lib mavzularni o‘rganishda, tahlil etishda o‘ziga xos talablarni amalga oshirishga qaratilgan. Texnologiyaning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning o‘rganganlik darajasini aniqlash, matn ishtirokchilari, matndagi muammo, qissadan hissa chiqarish, xulosaga kelish haqidagi bilimlari sinaladi.

Masalan, 1-sinf ona tili va o‘qish savodxonligi fanidan “Izzatning jo‘jalari” hikoyasi asosida “Matn tahlili” metodi asosida quyidagicha tahlil qilish mumkin:



Bu interfaol texnologiya o‘quvchilarga o‘rgangan matnlarini tanqidiy, tahliliy va aniq mantiqiy fikrlashlarni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o‘z g‘oyalari, fikrlarini yozma va og‘zaki shaklda ixcham bayon etish, shuningdek uni himoya qilishga imkoniyat yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ishmuhamedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta’lim samaradorligini oshirish yo‘llari. -Toshkent, 2006.

2. I.Azimova va b.q. “Ona tili va o‘qish savodxonligi 1 Metodik qo‘llanma o‘qituvchilari uchun metodik qo‘llanma. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2021.

3. I.Azimova va b.q “Ona tili va o‘qish savodxonligi” 1-sinf uchun darslik. Respublika ta’lim markazi T-2021.

TA’LIM TIZIMIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN DARS JARAYONIDA FOYDALANISH

Ximmataliyev Do‘stnazar Omonovich, Serikbayeva Aqmaral Xusanovna

Chirchiq davlat pedagogika institute pedagogika fanlari doktori, professor

Chirchiq davlat pedagogika institute “Ta’lim muassasalari boshqaruvi” yo‘nalishi 1-kurs magistranti

serikbaevaakmaral138@gmail.com

+998994018083

Annotatsiya: Innovatsion faoliyat-pedagogning o‘z kasbini takomillashtirishdagi mavjud shakl va vositalarni egallashga ijodiy yondashuvini nazarda tutadi. Ta’limdagi innovatsiyalar va innovatsion faoliyat haqida barqaror, hammaga ma’qul bo‘lgan ilmiy tasavvurlar va innovatsion pedagogik faoliyat haqida barqaror va hammaga ma’qul bo‘lgan ilmiy tasavvurlar tasniflar shu paytgacha mukammal tarkib topgan emasligini ham e’tirof etish lozim.

Kalit so‘zlar: texnologiya, innovatsion, konsepsiya, manbalar, tashkiliy, metodik, psixologik, pedagogik jamoalar, parametrlari, innovatsion o‘qitish.

USE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN THE EDUCATIONAL SYSTEM IN THE LESSON PROCESS

Abstract: *Innovative activity is a creative approach of a teacher to the acquisition of existing forms and means of professional development. It should also be acknowledged that the classifications of sustainable, universally accepted scientific ideas about innovation and innovative activity in education and sustainable and popular scientific ideas about innovative pedagogical activity have not yet been perfectly composed.*

Keywords: *technology, innovation, concept, resources, organizational, methodological, psychological, pedagogical teams, parameters, innovative teaching.*

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomasida 2018-yilga faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab quvvatlash yili deb nom berishni taklif etdi. Davlatimiz rahbari innovatsiyaning ahamiyati tog'risida quyidagilarni ta'kidladi: «Innovatsiya bu kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo'lsak, uni aynan innovatsion g'oyalar, innovatsion yondashuv asosida boshlashimiz kerak». 2018-yilda Respublikamizda innovatsiyalarni rivojlantirishning asosiy vazifalari qatorida quyidagilar belgilandi: «Kelgusi yilda ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, buning uchun zarur moliyaviy resurslarni safarbar etish, ushbu jarayonda iqtidorli yoshlar ishtirokini, ijodiy g'oya va ishlanmalarni har tomonlama qo'llab quvvatlash vazifasi e'tiborimiz markazida bo'ladi» [1]

Demak, bugungi kunda har bir soha va tizim faoliyatini innovatsion g'oyalar va texnologiyalar asosida olib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan mavzuga kirishishdan oldin «innovatsiya» so'zining ma'nosiga biroz to'xtalishni lozim topdik. Innovatsiya tushunchasi (lotincha novus yangi) tadqiqotlarda va ilmiy ishlarda XIX asrlarda qo'llanila boshlagan. Avval u alohida elementlarni bir sohadan boshqa sohaga kiritishni ifodalagan. Texnikaviy yangiliklar kiritish qonuniyatlarini o'rganib firmalar foyda olish uchun «innovatsion siyosatni» butun bir tizim sifatida o'zlashtirishdi. Mazkur faoliyat jamiyat hayotining ixtiyoriy bo'g'inini yangilash bo'yicha umumiy belgilarga, qonuniyatlarga, yangilik kiritish mexanizmiga ega.

Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayonda o'qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o'zgartirishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda interfaol metodlardan foydalanishni taqozo etadi. Interfaol usullar ta'lim jarayonida qatnashayotgan har bir o'quvchining faolligiga, erkin va mustaqil fikr yuritishga asoslanadi. Bu usullardan foydalanganda bilim olish o'quvchi uchun qiziqarli mashg'ulotga aylanadi. Interfaol usullar qo'llanilganda o'quvchilar o'qituvchilar yordami va hamkorligida mustaqil ishlash ko'nikma va malakalariga ega bo'ladi. O'quvchilar yangi bilimlarni ilmiy izlanish, tadqiqotchilik, tajriba sinovlar o'tkazish asosida o'zlashtiradilar. Ilm orqali bilim olish tamoyiliga amal qilinadi. Ta'lim jarayoni qatnashchilari kichik guruhlarga bo'lingan holda ishlaydilar. O'quv topshiriqlari alohida bir o'quvchiga emas, balki kichik guruhning barcha a'zolariga beriladi. O'qitish jarayonini tashkil etishning asosiy shakli darsdir. Hozirgi paytda darsning xilma xil noan'anaviy shakllari joriy etilmoqda. Bunday darslar o'quvchining ijodiy qobiliyatini o'stirish, aqliy salohiyatini kuchaytirish, ilmiy dunyoqarashini kengaytirish va har bir yangilikni tez va to'la qabul qila olish ko'nikma va malakalarining shakllanishiga xizmat qiladi. Dars jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo'llash o'quvchilarda ilmiy izlanishga qiziqishni uyg'otadi, ijodkorlik va bunyodkorlik qobiliyatini rivojlantiradi. Natijada egallangan bilim, ko'nikma va malakalar amaliy faoliyatda tatbiq etiladi, o'zlashtirish sifati oshadi. Buning uchun o'qituvchi mahoratli bo'lishi va mavzularning mazmuniga qarab darsni to'g'ri rejalashtirishi, mashg'ulot davomida barcha o'quvchilarni faol va ongli ishlashlariga erishmogi lozim. Zero, o'qituvchi ta'lim islohotining bosh ijrochisidir. Bunda har bir o'qituvchini qisqa vaqt ichida juda katta miqdordagi axborot to'plamini o'zlashtirish, qayta ishlash va amalda qo'llay olishga o'rgatish muhim ahamiyatga ega. Uni hal qilishda o'qituvchiga o'qitishning an'anaviy usullari bilan birga zamonaviy axborot texnologiyalari, jumladan kompyuterlardan foydalanish yordam beradi.

Pedagogik innovatsiya bu pedagogik faoliyatdagi yangilik, o'qitish va tarbiya mazmuni va texnologiyasidagi o'zgarishlar, ularning samaradorligini oshirishga qaratilgan. Innovatsiya - innovatsiya natijasi sifatida tushuniladi va innovatsion jarayon uchta asosiy bosqichning rivojlanishi sifatida qaraladi: g'oyani yaratish (ma'lum bir holatda, ilmiy kashg'iyot), amaliy jihatlarda g'oyalarni

rivojlantirish va yangiliklarni amaliyotga tatbiq etish. [2]

Pedagogik innovatsiyalar samaradorligining o'lchovi sifatida optimallik o'qituvchi va o'quvchilarning kafolatlangan natijaga erishishi uchun kuch-quvvat sarflashlarini taqozo etadi. Turli o'qituvchilar va o'quvchilar o'zlarining shaxsiy pedagogik hamda o'quv faoliyatlari jarayonida turlicha darajadagi samaradorlikka erishadilar. Xuddi mana shuning o'zi pedagogik innovatsiyalarning optimallik darajasini belgilaydi. Innovatsion usullarning eng muhim belgisi sifatida natijalanganlik o'qituvchi faoliyatida ijobiy yutuqlarga erishilgandagina namoyon bo'ladi.

O'lchovlardagi texnologiklik, kuzatuvchanlik, natijalarning qayd etilganligi o'qitishning yangi usullari, metodlarini baholash orqali namoyon bo'ladi. Mazkur o'lchovning ahamiyatli jihati shaxs, uning idroki va tushunchalarini shakllantirishning bir butunligida namoyon bo'ladi. Shu munosabat bilan innovatsion jarayonni ilmiy g'oyani amaliy foydalanish bosqichiga olib chiqish va shu bilan bog'liq ijtimoiy pedagogik muhitdagi o'zgarishlarni amalga oshirish jarayoni deb hisoblash mumkin. G'oyalarning innovatsiyaga aylanishini ta'minlaydigan va bu jarayonni boshqarish tizimini shakllantiradigan faoliyat bu innovatsion faoliyatdir. Innovatsiya jarayoni rivojlanish bosqichlarining yana bir o'ziga xos xususiyati mavjud. Pedagogik tajribada pedagogik innovatsiyalarni ijodiy qo'llash alohida o'qituvchilar ish faoliyatining boshlang'ich bosqichida namoyon bo'ladi. Mazkur innovatsiyalar tajribasi sinovdan o'tkazilib, ob'ektiv baholangandan so'ng ommaviy tarzda qo'llash uchun taqdim etiladi. Keng ommalashgan, ijobiy natijalarga erishish imkonini beradigan innovatsion usullardan foydalangan holda o'qituvchilarning kreativ funksiyalarini rivojlantirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Pedagogik innovatsiyalarni baholash mezonlarini bilish o'qituvchining pedagogik ijodning rangbarang shakllarini o'zlashtirishi uchun qulay sharoit yaratadi. Pedagogik madaniyatning oddiy esda qolgan bilimlarni takrorlash shaklidan boshlab, ilmiy pedagogik jamoatchilikka ma'lum bo'lgan g'oyalar, konsepsiyalar, texnologiyalarni o'z shaxsiy faoliyatiga singdirishdan ularni evristik, kreativ ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishga qadar bo'lajak pedagoglarning kundalik harakati mazmunini tashkil etishi lozim.

Pedagogik innovatsiyalarning mazmuni, uni qo'llash metodlarini bo'lajak o'qituvchilar tajribasiga singdirish muhim ahamiyatga ega. Ta'lim muassasasi hayotiga pedagogik innovatsiyalarni keng ko'lamda olib kirish uchun unda yangilik muhitini yaratish, muayyan axloqiy psixologik holatni shakllantirish, tashkiliy, metodik, psixologik xarakterdagi chora tadbirlarni qo'llash talab etiladi. Shu maqsadda bo'lajak o'qituvchilarning kreativ funksiyalarini rivojlantirish, ularni pedagogik innovatsiyalar bilan izchil qurollantirib borish, innovatsion usullarni tahlil va tatbiq qilishga o'rgatish vazifasini qo'yish lozim[2]. Pedagogika fanida ta'lim tizimidagi yangilik masalalari muttasil mutaxassislar tomonidan o'rganilib kelinmoqda. Biroq, ijtimoiy-pedagogik yangiliklar mintaqaviy ta'lim tizimini rivojlantirish omili sifatida, bir tomondan, nisbatan yaqinda tez rivojlanayotgan ijtimoiy pedagogika fan va amaliy faoliyat sohasi sifatida nisbatan yaqinda paydo bo'lganligi sababli, boshqa tomondan, ta'limni markazsizlashtirish va mintaqalashtirishning ijtimoiy tendensiyasining nisbiy yangiligi bilan bog'liq. Bundan tashqari, xususiy, to'g'ri pedagogik (masalan, uslubiy) yangiliklarning samaradorligi, agar ular ijtimoiy pedagogik rejada qo'llab-quvvatlanmasa, ancha past bo'ladi. Shunday qilib, xususiy innovatsiyalar va ijtimoiy-pedagogik yangiliklarni qo'llab-quvvatlovchi ijtimoiy-pedagogik kontekstni yaratish ham, ma'lum hajm, miqyos va daraja umuman mintaqaviy ta'lim tizimini rivojlanishini sezilarli darajada kuchaytirishi mumkin. [3]

Xususan, turli xil innovatsion jarayonlarning hayotiy davrlarini o'rgangan pedagogik innovatsiyalar sohasi mutaxassisi V. I. Zagvyazinskiy ta'kidlashicha yangilikni rivojlantirish natijasida ijobiy natijalarga erishgan holda, o'qituvchilar uni asossiz ravishda uni universallashtirishga, uni pedagogik amaliyotning barcha sohalariga tatbiq etishga intilayotganliklarini ta'kidlaydilar. Ko'pincha muvaffaqiyatsizlik bilan tugaydi va umidsizlikka olib keladi, yangilikka soviydi. Boshqa bir tuzilmani (hozir aytilganiga juda yaqin) aniqlash mumkin. Bu moddiy ishlab chiqarish sohasidagi innovatsiyalar nazariyasidan olingan innovatsiya genezisining tuzilishi. Ammo o'quvchi yetarlicha rivojlangan tasavvurga ega bo'lsa, maktabdagi innovatsion jarayonlarga o'tish juda qulay: g'oyaning paydo bo'lishi - rivojlanishi - dizayn (qog'ozda nima bor) - ishlab chiqarish (ya'ni amaliy ishda o'zlashtirish) - boshqa odamlar tomonidan foydalanish. [4]

Yuqoridagilardan tashqari har qanday innovatsion jarayonda yangiliklarni yaratish va

yangiliklardan foydalanish (o'zlashtirish) kabi tuzilmalarni ko'rish oson; bir-biri bilan bog'liq bo'lgan mikroinnovatsion jarayonlardan iborat bo'lgan butun maktabning rivojlanishi asosida yotadigan murakkab innovatsion jarayon.

Xulosa

O'qituvchilarda ijodkorlikni shakllantirishning muhim pedagogik sharti uni mustaqil bilim olish va ijodiy fikirlashga yonaltirishdan iborat. Shu bilan bir qatorda, o'qituvchilar orasida ijodiy muhit, muayyan ma'naviy-ruhiy holat, tashkiliy, metodik, psixologik chora-tadbirlar qo'llashga ham alohida e'tibor qaratish lozim.

References

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. // «Xalq so'zi» gazetasi, 2017 yil 23 dekabr
2. Ibragimova G. N. Interfaol o'qitish metodlari va texnologiyalari talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish. I Monografiya. - T. : «Fan va texnologiyalar», 2016. -77-b.
3. Mochalova N. M. Maktabning metodik ishini tashkil etishning innovatsion yondashuvlari: O'quv qo'llanma. - Ufa, 2002. - 86 bet Slastenin V. A., Podimova L. S. Pedagogika: innovatsion faoliyat. - M., 1997
4. Panfilova A. P. Innovatsion pedagogik texnologiyalar: Faol o'rganish: Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik / A. P. Panfilov. - M., Akademiya, 2009 y.

BOSHLANG'ICH SINFLARDA MILLIY O'QUV DASTURI ASOSIDA TABIIY FANLARNI O'QITISHNING MAQSAD VA VAZIFALARI

Bobobekova O'ringul, Eshbo'tayeva Gulnora

*Sirdaryo viloyati Boyovut tumani 8-umumta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchilari
+99894 589 6360*

Annotatsiya. Mazkur maqola boshlang'ich sinflarda milliy o'quv dasturi asosida tabiiy fanlarni o'qitishning maqsad va vazifalari sharhlab o'tilib, maqsad va vazifalardan kelib chiqib o'qitishni ilg'or usullaridan foydalanish imkoniyatlari misollarda ko'rsatilib o'tilgan

Kalit so'zlar: Milliy o'quv dasturi, tabiiy fanlar, integratsiya, atrof-muhit.

Tabiatdagi jarayonlarni sodda va qiziqarli tushuntirish va o'quvchilarda amaliy ko'nikmalarni shakllantirish maqsadida yangi "Tabiiy fan" (Science) dasturi yetakchi xalqaro ekspertlar ishtirokida ishlab chiqildi. Tabiiy fanlar integratsiyasi o'quvchilarda fundamental bilimlarini shakllantirish tamoyiliga asoslanadi.

Tabiiy fanlarni o'qitishning asosiy maqsadi– olamning ilmiy manzarasi haqidagi tasavvurni yaratish; bilimning ilmiy usulini o'zlashtirish va uni zamonaviy inson qadriyatlarini tizimiga kiritish.

Tabiiy fanlarni o'qitishning maqsad va vazifalari:

- o'quvchilarda tabiiy-ilmiy dunyoqarashni shakllantirish;
- o'quvchilarga materiya tuzilishining birligini, universalligini, tabiat qonunlarining tub mohiyatini anglatish;
- bilishning ilmiy (kuzatish, tajriba o'tkazish) metodlarini o'zlashtirish;
- o'quvchilarda ilmiy madaniyatni tarbiyalash;
- olingan bilimlarni kundalik hayotda qo'llash;
- o'zi turgan olamda yo'nalish olish ko'nikmalarini egallash;
- shaxsning kognitiv, axloqiy, hissiy fazilatlarini rivojlantirish;
- o'quvchilarda tabiatni asrashda muhim bo'lgan ijobiy fazilat (munosabat va qadriyat)larni hamda ekologik bilim va madaniyatni shakllantirish.

"Tabiiy fanlar" darsligining yartilishi hamda uni o'qitishda PISA xalqaro baholash dasturi modeli hisobga olingan.

Tabiiy fanlar bo'yicha savodxonlik kompetensiyalari:

- hodisalarni ilmiy jihatdan tushuntirish;
- ilmiy tadqiqotlarni loyihalash va baholash;
- ma'lumotlar va dalillarni ilmiy talqin qilish.

Bilimlar:

- fanning mazmuniga oid;
- metodologik;
- epistemik.

Munosabat:

- tabiiy fanlarga qiziqish;
- tadqiq etilayotgan masalaga ilmiy yondashish;
- atrof-muhit bilan bog'liq masalalardan xabardorlik.

O'quvchilar topshiriq kontekstida ifodalangan muammoli vaziyatni hal etishda tabiiy fanlar bo'yicha savodxonlik kompetensiyalarini namoyish etishlari talab etiladi. O'quvchilarning munosabati (tabiiy fanlarga bo'lgan qiziqishi, tadqiq etilayotgan masalaga ilmiy yondashishi, atrof-muhit bilan bog'liq masalalardan xabardorligi) va (fanning mazmuniga oid, metodologik, epistemik) bilimlari ularda tabiiy fanlar bo'yicha savodxonlikni belgilaydi.

“Tabiiy fanlar” dasturida 2-sinf uchun kiritilgan mavzularni o'rganishda o'quvchilarni tushunganlik darajasini aniqlashda turli topshiriq, o'yin, interfaol metodlarni qo'llash maqsadga muvofiqdir. Masalan: “Yer-sayyora” mavzusini o'tishda “Rasmda ifodala” mashqidan foydalanish mumkin.



Mavzularni o'rganishda mulohaza yuritishni talab etadigan savollardan iborat og'zaki, yozma va amaliy topshiriqlardan foydalanish tavsiya etiladi. Darsga tayyor bilimlar to'plami sifatida emas, balki shaxsning o'ziga xos intellektual faoliyati sifatida qarash kerak. O'rganish shunchaki bilim miqdorini uzatish emas, balki uni qayta kashf etish shaklida tashkil etilishi tavsiya qilinadi.

Quyidagicha savollar bilan murojaat qilish mumkin;

1. Yer Quyosh atrofida necha kunda bir marta aylanib chiqadi?
2. Yer o'z o'qi atrofida aylanganda qanday hodisa ro'y beradi?
3. Oy nega bizga har xil ko'rinadi?

Dars bosqichlari uchun vaqt grafigini o'qituvchi ijodiy yondashgan holda taqsimlashi mumkin. Bu esa dars jarayonida muvaffaqiyatga erishishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. K. T. Suyarov va boshq. Tabiiy fanlar 2, O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma - Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021.
2. K. Suyarov va boshq. Tabiiy fanlar: 2-sinf uchun darslik – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021.

BOSHLANG'ICH SINFLARDA MILLIY O'QUV DASTURI ASOSIDA STEAM TEKNOLOGIYASINI JORIY ETISH MASALASI

Xidirova Saodat Sattarovna

*Sirdaryo viloyati Oqoltin tumani 10-umumta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi
+998972762570*

Annotatsiya. Mazkur maqolada STEAM texnologiyasini amalga oshirish yo'nalishlari, ularni boshlang'ich ta'limda o'qitiladigan fanlarga singdirish imkoniyatlari tahlil etib berilgan.

Kalit so'zlar: STEAM texnologiyasi, integratsiya, milliy o'quv dasturi, kompetensiya.

Maktab o'quvchilarining bilimi va ko'nikmalarini shakllantirish, ularni milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalash, o'qituvchi kasbi nufuzini va pedagoglarning

sifat tarkibini oshirish, darsliklar va o'quv metodik majmualarni zamon talablari asosida takomillashtirish, xalq ta'limi muassasalarining xalqaro standartlarga javob beradigan zamonaviy modellarini barpo etish maqsadida, shuningdek, 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasini «Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturiga muvofiq, "2022- 2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturi" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-may PF-134-sonli Farmoniga ko'ra tasdiqlandi.

STEAM o'quv rejasi o'quvchilarga fanlararo va amaliy yondashuvdan foydalangan holda o'qitish g'oyasiga asoslangan. Beshta fanning har birini alohida o'rganish o'rniga STEAM ularni yagona sxemasiga birlashtiradi.

Milliy o'quv dasturi asosida yaratilayotgan darsliklarga STEAMni joriy etishda o'quvchilarning ilmiy-texnika yo'nalishlarida kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan loyiha ishlari, ularning tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirib, ish va o'qish jarayonlarida duch keladigan muammo va qiyinchiliklarga yechim topish ko'nikmalarini shakllantiradigan o'quv topshiriqlari kiritilmoqda, ya'ni milliy o'quv dasturida:

- kompetensiyaga asoslangan ta'lim uchun keng imkoniyatlar yaratadi;
- o'quvchilarga real hayotga muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni yetarli darajada beradi;
- o'quvchilar va o'qituvchilar uchun mavjud ta'lim yuklamalarini kamaytirishga qaratilgan;
- kreativ fikrlash va amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishda ta'lim berish metodologiyasini o'zgartirishga yo'naltirilgan.

Asosiy maqsad fanlarni "yodlash" emas, balki o'quvchilarning mantiqiy va ijodiy fikrlash qobiliyatini, jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish, ilmiy-texnik kasb tanlash motivatsiyasini oshirish, innovatsion yechimlarni moslashtirish va topish qobiliyatlarini rivojlantirishdan iborat.

Boshlang'ich sinfda o'quvchilarda yozish, o'qish, fikr bildirish ko'nikmalarni sifatli shakllantirish maqsadida ona tili va o'qish savodxonligi fani kiritildi (amaldagi ona tili va o'qish fanlarining soatlari hajmini saqlagan holda). Tabiatdagi jarayonlarni sodda va qiziqarli tushuntirish va o'quvchilarda amaliy ko'nikmalarni shakllantirish maqsadida yangi "Tabiiy fan" (Science) dasturi yetakchi xalqaro ekspertlar ishtirokida ishlab chiqildi. Matematika fanini sodda va qiziqarli tilda tushuntirish maqsadadi fanning dasturi to'liq qayta ko'rib chiqildi.

O'quvchilarni vatanparvarlik va bag'rikenglik tamoyillari asosida mediasavodxon va tanqidiy fikrlash ko'nikmalariga ega bo'lgan, maqsadga intiluvchan fuqaro qilib tarbiyalash maqsadida "Tarbiya" fani joriy qilindi. O'quvchilarda moliyaviy savodxonlikni rivojlantirish maqsadida Milliy o'quv dasturi doirasida "Tadbirkorlik va moliyaviy savodxonlik" fani joriy etiladi.

"Bog'cha-maktab-oliy ta'lim" uzviyligini ta'minlash maqsadida maktabgacha ta'limning "Ilk qadam" dasturi bilan 75 ta mavzu moslashtirildi. O'z navbatida 94 ta mavzu oliy ta'lim dasturlariga o'tkazildi. Ona tili fanidagi 10 ta mavzu "Ilk qadam" dasturi bilan uzviylashtirildi. Tabiiy fanidagi 14 ta mavzu "Ilk qadam" dasturidan kelib chiqib kiritildi. Matematika fanidagi 15 ta mavzu "Ilk qadam" dasturi bilan uzviylashtirildi va spiralsimon ta'lim asosida rivojlantirildi. Ijtimoiy-hissiy rivojlanish yo'nalishi bo'yicha "Ilk qadam" dasturidagi 11 ta mavzu 1-sinf «Tarbiya» fanida 17 soat hajmda chuqurlashtirilib o'qitilishi yo'lga qo'yildi. Tasviriy san'at - 6 ta, Musiqi - 5 ta, Texnologiya - 5 ta, Jismoniy tarbiya - 20 ta, amaliy fanlar bo'yicha jami 26 ta mavzu 1-sinf bilan uzviylashtirilgan.

Quyidagi fanlardan mavzular maktab dasturidan chiqarilib oliy ta'limga o'tkazildi: ona tili fanidagi 40 ta mavzu, matematika fanidagi 10 ta, fizikadan 13 ta, kimyo fanidagi 8 mavzu, biologiya fanidagi 6 ta, geografiya fanidagi 10 ta, informatika fanidagi 7 ta mavzu taklifi berildi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, boshlang'ich sinflarda milliy o'quv dasturi asosida STEAM texnologiyasni joriy etish o'quvchilarda fanlararo uyg'unlikni yuzaga keltirgan holda darslar tashkil erish imkonini beradi va bolalarda o'rganayotgan narsasining ko'p yoqlama tahlil qilish, bog'liqlik jihatlari borligini tasniflash vaziyati yuzaga keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026 yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risi"da 2022-yil 11-may PF-134-sonli Farmoni.
2. Milliy o'quv dasturi seminar-trening materiallari. T-2021-yil.

HAMKORLIK TEXNOLOGIYASI - TALABALARGA YO'NALTIRILGAN TA'LIMNING SAMARALI USULLARIDAN BIRI

Muratkulov O.

Guliston davlat universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Respublika Oliy ta'lim muassasalarida innovatsion ta'lim texnologiyalari metodini joriy etilishining ahamiyati, innovatsion ta'lim texnologiyalarining, xususan hamkorlik ta'limining samaradorligi tahlil qilingan.

Аннотация: В данной статье анализируется важность внедрения инновационных образовательных технологий в высших учебных заведениях республики, эффективность инновационных образовательных технологий, в частности, коллаборативного обучения..

Abstract: This article analyzes the importance of introducing innovative educational technologies in higher educational institutions of the republic, the effectiveness of innovative educational technologies, in particular, collaborative learning.

Kalit so'zlar: Hamkorlikda o'qitish, qoniqish darajasi, loyihalash, komandada o'qitish, mas'uliyat hissi, individual ta'lim

Ключевые слова: Совместное обучение, удовлетворение, командное обучение, чувство ответственности, индивидуальное обучение

Keywords: Collaborative learning, satisfaction, design, team learning, sense of responsibility, individual learning

Bugungi kunda ta'lim muassasalari nazariyasi va amaliyotida ta'lim jarayonining ko'plab variantlari mavjud. Har bir muallif va ijrochi pedagogik jarayonga o'ziga xos, individual ta'limni olib keladi. Ko'pgina texnologiyalar o'zlarining maqsadlari, mazmuni, qo'llaniladigan usullari va vositalarida o'xshashliklarga ega. Shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalar talabaning shaxsini butun ta'lim tizimining markaziga qo'yadi, uning rivojlanishi uchun qulay, mojarolarsiz va xavfsiz sharoitlarni ta'minlaydi va uning imkoniyatlarini amalga oshiradi. Ushbu texnologiyada talabaning shaxsiyati ustuvor mavzudir, bu ta'lim tizimining maqsadidir. Shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalar doirasida hamkorlik texnologiyasi mustaqil yo'nalish sifatida ajralib turadi. Hamkorlik texnologiyasi pedagogik jarayon ishtirokchilarining hamdo'stligiga asoslanadi, ularning manfaatlarini hisobga oladi. Avtoritar o'qituvchi yolg'iz o'zi o'qitish jarayonini nazorat qiladi. Barcha bog'liq funktsiyalar - tashkil etish, tushuntirish va ko'rsatma berish, kuzatib borish, baholash, orqada qolganlarga yordam berish va hk. O'qituvchining o'zi tomonidan amalga oshiriladi. Hamkorlik texnologiya ushbu funktsiyalarni o'qituvchi va talabalar o'rtasida taqsimlashni o'z ichiga oladi. Hamkorlik texnologiyasi o'qituvchi va talaba o'rtasidagi munosabatlarda demokratiyani, tenglikni, sheriklikni amalga oshiradi. O'qituvchi va talabalar hamkorlikda, birgalikda irod qilish sharoitida maqsadlarni, tarkibni birgalikda baholaydilar. Hamkorlikda o'qitish, kichik guruhlarda o'qitish uzoq vaqtdan beri pedagogikada qo'llanilgan. Ammo hamkorlikda o'qitish texnologiyasini rivojlantirish 1970-yillarga qadar boshlangan emas.

Kuchli talaba doimo g'alaba qozonadigan jamoada o'qishi mumkin: u yangi materialni tezroq "egallaydi", tezroq o'zlashtiradi va o'qituvchi ko'proq unga tayanadi. Zaif talaba vaqti-vaqti bilan yanada zaiflashadi, u hamma narsani aniq tushunish uchun etarli vaqtga ega emas, uning xarakteri o'qituvchiga savollar berishga imkon bermaydi, u tez va to'g'ri javob bera olmaydi. U yakka tartibda o'qishi mumkin, ammo o'zining yutuq va kamchiliklarini anglay bilmaydi. U qo'shning ishlariga mutlaqo qiziqmaydi. Agar talaba boshqacha tarzda o'rgansa, yonida o'rtoqlari bo'lsa, ulardan so'rash imkoniyati tug'iladi, agar biror narsani tushunmasa, muammoning yechimini muhokama qilishda do'stlarining fikriga tayanishi mumkin. Agar butun guruhning muvaffaqiyati unga bog'liq bo'lsa, unda talaba o'zining ham, o'rtoqlarining ham muvaffaqiyatlari uchun javobgarlikni anglaydi. Birgalikda o'qish nafaqat oson va qiziqarli, balki samaraliroq. Bu nafaqat ilmiy yutuqlarga, ularning intellektual

rivojlanishiga, balki axloqiy narsalarga ham tegishli. Hamkorlikda o'qitishning maqsadi nafaqat har bir o'quvchining individual rivojlanish xususiyatlariga mos darajada bilim, ko'nikma va malakalarni egallashi, talabalar birgalikda ishlashni, o'rganishni, ijod qilishni o'rganishi hamdir, ular har doim bir-birlariga yordam berishga tayyor bo'ladilar. Hamkorlikda o'qitishning asosiy g'oyasi - bu nafaqat birgalikda ishlash, balki birgalikda o'rganishdir.

Hamkorlik texnologiyasi - bu 80 yillarning eng keng qamrovli pedagogic umumlashmalaridan biri bo'lib, ta'limdagi ko'plab innovatsion jarayonlarni keltirib chiqardi. Ushbu texnologiyaning nomini Sovet maktabining (S. T. Shatskiy, V. A.) rus maktabining eng yaxshi an'alarini (K. D. Ushinskiy, N. P. Pirogov, L. N. Tolstoy) birlashtirgan innovatsion o'qituvchilar guruhi bergan. Suxomlinskiy, A. Makarenko) va chet el o'qituvchilari (J. J. Russo, J. Korchak, K. Rojers, E. Bern) psixologik-pedagogik amaliyot va fan sohasida.

Ta'lim jarayonining uslublari va shakllarini takomillashtirish o'qituvchi-novatorlarning mualliflik tizimlarida qo'llanilgan qator didaktik g'oyalarda: V. F. Shatalovning mos yozuvlar signallarida, R. Shtaynning erkin tanlov g'oyasida, S. N. Lisenkova, P. M. Erdnievning katta bloklari g'oyasida, va Suxomlinskiy sinfining intellectual fonida, L. V. Zankovning fikriga ko'ra shaxsni rivojlantirish, I. Volkovning ijodiy va ijro qobiliyatlarida, proksimal rivojlanish zonasida. LS Vigotskiy va boshqalar.

Hamkorlikda treningni tashkil qilishning asosiy variantlari:

I. Jamoada o'qitish. Ushbu parametr "guruh maqsadlari" ni va butun guruhning muvaffaqiyatini ta'kidlaydi, bunga faqat har bir guruh a'zosining mustaqil ish olib borilishi natijasida, o'rganilayotgan masala ustida ishlash paytida boshqa jamoa a'zolari bilan doimiy aloqada bo'lish mumkin.

II. Har bir talabaning vazifasi jamoaning har bir talabasi kerakli bilimlarni egallashi, zarur ko'nikmalarni shakllantirishi va shu bilan birga har bir talaba nimaga erishganini butun jamoa bilishi uchun birgalikda nimanidir o'rganishdir.

III. Jamoada o'qitishning asosiy tamoyillari: jamoa ball uchun barcha uchun bitta "mukofot" oladi. Buning uchun butun jamoa uchun bitta topshiriqni bajarish kerak. Jamoalar (guruhlar) o'zaro raqobatlashmaydilar, chunki ularning barchasida har xil "ball" va unga erishish uchun har xil vaqt bor.

IV. "Arra" qisqartirilgan nomi bilan yondashuv. Ma'naviy bloklarga bo'lingan o'quv materialida ishlash uchun talabalar 6 kishidan iborat guruhlariga birlashtirilgan. Guruhning har bir a'zosi o'z savollari bo'yicha materialni o'rganadi. Keyin bir xil savolni o'rganayotgan, ammo turli guruhlarda bo'lgan talabalar ushbu masala bo'yicha mutaxassislar sifatida uchrashadilar va ma'lumot almashadilar. Bu "ekspertlar uchrashuvi" deb nomlanadi.

V. "Birgalikda o'rganish" hamkorlikdagi o'quv uslubining bir varianti. Sinf har xil ta'lim darajasidagi 3-5 kishidan iborat guruhlariga bo'lingan. Har bir guruhga bitta topshiriq beriladi, bu butun sinf ishlayotgan mavzuning kichik qismidir. Alohida guruhlar va umuman barcha guruhlarining birgalikdagi ishi natijasida materialni o'zlashtirishga erishiladi va bu erda asosiy printsiplar ishlaydi - butun jamoaga mukofotlar, individual yondashuv, teng imkoniyatlar.

VI. Talabalarning guruhlardagi tadqiqot ishlari. Ushbu variant - bu hamkorlikda o'qitish uslubining bir turi bo'lib, alohida yoki 6 kishilik guruhlarda ishlaydigan talabalarning mustaqil faoliyatiga e'tibor qaratiladi. Ular butun sinf uchun o'rganilishi rejalashtirilgan umumiy mavzu haqidagi savolni tanlaydilar. Keyin, kichik guruhlarda, bu savol har bir talaba uchun alohida vazifalarga bo'linadi. Har bir talaba umumiy vazifaga o'z hissasini qo'shishi kerak. Guruh muhokamalari har bir talabaning ishi bilan tanishish imkoniyatini beradi. Raqobat emas, balki hamkorlik - bu guruhni o'rganish markazidir. Jamoaning muvaffaqiyati har bir a'zoning hissasiga bog'liq, bunga jamoa a'zolarining bir-birlariga yordam berish kiradi. Teng imkoniyatlar shuni anglatadiki, har qanday talaba o'z qobiliyatlari, asosida o'rganadi va boshqalar bilan teng ravishda baholanish imkoniyatiga ega.

BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QUVCHILARINING KITOBXONLIKKA OID IJODIY QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISH

Kulaxmedova Mavluda

SVXTXQTMOHM katta o'qituvchisi

Yuksak ma'naviyatga ega bo'lgan, barkamol, sog'lom avlodni tarbiyalab, yoshlarga zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida ta'lim berish mamlakatimizda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan ustuvor vazifalardan biridir.

Komil insonni voyaga yetkazishda boshlang'ich ta'lim, shubhasiz, poydevor vazifasini o'taydi. Bolani qalban yuksak ma'naviy boy qilib tarbiyalashda ajdodlarimiz yaratgan betakror odob-axloq qoidalar doir bilimlarni o'rgatish, e'tiqodiga aylantirish, komillikka yo'naltirish muhim ahamiyatga ega.

Buning uchun birinchi navbatda, o'quvchini o'qish, bilim olishga ishtiyoqini o'stirish, ularning ma'naviy dunyosini boyitish zarur. Shundagina ertangi kunning ishonchli egasi bo'lgan farzandlarni munosib tarbiyalagan bo'lamiz.

Ma'naviy-axloqiy tarbiyada bolani kitob bilan ishlashga o'rgatish muhim ahamiyatga ega. Kitob insonlarni qanday yashashga o'rgatadi, yaxshi bilan yomonni, do'st bilan dushmani, munofiqlik bilan olijanoblikni, baxillik bilan saxiylikni bir-biridan farqlashga o'rgatadi. Shu bois bolada yoshligidan boshlab kitobga mehr uyg'otish lozim.

Bu yo'nalishda, «Kitobxon» kunlari va «Kitobxon oyliklari»ni tashkil qilish muhim tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.

Bu yil ham «Men kelajak mevasiman» loyihasi asosida har haftaning chorshanba, payshanba kunlarini, undan tashqari mart oyini «Kitobxon oyliklari» deb belgiladik. Shu asosida o'quvchilarda kitob o'qishga bo'lgan mehr, qiziqish shakllantirib borildi.

Hikoya va ertakdagi badiiy obrazlarni tahlil etish ham o'quvchilarni asar ustida ishlashga, mustaqil fikrlashga o'rgatadi. Mustaqil fikrga ega bo'lgan insonda atrofdagi voqea-hodisalarga teran ko'z bilan qarash, ularga o'z fikrini bildira olish, o'zgalarning so'ziga osongina o'g'ishmaslik, o'zi uchun nima to'g'ri, nima xatoligini anglash, yangiliklar, o'zgarishlar kiritish kabi xususiyatlar asosida mustahkam e'tiqod va ma'naviy barkamollik shakllanadi.

O'quvchi asarni o'qib bo'lgandan so'ng ularga quyidagi savollar bilan murojaat qilaman.

- Asar sizga yoqdimi?
- Asar qahramoni bilan do'stlashishni xohlarmidingiz?
- Siz uning o'rniida bo'lganingizda nima qilgan bo'lar edingiz?

O'quvchilarning ish daftariga topshiriqlar berib, o'rganilganlar yanada mustahkamlandi va to'ldiriladi. Bunday tahlillar o'quvchilarni kitobga yaqinlashtiradi, bolada kitobni faqatgina o'qib qolmasdan uni to'la tushinish, uqishga xizmat qiladi.

Bolalarning fan, madaniyat, sport, san'at va boshqa sohalarida qobiliyatlarini aniqlash va ulani yanada rivojlantirish, shu sohalar haqidagi bilimlarini oshirish maqsadida, o'quv yilining har bir oyida oyliklar va tanlovlar tashkil qilganmiz. Jumladan, «Husnixat», «Eng yaxshi ijodkor», «Eng yaxshi kitobxon», «Eng yaxshi matematik»lar shular jumlasidandir.

Oyliklar va tanlovlarning yakuniy qismi hisobot shaklida may oyida «E'tirof» tadbiri bayram sifatida nishonlanib, g'olib o'quvchilar nominatsiyalar bilan taqdirlandi.

Sinfdan tashqari olib boriladigan oyliklar, tanlovlar, turli uchrashuvlar, tadbirlar, intellektual o'yinlar, ochiq darslar, ochiq tarbiyaviy darslar ham o'quvchining qobiliyat, iqtidor, ijodkorliklarini rivojlanishiga yordam berib, qiziqishlarini oshiradi. Erkin, mustaqil fikrlovchi shaxs qilib tarbiyalab, ma'naviyatini boyitadi.

Mamlakatimiz ta'lim tizimida maktab fanlarini o'qitishda AKTdan samarali foydalanish dolzarb masaladir. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ta'lim jarayoniga joriy etilishidan asosiy maqsad - aynan zamonaviy axborot muhiti uchun xarakterli bo'lgan o'quv faoliyatlarining yangi turlarini paydo bo'lishidir.

Kar bolalar maktablarining boshlang'ich ta'lim - ta'lim tizimining poydevori hisoblanib, o'quvchilarni o'qitish sifati unga bog'liq bo'ladi va bu boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi zimmasiga

katta mas'uliyat yuklaydi.

Ta'lim tizimida boshlang'ich ta'lim o'quvchilari keyingi ta'lim olish uchun o'qish, yozish, hisoblash kabi asosiy ko'nikmalarni o'zlashtirishi kerak bo'lgan ta'lim bosqichi hisoblanadi.

O'quvchilar faollikni, mustaqillikni rivojlantirish, idrok etish faolligini saqlab qolish va bola ta'lim dunyosiga shaxdam kirib borishi uchun ta'lim jarayoniga AKT joriy etilmoqda.

Axborot texnologiyalaridan foydalanish kar bolalar maktablarining o'quvchilarida mustaqil ishlar samaradorligini oshiradi, ijodkorlik, malaka va ko'nikmalarni egallash va mustahkamlash uchun umuman yangi imkoniyatlar beradi, ta'limning yangi shakllari va metodlarini amalga oshirishga imkon beradi.

Multimedia- darsliklar o'qitishning barcha bosqichlarini avtomatlashtirishga qaratilgan, ya'ni o'quv materialini tushuntirishdan boshlab to bu bilimni nazorat qilish va yakuniy baho qo'yishgacha. Har bir o'quvchida shaxsiy o'quv yo'nalishini rivojlantirishni ta'minlaydi.

O'quv jarayonida uni muvaffaqiyatli bilim olish uchun zarur bo'lgan asosiy jarayonlar sifatida fikrlashni, tasavvurni rivojlantirishga yo'naltirilgan katta o'zgarishlar sodir bo'ladi; o'quvchilarning idrok etish faoliyatlarini samarali tashkil qilish ta'minlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Alisher Navoiy. Tula asarlar tuplami (20 jildli). - T.: 1987-2000.
2. Aziz Kayumov. "Saddi Iskandariy" (Alisher Navoiy xakida) - Toshkent, 1975.
3. Aziz Kayumov. —Alisher Navoiy", "Ajoyib kishilar xayoti" -Toshkent, 1991.

BIOLOGIYA FANINI O'QITISHDA XORIJIY TAJRIBALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Sidiqova Mahfuza Aliqulovna

Sirdaryo viloyati Guliston shahri 10-maktab biologiya o'qituvchisi

Annotasiya. *Ushbu maqolada tabiiy fanlar o'qituvchilarining darslarda STEAM yondoshuvidan foydalanishning samarali tomonlari misollar asosida yoritib berilgan.*

Kalit so'zlar: *STEAM, muqobil yondashuv, model, hamkorlik, fikrlash.*

Annotation. *This article illustrates the benefits of using the STEAM approach in science lessons by teachers.*

Keywords: *STEAM, alternative approach, model, collaboration, thinking.*

Xalq ta'limi tizimiga ilg'or xorijiy tajribani, o'quv-tarbiya jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni, shu jumladan ta'lim berishning innovatsion usullarini joriy etish, o'quv va o'quv-uslubiy adabiyotlarning yangi avlodini yaratish, fundamental va amaliy ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish belgilangan.

Ushbu Farmon ijrosini ta'minlash maqsadida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 sentyabrdagi "Xalq ta'limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi № PP-3931 son qarori bilan tasdiqlangan "2018 — 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi" ning II bo'lim, 11 bandida: Umumiy o'rta ta'limning yangi davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlarini takomillashtirish va shu bilan birga STEAM (fan, texnologiya, muhandislik va matematika) metodlarini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish belgilab berilgan.

Mazkur vazifalarni bajarish uchun avvalo ta'lim ishtirokchilari –pedagoglar, metodistlar, o'quvchilar, ota-onalar va boshqalar STEAM metodi va ta'lim sifati yo'nalishida o'tkaziladigan xalqaro tadqiqotlar xaqida ma'lumotlarni bilishi hamda ularni amaliyotda qo'llash uchun malakalarga ega bo'lishlari zarur bo'ladi.

STEAM an'anaviy o'qitishga muqobil yondashuv hisoblanadi

Umumta'lim maktablarida biologiya fanini o'qitishda tirik organizmlarning tuzilishi, yashash muhiti va kelib chiqishini o'quvchilarga o'rgatar ekanmiz, bu o'rinda organizmlar anatomiyasini tushunarli va qiziqarli tushuntirishda STEAM texnologiyasidan foydalanish o'rinlidir. Bunda bolalar Scienc(tabiiy fanlar), Technology (texnologiya), Engineering (muhandislik), Art (san'at), Mathematics (matematika)ni fanlararo bog'lanishlar va amaliy yondashuvga asoslangan holda

o'rganadilar. STEAM o'quvchilarning loyiha va o'quv tadqiqot faoliyatini maktabda va maktabdan tashqarida amalga oshirilishi imkonini beradi. Tajribadan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, tirik organizmlar tuzilishini, misol uchun odam anatomiyasini tushuntirishda odamning teri qoplami, muskullari, qon aylanishi va boshqa organlar sistemalari rasmlarini alohida ko'rsatgandan ko'ra, STEAM texnologiyasi asosida yaratilgan ko'rgazmadan foydalanilganda o'quvchilarga qiziqarli va tushunarliroq bo'ladi.



Bunda o'quvchilar bilan hamkorlikda ish tashkil etilib, biologiya, matematika, texnologiya fanlaridan egallangan bilimlarni integrallashtirish maqsadga muvofiqdir.

Butun jarayon mobaynida albatta texnika xavfsizlik qoidalariga amal qilish qat'iy talab etiladi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, STEAM yondashuvi asosida juda ko'plab ko'rgazmalar yaratilgan bo'lib, ular turli materiallardan foydalanib yasalgan. Yuqorida qayd etilgan ko'rgazma oddiy qog'oz, karton, plastilin va slimelardan yasalishi bilan ahamiyatlidir. STEAM yondashuvining asosiy g'oyasi quyidagicha: amaliyot nazariy bilimlar kabi muhimdir. Bunda o'quvchilar ta'lim jarayonida nafaqat o'z aqlini, balki qo'llarini ham ishlatishga majburlidirlar. Sinf xonasidagi ta'lim olish jarayoni jadal rivojlanayotgan olam o'zgarishlaridan ortda qolmoqda. STEAM yondashuvining asosiy xususiyati shundaki, bunda o'quvchilar ko'pchilik fanlarni samarali o'rganishda aqli hamda qo'llaridan foydalanishadi, bilimlarni mustaqil "egallashadi". O'quvchilar o'quv mashg'ulotlarida tajribalar o'tkazishadi, modellarni konstruksiyalaydi, musiqa va filmlarni mustaqil yaratishadi, robotlarni yasashadi, ya'ni o'z g'oyalarini amalga oshiradilar va mahsulot yaratishadi.

Biologiya ta'limi jarayonida o'quvchilar tirik organizmlar tuzilishi, yashash muhiti va ularda kechadigan biologik jarayonlarning model va maketlarini yaratish orqali ham qo'llash maqsadga muvofiq. Bunga quyidagilarni misol qilib keltirish mumkin.



Xuddi shunday yondashgan holda boshqa ko'plab lepbuklar ham yasash mumkin. Masalan, hujayra tuzilishini, o'simlik poyasining, bargining, gulining, urug' va mevasining tuzilishini, hayvonlar, qushlar, baliqlar va boshqa organizmlar hamda organlar tuzilishini aks ettirib yasash mumkin.

STEAM ta'lim muhitida o'quvchilar egallagan bilimlaridan o'sha zahotiyiq amalda foydalanishlari sababli ular ulg'ayib, voyaga etgach, real hayotda uchraydigan turli muammolarga duch kelishganida, masalan, atrofmuhit ifloslanishi bo'ladimi, iqlim o'zgarishimi, shu kabi murakkab muammolarni yechish uchun faqatgina turli fan sohalari bo'yicha egallagan o'z bilimlariga suyanishlari va hamkorlikda ishlashlari zarurligini tushunishadi. Bunda bitta fan doirasidagi bilimlarga tayanish etarli bo'lmaydi. Shunga ko'ra, STEAM yondashuvi fikrlash uslubi hamdir.

Xulosa qilib aytganda, STEAM o'quvchilarni tajribalar o'tkazish, modellarni konstruksiyalash, musiqa va filmlarni mustaqil yaratish, o'z g'oyalarini amalga oshirish va mahsulot yaratishni rag'batlantiradi. O'qitishga bunday yondashuv bolalarga nazariy bilim va amaliy

ko'nikmalarini samarali chog'ishtirish imkonini beradi. O'quvchilarning ijodkorligini oshiradi, yuqori malakali, zamon talabiga mos kadrlar tayyorlashda mustahkam poydevor bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 05. 09. 2018 yildagi № PF-5538 Farmoni.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 6 aprel 2018 yil 187-son Qarori.

TABIIY FANLAR DARSLARIDA TAJRIBALAR O'TKAZISH ASOSIDA KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH

Ortikova Maxpiratxon Abduxamitovna

*Sirdaryo viloyat Oqoltin tumani 11-umumta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi
+99897 172 3072*

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang'ich sinf tabiiy fanlar darslari va sinfdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilarni intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'natirilgan tajribalar o'tkazish metodikasi va tajriba namunalarini asosida o'quvchilarda fanga oid kompetensiyalarni shakllantirish imkoniyatlari ko'rsatib o'tilgan.

Tayanch iboralar: tabiiy fanlar, tajribalar, kompetensiya, topqirlik, qiziqish.

Yosh avlodni hozirli zamon fani asoslari bilan qurollantirish orqali ularni aqliy, ma'naviy, g'oyaviy (mafkuraviy) jihatdan maksimal darajada rivojlantirishda erishish umumta'lim muassasalari oldida turgan eng muhim vazifalardan biridir.

Boshlang'ich ta'lim barcha fanlarning asosi negizi hisoblanadi. Har bir fan yo'nalishining asoslarini boshlang'ich sinflarda o'rganiladi. Shu asosda "Tabiiy fanlar" kelgusida o'rganiladigan fizika, biologiya, zoologiya, ximiya, astronomiya, geografiya kabi yana bir qancha fanlarga asos bo'ladi.

Tabiatga oid darslarning samaradorligini oshirishning o'ziga xos yo'llari mavjud. Shulardan biri o'quvchilarda atrof-muhitga ongli munosabatni shakllantirishning muhim omillaridan biri tajribalar o'tkazish orqali tabiat sinoatlaridan boxabar qilib borishimiz mumkin.

Tajriba asosida isbot, aniqlik, o'z ishtirokini ta'minlash, amalda qo'llash imkoniyatlari orqali tasavvur va bilim doirasini kengaytirish imkoniyatlariga ega bo'lamiz.

Quyida tanlangan tajribalarda asosini aniq fanlar doirasiga kiruvchi qoida- qonunlar yotadi, lekin ularni tushuntirishning oddiy usullarini tanlash imkoniyatlari berilgan. Bunda bolaning yosh va individual xususiyatlari va bilish darajalari inobatga olingan.

O'quvchilarning qiziqish doirasidagi faoliyat o'yin, musobaqa ko'rinishida tashkil etilishi ham maqsadga muvofiq: "Kim tangaga ko'p suv to'ldira oladi?",

"Kimning shari kattaroq shishadi?" kabi.

Tajribalarni o'tkazishda avvalo texnika havfsizligiga e'tibor qaratish lozim, chunki noo'rin qo'llangan holat bolaga zarar ham yetkazishi mumkin. Tajribadan oldingi savollarga javoblardagi ikkilanishlar, har-xil javoblar bolalarning tajriba davomida fikrlarini bir to'xtamga keltirib isbotlash imkoniyatini beradi.

Dars va sinfdan tashqari tadbirlar jarayonida tajribalarni o'z o'rnida qo'llash samaradorlikni oshirish bilan bir qatorda, kasb haqidagi dastlabki tushunchalarni singdirishga omil bo'ladi.

Quyida boshlang'ich sinflarda dars va darsdan tashqari jarayonlarga o'tkazishga mo'ljallagan tajribalardan namunalar keltiramiz:

Sham nega banka ichida so'nadi?

Sham yoqiladi va ishtirokchilarga shamdagi olovni puflamasdan va shamga qo'l tekkizmasdan o'chirish yo'llarini izlash taklif etiladi.

Bu tajriba davomida yonib turgan shamning ustiga banka yopilsa:

-Sham o'chadimi yoki yo'qmi?

Жавоблар tinglanib, tajriba amalda ko'rsatiladi.

Bir ozdan so'ng shamning so'nishi kuzatiladi, shundan so'ng nega sham o'chib qolganligi so'raladi.

Xulosa: Banka ichidagi havo (kislorod) yonish jarayonida gazga aylanadi va shamni o'chiradi.

Gullarning suvda ochilishi.

Qog'ozchalardan gullarni kesib oling, gul yaproqchlarini o'rtasiga buklab qo'ying. Endi bu gul emas, g'uncha holiga keldi, ushbu g'unchani tog'aradagi suvga qo'ying. Nima sodir bo'ldi: gul yaproqlari asta-sekin ochilmoqda. Nima uchun? Qog'oz suvni shimib olib og'irlashdi. Shu sababli yaproqlar haqiqiy gul kabi ochiladi.

Tanga yuzasiga qancha suv ketadi?

Tanga yuzasiga qancha suv ketadi? savoli beriladi. Javoblar tinglanib, tajriba boshlanadi. Har bir ishtirokchiga piyolada suv va tanga berilib, tomchilab necha tomchi suv ketishi tajribasi o'tkaziladi. Suv oqib ketguncha tajriba davom ettiriladi. Tajriba yakunida necha tomchi suv ketganligi ko'rib o'tiladi.

Suvda tuz bormi?

Suvda tuz bormi? savoli orqali murojat qilinadi. Uni isbot etish uchun tajribada sinab ko'riladi.

1-osh qoshiqqa suv olinib, qaynatilib, suv parlanguncha kutiladi, qolgan massani tatib ko'rish tavsiya etiladi.

Xulosa: Demak suvda tuz bor.

Xulosa qilib aytish mumkinki, dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarda tajribalar o'tkazish orqali kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda darsga bo'lgan qiziqishlarni oshirish, kasbga yo'naltirish, integratsiya jarayonini to'la qamrab oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. K. T. Suyarov va boshq. Tabiiy fanlar 2, O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma - Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021.

2. Tillaboyeva M va b. q. "Tabiatshunoslik 4" 4-sinf o'qituvchilari uchun ilg'or pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini amaliyotga joriy etish bo'yicha metodik qo'llanma T-2017-yil.

НОВЫЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ТЕХНОЛОГИИ В ПРЕПОДАВАНИИ РУССКОГО ЯЗЫКА

Рахманова Севинч

учитель русского языка и литературы средней школы №5 г. Гулистан, Сырдарьинская область

В современной дидактике, во многих методических работах встречается термин педагогическая технология. В практике встречаются такие термины, как педагогические технологии, технологии образования, новые педагогические инновационные учебные технологии. Однако понятие «технология» еще уточняется, термин употребляется в достаточно широком контексте.

Чаще образовательную технологию определяют, как совокупность определенных форм и методов, обеспечивающую создание учениками образовательной продукции (А. В. Хуторской). В основе определения образовательных технологий лежат те цели, которые должны быть достигнуты (образовательный результат), способ взаимосвязанной деятельности учителя и ученика и их роль в образовательном процессе. Главное направление личностно-ориентированных технологий образования в педагогике – формирование и развитие интеллектуальных и речевых умений учащихся, их нравственное развитие, формирование критического и творческого мышления как приоритетных направлений интеллектуального развития человека. Современные личностно-ориентированные образовательные технологии учитывают возрастные, индивидуально-психологические особенности учащихся, ориентируются на ученика как на субъект образовательного процесса, который совместно с учителем может определять учебную цель, планировать, подготавливать и осуществлять

образовательный процесс, анализировать достигнутые результаты.

В соответствии с таким подходом роль учителя в образовательном процессе можно охарактеризовать так: учитель создает условия для формирования личности ученика в учебном процессе, вовлекает каждого учащегося в активную познавательную деятельность, организует учебные ситуации, в которых ученик может пробовать свои силы для решения возникающих учебных проблем, помогает их решать совместными усилиями, планирует совместную работу в сотрудничестве при решении разнообразных учебных задач, знакомит с путями получения необходимой информации с целью формирования собственного аргументированного мнения по той или иной проблеме, возможности ее всестороннего исследования. Очевидно, что разработка личностно-ориентированных технологий – это поиски путей получения, гарантированного качественного образовательного результата. В современной дидактике созданы теоретические предпосылки в развитии этой идеи, определены структурные компоненты образовательной технологии. Как правило, в структуре технологии обучения выделяются такие компоненты:

- диагностика уровня усвоения учебного материала;
- мотивация и организация учебной деятельности учащихся;
- действие средств обучения;

– контроль качества усвоения материала. Возникает вопрос, чем же отличаются эти современные технологии от традиционных способов обучения и как они соотносятся с ними? В основном методисты, учитывая проблемы практики преподавания русского языка, шли в направлении внедрения современных методов и форм обучения в традиционную структуру урока. Одной из наиболее эффективных технологий обучения русскому языку можно считать технологию уровневой дифференциации. Проблема использования дифференциации в обучении является актуальной, поскольку направлена на создание оптимальных условий для индивидуального подхода в развитии личности.

Дифференцированное (от лат. *differentia* – разница) обучение в истории педагогики известно давно. Еще Я.А. Коменский стремился найти такой общий порядок обучения, при котором оно осуществлялось бы по единым законам человеческой природы. Тогда обучение не потребовало бы ничего, кроме «искусного распределения времени, предметов и методов». В идеале, при едином совершенном методе обучения, полагал Коменский, «все пойдет вперед не менее ясно, чем идут часы с правильно уравновешенными тяжестями, так же приятно и радостно, как приятно и радостно смотреть на такого рода автомат, и, наконец, с такой верностью, какую только можно достигнуть в подобном искусном инструменте». По характерным индивидуально-психологическим особенностям детей, составляющим основу формирования гомогенных групп, различают следующие способы дифференциации:

- по возрастному составу (школьные классы, возрастные параллели, разновозрастные группы);
- по полу (мужские, женские, смешанные классы, команды, школы);
- по области интересов (гуманитарные, физико-математические, биолого-химические и др. группы, направления, отделения, школы);
- по уровню умственного развития (уровень достижений);
- по личностно-психологическим типам (тип мышления, акцентуации, характера, темперамента и т.д.);
- по уровню здоровья (физкультурные группы, группы для детей с ослабленным зрением, слухом, больничные классы).

В.П. Беспалько предлагает рассматривать качество освоения учебного материала как процесс, состоящий из четырех уровней. При этом он устанавливает эти уровни на примере решения задачи (проблемы). Компонентами задачи являются цель, действия и ситуация:

- 1 уровень (ученический) – самый простой уровень репродуктивной деятельности;
- 2 уровень (алгоритмический) – более сложный уровень репродуктивной деятельности; когда заданы цель и ситуация, требуется применить ранее усвоенные действия;
- 3 уровень (эвристический) – уровень продуктивной деятельности; от обучающихся требуется уточнить ситуацию и выбрать наиболее подходящие действия для выполнения

задания;

4 уровень (творческий) – самый сложный уровень продуктивной деятельности; учащиеся сами ставят цель, формулируют ее и осуществляют поиск возможных ситуаций и действий для решения цели. На каждом из уровней качеств усвоения знаний можно выделить систему параметров. К ним относят осознанность, прочность, полноту, глубину, оперативность, гибкость, конкретность, действенность. Практическая работа подтверждает эффективность применения технологии уровневой дифференциации. При использовании данной технологии наблюдаются положительные аспекты, например:

- учитель может больше внимания уделять сильным ученикам;
- дети учатся работать самостоятельно;
- слабые ученики перестают бояться уроков и получают возможность испытать ситуацию успеха.

Результаты свидетельствуют о том, что уровневое дифференцированное обучение дает положительный эффект в учебной работе и является необходимым условием повышения качества знаний учащихся средней общеобразовательной школы по русскому языку.

STEAM TEXNOLOGIYASINI “IJODIY MEHNAT” METODI ASOSIDA AMALGA OSHIRISH IMKONIYATLARI

Mo‘minova Barno Maxmudovna

*Sirdaryo viloyati Boyovut tumani 23-umumta’lim maktabi boshlang’ich sinf o’qituvchisi
+99897 902 29 75*

Annotatsiya. *Mazkur maqolada STEAM texnologiyasini asosiy yo’nalishlari va maqsadlari haqida ma’lumotlar berilib, “Ijodiy mehnat” metodi asosida amalga oshirish imkoniyati tabiiy fanlardan “Suv havzasi” mavzusi asosida ko’rsatib o’tilgan. Unda STEAM texnologiyasini amalga oshirish imkoniyatlari misollarda ko’rsatilgan*

Kalit so’zlar: *STEAM texnologiyasi, integratsiya, tabiiy fan, “Ijodiy mehnat” metodi.*

STEAM ta’limi DTS asosida beriladigan bilim, ko’nikma va malakalarning ilmiy jihatdan qanday qilib kundalik hayot bilan bog’liqligini ko’rsatish orqali sinfdagi dars mashg’ulotlari va maktabdan tashqari ta’lim jarayonida o’quvchilarning o’quv tadqiqotlarini o’tkazish, tajribalarni bajarib ko’rish, loyihalashtirishga yo’naltirilgan ijodkorligini tarbiyalash, yangiliklar yaratishga bo’lgan qiziqishlarini rivojlantirishga qaratilgan.

STEAM BU:

S – SCIENCE; TABIIY FANLAR

T – TECHNOLOGY; TEXNOLOGIYA

E – ENGINEERING; MUHANDISLIK

A – ART; SAN’AT

M – MATH. ; MATEMATIKA.

STEAM beshta fanning har birini alohida o’rganish o’rniga, ularni yagona o’quv tizimiga birlashtiradi. STEAM ta’limida beshta sohani yagona ta’lim tizimida integratsiyalashuviga asoslangan.

Asosiy maqsad fanlarni "yodlash" emas, balki o’quvchilarning mantiqiy ijodiy va ijodiy fikrlash qobiliyatini, jamoada ishlash ko’nikmalarini rivojlantirish, ilmiy-texnik kasb tanlash motivatsiyasini oshirish, innovatsion yechimlarni moslashtirish va topish qobiliyatlarini rivojlantirishdan iborat.

Buni amalga oshirishda interfaol metodlardan biri “Ijodiy mehnat” metodi asosida tashkil etish imkoniyatlarini ko’rib chiqamiz.

Ijodiy mehnat- Bir mavzuga ko’ra turli yo’nalishlarda ijod qilish. Ijodiy mehnat-rasm chizish, andozalash, qo’shiq, tarixlar, chizgilar yozish va o’yinlar o’ylab topishni mujassam etadi. O’quvchilarga mavzu asosida quyidagi topshiriqlardan birini tanlab ijodiy yondashish so’raladi:

- Kichik ma’ruza yoki hikoya
- Maqollar va hikmatli so’zlar

- Rolli o‘yin
- Rasm chizish
- Applikatsiya
- Plastilindan yasash
- Qo‘shiq, she‘r
- Masala tuzish
- Topishmoqlar toppish

Masalan, “Suv havzasi” mavzusida “Ijodiy mehnat” metodi asosida chiqishlar qilish. 1-guruhga ma’lumotlar yozish, 2-guruhga plastilindan yasash, 3-guruhga rasm chizish, 4-guruhga, she‘r qo‘shiqlar ijro etish, 5-guruhga matematik masala tuzish vazifasi beriladi.

1-guruh: Suv havzasi turlicha bo‘ladi. Ariq, kanal, daryo, dengiz, ko‘l, okean. Cho‘milish havzalari ham sunniy suv havzasi sanaladi.....

2-guruh: Plastilindan yashash.



3-guruh: Rasm chizish.



4-guruh: She‘r, qo‘shiq, maqollar, topishmoqlar aytish.

Quyosh yerni qizdirsa,
Chechaklar so‘lg‘in bo‘lsa,
Yerlar qovjirab qolsa,
Unga ayting ne kerak?
Albat, albat, suv kerak.

5-guruh: Masala tuzish.

Suv havzasining ununligi 20 metr eni esa undan ikki marta kam. Suv havzasining yuzini toping.

Guruhlar taqdimoti birlashtirilib, umumiy xulosa chiqariladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, “Ijodiy mehnat” metodi asosida ma’lumotlar berish orqali fan asosini, plastilindan yasash orqali texnologiyaga, rasm chizish orqali muhandislikka, she‘r, qo‘shiqlar asosida san‘atga, masala tuzish asosida esa matematikaga bog‘lagan holda ham fanlar integratsiyasi hamda STEAM texnologiyasini amalga oshirish imkoniga ega bo‘lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. K. T. Suyarov [va boshq.]. Tabiiy fanlar 2 Metodik qo‘llanma: o‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma - Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2021.

2. K. Suyarov [va boshq.]. Tabiiy fanlar: 2-sinf uchun darslik – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2021.

BOSHLANG'ICH TA'LIMGA MILLIY O'QUV DASTURINING JORIY QILINISHINING O'ZIGA XOS AHAMIYATI

Xayitboyeva Barno

Sirdaryo viloyati Mirzaobod tumani 5-umumta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi
+99897 276 22 72

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang'ich ta'limga milliy o'quv dasturining joriy qilinishining o'ziga xos ahamiyati tahlil qilinib, ona tili va o'qish savodxonligi, matematika, tabiiy fanlar jarayonida uni amaliyotga tatbig'ida amaliy mashg'ulotlarni o'rniga to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: milliy o'quv dasturi, ona tili va o'qish savodxonligi, matematika, tabiiy fanlar, hayotiy kompetensiya.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risi"da 2022-yil 11-may PF-134-sonli Farmoniga ko'ra xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturning asosiy yo'nalishlari belgilandi. Xalq ta'limi vazirligi tomonidan Xalqaro va mahalliy ekspertlar ishtirokida Milliy o'quv dasturi yaratildi, 2021-2022 o'quv yilidan boshlab 1 va 2-sinflarda 252 nomdagi yangi zamonaviy darsliklar, o'quvchi mashq daftarlari hamda pedagoglar uchun o'quv qo'llanmalar joriy qilindi.

Milliy o'quv dasturi umumiy o'rta ta'limning milliy o'quv dasturi o'quvchilarning olgan bilimlarini hayotda qo'llay olish ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan.

- fanlararo integratsiya kuchaytirilib, fan va mavzularni o'qitishda mantiqiy fikrlash, amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga asoslangan spiralsimon o'qitish metodikasi joriy qilinmoqda (amalda chiziqli o'qitish, yod olish metodikasi);

- darslik bilan birga, fanning metodik ta'minoti uchun o'qituvchi kitobi, o'quvchi mashq daftari, multimedia ilovasi va raqamli kontent joriy qilinadi;

- nazariy soatlar qisqartirilib, amaliy soatlar hajmi umumiy dasturda 20 foizdan 50 foizga oshirildi;

- o'quvchilarning individual istaklari va qobiliyatlarini inobatga olish imkoniyatini beruvchi variativ o'quv rejalar asosida o'qitish tizimini joriy qilish imkoniyati kengaytirilmoqda;

- fan bo'yicha talablar sinflar kesimida belgilandi va o'quvchi erishilishi talab etiladigan har bir ko'nikma kodlashtirildi (amalda olingan bilimlarni baholash umumiy belgilangan, har bir sinf yakunidagi talablar mavjud bo'lmagan).

Milliy o'quv dasturi asosida yaratilayotgan darsliklarga STEAMni joriy etishda o'quvchilarning ilmiy-texnika yo'nalishlarida kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan loyiha ishlari, ularning tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirib, ish va o'qish jarayonlarida duch keladigan muammo va qiyinchiliklarga yechim topish ko'nikmalarini shakllantiradigan o'quv topshiriqlari kiritilmoqda.

Ona tili va o'qish savodxonligi fanini o'qitishda asosiy e'tibor o'quvchida tilga doir to'rt ko'nikma: o'qib tushunish, tinglab tushunish, nutq so'zlash va yozish hamda grammatik savodxonlikni shakllantirishga qaratiladi.

2-sinf ona tili va o'qish savodxonligi fanidan matnni o'qish va tushunganini qayta so'zlash, audio matnni eshitish va uni oz so'zida qayta hikoyalash, rasm yoki berilgan topshiriqlar asosida hikoya so'zlash, savollar asosida matn yaratish, mavzular asosida berilgan yozma mashqlarni grammatikaga oid mavzular asosida mashq va topshiriqlar asosida rivojlantirib boorish e'tiborga olingan.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining matematika fanidan o'quv materialarini o'zlashtirish darajasini TIMSS (Trends in International Mathematics and Science Study) xalqaro baholash dasturiga uyg'unlashtirish asosida tayanch va fanga oid kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirish hozirgi kunda dolzarb ahamiyat kasb etadi. 2-sinf matematika darslarida ham muammoli vaziyatlardan mantiqan fikrlashga yo'naltirilgan holda javob izlash imkoniyatlari inobatga olingan holda misol va masalalar kiritilgan.

Atrof-borliq, jumladan, olamning tuzilishi, unda kechayotgan hodisa va jarayonlarni bilishning metodologik asosini bir-birini to'ldiruvchi, ilmiy bilishning nazariy va empirik metodlar birligi

tashkil etadi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning tabiatga bo'lgan qiziqishini, unda kechayotgan hodisa va jarayonlar to'g'risidagi bilimlarini oshirishda hamda ularning empirik (kuzatish, tadqiqot) metodlarni o'zlashtirishida "Tabiiy fanlar" o'quv predmeti muhim ahamiyat kasb etadi. 2-sinf tabiiy fanlar darslari jarayonida ham nazariy ma'lumotlar bilan birgalikda amaliy jihatlarini ko'rsatuvchi mashg'ulotlar bolalarni hayotiy kompetensiyalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Masalan: "Magnit ta'sirini o'rganish", "Antiqa telefon" kabi amaliy mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilarda o'rganilayotgan mavzular jarayonida hayotiy ko'nikmalarni shakllantirib boradilar.

Xulosa qilib aytish mumkinki, milliy o'quv dasturining amalga oshirish jarayonida bolalarning hayotiy kompetensiyalari shakllantirilib, fanlararo integratsiya jarayoni kuchaytirilgan holda mavzularni oddiydan murakkabga va asosan bolani yosh va psixologik xususiyatlari inobatga olingan holda tashkil etilishi dasturni amalga oshirishning muhim omillari hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026 yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risi"da 2022-yil 11-may PF-134-sonli Farmoni.
2. I. Azimova va boshq. . Ona tili va o'qish savodxonligi: 2-sinf o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021.
3. L. O'. O'rinboyeva va boshq. Matematika 2-sinf. Metodik qo'llanma: o'qituvchilar uchun metodik qo'llanma – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021.
4. K. T. Suyarov va boshq. Tabiiy fanlar 2 Metodik qo'llanma: o'qituvchilar uchun metodik qo'llanma - Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021.

MILLIY O'QUV DASTURI ASOSIDA 1-SINFDA MATEMATIKA FANINI O'QITISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Abdullayeva Nazira Fayzullayevna

*Sirdaryo viloyati Mirzaobod tumani 5-umumta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchilari
+99899 911 50 72*


Annotatsiya. Mazkur maqola 1-sinfda matematika fanini milliy o'quv dasturi asosida o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari tahlil etilgan holda mavzuga oid misollarda ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: milliy o'quv dasturi, boshlang'ich ta'lim, matematika, algoritim.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026 yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risi"da 2022-yil 11-may PF-134-sonli Farmoni qabul qilindi. Unga ko'ra har bir fan yo'nalishlarida milliy o'quv dasturlari asosida o'qitish bosqichma bosqich amalga oshirilishi nazrda tutilgan. 1-sinf matematika fani milliy o'quv dastiri ham matematika fanini o'qitishning didaktik imkoniyatlarini o'quvchilarni algoritmik axborot almashinish faoliyatiga bosqichma-bosqich yo'naltirish asosida oshirish o'quvchilarning ta'lim jarayonidagi faolligini ta'minlaydi.

Matematika darsligini yaratishda mana shunday bir qancha muhim jihatlar inobatga olingan. Xususan, boshlang'ich sinf o'quvchilari hayotiy faoliyatlari davomida o'quv materiallarining ahamiyatini anglab yetishlari uchun o'quv materialini tanlash yoki tayyorlashda hayotiyli va ko'rgazmaliligiga ahamiyat berildi. O'quv materiali qanchalik ahamiyatli bo'lmasin, boshlang'ich sinf o'quvchilarining diqqati barqaror emasligi tufayli qiziqishni doimiy saqlab tura olmaydi. Shuningdek, boshlang'ich sinf o'quvchilarining xotirasi ko'proq tasvirli materiallarni eslab qolish xususiyatiga ega bo'lib, o'quv materiallarining tasviriy ifodalanganligi muhim.

Masalan "Simmetriya" mavzusini o'tishda quyidagicha tasvirlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir:



Boshlang'ich sinf o'quvchilarining idroki amaliy faoliyat bilan bevosita bog'liq. Shuning uchun darslikda mavzularni yoritishda hayotiy, tasviriy, abstrakt materiallar ketma-ketligidan foydalanilgan. Bu, ayniqsa, murakkab mavzularni yoritib berishda katta ahamiyat kasb etadi. Bu jarayon aniq hayotiy materiallardan tasviriy materiallarga o'tishni, tasviriy materiallardan abstrakt materiallarga o'tishni o'z ichiga oladi.

Bunday materiallar bilan ishlash uch bosqichda amalga oshiriladi.

1-bosqichda o'quv materiallarida hayotiy namunalar keltiriladi.


“Ikki amalli masalalar” mavzusidagi 2-masalani yechishda qovun rasmi ko'rsatiladi.


2-bosqichda hayotiy obyektlarning ko'rgazmali tasvirlaridan foydalanish o'rgatiladi. Ya'ni o'quvchilar hayotiy obyektlarni rasmlar yoki modellarda ifodalashni o'rganadi. Modelni qurish yoki chizish bolalarning murakkab va mavhum tushunchalarni tushunishlarini osonlashtiradi. Topshiriqlarni tasviriy ifodalash ularni yanada oson bajarishga yordam beradi.


Bu bosqichda qovun rasmini chizish vazifasini berish mumkin.

3-bosqichda matematik tushunchalar va belgilar o'rgatiladi. Masalan, sonlarni raqamlar (simvollar), qo'shish, ayirish, ko'paytirish yoki bo'lish amallarini matematik belgilar (+, -, x, ÷) yordamida ifodalash bilan tanishtiriladi. Shuningdek, o'qituvchilar darslikdan tashqari qo'shimcha topshiriqlar berishda nazariy materiallar bilan birga amaliy ko'nikmalarni shakllantiruvchi topshiriqlar ham berishi maqsadga muvofiq.

Bu bosqichda masala yechimini topishga yo'natiriladi:

Tushgacha - 30 ta  ?

Tushdan keyin - ?, 13 ta kam 



Masalani 2 xil usulda yechish ko'rsatiladi.

1-usul: $30 - 13 = 17$ $30 + 17 = 47$.

2-usul: $30 + (30 - 13) = 30 + 17 = 47$.

Jami 47 ta qovun sotilgan.

Darslik oxirida “Qo'shimcha topshiriqlar” keltirilgan. Ulardan mavzuni o'zlashtirishda yaxshi natijalarga erishayotgan o'quvchilar bilan ishlashda yoki o'quvchilarni fanga bo'lgan qiziqishlarini oshirishda foydalanish mumkin. Bunda o'quvchilarga asosiy tushunchani mustahkamlagandan so'ng bu topshiriqlar beriladi. Bu topshiriqlarni o'quv yili yoki dars so'ngida, dars jarayonida barcha o'quvchilarga muammo sifatida taqdim etish o'quvchilarda o'ziga bo'lgan ishonchni, do'stona hamkorlikni his qilishiga imkoniyat yaratadi.

Har bir matematik tushuncha uchun qanday topshiriqlardan foydalanish kerakligini aniqlash yoki matematik topshiriqlarni bajarish uchun zarur tayanch tushunchalardan foydalanish muhim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026 yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risi"da 2022-yil 11-may PF-134-sonli Farmoni.
2. N. Ruzikulova vab. q Matematika 1-sinf. Metodik qo'llanma o'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021
3. L. O'rinboyevava b. q. Matematika 1-sinf darslik. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021.

DARS JARAYONIDA INTERFAOL METODLARNING AFZALLIKLARI

Zokirova Shaxlo, Saipova Ziyoda

Sirdaryo viloyat, Guliston tumani 12-umumta'lim maktab,

Sirdaryo viloyati, Guliston tumani 29-umumta'lim maktab o'qituvchilari

Hozirgi vaqtda ta'lim jarayonida o'qitishning zamonaviy metodlari keng qo'llanilmoqda. O'qitishning zamonaviy metodlarini qo'llash o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Bu metodlarni har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq. An'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda uni ta'lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan turli-tuman metodlar bilan boyitish ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasi o'sishiga olib keladi.

Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash borasida katta tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda. Interfaol ta'lim metodlari hozirda eng ko'p tarqalgan va barcha turdagi ta'lim muassasalarida keng qo'llanayotgan metodlardan hisoblanadi.

Interfaol metodlar bu — o'quvchi va o'qituvchi hamda o'quvchilararo birgalikdagi harakatdir. «Interfaol ingliz tilidan kelib chiqqan bo'lib, «interact» so'zidan olingan. «Inter» bu - o'zaro, «act» - harakatdir. Interfaol metodlarda o'qitish o'quvchilardan yuqori faollikni, olingan ma'lumotlarni to'la anglashda ijodiy yondashuv talab etadi. Interfaol o'qitishning asosiy mezonlari bu – norasmiy munozaralarni o'tkazish, o'quv materiallarini yorqin ifodalash, ma'ruzalar sonini kamaytirish, o'quvchilarni tashabbuskorlikka chorlash, jamoaviy izlanuvchanlik talab qiladigan guruhviy vazifalar va yozma ishlarni bajarishdir.

Interfaol usullaridagi darslar o'quvchini ijodiy fikrlashga, olingan axborotlarni faollikda hal etishga, fikrini erkin bayon qilishga, tashabbuskorlikka, guruhlarda masalalar yechimini topishga, hamkorlikda ish yuritishga, fikrni yozma ravishda bayon etishga chorlaydi.

Interfaol metodlarda ish yuritish, an'anaviy usullardan voz kechish degani emas. Balki mazmunni o'zaro faollikda hal eta olish demakdir.

Interfaol metodlarda o'qitishning mohiyati quyidagicha:

- o'rgatuvchi ham o'rganuvchi ham ma'lumotlar bilan faol ishlashi;
- o'quvchilarni mustaqil fikrlashga undashi va o'rgatishi;
- o'qituvchiga «o'quvchilarni fikrlashga o'rgatish uchun» xizmat qilsa, o'quvchilarga esa, «fikrlashni o'rganishlari uchun» xizmat qilishi;

Interfaol usullardan foydalanish shakllari:

1. Individuallashtirish;
2. Kichik guruhlariga ajratish;
3. Tabaqalashtirish;
4. O'rgatish va o'rganish jarayonida demokratik, do'stona muhitni yaratish;
5. O'zaro muloqot, hamkorlikni tashkil etish.

Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta'lim beruvchi tomonidan ta'lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta'lim jarayonida faolligi muttasil rag'batlantirib turilishi, o'quv materialini kichik-kichik bo'laklarga bo'lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, bahs-munozara, muammoli vaziyat, yo'naltiruvchi matn, loyiha, rolli o'yinlar kabi metodlarni qo'llash va ta'lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi.

Interfaol metodlar deganda – ta'lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga

undovchi, ta'lim jarayonining markazida ta'lim oluvchi bo'lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo'llanilganda ta'lim beruvchi ta'lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta'lim oluvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi. Ta'lim oluvchi markazda bo'lgan yondashuvning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- ta'lim samarasi yuqoriroq bo'lgan o'qish-o'rganish;
- ta'lim oluvchining yuqori darajada rag'batlantirilishi;
- ilgari orttirilgan bilimlarning ham e'tiborga olinishi;
- ta'lim jarayoni ta'lim oluvchining maqsad va ehtiyojlariga muvofiqlashtirilishi;
- ta'lim oluvchining tashabbuskorligi va mas'uliyatining qo'llab-quvvatlanishi;
- amalda bajarish orqali o'rganilishi;
- ikki taraflama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi.

Shunday qilib, fanlarni o'qitish jarayonida interfaol metodlardan foydalanish o'ziga xos xususiyatga ega. Ta'lim amaliyotida foydalanilayotgan har bir interfaol metodni sinchiklab o'rganish va amalda qo'llash o'quvchi-yoshlarning fikrlashini kengaytiradi hamda muammoning to'g'ri yechimini topishlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'quvchi yoshlarning ijodkorligini va faolligini oshiradi. Turli xil nazariy va amaliy muammolar interfaol metodlar orqali tahlil etilganda o'quvchi-talabalarning bilim, ko'nikma, malakalari kengayishi va chuqurlashishiga erishiladi.

1. Interfaol metodlar: "Keys-stadi" (yoki "O'quv keyslari"), "Blits-so'rov", "Modellashtirish", "Ijodiy ish", "Muammoli ta'lim".

2. Interfaol ta'lim strategiyalari. "Aqliy hujum", "Bumerang", "Galereya", "Zig-zag", "Zinama-zina", "Muzyorar", "Rotatsiya", "Yumaloqlangan qor" va h. Interfaol ta'lim metodlari tarkibidan interfaol ta'lim strategiyalarini ajratishda guruh ishini tashkil qilishga yondashuv ma'lum ma'noda strategik yondashuvga qiyoslanishiga asoslaniladi. Aslida bu strategiyalar ham ko'proq jihatdan interfaol ta'lim metodlariga tegishli bo'lib, ularning orasida boshqa farqlar yo'q.

3. Interfaol grafik organayzerlar: "Baliq skeleti", "BBB", "Konseptual jadval", "Venn diagrammasi", "T-jadval", "Insert", "Klaster", "Nima uchun?", "Qanday?" va b. Interfaol grafik organayzerlarni ajratishda bunday mashg'ulotlarda asosiy fikrlar turli grafik shakllarda yozma ko'rinishda ifodalanishiga asoslaniladi. Aslida bu grafik organayzerlar bilan ishlash ham ko'proq jihatdan interfaol ta'lim metodlariga tegishli bo'lib, ularning orasida boshqa farqlar yo'q.

"Qarorlar shalarasi" metodi quyidagi shartlar asosida qo'llaniladi:

1. O'qituvchi mashg'ulot boshlanishidan oldin munozara, tahlil uchun mazvuga oid biror muammoni belgilaydi. Guruhlar tomonidan qabul qilingan xulosalarni yozish uchun plakatlar tayyorlaydi.

2. O'qituvchi o'quvchilarni 4 yoki 6 nafar kishidan iborat guruhlariga ajratadi. Muammoning hal etilishi, u borada eng maqbul qarorning qabul qilinishi uchun muayyan vaqt belgilanadi.

3. Qarorni qabul qilinish jarayonida guruhlarning har bir a'zosi tomonidan bildirilayotgan variantlarning maqbullik hamda nomaqbullik darajalari batafsil muhokama qilinadi. Har bir variantning afzallik va noafzallik jihatlari yozib boriladi. Bildirilgan variantlar asosida muammoni ijobiy hal etishga xizmat qiluvchi usul xususida guruh a'zolari bir to'xtamga kelib oladilar.

4. Munozara uchun ajratilgan vaqt nihoyasiga yetgach, har bir guruh a'zolari o'z guruhi qarori borasida axborot beradilar. Zarur hollarda o'qituvchi rahbarligida barcha o'quvchilar bildirilgan xulosa (qaror)larni bir-biri bilan qiyoslaydilar.

Muammo yuzasidan bildirilgan xulosa (qaror)lar borasida savollar tug'ilgudek bo'lsa, ularga javoblar qaytarilib beriladi, noaniqliklarga aniqlik kiritiladi. Agarda barcha guruhlar tomonidan muammo yuzasidan bir xil qarorga kelingan bo'lsa, o'qituvchi buning sababini izohlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ishmuhamedov R. va b.q. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. -T.: 2010.
2. Turg'unboev K, Rizaev A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. —"Andijon nashriyot-matbaa". 2008
3. Yo'ldashev J.G'. Pedagogik texnologiya asoslari.- T.: 2004
4. Tolipov O'. Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbqiqiy asoslari. -T.: 2006

ONA TILI DARSLARIDA TA'LIMIY O'YINLARDAN FOYDALANISH

Rasulova Dilbar Raimkulovna, Xalimova Rajabgul Xoliboyevna

Sirdaryo tumani 14-maktab,
Sayxunobod tumani 34-maktab

Annotatsiya: Bugungi kunda mamlakatimizda ta'lim jarayonlariga, xususan, o'quvchilarning tahsil olishi va ularga ta'lim beruvchi o'qituvchilarni rag'batlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu esa muallimlarga katta mas'uliyat yuklaydi. Ushbu maqola ona tili darslarini samarali tashkil etishda o'yinlardan foydalanishning ahamiyatiga bag'ishlangan.

Abstract: Today in our country a lot of attention is paid to the educational process, in particular, the education of students and the motivation of teachers who teach them. That puts a lot of responsibility on teachers. This article focuses on the importance of using games in the effective organization of mother tongue lessons.

Ta'lim jarayoni, uning rivojlanishi va samarali kechishi ko'p jihatdan o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro ishonchi asosida qurilgan ochiq muloqotiga bog'liq. Dars jarayonidagi o'yinlar esa bu muhitni mustahkamlashda asosiy rol o'ynaydi. O'yinlar guruhlarda ishlab mashq qilishga odatlantiradi va uncha ko'p vaqtini olmaydi. Jamoaviy ishlash davomida o'quvchilar faolligi oshadi va darsga nisbatan diqqat- e'tibori kuchayadi. O'yinlar vositasida o'quvchilarga yangi bilim berish, ko'nikma hosil qilish, kichik guruh a'zolarining ijodiy qobiliyatlarini rag'batlantiradi. O'yinlarni asosan darsning kirish yoki yakuniy qismida o'tkazish maqsadga muvofiq. O'yinlarni maqsadiga binoan 7 turga ajratish mumkin: «So'zdan-so'z top» o'yini. Bu o'yinda bir so'zdan bir necha so'zlar keltirib chiqarish talab qilinadi. Bu o'yin turi o'quvchilarni fikrlashga, izlanishga undaydi, ularda topqirlik qobiliyatini yuzaga chiqaradi. Biz bu o'yinni aynan takrorlamoqchi emasmiz, balki uni ma'lum bir mavzuga bog'liq holda o'tkazish yo'llari xususida fikr yuritmoqchimiz. Berilgan so'z tarkibidagi harflarning turli kombinatsiyasidan foydalanib, bir necha so'zlar hosil qilish mumkin. Demak, bu o'yinni ma'lum bir mavzu bilan bog'liq holda o'tkazsa ham bo'ladi.

Mustaqil, ishtirokida, sayozliklarda. Mustaqil so'zidan qil (qilmoq fe'li, sochning qili), til (tilmoq fe'li, tana a'zosi nomi), ishtirokida so'zidan tor (cholg'u asbobi, sifat turkumiga xos so'z), kir (kirmoq fe'li, sifat turkumiga xos so'z), ot (ism, hayvon nomi, otmoq fe'li), osh (taom nomi, oshmoq fe'li) shakldosh so'zlari keltirib chiqariladi. Zid ma'noli so'zlar mavzusida bu o'yindan qisman foydalanish mumkin. Mavzu yuzasidan mashqlar ishlanib, kerakli tushunchalar berilgandan so'ng o'quvchilarga qarag'ayzorlar, ko'z munchoq so'zlarini berib, antonim so'zlari keltirib chiqarish topshiriladi. Qarag'ayzorlar so'zidan oq-qora, ko'z, munchoq so'zidan och- ko'k so'zlarini hosil qilish mumkin. Bu o'yindan morfologiya bo'limida ham keng foydalanish mumkin. Ot so'z turkumida berilgan so'zlardan atoqli otlar hosil qilish topshirig'i beriladi.

Qolgan so'z turkumlarida ham o'yinni shu tarzda o'tkazish mumkin. Sintaksis bo'limiga xos bilimlarni mustahkamlashda ham o'yindan foydalanish imkoniyati bor. Faqat bu bo'limda «So'zdan-gap» tarzida o'tkaziladi. 5-sinfda «Sodda yig'iq gap», «Sodda yoyiq gap» mavzulari o'rganilganda, shu o'yindan foydalanish mumkin. Buning uchun o'quvchilarga bilimdonlarimizga so'zi beriladi va undan sodda gaplar keltirib chiqarish topshiriladi. O'quvchilar quyidagicha sodda yig'iq gap va sodda yoyiq gaplar tuzishim mumkin: Nodir oldi. Ona bo'ldi. Ona Rimga bordi. Bolalar Lolani izladi va hokazo.

Umuman olganda. «So'zdan-so'z» o'yini qiziqarli o'yinlardan bo'lib, undan qay darajada foydalanish o'qituvchining mahorati va o'quvchi tafakkuriga bog'liq. «So'zdan so'z top» o'yini. Bu o'yin o'quvchilarni sezgir, zukko va topqir bo'lishga odatlantiradi. O'yinda ishtirok etish uchun o'quvchi mavzuni yaxshi o'zlashtirgan bo'lishi lozim, aks holda, o'yindan chiqib qoladi. Ana shuni o'quvchi his qila borsa, unda ilmga qiziqish ham orta boradi. Mazkur o'yindan tilning barcha sathlarini o'rganishda foydalanish mumkin. Jumladan, leksikologiya bo'limida ma'nodosh so'zlar mavzusi yuzasidan o'tkaziladigan mustahkamlash daqiqalarida shu o'yinni qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'yin quyidagi tartibda o'tkaziladi. O'qituvchi bir necha ma'nodosh so'zlar guruhini tanlaydi.

Masalan, yuz, bet, aft, bashara, chehra; quyosh, kun, oftob; avval, ilgari, oldin, burun; ataylab, atay, jo'rttaga, maxsus. Bu so'zlar alohida-alohida qog'ozlarga yoziladi va stol ustiga qo'yiladi. Bulardan bosh so'zlar ajratib olinadi va 4 ta o'quvchiga beriladi.

Demak, to'rtta o'quvchi bosh so'z yozilgan qog'ozni ushlab to'rt joyga turadi. Qolgan so'zlar aralashtirilib qo'yiladi. Sinf o'quvchilari ham to'rt guruhga bo'linadi va har bir guruhga bitta bosh so'z biriktiriladi. Masalan, 1-guruh o'quvchilariga yuz so'zining, 2-guruhga avval so'zining, 3-guruhga quyosh so'zining, 4-guruhga ataylab so'zining ma'nodoshlarini topshp topshiriladi. 1-guruh o'quvchilari navbat bilan chiqib, aralashxoldagi so'zlar ichidan bst, aft, bashara, chehra so'zlarini topib yuz so'zi yozilgan qog'ozni ushlab to'rgan o'quvchi yonidan, ya'ni «Bosh so'z» yonidan o'rin oladilar. Qolgan guruh a'zolari ham o'yinni shu tarzda davom ettiradilar, ya'ni o'z o'rnini topadilar.

O'qituvchi guruhlarining topqirlikni qanday bajarganliklarini tekshiradi, o'z o'rinlarini to'g'ri topgan guruhlariga to'liq ball, o'rin topishda adashgan guruhlariga esa pastroq ball qo'yiladi. O'yinni biroz murakkablashtirish ham mumkin. Buning uchun ma'nodosh so'zlar ichiga ma'nodoshlik qatoriga mansub bo'lmagan so'zlar ham aralashtirib yuborilsa, o'quvchilarning kerakli so'zni topib olishi qisman murakkablashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kurbanov Sh.Ye, Seytxalilov Ye. A. "Ta'lim sifatini boshqarish" – T.: Sharq, 2006.-592 bet
2. Xasanov J., Saribaev H., Niyozov G., Hasanbaeva O., Usmonboeva M. "Pedagogika fanidan izohli lug'at" – T.: Fan va texnika

ONA TILI VA O'QISH DARSLARIDA TARQATMA MATERIALLARDAN FOYDALANISH METODIKASI

Eshonqulov Yaxyo Baxodirovich., Kenjayeva Gulnora Alimjonova

Sardoba tumani 3-maktab,

Hovos tumani 14-maktab.

Ta'lim jarayonidagi ilg'or pedagogik texnologiyalarni faol qo'llash, ta'lim samaradorligini oshirish, tahlil qilish va amaliyotga joriy etish bugungi kunning dolzarb mavzularidan biridir. O'quvchilarni fikr doirasini, dunyoqarashini o'stirish, ularni erkin tinglovchidan, erkin ishtirokchiga aylantirmoq nihoyatda muhim. O'qituvchi darsda boshqaruvchi, o'quvchilar esa ishtirokchiga aylanmog'i lozim. Ana shu vaziyatni uddalashda innovatsiya faoliyati ko'p qirrali samara keltiradi. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mas'uliyatlari cheksizdir. Bugungi yangilanish, ma'naviy yuksalish davrida har tomonlama yetuk, bilimdon, ijodkor yoshlarni tarbiyalash hozirgi kunning asosiy talablaridan biridir. Bunday mas'uliyatli va sharaflil vazifalarni hal etishda boshlang'ich sinf o'qituvchisining o'rni va xizmati kattadir. Maktabda bolalarni o'qishga o'rgatishdan maqsad og'zaki nutq yuzasidan o'quvchilarda mustahkam bilim hosil qilish, ishlab chiqarishning, hayotning hamma sohalarida faol ijodiy faoliyat ko'rsata oladigan savodli va madaniyatli kishilarni tarbiyalab yetishtirishdir.

Umumiy ta'lim maktablarining asosiy vazifalaridan biri, yosh avlodga fan asoslaridan chuqur va mustahkam bilim berish, ularni amalda qo'llash malakalarini hosil qilishdir. Boshlang'ich ta'limda ona tili fani:

- bolani mantiqiy fikrlashga;
- bolalarda tilning kommunikativ (aloqa-aralashuvga xizmat qilishi) vazifasini;
- o'z fikrini mantiqiy izchillikda bayon qilish, o'z g'alar nutqini eshitish orqali anglay olishlarini;
- ularda o'quvchilarni to'g'ri talaffuzga, til ma'nolarini to'g'ri anglashlariga, ham og'zaki, ham yozma nutqlarining savodli bo'lishiga, matndan to'g'ri nusxa ko'chirib yozish, eshitib va yoddan yozishga ;

- tarqatma materiallardan samarali foydalanishga o'rgatadi.

Ikkinchi sinfda ona tilini o'qitish o'quvchilarning lug'at boyligini oshirish, og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish (ya'ni to'g'ri o'qish va yozish)ga, fonetika, leksika, so'z yasalishi, grammatikaga oid bilimlarni o'rganish uchun zamin yaratishga xizmat qilmog'i lozim. Ona tili

darslarida o'quvchilar "Tovushlar va harflar", "Bo'g'in" "So'z ma'nosi", ("Shaxs va narsani bildirgan so'zlar", "Belgini bildirgan so'zlar", "Harakatni bildirgan so'zlar", "Sanoq va tartibni bildirgan so'zlar") "Nutq va gap" kabi bo'limlar asosida tilga oid elementar bilimlarni egallaydilar. Bunda, asosan, grammatik tushunchalarni amaliy o'rgatishga e'tibor qaratilgan. O'quvchi mashq matnini o'qish va yozish jarayonida grammatik tushuncha va qoidalarini amaliy bajarib boradi va keyingi sinflarda bu qoida va tushunchalarni nazariy o'rganishga zamin yaratadi. Asosiy diqqat bolaning nutqi va lug'at boyligini oshirish, imlo savodxonligini tarkib toptirish, ya'ni to'g'ri o'qish va yozish ko'nikmasini shakllantirish, ona tili darslarini samarali tashkillashtirishga qaratiladi. Shuningdek, ona tili darslarida o'quvchilarning chiroyli yozuviga e'tibor qaratish muhim ahamiyatga ega.

Innovatsion usulda tashkil etilgan bunday darslarda, o'quvchilar avval grafik shakli talaffuziga mos bo'lgan so'zlarni yozishni bilib oladilar. So'zlarni harflarni tushurib qoldirmay yoki o'rnini almashtirmay yozishga o'rgatish tilni o'qitishda muhim vazifa hisoblanadi. Fonetik bilim va ko'nikma grafik ko'nikma uchun asos bo'ladi. Shuning uchun yozuv malakasini shakllantirishda fonetik material amaliy yo'nalishda o'rgatiladi. Shularni hisobga olib darslikda ko'p mashqlar:

- 1) so'z yoki gap yozishga tayyorlash (e'tibor bilan o'qish aniq talaffuz qilish);
- 2) izohlab yozish;
- 3) darslikdan tekshirish kabi bosqichlarni o'z ichiga oladi.

O'quvchilarni xatboshini idrok qilishga, xatboshidan yoza olishga o'rgatish, ona tili darslarini birinchi kunidayoq bu ko'nikmani mustahkamlab borish talab qilinadi. O'quvchilar bilimini nazorat qilish maqsadida ta'limiy, keyinroq o'quvchilar saviyasiga mos tekshirish dektantlari o'tkazish maqsadga muvofiqdir.

2-sinf ona tili va o'qish darslarida tarqatma materiallardan foydalanishdan asosiy maqsad o'quvchilarni bilimlar olamiga olib kirish, so'z seyrining jilolaridan bahramand etish hamda, nutqiy malakalar ustida ishlash o'qitishning asosiy yo'nalishini tashkil etadi. 2-sinf ona tili va o'qish darslarida tarqatma materiallardan foydalanishda topshiriqlarning sharti amaliy maqsadlarni ko'zlashi kerak. Tarqatma materiallar o'quvchilar nutqini o'stirish yoki ularda sinchkovlik, kuzatuvchanlikni rivojlantirishga xizmat qilmog'i kerak. Tarqatma materiallar o'tilgan mavzularni takrorlash, mustahkamlash, olingan bilimlarni sistemalashtirish maqsadida ishlatiladi. Kartochkalarni tarqatishdan avval o'quvchilar o'qituvchi bilan birgalikda darslikda berilgan mashqlarni bajarib, mashqlar shartini tushunishi, bajarilish tartibini va yo'llarini o'rganishga qaratilishi lozim. Tarqatma materiallar bilan ishlashda o'qituvchi har bir o'quvchining individual bilim darajasini, bilimlarni o'zlashtirish darajasini, ularning har bir mavzu yuzasidan o'zlashtirgan bilim darajalarini alohida tarzda qayd qilib borish imkoniyatiga ega bo'lishi, bundan tashqari, tarqatma materiallardan foydalanishda bo'sh o'zlashtiradigan o'quvchilar bilan alohida ishlash, o'quvchilarning mustaqil ishlarini izchil ravishda murakkablashtirib borish imkoniyatini e'tiborga olishi kerak. Tarqatma materiallardan o'z o'rnida va to'g'ri foydalanish o'qituvchiga qisqa muddat davomida yuksak natijalarga erishishga yordam beradi. O'quvchilarda bilim olish bilan birgalikda mustaqillik, ijodkorlik, o'z-o'zini tekshirish, o'z kuchiga ishonch, har bir topshiriqni hal etishga mas'ullik va ijodkorlik bilan ongli yondashish kabi xislatlarni shakllantirishga xizmat qilishi lozim. 2-sinf ona tili va o'qish darslarida tarqatma materiallardan foydalanish orqali o'quvchilarni keng fikrlovchi shaxs sifatida tarbiyalash, ijodiy fikr sohibi, kreativlik darajasiga yetishtirmoqdan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M. E. Musayeva, G. T. Boymurodova, A. K. Otaboyev. D. T. Po'latova, M. J. Abdullayeva, "Ta'lim jarayonida qo'llaniladigan interfaol metodlar", T. :
2. Boshlang'ich ta'lim bo'yicha Yangi tahrirdagi davlat ta'lim standarti
3. R.Yo'ldoshev, R. Xusainova, U. Bobojonov "Ta'limning interfaol metodlari", Urganch-2011.

TILLARNI O'RGANISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING O'RNI

Izzatullayeva Nigora Joraxanovna, Gamilov Abdulhay Abdulaxat o'g'li, Urazaliyev Begjon
Muxammadali o'g'li

Toshkent davlat transport universiteti o'qituvchisi
Toshkent davlat transport universiteti 1-bosqich talabalari

Annotatsiya: Ushbu maqolada talabalarning internet imkoniyatlaridan foydalanish ko'nikmasiga ega bo'lishi jarayonida ularda muloqot kompetensiyasini rivojlantirish haqidagi fikrlar bayon qilingan.

Kalit so'zlar: mustaqil fikr, dunyoqarash, zamonaviy bilim, tafakkur, ona tili, chet tili, kompyuter tizimi.

Annotation: This article discusses ideas for developing communication skills in the process of helping students gain access to the Internet.

Keywords: independent thinking, worldview, modern knowledge, thinking, mother tongue, foreign language, computer system.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan barcha islohatlarning diqqat markazida yoshlar turadi. Yurtboshimizning "Bolalar va yoshlarga maxsus fanlar, mamlakatimiz va jahon sivilizatsiyasi tarixini, xorijiy tillarni va zamonaviy komp'yuter dasturlarini chuqur o'rgatish vazifalari hali sifatli va to'liq holda yechilgani yo'q" – degan fikrlari ayni damda aytilgan. Aynan shuning uchun ham barkamol avlodni tarbiyalash, ta'lim berish davlatimiz oldidagi eng asosiy vazifalar biridir. Yoshlarni mustaqil fikr va dunyoqarash, zamonaviy bilim va tafakkur va eng asosiysi, o'z ona tilisi va chet tillarida to'g'ri va ravon so'zlashishni o'rgatish har bir pedagog uchun asosiy vazifa sanaladi. Xususan, bilim olishda, ya'ni ma'lum turdagi axborotlarni o'zlashtirishda kompyuter tizimining yordami benihoya kattadir.

Avvalombor, xorijiy tillarni o'rgatish ta'lim jarayonini bir tizimga solib loyihalashtirish va rejalashtirishni, buning uchun zarur bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lgan mutaxassislarni tayyorlashni taqozo etadi. Binobarin, bu jarayonda chet tili o'qituvchisi talabalarga ta'lim jarayonida qo'llaniladigan komp'yuter - axborot texnologiyalari tizimiga xos quyidagi vazifalarni amalga oshirishi talab qilinadi:

- ta'lim jarayonida samarali - zamonaviy komp'yuter texnologiyalaridan o'z o'rnida foydalanishga xos qoida va usullarni ishlab chiqishi;
- ularga ta'lim texnologiyalarining konseptual asoslari - zamonaviy pedagogik va psixologik fanlarda ishlab chiqilgan ilg'or g'oyalarni singdirish;
- bo'lajak mutaxassislarni tashkil qilinadigan o'quv jarayonining maqsadini belgilashni o'rgatish;
- ta'lim jarayonida qo'llaniladigan komp'yuter - axborot texnologiyalaridan foydalanish natijalarini nazorat qilish va baholash haqida tushuncha, ko'nikma va malakalarni shakllantirishni taqozo etadi.

Tajriba uchun o'tkazilgan darslar shundan dalolat beradiki, talabalar internet imkoniyatlaridan juda yaxshi foydalana oldi. Shuning uchun ham biz guruhli ish usulidan foydalandik. Guruhdagi 15 nafar talabalardan 10-12 nafari internet tarmog'ida bemalol ishlash imkoniyati va ko'nikmasiga ega ekan. Albatta, bundan ko'zlangan maqsad talabalarda muloqot kompetensiyasini rivojlantirishdir. "Kompetensiya" – lotincha "competere" so'zidan olingan bo'lib, "mos kelish", "ko'zlangan natijalarga erishish uchun bilim, ko'nikma va malakalarni qo'llay olish qobiliyati namoyon eta olish"² demakdir. Ya'ni chet tilining barcha tovushlarini aniq talaffuz qila oladi, so'z va gap urg'usidan to'g'ri foydalana oladi, so'z yasashning turli yo'llarini farqlay oladi (qo'shma so'zlar, prefikslar va suffikslar), so'z birikmalari va qo'shma gaplarni «ammo», «va», «chunki» kabi sodda bog'lovchilar bilan bog'lay oladi, fe'l shakllari va sodda payt ravishlaridan foydalangan holda bayon qila oladi va hikoyalarni gapirib berishda voqealarni to'g'ri ketma-ketlikda ifodalay oladi.

Yangi pedagogik texnologiyalarni xorijiy tillarni o'qitish metodikasi jarayoniga tatbiq qilishdan asosiy maqsad - mavjud sharoitda va o'quv rejasida berilgan vaqtda rejalashtirilgan natijaga erishishning kafolatini ta'minlash, bu orqali ta'lim samaradorligining oshishiga erishish, chet tili

o'qituvchilarining ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan qurollangan yangi avlodini shakllantirish, provard natijada respublikamizning bo'lajak fuqorolarini xorijiy tillarda erkin gapira oladigan, xorijiy adabiyotlarni o'qib tushuna oladigan mutaxassislariga aylantirishdir.

Axborot texnologiyalari, ayniqsa, Internet talabalarni intellektual jihatdan rivojlantirib, tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini mustahkamlaydi. Bu borada zamonaviy komp'yuter texnologiyalari va ayniqsa, internet tizimi bizdan ancha ilgari ketganini ham inobatga olish zarur. Internet yordamida ularga muayyan miqdordagi qo'shimcha materiallarni taqdim etish imkoniyati mavjud. Shu narsa alohida ahamiyatga egaki, o'quv jarayonida talabalarning internet texnologiyalaridan foydalanishlari o'qituvchi tomonidan to'la nazorat etilishi kerak. Mazkur jarayonda talabalarga quyidagi talablar qo'yiladi:

- Kompyuter savodxonligi va Internet-texnologiyalaridan foydalanishga oid bilimlarga ega bo'lish.

- Talabalarning zarur materiallarni izlash va tahlil qilishga oid faoliyatlarini tashkil etish.

- Talabalarning Internetda ishlash bosqichlarini nazorat qilish va uning sifatini baholash kabi.

Talabalarni o'zlari Internet materiallaridan foydalangan holda berilgan matnlarni tahlil qilib o'rganish jarayonida matn mazmuniga xos, munozarali - tanqidiy yondashish taqdimotini amalga oshirishlari, o'qituvchi esa matn mazmunini- xarakterini ochish uchun zarur bo'lgan materiallarni tanlab, slaydlardan foydalangan holda o'z taqdimotini tayyorlashi va uni himoya qilish haqida topshiriq berishi mumkin.

Bugungi kunda xorijiy tilda muloqotni o'rgatishda Internet texnologiyalaridan foydalanish tizimi talabalarga mashg'ulotlarda zarur ma'lumotlarni izlab topishning qulay usullari va vositalarini aniqlash, avvalgi bilimlarni mustahkamlash, yangi bilimlarni mustaqil o'zlashtirish ko'nikmalariga ega bo'lish, axborot manbalari va manzillaridan samarali foydalanish, an'anaviy o'quv va ilmiy adabiyotlar, me'yoriy hujjatlar bilan ishlash, elektron o'quv adabiyotlar va ma'lumotlar banki bilan ishlash uchun imkoniyat yaratadi. Shu asosda o'quvchilarning xayollarini yanada jonlantirish, tafakkur xislatlarini rivojlantirish hamda dars jarayonida o'z-o'zlarini namoyon qilishlari uchun sharoitlar yaratiladi.

Ba'zi hollarda xorijiy tillarni o'rgatish jarayonida kichik matnning muayyan qismi tahlili amalga oshirilayotganda Internet imkoniyatidan foydalanish maqsadga muvofiq. Ya'ni so'zlarning o'z va ko'chma, lug'aviy va izohli ma'nolari, iboralar, so'z birikmalarining tavsiflovchi o'rinlarni belgilashda ham Internet imkoniyatidan samarali foydalanish mumkin. Shu bilan bir qatorda, Internet saydlarida joylashtirilgan lug'atlar talabalarning so'z boyligini oshirib, istalgan paytda ularning ma'nolarini izlab topishlari uchun qulaydir. e-mail lar ham shunday maqsadga xizmat qilishi mumkin. Pochta orqali mavzu yuzasidan fikrlashish, ayrim so'zlar ma'nolari ustida ishlash bir qadar istiqbolli jarayon hisoblanadi. Elektron jo'natmalarning keng imkoniyatlarga egaligi kursdoshlarning so'zlarning xotirada uzoq muddat muhrlanib qolishiga imkoniyat yaratadi. Xullas, dars jarayonlarida Internet texnologiyalaridan foydalanish uchun o'qituvchi va talabalar kompyuter imkoniyatlaridan samarali foydalana olishni o'rganishlari shart va zarurligi talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Sh.Mirziyoev.Tanqidiy tahlil,qat'iy tartib-intizom, va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak.Toshkent - "O'zbekiston", 2017 yil, 45 - 47betlar.

2.Е.И.Пассов. Основы коммуникативной методики. Обучения иноязычному общению. Москва."Русский язык" 1989г.

3.Р.П.Мильруд.Компетентностный подход в обучении иностранным языкам. Россия.2004г.

O'QUVCHILARDA MUSTAQIL FIKRLASH ELEMENTLARINI SHAKLLANTIRISH

Mirzayeva Aziza Abdumutalovna, Muratova Xamida Nazarovna

Sirdaryo tumani 2-maktab

Guliston shahar 15-maktab

Bugungi kunda yoshlarni komil inson qilib tarbiyalashda barcha bir xil ma'sul hisoblanadi,

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 23 sentabrdagi yangi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi "Umumiy o'rta ta'lim va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 187-son qarorida asoslab berilgan

Insonni inson tomonidan idrok qilish, ya'ni notanish shaxsning ruhiy holatini aniqlash, uni taxmin qilish, eng zarur alomatlari va belgilari to'g'risida materiallar to'plash ham ijodiy fikrlashning mahsulidir. Mazkur murakkab bosqichdan iborat bilish jarayoni insondan irodaviy zo'r berishni, aqliy jiddiylikni, ongli munosabatni, barqaror vaziyatni, qulay shart-sharoitlarni talab qiladi, bularning bevosita ta'siri orqali ma'lum bir qarorga kelinadi.

O'quvchi mustaqil fikr yuritish faoliyatida o'zi aks ettirgan, sezgan, idrok qilgan, tasavvur etgan, eslab qolgan narsa va hodisalarning to'g'riligi, haqiqiyliigi yoki ularning voqelikka mos tushishi va tushunmasligini aniqlaydi.

O'quvchining fikrlash faoliyati ijtimoiy xususiyatga ega. Fikrlashning ijtimoiy tarixiy taraqqiyoti davrida dastavval ovqatlanish uchun ozuqa izlash, keyinchalik esa mehnat qurolini yasash va ulardan o'z o'rnida foydalanish kezida shaxslararo fikr almashish, tajriba bilan o'rtoqlashish ehtiyoji vujudga kelgan. Insonning o'zaro muloqotga kirishishi, muomala qilishi, munosabat o'rnatishi natijasida fikr bildirish, so'zlashuv uquvi yuzaga kela boshlagan.

Nutqning sharofati bilan fikrlash maxsullarining izchilligi, mantiqiyliigi, tizimliliigi paydo bo'lgan, kelajak avlod uchun ma'naviy meros tariqasida qoldirish imkoniyati tug'ilgan. Insoniyat tomonidan to'plangan tizimlashtirilgan tajribalar, bilimlar, ko'nikma va malakalar qoldirilmaganida, odamzodning fikr yuritishi fan, texnika, madaniyat sohalarida bunday ulkan yutuqlarga erisha olmasdi.

O'quvchining taxliliy fikrlash qobiliyatlarini sakllantirishi natijasida mustaqil tafakkurning rivojlanishi kuzatiladi. Shu sababli mustaqil bilim olishni tashkil qilishda o'quvchilarning ijodiyliigini rivojlantirishda tafakkur sifatlaridan tezlik, egiluvchanlik, o'ziga xoslik, sezuvchanlik va boshqalardan foydalanish mumkin.

O'quvchida mustaqil fikr yuritish muammoli vaziyat vujudga kelishidan boshlanadi, lekin mazkur vaziyat tug'ilishi, yechimi bu bilan tugallanmaydi. O'quvchida bilishga nisbatan moyillik, ixtiyorsiz xatti-harakat muammoli vaziyatgacha yorqin bo'lmaydi, u noaniq holda yuzaga keladi, so'ngra bu ma'noda yechimga muhtoj muammoli vaziyat yaraladi va nihoyat uning yechimi topilsa, lekin bilishning muammodan keying bosqichi fikrning o'z yo'nalishida ixtiyorsiz davom etaveradi.

O'quvchining mustaqil fikr yuritishi quyidagi bosqichlardan tashkil topgan bo'lishi mumkin:

1. Muammoning o'quvchi idrok maydonida paydo bo'lishi.
2. O'quvchi tomonidan masala, muammo, topshiriq mohiyatini anglash.
3. Ularga o'xshash ma'lumotlar yoki obrazlarning vujudga kelishi.
4. Tasavvur va xotira materiallarining kamayishi, taxminlar (farazlar)ning uzluksiz tug'ilishi
5. Taxminlarni bosqichma-bosqich tekshirish yoki ularning haqqoniyliigini tasdiqlash.
6. Yangi taxminning yuzaga kelishi va takomillashuvi.
7. Farazlarni ikkilamchi tekshirish (ikkinchi marta tasdiqlash).

Mustaqil fikr yuritish o'zining samaradorliigi, dolzarbliigi, universalligi bilan kasbiy tayorgarlik mahorat sari o'quvchilarni yetaklaydi, jamiyat va tabiat hodisalarini anglash uchun puxta negiz hozirlaydi.

Fikr yuritishning mustaqilligi deganda, o'quvchining shaxsiy tashabbusi bilan uning o'z oldiga aniq maqsad, yangi vazifalar qo'ya bilishi, ular yuzasidan amaliy va nazariy, hususiyatli faraz qilishi, kutilayotgan natijani ko'z oldiga keltira olishi, qo'yilgan muammoni hech kimning ko'magisiz, ko'rsatmasisiz, o'zining aqliy izlanishi tufayli, turli yo'l, usul, vosita topib mustaqil ravishda hal qilishdan iborat aqliy qobiliyatni tushunish joiz.

Fikr yuritishning mustaqilligi, aqlning sertashabbusligida, pishiqliigi va tanqidiyligida namoyon bo'ladi. Aqlning sertashabbusliigi deganda, o'quvchi o'z oldiga yangi muammoni aniq maqsad, yaqqol vazifa qo'yishini, ana shularning barchasini amalga oshirishda nihoyasiga yetkazishga,

yechimni qidirishda usul va vositalarni shaxsan o'zi izlashi, aqliy zo'r berib intilishi, ularga taalluqli qo'shimcha belgi va alomatlarini kiritishdan iborat bosqichlarning namoyon bo'lishi nazarda tutiladi.

O'quvchi fikr yuritishning mustaqilligi uning mahsuldorligi bilan uzviy bog'liq tarzda kechadi. Agar o'quvchi tomonidan muayyan vaqt ichida ma'lum soha uchun qimmatli va yangi fikrlar, g'oyalar, tavsiyanomalar bildirilgan hamda nazariy va amaliy vazifalar hal qilingan bo'lsa, bunday insonning fikr yuritishi sermahsul deyiladi. O'quvchi oddiy narsalar to'g'risida fikr yuritganda ham ularning tashqi belgilari bilan chegaralanib qolmaydi, balki hodisalar mohiyatini ochishga intiladi, oddiy turmush haqiqatidan umumiy ijtimoiy qonuniyat yaratishga harakat qiladi.

SHubhasiz o'quvchining mustaqil fikrlashi hali izlanmagan to'la foydalanilmagan imkoniyatlarga ega bo'lib, ularni to'la ochish fan va texnika taraqqiyotini jadallashtirish maqsadiga xizmat qiladi.

Komil inson bo'lib kamol topishni ezgu niyat qilgan bo'lg'usi mutaxassis ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan ma'naviyat va qadriyatlar egallash uchun hamda kelajak rivojini ta'minlash uchun o'quvchilarda mustaqil fikrlashni, ijodiy izlanishni, aqliy faoliyat usullarini shakllantirish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Azizxo'jayeva N. N. O'qituvchi mutaxassisligiga tayyorlash – T: Nizomiy nomli TDPU, 2000
2. S.T.Turg'unov va boshqalar O'qituvchilarning kasbiy mahorat kompetentligini rivojlantirish "Sano standart" - T: 2012

TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

*Qayumova Muazzam, Mamajonova Zulxumor
Oqoltin tumani 5-maktab Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilar*

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev boshchiligida 19 mart kuni yoshlarga e'tiborni kuchaytirish, yosh avlodni madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ularda axborot texnologiyalaridan to'g'ri foydalanish ko'nikmasini shakllantirish, yoshlar o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish haqida to'xtalib o'tdi. Ta'limda bilim darajasini shakllantirish, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda olib boorish muhim vazifalardan biridir. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2002 yil 6 iyulda qabul qilingan "Kompiyutirlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot kommunikatsion texnologiyalarni joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori axborotlashtirishning milliy tizimini shakllantirish, barcha soxalarda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish va undan foydalanish jahon axborot resurslaridan bahramand bo'lishni kengaytirishga zamin yaratadi.

Zamonaviy texnologiyalarning rivojlanish holati birinchi navbatda jamiyatning intellektual salohiyatiga, jumladan, ta'lim sohasining rivojlanishiga bog'liq. Ta'limning mazmuni va sifati masalalari jamiyatda ustivor yo'nalish sifatida qaralmoqda. Dunyoning rivojlangan va rivolanayotgan mamlakatlarida ta'limni axborotlashtirishga aloxida e'tibor qaratib kelinayabdi.

Zamonaviy axborot texnologiyalari, o'quv-tarbiya jarayonlarining barcha bosqichlarini jadallashtiradi. Bunda axborot texnologiyalarida foydalanish asosida ta'lim sifati va samaradorligini ortishi o'quvchilarning bilish faoliyati oshadi, fanlararo aloqalarini chuqurlashganini kuzatish mumkin. Axborot texnologiyalarini joriy etish orqali ta'lim sifati va samaradorlikka erishiladigan metodik maqsadlarga:

- o'qitish jarayonini individuallashtirish va diferensiyalash,
- o'z-o'zini nazorat qilish
- o'quv materialini o'zlashtirish jarayonida mashq qilish va mustaqil o'zlashtirishni tashkil etish
- o'quv vaqtini tejash
- o'quv axborotlarini kompiyuter orqali vizuallashtirish
- o'rganilayotgan hodisa va jarayonlarni moderlashtirish
- kompiyuterda laboratoriya mashg'ulotlarini bajarish

- o'qishga qiziqishni ortirish
- optimal qaror qabul qilish malakasini shakllantirish
- o'quvchida axborot madaniyatini shakllantirishni kiritish mumkin

Axborot texnologiyalari, zamonaviy texnologiyalar innovatsion texnologiyalarni dars jarayonida va darsdan tashqarida qo'llash dars samarasini yanada oshiradi.

Zamonaviy o'qituvchi ta'lim – tarbiya jarayonida innovatsion usullardan foydalana bilishi va amalga oshira olishi lozim.

Bu jarayonda o'qituvchiga qo'yiladigan talablar:

- innovatsion texnologiya tushunchasini, uning mazmun mohiyatini bilishi;
- innovatsion texnologiyalarning ta'lim maqsadini amalga oshirishdagi o'rni va rolini bilishi;
- innovatsion texnologiyalarni fanlar bo'yicha qo'llash printsiplarini bilishi;
- ta'limiy va ishchanlik o'yinlarini bilishi;
- muammoli rivojlantiruvchi ta'lim metodlarini bilishi;
- o'quvchilarning mustaqil faoliyatlarini tashkil qilish va ta'minlash yo'llarini bilishi;
- o'quvchilarning o'z ustida mustaqil ishlash maxoratini oshirish usullarini egallashi;
- ko'rgazmali o'qitish usullarini bilishi va egallashi;
- ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llab, na'munaviy imitatsiya o'quv mashg'ulotlarini o'tishi;

- ta'lim-tarbiyaning faollashtiruvchi usullarini bilishi va egallashi kerak.

- uni amalga oshirishda asosan interaktiv metodlardan to'liq foydalana olishi lozim. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va o'quvchi faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritishdir

Interaktiv (ingl. Interaction-o'zaro ta'sir) metodlar - bu jamoa bo'lib fikrlash deb yuritiladi, ya'ni pedagogik ta'sir etish usullari bo'lib ta'lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o'quvchilarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi.

Zamonaviy insonning o'qish jarayoni faqat, bog'cha maktab, litsey yoki kollej, oily o'quv yurti bilan tugamaydi. Inson butun umr davomida ta'lim olishi zarur yani ta'lim uzluksiz bo'lishi kerak. Texnologiyalarni amalda qo'llay olishga yo'naltirilmoqda. Darslarda:

- elektron darslik
- multimediya tizimlari
- avtomatik loyihalash
- elektron aloqa
- ovozli elektron aloqa
- elektron doska
- interaktiv doska
- internet tarmoqlari va texnologik vositalar orqali bilimlari boyitib borilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1.X.A. Abdullaev, F.Yu. Xamalova. Yosh o'qituvchilar kasbiy bilim va maxoratlarini oshirishning ijtimoiy-pedagogik muammolari. F. 2008

2. Pedagogik ustaxona" yosh o'qituvchilarga metodik yordam. "Ma'rifat" 2007 yil 11 iyul.

3. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. Toshkent 2008.

4. Fayzullaeva n. Pedagogik bilimlar – o'qituvchi kasbiy mahoratining nazariy asosi // uzluksiz ta'lim j. – T.: 2006. 6-son.

ALIFBE DAVRLARIDA YOZUV DARSLARINI TASHKIL ETISH

Daniyarova Barno, Eshonqulova Hafiza Abdullayevna

Oqoltin 17- IDUM.

Sardoba tumani. 3- maktab.

O'quvchilar alifbega tayyorgarlik davrida ayrim mashqlarni bajarga bo'lishlariga qaramay

o'qituvchi navbatdagi darsni e'lon qilishi bilan birga yozuv qurollarini qayta tekshirib chiqishi hamda quyidagi vazifalarni bajarishni maqsad qilib qo'yishi lozim:

1. Barmoq va qo'l muskullarining harakatini o'stiruvchi jismoniy mashqlarni o'tkazish.
2. Doskaga mashqni yozib ko'rsatish va asosiy diqqatni qayerga jalb etishni tushuntirish. (ayrim o'quvchilar harfni qanday yozishni aytib berishlari mumkin).
3. Yozuv daftaridan foydalanish va yozishni qayerdan boshlashni tushuntirish.
4. Partada to'g'ri o'tirish, ruchkani to'g'ri tutish qoidalarini eslatib o'tish.
5. Har bir qatorga nechta harf yozishni tushuntirish, o'quvchilarning yozuvini muntazam kuzatib borish.
6. Ishning birinchi qism: tugagandan so'ng (o'qituvchining savoliga qarab) o'quvchilarning yozuvlarini doskada namuna bilan solishtirib, yo'l qo'ygan xatolarni topishga o'rgatish.
7. Topshiriqni qayta tushuntirish orqali o'quvchilardagi kamchiliklarni yo'qotish.
8. Jismoniy mashq daqiqalarini o'tkazish.
9. Ko'z bilan daftar orasidagi masofani tog'ri saqlashga o'rgatish.
10. Har bir mashqni bajarishda ko'rsatmalar berish.

Yuqorida ko'rsatilgan talablarni o'qituvchi doim amalda qo'llashi lozim. Shu bilan bir qatorda bu davrda o'quvchilarni asta-sekin yozuv daftaridan tog'ri foydalanishga o'rgatib borish zarur. O'qituvchining ko'rsatmasiga binoan, o'quvchi daftardan zarur mashqni topishi va bajarilishi lozim. Alifbegacha bo'lgan davrdan boshlab harf va uning elementlarini bir xil balandlikda qiyalikda va qalinlikda yozishga qaratiladi.

Alifbegacha bo'lgan davrda bu talablarni amalga oshirilishi alifbe davrida darsni yanada samaraliroq olib borish uchun imkoniyat yaratadi.

Alifbe davrida o'quvchilar nutq tovushlari bilan amaliy tanishadilar, so'z tuzishga, so'z va gaplarni o'qishga hamda ayrim elementlar, harflar ishtirokida so'z va gaplarni yozishga o'rgatish juda muhimdir.

Bu davrda o'quvchilarga harf va uning elementlari alifbe kitobida ko'rsatilgan tartibda o'rgatiladi.

O'quvchilarga vaqti-vaqti bilan yozuv gigiyenasi qoidalarini eslatib turish lozim, chunki ayrim o'quvchilar yozuv bilan mashg'ul bo'lib, yozuv gigiyenasi qoidalarini unutib qo'yadilar.

Alifbe davrida bajariladigan asosiy grafik ishlar quyidagilardan iborat bo'lishi kerak:

1. Kichik va bosh harflarning alifbe tartibida yozish
2. Bo'g'in va so'zlarda harfarni qo'shib yozish.
3. Qo'l harakatini uzmay yozishga tayyorlash
4. Harflarning qiyaligini va enini to'g'ri saqlashga o'rgatish.

O'qituvchilar ayrim harflarning elementini noto'g'ri yozayotgan o'quvchilarga shu elementning to'g'ri yozilishini amalda ko'rsatib berishi lozim. Bu davrda o'quvchilarda harflarni to'liq yozmaslik yoki almashtirib yozish kabi xatolarni aniqlash mumkin. Alifbe davrida o'quvchilarning yozayotgan matnlarini uch xil yo'l bilan tahlil qilish mumkin.

- a) so'zlarning tarkibini aniqlash;
- b) so'zlarning ma'naviy tomonini aniqlash;
- d) mashqlarning grafik tasviri ustida ishlash.

Shuning uchun ham "Yozuv daftar" dagi mashqlarning joylanishi "Alifbe" kitobi asosida beriladi.

Bu mashqlar harf, so'z va gaplardan iborat. O'qituvchi so'zlarni yozdirishga boshlashdan oldin bu harflarning boshqa harflar bilan bog'lanishini ham tushuntirib berishi lozim. Masalan, "ma", "na" bo'g'inlarini yozishdan oldin kichik "m", "n" harflarni kichik "a" harfi bilan qo'l harakatini uzmasdan bog'lab yozishni quyidagicha tushuntirishi lozim

Alifbodagi hamma harflarni elementlarga bo'lib yozish shart emas, faqat ayrim shakli murakkab bo'lgan harflarni elementlarini alohida yozib ko'rsatish va mashq qilidirish mumkin.

Alifbe davrida o'quvchilarni bo'g'inlab yozishga keyinroq esa so'zlarni bir butun qilib yozishga o'rgatiladi.

Ayrim o'quvchilar so'zlarni yozishda harflarni alohida alohida yozishga harakat qiladilar,

bunga yo‘l qo‘ymaslik kerak, chunki harflarni bunday yozish natijasida ayrim harflarni so‘zda tushirib qoldiradilar. Yoki, almashtirib yozadilar. Bu davrda o‘quvchilarni yoddan yozishga o‘rgatish uchun quyidagiga o‘xshab savollar berib borish lozim: “Matnni o‘qi, uning yozilishiga qara, esda tut, doskaga qaramay yoz, o‘qi, namuna bilan solishtirib ko‘r” va h.k.

Yozuv daftarlarini bunday savol javoblar orqali o‘quvchilarning esda saqlash malakalarini o‘stiradi, hamda imlo xatolarini kamaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Azizxo‘jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – T. : TDPU, 2003.
2. Davletshin M.G. Shark mutafakkirlarining psixologik karashlari. Toshkent 2002 yil.
3. Mavlanova R.A, Raxmonqulova N.X. "Boshlang‘ich ta‘limda inovatsiya". T., TDPU 2007-y.
4. Mavlanova R.A, Raxmonqulova N.X. "Boshlang‘ich ta‘limda pedagogika, innovatsiya, integratsiya." T., 2013.

BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARIDA IJODKORLIKNI SHAKLLANTIRISH

Raximova Gulchehra Berdikulovna, Hakimova Dildora Maxmudovna.

Sirdaryo tumani. 36- maktab.

Sirdaryo tumani. 9- maktab.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ta‘lim va tarbiya berishda ularning yuqoridagi kabi psixologik xususiyat va jihatlarini inobatga olish talab etiladi. Chunki bu yoshdagi bolalarning yangi bilim va tushunchalarni yaxshi o‘zlashtirishlari, ya‘ni bilish faolligining ortishi va ularning ta‘lim va tarbiya olishlari aynan ushbu omillarga bog‘liqdir. Bu psixologik xususiyatlar qo‘yidagilar bilan tavsiflanadi:

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari o‘z **idroklarining** aniqligi, ravonligi, sofligi, o‘tkirliги bilan boshqa yosh davridagi insonlardan keskin farqlanadi. Ular har bir narsaga berilib, o‘ta sinchkovlik bilan qarashlari sababli idrokning muhim xususiyatlarini o‘zlashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Boshlang‘ich sinf o‘quvchisi har qanday ob‘ekt, sub‘ekt va voqelikdagi yangilikni yaqqol idrok qilishga intiladi, uni atrof muhitning sirli olami, sehri, jilolanishi, jozibasi o‘ziga tortadi. Lekin ta‘limning dastlabki bosqichida idrokning ayrim zayf tomonlari ko‘zga tashlanadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari idrokning salbiy xususiyati ob‘ektlarni bir-biridan farqlashdagi zayflikdir. Ular ko‘pincha o‘rganiladigan materialni noaniq, xatto, notug‘ri idrok qiladilar. Buning oqibatida aynan uxshash xarflar, so‘zlar, narsalar tasviri, shakli, fazoviy joylashuvlaning farqini to‘la tasavvur qila olmaydilar. Masalan, «Q» bilan «K» xarflarini «o‘qish» bilan «uqish» so‘zlarini bir-biridan farqlamaydilar. Ba‘zan esa ular kattalarning idrok ko‘lami qamrab olmaydigan narsalarni payqaydilar. Bolalarda tartibli, maqsadga muvofiq serqirra tahlil qilish faoliyati zayfligi uchun ular ta‘lim jarayonida ko‘pincha xatoga yo‘l qo‘yadilar.

Odatda zarur va muhim alomatlar bir yoqda qolib tasodifiy belgilarga e‘tibor beradilar. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida predmetlarni yaxlit, aniq idrok qilish imkoniyati juda chegaralangandir.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilar idrokining yani bir xususiyati xilma-xil, yorqin buyoqlar, yaqqol tasvir va xis-tuyg‘uga boyligidir. Shuning uchun ular avvalo yorqin his-tuyg‘u uyg‘otadigan narsa va xodisalarni idrok qiladilar. Ana shu sababli ramziy va shartli belgilar, chizmalar, diametrik shaklga ko‘ra, jonli «jozibador» tasvirlar yorqin xis-tuyg‘u tarzida aks etadi. Ko‘p fiziolog va psixologlarning fikricha, yorqin rangli tasvirlarni idrok qilish ramziy va shartli chizmalarni idrok qilishni vaqtincha to‘xtatib quyadi yoki ularning mohiyatini chalkashtirib yuboradi. Shuning uchun boshlang‘ich sinf darsliklarining juda ko‘p suratlar bilan bezatilishi ham ma‘qul emas. Chunki bunda o‘qish surati sekinlashadi, xatolar ko‘payadi, suratlarining ko‘pligi bolalarning matndan chalg‘itadi. Bolada muayyan o‘qish malakalari hosil bo‘lgandan keyin kitob varaqlarini suratlar bilan bezatish esa uning nutqi o‘sishiga, mavzu va fanga qiziqishi ortishiga yordam beradi.

Ta‘lim jarayonida boshlang‘ich sinf o‘quvchining idroki maqsadga muvofiq boshqariladigan pertseptiv faoliyat darajasiga ko‘tariladi. Bola o‘qituvchining xabarligida shaxsiy idrokni tashkil etish, o‘z oldiga vazifa quyish, idrok mahsulini nazorat qilish va xakozalarni o‘rgana boradi. O‘quvchi ta‘limning dastlabki bosqichida oqilana idrok etish uchun, keyinchalik esa o‘sha narsani to‘g‘ri idrok etish uchun harakat qiladi. Bunda idrok etish asosiy maqsad bo‘lsa, harakat qilish

idrokning sharti vazifasini bajaradi.

Ta'lim jarayonida idrok maqsadga muvofiq pertseptiv faoliyatga aylanib va tobora murakkablashib boradi, natijada o'quvchida kuzatish, nazorat qilish, farqlash imkoniyati oshadi. Shu sababli 1- sinfda so'z biron narsani atash bilan chegaralangan bo'lsak, keyinchalik u o'rganilayotgan ob'ektning umumiy ma'nosini anglata boshlaydi.

Idrokning takomillashuvi o'qituvchining bevosita raxbarligida amalga oshadi: u o'quvchilarga pertseptiv faoliyatni omilkorlik bilan tashkil etishni, ob'ektlarning muhim va nomuhim belgilarini ajratishni, diqqatni to'plash va taqsimlashni,

materillarni rejali va tartibli tahlil qilishni o'rgatadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining pertseptiv faoliyatida **fazo, vaqt va harakatni idrok qilishning** o'ziga xos xususiyatlari bor. Bolalarda hayot tajribasining yetishmasligi, bilim saviyasining qashshoqligi, tasavvur obrazlarining zayfligi tufayli idrokning mazkur shakllari juda cheklangan bo'ladi. Ular kundalik turmushda qo'llaniladigan oddiy fazoviy tushunchalar bilan cheklanishi sababli ilmiy fazoviy atamalarini, masalan, tog'larning balandligi, fazo bilan yer o'rtasidagi masofa, dengiz va ko'llarning xajmi va boshqalarni idrok etishda qiynaladilar.

Ta'lim jarayonida va kattalarning yordami bilan turmush tajribasining ortishi tufayli bolalarda fazo, vaqt va harakatni idrok qilish ko'lamini kengayadi, ular vujudga kelgan savollarga javob topa boradilar. Bundan tashqari, ularning nazariy bilimlari amaliy faoliyatda sinab ko'rish orqali ham boyib boradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarning ehtiyoriy ongli **diqqati** o'qish motivlari bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladi. Odatda ularning o'qish motivlari uzoqni kuzlagan va maqsad bilan bog'liq motivlarga ajratiladi. Yuqori sinf o'quvchilarining bilim olish motivlari uzoqni ko'zlagan motivga kirsak, boshlang'ich sinf o'quvchilarining motivlari voqelik va reallikka bog'liq motivlardir. Bolalarda ehtiyorsizlik diqqat durustgina rivojlangan bo'ladi. Chunki ta'lim jarayonida ixtiyorsiz diqqatning o'sishi uchun muhim shart-sharoitlar mavjuddir. Boshlang'ich sinf o'quvchilarning yaqqolliigi, yorqinliigi, jozibadorliigi o'quvchida beixtiyor xis-tuyg'ular uyg'otadi, irodaviy zo'riqishsiz osongina fan asoslarini egallash imkonini yaratadi. O'quvchilarning turli tumanliigi ixtiyorsiz diqqatning to'planishi, markazlashuvi va barqarorliigiga ijobiy ta'sir etadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitishda ko'rsatmalilikdan keng foydalaniladi. Bu tadbir birinchidan, bolalar faolligini oshirsa, ikkinchidan materialni mantiqiy jihatdan o'zlashtirishga, uni tahlil etish mavhumlashtirish va umumiyashtirishga to'sqinlik qiladi. Ularda ko'rsatmalilikka asoslangan dinamik stereotip paydo bo'lishi ham mumkin. Sun'iy to'siqlar, xalal beruvchi olamlardan qutilish uchun yaqqol va mavxum materiallardan aralash holda foydalanish yaxshi natija beradi. Bolaning ko'rsatmalilikka berilib ketishi uni asosiy maqsaddan uzoqlashtiradi, bola tashqi belgilarga e'tibor berishga odatlanib, ichki muhim belgilardan chetlasha boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Saidahmedov N. YAngi pedagogik texnologiyalar. -T.: «Fan». 2003.
2. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. - T.: O'zbekiston. 2001.
3. Pedagogika. A.H.Munavvarovning umumiy tahriri ostida. -T.: O'qituvchi. 2016.
4. Sayidahmedov N. YAngi pedagogik texnologiyaning mohiyati. J.Xalq ta'limi .2006

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA IJODIY FIKRLASH QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI

Davronova Iroda

Sirdaryo viloyati Oqoltin tumani 9- umumta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Telefon: +998996373072

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini ijodiy fikrlashga o'rgatishda o'qituvchi mahoratini tahlil etgan holda ta'lim jarayonidagi ijodiy fikrlash qobiliyatini shakllantirishga yo'naltirilgan ish tajribalaridan namunalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: ijodiy fikrlash, mahorat, ertak, hikoya, she'r

Ma'lumki, maktab bu – o'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish o'chog'idir.

Ammo, o'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish jarayonlari asosan darslar yoki darsdan tashqari sharoitlarga mo'ljallab amalga oshiriladi, to'g'ri, bu pedagogik shart-sharoitlar sifatida o'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish vositalari sifatida muhim ahamiyatga ega jarayondir. Vaholanki, o'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishning maqsad va vazifalarini hal etishda asosiy tashkiliy shakl – bu darsdir.

Ko'zlangan maqsadni faqat ona tili darslarida emas, har qanday fanni o'tish jarayonida ham amalga oshirish mumkin. Boshqacha qilib aytganda, ta'lim va o'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish bu yaxlit, bir butun pedagogik jarayondir.

3-4 sinflarda barcha fanlarni o'qitishda didaktik maqsadlar bilan bir qatorda o'qituvchi o'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish maqsadini ham aniq belgilab olishi va ularni hal etishi lozim. Masalan, ona tili - boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodiy fikrlash qobiliyatlarni aniqlashning asosiy vositalari bo'lib xizmat qiladi. Amaliyotda ko'pchilik 3-4 sinf o'qituvchilari nafaqat o'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish, hattoki ta'limiy maqsadlarni ham oldindan aniq belgilay olmaydilar. Ularning dars-reja ishlanmalarida o'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish maqsadlari qo'yilmaydigan hollar ham uchraydi. Ular belgilab olingan taqdirda ham umumiy xarakterga ega bo'ladi. Masalan, darsning o'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish maqsadida «boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy fikrlash qobiliyatlarini aniqlash», «o'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish» kabi umumiy tushunchalar bilan cheklanadi. Bir soatlik dars davomida bu borada ko'zlangan maqsadga erishish mumkin emasligini har qanday pedagog tushunadi. Demak, o'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishdan ko'zlangan maqsad aniq qo'yilishi, u darsning o'quv materiali mazmunidan kelib chiqib oldindan aniq belgilanishi lozim.

Ma'lumki, o'qish, ona tili darslari o'z mazmun va mohiyatiga ko'ra kuchli boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodiy fikrlash qobiliyatlari aniqlash vositalaridan sanaladi. Ushbu fanlar dars mavzulari, Vatanni madh etuvchi, do'stlik, to'g'rilik, halollik, jasurlik, mardlik, ezgulik singari g'oyalarni ilgari suruvchi o'quv materiallariga boydir. Undagi ertak, doston, hikoya, rivoyat, maqol, topshiriq, she'r, badiiy asar matnlarida kishining insoniy fazilatlarini yuksaklarga ko'tarilib, salbiy fazilatlar esa qoralanadi. O'qituvchi bolalarning badiiy qahramonlarining ijobiy fazilatlaridan namuna olishlari, salbiy fazilatlaridan esa nafratlanishlari, ularning qarashlarini chuqur tushunib etishlari uchun o'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishning milliy usullaridan ham foydalanish kerak.

Ijodiy fikrlashga yo'naltiruvchi quyidagi topshiriqlarni berish asosida ko'zlangan natijaga erishish mumkin.

Bu topshiriqlar asosida nafaqat ijodiy yondashuv balki integratsiya jarayonini ham ko'rishimiz mumkin hamda ijodiy yonashuv to'laqonli amalga oshirish imkoniyatlari yuzaga keladi.

Masalan: alifbo harflari asosida 2 o'quvchi o'zaro bir mavzu asosida suhbat qurishlari so'raladi:



Mavzu: Ta'tilda

1-o'quvchi: Assalomu alaykum.

2-o'quvchi: Barakalla, bo'tam.

1-o'quvchi: Dam olish uchun siznikiga mehmonga keldim bobojon.

2-o'quvchi: Erka nabiraginam xush kelibsiz....



Bu topshiriq asosida o'quvchilarni ijodiy fikrlashi asosida ertak, hikoya, she'r to'qish imkoniyati yuzaga keladi.

Xulosa shuki, ijodiy fikrlashga yo'naltirish asosida o'quvchilarning qobiliyatlarini rivojlantirish va o'z mustaqil fikrlariga ega bo'lishlariga erishamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Quدراتов Т. О'qituvchi nutq madaniyati asoslari. – Т. , О'qituvchi, 1993. -31-43 b.
2. Ergashev R. N. Pedagogik mahorat. О'quv-uslubiy majmua. – GulDU, 2004. - 87 b.

MILLIY O'QUV DASTURI ASOSIDA TABIIY FANLARNI O'RGATISHDA INTEGRATSIYA JARAYONI

Hakimova Mahliyo Ibodulla qizi

*Sirdaryo viloyati Mirzaobod tumani 18-umumta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi
+99891 62198 92*

Annotatsiya. Mazkur maqolada milliy o'quv dasturi asosida tabiiy fanlarni o'qitishda integratsiya jarayonini ta'lim samaradorligidagi o'rniga to'xtalgan holda dars jarayonida qo'llashga oid misollar keltirib o'tilgan

Kalit so'zlar: milliy o'quv dasturi, tabiiy fanlar, integratsiya, atrof-olam.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026 yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risi"da 2022-yil 11-may PF-134-sonli Farmoniga ko'ra xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturning asosiy yo'nalishlari belgilandi. Milliy o'quv dasturi umumiy o'rta ta'limning milliy o'quv dasturi o'quvchilarning olgan bilimlarini hayotda qo'llay olish ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan. Fanlararo integratsiya kuchaytirilib, fan va mavzularni o'qitishda mantiqiy fikrlash, amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga asoslangan spiralsimon o'qitish metodikasi joriy qilinmoqda (amalda chiziqli o'qitish, yod olish metodikasi);

Izoh: spiralsimon o'qitish metodikasi, mavzularni soddadan murakabga qarab o'qitish, o'quvchilarda borliqni yaxlit tasavvur va tadqiq qilish orqali o'rganishni ta'minlovchi integratsion yondashuv.

Atrof-borliq, jumladan, olamning tuzilishi, unda kechayotgan hodisa va jarayonlarni bilishning metodologik asosini bir-birini to'ldiruvchi, ilmiy bilishning nazariy va empirik metodlar birligi tashkil etadi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning tabiatga bo'lgan qiziqishini, unda kechayotgan hodisa va jarayonlar to'g'risidagi bilimlarini oshirishda hamda ularning empirik (kuzatish, tadqiqot) metodlarni o'zlashtirishida "Tabiiy fanlar" o'quv predmeti muhim ahamiyat kasb etadi. Inson dunyoqarashining tabiiy-ilmiy asosini tabiat haqidagi bilimlar tashkil qiladi. Yosh o'quvchilar atrof-olam tog'risidagi dastlabki bilimlarni angelayotganda hali yetarli darajada tizimlashtirilmagan bilimlar hajmini his qiladilar. Fanlarni birlashtirish bu muammoni hal qilishga imkon beradi.

O'qitishda integratsiyalashgan yondashuvni amalga oshirish natijasida olingan yaxlit bilimlar o'quvchilar ularni o'quv jarayonida, darsdan tashqari mashg'ulotlarda, umumta'lim maktab bitiruvchisi bo'lganida hamda ijtimoiy hayoti davomida qo'llashiga yordam beradi.

Olamda sodir bo'layotgan turli hodisa va jarayonlarni tushuntirishda tabiiy fanlarni o'zaro bog'lash asosida tabiatning turli jihatlarini tasvirlaydigan modellardan foydalaniladi. Fanlarni o'zaro bog'lab, olamda sodir bo'layotgan turli hodisa va jarayonlar haqidagi tushunchalarni kichik maktab yoshidan anglashda "Tabiiy fanlar" darsligi o'quvchiga katta yordam beradi.

Endilikda umumta'lim maktablarida boshlang'ich ta'limdanoq o'quvchilarga integratsiyalashgan ta'lim berish amaliyotga joriy etilmoqda. Integratsiyaning o'zi maqsad emas, balki o'qituvchi faoliyatining ma'lum bir tizimi bo'lgani uchun u muayyan o'quv muammolarini hal qiladi. Bular:

- integratsiyalashgan ma'lumotlardan foydalanib fanga oid tushunchalar yordamida o'quvchilarning bilim darajasini oshirish;
- o'quv materialini yetakchi g'oyalar nuqtayi nazaridan o'rganish, o'rganilayotgan muammolar o'rtasida tabiiy aloqalarni o'rnatish orqali intellektual faollik darajasini o'zgartirish;
- o'quvchilarning kognitiv qiziqishini, fikrlash faoliyatini rivojlantirish, darsda va darsdan keyin faol va mustaqil ishlash istagini oshirish;
- o'quvchilarni ijodiy faoliyatga jalb qilish.

2-sinf tabiiy fanlardan "Hayvonlar xilma-xilligi" mavzusidagi integratsiya jarayonlarini ko'rib o'tamiz.

Alifbodagi sonlar tartibini to'g'ri topsangiz, qaysi hayvonlar nomi berilganligini bilib olasiz:

1, 23, 8, 16 - ayiq, 27, 4, 17- sher, 10, 8, 23, 8, 10- kiyik, 12, 20, 27, 20, 10- mushuk, 16, 25, 23-qo'y.....

Bu topshiriq asosida mavzumiz ham ona tili va o'qish savodxonligi faniga hamda matematika faniga integratsiya jarayoni yuzaga kelyapti.

Topshiriq asosida yoqtirgan uy hayvoni haqidagi hikoya va u asosida chizilgan rasm tahlili o'tkaziladi. Bu esa ona tili va o'qish savodxonligi va tasviriy san'at fanlari integratsiyasini yuzaga keltiradi.

Dam olish daqiqasi jarayonida ham hayvonlarga oid she'rlar, qo'shiqlar asosida musiqa madaniyati faniga ham integratsiyani yuzaga keltiramiz:

Quyoning, quyoning

Ne bo'ldi?

Kasalga o'xshab o'tiribsan.

Tur o'rningdan qarsak chal.....

Tabiiy fanlarni o'qitishda integratsiya jarayonini yuzaga keltirish o'qituvchining kasbiy mahoratiga bog'liq holda amalga oshiriladi. Shuning uchun har bir pedagog har bir fan yo'nalishini o'zaro uzviylikda turli xil metod, o'yin, texnologiyalar asosida integratsiyasini amalga oshirishi muhim vazifalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026 yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risi"da 2022-yil 11-may PF-134-sonli Farmoni.
2. K. T. Suyarov [va boshq.]. Tabiiy fanlar 2 Metodik qo'llanma: o'qituvchilar uchun metodik qo'llanma - Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021.
3. K. Suyarov [va boshq.]. Tabiiy fanlar: 2-sinf uchun darslik – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021.

СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К ПОВЫШЕНИЮ ПОДГОТОВКИ ШКОЛЬНИКОВ ПО МАТЕМАТИКЕ МЕЖДУНАРОДНАЯ ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКАЯ ПРОГРАММА TIMSS

Рахимова Нигора Ибрагимовна

Сардобинская районная школа № 6 учитель начальных классов,

Эл. адрес: raximovanigora64@gmail.com

Аннотация: В данной статье рассматривается, как учащиеся смогут применить свои знания в жизни, развивать свои способности в усвоении знаний при компетентном подходе, эффективно подготовиться к международным программам оценивая и используя знания и навыки, учителей способных создавать разработки типовых текстов, создавая все условия для непрерывного развития математической грамотности.

Ключевые слова: оценка, международная оценка, математическая грамотность, актуальные вопросы, реформы, лучшие практики, компетенции.

Annotatsiya: maktab o'quvchilar bilimlarini hayotda qay darajada qo'llay olishlari, pedagoglarni kompetensiyaviy yondashuvga asosan bilimlarini rivojlantirish, pedagoglarning egallagan bilim, ko'nikma va malakalaridan samarali foydalanib xalqaro baholash dasturlariga tayyorgarlik ko'rish, namunaviy testlarni tuzishga targ'ib qilish, boshlang'ich sinf o'quvchilarining matematik savodxonligining muntazam rivojlanishiga shart-sharoit yaratishlari haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: baholash, xalqaro baholash, matematik savodxonlik, dolzarb muammolar, islohotlar, ilg'or tajribalar, kompetensiyalar.

Hozirgi kunda mamlakatimizda ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha bir qator islohatlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, xalqaro baholash dasturlarini o'rganish va ushbu dasturda ishtirok etish bilan milliy ta'lim tizimiga haqqoniy baho berish, rivojlangan davlatlar ta'lim tizimi yutuqlarini o'rganish va tajriba almashish imkonini berayotgani eng muhim jarayonlardan biridir. Ta'lim tizimini rivojlantirish bugungi kun uchun nechog'lik muhim bo'lsa, xalqaro baholash dasturlarida ishtirok etish ham shunchalik keraklidir.

Ayni damda har bir insonning hayoti va kasbiy faoliyatida texnogen komponentning o'sishi kuzatilmoqda. Shuning uchun nafaqat kelajakdagi mutaxassisni, balki har bir maktab o'quvchisini to'laqonli matematik savodxonlik bo'yicha tayyorlashning ahamiyati ortib bormoqda. Matematikani o'qitishning maqsadlari ham kuchaytirilmoqda. Ular matematikaning o'ziga xos jihatlariga, fanni o'rganishni va amaliy qo'llanilishini ham rivojlantiradigan shaxsiy xususiyatlariga mos kelishi kerak. Matematik savodxonlikni o'rganish doimiy e'tiborni, qat'iyatni, diqqatni jamlay olish qobiliyatini talab qiladi, ya'ni aqlni rivojlantirishda ham, xarakterni shakllantirishda ham muhim rol o'ynaydi. Chunki amaliy hayot uchun zarur bo'lgan hisoblash, geometrik tasvirlar, formulalar, funksiyalar, grafiklar, diagrammalar, jadvallar bilan bog'liq bilimlar uchun zarur bo'lgan materiallarni o'zlashtirish lozim.

Demak, matematik savodxonlik – bu shaxsning turli hayotiy vaziyatlar (kontekstlar) va masalalar ustida matematik mulohaza yuritish, berilgan muammoni matematika yordamida ifodalay olish, muammoni yechishda matematikani qo'llay olish va olingan natijalardan muammoning yechimini talqin qilish va baholashda foydalana olish qobiliyatidir. Bu qobiliyatni rivojlantirish o'quvchilarni boshlang'ich sinf davridayoq amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Aynan TIMSS o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini baholash dasturi (Trends in International Mathematics and Science Study TIMSS) bo'yicha tayyorgarlikni yo'lga qo'yish bilan matematik savodxonlikni oshirishning ilk negizini tashkil qilish mumkin.

TIMSS dasturi Ta'lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assosiasiyasi IEA (International Association for the Evaluation of Educational Achievements) tomonidan tashkil etilgan bo'lib, ushbu tadqiqot 4 va 8 sinf o'quvchilari orasida matematika va ijtimoiy fanlar bo'yicha ta'limning sifati, darajasi, fanga bo'lgan munosabati, qiziqishini aniqlaydi. Har 4 yilda bir marotaba olib boriladi. TIMSS tadqiqotini ishlanmasiga asos qilib maxsus xujjat olingan "TIMSS Assessment Frameworks and Specifications", unda ushbu yo'nalishlarga umumiy yondashgan xolda matematika va tabiiy fanlarga test va test topshiriqlariga tushuncha berilgan, shuningdek o'quvchi topshiriqni bajarayotganda o'rganish faoliyatining barcha turlari namoyish etiladi, so'rovnomada davomida olinayotgan ma'lumotlar o'quvchiga, o'qituvchiga va ta'lim muassasiga berilgan ta'riflarning sanab o'tilgan turlari va topshiriqlari ko'rsatiladi.

TIMSS tadqiqoti doirasida matematikani baholash tizimi ikki yo'nalishda tashkil etilgan:



Fanga oid sohalarni baholashga mo'ljallangan mazmun sohasi;



Fikrlash jarayonlarini baholashga mo'ljallangan kognitiv soha.

TIMSS tadqiqoti doirasida baholash uchun test topshiriqlarini tuzishda mazmun sohasini mukammal tushunish talab qilinadi. Shu bilan birga tasavvur qilish va kreativlik ham talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'quvchilarni xalqaro tadqiqotlarga tayyorlashga mo'ljallangan axborotnoma 2. "O'qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent — 2020
2. Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi. TIMSS 2019 baholash qamrovi doirasi. O'quv qo'llanma
3. Bikbayeva N. U. "Matematika" 4-sinf uchun darslik. Toshkent. "O'qituvchi" 2020-yil. 212 b

ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI FANIDAN MILLIY O'QUV DASTURI ASOSIDA DARSLAR TASHKIL ETISH

*Boboqulova Nodira Payg'ambarqulovna, Shermatova Mehriniso Beknazarovna
Sirdaryo viloyati Sardoba tumani 4-umumta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchilari
+99890 610 2107*

Annotatsiya. Mazkur maqolada ona tili va o'qish savodxonligi fanidan darslar tashkil etishga qo'yiladigan talablar va ularni amalga oshirish maqsadlariga to'xtalgan holda darslik va mashq daftari ustida ishlash yo'nalishlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: ona tili va o'qish savodxonligi, milliy o'quv dasturi, o'qish savodxonligi, grammatik savodxonlik, mashq daftari.

Ona tili va o'qish savodxonligi fanini o'qitishda asosiy e'tibor o'quvchida tilga doir to'rt ko'nikma: o'qib tushunish, tinglab tushunish, nutq so'zlash va yozish hamda grammatik savodxonlikni shakllantirishga qaratiladi.

Ta'lim jarayonida o'quvchilar voqea-hodisalarni kuzatish, anglash, qiyoslash, analiz va sintez qilishga o'rgatish orqali ijodiy va tanqidiy tafakkurini, fikrlash doirasini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Ona tili va o'qish savodxonligi fani ushbu maqsadlarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Ona tili va o'qish savodxonligi fanini o'qitishda quyidagi tamoyillarga tayaniladi:

1. Ta'lim berishda kommunikativ yondashuv, ya'ni tilning muloqot vazifasi birlamchidir. Shuningdek, integrativ, faoliyatga yo'naltirilgan, onglik, kashfiyotchilik, farqli va tanqidiy yondashuvlar e'tiborda bo'lishi lozim.

2. Tilni amaliyotda qo'llash, ya'ni matnni o'qish orqali ham grammatika, ham uning qo'llanishini o'rgatishga asoslaniladi.

3. Grammatik savodxonlik doirasida o'quvchining so'z boyligini oshirish, so'zlarning ma'no nozikliklari, farq va o'xshashliklarini his qilish va anglab yetish, bexato talaffuz qilish va yozish, so'zlarni bog'lab gap, gaplardan esa matn tuza olish, birikmalardagi ma'noviy va grammatik, matndagi mantiqiy xatoliklarni topish va tuzatish, o'zgalar fikrini to'g'ri anglash, bir fikrni turli shaklda ifodalash, uzilgan fikrning davomini tiklash kabi qator mantiqiy operatsiyalarni bajarish, nutq vaziyatini to'g'ri baholash va til imkoniyatlaridan unga mos ravishda foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish va malakasini o'stirishga e'tibor qaratiladi.

4. O'qish savodxonligi doirasida o'quvchida to'g'ri, tez, ongli, ifodali o'qish malakalarini shakllantirish, ularni oddiy kitob o'quvchidan chuqur mulohaza yurituvchi, ijodkor kitobxon darajasiga ko'tarish; o'qish orqali tevarak-atrof, borliq haqidagi bilimlarini kengaytirish, ularning dunyoqarashini boyitish; tafakkurida elementar adabiy tushunchalarni shakllantirish; har qanday uslubdagi matnni o'qish va uni anglash, tanqidiy va kreativ fikrlash ko'nikmasini oshirish nazarda tutiladi.

4. Barcha uslubdagi turli sohalarga oid matnlar bilan tanishish barobarida mashq va topshiriqlar orqali fanlararo integratsiya amalga oshiriladi.

5. O'quvchining o'qib, eshitib tushunish, og'zaki va yozma nutq malakasini umumiy holda rivojlantirish maqsadida ularning har biriga alohida e'tibor qaratiladi.

6. Badiiy matn ustida ishlash jarayonida o'quvchilarning yosh xususiyatlari, qiziqishlari, tilning ifoda imkoniyatlarini tushunishi va his eta olishi, "so'zni hazm qila olish" imkoniyatlari e'tiborga olinadi.

7. Ta'lim jarayonida o'quvchilarni voqea-hodisalarni kuzatish, anglash, qiyoslash, analiz va sintez qilishga o'rgatish orqali ijodiy tafakkuri, fikrlash doirasi shakllantirib boriladi.

8. Yozma nutq bilan bog'liq beriladigan topshiriqlarda yozish strategiyalari taqdim etiladi. (Odatda bolaning bog'lanishli nutqini o'stirish, matn yaratish ko'nikmasini rivojlantirish maqsadida savollar, rasmlar yoki kuzatuvlar asosida matn tuzish bilan bog'liq mashq va topshiriqlar berib boriladi, ammo bu jarayonda qanday qilib yozish masalasi e'tibordan chetda qoladi. "Ona tili va o'qish savodxonligi" darsligida ushbu jihatlariga e'tibor qaratilgan: noto'liq matnni to'ldirish, berilgan namuna asosida yozish, taqdim etilgan tanlovlar asosida yozish; savollarga ketma-ketlikda javob yozish; syujetli rasmlar asosida matn yozish kabi).

9. Har bir mashg'ulot tilni o'zlashtirishning tabiiy laboratoriyasi sifatida tashkil etiladi.

Ona tili va o'qish savodxonligi fanidan o'tilayotgan nutqiy mavzular doirasida qanday malaka talablari qo'yilgani, bunda qaysi jihatlariga e'tibor berish lozimligi, rejada ajratilgan soatlarga muvofiq darslarni tashkil etish bo'yicha tavsiyalar, darslikdagi mashq, topshiriqlarning bajarilish yechimi hamda matn, rasm, chizmalar ustida ishlashga oid metodik ko'rsatmalar o'qituvchi kitobida to'liq yoritib berilgan.

Mashq daftarida darslikda ishora qilingan, maxsus belgi bilan ajratilgan topshiriqlar bajarib boriladi. O'quvchilar daftarga yozishlari, chizishlari, bo'sh o'rinlarni to'ldirishlari, o'qib va tinglab tushunish, matn tuzish bilan bog'liq topshiriqlarni bajarishlari hamda rasmlarni bo'yashlari mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. I. Azimova va b. q. "Ona tili va o'qish savodxonligi 1 Metodik qo'llanma o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021.

2. I. Azimova va b. q "Ona tili va o'qish savodxonligi" 1-sinf uchun darslik. Respublika ta'lim markazi T-2021.

IQTIDORLI VA ISTE'DODLI BOLALAR TARAQQIYOTINI TADQIQ QILISH METODI

Qarshiyeva Mahbuba Abduvali qizi,

Guliston prezident maktabi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

qarshiyevamahbubaa@gmail.com

Iqtidorlikni tadqiq qilish L.Termenning izlanishlari orqali 1920-yillardan boshlangan bo'lsa qam unchalik uzoq tarixga ega emas. Iqtidorli va talantli bolalar boyicha butunjaqon ittfoqining 1-yig'ilishidan keyingi 20 yillikda nashr qilingan ilmiy ishlarni tahlil qilish mumkin. Ushbu muammo yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar bir yoki bir nechta yosh davrlarni saralab olish metodi orqali amalga oshirilgan. Bu metod sinaluvchilardagi iqtidorlilik va shaxs sifatlarini yuqori darajadagi ishonchlilik bilan ko'rsatib beradi. Biroq ushbu metodga muvofiq iqtidorlilikni individualigining qayot ta'sirida rivojlanishni o'rganish cheklangan. Ma'lumotlarga ko'ra sinaluvchilarning va yaqinlarining xotiralari ko'pincha ma'lumot berish mumkin.

Yana bir tadqiqotchi L.Termen o'zining izdoshlari bilan birgalikda yuqori IQ ga ega bo'lgan iqtidorli bolalar bilan 40 yil davomida longityud tadqiqotini olib bordi. Bu va boshqa tadqiqotlar longityud metodining nazariy va amaliy muammolarni qayta ishlash uchun juda ahamiyatli ekanini ko'rsatdi.

Iqtidor muammosini tadqiq qilish uchun olib berilgan izlanishlarda longityud keng qo'llanilmoqda. Qoidaga muvofiq bir yoki bir nechta sinaluvchi uzoq yillar mobaynida uzluksiz kuzatiladi. Longityud metodining yutug'i shundaki, u orqali iqtidorlikning potentsiali sifatida namoyon bo'lib, aynan shu potentsialni qanday rivojlanishi, qaysi davrda qanday namoyon bo'lishini qayd qilib borish unga ta'sir etuvchi turli omillar o'rganish mumkin. Qolaversa, longityud metodi tadqiqotlarda eksperiment guruhidan o'zining iqtidorlilik ko'rsatkichi bilan farqlanuvchi nazorat

guruhini bo'lishiga imkoniyat yaratadi. Longityud metodining shuncha imkoniyatlari bo'lishiga qaramay iqtidorlik muammosi boyicha olib borilgan tadqiqotlarning atigi 10 % ida ushbu metod qo'llanilgan. Bu eng avvalo eksperimentlardan boshqa metodlarga qaraganda ko'p vaqt va kuch sarf qilganligi bilan boqliq. Longityud metodini qo'llash uchun sinaluvchilar soni juda ko'p bo'lishi zarur, chunki yillar mobaynida ayrim sinaluvchilar turli sabablarga ko'ra guruhdan chiqib ketishi yoki eksperiment oxirida kutilgan natijani bermasligi mumkin, oxir-oqibat kam sonli sinaluvchilarning ko'rsatkichlari ahamiyat kasb etadi.

Longityud tadqiqotlarning birinchi va eng muqim vazifasi sinaluvchilarning iqtidorlisini ajratib olishdir. Ilgarigidan farqli ravishda qozirda IQ ni o'lchashda intellektning faktorliligi boyicha ishlab chiqilgan psixologiya konsepsiyalarida tan olinmoqda. Bu bilan boqliq holda iqtidorning ham ko'p faktorliligi tan olinmoqda. Ko'pgina psixologlarning fikricha, kognitiv ahamiyatga ega bo'lmagan shu bilan birga intellektga boqliq bo'lmagan kreativlik iqtidorlikning faktori deb qabul qilinmoqda. Qolaversa ayrim psixologlar ijtimoiy muqit omillarini oilaviy sharoit, ta'lim dasturini inobatga olish muhim ekani ta'kidlashmoqda.

Iqtidorli bolalarni diagnostika qilishning asosiy tamoyili iqtidorlilik konsepsiyalari va yondashuvlarning o'zgarishi bilan o'zgarib borgan. Hozirgi kunda iqtidorlikni diagnostika qilish uchun ko'pgina testlar ishlab chiqilgan: intellektual qobiliyatlarni o'rganish uchun - Dj.Reven "Progressiv matrisalari"ning murakkablashtirilgan varianti iqtidorli o'quvchi uchun bilish qobiliyatlarining ko'p darajali testi (KRT) (K.Xeller va izdoshlari tomonidan ishlab chiqilgan), intellektual qobiliyatlarini ekspress- diagnostikasi metodikasi (MEDIS-6-7) (E. I. Sheblanova, I. Averina, Ye. N. Zadorina, 94). Kreativlikni o'rganish uchun Dj. Gilfordning "Noyob qo'llash ijodiy tafakkurning verbal testi" (Averina, Sheblanova, 96), P. Torrensning ijodiy tafakkur testi (TTST) (Sheblanova, 93) maxsus qobiliyatlarni aniqlash uchun testlar matematik, musiqiy, texnik, sensor, motorika uchun testlar va boshqalar (E. M. Borisova, 1987). Iqtidorning serqirra va sermazmunligini inobatga olgan qolda kompleks psixodiagnostika o'tkazish lozim ya'ni shaxsdagi intellektual qobiliyatlar maxsus qobiliyatlar va ijodiy tafakkur bilan birga shaxsning shaxsiy va motivasion xususiyatlarini o'rganish zurrur. Iqtidor o'ziga xos individuallik bo'lishga qaramay qator umumiy xususiyatlarga qam ega bo'lib, ko'zatishlar va eksperimentlar natijasida bolalar iqtidorining bir necha tiplarini ajratish mumkin. Ona tili va adabiyot fanini o'qitishda ham iqtidorli bolalar bilan ishlashda quyidagi metodlardan foydalanish ham keng samara berishi aniqlangan.

Test metodi. Test metodi boshqa metodlardan qar qanday psixologik xususiyat yoki voqelikni sifat va miqdor jihatdan tahlil qilishga yo'nalganligi bilan farqlanadi. Shuning uchun testlarga qoyiladigan talablar muhimdir.

Standartlashtirish. Testlarni standartlashtirish ularni o'tkazish va baholashga qo'yiladigan yagona normativdir. Diagnostik testlar yordamida olingan natijalarni talqin etish uchun bu natijalar muayyan me'yor, ya'ni standart bilan solishtirilishi kerak. Standart bilan solishtirilgandagina tekshiriluvchining ko'rsatkichlari umumiy ko'rsatkichlar tizimida qanday o'rin egallashini aniqlash mumkin. Miqdoriy ko'rsatkichlarni olishga, mo'ljallangan testlar ballariga nisbatan muayyan standartlarni aniqlashda quyidagi amallar bajariladi:

- barcha tekshiriluvchilarning ko'rsatkichlari asosida o'rtacha ko'rsatkich topiladi;
- maxsus matematik statistik amallar yordamida standart oqishish, ya'ni o'rtacha kvadrat oqishish ko'rsatkichi topiladi;
- o'rtacha ko'rsatkichdan yuqoriga va pastga standart og'ishish ko'rsatkichiga mos tarzda qadam tashlab, test natijalarini solishtirish uchun zarur shkala - standart baholar tizimi ishlab chiqiladi. Ishonchlilik - qech qachon absolyut bo'lmaydi. Ishonchlilik testlarning asosiy xususiyatlaridan biri bo'lib, test yordamida olinadigan natijalarning qanchalik barqaror ekanini bildiradi. Diagnostik testlarning validligi test diagnostik o'lchovini amalga oshira olishi yoki oshira olmasligini va o'lchovni amalga oshira olsa buni qanchalik muvaffaqiyatli bajarishini ifodalaydi. Testning validligi qanchalik yuqori bo'lsa u muayyan psixodiagnostik tekshiruv uchun shunchalik yaroqli deb qisoblanadi. Biroq ko'pgina testlarning validligi odatda 0,60 dan past bo'ladi. Birinchidan, u test ishonchlilik darajasidan yuqori bo'lishi mumkin emas, ikkinchidan, maktab belgilari muvaffaqiyatli o'zlashtirishi mezonni sifatida unchalik ishonchli emas, uchinchidan,

motivasiya intizom ijtimoiy sharoit o'z ta'sirini o'tkazadi.

Anketa metodi. Iqtidorli bolalarning intellektual va ijodiy taraqqiyotini diagnostika qilish uchun ota-onalarga maxsus anketalar ishlab chiqilgan. Anketa savollarini tuzishda bolaning individual qobiliyatlarini rivojlanishi haqida turli- tuman ma'lumotlarni yiqishga asosiy e'tibor qaratiladi. Anketa o'zida bolaning jismoniy rivojlanishi, bilish faoliyati rivojlanishi, bolaning qiziqishlari, qobiliyatlari, bolada ijodiy faoliyat va qiziquvchanlikning namoyon bo'lishi, muayyan bilim, ko'nikmalar, maxsus qobiliyatlarga ega ekanligi haqidagi savollarni mujassamlashtiradi. Anketa savollarida bola shaxsiga oid xususiyatlar borasida ham so'z yuritiladi. Muloqotchanlik, liderlikka intilish, maqsadga intilishda qat'iylik. Anglangan eqtiyojlarni o'rganish uchun bolaga V.S.Yurkevich tomonidan tuzilgan 2 ta anketa beriladi ushbu anketa 5 ta savoldan iborat va anglangan eqtiyojlar yaqqol namoyon bo'luvchi, kuchsiz va juda zaif namoyon bo'luvchi kabi darajalarda ko'rinadi.

TA'LIMDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING O'RNI VA AHAMIYATI

*Muhammadaliyeva Muhayyo Mahmudjonovna, Normamatova Marjona Normamatovna
Sirdaryo tumanidagi 3-maktab.
Guliston tumanidagi 31-maktab*

O'zbekistonimizda mustaqillik sharofati bilan barcha sohalarida tub islohotlar amalga oshirildi, iqtisodiy rivojlantirishning o'zbek modeli, kadrlar tayyorlashning milliy dasturi ishlab chiqildi va bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Mamlakatimizda ta'lim sohasiga alohida e'tibor qaratilib, kelajak avlodni tarbiyalash borasida zarur shart-sharoitlar, imkoniyatlar yaratilmoqda. Bugungi kunda dunyo miqyosida axborot kommunikatsiya tizimining yuksak darajada rivoj topib borayotganligi va bu boshqa sohalar qatorida ta'lim jarayoniga ham kirib kelib, uni yanada sifatli tashkil etishga o'z ta'sirini ko'rsatayotganligi barchamizga ma'lum. Bunday sharoitda inson faoliyatining nazariy va amaliy qirralari ham uzluksiz yangilanib turishi tabiiydir. Pedagogik faoliyat ham alohida va murakkab mehnat turi sifatida bundan mustasno emas. Pedagoglar o'z faoliyatlarida kafolatlangan natijalarni qo'lga kiritishga urinmoqdalar.

XXI asrni olimlarimiz tomonidan axborot texnologiyalari asri deb tan olinganligi pedagogik va axborot texnologiyalari kun sayin barcha sohalarida rivojlanayotgani, jumladan, ta'lim sohasida ham yangi axborot texnologiyalaridan keng foydalanish an'anaviy o'qitish usullaridan ko'ra samarali va yuqori natijalarga olib kelmoqda. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da ko'zda tutilganidek, pedagogik va axborot texnologiyalari, kompyuterlashtirish va kompyuter tarmoqlari negizida ta'lim jarayonini yangi axborotlar bilan ta'minlash rivojlanib bormoqda.

Shuning uchun ham pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga joriy etish, ta'lim samaradorligini oshirish uchun tinimsiz izlanish bugungi kunning ehtiyojiga aylandi.

O'quv-tarbiya ishlari jarayonida o'quvchilarni ijodiy fikrlashga, o'zgaruvchan vaziyatlarga o'rgatish, erkin raqobat asosida faoliyatni tashkil etish hamda ularning amaliy mashg'ulotlarda pedagogik texnologiyalar, axborot texnologiyalari, elektron darsliklar va multimedialardan foydalana olishi muhimdir. Bu esa o'quvchilarda mutsaqillik, erkin fikrlashni tarbiyalash, o'quv faoliyatini tahlil qilish, itsiqbolda kasbiy mahorat va kompyuter savodxonligini orttirish ularning ichki ehtiyojiga aylantirilishini talab etadi.

Pedagogik texnologiyalar ta'lim-tarbiya jarayonini ilg'or vositalari, metodlar, texnik vositalar, usullariga tayanib takomillashtirish tizimi hisoblanadi. Bu tizim o'qituvchi tomonidan yaratiladi, ta'lim-tarbiya bosqichlarini o'zaro bog'lashga xizmat qiladi. Uning mazmuni va vazifalarini, maqsadini oldindan belgilash, ta'lim tarbiyaning shakllari va vositalarini tayyorlash, o'quvchida shakllantirish ko'zda tutilgan ma'naviy sifatlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan darslarni rejalashtirish kabilarni o'zichiga oladi.

Ta'limning barcha bo'g'inlarini shunday tashkil etish kerakki, u yoshlarga chuqur va asosli bilim berish bilan birga keng qamrovli fikrlashga o'rgatsin. Pedagogik texnologiyaning asosiy mohiyati o'quvchilarni qiziqtirib o'qitish va bilimlarni to'liq o'zlashtirishga erishishdir. Ta'limda berilayotgan bilimlarni o'quvchilarning ko'pchilik qismi puxta o'zlashtirishi pedagogik texnologiya

joriy etilishining asosiy maqsadi hisoblanadi. Ta'lim tizimiga yangiliklarni olib kirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanish bugungi kun ta'limi oldiga qo'yilgan muhim vazifalardandir.

Darhaqiqat, zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayonining unumdorligini oshiradi, o'quvchilarning mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o'quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, bilimlarni mustahkam o'zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko'nikma va malakalarini shakllantiradi.

Pedagogik texnologiya boshqa sohalaridagi texnologik jarayonlar bilan uzluksiz va an'anaviy o'quv jarayoniga, uning samarasini, oshirishga ta'sir ko'rsatishning yangi imkoniyatlarini egallab oladi. Pedagogik texnologiya asosida o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish imkoniyati tug'iladi va u o'qituvchining yaqin ko'makdoshiga aylanadi yoki uning funksiyalarini to'liq bajarishi mumkin. Natijada, mantiqiy bog'langan qisqa yo'llardan shunday olib boriladiki, oqibatda o'quvchilar deyarli xato qilmaydilar va o'quvchi ularning natijasini ma'lum qilish bilan mustahkamlash imkoniyatini yaratadi hamda ta'lim maqsadini to'la amalga oshirish sari yana yangi qadamlar qo'yiladi.

Yurtimizda ta'lim mazmuniga alohida e'tibor qaratilib, DTS o'quv dasturlarining yangi tahrirdagi variantlari tajriba sinovdan o'tkazilmoqda, pedagogik texnologiyalar asosida o'quv jarayonining samaradorligi oshirish maqsadida pedagogik texnologiyalardan, axborot kommunikatsiya vositalaridan foydalanilmoqda.

Pedagogik texnologiyalardan foydalanishda ta'limning mazmunini belgilash, ta'lim-tarbiyaning shakllari va vositalarini tayyorlash, o'quvchilarning bilimlarni keng egallashi va ma'naviy fazilatlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan topshiriqlar tizimini ishlab chiqish, ta'limning natijasi va o'zlashtirish darajasini aniqlash ularni ob'ektiv baholash uchun test vazifalarini tayyorlash kabilar tashkil qiladi.

O'quvchilarining pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan darslari jarayonida erkin va mustaqil fikrlash qobiliyati shakllanadi. Mustaqil fikrlash qobiliyatining shakllanishi natijasida, o'quvchilar atrof olamdagi, jamiyatdagi qonunlarni, shuningdek, asardagi ijobiy va salbiy qahramonlar orqalilar insoniy fazilatlarni anglash, bilimlarni chuqur o'rganish, keng fikrlash, tegishli qarorlar qabul qilish ko'nikmalari shakllanadi.

Darslarni samarali va sifatli tashkil etish uchun pedagogning tashkiliy hamda uslubiy jihatdan tayyorgarligi va ta'lim olish jarayonini tashkil etishni ta'minlovchi o'quv-uslubiy ta'minotni ishlab chiqish talab etiladi. Taminot bazasida o'quv jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llash imkoniyati bo'lishi muhim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jo'rayev A.S., Bahromov Q.H. Ta'limning interfaol usullari. 1-kitob. Buxoro, 2009, 80 b
2. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. Qarshi, Nasaf, 2000.

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA DIDAKTIK O'YINLARDAN FOYDALANISHNING SAMARALI USULLARI

S. M. Rasulova

Qashqadaryo viloyati XTXQTMOHM Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikasi kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich ta'limda didaktik o'yinlardan foydalanishning samarali usullari, mohiyati yoritib berilgan. Didaktik o'yinlar -o'yin usullarini cheksiz takrorlash va o'zgartirish kiritish imkonini berishi haqida so'z borgan.

Kalit so'zlar: Didaktika, o'qitish, o'rgatish, boshlang'ich ta'lim, matn.

O'quvchilarga ta'lim-tarbiya berish vazifalaridan biri ularda ilmiy dunyoqarash elementlarini shakllantirishdir. Bu vazifani hal qilishda maqsadga muvofiq ishlashning yetakchi sharti - o'quvchini shaxs sifatida muvaffaqiyatli kamol toptirishdir. Didaktika – grekcha so'z bo'lib, «o'qitish», «o'rgatish» ma'nolarini bildiradi. Ta'lim qonuniyatlarini o'rgatish, tahlil qilish jarayonida ta'lim tushunchasi uning mohiyati, mazmun va vazifalari, o'qitish prinsiplari, shakllari haqida bilimlar

bayon etiladi. Didaktika pedagogikaning «nimaga o'qitish», «nimani o'qitish» va «qanday o'qitish» kabi savollariga javob izlaydi. Bolalarga o'yinni o'rgatishdan muayyan ta'limiy maqsad nazarda tutiladi. O'yinning eng muhim ahamiyati ham ana shundadir. O'yin o'tkazilish shakllari va usullari bilan ta'limning boshqa turlaridan farq qiladi.

Didaktik o'yinlar o'yin usullarini cheksiz takrorlash va o'zgartirish, o'yinga turli narsalar kiritish imkonini beradi. Didaktik o'yinlar ta'limiy xarakterga ega bo'lib bolalar bilimining mustahkamlanishiga va kengayishiga, ularning umumlashtirilishiga tizimga solishga yordam beradi.

Didaktik o'yinlar o'yin usullarini cheksiz takrorlash va o'zgartirish, o'yinga turli narsalar kiritish imkonini beradi. Masalan, biz «Jimjitlik» o'yinining 5—7 xilini butun sinf bilan hamda ayrim bolalar bilan 10 martadan ko'proq takrorlab o'tkazdik; «Nima o'zgardi?» tipidagi o'yin 5 xil turli ko'rsatmali material bilan o'tkazildi va hokazo. Natijada o'yin malakalarining bir xilda va mustahkam bo'lishiga hamda o'yinning har bir qoidasini tinglay bilish va unga rioya qilinishiga erishish imkonini berdi. Didaktik o'yinlar o'zining shakli jihatidan asosan bog'chada o'ynaladigan ijodiy o'yinlardan ham, o'qituvchi o'zi hikoya qilib berish yo'li bilan tushuntiradigan va o'quvchilarni birma-bir so'rab chiqish natijasida mustahkamlanadigan o'yinlardan ham har tamonlama farq qiladi.

Didaktik o'yinlar o'qitish vazifasiga xizmat qiladi va qiziqarli, maroqli, tushunarli darajada olib boriladi. Bolalar g'olib chiqish maqsadida jonu dili bilan mashq qiladilar, berilgan har bir topshiriqni albatta bajarishga odatlanib qoladilar, natijada ularda didaktik topshiriqlarni bajarishga bo'lgan qiziqish orta boradi. Didaktik o'yinlar har bir darsning maqsadini, har bir mashqning maqsad va vazifalarini yaxshiroq tushunib olishga yordam beradi.

Didaktik o'yinlar ta'limning ko'rgazmaliligini, o'qituvchining nutqini va bolalar harakatini o'z ichiga oladi, buning natijasida idrokda (ko'rish, eshitish, teri sezgisi belgilarida) birlik tug'iladi. Bu esa o'qituvchining aytganlarini bolalarning o'ylab olishiga va o'sha aytilganlarni ifodalab berishlariga, ya'ni didaktik o'yinlar qoidalarini o'quvchilarning o'zlari bajarishlariga imkon beradi. Didaktik o'yinlarning bu tarzda tuzilish xususiyatlari o'quvchilar faoliyatini tahlil qilish imkoniyatini beradi.

Shuning uchun ham barcha bolalar o'yin vaqtida qiziqish bilan harakat qiladilar. Didaktik o'yin bolalarning aqliy qobiliyatini o'stiradi. Bola o'yin jarayonida faollashadi. O'yin vazifalari diqqatni jamlashni o'yin mazmunini anglashni talab qiladi. O'yin bolani ta'lim – tarbiyani olishga zarur ko'nikma hosil qilishga o'ndaydi. Didaktik o'yinlar bolalarning ma'naviy va ahloqiy kamolotida ularning mukammal inson bo'lib kamol topishida tarbiyaviy ta'sir qudratiga ega. O'yin timsolida bolalar jamoa bo'lib yashashga, uyushqoqlikka, birgalikka ijod qilishga ishlashga va mustaqillikka o'rganadilar.

Didaktik o'yinlar bolalarning aqliy faoliyatini, ongini o'stirishda ularning fikrlash tashabbuskorligini oshirishga xizmat qiladi. Bolalarning his – tuyg'ularini shakllantirishga, ayniqsa ularning sezgi a'zolari (sezish, ko'rish, tinglash, va boshqalar) faoliyatini oshirishga yordam beradi. Uning irodasi, zehni, xotirasi, irodasi mustahkamlanib boradi. Diqqati, topqirligi oshib boradi. Olgan bilimlarini o'z faoliyatida mehnat o'yin jarayonida sinab ko'rish ishtiyoqi paydo bo'ladi.

Dars mashg'ulotlarida faqat bir xildagi o'yin - topshiriqlar bilan cheklanib qolmay, balki ko'proq ijodiylikka undovchi o'yin – topshiriqlarga e'tiborni kuchaytirishga to'g'ri keladi. Zero, o'quvchilarni fikrlashga, o'ylashga, matn yaratishga o'rgatmasak, hozirgi zamon darsiga qo'yilgan muhim talab shaxsning rivojlanishiga erishib bo'lmaydi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. T. G'afforova. Boshlang'ich ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar. O'quv qo'llanma. - T. : Tafakkur, 2011 36-b
2. Azizxo'jayeva N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. - Toshkent: O'zbekiston yozuvchilar uyi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006.
3. Fuzailov S., Xudayberganova M., Yoldosheva S. Ona tili. 3-sinf uchun darslik. Toshkent, "O'qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012.
4. Ikromova R., Gulomova X., Yoldosheva Sh., Shodmonqulova D. Ona tili. 4-sinf uchun darslik. - "O'qituvchi" nashriyoti. 2012.
5. Jumaniyozova Dilfuza Farxodovna (Urganch, O'zbekiston) Boshlang'ich ta'limda didaktik

o'yinlar- dars samaradorligini oshirish omili sifatida.

6. АКТУАЛЬНЫЕ ВЫЗОВЫ СОВРЕМЕННОЙ НАУКИ LIII Международная научная конференция 26-27 ноября 2020 г. 43-bet

DARS SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING O'ZIGA XOS YO'LLARI

Bekboyeva Nafiza Jaxongirovna

*Sirdaryo viloyat Boyovut tuman 34-umumta'lim maktabining
boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada boshlang'ich ta'lim tizimida dars samaradorligini oshirish yo'llari haqida ma'lumot berib o'tilgan.*

Kalit so'zlar. *Boshlang'ich ta'lim, dars jarayoni, ta'lim texnologiyalari.*

Maktabdagi o'quv jarayoning sifati ko'p omillarga bog'liq bo'lib, ular orasida o'qitishning usul va metodlari hal qiluvch ahamiyatga ega. Binobarin, ular bilimlarning ongli va chuqur o'zlashtirishda o'quvchilardan mustaqillik va ijodiy faollikning rivojlanishiga tasir ko'rsatadi. Pedagogika amaliyotida o'qitish usullari va metodlariga juda katta boylik to'plangan. Ularni tanlashda turli sharoitlar o'qitilayotgan fanning xarakteri bolalarning yosh xususiyatlari, oldingi tayyorgarlik darajasi va hokozalar hisobga olinadi.

Ta'limiy maqsad asosida o'quvchilarda mustaqil fikrlash, og'zaki va yozma savodxonlikni oshirish, mantiqiy tafakkurni rivojlantirish orqali ularning muloqot madaniyati takomillashtiriladi. Tarbiyaviy maqsad asosida esa ma'naviy, g'oyaviy, nafosat tarbiyasi beriladi. Til o'rganish jarayonida xalqning madaniy-axloqiy qadriyatlariga yaqinlashtirish imkoni paydo bo'ladi. Ulug' donishmandlardan biri «... kelajak tashvishi bilan yashasang, farzandlaringga yaxshi bilim ber, o'qit», degan ekan. Yurtimizda ta'lim-tarbiya tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar haqiqiy ma'noda bir-ikki yillik yoki qisqa davrda samaraga erishishga qaratilgan ish emas, balki chin ma'noda bir necha yuz yillarga tatiydigan o'zgarish bo'ldi, desak xato bo'lmaydi. Bu prezidentimizning kelajagimiz, kelajak avlodimiz haqida qayg'urib, yurtimizning barcha farzandlari–mening farzandlarim, ular bizlardan ko'ra kuchli, bilimli va albatta baxtli bo'lishlari kerak, degan g'oyasi zahirida donishmandlarcha siyosat yotganini ko'rsatadi.

Ma'lumki, ta'limda ilg'or pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalarini tatbiq etish o'quv mashg'ulotlarining samaradorligini oshiribgina qolmay, ilm-fan yutuqlarini amaliyotda qo'llash orqali mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, har tomonlama barkamol yuksak ma'naviyatli shaxsni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol metodlar va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish esa ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topish, mustaqil o'rganish va fikrlash, tahlil qilish, hatto yakuniy xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxs rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Bugungi kunda ta'limda «**Aqliy hujum**», «**Fikrlar hujumi**», «**Tarmoqlar**» **metodi**, «**Sinkveyn**», «**BBB**», «**Beshinchisi ortiqcha**», «**6x6x6**», «**Bahs-munozara**», «**Rolli o'yin**», «**FSMU**», «**Kichik guruhlarda ishlash**», «**Yumaloqlangan qor**», «**Zigzag**», «**Oxirgi so'zni men aytay**» kabi zamonaviy texnologiyalar qo'llanmoqda.

Dars mashg'ulotlarida o'yin-topshiriqlarni takrorlash yoki mustahkamlash darslarida foydalanilsa ijobiy natija beradi. O'yin-topshiriqlarning qaysi bir turini tanlash darsning turiga, sinf o'quvchilarining o'yin-topshiriqlarni bajarishga o'rgatilganlik darajasi, ularning bilim saviyasi, mustaqil ijodiy ishlash imkoniyatlari, o'rganilganlarni xotirada tez tiklay olishi, ijodkorlikning qay darajada shakllanganiga ham bog'liq bo'lishi kerak.

Bugungi kun o'qituvchidan ilg'or pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalaridan o'quv jarayonida foydalanishni talab etmoqda. Yuqoridagilardan kelib chiqib, tajribalarimiz asosida dars mashg'ulotlarida interfaol metodlarni qo'llash orqali ta'lim-tarbiya berish yo'llariga doir

fikrlarimizni bayon etamiz. Shuningdek, o'quvchilarni o'z yo'nalishini tanlash va mustaqil hayotga tayyorgarlik ko'nikmalarini shakllantirishdek mas'uliyatli vazifani bajarishda ularning yaqin ko'makchilardan biriga aylanadi. Quyida sinflar kesimida ayrim mavzular asosida o'qitishning zamonaviy usullarini tatbiq etish bo'yicha tavsiyalar beramiz.

Bugungi kunda har bir o'qituvchi izlanishda, harbir o'qituvchida ijodkorlik mavjud. Men har bir darsimda nimadir qiziqarli narsa ijod qilib darsni o'tishga harakat qilaman. Misol uchun o'qish darsligidagi matnlar yuzasidan quyidagicha o'yinlarni tashkil etish mumkin.

o'tob	mamlakat	O'tob	
yurt	xarakter	G'ora	
el	quyosh	Yurt	
g'o'ra	yaxshi	El	
xush	xalq		
fe'l	dovuchcha		

Birinci ustunda berilgan so'zlarning ma'nodoshini ikkinchi ustundan topib aytadi. Ikkinchisida esa birinchi ustundagi so'zlarning ma'nodoshini ikkinchi ustunga yozadilar. Bu ta'limiy o'yinlar orqali o'quvchilarning so'z boyligi oshadi, nutqi rivojlanib boradi, bu mashqlarni har darsimizda, har doim foydalanib borishimiz mumkin.

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki darslarning samaradorligini oshirish, o'quvchilarning bilim darajalarini boyitishda darslarda turli interfaol metodlardan foydalanish yaxshi samara beradi. O'quvchilarda bilimga ishtiyoq uyg'otadi. O'quvchilar darsga puxta hozirlik ko'rishga intiladilar. Bunday usullar darsning qiziqarliligini va ta'sirchanligini oshiradi, o'quvchilarni ta'lim jarayonining faol sub'yektlariga aylantiradi. O'quvchilarning mustaqil bajarib, tushunib yetishlari uchun turli interaktiv metodlar va mashqlardan foydalanishimiz mumkin.

Adabiyotlar.

1. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari // Muslimov N. A., Usmonboyeva M. H., Sayfurov D. M., To'rayev A. B. – Toshkent, 2015.
2. R. Ishmuxamedov, L. Abduqodirov, A. Pardayev. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. — T., 2008

SAVODGA O'RGATISH DAVRIDA DIDAKTIK O'YINLARDAN FOYDALANISHNING SAMARASI

Bekboyeva Onabibi Jaxongirovna

Sirdaryo viloyat Boyovut tuman 34-umumta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich ta'lim tizimida o'quvchilarning dars jarayonidagi faolligini, so'z boyligini oshirish va nutq ravonligini ta'minlashga qaratilgan usullar haqida, hamda savod o'rgatishda didaktik o'yinlardan foydalanish yo'llari haqida to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar. Boshlang'ich ta'lim, dars jarayoni, ta'lim texnologiyalari, jumboqli topishmoqlar.

“Alifbe” maktab davrida o'zlashtiriladigan darslik ekanligini hisobga oladigan bo'lsak uni o'rganishni boshlagan davrdan har bir o'quvchiga til o'rganishda zarur deb hisoblagan 4 ta: eshitib tushunish, o'qish; yozish va fikrni bayon qilish ko'nikmalarini rivojlantirish juda muhim ahamiyat kasb etadi. Umumta'lim maktablari o'quvchilari aqliy salohiyatining o'sib borishi, ularning ta'lim mazmuniga chuqurroq kirib borishga intilishi o'qituvchilardan o'z ustida tinimsiz izlanishlarini, bugungi kun nafasi bilan yashashlari hamda ta'lim sohasidagi eng so'ngi yangiliklardan boxabar bo'lib borishlarini talab etadi. Zamonaviy o'qituvchi dars jarayonida o'z o'quvchilarini ta'lim jarayonida ijodiy yondashuv asosida qarashlarini tashkil qilishi, ularda mustaqil ishlash ko'nikma malakasini rivojlantirib darslarda turli xil didaktik o'yinlardan foydalanib o'quvchilarni darsga bo'lgan

qiziqishlarini oshirib borishlari kerak.





Maktabda o'qitish elementar o'qish va yozishga o'rgatishdan boshlanadi. "Alifbe"ga asoslangan holda qisqa vaqt ichida o'quvchilar o'qish va yozishga o'rgatiladi, ya'ni o'qish va yozish ko'nikmasini egallaydilar. Savod o'rgatish analitik-sintetik tovush metodida olib boriladi. So'z bo'g'inga ajratiladi, bo'g'indan kerakli - o'rganilayotgan tovush ajratilib olinadi, tahlil qilinadi, o'rganilgan harf bilan sintezlanadi. Savodga o'rgatish darslari tayyorgarlik va asosiy davrni o'z ichiga qamrab olib, mazkur bosqichda o'quvchilar bilan olib boriladigan ta'limiy-tarbiyaviy ishlar turli-tumandir. Xususan, bu davrda: matn, og'zaki va yozma matn haqida, gap, matnning gaplardan tuzilishi, so'z, gaplarning so'zlardan tashkil topishi, ya'ni matn tuzish va uni bo'laklarga bo'lib matn tarkibini tashkil qiluvchi qismlarni idrok etishga o'rgatish, bo'g'in, tovush, harf haqida ma'lumot berish, unli tovushlar va undosh tovushlar haqida ma'lumot berish, tovushlarning unli va undosh tovushlarga ajralishini o'rgatish, alifbedagi rasmlar, o'qituvchi yoki o'quvchilar tomonidan tayyorlangan suratlar asosida matn tuzdirish, o'quvchilar bilgan she'r, hikoya, ertak, maqol, tez aytish va boshqalarni yoddan aytirish, ularga yangi she'r, hikoya, ertak, maqol, topishmoq kabilarni o'rgatib borish, alifbe darsligidagi so'zlar, uning ma'nolari ustida ishlash, tanish so'zlar asosida o'quvchilarni gap tuzishga o'rgatish, harf va tovush orasidagi mutanosiblik va farqni tushuntirish ishlari olib boriladi.

Darslikda jumboqli topshiriq va krossvordlar berilgan. Jumboqli topshiriqlarni yechishda o'qituvchi o'quvchilar jamoasining imkoniyatlarini hisobga olishi, ba'zi topshiriqlarni yechish ga bolalarni oldindan tayyorlashi, ya'ni jumboqli topshiriqni kattalashtirilgan nusxasini ko'rsatib, undagi ba'zi o'rinlarni izohlashi maqsadga muvofiqdir. O'qituvchi darslik materiallari bilan cheklanib qolmay, ushbu so'zlar mazmunini to'liq izohlashda turli mazmunli rasmlardan ijodiy foydalanishi maqsadga muvofiqdir.





Misol uchun Ch va S harflarini o'tish jarayonida o'quvchilarga har xil rasmlar tarqtilib shulardan qaysilari ushbu harflar bilan boshlanadi shularni harflar atrofiga joylashtiring degan vazifalarni berishimiz mumkin, bunda o'quvchilar filklash doirasi yetguncha bu vazifalarni bajarishi mumkin.



Ushbu rasmlar berilgan bo'lsin, bunda o'quvchilar o'tilgan harflar yoniga tegishli rasmlarni olib borib qo'yishadi.

Ch			
			

Yoki

S			
			

kabi joylashtirib chiqishadi. Bu mashqni har dars oxirida darsni mustahkamlash uchun yoki

yangi darsni boshlashdan oldin o'tilgan darsni mustahkamlash uchun foydalanib borsak maqsadga muvofiq bo'lardi deb o'ylayman. Chunki maktabga kelgan bolalarimiz o'yinqaroq, ularda xali ko'p o'tirish shakllanmagan shuning uchun darslarimizda oyin shakllarini ko'proq ishlantsak menimcha yaxshui natija beradi.

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki didaktik o'yinli darslar yangi mavzuni bayon qilish, mustahkamlash, bolalar bilimini sinab ko'rish va baholash jarayonida qo'llanilishi mumkin. O'qituvchi o'quvchilarni yakkama-yakka, keyinchalik guruhli o'yinlarga tayyorlashi, ular muvaffaqiyatli chiqqanidan so'ng ommaviy o'yin darslarini o'tkazishi kerak. Chunki o'quvchilar didaktik o'yin darslarda ishtirok etish uchun kerakli bilim, ko'nikma va malakalarni egallagan bo'lishlari zarur.

Foydalangan adabiyotlar

1. R. Safarova, M. Inoyatova. Alifbe. O'qituvchi kitobi-2021 yil
2. I. Safarova R., II. G'ulomov. Savod o'rgatish darslari. O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. -T: Tafakkur, 2012
3. Internet materiallari: <http://go.mail.ru/search?>. "Ta'lim texnologiyalari"

BOSHLANG'ICH SINFD A DARS SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA "ASSESSMENT" TEXNIKASINING O'ZIGA XOS O'RNI

Erbo'tayeva Sohiba Mahamatovna

Sirdaryo viloyat Guliston tuman 34-maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada boshlang'ich sinf darslari jarayonida "Assesment" texnikasidan foydalanish yo'llari haqida fikr yuritilgan*

Kalit so'zlar: *texnologiyalar, assessment, vosita, jarayon, natija*

Pedagogik texnologiyalar ta'lim-tarbiya jarayonini ilg'or vositalari, metodlar, texnik vositalar, usullariga tayanib takomillashtirish tizimi hisoblanadi. Bu tizim o'qituvchi tomonidan yaratiladi, ta'lim-tarbiya bosqichlarini o'zaro bog'lashga xizmat qiladi. Uning mazmuni va vazifalarini, maqsadini oldindan belgilash, ta'limtarbiyaning shakllari va vositalarini tayyorlash, o'quvchida shakllantirish ko'zda tutilgan ma'naviy sifatlarini o'zlashtirishga yo'naltirilgan darslarni rejalashtirish kabilarni o'z ichiga oladi.

Ta'limning barcha bo'g'inlarini shunday tashkil etish kerakki, u yoshlarga chuqur va asosli bilim berish bilan birga keng qamrovli fikrlashga o'rgatsin. Pedagogik texnologiyaning asosiy mohiyati o'quvchilarni qiziqitirib o'qitish va bilimlarni to'liq o'zlashtirishga erishishdir. Ta'limda berilayotgan bilimlarni o'quvchilarning ko'pchilik qismi puxta o'zlashtirishi pedagogik texnologiya joriy etilishining asosiy maqsadi hisoblanadi. Pedagogik texnologiya ta'lim-tarbiya jarayonining mavjud qonuniyatlariga, mamlakatimiz rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlariga, tarixiy taraqqiyot tajribalariga asoslanadi. Pedagogik texnologiyani yaratish milliylik va umuminsoniylik tamoyillariga, insonparvarlik va demokratiya prinsiplariga, ijodkorlik va tashabbuskorlikka tayanadi Bugungi kunda fan-texnikaning rivojlanishi bilan inson faoliyati nihoyatda kengayib, yangi texnologiyalar kirib kelmoqda


Har bir o'quvchi qobiliyatini aniqlash, to'g'ri yo'naltirish va takomillashtirish o'qituvchi faoliyatiga bog'liq. Pedagogik texnologiya o'quvchiga ta'lim jarayonining subyekti-faol ishtirokchisi, o'qituvchiga jarayonning tashkilotchisi, boshqaruvchisi sifatida qarashni talab etadi. Bugungi kunda o'quvchilarni o'qitish emas, balki, ularni o'qishga o'rgatish zarur. Chunki, biz hayotga bitiruvchilarni emas, balki, maktab ta'lim-tarbiyasini ko'rgan mustaqil shaxsni yetkazishimiz kerakligini muhtaram Yurtboshimiz ko'p ta'kidlaydilar. Darslarni zamon talabi darajasida, interfaol usullarda, innovatsion yo'nalishlarda, turli noan'anaviy yo'sinda tashkil etilishi o'quvchilar ongi, dunyoqarashining kengayishiga, mustaqil fikrlovchi shaxsni, ijtimoiy-siyosiy hayotda ongli ishtirok etadigan fuqaroni shakllantirishga omil bo'lib xizmat qiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari yoshiga munosib o'yinqaroq va sho'x bo'lishadi. Ularga yangi mavzuni tushuntirishda faqat bir xil usuldan foydalanish bolalarni charchatish va zeriktirishga olib keladi. Shunday ekan, ularga dars o'tishda turli qiziqarli metod va texnologiyalar, didaktik o'yinlardan foydalangan o'qituvchi o'quvchilar o'zlashtirishida

samaradorlikka erishiishi tayin

Darslarni noan'anaviy usulda o'tadigan zamonaviy o'qituvchining eng birinchi yutug'i esa butun sinf o'quvchilarining darsga tayyorlanib kelishi hisoblanadi. Biz har bir darsimizni pedagogik texnologiya asosida o'tishimiz darsni yanada samarali bo'lishiga olib keladi. Men o'z darslarimda "Assesment" texnikasidan matematika fanidan qanday foydalanish yo'llari haqida to'xtalib o'tmoqchiman.


"Assesment"-inglizcha assessment so'zidan olingan bo'lib, "baho", "baholash" ma'nosini bildiradi. Maqsadi-o'quvchilarning bilimni bir necha xil yondashuvlar orqali baholash, tahlil qilish, sinab ko'rishdan va o'z-o'zini baholashga imkoniyat berishdan iboratdir.

Ushbu topshiriq 3-sinf matematika darsligi bo'yicha berilayapti.

Test	Savol
<p>Kulol 50 daqiqada 2 ta laganga gul rasmini chizdi. U shunday 7 ta laganga gul chizishi uchun necha daqiqa kerak bo'ladi?</p> <p>A) 185 B) 175 C) 180 D) 170</p>	<p>Rasm asosida masala tuzing va yeching:</p> 
Topshiriq	
<p>Bir yil oldin maktabda 890 nafar o'quvchi o'qir edi. Ulardan 80 nafari maktabni bitirishdi. Yangi o'quv yilida 1-sinfga 90 nafar o'quvchi qabul qilindi. Hozir necha nafar o'quvchi o'qimoqda</p>	

O'quvchilarga ushbu tarzda tarqatmalar beriladi va ular tomonidan yechiladi. Hamma yechib bo'lganidan keyin o'qituvchi tomonidan javoblar aytiladi va har bir bola javoblarga qarab o'zlarini baholashadi.

Javoblar

Test	Savol
<p>Dilbar kuniga 6 sahifadan kitob o'qidi. 14 kun o'qiganidan so'ng kitobning 12 sahifasi qoldi. Kitob necha sahifadan iborat?</p> <p>A) 84 B) 74 C) 86 D) 96</p>	<p>Berilgan shaklning yuzini hisoblang</p> 
Topshiriq	
<p>Dangasa bola bir sutkaning yarmini uxlash va ovqatlanish, choragini maktabda bo'lishga, yana bir choragini o'yin va televizor ko'rishga sarfladi. Sutkaning qolgan qismida dars tayyorladi. U necha soat dars tayyorlagan?</p>	

Shu tarzda javoblarni berishi mumkin. Bu esa o'quvchining bilim darajasini kengligiga bog'liq.

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki ushbu texnologiyalar ta'lim jarayonining unumdorligini oshiradi, o'quvchilarni mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o'quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, bilimlarni mustahkam o'zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko'nikma va malakalarini shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. R. A. Mavlonov, M. Arabova, G. Salohitdinova "Pedagogik texnologiya" T. O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi. "Fan" nashriyoti. 2008.
2. J. G. Yo'ldosheva, F. Yo'ldosheva, G. Yo'ldoshev "Interfaol ta'lim sifat kafolati" T. 2008.

BOSHLANG'ICH SINFDAN MANTIQUIY TOPSHIRIQLAR FOYDALANIB O'QUVCHILAR TAFAKKURINI KENGAYTIRISH

Julmatova Manzura Abulkosimova

irdaryo viloyat Boyovut tuman 34-umumiy o'rtata'lim maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini mantiqiy topshiriqlar orqali fikrlash qobiliyatini oshirish, mantiqiy topshiriqlarni o'rni haqida fikr yuritilgan*

Kalit so'zlar: *mustaqil ish, ijodiy yondoshish, mashq, mantiqiy topshiriq*

Globallashuv sharoitida shiddat bilan rivojlanib borayotgan davr davlat va jamiyat oldiga dolzarbligi va qamrovi kun sayin ortib borayotgan zamonaviy talablarni qo'ymoqda. Olamshumul strategik maqsadlarga erishish, yangi marralarni zabt etish, rivojlangan davlatlar qatoridan o'rin olish uchun mamlakatda bilimli, tajribali va zamonaviy fikrlaydigan yuksak salohiyatli kadrlar, mutaxassislarning o'rni beqiyos. Bunday raqabatbardosh kadrlarga bo'lgan ehtiyojni qondirish zahirida inson kapitali, sodda qilib aytganda, inson, uning salohiyatini kashf etish hamda uni buyuk maqsadlarga erishishga safarbar qilish kabi ulug'vor vazifalar turadi. Bu vazifalarni amalga oshirishda o'qituvchining o'rni katta.


Darslarda o'qituvchi o'z bilimi, ko'nikma va malakalarini mashg'ulotlar vositasida o'quvchilarga yetkazadi, o'quvchilar esa uni o'zlashtirib borishi natijasida undan foydalanish qobiliyatiga ega bo'ladi. O'rganish jarayonida o'quvchilar o'zlashtirishning turli ko'rinishlaridan foydalanishadi, ya'ni o'zlashtirilayotgan ma'lumotlarni qabul qilish, qayta ishlash hamda amaliyotga tatbiq etishda o'ziga xos tafovutlarga tayanadi.

O'quvchilarni darsga bo'lgan qiziqishlarini oshirishda mantiqiy topshiriqlardan foydalanishimiz ancha samara beradi. Biz mantiqiy fikrlash, mantiq kabi so'zlarni ko'p gapiramiz va tez-tez eshitib qolamiz. Mantiqiy mashqlar bolalarning narsa va atrof-muhit haqidagi bilimlarini tartibga soladi va ularga to'g'ri fikrlash usullarini o'rgatadi. Mantiqiy masalar ustida ishlash asosida o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlari shakllanib boradi. Mantiqiy fikrlashni rivojlanishi asosida bolada mustaqil fikr, mulohazalar paydo bo'ladi. Fikrlash yangi g'oyalar va ular ustida ishlash imkoniyatlarini yaratadi.

Matematika fanidan o'quvchilarning qiziqishini oshirish uchun qo'shimcha mashg'ulotlarning o'rni katta. Qo'shimcha mashg'ulotlarda odatdagi misol va masalardan tashqari qiziqarli va mantiqiy masalalardan foydalanilsa, o'quvchining fikrlash doirasi yanada kengayib, matematik bilimlarini amaliyotda qo'llash ko'nikmasi hosil bo'lar edi. Mantiqqa asoslangan xulosalar chiqarish, matematikaning qiziqarli yo'nalishini belgilaydi. O'quvchining tafakkur doirasi kengayib boradi. Mantiqiy masalalar ustida ishlash imkoniyatlarini egallash borasida bolaning yosh va individual xususiyatlarini inobatga olish muhimdir. Berilgan mantiqiy masala bolaning bilim va qabul qilish darajasida bo'lishi muhimdir. Bolalarga songa oid, miqdorga oid, o'lchov birliklariga oid, geometrik shakllarga doir mantiqiy masalar berilishi darslarda olgan bilimlarini mustahkamlaydi, ularning mustaqil ishlash imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu bilan bir qatorda boshqa fanlardan olgan bilimlari bilan to'ldirish va bog'liqlikni ta'minlaydi

O'quvchi qanday masala yechishidan qat'iy nazar, albatta, fikrlaydi. Odamning aktiv faoliyati, uning mehnati hamma vaqt masalalarni yechish kaliti bo'ladi. Bola aqliy kuchlarini ishlatib, predmet va hodisalar o'rtasidagi aloqalarni aniqlashga intilib, muayyan ish qiladi. Tevarak olamda minglab masalalar bor. Ularni xalq o'ylab topgan, ular topishmoq- hikoyalar tarzida xalq ijodida yashab keladi.

Men har bir darslarimni oxirida o'quvchilar bilan mantiqiy savol va topshiriqlardan foydalanishga harakat qilaman. Bu o'quvchilar fikrlash doirasini kengaytirib darsga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshirishga yordam berdi. Bundan qiziqqan o'quvchilarim o'zlari ham shunday masalar bilan darsda qatnashishga harakat qilishadi. Misol uchun:



Yoki shunday mantiqiy misol berilgan bo'lsin. 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 10, 11, 12, 13, 14, 15, 16 sonlarini kataklarga shunday joylashtirinki, har bir qatorda, har bir ustunda, har bir diagonallarida sonlarning yig'indisi 34 bo'lsin.

Bis misolni quyidagi tartibda ishladik.

10	3	15	6
4	5	9	16
13	12	8	1
7	14	2	11

15	9	8	2
10	6	11	7
4	16	1	13
5	3	14	12

Bugungi kunda mantiqiy topshiriqlardan foydalanish xalqaro baholash dasturlariga ham mos keladi. Mantiqiy topshiriqlar bilan ishlash jarayonida biz o'quvchilarni ushbu tadqiqotga ham tayyorlab boramiz. Mantiqiy topshiriqlarni ko'rgazmali tarzda ham amalga oshirsak bo'ladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, hozirgi zamon boshlang'ich matematika kursi, unga kiruvchi mantiq elementlari va tegishli metodik ishlanmalarning maxsus alohida ta'kidlari natijasida o'quvchilarda mantiqiy mahoratlarni o'stirishga xizmat qiluvchi nostandart masalalarni yechishni to'laqonli va maqsadga yo'naltirilgan holda o'tkazish imkonini beradi.

Foydalangan adabiyotlar

1. Djurakulova A. X. O'quvchilarning qobiliyatini shakllantirishda nostandart masalalar ahamiyati.
2. Rashid Oqilov. Sanamay sakkiz dema. 1976 yil.

BOSHLANG'ICH SINFDAN MANTIQUIY MASHQLAR ORQALI O'QUVCHILAR BILIMINI OSHIRISH YO'LLARI

Qodirova Dilafruz Shermuhammedovna

Sirdaryo viloyat Guliston shahar 11-umumta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada insonning fikrlash qobiliyati, mantiqiy tafakkur va o'quvchilar ongini o'stirishda mantiqiy mashqlarning o'rni, darslar jarayonida mantiqiy topshiriqlardan foydalanish yo'llari va uning samarasi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: dolzarb vazifalar, tafakkur, mantiqiy mashg'ulot, rivojlanish, atrof muhit, narsalar.

Jamiyat rivojining hozirgi darajasi va turli manbalardan ma'lumotlarni tarqalishi, boshlang'ich sinflardayoq o'quvchilarga hodisalarni mohiyati va sabablarini ochib berishni, ularni tushuntirishni talab qilmoqda.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning aqliy imkoniyatlari haqidagi muammolar turli

davrlarda turlicha hal etilgan. Qator zamonaviy tadqiqotlar natijasida bolaning aqliy imkoniyatlari ilgari taxmin qilinganidan kengroq ekanligi aniqlandi, ya'ni ta'limni maxsus tashkil etilishi asosida boshlang'ich sinf o'quvchisi abstrakt, nazariy materialni o'zlashtirishi mumkin.

Mantiqiy mashqlar bolalarning narsa va atrof-muhit haqidagi bilimlarini tartibga soladi va ularga to'g'ri fikrlash usullarini o'rgatadi. O'quvchi maktabga kelganda, keng lug'at boyligiga ega bo'lsa ham, odatda, tafakkurning taqqoslash, qarshi qo'yish, umumlashtirish, guruhlash usullaridan foydalanishni bilmaydi (ayniqsa, bilish faoliyatining ob'ekti aniq predmet emas, uni ifodalovchi so'zlar bo'lsa). Mantiqiy mashqlarning vazifasi u yoki bu narsa va hodisalar bilan tanishish asosida bolalarni predmet va hodisalardan muhimini, umumiysini ajratishga, so'z bilan aniq ifodalashga o'rgatish, bolalarga mantiqiy usullar tizimini o'rgatish bilan bilimni material tomondan boyitish va uni aqliy tomondan o'stirish hisoblanadi.

1. Narsalarni mavzuga tegishli guruhini tuzish: ust kiyimlar (*ko'ylak, kostyum,...*) va oyoq kiyimlar (*botinka, tufli,...*); uy hayvonlari va yovvoyi hayvonlar kabi. Bunda bolalar «*Bu nima?*» so'rog'iga javob berishga o'rgatiladi: *Bunima? -Avtobus. Avtobusnima? -Mashina.*

2. Bir turdagi narsalarni sanab ko'rsatish va umumlashtiruvchi bir so'z bilan nomlash. Masalan, *stol, stul, shkaflarni* bir so'z bilan qanday nomlash mumkin? (*Mebel*)

3. Berilgan narsalardan bir guruhga kirmaydiganlarini ajratish.

Masalan, *qalam, pero, chizg'ich, o'chirg'ich, stul* ko'rsatiladi, o'quvchilar o'quv qurollarini ajratadilar, *stul* o'quv quroliga kirmasligini, *mebel* ekanini aytadilar. Bunday mashq o'yin tariqasida o'tkazilishi ham mumkin: ma'lum so'zlar berilib, ortiqchasini topish va nima uchun ortiqcha ekanini tushuntirish talab etiladi: *qaldirg'och, chumchuq, mushuk, musicha.*

4. Predmet nomlari va belgi bildirgan so'zlarni guruhlarga ajratish. Bunda so'zlar *choynak, tesh, bolta, piyola, arra, tarelka* kabi aralash beriladi. O'quvchilar guruhlab, *idishlar nomi: choynak, piyola,...*; *ish qurollari nomi: tesh, bolta,...* kabi yozadilar. Narsa belgisini bildirgan so'zlar ham aralash beriladi, bolalar to'rt guruhga (rang, maza, shakl, xususiyat) ajratadilar.

5. Qarama-qarshi qo'yish bilan umumlashtirish: *qaldirg'och, chumchuq, bulbul* – qushlar, *tovuq, xo'roz, kurkalar-chi?* (*Parrandalar.*)

Mantiqiy mashqlar sarmazmun bo'lishi, o'quvchilarning tajribasi bilan bog'lanishi, ularni to'g'ri fikrlashga o'rgatishi, bilimlariga aniqlik kiritishi va tartibga solishga xizmat qilishi lozim. Bunday mashqlardan o'rni bilan boshqa darslarda ham, o'qish va grammatika darslarida ham foydalaniladi.


Mantiqiy mashqlar sarmazmun bo'lishi, o'quvchilarning tajribasi bilan bog'lanishi, ularni to'g'ri fikrlashga o'rgatishi, bilimlariga aniqlik kiritishi va tartibga solishga xizmat qilishi lozim.



Bunday mashqlardan o'rni bilan boshqa darslarda ham, o'qish va grammatika darslarida ham foydalaniladi. Misol uchun tabiat va atrof muhit bilan tanishtirish davomida quyidagi tartibdagi rasmlardan ham foydalansak bo'ladi. Bunda o'quvchilarimiz rasmlarga qarab uy va yovvoyi hayvonlarni ajratib olishlari kerak.

Yoki bo'lmasam quyidagi topshiriqlarni berib ham ularning mantiqiy tafakkurini kengaytirib

borsak bo'ladi.



Ushbu topshiriq ham o'quvchilarni o'ylantirishga, fikrlashga undaydi, yana darsga bo'lgan faolligini oshirishga olib keladi. Bunday topshiriqlarni mavzularga moslab, fanimizga moslab ham tayyorlab borsak bo'ladi deb o'ylayman.

Xulosa qilib aytganda mantiqiy mashqlar o'quvchilar tafakkur doirasini kengaytirish, fanga bo'lgan qiziqishlarini oshirish, amaliy ishlay olish ko'nikmalari rivojlantir imkonini beradi deb hisoblayman.

Adabiyotlar

1. Ishmuxamedov R. v. b. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. – T. : “Iste'dod”, 2008. – 180 b.
2. Qosimova K., Matjonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariev Sh.. Ona tili o'qitish metodikasi. - T. : “Nosir” nashriyoti, 2009.

BOSHLANG'ICH SINFD A DARS SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INTEGRATSIYANING O'RNI

Sariyeva Barno Xamrayevna

Sirdaryo viloyat Oqoltin tumani 10-umum ta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf darslarida integratsiyaning o'rni va uning samarali jihatlari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: mustaqil ish, ijodiy yondoshish, integratsiya, atrof-muhit, ta'lim-tarbiya

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarga muvofiq, ta'lim-tarbiyaviy jarayonda jamiyat va atrof-muhit o'rtasidagi aloqalarni uyg'unlashtirish, atrof-muhitga ijodiy munosabatni o'rnatish va shakllantirish muammolari muhim ahamiyat kasb etadi.

Integratsion dars loyihasining tematikasi o'quv dasturining qaysidir masalasiga tegishli bo'lishi mumkin, bunda alohida qaralgan iqtidorli o'quvchilar va umuman, sinf o'quvchilaridagi mazkur mavzu yuzasidan o'zlashtirish darajasini belgilovchi bilimni chuqurlashtirish, o'rganish jarayonini differentsiallashtirish maqsad qilib olinadi.

Bugungi kunda, ya'ni ta'lim-tarbiyaning hozirgi zamonaviy bosqichida o'qituvchining ishlash tizimi o'zgarmoqda va pedagogik texnologiyalar, integratsiyalar, innovatsiyalar amaliyotda keng qo'llanilmoqda. O'quv fanlararo aloqadorlik ta'minlangan sharoitda o'quvchilarning egallagan bilimlari samarali rivojlanishi bilan bir qatorda ularning idrok etish qobiliyati, faolliklari, qiziqishlari, aqliy intellektual imkoniyatlari ortishiga erishiladi. O'quv fanlararo aloqadorlikni turli o'quv predmetlari bo'yicha o'quv dasturlari, darsliklar mutanosibligini ta'minlovchi didaktik imkoniyat sifatida tushunish lozim.

Har bir dars o'quvchiga ilmiy bilim, tasavvur va tushunchalarning ma'lum bir yig'indisini berishi, hamda tarbiyalash va rivojlantirishi kerak. Dasturdagi materialni ular dars davomida o'zlashtirishlari kerak. Bu o'quvchilarning o'quv mashg'ulotlari bilan ortiqcha yuklanmasligining muhim shartidir, chunki yaxshi o'zlashtirilgan dars uy vazifasini bajarish uchun ketadigan vaqtni ancha qisqartiradi. Boshlang'ich sinflarda fanlarni integratsiyalash dars samaradorligini oshiradi, vaqtdan unumli foydalanishga olib keladi, darsni chuqur o'zlashtirishga yordam beradi.

Boshlang'ich ta'limda integratsiyani bir- biriga nisbatan yaqin fanlarini birlashtirish asosida

ko'rish maqsadga muvofiq. Boshlang'ich sinflarda har bir o'qituvchining dars berishini alohida olingan integratsiyaning bir usuli deb hisoblasak ham bo'ladi. Ona tili darslarida qiziqtiradigan tabiat hodisalari, hayvonot va o'simliklar dunyosi, vatanimiz o'tmishi, buyuk ajdodlar haqida ma'lumot beruvchi matnlarni, mazmunli rasmlarni tahlil qilib borish maqsadga muvofiqdir. Boshlang'ich sinflarda fanlararo aloqadan foydalanib, dars jarayonini tashkil qilish o'quvchilarni izlanuvchanlikka undaydi.

Har bir dars mazmuni belgilanayotganda predmet ichidagi va predmetlararo aloqalar hisobga olinadi. Darsning mazmunini belgilangach o'qituvchi qanday tasavvur va tushunchalar unda o'z rivojini topishini, o'quvchi qanday bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishini aniqlaydi. Darsning maqsadi va mazmuniga mos ravishda o'qituvchi ta'lim metodlarini tanlaydi. Darsda o'qituvchi va o'quvchining faoliyatlari bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lganligi sababli, bu faoliyatlarning aniq bosqichlarini belgilab olish kerak. Butun dars davomida sinfnig faol ishlashi uchun, usul va vositalarning to'g'ri almashinuvini aniqlab olish kerak.


Boshlang'ich ta'limda ona tili, o'qish, tabiat, tasviriy san'at darslarini integratsiyalash mumkin. Masalan, O'zbekiston mening Vatanim mavzusini o'tishi uchun mavzu tushuntiriladi, tabiiy boyliklari va ularni qadriga etish ko'rib chiqiladi va mavzu asosida rasm ham chiziladi. Bu esa bolani mavzuni yaxshi tushunib olishiga yordam beradi, kengroq va chuqurroq tushunishiga imkon beradi, uzoq vaqt yodda saqlab qolishiga yordam beradi. Bu esa dars samaradorligini oshiradi deb o'ylayman.

Yana 2-sinf ona tili darsligida Anvar Obidjonning "Oqshom" mavzusidagi she'ri berilgan. She'rda shunday misralar bor.

Bir piyola choy kabi
Bulut oyni ho'pladi.
Tovuq beka katakka
Jo'jalarin to'pladi
Echki-uloq tush ko'rib,
Poxol uzra yotishar.
Mushukchalar sut so'rab,
Onasiga yopishar
Sigir erka buzoqni
Qashib qo'yar kallalab.
Qo'y uxlata bolasin
Asta ma'rab – allalab.
Faqat jajji kuchuklar
Hurib qo'yishar "vak-vak".
Onasiga o'xshashib
Tunda ham ular sergak..

Mavzu bo'yicha quyidagicha savollar bilan murojat qilishimiz mumkin.

1. Quyidagi uy hayvonlariga qanday nom qo'yish mumkin? Ularning nomi qanday yoziladi?



2. Ushbu hayvonlarning rangi, hajmini qiyoslovchi qarama-qarshi ma'noli so'zlardan ayting.
Misol uchun: oq ot – qora ot; semiz ot – ozg'in ot

Ushbu mavzuni o'tganda tabiatshunoslik darsligida "Uy hayvonlari" mavzusini bog'lab o'tsa boladi. Bundan tashqari yana o'qish faniga ham bog'lab o'tsa bo'ladi, tasviriy san'at faniga ham bog'lab o'tish maqsadga muvofiq deb o'ylayman, bu mavzuni o'tish jarayonida yana mehnat tarbiyasi ham berib boriladi.

Shunday qilib o'quvchi birgina integratsiya darsida juda ko'p ma'lumotlarga ega bo'ldi va uzoq vaqt esda saqlab qoladilar deb o'ylayman.

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki integratsiya asosida tashkil etilgan bir fanni o'zlashtiribgina qolmasdan balki barcha fanlarni birgalikda olib borishga, birday o'zlatirishga sabab bo'ladi.

Foydalangan adabiyotlar

1. R. Ikromova, X. G'ulomova va boshqalar. 4-sinf Ona tili darsligi. T. 2017 yil
2. <http://www.ziyonet.uz>. - axborot ta'lim portal
3. 4. Internet materiallari: <http://go.mail.ru/search?>. "Ta'lim texnologiyalari"

O'QUVCHILARNING MATEMATIK SAVODXONLIGINI OSHIRISH YO'LLARI

Sultonova Dildora

Sirdaryo viloyat Sirdaryo tuman 27-IDUM ning boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini matematik savodxonligini oshirish va Xalqaro baholash dasturiga tayyorgarlik ishlari haqida fikr yuritilgan

Kalit so'zlar: mustaqil ish, ijodiy yondoshish, mashq, PIRLS, PISA, TIMSS

Mamlakatimiz innovatsion taraqqiyot yo'lidan shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir davrda kelajagimiz davomchilari bo'lgan yoshlarning ijodiy g'oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish hamda ilg'or xorijiy tajribalar, xalqaro mezon va talablar asosida baholash tizimini takomillashtirish, shu yo'lida xalqaro tajribalarni o'rganish, mavjud tizimni har tomonlama qiyosiy tahlil qilish, tegishli yo'nalishdagi xalqaro va xorijiy tashkilotlar, ilmiy tadqiqot muassasalari bilan yaqindan hamkorlik qilish muhim ahamiyatga egadir.


Boshlang'ich ta'lim umumta'lim maktablarining bosh bo'g'ini bo'lgani sababli ana shu jarayonda o'quvchi shaxsining mukammal rivojlanib borishiga ko'proq e'tibor berish lozim. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mas'uliyatlari cheksizdir. Ular maktab ostonasiga endigina qadam qo'yan o'quvchilarni maktab hayotiga ko'niktirib, zamonaviy bilim olishlariga yo'l ochib beradilar. Bolalarning o'qishga munosabatlari, aqliy salohiyatlari ana shu davrda shakllanadi. Bu ham boshlang'ich sinf o'qituvchilarining vazifasi mas'uliyatli ekanligini ko'rsatadi. Bugungi kunda turli xil xalqaro baholash tizimlari jumladan PIRLS, PISA, TIMSS, STEAM kabi dasturlar yurtimizda joriy qilinishi munosabati bilan o'quvchilarning matematika va o'qish salohiyatini oshirishga alohida e'tibor qaratishni taqozo qilmoqda. Shu munosabat bilan maktablarda ushbu tadqiqot dasturiga tayyorgarlik ishlari boshlab yuborilgan.

O'quvchilarni matematika va tabiiy fanlardan savodxonligini oshirishda TIMSS xalqaro baholash dasturi ish olib boradi.

TIMSS (Trends in Mathematics and Science Study) maktabda matematika va tabiiy fanlarni o'qitish sifatining xalqaro monitoringi bo'lib, Ta'lim yutuqlarini baholash xalqaro assotsiatsiyasi (IEA) tomonidan tashkil etiladi. Ushbu tadqiqot turli davlatlardagi 4-sinf va 8-sinf o'quvchilarining matematika va tabiiy fanlar bo'yicha egallagan bilim darajasi va sifatini solishtirish hamda milliy ta'lim tizimidagi farqlarni aniqlashga yordam beradi. Qo'shimcha ravishda maktablarda matematika va tabiiy fanlar bo'yicha berilayotgan ta'lim mazmuni, o'quv jarayoni, o'quv muassasasi imkoniyati, o'qituvchilar salohiyati, o'quvchilarning oilalari bilan bog'liq omillar o'rganiladi.

Men maktabda o'quvchilarimni matematik savodxonligini hamda ularning tafakkur doirasini kengaytirish maqsadida turli xil savol va topshiriqlar tayyorlab ularning bilimini oshirishga harakat qilmoqdaman. Quyida sizlarga shu savol va topshiriqlarimdan namuna keltirmoqchiman.

1. Merida 9 ta kichik uchburchak bor: ulardan 3 tasi qizil, 3 tasi sariq va 3 tasi ko'k. U hamma kichkina uchburchaklarni yig'ib bitta katta uchburchak hosil qilmoqchi, lekin ikkita qo'shni uchburchaklarning rangi har xil bolishi kerak. Meri bir nechta uchburchaklarni rasmda korsatilgandek qo'yib chiqdi.












Quyidagi ifodalardan qaysi biri rost?

- (A) 1- sariq uchburchak, 3 - qizil
- (B) 1- ko'k uchburchak, 2- qizil
- (C) 1- va 3- qizil uchuburchaklar
- (D) 5- qizil uchburchak, 2- sariq
- (E) 1- va 3- sariq uchburchaklar


2. Har bir shakl turli qiymatga ega. Har uchta sonning yig'indisi qatorning o'ng tomonida

ko'rsatilgan.  qaysi sonni ifodalaydi?

			15
			12
			16

A) 2 B) 3 C) 4 D) 5 E) 6

3. Tom kataqchali daftardan ikki xil turdagi shakl kesib olyapti Tomning rasmdagi qayiqni butunlay yopish uchun kerak bo'lgan shakllarning eng kichik soni nechaga teng?



A) 5 B) 6 C) 7 D) 8 E) 9

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki hozirgi zamon mutaxassisida bu bilimlarni tahlil qilish, ulardan yangi ma'lumotlarni hosil qila olish, xalq tili bilan aytganda "devorning ham qulog'l borligini ko'ra olish kompetensiyasi birinchi o'ringa ko'tarilayapti.

TIMSS topshiriqlarni berish jarayonida o'zgarishlarni ta'lim tizimida aks ettirish, maktab o'quvchilarining haqiqiy hayotda kerak bo'ladigan hodisalarni tahlil qilish, ulardan xulosa chiqarish va hayotda qo'llay olish ko'nikmalarini qay darajada egallayotganini, ta'lim tizimining bu o'zgarishlarga qanchalik moslashayotganini aniqlab bilb olamiz.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Bikbayeva N. U. Matematika. 4- sinfi uchun darslik. „O'qituvchi“ nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent — 2017
2. <http://www.pedagog.uz> - Toshkent davlat pedagogika universiteti veb sayti. Kengoro materiallari.

O'QUVCHILARGA BILIM BERISH JARAYONIDA NOAN'ANAVIY DARSLARNI TASHKIL ETISH

Tashmatova Sohiba Ne'matjonovna
Sirdaryo viloyat Boyovut tuman 34-umumta'lim maktabining
boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'quvchilarga bilim berishda noan'anaviy metodlardan foylanishning afzalliklari hamda interfaol usullarda dars o'tishda dars samaradorligini oshirish xususida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Boshlang'ich ta'lim, dars jarayoni, ta'lim texnologiyalari.

Ta'lim jarayonining bosh ob'ekti va sub'ekt sifatida o'quvchi belgilanadi. Uning ehtiyoji, qobiliyati, qiziqish va imkoniyatlar, tayyorgarlik darajasi va ta'lim so'nggida erishiladigan natijasi aniqlanadi. Haqiqatdan ham davlatimiz mustaqillik sharoitida ta'lim sohasida, jumladan, maktablarda o'qitishni zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil etish hozirgi jamiyat taraqqiyoti talabidan kelib chiqmoqda.

O'quvchining ongi va tafakkuri endi shakllanib o'qituvchining mahorati, uni pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga mohirona tadbiq eta olishi, ta'limning yangi-yangi yo'llari va usullarini izlashi, pedagogik tajribalardan ijodiy foydalana olishi juda muhimdir.

Boshlang'ich sinflarning o'qish darslari o'z mohiyati, maqsad va vazifalariga ko'ra ta'lim tizimida alohida o'rin tutadi. Negaki uning zaminida savodxonlik va axloqiy-ta'limiy tarbiya asoslari turadi. Shuning uchun ham boshqa predmetlar ta'limini o'qish ta'limisiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

O'quvchi matnni to'g'ri, tez, tushunib o'qish, mazmunini o'zlashtirish bilan ilk bor o'qish darslarida yuzlashadi. O'qish darslari orqali o'quvchilarning Davlat ta'lim standartlari talablari bo'yicha o'zlashtirishlari ko'zda tutilgan o'quv-biluv ko'nikma-malakalari hamda bilimlarni egallashlariga yo'l ochiladi. Aynan o'qish ta'limida insonning, avvalo, o'zligini, qolaversa olamni anglashga bo'lgan intilishlariga turtki beriladi.


Shu maqsadda «O'qish kitobi» darsliklariga ona tabiat, atrofimizni o'rab turgan olam, Vatanimiz tarixi va bugungi qiyofasi, kattalar va bolalar hayoti, mehnatsevarlik, istiqloq va milliy-ma'naviy qadriyatlar, xalqlar do'stligi va tinchlik kabi turli mavzular bo'yicha atroflicha tushunchalar berishga mo'ljallangan badiiy, axloqiy-ta'limiy, ilmiy-ommabop asarlar kiritiladi.

O'qish darslari savod o'rgatish davrida o'quvchilarni bo'g'in, so'z va gaplar bilan tanishtirish va ularni o'qish, rasmlar asosida hikoya qilish tarzida uyushtirilsa, o'qish texnikasi egallangandan so'ng o'qish muayyan mavzular bo'yicha tanlangan badiiy, ilmiy-ommabop matnlar yuzasidan olib boriladi.

O'quvchilar darsliklar yordamida o'zlashtiriladigan bilim, ko'nikma va malakalarining kelajak hayotda zarur bo'lishini tushunib yetishishlariga erishish o'qituvchilar oldidagi muhim vazifalardandir.

O'qish darsliklaridagi mavzularni o'rganish jarayonida turli o'yilardan va mashq turlaridan foydalanishimiz o'quvchilarni bilim saviyasini oshishi bilan birgalikda ularning nutq faoliyatini ham rivojlantirib boramiz.


Masalan birorta mavzuni o'tsak keyin shu mavzu bo'yicha turli o'yinlardan foydalanishimiz mumkin. Mavzu bilan yaxshilab tanishamiz keyin mavzuni ichidan o'quvchilar tushunmaydiganm yoki lug'at so'zlar bilan ishlashimiz mumkin.



Shu tartibdagi soʻzlar boʻlsin. Oʻquvchilar soʻzlarning qanday maʼnoda kelayotganligini aytishlari yoki yozishlari kerak.

Misol uchun: *zilol-tiniq, tanob-yer oʻlchov birligi, toʻsatdan-birdaniga, poyonsiz-cheksiz yoki cheki yoʻq* kabi soʻzlar orqali ifodalashi mumkin.

Yoki quyidagicha topshiriqdan ham foydalanishimiz mumkin. Misol uchun:



Bunda oʻquvchilar berilgan soʻzlardan toʻgʻrisini topib koʻchirishlari kerak va oʻqituvchining tashkilotchiligiga yoki ijodkorligidan kelib chiqib yana qoʻshimcha topshiriqdan ham foydalanish mumkin.

Boshlangʻich sinflarning oʻqish darslarida garchi ilmiy jihatdan boʻlmasa-da, amaliy jihatdan turli janrga mansub asarlar oʻqib oʻrganiladi. Oʻqish darsliklariga, asosan, hikoya, sheʼr, ertak, masal, maqol, doston, rivoyat va topishmoq kabi janrdagi asarlar kiritilgan. Bulardan tashqari, ilmiy-ommabop asarlar ham oʻqitiladi.

Turli janrdagi badiiy asarlar qurilishi, uslubi jihatidan oʻziga xos xususiyatlarga ega boʻlib, ularning oʻquvchilarga taʼsiri ham har xil boʻladi. Tabiiyki, har bir janrga oid asar matni lingvistik jihatdan ham oʻziga xos xususiyatlarga ega. Masalan, sheʼriy asarlar matni hikoya matnidan, ertak matni sheʼr matnidan, ilmiy-ommabop maqola matni masal janriga taaluqli asarlar matnidan tubdan farq qiladi. Topishmoqlar predmet, voqea-hodisalar oʻrtasidagi oʻxshashlikni taqqoslash orqali oʻzlashtirilsa, maqollar mazmuni hayotiy misollar vositasida sharhlashni taqozo etadi. SHunga koʻra, turli janrdagi badiiy asarlarni oʻqishda oʻqituvchidan unga mos usullar tanlash talab etiladi.

Har qanday taʼlimning maqsadi bilimni va uni amalda qoʻllay olish koʻnikmalari va malakalarini hamda zaruriy shaxs sifatlarini shakllantirishdan iborat. Oʻquv faoliyati harakatida maqsadning barcha komponentlari amalga oshar ekan, turli metodlarni birgalikda qoʻllash zarur. Shuning uchun metod tanlashda eng asosiy omil boʻlib, oʻquv mashgʻulotining didaktik vazifasi xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1 N. N. Azizxoʻjaeva-Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. T. : 2003

2 Internet manbaalari.

ОСОБЫЕ ЗАКОНОМЕРНОСТИ УПРАВЛЕНИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫМ ПРОЦЕССОМ В ОБРАЗОВАНИИ ОБРАЗОВАНИЯ

Raximova Dilbar, Asadova Fotima Raxmatullayevna, Kadirkulova Sh

Sirdaryo VXTXQTMOHM QT boʻlim boshligʻi,

Sayxunobod tumani 22-maktab boshlangʻich taʼlim oʻqituvchisi,

GulDU magistranti

Аннотация: В статье рассматриваются пути формулирования принципов исследования, выявления новых форм и методов повышения качества образования за счет их эффективного использования, выделяется их практическая значимость.

Ключевые слова: принципы исследования, инновационная технология, логическое мышление, профессиональная компетентность.

Oʻzbekiston Prezidenti Sh. Mirziyoyev 2017 yil 7-fevral kungi farmoni bilan 2017—2021yillarda Oʻzbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yoʻnalishi boʻyicha Harakatlar

strategiyasini tasdiqladi. Bu haqda Strategiya loyihasi dolzarb hamda aholi va tadbirkorlarni tashvishga solayotgan masalalarni kompleks o'rganish, qonunchilik, huquqni muhofaza qilish amaliyoti va xorijiy tajribani tahlil qilish yakunlari bo'yicha ishlab chiqildi. Hujjat internetda e'lon qilinib, ekspertlar va jamoatchilikning keng muhokamasidan o'tdi. Ijtimoiy sohalarning rivojlantirishida milliy mustaqillik prinsiplari va xalqning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlarining ustuvorligi asosida ta'limning barcha darajalari va bo'g'inlarida ta'lim oluvchilarning ma'naviy va ahloqiy fazilatlarini rivojlantirishga hamda ta'limni boshqarish tizimini takomillashtirish, jamoat boshqaruvi shakllarini rivojlantirish, ta'lim muassasalarini mintaqalashtirishga e'tabor qaratilgan.

Ta'limni tashkil etish va boshqarishda rioya qilinadigan qoidalar sifatida amal qiladi. Ta'lim prinsiplari haqida tasavvurlar ikki xil yo'l bilan izohlanadi:

1. tasvir shaklida. Masalan, ilmiylik prinsipi fan va o'quv predmeti o'rtasidagi aloqadorlikka asoslanadi. Bu yerda ilmiylik prinsipi tasvir orqali bayon qilingan;

2. qoida shaklida. Masalan, ta'limda oddiydan murakkabga qarab boriladi. Bu jumlada tushunarlilik prinsipi qoidaga solingan, ya'ni normallashtirilgan. Ta'lim prinsiplari qoida shaklini ollevergan sari, ulardan amaliyotda foydalanish imkoniyatlari ham kengayaveradi.

Mutaxassislar ta'lim prinsiplari xususiyatlarini, asosan, o'qituvchi faoliyatiga nisbatan izohlashadi. Shu sababli ko'pchilik didaktik qo'llanmalarda "o'qitish prinsiplari" iborasi ishlatilgan. Ta'lim prinsiplari talim jarayonining ikkala sub'eaktiga- ham o'qituvchi, ham o'quvchiga daxldor. Shunga ko'ra biz ularni ta'lim prinsiplari deb nomladik. Ta'limni tashkil etish, boshqarish va nazorat qilishda o'qituvchi va o'quvchi faoliyatiga qo'yiladigan talablar, qoidalar ta'lim prinsipi deb aytiladi.

Ta'lim sifatini oshirish, har tomonlama rivojlangan shaxsni shakllantirishga e'tibor berish pedagogikaning eng muhim vazifalaridir. Shu munosabat bilan mashg'ulotlarning ta'lim, rivojlantirish va tarbiyalash funktsiyalarining o'zaro bog'liqligini ta'minlaydigan yangi usullarni tanlash va izlash alohida ahamiyatga ega. O'qitish usullarining quyidagi tasnifi mavjud:

✓ An'anaviy (manba) usullar tizimi. O'qituvchi va talaba faoliyatining turlari, usullari, texnikasi tarbiyaviy harakatlar deb hisoblanadi: hikoya, suhbat, vizualizatsiya, kitob o'qish, amaliy faoliyat va boshqalar. Ushbu usullarning to'plami ta'lim jarayonida qo'llaniladigan bilim manbalariga muvofiq og'zaki, vizual va amaliy bo'linadi.

An'anaviy manba usullari samarasiz bo'lib chiqdi, chunki ular tashkilotning faol shakllarini nazarda tutmagan. o'quv faoliyatitalabaning motivatsion sohasini sarflamadi.

✓ Didaktik metodlar tizimlari. Ushbu tizim tushuntirish va tushuntirish (axborot va reproduktiv), reproduktiv ta'lim, muammolarni bayon qilish, qisman qidirish (evristik) va tadqiqot usulini o'rganish.

Ushbu usullarda ta'lim faoliyati an'anaviy usullar tizimiga qaraganda ancha faol shakllarda amalga oshiriladi, motivatsiya shunga yarasha yaxshilanadi, ammo ta'lim jarayonida turli xil texnikani maqbul birlashtirish masalasi hal qilinmagan.

Taqdimotning muammoli, evristik, tadqiqot turlari maxsus ssenariyni tayyorlashni talab qiladi, unga ko'ra o'quv dasturi tuziladi.

✓ Optimallashtirish metodlarini o'qitish tizimi. Uslublar o'quv-bilish faoliyati turlarini, rag'batlantirish va rag'batlantirish, o'quv va bilim faoliyatini nazorat qilish va o'zini o'zi boshqarish turlariga qarab guruhlanadi. bunga an'anaviy usullar va didaktik va muammoli usullarning bir qismi, shuningdek o'qitish va o'qitishning turli usullari kiradi.

Ushbu tizim ko'plab ko'rsatkichlarni hisobga olgan holda turli xil texnikalardan maqbul foydalanish masalasini hal qiladi.

✓ Muammoli rivojlantiruvchi ta'lim metodlari tizimi. Ushbu tizim o'quv jarayonini boshqarish nazariyasi asosida qurilgan bo'lib, faoliyat tamoyillari, maqsadni belgilash va muammoliligi hisobga olingan holda ishlab chiqilgan.

Muammoli o'qitish usuli ta'lim faoliyatini tashkil etish, motivatsiya, nazorat qilish, rivojlantirish va tarbiyalash masalalarini muvaffaqiyatli hal etadi. Ushbu usul o'qituvchidan bugungi kunda o'quv jarayonini rasmiylashtirishga va shuning uchun avtomatlashtirishga imkon bermaydigan bunday ijodkorlik darajasini talab qiladi.

✓ Dasturlashtirilgan ta'lim. Ta'limning dasturlashtirilgan tizimlari chiziqli yoki kengaytirilgan tizimda ta'lim harakatlari dasturini yaratish orqali ta'lim jarayonini juda aniq rasmiylashtirishni taklif etadi. Dasturlashtirilgan ta'lim o'quv qo'llanmalari yordamida ham, texnik vositalar yordamida ham amalga oshirilishi mumkin. Ilgari sanab o'tilganlarning barchasi dasturlashtirilgan kursni avtomatlashtirish eng oson.

Dasturlashtirilgan o'qitishda qo'lda va avtomatlashtirilgan tizimlar - «klassik» va «repetitor», avtomatlashtirilgan - «guruhdagi audiovizual vositalar» va «adaptiv dasturlashtirilgan qurilmalar» qo'llaniladi.

✓ Ishbilarmonlik o'yinlari. Ta'lim o'yinlari ta'lim maqsadlariga erishish jarayonida odamlarning o'zaro munosabatlar modeli sifatida aniqlanadi, ya'ni. bu eng yaxshi yechimni ishlab chiqish uchun muayyan nazorat muammosi (xususan, bilim faoliyati) uchun o'yin motivatsiyasi. Ishbilarmon o'yinlar boshqaruv, tadqiqot va ta'limga bo'linadi. O'yinlar muayyan ish uchun maxsus ishlab chiqilgan stsensariy asosida quriladi. Kollektiv ijodkorlikni tashkil qilish uchun bunday o'yinning etakchisi yuqori malakaga ega bo'lishi kerak.

Kamchilik biznes o'yinlari ssensariy yozish va boshlovchini o'zi tayyorlash jarayonining mashaqqati.

Ishbilarmonlik o'yinlarini tashkil qilishda avtomatlashtirish, qoida tariqasida, nafaqat oldindan tayyorlangan axborotlashtirish bloklarini tanlash, balki olingan yangi ma'lumotlarga muvofiq yangi bloklarni shakllantirishdan foydalanadigan maxsus interaktiv o'quv dasturini tuzish bilan ta'minlanadi.

✓ O'qitishning intensiv usullari. Intensiv o'qitish usullari ishbilarmonlik o'yinlarini yanada rivojlantirish va amaliy qo'llanilishini anglatadi.

Ushbu usullarda o'quv faoliyati guruh, jamoaviy o'zaro munosabatlar va o'yinlar shaklida amalga oshiriladi. Bunday texnikalar katta hajmdagi o'quv ma'lumotlarini taqdim etish, aqliy faoliyatning ongli va ongsiz shakllaridan foydalanish (ikki planlik), tinglovchilarning o'yin vaziyatlarida doimiy o'zaro aloqasi va boshqalar sifatida keng qo'llaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. T.: —O'zbekiston, 2017.

2. Zaripov K. Ta'lim tizimini boshqarish. -Toshkent: Fan, 2005. -189-bet.

3. Afanasyev V. G. Tiriklar dunyosi: izchillik, evolyutsiya va boshqarish. - M., 1986.

4. Pedagogik izlanish / Komp. I. N. Bazhenova) M., 1990 yil.

BOSHLANO'ICH SINFLARDA ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH MASALALARI

Bekbaulieva Ulbosin Abdinaimovna

Nukus shaxar 33-sonli tasviriy san'atga ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning dars paytidagi hamkorligi, o'quvchilarning mustaqil ishlashi, sinfdan tashqari ishlar shaklida ta'lim va tarbiya masalalari hal etiladi. Ta'limning maqsadi jamiyat ehtiyojiga mos ravishda shakllanadi. Shunday ekan, ta'lim-tarbiya maqsadi mos va mutanosib bo'lishi kerak. Ilmiy adabiyotlarda ta'limning maqsadi imkoniyatlaridan to'g'ri, aniq, o'rinli foydalanish ko'nikma va malakalarini hosil qilish, mantiqiy-ijodiy tafakkurni rivojlantirish, kommunikativ savodxonlikni oshirish, milliy o'yani singdirish, sharqona tarbiyani shakllantirish, shaxsni maynaviy boyitishdan iboratligi taykidlangan. Ta'limiy maqsad asosida o'quvchilarda mustaqil fikrlash, o'zaki va yozma savodxonlikni oshirish, mantiqiy tafakkurni rivojlantirish orqali ularning muloqot madaniyati takomillashtiriladi. Tarbiyaviy maqsad asosida esa maynaviy, o'yaviy, nafosat tarbiyasi beriladi.

Ulloq donishmandlardan biri «... kelajak tashvishi bilan yashasang, farzandlaringga yaxshi bilim ber, o'qit», degan ekan. Yurtimizda ta'lim-tarbiya tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar haqiqiy maynoda bir-ikki yillik yoki qisqa davrda samaraga erishishga qaratilgan ish emas, balki chin

maynoda bir necha yuz yillarga tatiydigan o'zgarish bo'ldi, desak xato bo'lmaydi. Bu prezidentimizning kelajagimiz, kelajak avlodimiz haqida qayo'urib, yurtimizning barcha farzandlari – mening farzandlarim, ular bizlardan ko'ra kuchli, bilimli va albatta baxtli bo'lishlari kerak, degan o'oyasi zamirida donishmandlarcha siyosat yotganini ko'rsatadi. [1]

Ma'lumki, ta'limda ilo'or pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalarini tatbiq etish o'quv masho'ulotlarining samaradorligini oshiribgina qolmay, ilm-fan yutuqlarini amaliyotda qo'llash orqali mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, har tomonlama barkamol yuksak maynaviyatli shaxsni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol metodlar va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha anyanaviy ta'limda o'quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish esa ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topish, mustaqil o'rganish va fikrlash, tahlil qilish, hatto yakuniy xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxs rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Bugungi kunda ta'limda *«Aqliy hujum»*, *«Fikrlar hujumi»*, *«Tarmoqlar» metodi*, *«Sinkveyn»*, *«BBB»*, *«Beshinchisi ortiqcha»*, *«6x6x6»*, *«Bahs-munozara»*, *«Rolli o'yin»*, *FSMU*, *«Kichik guruhlarda ishlash»*, *«Yumaloqlangan qor»*, *«Zigzag»*, *«Oxirgi so'zni men aytay»* kabi zamonaviy texnologiyalar qo'llanmoqda.[2]

Dars masho'ulotlarida o'yin-topshiriqlarni takrorlash yoki mustahkamlash darslarida foydalanilsa ijobiy natija beradi. O'yin-topshiriqlarning qaysi bir turini tanlash darsning turiga, sinf o'quvchilarining o'yin-topshiriqlarni bajarishga o'rgatilganlik darajasi, ularning bilim saviyasi, mustaqil ijodiy ishlash imkoniyatlari, o'rganilganlarni xotirada tez tiklay olishi, ijodkorlikning qay darajada shakllanganiga ham bo'liq bo'lishi kerak.

Ta'limda o'quvchi shaxsini fikrlashga, o'zgalar fikrini anglash va shu fikrni oo'zaki hamda yozma shaklda savodli bayon eta olishga o'rgatish masalasiga e'tibor qaratilgan bo'lib, mustaqil fikrlaydigan, nutq madaniyati rivojlangan savodxon shaxsni kamol toptirish asosiy o'rin egallaydi. Millatning turmush tarzi, madaniy yaratuvchanligi uning boy tarixiy merosi asosida o'rganiladi.

Bugungi kun o'qituvchidan ilo'or pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalaridan o'quv jarayonida foydalanishni talab etmoqda. Yuqoridagilardan kelib chiqib, tajribalarimiz asosida dars masho'ulotlarida interfaol metodlarni qo'llash orqali ta'lim-tarbiya berish yo'llariga doir fikrlarimizni bayon etamiz. O'ylaymizki, u o'quv masho'ulotlari samaradorligini oshirishda hamkasblarimizga amaliy yordam beradi. Shuningdek, o'quvchilarni o'z yo'nalishini tanlash va mustaqil hayotga tayyorgarlik ko'nikmalarini shakllantirishdek masyuliyatli vazifani bajarishda ularning yaqin ko'makchilardan biriga aylanadi. Quyida sinflar kesimida ayrim mavzular asosida o'qitishning zamonaviy usullarini tatbiq etish bo'yicha tavsiyalar beramiz.

«Beshinchisi (oltinchisi, ettinchisi ...) ortiqcha» metodi

Mazkur metod o'quvchilardan o'rganilayotgan mavzu (yoki bo'lim, bob) yuzasidan tahliliy mulohaza yuritish, shuningdek, eng muhim tayanch tushunchalarni ifodalay olishni talab etadi.

Metodni qo'llashda quyidagi harakatlar tashkil etiladi:

- o'qituvchi o'zaro teng nisbatda mavzuga (bo'lim, bob) oid va oid bo'lmagan asosiy tushunchalar tizimini yaratadi;
- o'quvchilar mavzuga (bo'lim, bob) oid va oid bo'lmagan asosiy tushunchalarni aniqlaydilar va daxldor bo'lmagan asosiy tushunchalarni tizimdan chiqaradilar;
- o'quvchilar o'z harakatlarining mohiyatini izohlaydilar.

Metoddan individual, guruhli va ommaviy shaklda o'quvchilar tomonidan mavzuning puxta o'zlashtirilishini tayminlash hamda ularning bilimlarini aniqlash maqsadida foydalanish mumkin.[3]

Masalan, 1-sinf darsligidagi 1-mashqda berilgan topshiriqni bajarishda quyidagicha qo'llash mumkin. Yozuv ekranda ko'rsatiladi. O'quvchilar ortiqcha so'zni aniqlashadi. Uy hayvonlari: sigir, qo'y, toshbaqa, ot, it.

«Videotopishmoq» metodi

Hozirgi kunda pedagogik faoliyatda turli axborot vositalari (kompyuter, televidenie, radio,

nusxa ko'chiruvchi qurilma, slayd, video va audio magnitofonlar) yordamida ta'lim jarayoni tashkil etilishiga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'qituvchilar oldida ta'lim jarayonida turli axborot vositalaridan o'rinli va maqsadga muvofiq foydalanish vazifasi turibdi.

Mazkur metod asosida mavzuga doir kompyuter orqali videolavha namoyish etiladi. O'qituvchilar videolavha mavzusi, unda ifodalangan mavzu haqida o'z fikr-mulohazalarini bildirishadi.

Boshlano'ich sinflarda interfaol metodlar va ta'limiy o'yinlardan, zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalaridan foydalanish o'qituvchilarni mustaqil fikrlashga, ijodiy izlanish va mantiqiy fikrlash doiralarini kengaytirish bilan birga ularni darslarda o'rganganlarini hayot bilan boo'lashga, qiziqishlarini oshirishga yordam beradi. O'qituvchilarning bunday zamonaviy talablar asosida yaratilgan sharoitlardan samarali foydalanib, darslarni ilo'or pedagogik hamda axborot kommunikasiya texnologiyalari asosida tashkil etilishi ta'lim-tarbiya jarayonini sifatini kafolatlaydi.

Yuqoridagi talablarga amal qilingandagina dars samaradorligi ortadi va zamonaviy texnologiyalar ta'lim samaradorligiga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Jumaev M.E., Yuldasheva M.Yu., Mingbaeva B.U., Mamatova G.A., Levkina M.F. Boshlano'ich ta'lim fanlarini o'qitish metodikasi. Nizomiy nomidagi TDPU huzuridagi XTXQTUMOHM., 2017.

2. Mirzaxmatova Sh., Po'latova D. Tabiatshunoslik darslarida interfaol ta'lim (Uslubiy qo'llanma) –T.: “Yangi asr avlodi”, 2011.

3. www.uznet.uz

O'QUVCHILARNING KITOBXONLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA O'QISH DARSLARINING ROLI

Kaipnazarova Aruxan

Nukus shaxar 33-sonli tasviriy san'atga ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabi o'qituvchisi

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev 2017 yil 12 yanvar kuni “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda taro'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida”gi farmoyishni imzoladilar.[1] Farmoyishda bolalar adabiyotining sifatini yaxshilashga alohida e'tibor qaratdilar. Xususan, ta'lim muassasalarida sinfdan tashqari o'qish uchun tavsiya etilgan o'zbek va chet el adiblarining mumtoz va zamonaviy asarlarini tanlab, xrestomatiya adabiyotlari ro'yxatlarini qayta ko'rib chiqish va o'quv jarayoniga mutolaa etilgan asarlar asosida insho yozish tizimini joriy etish masalasiga alohida uro'u berilgan.

Bolalar adabiyoti o'qituvchilarni yoshlarni imon-eytiqodli kishilar sifatida va Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashda mamlakatimizning qudratli qurolidir. Bugungi davrda bu fanga intilish, qiziqish, o'rganish, o'zlashtirish yanada oshdi. Shunday ekan, kichkintoylarga atab yoziladigan har qanday badiiy asar ularning yosh xususiyatlariga, saviyalariga mos bo'lishi, ular qalbida chuqur o'y-fikrlar uyo'otishi, yorqin obrazlar va yuksak o'oyalarga boy bo'lishi, ularni ulkan va porloq ishlarga ilhomlantirishi zarur. Eng muhimi, mavzular tushunarli, sodda va qiziqarli tilda yoritilishi lozim.

Faqat chinakam badiiy asarlarga kuchli taysir ko'rsatib, ana shu talablarga javob bera oladi. Shu sababli bunday kitoblar pedagogik va psixologik nuqtai nazardan ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Bolalar adabiyoti bu vazifani bajarishda avvalo, badiiy tilga suyanadi. Adabiy asarning tili uning o'oyaviy mazmunini aniq va ifodali ochib berish vositasidir. Yaxshi, aniq, ravon, obrazli, boy til bilan yozilgan asar yozuvchining maqsad va fikrlarini kitobxonlarga tez va oson etkazadi.

Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy «Mahbub-ul qulub» asarida tilni «ko'ngil xazinasining qulfi»[2], deb tayriflaydi, kishilarni qisqa va mazmunli, chuqur mantiq bilan so'zlashga chaqiradi. Bu talab, shubhasiz, bolalar yozuvchilariga ham taalluqlidir.

Bolalar yozuvchisi sodda, ravon, qiziqarli va mazmundor qilib yoza bilishi kerak. Buning uchun esa u xalq tilini puxta bilishi lozim. Ravon til bilan yozilgan badiiy asarlar yosh kitobxonning

nutqiga ham katta taysir ko'rsatadi, so'z boyligini oshiradi.

Bolalar yozuvchilarining eng yaxshi kitoblari yosh avlodni tabiatni sevishga, halol yashashga, ilm-fan cho'qqilarini egallashga, xalq uchun foydali yangi kashfiyotlar qilishga o'rgatadi. Kitob xalqimizning o'tmishi, ilo'or madaniyatimiz, fan va texnikamiz yutuqlari bilan tanishtiradi, faxr tuyo'ularini o'stiradi.

Maktab yoshidagi kichik bolalar kitobxonligi avvalgisidan biroz farq qiladi. Bu farq bolalarning yoshi, bilimi, saviyasi bilan boo'liq. Maktabgacha yoshdagi bolalar, asosan, tarbiyachilari, ota-onalari yordamida badiiy asarlar bilan tanishsalar, boshlano'ich sinf o'quvchilari bu ishni mustaqil bajaradilar. Mustaqillik ularga ishonch va zavq-shavq bao'ishlaydi.

Bu yoshdagi bolalarni tevarak-atrofdagi turli voqea-hodisalar nihoyatda qiziqtiradi. Ularning bizni qurshagan olam haqidagi savollariga badiiy asarlarda mufassal javob berilgan. Bu davr bolalariga tavsiya etiladigan asarlarning hajmi avvalgisiga nisbatan kattaroq, mayno va mazmuni murakkabroq bo'lishidan tashqari, harflari ham yirik-yirik bo'lib, rasm va bo'yoqlarga boy bo'lishi talab etiladi.

Bu davr bolalar kitobxonligida kichkintoy, albatta, bajarishi zarur bo'lgan masyuliyat bor. Masalan, ota-ona, tarbiyachi, muallim topshirio'ini so'zsiz ado etish, namunali o'qish, yurish-turishda o'zgalarga ibrat bo'lish, ona-Vatanni sevish va boshqalar.

Qo'shiqlar. Bola tarbiyasida qo'shiqning roli juda katta. Qo'shiq lirikaning eng qadimgi shakllaridan biri bo'lib, kuylashga mo'ljallangan bir necha bandli sheyrdan iboratdir. Qo'shiqlar kuyohang bilan aytiladi. Bayzan qo'shiq o'yin bilan birga ijro etiladi. Demak, qo'shiq uchun sheyr va kuy kerak. Qo'shiq xalq oo'zaki ijodining eng ko'p tarqalgan va ommalashib ketgan janrlaridan biri hisoblanadi.

Maqollar. Xalq oo'zaki ijodida maqollar yetakchi o'rinda turadi. Xalq yaratgan o'oyat ixcham, chuqur va tugal maynoli gaplar maqol deb yuritiladi. Maqol xalqning, bir necha avlodlarning aql-u farosati hamda turmush tajribasining yakuni, ular donishmandligining mahsulidir. Maqollarda hayotning achchiq-chuchugini tatib ko'rgan, turmushdagi hodisalarga aql ko'zi bilan qaraydigan, sof vijdonli, oliyjanob mehnat ahlining biror voqea-hodisadan, biror kishidan yoki biror ishdan chiqargan xulosasi bayon qilinadi. Bu xulosa biror kishi uchun (ko'proq bolalar uchun) yo'l ko'rsatuvchi bo'lib xizmat qilishi mumkin. Maqollar xalqning aql-idroki, ijtimoiy-tarixiy tajribasi, kurashi hamda mehnatning badiiy ifodasi sifatida yaratib kelinmoqda.

Topishmoqlar. Qadim-qadim zamonlarda ham o'zbek xalqi o'z bolalarini kuchli, epchil, aqlli qilib tarbiyalashga katta ahamiyat bergan. O'sha paytlarda hali bolalarga ta'lim-tarbiya beradigan iaktablar yo'q edi. Ana shuning uchun ham xalq turli o'yinlar va boshqa vositalar o'ylab topgan. "Bekinmachoq", "Chillak"ka o'xshash o'yinlarda ishtirok etuvchi bolalarda chaqqonlik, epchillik kabi jismoniy hislatlar paydo bo'la borgan. Xo'sh, endi bolalarning zehnini charxlash uchun nima qilish kerak edi? Topishmoq, jumboq singari aqliy o'yinlar ana shu savolga javob izlash jarayonida xalq tomonidan yaratilgan. Topishmoqlarning ham ijodkori xalqdir.

Ertaklar. Xalq oo'zaki poetik ijodidagi eng boy va rang-barang janrlardan biri ertaklardir. Xalq tomonidan yaratilgan ko'plab ertaklarda bolalarning o'ziga xos hayoti chetlab o'tilmagan. Hatto, turli yoshdagi bolalar uchun juda ko'p maxsus ertaklar yaratilgan. Ertakning muhim xususiyatlaridan biri uning hamisha xalq hayoti, kurashi, tarixi, ruhiy olami, dunyoqarashi, urfodatlar bilan chambarchas boo'lanishi, insonlarga axloqiy va maynaviy yo'ldosh bo'lib kelishidadir. Ertaklar insonning maynaviy va jismoniy kuchiga ishonch ruhi bilan suo'orilgan bo'lib, ijobiy kuchlar tabiat va ijtimoiy hayotda o'ziga dushman bo'lgan kuchlarga qarshi kurashda doimo o'olib chiqadi. Xalq ertaklarida ijtimoiy muhim masalalar odilona hal etiladi. Ertaklar sodda va tushunarli bo'lgani uchun har qanday kitobxonga tez etib boradi. O'tmishda yaratilgan ertaklarda xalqchillik kurashi o'zining haqqoniy badiiy ifodasini topgandir. Xalqning kelajakka bo'lgan ishonchi, adolatning adolatsizlik ustidan o'alabasi, yoruo'likning zulmatni engishi, ozod va baxtiyor hayotga erishish o'oyalari yorqin obrazlar orqali tasvirlangan. Xalq ertaklari o'z xususiyatlariga ko'ra bir necha turga bo'linadi: hayotiy ertaklar, hayvonlar haqidagi ertaklar, sehrli-afsonaviy ertaklar, ijtimoiy-maishiy ertaklar. Xalq ertaklarida el-yurti ko'z qorachio'iday avaylab saqlovchi ajoyib qahramonlar uluo'lanadi, ayollarning haq-huquqlari himoya qilinadi, uzoq masofalar yaqin qilinadi,

kishilar xarakteridagi yaramas odatlar, nomayqul illatlar tanqid ostiga olinadi, mardlik, epcillik, dovyuraklik, mehnatsevarlik, halollik, vafodorlik, saxiylik o'oyalari uluo'lanadi.

Adabiyotlar:

1. "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda taro'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'o'risida"gi Ўzbekiston Respublikasi Prezidentining № F-4789 2017 yil 12 yanvar
2. Alisher Navoiy. «Mahbub-ul qulub» asari. www.ziyouz.com kutubxonasi
3. <http://www.edunet.uz> – maktablar, o'quvchi va o'qituvchilar sayti

ТЕХНОЛОГИЯ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ НА УРОКАХ БИОЛОГИИ

Торемуратова Аксунгул Хамидовна

*учитель биологии специализированной школы по изобразительному искусству № 33 г.
Нукус Республики Каракалпакстан*

Биология одна из дисциплин, которая красной нитью проходит по всем школьным предметам и по жизни каждого человека. На своих уроках создаю атмосферу творчества через рассуждения и атмосферу познания.

Учение через познание. А к познанию ведут три пути: путь размышления – это путь самый благородный, путь подражания – это путь самый легкий и путь опыта – это путь самый горький. (Конфуций)

Каждый ученик и учитель выбирает свой путь приемлемый ему.

Цель биологического образования: понимать единство процессов на основе взаимосвязи живой и неживой природы; важность биологических закономерностей, протекающие на разных уровнях живой материи от молекулы до биосферы.

Дидактическая цель: раскрытие особенностей развития критического мышления учащихся в условиях взаимодействия имеющихся знаний с новыми, либо со знаниями, полученными в классе из различных источников, через активные текстовые формы и приемы; создание позитивного, эмоционального настроения учащихся, обеспечение мотивации к новым познаниям и творчеству при изучении биологии.

Учить мыслить обучающегося – это значит, учитывая их природные и психологические особенности, обеспечить усвоение содержание учебного материала. Итак, рассмотрим некоторые интерактивные методы, которые помогут развивать у учащихся критического мышления.

Прием "Концептуальная таблица" особенно полезен, когда предполагается сравнение трех и более аспектов или вопросов. Таблица строится так: по горизонтали располагается то, что подлежит сравнению, а по вертикали различные черты и свойства, по которым это сравнение происходит. Данный приём можно использовать при изучении темы «Витамины и их значение» в 8 классе.

На стадии вызова учащимся предлагаются картина овощей и фруктов. На стадии осмысления в ходе работы с текстом ученики выделяют главное, обсуждают информацию в группе, выделяют линии сравнения и записывают их на отдельных листах.

На стадии рефлексии учащимся предлагается презентовать «свои» линии сравнения. Учитель исключает повторяющиеся линии сравнения и предлагает учащимся заполнить таблицу.

Объект сравнения	На каких фруктах или овощах содержится?	На что влияет?	Название болезней при их недостатков
Витамин А			
Витамин В			
Витамин С			
Витамин D			

Витамин Е			
-----------	--	--	--

Семь вопросов ЦЕЦЕРОНА:

1	Кто?	Организм, иммунитет
2	Что?	защищает
3	Где	Тимус, кровь, лимфатическая система.
4	Чем?	Антитела, фагоциты
5	Когда?	Когда есть враг, антигены
6	Как?	Клеточный и гуморальный
7	Зачем?	Создание устойчивой защитной системы.

Укрепление иммунитета:

1	Кто?	Человек
2	Что?	ЗОЖ, здоровое питание, витамины, отдых, прививки
3	Где?	Свежий воздух, спортивный зал, прививочный кабинет
4	Чем?	ЗОЖ, настроением
5	Когда?	В течении всей жизни.
6	Как?	С настроением, хорошими эмоциями.
7	Зачем?	Для того что бы жить

Выводы:

1. Активизация мыслительной деятельности влияет на формирование самостоятельной работы, укрепляются навыки мыслительной деятельности.

2. Мыслить в процессе обучения с учетом природных особенностей, опираясь на методические и психологические особенности развития школьников, обеспечивает усвоение содержание учебного предмета.

3. Под руководством учителя создается проблемная ситуация и выстраивается цепь действий для овладение знаниями, умениями, навыками и развитие мыслительных способностей.

4. Ученик, как открытая система находится в постоянном и непрерывном энергоинформационном процессе обмена с окружающей средой. Он от первоначального анализа постепенно переходит к синтезу, творческому этапу и совершает открытия и может сделать определенные выводы. Происходит развитие сознания учащегося – его личности, самоанализ и самооценка деятельности.

Литература:

1. Бутенко А.В., Ходос Е.А. Критическое мышление: метод, теория, практика. Учеб.-метод. Пособие. М.: Мирос, 2002.

2. Заир-Бек С.И., Муштавинская, И.В. Развитие критического мышления на уроке: пособие для учителя/ С. И. Заир-Бек, И. В. Муштавинская. М.: Просвещение, 2011.

3. Ишмухамедов Р., Абдукодиров А., Пардаев А. Таълимда инновацион технологиялар (таълим муассасалари педагог-укитувчилари учун амалий тавсиялар). - Т.: «Истеъдод», 2008.

4. Толипова Ж.О., Фофуров А.Т. Биология уқитиш методикаси. Уқув-методик қулланма. - Т.: «Билим», 2004.

ONA TILI VA O‘QISH DARSLARIDA LUG‘AT USTIDA ISHLASHNING ZAMONAVIY USULLARI

Umarova Munisxon Ikramovna, Nafisaxon Ikramovna Adamxanova.

Guliston tumani. 70- maktab- internati

Sirdaryo tumani. 13- maktab.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari ona tilining tizimlikka rioya qilgan holda bolalar nimalarni o'rganishlarini va dasturni bilishlari zarur, har bir darsda lug'at ustida ishlashga alohida e'tibor berilishi lozim. Masalan, boshlang'ich sinf o'quvchilari fonetikaning unli va undoshlar, xarf va tovush, xarf birikmalarining qo'llanilishi, bosh va kichik harf kabi ma'lumotlar bilan tanishadilar. Keyinchalik kursdan fonetika, orfoepik, grafika va orfografikdan nutq tovushlari, ularning hosil bo'lishi, unli va undosh tovushlar, jarangli va jarangsiz undosh tovushlar, bo'g'in, bo'g'in ko'chirish, urg'u, urg'uli va urg'usiz bo'g'in, urg'uning ma'no ajratishdagi roli (olma-ot, olma-fe'l, atlas-mato, atlas-o'quv quroli) kabi mavzularni o'tish uchun o'qituvchi egallagan bilimlariga asoslanishi lozim. O'qituvchi ta'limning har bir bosqichida o'quvchining nutq taraqqiyotida bo'ladigan o'zgarishlarini bilishi va unga tayanishi lozim. Har bir darsda o'quvchining lug'at boyligi, so'z boyligi oshib borishi lozim. O'quvchilarning lug'at ustida ishlashda, so'z boyligini oshirishda o'qituvchi zamonaviy usullardan foydalanishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Bular quyidagilar.

1. Tushuntirish-namoyish etish metodi. O'qituvchi tomonidan bilimlar tayyor xolda beriladi. Ona tilining qonun-qoidalarini tushuntiriladi va mustahkamlanadi. Bu darsda o'quvchilar bayon qilayotgan bilimlarni tinglaydilar va xotirada saqlashga xarakteristik harakat qilishlari kerak.

2. Muammoni bayon qilish metodi. O'qituvchi o'quvchilar oldigi ma'lum bir muammo qo'yadi va ularning mustaqil aqliy faoliyat ko'rsatishlarini ta'minlash orqali bu muammoni hal qila boshlaydi.

3. Qisman izlanuvchanlik metodi. Ta'limning bu metodi shu bilan xarakterliki, o'quvchi dars jarayonida ma'lum bir o'quv muammosini qo'yadi, ammo uni mustaqil hal qilish yo'llarini ko'rsatmaydi. Har bir o'quvchi muammoni mustaqil hal qilish uchun o'zicha izlanadi, ijodiy faoliyat ko'rsatadi. Muammoning o'qituvchi tomonidan qo'yilishi metodni qisman ijodiy qilib qo'yadi. Ayniqsa, izlash ya'ni so'zlarni topishga intilish, qidirish kabi topshiriqlar o'quvchilarni yanada lug'atini boyishga olib keladi, uni bog'lanishli nutqi ham rivojlanadi, har bir so'zni to'g'ri aytishga, talffuzi, nutq malakasi shakllanadi. Shunday qilib, ona tili va o'qish darslarida bunday metodlardan foydalanish o'quvchilarning til materiallariga qiziqishini kuchaytiradi, o'quv-biluv faoliyatini faollashtiradi, til hodisalarini mustaqil tahlil qilishga o'rganishi orqali ularda mustaqillik shakllanadi, o'quvchilarni kommunikativ faoliyatiga puxta tayyorlash imkonini yaratadi. So'z va bo'g'inlarni o'rgatishda tovush va xarflarni alohida-alohida aytib o'qimaslikka, balki tovush va harflarni bo'g'inda to'g'ri qo'shib talaffuz qilishga, so'zlarni og'zaki nutqdagi kabi yaxlit xolda tovushlar uyg'unligiga rioya qilib o'qishga odatlantiriladi. Ona tili va o'qish darslarida shu metodlardan foydalanib dars o'tish yaxshi samarali natijalar beradi. **Lug'at ustida ishlashning shakli, usullari va vositalari.**

Ona tili darslarida lug'at minutini o'tkazishga hozirlik ko'radi. Ko'rgazmali qurol tayyorlanadi. So'zlarni bo'g'inga, bo'g'inni esa unli va undosh tovushlarga ajratish shuningdek, tovushlardan bo'g'in, bo'g'inlardan so'z, so'zlardan gap tuzishga quyidagicha ko'rgazmali qurol hozirlash mumkin. (unli tovushni qizil, undosh tovushni ko'k rangda yozish ma'qul). **So'zlar Bo'g'inga bo'lish Unli tovush Undosh tovush**

Singlim Sing-lim 2 5

Zulfiya Zul-fiya 3 3

Paxtakor Pax-ta-kor 3 5

O'qituvchi o'quvchilardan «asbob» so'zi necha bo'g'in? Unli tovushlarni ayting, undosh tovushlarni ayting, yana talaffuz qiling. Avvalda o'qituvchi har bir so'zni talaffuz qilib ko'rsatadi. So'ngra har bir so'z talaffuzi o'quvchilarga mashq qildiriladi. Ba'zan o'quvchilar stul, stakan deb talaffuz qilsa, uni faol o'quvchilar tuzatadi. Bunda o'quvchi har bir so'zni to'g'ri, aniq talaffuz qilishga harakat qiladi. Chunki uning xatosini o'qituvchi emas, balki o'z sinfdoshi tuzatyapti. - Stul so'zi necha bo'g'in?

- Unli tovush nechta?

- Undosh tovushlar-chi?

- Yana talaffuz qiling?

Shu so'zlar ishtirokida og'zaki gaplar tuzdirish mumkin. O'qituvchi o'quvchilarga so'zlarni talaffuz qilganda, to'g'ri ravon talaffuz qilish kerakligini tushuntirmog'i lozim. «Imlo lug'ati» bilan ishlash. Imlo lug'ati ustida ishlash alfavitni o'rganish bilan bog'liq. O'quvchilar alfavitni yaxshi bilib

olgach, imlo lug‘ati bilan ishlashga o‘tiladi. Bunda ko‘proq qiyin so‘zlarni o‘rgatish ko‘zda tutiladi. Masalan, p va f harflarining yozilishi o‘tilgandan keyin fosh, payvand, afsona, insof, kifoya, parvona, vazifa kabi so‘zlarni tanlaydi. Dars boshlanishi oldidan barcha o‘quvchilarning «Imlo lug‘ati» bor - yo‘qligi aniqlanadi, kimda lug‘at bo‘lmasa, tayyorlab qo‘yilgan lug‘atlardan beriladi, vazifa tushuntiriladi. O‘quvchilarning diqqati lug‘at bilan ishlashga jalb qilinadi. O‘qituvchi vaqtni belgilab qo‘yib, birinchi so‘z (fosh) niyatadi. O‘quvchilar bu so‘zni lug‘atdan topishga barovar kirishadilar. So‘zni birinchi topgan o‘quvchi qo‘lini ko‘taradi. Shu usul bilan qolgan so‘zlar ham lug‘atdan toptiriladi. Dastlabki bir so‘zni lug‘atdan topish uchun 2-3 daqiqa sarflansa, keyinchalik muntazam olib borilgan mashq natijasida, bir so‘zni topish uchun 15-20 sekund kifoya qiladi. Bunda ba‘zan shunday ham bo‘ladi: o‘quvchilar ayrim so‘zlarning birinchi harfini bilmaganliklaridan ularni lug‘atdan topa olmaydilar. Bu ko‘proq p yoki f bilan, x va h bilan boshlanuvchi so‘zlarda yuz beradi. O‘quvchi bu so‘zlarni oldin o‘zi bilgan harfdan izlaydi. Bu o‘rinda topilmagan ikkinchi harfdan qidirish lozimligi aytiladi. Mashqning bu turi, bir tomondan o‘quvchilarni alfavitdan foydalanishga o‘rgatsa, ikkinchi tomondan topilgan so‘zlarning yozilishini esda qoldirishga yordam beradi. Odatda har bir dars ma‘lum darajada «Imlo lug‘ati» dan foydalanishni taqozo etadi. Boshqa fanlarni o‘qitishda ham «Imlo lug‘ati»ga murojat qilishga to‘g‘ri keladi. Shunga ko‘ra «Imlo lug‘ati» qo‘llanma sifatida har bir o‘quvchida bo‘lishi zarur. Maktab «Imlo lug‘ati» quyidagi talablarga javob berishi kerak.

- 1) O‘quvchilarning so‘z boyligini hisobga olish:
- 2) Maktab darsliklari va qo‘llanmalari leksikasi lug‘at uchun asos bo‘lishi lozim. Maktab va bolalar hayotiga oid so‘zlar hamda o‘quvchilarning yozma ishlarida ko‘pchilik o‘quvchilar xato qilishi mumkin bo‘lgan so‘zlar lug‘atdan joy olishi kerak.
- 3) Zarur so‘zlarning urg‘usi ko‘rsatiladi. Bu esa o‘quvchi nutqining o‘sishiga, adabiy talaffuz normalarining o‘quvchilar tomonidan mustaqil egallashiga yordam beradi.
- 4) Lug‘atda orfografik qoidalar bo‘lsa, yana ham yaxshi. 1994 yilda «O‘qituvchi» nashriyotida bosilib chiqqan «Imlo lug‘at» ga o‘zbek orfografiyasining asosiy qoidalar ham kiritilgan. «Imlo lug‘ati» bilan ishlash jarayonida o‘quvchilarga xilma-xil topshiriqlar beriladi. Talaffuzi bilan yozilishiga mos kelmaydigan so‘zlarni lug‘atdan toptirish, ularni daftarlariga ko‘chirtirish, keyin zarur topilsa, ular ishtirokida gap tuzdirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdullaeva Q., Rahmonbekova S. 2-sinfda o‘qish darslari. O‘qituvchi kitobi. -T.: O‘qituvchi, 2004.
2. Abdullaeva Q., YUsupova M., Mahmudova M., Mavlonova M. O‘qish kitobi. (2-sinflar uchun darslik). -T.: «O‘qituvchi». 2001.
3. Abdullaeva Q., Nazarov K., Yo‘ldoshev SH. Savod o‘rgatish metodikasi. -T.: «O‘qituvchi». 1996.

DAVLAT VA HUQUQ ASOSLARI FANINI O‘QITISHDA DIDAKTIK O‘YIN MASHG‘ULOTLARI

*Abdullayeva Dilrabo Abdusaid qizi
Sirdaryo viloyati Boyovut numani 55-maktab*

Annotatsiya: ushbu maqolada davlat va huquq asoslari fanini o‘yin texnologiyalardan foydalanishning turlari, ularning ta‘lim sifatidagi ahamiyati, o‘yinli texnologiyalarni qo‘llash va qo‘llash natijasidagi mulohazalar haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: o‘yinli texnologiyalarni qo‘llash, interfaol usullar.

Islahotlarning muhim bo‘g‘ini – innovatsiyalar boshqa sohalar kabi ta‘lim tizimida ham o‘zining afzalliklarini namoyish qilmoqda. Hozirgi vaqtda «innovatsiya» tushunchasi juda keng ma‘noda qo‘llanilmoqda. Innovatsiya so‘zi inglizcha so‘z bo‘lib, “yangilik”, “yangilik kiritish” degan ma‘noni bildiradi, ya‘ni tizim ichki tuzilishini o‘zgartirish, deb ta‘riflanadi.

Innovatsiyalar dolzarb, muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bir tizimda shakllangan yangicha yondashuvlardir. Ular tashabbuslar va yangiliklar asosida tug‘ilib, ta‘lim mazmunini rivojlantirish

uchun istiqbolli bo'ladi. Shuningdek, umuman ta'lim tizimi rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Innovatsiya – ma'lum bir faoliyat maydonidagi yoki ishlab chiqarishdagi texnologiya, shakl va metodlar, muammoni yechish uchun yangicha yondashuv yoki yangi texnologik jarayonni qo'llash natijadir.

Davlat va huquq asoslari fanini o'qitishda o'yinli texnologiyalar didaktik o'yinli dars shaklida qo'llaniladi. Ushbu darslarda o'quvchilarning bilim olishi o'yin faoliyati orqali beriladi. Ushbu jarayon didaktik o'yinli darslar deb ataladi.

Odatda inson hayotida o'yin faoliyati orqali quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

- o'yin faoliyati orqali shaxsning o'qishga, mehnatga bo'lgan qiziqishi ortadi;
- o'yin davomida shaxsning muloqotga kirishishi ya'ni, kommunikativ – muloqot madaniyatini egallashi uchun yordam beriladi;
- shaxsning o'z iqtidori, qiziqishi, bilimi va o'zligini namoyon etishiga imkon yaratiladi;
- hayotda va o'yin jarayonida yuz beradigan turli qiyinchiliklarni yengish va mo'ljalni to'g'ri olish ko'nikmalarining tarkib topishiga yordam beradi;
- o'yin jarayonida ijtimoiy normalarga mos xulq-atvorni egallash, kamchiliklarga barham berish imkoniyati yaratiladi;
- shaxsning ijobiy fazilatlarini shakllantirishga zamin tayyorlaydi;
- insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan qadriyatlar tizimi, ayniqsa, ijtimoiy, ma'naviy-madaniy, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o'rganishga e'tibor qaratiladi;
- o'yin ishtirokchilarida jamoaviy muloqot madaniyatini rivojlantirish ko'zda tutiladi.

Davlat va huquq asoslari fanini o'qitishda didaktik o'yinli mashg'ulotlar syujetli-rolli o'yinlar, ijodiy o'yinlar, ishbilarmonlar o'yini, konferentsiyalar, o'yin-mashqlarga ajratish mumkin.

O'qituvchi-pedagog avval o'quvchlarni individual (yakka tartibdagi), so'ngra guruhli o'yinlarga tayyorlashi va uni o'tkazishi, o'yin muvaffaqiyatli chiqqandan so'ng esa, ularni ommaviy o'yinlarga tayyorlashi lozim. Chunki o'quvchilar didaktik o'yinli mashg'ulotlarda faol ishtirok etishlari uchun zaruriy bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlari, bundan tashqari, guruh jamoasi o'rtasida hamkorlik, o'zaro yordam vujudga kelishi lozim.

Bugungi kunda mustaqil taraqqiyot yo'lidan ildam borayotgan mamlakatimizning uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilish va takomillashtirish, yangi sifat bosqichiga ko'tarish, unga ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish hamda ta'lim samaradorligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Mamlakatimizda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar ta'lim tizimida ham o'ziga xos o'zgarishlarni kiritish va yangiliklarni joriy etish zaruratini belgilab bermoqda.

Ta'lim sifatini oshirish, asosan, o'qituvchilar va o'quvchilar bilim va ijodiy salohiyatini oshirish, intellektual darajani ko'tarish bilan bog'liq [2]. Shu maqsadda, o'quvchilarga uzluksiz ravishda mustaqil ishlash imkoniyati va sharoitini yaratib berish hamda ijodiy fikrlash va mustaqil qarorlar qabul qilishga o'rgatish zarur. Bu masalaning yechimi tabiiyki, mazkur jarayonning asosiy tashkilotchisi pedagoglarni tayyorlash sifatiga bog'liq. Har bir jamiyatning kelajagi uning ajralmas qismi va hayotiy zarurati bo'lgan ta'lim tizimining qay darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi.

Har qanday murakkab zamonaviy axborot texnologiyalar, integrasiyalar, fan sohasidagi olamshumul yangiliklar, avvalo, o'qituvchi tomonidan o'zlashtirilib, so'ngra uning bilimi, saviyasi, qobiliyati evaziga o'quvchilar ongi va tafakkuriga yetkaziladi [3]. Dunyoning turli mamlakatlarida ko'plab tadqiqotchilar tomonidan ta'limda innovatsiyalarni qo'llash bo'yicha izlanishlar olib borilgan. Ularda «innovatsiya», «interfaol usullar», «innovatsion texnologiyalar» to'g'risida yaxshi axborotlar to'plangan, biroq axborot texnologiyalarini ta'lim muassasalarida o'rgatish samaradorligini oshirish bo'yicha aniq tavsiyalar yetarli emas. Shuning uchun asosiy maqsad yuqori darajada o'zlashtirish natijalariga erishishni ta'minlovchi innovatsion texnologiyalardan foydalanishning samarali usullarini ishlab chiqish, xususan, zamon talab etayotgan axborot texnologiyalari bo'yicha pedagogik innovatsiyalardan foydalanish masalalarini tadqiq etishdan iboratdir.

O'yin harakati o'quvchilar diqqatini o'ziga tortishi bilan birga, ularni tez harakat qilishga undamog'i lozim. Chunki didaktik o'yin mashg'ulotida ishtirok etadigan o'quvchidan chaqqonlik,

зукколик, hozirjavoblik talab qilinadi. Boshlang'ich maktab o'quvchilarining yosh xususiyatlarini hisobga olib, fanni o'qitishda g'oyat samarali bo'lgan qator o'yinli texnologiyalar ishlab chiqilgan. Mutaxassislarning fikricha, insonning asosiy faoliyat turi uch ko'rinish: mehnat faoliyati, o'yin faoliyati, o'quv faoliyatida shakllanadi. Ularning barchasi o'zaro bog'liq holda sodir bo'ladi. Ta'kidlashlaricha, bolalarning maktabdagi o'quv materiallari asosidagi aqliy harakatlarini shakllanish qonuniyatlari o'yin faoliyatlarida tarkib topadi. Biroq o'yinli ta'limni o'quvchilar bilan ishlashdagi asosiy ta'lim shakli deyish to'g'ri emas. U o'quvchida bilish qobiliyatini shakllantirmaydi, biroq ularning bilish faolligini oshiradi, xolos. Yuqoridagi barcha mulohazalarni umumlashtirib, didaktik o'yinli texnologiyalarni qo'llash natijasida quyidagi mulohazalarni tavsiya etamiz: Birinchidan, didaktik o'yin turli yoshdagi bolalar faoliyatini rivojlantirishning mustaqil shakli hisoblanadi.

Ikkinchidan, didaktik o'yinlar ijodiy tafakkurni rivojlantirish, o'z-o'zini anglash faolligini oshirishdagi eng erkin shakldir.

Uchinchidan, didaktik o'yin rivojlantiruvchi amaliyot, sababi: bolalar o'ynaganlari uchun rivojlanadilar, aksincha, rivojlanish uchun o'ynaydilar.

To'rtinchidan, didaktik o'yin o'z-o'zini anglashda, o'z-o'zini boshqarishda va ijodda erkinlikdir.

Beshinchidan, didaktik o'yinda o'quvchilar nazariy bilimlarini amaliyotga qo'llash imkoniga ega bo'ladilar, hodisalar va fanning mavjud xususiyatlarini tushuntirish uchun savollarni aniq ifodalay boshlaydilar.

Oltinchidan, didaktik o'yin bolalarning asosiy muloqot maydoni bo'lib, unda o'zaro shaxsiy muammolar hal etiladi. Insonlar orasidagi o'zaro munosabatlar shakllanadi.

Xulosa qilib aytganda Davlat va huquq asoslari fanini o'qitishda bolani jismoniy jihatdan o'stiruvchi oddiy o'yinlardan tortib, kattalar orasida ham mashhur bo'lgan intellektual o'yinlardan iborat birqancha o'yinlar «ombori»ga egamiz. Barcha o'yinlarda o'yinchi o'yin shartlarini tezda o'zlashtiradi va o'ziga belgilangan vazifani qabul qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Daminova M, Adambekova T, O'yin mashg'ulotlari. Toshkent: O'qituvchi. 1993y. 11b
2. Raxmanova D. Z. , Razvitie tvorcheskix sposobnostey buduhix uchiteley nashalno'x klassov v protsesse pedagogicheskiy praktiki po teme avtoreferat dissertatsii 2013g.

ДАВЛАТ ВА ҲУҚУҚ АСОСЛАРИ ФАНИНИ ЎҚИТИШДА КОМПЕТЕНЦИЯВИЙ ЁНДОШУВ ВА ИННОВАЦИЯЛАР

*Эшматов Давронбек Ўразали ўғли
Сирдарё вилояти Сардоба тумани 4-мактаб
тел; 936768091*

***Анотация** Ўқувчиларни Давлат ва ҳуқуқ асослари фанини ўқитишда таълим мазмуни ва тарбия таъсирини яъни компетенцияларни қай даражада эгаллаётганлигини энг мақбул усуллар ёрдамида назорат қилиб бориш. Бу борада педагоглар инновациялар ҳамда дарс самарадорлигини ошириш омиллари бўйича пухта билим ва тажрибага эга бўлмоғи лозим.*

Янги Ўзбекистон таълим тизми тубдан ислох қилиниб бораётган ҳозир умумтаълим мактабларимизда педагогнинг обрў ва нуфузи, моддий ва маънавий қўллаб-қувватланиши ҳам ҳавас қилса арзигулик даражада ўзгариб бормоқда. Кейинги вазифа эса таълим-тарбия жараёнини мазмунан такомиллаштириш, уни сифат жиҳатдан тамоман янги босқичга қўтаришдан иборатдир.

Тараққиёт ўз шиддати билан ҳаёт тарзимизга кириб келаётган бир пайтда афрзандларимизнинг ҳуқуқий онг ва маданиятини янада юксалтириш борасидатаълим тизмида муҳим вазифалар амалга оширилмоқда. Бундай вазиятда ўқувчига бирор янги билим бериш, уни ўқиш ва изланишга ўргатиш учун ўқитувчидан жуда катта маҳорат талаб қилинмоқда. Табиийки, бу жараён касбини севган, ардоқлаган, ўзини ҳурмат қилган ҳар бир

ўқитувчини ўз устида изланишга, янгидан-янги педагогик усул ва услублар, технологияларни ўрганишга, кашф қилишга ундамоқда.

Янги Ўзбекистони барпо этишда таълим-тарбия сифати ва самарадорлигини замон талаблари даражасига кўтариш давлат сиёсатининг устувор йўналишларидан бирига айланди. Ўзбекистон республикаси Канститутциясининг 28 йилилгига бағишланган байрам муносабати билан табригида президентимиз Шовкат Миромонович бу масалага алоҳида эътибор қаратиб қонун устуворлигини тامينлашда ҳуқуқий маланиятни юксалтириш фуқороларни қонунга ҳурмат руҳида тарбиялаш муҳим аҳамият касб этишини такидлади. Айниқса бу борада, давлат ва ҳуқуқ асослари фанини ўқитишда таълим мазмуни ва тарбия таъсирини яъни компетенцияларни қай даражада эгаллаётганлигини энг мақбул усуллар ёрдамида назорат қилиб бориши бу борада янги миллий дастурнинг қабул қилиниши таълим мазмуни ва тузилишини тубдан ўзгартирмоқда, таълим сифати ривожланишининг янги, янада юқори босқичига кўтарилмоқда. Бугунги кунда илм-фан, техника ва ахборот коммуникацион технологиялар, ишлаб чиқариш соҳаларининг тез суръатларда жадаллик билан ривожланиши, таълим тизими ходимларидан таълим-тарбия сифатини мазмун жиҳатидан янги босқичга кўтариш, бунда инновацион технологиялардан самарали фойдаланишни талаб этиб, ҳар бир тизим ходими, айниқса ўқитувчилар зиммасига янада юксак масъулият ва вазифаларни юклайди. Умумий ўрта таълим муассасаларида Давлат ва ҳуқуқ асослари фанини ўқитишда таълим жараёнига турли хил инновацияларни татбиқ этилиши дарсларнинг кизиқарли ва мазмунли ўтилишига, ўқитувчиларнинг эса ўз устларида мунтазам изланишлар олиб боришига ундамоқда. Чунки ўқитувчи таълим ва тарбия жараёнининг етакчиси, ташкилотчиси бўлиб, унинг инновацион маданияти, ташаббускорлиги, ижодий фаоллиги, креатив фикрлаши, новаторликка бўлган интилиши таълим тизимини ривожлантиришнинг асосий омилларидан бири ҳисобланади.

“Инновация” сўзи латин тилидаги “*inovatis*” (*in* - ичига, *novus* – янги, янгилик) сўзидан олинган бўлиб, таржима қилганда “янгилик киритиш, ижобий ўзгариш, янгилаштириш” деган маъноларни англатади. Инновациялар илмий-амалий жиҳатдан асосланган, бирон-бир соҳада аниқ мақсадга қаратилган ҳамда амалий татбиқ этишга йўналтирилган юқори самарадорликка эга янгилик ҳисобланади.

Педагогик инновация дейилганда самарали натижага эришиш мақсадида таълим-тарбия жараёнига янгиликлар, ижобий ўзгаришлар киритиш тушунилади. Инновация ҳар томонлама пухта режалаштирилган, ўқув жараёнига мақсадли киритилаётган янги таълимий амалиёт (янги тартиб, услуб, метод, методология, технология ва бошқ.) ҳисобланади. Инновациянинг ўзига хос хусусияти қуйидагилар ҳисобланади:

- инновациялар доимо долзарб муаммонинг янги ечимини ўз ичига олади;
- улардан фойдаланиш янги сифатли натижаларни олиш имконини беради;
- инновацияларни татбиқ этиш тизимдаги барча компонентларнинг сифатий ўзгаришларига олиб келади.

Замонавий таълим технологияларини қўлашда Давлат ва ҳуқуқ асослари фанини ўқитишда таълим мазмуни ва тарбия таъсирини қай даражада юқори босқичга олиб чиқиш ва ўқитувчилар дарс жараёнида қуйидагиларни қўллай олишлари лозим ҳисобланади:

- янгича таълим машғулотларини ташкил этиш ва бошқариш;
- Давлат ва ҳуқуқ асослари фанини ўқитишда ўқувчиларини дарсга қизиқтириш ва дарсларни кизиқарли таъкил этиш;
- назарий маълумотларни беришга асосланган амалий ролли ва компьютер ўйинлари;
- Давлат ва ҳуқуқ асослари фанини ўқитишда ўқувчиларини маълум қолибга солиб қўйиш эмас балки уларни эркин фикрлашлари учун ижодий муҳитни яратиш;

Миллий дастурни жорий этишда замонавий дарс шундай дарски, унда ўқитувчи ўқувчининг мавжуд имкониятларидан ундабуронлик билан фойдаланиб, унинг ақлий лаёқатини ишга солиб, ўсиб боришни таъминлайди. Давлат ва ҳуқуқ асослари фанини ўқитишда ўқитувчилари дарсни шундай ташкил қилиш керакки, унда ўқувчиларни мустақил фикрлаш, ижод этиш ва изланишга сафарбар этиш, дарс жараёнида ишонч ва эркинлик

муҳитини яратиш, ижодий ва амалий мулоқотда бўлишни таъминлаш, ўқувчи фикрини изоҳлаш, таҳлил қилиш, талқин этиш, ижодий муҳит яратиш, кичик гуруҳларда ишлашда ҳамкорлик фаолиятини, ўқитиш самарадорлигини ошириш мумкин бўлсин.

Дарсда инновацион ёндошув ўқитувчи-ўқувчи ҳамкорлигини таъминлайди. Бу борада ўқитувчи аниқ вазиятларни ўрганиш методидан фойдаланиши мақсадга мувофиқ.

Бунда:

- дарс мазмун моҳиятини сингдириш, аниқ фикр билдириш, фикрлашга, изоҳлашга, қидириб топишга, хулосалашга ўргатиш;
- мустақил ишлашга, ўз-ўзини тарбиялашга, ижодий муҳит яратиш, фикрлаш, сўзлаш маданиятига ўргатиш;
- билим, кўникма, малакаларини ошириш, педагогик-психологик муҳит яратиш;
- янги билим ғояларини ижодкорлик билан ўрганиб ўзлаштириш, лойиҳалаш, моделлаштириш, амалиётга татбиқ этиш;
- таълим жараёнини таълим берувчи ва таълим олувчининг ҳамкорлик фаолияти сифатида ташкил этиш;
- дарсда билим ва фикр эркинлиги, интерфаол методларидан фойдаланиш.
- дарсда АКТдан фойдаланиш ва ш. к.

Хулоса қилиб айтсак Давлат ва ҳуқуқ асослари фанини ўқитишда ҳозирги куннинг талабига жавоб бера оладиган, ҳар томонлама билимли, кўп қиррали, янгиликларни ўзлаштира оладиган ва ҳаётга татбиқ эта оладиган ва дарсда АКТдан фойдалана оладиган, ўз тилидан ташқари инглиз ва рус тилларини ҳам билиши ёки ўрганишга ҳаракат қиладиган ўқитувчи замонавий ўқитувчидир. Бундай ўқитувчилар янги Ўзбекистоннинг баркамол авлоди тарбияси йўлида масъуллигини унутмаган ҳолда жўшқинликда фаолият юритади.

БОЛА ТАРБИЯСИДА ҲУҚУҚИЙ ОНГНИНГ ЎРНИ

Қурбанова Шахноза Ташпулатовна, Раҳмонкулова Феруза Акбаралиевна
Sirdaryo tumani 15- maktab, Guliston tumani 31-maktab

Анотация Жамиятда ижтимоий одилликка эришишга қаратилган ва ҳиссий тус берилган талаблар кучига ишониш учун қўлликни бекор қилиш, табақавий имтиёз ва чегаралаш, ирқий камситиш, қонун олдида ҳамма фуқароларнинг конституциявий тенглигини тан олиш кабиларни эслашнинг ўзи кифоя.

Ҳуқуқий мафкура ва ҳуқуқий руҳиятларнинг ўзига хослиги улардаги мавжуд умумийликни ва ўзаро таъсирни мутлақо инкор этмайди. Чунки улар бир-бирлари билан чамбарчас боғлангандир. Уларнинг бири иккинчисини тўлдиради, бири иккинчисидан келиб чиқади, шу тариқа ҳуқуқий воқелик тўғрисида илмий асосланган, ҳиссий тушуниб етилган, мураккаб йўлни ўтган тушунчани ҳосил қилади.

Ҳуқуқий онг руҳий таркибининг бойлиги, унинг одамлар хулқ-атворида, уларнинг ҳуқуққа муносабатига таъсири ўзига хос куч бағишлайди.

Ҳуқуқий мафкура - ҳар хил ҳуқуқий ҳодисалар ҳақидаги нуқтаи назар, тушунча, ғоя ва қарашларнинг илмий умумлаштирилган тизимидан иборатдир. Инсоннинг онгида ҳуқуқни билиб олиш жараёни, юқорида зикр қилганимиздек ёки шунга яқинроқ тарзда кечади. Инсоннинг ҳуқуқий феъл-атвори қандайлиги, пировардида унинг ҳуқуқий маданияти даражасига, ҳуқуқий билимининг кенглиги ва теранлигига боғлиқдир. Ҳуқуқий мафкура - шахснинг ҳуқуқий онгини илмий асосда шакллантира бориб, инсоннинг ҳуқуққа бўлган муносабатига ҳал қилувчи таъсир қилади.

Ҳуқуқий руҳият - онг доирасидаги ҳуқуқий ҳодисалар билан боғлиқ ҳолда, онгда юзага келадиган ва унга сингиб кетган ҳис, кечинмалар соҳасини ифодалайди. Ҳуқуқий руҳият - ҳуқуқий ҳодисаларни ҳиссиёт билан тиклаш соҳасидир. Шунинг учун, у ижтимоий ҳодисаларни, жумладан ҳуқуқий ҳодисаларни ҳам, нафақат ақл билан, балки сезги билан ҳам тушуниб етади.

Ҳуқуқий ҳодисаларни тушуниб етиш жараёни одамнинг иштирокисиз ривожлана

олмайди, шу сабабли унда табиий тарзда ғоявий ва ҳиссий жараёнлар қўшилиб, чатишиб кетади. Мисол учун, лойихаланаётган қонун мазмуни билан оддий танишиб чиқиш, унда ҳар хил ҳаяжонланишни (шодланиш ва қаноатланишдан, англашилмовчилик ва ачинишгача, чуқур хафа бўлишгача) келтириб чиқаради ёки тўлқинланишга олиб келади.

Ҳуқуқий онг чегарасида ҳар қандай билимнинг шаклланиши идрок этиш жараёнини теранлаштира бориб, улар акс еттирган ҳодисаларни ўзлаштиришда ҳиссий тусолади.

Ҳуқуқий онг соҳасида кечадиган фикрлаш жараёни одамлар талабини ва манфаатини ифода этувчи инсон ҳиссиёти билан йўғрилган ёки шу ҳиссиётдан тузилган. Ҳуқуқий онг соҳасида вужудга келадиган ҳуқуқий ғоялар, тушунчалар ва таассуротлар, ақл ва сезгининг шундай ноаниқ чалкашиб кетиши оқибатида, одам феъл-атворини тартибга солишда катта таъсирчан кучга эга бўлади. Шунинг учун, ҳуқуқий онгни ўрганишга катта аҳамият берилади.

Ҳуқуқий онгнинг тузилиши таҳлили, бир томондан, ҳуқуқий мафкура ва ҳуқуқий руҳият каби унинг табиий таркибий қисмларининг ўзаро таъсири табиатини ва ўзаро нисбатини очади, бошқа томондан, ижтимоий ҳаётда бутун ҳодиса сифатида унинг вазифасини очиб беришга ёрдамлашади.

Ҳуқуқшунослик фани ҳуқуқий онг соҳасини ижтимоий ва шахсий турларга ажратади. Аммо бу чегаралаш, уларнинг ўртасидаги диалектик ўзаро боғлиқликни мутлақо инкор этмайди. Ҳуқуқий онгнинг ҳар бир турини, нисбатан мустақиллигини тан олган ҳолда, уларга хос бўлган хусусиятларни очадиган ҳуқуқнинг умумий назарияси, уларнинг иккаласи ҳам жамият ҳаёти маҳсули бўлганлиги учун, уларнинг бирлигини ягона ижтимоий ҳодисалар сифатида тан олишдан келиб чиқади. Ижтимоий онг ҳуқуқий онгнинг янада юқорирок даражаси ҳисобланади, чунки унда ҳуқуқий воқеликка хос бўлган ҳамма хусусиятлар мужассамлашган. Унинг мазмуни ҳуқуқни билишда ва ҳаётга тадбиқ қилишда одам тафаккурининг ижодий ютуқлари ва ижтимоий-ҳуқуқий амалиёти билан суғорилган.

Шахсий ҳуқуқий онгга келсак, у ўз мазмуни билан унча катта ҳажмли ва кенг эмас. Бундан ташқари, у, ҳуқуқий тафаккур тарихида тўплангини учун, ҳуқуқий билимлар йиғиндисини қамраб ола олмайди. Шахсий ҳуқуқий онг билиш имкониятлари жиҳатидан бир қадар чекланган. Ҳаммага маълумки, ҳар бир одамнинг ҳаёти алоҳидадир. Бир шахсда ҳуқуқий билим олиш имконияти катта бўлса, бошқасида камроқ. Биринчисининг ҳуқуқий онг даражаси юқори бўлса, иккинчисиники - паст. Шунинг оқибатида, шахсий ҳуқуқий онг ҳар хил ривожланиш даражасига эга. Маълум даражада, ҳуқуқий онг даражаси жамият аъзоларининг ҳуқуқий маълумотларига ҳам боғлиқдир.

Хулоса қилиб айтсак ҳуқуқий маданиятнинг даражасига қараб, ҳуқуқий онг уч турга ажратилади. Оддий, илмий ва касбий. Оддий ҳуқуқий онг, одатда, ўз-ўзидан вужудга келади ва одамнинг шахсий тажрибаси ва ҳуқуқий ҳодисалар билан боғлиқ бўлган ҳаётий вазиятлар ҳақидаги тушунчаси билан белгиланади. Бунга - одамнинг ишга жойлашувидаги ёки олий ўқув юртига кириш қоидалари ёки йўл қоидасини бузгини учун жавобгарлиги ҳақидаги билимлар мисол бўла олади.

Шахсий тажриба, кундалик ҳаётнинг чегарасида кечиб - тор бўлганлиги учун, ҳуқуқий онг жуда чегаралангандир. Ҳуқуқий онг бизни ўраб турган борлиқ ҳақидаги оддий тушунчалар чегарасида муттасил қола олмайди ва доимо ривожлана бориб, табиий ижтимоий қонуниятлар даражасига чиқади, шу билан назарий, илмий тушунчага айланади.

Ҳуқуқшуносларнинг ҳуқуқий онги қонунга бўйсунувчи фуқароларнинг ҳуқуқий мулоҳазаларидан ҳуқуқий меъёр ва нуқтаи назарлари билимининг теранлиги ҳамда катта ҳажми ва энг муҳими, ҳуқуқшунослар ҳуқуқнинг қоидалари ва меъёрларни қўллашни билиши билан фарқ қилади. Ҳуқуқшунослар ҳуқуққа, шунингдек унинг амалда қўлланишига касбий малака билан ёндашадилар. Бу қонунчилик билан юқори даражада мос келишни, ҳуқуқни қўллаш фойдалилигини ва уни чуқур тушуниш зарурлигини кўзда тутаяди.

TARIX VA HUQUQ FANLARINI OQITISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYANI QO‘LLASH VA NOAN‘ANAVIY DARSLARNI TASHKIL ETISH

Niyazova Salomat Salijanovna

Guliston shaxar 6-maktab

Annotatsiya: *Pedagogik texnologiya hozirgi kunda barcha pedagogik kasblar hamda ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil qilish, boshqarish, nazorat qilish bilan bog‘liq kasblarning asosini tashkil etadi. Bu jarayon ma’lumotlarni o‘zlashtirish uchun qulay shakl va usulda uzatish orqali o‘quvchini mustaqil o‘qishga, bilim olishga, fikrlashga o‘rgatishni kafolatlaydi.*

Kalit so‘zlar: *Aqliy hujum Innovatsiya, texnologiya, amaliyot, pedagogika, Aqliy hujum metod*
Professor N. Sayidahmedov ta’kidlaganidek “Aqliy hujum” texnologiyasining asoschisi bizning ajdodlarimiz, o‘z aql mash’ali bilan dunyoni yoritgan qomusiy olimlar Ahmad al-Farg‘oniy, Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Beruniy va boshqalardir.

Bahslar- O‘quvchilarni ikki guruhga bo‘lib, biror mavzu bo‘yicha o‘zaro bahs, fikr almashinuv tarzida o‘tkaziladi.

Muzokara - ma’lum bir muammo bo‘yicha muhokama, fikr almashinuv ko‘rinishida o‘tadi.

Munozara - bu usul o‘quvchilarni bir mavzu ustida fikr yuritishga, mavzuning yaxshi ochib berilmagan tomonlarini yoritishga, bilimlarni mustahkamlashga imkon beruvchi usuldir. Bu usul avvalo o‘qituvchi bilan o‘quvchilar orasidagi munosabatning yaxshi yo‘lga qo‘yilishini ta’minlaydi, o‘quvchilarning mavzu bilan bog‘liq tushunchalarini ayta olishlari, mustaqil fikr yuritishlariga yordam beradi.

Sinfni munozaraga tayyorlayotgan paytda munozara qilinishi kerak bo‘lgan mavzu va savollar o‘quvchilarga oldindan beriladi. Munozara shaklidan biri tanlab olinadi.

Munozarada o‘quvchilarning to‘la ishtirok etishiga erishish kerak. Munozara davomida o‘quvchilarga o‘z tushuncha va fikrlarini erkin ifodalashlariga imkon berish kerak. Munozara darsi tartibli va samarali o‘tishi uchun o‘qituvchi tomonidan boshqarib turilishi kerak.

Taqdimot yoki muzyoralar- bu mashg‘ulotni boshlash uchun mo‘ljallangan qisqa mashqdir. O‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi “to‘siq”ni yo‘qotishga qaratilgan usul. Bu metod asosida guruhdagi o‘quvchilarni o‘zaro ishonch, hurmat, o‘zaro yaqinlikni his etishga o‘rgatish yotadi.

Aqliy hujum – bu metod asosida cheklangan vaqt ichida aqlning tezkor harakati orqali o‘ziga xos muammo, vazifa xususida barcha ishtirokchilarning imkon qadar ko‘proq g‘oyalarini yaratishi belgilangan, ya’ni topshiriq barchaga yakka holda bajarish uchun berilgan bo‘lib, har bir o‘quvchining fikri yozilishi so‘raladi va fikrlar umumlashtirilib, birortasi ustida to‘xtaladi.

Davra suhbat - Bunda ma’ruzachi o‘qituvchi bosh tashkilotchi bo‘lib qoladi. Bu usul o‘quvchilarga tanish yoki yaqin mavzularda o‘tkaziladi. O‘quvchilarga oldindan davra suhbatining mavzulari, rejalari, savollari berib qo‘yiladi.

O‘quvchilar uchun mustaqil tayyorgarlik ko‘rishga, ularni bir-birlari bilan avvaldan o‘zaro fikr almashishga, kutubxona, internetdan ayrim ma’lumotlarni to‘plash, qayta ishlash, kichik test tuzish imkoniyati yaratiladi. Bu usulning afzalligi shundaki, har bir o‘quvchi alohida tayyorgarlik ko‘radi. Har ikki tomon davrani o‘tkazishga tayyorgarlik bilan keladi.

Davra suhbatining yana bir afzalligi shundaki, har bir o‘quvchi o‘z bilimini, og‘zaki nutqini, shaxsiy fikrini erkin namoyish etishiga muhit yaratiladi. O‘quvchi va o‘qituvchining ma’suliyati oshadi.

Pedagogik texnologiya asosining mazmun va mohiyati shundah iboratki, dars jarayonida o‘quvchining roli, unung faolligi ortadi, o‘qituvchi esa kuzatuvchi, yo‘l - yo‘riq ko‘rsatuvchi vazifasini bajaradi.

Darsda turli usullarni qo‘llash, o‘quvchining mustaqil bilim olishi imkoniyatini kengaytiradi. Dars samaradorligini oshiradi.

Buning uchun darsda quyidagilarga e’tibor berish kerak:

1. Dars mavzusi o‘quvchilar yoshi, bilim saviyasi, hayotiy tajribasiga mos kelishi kerak.
2. Dars mazmuni, maqsadi, shakl va usullari o‘zaro mos bo‘lishi zarur.
3. Darsning ta’limiy, tarbiyaviy, o‘quvchi shaxsini rivojlantirish kabi didaktik maqsadlarini

yaxlitlikda amalga oshirish lozim.

4. O'qituvchi o'z pedagogik mahorati ish tajribasidan kelib chiqib, darsning mavzusi, mazmuni, maqsadi, shakli hamda usulini tanlashi shart.

Pedagogik texnologiya asosida dars berishda o'quvchilarni joylashtirish katta ahamiyatga ega. Agar ma'ruza darsi bo'lsa o'quvchilar o'z joylarida o'tiradilar. Agar bahs-munozara darslari bo'lsa, o'quvchilarni davra-doira usulida o'tirishlarini taklif etaman. Agar o'quvchilar guruhlariga bo'linsa, unda tanaffus paytida navbatchilar partalarni joylashtirib chiqishadi.

Guruhlardagi ishni qanday tashkil etish kerak:

- Dars boshlanishdan oldin materiallarni tayyorlab, partalarni mo'ljallangan joylarga qo'yish;
- Materiallar har bir guruhga tarqatilib, topshiriq belgilab beriladi yoki topshiriqni sinf taxtasiga yozsa ham bo'ladi;

- Topshiriq bilan tanishish uchun guruhlariga 5-10 daqiqa vaqt ajratiladi;

- Berilgan topshiriqlarni bajarish uchun vaqt belgilanadi.

Belgilangan vaqt tugagandan so'ng har bir guruh topshiriqni bayon qiladi. Agar topshiriq to'liq bajarilmasa, boshqa guruh o'quvchilari to'ldirishlari mumkin.

Baho qo'yish usulini o'qituvchi o'zi belgilaydi. Albatta, bu masalada adolatli bo'lish, o'quvchining qobiliyati, mehnati va izlanishiga to'g'ri baho berish shart. Eng yuqori ball to'plagan o'quvchi rag'batlantiriladi.

Darsda yana o'quvchilar uchun alohida oltin qoida, tamoyillar belgilab qo'yilgan:

- Darsda har bir o'quvchining faol ishtirokini ta'minlash;
- Yuksak intizom namunasini ko'rsatish, ya'ni dars qoldirmaslik, darsga kechikmaslik, o'zaro hurmat;
- Sinfning tozaligini saqlash;
- O'zaro bir-biriga yordam qilish;
- Bir-birlarining fikrlariga qarshi chiqmaslik;
- Guruhdagi o'quvchilar javoblarini navbat bilan tinglash va hokazo.

Mana shunday pedagogik texnologiyani turli usullarini qo'llab, qiziqarli darslarni tashkil etish mumkin.

Xullas, dars uslublarining almashtirib turilishi bilan o'quvchilarning zerikib qolishi, natijada darsga bo'lgan qiziqishi susayishining oldi olinadi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Inoyatov U. I., Muslimov N. A., va boshq. Pedagogika: 1000 ta savolga 1000 ta javob. 2012 y. Toshkent

2. Madayev O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. «Mumtoz so'z», T. : 2010.

ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА ЗАМОНАВИЙ ПЕДАГОГИК ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН ФЙДАЛАНИШНИНГ АҲАМИЯТИ

Саттарова Наргиза, Қорёғддиева Дилбар

Бухоро вилояти Бухоро тумани 2-умумтаълим мактабининг “Математика ва Физика ”

фани ўқитувчиси

nargiza.sattarova.2021@mail.ru

Аннотация: Ушбу мақола таълим тизимида ўқувчиларнинг интеллектуал салоҳиятини ривожлантиришида таълим технологиясининг аҳамияти тўғрисида фикрлар баён этилган. Дарс жараёнида таълим технологияларини қўллаш натижасида ўқувчиларнинг интеллектуал салоҳияти ва илмий назарий билими янада мустаҳкамланади. Шунинг билан биргаликда, таълимда ахборот ва коммуникация технологиялар ва замонавий педагогик технологияларни янада бойитиш, такомиллаштиришга олиб келади.

Калит сўзлар: таълим, ахборот технологиялари, таълим технологияси, инновация.

ЗНАЧИМОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СОВРЕМЕННЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ В СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация: В данной статье обсуждается важность интеллектуальных технологий

в развитии интеллектуального потенциала учащихся в системе образования. Использование умных технологий в классе еще больше укрепляет интеллектуальный потенциал и научные и теоретические знания учащихся. В то же время внедрение информационных и коммуникационных технологий и современных педагогических технологий в образование приведет к дальнейшему обогащению и совершенствованию образования.

Ключевые слова: образование, информационные технологии, инновации, педагогические технологии.

THE IMPORTANCE OF USING MODERN PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN THE EDUCATION SYSTEM

Abstract: This article discusses the importance of intelligent technologies in the development of the intellectual potential of students in the education system. The use of smart technology in the classroom further enhances the intellectual potential and scientific and theoretical knowledge of the students. At the same time, the introduction of information and communication technologies and modern pedagogical technologies in education will lead to further enrichment and improvement of education.

Keywords: education, information technology, innovation, pedagogical technology.

Ижтимоий – сиёсий ва маданий тараққиётнинг барча босқичларида жамият кучли интеллектуал қобилият ва юксак маънавий салоҳиятга эга бўлган инсонларга, ишчи – ходимларга эҳтиёж сезган ҳамда шахсларни тарбиялашга интилган ва бунга маълум даражада эришган. Бундай натижаларга эришишнинг ягона омили таълим – тарбия жараёнини ривожлантиришдан иборатдир.

Бундай кадрларни тайёрлаш ҳар бир педагогдан ташаббускорлик, интилувчанлик, мустақил фикрлаш, илғор педагогик технологияларни жорий этишни талаб этади. Бу борада шундай савол туғилади: Илғор педагогик технология нима? Шахсга йўналтирилган таълимчи?

Илғор педагогик технологияга бир нечта таъриф келтирамиз:

1. Илғор педагогик технология – бу таълим – тарбия жараёнини ҳаракатга келтирувчи кучдир.


2. Илғор педагогик технология – бу маълумот ва таълим мазмунини атрофлича таҳлил қилиш йўли билан ўқув – тарбия жараёнининг умумий хусусий мақсадларини таҳлил қилиш, ўқитувчи ва ўқувчи учрашган нуқталарда (ўқитиш мақсади, ўқиш мақсади) таълимнинг дидактик мақсадини белгилаш асосида таълимни лойиҳалаш ва амалга ошириш йўллари билан мўлжалдаги натижага эришишдир.

3. Илғор педагогик технология – бу мавжуд шароит ва ўрнатилган вақтда белгиланган таълимий мақсад ва кўзланаётган натижаларга энг қулай йўл ва ўқитиш воситаларнинг тартибли қўллаш орқали эришишдир.

Инсон тафаккури ҳамда ақлий салоҳияти ҳар қайси инсонда турли даражаларда бўлади. Кимдир берилган маълумотни тез қабул қилиб, уни дарҳол таҳлил қилиб ва қайта ишлай олиш қобилиятига эга бўлса, яна кимдир бу маълумотни қабул қилиши учун уни бир неча бор такрорлаш ва қўшимча воситалар ҳамда вақт талаб қилинади. Шахсга йўналтирилган таълимда айни мана шундай хусусият назарда тутилган, яъниким талабаларга дарс ўтиш жараёнида уларнинг индивидуал ақлий имкониятларини ҳисобга олган ҳолда уларга турлича ёндошиш керак.

Дарсларни янада самарали ва қизиқарли қилиб ўтиш учун дарсда турли ўйинлар ҳамда таълим технологиялардан фойдаланиш мумкин. Ўз тажрибамиздан келиб чиққан ҳолда “Математика” фани мавзуларини самарали ўтишда қўлланилган таълим технологияларининг бир нечтасидан намуна келтирамиз:

"шаклларни ёдда сақла" методикаси



✦ ушбу методикадан мақсад болани кўрув (визуал) хотирасини ривожлантириш ва турли расмлар орқали бола хотирасини мустаҳкамлаш.

⚙ Методика материали сифатида турли геометрик шакллар чизилган расмларан фойдаланилади. Ушбу методика учун 5 дақиқа вақт ажратилади.


■ Кўрсатма бериш: “Кўйидаги геометрик шаклларга иккат билан қаранг (20-30 сония мобайнида) ва уларни ёдда сақлаб қолишга ҳаракат қилинг

Бу метод дарсда ўқувчилар фокусини бир жойга жамлашга ёрдам беради


“ЛАБИРИНТ” ТЕХНОЛОГИЯСИ

Технология ўқувчиларда ўқув ва ҳаётий фаолиятда учрайдиган турли ҳолат, вазиятларни тўғри баҳолаш, улардан чиқа олиш, тезлик билан зарур ечимларни топиш қуникмаларини шакллантириш, фикрлаш қобилиятини ривожлантиришга ёрдам беради.

Уни қўллашда қуйидаги ташкилий вазифалар ҳал қилинади:





Машигулотларда технологияни қўллаш қуйидаги тартибда амалга оширилади:



“САД” (УЧЛИК - САМАРАЛИ, АХЛОҚИЙ, ДИДЛИ) ТЕХНОЛОГИЯСИ

Технология ўқувчи (талаба)ларда яқка, гуруҳ ва жамоа бўлиб ишлаш, ижодкорлик, ташкилотчилик, ишга масъулият билан ёндашиш, бажарилган ишни юксак дид билан тақдим этиш (намойиш қилиш) қўникмаларини ривожлантиришга хизмат қилади. Уни қўллашда ўқувчи (талаба)ларга қуйидаги топшириқларни бериш мумкин:





Фойдаланилган адабиётлар

1. Усманова Г.А. Тажиба-тадқиқот майдонларида илғор педагогик технологияларидан фойдаланиш. // Журнал Таълим технологиялари №1, -2012, - б. 29-32.
2. Рўзиева Д. "Интерфало методлар: моҳияти ва қўлланилиши" методик қўлланма-Т.2013, 41-556

TABIIY FANLARNI O‘QITISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA “AMALIY MASHG‘ULOT” DARS TURINING O‘RNI VA AHAMIYATI

Ashirmatova Shalola

Boyovut tuman 24-umumiy o‘rta ta’lim maktabining boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Tabiiy fanlarni zamon talabiga javob bergan holda o‘qitishda amaliy mashg‘ulot dars turidan foydalanish yaxshi natija beradi. Amaliy mashg‘ulot o‘quvchilarning kundalik faoliyatida har xil mehnat jarayonlarini o‘rgatish metodidir. Amaliy mashg‘ulotning samaradorligi o‘quvchilarning ularni bajarishga tayyorgarligiga bog‘liq. Amaliy ishlarga tayyorgarlik odatda, bir necha bosqichda bo‘ladi.

1. O‘quvchilar amaliy mashg‘ulot mavzusiga nazariy tayyor bo‘lishlari kerak. Masalan, Tana haroratini o‘lchash amaliy mashg‘ulotini o‘tkazish uchun, ular tana haroratini necha xil usulda tekshirish mumkinligi, haroratni o‘lchash uchun e‘tibor berilishi lozim bo‘lgan qoidalar hamda qanday holatda bo‘lganda tana harorati o‘lchash tavsiya etilmasligi kabi ma’lumotlarni bilishlari lozim bo‘ladi.

2. Amaliy mashg‘ulotda o‘quvchilarning barchasi qatnashishlari lozim. Buning uchun ularni amaliy mashg‘ulotda kerak bo‘ladigan ish qurollari bilan ta’minlash zarur. Ya’ni termometrlar bilan.

3. O‘quvchilarning amaliy mashg‘ulotni bajarish jarayonlari o‘qituvchi tomonidan nazorat qilib borilishi kerak. Xato bajarayotgan o‘quvchilarga ko‘mak berib turishi lozim. Biroq bunda o‘quvchilarning mustaqilligi va faolligini chegaralamaslik kerak.

4. O‘quvchilarning amaliy mashg‘ulotni qanday bajarganliklari oxirida tahlil qilinadi va to‘g‘ri bajarganlar rag‘batlantiriladi.

Bunday amaliy mashg‘ulot jarayonlari o‘quvchilarning bilish faolligini oshirishda, bilimlarni aniqlashtirishda va mustahkamlashda o‘qituvchiga yordam beradi. Boshlang‘ich sinfda o‘quvchilar oddiy, ko‘p vaqt va urinishni talab qilmaydigan topshiriqlardan asta-sekin murakkabroq vazifalarni bajarishga o‘tadilar. Sinfda o‘tkazilayotgan amaliy mashg‘ulotlar o‘quvchilarga o‘rganilayotgan narsani sezgi a’zolari bilan qabul qilib olish imkoniyatini beradi, ya’ni faqatgina ko‘rish emas, balki ularda tajribalar o‘tkazib, ushlab ko‘rib, xususiyatlarini sinab ko‘rish kabi imkoniyatlarni beradi.



Tana haroratini o'lchash usullari bo'yicha tibbiy ma'lumotlar:

1. Haroratni og'izda o'lchash:

Bunday usul to'rt yoshdan kichik bolalar uchun to'g'ri kelmaydi, chunki bunday yoshdagi bolalar hali termometrni muvofiq holda tutib tura olmaydi. Ushbu termometr orqali og'izdagi haroratni o'lchashdan avval issiq, sovuq narsa iste'mol qilish mumkin emas. Ehtiyotkorlik juda muhim. Termometrni og'izga yuborishdan oldin uning uchini iliq suv bilan, so'ngra antiseptik bilan artib olish kerak. Termometr chayqatiladi, 35 darajagacha bo'lishi kerak. Shundan so'ng o'lchagich til ostiga (o'ng yoki chap tomoniga) joylashtiriladi, og'iz mahkam yopiladi va qurilma tishlar tomonidan yengil ushlab turiladi. Qattiq qisish mumkin emas. Og'izda 5 daqiqa qoldiriladi, so'ng natija ko'riladi.

2. Haroratni qo'ltiq ostida o'lchash:

Haroratni to'g'ri o'lchash uchun darrov termometrni ishlatib bo'lmaydi. Ovqatlanishdan va jismoniy og'irlikdan 30 daqiqa keyin ishlatish mumkin. O'lchashdan oldin termometrni silkitib, simob termometrni 35 darajadan pastroqqa tushirish kerak. Qo'ltiq osti quruq bo'lishi lozim. Termometrni mahkam siqib, 5 daqiqa tutib turiladi so'ng natija ko'riladi. Yuqoridagi simobli termometrlardan foyalangandan so'ng, uni antiseptik eritmalar bilan artib, keyin uni sochiq bilan artib, qutisiga solib qo'yish kerak.

3. Haroratni quloqda o'lchash.

Buning uchun maxsus infraqizil termometrlar mavjud: boshqa termometrlarni quloqqa tiqish foydasiz. 6 oylikkacha bo'lgan bolalarning harorati quloqda o'lchanmaydi. O'lchashda quloqni bir tomonga tortib o'lchash datchigini quloq ichiga qo'yish kerak. O'lchash uchun bir necha soniya kerak bo'ladi.

4. Haroratni peshonada o'lchash.

Infraqizil termometrda inson tanasidagi haroratni masofadan turib tezkor aniqlash va qisqa vaqt davomida bir nechta bemorlarni ketma-ket haroratini o'lchay olish mumkin. O'lchash boshqa kishi tomonidan amalga oshiriladi. U xotirasida 8-50 tagacha o'lchashlarni saqlaydi. Uni peshonaning oldiga 2-5cm joylashtirib, rangi o'zgarguncha yoki ma'lumotlari paydo bo'lguncha o'lchash uchun tugmasi bosiladi.

Yuqoridagi infraqizil termometrlarni suvga yoki suyuqliklarga botirish mumkin emas.

1-topshiriq. Rasmlarga qarab tana haroratini o'lchash usullari aniqlang.



1. _____
2. _____
3. _____
4. _____

Amaliy mashg'ulot mavzusidagi topshiriqlarni bajartirishda yuqoridagi ma'lumotlardan foydalanilib, sinf ichida namuna qilib o'lchash jarayonlarini ko'rsatish-o'quvchining xotirasida doimiy saqlanib qolishini ta'minlaydi. Bu olingan bilimlarni kundalik hayotda to'g'ri qo'llash ko'nikmasining shakllanishida muhim poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Tabiiy fanlarni o'qitishning maqsad va vazifasidan kelib chiqib, o'quvchilarning olgan bilimlarini kundalik hayotda qo'llashiga imkon beruvchi, zamonaviy intellektual shaxsni tarkib toptiruvchi dars mashg'ulotlarini tashkil etishda avvalo, o'qituvchi izlanuvchan bo'lishi, yuksak salohiyatga, ilmiy bilimlarga ega bo'lishi lozim. O'quv jarayonini tashkil etish uchun o'qituvchiga amaliy mashg'ulot uchun barcha sharoitlar yaratilishi ta'lim jarayonining ikkinchi muhim tomonidir.

MAKTABGACHA TA'LIMDA INTERFAOL METODLAR

Yu. Sotimboyeva

Namangan viloyat XTXQTMOHM, Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikalari kafedrası o'qituvchisi

O'zbekiston Respublikasida olib borilayotgan tub islohatlar mazmuni yosh avlodni ma'naviy yetuk, intellektual salohiyatli barkamol shaxs qilib tarbiyalashga qaratilgan. Milliy mafkura g'oyasini hayotga tadbiq etishga qaratilgan ma'naviy-ahloqiy tarbiyaviy ishlar barkamol shaxsni shakllanishida o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Zamonaviy ta'lim muassasasi yuksak ma'naviyatli shaxsni tarbiyalashni maqsad qilib qo'yimoqda, bunda har bir shaxsning tabiiy qobiliyatlarini rivojlantirish, bo'lajak avlodni ijtimoiy muhofaza ya'ni ruhiy kamolotini yuksaltiruvchi muhitni yaratish, buning uchun sog'lom muhit va tarbiyaviy ishlarni to'g'ri tashkil qilish muhimdir.

O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida ta'lim sohasini tubdan takomillashtirish, ta'lim sifatini oshirish, intellektual salohiyatli, jismoniy barkamol avlodni shakllantirish, aniq fanlarni chuqurlashtirib o'qitish va iqtisodiyotning turli sohalari uchun malakali kadrlarni tayyorlash ustuvor vazifalar sifatida belgilangan bo'lib, pirovardida bugungi davr talabiga javob bera oladigan ta'lim tizimini yaratish ko'zda tutildi.

Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi Prezidentimizning PF-5198-sonli qarori qabul qilindi. Hujjatga ko'ra, Axborot va pedagogika texnologiyalari innovatsion markazi davlat muassasasi shaklida tashkil etildi. Bunda, ta'lim-tarbiya jarayoniga ilg'or pedagogika va axborot texnologiyalarini joriy etish, Maktabgacha ta'limni boshqarish axborot tizimining joriy etilishini ta'minlash, shuningdek, maktabgacha ta'lim muassasalari uchun o'quv-metodik, didaktik materiallarni tayyorlash va ishlab chiqarish Markazning asosiy vazifalaridan etib belgilandi. Jumladan, ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan holda bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish sharoitlarini yaratish, maktabgacha ta'lim sifatini oshirish, maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni maktabga sifatli tayyorlashni tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga jahon amaliyotida keng qo'llaniladigan zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini joriy etish, maktabgacha ta'lim muassasalariga pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish mexanizmini takomillashtirishdan iborat dolzarb

vazifalar qo'yildi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan pedagogik jarayon murakkab, shu bilan birga rang-barangdir. Ta'lim-tarbiya samaradorligiga erishishda maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi har bir faoliyat turini to'g'ri tashkil etish lozim.

Bolaga yo'naltirilgan ta'limning mazmuni innovatsion texnologiyalar orqali "Ilk qadam" Davlat o'quv-dasturlarining to'liq bajarilishiga qaratilgan. Bu zamonaviy pedagogik texnologiya sifatida ta'lim-tarbiya jarayonini ko'proq muloqot va mashqlarga asoslangan o'yin – mashg'ulotga aylantirib tarbiyachilarga yangicha usullardan foydalangan holda ishlashga undaydi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti mashg'ulotlarida ta'lim-tarbiya berishda interfaol usullardan foydalanishning maqsadi:

- Bolalarni ijodiy fikrlashga o'rgatish;
- Muammoli vaziyatlarni yecha olish ko'nikmasini rivojlantirish;
- Bolalarni faollashtirish;
- Ularda do'stona munosabatlarni shakllantirish.

Interfaol metodlarni qo'llashda foydalaniladigan vositalar:

- Ko'rgazmali qurollar;
- Texnika vositalari;
- Tarqatma materiallar;
- Multimedialar.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tashkil etilayotgan faoliyatlarda qo'llanilayotgan interfaol usullar ta'lim sifati samaradorligini hamda muhitini yaxshilaydi. Tarbiyachilarning kasbiy mahorati oshadi, bolalar ijtimoiy muhitda, bolalar jamoasida o'z o'rnini his qila boshlaydi.

Hozirgi kun talabi tez o'zgaruvchan, murakkab va o'zaro bir-biriga bog'liq dunyoda o'z o'rnini topa oladigan shaxsni tarbiyalashdir.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi faoliyatlarda qo'llanilayotgan interfaol usullar quyidagi maqsadlarni o'z ichiga olgan:

1. Ta'limiy maqsadi: faoliyat davomida interfaol usullarni qo'llash orqali bolalarning fikrlash doirasini kengaytirish, so'zlarni bo'g'inlarga bo'lish, tovushli arifmetik amallarni bajarishga o'rgatish.

2. Tarbiyaviy maqsad: bolalar o'rtasida o'zaro do'stona munosabatlarni yaratish, kichik guruhlarda ishlashga o'rgatish, tabiatga va undagi jonivorlarga mehr-muhabbat uyg'otish.

3. Rivojlantiruvchi maqsad: rivojlanish markazlarida kichik tajribalar o'tkazish orqali bolalarni jismonan sog'lom, ma'nan ytuk barkamol shaxs bo'lib shakllantiriladi.

Biz yuqorida ta'kidlayotgan innovatsion ta'lim turlariga misol qilib hozirda ommalashgan STEM ta'limini olishimiz mumkin.

Bugungi kunda STEM ta'limi dunyodagi asosiy tendensiyalardan biri sifatida rivojlanmoqda va amaliy yondashuvni qo'llashda 5 ta sohani yagona o'quv sxemasiga integratsiyalashga asoslangan. Shuningdek, ushbu atama odatda o'quv jarayoniga yondashuvni bildiradi, unga ko'ra bilimlarni olish uchun asos ilmiy hodisalarni sodda va tushunarli vizuallashtirish bo'lib, bu amaliyotni va jarayonlarni chuqur anglash asosida bilimlarni egallashni va olishni osonlashtiradi. Soddaroq qilib aytadigan bo'lsak, 5 ta rivojlantiruvchi sohalarni ta'limiy-tarbiyaviy faoliyatga tadbiq etish uchun bolalarga sodda qilib tushuntirishning yangi innovatsion usulidir. Bunday ta'limning shartlari uning uzluksizligi va bolalarning guruhlarda o'zaro muloqot qilish qobiliyatlarini rivojlantirish bo'lib, bunda ular fikrlarini jamlashni va fikr almashishni o'rganishadi, shu bilan birga bolalarning dunyo qarashi kengayib boradi.

ТАРИХ ДАРСЛАРИДА ИННОВАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН САМАРАЛИ ФОЙДАЛАНИШ

Шарипова Нигора
Гулистон Шахри 9-мактаб

Annotatsiya: Ижтимоий фанлар бўлими тарих фанини ташкил этишида инновацион технологиялардан самарали ва мақсадли фойдаланиши ўқувчиларнинг ижодий қобилиятларини ўстиришга хизмат қилади.

Kalit soʻzlar: Innovatsiya, texnologiya **танқидий фикрлаш, ижодий фикрлаш, коммуникативлик.**

Янги Ўзбекистоннинг замонавий таълим тизми янгиланиб, янги педагогик ва инновацион технологиялар жадал ривожланиб бормоқда. Тез суратлар билан ўзгариб ривожланиб бораётган ҳозирги замонда янги талаблар асосида фаолият юритишни даврни ўзи тақоза этмоқда. Шу жумладан, халқ таълими тизимида ўқув дастурлари ва дарсликлар такомиллаштирилмоқда. Мазкур йўналишдаги ишлар асосан таълим сифатини оширишга қаратилган. Тарихсиз келажак йўқ, деб айтамыз. Мактабларда тарих фани қандай ўқитилипти ва тарих фанини ўқитишни такомиллаштириш учун қандай ишлар амалга оширилмоқда.

Миллий ўқув дастурининг олдинги стандартдан фарқи — ХХІ асрда ўқувчи муваффақиятга эришиши учун керак бўлган асосий компетенцияларни ривожлантиришни мақсад қилиб олдик. Булар — **танқидий фикрлаш, ижодий фикрлаш, коммуникативлик (мулоқотга киришиш), ахборот билан ишлаш, ўз-ўзини ривожлантириш ва фаол фуқаролик.** Бизга қандай авлод керак? Бизга илғор фикрлайдиган, қатъиятли, ўз мақсади сари ҳаракат қиладиган, мустақил қарор қабул қила оладиган, муаммони ижобий ечадиган шахслар керак. Бундай шахслар иқтисодиётни ривожлантира олади, жамиятни бошқара олади, ҳаётимизни ўзгартира олади. Миллий ўқув дастурига ХХІ аср кўникмаларини сингдириш орқали шундай шахсларни тарбиялашга ҳаракат қиламиз.

Ўқитувчиларнинг инновацион технологиялардан самарали ва мақсадли фойдаланиши **ўқувчиларнинг когнитив кўникмалари, танқидий ва ижодий фикрлаши, кўп саводлилиқни ривожлантиришга эътибор қаратилган бўлиб** ўқувчиларнинг ижодий қобилиятларини ўстиришга хизмат қилади.

Кутилаётган натижага эришиши учун дарслар олдиндан лойиҳалаштирилади. Ва ўқитилаётган тарих фаннинг ўзига хос жиҳатлари иноватга олинадилар. Фан ўқитувчисидан, дарсни яхлит ҳолда кўра олиш ва тасавур этиш талаб этилади. Ўқитувчи дарснинг технологик харитасини тузиб олиши ва дарс ишланмасини мукамал яратиши дарс самардорлигига эришишнинг асосий омили ҳисобланади. Қуйида бир соатлик тарих фани дарслари мисолида нанавий услубда инновацион технологиялар асосида яратилган дарс ишланмасини кўриб чиқамиз:

Мавзу: Мустақиллик дарси.

Дарснинг технологик харитаси

<p>Мақсад ва Вазифалар</p>	<p>МАҚСАД: ТАЪЛИМИЙ МАҚСАД: Ўқувчи-ёшларда Мустақил юртимизга, ҳалқимизга, унинг тарихи, маданиятига, ўз она тилига, маънавиятига, қадриятига меҳр-муҳаббатни ортириш, ўзлигини англашга, Ватанни севишга, уни ҳар бир қарич ерини ардоқлашга ва кўз қорачиғидек асраб-авайлашга ўргатиш. Ватанпарварлик руҳини сингдириш.</p> <p>ТАРБИЙАВИЙ МАҚСАД: Ўтмишдаги Ўзбекистоннинг ҳозирги кўриниши, ҳаёт мазмунини қиёслаб оладиган, ўтмиши ҳар доим келажакнинг асоси англаб йетадиган авлодни тарбиялаб вояга йеткизиш. Мустақилликда еришилган ютуқлардан фахрланиш ва еҳтиёт қилишдек муқаддас ишни ўрганиш. Юртимизга сукулиб кираётган, Мустақиллигимизга раҳна солаётган ёвуз кучларга собитлик ила тура оладиган фарзандларни тарбиялаш.</p> <p>РИВОЖЛАНТИРИСҲ МАҚСАДИ: -Ўқувчиларни дунёқарашларини, фикрлаш қобилиятларини кенгайтириш. Келажакда юртимиз Мустақиллигини янада рағбат</p>
-----------------------------------	---

	<p>топтиришга хизмат қиладиган, мустақил фикр егаси қилиб тарбиялаш.</p> <p>- улар онгига бугунги кунимизнинг қадрига йетадиган, юртимизнинг бир қадам йери-ю, бир ховуч сувини, бир бурда халол ноништа-ю, киндик қони тўкилган бир сиқим тупроғини қай даражада азиз эканлигини англаб йетишдек муқаддас туйғуни шакллантириш.</p> <p>ВАЗИФАЛАР:</p> <p>- Ўқувчиларда мавзуга нисбатан қизиқиш уйғотиш, уларда мавзу асосида билим ва кўникмаларни шакллантириш, дунёқарашини кенгайтириш;</p> <p>- фуқаролик жамиятига етишиш учун хар бир фуқарони бурчи ва вазифалари ҳақида тушунтириш орқали қонунларга риоя етиш, ватанпарварлик руҳида, мустақил ва теран фикр егаси қилиб тарбиялаш.</p> <p>-мавзуга оид ма'лумотни егаллаш ва берилган топшириқни ўқувчилар томонидан гуруҳ ҳолатида ўзлаштириб олишлари ҳамда бошқотирмадаги саволлар қай даражада ўзлаштирилганлигини назорат қилиш, уларнинг билимини баҳолаш.</p>
Ўқув жараёнининг мазмуни	<p>Ўқитувчи: Мустақил юртимиз ёшларининг келажагини қандай тасаввур қиласиз?</p> <p>Мустақиллик деганда нимани тушунсиз?</p> <p>Келажаги буюк бўлган Ўзбекистонимизнинг равнақиға тажаввуз қилаётган кимсаларни ким деб аташ мумкин?</p> <p>Сиз бу воқеаға ўз муносабатимизни билдирингчи?</p> <p>Бундай воқеаларнинг олдини олиш учун хушёр бўлишдек хисийётни инсон ўзида қандай уйғотиш мумкин?</p> <p>Сиз Мустақил Ўзбекистоннинг мустақиллигини янада раванқ топишиға қандай ҳиссангизни қўшмоқчисиз.</p>
Ўқув жараёнини амалга ошириш технологияси	<p>Дарс тури : Мустаҳкамловчи дарс.</p> <p>Услуб: “Ақлий ҳужум, “Музёра” методлари, Кичик гуруҳларда ишлаш “БББ” технологияси, гуруҳларда ишлаш.</p> <p>Шакл: кичик, ўртач ва катта гуруҳларда ишлаш;</p> <p>Восита: Ўзбекистон Республикаси Конституцияси; ватман қоғози, маркер, скотч; компьютер, видеопроектор, Ўзбекистон Республикаси Президенти Ўзбекистон Президенти Шавкат Мирзиёевнинг "Миллий тикланишдан - миллий юксалиш сари асари", Ўзбекистоннинг рамзлари</p> <p>Назорат: савол-жавоб;</p> <p>Баҳолаш: 5 балли тизим асосида</p> <p>Уйға вазифа: Ўзбекистон Мустақиллигига бағишланган слайдлар, рефератлар тайёрлаб келиш.</p>
Кутиладиган натижалар	<p>Ўқитувчи: Мавзуни қисқа вақт ичида барча ўқувчилар томонидан ўзлаштирилишиға еришади. Ўқувчи фаоллигини оширади. Ўқувчиларға юртимизда бўлаётган кескин бунёдкорлик ўзгаришлари, Ўзбекистон дунё етакчи давлатлари қаторидаюқори пағоналарға еришаётганлиги, сабаби ёшларға яратилаётган жуда кенг имкониятлар, спорт, санъат, иқтисодиёт, ишлаб-чиқариш соҳаларида еришилаётган ютуқлари тўғрисида маълумотлар бериш. Бир дарсда барча ўқувчи баҳоланади. Ўқувчилар томонидан мавзуни мустақил ўрганиш ва уни хотирада сақлашға, бошқаларға етказа олади.</p> <p>Ўқувчи: Янги билимларни егаллайди. Яқка ва гуруҳ бўлиб ишлашни ўрганадилар, нутқи, дунёқараш ва ҳуқуқий саводхонлиги ривожланади. Кенг фикрлаш қобилияти шаклланади.</p>

Келгуси режалар	<p>Ўқитувчи: Педагогик технологияларни ўзлаштириш ва дарсда татбиқ этиш, такомиллаштириш, ўз устида ишлаш. Педагогик маҳоратни ошириш.</p> <p>Ўқувчи: Мустақил ишлашни ўрганади. Ўз фикрини раво баён қила олади. Шу мавзу асосида қўшимча материаллар излайди, уларни ўрганади. Дўстона муҳитда, ҳамкорликда ишлаш кўникмаси шаклланади. Ватанпарварлик, Она юрт, юртга садоқат, Мустақил ватанга хизмат қилиш туйғуси шаклланади.</p>
------------------------	---

Дарснинг блок чизмаси.

Т/р	Дарс босқичлари	Ажратилган вақт
1	Ташкилий қисм: Саломлашиш, давоматни аниқлаш.	3 дақиқа
2	Кириш қисми: ақлий ҳужум	10 дақиқа.
3	Мавзу билан ишлаш: Кичик груҳларда ишлаш	10 дақиқа.
4	Мустаҳкамлаш: ўртача груҳларда ишлаш	15 дақиқа.
5	Баҳолаш ва баҳоларни эълон қилиш	3 дақиқа.
6	Уйга топшириқ	4 дақиқа.

Дарснинг бориши:

1. Ташкилий қисм. Ўқитувчи саломлашиб, навбатчи ҳисоботини тинглайди. Маънавият дақиқаси ўтказилиб дарс мавзуси эълон қилинади.

2. Кириш қисми: ақлий ҳужум: -**Мустақиллик деганда нимани тушунсиз?** Ўқитувчи олтин қойдаларга асосан ҳар бир ўқитувчидан эркин фикрини билдиришни сўрайди. Якунда жавобни умумлаштиради.

3. Мавзу билан ишлаш: Кичик груҳларда ишлаш. Жуфтлик асосида ишлаш учун топшириқ беради: (икки ўқувчига битта савол)

Ватанимиз озодлиги учун курашган қандай буюк шахсларни биласиз?

4. Мустаҳкамлаш: Ўртача груҳларда ишлаш

Ўқувчиларни 3 груҳга “Светофор” услии орқали бўлиб оламин. Бунда қизил, сарик, яшил светофорнинг рангларида фойдаланиб картондан карточкалар ясаб оламин ўқувчилар сонига қараб тарқатилади. (м-н 24та ўқувчи бўлса 8та қизил, 8та сарик, 8та яшил карточка тарқатилади.)

5. Баҳолаш ва баҳоларни эълон қилиш. Беш юлдузчалар ёрдамида ҳар бир топшириқдан сўнг ўқувчиларни жавобларига қараб беш баллик тизимда баҳолаб бориш.

6. Уйга топшириқ. Мавзу бўйича мустақил иш ёзиб келиш.

Уйга вазифа : Ўзбекистоннинг Мустақиллик даврида эришган ютиқлари акс этган слайдлар, рефератлар тайёрлаб келиш.

DARSLARIDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYANI QO‘LLASHNING AHAMIYATI

Bo‘riboyeva Sevara Saitqul qizi, Jo‘raqulova Saida Akrom qizi.

Sirdaryo viloyati, Oqoltin tumani. 17- maktab o‘qituvchilari

Vazirlar Mahkamasining 2017 - yil - 6 apreldagi 187-son qaroriga asosan mamlakatimizda ta’lim tizimining modernizatsiya qilinishi, ta’lim muassasalarida yaratilayotgan shart-sharoitlar, yuqori malakaviy kasbiy kompetentli mutaxassislariga bo‘lgan ehtiyoj juda yiqori. Pedagoglarni shakllanib borishi umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘qituvchilari faoliyati samaradorligiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash, ularning innovatsion faoliyatini tashkil etish va muvofiqlashtirib borish yo‘l qo‘yilayotgan kamchiliklar va mavjud muammolarni bartaraf etish yo‘nalishlarida o‘ziga xos qator talablarni belgilaydi.

Bugungi kunda umumiy o‘rta ta’lim maktablarida tashkil etilayotgan ona tili darslarini zamonaviy, yorqin hamda, pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish katta ahamiyat kasb etadi. Bu esa, o‘quvchilarning nazariy va amaliy mashg‘ulotlar davomida o‘zlashtirishlari lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma hamda malakalarni to‘liq egallashiga imkoniyat yaratadi. Dars mashg‘ulotlar

davomida o'quvchilarning mustaqil ishlash samaradorligini, ularning ijodkorlik qobiliyatlarini va tafakkurini rivojlanishiga, o'z navbatida esa, olingan bilim va ko'nikmalarning natijasini kafolatlaydi.

Ona tili darslarida pedagogik texnologiyani qo'llash faqatgina axborotlarni qabul qilish uchunгина emas, balki o'rganilayotgan ob'ektlar yoki jarayonlarda va virtual modellarning o'zaro harakatlarida multimedia modellari xususiyatlarini faol tadqiqot qilish uchun ham imkoniyat yaratib beradi. Interfaollik darajasi kanchalik yuqori bo'lsa, ta'lim jarayoni ham shunchalik samarali bo'ladi.

Pedagogik texnologiya – barkamol insonni shakllanti rish faoliyati.

Shu bilan birga pedagogik texnologiyani keng ko'lamli, serqirra tushuncha ekanligini hisobga olgan holda uning quyidagi yana bir nechta ta'riflarini taklif qilishimiz mumkin:

Pedagogik texnologiya – axborotlarni o'zlashtirish, ulardan amalda foydalanish, ulardagi yangi ma'no – mazmunlarni hamda axborotlar orasidagi turli bog'liqliklarni ochish orqali yangi axborotlar yaratishga o'rgatish jarayonidan iborat.

Pedagogik texnologiya – ta'lim metodlari, usullari, yo'llari hamda tarbiyaviy vositalar yig'indisi; u pedagogik jarayonning tashkiliy – usubiy vositalari majmuidir.

Pedagogik texnologiya — bu o'z oldiga ta'lim shakllarini optimallashtirish vazifasini qo'yuvchi, butun o'qitish va bilimlarni o'zlashtirish jarayonini texnik resurslar va odamlarning o'zaro munosabatlarini hisobga olgan holda yaratish, qo'llash va aniqlashning tizimli metodidir.

Pedagogik texnologiya – ma'lumotlarni o'zlashtirish uchun qulay shakl va usulda uzatish va o'zlashtirish jarayonidan iborat.

Demak, pedagogik texnologiya – insonga (ta'lim – tarbiya oluvchiga) oldindan belgilangan maqsad bo'yicha ta'sir o'tkazish faoliyatidan iborat.

Pedagogik texnologiya o'quvchini mustaqil o'qishga, bilim olishga, fikrlashga o'rgatishni kafolatlaydigan jarayondir.

Pedagogik texnologiya jarayonida o'qituvchi rahbarligida o'quvchi mustaqil ravishda bilim oladi, o'rganadi, o'zlashtiradi.

Bu faoliyatni amalga oshirish uni tashkil qilish, olib borish, takomillashtirish, tahlil qilish, tadqiq qilish, qiyoslash, umumlashtirish, xulosa chiqarish, boshqarish, nazorat, baholash kabi jarayonlarni o'z ichiga oladi.

Bu faoliyat boshqa hamma faoliyatlarga xos bo'lgan belgilarga ega bo'lib, avvalo jarayon ko'rinishida amalga oshiriladi va shu ko'rinishda mavjud bo'ladi. Shu bilan birga bu jarayon o'ziga xos qonuniyatlarga ega bo'lib, bu qonuniyatlarni insoniyat tomonidan o'rganish davom etmoqda..

Pedagogik texnologiya — o'quv jarayonini harakatlantiruvchi kuch va oldindan belgilab qo'yilgan aniq maqsad yo'lidan o'qituvchining kasbiy faoliyatini yangilovchi va ta'limda yakuniy natijani kafolatlaydigan tadbirlar majmuasi.

O'qituvchi faoliyatidagi barcha jarayonlar pedagogik texnologiyalar deyiladi. O'qitish tamoyillari ilgari ham mavjud bo'lgan, hozir esa faqat yangi atama bilan ifodalangan. Shu sababli, stixiyali ravishda amalga oshirilgan ilg'or metodik tajribalarni endi pedagogik texnologiya qonunlariga bo'ysundirish kerak.

Ta'lim jarayonida texnologiyalar o'yinli dars shaklida qo'llaniladi. Ushbu darslarda o'quvchilarning bilim olish jarayoni o'yin faoliyati bilan uyg'unlashtiriladi. Shu sababli o'quvchilarning bilim olish faoliyati o'yin faoliyati bilan uyg'unlashgan darslar *o'yinli darslar* deb ataladi.

Inson hayotida o'yin faoliyati orqali quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

1. O'yin orqali shaxsning ma'lum bir faoliyatga bo'lgan qiziqishi ortadi.
2. Kommunikativ-muloqot madaniyatini egallashga yordam beradi.
3. Shaxsning o'z iqtidori, qiziqishi, bilimi va o'zligini nomoyon etishga imkon yaratadi.
4. Hayotda va o'yin jarayonida yuz beradigan turli qiyinchiliklarni engishga tayyorlaydi, mo'ljalni to'g'ri olish ko'nikmalarini hosil qiladi.
5. O'yin jarayonida ijtimoiy normalarga mos xulq-atvorni egallash, kamchiliklarga barham berish imkoniyati yaratiladi.

6. Shaxsning ijobiy xislati va fazilatlarini shakllantirishga zamin tayyorlaydi.
7. Insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan qadriyatlar tizimi, ayniqsa, ijtimoiy, ma'naviy-madaniy, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o'rganishga e'tibor qaratiladi.
8. O'yin ishtirokchilarida jamoa muloqot madaniyatini rivojlantirish ko'zda tutiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Abdullaeva Q., Rahmonbekova S. 2-sinfda o'qish darslari. O'qituvchi kitobi. -T.: O'qituvchi, 2004.
2. Abdullaeva Q., YUsupova M., Mahmudova M., Mavlonova M. O'qish kitobi. (2-sinflar uchun darslik). -T.: «O'qituvchi». 2001.
3. Abdullaeva Q., Nazarov K., Yo'ldoshev SH. Savod o'rgatish metodikasi. -T.: «O'qituvchi». 1996.

DARSLARDA VENN DIAGRAMMASIDAN FOYDALANISH

*Burxanova Inabat Xadjimuratovna, Xojabekova Buvsodat Kuziboyevna
Oqoltin tumani. 17- umumiy ta'lim maktabi. Ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari.*

Ta'lim mazmunining yil sayin o'zgarib, takomillashib borishi maktab va ota-onalar oldiga yangi talablar qo'ymoqda. Ta'lim-tarbiya tizimi jamiyatimizda kechayotgan islohotlar, yangilanish jarayonlari bilan uyg'un holda rivojlanmoqda.

Venn diagramma-grafik ko'rinishda bo'lib, olingan natijalarni umumlashtirib, ulardan bir butun xulosa chiqarishga, ikki va undan ortiq predmetni (ko'rinish, fakt, tushuncha) tahlil qilish va o'rganishda qo'llaniladi. Diagramma ikki va undan ortiq aylanani kesishmasidan hosil bo'ladi.

Maqsad: ikki va undan ortiq predmet va tushunchalarni taqqoslashda, turli va umumiy tomonlarini aniqlashda bilim va ko'nikmalarni shakllantirish.

Amalga oshirish bosqichlari:

1-bosqich. O'quvchilar (sheriklari bilan) ikki doirani to'ldiradilar, har bir doiraga ikki tushuncha (predmet)ni e'tiborli tomonlari sanab o'tiladi.

2-bosqich. O'quvchilarni kichik guruhlariga (4-5 kishidan iborat) birlashtirib, diagrammalarni taqqoslaymiz va to'ldiramiz.


3-bosqich. Kichik guruh o'quvchilariga bu tushunchalarning (predmet, ko'rinishlarning) umumiy xossalarni aniqlashni taklif etamiz.

4-bosqich. Biron bir guruh vakili har bir tushunchaning o'ziga xos tomonlarini o'qiydi. Boshqalar zarurat bo'lganda uni javobini to'ldiradilar.

5-bosqich. Boshqa guruh vakillari ikki tushunchani birlashtiruvchi (umumiy) xususiyatlarni o'qiydi. Boshqalar zarurat paydo bo'lganda bu javoblarni to'ldiradilar.

Namuna:


VENN DIAGRAMMASI



Kubiklar - mavjud bo'lgan istiqbol orqali u yoki bu mavzuni ko'rib chiqishga imkon yaratuvchi uslub. Bunda fikrlash uchun turli yo'l-yo'riqlar qo'llaniladi.

Kubiklar 6 tomonli 15-20 sm:

1. Buni tariflang.
2. Buni taqqoslang.
3. Bunga taluqli fikrlarni bog'lang.
4. Buni tahlil qiling.
5. Buni qo'llang.
6. Bunga qarshi dalil keltiring.



Amalga oshirish bosqichlari:

1. Mavzu beriladi va o'quvchilarga shu mavzu haqida har tomonlama o'ylab ko'rish, ya'ni predmetni (obraz yoki biron-bir ko'rinish) batafsil (rangi, shakli, belgilari va hokazolarni) ko'rib chiqish taklif etiladi.

2. O'quvchilar orqama-ketin quyidagi topshiriqni bajarishadi.

- Buni ta'riflang (predmetning, hodisaning tashqi ko'rinishini ta'riflash)
- Buni taqqoslang (u nimaga o'xshaydi, nimadan nimasi bilan farq qiladi)
- Bunga taluqli fikrlarni bog'lang (u nima haqida o'ylashga majbo'r qiladi, qanday ko'rinishlar ko'z oldiga keladi. Tasavvurlaringizga erkinlik bering, bu nimalarga o'xshaydi va nimalardan farq qiladi)

○ Buni tahlil qiling (predmetning, xodisaning o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsating)

○ Buni qo'llang (ya'ni buni qanday qo'llash mumkin, bu predmet, hodisa xaqidagi bilimlarni qachon va qayerda qo'llash mumkin)

○ Hodisa, predmet uchun yoki unga qarshi dalillar keltiring (ya'ni faqatgina ta'rif bermay, buning uchun yoki unga qarshi ishonituvchi dalil topish kerak)

3. O'quvchilar bu yozma ishni bajarganlaridan so'ng, kubikning har bir tomoniga taluqli javoblari bo'yicha sheriklari bilan yoki guruhlarda (agar bu ish guruhlarda bajarilgan bo'lsa) fikr almashadilar (agar juftlikda bajarilgan bo'lsa).

4. Javoblar xohishga ko'ra sherik nomidan yoki guruh nomidan o'qiladi.

Ona tili fani o'quvchilari uchun guruh va mavzuga qarab, kubikning mos keladigan uch tomonini qo'llash mumkin. Albatta savollar topshiriqlarga mos qilib tuziladi.

- bu qanday ko'rinishga ega?
- bu nimaga o'xshaydi va nimadan farq qiladi?
- (taqqoslang)
- yana nima haqda o'ylab ko'rish mumkin? (bunga taluqli fikrlarni bog'lang)
- bu nimadan yasalgan? (tahlil qiling)
- uni qanday qo'llash mumkin?
- u yaxshimi yoki yomon (uning uchun yoki unga qarshi dalillar keltiring)

Kubik bilan ishlaganda tartibga rioya qilish kerak (masalan, asar qaxramonlari asarni o'qigandan so'ng tarflanadi).

Kubiklarni refleksiya bosqichida qo'llash mumkin.

O'quvchilar ma'lum darajada bilimga ega ekanligiga ishonch xosil qilgandan so'ng, mos keladigan mavzu tanlanadi.

Kubik bilan ishlaganda o'quvchilar bir-birlariga halaqit bermasliklari kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Azizxo'jaeva N. N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – T. : TDPU, 2003.
2. Davletshin M. G. Shark mutafakkirlarining psixologik karashlari. Toshkent 2002 yil.
3. Mavlanova R. A, Raxmonqulova N. X. "Boshlang'ich ta'limda inovatsiya". T., TDPU 2007-y.
4. Mavlanova R. A, Raxmonqulova N. X. "Boshlang'ich ta'limda pedagogika, innovatsiya, integratsiya." T., 2013.

BOSHLANG'ICH SINFLARDA SAVOD O'RGATISHNING AHAMIYATI

Каримова Гавхар Ильгизаровна.

Ташкентская область. Янгйульский район. Школа 15.

Тел:933241969.

Respublikamiz ijtimoiy va madaniy hayotida, xalq xo'jaligining barcha sohalarida davlat tilida aniq va pishiq ish olib borish. Fikrni og'zaki va yozma shaklda to'g'ri, ravshan, izchil ifodalay bilish, milliy-ma'naviy qadriyatlarni puxta egallash singari talablar barkamol mutaxassislar tayyorlashning muhim shartidir.

So'nggi yillarda pedagogika faniga, ta'lim tizimiga shiddat bilan kirib kelayotgan yangi pedagogik texnologiyalar, innovatsiyalar, yangi-yangi pedagogik-psixologik tushunchalar, interfaol metodlarni, intnegratsion texnologiyalarni ta'lim beruvchi tomonidan o'zlashtirilib va qo'llanib borilishi, ta'lim mazmunini tubdan o'zgartirib yubordi desak mubolag'a bo'lmaydi. O'quvchilarini fanga ijodkorlik nuqtai-nazari bilan qarashlarini tashkil qilish, ularda izlanuvchanlik xususiyatlarini shakllantirish va albatta, yangi pedagogik texnologiya usullaridan foydalangan holda darsni tashkil etish kerak bo'ladi. Buning uchun esa u bir necha yangicha ta'lim usullarini yaxshi bilishi kerak. Biz o'g'il-qizlarimizni o'zlarini anglashga, mustaqil, ongli fikrlashga, ularning tafakkurida bo'shliq vujudga kelishiga yo'l qo'ymasligimiz lozim degan so'zlarini misol qilib keltirgan holda maktab o'quvchisi, kasb-hunar kollejlari, akademik litsey talabalarining nutq boyligi, uquvliligini oshirishimiz, badiiy va ilmiy adabiyotlarga qiziqishini rivojlantirishimiz, ularning dunyoviy va diniy ilmlardan qay darajada xabardorligini aniqlashimiz kerak bo'ladi. Chunki, ko'p o'qigan va uqqan yoshlarni aldash, milliy g'oyamizga yot bo'lgan g'oyalar sari yetaklash xalqimiz dushmanlari uchun uddalab bo'lmaydigan masalaga aylanadi.

Farzandlarimizning nafaqat jismoniy va ma'naviy sog'lom o'sishi, balki ularning eng zamonaviy intellektual bilimlarga ega bo'lgan, uyg'un rivojlangan insonlar bo'lib, XXI asr talablariga to'liq javob beradigan barkamol avlod bo'lib voyaga yetishi uchun zarur barcha imkoniyat va sharoitlarni yaratishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'yganmiz¹. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning muvaffaqiyatli ko'p jihatdan ta'lim-tarbiya tuzulishini hozirgi davr talabiga ko'tarish har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirishga bog'liq. Chunki, jamiyat taraqqiyotining asosiy uning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishi bilan bir qatorda shu jamiyatda yashayotgan fuqarolrning intellektual va ma'naviy samaradorligini ham belgilab beradi. Shu nuqtai nazardan qaraganda har bir Davlatning istiqbolimizning ta'lim tuzulishini qay darajada ekanligi bilan belgilanadi.

Yosh avlod tarbiyasi haqida gapirganda, Abdurauf Fitrat bobomizning mana bu fikrlariga har birimiz, ayniqsa, endi hayotga kirib kelgan o'g'il-qizlarimiz amal qilishlarini men juda-juda istardim. Mana Ulug' ajdodimiz nima deb yozganlar: "Xalqning aniq maqsad sari harakat qilishi, davlatmand bo'lishi, baxtli bo'lib izzat-hurmat topishi, jahongir bo'lishi yoki zaif bo'lib xorlikka tushishi, baxtsizlik yukini tortishi, e'tibordan qolib, o'zgalarga tobe va qul, asir bo'lishi ularning o'z otanalaridan bolalikda olgan tarbiyalariga bog'liq".

Umumiy ta'lim tizimida ona tili asosiy va markaziy o'ringa ega. Ayniqsa, umumiy o'rta ta'limning asosi, poydevori bo'lgan boshlang'ich sinflarda ona tili yetakchi mavqeda turadi. Yosh

avlodda fikrlash va fikrni to'g'ri ifodalay olish ko'nikmasini hosil qilish va rivoj toptirish, ularga ona tilining qonun-qoidalarini singdirish, bu qonun-qoidalarini amalda qo'llay bilishni o'rgatish, ularni savodxonlik bilan to'g'ri va chiroyli yozish, to'g'ri talaffuz, ifodali nutq. O'z his-tuyg'ularini so'z vositasi bilan yuzaga chiqara olish malakalariga ega qilish, bular orqali amaliy faoliyatga tayyorlash boshlang'ich sinflarda boshlanadi.

Bola 1-sinfga kelganida taxminan 1300- 1400 atrofida so'z boyligiga ega bo'ladi. Maktab ta'limi, o'qituvchilarning pedagogik mahorati bilan unga har kuni 5-6 ta yangi so'z o'rgatiladi va bu so'zlar uning lug'atidan joy olishi hamda mustahkamlanishi kuzatib boriladi.

Shu bilan birga o'quvchilar ushbu so'zlarning yozilishi bilan ham tanishib boradilar. O'quvchilar ona tili qoidalarini bilan birgalikda to'g'ri va chiroyli yozishga o'rganib borishlari lozim bunga erishish uchun esa doimiy ravishda o'quvchilarni savodli yozish malakalarini rivojlantirib borishimiz lozim.

Bugungi kunda ayrim joylarda panolarda, viveskalarda, jamoat joyidagi e'lonlarda ayrim orfografik va imlo qoidalarini buzilgan holatdagi yozuvlarni uchratishimiz mumkin. Afsuski bunday kamchiliklar tez-tez ko'zga chalinib turibdi. Albatta bularning barchasiga yoshlikdanoq savodli yozish ko'nikma va malakalarini shakllantirishga yaxshi e'tibor qaratilmasligi deb olishimiz mumkin.

Shuning uchun ham o'quvchilarni ilk maktab yoshidanoq savodli yozishga o'rgatib borish bugungi kunda ham dolzarb va ahamiyatli muammolardan biri bo'lib qoladi

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Azizxo'jaeva N. N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – T. : TDPU, 2003.
2. Davletshin M. G. Shark mutafakkirlarining psixologik karashlari. Toshkent 2002 yil.
3. Mavlanova R. A, Raxmonqulova N. X. "Boshlang'ich ta'limda inovatsiya". T., TDPU 2007-y.
4. Mavlanova R. A, Raxmonqulova N. X. "Boshlang'ich ta'limda pedagogika, innovatsiya, integratsiya" T., 2013.

3-Sho'ba.
CURRENT ISSUES OF CONTINUOUS PROFESSIONAL DEVELOPMENT OF
PUBLIC EDUCATORS
(Xalq ta'limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirishning dolzarb muammolari)

ТИНГЛОВЧИЛАРНИНГ КИБЕРКОМПЕТЕНЦИЯЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ
МАСАЛАЛАРИ

Жуманазаров Сирожиддин Салайдинович

Тошкент шаҳар халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини
ошириш ҳудудий маркази доценти, т.ф.н.
sj_pochta@mail.ru

Аннотация. Ушбу мақолада малака ошириш жараёнида тингловчиларнинг киберкомпетенцияларини шакллантириш масаласи қаралган

Таянч сўзлар: рақамлаштириш, рақамли технологиялар, киберкомпетенция, инновацион фаолият, ахборот-коммуникация технологиялари

Аннотация В данной статье рассматривается вопрос формирования киберкомпетентности слушателей в процессе повышения квалификации

Ключевые слова: цифровизация, цифровые технологии, киберкомпетентность, инновационная деятельность, информационно-коммуникационные технологии

Annotation. This article discusses the issue of the formation of cyber competence of students in the process of professional development

Keywords: digitalization, digital technologies, cybercompetence, innovation, information and communication technologies

Қириш. Таълимда рақамлаштириш тушунчаси нафақат компьютерлаштирилган синфлар балки замонавий рақамли технологиялар асосида таълимни самарали бошқариш ҳам тушунилади. Бугунги кунда дунёдаги кўплаб таълим муассасаларига, шу жумладан республикмиздаги таълим муассасаларига ҳам бизга эртанги кун ҳақида тасаввур берадиган жуда кўп замонавий рақамли технологиялар жорий этилганлигини кўришимиз мумкин. Замонавий рақамли тахнологияларни таълим тизимида самарали жорий этилиши ўқув жараёнини самарали, тез, ишончли қулай бошқарилишини таъминлайди. Ҳозирги ахборот маконида таълимга рақамли технологияларни жорий этишда компьютерлаштириш ва таълим олувчиларга дастурлашни ўргатишнинг ўзи билан етарли бўлмайди. Бу эса таълимда ўқитиш технологиясини ўзгартириш, таълим жараёнини янгича ташкил этиш, дарслик ва ўқитувчилар қандай бўлиши кераклиги ҳақида фикр юритиш заруратини пайдо қилади. Бу эса ахборот маконида замонавий ўқитувчи қандай компетенцияларга эга бўлиши масаласини долзарблигини келтириб чиқаради.

Масаланинг қуйилиши. Бугунги кунда рақамли технологияларнинг инсон ҳаётининг барча соҳаларида фаол қўлланилиши нафақат иқтисодиётда, балки таълим тизимида ҳам туб бурилишлар жараёнини тезлаштиришга ҳам сабаб бўлмоқда. Бу эса таълимга рақамли технологияларни жорий қилинишида ўқитувчиларнинг етакчи ролини сақлаб қолиш ва уни кафолатлаш, киберкомпетенцияларини ҳамда ахборот маконида инновацион педагогик фаолиятни шакллантириш малака ошириш тизимидаги энг асосий вазифалардан бир ҳисобланади. Ҳозирда ечимини кутаётган асосий масалалардан бири малака ошириш тизимидаги мавжуд ўқув модуллари мазмунини таҳлил қилиш ва тингловчиларнинг эҳтиёжини ўрганиш асосида уларнинг киберкомпетенцияларини шакллантиришга йўналтирилган ўқув модулларини ишлаб чиқишдан иборат.

Масалани ечими. Малака ошириш тизимида ахборот-коммуникация технологияларидан самарали фойдаланиш мазкур тизимидаги мавжуд муаммоларни ечими сифатида эмас, балки тингловчилар учун машғулотларни маълумотларга бой ва интерактив қилиб амалга ошириш воситаси сифатида қаралмоқда. Таълимда ўқитувчи фаолиятининг самарадорлиги фақатгина

курс мазмунидаги билимлар даражаси ва унинг педагогик қобилиятига эмас, балки муайян ўқув материални тўплаш, қайта ишлаш ва ўқитишда ўқитувчининг қанчалик замонавий ахборот-коммуникация технологияларини қўллай олиш даражасига ҳам боғлиқ бўлади. Бу эса малака ошириш жараёнида тингловчиларни рақамли таълим муҳитида инновацион педагогик фаолиятга йўналтиришнинг асоси бўлиб хизмат қилади. Замонавий ахборот-коммуникация технологиялари ва таълим технологияларининг мустақкам интеграциясини таъминлаш, шунингдек таълимга замонавий рақамли технологияларни кенг жорий қилиниши педагог кадрларнинг касбий маҳоратини узлуксиз ривожлантириб борилишини талаб этади. Бу эса малака ошириш учун шакллантирилаётган ўқув-услубий мажмуалар ўргатилаётган модулнинг мазмунини тўлиқ ўзида акс эттириши ва тингловчиларнинг ахборот-коммуникация технологиялари ҳамда рақамли технологиялар бўйича киберкомпетенцияларини ривожлантиришга қаратилган бўлиши лозим. Бунинг учун эса тингловчиларнинг мавжуд билим, кўникма ва малакаларига мос ҳолда ўрганишнинг муайян мантиқий кет-кетлигига риоя қилиниши талаб этилади.

Тажрибавий тадқиқот. Тингловчиларнинг киберкомпетенцияларини шакллантириш борасида Тошкент шаҳар халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий марказида ҳам муайян ишлар амалга оширилмоқда. Жумладан, барча малака тоифалари учун ўқув режага “Ахборот-коммуникация технологиялари ва медиасаводхонлик” ўқув модули киритилган бўлиб, мазкур модулнинг ўқув дастури мазмунида замонавий рақамли технологиялар ҳақидаги материаллар ўрин олган. Мазкур ўқув модулини ўзлаштириш орқали тингловчилар рақамлаштириш, рақамли технологиялар, таълимда рақамли технологияларнинг ўрни, сунъий интеллект, рақамли таълим ресурслари, таълимда виртуал борлиқ каби тушунчаларга эга бўлиш билан бирга медиасаводхонлик, медиатаълим, медиапедагог ва медиапедагогиканинг мазмун моҳиятларини англаб етадилар. Шунингдек, ўз касбий фаолиятларида медиапедагог сифатида ўқув машғулотларини олиб бориш учун нималарга эътибор бериш кераклиги ҳамда зарурий таълим ресурслари ҳақида маълумотларга эга бўладилар.

Олиб борилган илмий тадқиқот натижаларининг таҳлили шуни кўрсатадики, курс якунида тингловчиларда куйидаги киберкомпетенциялар шаклланади:

- рақамли технологиялар ҳақида етарлича тушунчаларга эга бўладилар;
- касбий фаолиятларида замонавий рақамли технологиялардан самарали фойдалана оладилар;
- ахборот маконида қидирув сўровларини самарали шакллантиради, тегишли маълумотларни топади, зарурий таълим ресурсларини танлай оладилар;
- замонавий рақамли технологиялар ва иловалар орқали бошқалар билан ўзаро ҳамкорлик қила оладилар, онлайн мулоқот орқали жамият ҳаётида фаол қатнашадилар;
- рақамли технологиялардан фойдаланишда ўз-ўзини ривожлантириш ва билимларини кенгайтириш имкониятларини излайдилар;
- турли медиаканаллардан олинган ахборотларга ўз муносабатини билдира оладилар, уларни таҳлил қила оладилар ва касбий фаолиятларида ўринли фойдалана оладилар;
- онлайн мулоқот жараёнида хулқ-атвор нормаларига риоя қилишни биладилар ҳамда ўзини ва бошқаларни мумкин бўлган онлайн хавфлардан (масалан кибербезорилик) ҳимоя қила оладилар;
- касбий фаолиятга таалукли дастурларни созлай оладилар ва дастурий иловаларни юклай оладилар;
- ахборот маконида онлайн хавф ва таҳдидларни тушунадилар. Хавфсизлик чоралари ҳақида биладилар ва фойдаланадиган қурилмаларини ҳимоя қила оладилар;
- ўзини онлайн фирибгарлик, таҳдид, кибербезорилик ва бошқалардан ҳимоя қила оладилар.

Хулоса. Таълим тизимидаги замонавий рақамли технологиялар билан боғлиқ бўлаётган ўзгаришлар нафақат илмий билимларнинг ривожланишига, балки таълимда педагогик ва психологик билимларнинг такомиллашига ҳам тез таъсир кўрсатмоқда. Таълим жараёни -

бошқарувнинг мураккаб ва ўзига хос тури ҳисобланади. Бу эса кибернетик тадқиқот предмети бўлиб, уни тўғри олиб бориш, ўқитиш ва тарбиялашнинг психологик-педагогик назарияларига таянишни ўз ичига олади. Таълимга замонавий рақамли технологияларни жорий этиш орқали ўқитувчиларда юқорида келтирилган киберкомпетенцияларни шакллантириш муҳим аҳамиятга эга. Бу эса замонавий ўқитувчининг касбий фаолиятида рақамли технологиялардан самарали фойдаланиши учун ўзига хос бўлган омиллардан бири ҳисобланади.

Фойдаланилган адабиётлар:

7. Обыденкова В.К. Предпосылки становления киберпедагогики как науки XXI века. Философские проблемы информационных технологий и киберпространства. -2015, №2
8. Jumanazarov S.S. *Artificial intelligence technologies in education*//“Ўзбекистон олимлари ва ёшларининг инновацион илмий-амалий тадқиқотлари” мавзусидаги тадқиқот материаллари. 10-қисм. 2021 йил.
9. Jumanazarov S.S. Ta’limda sun’iy intellekt texnologiyalari// “Pedagoglar malakasini oshirish tizimiga innovatsion yondashuv: xalqaro tajribalar va rivojlanish istiqbollari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya.-Guliston, Sirdaryo viloyati XTXQTMOHM. 2022 y. 6-7 aprel.
10. Jumanazarov S.S., Masharipov M.P. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalar va mediasavodxonlik. TShXTXQTMOHM. 2022. 76 b.
11. Jumanazarov S.S. Formation of cybercompetents of listeners in the process of training development// Middle European Scientific Bulletin, Volume 24 May 2022. ISSN 2694-9970. 336-338 p.

BOSHLANG‘ICH TA’LIM O‘QITUVCHISINING MAXSUS KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISH

Kulaxmedova Mavluda

SVXTXQTMOHM katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. *Pedagogik kompetentlik o‘qituvchilik faoliyatini sifatli tashkil etilishini ta’minlovchi omil sifatida qaraladi. Bugunda o‘qituvchining kompetentligi qaysi mezonlar bilan belgilanishin o‘rganish muhim bo‘lmoqda. Kasbiy pedagogik kompetensiyalarning tarkibiy qismlari haqidagi fikrlari bildirilgan.*

Аннотация. *Педагогическая компетентность рассматривается как фактор обеспечения качества обучения. Сегодня важно изучить критерии определения компетентности учителя. Высказываются мнения о составляющих профессионально-педагогических компетенций.*

Annotation. *Pedagogical competence is considered as a factor in ensuring the quality of teaching. Today it is important to study the criteria for determining the competence of a teacher. Opinions on the components of professional pedagogical competencies are expressed*

Hayotimizning barcha sohalari kabi ta’lim tizimini ham modernizatsiyalash bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri bo‘lib qolmoqda. Innovatsion ta’lim muhitini yaratish, uni xalqaro andozalarga to‘liq mosligini ta’minlash yoshlarimizni bugungi tez o‘zgaruvchan ijtimoiy hayotga muvaffaqiyatli ijtimoiylashtirishning muhim omilidir. Har tomonlama yetuk, barkamol yoshlarni yetishtirish uchun albatta malakali, o‘z mutaxassisligini chuqur egallagan o‘qituvchilar zarur. Shuning uchun hozirgi kunda o‘qituvchilar oldiga juda ko‘p vazifalar qo‘yilmoqda.

Ta’limning barcha bosqichlarida yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etish, ayniqsa, axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali va oqilona foydalanish va yuqori samaradorlikka erishishga alohida ahamiyat berish darkor. Jahon talablariga mos keluvchi raqobatbardosh, malakali kadrlar tayyorlashga, kelajak avlodni yuksak ma’naviyatga, ijtimoiy hayotda ro‘y berayotgan o‘zgarishlarga to‘g‘ri munosabatda bo‘lishga, milliy qadriyatlarimizning mohiyatini chuqur anglab yetadigan barkamol shaxslarni tarbiyalash yo‘lida faoliyat olib boruvchi o‘qituvchi ijodkorlik, izlanuvchanlik, fidoiylilik naminalarini ko‘rsatishi lozim. Shuningdek o‘qituvchida ham mahorat va

san'at bo'lishi kerakki, u o'quvchilarni o'ziga jalb eta olishi, darsini qiziqarli qilib o'tishi va o'quvchiga bilim va tarbiya bera olishi kerak.

Hozirgi kundagi asosiy vazifalarimizdan biri o'quvchilarni shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy hayotlarida uchraydigan vaziyatlarda egallab turgan turli tipdagi malakalarini samarali ravishda qo'llashga o'rgatish, mustaqil o'rgatish, mustaqil ravishda fanga oid zaruriy axborotlarni izlab topish, tahlil qilish natijasida zaruriy bilimlarni oshirishga oid materiallarni ajrata olish, ko'zda tutilmagan noaniq, ya'ni, muammoli vaziyatlar vujudga kelganda ish beradigan malakalarga alohida ahamiyat berish hamda egallagan bilimlarni kundalik turmushi jarayonida qo'llay oladigan xususiyatlarni egallashni tarbiyalashdan iboratdir.

«O'qituvchining kasbiy kompetentsiyasi» atamasi 1980-yillarning oxiri va 90-yillari boshidagi o'qituvchilar va psixologlar to'plamiga kiritilgan. O'qituvchining malakasi masalalariga bag'ishlangan adabiyotlarda biz ma'no jihatidan o'xshash turli xil atamalari mavjud. E. Kostilyeva o'qituvchining kasbiy kompetensiyasining quyidagi tarkibiy qismlarini taqdim etadi:

- shaxsiy yo'nalish;
- pedagogik idrok;
- pedagogik mahorat;
- pedagogik ijod.

Pedagogik kompetensiya - bu ilmiy ishlarda tez-tez uchraydigan yana bir atama. E.I. Rogov pedagogik kompetensiyani «o'qituvchining kasbiy mahorati» deb biladi. Ushbu kontseptsiyada u o'qituvchining faoliyatida sodir bo'ladigan psixofiziologik, aqliy va shaxsiy o'zgarishlarni aks ettiradigan bunday yig'indisi xususiyatlarni o'zlashtirish va uzoq muddatli faoliyatni amalga oshirish jarayonida qo'yadi, bu esa kompleksni hal qilishning sifat jihatidan yangi, yanada samarali usulini beradi.

Ular bir-biriga bog'langan va ajralmas tizimni tashkil etadi, shu asosda muallif o'qituvchining kasbiy kompetentsiyasini tajriba, nazariy bilim, amaliy ko'nikma va muhim shaxsiy fazilatlarini birlashtirishga asoslangan o'qituvchining o'qituvchiga tayyorligini shart qiladigan murakkab individual psixologik ta'lim sifatida belgilaydi. pedagogik faoliyatni amalda amalga oshirish.

Pedagogik kompetensiya tarkibida L.M. Mitina uchta asosni ajratib ko'rsatdi:

- faoliyat (bilim, ko'nikma va pedagogik faoliyatni amalga oshirishning individual usullari);
- kommunikativ (bilim, ko'nikma, va pedagogik muloqotni ijodiy amalga oshirish usullari);
- shaxsiy (o'z-o'zini rivojlantirish zarurati, shuningdek, bilim, ko'nikma, o'zini takomillashtirish qobiliyatlari).

O'qituvchining kasbiy kompetentsiyasini ko'rib chiqishda o'qituvchining shaxsiyati birinchi o'ringa qo'yiladi. Demak, avvalo, o'qituvchining shaxsiyati - uning qadriyat yo'nalishlari, ma'nolari, ideallari - pedagogik faoliyatning mohiyatini belgilaydi. Kasbiy kompetensiya, odatda, qaror qabul qilish bilan bog'liq bo'lgan ma'lum bir faoliyat turini amalga oshirish uchun yetarli bo'lgan bilim, qobiliyat va ko'nikmalar, tajriba darajasini aks ettiradigan mutaxassislarning ishbilarmonlik va shaxsiy fazilatlarining ajralmas xarakteristikasi sifatida tushuniladi.

O'qituvchi ushbu kompetensiyalarga ega bo'lishi uchun u o'zining umumiy insoniy va maxsus madaniyatini yuksaltirish zarurligini bilishi va keyingi rivojlanish va o'qitish uchun ilmiy va uslubiy aloqalarni sinchkovlik bilan tashkil qilishi kerak.

O'qituvchining kasbiy, shaxsiy fazilatlarini tizimni shakllantiruvchi kompetensiya elementidir. Binobarin, ularning rivojlanishi o'qituvchining psixologik-pedagogik kompetentsiyasini shakllantirish va takomillashtirishning muhim nuqtasi, muhim shartidir.

Xulosa shuki, kompetentlikni shakllantirish bosqichma-bosqich va uzluksiz jarayondir. U oliy ta'lim muassasasida boshlanadi va ish joyida tajribali ustozlar nazorati ostida davom etadi. Shuni unutmaslik kerakki, yuqori kasbiy kompetentlik nafaqat bilim darajasi, balki xodimning amaliy ko'nikmalari, tajribasi va shaxsiy fazilatlarini hamdir.

ADABIYOTLAR

1. «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar Strategiyasi to'g'risida» 2017 yil 7 fevrvldagi PF-4947-sonli farmoni.

2. Jarilgasova P.E., Koksheeva Z.T. O'qituvchining kasbiy kompetentsiyasi // Zamonaviy ilmiy intensiv texnologiyalar. - 2013. - № 7-2. - S. 142-143
3. Lukyanova M.I. O'qituvchining psixologik va pedagogik kompetentsiyasi. // Pedagogika. - 2001. - № 10. - S. 56-61
4. Muslimov N.A., va boshqalar. Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi/ Monografiya. – T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2013.

ПОЛИСЕМИЯ И ОМОНИМИЯ КАК СРЕДСТВО СОЗДАНИЯ КАЛАМБУРА

Турсунова Садокат Ортик кизи,
магистр 2 курса Навоийского государственного педагогического института
(Узбекистан)

Аннотация: В данной статье рассматриваются полисемия и омонимия как приемы создания комического эффекта каламбура. Анализируется семантическая связь полисемии и многозначности, а также виды омонимии. Приводятся основные критерии разграничения полисемии и омонимии.

Ключевые слова и понятия: полисемия, многозначность слова, моносемия, омонимия, омоформы, омографы, омофоны, семантический, синтагматический и синонимический критерии разграничения омонимии и полисемии.

Annotation: This article discusses polysemy and homonymy as methods for creating a comic effect of a pun. The semantic connection of polysemy and polysemy, as well as types of homonymy are analyzed. The main criteria for distinguishing between polysemy and homonymy are given.

Key words and concepts: polysemy, word polysemy, monosemy, homonymy, homoforms, homographs, homophones, semantic, syntagmatic and synonymic criteria for distinguishing between homonymy and polysemy.

Xulosa: ushbu maqolada polisemiya va omonimiya kalamburning komik effektini yaratish texnikasi sifatida muhokama qilinadi. Polisemiyaning semantik a'loqasi va ko'p qirraligi, shuningdek, omonimiya turlari tahlil qilinadi. Polisemiya va omonimiyani farqlashning asosiy mezonlari berilgan.

Kalit so'zlar va tushunchalar: polisemiya, so'zning noaniqligi, monosemiya, omonimiya, omoformlar, omograflar, omofonlar, semantik, omonimiya va polisemiyaning farqlashning sintagmatik va sinonimik mezonlari.

Чаще всего основу каламбура составляет явление полисемии. Например: «Верно, что и курица пьет, но кто видел ее пьяной?!» или «Женщины бывают полные и пустые». Но не менее редко встречается и омонимия как механизм образования каламбура. Например: «Область рифм - моя стихия, И легко пишу стихи я; Даже к финским скалам бурый. Обращаюсь с каламбуром» или «Парик на лысину надев, Не уповаю я на дев. И ничего не жду от дам. Хоть жизнь подчас за них отдам». Рассмотрим эти явления более подробно.

Полисемия - это лексическое явление, которое реализуется в письменной или устной речи. Но понять смысловой оттенок той или иной лексемы можно лишь в контексте. Многозначность слова «дом» - яркий пример явления, которое в языкознании имеет название «полисемия». Примеры: *Домом управляла экономка (хозяйством).*

Полисемия или многозначность есть наличие у языковой единицы более одного значения при условии семантической связи между ними или переноса общих либо смежных признаков или функций с одного слова на другое. Полисемия является языковой универсалией в системе европейских языков и основана она на асимметричности языкового знака и отражает принцип экономии формальных средств при передаче максимального смыслового объема. Моносемия, т. е. наличие у языковой единицы одного значения, не типична для языка в целом. Однозначны главным образом термины, если они не образованы путем переноса от единиц литературного языка, или слова, заимствованные из других языков для обозначения экзотических объектов. Однако и в этих сферах довольно часто наблюдается развитие нового значения.

Полисемия - это множество значений, присущих одной и той же лексеме. Одно из значений (то, которое в толковом словаре всегда первым указывается) принято считать основным. Другие - производные. Полисемия в русском языке - это явление не только лексическое, но и стилистическое. Различные образные выражения - это также производные значения той или иной лексемы. А потому можно выделить три вида полисемии: метафору, метонимию, синекдоху. Среди причин возникновения полисемии называются ограниченность языковых ресурсов, ограниченность возможности человеческой памяти, а также само неотъемлемое неотъемлемое свойство языка, как одно из условий его существования, развития и выполнение им обобщающей функции. Полисемия создается в речи, в процессе использования имени в новом контексте для называния денотата, воспринимаемого сознанием как похожего или находящегося в отношениях смежности первоначально ассоциируемым с данным именем. Это новое употребление при определенных обстоятельствах может стать отдельным значением. Динамика возникновения нового употребления и нового значения еще изучены недостаточно. Но вопрос о том, при каких условиях номинация осуществляется с помощью полисемии, не до конца изучен.

Омонимия - это отношение слов, совпадающих по форме и различающихся по содержанию. Значения этих слов не связаны общими семантическими компонентами и ассоциативными отношениями. Отсутствие ассоциативных отношений, общих компонентов между значениями омонимов - их отличие от вариантов многозначного слова. Например, в значениях лексических единиц тушить (овощи) - тушить (пожар) можно выявить общие компоненты: вода, огонь, жар, но их совпадение случайно. Компоненты выстраиваются в различные семантические структуры. Ассоциативно эти глаголы также никак не связаны.

Омонимия, в отличие от полисемии, характеризуется не повторяемостью отношений значений. Омонимия представляется категорией негативной, а сами отношения омонимов - нерегулярными и исключительными: коса - «сплетенные вместе волосы», коса - «сельскохозяйственное орудие» икоса - «отмель», горячий- «способный гореть» и горячий- «горький».

Омонимия - явление сложное и многогранное. При систематизации омонимичных единиц исследователи отграничивают лексические омонимы от смежных единиц. В омонимии как лексико-семантической категории целесообразно выделять центр (лексические омонимы (полные и частичные)), и периферию (омоформы, омофоны, омографы). Характерные особенности и закономерности тех или иных категориальных отношений ярче всего проявляется в центральной части классифицирующей структуры, «угасая» по направлению к ее периферии.

Лексические омонимы - слова, имеющие одинаковое звучание, но не имеющие общих элементов (сем) лексического значения и не связанные ассоциативно (*наряд- «одежда» и наряд - «распоряжение»*). В зависимости от степени совпадений форм слов различают полные и частичные омонимы. Полные омонимы совпадают во всех грамматических формах (*ключ (родник) - ключ (дверной), ручка (стула) -ручка (уменьшительно-ласкательное к слову рука)*). Полнота-неполнота омонимов определяется тем, входят ли они целиком или частично в грамматическую парадигму. Для существительных полнота парадигмы определяется набором словоформ в категориях числа и падежа; для глаголов - способностью образования инфинитива, личных форм, причастий и деепричастий при сохранении видового и залогового значения. Частичные омонимы совпадают лишь в ряде грамматических форм, например, *кулак «кисть руки со сжатыми пальцами» - кулак «богатый крестьянин-собственник, эксплуатирующий чужой труд»*, данные лексические единицы не имеют совпадения в форме винительном падеже единственном и множественном числе; единицы *лук «огородное растение» -лук «оружие»* совпадают лишь в формах единственного числа.

Наряду с лексическими омонимами выделяются явления, смежные с лексической омонимией, неполные омонимы:

1. Омоформы - это слова, совпадающие лишь в отдельных словоформах: существительное стих «стихотворение» в форме единственного числа, именительного -

винительного падежа и глагол стихнуть «стать тихим» в форме прошедшего времени, изъявительного наклонения, единственного числа, мужского рода стих; техника «совокупность средств труда» и техника - родительный падеж единственного числа от слова техник.

2. Омофоны - слова, совпадающие в своем звучании, но имеющие разное написание (*плод - плот, кот - код*).

3. Омографы - слова, имеющие одинаковое написание, но различающиеся ударением при произношении (*мука и мука, трусить и трусить*).

Возникновение в языке омонимов - процесс достаточно сложный и длительный, особенно когда происходит разрыв значений многозначного слова. Сложность заключается в том, что утрата общих элементов смысла происходит постепенно, вследствие чего трудно найти грань между завершившимся и незавершившимся процессом распада значений. В качестве объективных критериев нахождения этой грани, т. е. разграничения явлений полисемии и омонимии выдвигаются чаще всего следующие:

1. Семантический критерий. Утрата значениями многозначного слова их взаимной языковой мотивированности. Значения многозначного слова обязательно имеют компонент значения (сему) или ассоциативный признак, который объединяет все входящие в него значения. Например: *Муравейник*: 1. «Жилище муравьев». 2. «Совокупность муравьев». 3. «Люди, жители густо населенного дома». 4. «Дом, похожий на муравейник». Омонимы же не имеют такой связующей семы (*мешать «быть помехой» и мешать «размешивать»*). Словообразовательный критерий. Многозначное слово и омонимы отличаются характером словообразовательных процессов. Для омонимов характерно расхождение словообразовательных рядов, созданных на их основе и вызванное различием исходных значений слов. Например: *коса «сельскохозяйственное орудие»*, его словообразовательный ряд: *косить, покос, косьба и коса «прическа»* со словообразовательным рядом: *косица, косичка*.

2. Синтагматический критерий. В отличие от многозначного слова для омонимов, как правило, характерна несовпадающая сочетаемость. Ср. партия «объединение людей»: левая, демократическая, реакционная и партия «игра»: незаконченная, результативная, отложенная.

3. Синонимический. Члены синонимических рядов лексико-семантических вариантов многозначного слова могут пересекаться. Например: *коренной (житель)*: исконный, основной, а *коренной (вопрос)* имеет синоним главный. Слова основной и главный синонимы, следовательно, *коренной (житель)* и *коренной (вопрос)* сохраняют семантическую близость, являются лексико-семантическим вариантом многозначного слова. Для омонимов характерно отсутствие синонимических отношений между их синонимами, т. е. слова являются омонимами, если их синонимы не образуют синонимического ряда. Например, слово брак «изъян» имеет синонимический ряд: недостаток, изъян, недоброкачественность, а существительное брак «женитьба»: супружество. Синонимические ряды не пересекаются, следовательно, брак (изъян) и брак (супружество) омонимы.

Список использованной литературы

1. Арсеньева М. Г., Строева Т. В., Хазанович А. П. Многозначность и омонимия. Д. : Изд-во ЛГУ, 1996.
2. Васильев Л. М. Полисемия. Исследования по семантике. - Уфа, 1995. -С. 3
3. Виноградов В. В. Об омонимии и смежных явлениях. Вопр. языкознания. 2000. -№ 5. -С. 3
4. Задорожный М. И. О границах полисемии и омонимии. -М. : Изд-во МГУ, 2001.
5. Новиков Л. А. Об одном из способов разграничения полисемии и омонимии. Русский язык в школе. 2000. -№ 3. -С. 10
6. Национальный корпус русского языка <http://www.ruscorpora.ru>
7. <http://www.expmarketing.ru/emarks-506-1.html>

TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISH MASALALARI

S.I.Ne'matova

*Namangan viloyat xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish
hududiy markazi katta o'qituvchisi
samiyaxon88@mail.ru, +99897 230 88 29*

Annatsiya: Mazkur maqolada uzluksiz kasbiy rivojlantirish, o'zini-o'zi kasbiy rivojlantirish masalalari, kasbiy ehtiyojlarni amalga oshirish va mahoratni rivojlantirishda "hayot davomida ta'lim olish" (lifelong learning) tamoyilining ahamiyati yoritilgan.

Анна́тия: Роль принципа образования «на протяжении всей жизни» (Life Learning) рассматривается в этой статье в этой статье, в этой статье, развитие непрерывного профессионального развития, развитие и развитие профессиональных потребностей.

Annatiation: The role of the principle of "learning of Life Learning" is covered in this article" Life Learning) in continuous professional development, issues of professional needs and development of professional needs.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarda maktab ta'limini yanada rivojlantirish, o'qituvchilarning nufuzi va ijtimoiy mavqeini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Jumladan, Prezidentimizning 2020 yil 6 noyabrda qabul qilingan "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni hamda 2021 yil 25 yanvardagi "Xalq ta'limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab quvvatlash va uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4963-son qarorida xalq ta'limi tizimidagi islohotlarni yanada takomillashtirish va ilmiy jihatdan qo'llab-quvvatlash bo'yicha aniq vazifalar belgilab berildi.

Ayniqsa, bu qarorlarda o'qituvchining kasbiy ehtiyoji, individual kasbiy rivojlanish traektoriyasi, tabaqalashgan malaka oshirishni tashkil etish masalalari alohida o'rin egallaydi.

Mazkur hujjatlarda xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish bilan bog'liq masalalarga ham alohida e'tibor qaratilib, sohadagi rahbar va pedagog-xodimlarni "hayot davomida o'qish" tamoyili asosida uzluksiz malaka oshirish tizimiga transformatsiya qilish vazifasi qo'yildi.

Ushbu vazifalardan kelib chiqib, 2022 yil yanvar oyidan boshlab, uzluksiz malaka oshirish tizimi joriy etildi. Unga ko'ra har bir pedagog bir yilda bir marotaba oflayn yoki onlayn tarzda 36 soatlik malaka oshirishdan o'tishi hamda 18 kredit ball olsagina, ma'lum bir sertifikatga ega bo'lishi mumkin.

Bu orqali kattalar ta'limini ham jahon standartlari talablariga moslash, xorij tajribalarni keng joriy etishga erishilishi mumkin. Chunki dunyodagi ta'lim rivojlangan mamlakatlarda o'qituvchilarning har yili uzluksiz malaka oshirishi yo'lga qo'yilgan. Masalan, Koreya Respublikasida o'qituvchi har yili kamida 108 soat, Singapur va Yaponiyada har yili 100 soatdan ortiq, Gollandiyada 166 soat malaka oshirish belgilangan[1].

Kattalar ta'limini professionallashtirish zaruratini anglash butun dunyoda shu darajada keng yoyilgan tarqalganki, "Belen harakatlar me'yori"ning kattalar ta'limi sifatiga bag'ishlangan bobida aks ettirilgan chaqiriqda o'z ifodasini topgan: "kattalar bilan ish olib boruvchilarni tayyorlash, salohiyat, yollash shartlari va pedagoglarning kasbiy mahoratini yaratishni takomillashtirish kerak, masalan oliy o'quv yurtlari, o'qituvchilar assotsiatsiyasi va fuqarolik jamiyati tashkilotlari bilan o'rnatiladigan hamkorlik aloqalari yordamida amalga oshirish lozim"[2].

Shu bois, soha xodimlarini davriy emas, balki doimiy ravishda o'qitib borish, malaka oshirish tinglovchilarining kasbiy ehtiyojidan kelib chiqib tashkil etish dolzarb masalaga aylanib qoldi.

Har qanday ta'lim jarayoni samarali bo'lishi uchun u ta'lim oladigan shaxsning qiziqish va ehtiyojlariga mos bo'lishi lozim. Bu barcha yoshdagi ta'lim oluvchilarga xos bo'lib, ayniqsa, katta yoshdagilar uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagog-xodim malaka oshirish kursiga, odatda, yangilik olish, o'qitishning yangi metod va texnologiyalarini o'zlashtirish, kasbiy ehtiyojlarini

qondirish maqsadida boradi.

Kasbiy ehtiyojlarni amalga oshirish va kasbiy mahoratni rivojlantirishda uzluksiz malaka oshirishning elektron ta'lim (E-learning), individual ta'lim trayektoriyasi (personal learning space) va muhiti (personal learning environment), hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish platformasining tatbiq etilishi muhim hisoblanadi.

Uzluksiz kasbiy rivojlanishning elektron ta'lim (E-learning) tizimi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Vebinar
- Onlayn-muloqot
- Masofaviy ta'lim
- Platforma
- Seminar-forum

Pedagoglar har tomonlama ta'lim-tarbiya jarayonini to'g'ri tashkil etish, uzluksiz o'z ustida ishlash bilan birgalikda o'zlarining kasbiy kompetentliklarini ham oshirib borishlari talab etiladi. Malaka oshirish tizimida tinglovchilarni o'qitish jarayonini tashkil etish shakllarini yangilash, yuqori sifatli kadrlar ko'magi bilan amalga oshirilishi kerak. O'qituvchilarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimida keng ko'lamli islohotlar olib borish zarurligini anglatadi.

Adabiyotlar:

1. <http://www.hozir.org/qayta-tayyorlash-va-ularning-malakasini-oshirish-hududiy-marka-v7.html?page=8>
2. <http://uil.unesco.org/home/news-target/belem-framework-for-action/0120c832d6d63fe6fb798a346c9b3419/> (Oxirgi murojaat sanasi: 08.10.2015)

AMALIY MAZMUNLI MASALALAR YORDAMIDA O'QUVCHILARNI MATEMATIKANING TADBIQIGA O'RGATISH

Muxammadjonova Barno Rahimjonovna

*Sirdaryo viloyat, Sirdaryo tumani 1- umumiy o'rta ta'lim maktabi matematika fani
o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada matematika ta'limi jarayonida o'quvchilarni amaliy hayotga doir tushunchalarni shakllantirishga qaratilgan kasbiy mazmunli masalalar foydalanish bo'yicha tavsiyalar, o'quvchilarni hayot amaliyoti bilan bog'liq kompetensiyalarni shakllantirish kabi xulosalar keltirilgan.

O'qitishning matematik tadbiqiy yo'nalishini kuchaytirish matematika o'qitish funksiyalari bilan uzviy bog'liqdir.

O'qitishni ta'limiy vazifasini amalga oshirmasdan turib uning amaliy yo'nalish masalasini hal qilib bo'lmaydi. Xuddi shuningdek, o'quvchiga amaliy bilimlar bermay turib o'qitishning ta'limiy vazifasini amalga oshirib ham bo'lmaydi.

O'qitishning ma'naviy rivojlantiruvchi funksiyasi uni amaliyotga yaqinlashtirish masalasi bilan uzviy bog'liqdir. O'qitishni amaliyot bilan bog'lash masalasini hal qilish, bu o'quvchilarni hayotda uchraydigan misollarga o'z olgan bilim va malakalarini qo'llay oladigan bilimdir. Buni matematikani tor ma'noda o'qitish deb tushunmaslik kerak. Matematikaning amaliyligi deganda fizika va boshqa fanlarga oid masalalarni yechishga qo'llash, amaliy masalalarni yechish ham o'quvchilarni maktabni tamomlagandan keyin mehnat faoliyatlarida matematikani qo'llashga o'rgatishdir. Bu esa o'quvchilarni ma'naviy rivojlantirish, masalasini amalga oshirishning o'zginasidir [1].

O'qitishning tarbiyaviy vazifasi uning amaliyligi bilan uzviy bog'liqdir.

Biz o'quvchilarga murakkab matematik tushunchalarni o'rgatar ekanmiz ularni bevosita real hayotiy asosga ega ekanligini qayd qilib o'tamiz. Matematikadagi o'zgaruvchi miqdor, funksiya va uning hosilasi tushunchalari o'quvchida fikrlashni rivojlantiradi. O'quvchilarni kuzatish va sinash natijalarini fikrni umumlashtirish va umumlashgan bilimlarni amaliyotda qo'llashga o'rgatadi.

Bu esa o'z navbatida o'quvchida ilmiy dunyoqarashni shakllantirishga yordam beradi.

O'quvchilar o'rta maktabdayoq "effektivlik", "ekstremum", "eng katta", "eng kichik" kabi sanoatni, qishloq xo'jaligini va fanni rivojlantirishi bilan bog'liq bo'lgan tushunchalar haqida tasavvurga ega [3].

Tajriba va anketa natijalari shuni ko'rsatdiki, o'quvchilarning ko'pchiligi (47%) tadbiqiy masalalarni yechishga nisbatan ancha qiyin hisoblaydi. Ular quyidagi qiyinchiliklarga duch keladilar:

1. Masalaning shartini (mohiyatini) tushunmaslik;
2. Masala shartlarini matematik tilga o'tkaza olmaslik (tenglamalar tuzishda qiynalishadi);
3. Topilgan yechimni interpretatsiya qila olmaslik, ya'ni tadbiqiy mazmunini tushuntirib bera olmaslik.

Matematikaning amaliyotga bog'lab o'qitishni kuchaytirish uchun o'quvchilarga amaliy xarakterdagi masalalarni qo'yish va ularni yechishni amalga oshirish talab qilinadi. Bunday masalalar real hayotda uchraydigan ob'ektlar haqida bo'lishi kerak.

Masalalarning turli parametrlariga qarab quyidagi tiplarga bo'lish mumkin:

1. To'g'ri qo'yilgan masala;
2. To'la bo'lmagan ma'lumotli masala;
3. Ortiqcha ma'lumotli masalar (berilgan ma'lumotlari ortiqcha, berilgan ma'lumotni to'la bo'lmagan yoki yashirin ma'lumotli masalalar);
4. Bir-biriga zid keluvchi ma'lumotli masala (berilganlari bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan masalalar);
5. Ma'lumotlari yetarli bo'lmagan masalar.

Tadbiqiy masalalarni yechishni bilish ma'lum ma'noda matematikani amaliyotda qo'llashni bilish demakdir. O'quvchilarda matematikani amaliy tadbiqiy yechish ko'nikmasini hosil qilish maktabda matematika o'qitishning eng muhim vazifalaridan hisoblanadi.

Ayniqsa, o'zbek tilida chop etilgan maqolalar va adabiyotlarda bir necha takliflarni hisobga olmasak bu sohada o'qituvchilarimiz uchun zarur qo'llanmalar hali yaratilmagan.

O'quv jarayonida amaliy mazmunli masalalardan foydalanish har vaqt ham oson bajarilmaydi. Chunki bunday masalalar matematikadan ancha uzoq sohalarga bog'liq bo'lib, bu shu sohalarning mutaxassislariga tushunarli bo'ldi. Demak, bunday masalalar matematika o'qituvchilari va metodistlarning nazaridan ham uzoq bo'ladi. Biror sohada matematika umumiy kursi uchun bir necha masala tanlab olish uchun shu kasbdagi mutaxassis bilan metodist – o'qituvchilar va psixologlarning birgalikdagi juda katta mehnati talab qilinadi.

Kuzatishlarimiz shuni ko'satadiki, ko'pchilik o'qituvchilarimiz amaliy mazmunli masalalardan foydalanish tajribalariga ega emaslar. Bunday masalalar qaralayotganda o'qituvchi oldida, ortiqcha terminlar bilan o'quv materialini qiyinlashtirib yubormaslik, asosiy temadan uzoqlashib ketmaslik, eng muhim masala tanlangan sohalardan ham o'qituvchining, ham o'quvchilarning yetarlicha bilimga ega bo'lishligi kabi muammolar turadi. Bunday hollarda o'qituvchilar o'quv vaqtlarini va o'quvchilarda zaruriy matematik ma'lakalarni shakllantirish imkoniyatlarini yo'qotib qo'yishdan cho'chiydilar. Shunday qilib, amaliy mazmunli masalalarni tanlash va ulardan foydalana olish mashaqqatli ishdur [2].

Matematikaning amaliy mazmunli masalalar o'qitishni kuchaytirish fanlararo aloqadorlikni amalga oshirishni ta'minlaydi va matematik aparatni shakllantirishga didaktik vosita bo'ladi, o'quvchilarning bilimlari sifatini oshishiga ijobiy ta'sir etadi hamda ularning bilimlarini o'zgartirgan sharoitda qulay olish ko'nikmalarini shakllantiradi.

7 – 9 matematika darsliklarida tadbiqiy xarakterdagi masalalar uncha ko'p emas (7-sinfda 14%, 8-sinfda 9%, 9-sinfda 4%). Ular mazmunining har xilligi bilan ham ajralib turmaydi. Amaliy masalalarning kamligi 7 – 9 sinflarda matematikani abstrakt xarakterda o'qitishni kuchaytirishni talab qiladi. Lekin, o'quvchilarning kelgusi faoliyatlari abstrakt tafakkur bilan emas, balki aniq fikrlash bilan bog'liqdir [1].

9-sinfgacha matematikadan olingan bilim yuqori sinf o'quvchilariga matematikaning tadbiqini o'qitishga imkon beradi. Lekin yuqori sinflarda o'quvchilar olayotgan bilimlari tadbiq qilishga kech bo'ladi. Chunki ularning ko'pchiligini akademik litseylarda, kasb – hunar kollejlarda bilim olishni davom ettiradilar. U yerda esa matematikadan olgan bilimlarini boshqa fanlarga qo'llash talab

qilinadi. Shuning uchun, 5 – 6 sinfdan boshlangan matematikani amaliyotga bog‘lab o‘rganishni tizimli davom ettirish lozim.

Yuqoridagilarni e‘tiborga olib quyidagi metodik xulosaga kelish mumkin. Maktab matematika kursining asosiy talablaridan biri, o‘quvchilarda amaliy masalalarni tahlil qila olish va uni yechishning algebraik usulini topa olish, asosiy elementar funksiyalar xossalarini va ularning grafiklarini chiza olish va to‘la tekis hisob ishlarini bajara olish ko‘nikmalarini hosil qilishdir.

Demak, maktab matematika kursidagi tadbqiqiy masalalar matematik model tushunchasini o‘rganishda asosiy xizmatni o‘taydi. Bu masalalar asosan quyidagi 2 usul bilan yechiladi:

1. Amaliy almashtirishlar.
2. Tenglama va tengsizliklar yordamida.

Har qanday inson berilgan real obektlar ustida ham mantiqiy fikr yurita olishi, ular ustida o‘tkazilayotgan tajriba yoki amal natijasini oldindan ko‘ra bilish va bu obektlarda maqsadga yo‘naltirilganlik o‘zgartirishlarni (almashtirish) amalga oshirish zarirdir.

Yuqoridagilardan xulosa qilgan holda:

– Amaliy mazmunli masalalarni yechish o‘quvchilarni matematikaga bo‘lgan qiziqishlarini kuchaytirar ekan, chunki, matematikani boshqa fanlarda texnika ishlab chiqarishda va boshqalarda qo‘llanishini ko‘radilar.

– O‘quvchilar amaliy masalalar necha bosqichda yechilishini aniq tasavvur etmaydilar.

– O‘quvchilar nafaqat masalaning matematik modelini tuzishda, balki matematik yechim jarayonida ham qiynalishadi.

– Ba’zi o‘quvchilar amaliy mazmunli masalani yechimi nima ekanligini to‘la bilishmaydi.

O‘ylaymizki matematika darslarida amaliy mazmunli masalalardan ko‘proq foydalanib dars mashg‘ulotlarni tashkil etilishi birinchidan, o‘qituvchilarning uzluksiz kasbiy rivojlanishida, ikkinchidan, mashg‘ulotlarni hayot amaliyoti bilan bog‘liq holda tashkil etishni, uchinchidan, o‘quvchilarni hayot amaliyoti bilan bog‘liq amaliy kompetensiyalarni egallashlarida samarali hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Azizxo‘jayeva N. “Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat”, O‘zbekiston, T., 2005-yil.
2. Pedagogik ta’lim va pedagog mahorat jurnallari.
3. Alimov SH., Xolmuhamedov O., Mirzaahmedov M. “7-sinf algebra” O‘qituvchi, T., 2017-yil.

O‘QITUVCHILAR KOMPETENSIYALARNING SHAKLLANGANLIK DARAJASINI BAHOLASH MEZONLARI

Mardonqulov Jasur Amirdidinovich

Jizzax viloyat xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi “Aniq va tabiiy fanlar metodikasi” kafedrasi katta o‘qituvchisi.

ANNOTASIYA: *Maqolada o‘qituvchilarining kognitiv kompetensiyalarini rivojlantirishning asosiy talablari va baholash metodikasi o‘rganilgan. Baholash obyekti fan dasturining talabalar tomonidan o‘zlashtirilishi bilan o‘lchanadi, ya’ni kasbiy kompetentlikka oid barcha komponentlarining shakllanganlik darajasi. Talabalarni o‘qitish bosqichlariga ko‘ra quyidagilar baholanadi: talabalar tayyorgarligining boshlang‘ich darajasi (dastlabki baholash), talabalarining modul yoki fanni o‘zlashtirgandan keyingi ta’lim natijalari (joriy baholash), yakuniy attestatsiyadagi kasbiy tayyorgarlik sifati (bitiruvchilarda shakllangan kompetensiyalarning oliy ta’lim malaka talablariga muvofiqlik darajasi).*

Tayanch so‘zlar: *baholash mezonlari, dastlabki baholash, joriy baholash, shaxsiy rivojlanish, kompetensiya, kognitiv kompetensiya, umuminsoniy va milliy qadriyatlar, milliy meros.*

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДОЛОГИИ ОЦЕНКИ КАЧЕСТВА ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ.

Аннотация: *В статье исследуются основные требования к развитию когнитивных*

компетенций учителей и методы оценивания. Объект оценивания измеряется усвоением студентами научной программы, т.е. уровнем сформированности всех компонентов профессиональной компетентности. По этапам обучения студентов оцениваются: исходный уровень подготовленности студентов (начальная оценка), результаты последилового образования (текущая оценка), качество профессиональной подготовки при итоговой аттестации (более высокий уровень сформированных компетенций в выпускники) степень соответствия квалификационным требованиям).

Ключевые слова: критерии оценки, начальная оценка, текущая оценка, личностное развитие, компетентность, познавательная компетентность, общечеловеческие и национальные ценности, национальное наследие.

BASIC REQUIREMENTS FOR THE DEVELOPMENT OF COGNITIVE COMPETENCIES OF TEACHERS.

ANNOTATION: The article explores the basic requirements for the development of teachers' cognitive competencies and assessment methods. The object of assessment is measured by students' assimilation of the scientific program, i.e. the level of formation of all components of professional competence. According to the stages of student learning, the following are assessed: the initial level of preparedness of students (initial assessment), the results of postgraduate education (current assessment), the quality of professional training during the final certification (a higher level of formed competencies in graduates) the degree of compliance with qualification requirements).

Key words: evaluation criteria, initial evaluation, current evaluation, personal development, competence, cognitive competence, universal and national values, national heritage.

Ta'lim natijalariga nisbatan kompetentli yondashuv mezonlarida ifodalangan yangi talablar kasbiy tayyorgarlik sifatini baholash metodikasini takomillashtirish zaruratini taqozo etadi. Kasbiy tayyorgarlik sifatini baholash sifatga ISO 9001 asosida standartlashtirish bilan shug'ullanadigan Xalqaro tashkilotlar hujjatlariga muvofiq obyektning o'rnatilgan va ehtimolli ehtiyojlarni qanoatlantiruvchi ko'nikmalariga tegishli tavsiflar yig'indisi sifatida ta'rif berilgan[1].

O'qituvchilarning kasbiy kompetentligini baholash metodikasini ishlab chiqishda baholash faoliyatining barcha elementlarini aniq belgilash lozim. Ularga quyidagilar kiradi: baholash obyekti, baholash maqsadi, baholash mezonlari (o'rnatilgan talablarga nisbatan muvofiqlik darajasi), baholash vositalari, baholash texnologiyasi.

Baholash obyekti fan dasturlarining talabalar tomonidan o'zlashtirilishi bilan o'lchanadi, ya'ni kasbiy kompetentlikka oid barcha komponentlarining shakllanganlik darajasi. Talabalarni o'qitish bosqichlariga ko'ra quyidagilar baholanadi: talabalar tayyorgarligining boshlang'ich darajasi (dastlabki baholash), talabalarining modul yoki fanni o'zlashtirgandan keyingi ta'lim natijalari (joriy baholash), yakuniy attestatsiyadagi kasbiy tayyorgarlik sifati (bitiruvchilarda shakllangan kompetensiyalarning oliy ta'lim malaka talablariga muvofiqlik darajasi)[2].

Baholashning maqsadi umumiy tarzda olingan natijalarning ko'zlangan natija yoki dastlabki taxminlarga muvofiqligini o'rnatish sifatida ko'rib chiqilishi mumkin. O'qitishning har bir bosqichida tayyorgarlik mazmunini hisobga olgan holda maqsad aniqlashtiriladi, vazifalar belgilanadi. Misol uchun joriy baholash quyidagi maqsadlarda amalga oshirilishi mumkin:

- talabaning e'tiborini o'qitish maqsadlari va muvaffaqiyatga erishish mezonlariga qaratish;
- o'qituvchining faoliyatini har bir talabani individual rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirishga yo'naltirish;

- talabaga keyinchalik ta'lim olishi, ta'lim dasturini o'zlashtirish bo'yicha mustaqil ishi, mustaqil ta'lim olishini tashkil etish uchun zarur bo'lgan axborotni taqdim qilish;

- o'qituvchilarda kasbiy ta'lim dasturini qay darajada muvaffaqiyatli o'zlashtirganligi bo'yicha o'z-o'zini baholash ko'nikmalarini shakllantirish;

- talabani kelgusidagi maqsadli o'qitishga nisbatan motivasiya berish;

- aniq vaziyatlarda sodir bo'layotgan hodisalarni muntazam ravishda kuzatish hamda ularning natijalarini boshqaruv jarayoniga qo'shib borish.

DTS malaka talablarini amalga oshirish kasbiy tayyorgarlik sifati to'g'risidagi

ma'lumotlarni uzluksiz ilmiy asoslangan tarzda kuzatishni nazarda tutadi (A.S. Belkin). Shakllantiriladigan kompetensiyalarni baholashga nisbatan monitoring bakalavriat dasturi bo'yicha tahsil oluvchi talabalarda umummadaniy va kasbiy kompetensiyalarning shakllanganligi darajasi to'g'risidagi axborotlarni jamlash, qayta ishlash, saqlash va tarqatish tizimi sifatida ko'rib chiqiladi.

Kasbiy kompetensiyalar shakllanganligi monitoringining quyidagi vazifalarini ajratish mumkin:

- diagnostik- kompetensiyalar shakllanganligi darajasini kuzatishni nazarda tutadi;
- prognostik-kompetensiyalar shakllanganligi darajasining asosiy tendensiyalarini aniqlash va istiqbolni bashorat qilish rejasini tuzishdan iborat;
- korreksion-muammolarni aniqlash va hal qilishni nazarda tutadi;
- motivasion-ta'lim jarayoni ishtirokchilarini o'z-o'zini mustaqil rivojlantirishga undashga yo'naltirilgan.

Monitoring vazifalari negizini quyidagi tamoyillar tashkil etadi:

- monitoringning axboroti oliy ta'lim DTS malaka talablari va ish beruvchilarning talablarini amalga oshirish darajasi va sifatini aks ettirishini nazarda tutuvchi ijtimoiy-me'yoriy bog'liqlik tamoyili;

- axborotlarni olishning ilmiy shakli, metodlari va vositalari tizimini aks ettiruvchi ilmiylik tamoyili;

- monitoring dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish negizini tashkil qiluvchi uzviylik, yaxlitlik va uzluksizlik tamoyili;

- o'quv fanini o'zlashtirish yakuniga ko'ra o'qitishning har bir bosqichida monitoring o'tkazishni nazarda tutuvchi davriylik tamoyili;

- ko'p darajalilik tamoyili: talabani baholash, o'z-o'zini baholash, natijalarni muhokama qilish va kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar kompleksi;

- barcha talabalar uchun qo'llaniladigan texnologiyalar yagonaligi tamoyili, baholash natijalarini qiyoslash shartlarini bajarish;

- tezkorlik tamoyili boshqaruvlik qarorini qabul qilish uchun talabalarda kompetensiyalarning holati va shakllanganlik sur'ati to'g'risida axborotni jamlash, qayta ishlash va taqdim etishni nazarda tutadi.

Shakllantiriladigan kompetensiyalar sifati monitoringi birinchi kursdan to'rtinchi kursgacha bosqichma-bosqich tashkil qilinadi. Uning pedagogik amaliyotida qabul qilingan asosiy bosqichlari quyidagilar hisoblanadi:

- diagnostik (boshlang'ich),

- joriy (operasion),

- yakuniy (davriy va yakuniy attestasiya).

Monitoringning diagnostik (boshlang'ich) bosqichi o'quvchilar tayyorgarligining boshlang'ich darajasini qayd qilish hamda o'qitishning individual trayektoriyasini qurish uchun qo'llaniladi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim muhiti sharoitlarida talabalarni dastlabki baholash natijalari uning individual darajadagi akademik muvaffaqiyatini boshlang'ich bilimlar sifatida qo'llaniladi. Monitoringning diagnostik bosqichi ikki turda bo'lishi mumkin:

- boshlang'ich (birinchi kurs talabalarida), ularning asosiy ta'lim dasturini o'zlashtirishga bo'lgan tayyorgarligi darajasini belgilaydi;

- dastlabki (tayanch), aniq bir fanni (modulni) o'zlashtirish boshida. Boshlang'ich baholash o'z-o'zini baholash shaklida amalga oshirilishi mumkin.

Monitoringning joriy (operasional) bosqichidan talabalarining o'quv faoliyatini tezkor va muntazam boshqarish uchun foydalaniladi. U o'quv materialini o'zlashtirish jarayonining borishi va sifati to'g'risida axborot olish, zarurat bo'lganda-tuzatish (korreksion) harakatlardan foydalanish imkonini beradi.

Joriy monitoring jarayonida alohida modul yoki mavzuning o'zlashtirilganligi natijalarini baholash ishlari amalga oshiriladi. Nazoratning bunday turi oraliq nazorat turi deb nomlanadi. U o'quv rejasida belgilangan shakldagi (sinov, tabaqalashtirilgan sinov, imtihon, kurs loyihasi, kurs

ishi, amaliyot bo'yicha hisobot) modul yoki fanni o'zlashtirish yakunida o'qitishning rejalashtirilgan natijalariga erishish darajasini baholash uchun mo'ljallangan.

Monitoringning yakuniy bosqichi bitiruvchilarda shakllangan kompetensiyalarning yakuniy davlat attestatsiyasi hamda bitiruv malakaviy ishini bajarish jarayonida tegishli kasbiy yo'nalish talablariga muvofiqligi darajasini aniqlash uchun mo'ljallangan.

Monitoring natijalarini talqin qilish talabalarda kompetensiyalar shakllanganligining qayd qilingan darajasini rejadagi ko'zlangan daraja bilan solishtirish, ya'ni DTS malaka talablari, matematika o'qitish metodikasi o'quv fani dasturining yakuniy maqsadi, kasbiy modul yoki o'qitishning butun dasturi asosida amalga oshiriladi.

Talabalarda kompetensiyalarning shakllanganlik darajasini baholash uchun ilmiy asoslangan mezonlar tizimidan foydalanish zarur.

Mezon, kriteriy (yunoncha "kriterion"- fikrlash uchun vosita)

-uning asosida baholash amalga oshiriladigan xususiyat, tekshirish vositasi, baholash mezon;

-bilim olish nazariyasida;

-haqqoniylik yoki holat yolg'onligi belgisi.

Mezonlar muayyan ko'rsatkichlar orqali namoyon bo'ladi. Ularning namoyon bo'lish darajasiga ko'ra mezonning ifodalanganlik darajasini qayd qilish mumkin. Shunday qilib, kompetensiyalar shakllanganligini baholash darajali hisoblanadi.

Kompetensiyalarning shakllanganlik darajasi deganda ularning kasbiy faoliyatini amalga oshira olish ko'nikmalari, intellektual va ijtimoiy faolligida namoyon bo'ladigan ifodalanganlik darajasi tushuniladi. Tadqiqotlarda ko'pincha talabalar kompetentligi shakllanganligining dastlabki va yuqori darajalari ajratiladi. Ayrim mutaxassislar yana ildamlovchi darajani ham ajratadi. Ularning har birini tavsiflab chiqamiz[3].

Talaba kompetentligi shakllanganligining dastlabki darajasi quyidagi mezonlar bilan tavsiflanadi: bilish, tushunish, qo'llash. Agarda bakalavr dalil va hodisalarni tasvirlash uchun matematika turkumidagi fanlarning mazkur sohani o'rganish obyektlari xususiyatlari va qonuniyatlaridan foydalanishga misollar keltirsa, uning kompetentligi dastlabki darajada shakllangan deb hisoblanadi.

Talaba kompetentligi shakllanganligining yuqori darajasi qo'shimcha mezonlar bilan xarakterlanadi: analiz va sintez. Agarda bakalavr mazkur ta'lim sohasiga muvofiq obyekt, hodisa va jarayonlar xususiyatlari to'g'risidagi axborotni tahlil qilsa, anglasa va tavsiflay olsa, aniq obyekt va hodisalarni tasvirlashga oid o'rganiladigan nazariyalarni qo'llash to'g'risidagi masalalarini hal qila olsa uning kompetentligi yuqori darajada shakllangan deb hisoblash mumkin.

Respublikamizda zamonaviy ta'limning asosiy muammolaridan biri ta'lim sifatini baholash, uning monitoringini olib borish orqali yuqori kasbiy kompetentli pedagog kadrlar tayyorlash hisoblanadi.

So'nggi vaqtlarda ko'pgina olimlar ta'lim sifatini integral tavsifiga e'tibor qaratib, ta'lim natijalarining me'yoriy talablarga, ijtimoiy va shaxsiy kutiladigan ehtiyojlarga muvofiqlik darajasini aks ettiradi.

O'qituvchilar kasbiy tayyorgarligi sifatini kompetentli-metodologik paradigma asosida kompetensiyalarini baholashning yangi texnologiyalarini, yangi tizimini ishlab chiqish lozim. Ayni vaqtda har bir ta'lim muassasasi o'quv va kasbiy faoliyat sohalari bo'yicha kasbiy kompetensiyalarni baholash muammosini amaliy hal etish, baholash fondini yaratishga e'tibor qaratmoqda[4].

Kompetensiyalar ta'lim mazmuni, ta'lim muassasasining ta'lim muhiti va asosan ta'lim texnologiyalari vositasida shakllantiriladi va rivojlantiriladi. O'qitish texnologiyalarini mustaqil, tadqiqotchilik ishlariga yo'naltirish, talabalarning ijodiy sifatlarini rivojlantirish, ta'lim sifatini baholash tizimini innovasion metodologik modernizasiyalashni talab etadi. An'anaviy baholash vositalarini yangi zamonaviy baholash vositalari bilan almashtirish orqali mutaxassislar tayyorlash sifatini zamonaviy talablarga moslashtirish ehtiyojini qondirish mumkin.

Xulosa qilsak tadqiqotimiz davomida talabalarning kasbiy faoliyatga tayyorgarligini bevosita kasbiy kompetensiyalarini baholash mezonlari, jarayonlari, metod va texnologiyalari

yigʻindisi sifatida tadqiq etilib, baholash vositalari fondini shakllantirish, kompetensiyalarni egallash monitoringi dasturini ishlab chiqishga qaratdik. Ishlab chiqilgan kompetensiyalarni baholash tizimining oʻziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- taʼlim natijalarini baholashga tizimli yondashuv (kompleks holda umumiy va kasbiy kompetensiyalarni shakllanganlik darajasini baholash);
- asosiy taʼlim dasturlarini oʻzlashtirishning rejalashtirilgan natijalaridan (kompetensiyalaridan) baholash uchun mazmunli va mezoniy asos sifatida foydalanish;
- kasbiy vazifalarni bajarish qobiliyati bilan tavsiflangan kompetensiyali yondashuv asosida umumkasbiy fanlar taʼlim yutuqlarini baholash;
- kasbiy kompetensiyalarni egallash darajasi monitoringi;
- rejalashtirilgan natijalar, vositalar va ular taqdimotini ishlab chiqishda darajali yondashuv;
- kompetensiyalarning rivojlanish dinamikasini tavsiflovchi yigʻma baholash tizimidan (portfolio) foydalanish;
- taʼlimning faol, interfaol shakllaridan foydalanish;
- ilgʻor taʼlim texnologiyalaridan, loyihalash texnologiyalaridan foydalanish.

Adabiyotlar:

1. Жалилова Е.П. Педагогическая формирования технология формирования профессиональной компетентности будущего экономиста на основе аксиологического подхода. Дисс.кпн., Самара, 2005.–272 с.
2. Зеер Е.Ф. Модернизация профессионального образования: компетентностный подход:учебное пособие.-М.,2005.-198с.
3. Матюшкин А.М. Проблемные ситуации в мышление и обучении. – Москва: Педагогика, 1972. – 240 с.
4. Муслимов Н. Касб таълими ўқитувчиларини касбий шакллантиришнинг назарий-методик асослари: пед.ф. доктори даражасини олиш учун диссертация.– Тошкент, 2007.– 337 бет.
5. Мусурмонов А. Дидактические основы межпредметных связей математики и трудового обучения в общеобразовательной школе: Дисс... на соиск. уч. степ. канд. пед. наук.– Ташкент: 1988, -149 с.
6. Абдуллаева Б.С. Фанлараро алоқадорликнинг методологик-дидактик асослари: Пед. фан. док. дисс... . –Тошкент: ТДПУ, 2006. – 263 бет.
7. Даданов З.С. Использование межпредметных связей в формировании статистических знаний у школьников: Дис. канд. пед. наук. – Т: 1986. –185 с.
8. Икромов Дж. и др. Эффективность системы уроков математике. – Тошкент: 1982. – 122 с.
9. Колягин Ю.М. и др. Методика преподавания математики в средней школе. -Москва: Просвещение, 1975. – 447 с.
10. Лошкарева Н.А. Межпредметные связи как средство совершенствования учебно-воспитательного процесса. –Москва: Издательство Московский гос. пед. инс. 1981. – 170 с.
11. Мавлонова Р.А. Теория и практика начального образования в Узбекистане: Дисс.док.пед.наук. – Т., 1989., – 53 с.
12. Мамбетакунов Э. Дидактические функции межпредметных связей в формировании у учащихся естественнонаучных понятии: Дис. на соиск. уч. степ. докт. пед. наук. – Бишкек, 1991. – 387 с.

OʻQITISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA QOʻLLANILADIGAN METODLAR

Mamaraimova Iroda Rustamovna, Bibalayeva Manzura Saydullayevna

Guliston tumani 30-maktab boshlangʻich sinf oʻqituvchilari

«Tarbiya qancha mukammal boʻlsa, xalq shuncha baxtli yashaydi», deydi donishmandlar. Tarbiya mukammal boʻlishi uchun esa bu masalada boʻshliq paydo boʻlishiga mutlaqo yoʻl qoʻyib boʻlmaydi», — dedi prezident

Ta'limda tanlangan metodlarni qo'llash mashg'ulotning qiziqarli va samarali bo'lishini ta'minlaydi. Ijodiy muhit – ijodkor shaxsni shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lib, jamoada sog'lom muhitni yaratish orqali talim sifati va samaradorligini oshirish o'zaro hamkorlik asosida muammolarning yechimlarini topish aniq maqsadli natijalarni kafolatlash demakdir. Ijodkorlik – kishining o'z qiziqishi, ijodiy namunalariga yangiliklar kiritishga keng iimkoniyatlar ochadigan mashg'ulotlar bilan shug'ullanishga intilishlarida o'z aksini topadi. Bu yo'nalish bo'yicha yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan kishilar doimo o'zlari qiziqqan sohaga ijodiy faoliyatida biron bir o'zgarish yasash, yangilik kiritishga harakat qidadilar.

O'qituvchilardagi ijodiy izlanuvchanlik sifatleri quyidagicha:

1. Shaxsning ijodiy faolliqi;
2. O'zligini anglab yetishi;
3. Tanqidiy tafakkurga ega bo'lishi;
4. Mustaqil va erkin fikrlashi;
5. O'z faoliyatini to'g'ri belgilab olishi;
6. Maqsadga muvofiq faoliyat ko'rsatishi;
7. Milliy – madaniy qadriyatlarni chuqur anglash;
8. Topqirlik va hozirjavoblilik;
9. Donolik;
10. Kamtarlik;
11. Yumorga boy bo'lish;
12. Bir necha tilda muloqotga kirisha olish;
13. Kompyuter savodxonligi.

Darsni interfaol metodlarda tashkil etishning afzalliklari.

Har bir ta'lim tizimi rahbariyati o'z muassasasidagi xodimlarning darsda interfaol metodlarda tashkil etishning qanday afzalliklarini va kamchiligini bilishi va tushunishi muassasadagi mashg'ulotlarning samarali bo'lishiga va dars sifatini yanada yaxshi bo'lishiga erishishida katta rol o'ynaydi.

Interfaol ta'lim va tarbiya jarayoni ishtirokchilari o'qituvchi zamonaviy pedagogik texnologiya metodlaridan foydalanib dars o'tar ekan, pedagogik motivlar: ehtiyoj, manfaat, maqsadlar o'ziga xos bog'liq ekanligini unutmasligi lozim.

O'quvchilarning darsdagi faoliyati aqliy faoliyat hisoblanadi. Bu faoliyat ma'lum harakat va operatsiyalar egallashga qaratiladi. Bu harakat va operatsiyalar tinglash paytidagi ma'lum yangi materialini bilib olish, tanib olish va tushunish, kontekstdagi so'zning ma'nosini aniqlash, leksik birikmalarni va sintaktik birikmalarni qovushtirish va boshqalar bo'lishi mumkin.

Zamonaviy ta'limni tashkil etishda turli xil o'yinlardan samarali foydalanishga alohida e'tibor berilmoqda. Bugungi kunda adabiy ta'lim jarayonida qo'llash nihoyatda qulay bo'lgan bir qator o'yinli texnologiyalar yaratilmoqda. O'yinli texnologiyalar nafaqat nazariy bilimlarni mustahkamlash, ularning amaliy malaka va ko'nikmalariga aylanishini ta'minlabgina qolmay, balki ta'lim oluvchilarda muayyan axloqiy, irodaviy sifatlarni ham tarbiyalashga o'z ulushini qo'shadi.

D.B.Elkoninning fikriga ko'ra, "Xuddi shu oddiygina o'yin orqali o'sib kelayotgan bolaning tasavvuri ilk marotaba qaror topa boshlaydi"¹. Bir qancha izlanishlar shu fikrga olib keladiki, o'yin - bu taraqqiyotning rolidir, uning kelajakka, rivojlanishga qaratilgan, undan kelib chiqadigan qonun-qoidalar, iroda hamda matonat maktabidir.

O'yin texnologiyalari, O'yin, mehnat va o'qish inson faoliyatining asosiy turlaridir. O'yin ijtimoiy tajribani qayta yaratish va o'zlashtirishga qaratilgan faoliyat turi bo'lib, u orqali insonning o'z- o'zini boshqarish ko'nikmalari rivojlanadi. O'yin shunday faoliyatki, uning natijasigina emas, balki jarayonning o'zi ham insonga zavq bag'ishlaydi. O'yin faoliyati ijod uchun imkon beradi, his-tuyg'ularni kuchaytiradi.

Didaktik o'yinlar nazariy, amaliy, jismoniy, rolli, ishchanlik va boshqa yo'nalishlar bo'yicha turlarga ajratiladi. Hozirda kompyuter vositasidagi didaktik o'yinlar alohida o'ringa ega bo'lib bormoqda. Didaktik o'yinlar o'quvchilarda tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, tadqiq qilish, hisoblash, o'lchash, yasash, sinash, kuzatish, solishtirish, xulosa chiqarish, mustaqil qaror qabul qilish, guruh

yoki jamoa tarkibida ishlash, axloq-odob o'rgatish, nutq o'stirish, til o'rgatish, yangi bilimlar o'rgatish va boshqa faoliyat turlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan o'yinlarga ajratiladi.

Zakovat o'yini: Bu o'yinni o'tkazishda dastlab auditoriyani o'yinga moslashtirish lozim bo'ladi. O'yin ishtirokchilari test yordamida saralab olinadi. Yuqori ball olgan o'quvchilar o'yinda ishtirok etish huquqiga ega bo'ladi. O'yin qatnashchilari 6-8 kishidan iborat bo'ladi. Qolgan o'quvchilar esa o'yinni tamoshabin sifatida kuzatib turishadi. O'yin uchun mo'ljallangan savollar konvertga joylashtirib qo'yiladi. Guruh sardori savolni olib o'qituvchiga beradi. O'qituvchi savolni o'qib eshittiradi. Javobni aniqlash uchun bir daqiqa vaqt ajratiladi. Bu vaqt orasida o'yin ishtirokchilari javobni maslahatlashib topishga harakat qilishadi. Bu o'yinni asosan, yuqori sinfdagi o'tkazish tavsiya etiladi.

Zakovat o'yinlarida asosan, o'rta muammoli savollar tashlanib, shu muammoni hal etishga diqqat qaratiladi.

Xulosa qilib aytganda, o'qituvchilarning bunday zamonaviy talablar asosida darslarni olib borilishi, yaratilgan sharoitlardan samarali foydalanib, darslarni ilg'or pedagogik hamda axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida tashkil etilishi ta'lim-tarbiya jarayonini sifatini kafolatlaydi.

Adabiyotlar

5. «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar Strategiyasi to'g'risida» 2017 yil 7 fevrvldagi PF-4947-sonli farmoni.

6. Jarilgasova P.E., Koksheeva Z.T. O'qituvchining kasbiy kompetentsiyasi // Zamonaviy ilmiy intensiv texnologiyalar. - 2013. - № 7

KREATIVLIK–PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Abduraxmonova Muxabbat Abdumavlonovna, Shodiqulova Sabohat Anarqulovna

Guliston tumani 30-umumta'lim maktabi. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari

O'zbekistonning milliy taraqqiyotga qaratilgan bosh g'oyasi - ozod va obod Vatan, erkin va farovon xayot barpo etishdir. Binobarin, ozod va obod davlatning fuqarolari komillik sari intilib yashash maqsadini o'z oldiga qo'yadi. O'zbekiston taraqqiyotining ma'naviy-axloqiy va kasbiy asoslari to'g'risida fikr yuritib, istiqlol sharoitida talaba- yoshlarning bilim asoslarini puxta egallashlari bilan birga mustaqil fikrga ega bo'lgan, g'oyaviy, mafkuraviy jihatdan chiniqqan, kasbiy mahoratini mustaqil Vatanimizning ravnaqi yo'lida fidokorona safarbar eta oladigan ruhda tarbiyalash lozimligini dolzarb vazifa qilib qo'ydi.

Har qanday jamiyatning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy barqarorligi o'sha jamiyat fuqarolarining ma'naviy-axloqiy, intellektual va kasbiy salohiyati darajasiga bog'liq. Shunday ekan, ma'naviy-axloqiy va kasbiy jihatdan to'laqonli shakllanmagan shaxsda o'z vatani, millati, egallagan kasb-kori bilan faxrlanish tuyg'usi sayoz bo'ladi. Bu holat O'zbekistonning bozor munosabatlariga xos shart-sharoitlarida yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Ushbu metodologik fikr va tadqiqot ishlanmalarimizdan kelib chiqib, shuni aytish lozimki, agar o'quvchi o'quv - biluv va tarbiyaviy faoliyatning maqsadini bilmasa, tarbiyachi - o'qituvchi tomonidan qo'yilgan vazifalarni tushunmaydi, hamda qabul qilolmaydi. O'quvchining majburiyati qiziqish asosida bo'lmay, balki majburiy, sun'iy va lozim bo'lsa tazyiq ostida sodir bo'ladi. O'quvchi darslik mazmunidagi mavzularni shunchaki ko'r-ko'rona "o'rganish"ga yoki ayrim munosabatlarni quruq yodlab olishga majbur bo'ladi.

Ayniqsa, bugungi kundagi axborot texnologiyalarining shiddat bilan rivojlanishi, O'zbekiston Respublikasining rivojlangan davlatlar qatorida taraqqiyot sari yuz tutishi bugungi kun o'quvchisi oldiga yangi talablarni qo'yimoqda. Endilikda u faqatgina maktab darslari materiallarini o'qib o'rganuvchi emas, balki o'zi ijodiy izlanib, yangi va yangi axborotlarni egallab, bilimlar cho'qqisiga yetishi hamda jahon arenasida boshqa rivojlangan davlat bolalari bilan to'la raqobatga kirisha oladigan shaxs sifatida shakllanishi talab etilmoqda. Bu esa pedagogika fani oldiga bolalarda bilim olish va insoniy fazilatlarini va madaniyat unsurlarini o'zlashtirish kabi muhim va dolzarb muammoni qo'yimoqda. O'quvchi-yoshlarni bilimdon va ma'nan etuk insonlar sifatida shakllantirishda ularning fanga, ta'lim olishga, bilim egallashga bo'lgan ichki psixologik yo'nalishni shakllantirishda pedagog-

tarbiyachilarning tutgan o'rnini alohida. Aynan o'qituvchi bolalar uchun andoza sifatida namoyon bo'ladi. Ayniqsa, boshlang'ich sinflarda birinchi muallim bolalar uchun ulug' zot sifatida gavdalanadi va bolalar uchun andoza bo'ladi. Shunday ekan, boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativligi, xarakatchanligi, bolalarni tushuna bilishi, kommunikativ va pertseptiv (bolani tushuna olish) qobiliyatlari bilan bir qatorda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki boshlang'ich sinf o'qituvchilarida harakatchanlik, qiziquvchanlik hamda bilishga bo'lgan ishtiyoq kuchli bo'lishi psixolog olimlar tomonidan ilmiy jihatdan asoslangan. Faqatgina bunday qiziqish va ishtiyohlarni ijobiy tomonga yo'naltirish talab etiladi. Buning uchun esa boshlang'ich sinf o'qituvchilaridan yanada ko'proq izlanishni, ijodkorlikni va novatorlikni talab etiladi.

O'qituvchilarning kreativlik faoliyati masalasi pedagogika fanida qanday darajada o'rganilgan, shular orasida boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativlik faoliyat yuritishi qanday darajada, ularning kreativlik faoliyatni darajalarga ajratish mumkinmi, masala pedagogika ilmidagi qanchalik darajada o'rganilgan?! - kabi haqli savollar tug'ilishi tabiiy. Ushbu savollarga javob topish uchun Biz magisrlik dissertatsiya ishimizni shu masalaga qaratdik va muammoni ilmiy jihatdan o'rganishni lozim deb topdik. Demak, kreativlik – bu muhim ahamiyatga ega bo'lgan pedagogik muammo ekan, bu borada izlanishlar talab etiladi.

Kreativlik – bu madaniyat vositasi asosida shaxs sifatida shakllanish jarayonida namoyon bo'ladigan shaxsning shaxsiy sifati (fazilati)dir.

1. Kreativlik – bu insonning shaxsiy xususiyati bo'lib, uning o'z-o'zini takomillashtirib va rivojlantirib borishi bilan bog'liq.

2. Psixolog olimlar tomonidan kreativlikning qo'yidagi ikkita komponenti aniqlangan. Bular:

A). Shaxsiy mazmun. Ya'ni har bir insonning shaxsiy hayotining umumiy mazmuni. Bu mazmun madaniyatshunoslik bilan bog'liq. Har bir inson biron bir soha yoki faoliyat bilan shug'ullanar ekan, u kreativlik, ya'ni yaratuvchanlik munosabatda bo'ladi va uni iloji boricha chiroqli, insonlarni o'ziga tortishga yo'naltiriladi. Bu esa o'z navbatida insoniyatning madaniyatga yo'naltirilganligidir.

B). Signifikatsion ko'nikmalar.

3. Kreativlikni tashxis qilish psixosemiotik tahlil bilan bog'liq

Kreativlikning darajasini aniqlash qo'yidagilar bilan belgilanadi:

- shaxsiy ma'noning rivojlanish darajasi;
- verballi belgilar sistemasini yaratish

5. Ta'lim olish kengligi ikkinchi semiotik tizimni tashkil etadi. Uning kreativlikni rivojlantirishga ta'siri gomomorfizik madaniyat bilan bog'liq.

Psixologiya fanida kreativlik bilan bog'liq bo'lgan qo'yidagi jihatlarni aniqlashga doir qator metodlar tavsiya etilgan. Lekin bu metodlar bevosita kreativlikni emas, balki kreativlikni belgilab beruvchi muayyan jihatlarni aniqlashga qaratilgandir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – T. TDPU, 2003.
2. Jumaev A. Bo'lajak o'qituvchi shaxsining ijtimoiy faollik omillari. / «Xalq ta'limi» jurnali, 2006, № 6, -17-20-betlar.
3. Mavlanova R.A., Raxmonqulova N.X. "Boshlang'ich ta'limda innovatsiya". T., TDPU 2007-y.

BOSHLANG'ICH SINFI O'QITUVCHISINING KREATIV FAOLIYATI MAZMUNI

Xodjiev Zamiraxon Ismatovna, Karimova Ruzaliya Nurtayevna

Guliston tumani 70- Maktab internat o'qituvchilari

O'zbekistonning kelajakdagi ravnaqi bugungi yosh avlodning to'laqonli tarbiyasiga ko'p jihatdan bog'liq. Har bir ota-ona o'z farzandining komil inson bo'lib etishishi uchun qayg'urishi, uni e'tiqodli va ma'rifatli qilib tarbiyalashi lozim.

Ta'lim mazmunining yil sayin o'zgarib, takomillashib borishi maktab va ota-onalar oldiga

yangi talablar qo'yimoqda. Ta'lim-tarbiya tizimi jamiyatimizda kechayotgan islohotlar, yangilanish jarayonlari bilan uyg'un holda rivojlanmoqda.

Bizga ma'lumki, «integratsiya» so'zi lotincha «**integratio**»-»tiklash», «to'ldirish», «integer» - «butun» ma'nolarini bildiradi. Ta'limga integrativ yondoshish turli darajadagi tizimli aloqalarning ob'ektiv yaxlitligini aks ettiradi. (tabiat- jamiyat - inson). Integratsiya ilgari bo'lingan qismlarni bir butunga birlashtirish bilan bog'liq. U tizim elementlarining yaxlitlik va uyushqoqlik darajasining oshirishga olib keladi.

Integratsiyalash mobaynida bir-biriga bog'liqlik xajmi oshadi va tartibga tushadi, shu tizim qismlarning ishlashi va o'rganish ob'ektining yaxlitligi tartibga solinadi.

Bu umumiy qoidalarni qanday qilib maktab ta'limida qo'llash mumkin? Zamonaviy didaktik va metodikada ta'kidlanishicha, o'quvchilarni o'qitish, rivojlanishi va tarbiyasining muvoffaqiyatlari ularning dunyoning birligi xaqida tushunchaning shakllanganligi, o'z faoliyatlarini umumiy tabiat qonunlari asosida yo'lga solish zaruriyatini tushunishlari, tabiatshunoslik kursida predmentlararo va predmetlar ichidagi aloqalarni echa olishlari bilan bog'liq. Ta'limdaga integratsiya o'quv predmetlari mazmunini konstruksiyalashga tizimli yondoshish orqali ko'rib chiqiladi.

O'qituvchilarning kreativlik faoliyati ham alohida o'rganishni talab etadi. E'tirof etilishicha, kreativlik ma'lum masalaning yechimini topishdagi axborotlarni tez sur'atda foydalanish qobiliyatiga bog'liq.

Bu qobiliyatni kreativlik deb atadilar va uni intellektga bog'liq bo'lmagan holatda - individning yangi tushunchalar yaratuvchi va shakllantiruvchi yangi malakalari sifatida o'rgandilar. Kreativlik shaxsning ijodiy ko'rsatkichlari bilan belgilanadi.

Kreativlikni o'rganish asosan **ikki** yo'nalishda olib boriladi:

1-yo'nalish. Kreativlikni intellekt bilan bog'liqligi masalalarini va kreativlik bilan bog'liq ta'limiy jarayonlarni belgilashni o'rganadi.

2-yo'nalish. Shaxs va uning psixologik o'ziga xosligi kreativlikning asosiy aspekti ekanligi, shaxsga va uning motivatsion chizgilariga urg'u berilishi bilan tasniflanadi.

Intellektual faktorlarni ta'limiy yo'nalishlarda qo'llanilishida, kreativlikni o'rganish, baholashda 1950-yillarda J.Gilford va uning izdoshlari **16 ta gipotetik** intellektual qobiliyatni ajratib ko'rsatadilar.

Ular orasida:

- fikrning turliligi (ma'lum vaqt oralig'idagi g'oyalarning miqdori),
- fikrning (bir g'oyadan ikkinchisiga ko'cha olishi) originalligi (o'ziga xoslik),
- umume'tirof etilgan qarashlardan farq qiluvchi g'oyani yaratish qobiliyati),
- qiziquvchanlik (o'zini o'rab turgan olamdagi muammolarga ta'sirchanlik),
- gipoteza qilish qobiliyati (reaktsiyaning stimuldan mantiqiy mustaqilligi),
- fantastikali (stimul va reaksiya orasidagi mantiqiy bog'liqlikning borliq hayotdan butunlay uzilganligi).

Shu tariqa fikr yuritadigan, sunggi yangiliklardan boxabar uqituvchilar bugungi kunda juda dolzarb va o'quvchining rivojlanishi uchun muhim sanalgan integrallashgan darslarni tashkil etishga qodir buladilar. Integrallashgan darslarni tashkil etish birinchi navbatda o'qituvchidan kreativlikni talab etadi. Biz shu kabi olimlar va pedagoglar tavsiya etgan darslardan namunalar keltirmoqchimiz.

«Bozorda» o'yini.

Sabzavot va mevalarning rasmlari ishlangan kartonlar yozuv taxtasiga osib qo'yiladi. Bu erda karam, kartoshka, uzum, nok, olxo'ri, piyoz va hokazolarning rasmlari bor.

O'qituvchi:- 1 kg piyoz 4 so'm tursa, 2 kg qancha turadi, 3 kg-chi? - deb so'raydi.

3 kg olxo'ri 9 so'm tursa, 1 kg olxo'ri qancha turadi? Shunga o'xshash boshqa savollar beriladi. O'yindan keyin o'quvchilardan so'rash kerak:

O'qituvchi:- Siz hovlida o'ynayapsiz. Birdan oyingiz bozordan to'rxalta to'la meva va sabzavotlar olib kelayotganini ko'rib qoldingiz. Shunda siz nima qilasis?

O'quvchilar: «To'rxaltani ko'tarishda oyimizga yordam beramiz»,- deb javob qilishadi.

Ularning fikrlari ma'qullanadi.

O'qituvchi:- Sizlar meva va sabzavotlarni etishtirishda ishtirok etasislarmi?

Pedagogika sohasidagi shu kabi innovatsion yangiliklar bilan uzoq qishloq, o'qituvchilarining xam tanish bo'lishi va ularni amalda qo'llashi ishlari amalga oshirilar ekan, demak olim M.G'ulomovning ilovada berilgan singari tavsiyalari o'qituvchilarning kreativ faoliyatini yanada rivojlantirishda foydadan xoli bo'lmaydi.

Shu bilan qatorda olim R.A.Mavlanova o'quvchilarni ijodiy tasavvur mexanizmlariga qanday o'rgatish keraligi buyicha qo'yidagi takliflarni tavsiya etadi. Ular biz haqiqatan ham o'quvchilarni ijod zavqiga erishtirmoqchi bo'lsak, u holda uchta asosiy maqsadga diqqat - e'tiborni qaratishimiz kerakligini e'tirof etadilar:

– o'quvchilarni ochilmagan sir va jumboqlarni o'z kuchl ari bilan ochish mumkinligiga ishontirish;

– bu sirlarni topish va ochishga imkon beruvchi ijo diy tasavvurning asosiy yo'llarini o'rgatish;

– idrok qilish, diqqat-e'tiborni, xotirani, his-tuy g'u va fikrlashni rivojlantirish uchun ijodiy tasavvur mexanizmlaridan foydalanish

Fikrlarimizni umumlashtirib aytadigan bo'lsak, pedagog –tarbiyachi bo'lib o'quvchilar bilan ishlaydigan o'qituvchidan tinmay izlanishlar olib borishni va yangiliklarni kreativ tarzda o'z faoliyatida qo'llashni talab etadi. Kreativlik faoliyat yuritish o'qituvchilarda talabalik yillaridayoq shallantirilishi va bu sifat maktabda yanada rivojlantirilishi maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Saidahmedov N. YAngi pedagogik texnologiyalar. -T.: «Fan». 2003.
2. Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. - T.: O'zbekiston. 2001.
3. Pedagogika. A.H.Munavvarovning umumiy tahriri ostida. -T.: O'qituvchi. 2016.
4. Sayidahmedov N. YAngi pedagogik texnologiyaning mohiyati. J.Xalq ta'limi .2006

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA KREATIVLIKNING AHAMIYATI

Narmetova Firuza Xabibullayevna, Ismonxonova Xolisxon Ikramovna.

Sirdaryo viloyat Guliston tumani.70- maktab- internati boshlang'ich sinf o'qituvchilari

Maktabda o'quvchilarga faqat umumiy ta'lim berish bilan cheklanilmaydi, unda ijodiy mehnatning zaruriy sharti bo'lgan mustaqil fikrlash ko'nikmasi ham rivojlantirilib, har bir ishga ijodiy yondashish hissi shakllantiriladi va kamol toptiriladi.

Kreativlik bevosita innovatsiyalar bilan bog'liq jarayondir. Negaki o'qituvchining kreativlik faoliyat yuritishi uchun, u albatta o'zining sohasidagi eng so'nggi yangiliklardan, shu bilan bir qatorda butun jamiyatdagi voqea va hodisalardan boxabar bo'lishi, innovatsion yangiliklarni o'z faoliyatida o'rinli foydalana olishi lozim.

1. Kreativlik o'qituvchilarni innovatorlikka undovchi pedagogik kategoriya hisoblanadi.

2. Kreativlik o'qituvchining kasbiy va shaxsiy sifatining integratsiyasidir. Chunki tabiatan qiziquvchan, intiluvchan bo'lmas ekan, o'qituvchi hech qachon ijodkorlikni namoyon eta olmaydi.

3. Kreativlik o'qituvchilarda o'z-o'zidan payda bo'ladigan sifat emas, u o'qituvchining yangiliklarga intilishi, yangiliklarni o'zlashtirish va o'zining pedagogik faoliyatida qo'llay olish jarayonlarida duch keladigan qiyinchiliklarni eng a olishi, innovatsion yangiliklarni o'z faoliyatida faol, ijodkorona foydalana olish va o'z mualliflik g'oyalarga, yechimlarni (evristik) topa olishi bilan bog'liqdir.

4. O'qituvchining kreativligining shakllanishi «ehtiyollar, yo'nalishlar va «Men» kontsepsiya»laridan kelib chiqadi.

O'qituvchining kreativlik faoliyati pedagogik faoliyatning barcha turlarida namoyon bo'lishi davr talabidir. Bunday pedagogik faoliyat turlariga esa qo'yidagilar kiradi:

- **o'quv-pedagogik faoliyat.** Bu faoliyat loyixalash va konstruksiyalash faoliyati deb ham atalib, bunda jamiyat talablari doirasida o'quv ishlarini tashkil etish nazarda tutiladi. O'quv jarayoni umumiy o'rta ta'lim maktablarida hamda oliy o'quv yurtlarida mazmunan va shaklan bir biridan farqlanadi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quv jarayoni o'quv setkasi asosida o'quvchilarga fanlarni o'qitishga yo'naltirilgan bo'lsa, oliy o'quv yurtlarida o'quv hamda ilmiy tadqiqot ishlari birgalikda olib borilib, ko'proq talabalarni mustaqil va ijodiy ishlashini amalga oshiradi hamda

nazariy va amaliy mashg'ulotlar olib boriladi; Shuningdek bu faoliyat turiga o'quvchi va talabalar imkoniyatlarini hisobga olgan holda ularni muvaffaqiyatga eltuvchi vaziyatlar yaratish, axborotni iqtidorli va past o'zlashtiruvchi o'quvchi va talabalarga tushunarli qilib o'zgartira olish ishlari, mashg'ulot loyihasini turli vaziyatlarda moslab to'za olish, darsda ixcham tashkil etishni rejalashtirish, sodir bo'lgan vaziyatga qarab (materialni) qayta ko'rish, tushuntirish, axborotni o'zlashtirilishini ta'minlash ishlari ham kriadi.

- **tashkilotchilik faoliyat.** Bu faoliyat o'quv-tarbiya ishlarini rejalashtirishni o'z ichiga oladi. Shuningdek, bunda o'qituvchi o'quvchilar bilan olib boradigan pedagogik faoliyatini, o'z vaqtini rejalashtiradi, ishlarini taqsimlaydi. Bu faoliyatning asosini o'quvchi-talabalarining o'qituvchilar bilan hamkorlikda ishlashi tashkil etadi;) talabalar mustaqil bilish faoiyatlarini tashqil etish va boshqarish, talabalar diqqat va qiziqishlarini o'ziga jalb qilish.

- **gnostik (bilishga oid) faoliyat.** Bu faoliyatda o'qituvchi atrofdegilarni va o'zligini chuqur va har tomonlama anglashi nazarda tutiladi. Bunda o'qituvchining o'zi va talaba (o'quvchi)lar faoliyatida ro'y beradigan qiyinchiliklarni tashhislash, ularni bartaraf qilishga o'rgatish, o'z faoliyatini tahlil qilish, faoliyat natijasini oldindan yaqqol tasavvur etish ishlari ham nazarda tutiladi.

- **kommunikativ (muloqotga moyillik) faoliyat,** ya'ni bu o'qituvchining hamkasabalari va o'quvchilari bilan to'g'ri pedagogik muloqotda bo'lishidir Bunda o'qituvchining xushmuomila va talabchan bo'lishi, talaba va o'quvchilarni javobgarlikni oshiradigan vaziyatlarga duchor qilish, ularni o'ziga yaqin tutishlariga erishish nazarda tutiladi.

1. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kreativlik faoliyat yuritishga ularni talabalik davridan boshlaboq tayyorlash maqsadga muvofiqdir. Chunki talabalik davr talabalarining o'z qobiliyatlarini to'liq namoyon etishga, ijodkorlik sifatlarini yanada rivojlantirishga sharoit yaratib beradigan insonning rivojlanish davrining eng cho'qqisiga chiqqan davri ekanligini psixolog olimlar isbotlagan. Shuning uchun ham olim R.A.Mavlanovning kreativlikni aynan talabalarda sinab ko'rganligi bejiz emasdir.

2. Ijodkorlikka tamal toshi qo'yilgan talabalik davridagi sifatlar maktabga o'qituvchi sifatida qabul qilingan pedagog kadrlar bu sifatarni yanada rivojlantirib borishlari lozim. Ya'ni talabalik davridagi ijodkorlik endilikda kreativlik faollikka aylanishi lozim. Vaholanki, talabalik davrda bola o'zi uchun, o'zining ta'lim va tarbiya olishi uchun mas'ul bo'lsa endilikda esa u bolalar uchun mas'uldir. Shuning uchun ham uning **kreativ faoliyati faol bo'lishi lozim.** Buning uchun:

-maktablardagi fanlar bo'yicha metodbirlashmalar yig'ilishlarida o'qituvchilarni o'sha sohadagi yangiliklar bilan uzluksiz tanishib borishiga undovchi masalalarning qo'yilishi,

- o'qituvchilarning an'anaviy avgust kengashlarida innovatsiyalarni yaratish, izlab topish, bankini yaratish ko'nikma va malakasini rivojlantirishga doir materiallarning mavjudligi,

- har bir o'qituvchining uzluksiz tarzda o'zining pedagogik mahoratini oshirib borishi, o'z ustida ishlash ko'nikmasini shakllantirishga doir pedagogik tajribalarni ommalashtirish,

- maktabda innovatsion muhitni shakllantirish va maktab amaliyotiga ilg'or texnologiyalarni va interfaol usullarni keng tattiq etish maqsadga muvofiqdir.

Demak, o'qituvchi ijodkolik va tashabbuskor bo'lishida u ta'lim jarayonini yangicha modellashtirish, ishni innovatsiyalar asosida yangi o'qitish texnologiyasini joriy qilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

5. Saidahmedov N. YAngi pedagogik texnologiyalar. -T.: «Fan». 2003.
6. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. - T.: O'zbekiston. 2001.
7. Pedagogika. A.H.Munavvarovning umumiy tahriri ostida. -T.: O'qituvchi. 2016.
8. Sayidahmedov N. YAngi pedagogik texnologiyaning mohiyati. J.Xalq ta'limi .2006

BIOLOGIYA FANINI O'QITISHDA DIDAKTIK O'YINLARNING AHAMIYATI

Xudayberdiyeva Tozagul Sayitqulovna

Boyovut tumanidagi 13-soni maktabning biologiya fani o'qituvchisi

Annotatsiya: *Biologiya eng muhim fan va shu bilan birga inson hayotida har kuni uchraydi. Shuning uchun o'qituvchilar biologiyani o'qitishga jiddiy yondashadilar, darslarni*

boyitadilar. Biologiya darslarida didaktik o'yinlardan tizimli ravishda foydalanish biologiyadan bilim darajasini oshiradi. O'yin o'quvchilarning aqliy va axloqiy rivojlanishi va tarbiyasining muhim vositalaridan biridir, bu o'quvchining shaxsiyati uchun yoqimsiz yoki taqiqlangan tajribalarni olib tashlaydigan vosita.

Kalit so'zlar: Biologiya fani, interfaol metodlar, o'yin, didaktik o'yinlar, kognitiv, "O'tkazish" metodi, "Qatorni davom ettirish" metodi, "Zanjir" metodi, "Kompozit tasvir" metodi.

Keywords: Biology, interactive methods, games, didactic games, cognitive, "Transfer" method, "Continue the line" method, "Chain" method, "Composite image" method.

Inson qayerda bo'lmasin, hayvonlar va o'simliklar dunyoi bilan o'ralgan. Biologiya juda murakkab fan bo'lib, ular nafaqat o'simlik va hayvonot dunyosining tur tarkibini, balki ko'plab tushunchalar, ta'riflar, qonuniyatlarni tajribalar asosida o'rganadi. Bunday tajribalarni qiziqarli, ayni paytda ilmiy va ma'lumotli bajarish, o'quvchilarning fanga qiziqishini, faolligini oshirish zamonaviy o'qituvchining asosiy vazifasidir.

Hozirgi vaqtda maktabning asosiy muammosi o'quvchilarning o'qishni istamasligi. Ammo o'yin jarayonida hatto eng passiv o'quvchi ham darsga kiritiladi, o'quvchilarhar qanday qiyin topshiriqlarni ham bajara oladilar.

Faylasuflarning o'yin borasida o'z nuqtai nazari bor, ular quyidagilarni ta'kidlaydilar: "O'yin o'quvchilarning rivojlanishini boshqarish uchun jamiyat tomonidan ishlab chiqilgan yoki yaratilgan o'quvchilar hayotining o'ziga xos shakli, bu ma'noda bu maxsus pedagogik ijoddir".

O'yin o'quvchilarning aqliy va axloqiy rivojlanishi va tarbiyasining muhim vositalaridan biridir, bu o'quvchining shaxsiyati uchun yoqimsiz yoki taqiqlangan tajribalarni olib tashlaydigan vosita.

Didaktik o'yinlar - bu o'quvchilarni o'qitish va tarbiyalash maqsadida pedagogika tomonidan maxsus yaratilgan qoidalarga ega o'yinlarning bir turi, chunki bu ikki jarayon bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir.

Biologiya darslarida didaktik o'yinlar oddiy o'quvchilar uchun mo'ljallangan bo'lib, ular maxsus moddiy bazani va texnik tayyorgarlikni talab qilmaydi. Bunday darslarda o'qituvchining roli quyidagi operatsiyalardan iborat:

- *vaqtni belgilash;
- *joyni aniqlash (stollarni joylashtirish, guruhlarini shakllantirish);
- *mablag'larni tanlash (jadvallar, videofilmlar, diafilmlar, gerbarylar, namoyish materiallari);
- *rollarni taqsimlash; yangilik elementlarini kiritish;
- *hissiy jihatdan kuchaytirish ("qo'rquvni yo'qotish", dalda berish); umumiy etakchilik.

O'quvchilar nafaqat o'ynashni, balki topshiriqlar muallifi bo'lishni ham yaxshi ko'rishadi. Buning uchun siz mavzuni chuqur o'rganishingiz kerak. Afzalligi shundaki, o'yin jarayonida tushunchalar ularning xususiyatlari to'liqligi jihatidan ko'p jihatdan ko'rib chiqiladi.

O'yinlarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga turtki beradigan to'g'ri va noto'g'ri bayonotlar qo'llaniladi. Qaror qabul qilishda mustaqillik namoyon bo'ladi, o'z nuqtai nazarini himoya qilish, o'z bilimiga ishonchni his qilish, tinglovchilar qo'rquvini yengish mumkin. Natijada maktab o'quvchilarining ijodiy salohiyati oshkor bo'ladi.

Turli xil o'yin vaziyatlari biologiya darsida o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning samarali vositasi bo'lib xizmat qilishi mumkin. O'ynash paytida o'quvchilar o'zlariga ijodiy vazifalar qo'yadilar, ularni hal qilishda ularga chuqur bilim, turli ko'nikma va malakalar, ixtiro, tasavvur, xayol yordam beradi.

Ko'pincha, biologiyani o'qitishda nazariy bilimlarni ularni amaliy qo'llash bilansamarali birlashtirishga qaratilgan rol o'ynash va ishbilarmon o'yinlar ishlatiladi. Ushbu o'yinlarda, vaqt etishmasligi, to'liq bo'lmagan ma'lumot va o'yinning boshqa ishtirokchilarining qarshiliklariga duch kelgan holda, ishtirokchilarni muayyan qarorlarni qabul qilishga majbur qiladigan keskin, ziddiyatli vaziyat yaratiladi.

O'quvchining har qanday tadqiqot ishlarida ishtirok etishi, uning faoliyati natijasidan ko'ra,

ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish uchun muhimroqdir. O'yinlar o'quvchilarni o'ziga xos g'oyalar bilan chiqishga va ijodiy qarorlar qabul qilishga undashi mumkin. Ba'zan bu boshqa qarashlarning tarafdorlari bilan ziddiyatga, o'z nuqtai nazarini himoya qilish zarurligiga olib keladi. Shunday qilib, didaktik o'yin ijodiy fikrlashni rivojlantirishga hissa qo'shadi.

Ta'lim o'yinlari bir nechta funktsiyalarga ega:

- o'quvchining shaxsiyatiga ta'sir qiladi, uning tafakkurini rivojlantiradi, dunyoqarashini kengaytiradi;
- muayyan vaziyatda navigatsiya qilishni va nostandart ta'lim muammosini hal qilish uchun bilimlarni qo'llashni o'rgatadi;
- o'quvchilarning bilim faoliyatini rag'batlantiradi va rag'batlantiradi, kognitivqiziqishni rivojlanishiga hissa qo'shadi.

Biologiya o'qitish amaliyotida tez-tez ishlatiladigan intellektual o'yinlari va o'yin texnikasining ba'zi bir misollari:

a) "O'tkazish" metodi bir nechta jamoalarga bo'linishi kerak (bu qatorlar bo'yicha mumkin). Jamoa a'zolari birin-ketin o'tirishadi. Birinchi stolga bir varaq qo'yiladi va masalan, xochga mixlangan oilaning bir xususiyatiga (yoki boshqa biron bir narsaga) qog'ozga yozib, orqada o'tirganga berish uchun topshiriq beriladi. Oxirgi o'yinchi tugagach, u qo'lini ko'taradi. Vazifaning to'g'riligi va tezligibaholanadi, guruh tomonidan eng tezkor bo'lgan belgilar yoziladi. Boshqa jamoalar o'zlarining varaqlaridan nomlangan belgilarni kesib tashlashadi. To'g'ri belgilarni chizib tashlamagan va o'yinni boshqalardan oldinroq tugatganlar g'olib bo'lishadi.

b) "qatorni davom ettirish" - bu bitta mavzuga tegishli so'zlar ketma-ketligi, ammo unga qo'shilishi kerak bo'lgan bir nechta tushunchalar etishmayapti.

c) "Zanjir" "Oziq-ovqat aloqalari" mavzusini o'rganish uchun yaxshi. Bir o'yinchi fotosintezga qodir organizmni, ikkinchisi o'yinchi oldingisi bilan oziqlanadigan organizmni (o'txo'r), keyingisi yirtqich hayvonni va boshqalarni nomlaydi. Zanjirning keyingi a'zosini nomlay olmagan kishi jarima nuqtasini oladi va o'yinni qayta boshlaydi. G'olib eng kam penaltilar soniga ega bo'lgan hisoblanadi.

Xuddi shu o'yin texnikasini hayvonlar va odamlarning organlar tizimini o'rganishda qo'llash maqsadga muvofiqdir.

d) "Kompozit tasvir" - maktab o'quvchilari guruhi - bu politsiya bo'limi. O'yin boshlovchilari politsiya bo'limidan yo'qolgan o'simlik (botanika fanini o'rganayotganda) yoki hayvonni (zoologiya fanini o'rganayotganda) topish uchunyordam so'rashadi. Tashqi tuzilish yoki fiziologiyaning xususiyatlarini hisobga olgan holda ob'ektni tavsiflash yoki uning tarkibini yaratish kerak.

e) Ta'lim o'yinlari – juftini top. Juftini top Hashoratlarni top

Xulosa qilib aytganda, maqolada biologiya darslarini tashkil etishda interfaol metodlar, didaktik o'yinlardan foydalanish o'quvchining kognitiv faolligini oshirishi haqida fikr yuritilgan. Chunki biologiya darslarida rol o'ynash o'quvchilarning qobiliyatini shakllantiradi, muammolarni jamoaviy hal qilish qobiliyatini rivojlantiradi, tezkor ravishda qarorlar qabul qiladi, amalga oshirilgan harakatlar oqibatlarini bashorat qiladi, tashabbuslarni rivojlantiradi va biologik va tibbiy tushunchalar bilan ishlash qobiliyatini rivojlantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abramenkova V. V. O'yin bolaning ruhini shakllantiradi // V. V. Abramenkova Psixologiya dunyosi. - 2009. - № 4.
2. Bezux K. E. Biologiya darslarida o'quvchilar bilimlarini faollashtirishning o'ziga xos usullari // O'quv-uslubiy va ilmiy-ommabop gazeta. - M. : "1 sentyabr"
3. Borzova Z. V., . Biologiya bo'yicha didaktik materiallar: Uslubiy qo'llanma. / Z. V Borzova, A. M. Dagaev - M. : TC Sphere, 2005. - 400 p.
4. Bukatov V. M. Didaktik o'yinlarning pedagogik sirlari / V. M. Bukatov. - M. : "Flint" nashriyoti, 2007. -96 b.
5. www. wikipedia. ru

BUGUNGI KUNDA KREATIVLIKNING PEDAGOGIK TAHLILI

Nosirova E'tiborxon Kadirovna, Tojiboyeva Lola Xudayberdiyevna

Guliston tumani. 1- maktab

Guliston tumani. 1- maktab.

O'quvchilarga ta'lim berishda asosiy maqsad ular ongiga fan asoslarini puxta singdirish orqali ularni diyonatli, e'tiqodli qilib o'stirish, ijtimoiy hayotdagi har bir hodisaga ongli yondashishni tarbiyalash, egallangan bilim va ko'nikmalarni hayotga tatbiq etish qobiliyatini o'stirishdan iboratdir.

Kreativlik nafaqat psixologlarning, balki pedagoglarning diqqat e'tiborini tortmoqda. Bu tushuncha ilmiy adabiyotlarda keng qo'llanilmayotgan bo'lsa ham bu tushunchani ma'lum darajada pedagogik iste'molga kiritishga doir harakatlar ko'zga tashlanmoqda. Pedagogika oid manbalarda kreativlik **ijod** bilan bog'liq holda o'rganiladi va tushuniladi. Ijodkorlikning psixologik jihatlari haqida fikrlar bildirilib, **bilim** asosan fikr yuritish va tasavvur qilish bilan bog'liq holda tahlil etiladi. Ijodning psixologik asoslari sifatida qo'yidagi elementlar qabul qilingan. **Bular:**

1. Qabul qilish.
2. Xohish va istak.
3. Tasavvur qilish.
4. O'z-o'zini kuzatish.

Shu bilan bir qatorda **bilimning** asosini tashkil qilishda asosiy o'rinni egallaydigan fikr yuritish bilan tasavvur qilish qo'yidagi elementlar belgilanishi e'tirof etilgan. **Bular:**

1. Aqliy mehnat.
2. Intuitsiya.
3. Dunyoqarash

Pedagogika fanida kreativlik masalasiga bevosita murojaat etgan pedagog olim pedagogika fanlari doktori, professor R.A.Mavlonova o'zining ilmiy ishlarida kreativlik haqida baholi qudrat fikrlar bildirgan. Uning «Boshlang'ich ta'limda innovatsiya», «Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, integratsiyasi, innovatsiyasi» nomli o'quv qo'llanma va darsliklarida kreativlikka alohida to'xtab o'tgan.

Buyuk olim V.A.Slastyonin pedagogning innovatsion faoliyatiga bo'lgan qobiliyatlarining asosiy xislatlarini qo'yidagicha belgilagan:

· shaxsning ijodiy motivatsiyani qo'llaganligi.

Bu qiziquvchanlik, ijodiy qiziqish, ijodiy yutuqlar, peshqadamlikka va o'z kamolotiga intilish;

· kreativlik, bu - xayoliy qarash; baho bera olish qobiliyati va o'z ka - molotiga intilish;

· kasbiy faoliyatni baholash, bu - ijodiy faoliyat metodologiyasi va pedagogik tadqiqot metodlarini egallash qobiliyati; mualliflik kontseptsiyasi va ziddiyatni ijodiy bartaraf qilish qobiliyatlari; ijodiy faoliyatiga hamkorlik va o'zaro yordam berish qobiliyati;

· o'qituvchining individual qobiliyati, bu - ijodiy faoliyat sur'ati va ish qobiliyati; qat'iyatlik, mas'uliyatlik va xalollik, o'zini tuta bilish.

Pedagog olimi R.A.Mavlanova an'anaviy psixologiya va pedagogikada kreativlikka shaxs kategoriyasi sifatida qaralishini, uni talqin qilish, aniqlash borasida bahslar yuritilganligi haqida quyidagicha fikr bildirganlar:

Kreativlikni o'rganishda amalga oshirilgan nazariy tahlil uni kasbiy anrogogikada qo'llashning umumiy qonuniyatlari va o'ziga xosligini aniqlash imkonini beradi. Biz kreativlikning tizimlilik tuzilishidan kelib chiqib, unga shaxsning o'ta intellektual-evristik jihati sifatida emas, balki shaxsni qadrllovchi, tabaqalashtirilgan ta'lim sifatida qaraymiz.

Kreativlik - shaxsni rivojlantiruvchi kategoriya sifatida inson ma'naviyatining ajralmas qismi bo'lib, shaxsni o'z-o'zini rivojlantirish omili, shaxsiy jonbozlikning asosi, shaxs ega bo'lgan bilimlarning ko'pqirrali ekanligida emas, balki yangi g'oyalarga intilishda va o'rnatilgan stereotiplarni yangilik yaratish jarayonini isloh qilish va o'zgartirishda, hayotiy muammolarni yechish jarayonida kutilmagan va noodatiy qarorlar chiqarishda namoyon bo'ladi.

Shu bilan bir qatorda filologiya fanlari doktori M.Ayimbetov ham o'qituvchilarning pedagogik

mahoratiga doir o'z fikrlarini bayon etish bilan bir qatorda pedagogning shaxsiy va kasbiy faoliyati masalalariga to'xtab o'tgan. Olim «kreativlik» yoki «ijodkor» tushunchalarini bevosita qo'llanmagan bo'lsalar ham ijodkor o'qituvchining sifat ko'rsatkichlarini yoritib berishga doir fikrlarini bayon etgan. Olim mahoratli zamonaviy o'qituvchining strukturaviy komponentlarini ko'rsatib bergan. Shu bilan bir qatorda olim bunday pedagoglarning oltita belgisini alohida e'tirof etgan. Bular:

1. Pedagogik jamoada katta obruga ega bo'lishi.
 2. O'zlarini juda jiddiy tutishi va pedagogik taktga ega bo'lishi.
 3. Darslarini oliy darajada tashkil etishi.
 4. O'quvchilar bilan do'stona munosabatda bo'lish.
 5. Murakkab vaziyatlarda o'zlarini tuta bilishi va pedagogik faoliyatini bir maromda olib borishi.
 6. Pedagogik jamoada hamda maxallada katta ta'sir ko'chiga ega bo'lishi
- Sanab o'tilgan sifatlarga Biz o'qituvchining kreativlik faoliyatini ham qo'shicha qilgan bo'lar edik. Negaki, o'qituvchilarning oliy darajada darslarni tashkil etishi o'z-

o'zidan bo'ladigan holat emas, balki o'qituvchining izlanishlari, o'z sohasidagi yangiliklarni tajribalarida qo'llay olishi, o'quvchilarni «o'qitish» emas «o'qishga» o'ragatishiga doir qator faoliyatlar tizimi bilan bog'liqdir.

O'qituvchining kreativ faoliyati pedagogik mahoratning mazmunida aks etar ekan, pedagogika fanida o'qituvchining pedagogik mahoratining modeli ishlab chiqilgan. Bu model' qo'yidagilarda o'zining aksini topgan.

1. Bilish qobiliyatini boshqarish.
2. O'quvchilarda ichki his-tuyg'u va qiziqishni, mustaqil ta'lim olish ko'nikmasini shakllantirish

3. O'quv jarayonini tashkil eta olish.
4. Texnologik mahorat
5. Ishonchga kirish, ishontira olish
6. Nutq mahorati
7. Ergashtira olish
8. Muloqotga kira olish
9. Qalbga yo'l topa olish
10. O'quvchining yoshi,
11. Ichki imkoniyatiga moslashish
12. Do'stona va samiyimiy munosabat

Ko'rinib turganidek, yuqoridagi ishlarda asosan kreativlik masalasi o'qituvchining pedagogik mahorati doirasida tahlil etilgan. Ammo bevosita maktab o'qituvchilarining kreativlik faoliyati masalasi alohida tahlil etilmagan.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda aytish joizki, pedagogika fanida kreativlikga doir alohida maxsus tatqiqot ishlari olib borilmagan bo'lsa ham mazkur masala bo'yicha muayyan fikrlar bildirilgan. Bu, albatta, bejiz emas. Ya'ni pedagog olimlarning kreativlik masalasiga e'tibor qaratayotganligi, bu masala bo'yicha juda ko'p bo'lmasa ham pedagogik fikrlar bildirilayotganining o'zi bejiz emas. Chunki yosh avlodni bilimli, har tomonlama rivojlangan, komil shaxs sifatida shakllantirishda o'qituvchilarning ijodkorligi, o'z sohasi bo'yicha bilimlarini doimo oshirib borishi, so'nggi yangiliklarni o'zining pedagogik faoliyatida qo'llay olishlari, bir so'z bilan aytganda ularning kreativlik faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

9. Saidahmedov N. YAngi pedagogik texnologiyalar. -T.: «Fan». 2003.
10. Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. - T.: O'zbekiston. 2001.
11. Pedagogika. A.H. Munavvarovning umumiy tahriri ostida. -T.: O'qituvchi. 2016.
12. Sayidahmedov N. YAngi pedagogik texnologiyaning mohiyati. J.Xalq ta'limi .2006

O'QUVCHILARNING MATEMATIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA KUNDALIK AMALIYOTDA UCHRAYDIGAN MASALALARNI YECHISHGA O'RGATISH

Nurillo Abdujalilovich Abduvaliyev

Andijon davlat universitetining Pedagogika instituti o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Namangan viloyati, Norin tumani XTBga qarashli 1-umumta'lim maktabining 6-sinf o'quvchilaridan "O'quvchilarning matematik kompetensiyalarini rivojlantirishda kundalik amaliy faoliyatiga doir topshiriqlar ishlab chiqish texnologiyasi (5-6-sinflar misolida)" nomli tadqiqot ishi yuzasidan o'tkazilgan so'rovnomanini taxlili keltirilgan.

Kalit so'zlar. Matematik kompetensiya, amaliy faoliyat, topshiriq, texnologiya.

"O'quvchilarning matematik kompetensiyalarini rivojlantirishda kundalik amaliy faoliyatiga doir topshiriqlar ishlab chiqish texnologiyasi (5-6-sinflar misolida)" mavzusida o'quvchilarga quyidagi savollar berildi:

1-savol. Qaysi son ortiqcha? 5, 7, 9, 11. Savolga o'quvchilar quyidagicha javob bildirgan: "5" javobiga 8%, "7" javobiga 6%, "9" javobiga 86% o'quvchilar.

2-savol. Maktab hovlisida 19 ta qiz va 12 ta o'gil bola o'ynamoqda. Yana qancha maktab o'quvchisi ularga qo'shilsa ular 6 ta teng jamoaga bo'linishi mumkin. Savolga o'quvchilar quyidagicha javob bildirgan: "5" javobiga 82%, "2" javobiga 4%, "3" javobiga 14% o'quvchilar.

3-savol. Shirinoy Andijon shaxridagi 14-umumta'lim maktabining 6 "D" sinfidagi o'qiydi. U maktabga borish uchun kunda dadasidan 10 ming so'm oladi. U har kuni maktabga damasda 3 ming so'm yo'l kira to'lab boradi. O'rtoqlari bilan katta tanaffuzda 4 ming so'mga 2 ta somsa yeydi. Shirinoy pulni tejash maqsadida endi maktabga avtobusda qatnay boshladi. Avtobusning bilet narxi 1000 so'm bo'lsa, Shirinoy bir haftada qancha pul to'play oladi? Savolga o'quvchilar quyidagicha javob bildirgan: "20 ming" javobiga 12%, "28 ming" javobiga 20%, "24 ming" 68% o'quvchilar.

4-savol. Agar biror oyda 5 ta chorshanba bo'lsa, shu oyda ... bo'la olmaydi. Savolga o'quvchilar quyidagicha javob bildirgan: "5 ta shanba" javobiga 22%, "5 ta dushanba" 56%, "5 ta payshanba" javobiga 22% o'quvchilar.

5-savol. Siz Andijondan Xorazmga borish uchun Toshkent va Samarqanddan o'tasiz. Andijondan Toshkentga 3 xil (mashina, samolyot, poyezd) yo'nalishi bo'yicha borishingiz mumkin. Toshkentdan Samarqandga 4 xil (mashina, avtobus, samolyot, poyezd) yo'nalishi bo'yicha borishingiz mumkin. Samarqanddan Xorazmga 4 xil (mashina, avtobus, samolyot, poyezd) yo'nalishi bo'yicha borishingiz mumkin. Siz Andijondan Xorazmga eng ko'pi bilan necha xil yo'nalishda bora olasiz? Savolga o'quvchilar quyidagicha javob bildirgan: "11" javobiga 24% , "48" javobiga 54%, "16" 22% o'quvchilar.

6-savol. Habiba soat 21⁰⁰ dan avval uxlamaydi, agar u kasal bo'lsa, dorilar ta'sirida soat 22⁰⁰ da uxlab qoladi. Juma va shanba kunlari esa 22⁰⁰ dan avval uxlamaydi. Hozir soat 21³⁰ , Habiba esa uxlamayabdi. Yuqoridagi ma'lumotlardan foydalanib, quyidagi qaysi xulosa to'g'ri ekanini toping. Savolga o'quvchilar quyidagicha javob bildirgan: "Ertaga shanba kuni" javobiga 54%, "Habiba dori ichgan" javobiga 32%, "Bugun chorshanba kuni" 14% o'quvchilar.

7-savol. Aziza bir chorak qo'ziqorinli va ikki chorak pishloqli pitsani 350 so'mga sotib oldi. Dilshod 4 chorak qo'ziqorinli pitsani 600 so'mga oldi. Bitta pishloqli pitsaning narxi qancha? Savolga o'quvchilar quyidagicha javob bildirgan: "400" javobiga 10%, "200" javobiga 78%, "100" javobiga 12% o'quvchilar.

8-savol. Salima xolaning hovlisida nok daraxtlari bor va u noklardan murabbo tayyorlamoqchi bo'ldi. Bir banka murabbo tayyorlash uchun 11 dona nok kerak bo'ladi. Agar 1 chi daraxtdan 9 dona 2 chi daraxtdan 12 dona, 3 chi daraxtdan avvalgi ikki daraxt mevalarining umumiy sonidan ko'ra 3 marta kam meva, 4 chi daraxtdan 3 chisiga nisbatan 2 dona kam hosil olingan bo'lsa, nechta bankada nok murabbosi tayyorlash mumkin? Savolga o'quvchilar quyidagicha javob bildirgan: "5" javobiga 18%, "3" javobiga 76%, "2" javobiga 6% o'quvchilar.

9-savol. Sardor aytdi Odil yolg'on gapiradi. Odil aytdi Toxir yolg'on gapiradi. Toxirning aytishicha, Odil yolg'on gapiradi. Sarvar aytdi Sardor yolg'on gapiradi. Bu to'rtta bola qancha

yolgʻon gapirdi. Savolga oʻquvchilar quyidagicha javob bildirgan: “2” javobiga 4%, “4” javobiga 6%, “3” javobiga 90% oʻquvchilar.

10-savol. 1-sinfning eng kichik oʻquvchisi 20 qadam masofani bosib oʻtmoqchi, u ikkitadan oldinga bosganda bir qadam ortga tashlaydi. U bir qadamni bosishga 1 sekunt vaqt sariflasa 20 qadam oldinga yurishga qancha vaqt sariflaydi. Savolga oʻquvchilar quyidagicha javob bildirgan: “56” javobiga 10%, “53” javobiga 6%, “54” javobiga 84% oʻquvchilar.

Taʼlim jarayoniga ilgʻor texnologiyalarni qoʻllash orqali iqtidorli yoshlarni tarbiyalash va oʻqitish, ragʻbatlantirish hamda kelgusida ularni salohiyatini qoʻllab-quvvatlash. Shuningdek, oʻquvchilarni kasb-hunarga yoʻnaltirish, yetakchilik koʻnikmalari va notiqlik mahoratini rivojlantirish, matematika fanidan oʻquvchilarga hayotiy va kundalik faoliyatida uchraydigan masalalarni yechimini topishga oʻrgatish bilan ularning tanqidiy va kreativ fikrlashlari, oʻzi-oʻzini boshqarish, hayotida muammolarga duch kelsa, muammoni samarali hal eta olish koʻnikmalari axborotni izlash, tahlil qilish va qayta ishlash, olingan bilimlarni amaliyotda qoʻllash kabi koʻnikmalarni shakllantirishdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abduvaliyev Nurillo Abduljalilovich. Oʻquvchilarni kundalik amaliyotida uchraydigan masalalarni yechishga oʻrgatish. SCIENTIFIC PROGRESS. VOLUME 2 | ISSUE 8 | 2021. ISSN: 2181-1601

2. Akramjon Oʻktamjonovich Mirzayev. Oʻquvchilarning raqamli dunyoda oʻrganish konsepsiyasi boʻyicha savodxonligini rivojlantirish. SCIENTIFIC PROGRESS. VOLUME 2 | ISSUE 8 | 2021. ISSN: 2181-1601

3. Akramjon Oʻktamjonovich Mirzayev, Odina Davronbek qizi Pozilova. Boshlangʻich sinf oʻquvchilarning oʻqish savodxonligini oshirishda pirls tadqiqotining ahamiyati. SCIENTIFIC PROGRESS. VOLUME 3 | ISSUE 3 | 2022

MALAKA OSHIRISHDA ZAMONAVIY AXBOROT KOMMUNIKATSION TEXNOLOGIYALARIDAN SAMARALI FOYDALANISH

Kozim Eshquvatov

Sirdaryo VXTXQTMOHM dotsenti

Taʼlim mazmuni va sifati masalalari jamiyatda ustuvor yoʻnalish sifatida koʻrilmoqda. Taʼlimni rivojlantirish, uning samaradorligini oshirish yoʻllari izlanmoqda, taʼlimda yangi axborot texnologiyalarning joriy etish masalasi ommalashmoqda. Bu esa, pedagoglarning oʻz mehnat faoliyatiga yangicha yondashuvini talab etadi. Oʻquv jarayonida yangi texnologiyalarning joriy etishishi, oʻqituvchini texnikaviy vositalar tomonidan siqib chiqarishga emas, balki oʻqituvchining roli va vazifalarini oʻzgartiradi.

Darsda kompyuterdan foydalanish oʻqitish jarayonini qiziqarli olib borish, har bir tinglovchi individual yondashish imkonini beradi. Axborot- kommunikatsiya texnologiya (AKT)lari imkoniyatlari orqali tinglovchi juda koʻp maʼlumotlarni olish imkoniyatlariga ega boʻladi. Maʼruza, amaliyot va laboratoriya mashgʻulotlarini AKTlar yordamida tashkil etishda fanga tegishli har bir mavzu boʻyicha fan oʻqituvchisi tomonidan alohida dars ishlanmasi (senariy) ishlab chiqilishi lozim. Ishlanma asosida oʻqituvchi tomonidan rejadagi barcha mavzularga oid bayon etilishi lozim boʻlgan nazariy va amaliy maʼlumotlar hamda laboratoriya mashgʻulotlariga tegishli topshiriqlar toʻplamini elektron taqdimot shakli tayyorlanadi.

Dars ishlanmalariga taqdimot slaydlar tayyorlanib, videoproektorlar orqali tinglovchilarga tushuntirilsa maqsadga muvofiq boʻladi. Taqdimotda qoʻshimcha adabiyotlardagi rasmlarni, aniq jarayonlarni aks etgiruvchi tasvirlar, internetdagi maʼlumotlardan katta elektron ekranda koʻrsatib tushunchalar berilsa, axborot taʼlim resurs portallaridan foydalanilsa, tinglovchilarning bilim va malakalari yanada boyitiladi, shuningdek darsga boʻlgan qiziqishlari yanada ortadi. Shundan sung fan oʻqituvchisi darsga tayyorgarlik koʻrish jarayonida mavzuni tinglovchi (oʻquvchi)larga AKT vositalaridan qanday va qaysi vaqtda foydalana olishligini texnologik xarita (oʻqituvchi faoliyatining algoritmi)ni dars ishlanmasida rejalashtirilishi kerak boʻladi.

Fan o'qituvchisiga fanga oid mukammal mustaqil ta'lim olishga mo'ljallangan elektron o'quv adabiyoti (darslik) yuzaga keladi, elektron multimediali darslik nafaqat matnli va ko'rgazmali balki, ovozi, animatsiyali ham bo'lishi mumkin. Tajribalardan ma'lumki, matnni o'qish orqali tinglovchi (o'quvchi) - 12%ni, ko'rgazmali bo'lsa 25%dan yuqori, matnli, ko'rgazmali va ovozi bo'lsa 75% va undan yuqori darajada o'zlashtirishga erishiladi.

Bularning hammasi ta'lim mazmunining samaradorligini oshirish maqsadida respublika ta'lim muassasalarida yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish, o'quv rejalariga kiritilgan fanlarni yangi interfaol usul va vositalaridan foydalangan holda o'tkazishga, jumladan, masofadan turib o'qitish, kompyuterlashtirilgan anjumanlar o'tkazish, elektron darsliklarni yaratish va ularni o'quv-tarbiya jarayonida qo'llashga qaratilgan tadbirlardir.

O'quv jarayonida ma'ruza, amaliy-laboratoriya mashg'ulotlaridan AKTning imkoniyatlaridan samarali foydalanish bo'yicha modelni va ayrim dasturiy ta'minot hamda texnologiyalari imkoniyatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni keltirib o'tamiz.

Elektron o'quv-majmualar

- Elektron darslik
- Elektron o'quv qo'llanma
- Elektron ma'lumotnoma
- Elektron entsiklopediya
- Elektron lektsiya
- Elektron plakat
- Elektron masalalar to'plami
- Elektron laboratoriya
- Elektron testlash
- Davriy elektron o'quv nashrlar

O'quv jarayonida axborot kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash orqali ta'lim jarayonining samaradorligi, sifati va unumdorligi oshishni, zamonaviy o'quv manbalari elektron o'quv darsliklarini keng qo'llash ularni kutubxonalarini tashkil etish, ta'limning masofadan o'qitish usullarini amalda joriy etish hamda umumjahon elektron o'quv tizimiga kirishi imkoniyati oshiradi.

O'QITUVCHILARGA AXBOROT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH ASOSLARI

*Kozim Eshquvatov, Shoira Nizomova
Sirdaryo VXTXQTMOHM dotsenti,
Nizomiy nomidagi davlat pedagogika instituti*

Ta'lim tizimini har tamonlama rivojlantirish, takomillashtirish va axborotlashtirish ta'lim jarayonida yangi axborot texnologiyalarini qo'llash, talabalar axborot kompetentligini shakllantirish uchun Internet resurslaridan foydalanishni nazarda tutadi. Bu esa o'z navbatida oliy o'quv yurtidagi professor- o'qituvchilaridan yuksak axborot madaniyatini taqozo etadi.

Bugungi kunda bunday axborot madaniyati professor-o'qituvchi kasbiy madaniyatining ajralmas qismi hisoblanadi. O'qituvchilarning axborot madaniyati deganda, avvalombor, axborotni qabul qilish uni qayta ishlash va qo'llash usul va uslublarini o'zlashtirganlikni bildirgan bo'lib atrofda olamdagi axborot jarayonlari haqidagi bilim va tasavvurlarini aks ettiruvchi, axborot-kommunikatsiya vositalarini qo'llash ko'nikmalariga ega bo'lish, axborot-kommunikatsiya tizimi bilan bog'liq axloqiy va yuridik me'yorlarini o'zlashtirish, kompyuter savodxonlikka ega bo'lish kabi fazilatlarini o'z ichiga kiritadi.

O'qituvchining kompetentligi kompyuter savodxonligini hamda axborotni izlab topish ko'nikmalariga ega bo'lishlikni, axborotdan foydalanish va uni baholay olish, kompyuter-kommunikatsiyalari texnologiyalarini o'zlashtirishni bildiradi.

Zamonaviy axborot resurslari o'qituvchiga o'z kasbiy faoliyatini butunlay yangicha qurishga imkon beradi. Bu holda o'qituvchi quyidagi sifatlarda o'zini ko'rsata oladi:

- O'qituvchi sifatida darslarni o'tkazadi, o'quv -uslubiy ta'minotdan to'g'ri va samarali

foydalanishni ta'minlaydi;

- Maslahatchi sifatida bilish jarayonini nazorat qiladi, guruhlarda maslahat soatlari. Kommunikativ mashg'ulotlar olib boradi, talablarga fanning turli muommolari bo'yicha maslahat beradi;

- Menejer sifatida guruhlarda mashg'ulotlarni o'tkazishni bo'shqaradi, fan maqsadlariga erishishni nazorat qiladi (test, imtihon va b.)

Oliy o'quv yurtlarining axborot -kompyuter vositalari bilan ta'minlanganligi nafaqat professor-o'qituvchilar, balki bakalaviriyat va magistraturada tahsil olayotganlarning kompyuter savodxonligini oshirib bormoqda. Endilikda bilim olish jarayonini takomillashtirish, axborot mahsulotlarini yaratish, o'quv dasturlari, elektron darsliklar va qo'llanmalar yaratish o'qituvchilar axborot kompetentligini rivojlantirishdagi muhim qadam bo'lmoqda. Bugungi kunda bitiruvchilarning kasbiy kompetentligini oshirish uchun o'qituvchi talabalarni tadqiqot ishlariga jalb etishi, ta'lim portallarini yaratishda ularni faol ishtirok etishga qiziqitirishi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bundan tashqari mashg'ulotlar davomida multimediya taqdimodlarini yaratish va ulardan foydalanish axborot - kompetentlik darajasini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Fan o'qituvchisi multimediya ma'ruzalarini, topshiriqlar, testlar, krossvordlar va boshqa turli -tuman materiallarini tuzishi. Bu ishga talabalarni jalb etish mumkin. Kompyuterdagi ma'ruza yoki elektron darslik o'zida namoyish vositalari (slaydlar, videoroliklar, animatsiya)ni jamlagan bo'lib, talablarda obrazli taasavurlar va tushunchalarni shakllantirishga yordam beradi. Fan bo'yicha o'quv -namoyish materiallarni yaratish va to'plash jarayoniga o'qituvchi talabalarni jalb qilishi mumkin. Ayniqsa talabalar mustaqil ishlarni bajarish davomida turli axborot resurslaridan kerakli materiallarni izlab topib. Taqdimot tariqasida himoya qilishlari mumkin. Bunday faoliyat talabalarning bilim olishda faolligini, mustaqilligini taminlaydi.

Bugungi kunda zamonaviy ta'limda Internet resurslarisiz tasavvur qilish qiyin. Internet tarmog'i ta'limiy xizmatlarining ulkan saloyxatiga ega. Elektron pochta, qidiruv tizimlari, elektron konfrensiyalar, testinglar, elektron olimpiada va viktorinalar zamonaviy ta'lim tizimining ajralmas qismi bo'lib qolmoqda. Ushbu ta'limiy xizmatlar mashg'ulotlarda ham qo'llanilishi mumkin. Internetdagi ta'lim resurslaridan foydalanish fan o'qituvchisidan ta'lim jarayonidan menejeri sifatida maydonga chiqishiga turtki beradi.

O'qituvchi axborot madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish ta'limini modemiatsiyalash jarayonining ajralmas qismidir. Kompyuterda ishlay olish ko'nikmalariga ega bo'lish, o'qituvchi kasbiy axborot faoliyatidagi dastlabki qadam hisoblanadi. Pedagogik faoliyat tuzilmasida axborot madaniyatini rolini oshirish quyidagi omillarga bog'liq bo'ladi;

-Axborot hajmining keskin oshib borishi;

-Zamonaviy fanning -defferesnsiyasi va integratsiyasi natijasida axborotning tarqalib ketishi;

-Ilmiy va ijtimoiy paradigmalarning o'zgarishi natijasida bilimlarning eskirib borishi.

O'qituvchi axborot kompetentligining asosiy korinishlaridan biri uning o'z tajribasini taqdim eta olish qobiliyatidir. O'qituvchilar ishchi dasturlari, hisobotlar va boshqa hujjatlarni kompyuterda tayyorlay olishi, ularni innovatsiyalariga tayyor bo'lgan malakali mutaxassis sifatida tavsiflaydi.

Umuman olganda esa yangi axborot kommunikatsiya texnologiyalarining o'quv jaiyonida tadbiq etishi an'anaviy texnologiyadan vos kechish kerakligini bildirmaydi. Ular o'zaro hamjihatlikda qo'llanilishi lozim. Kompyuter vositalari va axborot texnologiyalari ta'lim-ta'rbiya jarayoniga katta tasir ko'rsatadi, uning faolligini oshiradi.

KIMYO FANINI O'QITISHDA QO'LLANILADIGAN INNOVATSION TEKNOLOGIYALAR

Boyzoqova Ma'rifat To'rabekovna

Sirdaryo viloyati Boyovut tumani 7-maktab kimyo fani o'qituvchisi

Annotasiya: Ushbu maqolada kimyo fanini o'qitishda kompetentsiyaviy yondashuvni shakllantirish va rivojlantirishda qo'llaniladigan masalalarni innovatsion texnologiyalar asosida yechish yo'llari haqida fikrlar keltirilgan:

Kalit soʻzlar: *Innovatsion texnologiyalar, Interfaol metodlar, Keys-stadi texnologiyasi,*

INNOVATIVE TECHNOLOGIES USED IN TEACHING CHEMISTRY

Boyzokova Marifat Turabekovna. Chemistry teacher in 7th school, Boyovut district, Syrdarya region.

Annotation: *This article provides ideas on how to solve problems based on innovative technologies used in the formation and development of a competency-based approach to teaching chemistry.*

Key words: *Innovative technologies, Interactive methods, Case-study technology*

Hozirgi kunda umumiy oʻrta taʼlim maktablarida taʼlim olayotgan oʻquvchilar kimyo sanoatining har qanday sohaga kirganligini bilgan holda, mazkur fanning asoslarini bilishi, taʼlim olishi, yashashi va ishlashi uchun zarur koʻnikmalarni shakllantirish dolzarb masalaga aylanganligini his qilishi zarur.

Zamonaviy sharoitda oʻquvchilarning oʻquv-bilish faolliklarini kuchaytirish, oʻqitish sifatini oshirish va samaradorligini yaxshilash maqsadida innovatsion xarakterga ega taʼlim shakllaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bugungi kunda amaliy oʻyinlar, muammoli oʻqitish, interfaol taʼlim, modul-kredit tizimi, masofali oʻqitish, blended learning (aralash oʻqitish) va mahorat darslari taʼlimning innovatsion shakllari sifatida eʼtirof etilmoqda.

Respublika taʼlim muassasalarida innovatsion taʼlimni tashkil etishda quyidagi eng ommaviy texnologiyalar qoʻllanilmoqda:

Interfaol metodlar: “Keys-stadi” (yoki “Oʻquv keyslari”), “Blitssoʻrov”, “Modellashtirish”, “Ijodiy ish”, “Munosabat”, “Reja”, “Suhbat” va b.

Strategiyalar: “Aqliy hujum”, “Bumerang”, “Galereya”, “Zig-zag”,

“Zinama-zina”, “Muzyorar”, “Rotatsiya”, “T-jadval”, “Yumaloqlangan qor” va h.k.

Soʻnggi vaqtlarda “Keys-stadi” metodi xorijiy mamlakatlar taʼlimi amaliyotida muvaffaqiyatli qoʻllanib kelinmoqda va bugungi kunda respublika taʼlimida ham tobora ommalashib bormoqda. Shu sababli ayni oʻrinda ushbu metod (texnologiya)mohiyati haqida soʻz yuritiladi.

Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqea-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Mazkur metod muammoli taʼlim metodidan farqli ravishda real vaziyatlarni oʻrganish asosida aniq qarorlar qabul qilishga asoslanadi. Agar u oʻquv jarayonida maʼlum bir maqsadga erishish yoʻli sifatida qoʻllanilsa, metod xarakteriga ega boʻladi, biror bir jarayonni tadqiq etishda bosqichmabosqich, maʼlum bir algoritm asosida amalga oshirilsa, texnologik jihatni oʻzida aks ettiradi

“Keys-stadi” metodining oʻziga xos xususiyatlari

-Izlanishga doir faoliyatning mavjud boʻlishi.

-Jamoaviy va guruhlarda oʻqitish.

-Individul, guruhli va jamoaviy ish shakllari integratsiyasi.

-Xilma-xil oʻquv loyihalarini ishlab chiqish.

Masalan:

Keys bayoni.

Oʻzbekiston oʻz er osti boyliklari bilan haqli suratda faxrlanadi, bu erda mashhur Mendeleev davriy sistemasining deyarli barcha elementlari topilgan. Hozirga qadar 2,7 mingdan ziyod turli foydali qazilma konlari va maʼdan namoyon boʻlgan istiqbolli joylar aniqlangan. Ular 100 ga yaqin mineral - xom ashyo turlarini oʻz ichiga oladi. Shundan 60 dan ortigʻi ishlab chiqarishga jalb etilgan. 900 dan ortiq kon qidirib topilgan boʻlib, ularning tasdiqlangan zahiralari 970 milliard AQSh dollarini tashkil etadi. Shu bilan birga, umumiy mineral - xom ashyo potentsial 3,3 trillion AQSh dollaridan ortiq baholanayotganini ham aytib oʻtish kerak.

Keys savollari:

Mamlakatimizda rangli metallar rudalaridan mis, oltin va kumushning zahiralari haqida malumot bering.

Mamlakatimizda oltin, uran, mis, volfram, qoʻrgʻoshin, rux va shu guruhlariga kiruvchi boshqa eng muhim foydali qazilmalarning tasdiqlangan zahiralari va ularning koʻpaytirish istiqbollari MDH da tutgan oʻrni haqida nima deya olasiz?

Konlarni oʻzlashtirishni jadallashtirish boʻyicha Avstraliya kompaniyasining oʻrni qanday ?

O'qituvchining javobi:

Mamlakatimiz metall qazilmalarga ayniqsa, rangli metallar rudalariga boy. Bu o'rinda oltin, kumush, qo'rg'oshin, rux, mis hamda er bag'rida kam uchraydigan metallar zahiralari juda katta ekanligini aytib o'tish zarur. Hozirgi vaqtda 40 ta qimmatbaho metall konlari qidirib topilgan.

Qimmatbaho rangli va radioaktiv metallar tarkibida birga uchraydigan foydali komponentlar sifatida kamyob va nodir elementlarning kattagina miqdordagi zahiralari jamlanganki, bu ularning qiymatini ancha oshiradi.

Mamlakatimiz oltin, uran, mis, volfram, qo'rg'oshin, rux va shu guruhlariga kiruvchi boshqa eng muhim foydali qazilmalarning tasdiqlangan zahiralari va ularning ko'paytirish istiqbollari bo'yicha nafaqat MDH mamlakatlari o'rtasida, balki butun dunyoda etakchi o'rinlardan birini egallaydi. Masalan, oltinning tasdiqlangan zahiralari bo'yicha O'zbekiston dunyoda 4-o'rinda, uni qazib chiqarish bo'yicha 7- o'rinda turadi.

O'zbekiston dunyoda ulkan oltin resurslariga ega bo'lgan mamlakatlar qatoriga kiradi, 41 ta oltin koni, shu jumladan 33 ta oltin- ma'dan koni qidirib topildi. Evrosiyo qit'asida eng yirik hisoblangan Muruntov koni jahondagi ulkan konlar qatoriga kiradi.

Samarqand viloyatida oltin ma'danli Zarmitan va boshqa oltin konlari axtarib topildi. Shu konlarni o'zlashtirishni jadallashtirish bo'yicha o'tkazilayotgan tenderda dunyoda katta nufuzga ega bo'lgan Avstraliya kompaniyasi g'olib deb topildi. Toshkent viloyatining Angren shahri yaqinida infratizimi yuksak darajada rivojlangan Qizilolmasoy va Ko'chbuluq konlari topildi. Endilikda, ushbu konlarda cheklangan hajmda qazib chiqarish ishlari olib borilmoqda. Ana shu konlarni o'zlashtirish bo'yicha o'tkazilgan xalqaro tenderda mashhur Yaponiya kompaniyalari g'olib chiqishdi. Keyingi yillarda jahondagi eng yirik oltin rudali mintaqqa Qizilqumda Ajibugut, Bulutkon, Balpantov, Aristantov, To'rboy singari yangi konlar qidirib topilmoqda va o'rganilmoqda.

Har o'qituvchi keys-stadiga asoslangan o'quv topshiriqlarining puxta asoslanishiga erisha olishi lozim. Keys topshiriqlarining amaliy didaktik xarakterga ega bo'lishi uchun ularni ishlab chiqishda quyidagilarga e'tiborni qaratish talab etiladi:

Tahliliy ko'nikmalar (ma'lumotlarni axborotlardan ajrata olish, ularni turkumlashtirish, ma'lumotlarni zarur va nozarurga ajratish, tahlil qilish, taqdim etish; buning uchun shaxs aniq, mantiqiy fikrlay olishi kerak).

Amaliy ko'nikmalar (muammoning murakkabligidan kelib chiqib, real vaziyatni tahlil qila olish, eng muhim nazariya, metod va tamoyillarni qo'llay bilish).

Ijodiy ko'nikmalar (bunda mantiqiylik asosida vaziyat (muammo)ni yechish muhim emas, balki ijodiy yondashuv asosida muammoning bir necha yechimlarini topish va ularni tahlil qilish talab etiladi).

Muloqot ko'nikmalari (unga ko'ra talaba bahs-munozara olib borish, o'z nuqtai nazarini himoya qilish, qaroriga boshqalarni ishontirish, juda qisqa va ishonarli hisobotni tayyorlash ko'nikmalarini o'zlashtira bilishi zarur).

Ijtimoiy ko'nikmalar (qarorni muhokama qilish jarayonida o'quvchilar boshqalarning xatti-harakatini tahlil qilish, boshqalarni tinglay bilish, bahsda o'zgalarning fikrlarini qo'llab-quvvatlash, ilgari surilgan fikrga qarama-qarshi fikrni bildirish olish va o'zini boshqara olishi lozim).

Xulosa qilib aytganda kimyo darslari samaradorligini oshirishda innovasion texnologiyalardan foydalanish o'quvchilarning kimyo faniga bo'lgan kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 aprel 187-sonli "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori

2.Ishmuxamedov R.J., Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar.— T.: "Nihol" nashriyoti, 2013, 2016.—279b.

3.Xolmatova D.B. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida kimyo fanini o'qitishni takomillashtirish texnologiyalari. "Yangi nashr" Toshkent-2016

4.O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi: www.uzedu.uz.

TA'LIM JARAYONIDA PEDAGOGDA MOSLASHUVCHANLIKNING AHAMIYATI

Bazarbekova Barno, Mamaraimova Munira
Sirdaryo tumani 21 sonli maktab,
Guliston tumani 30 maktab

Annotatsiya: Mazkur maqolada pedagogning moslashuvchanligi, uning xususiyatlari, rivojlantirilishi lozim bo'lgan ko'nikmalar va olingan natijalar haqida fikrlar olib borilgan.

Kalit so'zlar: kognitiv moslashuvchanlik, moslashish, ko'nikmalar, elektron o'qitish muhiti, onlayn ta'lim.

Аннотация: В данной статье рассматривается гибкость воспитателя, его особенности, навыки, которые необходимо развивать, и полученные результаты.

Ключевые слова: когнитивная гибкость, адаптивность, навыки, электронная обучающая среда, онлайн-обучение

Annotation: This article discusses the flexibility of the educator, his or her characteristics, the skills that need to be developed, and the results obtained.

Key words: cognitive flexibility, adaptability, skills, e-learning environment, online learning.

Pedagogik moslashuvchanlik - bu o'qituvchining vaziyat va vazifaga mos kelmaydigan xatti-harakatlardan, fikrlash va hissiy javob usullaridan osongina voz kechish qobiliyatini aniqlaydigan mazmun va dinamik xususiyatlarni birlashtirgan murakkab ko'p qirrali aqliy ta'lim. o'zgarmas tamoyil va tamoyillar bilan muammoli vaziyat.hayotning axloqiy asoslari. Moslashuvchanlik o'qituvchi shaxsining ajralmas xususiyati sifatida unga o'zgaruvchan atrof-muhit sharoitlarida keng ko'lamli kasbiy va hayotiy muammolarni muvaffaqiyatli hal qilish imkoniyatini beradi (L. M. Mitina, 2004).

Pedagogik moslashuvchanlikning tuzilishi (L. M. Mitinaga ko'ra) uch turni o'z ichiga oladi:

- hissiy;
- intellektual;
- xulq-atvor.

O'qituvchining haqiqiy hayotida hissiy, intellektual va xulq-atvorning moslashuvchanligi biri-biri bilan chambarchas bog'liq va o'zaro bog'liq bo'lib, pedagogik moslashuvchanlik strukturasini ishlab chiqish ilmiy tahlil qilish va keyinchalik o'qituvchi bilan tuzatish ishlari yo'lini aniqlash uchun zarurdir.

Butunjahon iqtisodiy forumi (WEF) kognitiv moslashuvchanlikni ish joyida muvaffaqiyatga erishish uchun zaruriy ko'nikmalarning asosiylaridan biri sifatida belgiladi [3].

Kognitiv moslashuvchanlik atamasining turlicha talqinlari tahlili asosida mazkur nazariyaning asoschisi R. Spironing ta'rifi aniq va muvaffaqiyatli ekanligini e'tirof etish mumkin. Tadqiqotchi kognitiv moslashuvchanlikni "keskin o'zgaruvchan vaziyat talablariga mos ravishda o'z bilimlarini turli munosabatlarda qo'qqisdan qayta tuzish qobiliyati" sifatida ifodalaydi hamda bilim olishning asosiy funktsiyalaridan biri, deb uqtiradi [2]. Kognitiv moslashuvchanlik nazariyasi o'qitish aniq bo'lishini, bilimlarni loyihalash va o'quvchilarga axborotlar haqida shaxsiy tasavvurlarini rivojlantirishga imkoniyat yaratilishi lozimligiga urg'u qaratadi.

Ta'limning uzluksiz rivojlanib borishi uning falsafasi, paradigmalari va qadriyatlarining o'zgarishini, o'qitish texnologiyalariga bo'lgan noan'anaviy munosabatlarni taqozo qilar ekan, bu jarayonning asosiy ishtirokchisi bo'lgan pedagogning ham kognitiv moslashuvchanligi tobora muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, mazkur o'zgarishlar har bir pedagogda o'zining kompetentligi, kreativligi, mustaqilligini rivojlantirish, ta'lim innovatsiyalarini tahlil qilgan holda o'z faoliyatiga tatbiq etishi, shuningdek, kasbiy tayyorgarligini uzluksiz oshirib borishi uchun mavjud sharoitlarga tez moslashishini ustuvorlik sifatida belgilaydi.

Kognitiv moslashuvchanlik o'qituvchining turli pedagogik vaziyatlarda o'zining bilimi, tajribasi va intellektual qobiliyatlarini samarali qo'llash, faoliyatiga doir qo'yilgan maqsadga erishish uchun o'zini to'liq safarbar qilishni nazarda tutadi. Dj. Braun va E. Langer ta'rifida kognitiv moslashuvchanlik individning shaxsiy tajribasiga xilma-xil ma'no baxsh etishi va atrof-muhit bilan ko'p tomonlama aloqaga kirishish qobiliyati shaklida ifodalanadi. D. Zavalishina esa

moslashuvchanlikni o'z kasbini ustasi bo'lgan shaxsning fundamental xususiyati sifati baholaydi [1]. Demak, o'qituvchi yuqori professional darajada faoliyat yuritishi uchun doimiy ravishda bilimlarini rivojlantirishi va ixtiyoriy vaziyatlarda undan samarali foydalani olishi uning kognitiv moslashuvchanlik darajasini ko'rsatadi.

Pedagogning kognitiv moslashuvchanlik darajasi unda quyidagi ko'nikmalarning rivojlanishi zarurligini bildiradi:

- o'zgarishlarga, yangi yoki kutilmagan vaziyatlarga tezkor moslashish;
- hamkasblar va o'quvchilar bilan umumiy fikrga kela olish va samarali o'zaro ta'sirga kirishish;
- muammoli vaziyatlarni avvaldan ko'rish, ularni hal qilish, alternativ yondashuvlarni taklif qilish, kommunikativ qobiliyatlarini namoyon qilish;
- uzluksiz kasbiy rivojlanish traektoriyasini mustaqil qura olish;
- faoliyatini to'g'ri tahlil qilish, zarur hollarda o'zgartirishlarni og'riqsiz kiritish va o'zgalarning nuqtai nazarlarini qabul qilish;
- o'z oldiga jiddiy maqsadlar qo'yish, ularni amalga oshirish, o'ziga va atrofida qilargalarga motivatsiya bera olish;
- hissiy va intellektual zo'riqlashlarni baholay olish va ularga doimiy tayyorlik;
- ijodkorlik, ijobiy yo'nalganlik, yangi g'oyalar ishlab chiqish, amalga oshirish va boshqalarni ishonitirish.

Shu o'rinda kognitiv moslashuvchanlikni rivojlantirishning asosiy tamoyili umr davomida ta'lim olish (LLL) ekanligini yodda tutish zarur. Chunki bu tamoyil Mening pedagogik missiyam nimadan iborat? Men yana nimalarni bilmayman yoki bilishim zarur? Hayotimda yoki faoliyatimda yana qanday bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishim kerak? Men o'zimni qanday rivojlantiraman va namoyon qilaman? kabi savollarga javob berish imkonini beradi. Ya'ni, faqatgina yangi bilimlarni uzluksiz ravishda egallash orqaligina pedagog kognitiv moslashuvchan holatda qolishi, samarali qarorlar qabul qilishi va professionalizmini rivojlantirishi mumkin.

Pedagogning kognitiv moslashuvchanligi zaruriyatini bir misolda ko'rib chiqamiz. Butun dunyoga xavf solib turgan pandemiya sharoitida ta'lim sohasi o'zining an'anaviy o'qitish tizimiga o'zgartirishlar kiritishga majbur bo'ldi. O'qitishning bizning mamlakatimizda etarlicha rivojlanmagan elektron o'qitish, onlayn o'qitish va teleo'qitish shakllariga murojaat etilishi nafaqt tegishli shart-sharoitlar yaratish, balki tizimda faoliyat yuritayotgan pedagog xodimlarning ham axborot kommunikatsiya texnologiyalari bilan ishlash ko'nikmalarining tezda rostdlash zarurligini ko'rsatdi.

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, pedagogda kognitiv moslashuvchanlikning rivojlanmaganligi ish jarayonida qiyinchiliklarning yuzaga kelishiga, kasbiy faoliyati samaradorligini tushishi, innovatsiyalarni qabul qila olmasligi, o'quvchilar bilan o'zaro aloqalarda murakkabliklar paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Bu holat o'quvchilarning barkamol, mustaqil, tanqidiy tafakkurli va raqobatbardosh bo'lib shakllanishiga to'sqinlik qilish bilan birgalikda o'qituvchida inertlik, rigidlik, konservativlik, kasbiy rivojlanishda qotib qolish va inqirozni olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Zavalishina D.N. Prakticheskoe mo'shlenie: spetsifika i problema' razvitiya. – M.: Izd-vo «Institut psixologii RAN», 2005. – 376 s.

2. Cognitive Flexibility Theory (Spiro, Feltovitch & Coulson). – URL: <https://www.instructionaldesign.org/theories/cognitive-flexibility/>(murojaat vaqti: 5.12.2020).

INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING GEOGRAFIYA FANIDA TUTGAN O'RNI

*Miravitova Sayyora Isomuddinovna, Aslonova Sevara Bahodirovna
Boyovut tumani 8-umumiy o'rta ta'lim maktabining Geografiya fani o'qituvchisi,
Guliston shahar 6-maktab geografiya fani o'qituvchisi
miravitovasayyora8274@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktablarda va boshqa ta'lim muassasalarida geografiya fanining o'qitishda yangicha metodlar, innovatsiyalar va g'oyalar bilan ishlash to'g'risida gap boradi.

Аннотация: В данной статье рассматриваются новые методы, инновации и идеи преподавания географии в школах и других учебных заведениях.

Annotation: This article discusses new methods, innovations, and ideas for teaching geography in schools and other educational institutions.

Bugungi kunda barcha sohalarida innovatsion g'oyalar, fikrlar kirib kelib ulgurgan. Bu jarayon ta'lim sohasida ham o'z ta'sirini ko'rsatgan holda, barcha fanlar tizimida yangiliklar, dars o'tishning yangi usullari, yangi pedagogik texnologiyalar orqali darsning sifati, mazmuni va jozibadorligi oshirish muxim masala bo'lib qolmoqda. Hozirda mamlakatimizning barcha maktablarida o'z ish faoliyatini olib borayotgan ustoz va murabbiylar zamonaviy o'qitish usulublarini qadamma-qadam yaratib bormoqdalar, shuningdek, geografiya fanida ham hozirda darslarni tashkil etishda turli xil metodlar yaratilmoqda, ammo shuni ham ta'kidlash joizki, geografiya fanini boshqa fanlar bilan taqqoslaganda o'qitish usullari, metodlar dars jarayonlari ortda qolganligi sezilib turadi, bunga birgina bizning fanimizga kirib kelayotgan yangi innovatsion metodlar boshqa yetakchi fanlarda ancha oldin ildamlab ketganini ko'rsak bo'ladi. Geografiya o'qituvchisi 45 daqiqalik dars jarayonida ana'naviy dars metodlaridan foydalanib, shu bilan birga innovatsion pedagogik texnologiyalarni, turli xil pedagogik o'yinlarni, ya'ni ana'naviy dars metodlari bilan birga yangi dars o'tish usullarini uyg'unlikda dars jarayoniga moslashtira olishi zarur[1]. Hozirgi kundagi jadal rivojlanib borayotgan fanlar tizimi va kuchli raqobat bo'layotgan bir davrda geografiya fanining o'z o'rnini saqlab qolishi geografiya ustozlari va murabbiylariga bog'liq bo'lib qolganligi, ustozlarimizning yangi dars o'tish usullari, yangi metodik loyihalarni o'rganib, geografiya faniga qo'llay olishi fanimizning eng katta yutuqlaridan biri bo'lib qoladi degan umid bor, zero o'quvchilarning bilish faoliyatini takomillashtirish va ta'lim samaradorligini oshirishga imkon beradigan yangi pedagogik texnologiyalar o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ta'lim jarayonidagi yangi imkoniyatlar eshigi vazifasini ham o'taydi. Shundan kelib chiqib aytadigan bo'lsak geografiya o'qituvchilarimiz yanada ko'proq izlanishga va yangicha metodlarda dars o'tishdek mas'uliyat yuklatiladi. Bunda o'qituvchilrimizning kreativ g'oyalari, innovatsion texnologiyalarni qo'llay olish mahoratlariga qaratiladi. 45 daqiqalik darslarni bo'lib billts savollar, pedagogik o'yinlar yaratib o'quvchilarni rag'batlantirish zarur. Aynan qanday o'yinlar deganda "Blits-o'yin" texnologiyasi, "Bumerang" texnologiyasi, "6x6x6" metodi. Shularni qo'llash orqali o'quvchilarni qiziqishini yanada oshirish mumkin.

"Bumerang" texnologiyasi. Ushbu texnologiya o'quvchilarni dars jarayonida, darsdan tashqarida turli adabiyotlar, matnlar bilan ishlash, o'rganilgan materialni yodida saqlab qolish, so'zlab bera olish, fikrini erkin holda bayon eta olish hamda bir dars davomida barcha o'quvchilarni baholay olishga qaratilgan.

Mazkur texnologiya bir dars davomida o'quv materialini chuqur va yaxlit holda o'rganish, ijodiy tushunib yetish, erkin egallashga yo'naltirilgan. U turli mazmunli xarakterga (muammoli, munozarali, turli mazmunli) ega bo'lgan mavzularni o'rganishga yaroqli bo'lib, o'z ichiga og'zaki va yozma ish shakllarini qamrab oladi hamda bir dars davomida har bir ishtirokchining turli topshiriqlarni bajarishi, navbat bilan o'quvchi yoki o'qituvchi ro'lida bo'lishi, kerakli ballni to'plashiga imkoniyat beradi.«Bumerang» texnologiyasi tanqidiy va mantiqiy fikrlashni shakllantirishga imkoniyat yaratadi; dunyoqarashni kengaytiradi, xotirani charxlaydi; g'oyalarni, fikrlarni, dalillarni yozma va og'zaki shakllarda bayon qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

"6x6x6" metodi.Ushbu metod yordamida bir vaqtning o'zida 36 nafar ta'lim oluvchini muayyan faoliyatga jalb etish orqali ma'lum topshiriq yoki masalani hal etish, shuningdek, guruhlarining har bir a'zosi imkoniyatlarini aniqlash, ularning qarashlarini bilib olish mumkin. "6x6x6" metodi asosida tashkil etilayotgan darsda har birida 6 nafardan ishtirokchi bo'lgan 6 ta guruh o'qituvchi tomonidan o'rta tashlangan muammo(masala)ni muhokama qiladilar. Belgilangan vaqt nihoyasiga yetgach, o'qituvchi 6 ta guruhni qayta tuzadi. Qaytadan shakllangan guruhlarining har birida avvalgi 6 ta guruhdan bittadan vakil bo'ladi. Yangi shakllangan guruh a'zolari o'z

jamoadoshlariga avvalgi guruhi tomonidan muammo(masala)ning yechimi sifatida taqdim etilgan xulosani bayon etib beradilar va mazkur yechimlarni birgalikda muhokama qiladilar. Eng muhimi dars ishtirokchilarining har biri qisqa vaqt davomida ham munozara qatnashchisi, ham tinglovchi, ham ma'ruzachi sifatida faoliyat olib boradi. Ushbu metod qo'llanilayotgan darslarda guruhlar bir yoki bir necha muammo(masala)ni muhokama qilishlari mumkin.

"6x6x6" metodidan ta'lim jarayonida foydalanish o'qituvchidan faollik, pedagogik mahorat, shuningdek, guruhlarni maqsadga muvofiq shakllantira olish malakasiga ega bo'lishni talab etadi. Guruhlarning to'g'ri shakllantirilmaligi topshiriq yoki vazifalarning to'g'ri hal etilmasligiga sabab bo'lishi mumkin[2].

Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va o'quvchi faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interaktiv metodlardan to'liq foydalaniladi.

Interaktiv metodlar - bu jamoa bo'lib fikrlash demakdir. Bu metodlarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o'quvchilarning hamkorlikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi[3]. Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularga quyidagilar kiradi: • o'quvchining dars davomida befarq bo'lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod etish va izlanishga majbur etishi; • o'quvchilarni o'quv jarayonida bilimga bo'lgan qiziqishlarini doimiy ravishda bo'lishini taxminlanishi; • o'quvchining bilimga bo'lgan qiziqishini mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondoshgan holda kuchaytirishi; • hamisha pedagog va o'quvchining hamkorlikdagi faoliyatini tashkillashtirish

Qo'yilgan maqsadni amalga oshirish va kafolatlangan natijaga erishish o'qituvchi va o'quvchining hamkorlikdagi faoliyati hamda ular qo'ygan maqsad, tanlangan mazmun, metod, shakl, vositaga, ya'ni texnologiyaga bog'liq. O'qituvchi va o'quvchining hamkorlikda maqsaddan natijaga erishish uchun qanday texnologiyani tanlashlari ularning ixtiyorida, chunki har ikkala tomonning asosiy maqsadi aniq: natijaga erishishga qaratilgan. Bunda o'quvchilarning bilim saviyasi, guruh xarakteri, sharoitga qarab ishlatiladigan texnologiya tanlanadi. Masalan, natijaga erishish uchun balkim, kompyuter bilan ishlash lozimdir, balkim film, tarqatma material, chizma va plakatlari, turli adabiyotlar, axborot texnologiyasi kerak bo'lar, ularning qay birini tanlash o'qituvchi va o'quvchiga bog'liq

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.K. Munavvarov "Pedagogika" Toshkent 1996
2. S.A. Usmonov "Pedagogik texnologiya asoslari" Fan va texnologiya 2015
3. Avliyakov N.X. Zamonaviy o'qitish texnologiyalari. Toshkent, 2001.-18b.
4. <https://fayllar.org>

PEDAGOGIK QOBILIYATNING AHAMIYATI

Narmetov Ibrohim Rustamjon o'g'li. Zaripova Liliya Nailevna

Zangiota tumani. 22- maktab matematika o'qituvchisi.

1- shkola. Gulistanский район.

O'zbekistonning kelajakdagi ravnaqi bugungi yosh avlodning to'laqonli tarbiyasiga ko'p jihatdan bog'liq. Har bir ota-ona o'z farzandining komil inson bo'lib etishishi uchun qayg'urishi, uni e'tiqodli va ma'rifatli qilib tarbiyalashi lozim. Ta'lim mazmunining yil sayin o'zgarib, takomillashib borishi maktab va ota-onalar oldiga yangi talablar qo'ymoqda. Ta'lim-tarbiya tizimi jamiyatimizda kechayotgan islohotlar, yangilanish jarayonlari bilan uyg'un holda rivojlanmoqda.

Pedagogik qobiliyat o'qituvchi shaxsining pedagogik faoliyat talablariga javob beradigan va ushbu faoliyatni o'zlashtirishda muvaffaqiyatni belgilaydigan individual individual psixologik xususiyatlarga qo'ng'iroq qiling.

Pedagogik qobiliyatlarni tasniflash

1. *Didaktik qobiliyat* - talabalarni o'tkazish qobiliyati ta'lim materiallari Uni moddiy va muammo bilan tanishtirib, ularga qiziqish uyg'otish, talabalarga qiziqish uyg'otish, talabalarga qiziqish uyg'otish uchun talabalarga qiziqish uyg'otish.

2. *Akademik qobiliyat* - fanning tegishli sohasidagi qobiliyat (matematika, fizika, biologiya,

adabiyot va boshqalar).

3. *Sezgir qobiliyat* - talaba, o'quvchining ichki dunyosiga, o'quvchining shaxsini va vaqtinchalik ruhiy holatlarini nozik anglash bilan bog'liq bo'lgan o'quvchi, psixologik kuzatuvga kirish qobiliyati.

4. *Nutq qobiliyatlari* - o'z fikrlarini aniq va aniq ifoda etish qobiliyati, nutq, shuningdek yuz ifodalari va pantomikachiligi.

5. *Tashkiliy qobiliyat* - Bu, avval, tashkillashtirish qobiliyati talaba jamoasi, Miting, bu qarorga ilhom bering muhim vazifalar Ikkinchidan, o'z ishingizni to'g'ri tartibga solish qobiliyati.

7. *Kommunikatsion qobiliyatlar* - bolalar bilan aloqa qilish qobiliyati, talabalarga to'g'ri yondashuvni topish, ular bilan munosib o'rnatish qobiliyati pedagogik nuqta ko'rish, munosabatlar, pedagogik xushmuomalalikning mavjudligi.

8. *Pedagogik xayol (yoki prognosast qobiliyatlar)* - Bu uning harakatlarining oqibatlarini oldindan sezib, talaba kelajakda o'quvchining ma'lum fazilatlarini bashorat qilish qobiliyatini oldindan aytib o'tishi bilan bog'liq bo'lgan talabalarning ta'lim dizaynida bu o'z harakatlarining oqibatlarini oldindan sezib turadigan alohida qobiliyatdir.

Diqqat bir vaqtning o'zida bir nechta tadbirlar o'rtasida; Bu o'qituvchining ishi uchun alohida ahamiyatga ega.

Pedagogik uslublar. Biznes uslubi - Bu individual xususiyatlar, muayyan faoliyatning o'zaro bog'liqligi, qoida tariqasida, odatda odamlar bilan o'zaro munosabatlarni jalb qilish va dinamik stereotip sifatida xizmat qilish.

Cheklov - Demokratik - o'qituvchi jamoaning mustaqilligini rag'batlantiradi. Jamoaning faoliyatini tashkil etishda o'qituvchi «tengli» ning «birinchi» mavqeini olishga harakat qiladi.

✓ Konfiguratsiya (liberal). Ta'lim va ishlab chiqarish jarayoniga xos bo'lganligi, bu sodir bo'layotgan narsalar uchun javobgarlikdan voz kechish.

✓ Qo'shimcha tasnif

✓ Improvizatsiya uslubi. Bu yo'nalishni asosan o'quv jarayoniga kiritadi, natijada emas: materialning qiziqarli tanlovi, ammo takrorlash va birlashtirishga ozgina e'tibor beriladi.

✓ Hissiy-uslubiy uslub. Jarayonning yo'nalishini va o'quv jarayonini, yuqori samaradorlikni, yuqori samaradorlik, ba'zi bir samaradorlikni reflektorlar bilan tobora ko'proq darajada rejalashtirilishini ta'minlaydi.

Amaliy-axloqiy imtiyozli uslub. Bu jarayonning yo'nalishini va o'quv jarayonini o'qitish, o'qitishning natijasini oladi. O'qituvchi o'qitish usullarini tanlashda juda ko'p ma'noga ega emas, har doim ham yuqori sur'atni ta'minlay olmaydi.

Pedagogik Actologiya - Bu professionallik va o'qituvchilar ishida malakasini oshirish usullari. Pedagogik Acteologiya markazlaridan biri bu tushuncha. o'qituvchining professionalligi.

O'qituvchining professionalligi mezonlari:

✓ *ob'ektiv mezonlar*: Pedagogik faoliyatning samaradorligi (o'quv, o'quv, ta'lim, shuningdek yordamchi o'qituvchi - diagnostika, tuzatish, tuzatish, tashkiliy, tashkiliy, ma'ruza qilish va boshqalar);

✓ *subyektiv mezonlar*: Barqaror pedagogik yo'naltirish (kasbda qolishni istash), o'qituvchining kasbining ahamiyatli yo'nalishlarini tushunish, ijobiy munosabat o'zingiz professional, mehnatdan qoniqish;

✓ *protessual mezonlar*: ijtimoiy jihatdan maqbul, insoniy yo'naltirilgan usullardan foydalanish, ularning ishida;

✓ *ijro mezonlari*: pedagogik ish Jamiyat tomonidan talabnomalar

Qobiliyatli o'qituvchi, o'quvchilarga ta'lim tarbiya berishdan asosiy maqsad ular ongiga fan asoslarini puxta singdirish orqali ularni diyonatli, e'tiqodli qilib o'stirish, ijtimoiy hayotdagi har bir hodisaga ongli yondashishni tarbiyalash, egallangan bilim va ko'nikmalarni hayotga tatbiq etish qobiliyatini o'stirishdan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1.Davletshin M.G.Shark mutafakkirlarining psixologik karashlari. Toshkent 2002 yil.

2.Mavlanova R.A,RaxmonqulovaN.X. "Boshlang'ich ta'limda inovatsiya".T.,TDPU 2007-y.

3.Mavlanova R.A,RaxmonqulovaN.X."Boshlang'ich ta'limda pedagogika, innovatsiya, integratsiya." T., 2013.

**DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCE OF TEACHERS AND
ASSESSMENT OF THE QUALITY OF EDUCATION
(O'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish va ta'lim sifatini baholash)**

**TIMSS XALQARO TADQIQOTLARI MONITORINGI ASOSIDA KOGNITIV SOHA
BO'YICHA TA'LIM SIFATIGA OID MUAMMOLARNI ANIQLASH**

Ergasheva Malohat Tursunovna

A. Avloniy nomidagi xalq ta'limi muammolarini o'rganish va istiqbollarini belgilash ilmiy tadqiqot instituti, xalqaro baholash va ta'lim sifatini tadqiq qilish ilmiy-tadqiqot bo'limi yetakchi ilmiy xodimi, b. f. n., dotsent.

Annotatsiya. Maqolada "STesting" elektron platformasi orqali TIMSS xalqaro tadqiqotida o'quvchilarni tabiiy fanlar bo'yicha diagnostik tahlili, kognitiv sohalar (bilish, qo'llash, mulohaza yuritish)ga doir topshiriqlar va ularni baholash natijasida aniqlangan ta'lim sifatiga oid muammolar yoritilgan.

Аннотация: В статье освещены вопросы, связанные с качеством образования, выявленные в международном исследовании TIMSS через электронную платформу "STesting", диагностический анализ учащихся по естественным наукам, задания в познавательных областях (знание, применение, рефлексия) и их оценивание.

Annotation: The article highlights issues related to the quality of education identified in the international study TIMSS through the electronic platform "STesting", diagnostic analysis of students in the natural sciences, tasks in cognitive areas (knowledge, application, reflection) and their assessment.

"STesting" elektron platformasi – o'quvchilarni ilm-fan yutuqlaridan boxabar bo'lishlari, atrof-muhit va inson salomatligi bilan bog'liq muammolarni hal etuvchi qarorlarni mustaqil qabul qila olishlari, tabiiy boyliklarni asrash, egallagan bilimlarini real hayotiy vaziyatlarda qo'llay olish, tabiat va jamiyat hodisalariga nisbatan munosabat bildira olish kabi ko'nikmalarini rivojlantirish, ularni hayotga tayyorlash va zamonaviy kasblarga bo'lgan qiziqishlarini oshirishda muhim ko'makchi vazifasini o'taydi.

Tabiiy fanlarning kognitiv sohalari: To'rtinchi va sakkizinchi sinflar uchun bilish, qo'llash va mulohaza yuritishdir. STesting TIMSS da kognitiv soha bo'yicha natijalarini taqsimlashi:

Tabiiy fanlarning mazmun sohalari:

- To'rtinchi sinf: hayot haqidagi fan, fizika, Yer haqidagi fan
- Sakkizinchi sinf: biologiya fani, kimyo fani, fizika fani, Yer haqidagi fan

Ushbu mazmun soharining har biri bir nechta asosiy mavzularni o'z ichiga oladi. 4- sinf o'quvchilarida Hayot haqidagi fan mazmun sohasidagi hayot sikllari, ko'payish va irsiyat, ekosistemalar, organizmlar, atrof-muhit va ularning o'zaro ta'siri mavzulardagi topshiriqlariga,

Fizika fani. O'quvchilar to'rtinchi sinfda o'zlarining kundalik hayotlarida kuzatadigan bir qator fizik hodisalarni fizika fanidagi tushunchalar yordamida qanday tushuntirish mumkinligini bilib olishadi. 4-sinfda fizika fani mazmun sohasiga quyidagi: moddalarning xususiyatlari va o'zgarishlari, moddalar klassifikatsiyasi, energiya shakllari va energiyani uzatish, kuch va harakat mavzulari kiradi. 4-sinf o'quvchilari moddaning fizik holati (qattiq, suyuq va gaz), shuningdek, moddaning holati va shaklidagi umumiy o'zgarishlar to'g'risida tasavvurga ega bo'lishlari kerak; bu esa yuqori sinflarda kimyo hamda fizika fanlarini o'rganishga asos bo'lib xizmat qiladi. Lekin tahlil natijalari ushbu mazmun sohasidagi, topshiriq savollarlariga o'quvchilarning javob bera olmaganligini ko'rish mumkin.

Yer haqidagi fan Yer, uning Quyosh sistemasidagi o'rnini o'rganadi hamda 4-sinfda o'quvchilarning kundalik hayotda kuzatishlari mumkin bo'lgan hodisa va jarayonlarni o'rganishga

alohida e'tibor qaratilgan. Garchi barcha mamlakatlarda o'rganiladigan Yer haqidagi fanning o'quv dasturi nimalarni o'z ichga olishi haqida yagona fikr bo'lmasa-da, to'rtinchi sinf o'quvchilarining o'zlari yashayotgan sayyora va uning Quyosh sistemasidagi o'rnini o'rganishlarida uchta mavzu muhim hisoblanadi: Yerning fizik xossalari, resurslari va tarixi; Yer ob-havosi va iqlimi; Yer, uning Quyosh sistemasidagi o'rniga oid topshiriq savollarlariga o'quvchilarning javob bera olmaganligini ko'rish mumkin.

8- sinf o'quvchilarida Biologiya mazmun sohasidagi hayot sikllari, ko'payish va irsiyat, ekosistemalar, organizmlar, xilma-xillik, moslanish va tabiiy tanlanish mavzulardagi topshiriqlariga, kimyo mazmun sohasidagi moddaning xossalari, kimyoviy o'zgarish mavzulardagi topshiriqlariga, fizika mazmun sohasidagi Energiya transformatsiyasi va uzatilishi, yorug'lik va tovush, elektr va magnitlanish, kuch va harakat mavzulariga oid, geografiya mazmun sohasida Yerdagi jarayonlar, sikllar va uning evolyutsiyasi, Quyosh sistemasidagi Yer va koinot, Yer resurslari, ulardan foydalanish va saqlash mavzusiga oid topshiriqlarga javob bera olmagan.

№	Topshiriqlar	4-sinf	8-sinf
1	Moddalarning xususiyatlari va klassifikatsiyasi	26%	29%
2	Ekosistemalar	24%	29%
3	Tirik organizmlarning o'ziga xos xususiyatlari va ular da kechadigan hayotiy jarayonlar	49%	26%
4	Organizmlarning hayot sikllari, ko'payish va irsiyat	21%	26%
5	Odam salomatligi	45%	51%
6	Organizmlarning atrof-muhit bilan o'zaro munosabati		24% 39%
7	Yer tuzilishi, Yer qobiqlarining tavsifi, tabiiy resurslar	46%	36%
8	Yerdagi jarayonlar, sikllar, Yerning geologik tarixi	44%	39%
9	Quyosh sistemasidagi Yer	41%	39%
10	Issiqlik va harorat	48%	35%
11	Energiyaning bir turdan boshqa turga o'tishi, issiqlik va harorat	47%	39%
12	Harakat va kuch	26%	26%
13	Xilma-xillik, moslanishlar va tabiiy tanlanish	35%	33%
14	Moddalarning xossalari	44%	40%
15	Hujayra va ularning funksiyasi	21%	29%
16	Elektr toki va magnitizm	22%	19%

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, "STesting" elektron platformasi orqali TIMSS xalqaro tadqiqotida o'quvchilarni tabiiy fanlar bo'yicha diagnostik tahlili 4- va 8-sinflarda bir muncha past natijalarni ko'rsatganligini va umuman ta'lim sifatini oshirish bo'yicha qanday qadamlar qo'yish mumkinligi haqida ba'zi taxminlar qilish imkonini beradi. IEA tadqiqoti boshlang'ich maktabdagi ta'lim natijalari to'g'risida qimmatli ma'lumotlarni taqdim etadi, bu esa ta'limning keyingi bosqichlarida o'quvchilarning yutuqlarini rivojlantirishni ta'minlaydi.

Tadqiqotning so'nggi uch bosqichidagi 4 va 8-sinflar natijalarini tahlil qiladigan bo'lsak, natijalarning eng yaqqol o'sishi boshlang'ich sinflarda, ayniqsa 2011-2015 yillarda kuzatilganini, boshlang'ich sinflarda esa natijalar saqlanib qolayotganini ko'rish mumkin. taxminan bir xil darajada, garchi ular yaxshilanish tendentsiyasiga ega bo'lsa-da: har ikkala fanda ham barcha parallellikdagi yomon ijrochilar ulushi asta-sekin kamayib bormoqda. Biroq, bu tendentsiya eng yuqori natijalarga erishgan o'quvchilar ulushining sezilarli o'sishi bilan qo'llab-quvvatlanmaydi.

TIMSS ma'lumotlari shuni tasdiqlaydiki, sinfda yaxshi intizomga olib keladigan pedagogik amaliyotlar, maktab o'quvchilarining o'zlarining fan qobiliyatiga ishonchlari, fanning qadr-qimmatini anglashlari, shuningdek, oilada bolaning ta'limiga ko'proq jalb etilishi, shuningdek, maktabgacha ta'lim muassasasiga borish tajribasi. o'quvchilar tomonidan muassasa, maktab o'quvchilarining natijalariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich maktab oxirida tabiiy fanlardan ham jiddiy muammolarga duch keladigan o'quvchilar mavjud, shuning uchun yuqori sinfga o'tish bilanoq, tegishli pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda, bunday muammolarni aniqlash va bartaraf

etishni tashkil etish kerak. O'quv jarayonining nafaqat qiyinchilik tug'diradigan fanga ijobiy munosabatni oshirish, balki o'quvchilarning sub'ektiv qobiliyatlariga ishonchini rivojlantirish va ta'limdagi muammolarini bartaraf etishning maqsadga muvofiqligiga bo'lgan munosabatini shakllantirish lozim.

Shunday qilib, o'quvchilarning fundamental savodxonligini shakllantirishga, biz maktab o'quvchilarining sifatli fan tayyorgarligiga e'tiborni susaytirmasligimiz kerak. Shu bilan birga, nafaqat erishilgan natijalarni saqlab qolish, balki o'quvchilarning tayyorgarlik darajasini yanada oshirish muhim ahamiyatga ega, jumladan, ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini rivojlantirish, pedagog kadrlarning maqsadli malakasini oshirish, viloyat va shahar miqyosida uslubiy xizmatni rivojlantirish, kadrlar zaxirasini shakllantirish, ta'lim natijalari past maktablarni qo'llab-quvvatlash, barqaror va yuqori natijalarga ega bo'lgan maktablar uchun barqaror rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Андреас Шляйхер. Образование Мирового уровня. Как выстроит школьную систему XXI века? Москва. 2019. Издательство Национальное образование. ФИОКО
 2. А. Ю. Пентин, Н. А. Заграничная и др. Уровни освоения основных компетенций естественно-научной грамотности учащимися Московской области: результаты диагностики. Научный и информатсионно-аналитический педагогический журнал «Отечественная и зарубежная педагогика» №2. том 2. 2020 г.
 3. А. А. Ismailov, N. A. Karimov va b. 4- va 8-sinf o'quvchilari uchun matematika va tabiiy fanlardan xalqaro tadqiqotlarga oid test topshiriqlari to'plami. 2020 y. [1]
 4. Abdullaeva Sh. A. Pedagogik diagnostika va korreksiya. Darslik. –T. : Universitet, 2022 y. – B. 121
- Г. С. Ковалева, Логинова О. Б. (2017) Успешная школа и эффективная система образования: какие факторы помогают приблизиться к идеалу? № 2. С. 69–80.

ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОНДА ЎҚИТУВЧИЛАР КАСБИЙ КОМПЕТЕНТЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ

Жуманова Фотима Ураловна

Тошкент вилояти Чирчиқ давлат педагогика институти, “Педагогика ва менежмент” кафедраси мудири, педагогика фанлари номзоди, доцент

Аннотация. Мақолада янги Ўзбекистонда ўқитувчилар касбий компетентлигини ривожлантириши нуқтаи назаридан компетентлик талабаларнинг муайян вазиятларда билим, малака ва фаолият усуллари тўпламини мақсадга мувофиқ қўллаш, касбий фаолиятни амалга ошириш, зарур билим, кўникма ва малакаларни эгаллаш ҳамда уларни касбий фаолиятда қўллаш олиш масалалари ёритилади.

Калит сўзлар. таълим тизими, билим, кўникма, малака, компетентлик, касбий фаолият.

Ўқитувчилар касбий компетентлигини шакллантириш мураккаб муаммолар қаторида ўзига хос ўрин тутди. Айниқса, таълимни модернизациялаш билан боғлиқ ислохотларнинг жорий босқичида касбий педагогик фаолиятга мослашиш муаммоси, ўқитувчиларни амалий, психологик, методик, тадқиқотчилик фаолияти турлари билан бир қаторда ўқитувчининг касбий компетентлигини ривожлантириш муҳим аҳамият касб этади.

Касбий компетентлик педагогнинг билиш фаолияти, ўрганилаётган нарсаларнинг мураккаблиги, динамикаси, ностандартлиги, ижтимоий ҳодисаларни ажратиб турадиган чегараларнинг таъсири, уларни излаш, ноаниқлик билан белгиланади, бу эса кузатувчанлик, суҳбатдошнинг ички дунёсини моделлаштириш малакасини назарда тутди. Касбий фаолиятни ташкил этишда муҳим аҳамиятга эга бўлган компетентликнинг асосий элементлари «Давлат таълим стандарти»да ўз ифодасини топган. Ушбу тушунча таълим соҳасида қўлланилувчи таянч атама сифатида 1992 йилда қабул қилинган Ўзбекистон

Республикасининг «Таълим тўғрисида»ги қонуни мазмунини ёритишда илк бор фойдаланилган¹³.

Давлат таълим стандартини ишлаб чиқишнинг илк босқичида таълим стандартларининг ишлаб чиқариш соҳаси стандартлари билан бир хил бўлиши зарурлиги борасидаги фикр рад этилди. Мазкур стандарт яхлит таълим жараёни доирасида таълимни йўлга қўйиш учун кенг имкониятларни яратишни кўзда тутувчи асосларга мувофиқ ишлаб чиқилди. Мазкур жараёнда таълимнинг мақсадлари ва процессуал жиҳатлари стандартлаштирилган.

Таянч педагогик таълимга эга бўлмаган, таълим ва тарбия жараёни хусусиятларини инобатга олиш асосида эмас, балки аксарият ҳолларда шахсий тажриба ва сезгиларига таяниб иш юритувчи ўқитувчиларнинг фаолиятларида, самарадорликни таъминлаш йўлида ушбу талабнинг юзага келиши педагогик заруриятдир.

Ғарб мамлакатларида шаклланган анъанага мувофиқ мутахассиснинг касбий малакаси унингкомпетентлик, таълим тизими эса – билим, кўникма ва малакалар даражаси билан ўлчанади.

Хорижий мамлакатларда, ўзида фақатгина эришилиши лозим бўлган натижани акс эттирувчи, мутахассис билим ва малакаларини мужассамлаштирувчи малакавий стандартлар асосида иш юритилади.

Агарда «компетент» ва «компетентлик» тушунчаларининг этимологик таҳлилига назар ташласак, улар тасодифан юзага келмаганлигини англаш мумкин.

Компетентликталаба томонидан алоҳида билим ва малакаларни эгалланишини эмас, балки ҳар бир мустақил йўналиш бўйича интегратив билимлар ва ҳаракатларнинг ўзлаштирилишини назарда тутди.

Республикамизнинг миллий давлат таълим тизими моҳиятига кўра таълим мазмунининг минимал талаблари қуйидаги асосий бирликлар: билим, кўникма ва малакаларга асосланади.

Битирувчиларнинг касбий тайёргарлиги даражасига қўйилувчи талаблар нуқтаи назаридан компетентлик талабаларнинг муайян вазиятларда билим, малака ва фаолият усуллари тўпламини мақсадга мувофиқ қўллаш қобилиятини англатади.

Компетентлик – бу талабанинг шахсий ва ижтимоий аҳамиятга эга касбий фаолиятни амалга оширилиши учун зарур бўлган билим, кўникма ва малакаларнинг эгалланиши ҳамда уларни касбий фаолиятда қўллай олиши билан ифодаланади. Мазкур ўринда «компетентлик» тушунчасининг моҳияти ҳам тўла очилади, у қуйидаги икки кўринишда намоён бўлади: компетентлик талабаларнинг шахсий сифатлари тўплами ҳамда касбий соҳанинг таянч талаблари сифатида.

Таълим мазмунининг ўқув режадаги фанлар блоклари (барча фанлар учун), фанлараро (фанлар тўплами учун) ва предметли (маълум бир фан учун) тарзда гуруҳланганлиги боис, қуйидаги уч даражани намоён этувчи компетентликни келтириб ўтиш мумкин:

1. Таянч компетентлик (таълимнинг гуманитар, ижтимоий-иқтисодий мазмунига кўра);
2. Фанлараро компетентлик (умумкасбий тайёргарликнинг ўқув фанлари ва таълим блокларига доирлигига кўра);
3. Битта предмет (фан) бўйича компетентлиги (махсус ўқув фани доирасида аниқ ва маълум имкониятга эгаллигига кўра).

Таянч компетентлик олий педагогик таълимнинг ҳар бир босқичи учун таълим блоклари ва ўқув фанлари даражасида аниқланади. Таянч компетентлик тартибини белгилашда касбий педагогик таълимнинг асосий мақсадларига мувофиқ ижтимоий ва шахсий тажрибанинг моҳияти, ижтимоий жамиятда касбий фаолиятни ташкил этиш жараёнида ҳаётий кўникмаларни эгаллашга имкон берувчи асосий турлар муҳим аҳамият касб этади. Ўқитувчининг касбий компетентлиги педагогнинг касбий фаолиятни амалга ошириш билан боғлиқ барча эҳтиёж, қобилият, маҳорат, билиш ва қизиқишларини ифодалайди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

¹³Ўзбекистон республикасинингқонуни. Таълим тўғрисида. 29.08.1997 й.N 464-І

1. Ўзбекистон республикасининг қонуни. Таълим тўғрисида. 29.08.1997 й. N 464-I.
2. Муслимов Н.А., ва бошқалар. Касб таълими ўқитувчиларининг касбий компетентлигини шакллантириш технологияси/ Монография. – Т.: “Фан ва технология” нашриёти, 2013.

O‘QUVCHILARNING O‘QUV YUTUQLARI VA KOMPETENSIYALARINI BAHOLASH

Tashtemirova Nargiza Nematovna
A.Avloniy nomidagi ilmiy tadqiqot instituti ilmiy xodimi

Annotatsiya. *Mazkur maqola o‘quvchilarning matematika fanidan o‘quv yutuqlari va kompetensiyalarini baholash xususida bo‘lib, 5-sinflar uchun topshiriq namunasi keltirilgan.*

Аннотация: *Эта статья посвящена оценке успеваемости и компетенций учащихся по математике и содержит пример задания для 5-го класса.*

Abstract: *This article focuses on assessing student performance and competencies in mathematics and contains an example assignment for the 5th grade.*

Mamlakatimiz innovatsion taraqqiyot yo‘lida shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir davrda kelajagimiz davomchilari bo‘lgan yoshlarni ijodiy g‘oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning bilim, ko‘nikma va malakalarini davlat ta‘lim standartlari asosida shakllantirish hamda ilg‘or xorijiy tajribalar, xalqaro mezon va talablar asosida baholash tizimini takomillashtirish muhim ahamiyatga egadir.

Bugungi kunda dunyo mamlakatlarining ta‘lim tizimidagi yutuqlarini baholash bo‘yicha tadqiqotlar o‘tkazuvchi hamda islohotlarni amalga oshirishda ko‘maklashuvchi nufuzli xalqaro tashkilotlar mavjud. O‘zbekistonning ushbu tadqiqotlardagi ishtiroki va natijalari dunyo hamjamiyatida umume’tirof etilishi, yosh avlodni xalqaro tajribalardan kelib chiqqan holda olgan bilimlarini amalda samarali qo‘llay bilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro baholash dasturlari orqali o‘quvchilarning hayotga tayyorlik darajasi, ya‘ni ularning maktabda egallagan bilim va ko‘nikmalaridan hayot faoliyatida uchrashi mumkin bo‘lgan muammolarni hal etishda qay darajada foydalana olishlari baholanadi.

PISA topshiriqlarini yechishning o‘ziga xos xususiyati shundaki, ularda matematik masalani shunchaki yechish emas, balki masaladan oldin keluvchi muammoli vaziyatning tavsifi (konteksti)ni mulohaza yuritish orqali o‘rganib, uni matematik tilga o‘girib ifodalash, ya‘ni matematik masalaga keltirish kerak bo‘ladi. Shundan keyingina masalani matematik bilimlarni qo‘llab yechishga kirishiladi.

Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida o‘quvchilarga nafaqat chuqur nazariy bilim beriladi, balki ularda amaliy faoliyatida zarur bo‘ladigan ko‘nikma va malakalar ham shakllantiriladi. Bundan tashqari ularni amaliy ishlarda yuzaga kelgan masalalarni hal etishda matematik usul va vositalardan mustaqil ravishda foydalanishga o‘rgatish ham o‘ta muhim hisoblanadi. Bugungi kun o‘qituvchisi o‘quvchilarga tayyor formulalar asosida misollar yechilishini o‘rgatishdan tashqari ularni hayotiy vaziyatlarda qo‘llay olish va turli mazmundagi masalalarni yechishga o‘rgatishi lozim.

Shundan kelib chiqib, xalqaro tadqiqotlarga tayyorlanish hamda dars jarayonida sinflar kesimida o‘quvchilarning o‘quv yutuqlari va kompetensiyalarini baholashga qaratilgan topshiriqlardan dars jarayonida foydalanish maqsadga muvofiq.

O‘quvchilarni PISA tadqiqotlari topshiriqlari bilan 5-sinfдан boshlab tanishtirib borish lozim. Chunki, aynan 5-6-sinflarda matematikaning asosiy hisob-kitob, ya‘ni arifmetik ko‘nikmalarini tizimli ravishda shakllantirish boshlanadi. Shuningdek, PISA topshiriqlarining ko‘pchiligi aynan sonlar ustida arifmetik amallarni bajarish, hisoblash texnikalaridan foydalanishni taqozo qiladi. 7-9-sinflarda esa algebra va geometriya fanlarini tizimli o‘rganish boshlanadi.

Shuni alohida ta‘kidlash lozimki, PISA topshiriqlarini yechish uchun matematikada chuqur bilim va ko‘nikmalarni talab qilinmaydi. Lekin, o‘zlashtirilgan muayyan bilim va ko‘nikmalarni hayotiy vaziyatlarga qo‘llashga juda katta e’tibor beriladi. Ularni dars yoki darsdan tashqari mashg‘ulotlarda ham muhokama qilish tavsiya etiladi.

Quyida 5-sinflar o'quvchilarining matematika fanidan egallagan o'quv yutuqlari va kompetensiyalarini baholashga qaratilgan "Radiotelefon batareyasi" topshirig'i mazmuni va baholash mezonlarini ko'rib chiqaylik.

"Radiotelefon batareyasi"

Sanjar uy radiotelefoni va uyali vositadan foydalanadi. Uy radiotelefoni batareya quvvati 120 soatga, uyali telefonniki esa 48 soatga yetadi. Sanjar va uning do'sti Jamshidning uyali telefonlari umumiy xususiyatga ega, ya'ni telefonlarining quvvati bir xil vaqtga yetadi.

1-savol. Sanjar uy radiotelefoni quvvati $\frac{2}{3}$ qismi qolganini ko'rdi. Agar radiotelefon odatdagidek ishlatilsa, uning quvvati yana qancha vaqtga yetadi?

Javob: _____

1-savol to'g'risida ma'lumot

Matematikaga oid mazmun sohasi: miqdorlar

Kontekst: shaxsiy

Aqliy faoliyat turi: qo'llash

1-savolning baholash mezon: O'quvchining sonning qismini topish, natural sonlar ustida amallarni bajara olish qobiliyatini aniqlash.

Javob: 80; **Maksimal ball:** 1

2-savol. Sanjardagi telefon quvvatining $\frac{1}{3}$ qismi, Jamshiddagi telefon quvvatining $\frac{1}{5}$ qismi sarflanganligi ma'lum. Sanjar va Jamshid o'z uyali radiotelefonlarini quvvatini solishtirishdi. Jamshid o'zining telefonining quvvati Sanjarnikidan ko'p ekanligini aytdi. Jamshidning fikri to'g'rimi?

- ☐ to'g'ri
- ☐ noto'g'ri

Javobingizni izohlang.

2-savol to'g'risida ma'lumot

Matematikaga oid mazmun sohasi: miqdorlar

Kontekst: shaxsiy

Aqliy faoliyat turi: talqin qilish

2-savolning baholash mezon: O'quvchining sonning qismini topish va taqqoslash va hulosalash qobiliyatini aniqlash.

Javob: to'g'ri; **Maksimal ball:** 2

Izoh: $\frac{1}{3} > \frac{1}{5}$ bo'lgani uchun, Jamshidning telefon quvvati Sanjarnikidan ko'proq qolgan, yoki 120 sonining $\frac{1}{3}$ qismi shu sonning $\frac{1}{5}$ qismidan katta, demak Sanjarning telefon quvvati ko'p ishlatilgan.

3-savol. Oxirgi vaqtlarda Sanjar uyali telefon batareyasining quvvati 5 marta tezroq sarflanayotganini payqadi.

Savol: Agar uyali telefon batareyasi avval 48 soatga yetgan bo'lsa, endi batareya quvvati qancha vaqtga yetadi? Javobni soat va daqiqalarda ifodalang.

_____ soat _____ daqiqa

3-savol to'g'risida ma'lumot

Matematikaga oid mazmun sohasi: o'zgarish va munosabatlar

Kontekst: shaxsiy

Aqliy faoliyat turi: qo'llash

3-savolning baholash mezon: O'quvchining qoldiqli bo'lishni bajarishi va qoldiqni vaqt birligiga aylantirishni aniqlash.

Javob: 9 soat 36 daqiqa; **Maksimal ball:** 2

Izoh: Topshiriq shartiga ko'ra, telefon quvvati avval 48 soatga yetar edi, demak $48:5=9,6$ soat. Demak, javob 9 soat 36 daqiqa.

Xulosa qilib aytganda, dars jarayonida bu kabi topshiriqlardan foydalanish o'quvchilarga matematika fanini o'rganish bilan birga hayotiy vaziyatlarda ushbu fan elementlaridan o'rinli



foydalanish, muammoni hal qilish uchun zarur bo'lgan bog'lanishni aniqlay olish va tegishli xulosa chiqarish, baholash kabi ko'nikmalarini rivojlantiradi. Fan o'qituvchisiga o'quvchilarning matematika fanidan egallagan o'quv yutuqlari va kompetensiyalarini baholash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. PISA 2021 Mathematics Framework (first draft), 45th meeting of the PISA Governing Board, 23-25 April 2018 Stockholm, Sweden.
2. A.A.Ismailov, N, Karimov, B.Q.Xaydarov, Sh. Ismailov, Xalqaro tadqiqotlarda o'quvchilarning matematik savodxonligini baholash, uslubiy qo'llanma, Toshkent, "Sharq" nashriyoti, 2019-yil, 120 bet.
3. <http://skiv.instrao.ru/bank-zadaniy/>

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHISINING KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI SHAKILLANTIRISH

Otajonov Karimboy Setmamatovich

Jizzax VHTXQTMOM katta o'qituvchisi

Annotatsiya: *Bo'lg'usi boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'ziga xos innovatsion dasturlari, texnologiyalari va metodlari asosida kasbiy kommunikativ kompetensiyasini shakillantirish va rivojlantirishning ijtimoiy va psixologik jihatlari ko'rib chiqilgan.*

Аннотация: *Рассматриваются социально-психологические аспекты и содержание формирования и развития профессионально- коммуникативной компетентности будущих учителей начального образования; соответствующие инновационные программы, технологии и методики.*

Annotation: *In this article is considered social and psychological aspects and content of the formation and development of professional and communicative competence of future primary education teachers, relevant innovative programs, technologies and methods.*

Maktabning ijtimoiy muhit va pedagogik jamoasida o'qituvchining obro'si uning professionallik darajasiga bog'liq. O'qituvchining ishi o'quvchilarning mustaqil ishini tashkil etishda foydalanadigan usullariga, ularni o'quv-tarbiya vazifalarni hal qilishda va darslarda ijodiy muhitni qanday yaratishiga qarab namoyon bo'ladigan va baholanadigan pedagogik ijodkorlik va san'atdir. Shuning uchun o'qituvchi faoliyati samaradorligining eng muhim ko'rsatkichlaridan biri uning muloqot va o'quvchilar bilan o'zaro munosabatlaridagi ijodiy yondashuvidir.

Olimlarning fikriga ko'ra, kasbiy mahorat ularning professional faoliyat sohasidagi mutaxassisning xabardorlik darajasi sifatida tavsiflanadi. Uning tuzilishi professional bilim, ko'nikma, insonning hayoti va professional faoliyati davomida asta-sekin shakllanadigan va asta-sekin to'planadigan professional tajriba tomonidan shakllantiriladi.

O'qituvchining faoliyatida professional muloqot qobiliyati katta rol o'ynaydi. Ushbu konsepsiya o'z tarkibida va mazmunida ikki turdagi vakolatlarni integratsiyalashni o'z ichiga oladi: professional va kommunikativ.

Kommunikativ vakolat-bu konsepsiya quyidagilarni o'z ichiga oladi: aloqa sohasidagi bilim, muloqot qobiliyatlari, boshqa odamlar bilan zarur aloqalarni o'rnatish va qo'llab-quvvatlash qobiliyati. Insonning nutq madaniyati yetarli darajada so'zni to'g'ri ishlatish qobiliyati bilan shakllanadi.

Muloqot o'quvchilar, ularning ota-onalari, pedagogik jamoa a'zolari bilan o'zaro taranglikni yaratish uchun emas, balki qobiliyati, do'stlik, hamdardlik, yaxshi niyat- shu kabi shaxsiy fazilatlarga ega bo'lsa, muvaffaqiyati uning ishida amalga oshiriladi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy va kommunikativ malakasining tuzilishi shakllanadigan shaxsning integratsiyalashgan sifatilari:

- * kasbiy (pedagogik) muloqot sohasidagi bilim;
- * muloqot qobiliyatlari, ko'nikmalari va qobiliyatlari;
- * shaxsning kommunikativ fazilatlari;
- * professional tajriba, aloqa tajribasi va kommunikativ faoliyat.

O'qituvchining kasbiy-kommunikativ vakolatining yaxlit namoyishi pedagogik muloqot va muloqotning individual - uslubiy shakllarida, pedagogik faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirishni ta'minlaydigan kommunikativ ko'nikmalar va harakatlar orqali amalga oshiriladi.

Bo'lajak boshlang'ich ta'limi o'qituvchilarining kasbiy va kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirish nuqtai nazaridan tayyorlash universitet o'qituvchilari, shuningdek, talabalar bilan muloqot psixologiyasi va inson kommunikativ faoliyati sohasidagi bir qator tushunchalarni o'rganishni talab qiladi.

Muloqot-bu odamlar o'rtasidagi aloqalarni o'rnatish va rivojlantirishning murakkab, ko'p qirrali jarayonidir, ular birgalikdagi faoliyatga bo'lgan ehtiyojlardan kelib chiqadi va axborot almashish, o'zaro hamkorlik uchun yagona strategiyani ishlab chiqish, boshqa shaxsni idrok etish va tushunishni o'z ichiga oladi.

Professional muloqot (umumiy ma'noda) – bu birgalikdagi professional faoliyatning maqsadlari, vazifalari va ehtiyojlari bilan belgilanadigan inson muloqotining turlaridan biridir. Bu tartibga solish - kommunikativ, hissiy-kommunikativ aloqalar shaklida ishlaydigan mutaxassislar o'rtasida amalga oshiriladi, ular birgalikda ushbu faoliyatni tashkil etish va amalga oshirishni, uning natijalari sifatini ta'minlaydi.

Professional muloqot (maxsus ma'noda) – bu professional faoliyat talablariga, ish sifati kafolatlari, mijozlar bilan ishlash qoidalariga muvofiq mijozlarga xizmat ko'rsatish yoki maslahat berishda ishlaydigan mutaxassislar tomonidan amalga oshiriladigan aloqa va muloqotning o'ziga xos turi.

Pedagogik aloqa – pedagogik faoliyatning maqsad va vazifalari, nutq aloqasi mazmuni va o'qituvchining o'quvchilar bilan kommunikativ o'zaro ta'siri, bu faoliyat samaradorligini va uning natijalarini ta'minlaydigan o'qituvchi muloqotining o'ziga xos turi.

Aloqa (lotin tilidan communico-men umumiyman, bog'layman) aloqa va ijtimoiy o'zaro ta'sirning semantik jihatini aks ettiradi, ular boshqa odamlarning idrokiga ongli ravishda yo'naltirilgan kommunikativ harakatlardir.

Ta'lim jarayonida muloqot bilimlarni uzatish va qabul qilishdan iborat bo'lib, ikki jihatga ega: obyektiv, aloqa mazmuniga taalluqli va sharhlovchi, shu jumladan, obyektiv ravishda ishtirokchilarning o'zaro munosabatlari va ishtirokchilarning subyektiv ravishda mazmunini beruvchi ma'nodir.

Kommunikativ qobiliyat-o'qituvchining shaxsiy psixologik xususiyatlari, bu kommunikativ faoliyatni muvaffaqiyatli egallash va uni ish yoki professional funksiyalarni amalga oshirish jarayonida, shuningdek, shaxslararo biznes va boshqa munosabatlarni o'rnatish sharoitida amalga oshirish sharti.

Kommunikativ ko'nikmalar - aloqa va kommunikativ faoliyat jarayonida o'qituvchida (takrorlash orqali) yuqori darajadagi rivojlanish va ularning elementar ongli ravishda tartibga solinishi va nazorat qilinmasligi bilan tavsiflangan muayyan aloqa usullari va texnikasidir. Ongli darajada shakllantirilib, ular asta-sekin o'qituvchining ongiga kiradi va muloqotda ularni amalga oshirish "avtomatik" (avtomatlashtirilgan muloqot qobiliyatlari) bo'lishi mumkin.

Kommunikativ ko'nikmalar-o'qituvchi tomonidan muloqot qilish va kommunikativ jarayonlarni erishilgan kommunikativ bilim va ko'nikmalar asosida ta'minlash usullarini o'zlashtirdi. Bunday ko'nikmalar ham kundalik muloqotda, ham ta'lim va maxsus ta'lim jarayonida (aloqa treninglari, muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish, muloqot qobiliyatlari) shakllanadi. Muloqot qobiliyatlari o'qituvchiga o'zgaruvchan holatlarda, shu jumladan, muvaffaqiyatli muloqot qilish va harakat qilish imkonini beradi.

Haqiqiy aloqa harakatida bu uchta funksiya birlikda harakat qiladi, lekin aloqa ishtirokchilari o'rtasida bir xil emas.

Muloqotning asosi odamlarning ehtiyojlari va manfaatlaridan iborat bo'lib, muloqot biznes yoki kasbiy vazifalarni hal etishga, hayot va faoliyatning turli sohalarida, masalan, ijtimoiy – madaniy, professional va shaxslararo munosabatlar sohasida amalga oshirilishi mumkin.

Professional muloqot – professional mutaxassislar, masalan, psixologlar, o'qituvchilar, ta'lim muassasalari rahbarlari o'rtasida amalga oshiriladigan muloqotning o'ziga xos turi. "Muloqot" ning

umumiy tushunchasidan farqli o'laroq, u professional ahamiyatga ega bo'lgan axborot jarayonlarining mazmunini va muayyan qo'shma faoliyatga yoki boshqa odamlar bilan shaxsiy ishlarga kiritilgan professional muloqot ishtirokchilari o'rtasidagi aloqalarni belgilaydi.

Professional aloqa vositalari quyidagilardir:

- * til-maxsus yoki professional bilimlarga taalluqli belgilar va axborot tizimi va kasbiy faoliyatning muayyan sohasi (ta'lim, ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish sohasi va boshqalar);

- * og'zaki va yozma nutq, ular orqali ishlaydigan odamlar o'rtasida qisqa muddatli va uzoq muddatli muloqot jarayonlari tashkil etiladi va amalga oshiriladi, yoki xodim va mijoz-muayyan xizmatlar iste'molchisi o'rtasidagi aloqa;

- * ushbu tashkilotda nazarda tutilgan moddiy va texnik aloqa vositalari •

Professional muloqot va uning shaxsiy harakatlari jarayonida bir qator funktsiyalar amalga oshiriladi: boshqaruv, axborot, hissiy (empatiya) va o'lim – aloqalarni o'rnatish va saqlash.

Ushbu funktsiyalarning mazmuni xabarlarini ta'kidlaydi:

- * rag'batlantiruvchi (talab, ishonch, taklif, buyruq);

- * informasion (haqiqiy ma'lumotlarni uzatish);

- * ifodali (imo-ishoralar, hissiy tuyg'u va tajriba bilan bog'liq yuz ifodalari);

- * fatal (aloqani o'rnatish va saqlash).

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy va kommunikativ malakasini oshirish ijtimoiy-psixologik treningning asosiy maqsadi hisoblanadi. Bunga professional muloqot psixologiyasi, mavjud kommunikativ ko'nikmalar va qobiliyatlarni tuzatish va rivojlantirish, shuningdek, kasbiy funktsiyalarini bajarishda o'qituvchining xatti-harakati va muloqotini belgilaydigan ijobiy munosabatni shakllantirish orqali erishiladi.

Pedagogika va psixologiyada "ijtimoiy-psixologik trening" tushunchasi ikki ma'noga ega bo'lib, ular o'z maqsadlari va vazifalarini belgilaydi.

Keng ma'noda ijtimoiy-psixologik trening-odamlarni (guruhlarda) samarali shaxslararo va biznes aloqalari bo'yicha bilim va ko'nikmalarga o'rgatishdir. Trening davomida samarali muloqot, monolog, muhokamalar, muzokaralar uchun zarur bo'lgan kommunikativ ko'nikmalar rivojlantiriladi.

Maxsus ma'noda ijtimoiy-psixologik trening – ijtimoiy his-tuyg'ularning turli shakllarini (insonni boshqa odamlar haqida his qilish va tasavvur qilish) o'rgatish; ijtimoiy sezuvchanlik va empatiya (empatiya, xushyoqish qobiliyati); psixologik rivojlanish qobiliyatlari va boshqa shaxsga ta'sir qilish.

Oliy o'quv yurtlari talabalari, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari, ijtimoiy - psixologik treninglar tayyorlash bilan bog'liq bo'lib, ular pedagogik va shaxslararo muloqot sohasida muloqot qobiliyatlari va qobiliyatlarini o'rgatishning bir shakli hisoblanadi.

Shunday qilib, bo'lajak boshlang'ich ta'limi o'qituvchilari uchun kasbiy va kommunikativ vakolatlarni shakllantirish va rivojlantirish uchun aloqa me'yorlari va qoidalarini bilish, uning texnologiyasiga egalik qilish "shaxsning kommunikativ salohiyati" kengroq tushunchasining ajralmas qismidir.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Асадов Ю. М. Индивидуально-психологические особенности учителя как факторы развития профессионализма: результаты и перспективы исследования // «Школа и жизнь» (Maktab va Hayot). – Ташкент, № 1. 2006.

2. Асадов Ю. М. Профессиональные компетентности учителя и критерии их оценки // «Мақтаб ва ҳаёт» № 1. 2016. Б. 28-32.

3. Болотов В. А. , Сериков В. В. Компетентностная модель: от идеи к образовательной программе // Педагогика. 2003. № 10.

4. Зимняя И. А. Ключевые компетенции — новая парадигма результата образования // Высшая школа. 2004. № 6.

5. Зимняя И. А. Ключевые компетенции — новая парадигма результата современного образования // Интернет-журнал «Эйдос». 2006. 5 мая. [ИКБ]: <http://www.eidos.ru/journal/2006/0505.htm>

TASVIRIY SAN'AT O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH

Negmatov Olim Omilxanovich

Jizzax VHTXQTMOM o'qituvchisi

Annotatsiya: Tasviriyy san'at o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish va takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar hamda faoliyat turlari ko'rib chiqilgan.

Аннотация: Рекомендации и мероприятия по развитию и повышению профессиональной компетентности учителей изобразительного искусства.

Annotation: Recommendations and activities to develop and improve the professional competence of teachers of fine arts.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan ta'lim sohasidagi yangiliklar natijasida jamiyatda o'ziga xos ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy rivojlanish yo'lini tanlash, shungdek Kadrlar tayyorlash milliy dasturining maqsad va vazifalari asosida jaxon ta'lim standartlariga muvofiq keluvchi uzluksiz ta'lim tizimini shakillantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratildi.

Zamonaviy rassom-pedagogning kasbiy kompetentligi ularning ta'lim muassasalarida olib borayotgan faoliyatining barcha shakllarida namoyon bo'ladi. O'qituvchining kasbiy mahoratini kasbiy kompetentlikning yuqori darajasi sifatidagi konsepsiya, avvalo shaxsning ichki resurslari majmui sifatida namoyon bo'ladi. Shuningdek, faoliyatda eng samarali harakatlarni namoyish etish qobiliyatini hamda taklif etilayotgan shartlar, faoliyat natijalarini taxmin qilish va ular uchun mas'uliyatni belgilaydi.

Amaliy san'at tasviriyy san'atning ajralmas bir bo'lagi bo'lgani uchun, umuman olganda pedagogik shart-sharoitlar, metodik ta'minot va tasviriyy, amaliy san'at o'qituvchilari kasbiy kompetensiyasiga qo'yilgan talablar bir-biriga yaqin. Tasviriyy san'at o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasi modelini loyihalashda amaliy san'atni o'rgatishning e'tiborga molik bir qator xususiyatlari alohida o'rin egallaydi.

Badiiy-pedagogik soha mutaxassisining kasbiy tayyorlash modelini loyihalash ta'lim jarayonida oliy ta'lim muassasi bitiruvchilari uchun talablar majmuini amalga oshirishga yordam beradi. Shuni ta'kidlash joizki, DTS va malaka talablar kompetensiyalar ro'yxati ta'lim natijalariga qo'yilgan talablarni belgilab beradi. Bu talablar talabalarda shakillantiriladigan kompetensiyalar ustuvorlik kasb etadi. Shuning uchun bitiruvchilarning kasbiy tayyorgarligi modeli kompetentlikka asoslanadi. Ushbu modelning o'ziga xos xususiyatlari shundan iboratki, u talabaga moslashtirilganligi, shaxsga va kasbiy faoliyatga yo'naltirilganligi hamda fanga ixtisoslashtirilganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Bitiruvchilar kasbiy kompetentligiga qo'yiladigan talablar davlat hujjatlari shaklida tuzilgan hamda "O'zstandart" agentligining qarori, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining buyruqlari bilan tasdiqlangan. Biroq, ushbu hujjatlarda kasbiy tayyorlov fanlari to'g'risidagi ma'lumotlar mavjud emas, shuning uchun amaliy san'atning o'ziga xos sohalarida shakillantiriladigan kompetensiyalar zaruriy talablar to'plamini shakillantirish lozim.

Tasviriyy san'atni o'rgatish jarayonida o'qituvchining asosiy faoliyat turlari:

- tasviriyy san'atni o'rgatish jarayonida badiiy-ijodiy ta'lim-tarbiya muhitini yaratishda o'qituvchining kasbiy faoliyati;

- tasviriyy san'at va hunarmandchilik turlarini o'rganish orqali o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etish faoliyati;

- tasviriyy san'at va hunarmandchilik ustaxonalarini tashkil etish faoliyati;

- tasviriyy san'at va hunarmandchilikning an'anaviy va innovatsion turlaridan o'z-o'zini tarbiyalash, takomillashtirish, rivojlantirish bo'yicha faoliyati;

- tasviriyy san'at va hunarmandchilikni targ'ibot-tashviqot qilishda madaniy va ma'rifiy faoliyat.

Bo'lajak tasviriyy san'at o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish va takomillashtirishda quyidagi tavsiyalarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

- Oliy ta'lim muassasalarining DTS, malaka talablari, namunaviy o'quv rejalari va dasturlarida ta'lim oluvchilarga tasviriy san'atini o'rgatishning turli usullari, o'qitishning samarali yo'llarini rivojlantirish to'g'risida ma'lumot berish;

- Tasviriy san'atdan dars beradigan professor o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish maqsadida innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida malaka oshirishlarini tashkil etish;

- Respublikada tashkil etilgan tasviriy va amaliy san'at hamda badiiy hunarmandchilik bo'yicha turli tanlovlarning yuqori saviyada o'tkazilishini va ularda talabalarining faol ishtirokini ta'minlash lozim.

Oliy ta'lim muassasalarida milliy qadryatlarimiz talabalarining faoliyatini to'g'ri tashkil etishda, oiladagi ijodiy muhit, yoshlarni ota-bobolarimizdan meros bo'lib qolgan o'zbek xalq tasviriy san'atining haqiqiy davomchilari qilib tarbiyalashda, hayotga to'g'ri yo'nalishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Shunday qilib, kasbiy kompetentlikni shakllantirish yangi ijtimoiy-madaniy sharoitlarda o'z salohiyatini ro'yyobga chiqarish, moddiy-ma'naviy madaniyatning yuksak badiiy namunalari yaratish, atrof-muhit obektlarini badiy loyihalash uchun an'anaviy va zamonaviy vositalar, metod va texnologiyalarni o'zlashtirishga qodir bo'lgan raqobatbardosh, talab darajasidagi mutaxasislarni tayyorlash imkonini beradi.

Adabiyotlar:

1. "Ўзстандарт" агентлигининг 2014 йил 18 сентябрдаги 4574-сон қарори, Олий ва ўрта махсус таълим вазирлигининг 2015 йил 21 августдаги 303-сонли, 2017 йил 24 августдаги 603-сонли бўйруқлари.

2. Гулямов К. М. Амалий безак санъатини ўргатиш жараёнида талабаларнинг касбий компетенцияларини шакллантиришнинг педагогик шарт-шароитлари // KASB-HUNAR TA'LIMI Ilmiy-uslubiy, amaliy, ma'rifiy jurnal. –Т. : -№3, 2019. –Б. 66-70

3. Гулямов К. М. Компетенциявий ёндашув асосида бўлажак амалий санъат ўқитувчиларини касбий фаолиятга тайёрлаш тизимини такомиллаштириш. [монография] –Т. : "ТО'ҲТЕРА PRINT" 2020–Б. 106-113

TA'LIM TIZIMI SIFATINI OSHIRISHDA PISA VA TIMSS KABI XALQARO TADQIQOTLARNING ROLI

*Chershonbiyeva Dilorom Turdiqulovna, Begmatova Asrora Suvonqulovna
Sirdaryo viloyati, Boyovut tumani, 8-umumiy o'rta ta'lim maktab o'qituvchilari
begmatovasrora@gmail.com*

Annotatsiya: Zamonaviy ta'lim sohasiga qo'yiladigan talablar kundan kunga oshib bormoqda. O'z navbatida hukumatimiz tomonidan ta'lim sifatini oshirishda PISA, TIMSS va PIRLS singari xalqaro tadqiqotlarning joriy etilishi ham muhim ahamiyatga ega. Mazkur maqolada shu haqda so'z yuritamiz.

Annotation: The requirements for modern education are growing day by day. In turn, the introduction of international research by PISA, TIMSS and PIRLS by our government is important in improving the quality of education. We will talk about this in this article.

Аннотация: Требования к современному образованию растут день ото дня. В свою очередь, внедрение международных исследований PISA, TIMSS и PIRLS нашим правительством имеет важное значение для повышения качества образования. Об этом мы поговорим в этой статье.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasida davlat va jamiyat ahamiyatiga molik dolzarb masalalar qatorida ta'lim sifatini oshirishga, 2021-yildagi xalqaro baholash jarayonlariga munosib tayyorgarlik ko'rish masalasiga alohida e'tibor qaratildi.

Shuningdek, Prezidentimizning farmoni bilan "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" tasdiqlangan bo'lib, unda O'zbekiston Respublikasining 2030- yilga kelib PISA xalqaro baholash dasturining reytingi bo'yicha jahonning

birinchi 30 ta ilg'or mamlakati qatoriga kirishiga erishish ustuvor vazifa etib belgilangan.

Yangi davlat ta'lim standartlari va umumiy o'rta ta'lim o'quv dasturlarini, shu jumladan STEAM usulini bosqichma-bosqich joriy etish va takomillashtirish ko'zlangan. Xalq ta'limi muassasalari ilg'or jahon tajribasiga tayanib, ta'lim sifatini takomillashtiradilar. Respublikaning quyidagilarda ishtirok etishi bunda yordam beradi:

- PISA o'quvchilarning o'qishdagi yutuqlarini baholash bo'yicha xalqaro dasturda (15–16 yashar o'quvchilarning matematik savodxonligi, o'qish va tabiatshunoslik sohasidagi savodxonligini baholash);

- TIMSS maktabdagi matematika va tabiiy fanlar sohasidagi ta'lim sifatining xalqaro tadqiqotida (4 va 8-sinflar o'quvchilarining matematika va tabiiy fanlar sohasidagi savodxonligini baholash);

- PIRLS matnni o'qish va tushunish sifatining xalqaro tadqiqotida (boshlang'ich maktab o'quvchilarining matnni o'qish hamda tushunish darajasi va sifatini baholash).

Ta'lim sifatini oshirish uchun uning holati va rivojlanish tendentsiyalarini uzluksiz monitoringini olib borish va o'quvchilarning o'quv yutuqlarini ob'ektiv va adekvat baholashni amalga oshirish zarur. Bu ayniqsa, o'quvchilarning keyingi shaxsiy va fuqarolik rivojlanishi uchun zamin yaratadigan umumiy o'rta ta'lim darajasida muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018- yil 8 dekabrda 997-son "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori bilan xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish, xalqaro aloqalarni o'rnatish, o'quvchiyoshlarning ilmiytadqiqot va innovatsiya faoliyatini, eng avvalo, yosh avlodning ijodiy g'oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo'llabquvvatlash hamda rag'batlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi huzurida Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi tashkil etildi. Milliy markazning asosiy vazifalari va faoliyatining yo'nalishlaridan etib:

- umumiy o'rta ta'lim muassasalarining xalqaro tadqiqotlarda muvaffaqiyatli ishtirok etishini ta'minlash;

- O'zbekiston Respublikasining xalqaro baholash dasturlarida qayd etgan natijalarini boshqa davlatlar natijalari bilan qiyosiy taqqoslash;

- xalqaro baholash dasturlarini ta'lim jarayoniga joriy etish bo'yicha tizimli monitoring olib borish, ushbu sohadagi ilg'or tajribani ommalashtirish va uning asosida ta'lim muassasalari uchun tavsiyalar va qo'llanmalar ishlab chiqishda ishtirok etish;

- o'qitishning innovatsion usullaridan foydalangan holda o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlar bo'yicha pedagog kadrlarning malakasini oshirish bo'yicha o'quv-uslubiy tavsiyalar tayyorlash kabilar belgilandi.

PISA tadqiqotlari PISA (Programme for International Student Assessment) o'quvchilar bilimini baholash xalqaro dasturi, 15 yoshli bolalarning matematika, tabiiy fanlar va ona tilidan hayotiy ko'nikmalarni egallaganligini o'rganishga qaratilgan tadqiqot. PISA tadqiqotlari 2000-yildan boshlangan халқаро илмий-амалий анжуман материаллари 292 va har uch-yilda o'tkaziladi. Tadqiqot natijalari ishtirokchi mamlakatlar o'quvchilari ta'lim yutuqlari, ta'lim tizimida o'zgarishlar, o'rta ta'lim islohotining asosiy yo'nalishlarini shakllantirish va ularning amalga oshirish uchun to'siqlarni aniqlash, natijalarning o'zgarish dinamikasini kuzatish va tanqidiy tahlil qilish imkonini beradi. Xalqaro PISA tadqiqotlarining maqsadi 15 yoshli o'quvchilarning matematika va tabiiy fanlar bo'yicha hamda ona tili bo'yicha savodxonligini baholashdan iborat. Tadqiqot maktab o'quv dasturlarini ishlab chiqish darajasini belgilashga emas, balki o'quvchilar hayot sharoitida o'qitish jarayonida olingan bilim va ko'nikmalarni qo'llash qobiliyatini baholashga qaratilgan. Shu bilan birga, tadqiqot ishtirokchi mamlakatlar o'quvchilarining natijalaridagi farqlarni tushuntiruvchi omillarni o'rganadi. PISA tadqiqoti baholash topshiriqlari to'plami quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- test topshiriqlari to'plami; ta'lim muassasalari o'quvchilari uchun so'rovnomalar;
- ta'lim tashkilotlarini boshqarish uchun so'rovnomalar; test yoki so'rov o'tkazadigan shaxs uchun qo'llanma; ta'limni tashkil etish koordinatori uchun qo'llanma;

- test topshiriqlarini, ma'lumotlarni kiritish, qayta ishlash va baholash bo'yicha qo'llanma.

Tadqiqot natijalariga statistik ishlov berish natijasida har bir o'quvchi 1000 balli tizimda quyidagi me'zonlar bo'yicha baholanadi: kundalik turmushda yuzaga keladigan real muammolarni aniqlash va ularni matematikadan foydalanib hal qilish; muammolarni matematika tilida ifodalash; muammolarni matematik bilimlar va usullarni qo'llash orqali hal qilish; ishlatilgan usullarni tahlil qilish; muammoning yechimini tushuntirish; hal etish natijalarini shakllantirish va qayd etish.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston xalqaro tadqiqotlarda qatnashish orqali rivojlangan mamlakatlar tajribalarini O'zbekiston ta'lim tizimida qo'llash, o'z natijalarini boshqa davlatlar natijalari bilan qiyosiy taqqoslash imkoniyatlariga ega bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yunusova D. Matematikani o'qitishning zamonaviy texnologiyalari. Darslik. – T. : Fan va texnologiya, 2011.

2. Turdiev N. Sh., Asadov Yu. M., Akbarova S. N., Temirov D. Sh. Umumiy o'rta ta'lim tizimida o'quvchilarning kompetentsiyalarini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari, T. N. Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti, T. : 2015.

3. Ishmuhamedov R. O'quv jarayonida interfaol uslublar va pedagogik texnologiyalarni qo'llash uslubiyati. – T.: RBIMM, 2008.

O'QUVCHILAR BILIMINI XOLIS BAHOLASHDA RASMIY VA NO'RASMIY BAHOLASH USULLARIDAN FOYDALANISH

Bekmatova Umida Toshqulovna

Sirdaryo VXTXQTMOHM Aniq va tabiiy fanlar metodikasi kafedrasida katta o'qituvchisi

Annottasiya: Ushbu maqolada o'quvchilar bilimini xolis baholashda rasmiy hamda no'rasmiy usullardan foydalanishning avzalliklari to'g'risida fikr yuritilgan va misollar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Baholash, xolislik, tizimlilik, ko'rgazmalilik, rasmiy va no'rasmiy, kuzatuv, o'z-o'zini baholash

USE OF FORMAL AND INFORMAL ASSESSMENT METHODS FOR NEUTRAL ASSESSMENT OF STUDENT KNOWLEDGE.

Annotation: This article discusses the advantages of using formal and informal methods in the objective assessment of students' knowledge and gives examples.

Keywords: Evaluation, objectivity, systematic, visual, formal and informal, observation, self-assessment.

Jahonda fan va texnika taraqqiyotining jadallik bilan amalga oshishi, innovatsion texnologiyalarni o'zlashtirish bilan bog'liq bo'lgan o'zgarishlar yangi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy o'zgarishlarni keltirib chiqarmoqda. Bunday o'zgarishlar globallashtirish sharoitida barcha sohalarida kuchli raqobat muhitini shakllantirib, o'z navbatida ta'lim sohasiga nisbatan yangi talablarni qo'yimoqda. Natijada eng noyob kapital sifatida qadrlanayotgan ta'limning barcha bosqichlarida, ta'lim-tarbiya berish va natijalarni baholash samaradorligini oshirish, o'qitish usullarini takomillashtirish orqali barcha insonlar uchun ularning hayoti davomida sifatli ta'lim olish imkoniyatini yaratish muhim dolzarblik kasb etmoqda.

O'quvchilarda amaliy faoliyat tajribasini tarkib toptirish, tayanch kompetentsiyalarni shakllantirish orqali ijtimoiy hayotga samarali tayyorlash jarayonlarini tashkil etish va pedagoglar kompetentligini rivojlantirish, kompetentsiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish orqali o'quvchilarni hayotga tayyorlashga katta e'tibor qaratilmoqda. Shu bilan birgalikda o'quvchilarning darsda va darsdan tashqari mashg'ulotlarda mavzuni o'zlashtirganlik darajasiga qarab bilimni baholash muhim ahamiyat kasb etadi.

Ko'pincha psixologik va ayniqsa pedagogik adabiyotlarda "baholash" va "baho" tushunchalari aniqlanadi. Shu bilan birga, ushbu tushunchalarni farqlash o'qituvchilarning baholash faoliyatining psixologik, pedagogik, didaktik va tarbiyaviy jihatlarini chuqurroq anglash uchun o'ta muhimdir.

Pedagogikada o'quvchilarning ta'lim olganligini tashxislash va nazorat qilish tamoyillarining tizimi ishlab chiqilgan. Ulardan eng muhimlari xolislik (ob'yektivlik), tizimlilik (sistemalilik),

ko'rgazmalilik (oshkoralik) sanaladi.

Xolislik (ob'yektivlik) tashxis testlari (topshiriqlari, savollari), tashxis jarayoni mazmunining ihsosiy asoslanganligi, pedagogning barcha ta'lim oluvchilarga do'stona munosabati hamda bilim, ko'nikma va malakalarni baholashning aniq ko'rinishda belgilangan mezonlaridan iborat.

Tizimlilik (sistemalilik) tamoyilining talabi shundan iboratki, tashxislash nazoratini ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida-bilimlarni boshlang'ich idrok etishdan to amalda qo'llashgacha bo'lgan bosqichlarida olib borish kerak.

Ko'rgazmalilik (oshkoralik) tamoyili avvalo barcha ta'lim oluvchilarni aynan bir xil mezonlar bo'yicha ochiq sinovdan o'tkazishni anglatadi.

O'quvchilarning bilim, ko'nikma, malakalari va kompetentsiyalarini baholash mezonlari hamma vaqt bahstalab mavzu bo'lib kelgan. Chunki u o'quv adabiyotlarda turlicha yoritilgan. Biroq mavjud qarashlarni umumlashtirib aytish mumkinki, o'quvchilarning bilim, ko'nikma, malakalari va kompetentsiyalarini baholash mezonlari har bir fanning maqsad va vazifalariga, shuningdek, sinf (guruh)dagi o'quvchilarning o'zlashtirish darajasiga tayangan holda belgilanadi.

Avvalo, baholash - bu shaxs tomonidan amalga oshiriladigan baholash jarayoni, faoliyati (yoki harakati). Bizning taxminiy va umuman har qanday faoliyatimiz baholashga bog'liq. Baholashning aniqligi va to'liqligi maqsad sari harakatning ratsionalligini belgilaydi.

Ma'lumki, baholash funktsiyalari faqat tayyorgarlik darajasini tasdiqlash bilan cheklanmaydi. Baholash o'qituvchini o'rganish, ijobiy motivatsiya va shaxsga ta'sirini rag'batlantirishning eng samarali vositalaridan biridir. Aynan ob'yektiv baholash ta'siri ostida maktab o'quvchilarida o'z-o'zini baholash, o'z yutuqlariga tanqidiy munosabat shakllanadi. Shuning uchun baholashning ahamiyati, uning funktsiyalarining xilma-xilligi maktab o'quvchilarining ta'lim faoliyatining barcha jihatlarini aks ettiradigan va ularning identifikatsiyasini ta'minlaydigan ko'rsatkichlarni izlashni talab qiladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, bilim va ko'nikmalarni baholashning amaldagi tizimi uning diagnostik qiymati va ob'yektivligini oshirish uchun qayta ko'rib chiqishni talab qiladi. Baho (ball) baholash jarayoni, baholash faoliyati yoki harakati, ularning shartli ravishda rasmiy aks etishi natijasidir. Psixologik nuqtai nazardan, baholash va bahoni aniqlash, uning natijasi bilan muammoni hal qilish jarayonini aniqlash bilan baravar bo'ladi. Baholash asosida belgi uning rasmiy mantiqiy natijasi sifatida ko'rinishi mumkin.

O'quvchilarning o'quv faoliyatini nazorat qilish turlari, shakl va metodlari, hozirgi davr pedagogik amaliyotida turli xil usullaridan foydalaniladi. Ko'pgina mamlakatlarda o'quvchilarning baholari ta'lim samaradorligini baholash uchun asos bo'lib, ta'lim sifatining muhim parametrlaridan biridir. Bu o'rinda o'quvchilar bilimini rasmiy hamda norasmiy baholash yaxshi natija beradi. O'quvchining taraqqiyoti va tushunchasini baholashning asosiy usullaridan ikkitasi rasmiy va norasmiy baholashdir. Rasmiy baholashda testlar, viktorinalar va loyihalar mavjud. O'quvchilar ushbu baholarga oldindan tayyorgarlik ko'rishlari va tayyorlashlari mumkin va ular o'qituvchilarga o'quvchilarning bilimlarini o'lchash va o'qiyotgan taraqqiyotini baholash uchun muntazam vosita beradi.

Rasmiy - nuqtai ko'rinishida - belgining tabiatidan farqli o'laroq, baholash tinglovchiga "katlanmish" baho - markaning ma'nosini tushuntirib, batafsil og'zaki hukmlar shaklida berilishi mumkin.

Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, o'qituvchining bahosi o'quvchi ichki ravishda rozi bo'lgandagina foydali tarbiyaviy samaraga olib keladi. Yaxshi ishlayotgan maktab o'quvchilari uchun o'zlarining baholari bilan o'qituvchi tomonidan berilgan baholarning tasodifiyligi 46% hollarda bo'ladi. Va yomon ishlaydiganlar orasida - 11% hollarda. Boshqa tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, o'qituvchi va o'quvchining o'z bahosi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik 50% hollarda uchraydi. O'quvchilar o'qituvchilar talablarini tushunsalar, baholashning tarbiyaviy samarasi ancha yuqori bo'lishi aniq.

O'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini nazorat qilish natijalari uni baholashda ifodalanadi. Baholash - bu biror narsaning darajasi, darajasi yoki sifatini belgilashdir.

Norasmiy baholash odatiy, kuzatishlarga asoslangan vositalardir.

Juda kam tayyorgarlik bilan va natijalarni baholashga hojat yo'q, bu baholash o'qituvchilarga

o'quvchilarning taraqqiyoti uchun his-tuyg'u olishlariga va ular ko'proq o'qishga muhtoj bo'lgan joylarni aniqlashga imkon beradi. Norasmiy baholash o'qituvchilarga o'quvchilarning kuchli va zaif tomonlarini aniqlashga yordam beradi va kelgusidagi darslarga rejalashtirishni yo'lga qo'yadi.

Sinf xonasida norasmiy baholash muhim ahamiyat kasb etadi, chunki ular potentsial muammolarni aniqlashga yordam berishi va o'quvchilarning rasmiy baholash bo'yicha tushunishni namoyish etishi uchun kursni to'g'rilashga imkon berishlari mumkin.

Ko'pgina uy-ro'zg'or oilalari norasmiy baholashlarga deyarli umuman tayanishni afzal ko'radilar, chunki ular ko'pincha yaxshi tushunmaydigan o'quvchilar uchun tushunishning aniq ko'rsatkichidir.

Sizning sinfingiz yoki uy-joylaringiz uchun ijodiy norasmiy baholashning bir nechtasi misol keltiramiz.

Kuzatuv

Kuzatuv - har qanday norasmiy baholashning yuragidir, biroq bu alohida mustaqil uslubdir. O'quvchingizni kun bo'yi tomosha qiling. Hayajon, hayajonlanish, zerikish va ishtiyoqni izlang. Ushbu tuyg'ularni yuzaga keltiradigan vazifalar va tadbirlar haqida eslatma yozing.

O'quvchilarning ishini xronologik tartibda ko'rsatib turing, zaiflik va taraqqiyot darajasini aniqlang.

Ba'zida siz hozirgi ishni oldingi namunalarga solishtirib bo'lmaguningizcha, o'quvchining qanchalik rivojlanganligini sezmaydiz.

Muallif Joyce Herzog taraqqiyotni kuzatishning oddiy, ammo samarali usuliga ega. O'quvchingizdan tushunadigan har bir matematik operatsiyaning misolini yozing, u to'g'ri talaffuz qilishni biladigan eng murakkab so'zni yozing yoki jumla yozishni (yoki qisqa xatni) yozing. O'sha jarayonni har chorakda yoki semestrda bir marta taraqqiyotni o'lchash uchun bajaring.

O'quvchilarning o'zini baholash

O'z-o'zini baholashdan foydalanib, o'quvchilar o'zlarining rivojlanishini baholashlari va baholashlari kerak. Oddiy self-baholash uchun ko'plab variantlar mavjud. Ulardan biri o'quvchilarni qo'llashlarini so'rashi kerak: "Men mavzuni to'liq tushunaman", "Men asosan mavzuni tushunaman", "Men biroz chalkashdim" yoki "yordamga muhtojman".

Yana bir variant - o'quvchilarni to'liq tushunish, tushunish yoki yordamga muhtoj bo'lgan barmoqlar, yonbosh bosh barmog'i yoki pastga barmoqlarni berishni so'rash. Yoki besh barmoqli o'lchovdan foydalaning va o'quvchilar o'zlarining tushunadigan darajalariga mos keladigan barmoqlarning sonini ushlab tursinlar.

Siz o'quvchilarni tugatishi uchun o'z-o'zini baholash shaklini yaratishingiz mumkin. Shakllar o'quvchilarning topshiriqlari va qutilari haqida bayonotlarni ro'yxatga olishlari mumkin, ular o'quvchilar ushbu topshiriqqa qat'iy rioya qilishlarini, kelishib olishganlarini, rozi bo'lmashliklarini yoki qat'iy rozi bo'lishlarini tekshirishlari mumkin. O'z-o'zini baholashning bunday turi o'quvchilarning o'z xatti-harakatlarini yoki sinfga qatnashishini baholash uchun foydali bo'ladi.

Xulosa qilib shuni ta'kidlashimiz mumkinki, o'quvchilar bilimini baholashda no'ananviy yondoshuvlar o'quvchilarning o'zlashtirishni yaxshilash uchun xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF -5712-son Farmoni.

2.<http://markaz.tdi.uz> - Talim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi veb sayti

3.<http://www.uzedu.uz> – O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi portali.

O'ZBEK TILI MASHG'ULOTLARIDA BADIY MATNLAR ORQALI TANQIDIY FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISH

Baltaeva Anadjan Tadjibaevna, Axmedova Diyora Xatamqul qizi

Toshkent davlat transport universiteti, O'zbek (rus) tili kafedrasida dotsenti

Toshkent davlat transport universiteti, Temir yo'l transporti muhandisligi fakulteti 2-bosqich

Annotatsiya: Ushbu maqolada rusiyzabon guruhlarining o'zbek tili darslarida mustaqil o'qilgan badiiy matnlar, asarlar orqali talabalarning tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish, intellektual faolligini oshirish haqidagi fikrlar bayon qilingan

Kalit so'zlar: mustaqil fikrlash, tanqidiy tafakkur, badiiy matn, asar qahramoni, estetik did.

Annotation: This article describes the ideas of Russian-speaking groups on the formation of students' critical thinking skills, increasing their intellectual activity through literary texts, works read independently in Uzbek language classes.

Keywords: independent thinking, critical thinking, literary text, protagonist, aesthetic taste.

O'zbek tili o'qitishning noan'anaviy shakllari talabalarni izlanish va darsning turli-tuman shakllarini loyihalashtirishga undaydi. Noan'anaviy darslarni loyihalashtirish va tashkil etish o'qituvchidan ijodiy pedagogik faoliyat ko'rsatishni talab qiladi. O'qituvchi noan'anaviy darslarni loyihalashtirar ekan, unga muvofiq keladigan metodlar, shakllar, usullarni tanlaydi. Bu esa didaktik jarayon samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi. "Bu o'rinda gap, eng avvalo, yoshlar va aholi o'rtasida mamlakatimizning boy tarixini, uning betakror madaniyatini keng targ'ib qilish, jahon ilm-fani va adabiyoti yutuqlarini etkazish uchun zarur muhit va shart-sharoit yaratish" maqsadida o'zbek tili mashg'ulotlarida tanlanadigan badiiy matnlar mazmun va mohiyati bilan aloqadordir. Mazkur jarayonda o'qituvchining pedagogik faoliyati muayyan talablar, qoidalar va me'yorlarga bo'ysundiriladi.

Ayni shu jarayonda pedagogik faoliyatning o'ziga xos texnologiyalari mavjud. O'zbek tili fanida talabalar o'rganishlari uchun tanlanadigan badiiy matnlar asar qahramonlarining xatti-harakatlari orqali o'quvchilar ongi va ruhiyati, hissiy olami va e'tiqodiy qarashlarini to'laqonli yoritishga xizmat qilishi kerak. Bu mazkur maqsadga yo'naltirilgan didaktik jarayonni to'g'ri tashkil etishdir. Talabalarni badiiy asar qahramonlariga baho berishga o'rgatish jarayoni samarali kechishi uchun quyidagilarga amal qilishi kerak:

- darslarning mavzusi, maqsadi, turi va tarkibini aniq ko'rsatish;
- talabalarni badiiy asar qahramonlariga baho berishga o'rgatishga xizmat qiladigan darslarning boshqa darslar orasida tutgan o'rnini to'g'ri belgilagan holda uni oldingi va keyingi darslar bilan bog'lash;
- talabalarni badiiy asar qahramonlariga baho berishga o'rgatadigan o'quv materiallari mazmunini tanlash;
- badiiy asar qahramonlari orqali ijtimoiy hayotda ma'lum g'oyani ochishga yo'naltirilgan mazmunni singdirishga o'rgatishga xizmat qiladigan samarali usullar va metodlarni tanlash va faoliyatning turli-tuman ko'rinishlari bilan qurollantirish;
- talabalarining badiiy asar qahramonlariga tanqidiy baho bera olish ko'nikmalarini nazorat qilish shakllarini aniqlash;
- tanqidiy baholash tafakkurlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan
- hamkorlikdagi faoliyatlarini amalga oshirish yo'llarini ko'rsatish;
- darslarning maromi va mazkur jarayonda o'qituvchi va o'quvchilarning asar qahramonlari ichki va tashqi olamini yoritishga yo'naltirilgan faoliyatlarini boshqarishning demokratik uslublarini tanlash va mazkur jarayonda o'qituvchi bilan o'quvchilarning hamkorlikdagi faoliyati uchun qulay muhitni vujudga keltirishdan iboratdir.

Talabalardan badiiy asar qahramonlari shaxsini yoritib berish talab qilinganda, bizningcha, o'qituvchi quyidagicha savollar berish yordamida aniqlab olishlari mumkin:

"Hech narsadan tap tortmaydigan shaxs qanday odam hisoblanadi?

Siz o'qigan asarlaringizda bunday qahramonlar mavjudmi? Ularning nomini ayting?

Hayotda faqat birovlarining kamchiliklarini ko'ra oladigan odamlarni qanday shaxslar deyish mumkin? bunday shaxslar siz bilgan qaysi asarlarda tasvirlangan?

O'zligidan voz kechib o'zgalar baxti uchun kurashadigan kishilar qaysi asarlarda tasvirlangan? Siz ularning qaysi jihatlariga havas bilan qaraysiz? O'zingiz o'qigan asarlardagi qahramonlarning qanday sifatlarini qadrlaysiz?

Badiiy asar matnlarini tahlil qila oladigan o'quvchilar mazkur savollarga javob izlash jarayonida turli manbalarga murojaat qiladilar.

Talabalarda tanqidiy baholash ko'nikmalarini shakllantirishda badiiy asarlarni rollarga bo'lib o'qish va ifodali o'qish mashg'ulotlari, ya'ni o'qitish metodikasi jihatidan muhim ahamiyat kasb etadi.

Talabalar matndagi har bir qahramonga tavsif berilayotgan o'rinlarni alohida ohang bilan o'qiydilar. Ularning o'qish ohangidan asar qahramonlariga nisbatan munosabatlari oydinlashadi. Xuddi shu vaziyatda ular tanqidiy fikrlash munosabati yoki tanqidiy baho berish ko'nikmalari tarkib topa boshlaydi. O'quv jarayonini faollashtirishning muhim sharti – o'zbek tili darslarida talabalarning badiiy asarni idrok etishlariga barcha imkoniyatlarni safarbar qilishdan iborat bo'ladi. Buning uchun o'qituvchi ularning barcha imkoniyatlarini o'rganishi, hisobga olishi, tahlil etishi talab qilinadi. Shu maqsadda u turli usullardan foydalanishi kerak. Masalan, anketa so'rovlari, suhbatlar tashkil etish, asarlarni illyustratsiyalashtirish, badiiy asar yuzasidan savollar tuzish kabilardan foydalanishi maqsadga muvofiqdir.

Pedagogik jihatdan o'qituvchida badiiy asar haqidagi tasavvur garchand ancha oldin shakllangan bo'lsada, o'quvchilar ham ushbu asarlarni aynan ulardek idrok etishi uchun intilishlari lozim.

Masalan, Abdulla Qodiriyning "Mehrobdan chayon" asaridan keltirilgan matnni o'rganish jarayonida o'qituvchi tomonidan quyidagi savollar tarqatiladi. Jumladan, asardagi bosh qahramonlarning tavsifi, mazkur tavsif o'z ichiga nimalarni qamrab olishi lozimligi, ya'ni tavsif modeli, har bir qahramonning o'ziga xos jihatlarni topish lozimligi, bu sifatlarni ifodalovchi fikrlar tuzish zarurligi, shu asosda krossvordlar tuzish, adabiy viktorinalar tashkil etish, asarning bosh qahramonlari suratlarini chizish, ular qiyofasini tasvirlash kabi vazifalar qo'yiladi. Darvoqe, mazkur romanni o'rganishda o'quvchilardan asarning bosh qahramonlariga tavsifnomalar yozish va ularga tanqidiy baho berish talab etiladi. Demak, talabalarni bahs-munozaraga undash - ularni faollashtirishning muhim shartidir. Ulardan qahramonlarga nisbatan o'zlarining turli nuqtai nazarlarini bayon qilishlari talab etiladi. Mazkur darsning markaziy savoli asar qahramonlari "O'z maqsadlariga erishish uchun qanday yo'l tanlashlari lozim edi?" degan savol bo'lishi mumkin. O'quvchilar asar qahramonlarining har birini tahlil qilish asosida ma'ruzalar tayyorlashlari va shu asosda kursdoshlarini bahsga chorlashlarini talab qilish maqsadga muvofiqdir. Bunday darslarda video materiallar, "Mehrobdan chayon" asari asosida ishlangan kinofilmlardan lavhalar tanlab olinib, foydalanish ayni muddao. Bunday usullar talabalarda romanga nisbatan qo'shimcha qiziqishlarini shakllantiradi. O'quvchilar oldiga romandan va kinofilmdan Anvar hamda Ra'noning xarakteriga xos bo'lgan lavhalarni tanlash va izohlab berish haqida topshiriqlar qo'yish maqsadga muvofiqdir.

Shu bilan bir qatorda, o'quvchilarga asar g'oyasiga tayangan holda uning muqova rasmlarini yaratish haqida ixtiyoriy topshiriqlarni berish mumkin. Bizningcha, chizishni xush ko'radigan talabalarga o'qituvchi quyidagicha topshiriqlar berishi lozim: "Anvarning yoki Ra'noning o'z tasavvuringizdagi qiyofasini yarating?", "Mehrobdan chayon" romanidagi qalbingizga yaqin lavhalarni keltiring?", "Mehrobdan chayon" romanidagi salbiy qahramonlarning asosiy fojiasi nimada deb bilasiz?" Chizishni bilmaydigan o'quvchilar o'z fikrlarini yozma shaklda matn tarzida bayon qilishlari mumkin.

Darhaqiqat, talabalarda badiiy asar qahramonlarini baholash ko'nikmalarini tarkib toptirishda ular asar qahramonlariga nisbatan "bu ijobiy, faol, insonparvar", "bunisi esa aksincha, bunday sifatlardan uzoq, faol emas" degan yondashuvni qaror toptirish kerak. Natijada talabada shakllantirilgan tanqidiy fikrlash ko'nikmasi muayyan badiiy asar qahramonlarining shaxsini anglab etishga ko'maklashadi.

Foydalaqnilgan adabiyotlar:

1. Sh.Mirziyoev.Tanqidiy tahlil,qat'iy tartib- intizom, va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak.Toshkent -"O'zbekiston", 2017 yil,45-47betlar.
2. Sayidahmedov N.Yangi pedagogik texnologiyalar.-Toshkent.:Moliya,2003.- 172 b.
3. Sariev Sh. Mustaqil fikrlashga o'rganish // J. Boshlang'ich ta'lim. – 2000. - №2. – 31-32 betlar
4. Husanboeva Q. Adabiyot – ma'naviyat va mustaqil fikr shakllantirish omili. Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti.Toshkent, 2009. – 365 bet.

BOSHLANG'ICH SINF TABIIY FANLARIDA STEAM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH

Mamatkulova Nigora Sherbekovna
Sirdaryo VXTHQTMOHM "Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikalari" kafedrası katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy ta'lim shakllari va ularning ahamiyati, zamonaviy ta'lim shakllaridan hisoblangan STEAM ta'limning rivojlanishi, imkoniyatlari, yutuqlari haqida keng mulohaza yuritilgan.

Kalit so'zlar: STEAM, fan, texnologiya, muhandislik, san'at, matematika

"Tabiiy fanlar" o'quv predmeti kichik maktab yoshdagi o'quvchilarda tabiatga bo'lgan qiziqishni, unda kechayotgan hodisa va jarayonlar to'g'risida bilimlarni anglashda hamda ularning empirik (kuzatish, tadqiqot) metodlarni o'zlashtirishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Tabiatga doir bilimlarni o'rganishda tafakkur asosiy o'rinda turadi. O'quvchilar dunyoqarashining asosini tabiat haqidagi bilimlar tashkil qiladi. Kichik yoshdagi o'quvchilar atrof-olam haqidagi bilimlarni anglayotganda hali yetarli darajada bilimlar hajmi tizimlashtirilmagan bo'ladi. Buning uchun fanlarni birlashtirish, integratsiyalash bu muammoni hal qilishga yordam beradi.

O'qitishda integratsiyalashgan yondashuvni amalga oshirish o'rganilgan bilimlarni, o'quv jarayonida, darsdan tashqari mashg'ulotlarda, umumta'lim maktab bitiruvchisi bo'lganida hamda ijtimoiy hayoti davomida qo'llashiga yordam beradi.

Tabiiy fanlar biologiya, geografiya, kimyo, fizika, astronomiya, ekologiya yo'nalishlarini o'z ichiga oladi. Bu fanlarning har biri o'ziga xos tarkib, tuzilish va tadqiqot usullariga ega.

Olamda sodir bo'layotgan turli hodisa hamda jarayonlarni tushuntirishda tabiiy fanlarni o'zaro bog'lash asosida tabiatning turli jihatlarini tasvirlaydigan modellardan foydalaniladi.

Fanlarni o'zaro bog'lab, olamda sodir bo'layotgan turli hodisa hamda jarayonlar haqidagi tushunchalarni kichik maktab yoshidan anglashda "Tabiiy fanlar" darsligi o'quvchiga katta yordam beradi.



Endilikda umumta'lim maktablarida boshlang'ich ta'limdanoq o'quvchilarga integratsiyalashgan ta'lim berish amaliyotga joriy etilmoqda.

Integratsiyaning o'zi maqsad emas, balki o'qituvchi faoliyatining ma'lum bir tizimi

bo'lgani uchun, u muayyan o'quv muammolarini hal qiladi.

Mavzu: Hayvonlarning xilmaxilligi

S – tabiiy fanlar Hayvonlar haqida ma'lumot berish, "Nima?, Qachon?, Qayerda?" didaktik o'yinini o'tkazish.

T – texnologiya Berilgan hayvonlarni tasvirini yasang.

E - muhandislik "Eng- eng" metodidan foydalanib hayvonlarga ta'rif bering. Eng katta hayvon, eng kichik hayvon, eng chiroyli...

A – san'at Hayvonlar haqida she'r ijro eting, ularni harakatlarini ko'rsatib bering.

M – matematika Hayvonlardan olinadigan maxsulotlar xaqida masala tuzing.

STEAM ta'lim texnologiyasi ta'limning asosiy ta'lim shakli mashg'ulotlar jarayonidagi integratsiyalashuvni yuzaga olib chiqadi. Asosiy maqsad fanlarni "yodlash" emas, balki o'quvchilarning mantiqiy ijodiy va ijodiy fikrlash qobiliyatini, jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish, ilmiy-texnik kasb tanlash motivatsiyasini oshirish, innovatsion yechimlarni moslashtirish va topish qobiliyatlarini rivojlantirishdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. "Tabiiy fanlar" Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 1-sinfi uchun darslik Toshkent – 2021
2. Internet materiallari: <http://go.mail.ru/search?>. "Ta'lim texnologiyalari"

ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA ERTAKLAR ORQALI MATNNI TUSHUNISH DARAJASINI OSHIRISH YO'LLARI

*Djabbarova Farog'at, Mangitovna Musulmonova Nigora, Djumayevna Bobojonova Nilufar
Guliston shahar 16-umumta'lim maktabining
boshlang'ich sinf o'qituvchilari*

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'quvchilarni ertaklar o'qish orqali PIRLS xalqaro tadqiqotlariga tayyorlash yo'llari haqida ko'rsatma berilgan.

Kalit so'zlar: hikoya, she'r, ertak, masal, maqol, doston, rivoyat, topishmoq ijodiy faoliyat, savodxonlik, ijodiy fikr, ijodkorlik, grammatik, tizimlilik.

Аннотация: В этой статье представлены инструкции о том, как подготовить читателей к международным исследованиям PIRLS, читая сказки.

Ключевые слова: рассказ, стихотворение, сказка, притча, поговорка, эпос, повествование, загадка творческая деятельность, грамотность, творческая мысль, креативность, грамматичность, систематичность.

Annotation: In this article, we are instructed on the ways of preparing students for PIRLS International Studies by reading fairy tales.

Keywords: story, poem, fairy tale, parable, proverb, epic, narration, riddle creative activity, literacy, creative thought, creativity, mathematics, systematics.

Ta'lim jarayonida o'quvchilar voqea-hodisalarni kuzatish, anglash, qiyoslash, analiz va sintez qilishga o'rgatish orqali ijodiy va tanqidiy tafakkurini, fikrlash doirasini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Ona tili va o'qish savodxonligi fani ushbu maqsadlarni amalga oshirishga xizmat qiladi. Ona tili va o'qish savodxonligi fanini o'qitishda asosiy e'tibor o'quvchida tilga doir to'rt ko'nikma: o'qib tushunish, tinglab tushunish, nutq so'zlash va yozish hamda grammatik savodxonlikni shakllantirishga qaratiladi.

Hozirgi vaqtda ta'lim jarayonida o'qitishning zamonaviy metodlari keng qo'llanilmoqda. O'qitishning zamonaviy metodlarini qo'llash o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Bu metodlarni har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq.

PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study — xalqaro o'qish savodxonligini o'rganishdagi yuksalish) — bu turli mamlakatlarda boshlang'ich sinfda tahsil oluvchi o'quvchi yoshlarning matnni o'qish va tushunish darajalari sifatini baholab beruvchi xalqaro baholash tizimidir.

O'qish savodxonligi doirasida o'quvchida to'g'ri, tez, ongli, ifodali o'qish malakalarini shakllantirish, ularni oddiy kitob o'quvchidan chuqur mulohaza yurituvchi, ijodkor kitobxon darajasiga ko'tarish; o'qish orqali tevarak-atrof, borliq haqidagi bilimlarini kengaytirish, ularning dunyoqarashini boyitish; tafakkurida elementar adabiy tushunchalarni shakllantirish; har qanday uslubdagi matnni o'qish va uni anglash, tanqidiy va kreativ fikrlash ko'nikmasini oshirish nazarda tutiladi.

Badiiy matn ustida ishlash jarayonida o'quvchilarning yosh xususiyatlari, qiziqishlari, tilning ifoda imkoniyatlarini tushunishi va his eta olishi, "so'zni hazm qila olish" imkoniyatlari e'tiborga olinadi. Ta'lim jarayonida o'quvchilarni voqea-hodisalarni kuzatish, anglash, qiyoslash, analiz va sintez qilishga o'rgatish orqali ijodiy tafakkuri, fikrlash doirasi shakllantirib boriladi.

Xalq og'zaki ijodida ertak janrining bolalar tomonidan yaxshi qabul qilinib, qiziqib o'qilishining sabablaridan biri ertak tilining ta'sirchanligi, o'tkirligi, ma'nodorligi va xalq tiliga yaqinligidir. Ertaklarning ko'pchiligida real hayot tasviri sarguzasht elementlar bilan qo'shib ketadi.

Ertakning o'tkir maroqli syujeti, voqea rivojidagi favqulodda ajoyib vaziyat bolalarni maftun qiladi, undagi mard, kuchli, topqir, dovyurak, chaqqon qahramonlar, ertakning g'oyaviy yo'nalishi, unda ezgulik kuchining — yaxshilikning doimo g'alaba qilishi bolalarni o'ziga tortadi. Ertakda qabul qilingan hikoya qilish shakli bir xil so'z va iboralarning qayta-qayta takrorlanib turishi, ohangdorligi, tilining ta'sirchanligi, ifoda vositalarining jonliligi, bolalar uchun juda qiziqarliligidir. Ertakda qatnashuvchilar ko'pincha rahmdil, saxiy, adolatli hamda ularning aksi bo'lgan yovuz, baxil, ochko'z

obrazlar bo'radi.

Ertak ustida ishlashda bolalarni ertakni o'qishgagina emas, balki uni aytib berishga o'rgatish ham muhimdir. Ertak aytish og'zaki nutqni o'stiradi, bolalar nutqini yangi so'z va iboralar bilan boyitadi.

“Echki bolalari va yovuz bo'ri” ertagi eshittiriladi. Ertakni tushunishga qaratilgan quyidagi savollar bilan ishlanadi:

1. Ona echki va uning bolalari qayerda yashar ekan? Bolalari soni nechta ekan?
2. Ona echki bolalarini nega himoya qilargan?
3. Ona echki bolalariga bo'rini qanday farqlash haqida nimalar gapiribdi?
4. Bo'ri ona echkiga o'xshash uchun nimalar qilibdi?
5. Echki bolalari qayerlarga yashirinishibdi? Bo'ri ularni topa olmabdimi?
6. Ona echki bolalarini qanday qilib qutqaribdi?
7. Bo'ri nima uchun suvga cho'kib ketibdi?
8. Bu ertakdan qanday xulosa chiqardingiz?

O'qish ta'limi bo'yicha o'quvchilarni faqat matn bilan tanishtirish yordamida dastur talablariga javob berib bo'lmaydi. Negaki, matn tagzaminidagi tarbiyaviy g'oya uni tushunish, idrok qilish natijasidagina ochiladi. Boshqacha aytganda, har qanday asardagi sehr-joziba matn zaminidagi yashirin mazmun-mohiyatni anglab yetilganda o'quvchi diqqatini o'ziga jalb etishi mumkin. Bunga adabiy-nazariy tushunchalarni o'zlashtirish, adabiy tahlil malakalarini shakllantirish orqali erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. "Ona tili va o'qish savodxonligi" o'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. Toshkent – 2021
2. Internet materiallari: <http://go.mail.ru/search?>. "Ta'lim texnologiyalari"

TIMSS TOPSHIRIQLARI NAMUNALARIDAN BOSHLANG'ICH SINIF MATEMATIKA DARSLARIDA FOYDALANISH

*Shokirova Zubayda Xidirovna, Mansurova Dilnoza Ortiqboyevna
Boyovut tumani 52-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchilari*

Annotatsiya: Ushbu maqolada TIMSS topshiriqlari namunalaridan matematika darslarida foydalanish bo'yicha ko'rsatmalar berilgan.

Kalit so'zlar: bilish, qo'llash, mulohaza yuritish baholash, muammoli vaziyat, integratsion jarayon, kasr son, ifoda.

Аннотация: данная статья содержит инструкцию по использованию примеров заданий TIMSS на уроках математики.

Ключевые слова: знать, применять, рассуждать, оценивать, проблемную ситуацию, интегративный процесс, дробное число, выражение.

Annotation: this article provides instructions on the use of examples of TIMSS assignments in mathematics lessons.

Keywords: cognition, application, evaluation of reasoning, problematic situation, integration process, fractional, expression.

Matematika olamni, dunyoni bilishning asosi bo'lib, tevarak-atrofimizdagi voqea va hodisalarning o'ziga xos qonuniyatlarini ochib berishda juda katta ahamiyatga ega. Matematik bilimlarsiz ishlab chiqarish va fanning rivojlanishini tasavvur qilib bo'lmaydi. Shuning uchun ham matematik madaniyat umuminsoniy madaniyatning tarkibiy qismi hisoblanadi va matematika jamiyatimizning barcha jabhalariga juda katta madaniy hissa qo'shadi.

Ma'lumki, matematika fani inson aqlini charxlaydi, diqqatini rivojlantiradi, ko'zlangan maqsadga erishish uchun qat'iyat va irodani tarbiyalaydi, algoritmik tarzda tartib-intizomlilikka o'rgatadi va eng muhimi, mulohaza yuritish, muammolarni hal qilish, innovatsiyalarga chorlaydi hamda tafakkurni kengaytiradi. Muhtaram Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Matematika hamma fanlarga asos. Bu fanni yaxshi bilgan bola aqlli, keng tafakkurli bo'lib o'sadi, istalgan sohada muvaffaqiyatli ishlab ketadi".

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining matematika fanidan o'quv materiallarini

o'zlashtirish darajasini TIMSS (Trends in International Mathematics and Science Study) xalqaro baholash dasturiga uyg'unlashtirish asosida tayanch va fanga oid kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirish hozirgi kunda dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bunda o'quvchilarning matn, tasvir, raqam ko'rinishidagi o'quv materiallarini tahlil qilish, qayta ishlash, imitatsiyalarini yaratish, interpretatsiya qila olish asosida o'quv topshiriqlari bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirishning pedagogik imkoniyatlarini o'rganish zarur.

Matematika fanini o'qitishning didaktik imkoniyatlarini o'quvchilarni algoritmik axborot almashinish faoliyatiga bosqichma-bosqich yo'naltirish asosida oshirish o'quvchilarning ta'lim jarayonidagi faolligini ta'minlaydi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari hayotiy faoliyatlari davomida o'quv materiallarining ahamiyatini anglab yetishlari uchun o'quv materialini tanlash yoki tayyorlashda hayotiyligi va ko'rgazmaliligiga ahamiyat beriladi.

TIMSS topshiriqlaridan namunalar

Hech qanday arifmetik amallarni bajarmay 66 sonini 1,5 marta oshiring.

To'q qizni to'qqiz soat bo'sh xonaga bekitib qo'yilsa, nima bo'ladi?

Har 5 minutda yarim metrli yog'ochni arralayotgan kishi 14 metrli yog'ochni qancha vaqtda kesib bo'ladi?

188 sonini ikkiga bo'lib 100 hosil qiling

Ikki ota o'z o'g'illariga pul berishdi. Birinchi ota o'z o'g'liga 10 tanga, ikkinchi ota o'z o'g'liga 5 tanga berdi. Lekin o'g'illar pullarini sanashsa 10 tanga chiqdi. Shu to'g'rimi?

Ikkidan katta, lekin uchdan kichik son hosil qilish uchun ularning orasiga qanday belgi qo'yish mumkin?

Ikkalamizdagi pul miqdori teng. Men sizga necha so'm bersam, sizning pulingiz menikidan 100 so'm ko'p bo'lib qoladi?

Ikkita cho'p stol ustiga qator qilib terilgan, o'rtadagi cho'pga tegmasdan, uni o'rtadan yo'qotish mumkinmi?

Stol ustida ikkita cho'p bor. Sindirmasdan ular yordamida kvadrat yasang?

Stol ustida ikkita cho'p bor. Sindirmasdan ular yordamida 5 raqami hosil qiling?

O'quv materiali qanchalik ahamiyatli bo'lmasin, boshlang'ich sinf o'quvchilarining diqqati barqaror emasligi tufayli qiziqishni doimiy saqlab tura olmaydi. Shuningdek, boshlang'ich sinf o'quvchilarining xotirasi ko'proq tasvirli materiallarni eslab qolish xususiyatiga ega bo'lib, o'quv materiallarining tasviriy ifodalanganligi muhim. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining idroki amaliy faoliyat bilan bevosita bog'liq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Jumayev M.E Matematika o'qitish metodikasi. (OO'YU uchun darslik.) — T.: "Turon iqbol" 2020.

2. Abdullayeva B va b.q Matematika —4-sinf o'qituvchilari uchun ilg'or pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini amaliyotga joriy etish bo'yicha metodik qo'llanma T-2017

TA'LIM BERUVCHINING KOMPETENTSIYASI

Tajibayeva Ma'mura Tojiddinovna

Namangan davlat universiteti doktranti

Annotatsiya: Maqolada ta'limda pedagogning boshqaruvchilik roli hamda kompetentlik noan'anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o'zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o'zaro munosabatlarda yangi yo'l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga ega bo'lishi to'g'risida yoritilgan.

Аннотация: В статье освещена управленческая роль педагога в образовании и компетентность в нестандартных ситуациях, как специалист ведет себя в непредвиденных ситуациях, вступает в диалог, по-новому взаимодействует с оппонентами, имеет план

действий при выполнении неоднозначных задач, последовательно развивающихся и сложных процессах.

Annotation: *The purpose of education the management role of the educator is aimed at ensuring that the specialist has a plan of self-conduct, communication, a new way of interacting with the answers, performing ambiguous tasks, consistently developing and moving in complex processes.*

Ta'lim-tarbiya jarayoni pedagogning o'rgatuvchilik faoliyatini va ta'lim oluvchilarning maxsus tashkil etilgan bilish faoliyatini o'z ichiga oladi. Shu o'rinda bu jarayonlarning tahliliga e'tibor qarataylik. Ta'limda pedagogning boshqaruvchilik roli o'z kasbining ijtimoiy asoslaridan kelib chiqib, ajdodlarining boy tajribasini, insoniyatning asrlar davomidagi bilish, mehnat, muloqot, umumiy aloqalar, estetik hamda axloqiy qarashlar jarayonida qo'lga kiritgan yutuqlarni egallashni shart qilib qo'yadi. Bularning barchasi pedagogning ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi maqsadlarni amalga oshirishida o'z aksini topmog'i lozim. Ana shu asosdan kelib chiqib aytish mumkinki, ta'lim jarayonida pedagog ta'lim oluvchilariga qo'lga kiritilgan bilimlarni o'rgatadi. O'quv faoliyatida ularni ko'nikma va malakalar bilan qurollantiradi. Shu bilan bir paytda u ta'lim oluvchilarda dunyoqarash va axloq normalarini hosil qiladi, qiziqish va qobiliyatlarni shakllantiradi, ularning shaxsiy fazilatlarini rivojlantiradi.

Pedagogning faoliyati ta'lim oluvchi shaxsining maqsadga muvofiq shakllanishiga katta imkoniyatlar ochib beradi. Yanada aniq qilib aytsak, butun o'quv jarayonini rejalashtiradi, ushbu jarayonda ta'lim oluvchilar bilan birgalikdagi faoliyatni tashkil etadi. Ta'lim oluvchilarga qiyinchiliklarni yengib o'tishda yordam beradi hamda ularning bilimlarini va butun ta'lim jarayonini tashxis qiladi. O'z navbatida ta'lim oluvchilarning faoliyati o'quv jarayonida o'rganishga, bilim, ko'nikma malakahamda shaxsiy fazilatlarini egallashga, o'zini jamiyatga foydali faoliyatga tayyorlashga yo'naltiradi. Ta'lim jarayonida ta'lim oluvchilarning faoliyati ko'p qirrali yo'nalgan harakatni ifodalaydi va bu harakat bilishga doir vazifalarni hal qilishda ularga katta yordam beradi. Mehnat bozorining o'zgarib borishi, taraqqiyot jadallashuvi, axborot muhiti glabollashishi ta'sirida maktab bitiruvchisiga qo'yilayotgan talablar murakkablashib boraveradi. Shu nuqtai nazardan, zamonaviy maktab o'z faoliyatini tashkil etishda nafaqat bugungi davr talablarini inobatga olishi, balki ta'lim oluvchilarni ertangi kun talablariga ham tayyorlashi zarur. SHu bois maktab ta'lim oluvchilariga bilim berish bilan birga, ularda mustaqillik, tashabbuskorlik, hamkorlik, vaziyatni real baholay olish, mantiqiy fikrlash, axborotni saralash va undan oqilona foydalanish, tez kirishuvchanlik xususiyatlarini shakllantirib, har qanday o'zgarishlarga konstruktiv moslasha olish qobiliyatini rivojlantirib borish lozim.

Oldimizda turgan bu dolzarb vazifa mustaqil hayotiy pozitsiya, ijtimoiy faollik, yuksak aqliy va ma'naviy salohiyatni shakllantirishga qaratilgan shaxsga yo'naltirilgan ta'limni hayotga yanada kengroq tatbiq etishni taqazo etadi.

Buning uchun ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan har bir pedagogning kompetentsiyaga ega bo'lishi muhimdir. Demak, kompetentsiyaviy yondashuv bilim, ko'nikma va malakani inkor etmagan holda, egallangan bilimlarni amalda qo'llay olish qobiliyatini rivojlantirishga katta e'tibor qaratadi.

Bozor munosabatlari sharoitida mehnat bozorida ustuvor o'rin egallagan kuchli raqobatga bardoshli bo'lish har bir mutaxassisdan kasbiy kompetentlikka ega bo'lish, uni izchil ravishda oshirib borishni taqozo etmoqda.

"Kompetentlik" tushunchasi ta'lim sohasiga psixologik ilmiy izlanishlar natijasida kirib kelgan. Psixologik nuqtai nazardan kompetentlik "noan'anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o'zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o'zaro munosabatlarda yangi yo'l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to'la ma'lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik"ni anglatadi. Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo'nalish bo'yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o'zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, kompetentsiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o'rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma'lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o'z faoliyatida qo'llay bilishni taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Zunnunov A. Pedagogika tarixi. –T. : Sharq, 2000.
2. Ibragimov X. I. , Abdullaeva Sh. A. Pedagogika. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Fan, 2004.
3. Toxtaxodjaeva M. X. va boshqalar. Pedagogika nazariyasi va tarixi 1-qism: Pedagogika nazariyasi. – T. 2007.
4. Xoshimov K. , Nishonova S. Pedagogika tarixi. -T. : Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2005.
5. Hasanboev J. va boshqalar. Pedagogika. O'quv qo'llanma– T. : “Fan”, 2006.

PIRLS TOPSHIRIQLARIDAN O'QISH DARSLARIDA FOYDALANISHNING O'ZIGA XOS O'RNI

Boychayeva Sharifa Saidkulovna

*Sirdaryo VPXQTMOHM Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikalari kafedrasi
katta o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini PIRLS xalqaro tadqiqotiga tayyorlashda yaxshi o'qish malakalarining o'rni, e'tibor qaratiladigan jihatlar to'g'risida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: o'qish, yaxshi o'qish malakalari, matn ustida ishlash, mustaqil fikrlash, xalqaro tadqiqotlar

Аннотация: В этой статье обсуждается роль хороших навыков чтения в подготовке учащихся начальной школы к международному исследованию PIRLS.

Ключевые слова: чтение, хорошие навыки чтения, работать над текстом, независимое мышление, международные исследования.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qish va matnni tushunishga o'rgatish murakkab pedagogik jarayon bo'lib, uni samarali tashkil etish boshlang'ich sinf o'qituvchilaridan jarayonga maqsadli, tizimli yondashishni talab etadi. Binobarin, o'quvchilarni o'qish va matnni tushunishga o'rgatishda boshlang'ich sinf o'qituvchilari yetakchi o'rin egallaydi. Shunday ekan boshlang'ich sinf darslarida o'quvchilarni turli xildagi matnlar ustida ishlashga o'rgatish zarur.

PIRLS xalqaro dastur bolaning mustaqil inson sifatida rivojlanishida katta ahamiyat kasb etib, boshlang'ich ta'limda tahsil olayotgan o'quvchilarning o'qib tushunish ko'nikmalarini xalqaro miqyosda baholaydi. PIRLS dasturida asosiy e'tibor 4-sinf o'quvchilariga qaratiladi, buning boisi odatda, ushbu rivojlanish davrida o'quvchilar o'qish ko'nikmasini hosil qilgan bo'lib, endi bu ko'nikmadan boshqa fanlarni o'rganishda foydalanayotgan bo'ladi. PIRLS topshiriqlari asosida tuzilgan “O'jar baliqcha” mavzusiga to'xtalib o'tsak.

O'JAR BALIQCHA

Bir bor ekan, bir yo'q ekan. Katta moviy dengizda tangabaliq bolalari bilan yashar ekan. Baliqchalar suvda maza qilib suzishar, shirin ovqatlar topib yeyishar, onalariga erkalanib o'ynashar ekan.

Bir kun kenjatoy baliqcha zerikibdi. Aka-opalariga injiqlik qilib yig'layveribdi. Akalari uni ovutib, o'ynatibdilar. O'jar baliqcha uzoqroqqa borib o'ynashni xohlabdi. Akalarining gapiga quloq solmay suzib ketibdi. Ular ukasiga:

-Uzoqqa borma, adashib qolasan!-deb qancha gapirsalar ham baliqcha o'jarlik qilib suzishda davom etibdi. U suzib borib, dengiz chirmovig'iga ilinib qolibdi.

-Akajonlar, qutqaringlar!-debdi kichkina baliqcha yig'lab. Ammo akalari ancha uzoqda bo'lganlari uchun uning gaplarini eshitmabdilar.

Dengizdagi katta baliqlar tayyor o'ljani ko'rib og'izlarini katta ochib kela boshlabdilar. Shu vaqt uning onasi va akalari kelib qolishibdi. Ular chaqqonlik bilan chirmoviqni tishlab uzishibdi va baliqchani qutqarib, tezda suzib ketishibdi. Katta baliqlar ularga yeta olmabdilar. Shu-shu baliqcha kattalar gapini tinglaydigan, o'jarlik qilmaydigan bo'libdi.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Katta moviy dengizda qanday baliq yashar edi?

- A) Sazan baliq
- B) Cho‘rtan baliq
- C) Tangabaliq
- D) Laqqa baliq

2. Katta moviy dengizda tangabaliq kimlar bilan yashar edi?



3. Qaysi baliqcha injiqlik qilib yig‘layvergan ekan?




4. Akalar kenja baliqchaga nima deb nasihat qilgan ekan?
Bitta misol keltiring.



5. Kenja baliq suzib borib nimaga ilinib qolibdi

- A) Baliqchilar to‘riga
- B) Toshlar orasiga
- C) Dengiz chirmovig‘iga
- D) Qarmoq uchiga

6. Dengizdagi katta baliqlar tayyor o‘ljani ko‘rib og‘izlarini katta ochib kela boshlabdilar. Su payt kenja baliqni qutqarish uchun oldiga matnni davom ettiring.



7. Ular chaqqonlik bilan chirmoviqni qanday uzib tashladi?



8. Nima uchun matnni “O‘jar baliqcha” deb nomlagan? Matnga yana nima deb sarlavha qo‘ysak bo‘ladi?



Shu tartibdagi savol va topshiriqlardan foydalanishimiz o‘quvchilarimizni bilim saviasini yanada chuqurroq bo‘lishiga, ular fanni yashiriq bilishiga nutq faoliyatini rivojlanishiga olib keladi.

Xulosa o‘rnida aytganda, xalqaro baholash dasturlarida ishtirok etishga tayyorgarlikni ushbu sohadagi xalqaro tajribalarni o‘rganish bilan bir qatorda darsliklarning yangi avlodini yaratishdan boshlash zarur. Bu esa ta’lim sifatini oshishiga va O‘zbekistonning xalqaro standartlar darajasida yuqori natijalarga erishishini kafolatlaydi

Foydalangan adabiyotlar

1. Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlari. Toshkent, 2017.
2. Umumiy o‘rta ta’limning milliy o‘quv dasturi loyihasi. 2020.
3. Xalqaro tadqiqotlarda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini baholash. Tuzuvchilar: A.Ismailov va boshq. Toshkent: “Sharq”, 2019.2.

O‘QITUVCHILAR O‘Z-O‘ZINI TARBIYALASHDA KASBIY KOMPETENTLIKDAN FOYDALANISH YO‘LLARI

I.P.Jo‘rayeva, Z.R.Aliyeva

Namangan VXTXQTMOHM o‘qituvchilari tel:94-151-23-03

Annotatsiya: quyidagi maqolada o‘qituvchilar kasbiy kompetentligini rivojlantirishda

kompetentsiya turlaridan foydalanish yo'llari hamda pedagog mutaxassis sifatida rivojlanishida kasbiy va shaxsiy fazilatlaridan amaliy faoliyatda foydalanish borasida fikrlar bayon etilgan.

Аннотация: В статье описаны способы использования видов компетенций в развитии профессиональной компетентности педагогов и использование профессиональных и личностных качеств в развитии педагогической профессии.

Annotation: The following article describes the ways to use the types of competencies in the development of professional competence of teachers and the use of professional and personal qualities in the development of the pedagogical profession.

Zamonaviy sharoitda ta'limni qurishning asosiy prinsipi maktabdagi jarayon o'quvchi shaxsini rivojlantirishga qaratilgan. Uni samarali o'rganishga imkon beradigan harakat usullari bilan jihozlash, ularning ta'lim ehtiyojlarini qondirish, kognitiv qiziqishlari va kelajakdagi professional so'rovlar. Shuning uchun maktabning asosiy vazifasi sifatida qulay ta'lim muhitini tashkil etish vazifasi talaba shaxsini rivojlantirish. Muammoni hal qilish to'g'ridan-to'g'ri mutaxassisga bog'liq.

Shuning uchun, muhim "Kompetentlik" tushunchasi ta'lim soxasiga psixologik izlanishlar natijasida kirib kelgan. SHu sababli kompetentlik "noan'anaviy vaziyatlar, kutilmagan xollarda mutaxassisning o'zini kanday tutishi, mulokotga kirishishi, rakiblar bilan o'zaro munosabatlarda yangi yul tutishi, noanik vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga tula ma'lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik"ni anglatadi.

Kasbiy-pedagogik kompetentlikka ega bo'lishda o'z ustida ishlash, o'z - o'zini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. O'z-o'zini rivojlantirish vazifalari o'zini o'zi taxlil qilish va o'zini o'zi baholash orqali aniqlanadi. O'z ustida ishlash - pedagogning izchil ravishda o'zining kasbiy BKM va shaxsiy sifatlarini rivojlantirib borish yo'lida amaliy harakatlarni tashkil etishi. O'z ustida ishlash quyidagilarda ko'rinadi:

- kasbiy BKMni takomillashtirib borish;
- faoliyatga tanqidiy va ijodiy yondashish;
- kasbiy va ijodiy hamkorlikka erishish;
- ishchanlik qobiliyatini rivojlantirish;
- salbiy odatlarni bartaraf etib borish;
- ijobiy sifatlarini o'zlashtirish.

Pedagogning mutaxassis sifatida:

- anik maqsad, intilish asosida pedagogik jarayonni takomillashtirish;
- pedagogik jarayon samaradorligini, o'zining ishchanlik faolligini oshirish;
- izchil ravishda yangilanib borayotgan pedagogik bilimlarni o'zlashtirish;
- ilg'or texnologiya, metod hamda vositalardan xabardor bo'lish;
- faoliyatiga fan-texnikaning so'nggi yangiliklarini samarali tatbiq etish;
- kasbiy va malakalarini takomillashtirish;
- ko'nikma salbiy pedagogik nizolarning oldini olish, bartaraf etish choralarini izlash yo'lida olib boradigan amaliy harakati uning o'z ustida ishlashini ifodalaydi.

Pedagoglarning o'z ustilarida izchil, samarali ishlashlarida faoliyatga loyixali yondasha olishlari qo'l keladi. Ularning loyixali yondashuv asosida quyidagi modelni shakllantira olishlari maqsadga muvofiqdir.

O'z-o'zini tarbiyalash - bu shaxs tomonidan shaxs sifatida uni maksimal darajada amalga oshirishga qaratilgan ongli faoliyat. O'z-o'zini boshqarish mexanizmlarini faollashtirishga asoslanib, u aniq amalga oshirilgan maqsadlar, ideallar va shaxsiy ma'nolarning mavjudligini taxmin qiladi. Bu nafaqat ta'limni mustahkamlash, balki shaxsni shakllantirish jarayonini rivojlantirish bilan ham uzviy bog'liqdir. O'z-o'zini tarbiyalashning zaruriy tarkibiy qismlari shaxsiy rivojlanishni o'z-o'zini tahlil qilish, o'zini o'zi hisobot qilish va o'zini o'zi boshqarishdir. O'z-o'zini tarbiyalash texnikasi o'z-o'zini tartibga solish, o'zini o'zi tasdiqlash va o'z-o'zini gipnoz qilishni o'z ichiga oladi.

O'z-o'zini tarbiyalashning zaruriy sharti - bu o'zi haqida haqiqiy bilimlarning mavjudligi, to'g'ri qadrlash, o'z-o'zini anglash. O'z-o'zini tarbiyalash bir qator sub'ektiv va ob'ektiv sabablar

bilan shartlangan: yaxshiroq bo'lishga intilish, jamiyatning fuqarolarga bo'lgan talablari, ularning ma'lumotlari va fazilatlarini; ta'lim va tarbiya jarayonida o'quvchiga ta'sir ko'rsatadigan pedagogik ta'sirlar. Ushbu sabablarning ta'siri ostida o'z-o'zini tarbiyalashning ichki old shartlari yaratiladi, ehtiyojlar, qarashlar va e'tiqodlar shakllanadi, hayotiy ideallar va maqsadlar aniqlanadi yoki shakllanadi.

O'z-o'zini boshqarish mexanizmlarini faollashtirish asosida o'z-o'zini tarbiyalash aniq qabul qilingan maqsadlar, shaxsiy ma'nolarning mavjudligini taxmin qiladi. O'z-o'zini tarbiyalashning zarur tarkibiy qismlari quyidagilardir: shaxsiy rivojlanishning aks etishi, o'zini o'zi hisobot qilish, o'zini o'zi boshqarish. O'z-o'zini tarbiyalash texnikasi quyidagilarni o'z ichiga oladi: qoniqish, o'zini o'zi baholash, o'z-o'zini gipnoz qilish, o'ziga ishonish va o'z-o'zini tartibga solish. Demak, pedagoglar kasbiy va shaxsiy rivojlanishida **ijtimoiy, psixologik va metodik kompetentliklarni o'rinli qo'llay olish ko'nikmalariga ham bog'liq.**

Adabiyotlar:

1. Tolipov O.Q., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyaning tadbiqiy asoslari/O'quv qo'llanma.- Toshkent. "Fan" nashriyoti, 2006 .-79-90 betlar
2. Pedagog kadrlar malakasini uzluksiz oshirish mexanizmini takomillashtirish.- Toshkent.OOO"ADAD PLYuS", 2004 .-65-71 betlar
3. <https://www.maam.ru/detskijsad/-profesionalnaja-kompetenciya-uchitelja-kak-usloviye-povysheniya-kachestva-obrazovaniya-obuchayuschisja.html>

UMUMTA'LIM MAKTABI BOSHLANG'ICH SINFI O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGI

Qurbonov Nuriddin Yahyoqulovich,

Jizzax VHTXQTMOM katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Umumta'lim maktabi boshlang'ich sinfi o'qituvchisining kasbiy kompetentligi, o'qituvchining kasbiy kompetensiyasi, kasbiy kompetensiyaning shakllanish bosqichlari, o'qituvchining shaxsiy kompetensiyasi, o'qituvchining umuminsoniy, madaniy kompetensiyalari yoritilgan

Аннотация: Освещены профессиональная компетентность учителя начальных классов, профессиональная компетентность учителя, этапы формирования профессиональной компетентности, личностная компетентность учителя, общекультурные компетенции учителя.

Annotation: The professional competence of the primary school teacher, the professional competence of the teacher, the stages of formation of professional competence, the personal competence of the teacher, the general, cultural competencies of the teacher are covered

Zamonaviy o'qituvchi uchun zarur bo'lgan yangi bilim va tushunchalar juda ko'p. "Kompetentlik" tushunchasi ilmiy va kundalik aylanmaga faol kiritilgan bo'lib, mutaxassisning tegishli kasbiy malaka darajasini tavsiflaydi.

Kompetentlik - o'qituvchining noaniq vaziyatda harakat qilish qobiliyatidir. Noaniqlik qancha yuqori bo'lsa, bu qobiliyat shuncha katta bo'ladi.

Kompetentlik - o'qituvchining muayyan xatti - harakat me'yorlariga, ya'ni ish yoki faoliyatning qanday bajarilishi kerak bo'lgan mezonlariga amal qilish qobiliyatidir. Kompetensiyalar faoliyatning murakkab natijasini aks ettiradi va nafaqat bilim va ko'nikmalar, balki insonning shaxsiy xususiyatlarini ham o'z ichiga oladi.

Turli yangiliklarni amaliyotga muvaffaqiyatli joriy yetish, yangi sharoitda qo'yilgan vazifalarni amalga oshirish uchun o'qituvchi zarur darajadagi kasbiy kompetentlikka va o'z faoliyatida muvaffaqiyatga erishish istagiga yega bo'lishi kerak.

Kasbiy kompetentlikning eng muhim xususiyati - "o'quvchiga yo'naltirilgan". O'qituvchining o'quvchiga pedagogik e'tibori, o'quvchining dunyoni, odamlarni va o'zini o'rganishga bo'lgan ishtiyoqini rivojlantirishni maqsad qilib qo'yadi. Bolaga g'amxo'rlik qilish, unga qiziqish, muhabbat, uning shaxsini rivojlantirishga yordam berish va uning shaxsini maksimal darajada o'z-o'zini

faollashtirishni o'z ichiga oladi.

Kasbiy jihatdan barkamol pedagogik faoliyatni, pedagogik muloqotni yetarli darajada, yuqori darajada bajaradigan va mashg'ulotlarda izchil yuqori natijalarga erishadiganni o'qituvchi deyish mumkin.

O'qituvchining kasbiy mahorati o'qituvchining quyidagi kompetensiyalari bilan ta'minlanadi: O'qituvchining kasbiy kompetensiyasi, shaxsiy kompetensiyasi, umuminsoniy, umummadaniy kompetensiyasi, o'qituvchining maxsus kompetensiyasi:

O'qituvchining kasbiy kompetensiyasi:

- pedagogika va psixologiyaga doir bilimlarga ega bo'lish;
- o'z ustida tinimsiz ishlashi;
- ta'lim jarayonini rejalashtirish, baholash va qayta aloqani o'rnatish;
- o'quvchilarda motivatsiyani shakllantirish;
- axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT)ni bilishi;
- ta'lim muhitiga yangilik kiritishi;
- o'z fanini mukammal bilishi;
- xorijiy tillarni bilishi va boshqalar.

Kasbiy kompetensiyaning shakllanish bosqichlari:

1. O'z-o'zini tahlil qilish va zarur narsalarni anglash;
2. O'zini rivojlantirishni rejalashtirish maqsad, vazifa belgilash;
3. O'zini namoyon etish va kamchiliklarini tuzatish.

O'qituvchining shaxsiy kompetensiyasi: Muloqatchanlik, faollik, ishchanlik, tashabbuskorlik, ma'suliyatlilik, bag'rikenglik, moslashuvchanlik, yetakchilik, sog'lom turmush tarziga amal qilish, insonparvarlik.

O'qituvchining umuminsoniy, madaniy kompetensiyasi:

- Ma'lumotlilik;
- Madaniyatlilik;
- Umuminsoniy qadriyatlarga egalik;
- Milliy madaniyatga ega bo'lish;
- Mamlakatning ijtimoiy hayotida ishtirok etish;
- Boshqa millatlarning madaniyatini hurmat qilish.
- O'qituvchining maxsus kompetensiyasi:
- Faniga doir maxsus metodlarni bilish;
- Ta'limni tabaqalashtirish;
- O'quvchilar ehtiyojini bilish;
- Turli yosh xususiyatlarini bilish

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining "kasbiy kompetentligi" o'qituvchi-tarbiyachi va bola psixologi sifatida o'qituvchining shaxsini belgilovchi jamoaviy tushuncha sifatida qaraladi. O'qituvchining pedagogik imkoniyatlarini, bolalar guruhining xususiyatlarini va uning rivojlanish istiqbollarini anglashiga asoslanadi. Bu tushuncha o'qituvchining o'quv materiallarini tanlashda kasbiy moslashuvchanligini belgilaydi asosiy maqsadni muvaffaqiyatli amalga oshirish imkonini beruvchi texnologiyalar va usullar - o'quvchi shaxsining ijobiy rivojlanishi uchun sharoit yaratadi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy kompetensiyalari:

- o'quvchilarning mustaqil faoliyatini rejalashtirish va tashkil eta olish;

- o'quvchilarda talab etiladigan kompetensiyalarni shakllantirish imkonini beruvchi turli faoliyatlarda ularni o'z ichiga olishi orqali rag'batlantira olishi;

- faoliyatni tashkil etishning turli shakllaridan va shu jumladan, turli ish turlarida turli o'quvchilardan foydalanib, ularning qobiliyatlilik va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'lim jarayonini sahnalashtira olish;

- o'quvchiga o'z yutuqlarini yetarli darajada baholash va ularni baholash imkonini beruvchi baholash tizimidan foydalanish.

Boshlang'ich sinf o'qituvchining kasbiy kompetentligi:

1. Rivojlanishning o'ziga xos ijtimoiy holatini hisobga olish uchun boshlang'ich sinf

o'quvchilarining ijtimoiy pozitsiyasini rivojlantirish uchun maqsadga muvofiq o'yin, mashg'ulotlarning yetakchi faoliyatini tashkil eta olishi.

2. Maktabda o'qitish uchun zarur bo'lgan darajada o'rganish qobiliyatini (umumrivojlantiruvchi harakatlarni) rivojlantirishni ta'minlash.

3. Bolalarning o'qituvchiga murojatlarining bevosita shakliga javob bera olishi, ularning jiddiy shaxsiy muammolarini e'tirof etishi.

4. O'quvchilarning muvaffaqiyati va imkoniyatlarini baholashda boshlang'ich sinf bolalarining individual aqliy rivojlanishining notekisligi hamda o'g'il-qizlarning o'quv faoliyati rivojlanishining o'ziga xos dinamikasini hisobga olishi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi ijodiy g'oyalarning keng miqyosidagi kurashishi, har qanday vaziyatda doimiy izlanishdagi faollikka o'xshaydi. O'qituvchi usta kabi bilimlarni qidirish va kashf etishni tashkil qiladi, boshqaradi.

Adabiyotlar:

1. Abdullaeva Sh. A. , Sobirov B. B. , Zamonaviy o'qituvchining kompetensiyasi. Toshkent 2016 y

2. Асадов Ю. М. Профессиональные компетентности учителя и критерии их оценки // «Мактаб ва хаёт» № 1. 2016. Б. 28-32.

INNOVATION TA'LIM MUHITIDA O'QITUVCHI KASBIY KOMPETENTLIGINING AYRIM JIHATLARI

S.I.Ne'matova

*Namangan viloyat xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish
hududiy markazi katta o'qituvchisi
samiyaxon88@mail.ru, +99897 230 88 29*

Annatsiya: mazkur maqolada innovatsion ta'lim muhitida o'qituvchi kasbiy kompetentligini takomillashtirish masalalari, kompetensiya va kompetentlik sifatleri va mazmuni yoritilgan.

Аннотация: В этой статье описывается улучшение профессиональной компетентности и содержания учителей.

Annotation: This article describes the improvement of teacher professional competence and content.

Hozirgi ta'lim tizimidagi innovatsion o'zgarishlar sharoitida pedagogning kasbiy kompetentligi muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday sharoitda o'qituvchi muvaffaqiyatli va talabchan bo'lishi uchun har qanday o'zgarishlarga tayyor bo'lishi, yangi sharoitlarga tez va samarali moslasha olishi, o'z kasbining ustasi bo'lishga intilishi, bilim va ko'nikmalarini doimiy ravishda yangilab borishi, o'z-o'zini rivojlantirishga harakat qilishi, ayrim noqulayliklarga bag'rikenglik ko'rsatishga tayyor bo'lishi – ya'ni o'z kasbining fidoyisi bo'lishi kerak. Biroq, ijtimoiy amaliyotning ko'rsatishicha, bunday muhim xususiyatlar barcha o'qituvchilarda ham shakllangan, deb ayta olmaymiz.

Buning asosiy sabablaridan biri, pedagoglarning aksariyat qismi bugungi kunda tez o'zgarib borayotgan ijtimoiy, iqtisodiy va kasbiy sharoitlarga moslashish jarayonida katta qiyinchiliklarga duch kelayotganliklari, bu o'z navbatida o'qituvchidagi mavjud kasbiy kompetentlikning yetarli emasligi oqibatida shaxsning jiddiy ijtimoiy-psixologik muammolar bilan ro'baro kelishi bilan izohlanadi.

Shuning uchun o'qituvchining kasbiy kompetentligini rivojlantirishga yordam beradigan psixologik va pedagogik qo'llab-quvvatlash dasturini ishlab chiqish, sohaga oid chuqur ilmiy – tadqiqot ishlarini tashkil etish juda muhimki, bu o'z navbatida ta'lim sifati va samaradorligini oshishiga va o'quv jarayonining barcha ishtirokchilari o'rtasida ijobiy munosabatlarning shakllanishiga olib keladi.

Shu bilan bir qatorda, pedagog kadrlarining kasbiy kompetentligi bo'yicha tadqiqotlar olib borgan germaniyalik olimlar G.Lehmann, W.Nieke, S.Blomeke, A.Kopka va S.Brindtlar kompetentlikni zaruriy kasbiy bilim, ko'nikma va kasbiy etika birligi sifatida baholab, uning asosiy

komponentlari sifatida ijtimoiy tahlil, pedagogik vaziyatlar diagnostikasi, refleksiya va kasbiy harakatlarni e'tirof etadilar[1].

Xususan, tadqiqotchilarning fikricha, pedagogning kasbiy kompetentligi uning:

- tegishli fan sohasi va tarbiya borasida maxsus ilmiy-nazariy bilimlarga shuningdek, belgilangan vazifalarni samarali hal eta olish layoqatiga ega bo'lishi;


- maxsus kasbiy etika asosida ta'lim oluvchilarning qiziqishlaridan kelib chiqadigan aniq pedagogik vaziyatlarni samarali yechimini topishi;

- yuqorida keltirilgan kasbiy vazifalarni amalga oshirishdagi har bir pedagogik hatti-harakati uchun har bir shaxs oldidagi mas'uliyat va javobgarlikni his etishi bilan belgilanadi[2].

Yuqoridagi ilmiy-amaliy izlanishlar tahlili natijasida pedagog kadrlar kasbiy kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish holati o'rganilib, malaka oshirish kurs tinglovchilarining kasbiy kompetentligi tuzilmasi va mazmunini ishlab chiqdik (1-chizma).

1-chizma

Malaka oshirish tinglovchisining kasbiy kompetentlik sifatleri va mazmuni



Tahlillarimiz davomida, kasbiy kompetentlikni oshirish va rivojlantirish muammolari aksariyat izlanishlarda bo'lajak mutaxassislarni tayyorlash misolida o'rganilganligi, shu bilan birga mazkur tadqiqotlarda ilgari surilgan kompetentsiyalar tuzilmasi va elementlari kelgusidagi kasbiy faoliyat talablari uchun qaratilganligi, amaliyotdagi mutaxassislarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish masalalari esa faoliyatning real talablaridan kelib chiqqan holdagi rejalashtirishni talab qilishi aniqlandi.

Adabiyotlar:

1. Muslimov N.A., va boshqalar. Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi/ Monografiya. – T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2013.
2. http://conf.edu.yar.ru/docs/adult/rf411_256.pdf.

TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA O'QITUVCHINING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH

N.Q.Do'marova

*Namangan VXTXQTMOM pedagogika, psixologiya va ta'lim texnologiyalari kafedrası
o'qituvchisi mustaqil tadqiqotchi
Tel: 97-132-88-66*

Annotatsiya; Mazkur maqolada uzliksiz ta'lim tizimidagi sifat bosqichiga o'tilishi pedagoglardagi kasbiy kompetentligini rivojlantirishga bevosita bog'liq ekanligi va bugun pedagoglardan nafaqat kasbiy bilimlar balki universal bilimlardan xam boxabar bo'lishlari haqida fikr-muloxazalar bildirilgan.

Аннотация; В данной статье утверждается, что переход на качественный уровень в системе непрерывного образования напрямую связан с развитием профессиональной компетентности педагогов, и что сегодня воспитатели осознают не только профессиональные знания, но и универсальные знания.

Annotation; This article comments on the fact that the transition to a quality stage in the system of continuing education is directly related to the development of professional competence of teachers, and today teachers are aware not only of professional knowledge but also of universal knowledge.

Respublikamizda uzluksiz ta'lim tizimining joriy qilinishi, ya'ni ta'lim standartlari asosida ta'lim va tarbiya jarayonini qayta tashkil etishga kirishilgan hozirgi kunda o'qituvchi faoliyatiga uning pedagogik kompetentligigaga aloxida e'tibor berilmoqda. Mamlakatimizda zamonaviy o'qituvchi kasbini samarali shakllantirishni bosqichma-bosqich muvaffaqiyatli amalga oshirish ko'p jixatdan o'qituvchi faoliyatiga, uning kasbiy nufuzini oshirishga bog'liqdir. SHunday ekan, sog'lom, xar tomonlama barkamol avlodni yetishtirish uzluksiz ta'lim tizimida mexnat qilayotgan pedagogning saviyasiga, tayyorgarligiga va fidoyiligiga, yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash ishiga bo'lgan munosabatiga bog'liqdir.

Bugun pedagogning ma'naviyati, mafkuraviy e'tiqodi yuksak axloqiy xususiyatlarga egaligi va o'quv jarayonini yaxshi bilishi va samarali boshqara olishi katta ahamiyatga ega. Inson paydo bo'libdiki, tarbiya jarayoni mavjud, tarbiya paydo bo'lgan vaqtdan beri pedagogik faoliyat uzluksiz davom yetib kelmoqda.

O'qituvchilik, tarbiyachilik kasbi barcha ijtimoiy tuzumlarda sharaflı xamda o'ta mas'uliyatli, qiyin va murakkab kasb xisoblangan. O'qituvchi jamiyatning ijtimoiy topshirig'ini bajaradi. SHunday ekan, xar tomonlama yetuk mutaxassislarni tayyorlashda o'qituvchi muayyan ijtimoiy-siyosiy, pedagogik, psixologik talablarga javob berishi lozim. O'qituvchi mustaqillik g'oyasiga e'tiqodli, xar tomonlama rivojlangan, ilmiy tafakkuri, kasbiga tegishli ma'lumoti bor ya'ni o'z fanining chuqur bilimdoni, pedagogik muloqot ustasi, pedagogik- psixologik va uslubiy bilim va malakalarni egallagan bo'lishi xamda turli pedagogik vaziyatlarni tezda aniqlay bilishi, o'rganishi va baxolay olishi zarur.

Birinchidan, pedagog jamiyatning fuqarosi sifatida o'z mavqei va faol o'rmini o'quvchilarga namoyish eta olishi lozim. Xususan, uning jamiyat va o'z jamoasidagi o'rni, tanlagan kasbi, o'qitayotgan predmeti bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lishi, talab va qoidalarga amal qilishi, me'yor va qonunlarni xurmat qilishi lozim.

Ikkinchidan, pedagogning e'tiqodi va bilimdonligi uning yangi bilimlar, o'zi tanlagan sohasidagi yangiliklarga nisbatan qiziqishida innovatsion faoliyatida namoyon bo'ladi.

Uchinchidan, e'tiqodli va bilimdon pedagog o'ziga xos fikrlash tarzi bilan ajralib tura olishi shart. CHunki, yoshlar shunday noyob, qaytarilmas, andozasiz fikrlash sharoitidagina mustaqil fikrlashga o'rganadilar va fanni boshqa fanlardan ajrata oladilar.

Bugungi pedagogdan yangicha fikrlash, yangicha munosabatlar talab etilar ekan. Uning

kompetentligining ajralmas qismi bilimdonligi darajasi masalasi xam o‘ta muxim. Bular quyidagilar:

- Ijtimoiy bilimdonlik. Dars mobaynida sinf bilan samarali o‘zaro muomala shaklini tashkil eta olish, yoshlar bilan til toptirish va xavfsiz, qulay va sog‘lom ma‘naviy muxitni xosil qila olish qobiliyati.

- Uslubiy bilimdonlik. Barcha bilimlarini, ko‘rgan-kechirganlarni yoshlarga tushunarli, ravon tilda yetkaza olishi, ta‘lim texnologiyasi va metodlaridan boxabarlik qobiliyati.

- Kasbiy bilimdonlik. O‘z fanini va predmeti soxasi bo‘yicha chuqur va xar tomonlama mukammal bilimlariga ega bo‘la olishi, o‘z ustida ishlash qobiliyati.

Amaliyotda eng obro‘li, bilimdon pedagoglar birinchi navbatda insoniy bilimdonlik soxiblari bo‘lishadi va shundaylarni o‘quvchilar yaxshi qabul qilishadi. CHunki zamonaviy o‘quvchi ko‘plab ma‘lumotlarga ega, uning psixologiyasi, talab takliflarini aniq bilib til topisha olgan shaxsgina pedagogik jarayonda katta yutuqlarga erishadi.

Buyuk mutafakkir shoir Alisher Navoiy aytganidek, “Muallimning maqsadi mansab uchun kurash bo‘lmasligi, bilmagan ilmlarini aytmassligi, o‘zini ko‘rsatish uchun dars bermassligi, ochko‘zlik va joxillik qilib, quruq gap sotmassliklari, g‘avg‘o ko‘tarmassliklari lozim”. Alisher Navoiy muallimlikni olijanob va faxrli kasb deb xisoblaydi. SHu sababdan bo‘lsa kerak: Xaq yo‘lida kim senga bir xarf o‘qitnish ranj ila, aylamak bo‘lmas oning xaqqin ado ming ranj ila. Pedagogik maxorat egasi oz mexnat sarf qilib, katta natijaga erishadi, o‘z ishining natijasi bilan mo‘jizalar yaratadi, ijodkorlik uning xamisha xamkori bo‘ladi.

Pedagogik faoliyatning o‘ziga xosligi quyidagilarda namoyon bo‘ladi.

1. Inson tabiatning jonsiz moddasi emas, balki o‘zining aloxida xususiyatlari, ro‘y berayotgan voqealarni idrok qilishi va ularga o‘zicha baxo beradigan takrorlanmaydigan faol mavjudotdir. Psixologiyada ta‘kidlanganidek, xar bir shaxs takrorlanmasdir. U pedagogik jarayonning o‘z maqsadi, ishtiyoqi va shaxsiy xulqqa ega bo‘lgan ishtirokchisi xamdir.

2. Pedagog doimo o‘z-o‘zgarib boradigan inson bilan ishlaydi. Ularga yondoshishda bir xil qolip, shakllanib qolgan xatti-xarakatlardan foydalanish mumkin yemas. Bu esa pedagogdan doimo ijodiy izlanib turishni talab qiladi.

3. O‘quvchilarga pedagogdan tashqari, atrof muxit, ota-ona, boshqa fan o‘qituvchilari, ommaviy axborot vositalari ijtimoiy xayot xam ta‘sir yetadi. SHuning uchun xam pedagog mexnati bir vaqtning o‘zida jamiki ta‘silarga va o‘quvchilarning o‘zida paydo bo‘lgan fikrlarga tuzatishlar kiritib borishni nazarda tutadi.

O‘quvchi shaxsiga doimo ijobiy-axloqiy ta‘sir ko‘rsata oladigan kishigina xaqiqiy tarbiyachidir. Bunga erishish uchun pedagog o‘zining axloqiy sifatlarini doimo takomillashtirib borishi zarur. O‘quvchilarni mexnat, mulqot, o‘yin, o‘qish kabi faoliyat turlarida ishtirok yetishlari tarbiyaning asosiy vositasi xisoblanadi. Xar bir moxir pedagog o‘zining individual pedagogik tizimiga ega bo‘lishi kerak. Ayrim pedagoglar kasbiy maxorat sirlarini egallash uchun, avvalo, ta‘lim-tarbiya metodlarini takomillashtirishga intiladilar. Bu tabiiy xol, chunki aynan metodlar yordamida pedagog o‘z o‘quvchilarini turli o‘quv faoliyatiga jalb qiladi. SHu bilan birga o‘quvchilarni bilim olishga qiziqtirishda o‘qituvchi tomonidan tanlangan metodlar, usullar va topshiriqlardan boshqa sabablar xam ta‘sir etadi. Pedagog faoliyatining muvaffaqiyatli kechishi uning shaxsi, xarakteri, o‘quvchilar bilan muomalasiga xam ko‘p jixatdan bog‘liq bo‘ladi. Odatda bularning ta‘lim-tarbiya jarayoniga ta‘siri axamiyatsizdek tuyuladi. Ammo tajribali pedagog, uning xatti-xarakati o‘quvchilarga qanday ta‘sir ko‘rsatayotganligiga axamiyat berib, unga kerakli tuzatishlar kiritib, takomillashtirib boradi. Shuning uchun xam pedagogik maxoratni o‘qituvchi shaxsi sifatlarini majmui sifatida qaralib, uni o‘qituvchi yuqori darajada psixologik pedagogik tayyorgarlikka ega bo‘lishi bilan bog‘liq bo‘lishini unutmaslik lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Abdullaev S.X., Musurmanova R. Pedagogik tajriba sinov jarayoni samaradorligi // Xalq ta‘limi jurnali. – Toshkent, 2008. - №5. - 18-20-b.

2. Abdullaev S.X., Musurmanova R. Pedagogik tajriba sinov ishlarini tashkil etish va boshqarishning o‘ziga xos jixatlari // Maktab va Xayot jurnali. – Toshkent, 2008. - №7-8. - 29-30-b.

BIOLOGIYA FANINI O'QITISHDA TURLI USULLARDAN FOYDALANIB O'QUVCHILARNI XALQARO BAHOLASH TADQIQOTLARIGA TAYYORLASH

Sodiqova Diyora Abdurazakovna

Sirdaryo viloyat Boyovut tuman 33-umumta'lim maktabining biologiya fani o'qituvchisi

Anotatsiya: Ushbu maqolada biologiya fanini o'qitishda turli ta'limiy oyinlar va ulardan foydalanish yo'llari, o'quvchilarni bilimini oshirish orqali xalqaro baholash tadqiqotlariga tayyorlashning o'ziga xos usullari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: innovatsiya, g'oyalar, fikr, fanlar, metodlar, zamonaviy.

Bugungi kunda barcha sohalarga innovatsion g'oyalar, fikrlar kirib kelmoqda. Bu jarayon ta'lim sohasini ham chetlab o'tmagan holda, barcha fanlar tizimida yangiliklar, dars o'tishning yangi usullari, yangi pedagogik texnologiyalar orqali darsning sifati, mazmuni va jozibadorligi o'quvchini ham o'ziga jalb etmoqda. Hozirda mamlakatimizning barcha maktablarida o'z ish faoliyatini olib borayotgan ustoz va murabbiylar zamonaviy o'qitish usullarini bosqichma-bosqich yaratib bormoqdalar, shuningdek, biologiya fanida ham hozirda darslarni tashkil etishda turli xil metodlar yaratilmoqda.

Ta'lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Bunday bo'lishining sabablaridan biri shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilganligidir. Zamonaviy texnologiyalar esa ularni egallayotgan bilimlarni o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlari, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik vazifasini bajaradi. Men o'z darslarimni qiziqarli qilib turli o'yin va metodlardan foydalangan holda o'tishga harakat qilaman. Bu esa o'quvchilarimni fanga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshirishga olib keladi.

“Domino” usuli. Bu usulni biror bob yoki bo'lim yuzasidan o'tkazish mumkin. Bunda o'quvchilar atama yoki biologiya faniga oid so'zning oxirgi harfiga keyingi so'zni bog'laydi. Masalan: *Amyoba – askarida – ayiq - qo'ng'iz - zigota va hokoza.*

“Pochta qutisi” usuli. Bu usulni guruhlarda ham, kichik juftliklarda ham qo'llash mumkin. Bunda o'quvchilarga turli mavzular yuzasidan aralash atama va tushunchalar aralash holatda beriladi. Pochta qutisi berilgandan so'ng o'quvchilarga quti ichidagi so'z yoki atamalarni mos tarzda ajratishi aytiladi. Masalan: **Tobulg'i, archa, vergin, savr, maymunjon, itsigak, bo'ritaroq, afsonak, yeryong'oq, talg'ir lola, qarag'ay, sarvi archa.**

Bunda ochiq urug'li va yopiq urug'li o'simliklarni ajtaring deb topshriq beriladi. Topshiriqni bajarish uchun so'zlar soniga qarab vaqt beriladi. Bundan tashqari ikki oila o'rtasida(6-sinflarda), ikki sinfni, turkumni(7-sinflarda), ichki, tashqi, aralash bezlarni, odam organizmidagi organlarni(8-sinflarda) bir biridan ajratib olishida ham qo'llash mumkin.

“Topib ko'rchi” usuli. Bunda o'quvchilardan bir nafari doskaga chiqadi. Fanga oid rasmlardan birini doskadagi o'quvchi orqasidan o'tirganlarga ko'rsatadi. O'tirgan o'quvchilar shu rasmga tegishli tushunchalarni ayta boshlaydi. Doskadagi o'quvchi rasmda nima tasvirlanganligini topadi.

“Jumboq ko'chasi” o'yini.

Mio... d – eshitish a'zosida nuqson bo'lgan odamlarga nisbatan qo'llaniladigan atama, yurakning o'rta qismi. Javob: (Miokard – “kar”).

En... rd – bog'lov materiali, yurakning ichki epiteliy qavati. Javob: (Endokard – “doka”)

Av... iyasi – pomidordan tayyorlanadigan quyuq ozuqa, yurakning ma'lum vaqt davomida kengayib ishlab turishi (Avtomatiyasi – “tomat”)

Darslarim davomida o'quvchilar qiziqishini oshirish maqsadida **“Sinkveyn”** metodidan ham foydalanaman. Sinkveyn metodi orqali biz fanimizni ona tiliga bog'lagan holda olib boramiz. Chunki sinkveynda birinchi ot, ikkinchi sifat, uchinchi fe'l, to'rtinchi, shunga oid gap va oxirida uning ma'nodoshini yoki sinonimini topishimiz kerak.

Misol ushuni: Sinkveynga quyidagi misolni keltirish mumkin:

1. *Tanacha*
2. *Qizil, yumaloq.*
3. *Tarkibida temir moddasi bor, bilirubin hosil qiladi, gazlar almashinuvida ishtirok etadi.*
4. *Organizmni kislorod bilan ta'minlaydi.*
5. *Eritrosit*

Yana darslarim davomida savol javob o'yinlaridan ham ko'proq foydalanib turaman. Darsga har-xil mavzuga oid savollar tuzib kelaman va ularni dars davomida beraman. Agar javob berishmasa bu savollarni keyingi darslarga qoldiraman, o'quvchilar esa bu davrda izlanib shu savollarga javob topib kelishadi, shu bilan birga ular ham fanga oid qiziqarli mavzular ham topib kelishadi. Bunday usullardan foydalanishimiz o'quvchilarimizni bilim saviyasini oshib borishi bilan birgalikda ularni xalqaro baholash tadqiqotlariga ham tayyorlab boramiz. Chunki har darsda o'quvchi o'z ustida yana qo'shimcha ishlaydi va ularning tafakkur doirasi kengayib mantiqan fikrlash qobiliyati o'sib boradi.

Xulosa qilib shuni aytishim mumkinki har bir darsimni turli xil metodlardan yoki turli xil qiziqarli savollardan foydalangan holda o'tkazishga harakat qilaman. Umuman olganda biologiya fanini o'qitish jarayonida komp'yuterdan, ko'rgazmali vositalar, o'quvchilar mustaqil o'zlashtirishiga mo'ljallangan didaktik o'quv materiallar, o'z-o'zini nazorat va ixtirochilik qobiliyatlarini takomillashtirishga qaratilgan ijodiy texnologik ob'ekt sifatida foydalanishga e'tibor qaratish zarur. Chunki o'quv materiallarining tabiiy, jonli va eng muhimi qiziqarli namoyish etilishi, o'quvchilar tomonidan qayta ishlanishi, muammoning ijodiy hal etilishi ularning bilim olishini yengillashtiradi, o'zlashtirilgan bilimlarni uzoq muddat xotirada saqlab qolish, ijodiy ixtirochilik ko'nikma va malakalarini tarkib toptirish, bilimlarni amaliyotda qo'llashlariga sharoit yaratadi deb o'ylayman.

Foydalangan adabiyotlar

1. Mualliflar: Sulliyeva. S. X, Zokirov. Q. G'. Biologiya o'qitish metodikasi.
2. Q. Niyozov. Biologiya fanini o'qitishda pedagogik texnologiyalar

TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING O'QISH SAVODXONLIGINI XALQARO TADQIQOTLAR ORQALI BAHOLASH

Raxmonova Gulbahor Bobojonovna

Sirdaryo viloyati, Boyovut tumani, 8-umumiy o'rta ta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi

raxmonovagulbahor@gmail.com

Anotatsiya. Ushbu maqolada jahon tajribalariga tayangan holda PIRLS xalqaro baholash dasturida mamlakatimiz boshlang'ich sinf o'quvchilarining ishtiroki va ularning o'qish savodxonligini baholash haqida fikr yuritilgan.

Аннотация. В данной статье рассматривается участие учащихся начальных классов в международной оценочной программе PIRLS и оценка их читательской грамотности, основанная на мировом опыте.

Annotation. This article discusses the participation of primary school students in the PIRLS international assessment program and the assessment of their reading literacy, based on world experience.

Yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ulkan iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlariga erishilayotganligi barcha sohalarida malakali kadrlar va yetuk mutaxassslarga bo'lgan talabni yanada oshirmoqda. Bu o'z-o'zidan o'quvchilarimizning darslarga qiziqish xususiyatini oshirish va o'qituvchilarning har tomonlama ta'lim- tarbiyaga e'tiborini kuchaytirishni talab etadi.

Ma'lumki, mustaqillikka erishilgandan so'ng pedagoglar oldiga qo'yiladigan talablar ortib bormoqda. Bu talablar tabiat va jamiyat talablarini bilish maqsadida ma'lum mazmuni fan va texnikaning eng yangi yutuqlari bilan boyitishga: ta'lim-tarbiya jarayonida texnologiya ta'limining rolini oshirish va bolalarni tarbiyalash uchun ota-onalarining, o'qituvchilarining ma'suliyatini oshirishga ajratilgan. Bu o'z navbatida TIMSS xalqaro tadqiqotining asosiy vazifasi sifatida maktabda matematika va tabiiy fanlarni o'qitish sifatiga e'tibor berishda maktab o'qituvchilari oldiga

murakkab va mas'uliyatli vazifalar qo'yadi. Ma'lumki bugungi kunda ko'plab ishlarda matematika va vatabiiy fan haqida asosiy tushuncha talab etilmoqda bu esa kelajakda bu fanlarni o'rganishga bo'lgan talab tobora kuchayib boradi [5].

Yuqoridagi talablarning ta'lim tizimi uchun juda muhim ekanligi, aksariyat xorijiy davlatlardagi kabi ta'lim va fan sohalari rivojlanishini baholash va monitoring qilish orqali ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan ilg'or tajribalarni sohaga jalb qilish kerakligini anglatadi. Ta'lim sifati va samaradorligini oshirish yo'lida xorijiy ilg'or tajribalarni o'rganish, xalqaro standartlar talablarining joriy etilishi muhim ahamiyatga ega. Mamlakatimiz o'quvchilari xalqaro baholash dasturlarida ishtirok etishi ham yurtimizda ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan muhim jarayon hisoblanadi.

O'tgan 2021- yilda o'tkazilgan PIRLS xalqaro baholash dasturida 70 ga yaqin davlatlar qatorida mamlakatimizdagi boshlang'ich sinf o'quvchilari ham ilk marotaba ishtirok etdi. Har besh yilda o'tkaziladigan PIRLS dasturi 4-sinf o'quvchilarining o'qib tushunish ko'nikmasini xalqaro darajada baholaydi. O'quvchilarning erishgan yutuqlarini baholash barcha o'quvchilardan emas, balki ushbu qatlam vakillari sifatida tanlab olingan o'quvchilardan ob'ektiv testlarni o'tkazish orqali amalga oshiriladi. Shuningdek, maktab direktorlari, o'qituvchilar, o'quvchilar, hattoki ota-onalardan so'rovnomalar o'tkazilib, ta'lim sifatiga ta'sir etuvchi omillarga doir qimmatli ma'lumotlar to'planadi.

PIRLS xalqaro tadqiqoti boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qib tushunish ko'nikmalarini qay darajada rivojlanganligi haqidagi ma'lumotlarni xalqaro miqyosda taqqoslash imkonini beradigan, o'qish va o'qitishni yaxshilashda ta'lim sohasidagi davlat siyosatiga xizmat qilishi mumkin bo'lgan tahlillarni taqdim etadigan yirik xalqaro baholash dasturi hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda PIRLS ta'rifiga ko'ra, o'qish savodxonligi jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma til shakllarini tushunish va ulardan foydalanish, shuningdek, matnlardan turli shakllarda ma'no hosil qila olish qobiliyati hamdir. халқаро илмий-амалий анжуман материаллари 26 O'quvchi bu jarayonning faol qatnashuvchisi bo'lib, ma'no yaratadi, matn ustida mushohada yuritadi va samarali o'qish strategiyalarini ongli ravishda tanlab qo'llaydi. Har bir matn turi odatiy shakl va qoidalarga amal qilgan holda o'quvchiga matnni sharhlashga yordam beradi. Har qanday matn turli shaklga ega bo'lishi mumkin. Bular an'anaviy kitoblar, jurnallar, hujjatlar va gazetalar, shuningdek, raqamli ko'rinishdagi yozma shakllarni ham o'z ichiga oladi[1].

PIRLS boshlang'ich sinf o'quvchilarining sinf va sinfdan tashqari o'qishini baholashda ikkita keng qamrovli maqsadga, ya'ni "badiiy tajriba orttirish", "axborotni olish va undan foydalanish"ga qaratiladi. Tadqiqotdagi matnlar murakkabligiga ko'ra, o'rtacha 500 dan 800 tagacha, o'quvchilarning o'qish savodxonligi darajasi past bo'lgan mamlakatlar uchun 400–500 ta so'zdan iborat bo'ladi. Matnning mazmuni 9-10 yoshdagi o'quvchilarga mos, ayrim madaniyatlarga juda xos bo'lgan mavzulardan chetlashgan, shuningdek, qiziqarli hamda o'quvchiga unchalik tanish bo'lmaydi[2].

PIRLS tadqiqotida o'qish savodxonligining darajalari quyidagicha tavsiflanadi: Eng yuqori daraja (625 ball va undan yuqori) – O'quvchilar matnni yaxlit o'zlashtira oladi va ayni paytda uning alohida qismlarini bir-biri bilan bog'liq holda tushunadi. Muallifning g'oyasini izohlashda o'z fikrini asoslash uchun matnga tayana oladi. Yuqori daraja (550 ball) – O'quvchilar matnning ahamiyatli xabarlarini tushunadi, matnga asoslanib o'z xulosalarini chiqaradi, matn mazmuniga ham, shakliga ham baho bera oladi, uning ayrim til xususiyatlariga e'tibor qarata oladi. O'rta daraja (475 ball) – O'quvchilar matndan axborot topa oladi, matn shakli va tilining ba'zi xususiyatlaridan foydalanib, matnga asosan o'z xulosalarini chiqaradi. Quyi daraja (400 ball) – O'quvchilar matnda aniq berilgan va cheklash oson bo'lgan xabarni ajratib oladi [4]. Bundan tashqari tadqiqot jarayonida quyidagi so'rovnomalar ham olinad.:

- O'quvchilar so'rovnomasi;
- O'qituvchilar so'rovnomasi;
- Ota-onalar so'rovnomasi;
- Maktab ma'muriyati so'rovnomasi;

PIRLS tadqiqotida yetakchi bo'lgan davlat o'quvchilarining bilim darajasi yuqori bo'lishining sababi o'rganilganda ularning uyida kitoblar va raqamli qurilmalarning mavjudligi, ziyoli ota-onalar va ularning kitobga bo'lgan muhabbati, bola maktabga borgunga qadar o'qish-yozishni o'rganganligi hamda maktabgacha ta'lim muassasalariga qamrab olish ko'rsatkichining yuqoriligi qayd etilgan[6]. PIRLS tadqiqotida O'zbekiston Respublikasining ishtirok etishi ta'lim sifatini oshirish, xalqaro miqyosda mamlakat nufuzini mustahkamlash bilan birga, o'quvchilar bilimini xalqaro talablar darajasiga olib chiqishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bakhtiyorovna, Adizova Nigora, and Adizova Nodira Bakhtiyorovna. "The role of the fun genre in children's spiritual development. " Middle European Scientific Bulletin 4 (2020): 38-40.
2. K. Qosimova va b. Ona tili oqitish metodikasi. – T. : Noshir. 2009.
3. S. Matchonov. Adabiyot darslarida tahlil va talqin uygunligi. Til va adabiyot talimi. 7- son, 2020.
4. Mullis, Martin and G. Kohiba. PIRLS FRAMEWORK Boston college 2018
5. Qayumova Sh. T. Ta'lim samaradorligini oshirishda xalqaro baholash dasturlarining ahamiyati. Article. «ISSUES OF INNOVATIVE DEVELOPMENT OF SCIENCE, EDUCATION AND TECHNOLOGY» International scientific and practical online conference. Andijon 2022
6. <http://www.pirls.org/> PIRLS International Research Program

БИОЛОГИЯ ЎҚИТУВЧИЛАРИНИНГ КАСБИЙ КОМПЕТЕНТЛИЛИГИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШДА АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИНИНГ ЎРНИ

Есирганова Хулкар Сайфидиновна

Сирдарё вилоят Боёвут тумани 39-мактаб биология уқитувчиси

Аннотация. Мақолада биология фанини ўқитишда ахборот технология дастурларидан, электрон дарсликлар ва виртуал лабораториялардан фойдаланиш тўғрисида маълумот берилган.

Калит сўзлар. АКТ, электрон дарслик, ўқув фильм, фанга оид компетенция, виртуал ва визуал лаборатория.

Аннотация. В статье представлена информация об использовании программ информационных технологий, электронных учебников и виртуальных лабораторий в преподавании биологии.

Ключевые слова. ИКТ, электронный учебник, учебный фильм, компетенция по предмету, виртуальная и визуальная лаборатория.

Биология ўқитувчиларининг касбий компетентлигини такомиллаштириш технологиясининг шаклланишига йўналтирилган фаолият самардорлигини янада оширишга хизмат қилувчи мақбул шакл, метод ва ахборот технологияларидан самарали фойдаланишнинг педагогик-психологик имкониятларини ишлаб чиқиш бугунги куннинг долзарб вазифаларидан биридир.

XX аср ўрталарига келиб тезкор машина механизмларидан фойдалана бошланди, мураккаб техника ва технологиялар ўйлаб топилди. Кўпгина масалаларни ҳал қилиш жараёнида ахборот ҳажми беҳисоб бир мажмуага айланди ҳамда бу ахборотларни йиғиш ва узатиш воситаларини яратиш, уларни вақтида қайта ишлаб, бошқариш учун зарур бўлган чораларни белгилаб чиқиш керак бўлиб қолди. Кўпчилик вазифаларни бажаришда бошқариш жараёнларини такомиллаштириш, ахборот тизимини жорий этиш, мутахассисларни компьютерда ишлашга ўргатиш муҳим аҳамиятга эга бўлиб, АКТ воситалари биз учун қуйидаги имкониятларни яратиб бера олади:

- ❖ АКТ ўқувчиларни рағбатлантиради ва уларнинг қизиқишини оширади.
- ❖ АКТ ўқувчиларни келажакдаги фаолиятига тайёрлашга кўмак беради. Ҳозирги замонда меҳнат фаолияти ўқувчилар қониқиш билан ишлатаётган компьютерлар, технологиялар, дастурлар ва қурilmalar ёрдамида бошқарилади.

- ❖ АКТ ўрганиш ва ўқитишнинг янги имкониятларини очиб беради.
- ❖ АКТ ўқитувчиларнинг касбий ўсиши учун уларга ўз фанлари бўйича ўқитишнинг янги усуллари киритишга, янги ёндашувларни қўллашга, ғояларни рўёбга чиқариш ва янги кўникмаларни ривожлантиришга имконият яратади.
- ❖ АКТ ўз ресурсларидан оқилона фойдаланишга имконият яратади
- ❖ АКТ ўқув жараёнини оқилона бошқариш ва назорат қилиш орқали вақтни ҳамда маблағни тежайди. АКТ дарсларга тайёргарлик жараёнини қисқартиради ва ўқиш жараёнини ўқувчилар учун қизиқарли ҳамда кўнгилочар қилади.
- ❖ АКТ мослашувчандир. АКТ турли ёшдаги ўқувчилар, турли даражадаги ўқитувчилар учун мослаштирилиши мумкин ҳамда таълим жараёнида ўқитувчилар ва ўқувчилар учун кўмакдир.

Биология фанини ўқитишда электрон дарслик ва ўқув қўлланмалардан фойдаланиш дарс самарадорлигини янада оширади. Биология фанидан ўтказиладиган лаборатория машғулоти учун керакли жиҳозлар етишмаганда, виртуал ва визуал лабораториялардан фойдаланилса, ўқувчиларда фанга оид умумий компетенциялар ривожланиб, мустақил шаклланиб боради.

Масалан, виртуал лабораторияларда берилган видеолардан қуйидагича фойдаланишимиз мумкин:

Хулоса қилиб айтганда, ахборот-коммуникацион технологиялари биология фан ўқитувчиларининг таълим беришида касбий ривожланиши учун катта имкониятлар яратади. АКТ асосий афзалликлари: фан ўқитувчилар томонидан ўқувчилар ишини самарали бошқариш, сақлаш ва олиб бориш ҳамда вақтни тежашдан иборат. Вақтни тежаш машғулотида яхши тайёрланиш имкониятини беради. Биология фан ўқитувчилари АКТ ресурсларидан фойдаланган ҳолда нафақат ўз билимларини янгилайдилар, балки назарий билимларини ҳам орттириш имкониятига эга бўладилар.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Vazirlar Mahkamasining Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida 2017-yil 6-apreldagi 187-son qarori.
2. Ergasheva M. va boshqalar. Biologiyadan umumta'lim maktablarining 8- sinfi uchun elektron multimedia virtual laboratoriya ishlari. O'zR Patent idorasi. № DGU 02249. 15. 06. 2011-yil ishlab chiqilgan.
3. Prator O', To'xtayev A. va boshqalar. Biologiya (Botanika). Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik. "O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent – 2017-yil.

BIOLOGIYA DARSLARIDA O'QUVCHILARNING BLUM TAKSONOMIYASI ASOSIDA KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH

Muminova Mamlakat Abduraimovna

Sirdaryo viloyat Sirdaryo tuman 9-maktab kimyo-biologiya o'qituvchisi

Annotasiya. *Quyidagi maqolada o'quvchilarda tayanch, umumiy va fanga doir xususiy kompetensiyalarni shakllantirishda o'quv maqsadlarini to'g'ri qoyishda Blum taksonomiyasining o'rni haqida fikr yuritilgan*

Kalit so'zlar: *Blum taksonomiyasi, o'quv maqsadlari, bilish, tushunish amalda qo'llash, tahlil, sintez, baholash.*

Ta'limning asosiy masalalardan biri o'qitish jarayonida shaxsni rivojlanish muammosi sanaladi. Shaxsni rivojlantirish – individda vaqt nuqtai nazaridan jismoniy va ruhiy o'zgarishlarning sodir bo'lish jarayoni bo'lib, u orqali individ kamdan ko'pga, oddiydan murakkabga, quyidan yuqoriga ko'rsatgichlari orqali takomillashib, kamolga yetib boradi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llashda ta'lim-tarbiya jarayonining maqsadini aniqlab olish muhim sanaladi, chunki metodika "Nimani o'qitaman?", Nima uchun o'qitaman?",

Qanday o'qitaman?" degan savollarga javob bersa, pedagogik texnologiyada esa "Qanday qilib natijali o'qitaman?" savoli markaziy o'rinni egallaydi. Bundan ko'rinib turibdiki, ta'lim-tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyani qo'llashning muhim sharti maqsadni to'g'ri belgilab olishdir. O'quvchilarda DTS bilan me'yorlangan bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish barobarida tayanch, umumiy va xususiy kompetensiyalarni shakllantirish maqsadida biologiyani o'qitishda axborot va pedagogik texnologiyalarni integratsiyalash alohida ahamiyat kasb etadi O'quvchilarda tayanch, umumiy va fanga doir xususiy kompetensiyalarni shakllantirishda Blum taksonomiyasi asosida shakllantiriladigan o'quv maqsadlari muhim o'rin tutadi.

Amerikalik psixolog B. Blum tomonidan 1956 - yilda o'quv maqsadlari taksonomiyasi taklif qilindi. Unga ko'ra, o'quv maqsadlari oltita darajaga bo'linadi. Biologiya darslarida Blum taksonomiyasi asosida o'quv maqsadlarini shakllantirish va shu asosda dars ishlanmalarini loyihalash zarur.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish hozirgi kun ta'lim jarayonida pedagoglar oldida turgan muhim vazifalardan biri ekan, demak, maqsadni aniq belgilash pedagogik texnologiyani qo'llashning muhim shartidir. Maqsadni belgilashda natija va vaqt e'tiborga olinishi zarur.

Maqsad aniq belgilab olingach, o'qituvchi shu maqsadga erishish uchun zarur o'qitish metodlari va vositalarini tanlaydi. Dars loyihasini yaratadi. O'quv maqsadlari darajalari deganda, ta'lim oluvchilarning muayyan o'quv maqsadlari darajasiga erishganligini ifoda etuvchi aniq harakatlari tushuniladi.

O'quvchi o'quv material yoki uning ajratib ko'rsatilgan qismlari ustida quyidagidek amallarni bajaradi: o'qiydi, tahlil qiladi, hisoblab chiqadi, foydalanadi, baholaydi, o'zgartiradi, tadbiq etadi, qayta guruhlaydi, savol qo'yadi, tizimlashtiradi, soddalashtiradi, so'zlar orqali ifodalaydi, yozadi, belgilaydi va h. k.

Sanab o'tilgan amallardan birontasi o'qituvchi tomonidan o'quvchiga uni bajarishdan oldin topshiriq sifatida aytilsa, bunday topshiriq o'quv maqsadi maqomini oladi. Bu amallardan qaysidir birlari o'quvchidan kamroq aqliy faoliyatni, boshqalari esa aqliy faoliyatning yuqori va hatto juda yuqori bo'lishini talab qiladi va shunga binoan, o'quvchi bajargan amal natijasi ham turlicha baholanadi. Demak, o'quv maqsadlariga erishtiradigan amallarni ularning murakkabligi darajasiga qarab guruhlab chiqilgan.

Bilish o'quv maqsadi faktlarni ularning mohiyatini to'liq tushunmasdan ham eslab qolish va qaytadan aytib berish (reproduksiya), o'tilgan materialni eslab gapirib berishdir. Uni o'quvchilarning quyidagi o'quv faoliyati harakatlari bilan tavsiflash mumkin: ro'yxat tuzish, ajratib ko'rsatish, gapirib berish, ko'rsatib berish, nomini aytish. Deylik, o'rganilayotgan mavzu "Ildizning ichki tuzilish" bo'lsa, o'quvchilarning ildiz zonalarining nomlarini yoddan aytib berishlari bunga misol bo'la oladi. Tushunish o'quv maqsadi ma'lumotning mazmun-mohiyatini anglash va talqin qilishdir. Uni o'quvchilarning quyidagi o'quv faoliyati harakatlari bilan tavsiflash mumkin: o'zgartirish, bog'lash, aniqlashtirish, guruhlash, misollar keltirish va b. Masalan, o'quvchining ildiz zonalarini funksiyalarini tushuntirib berishi.

Amalda qo'llash o'quv maqsadi o'rganilgan ma'lumotni yangi vaziyatlarda qo'llashni nazarda tutadi, masalan, muammoni yechishda o'rganilgan ma'lumotdan foydalanish. Uni o'quvchilarning quyidagi o'quv faoliyati harakatlari bilan tavsiflash mumkin: qo'llash, baho berish, hisoblash, o'zgartirish, tanlash va b. Buning uchun hisoblashga oid masala berish mumkin: makkajo'xoring 1 mm² so'rish zonasida 700 ta ildiz tukchalari bo'lishi aniqlangan. Bir tup makkajo'xori ildizining umumiy so'rish maydoni 95 sm² ni tashkil etsa, ushbu o'simlikning ildizida nechta ildiz tukchasi va ular nechta hujayradan tashkil topganligini aniqlang.


Bilish, tushunish, amalda qo'llash o'quv maqsadlarini amalga oshirish o'quvchilardan kuchli aqliy faoliyatni talab etmagani sababli ular fikrlashning quyi darajasi deb ham ta'riflanadi.

Tahlil o'quv maqsadini axborotni tarkibiy qismlarga bo'lish va ular o'rtasidagi bog'lanishlarni aniqlash deb aytish mumkin. Uni o'quvchilarning quyidagi o'quv faoliyati bilan tavsiflash mumkin: tahlil qilish, qismlarga ajratish, baholamoq, tasniflamoq, taqqoslamoq. Masalan, ildizning so'ruvchi qismi hujayralari bilan o'tkazuvchi qism hujayralarining tuzilishi va funksiyasini

taqqoslang. Bunda “Venn” diagrammasidan foydalanish mumkin.

So‘ruvchi qism	O‘xshashligi	O‘tkazuvchi qism

“Sintez” o‘quv maqsadini alohida qismlarni bir butun holga keltirish deb ham ta’riflash mumkin. U o‘quvchilarning quyidagi o‘quv faoliyati harakatlari bilan tavsiflanadi: dalil keltirmoq, tasniflamoq, jamlamoq, umumlashtirish. Masalan: o‘simlikning ildiz sistemasi uning o‘sayotgan muhitiga bog‘liq. Botqoqlik yoki cho‘lda muhitida o‘sayotgan o‘simlikning ildizi nisbatan rivojlangan bo‘lishini dalillar bilan izohlang.



Baholash o‘quv maqsadi o‘rganilgan ma’lumotning ahamiyati, qiymatini anglash bo‘lib, uni o‘quvchilarning quyidagi o‘quv faoliyati harakatlari bilan tavsiflash mumkin: baho berish, dalillash, tanqidiy fikr bildirish, inkor etish, fikrga qarshi fikr bildirish. Masalan, o‘quvchilar ildizning ichki tuzilishi, ildiz zonalarini o‘rganib bo‘lganlaridan so‘ng, o‘simlikning bu organi uning hayotida muhim ahamiyatga ega ekani haqida xulosa qiladi. Ildizi kesib tashlangan o‘simlik yashay olmasligini, xona o‘simliklarini parvarishlashda uning ildizi o‘sib-rivojlanishiga e’tibor qaratish zarurligini anglaydi. Shuni qayd etish kerakki, yuqorida nomlari qayd etilgan oltita o‘quv maqsadlarini har biri uchun alohida topshiriqlar tanlash yoki tuzish shart emas. Bitta topshiriqning o‘zi ham bir nechta o‘quv maqsadlarini amalga oshirishi mumkin. Masalan, quyidagi keltirilgan rasmdagi sonlarni ta’riflang.

Ildizning ichki tuzilishi va har bir ildiz zonasining bajaradigan funksiyasini izohlang. Ildiz zonalarining o‘zaro bog‘liqligini tushuntiring. Fikringizni umumlashtirib, ildizning o‘simlik hayotidagi ahamiyatini aniqlang. Xona o‘simliklarini parvarishlashda ularning ildiziga qanday e’tibor qaratish kerakligi yuzasidan tavsiya ishlab chiqing.

Bu xildagi topshiriqni bajarishda o‘quvchilarning guruhlarda ishlashini tashkil etsa ham bo‘ladi. O‘quvchilar hamkorlikda ishlaydilar, qo‘yilgan savollarga birgalikda javob topadilar, bir-birilarining fikrlarini tinglaydilar, to‘ldiradilar, umumiy xulosaga keladilar. Bunda o‘quvchilar bir qancha faoliyatni amalga oshiradilar: o‘qituvchining mavzu yuzasidan bergan ma’lumotlari, darslik matnidan o‘qib-o‘rganib, eslash orqali (bilish o‘quv maqsadi) ildiz qismlari nomlarini yozadi; ma’lumotlarni izohlaydilar (tushunish), ildiz zonalarining o‘zaro bog‘liqligini tushuntirishda alohida zonalar bo‘yicha o‘rgangan ma’lumotlar (tahlil)ni tizimlashtirib, ildizning bir butunligini anglaydilar (sintez). Xona o‘simliklarini parvarish qilish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqish esa o‘rgangan ma’lumotlarini yangi vaziyatda qo‘llash faoliyatini anglatadi, bunda o‘rgangan ma’lumotlari asosida yangi fikr-g‘oyalar shakllanadi (sintez).

Xulosa qilib aytganda, B. Blum taksonomiyasidan foydalanib o‘quv maqsadlari amalga oshirilsa ta’lim oluvchilarning o‘zlashtirish sifati ancha yuqori bo‘lishi mumkin

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Vazirlar Mahkamasining Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida 2017-yil 6-apreldagi 187-son qarori. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-yil

2. Prator O‘, To‘xtayev A. va boshqalar. Biologiya (Botanika). Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik. “O‘zbekiston” nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent – 2017-yil.

3. Tolipova J. Biologiya o‘qitish metodikasi -T. : O‘qituvchi, 2016

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILAR SALOHİYATINI OSHIRISHDA PIRLS TOPSHIRIQLARINIDAN FOYDALANISH

Tashkenbaeva Nigora

Sirdaryo viloyat Sirdaryo tuman 27-IDUM ning boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligi darajasini o'rganish bo'yicha PIRLS xalqaro tadqiqot topshiriqlari maqsadi va mazmuni haqidagi umumiy ma'lumotlar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: O'qish savodxonligi, tahliliy fikrlash, PIRLS.

Bugungi kunda sog'lom bolani voyaga yetkazishda ta'lim-tarbiyaning o'rni va ta'sirini yanada kuchaytirish lozim. Shu jumladan, boshlang'ich ta'limning sifatini oshirish, ta'lim standartlari, o'quv dasturlari, darslik va qo'llanmalarni takomillashtirish, ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish davr talabi. Bu, o'z navbatida, bolaning jismoniy va psixologik rivojlanishidagi eng asosiy davr – bu boshlang'ich sinf davri ekanini nazarda tutadigan qator izchil chora-tadbirlarni amalga oshirishni talab qiladi.

PIRLS xalqaro baholash dasturi talablariga mos ravishda boshlang'ich sinf o'qish savodxonligi darslarida ham badiiy matn ustida ishlash jarayonida samarali ish turlaridan foydalanish maqsadga muvofiq. Bunday darslarni tashkil etishda o'qituvchilar maxsus tayyorgarlik ko'rishlari, har bir matnning o'ziga xos jihatlarini o'rganishlari lozim. Bu kabi innovatsion darslarda PIRLS xalqaro baholash dasturi talablariga mos test va topshiriqlarni tuzish hamda ulardan unumli foydalanish mumkin. Men ushbu xalqaro baholash tadqiqotlarga asoslangan maqolamda 2-sinf o'qish darsligidagi "O'tinchi yigit bilan sher" O'zbek xalq ertagi asosida tayyorlangan PIRLS topshiriqlarini taqdim etmoqchiman.

O'TINCHI YIGIT BILAN SHER

(O'zbek xalq ertagi)

Bir yigit dalaga o'tin tergani chiqibdi. Bir daraxt yoniga kelib, uni yiqitmoqchi bo'libdi. Shu payt bir Sher kelib qolib:

-Ey odam, bu yerga nimaga kelding?- debdi.

-Mana shu terakni qulatmoqchiman, -debdi yigit.

-Men shunday kuchim bilan bu terakni qulata olmayman-ku, sen qanday qilib qulatasan?- debdi Sher.

-Ey jo'ra, men juda zo'rman, -debdi yigit o'zini tetik tutib. -Sen zo'r bo'lsang, kel, ikkovimiz kurashib, kuchimizni sinaymiz, -debdi Sher.

-Mayli, kurashamiz, - debdi yigit o'zini mag'rur tutib. -Lekin kuchimning yarmi uyda qolibdi, borib olib kelay.

-Ha, borib kel, tag'in yiqilsang, kuchim uyda qolgan edi, -deb tan bermay yurma yana. Yigit kuchini olib kelmoqchi bo'lib ketibdi-da, bir joyda bekinib turib, yana qaytib kelibdi.

-Olib keldingmi?-debdi Sher.

-Olib keldim, -debdi yigit.

-Unday bo'lsa, qani kurashaylik, -debdi Sher. Ikkovi endi kurashmoqchi bo'lib turganda, yigit:

-Ey Sher jo'ra, kuchimning ozginasi yo'lda tushib qolibdi. Topib kelay, sen qochib ketma yana, -debdi.

-Yo'q, men qochmayman, Sherning gapi bitta bo'ladi, -debdi u.

-Yo'q, senga ko'nglim ishonmayapti, seni bog'lab ketaman, -debdi yigit.

Yigit sherni mahkam bog'labdi. Shunda aldanganini bilgan Sher yigitga iltijo qilib:

-Ey yigit, meni qo'yib yubor, sen bilan do'stlashay. Aqling bilan meni yengding, senga qoyilman!-debdi.

Shundan beri o'sha yigit bilan Sher qalin do'st ekan.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. O'tinchi yigit Sher bilan qayerda uchrashib qoldi?



2. Yigit dalaga nima terish uchun chiqdi.

- A) Paxta terish uchun
- B) Somon terish uchun
- C) O'tin terish uchun
- D) Bug'doy terish uchun

3. Bir daraxt yoniga kelib, uni yiqitmoqchi bo'lganda uning oldiga qaysi hayvon chiqib qoldi?

- A) Ayiq
- B) Yo'lbars
- C) Bo'ri
- D) Sher

4. Sher yigitga nima deb savol berdi? Matndan shu joyini topib matnni davom ettiring.



5. Ular nega kurash tushmoqchi bo'lishibdi?



6. Sher va odam o'z kuchlarini qanday sinashdi? Matndan aniq ma'lumotni ko'rib savolga javob bering.



7. Yigit Sherni nima deb aldadi?



8. Yigit Sherni qanday yengibdi? Nima uchun Sher yigitga qoyil qolganligi haqida gapni matndan topib yozing.



Turli topshiriqlarni berish jarayonida o'zgarishlarni ta'lim tizimida aks ettirish, maktab o'quvchilarining haqiqiy hayotda kerak bo'ladigan hodisalarni tahlil qilish, ulardan xulosa chiqarish va muloqotga kirishish ko'nikmalarini qay darajada egallayotganini, ta'lim tizimining bu o'zgarishlarga qanchalik moslashayotganini aniqlab olamiz.

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki hozirgi zamon mutaxassisida bu bilimlarni tahlil qilish, ulardan yangi ma'lumotlarni hosil qila olishdir, boshlang'ich sinf o'qituvchilarining asosiy vazifalaridan biri esa o'quvchilarda yuqori sifatli o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishdir.

Foydalangan adabiyotlar

1. Sayidaxmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. -T. : Universitet, 2000
2. <http://www.pedagog.uz> - Toshkent davlat pedagogika universiteti veb sayti.
3. Q. Abdullayeva, M. Yusup'yilov, O'qish kitobi. 2-sinf. darslik, 2010

BIOLOGIYA FANINI O'QITISHDA TIMSS TOPSHIRIQLARIDAN FOYDALANISH

G'aybullayeva Ra'no Misraliyevna

Sirdaryo viloyat Sirdaryo tumani 3-maktab biologiya o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada tabiiy fanlar yo'nalishidagi darslarda TIMSS topshiriqlaridan foydalanish usullari haqida fikr yuritilgan va misollar keltirilgan.

Kalit so'zlar: TIMSS, bilish, qo'llash, mulohaza yuritish, o'quv faoliyati.

Abstract: This article discusses and gives examples of how to use TIMSS assignments in science lessons.

Keywords: TIMSS, knowledge, support, reflection, learning activities.

Xalqaro baholash dasturlari bo'yicha xalqaro tadqiqotlarda O'zbekiston Respublikasining ishtirok etishiga tayyorgarlik ko'rish bo'yicha "Yo'l xaritasi" ishlab chiqildi, unga ko'ra, o'quvchilarning yozma va nutq savodxonliklarini oshirish bo'yicha ilg'or milliy va xalqaro tajribalarni joriy etish; o'quvchilar mustaqil ta'lim olishlari uchun elektron shakldagi ta'limni rivojlantirish, unda o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan xalqaro tadqiqotlar bo'yicha savollar bazasini yaratish hamda boyitib borish; o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan xalqaro tadqiqotlarga tayyorgarlik ko'rish uchun mustaqil ta'limni joriy etish; xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish yuzasidan malakali o'qituvchi-trenerlar bilan hamkorlikda hududlarda o'quvlar tashkil etish kabilar belgilangan.

TIMSS maktabda matematika va tabiiy fanlarni o'qitish sifatining xalqaro monitoringi bo'lib, Ta'lim yutuqlarini baholash xalqaro assosiasiyasi (IEA) tomonidan tashkil etiladi. Ushbu dastur asosidagi tadqiqot turli davlatlardagi 4- va 8-sinf o'quvchilarining matematika va tabiiy fanlardan tayyorgarlik darajasini baholashga qaratilgan. 50 dan ortiq mamlakatlar o'quvchilarining bilim, ko'nikma, malakalari darajasini aniqdashning global resursi jahonning eng ilg'or tajribasi asosida ishlab chiqilgan. TIMSS yordamida o'quvchilarning ta'limiy yutuqdari: bilish, qo'llash, mulohaza yuritish baholanadi.

"Bilish" bo'limi o'z ichiga matematikadan masalalar yechishni olgan bo'lib, masalalar yechish o'quvchilardan sonlarning xususiyatlari va oddiy geometrik jismlar haqidagi nazariy bilimlar, ta'riflarni takroran aytib berish, standart grafik va diagrammalardan ma'lumot olishni o'z ichiga qamrab oladi. O'quvchilar tabiiy fanlardan alohida organizmlar va obyektlarning xususiyatlari, hodisa va jarayonlar, tabiiy-ilmiy atamalar va o'lchov birliklari haqidagi bilim darajasini namoyish etishlari kerak.

"Qo'llash" ga oid test topshiriqlarini bajarishda o'quvchilar hayotiy vaziyatlarni o'zida aks ettiradigan matematik va tabiiy-ilmiy masalalarni yechish, jadval, sxema, diagramma, grafiklarni talqin qilish, tajribalarni o'tkazish ko'nikmalarini namoyish etishlari zarur.

"Mulohaza yuritish"ga oid topshiriqlar o'quvchilarning mantiqiy va tizimli fikrlash malakalarini aniqlaydi. Mulohaza yuritishni talab etadigan masalalar taklif etilayotgan vaziyatning yangiligi, savolning murakkabligi, yechish bosqichlari sonining ko'pligi, turli bo'limlardan bilimlarni integrasiyalashning zarurligi bilan bir-biridan farqlanishi mumkin.

O'qituvchilar o'quvchilarning o'quv faoliyati turlari (bilish, qo'llash, mulohaza yuritish) bo'yicha o'quv yutuqlarini baholashda o'tgan yillar davomida tadqiqotda ishlatilgan, biroq konfidensiallik rejimidan chiqqan topshiriqlarni didaktik material sifatida ta'lim jarayonida qo'llashlari mumkin. Bu esa TIMSS xalqaro tadqiqotining o'quvchilarning o'quv yutuqlarini baholashning o'ziga xos yondashuvlarini tushinishni ta'minlaydi. Muhimi, matematika va tabiiy fanlardan savodxonlikni baholash vositalari ta'lim texnologiyalari va o'qitish metodikasini takomillashtirishga imkon beradi.

Xalqaro baholash dasturlari bo'yicha xalqaro tadqiqotlarda O'zbekiston Respublikasining ishtirok etishiga tayyorgarlik ko'rish bo'yicha "Yo'l xaritasi"ning 13-bandida xalqaro tadqiqotlarda o'tgan yillarda foydalanilgan savollar mazmunini o'rganib chiqib, tahlil qilish belgilangan. Shuni inobatga olib, TIMSS savollaridan 6-8 sinf Biologiya darslarida foydalanish mumkin.

Masalan: 1-topshiriq: To'g'ri javobni belgilang. Boshqariluvchi linzalar haqidagi g'oyalar bizga yangilik emas. Odam ko'zining gavhari ham boshqariluvchi linzadir.

Gavharning shakli muskullarning ishi hisobiga o'zgaradi.

Gavhar shaklining o'zgarishi qanday ahamiyatga ega?

Turli yorqinlikdagi bo'lgan buyumlarni yaxshiroq ko'rish

Turli rangdagi buyumlarni yaxshiroq ko'rish uchun

Turli masofadagi predmetlarni yaxshiroq ko'rish uchun


Turli shakldagi buyumlarni yaxshiroq ko'rish uchun

2-topshiriq: Quyida berilgan hayvonlarda:

A) Maymun _____

B) Timsah _____

C) Chigirtka _____



D) Sakkizoyoq_____



1) Berilgan hayvonlardan qaysi birida ichki skelet bor va bolasini sut bilan boqadi?

2) Qaysi hayvonda tashqi skelet va uch juft oyoq mavjud?

3) Qaysi hayvonda yumshoq tana bo'lib skeleti yo'q

4) Qaysi hayvonning tanasi muguz bilan qoplanib, yuragi to'rt kamerali?

Xulosa qilib aytganda xorijiy davlatlar ta'limida biologiya fanini o'qitishning ilg'or tajribalari sifatida shuni qayd etish mumkinki, fanni o'qitishda o'quvchilarga "tayyor" bilimlarni "berish"dan ko'ra, o'quvchilarning bilimlarni "egallashlari", o'qitishning reproduktiv metodlaridan ko'ra, amaliy, muammoli, tadqiqotchilik metodlari ustunlik qiladi. Fanni o'qitishga bunday yondashuv esa zamon talabi bo'lgan intellektual salohiyati yuqori shaxsni tarbiyalash imkonini yanada oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrda qabul qilingan 997-sonli "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.

2. Shaxmurova G. , Raxmatov U. , Xo'janazarov O' . , Tog'ayeva G. "Biologiya fanini o'qitishda zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalar" moduli bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi XTQTMOHM, Toshkent, 2018-y.

3. <http://uzedu.uz/>, <http://eduportal.uz/>

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA PIRLS TOPSHIRIQLARINING O'RNI

Azizova Barno Dadayevna

Sirdaryo viloyat Oqoltin tuman 10-umumiy o'rta ta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini PIRLS xalqaro tadqiqotiga tayyorlashda yaxshi o'qish malakalarining o'rne, e'tibor qaratiladigan jihatlar to'g'risida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: o'qish, yaxshi o'qish malakalari, matn ustida ishlash, mustaqil fikrlash, xalqaro tadqiqotlar

Ma'lumki, PIRLS tadqiqot dasturi matnni o'qish va tushunish darajasini aniqlovchi xalqaro tadqiqot bo'lib mazkur tadqiqotning maqsadi turli xil ta'lim tizimidan iborat bo'lgan davlatlardagi boshlang'ich maktab o'quvchilarining matnni o'qish va qabul qilish bo'yicha tayyorgarligi hamda o'quvchilarning har xil yutuqlarga erishishga sabab bo'luvchi ta'lim tizimidagi o'ziga xos xususiyatlarni aniqlash va baholashdan iborat. Albatta, bunday tadqiqotda munosib natija ko'rsatish o'quvchilarimizning qanchalik bilim, malaka va ko'nikmalarga egaligiga bog'liq. Men o'qish darslimda shu topshiriqlarga doir savollardan foydalanishga harakat qilaman. Maqolamda "Quyuncha va ayyor tulki" mavzusiga tuzilgan matn bilan tanishtirmoqchiman.

QUYONCHA VA AYYOR TULKI

O'rmonni qorong'ilik bosdi. Bo'ri, yo'lbarslarning uvillagan ovozidan qo'rqqan quyuncha uyasiga chopdi. Yo'lda birdan chuqurchaga tushib ketdi. U dodlab o'rtoqlarini chaqirdi. Quyuncha ancha uzoqda yashar edilar.

Shunda ayyor tulki paydo bo'ldi:

-Ha, quyuncha, nega yig'layapsan?-dedi. Tulkining qorni to'q edi. U o'ylanib: "Nonushtaga

tayyor ovqat-ku bu", debdi pichirlab o'ziga o'zi va:

-Biroz sabr qil, baqirma, ovozingni bo'ri, yo'lbarslar eshitmasin yana, men hozir kelaman va senga yordam beraman, -debdi.

Quyuncha tuni bilan chuqurda yig'lab yotibdi. Tong yorishibdi. Quyunchaning qulog'iga "gurs-gurs" etgan tovush eshilibdi.

-Voy, tulkijon kelyapti, -debdi u suyunib. Shu choq chuqur oldidan bahaybat fil o'tib qolibdi. Quyuncha sevinib:

-Assalomu alaykum, hurmatli fil amaki, menga rahm qiling, -debdi yolvorib. Shunda fil: -Ey bechora, senga nima bo'ldi?-deb chuqurga qarabdi va quyunchaga:-Ushla xartumimni, -debdi. Quyuncha sevinib filning xartumiga yopishibdi, chuqurdan chiqib, filga rahmat aytibdi va uychasi tomon yugurib ketibdi. Birozdan so'ng ayyor tulki nonushta qilgani chuqur oldiga kelibdi va quyon yo'qligini ko'rib:

-Voy ayyor-ey, mendan ham ayyor chiqib qoldi-ku!-deb achchiqlanibdi va ovqat qidirib o'rmon ichiga kirib ketibdi.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. O'rmonni qorong'ilik bosdi. Ushbu gapni yana qahday qilib o'zgartirsak bo'ladi?



2. Bo'ri, yo'lbarslarning uvillagan ovozidan qaysi hayvon qo'rqib uyasiga chopdi?

- A) Olmaxon
- B) Quyon
- C) Kiyik
- D) Tulki

3. Quyuncha qo'rqib uyiga chopib ketayotganida u qayerga tushib ketdi? Misol keltiring.



4. Quyuncha dodlab yordamga kimlarni chaqirdi?

- A) Otasini chaqirdi
- B) Onasini chaqirdi
- C) Akasini chaqirdi
- D) O'rtoqlarini chaqirdi

5. "Nonushtaga tayyor ovqat-ku bu", deb pichirlagan hayvonni toping. Bu qaysi o'rmon hayvoni edi?

- A) Bo'ri
- B) Ayiq
- C) Sher
- D) Tulki

6. Quyuncha qo'rqib baqirganida tulki unga qanday maslahat berdi? Matndan shu joyini topib yozing.



7. Quyuncha tuni bilan..... yig'lab yotibdi. Nuqtalar o'rniga matnni o'qib kerakli so'zni qo'ying.



8. Quyunchaning qulog'iga "gurs-gurs" etgan tovush eshilibdi. Ajratilib ko'rsatilgan so'zga unung ma'nodoshini qo'yib matnni davom ettiring



9. Quyon:- Voy, tulkijon kelyapti, -debdi u suyunib ketsa uning oldidan qaysi bahaybat hayvon o'tib qoldi?

- A) Karkidon
- B) Jirafa
- C) Fil
- D) Ayiq

10. “Voy, *tulkijon kelyapti, -debdi quyon suyunib*”. Ushbu gapda ajratib ko‘rsatilgan so‘zning o‘rniga qaysi so‘zni qo‘yib matnni davom ettirsak bo‘ladi?

Ikkita misol keltiring

11. Quyoncha chuqurdan qaysi hayvonning yordami bilan chiqib oldi?

- A) Tulkining yordami bilan
- B) Filning yordami bilan
- C) Yo‘lbarsning yordami bilan
- D) Ayiqning yordami bilan

12. Birozdan so‘ng ayyor tulki nonushta qilgani chuqur oldiga kelibdi va quyon yo‘qligini ko‘rib..... matndan ushbu so‘zlarni topib gapni davom ettiring.



13. Tulki nima uchun quyonchaga yordam bermadi?



14. Quyoncha nima uchun filga rahmat aytibdi?



Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki shu tartibdagi savol va topshiriqlardan foydalanishimiz o‘quvchilarimizni darsga bo‘lgan qiziqishini oshirishga, mavzularni yanada chuqurroq bilishga imkoniyat yaratib bergan bo‘lamiz. Bunday najilarga erishishimiz uchun esa albatda o‘z ustimizda ko‘proq ishlashimiz kerak.

Adabiyotlar

1. G‘afforova T., Nurillaeva Sh., Mirzahakimova Z., O‘qish kitobi. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 2–sinfi uchun darslik. – T. : O‘qituvchi. 2016.

2. Xalqaro tadqiqotlarda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini baholash (Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari, metodistlar va soha mutaxassislari uchun metodik qo‘llanma) «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. T. 2019

O‘QUVCHILARNING O‘QISH SAVODXONLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI

Xolboyeva Barno Kuldoshevna

Sirdaryo viloyat Mirzaobod tuman 19-umumta‘lim maktabining boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini Xalqaro baholash dasturiga tayyorgarlik ishlari haqida fikr yuritilgan

Kalit so‘zlar: mustaqil ish, ijodiy yondoshish, mashq, PISA, TIMSS, PIRLS.

Prezidentimizning “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-sonli Farmoniga muvofiq umumiy o‘rta va maktabdan tashqari ta‘limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, o‘sib kelayotgan yosh avlodni ma‘naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko‘tarish, o‘quv-tarbiya jarayoniga ta‘limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasining 2030-yilga kelib PISA xalqaro dasturi reytingida jahonning birinchi 30 ta ilg‘or mamlakatlari qatoriga kirishiga erishish hamda xalq ta‘limi tizimida ta‘lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish asosida o‘quvchilarning o‘qish, matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholashga yo‘naltirilgan ta‘lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratish vazifalari belgilab berildi.

Konsepsiya doirasida, o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash, tahlil qilish malakalari va kompetensiyalarining rivojlanishiga alohida urg‘u berishni hisobga olgan holda, zamonaviy innovatsion iqtisodiyot talablariga javob beradigan umumta‘lim dasturlari va yangi davlat

ta'lim standartlarini joriy etish, o'quvchilarning bilim darajasini baholashda ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro PISA, TIMSS, PIRLS va boshqa dasturlarda doimiy ishtirok etish nazarda tutildi.

PIRLS da o'qish savodxonligiga ega bo'lish malakasi eng muhim sanaladi. Sababi, matnni o'qish va tushunish matematik va tabiiy-ilmiy savodxonlik uchun ham kalit vazifasini bajaradi.

O'quv jarayonining tarkibiy qismlaridan biri o'quvchilarning yutuqlarini baholash va qayd etish tizimidir. Baholash tizimining ta'lim tizimini rivojlantirishdagi o'rni beqiyosdir, chunki bu maktabdagi ta'lim sohasidagi eng aniq birlashtiruvchi omil, o'quv muammolarini tashxislash va fikr-mulohazalarni bildirish vositasi. PIRLS xalqaro baholashda o'quvchilarning o'qish savodxonligi va matnni tushunish darajasi o'rganiladi.

Men ham o'z darslarimda o'quvchilarning savodxonligini oshirish bo'yicha quyidagi ishlarni amalgam oshirayapman. Dilshod Rajabning quyidagi "Ahillik" mavzusi yuzasidan savol va topshiriqlar tuzdim.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Yigit yo'lga nimani qidirib chiqibdi?
 - a). Oltinni
 - b). Boylikni
 - c) Baxtni
 - d) Do'stni
2. "Qidirib" so'zini ma'nodoshini toping va yozing.



3. Ushbu rasm matndagi qaysi so'zga mos deb o'ylaysiz, javobingizni yozing.



4. Uning oldidan qanday yo'l chiqibdi?
 - a). Uch tomonga ketadigan yo'l ko'rinibdi
 - b). Ikki tomonga ketadigan yo'l ko'rinibdi
 - c). Pastki tomonga ketadigan yo'l ko'rinibdi
 - d). To'rt tomonga ketadigan yo'l ko'rinibdi

5. Yigitning oldidan kim chiqib qoldi va yigit unga qanday savol bilan murojaat qildi? Fikringizni bayon qiling.



6. Kampir yigitning savoliga nima deb javob beribdi?
 - a). Bitta yo'lni bosib o'tishing kerak
 - b). Ikki yo'lni bosib o'tishing kerak
 - c). Uchta yo'lni bosib o'tishing kerak
 - d). Hamma yo'lni bosib o'tishing kerak

7. Yigit o'ylab turib, yo'l yuribdi-yo'l yursa ham mo'l yurib u yerdan kimni topibdi va ular birgalikda hamma yo'llarni bosib qayerga yetib kelishibdi?



8. Yigitlar yo‘l yurib, yo‘l yursa ham mo‘l yurib shaharda bir boy odamni uchratibdi va boyning yerida kim bo‘lib ishlabdi?



9. Boy odam nima uchun yigitlarni yaxshi ko‘rib qoldi?

- a). *Chunki ular mehnatkash edi*
- b). *Chunki ular oliyjanob, mehnatkash edi*
- c). *Chunki ular mehribon, odobli edi*
- d). *Chunki ular odobli, mehnatsevar edi.*

10. Bu ikki mehnatkash yigit qo‘ldan chiqib ketmasligi uchun, boy odam ularga nimani taklif qilibdi?



11. Boy odam necha kun to‘y qilib berdi?

- a). *Uch kech-kunduz to‘y qilib berdibdi*
- b). *Qirq kecha-kunduz to‘y qilib berdibdi*
- c). *Yetti kech-kunduz to‘y qilib berdibdi*
- d). *O‘n kech-kunduz to‘y qilib berdibdi*

Kabi topshiriqlar berishga harakat qilaman. Bu topshiriqlar o‘quvchilar bilim darajasini kengaytirish bilan birga mavzuni yaxshi tushunib oladi. Mavzuni o‘rganish jarayonida o‘quvchilardagi bilim, ko‘nikma va malakalarini hayotda qo‘llay olish kompetensiyalari yanada rivojlanib boradi deb o‘ylayman.

Adabiyotlar

- 1. <http://www.pedagog.uz> - Toshkent davlat pedagogika universiteti veb sayti.
- 2. <http://www.ziynet.uz> - axborot ta’lim portal

TO‘G‘ARAK DARSLARI ORQALI O‘QUVCHILARNI PIRLS XALQARO BAHOLASH DASTURLARIGA TAYYORLASH

Abdurahmonova Dilbar

Sirdaryo viloyat Sirdaryo tuman 27-IDUM ning boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada boshlang‘ich sinfda xalqaro baholash dasturlaini tadbiq etilishi va shu dastur asosida tuzilgan topshiriqlardan namunalar haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: o‘qish, matn, topshiriq, ta’lim, hikoya, bilim, matn, tushunish, anglash, baholash, PIRLS.

Ma’lumki, bugungi kunda oldimizga qo‘ygan buyuk maqsadlarimizga, ezgu niyatlarimizga erishishimiz, jamiyatimizning yangilanishi, hayotimizning taraqqiyoti va istiqboli amalga oshirilayotgan islohotlarimiz, rejalarimizning samarasi, taqdiri-bularning barchasi, avvalambor, zamon talablariga javob beradigan, yuqori malakali, ongli mutaxassis kadrlar tayyorlash muammosi bilan chambarchas bog‘liqligini barchamiz anglamoqdamiz.

IEA tashkiloti tomonidan tashkil etilayotgan PIRLS – boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining matnni o‘qib tushunish darajasini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqot dasturidir. Boshqacha qilib aytganda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qib tushunish ko‘nikmalarini qay darajada rivojlanganligi haqidagi ma’lumotlarni xalqaro miqyosda taqqoslash imkonini beradigan, o‘qish va o‘qitishni yaxshilash uchun ta’lim sohasidagi davlat siyosatiga oid ma’lumotlarni taqdim etadigan yirik xalqaro baholash dasturidir.

O‘quvchilarning erishgan yutuqlarini o‘rganishda tanlab olingan o‘quvchilardan obyektiv testlarni o‘tkazish orqali baholanadi. Shuningdek, maktab direktorlari, o‘qituvchilar, o‘quvchilar, hattoki ota-onalardan so‘rovnomalar o‘tkazilib, maktabdagi ta’lim sifatiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar, jumladan, maktab resurslari, o‘quvchilarning ta’lim olishga oid qarashlari, o‘qitish usullari hamda uy

sharoitida o'quvchilarning bilim olishi qanchalik darajada qo'llab-quvvatlanayotganligiga doir qimmatli ma'lumotlar to'planadi.

Shuningdek, o'rganilayotgan holatlarning xususiyatidan kelib chiqib, amaliy tadqiqotlar bilan birga kuzatuv kabi samarali usullardan ham foydalaniladi.

2021 yilda O'zbekiston ilk marta PIRLS o'quvchilarning o'qish savodxonligini baholash bo'yicha xalqaro dasturida ishtirok etdi. Bu esa o'quvchilar bilimni xalqaro miqyosda sinab ko'rish imkoniyatini beradi. Biz har bir ona tili va oqish darslarimizda o'quvchilarimizni shu dastur asosidagi savollar bilan mrojat qilib o'rgatib borishimiz o'quvchilarimizni yanada bilim saviyasini oshib borishiga imkoniyat yaratgan bo'lamiz. Men o'qish fani darslarimdan tashqari to'garak darslarida ham PIRLS topshiriqlaridan foydalanishga harakat qilaman. Misol tariqasida bir soatlik to'garak darsimda "Ko'ngilchan o'tinchi" mavzusi asosida tayyorlangan PIRLS topshiriqlarini ko'rib o'tsak. Eski darsliklarda matn berilgan. "Ko'ngilchan o'tinchi" rus xalq ertagi. mavzu bo'yicha quyidagi savollarni beraman.

1. O'tinchi qayerga borib o'tin uchun daraxt kesishga shaylanibdi?

- a). Boqqa borib o'tin uchun daraxt kesishga shaylanibdi.
- b). Toqqa chiqib o'tin uchun daraxt kesishga shaylanibdi.
- c). Dalaga chiqib o'tin uchun daraxt kesishga shaylanibdi.
- d). O'rmonga borib o'tin uchun daraxt kesishga shaylanibdi.

2. O'tinchi dastlab qaysi daraxtni kesmoqchi bo'lgan edi?

- a). Olama daraxti oldiga borib kesmoqchi bo'lgan edi.
- b). Qarag'ay daraxti oldiga borib kesmoqchi bo'lgan edi.
- c). Qayrag'och daraxti oldiga borib kesmoqchi bo'lgan edi.
- d). Qayin daraxti oldiga borib kesmoqchi bo'lgan edi.

3. Qayin daraxti oldiga borib boltasini ko'targan ekan, daraxt tilga kirib nima debdi?

Tushunchangizni yozing.



4. O'tinchi kesmoqchi bo'lgan daraxtlar qatorini toping.

- a). Eman, yong'oq, shumtol, zarang, zirk, tog'terak, archa, qarag'ay tol, qayrag'och, chinor
- b). Eman, yong'oq, shumtol, zarang, zirk, tog'terak
- c). Tog'terak, archa, qarag'ay tol, qayrag'och, chinor, olma
- d). Shumtol, zarang, zirk, tog'terak, archa, qarag'ay tol, do'lana

5. O'tinchi kesmoqchi bo'lganda-"Meni kesa ko'rma, o'zimning sharbatim bilan o'rmon hasharotlarini boqaman" deb javob qaytargan daraxt qaysi daraxt edi?

- a). Shumtol
- b). Zarang
- c). Zirk
- d). Tog'terak


6. Endi uyga o'tinsiz ketamanmi-a!-deb turgan payt uning oldiga kim kelib qoldi?

- a). Sehrgar kampir
- b). O'rmon shoxi
- c). Oppoq soqolli nuroniy chol
- d). Notanish yigit

7. Nuroniy otaxon o'tinchini uchratganda unga nima uchun minnatdorchilik bildirdi?



8. Nuroniy otaxon o'tinchining rahimdilligi uchun unga nima sovg'a qildi? Fikringizni so'z bilan bayon qiling.




9. O'tinchi qaysi fazilati uchun baxtu-saodatga erishdi?



10. Tillaxipchin qanday vazifani bajarar edi?



11. Agar siz o‘tinchini o‘rnida bo‘lganingizda nima qilgan bo‘lar edingiz?



Shuni ta’kidlash kerakki, ushbu jarayonda o‘quvchilarning har tomonlama rivojlanishiga, kerakli ko‘nikma va malakalarni egallashlariga alohida e’tibor qaratish zarur. Bu kabi ishlar boshlang‘ich sinf o‘qish savodxonligi darslarida matn ustida jarayonida diqqat markazida bo‘lsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Adabiyotlar:

1. O‘quvchilarni xalqaro tadqiqotlarga tayyorlashga mo‘ljallangan “Axborotnoma”. 3-son. Toshkent: “Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazining matbaa bo‘limi”, 2021
2. Q. Abdullayeva, M. Yusupiylov, O‘qish kitobi. 2-sinf. darslik, 2010

PISA XALQARO BAHOLASH DASTURINING O‘ZIGA XOS JIHATLARI

Palvaniyazova Gavxar Kadirbergenovna

*Nukus shaxar 33-sonli tasviriy san‘atga ixtisoslashtirilgan davlat umumta’lim maktabi
matematika fani o‘qituvchisi*

Mamlakatimiz innovasion taraqqiyot yo‘lida shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir davrda kelajagimiz davomchilari bo‘lgan yoshlarni ijodiy g‘oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning bilim, ko‘nikma va malakalarini davlat ta’lim standartlari asosida shakllantirish hamda ilg‘or xorijiy tajribalar, xalqaro mezon va talablar asosida baholash tizimini takomillashtirish muhim ahamiyatga egadir. Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tajribalarni o‘rganish, mavjud tizimni har tomonlama qiyosiy tahlil qilish, tegishli yo‘nalishdagi xalqaro va xorijiy tashkilotlar, agentliklar, ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan yaqindan hamkorlik qilish, Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro loyihalarni amalga oshirish, zamon talablariga javob beradigan munosib milliy baholash tizimini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu maqsadda, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 8 dekabrda “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 997-sonli qarori [1] bilan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi qoshida “Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi” tashkil etildi.

Mazkur vazifalarning amaliy ifodasi sifatida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi bilan Xalqaro hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti o‘rtasida o‘quvchilar savodxonligini baholash bo‘yicha xalqaro dasturda ishtirok etish to‘g‘risidagi kelishuvga erishildi. [2]

PISA (Programme for International Student Assessment) – o‘quvchilarning savodxonligini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqot dasturi bo‘lib, dasturning asosiy maqsadi 15 yoshli o‘quvchi yoshlarning o‘qish, (matnni tushunish), matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha savodxonlik darajalarini hamda ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini turli xil testlar yordamida baholashdan iboratdir. Ushbu loyihalar o‘quvchi yoshlarning ijodiy va tanqidiy fikrlashi, egallagan bilimlarini hayotda qo‘llay olish layoqatiga baho berish va keyinchalik bu ko‘nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi. [3]

PISA–o‘quvchilarning o‘qish (matnni tushunish), matematika va tabiiy fanlardan bilim darajalarini baholashga qaratilgan xalqaro baholash dasturi bo‘lib, o‘quvchilarning maktab davrida orttirgan bilim va ko‘nikmalarini aniqlashga mo‘ljallangan.

PISA xalqaro baholash dasturi shuningdek, o‘quvchilar munosabati va motivatsiyasi haqida qimmatli maylumotlar to‘playdi, o‘quvchilarda muammoni hal qila olish kabi ko‘nikmalarni ham

baholaydi. Masalan, global ahamiyatga ega masalalarni hal etishda o'quvchi-yoshlarning fikr-mulohazalari, ular bergan taklif va yechimlarni baholaydi.

PISA–halqaro baholash dasturlarining natijalari asosida dunyo mamlakatlari o'quv dasturlarida mavjud bo'lgan talablar doirasida o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarni qo'llash, fikrlash va muloqot qilish qobiliyatlariga baho beriladi.

PISA tadqiqoti - Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti IHTT (OECD – Organisation for Economic Co-operation and Development) tomonidan amalga oshiriladigan dastur hisoblanadi.

PISA tadqiqoti o'ziga xos xususiyatlarga ega. Jumladan:

- Ta'lim sohasidagi eng yirik, keng ko'lamli xalqaro monitoring tadqiqotlaridan biri sanaladi;
- tadqiqotda umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan 15 yoshli o'quvchilar ishtirok etadi;
- tadqiqotda o'quvchilarning "hayotga tayyorlik" darajasi, ya'ni ularning maktabda egallagan bilim va ko'nikmalarini hayot qo'llay olish layoqati baholanadi;
- tadqiqotda o'quvchilarning matematika, o'qish (matnni tushunish), tabiiy yo'nalishdagi fanlar va global muammolarni hal etish sohasidagi funksional savodxonligi baholanadi;
- tadqiqotda ishtirokchi mamlakatlar ta'lim tizimining o'ziga xosligi bo'yicha maylumot olish imkonini beradigan kontekst axborot to'planadi.
- O'zbekistonda umumta'lim maktablari bitiruvchilarining ta'lim olishni davom ettirishga qay darajada tayyorligini aniqlash;
- mamlakatdagi umumiy o'rta ta'limni takomillashtirish yo'nalishlarini aniqlash;
- o'quvchilarning ta'lim sohasidagi yutuqlari, shuningdek, turli mamlakatlarning ta'lim tizimlari haqidagi qiyosiy maylumotlarni olish.[4]

Xulosa qilib aytganda, PISA muayyan maktab o'quv dasturlarining ustunligini o'rganish o'rniga, o'quvchilarning asosiy mavzularda bilim va ko'nikmalarini qo'llay olish qobiliyati, muammolarni tahlil qilish, sharhlash va samarali hal qilish, fikrlash, muloqot qilish imkoniyatlarini ko'rib chiqadi va o'quvchilarning o'qish (matnni tushunish), matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonligini oshirish bilan bir qatorda o'quvchilarning ta'lim olishga qiziqishi, o'zlari haqida maylumotlar hamda ta'lim strategiyasi haqida fikrlarini so'raydi.

Adabiyotlar:

1. "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 8 dekabrda 997-sonli qarori
2. A.B.Radjiev, A.A.Ismailov, J.R.Narziev, X.P.Axmedov, G.O.Tog'aeva. O'quvchilar savodxonligini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlar dasturi. (o'quv qullanma) T., 2019
3. Kreativ fikrlashni baxolash. O'quv qullanma. T.,2021
4. Xalqaro tadqiqotlarda o'quvchilarning matematik savodxonligini baholash. (Matematika fani o'qituvchilari, metodistlari va soha mutaxassislari uchun metodik qo'llanma) T., 2019

PIRLS TADQIQOTLARIGA OID TOPSHIRIQLARDA "SINKVEYN" VA "LIMERIK" TUZISHNING TA'LIMIY AHAMIYATI

Polvonova Marhabo Samadovna, Djumuqov Bozorboy Ochilovich

*Sirdaryo viloyati Boyovut tumani 9-umumta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchilari
+99894 910 31 86, + 99894 359 13 71*

Annotatsiya. Mazkur maqola PIRLS tadqiqotlariga oid topshiriqlarda "Sinkveyn" va "Limerik" tuzishning ta'limiy ahamiyati ko'rsatilgan holda darslikdagi mavzuar asosida namunalar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: PIRLS, "Sinkveyn", "Limerik" metodi, matn, mantiqan fikrlash.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son Farmoniga ko'ra "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasi"da xalq ta'limi tizimida o'quvchilarning bilim darajasini baholashda ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro

dasturlardan biri PIRLSda O'zbekiston Respublikasining doimiy ishtiroki ta'minlanishi ta'kidlab o'tilgan.

O'qituvchi o'z oldiga qo'ygan maqsadiga erishish uchun har bir mavzuni yoritishda turli metodlardan unumli foydalana bilishi kerak. Mavzuga mos tanlangan metod darsning samarali va natijali bo'lishini ta'minlaydi. Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida matn ustida ishlash orqali ham turli xil metodlardan samarali foydalana olish kerak. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar nutqini ostirish vositalardan biri to'g'ri uyushtirilgan qayta hikoyalashdir. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun matnni to'liq yoki matnga yaqin qayta hikoyalash ancha oson, boshqa turlari esa qiyinroqdir qayta hikoyalashda o'qigan hikoya mazmuni yuzasida o'qituvchining savoli oquvchilarni hikoyaning detallari haqida ayrim voqealar o'rtasidagi bog'lanishning sabab-natijalari haqida fikrlashga qaratilishi lozim. O'quvchi o'qigan asar mazmunini o'qituvchi savoli yordamida aytib berishida faqat analizdan emas, sintezdan ham foydalanadi. Buni amalga oshirish usullaridan biri o'tilgan matn ustida ishlashda interfaol usullarni qo'llashdir. Quyida "Sinkveyn" va "Limerik" metodlarini matnni tahlil qilish jarayonida PIRLSga oid topshiriqlar asosida ko'rib o'tamiz.

Sinkveyn tuzish - murakkab g'oya, sezgi va hissiyotlarni bir nechagina so'zlar bilan ifodalash uchun muhim bo'lgan malakadir. Sinkveyn tuzish jarayoni mavzuni yaxshiroq anglashga yordam beradi.

Sinkveyn tuzish qoidalar:

1-qator: Mavzu bir so'z bilan ifodalanadi (odatda ot tanlanadi).

2-qator: Mavzu ikkita sifat bilan ifodalanadi (2 ta sifat yoziladi).

3-qator: Mavzu doirasidagi hatti-harakatni uchta so'z bilan ifodalanadi. (3 ta fe'l yoki ravishdosh yoziladi).

4-qator: Mavzuga nisbatan munosabatni anglatuvchi va to'rtta so'zdan iborat bo'lgan fikr yoziladi. (4 ta so'zdan iborat jumla yoziladi).

5-qator: Mavzu mohiyatini takrorlaydigan, ma'nosi unga yaqin bo'lgan bitta so'z yoziladi (mavzuga ma'nodosh so'z yoziladi).

Masalan: 1-sinf ona tili va o'qish savodxonligi fanidan "Mening oilam" mavzusida "Ona" so'ziga sinkveyn tuzish:

Ona

Mehribon, shirinso'z.

Tarbiyalaydi, sevadi, ardoqlaydi.

Mening onam eng yaxshi ona.

Oyi.

LIMERIK-quyidagicha tuziladi:

Kim? yoki Nima?

Qanday? Qanaqa?

Qayerdan?

Nima qilgan?

Nima bo'lgan?

Nima bilan tamomladi?

1-sinf ona tili va o'qish savodxonligi fanidan „Aborning hikoyasi" matniga quyidagicha limerik tuzish mumkin:

Abror

Mehnatkash, aqlli.

Qo'zichoqlar olgan,

Bozordan,

Qo'zichoqlarni boqqan,

Qo'chqor bo'lgan,

O'n tangaga sotgan.

Xulosa qilib aytish mumkinki, yuqorida ta'kidlangan metodlarni qo'llash orqali PIRLS tadqiqotlariga tayyorlashda mantiqan, kreativ fikrlash asosida matnni tushunish sifatini yaxshilashga yo'naltirgan bo'lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son Farmoni.
2. I. Azimova va b. q. "Ona tili va o'qish savodxonligi 1 Metodik qo'llanma o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021.
3. I. Azimova va b. q "Ona tili va o'qish savodxonligi" 1-sinf uchun darslik. Respublika ta'lim markazi T-2021.

TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA TALIS XALQARO BAHOLASH DASTURINING AXAMIYATI

Xaydarova Kamola

Guliston davlat universiteti o'qituvchisi

xaydarovakamola@gmail.com

+998943500523

Anotatsiya. Ushbu maqolada ta'lim sifatini oshirishda TALIS xalqaro baholash dasturining ahamiyati, maqsad, vazifalari va TALIS xalqaro baholash dasturining mazmuni yoritilgan

Annotation. This article describes the role, goals, objectives and content of the TALIS International Assessment Program in improving the quality of education.

Аннотация. В данной статье описаны роль, цели, задачи и содержание Международной программы оценивания TALIS в повышении качества образования.

So'nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ulkan iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlariga erishilayotganligi barcha sohalarida malakali kadrlar va yetuk mutaxassilarga bo'lgan talabni yanada oshirmoqda. Bu o'z-o'zidan o'quvchilarimizning darslarga qiziqish xususiyatini oshirish va o'qituvchilarning har tomonlama ta'lim tarbiyaga e'tiborini kuchaytirishni talab etadi. Yuqoridagi talablarning ta'lim tizimi uchun juda muhim ekanligi, aksariyat xorijiy davlatlardagi kabi ta'lim va fan sohaları rivojlanishini baholash va monitoring qilish orqali ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan ilg'or tajribalarni sohaga jalb qilish kerakligini anglatadi. Ma'lumki, ta'lim sifatini xalqaro standartlar asosida baholash orqali dunyo mamlakatlari bilan qiyosiy tahlillar olib borish maqsadida Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2018 yil 8 dekabrda "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaror qabul qilingan. Qarorda ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi huzurida ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi tashkil etilib, ta'lim sifatini belgilash bo'yicha qator xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etishi belgilangan. Yurtimizda amalga oshirilayotgan yangi islohotlar natijasida PISA, PIRLS, TIMSS, TALIS kabi xalqaro baholash dasturlarini amaliyotga joriy etish bugungi kuninng dolzarb mavzularidan biri hisoblanadi. Keljagimiz davomchilari bo'lgan yoshlarni yoshlarni har tomonlama barkamol shaxs qilib tarbiyalashda TALIS xalqaro baholash dasturining o'zni beqiyosdir.

TALIS –bu maktab ta'limi tizimi o'qituvchilar qatlami(korpusi)ni o'qitish va ularni o'rganish bo'yicha xalqaro tadqiqotlar majmuasi bo'lib, OECD (Organisation for Economic Co-operation and Development) – Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti homiyligida o'tkaziladigan maktab ta'lim muhiti, kasbiy sharoitlar va o'qituvchilarni professional, mahoratli pedagog darajasigacha rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli va nufuzli xalqaro qiyosiy tadqiqotlardandir[1].

TALIS ning vazifalari :

1. Pedagogning ijtimoiy mavqeini oshirish
2. O'qituvchining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish
3. Pedagogika mutaxassisligi uchun iqtidorli yoshlarni tanlash
4. Uzluksiz malaka oshirish jarayonini takomillashtirish
5. Moderator o'qituvchilarni tanlash

TALIS so'rovnomasi natijalari dunyo maktablaridagi akademik muhit, o'qituvchi va maktab direktorlarining kasbiy faoliyati, ularning malaka oshirishlariga oid mavjud sharoitlar haqida fikr yuritishga undaydi. Mazkur keng ko'lamli tadqiqot ota-onalar o'z farzandlari taqdirini ishonib

topshirayotgan ta'lim dargohlarida sodir bo'layotgan pedagogik, uslubiy va ijtimoiy jarayonlar to'g'risidagi imkon qadar xolis ma'lumotlarni to'plash, tahlillar natijasida uni takomillashtirishga to'sqinlik qilayotgan omillarni aniqlash va bartaraf etishga qaratilgan[2]. So'rovnoma maktab o'qituvchilari hamda direktorlari o'z malakalarini oshirish jarayoni, o'qitish amaliyoti, duch kelayotgan kasbga doir muammolar haqida bildirgan mulohazalari maxsus ishlab chiqilgan kontseptual mezonlar orqali baholanadi. Tadqiqotda maktab hayotidagi dolzarb masalalar, xususan, maktab rahbariyatining quyi pog'onadagi hamkasblari bilan professional munosabatlari, uning maktab muhiti va o'quvchilarning fanlarni o'zlashtirishiga ta'siri o'rganiladi. TALIS tadqiqoti ta'lim tizimining bevosita ishtirokchilari o'z qarashlarini ifodalagani sababli uning natijalarining chuqur tahliliga mamlakatlar ta'lim siyosatida yangi yondashuvlarni ishlab chiqishda jiddiy manba sifatida qaraladi. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD)ning ta'sis etuvchi davlatlaridan isoblanmish Germaniya, Irlandiya, Lyuksemburg va Gretsiya TALIS so'rovnomaalarida umuman ishtirok etmaganlariga guvoh bo'lish mumkin. TALIS tadqiqoti Buyuk Britaniya va Kanadada ham umummilliy emas, balki tegishli ravishda alohida mintaqalar Angliya va Kanadaning Alberta hududlaridagina o'tkazilgan. Kosta-Rika OECDga rasman 2021 yilning may oyida a'zo bo'lib kirgani bois hali TALIS tadqiqotlarida qatnashib ulgurmagan[3].

O'qitish va ta'lim olish xalqaro so'rovnoma (TALIS) qarorgohi Parij shahrida joylashgan Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) homiyligida 2008 yildan boshlab har 5 yilda bir marotaba o'tkazib kelinadi. TALIS o'qituvchilarning ish sharoitlari, maktablardagi o'quv muhitini o'rganishga bag'ishlangan eng yirik va nufuzli xalqaro tadqiqotlardan biri hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi – ishtirok etuvchi mamlakat o'rta ta'lim tashkilotlarida eng samarali o'quv jarayonini ta'minlovchi mexanizmlarni aniqlash va ishlab chiqishda yordam berishdir. Shuningdek, o'qituvchi va direktorlar tarkibini kasbiy rivojlantirish va samarali o'qitish uchun sharoitlarni takomillashtirish maqsadida turli mamlakatlardagi o'qituvchi va maktab direktorlari to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash va qiyosiy tahlil qilish ishlarini olib boradi.

TALIS texnik talablariga binoan so'rovnoma namunasi uchun muayyan mamlakatning 200 ta maktabi tanlab olinadi. Har bir maktabdan 20 nafar 5-9-sinflarda ta'lim beradigan o'qituvchilar va shu so'rovnoma qatnashayotgan maktabning direktori, o'rtacha jami 200 nafar direktor va 4000 nafar o'qituvchi ishtirok etadi. Tadqiqot o'rta ta'lim tizimi muammolariga pedagoglar nuqtai nazaridan qarashga, ma'lumotlarni taqqoslab, tahlil qilish imkonini beradi. Bu esa o'z navbatida shu singari dolzarb masalalarni imkon qadar barvaqt aniqlash, chuqurroq o'rganish hamda ularni hal qilishning eng samarali usullarini izlab topishga yordam beradi[4].

Tadqiqot hisobotlarida yangi davr talablari o'qituvchilar butun umr davomida o'z ustilarida ishlashlarini taqozo etishi, sifatli ta'limni sifatli o'qituvchilar bilan barpo etish ilojisiz ekani ta'kidlanadi. TALIS o'quv muhiti va maktablardagi o'qituvchilarning mehnat sharoitlariga bag'ishlangan birinchi xalqaro so'rovnoma hisoblanadi. Maktab muammolarini tahlil qilish orqali maktab boshqaruvi samaradorligi va mas'uliyatini oshirishga qaratilgan. Ta'lim tizimi xodimlarining kundalik mehnat taqsimoti, vakolatlarning naqadar shaffof ekani pirovardida ta'lim olish va berish muhiti hamda o'qituvchilar ruhiy holati va mehnat unumdorligiga ta'siri ilmiy taqqoslanib o'rganiladi.

Shuni ta'kidlash lozimki, O'zbekiston Respublikasi umumta'lim muassasalarining ushbu nufuzli xalqaro TALIS tadqiqotida ishtirok etish masalasi hukumatning 2018-yildagi qarorida belgilangan bo'lib, ushbu tadqiqotda qatnashish bo'yicha Ta'lim inspeksiyasi va OECD o'rtasida bir necha marta olib borilgan uchrashuvlar natijasida, tadqiqotda qatnashish bo'yicha dastlabki kelishuvga erishilgan edi. Tadqiqotda ishtirok etish bo'yicha moliyaviy masalalar esa inspeksiya va Jahon banki hamkorligida amalga oshirilayotgan loyihada ko'zda tutilgan.

Xulosa o'rinda shuni ta'kidlash kerakki, ta'lim samaradorligini oshirishda TALIS xalqaro baholash dasturining o'rni beqiyosdir, chunki kelajagimiz davomchilari bo'lgan yoshlarning har tamonlama barkamol shaxs bo'lib yetishishi pedagoglarga bog'liq. Ushbu tadqiqotning xalqaro miqyosda o'tkazilishi esa mamlakatimizdagi ta'lim tizimini obyektiv baholab, muammo va kamchiliklarimizni boshqa mamlakatlar bilan solishtirishimizga va kelgusidagi rejalarimizni yana-da aniqroq belgilab olishimizga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. OECD Teaching and Learning International Survey (TALIS)
2. TALIS publications and documents
3. Teaching and Learning International Survey (TALIS) data
4. OECD Teaching and Learning International Survey (TALIS 2008) - Principal Questionnaire

XALQARO TADQIQOTLAR ORQALI O'QUVCHILARDA IJODKORLIK QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH

*Davranova Gulsara Mamatovna
Sirdaryo viloyati XTB boshlang'ich ta'lim metodisti*

Annotatsiya : Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini halqaro tadqiqotlarga tayyorlash, tayyorlash jarayonida ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish masalalariga qaratilgan.

Kalit so'zlar : PISA xalqaro dasturi, qobiliyat, kreativlik, kreativ yondashuv

Jamiyatdagi barcha korxona, tashkilotlarda innovasion hamda kreativ fikrlashga zarurat tug'diradigan global muammolarni hal qilish uchun innovasion bilim va yaratuvchanlik qobiliyatiga tobora ehtiyoj sezilmoqda.

Ta'limning asosiy roli o'quvchilarni jamiyatda muvaffaqiyat qozonish uchun zarur va kerak bo'ladigan sifatli ta'lim berish hisoblansa, kreativ fikrlash hozirgi yoshlarning rivojlanishi uchun zarur ehtiyojdir.

2021- yilda o'tkaziladigan PISA xalqaro dasturida kreativ fikrlashni baholash ilk marta amalga oshirilayotgan bo'lib, bu OECDning kreativ fikrlashni rivojlantirishga qodir yangi pedagogikalarni qo'llab-quvvatlash bilan bog'liq yana bir yangi loyihasidir.

Bundan ko'zlangan maqsad, faqat ijodkor shaxslarni ajratib olish emas, aksincha o'quvchilarda yangi, innovatsion g'oyalarni qidirish, ifodalashda kreativ fikrlash qobiliyatining o'qitish yondashuvi, maktab faoliyati hamda ta'lim tizimining boshqa xususiyatlari bilan qanday bog'liqligini tavsiflashdir.

Kreativ fikrlash nima?

Kreativ fikrlash – bu innovasion (yangi, novator, original, nostandart, noodatiy va hokazo...) va samarali (amaliy, natijaviy, tejimli, optimal va hokazo) yechimlarni topish, yangi bilimlarni egallash, tasavvurni ta'sirchan ifodalashga qaratilgan g'oyalarni ishlab chiqish, baholash va takomillashtirish jarayonida samarali ishtirok etish qobiliyatidir.

Kreativ fikrlash bizga muammolarni hal qilishda noodatiy yechim topishga yordam beradi. Biroq biz uni tanqidiy fikrlash bilan adashtirib yubormasligimiz, aksincha bizga imkonsiz muammolarni hal qilishda bir-birini to'ldirib turuvchi yechimlarni topishda yordam beradigan “aka-ukalar”dek qarashimiz kerak.

PISA tadqiqotlarida o'quvchidan kreativ fikrlashni baholash modeliga ko'ra ilmiy muammolarni yoki ijtimoiy muammolarni hal qilish, o'z g'oyalarini yozma yoki vizual ifodalash talab etiladi.

Kreativ fikrlashni baholashda kreativ g'oyalarni ishlab chiqish, baholash va takomillashtirish kompetentligiga e'tibor qaratiladi.

Agar ibtidoiy odamlarning kreativ fikrlashi bo'lmaganida edi, ikkita chaqmoqtoshni bir-biriga urib olovni, Tomas Edison elektr lampasini, Leonardo da Vinchi parashyutni ixtiro qilmagan bo'lar edi.

Kreativ fikrlashda ta'limning asosiy vazifasi o'quvchida jamiyatda muvaffaqiyatli hayot kechirishi uchun bugun va kelajakda kerak bo'ladigan ko'nikmalarni shakllantirishdir. Kreativ fikrlash bugungi yoshlar ega bo'lishi kerak bo'lgan muhim ko'nikma bo'lib, bu ko'nikma ularga doimiy tarzda va shiddat bilan o'zgarayotgan, oddiy savodxonlikdan tashqari yangilanayotgan davrga xos ko'nikmalarga ega kadrlarni talab etayotgan makonga moslashishga ko'maklashadi. Umuman olganda, bugungi o'quvchi kelajakda hozir hatto mavjud bo'lmagan sohalarda ishlashi, yangi ko'nikmasini

shakllantirish ularga tobora murakkablashayotgan mahalliy va global muammolarni noodatiy yondashuv orqali yangi muammolarni hal etish imkonini beradi. Maktabda kreativ fikrlashni rivojlantirishning ahamiyati faqatgina mehnat bozori bilan cheklanmaydi. Kreativ fikrlash o'quvchilarning ta'lim olishini hodisalar, tajribalar va xatti-harakatlarni yangicha va shaxsan mazmunli usulda talqin etish orqali qo'llab quvvatlaydi. O'quvchining qiziquvchanligi ta'lim jarayonida qo'l keladi, ijodiy fikrlash shu tariqa o'zaro kelishuvchanlik vositasiga aylanadi, hattoki avvaldan belgilangan ta'lim maqsadlari kontekstida ham bu samara beradi. Maktabda o'quvchining motivatsiyasi va qiziqishini oshirish uchun, barcha o'quvchilarning ijodiy salohiyati va shijoatini hisobga oluvchi ta'limning yangi shakllari yo'lga qo'yilishi zarur. Bu ayniqsa ta'lim jarayoniga unchalik qiziqish bildirmayotgan o'quvchilarga yordam berishi mumkin va ular o'z fikrini ayta olishiga, salohiyatini ochishiga xizmat qiladi.

O'quvchilar yoshi - tasavvur davri va ushbu qimmatbaho sifatni rivojlantirish uchun muhim davr. Tasavvur ijodiy shaxsning eng muhim fazilatlaridan biridir. O'quvchiga ijodkorlik bilan namoyon etish zarurati katta. Bu rasmda, musiqa, o'yin, ishda biror narsa yaratish istagida ifodalanadi. Yangi pedagogik texnologiyalar qatorida, maktabgacha ta'lim muassasalarida qo'llaniladigan texnikalar orasida TRIZ alohida o'rin tutadi. Ma'lum bo'lishicha, TRIZ boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari bilan ishlashda foydalanish mumkin va tasavvurlarni rivojlantirish nuqtai nazaridan ajoyib natija beradi.

TRIZ metodologiyasi ijodiy shaxsiyat maktabi deb atash mumkin, chunki uning shiori "ijod", chunki bu masalani ijod qilishda, materialni taqdim etishda. Odatiy so'z ma'nosida hech qanday usul yo'q, o'qituvchilar va ota-onalar o'zlari bolalar g'oyalari nuri bilan yoritilgan "kashf etadigan" vositasi mavjud. Tanish qiymatida hech qanday tarbiya yo'q, barchangizga qiziqib qolish va o'zingizni yaratishga imkon beradigan ko'nikmalarni o'zlashtirish usullari mavjud: va o'qituvchilar, ota-onalar va bolalar. TRIZ - "Ixtirochilik muammolarini hal qilish nazariyasi" ning qisqartmasi. Har qanday boshqa nazariya singari, o'z strukturasi, vazifalari va algoritmi ham mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyoyev Sh.M. "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz" mavzusidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi. – T.: "O'zbekiston", 2016. – 56 b.

2. PIRLS 2021 Assessment Framework. Ina V.S. Mullis, Michael O. Martin. International Association for the Evaluation of Educational Achievement (IEA), TIMSS & PIRLS International Study Center, Lynch School of Education, Boston College. 2019. www.timssandpirls.bc.edu.

DAVLAT VA HUQUQ ASOSLARI FANIDAN O'QUVCHILAR KOMPETENSIYALARINI HOLISONA BAHOLASH

Abdullayev Abdumalik Pardabayevich

Sirdaryo viloyati Sardoba tumani 16-maktabning davlat va huquq asoslari fani o'qituvchisi

Baholash deganda nimani tushunamiz?

Huquq fanlarini o'qitish metodikasi fanining vazifasi:

- huquq fanlarini o'qitishning o'ziga xos xususiyatlarini;
- huquq fani tizimida qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalar mazmuni va uni qo'llash tajribasini;
- uzluksiz ta'lim tizimida huquq ta'limini samarali o'qitishning usul va vositalarini o'rganish;
- tinglovchilarda huquq fanlarini o'qitishda manbalardan, normativ huquqiy hujjatlardan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish kabilar tashkil etadi.

Nimani baholash kerak?

Nazariy bilimlarni;

Amaliy bilim va ko'nikmalarni;

Xulq-atvor va shaxsiy fazilatlarini;

Yuqorida ta'dlanganligidek, nazariy bilimlar baholanilyotganida kognitiv o'quv maqsadlariga erishganlik darajalari aniqlanadi. Amaliy ko'nikma va malakalar baholanilyotganida psixomotorik ,

xulq-atvor va shaxsiy fazilatlar baholanisotganida esa effektiv o'quv maqsadlariga erishganlik darajalari aniqlanadi.

Bilimlarni tekshirish va baholash muayyan didaktik talablarga javob berishi kerak. Tekshirish va nazorat qilish sistemali doimiy tarzda bo'lishi shart.

Bu talabga rioya etilmasa ta'lim oluvchilarning o'qishga bo'lgan munosabati yomonlashadi, bilimlarning sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Bilimlarni baholash individual xarakterga egadir. Har bir ta'lim oluvchi uning qaysi bilimlari, ko'nikma va malakalari baholanisotganligini bilishi kerak. Ta'lim beruvchining savollariga va vazifalariga javob berishga tayyorlik holati bilimlarni tekshirish va baholash o'quv jarayonining muhim bir bo'lagi uning tarkibiy qismiga aylangan taqdirdagina ro'y beradi.

Quyidagi beshta asosiy tamoyillar baholash tizimi samaradorligini poydevori hisoblanadi.

- O'quv maqsadlariga asoslanganlik.

- Haqiqiylik

- Haqqoniylik

- Ishonchlilik

- Qulaylik

Baholash uning mohiyatidan kelib chiqib ikki xil shaklda o'tkazilishi mumkin.

1. **Mezonga asoslangan baholash.**

2. **Me'yorga asoslangan baholash.**

Formativ baholash - o'qituvchi tomonidan doimiy ravishda amalga oshiriladi, o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi fikr-mulohazalarni ta'minlaydi va o'quv jarayonini ball va baholarsiz o'z vaqtida tuzatishga imkon beradi.

Formativ baholash - o'qituvchi tomonidan doimiy ravishda amalga oshiriladi, o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi fikr-mulohazalarni ta'minlaydi va o'quv jarayonini ball va baholarsiz o'z vaqtida tuzatishga imkon beradi.

Ishlatiladi - kundalik amaliyotda (har soatda, har kuni);

Taraqqiyotni ta'minlash uchun fikr-mulohazalar;

O'qituvchiga ham, o'quvchilarga ham ma'qul bo'lgan shaklda bajaradi;

O'qituvchiga darsdagi muvaffaqiyatni kuzatishda yordam beradi;

Shunday qilib, formativ baholash quyidagi funktsiyalarga ega:

shakllantiruvchi, yo'naltiruvchi, rag'batlantiruvchi.

Formativ baholash texnologiyasi Formativ baholashning qoidalari

• Rejalashtirish

• Trening dasturi

• Akademik reja

• Uslubiy birlashma tomonidan ishlab chiqilgan va maktab pedagogik kengashi tomonidan tasdiqlangan barcha turdagi summativ baholashning davrlari, usullari, nazorat topshiriqlari ko'rsatilgan o'quv yili uchun baholash rejasini.

Tashkilot

• O'qituvchilar uchun kriteriy baholash bo'yicha qo'llanma

• Summativ baholash uchun uslubiy tavsiyalar

Amalga oshirish

• Mezon asosida baholash qoidalari

Summativ baholash - o'quv rejasining bo'limlari / kesishgan mavzulari, ma'lum bir o'quv davri (chorak, o'quv yili, o'rta ta'lim darajasi) oxirida ball va baholar qo'yish bilan amalga oshiriladi.

Summativ baholash - o'quv rejasining bo'limlari / kesishgan mavzulari, ma'lum bir o'quv davri (chorak, o'quv yili, o'rta ta'lim darajasi) oxirida ball va baholar qo'yish bilan amalga oshiriladi.

FORMATIV baholash ishlatiladigan - kundalik amaliyotda (har soatda, har kuni)

Mulohazalar yoki qayta aloqa - taraqqiyotni ta'minlash uchun fikr

O'qituvchiga ham, o'quvchilarga ham birdek ma'qul bo'lgan shakl

O'qituvchiga darsdagi muvaffaqiyatni kuzatishda yordam beradi

Summativ har bo'lim bo'yicha baholashni ishlab chiqish algoritmi

o'rganadi ishlab chiqiladi

- O'quv rejasi reja
- O'quv maqsadlari
- Fikrlash darajasi
- Baholash mezonlari
- Topshiriq
- Deskriptorlar-ya'ni xatolik qachon yuz berishi mumkinligini oldindan bashorat qilish

PIRLS HALQARO BAHOLASH TADQIQOTLARINING TA'LIM SIFATIGA TA'SIRI

Qo'chqorov Mirzavali

Namangan VXTXMOHM o'qituvchisi tel: 997817175

Annotatsiya: Ushbu maqolada PIRLS tadqiqotlarining ta'lim-tarbiya jarayoni sifatiga hamda o'quvchining ta'lim olishiga bo'lgan ijobiy ta'siri haqidagi ayrim mulohazalar berilgan.

Kalit so'zlar; PIZA, PIRLS, tadqiqotlar, ta'lim sifati, matn o'qish, axborot, o'quvchi

Аннотация: В этой статье приводятся некоторые соображения о положительном влиянии исследований PIRLS на качество образовательного процесса, а также на образование учащихся.

Ключевые слова; PISA, PIRLS, исследования, качество образования, чтение текста, информация, ученик

Annotation: This article provides some feedback on the positive impact of PIRLS research on the quality of the educational process as well as on student learning.

Keywords; PIZA, PIRLS, research, quality of education, text reading, information, reader

Ayni paytda butundunyo hamjamiyati ta'lim sifati samaradorligini oshirish masalasiga e'tibor qaratgan bo'lib, bu o'rinda yetakchi g'arb davlatlari ta'lim tizimida muvaffaqiyatli natijalarni ko'rish mumkin. Ta'lim sifatining bosh ko'rsatkichi bilim oluvchining natijasidandir. Bilim bevosita o'qish ko'nikmalariga bog'liq bo'lib, ta'lim jarayonda kitob o'qish va uni tushunish ko'nikma va malakalarini shakllantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Bu o'rinda rivojlangan davlatlarda bilim oluvchining, jumladan boshlang'ich sinflarda o'qish va o'qib tushunish malakalarini baholashning PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study) tizimi 2001 yildan beri qo'llanib kelinmoqda. PIRLS – bu o'quv savodxonligini baholashning mustaqil tizimi bo'lib, u IEA xalqaro assotsiatsiyasi tomonidan har besh yilda amalga oshiriladi. Ushbu tashkilot ta'lim tizimida keng qamrovli tadqiqotlarni 1958 yildan beri amalga oshirib kelmoqda [2]. PIRLS natijalari xalqaro ekspertlar tomonidan doimiy taxlil va muhokama qilib kelinadi. PIRLS ta'lim tizimining kuchli va kuchsiz tomonlarini aniqlashga yordam beradi. TIMSS dasturi esa o'zining birinchi tadqiqotini 1995 yilda boshlagan bo'lib, 2019 yilga qadar har to'rt yilda 1999, 2003, 2007, 2011, 2015 va 2019 yillarda tashkil etib kelindi [2]. PIRLS 4-sinf o'quvchilarining matnni o'qish va tushunish darajasini baholaydi.

PIRLS tadqiqotlari muvaffaqiyatli ta'lim negizida muvaffaqiyatli shaxs, muvaffaqiyatli kelajak va muvaffaqiyatli kasb egasi yotganini ta'kidlaydi. Bolalarning maktabda kitob o'qishi va bolalarning adabiy kompetensiyasi hamda savodxonligini rivojlantirish dasturlari, "Kitobning olg'a siljishi" va OAV yordamida mutolaa maqomini oshirish, bolalar uchun radio va televideniya maxsus dasturlar yaratish zarurati tug'ilmoqda. Bu zaruratni paydo bo'lishi esa o'quvchilarimizni PIRLS tadqiqotlarida ishtirok etishiga tayyorgarligini ham belgilaydi. Hozirgi vaqtda PIRLS ta'rifi ko'ra, o'qish savodxonligi jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma til shakllarini tushunish va ulardan foydalanish, shuningdek, matnlardan turli shakllarda ma'no hosil qila olish qobiliyati hamdir. Tadqiqot doirasida asosiy e'tibor tushunishni namoyon qilishdan o'zlashtirilgan ma'lumotlarni qanday qilib yangi loyihalar va vaziyatlarda qo'llay olish qobiliyatlarini namoyon qilishga qaratilmoqda.

O'quvchi bu jarayonning faol qatnashuvchisi bo'lib, ma'no yaratadi, matn ustida mushohada yuritadi va samarali o'qish strategiyalarini ongli ravishda tanlab qo'llaydi. Har bir matn turi odatiy shakl va qoidalarga amal qilgan holda o'quvchiga matnni sharhlashga yordam beradi. Har qanday matn turli

shaklga ega bo'lishi mumkin. Bular an'anaviy kitoblar, jurnallar, hujjatlar va gazetalar, shuningdek, raqamli ko'rinishdagi yozma shakllarni ham o'z ichiga oladi.

PIRLS boshlang'ich sinf o'quvchilarining sinf va sinfdan tashqari o'qishini baholashda ikkita keng qamrovli maqsadga, ya'ni "badiiy tajriba orttirish", "axborotni olish va undan foydalanish"ga qaratiladi.

Axborot borasida savodxon deb hisoblangan o'quvchilar mustaqil ravishda bilim olishlari kerak. Ular qo'yidagi ko'nikmalarga ega bo'lishlari lozim:

- o'zlarining axborotga bo'lgan talablarini anglagan holda fikrlay olish;
- muammolarni hal qilishda ishonchli va to'g'ri mulohaza qila olishlarini namoyish etish va aniq xulosa chiqarib, o'zlari uchun zarur bo'lgan axborotni tezkor ravishda aniqlash;
- axborotni izlashda va uni uzatishda texnik vositalardan to'g'ri foydalanish.

Axborot savodxonligi bo'yicha yuqorida qayd etilgan tavsiyalar quyidagi asoslarga tayanadi:

- o'quvchi olingan axborot ma'nosini ilg'ab olishi zarur;
- o'quvchi sifatli mahsulot tayyorlashi kerak;
- o'quvchi mustaqil ishlashi kerak;
- o'quvchi ishchi guruh tarkibida samarali ishlay olishi lozim;
- u axborot izlayotganda va texnik vositalar bilan ishlayotganda ma'naviy axloqiy- me'yorlar doirasidan chiqib ketmasligi kerak. Mazkur asoslarga "jon kiritish" uchun zarur ko'nikmalar ro'yxati:
- mustaqil ilm olish;
- hamkorlik;
- rejalashtirish;
- axborot izlash va uni yig'ish;
- axborotni saralash va baholash;
- axborotni tartibga solish va yozish;
- axborotni o'zlashtirish va hayotgatatbiq qilish; - natijalarni baholash [1].

Xulosa qilib aytganda ushbu dasturlar orqali O'zbekiston Respublikasi milliy baholash tizimini takomillashtirish, kompetentsiyaviy baholash tizimini joriy qilish hamda ta'lim sifatini oshirishga erishiladi.

Adabiyotlar:

1. Ishmuhamedov R.J., Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar.- T.: —Nihol nashriyoti, 2016.-279 b.

2. [https:// m.studme.org](https://m.studme.org)

CHIZMACHILIK FANIDA O'QUVCHILARGA CHIZMANI O'QISH VA BAJARISHNI O'RGATISH

Yakubova Nafisa Odiljanovna, Gayberdiyeva Nodira Toxir qizi
GulDU o'qituvchisi, nafisaodiljonovna@gmail.com +998975692991.
GulDU talabasi, gayberdiyevanodira@gmail.com +998909353507

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'quvchilarning chizmachilik fanidan bilim ko'nikmasini yanada oshirish, chizmachilik standartlarining talablariga asosan buyumning chizmasini mustaqil tuzishi va uni to'g'ri o'qishi, nazariy va amaliy vazifalarini ishlab chiqish bilan bog'liq bo'lgan dolzarb, muhim masalalar yoritilgan.

Kalit so'zi: chizma tuzishning nazariy asoslari, aksonometrik proyeksiyalar, tasavvur ko'nikma, fazoviy tasavvurlarini shakllantirish.

Chizmachilikni o'qitish jarayonini uning hamma komponentlari bilan bog'liqlikda ko'riladi, ya'ni kursning mazmuni uning masalalari bilan o'qitish metodlari uning mazmuni bilan o'qish jarayonini jihozlash va tashkil qilish uning mazmuni va metodlari bilan qurilish zarur.

Chizmachilik metodika pedagogika ilmining bir shaxobchasi sifatida psixologiya bilan chambarchas bog'liqdir. Chunki, chizmachilik o'qitish jarayonini takomillashtirishda injenerlik va pedagogik psixologiya qonuniyatlariga asoslanadi. Bular idrok qilish, o'zlashtirish, eslab qolish, kuzatuvchanlikni va fazoviy tafakkurini rivojlantirish, fazoviy shakllar bo'yicha tasavvurini

shakllantirish lozim. Chizmachilik o'quv ishlari yo'llarini shakllantirish jarayonini tekshirish bilan bir qator o'quvchilarning grafik ishlarni bajarish jarayonidagi harakat malakalarining shakllanishiga jarayonini tekshirish muhim ahamiyatga ega.

Ta'lim turlarining barchasini isloh qilish va qayta qurish amalga oshirilayotgan mamlakatimizda har bir fan, shu jumladan, chizmachilikdan chuqur nazariy va amaliy bo'limlarga ega bo'lgan yosh kadrlarni tayyorlash muhim ahamiyatga ega. Chizmachilikka oid bilimlarni muvaffaqiyat bilan egallashning asosiy shartlaridan biri grafik savodxonlik ya'ni chizmalar chizish va uni o'qiy bilishdir. Chizmachilik fanida mashqlar bajarishda inson tafakkurining eng asosiy sifati hisoblanmish fazoviy tasavvuri shakllanadi. O'quv predmetlardan birortasi ham o'quvchilarning fazoviy tasavvurlarini chizmachilikdek rivojlantira olmaydi. Chizmachilik darslarida o'quvchilarning grafik savodxonligi mustaqil mashqlar bajarish bilan rivojlantiriladi [1. 56-b].

Chizmalarni o'qishni o'rgatishda o'quvchilarning fazoviy tushunchalari va fazoviy tasavvurlarini o'stirishda fikrlash qobiliyatlarini real detallarning geometrik shakllari va konstruksiyasini kuzatish, taqqoslash va tahlil qilish ularning fazoviy vaziyatlarini o'rganish hamda kompetentlik o'quvlarini o'stirish talab qilinadi. Chizmalarni to'g'ri chizish usullari, shuningdek chizma xo'jaligini barcha sohasining to'g'ri tashkil qilish haqidagi fan "Chizmachilik" deyiladi. Chizmachilikdagi turli geometrik yasashlarini esa "Geometrik chizmachilik"da, narsalarning tekislikdagi tasvirini ya'ni proyeksiyasini yasash usullari "Proyeksiyon chizmachilik"da o'rganiladi [2. 76-b].

Mashina va uning mexanizmlari, ularning tashkil qilguvchi tugun va detallar chizmalari mashinasozlik chizmalariga kiradi. Bino, ko'prik, to'g'on, kanal va mudofaa inshootlarini qurishda foydalaniladigan chizmalar "Muhandislik qurilish" chizmalari deyiladi. Chizmachilik fanining maqsadi model, detal va buyumlarning tekislikdagi ko'rinish ortogonal proyeksiyalarini taxt qilish va ularni o'qish qoidalarini o'quvchi va talabalarga o'rgatishdan iborat. Chizma bu qayta tiklash xususiyatiga ega bo'lgan konstruktorlik hujjatidir. Ya'ni bajariladigan chizmadagi ma'lumotlar orqali buyumning asli qanday ekanligi to'g'risida to'liq tasavvurga ega bo'lishi taminlanadi. Chizmachilikda model va detallarning ko'rinishlarini va aksonometrik proyeksiyalarini bajarish qonuniyatlari, qirqimi, bosh plani hamda o'qish qoidalari, qurilish ishlarining chizmalarini taxt qilish qoidalari o'rganiladi. Chizmachilikni endi boshlagan o'quvchilarda chizmani bajarishda katta harakat kuchi talab qilinadi. Shuning uchun chizmani bajarish vaqtidagi o'quvchining harakat usullarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi. O'quvchilarning grafikaviy tayyorgarligini takomillashuvi so'nggi yillarda olgan surilgan ilg'or g'oyalar asosida ta'limni qayta qurishning qanchalik tez va muvaffaqiyatli amalga oshirishiga bog'liqdir.

O'quvchilarning aqliy faoliyatini aktivlash, grafik ishlar ikki tomondan ta'sir qiladi. Bir tomondan, o'quvchilarning tasviriy tafakkurning rivojlanishiga, ikkinchi tomondan esa mantiqiy tafakkurining rivojlanishiga bog'liqdir. Chizmachilik o'qitish jarayonida o'quvchilarning tasviriy tafakkurining va fazoviy tasavvurlarining rivojlanishiga ahamiyat bermoqda. Mantiqiy tafakkurning rivojlantirish, tasavvurlarning turli xil ko'rinishlarini, har xil buyumlarni, buyumlar bilan tasvirlarni va hokazo, ularning muhim bo'lmagan belgilarini ajratish va qarama-qarshi asosida taqqoslash usullari, yangi materialni bayon qilishda indukdiya bilan birlashtirish masalalari ustida ishlashga to'g'ri keladi. Fazoviy shakllarni tasavvur qilishning yetarli darajada rivojlanmaganligi tufayli oily texnika o'quv yurtlariga kirgan o'quvchilarni o'qitish va ularning o'rgatish ancha murakkabdir [4. 24-b].

Chizmachilik darslarida fazoviy tasavvurlarini rivojlantirish quyidagi mazmunda bo'lishi mumkin. Birinchidan, biror buyumning chizmasini yasashga doir va uning berilgan chizmasini o'qishga doir topshiriqni bajarishda ularga tanish bo'lgan buyumning geometrik shaklining fikran aniq tasavvur qila olish qobiliyatini rivojlantirishimiz kerak. Aksonometrik proyeksiyalar o'qitishda proyeksiyalash usullarini o'rganish va o'quvchilarni tasavvurlarini rivojlantirishdan iboratdir. Yaqqol tasvirlar aksonometrik chizmalarni va texnik rasmlarni o'rganish va bajarishni parallel ravishda o'rgatishimiz lozim. Har bir darsning mazmunini aniqlashda o'quvchilarning imkoniyatlarini hisobga olish va tushunarli qilib, fanning yangi taraqqiyotiga mos va uning asosiy mazmuniga to'g'ri kelmagan materialni o'rgatish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A. Umarxo‘jayev, , Texnikaviy grafika asoslari’’- T. : “O‘qituvchi’’ 1996 yil.
2. Qirg‘izboyev Yu. va boshqalar , , Mashinasozlik chizmachiligi kursi-T. , , O‘qituvchi’’ 1981 yil.
3. I. Rahmonov, A. Valiyev Chizmachilik (chizmachilik fanida konstruktisyalash asoslari). T. : , Voris- nashriyoti’’, 2011 yil.
4. Rahmonov I, Abdurahmonov A. Chizmachilikdan ma’lumotnoma –T. : “A. Navoiy nomidagi milliy kutubxona nashriyoti’’ 2005 yil.
5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. «Ўзбекистон миллий энциклопедияси», 2 жилд, 2006-175 б

INTERFAOL O‘QITISH METODLARIDAN FOYDALANISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI

*Bo‘riboeva Dilraxon Norboy qizi
Guliston davlat universiteti o‘qituvchisi,
dilraxonboriboyeva@gmail.com +99899 4713128.*

Annatotsiya: Ushbu maqolada talabalarning grafik savodxonligini rivojlantirishda interfaol o‘qitish metodlaridan foydalanishning didaktik imkoniyatlari doir ilmiy-metodik tavsiyalar berilgan. Maqolani ilmiy jihatdan yoritishda ayrim interfaol metolarni mazmuni mohiyati hamada ayrim interfaol metodlarni qo‘llanishi bo‘yicha ilmiy-metodik didaktik tavsiyalarmizni bayon etganmiz.

Kalit so‘zlar: interfaol metod, grafik savodxonlik, xalq amaliy sa‘nat, innoavsiya, didaktika, o‘qitish metodkasi, ijodiy fikrlash, ta‘lim, tarbiya, mustaqil fikr, yosh psixologik xususiyat.

Hozirgi vaqtda O‘zbekistonda jahon ta‘lim maydoniga kirishga yo‘naltirilgan yangi ta‘lim tizimi qaror topdi. Bu jarayon bilan bir vaqtda pedagogik o‘quv-tarbiya jarayonining nazariyasi va amaliyotida sezilarli o‘zgarishlar sodir bo‘lmoqda.

Interfaol o‘qitish metodlari- (*Interfaol tushunchasi ingliz tildan “interact”(rus tilida interaktiv) so‘zidan olingan bo‘lib, ikki taraflama harkat qilmoq ma‘nosini anglatadi*) bu ta‘lim shakllarini optimizatsiyasini o‘ziga maqsad qilib olgan inson va texnik resurslari va ularning o‘zaro ta‘sirini hisobga olgan holda o‘qitish jarayonini tashkil etish, qo‘llash va aniqlashning hamda bilimlarni o‘zlashtirishning uslublaridir. Interfaol o‘qitish metodlari paydo bo‘lgunga qadar ta‘lim tizimi doirasida ta‘lim jarayonini yetarli samarali loyihalash qoidasi ishlab chiqilmagan. Interfaol o‘qitish metodlarining o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, unda o‘quv maqsadlariga erishishda o‘quv jarayoni loyihalashtiriladi va amalga oshiriladi. Texnologik yondashuv, eng avvalo, yuzalikda emas, balki rejalashtirilgan natija olish imkonini beruvchi konstruktiv, ko‘rsatmali sxemada o‘z ifodasini topadi. Maqsadga yo‘naltirilganlik, jarayon natijalarini tashxisli tekshirish, ta‘limni alohida o‘rgatuvchi qismlarga bo‘lib tashlash o‘quv jarayonining qirralarini bugungi kunda ta‘limni qayta ishlab chiqish sikli g‘oyasiga birlashtirish imkonini beradi.

U asosan o‘z ichiga quyidagilarni oladi.

- ta‘limda umumiy maqsadning qo‘yilishi;
- tuzilgan umumiy maqsaddan aniq maqsadga o‘tish;
- pedagoglarning bilim darajalarini dastlabki baholash;
- bajariladigan o‘quv ishlarni majmuasi;
- natijani baholash.

Bugungi milliy pedagogikaga «interfaol metodlar» nomi bilan kirib kelayotgan metodlar talaba-o‘qituvchidan ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarflamay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishish maqsadini nazarda tutadi. Qisqa vaqt mobaynida ma‘lum nazariy bilimlarni talabaga etkazish, unda ma‘lum faoliyat yuzasidan ko‘nikma, malaka hosil qilish, shu bilan birga ularni nazorat qilish hamda baholash o‘qituvchidan yuksak pedagogik mahorat va chaqqonlikni talab qiladi. Bugungi kunda qator rivojlangan mamlakatlarda qo‘llanilayotgan “Aqliy hujum”, “6x6x6”, “Klaster”, “Qarorlar shajarasi” singari metodlarning ayrimlaridan ijodiy qobiliyatni rivojlantirishdagi

badiiy asar tahlilida ham foydalanish mumkin. Aslini olganda, bu metodlarning ta'limdagi mantiqiy metodlardan farqi uncha katta emas. Masalan:

O'qitishning to'rt pog'onali usuli bu usul AQSh da paydo bo'lib sanoat korxonalarida konveerli ishlab chiqarish ko'paygan sari shunday o'rgatish usullari zarur bo'lib qoldiki, ishchilar bir xilda qaytariladigan qo'l ko'nikmalarini iloji boricha tez va mukammal ravishda o'rganib olishlari kerak edi.

Bu usulda amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirish jarayoni to'rt pog'ona doirasida kechadi. Bu pog'onalarining nomi: "Tushuntirish", "Nima qilish kerakligini ko'rsatib berish", "Ko'rsatilgan tarzda qaytarish", "Mashq qilish". Ya'ni amaliyot o'qituvchisi talabalarga avval kichikroq bir ish bosqichini tushuntirib beradi, keyin nima qilish kerakligini qilib ko'rsatadi. So'ng talaba shu ish bosqichini ko'rsatilgan tarzda qaytarishi (imitatsiya qilishi) kerak. Talaba qaytarib qilayotgan paytida amaliyot o'qituvchisi xatolarini to'g'rilab turadi (maqtaydi yoki tanqid qiladi).

To'rt pog'ona usuli doirasidagi harakatlar to'rt pog'ona deb quyidagi pog'onalar ataladi. Ular davomida bir amaliyot o'qituvchisi bir talaba harakat qiladi:

1-pog'ona: Amaliyot o'qituvchisi nima qilish kerakligini tushuntiradi. U talabalarga ma'lum bir ish bosqichi yoki bir ko'nikmani qo'llash uchun kerakli barcha ma'lumotlarni beradi. Talabalar esa amaliyot o'qituvchisi og'zaki tushuntirishlarini tinglashadi.

2-pog'ona: Amaliyot o'qituvchisi tushuntirilgan ish bosqichi qanday qilinishi kerakligini qilib ko'rsatadi, talabalar esa qarab turishadi. Odatda amaliyot o'qituvchisi nima qilayotgani haqida talabalarga izohlar berib boradi. Ya'ni bu yerda demonstratsiya (namoyish etish) tushunchasi ham ishlatilishi mumkin.

3-pog'ona: Amaliyot o'qituvchisi ko'rsatib bergan ish bosqichini ko'rsatilgan tarzda qaytaradilar. Amaliyot o'qituvchisi ular qilayotgan ish yuzasidan o'z fikrini bildirib, xatolarni to'g'rilab turadi.

4-pog'ona: Har bir talaba ish bosqichini ko'rsatilgan tarzda qaytarib, ko'rganidan va ish bosqichini to'g'ri bajarish bo'yicha amaliyot o'qituvchisining izohlarni tushunganidan keyin, bu ish bosqichi ko'p marotaba mashq qilinadi va kerakligicha, ya'ni maqbul natijaga erishilmagunicha takrorlanadi.

Bundan keyin amaliyot o'qituvchisi keyingi ish bosqichiga o'tadi. Bu bosqich ham 4 pog'onadan iborat. Bu 4 pog'ona usulining asosiy belgisi shuki :

➤ amaliyot o'qituvchisi tomonidan boshqarilgan nazariy va amaliy ma'lumot berish davrlari (fazalari) eng boshida turadi so'ng esa talabalarining harakatlari bilan almashinadi;

➤ talabalarining harakatlari amaliyot o'qituvchisi ko'rsatib bergan harakatlardoirasi bilan cheklangan;

➤ talabalar individual o'rganishga (o'zlashtirishga) yo'naltiriladilar lekin mustaqil fikrlashga haqlari yo'q;

➤ ish tashkillashtirishi (ish tartibi) odatda hech qanday yangicha yondashuvlarga yo'l qo'ymaydi.

Masalan, "Aqliy hujum" metodining maqsadi talabalarining mashg'ulot jarayonidagi faolligini oshirish, ularni erkin, ijodiy faoliyatga undash, ma'lum mavzu yuzasidan har xil masalaga ijodiy yondashuvni ta'minlashdan iborat. Bu metoddan foydalanilganda favqulodda, kutilmagan savol yoki topshiriq bilan talabaning ongiga, shu uriga "hujum" qilinadi va ular loqaydlikdan, muvozanatdan chiqariladi.

Talabalar o'z oldilariga qo'yilgan muayyan masala bo'yicha mulohaza yuritadilar. Masala atrofida ishlayotgan, kompozitsiya tayyorlayotgan har bir talaba tomonidan aytilgan g'oyalar rag'batlantirish, qayd etib borish, har bir ishtirokchining erkinligini ta'minlash, asar mualliflari tomonidan asoslanishini talab qilish talab qilinadi. Talabalar tomonidan bajarilgan ijodiy ishni alohida baholash, ularni tanqid qilish yoki g'oyalaridan kulish ta'qiqlanadi.

Xulosa o'rnida shularni ta'kidlashmiz lozimki talabalarining grafik savodxonligini rivojlantirishda interfaol o'qitish metodlaridan foydalanishning didaktik imkoniyatlari quyidagilardan iborat bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O‘. Muxamedov, M. H. Usmanboev, S. S. Rustamov. , Ta‘limni tashkil etishda interfaol metodlar: O‘quv-uslubiy tavsiyalar -T. : O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2016. - 4 bet.
2. U. Inoyatova va boshqalar: Pedagogikadan 1000 savolga 1000 javob T. TDPU 2013 yil 127 b.
3. Benjamin Bulm et at. , eds. , taxonomy of Educational objectives, Handbook J: Cognitive (New York: MK Kay, 1956)
4. Bo‘riboyeva Dilraxon norboy qizi- Interfaol o‘qitish metodlari va texnologiyalari asosida talabalarning grafik savodxonligini oshirish metodikasi (muxandislik grafikasi fanlarini o‘qitish metodikasi misolida) mavzusi bo‘yicha magistrlik dissertatsiya. T. : TDPU 2021.

O‘QITUVCHILARNING KASBIY KOMPONENTLIGINI RIVOJLANTIRISH VA TA‘LIM SIFATINI BAHOLASH

Barnoxon Madihonova, R. G‘. Mamatyusupova, R. X. Mamurjonov, A. Sobirov,

Andijon qishloq va agrotexnologiyalar instituti

Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar insituti talabalari

Annotatsiya. Ushbu maqolada hozirgi davr ta‘lim jarayonining sifati va samaradorligini oshirishda o‘qituvchi kasbiy mahoratining o‘rni hamda amaliyotda qo‘llash xususiyati to‘g‘risida to‘xtalib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar. Kompetentlik, kasbiy kompetentlik, texnologiya, bilim, ko‘nikma, malaka, nutq, kreativlik.

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti istiqbolini belgilash, jahon hamjamiyati mamlakatlari safidan munosib o‘rin egallashga intilish yo‘lidagi keng ko‘lamli islohotlarni amalga oshirish bilan kechmoqda. Jahonning rivojlangan mamlakatlar tajribalarini o‘rganish, mahalliy shart-sharoit, iqtisodiy va intellektual resurslarni inobatga olgan holda jamiyat hayotining barcha sohalarida tub islohotlarning amalga oshirilayotganligi yangidan-yangi yutuqlarga erishishni ta‘minlamoqda. Turli sohalarida yo‘lga qo‘yilayotgan xalqaro hamkorlik garchi o‘z samarasini berayotgan bo‘lsa-da, biroq, milliy mustaqillikni har jihatdan mustahkamlash, erishilgan yutuqlarni boyitish, mavjud kamchiliklarni tezkor bartaraf etish jamiyat a‘zolaridan alohida fidokorlik, jonbozlik, shijoat va qat‘iyat talab etmoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Psixologik-pedagogik adabiyotlarda, ko‘pgina pedagogik olimlarning ilmiy ishlarida kompetentlik degan tushuncha keyingi paytlarda keng qo‘llanilmoqda. Ta‘lim tizimiga kompetentli yondashuv xorijiy adabiyotlarda o‘tgan asrning 60-yillarida shakllana boshlagan. Kompetentlik- tushunchasi esa, shaxsning doimo o‘z boruvchi tasnifi bo‘lib, real hayotiy vaziyatlarda yuzaga kelgan muammolarni yechish qobiliyati, o‘z bilimi, o‘quv va hayotiy tajribalari, qadriyatlar va qiziqishlarini unga safarbar etish imkoniyatlari hisoblanadi. Kasbiy kompetentlik- mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo‘llay olinishi demakdir.

Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo‘nalish bo‘yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o‘zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, kompetentsiya musaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o‘rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma‘lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o‘z faoliyatida qo‘llay bilishni taqozo etadi.

Kasbiy kompetentlik quyidagi holarda yaqqol namoyon bo‘ladi:

- murakkab jarayonlarda;
- noaniq vazifalarni bajarishda;
- bir-biriga zid ma‘lumotlardan foydalanishda;
- kutilmagan vaziyatlarda harakat rejasiga ega bo‘la olishda.

Kasbiy kompetentlik negizida quyidagi sifatlar aks etadi:

- Maxsus yoki kasbiy kompetentlik;
- Texnologik kompetentlik;
- Ektremal kompetentlik;

Psixologik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion, kommunikativ va boshqa kompetentlik. Ijtimoiy kompetentlik- ijtimoiy munosabatlarda faollik ko'rsatish ko'nikma, malakalariga egalik, kasbiy faoliyatda subyektlar bilan muloqotga kirisha olish. Maxsus kompetentlik- kasbiy- pedagogik faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish, kasbiy-pedagogik vazifalarni oqilona hal qilish, faoliyati rivojlantirib boorish bo'lib, ushbu kompetentlik negizida psixologik, metodik, information, kreativ, innovatsion va kommunikativ kompetentlik ko'zga tashlanadi. Shaxsiy kompetentlik-izchil ravishda kasbiy o'sishga erishish, malaka darajasini oshirib boorish, kasbiy faoliyatda o'z ichki imkoniyatlarini namoyon qilish. Texnologik kompetentlik-kasbiy-pedagogik BKMni boyitadigan ilg'or texnologiyalarni o'zlashtirish, zamonaviy vosita, texnika va texnologiyalardan foydalana olish. Ektremal kompetentlik- favqulotda vaziyatlar (tabiiy ofatlar, texnologik jarayonlar ishdan chiqqan)da, pedagogik nizolar yuzaga kelganda oqilona qaror qabul qilish, to'g'ri harakatlanish malakasiga egalik.

Muhokama va natijalar. Pedagogik jarayonning qanchalik samarali, muvaffaqiyatli tashkil etilishi o'qituvchining pedagogik qobiliyatiga egaligiga bog'liq. Manbalardan birida qobiliyat tushunchasi shunday sharhlanadi: shaxsning osonlik bilan biron faoliyatni egallay olishini ta'minlaydigan individual psixologik xususiyatdir.

Qobilyatli pedagoglarda quyidagi noyob qobilyatlar ko'zga tashlanadi:

-bir vaqtning o'zida bir necha faoliyatni bajara olish(eshitish, ko'rish, o'qish, yozish, fikr yuritish, muloqot qilish va b.):

-atrofida kechayotgan ikki yoki bir necha voqelikni birdek qabul qilish (bir talabaning maruzasini eshitgani holda , boshqa talabalarning faoliyatini kuzata olish);

-o'ta qiziquvchanlik (tabiat va jamiyatda kechayotgan har bir voqea-hodisa mohiyatini bilishga intilish, haddan ziyod ko'p savollarga javob topishga intilish);

-miya faoliyatining boikimyoviy va elektrik faolligi (miya deyarli to'xtovsiz faoliyat ko'rsatib, nihoyatda kam vaqt dam oladi, bilish jarayonida noaniqliklar ko'zga tashlansa, ular tezda bartaraf etiladi; uyquchanlik qobilyatli pedagoglarga xos xususiyat emas);

-nutqi va fantaziyasining boyligi(qobilyatli o'qituvchilarning aksariyati nihoyatda boy nutqqa ega, ularda fantaziya (tasavvur qilish) qobiliyati beqiyos darajada kuchli);

Xulosa. Ta'lim tizimida tom ma'noda o'quvchilarga sifatli, foydali, muhim, zarur, kerakli va amaliy ahamiyatga ega ma'lumotlarni tizimli ravishda yetkazib bera olishi uchun bugungi kun o'qituvchisi, axborotlarni tezkor qabul qilish, qayta ishlash va o'quvchilarga samarali, qiziqarli tarzda yetkazib berishning uddasidan chiqa olishi zarur. Bu esa o'qituvchining kasbiy kompetentlik sifatleri, pedagogic mahorat asoslari hamda kreativlik qobilyatiga ega bo'lishi zaruriyat sifatida kun tartibiga olib chiqmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Azizxo'jayeva N. N. Pedagogik texnologiya pedagogik mahorat. –T: 2002.
2. N. A. Muslimov. Bo'lajak kasb-ta'limi o'qituvchisini kasbiy sh. T. , F 2004.
3. X. Sharipov, N. Muslimov, M. Ismoilova: Kasbiy ta'lim pedagogikasi metodik qo'llanma. - T. 2005y
4. Muslimov N. va boshqalar. Kasb ta/limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. –T. : Iste'dod, 2008. -180b

BOSHLANG'ICH SINF ONA TILI DARSLARIDA O'YIN METODI

Xudoyberdiyeva Nargiza Mirkomil qizi

Guliston davlat universiteti magistranti

Annotatsiya: maqolada boshlang'ich sinflarda ona tili darslarini zamonaviy o'yin texnologiyalar asosida tashkil etish, uni boshqa fanlar bilan integratsiyalash masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: pedagogik texnologiya, interfaol metodlar, ta'limiy o'yin metodi, o'quv-tarbiya jarayonida fanlararo integratsiya.

Boshlang'ich sinflarda ta'lim jarayoniga ilg'or pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlarni keng joriy etish, o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida o'zaro hamkorlik, fanlararo integratsiyani

ta'minlash orqali o'quv-tarbiya sifati va smaradorligiga erishish, o'quvchilarni mustaqil fikr-mulohaza yuritishga o'rgatish davr talabidir.

Boshlang'ich sinflarda grammatik materialni o'rganish amaliy yo'nalishga ega bo'lgani va birinchi navbatda, o'quvchilarning nutqiy va aqliy rivojlanishiga xizmat qilgani uchun, bir til kategoriyasining boshqasiga tobeligini va bir-birini taqozo qilishini tushunish bilan birga, o'quvchilarning bu haqdagi bilimlaridan amaliy vazifalarni hal qilishda, ya'ni so'zlarni yozish, gap tuzish, so'zni tahlil qilishda foydalanishga o'rgatish ham muhimdir.

Maktabda tilning barcha tomonlari (talaffuzi, fonetikasi, leksikasi, grammatikasi, so'z yasalishi)ni o'zaro bog'liq holda o'rganish ona tilini o'rgatishdagi yetakchi tamoyili bo'lib, uni amalga oshirish o'quvchilarning tilni murakkab, rivojlanuvchan, o'zaro bog'langan muhim tomonlarga ega bo'lgan hodisa sifatida anglab yetishlari uchun ilmiy asos yaratadi. Tilning mohiyatini bunday idrok etish hodisalarning rivojlanuvchanligi va o'zaro bog'langan qismlardan tuzilishini tushunishga zamin hozirlaydi.

Bugungi kunda fan va texnika rivojlanib, ta'lim tizimida keskin o'zgarishlar bo'lib turgan bir paytda shiddatli davr barcha pedagoglardan ta'lim va tarbiyani chambarchas bog'liqlikda muntazam olib borishni taqozo etmoqda. Chunki ma'naviyat yo'q ekan, inson ongli ijtimoiy shaxs bo'la olmaydi. Hozirgi globallashtirish jarayonlari kuchaygan, turli g'oyalar o'rtasidagi kurash keskinlashgan, ommaviy madaniyat xurujlari butun dunyoga tarqalib borayotgan, internet tarmog'i orqali uzatilayotgan buzg'unchi axborotlar inson qalbi va ongini o'ziga qaram qilishga urinayotgan tahlikali zamonda kelajagimiz bo'lgan yosh avlodni hayotga tayyorlashning samarali shakl va uslublarini izlash davlat siyosati darajasidagi masalaga aylangan.

Tarbiyaviy ishlarni davr talabiga javob beradigan holga keltirish uchun tarbiyaning asosi bo'lgan barcha g'oyalar qaytadan ko'rib chiqilishi, asosiy e'tibor bola shaxsiga qaratilishi, yillar davomida to'plangan ijobiy tajribadan unumli foydalanish zarurligini bizdan talab etadi. Inson shaxsining kamol topishi esa juda murakkab va uzluksiz jarayon davomida shakllanadi. Uning tarbiyasiga ota-onasi, maktab, mahalla, do'stlari, jamoat tashkilotlari, atrof-muhit, internet, ommaviy axborot vositalari, san'at, adabiyot, tabiat va hokazolar bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Bugungi integratsiyalashgan ta'lim tizimida bu borada juda ko'p ishlar amalga oshirilishi ham shu maqsadni ko'zlaydi. Bugungi kunda odobnoma, milliy g'oya kabi fanlarning bir nom ostida birlashtirilishi ham muhim ahamiyat kasb etadi, ya'ni o'z vaqtida olg'a surilgan islohotlardan biridir. Fan yuksalmoqda, raqobatbardoshlik, jahon standartlariga moslik sari dadil odimlamoqdamiz. Har bir fanda fanlararo aloqadorlikka amal qilish ko'zda tutilmoqda.

Boshlang'ich sinflarda ona tili darslarini zamonaviy pedagogik texnologik yondashuvlar asosida tashkil etish borasida anchagina ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 3-sinf ona tili darslarida asosdosh so'zlar mavzusi biroz murakkab va o'quvchiga tushunish uchun qiyinchilik tug'diradi. Dars jarayonida asosdosh so'zlarni topish uchun bolalarbop turli o'yin metodlaridan foydalanish ancha yuqori samara beradi. Buning uchu turli shakldagi figuralar yoki hayvon, qush, manzarali daraxtlar rasmi shakli bilan har bir o'quvchini ta'minlab, undagi qaysidir qismida asosdosh so'zlar va bolani chalg'ituvchi xato so'zlarni yozib chiqamiz. O'quvchi ona tili darsida rangli qalamlardan foydalangan holda shu asosdosh deb bilgan qismlarni bo'yashi lozim bo'ladi.

Bunday – "O'yla, izla, top va bo'ya" o'yin metodi har bir bolaga estetik zavq bag'ishlashi bilan birga o'quvchidan ziyraklikni, topqirlikni talab etadi. So'zli qismni bo'yash jarayonida qo'l motorikasida ishqalanish jarayoni esa nutqiy ravonlikka ham sabab bo'ladi. Chunki bolaning nutqiy faoliyatini boshqaruvchi hujayralr ayni kaft qismida joylashgani buning asosidir. Ko'rinadiki, bugungi kunda joriy etilayotgan integratsiyalashgan ta'lim tizimi bir vaqtning o'zida bir necha fanlar hamkorligini yo'lga qo'ya olishi bilan talaygina yutuqlarga sabab bo'ladi. Bu esa davr talabidir.

Ma'lumki, ta'lim-tarbiya jarayoni o'quvchilarning bilim olish, ko'nikma va malakalarni egallash, ularning ilmiy dunyoqarashi, ma'naviy-axloqiy fazilatlarini, ijodiy izlanishlarini rivojlantirish maqsadida yo'g'rilgan o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro hamkorligi sanaladi. Ta'lim-tarbiya jarayonida ustoz va tahsil oluvchilar o'rtasida o'zaro hamkorlikni tarkib toptirish uchun, avvalo, o'sha jarayonni insonparvarlashtirish, do'stona muhitni yaratishni taqozo etadi. Chunki har qanday jarayonni amalga oshirishda ustoz va o'quvchi o'rtasida iliq mehr, ishonch zarurligi tabiiy.

Yuqorida tilga olingan o'yin metodida juda tez fursatda bir vaqtning o'zida butun guruh bolalarini baholay olish mumkin. Qanday qilib? Ustoz qo'lida tarqatilgan har bir surat yoki manzaraning to'g'ri bajarilgan varianti mavjud bo'lib, bolalarga namoyish etgan holda barchasi birdaniga baholanib boriladi. Bu vaqt tejamkorligiga, xatoga yo'l qo'yilgan holatda esa, uni izohlash, tushuntirib borilishi uchun bizga imkon beradi. Kamchilikka yo'l qo'yilgan holatlar bilan esa doskada qayta ishlanishi dars mavzusining to'la o'zlashtirilishiga samarali ta'sir ko'rsatadi. Bu mustaqil fikrlashi, dunyoni rangli tasavvur etishi, sevimli mashg'ulot orqali fanni o'zlashtirishga turtki bo'ladi.

Zero, davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoev SH. M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - T. : O'zbekiston, 2017.
2. O'zbek tilining izohli lug'ati. – Toshkent, Sharq nashriyot matbaa konsertni Bosh tahririyati, 2006.
3. Xalq ta'limi. Ilmiy-metodik jurnali. –T. , 2018 yil, №6-son.
4. Boshlang'ich ta'lim. Ilmiy-metodik jurnal. 2021, 2022 –yil sonlari.
5. S. M. Ro'ziyeva. Boshlang'ich ta'limda innovatsion texnologiyalarni qo'llash usullari. – Toshkent, 2012.

XALQARO BAHOLSH DASTURIDA MATEMATIK MULOHAZA YURITISH VA MASALALAR YECHISH

Nazarbaeva Jadira Maratovna

*Nukus shaxar 33-sonli tasviriy san'atga ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabi
matematika fani o'qituvchisi*

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 8 dekabrda "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 997-sonli qarori [1] asosida Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro loyihalarni amalga oshirish, zamon talablariga javob beradigan munosib milliy baholash tizimini takomillashtirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Matematik savodxonlikning ta'rifiga nazar tashlaydigan bo'lsak, u turli kontekstlarda berilgan real hayotiy muammolarni yechishda matematikadan unumli foydalanishni taqozo etadi. [2] Shu bilan birga, matematik savodxonlik, xoh u induktiv, xoh deduktiv bo'lsin, o'quvchidan matematik mulohaza yuritishni hamda hodisalarni tasvirlash, tushuntirish va oldindan bashorat qilish maqsadida matematik tushuncha, fakt, algoritim va vositalardan foydalanishni va muammoni yechishni talab qiladi.

Matematik savodxonlik – bir tomondan matematikani qo'llab masala yechishni, ikkinchi tomondan esa, matematik mulohaza yuritishni nazarda tutadi. Matematik savodxonlik o'quvchilarning matematik mulohaza yuritish asosida berilgan hayotiy vaziyatdagi muammoni «matematika tilida ifodalash (matematik modellash)», «matematikani qo'llash», «topilgan matematik yechimni berilgan muammoga nisbatan talqin qilish va baholash» kabi faoliyat turlarini o'z ichiga oladi. Qisqacha qilib, bu faoliyat turlarini «mulohaza yuritish», «ifodalash», «qo'llash» va «talqin qilish» va «baholash» deb yuritiladi.

Matematik mulohaza yuritish xoh u deduktiv, xoh u induktiv bo'lsin, maktabdagi matematika fanining asosini tashkil etadigan ayrim tayanch tushunchalar bilan bog'liq. Bunday tayanch tushunchalar tarkibiga quyidagilar kiradi:

- miqdor, sanoq sistemalari va ularning algebraik xossalari tushunish;
- abstraksiya va timsollar yordamida ifodalashning muhimligini anglash;
- matematik strukturalar va ulardagi qonuniyatlarni ko'rish;
- miqdorlar orasidagi funksional bog'lanishlarni tanish;

– matematik modellashirishni real olamning turli (masalan, fizik, biologik, ijtimoiy, iqtisodiy va gumanitar fanlardagi) hodisalarni tadqiq qilish vositasi sifatida qo'llash;

– statistika asosida o'zgaruvchanlik yotishini anglash.

Matematik savodxonlikni aniqlashda o'quvchilarning baholanadigan, yuqorida keltirilgan, mulohaza yuritish asosida kechadigan har bir aqliy faoliyat turi quyidagi ko'nikmalarga ega bo'lishni ham talab qiladi:

Vaziyatlarni matematik tilda ifodalash:

– inson faoliyatining turli jabhalari: shaxsiy hayot, kelajakdagi kasbiy faoliyat, o'quv faoliyati, jamiyatdagi ijtimoiy hayot, fan va texnikaga doir turli kontekstlarda berilgan muammoli vaziyatlar mohiyatini o'qib tushunish;

– berilgan vaziyatni tahlil qilish va unda keltirilgan muammoni aniqlash;

– muammo va vaziyatlarda berilgan matematik tuzilmalar (qonuniyatlar va munosabatlar)ni tanib olish;

– muammo va vaziyatlarni soddalashtirish, ularni alohida masalalarga bo'lish;

– vaziyat tavsifida berilgan ma'lumotlardan amalda foydalanish imkoniyatlarini aniqlash, qayta ishlash va muammoni matematik masala ko'rinishida ifodalash;

– muammoli vaziyatning muhim jihatlari aks ettirilgan matematik modelni tuzish.[3]

Matematikani qo'llash:

– amaliy matematik masalani yechish uchun o'rganilgan matematik tushunchalar, faktlar, g'oyalar, qonuniyatlar, algoritmlar va metodlardan foydalanish;

– masalani yechishning muqobil usullarini tahlil qilish, tanlash va asoslash;

– masalani (muammoni) yechish jarayonida yangi matematik bilimlarni hosil qilish va ularni o'zlashtirish;

– matematik taxminlarni ifodalash va tadqiq qilish, matematik asoslash, taqqoslash va baholash;

– masala yechishda mantiqiy, kreativ fikrlash, matematik mulohaza yuritish va ilmiy izlanish usullari: kuzatish, o'lchash, tajriba o'tkazish,

analiz va sintez, induksiya va deduksiya, taqqoslash va analogiyalardan foydalanish;

– matematik tushunchalar orasidagi aloqalarni tanib olish va ulardan foydalanish;

– kundalik turmushda uchraydigan va boshqa fanlarga oid o'quv va hayotiy vaziyatlarda matematikani qo'llash;

– tabiat, jamiyatdagi hodisa va jarayonlarni tushuntirish, modellashirish uchun turli matematik talqin usullaridan foydalanish.

Yechimni talqin qilish:

– amaliy masalaning matematik yechimidan olingan natijalar ustida fikr yuritish, matematik yechimni real muammo mazmuniga ko'chirish va matematik masalada tasvirlangan real muammoga nisbatan uni talqin qilish va topilganyechim muammoning haqiqiy yechimiga mosligini hamda yaqinligini baholash;

– matematik fikrni aniq, yozma va tasvirli ifodalash uchun matematika tilidan, belgi va timsollardan hamda kompyuter va axborot kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanish.[4]

Matematik mulohaza yuritish:

– sodda xulosalar chiqarish;

– mos keladigan asoslashni tanlash;

– muammo mazmunidan kelib chiqib, matematik natija yoki xulosa ma'noga ega yoki ega emasligini tushuntirish;

– muammoni boshqa shaklda ifodalash, jumladan, uni matematik tushunchalarga moslashtirish va tegishli taxminlarni keltirish;

– ta'riflar, qoidalar va formulalarni, algoritmlarni va hisoblashlarni qo'llash;

– real vaziyatga mos bo'lgan va qurilgan matematik modelni asoslash;

– matematik natijani yoki yechimni aniqlash uchun ishlatilgan jarayonlar va algoritmlar, modellarni tushuntirish va asoslash;

– muammoni yechish uchun model chegaralarini aniqlash;

- matematik natijani tushuntirishda va asoslashda matematik dalillar ustida fikr yuritish;
- masalalarni yechish uchun tuzilgan modelning cheklovlarini tanqidiy ko‘rib chiqish;
- natijalarning ma’nosini tushuntirish uchun matematik natijalarni real olam kontekstida talqin qilish;
- muammoning kontekstda berilishi va uni matematikmifodalash uchun zarur bo‘lganm timsolli va formal tillar orasidagi bog‘lanishlarni tushuntirish;
- kontekstda berilgan muammoning matematik yechimini qo‘llaydigan, rad etadigan tushuntirishlarni va dalillarni hosil qilish hamda matematik yechim ustida fikr yuritish;
- sodda algoritmlarning ishlatilishini tushuntirish hamda ulardagi xatoliklarni aniqlash va bartaraf etish

Xulosa qilsak, o‘quvchilarning matematik savodxonlikni baholashga qaratilgan maxsus xalqaro baholash topshirig‘ining tuzilmasi (modeli) matematika fanining mazmun sohasi, ya’ni bo‘limlari, muammo mazmuni yoki konteksti va topshiriqni bajarishda o‘quvchilar namoyish qilishi lozim bo‘lgan aqliy faoliyat turidan iborat hisobalandi.

Adabiyotlar:

1. “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 8 dekabrda 997-sonli qarori
2. O‘quvchilar savodxonligini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlar dasturi. (o‘quv qullanma) T., 2019
3. Kreativ fikrlashni baholash. O‘quv qullanma. T., 2021
4. Xalqaro tadqiqotlarda o‘quvchilarning matematik savodxonligini baholash. (metodik qo‘llanma) T., 2019

FIZIKA FANIDAN MASALALAR YECHISH ORQALI TIMSS XALQARO TADQIQOTINING BAHOLASH VOSITALARIDAN FOYDALANISH

Alinazarova Maxfuza Alisherovna, Abdubananov Akramjon

Namangan VXTXQTMOHM Aniq va tabiiy fanlar metodikasi kafedrasida mudiri, PhD. Uychi tumani 10-maktab fizika fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu ishda fizika fanidan masalalar yechish orqali TIMSS xalqaro tadqiqotining baholash vositalaridan foydalanish yoritilgan. Shuningdek, TIMSS tadqiqotlari doirasida bir nechta masalalar yechilishi keltirilgan.

Kalit so‘zlar: TIMSS, xalqaro baholash dasturlari, tadqiqot, zaryad, elektr maydon, tok manbai.

Аннотация: В данной работе освещено использование оценочных инструментов международного исследования TIMSS путем решения задач по физике. Кроме того, в рамках исследований TIMSS было рассмотрено несколько вопросов.

Ключевые слова: TIMSS, международные программы оценки, исследования, заряд, электрическое поле, источник тока.

Annotation: This paper highlights the use of evaluation tools of international TIMSS research by solving problems in physics. In addition, several issues were considered as part of the TIMSS research.

Keywords: TIMSS, international assessment programs, research, charge, electric field, current source.

Bizga ma’lumki, TIMSS (Trends in International mathematics and science study) 4- va 8- sinf o‘quvchilarining matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan o‘zlashtirish darajasini baholash dasturi bo‘lib, bu tadqiqot to‘rt yilda bir marta o‘tkaziladi.

TIMSS xalqaro baholash dasturida 4- va 8-sinf o‘quvchilarining matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha egallagan bilim darajasi va sifatini solishtirish hamda milliy ta’lim tizimidagi farqlarni aniqlash bilan bir qatorda, qo‘shimcha ravishda maktablarda matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha berilayotgan ta’lim mazmuni, o‘quv jarayoni, ta’lim muassasasining imkoniyatlari, o‘qituvchilar


salohiyati, o'quvchilarning oilalari bilan bog'liq omillari o'rganiladi.

Quyida biz fizika fanidan bir nechta masalalar yechish namunalaridan ko'rsatib o'tamiz.

1-masala. Zaryadlangan jismlar atrofida elektr maydon mavjudligi barchamizga ma'lum. Elektr maydoni kuch chiziqlariga ega bo'lib, ularni boshlanish nuqtasi va oxiri qayerda tugashini ham bilamiz.


Savol: quyidagi ko'rsatilgan rasmdagi zaryadlangan sharlar atrofidagi elektr maydon kuch chiziqlarini qanday joylashishini chizing.

Javob:



2-masala. Elektr soatlari galvanik element, yani batareykalar orqali harakatga keladi. Galvanik elementlardagi kuchlanishlar esa ishlatilish maqsadiga ko'ra turlicha ishlab chiqarilgan va ularning turlari ham turlicha.

Savol: agar uy soati 1, 5 V kuchlanishli batareya orqali harakatga kelsa, bitta batareyka 2 oy soatni harakatlantira olsa, ushbu batareykalarni qanday ulash orqali soatni 6 oy harakatlantirish mumkin?





Ushbu batareyka (tok manbai) dan istalgancha olib, javobingizni asoslang va ulashni chizmada aks ettiring.

Tok manbai shartli belgisi

Javob: parallel ulanganda kuchlanish bir xil bo'ladi. Shuning uchun parallel ulaymiz. Bitta batreyka ikki oyga yetsa, olti oyga yetishi uchun uchtasini parallel


ulaymiz.



3-masala. Zanjirdagi elektr toki, istemolchilardagi tok kuchini ampermetr, zanjirdagi

iste'molchilardagi kuchlanishni ampermetr yordamida aniqlanadi. Ampermetr va voltmترلarning ma'lum o'lchash chegarasi bo'lib, o'lchash chegarasidan yuqori kuchlanish va tok kuchlariga ulanganda ular ishdan chiqadilar yani kuyadi.


Savol: quyidagi zanjir 42 V kuchlanish tarmoqqa va zanjirga $R_1 = 9\text{ Om}$ va $R_2 = 12\text{ Om}$ qarshiliklar ulangan. Quyidagi voltmetr va ampermetrlarning o'lchash chegarali orqali berilgan bo'lib, ulardan moslarini tanlab, istemolchilardagi tok kuchini va istemolchilardagi kuchlanishni o'lchash mumkin. Zanjirga moslarini ulang va chizmada aks ettiring.



Javob: istemolchi va zanjirdagi tok kuchini o'lchash uchun ampermetrni zanjir, istemolchiga ketma-ket ulaymiz. Kuchlanishni o'lchash uchun istemolchiga voltmetrni parallel ulaymiz.

Istemolchilar zanjirga ketma-ket ulanganligi uchun istemolchilardagi zanjirdagi tok kuchi bir xil bo'ladi. Hisoblab topamiz: $I = \frac{U}{R_1 + R_2} = \frac{42\text{ V}}{9\text{ Om} + 12\text{ Om}} = 2\text{ A}$ 2-ampermetrni tanlab ulaymiz. 1-ampermetrni ulasak kuyib qoladi.

Birinchi qarshilikdagi kuchlanish: $U_1 = IR_1 = 2\text{ A} \cdot 9\text{ Om} = 18\text{ V}$ 1-voltmetrni ulaymiz. Ikkinchi qarshilikdagi kuchlanish: $U_2 = IR_2 = 2\text{ A} \cdot 12\text{ Om} = 24\text{ V}$ 2-voltmetrni ulaymiz.



TIMSS tadqiqotiga munosib tayyorgarlik ko'rishda ta'lim jarayonida TIMSS savollaridan foydalanish ustuvor vazifalarimizdan biridir. Maktab o'quv dasturlarini ilg'or xorijiy tajribalar asosida takomillashtirish hamda TIMSS mazmun sohasiga oid mavzularni o'quv dasturiga integrasiya qilinsagina ta'lim samaradorligiga erishishimiz mumkin bo'ladi. Shuningdek, o'quvchilarda topshiriqlarni yechish orqali tadqiqotchilik, mantiqiy, tanqidiy, tahliliy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. P. Habibullayev va boshqalar. Fizika: umumiy o'rta ta'lim maktablari 8-sinfi uchun darslik. — T. : "O'qituvchi", 2019. — 176 b.
2. <http://timss2015.org/>.
3. <http://pirls2016.org/-TIMSS-PIRLS> tadqiqotlarining xalqaro muvofiqlashtiruvchi markazi sayti.
4. <http://centeroko.ru> - Ta'lim sifatini baholash markazi (Sentri otsenki kachestva obrazovaniya ISRO RAO) sayti.

TEXNOLOGIYA FANI O'QITUVCHISIGA QO'YILADIGAN TALABLAR

Boymatov Nuriddinjon Mirzaqulovich, Husanov Azizbek Ravshan o'g'li

Guliston davlat universiteti katta o'qituvchisi

Guliston davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu tezisimizda umumiy o'rta ta'lim maktabi Texnologiya fani o'qituvchilariga qo'yiladigan kasbiy va psixologik talablar, o'quv jarayonida o'qituvchining vazifasi, Texnologiya o'qituvchisining lavozim vazifalari, texnologiya o'qituvchisining shaxsiy fazilatlari va o'qituvchining darslarga bo'lgan talabchanligi.

Pedagog-bu yuqori madaniyat va ma'naviyatli Texnologiya jarayoni bo'yicha bilim, ko'nikma va malakaga ega, amaliy jihatdan buyum tayyorlash va ishlov berish jarayonini bajara oladigan mutaxassis hisoblanadi. U o'z kasbini va fanini, tegishli sohaga oid fan va texnikani hamda ishlab chiqarish texnologiyasini, umumiy va kasbiy pedagogika hamda psixologiya, umumiy ta'lim va tarbiya ishining uslubiy asoslarini zamon talabalari darajasida bilishi kerak.

O'quv jarayonida o'qituvchi rahbarlik vazifasini bajaradi. Bu umumiy qoida Texnologiya o'qituvchisiga ham ta'luqlidir. Texnologiyada vaqtning asosiy qismini o'quvchilarning mustaqil amaliy ishlari egallashi o'qituvchining rolini yanada oshiradi. Chunki hamma narsa o'qituvchi tomonidan oldindan puxta o'ylansa va yaxshi rejalashtirilsagina o'quvchilar mustaqil ishlay olishlari mumkin.

Texnologiya o'qituvchisining lavozim vazifalari quyidagilardan iborat:

- o'quvchilarning kasb-hunarga moyilligini, mahorat va malakasini rivojlantirish;
- tanlangan kasb va ixtisosligi o'quv fanlari bo'yicha chuqur bilimlarni, ilmiy dunyoqarashni shakllantirish;
- ta'lim jarayonida o'qitishning samarali usullari, vositalari va shakllarini, yangi pedagogik texnologiyalarni keng qo'llash;
- o'qitadigan fani bo'yicha darsdan tashqari ishlarni, to'garak mashg'ulotlarni tashkil qilish;
- o'quvchilarni bilim sifati, o'zlashtirish darajasi va davomatini nazorat qilish;
- o'quvchilar bilan yakka tartibda ishlash;
- o'quvchilarni fan olimpiadalariga tayyorlash;
- o'quv xonalarini jahon standartlari va dizayn talablari darajasida jihozlashda qatnashish;
- ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish va qo'llash;
- muntazam ravishda malakasini oshirish.

Texnologiya o'qituvchisi bundan tashqari mutaxassisligi bo'yicha ishlab chiqarish texnologiyalarini, iqtisod asoslari, ishlab chiqarish va boshqarishni tashkil etish asoslarini bilishi kerak.

Texnologiya o'qituvchisining shaxsiy fazilatlari. Texnologiya o'qituvchisi o'z fanining ilmiy asoslarini mukammal bilish bilan birga, mehnat va kasb ko'nikmalari va malakalarini egallagan bo'lishi, ularni o'quvchilarga mohirlik bilan yetkazib bera olish kerak. Shu munosabat bilan o'z sohasida yaxshi malaka orttirgan va ishining ustasi bo'lgan kishigina o'quvchilarga o'z ishini egallashda yordam bera oladigan bo'lishi lozim.

Shuning uchun Texnologiya o'qituvchisi o'zining metodik, pedagogik, texnika va ishlab chiqarish sohalaridagi eng yangi yutuqlardan xabardor bo'lib qolmasdan, balki ilg'or mehnat usullarini ham bilishi zarur. Shu maqsadda Texnologiya o'qituvchisi Texnologiya va tarbiya masalalari, kasbga yo'llash yuzasidan chiqarilgan psixologik, pedagogik va metodik adabiyot yangiliklarini, o'z ixtisosligi bo'yicha hozirgi zamon texnikaviy adabiyotini, ishlab chiqarish ilg'orlari, ixtirochilarning tajribasini o'rganadi, mehnat mashg'ulotlarining metodik jihatdan to'g'ri tuzilishini ta'minlaydi.

Texnologiya o'qituvchisi yuksak mahorati va madaniyati, uning ish joyini to'g'ri tashkil eta olishi, ishga oid usullarini to'g'ri ko'rsata olishi, buyum namunasini tayyorlay olishi, uning nutqi, o'quv-tarbiya jarayonining eng murakkab jarayonlarida o'zini tuta bilishi, o'quvchilarga va o'z

xamkasablariga xushmuomala bo'lishi-bularning hammasi o'quvchilar tomonidan o'zlashtirib olinadi va ularning mehnat tarbiyasiga ma'lum darajada ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Texnologiya o'qituvchisi talabchan bo'lishi kerak. Lekin uning yuqori talabchanligi o'z tarbiyalanuvchilarining insoniy qadr-qimmatini chuqur hurmat qilish bilan ajralmasdir. Xatto, o'qituvchi biror nojo'ya xatti-harakatlari uchun o'quvchiga jazo berganda ham uni xaqorat qilishga, masxara qilib yerga urishga, laqab qo'yishga va hokozolarga yo'l qo'ymasligi lozim. U guruhdagi o'quvchilar orasida ana shunday xolat ro'y berishiga qat'iy chek qo'yish kerak. Shuning uchun o'z ishini yaxshi biladigan Texnologiya o'qituvchisining metodik-pedagogik va kasbiy-mutaxassislik mahorati o'z o'quvchilarining shaxsga nisbatan bo'lgan hurmat ehtirom bilan, ularning har biri to'g'risida mehribonlik va g'amxo'rlik qilish bilan uyg'unlashib ketadi. Bu esa o'z navbatida uning obro'sini oshiradigan zarur shartdir.

O'qituvchining obro'si o'quv mashg'ulotlari jarayonida o'sib va tarkib topib boradi. Mashg'ulotlar vaqtida uning shaxsi, xarakteri va mahoratining shunday sifatleri namoyon bo'ladi, bular tarbiyalanuvchilarning umumiy tarzda e'tirof etishi va hurmat qilishga sazovor bo'ladi. Texnologiya o'qituvchisi o'zining o'quvchilari oldidagi obro'si to'g'risida doimo g'amxo'rlik qilishi lozim. Agar o'qituvchi o'z vazifalariga yuzaki qarasa, uning so'zlari bilan ishlari bir-biriga muvofiq kelmasa, u o'quvchilar bilan bo'lgan munosabatlarida adolatli bo'lmasa, uning obro'si tezda yo'qolishi mumkin.

O'quvchilarning moddiy ishlab chiqarish sohasida hayot va mehnatga tayyorlanishda Texnologiya o'qituvchisi yetakchi rol o'ynaydi. U o'z mashg'ulotlarida o'quvchilarning turli kasblarga bo'lgan qiziqishni aniqlash va rivojlantirilishi lozim. Buning uchun sinf rahbarini, shu sinfda ishlaydigan boshqa fanlarning o'qituvchilarning va ota-onalarni jalb qilishi kerak. Ular bilan muntazam uchrashib turish va suhbatlashib bu guruhdagi o'quvchilarni yaxshiroq bilish, ularning qiziqishlari va individual xususiyatlari bilan tanishish imkoniyatini beradi.

Texnologiya o'qituvchisi o'quvchilarga ish joyi tashkil etishda, topshiriqlarni bajarishda mustaqillikni tarbiyalashi, shaxsning halollik, kamtarlik, qat'iylik, dadillik, faollik, sabot-matонат xislatlarini, o'rtoqlik, do'stlik, mas'uliyatni sezish hislarini tarkib toptirishi kerak.

Darsning, o'quvchilarning o'quv ishlarini tashkil etishni hamma shakllarida ta'lim jarayoni ishtirokchilari orasidagi munosabatlar xarakteri muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Ya'ni bunda talim jarayonining ishtirokchilari bo'lgan o'qituvchi va o'quvchi hamda o'quvchilarning o'zlari orasidagi munosabatlar nazarda tutilmoqda. Ushbu munosabatlarning ijobiy xarakteri o'quvchilarning anglash, bilish faoliyatini rag'batlantiradi, uning natijaviyligini oshiradi.

O'qituvchi darslarda o'quvchilarga bo'lgan talabchanlikni bolalarga hurmat, ziyraklik, pedagogik mavqe, obro'sini saqlagan holda yondoshishni namoyon etish bilan muvofiqlashtirgan holda olib borishi lozim. Darsda o'quvchilarga o'qituvchining murojaati shakli ham farqsiz emas. O'quvchilarni o'z ism-shariflari bilan atashi maqsadga muvofiqroqdir.

Pedagog sifatida o'zligini namoyon etishni talab qilish zarur holatlarda o'qituvchi tomonidan o'z hissiyotini aks ettirish inkor etilmaydi: u darslarda faqatgina ziyrak va mehribon, quvnoq, hushyor, ko'ngilchan bo'libgina qolmasdan, balki jiddiy, hafa va noroziligi bilingan qiyofada bo'lishi ham kerak.

O'qituvchining pedagogik optimizmi, uning o'quvchilarga munosabatidagi ishonch, o'quv faoliyatini tashkil etishning turli-tuman shakllarida darsda ularning hamjihatlikdagi izlanuvchanligini tashkil etish, o'quvchilarning ishlariga hakqoniy baho berish, ularga doimiy zarur yordam ko'rsatishga tayyor turishlik - bularning barchasi juda katta didaktik va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'ladi, o'quvchilarda jamoaviy mehnat malakalarini hamda ijobiy axloqiy fazilatlarini shakllantiradi.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ МЕТОДА ТРИЗ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ МАТЕМАТИКЕ В 3-М КЛАССЕ

Абдуллаева Дилбар Баходир кызы

Сардобинская районная школа № 6 учитель начальных классов,

Эл. адрес: abdullayevadilbar74@gmail.com

Аннотация: Из методов ТРИЗ на уроках математики в 3 классе, «мозговой штурм» на уроках математики. Предлагается методическая разработка урока с применением данного метода.

Ключевые слова: прямоугольник, мозговой штурм, логика, рефлексия.

Annotatsiya: 3-sinf matematika darslarida TRIZ usullaridan, “Aqliy hujum”dan foydalanish masalalari muhokama qilinadi. Ushbu metoddan foydalangan holda darsning uslubiyo rivojlanishini taklif qiladi.

Kalit soʻzlar: toʻrtburchak, aqliy hujum, mantiq, mulohaza.

Matematika oʻqitish metodikasida taʼlim jarayoni bilan bogʻliq boʻlgan asosiy uchta savol mavjud: 1) nimani oʻrgatish kerak? 2) qanday oʻrgatish kerak? 3) nima uchun oʻrgatish kerak?

Ushbu savollarga javob berish ancha mulohaza yuritishni talab qiladi. Matematika fani shaxs tafakkurini rivojlanishida asosiy fanlardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda taʼlimga qoʻyilayotgan asosiy talablardan biri - mustaqil ravishda maʼlumot olish va uni qayta ishlashga qodir shaxsni shakllantirish va rivojlantirishdir. Bu talab esa taʼlim jarayoniga zamonaviy usullar bilan yondashish kerak ekanligini koʻrsatadi. TRIZ (IMEN - ixtirochilik masalalarini yechish nazariyasi) elementlarini taʼlimga joriy etish fikrlash samaradorligiga, ijodkorlik va tizimli fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi. Oʻquvchilar tomonidan TRIZ asosida fikrlashni- faollashtirish usullarini matematika darslarida oʻrganish amaliy tajribani oʻzlashtirish hisobiga samaraliroq boʻladi. G. S. Altshuller va uning hamkasblari tomonidan 1946-yilda asos solingan va birinchi marta 1956-yilda nashr etilgan TRIZ, bu ixtirochilik masalalarini yechish nazariyasi ijodkorlik texnologiyasidir. TRIZning paydo boʻlishi ixtirochilik jarayonini tezlashtirish zarurati bilan bogʻliq boʻlib, undan tasodifiy elementlarni istisno qildi: toʻsatdan va oldindan aytib boʻlmaydigan tushuncha, koʻr-koʻrona sanab oʻtish va variantlarni rad etish, kayfiyatga bogʻliqlik va boshqalar, inertsia va ijodiy tasavvurni kuchaytirish shular jumlasidandir.

TRIZ ijodiy faoliyatni tashkil etish uchun materialistik dialektika qonunlaridan foydalanadi. TRIZ mexanizmlari rivojlanish qonunlarini xususiy ijodiy ixtirochilikka qoʻllashni vositalashtirish imkonini beradi.

Inson ushbu maslahatlardan intellektual faoliyatning koʻplab turlarida, xususan, qaror qabul qilish jarayonida foydalanish zarurati bilan duch keladi. Shuning uchun, 3-sinf matematika darslarida ushbu masalalarni qoʻllashda uning egallagan koʻnikmalari fundamental xarakterdagi mavjud farqlarga qaramay, juda muhim hayotiy faoliyatlarda foydali boʻlishi mumkin. Boshlangʻich sinf fanlar tarkibiga TRIZning alohida elementlarini kiritish ijobiy natija beradi.

Mavjud taʼlim tizimi asosan ijodiy faoliyatga tayyorgarligi shakllanmagan ijrochilarni yetishtirishga qaratilgan. Hozirgi kunda ijodikor va fikrlovchi shaxs fazilatlarini shakllantirish zarurati taʼlim tizimining asosiy vazifasi sifatida koʻrilmoqda, ammo pedagogikada bu vazifani amalga oshirish usullari yetarli emas. Shu boisdan ham ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish uchun, muammolarni hal qilish uchun texnik ijodkorlikda ishlab chiqilgan TRIZ asosidagi algoritmik usullarni qoʻllash maqsadga muvofiq boʻladi. Ushbu metodologiyani taʼlim tizimiga moslashtirish talab etiladi. Aql – idrok muammolari ishlab chiqilgan eng yangi nazariyalarning aksariyatida tafakkur amaliy harakatlar bilan bogʻliq boʻlgan intellektual operatsiyalar tizimi sifatida qoraladi. Tafakkur jarayonida subʼektiv omil hal qiluvchi rol oʻynaydi, chunki tafakkurning tashuvchisi haqiqiy shaxs boʻlib, uning faoliyati hissiy, irodaviy va intellektual tamoyillarning birligi bilan ajralib turadi. Fikrning oʻzi boshqa fikrdan emas, balki harakat va ehtiyojlarni, qiziqish va motivlarni, his-tuygʻularni qamrab oluvchi ongning harakatlantiruvchi doirasidan tugʻiladi.

Fikrlash bilan bogʻliq turli xil muammolar bilan mualliflar ataylab koʻrib chiqilayotgan masalalar doirasini faqat fikrlash madaniyatini shakllantirishning amaliy usullari bilan bogʻliq boʻlganlar bilan cheklaydilar. TRIZ elementlaridan foydalangan holda “Toʻrtburchaklar” mavzusidagi matematika darsining misolini koʻrib chiqaylik.

Darsning maqsadi: toʻrtburchak misolida oʻquvchilarni geometrik jism bilan tanishtirish; toʻrtburchaklar parallelepipedning sirt maydonini topishga oid masalalarni yechishni oʻrganaish. Misollarni yechish va jadvalni toʻldirish orqali siz dars mavzusini bilib olishingiz mumkin.

$$35 \times 11 = R$$

800 – 200=A
 24000 : 100=O‘
 121:11=Ch
 7690- 7590=U
 9999:11=B 64 : 4=T
 10000-1=K

16	240	385	16	909	100	385	11	600	9999

- Qanday so‘zni oldingiz? Bu bizning darsimizning mavzusi bo‘ladi.

Maktabda TRIZ texnologiyasidan foydalanish o‘quvchilarning tafakkurini rivojlantirish, fikrlashni tizimli qilish, muammolardagi qarama-qarshiliklarni topish va hal qilishga o‘rgatish imkonini beradi. Shu asosda aniq, hayotiy bilimlarni chuqurroq o‘zlashtirishga erishiladi. Eng muhimi, tayyor bilimlarni egallashga emas, balki uni mustaqil avlodga yetkazishga qaratilgan fikrlash uslubi shakllanadi, o‘z faoliyat sohasidagi muammoli vazifalarni ko‘rish, muammolarni qo‘yish va hal qilish qobiliyati, qonuniyatlarni olib tashlash qobiliyati, hayotni ochiq vazifalarning dinamik maydoni sifatida qabul qilish, g‘oyaviy munosabatini tarbiyalash - bugungi kun ta‘lim jarayonida kelajak hayotga tayyorgarlik ko‘rish uchun talab qilinadigan shartlardir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Pogrebnaya T. V., Kozlov A. B., Sidorkina O. V. “Современная ТРИЗ-педагогика в... для самоопределения.” – Krasnoyarsk: ККИПКРО, 2005. – 42 s. 2. Altshuller G. “Творчество как точная.” –Petrozavodsk: Skandinaviya, 2004.

BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINI MATEMATIKA O‘QITISH JARAYONIDA MANTIQUIY FIKRLASH QOBILIYATLARINI O‘STIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Rahmonova Sayyora Artikovna

Sirdaryo viloyati Guliston shahar 2-IDUM boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini mantiqiy fikrlash qobiliyatini o‘stirish usullari haqida tushuncha beradi.

Kalit so‘zlar: sahnalastirilgan masalalar, ko‘rgazmali masalalar, mantiqiy fikrlash.

Matematik masalalar yechish matematika o‘qitishning muhim tarkibiy qismidir. Masalalar echmasdan matematikani o‘zlashtirishni tasavvur ham etib bo‘lmaydi. Matematikada masalalar yechishning nazariyasini amaliyotga tadbqiq qilishning muhim yo‘lidir. Masalalar yechishning boshlang‘ich sinflarda o‘rganiladigan u yoki bu nazariy materiallarni o‘zlashtirish jarayonida muhim rolni va o‘quvchilarni fikrlash qobilyatlarini o‘stiradi muhim ro‘l o‘ynaydi. Masalalar amaliy ishlar sistemasi asosida tuziladi. Bu degan so‘z har bir yangi tushunchani tarkib toptirish har doim bu tushuncha ahamiyatini tushuntirishga yordam beradigan uning qo‘llanishini talab qiladigan u yoki bu masalani yechish bilan amalga oshadi.

Arifmetik amallarning mazmunini amallar orasidagi bog‘lanishlarni amal komponentlari bilan natijalar orasidagi ochib berishda, har xil miqdorlar orasidagi bog‘lanishlar bilan tanishishda mos sodda masalalardan foydalaniladi. Sodda masalalar o‘quvchilarda murakkab masalalarni yechish uchun zarur, bo‘ladigan bilimlar malakalar va ko‘nikmalarni tarkib toptirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Masalalar bolalarning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishning foydali vositasi bo‘lib odatda o‘z ichiga ayrim bilimlarni oladi. Bu bilimlarni qidirish masala echuvchidan analiz va sintezga mustaqil murojaat qilish faktlarni taqqoslash, umumlashtirish va hokazolarni talab qiladi. Bilishning bu usullarini o‘rgatish matematika o‘qitishning muhim maqsadlaridan biri hisoblanadi. Masalalarni yechishda predmetga bo‘lgan qiziqish rivojlanadi, umuman mustaqillik erkinlik, talabchanlik, mehnatsevarlik, maqsadga intilishlik rivojlanadi.

O‘quvchilarga tarbiya berishda ham hayotiy masalalar fikr doiralarni kengaytirishga yordam beradi. Masalalar ustida ishla ekan sistemali ravishda va rejali asosda o‘quvchilarning xususiy malakalarini takomillashtirishga olib keladi.

Masala ustida ishlash uning mazmunini o'zlashtirishdan boshlanadi. O'quvchilar hali o'qish malakasiga ega bo'lmagan dastlabki vaqtlarda ularni o'qituvchi o'qib beradigan masala matnini tinglashga shartning muhim elementlarini tovush chiqarib ajratishga o'rganish kerak shundan keyin masala shartini yaxshiroq o'zlashtirish maqsadida, har bir o'quvchi masala matnini tinglashga va masalani mustaqil o'qib chiqishi zarur. Buning uchun ularga masalani oldin ovoz chiqarmay o'qishni so'ngra esa tovush chiqarib ifodali o'qishni taklif qilish kerak.

Masala ustida ishlash uning mazmunini o'zlashtirishdan boshlanadi. Masala mazmunini yaxshi tushunish uchun o'quvchilarni har biriga uning matnini eshittiribgina qolmay, balki uni mustaqil o'qib chiqishlari ham kerak. Agar masala sharti bosh qotiradigan bo'lsa o'quvchilarga masala mazmunini mustaqil o'yiab ko'rishlari uchun bir-uch minut vaqt berish maqsadiga muvofiqdir. Masala matni ustida ishlaganda o'quvchilarning diqqat e'tiborini awalo masala matnidagi har bir so'z va har bir son mazmuniga qaratish lozim, masalada tasvirlanayotgan manzarani joyni tasavvur qilishiga yordam berish kerak, masala matn ustida og'zaki ishlagandan keyin masala mazmuni matematik atamalar tiliga o'tkazish va uning matematik tuzilishini qisqa yozuv (sxema, chizma, jadval) shakllarida ifodalash kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Axmedov M., Abduraxmonova N., Jumaev M. E. Birinchi sinf matematika darsligi metodik qo'llanma) Toshkent. —SHarq. 2005 yil.,

YUQORI SINIF O'QUVCHILARINI KASB–HUNARGA TAYYORLASHDA PEDAGOGIQLARNING O'RNI

Suyunov Ilhom Egamberdiyevich, Suyunova Shahlo Ulug'bek qizi

GulDU doktoranti, GulDU magistranti,

e-mail: suyunovilhom1444@gmail.com

Annotatsiya: *Yuqori sinf o'quvchilarini kasb–hunarga o'rgatishda o'quvchilarni kasbga doir ko'nikmalarini oshirish, ushbu ishlarni tashkil qilishning ilmiy uslubiy ahamiyatlari, pedagoglar uchun muhim jihatlar yoritilib berilgan.*

Kalit so'z: *kasb, fundamental, professionalizm, ana'naviy, zamonaviy.*

Yuqori sinf o'quvchilarini pedagog kasb–hunarga yo'naltirishdan asosiy maqsadi o'sib kelayotgan yosh avlodni ongli va mustaqil ravishda kasb tanlashiga tayyorlashdan iborat. Bu jarayonda shaxsning bo'lg'usi kasbiy faoliyat subyekti sifatida shakllanishini nazarda tutadi hamda uning bozor iqtisodiyoti munosabatlariga moslashib borishiga ko'maklashadi. Kasb–hunarga yo'naltirishdan maqsad o'sib kelayotgan yosh avlodning ongli ravishda kasbni tanlashga tayyorlashdir. Yuqori sinf o'quvchilarini kasb–hunarga yo'naltirish orqali, bo'lajak kasbiy qarorlarini shakllantirishda, kasbni erkin va mustaqil tanlashlari uchun mustahkam zamin yaratuvchi tashxis xizmatiga ilmiy-amaliy tizim sifatida qarash lozim. Bu tizim orqali har bir o'quvchi shaxsni kasbga yo'naltirishda ham individual xususiyatlarini ham xalq xo'jaligi manfaatlari nuqtai nazardan mehnat resurslarini to'laqonli ta'minlash zaruratini hisobga olish kerak.

Bugungi kunda umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarni kasbga yo'naltirishning ilmiy-amaliy tizimi yetarlicha ishlab chiqilmagan, ilmiy-pedagogik asoslari talab darajasida yaratilmagan. Bundan tashqari hozirgi kun talablari asosidagi tezkor yangiliklar, zamonaviy texnologik o'quv qo'llanmalar, dars ishlanmalari, ko'rgazmali vositalarning kamligi, kasb tanlash me'zon va me'yorlarining belgilanmaganligi, o'quvchilarning ijtimoiy muhitga tayyor emasligi kasb tanlash bo'yicha tezkor aloqaning o'rnatilmaganligi kabi muammolar dolzarb masalalardan biridir. Umumta'lim maktabida yuqori sinf o'quvchilarni kasbga yo'naltirish tizimini shakllantirish va rivojlantirish o'rta umumta'lim maktablarida kasb–hunarga yo'naltirish tizimida professionalizumni shakllantirishda qo'llaniladigan asosiy vositalar va ta'lim oluvchilarni kasbga yo'naltirishga ta'sir qiladigan omillar ish jarayonida ko'rsatilib ularga tahlil berish, o'rta umumta'lim maktablarida kasb–hunarga yo'naltirish tizimini takomillashtirish va uni ta'lim tizimini rivojlanishidagi o'rni o'rganib chiqish va xulosalar berish. Barchamizga ma'lumki umumta'lim maktablarida kasb–hunarga yo'naltirishning turli nazariy izoxlari orasida hozirgi vaqtda ikkita eng muhim tushunchalarini

ko'rsatish mumkin, bular:

- ✚ an'anaviy (diagnostik) – kasb–hunarga yo'naltirish nazariyasining asosiy vazifasi shaxsda kasbiy moyillikni undagi psixologik xususiyatlar va shaxsiy ehtiyojlarini solishtirish yo'li bilan aniqlash;
- ✚ zamonaviy (rivojlantiruvchi) – kasb–hunarga yo'naltirish konsepsiyasi shaxs o'z kelajagini aniqlashda aktiv ishtirokini nazarda tutadi.

Demak, maktabdagi har bir xodim kasb–hunarga yo'naltirish bo'yicha qanday ishlarni amalga oshirishini bilishi lozim. Chunki, kasb–hunarga yo'naltirish ishlarini amalga oshirishda nafaqat maktab kasb–hunarga yo'naltiruvchisi yoki amaliyotchi psixologi, balki butun maktab jamoasi mas'uldir. Umumta'lim maktablarida o'quvchilarni kasb–hunar yo'naltirishda maskan tushunchasi alohida ahamiyatga ega. Bunday maskanlar albatta – oila, maktab, mahalla hisoblanadi.

Maktab, oila mahalla va ishlab chiqarishning hamdo'stligi yosh avlodni yangi ruhda tarbiyalashning asosiy prinsipi hisoblanadi. O'quvchilarda professional qiziqishlarini rivojlantirish va tarkib toptirish, sanoat, qurilish, qishloq xo'jaligi xizmat ko'rsatish sohasi ishchi kasblariga ijtimoiy e'tiborning ortishi, xayot yo'lining ongli ravishda tanlash ishining muvaffaqiyati maktab, oila, mahalla va ishlab chiqarishning birgalikda olib borilgan samarali ishlariga bog'liq. Shaxsni tarbiyalash asoslari oiladan boshlanadi, ya'ni o'quvchilar ba'zi kasblar bilan, xususan o'z ota-onalari, akalari, opalari, qarindosh urug'larining kasblari bilan oilada tanisha boshlaydilar bu esa o'quvchilar professional qiziqishlarining rivojlanishiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi. O'quvchilarning hamma ota-onalarini taxminan to'rtta katigoriyaga bo'lish mumkin:

I. Ota-onalar bolalarining o'yinlari va mehnatini kuzatadilar, uyda bolalari qiziqqan har qanday ish bilan mashg'ul bo'lishlari uchun sharoit yaratib beradilar, bolalari bilan korxona, kallektivning mehnati haqida, o'z ishlab chiqarish muvoffaqiyatlari to'g'risida suhbatlashadilar, ularning qiziqishlari va qobiliyatlari va xalq xo'jaligi ehtiyojlarini hisobga olgan holda aniq maslahatlar beradilar.

II. Ota-onalar bolalari bilan kasb tanlash haqida suhbatlashadilar, lekin aktiv ta'sir ko'rsatmaydilar, o'z bolalarining individual xususiyatlarini har doim ham hisobga olavermaydilar.

III. Ota-onalar bolalarining rejalariga hadeb aralashaveradilar, ularning qiziqishlari, istak va imkoniyatlarini hisobga olmaydilar, kasbning moddiy va obro'li tamonlaridan kelib chiqib o'zlari tanlagan ixtisolngini egallashga majbur qiladilar.

IV. Ota-onalar o'z balolarining kelajagiga passiv va sovuqqonlik bilan qaraydilar, ularga kasbtanlashga yordam bermaydilar, bu muammodan o'zlarining behabarligi va noto'g'ri maslahat berib qo'yishlaridan cho'chib, "o'zing ko'r", "qaysi biri yaxshi bo'lsa shuni tanla" va hokozalar qabilida ish tutib, o'zlarni chetga tortadilar.

Ko'pchilik ota-onalar kasb tanlashga yo'llash masalalari bo'yicha maslahatlariga muhtojdirlar. Ular bunday yordamni suhbat, konsul'tatsiya va boshqa tadbirlar formasida maktab pedagogika jamoasi, vrach, psixolog, korxona mutaxassislaridan olish mumkin. Maktab o'zining rejalashtirgan tadbirlariga muvofiq ravishda ota-onalar kanferensiyasini uyushtirish va o'tkazish kerak. Bu konfrensiyalarda korxona kadrlar bo'limlari, mehnat resurslaridan foydalanish bo'yicha bo'limlarning, viloyat xodimlari, turli xil kasblarning, vakillari va o'quv yurtlarining rahbarlari hamda ota onalar so'zga chiqishlari mumkin bo'ladi. Ular o'z kasblarining mazmuni haqida muvofaqiyatli mehnat qilishi uchun qo'llaniladigan zarur bilim va malakalar hamda boshqa narsalar to'g'risida bu kasbni qayerda va qanday egallash va shu hususida qanday mahoratli bo'lish haqida, yoshlar duch keladigan qiyinchiliklar haqida va o'quvchilar bilan oilaviy suhbatlar uchun tavsiyalar haqida gapirib berishlari kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», «Oliy ta'lim Me'yoriy hujjatlari» T. : "Sharq", 2001.
2. Boltaboyev S. A., Magdiyev O. SH., Sattorov V. N., Avazboyev O. I. «Mehnat va kasb ta'limi metodikasidan o'quv mashg'ulotlari». Uslubiy qo'llanma. 2002.
3. Azizxo'jayeva N. N. «Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat». T. : Nizomiy, 2003.

TABIY FANLARNI O'QITISHDA TIMSS TOPSHIRIQLARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Ro'zmatova Zebo

Sirdaryo viloyati Guliston shahar 11-maktab kimyo fani o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada tabiiy fanlar yo'nalishidagi darslarda TIMSS topshiriqlaridan foydalanish usullari haqida fikr yuritilgan va misollar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *TIMSS, bilish, qo'llash, mulohaza yuritish, o'quv faoliyati.*

ВАЖНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЗАДАНИЙ TIMSS В ПРЕПОДАВАНИИ ЕСТЕСТВЕННЫХ НАУК

Аннотация: *В этой статье обсуждается и приводятся примеры того, как использовать задания TIMSS на уроках естествознания.*

Ключевые слова: *TIMSS, знания, опора, рефлексия, учебная деятельность.*

Xalqaro baholash dasturlari bo'yicha xalqaro tadqiqotlarda O'zbekiston Respublikasining ishtirok etishiga tayyorgarlik ko'rish bo'yicha "Yo'l xaritasi" ishlab chiqildi, unga ko'ra, o'quvchilarning yozma va nutq savodxonliklarini oshirish bo'yicha ilg'or milliy va xalqaro tajribalarni joriy etish; o'quvchilar mustaqil ta'lim olishlari uchun elektron shakldagi ta'limni rivojlantirish, unda o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan xalqaro tadqiqotlar bo'yicha savollar bazasini yaratish hamda boyitib borish; o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan xalqaro tadqiqotlarga tayyorgarlik ko'rish uchun mustaqil ta'limni joriy etish; xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish yuzasidan malakali o'qituvchi-trenerlar bilan hamkorlikda hududlarda o'quvlar tashkil etish kabilar belgilangan.

TIMSS maktabda matematika va tabiiy fanlarni o'qitish sifatining xalqaro monitoringi bo'lib, Ta'lim yutuqlarini baholash xalqaro assosiasiyasi (IEA) tomonidan tashkil etiladi. Ushbu dastur asosidagi tadqiqot turli davlatlardagi 4- va 8-sinf o'quvchilarining matematika va tabiiy fanlardan tayyorgarlik darajasini baholashga qaratilgan.

50 dan ortiq mamlakatlar o'quvchilarining bilim, ko'nikma, malakalari darajasini aniqlashning global resursi jahonning eng ilg'or tajribasi asosida ishlab chiqilgan. TIMSS yordamida o'quvchilarning ta'limiy yutuqdari: bilish, qo'llash, mulohaza yuritish baholanadi.

"Bilish" bo'limi o'z ichiga matematikadan masalalar yechishni olgan bo'lib, masalalar yechish o'quvchilardan sonlarning xususiyatlari va oddiy geometrik jismlar haqidagi nazariy bilimlar, ta'riflarni takroran aytib berish, standart grafik va diagrammalardan ma'lumot olishni o'z ichiga qamrab oladi. O'quvchilar tabiiy fanlardan alohida organizmlar va obyektlarning xususiyatlari, hodisa va jarayonlar, tabiiy-ilmiy atamalar va o'lchov birliklari haqidagi bilim darajasini namoyish etishlari kerak.

"Qo'llash" ga oid test topshiriqlarini bajarishda o'quvchilar hayotiy vaziyatlarni o'zida aks ettiradigan matematik va tabiiy-ilmiy masalalarni yechish, jadval, sxema, diagramma, grafiklarni talqin qilish, tajribalarni o'tkazish ko'nikmalarini namoyish etishlari zarur.

"Mulohaza yuritish"ga oid topshiriqlar o'quvchilarning mantiqiy va tizimli fikrlash malakalarini aniqlaydi. Mulohaza yuritishni talab etadigan masalalar taklif etilayotgan vaziyatning yangiligi, savolning murakkabligi, yechish bosqichlari sonining ko'pligi, turli bo'limlardan bilimlarni integratsiyalashning zarurligi bilan bir-biridan farqlanishi mumkin.

O'quv faoliyati turlari bo'yicha o'quvchilarning o'quv yutuqlarini baholashga qo'shimcha ravishda maktablarda matematika va tabiiy fanlar bo'yicha berilayotgan ta'lim mazmuni, o'quv jarayoni, o'quv muassasasi imkoniyati, o'qituvchilar salohiyati, o'quvchilarning oilalari bilan bog'liq omillar ham o'rganiladi. Ushbu ma'lumotlar belgilangan fanlarni o'zlashtirish holatini ko'rsatishda asos bo'ladi. Tadqiqot to'rt yilda bir marta dunyoning ko'plab ilmiy-tadqiqot markazlari va tashkilotlari, xususan, AQShning Ta'lim sohasidagi test xizmatlari ((ETS-Educational Testing Services), Kanadaning statistik markazi (Statistic Canada), Ta'lim yutuqlarini baholash xalqaro assosiasiyasi (IEA)ning Sekretariati ishtirokida o'tkaziladi. Shuningdek, turli davlat mutaxassislaridan iborat maslahat qo'mitalari tashkil etiladi.

O'qituvchilar o'quvchilarning o'quv faoliyati turlari (bilish, qo'llash, mulohaza yuritish)

bo'yicha o'quv yutuqlarini baholashda o'tgan yillar davomida tadqiqotda ishlatilgan, biroq konfidensiallik rejimidan chiqqan topshiriqlarni didaktik material sifatida ta'lim jarayonida qo'llashlari mumkin. Bu esa TIMSS xalqaro tadqiqotining o'quvchilarning o'quv yutuqlarini baholashning o'ziga xos yondashuvlarini tushinishni ta'minlaydi. Muhimi, matematika va tabiiy fanlardan savodxonlikni baholash vositalari ta'lim texnologiyalari va o'qitish metodikasini takomillashtirishga imkon beradi.

Xalqaro baholash dasturlari bo'yicha xalqaro tadqiqotlarda O'zbekiston Respublikasining ishtirok etishiga tayyorgarlik ko'rish bo'yicha "Yo'l xaritasi"ning 13-bandida xalqaro tadqiqotlarda o'tgan yillarda foydalanilgan savollar mazmunini o'rganib chiqib, tahlil qilish belgilangan. Shuni inobatga olib, TIMSS savollaridan 7-8 sinf Kimyo darslarida foydalanish mumkin. Masalan: 1-topshiriq:

S8_0153 Olimlar rasmda keltirilgan toshlar ilgari bitta butun tosh bo'lgan deb hisoblashadi.



Suvning qaysi xususiyati ta'sirida tosh ikki qismga bo'lingan.

A. Suv muzlash natijasida kengayadi

V. Suv 100° S da qaynaydi

S. Suv zichligi toshnikidan kichik

D. Suvda ko'pgina moddalar eriydi.

2-topshiriq:

S8_0152 Jadvalda 5 ta turli moddalarning fizikaviy xossalari keltirilgan (A, B, C, D, E).

Ulardan ikkitasi metall.

	Modda A	Modda B	Modda C	Modda D	Modda E
20° Sdagi fizikaviy xossasi	qattiq	qattiq	suyuq	suyuq	gazsimon
Tashqi ko'rinishi	Kulrang yaltiroq	oq	kumushrang	rangsiz	rangsiz
Elektr tokini o'tkazishi	ha	yo'q	ha	ha	yo'q

Qaysi ikkita modda metall ekanligini ko'rsating.

Xulosa qilib aytganda xorijiy davlatlar ta'limida kimyo fanini o'qitishning ilg'or tajribalari sifatida shuni qayd etish mumkinki, fanni o'qitishda o'quvchilarga "tayyor" bilimlarni "berish"dan ko'ra, o'quvchilarning bilimlarni "egallashlari", o'qitishning reproduktiv metodlaridan ko'ra, amaliy, muammoli, tadqiqotchilik metodlari ustunlik qiladi. Fanni o'qitishga bunday yondashuv esa zamon talabi bo'lgan intellektual salohiyati yuqori shaxsni tarbiyalash imkonini yanada oshiradi

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrda qabul qilingan 997-sonli "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 10.12.2018 y.,

09/18/997/2289-son.

2. Ismatov I.Sh., Azamatova D. "Kimyo fanini o'qitish metodikasi" moduli bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi xalq ta'lim xodimlarini kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish xududiy markazi, Toshkent, 2017y

3. <http://uzedu.uz/>

4. <http://eduportal.uz/>

ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI VA KASBIY KOMPETENTLIK

Avazov Tohir Shakarovich

Jizzax VXTXQTMOHM katta o'qituvchisi

avazovtohirshakarovich2507@gmail.com

Annotatsiya: Bo'lajak informatika fani o'qituvchilari kompetentligining muhim tarkibiy qismi hisoblanadigan tizimli kompetentlik ijtimoiy, shaxsiy va kasbiy jihatlardan haminsonning mustaqil ravishda bilimlarni o'zlashtirish faoliyatiga, refleksiyaga, ijodkorlikka, jismoniy va psixologik jihatdan o'z-o'zini boshqara olishga, o'z-o'zini rivojlantirishga va takomillashtirib borishga qodirligini va tayyorligini ta'minlash.

Kalit so'zlar: kompetensiya, tayanch kompetensiya, kompetentlik kategoriyasi, kommunikativ kompetentlik, axborot kompetentligi, axborot-verbal, reproduktiv, ijtimoiy-individual.

Аннотация: Системная компетентность, которая является важным компонентом компетентности будущих учителей информатики, зависит от способности человека самостоятельно приобретать знания, рефлексию, творчество, физическое и психологическое самоуправление как в социальном, личном, так и в профессиональном плане. Обеспечение того, чтобы они способны и готовы к самосовершенствованию и самосовершенствованию.

Ключевые слова: компетенция, компетенция, базовая компетенция, категория компетенции, коммуникативная компетенция, информационная компетенция, информационно-вербальная, репродуктивная, социально-индивидуальная.

Annotation: Systemic competence, which is an important component of the competence of future teachers of computer science, depends on the ability of a person to independently acquire knowledge, reflection, creativity, physical and psychological self-management, both socially, personally and professionally. Ensuring that they are capable and ready for self-improvement and self-improvement.

Key word: competence, competence, basic competence, category of competence, communicative competence, information competence, information-verbal, reproductive, socio-individual.

Respublikamiz ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarda oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishga doir O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida «sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish» bo'yicha ustuvor vazifalar belgilangan. Mazkur vazifalar, oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish, jumladan, ushbu jarayonga ta'sir etuvchimekanizmlar samaradorligini oshirishni taqozo qiladi.

Oliy ta'lim muassasalarida informatika yo'nalishlarida kadrlar tayyorlash amaliyoti shuni ko'rsatdiki, ta'limning mohiyati talabalarning ehtiyojlari va qobiliyatlarini rivojlantirish emas, balki o'quv fanlari bo'yicha asosan bilimlarni axborot-verbal tarzda yetkazish, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat bo'lib qolmoqda. Bunday reproduktiv, yuzaki o'zlashtirilgan ma'lumotlar talabaga amaliy harakatlarni bajarishga yetarli imkon bermaydi. Oqibatda talabalarda haddan ziyod axborotning behudajamg'arilayotganligi, ta'limning befoydaligi va uning haqiqatdan uzoqligi kabi fikrlar paydo bo'ladi. Talaba real hayotdan uzoqlashib qolgandek, uning oldiga faqat ilgari to'planib kelgan axborotlarnigina o'zlashtirish maqsadi qo'yilgandek tuyuladi. Bunday maqsad

talabaniing faolligini cheklab qo'yadi, oqibatda uning ham shaxsiy, ham ijtimoiy jihatdan anglangan ma'nosi yo'qoladi.

Bunday muammoli vaziyatdan chiqishning yagona yo'li oliy ta'lim tizimiga yangicha, ya'ni, kompetentli yondashuvni joriy etishdir. Ta'lim amaliyotida kompetentlik yondashuvini amalga oshirish ushbu jarayonning barcha jihatlarini chuqur va har tomonlama ilmiy o'rganishni talab etadi. Shu bilan birga, ta'kidlash kerakki, kompetentlikni pedagogik fenomen sifatida talqin qilish qiyin, chunki, kompetentlik kategoriyasi pedagogikaga yangi kirib kelgan bo'lib, u fanda yetarli darajada chuqur anglab yetilgan va o'zining mustahkam o'rniga ega. Shu bilan birga, ta'limda kompetentlikka yo'naltirilgan yondashuvlarning dolzarbligi tufayli "kompetentlik", "kompetensiya", "tayanch kompetensiyalar" atamallari ta'limning yangi sifatlariga doir masalalarni muhokama etishda tobora ko'proq ishlatilmoqda va borgan sari keng tarqalib bormoqda. Pedagogik hamjamiyatda kompetentlik va kompetensiyalar, ulardan qaysibirlari tayanch (universal) hisoblanishi, ularni shakllantirish va baholash usullarining qanday ekanligini tushunib yetish jarayoni jadal bormoqda, ushbu tushunchalarni aniqlashtirish bo'yicha qizg'in munozaralar davom etmoqda. Shu sababli bugungi kunda ushbu tushunchalarning juda ko'plab ta'riflari va talqinlari mavjud.

Kompetentlik – bu faqatgina o'zlashtirilgan bilimlar va tajribalarning mavjudligi hamda salmoqli hajmi bo'libgina qolmay, balki, ularni kerak vaqtda ishga sola bilish va o'zining funksional xizmat vazifalarini bajarish jarayonida ulardan foydalana olish demakdir. Bu ma'noda kompetentlik insonning, shaxsning, kasb egasining tavsifi hisoblanadi, ayni choqda, u shaxs individual shaxsiy imkoniyatlarining yig'indisi, uning o'z kasbiy bilimlari va tajribalarini amaliy faoliyatida samarali ravishda qo'llay olish qobiliyati hisoblanadi.

Kompetentlikka yo'naltirilgan yondashuv asosidagi ta'limda zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish ta'lim beruvchining vazifalarini o'zgartirishni taqozo etadi – nafaqat bilim berish, balki ta'lim oluvchilarga ularni mustaqil izlash, tahlil qilish, taqqoslash va o'zgartirish, hayotiy muhim vazifalarni hal etishda qo'llash, barcha hayotiyyo'li davomida bilimlarini tezkor yangilash va to'ldirishni o'rgatish kerak bo'ladi. Kompetentlik yondashuvi asosida kasbiy ta'limni tashkillashtirishni amalga oshirishning asosiy sharti – ta'limiy texnologiyani oldindan belgilash va faoliyat natijalarini shakllantirishdan to pedagogik va ta'lim olish jarayon yo'lining tashxis va nazorat tizimini tuzishgacha bo'lgan loyihalashtirish hisoblanadi.

Kompetentlikka yo'naltirilgan yondashuv asosidagi ta'lim insonning o'z shaxsiy manfaatlari uchun ham, jamiyat, davlat manfaatlari uchun ham olib boradigan faoliyatining asosiy sohalarida muvaffaqiyatini ta'minlovchi bilimlar va amaliy faoliyat usullarini kompleks ravishda o'zlashtirishiga qaratilgan. Ko'pgina ilmiy-pedagogik tadqiqotlarda "pedagogik kompetentlik" tushunchasidan foydalaniladi, bunda ushbu tushuncha ikki xil ma'noda ishlatiladi. Birinchi holda, kasbiy kompetentlikning bir ko'rinishi bo'lib, muayyan kasbiy soha vakillariga tegishli ta'lim sohasi (o'qituvchilar, pedagoglar, ta'lim muassasalari hamda ta'limni boshqarish organlari rahbarlari va boshqalar). Bu holda mazkur atamaning sinonimlari sifatida "pedagogning kasbiy kompetentligi", "kasbiy-pedagogik kompetentlik", "kasbga oid pedagogik kompetentlik" kabi tushunchalarni ko'rsatish mumkin.

Ikkinchi holda, pedagogik kompetentlik – faoliyati pedagogikaga tegishli bo'lmagan, lekin ma'lum bir darajada pedagogik yo'naltirilganligi mavjud bo'lgan mutaxassislar kasbiy kompetentligining tarkibiy qismi sifatida tushuniladi. Ularga "inson-inson" kasblar tipi tizimida, ya'ni odamlar, ayniqsa bolalar va yoshlar bilan ishlaydigan ko'pgina mutaxassislarni kiritish mumkin (ijtimoiy soha xodimlari, psixologlar va boshqalar).

Kasbiy faoliyati samarador bo'lishi uchun egallanishi muhim bo'lgan kompetensiyalar sohasining turli tumanligini anglash aynan ushbu kompetensiyalar doirasini aniqlash, shuningdek, ular orasidan o'z xarakteriga ko'ra eng universal bo'lgan tayanch hamda umumkasbiy va maxsus kompetensiyalarni ajratib ko'rsatish mumkin. Har bir zamonaviy mutaxassis uchun muhim bo'lgan tayanch kompetensiyalarni egallash zaruriyati pedagogning kasbiy kompetentligi tuzilmasiga individning turlicha qarashlarini ifodalash imkonini beruvchi tarkibiy qismni kiritishni taqozo etadi. Shuning uchun tayanch kompetentlik tuzilmasida quyidagi nisbatan mustaqil hisoblanadigan tarkibiy qismlarni (komponentlarni) ajratib ko'rsatish mumkin: ijtimoiy-individual kompetentlik,

kommunikativ kompetentlik, axborot kompetentligi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Vinnikova I. S. "Sug'urta tashkilotida moliyaviy tahlil" fanini o'rganishda Moodle elektron ta'lim muhitidan foydalanish xususiyatlari // XVIII Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari: 2 jildda. – 2017y
2. Boluchevskaya O. A. Innovatsion ta'lim texnologiyalari // Psixologiya va pedagogika: metodologiya va amaliy qo'llash muammolari. – 2010y
3. Braun A. , Bimrose J. Innovatsion ta'lim texnologiyalari // Rossiyada oliy ta'lim. – 2007y

TALABALARNING O'QUV JARAYONIDA INTELLEKTUAL TIZIMLARDAN FOYDALANISH KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH

M. E. Mamarajabov, B. B. Abdullayev

*TDPU p. f. n. , dotsent. TKTIYF assistent-o'qituvchi, mirsalimmamarajabov2@gmail.com,
botirabdullayev1994@gmail.com*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada oliy ta'lim tizimida tahsil olayotgan talabalarning intellektual tizimlardan foydalanish bo'yicha kompetensiyalarining rivojlanishida zarur hisoblangan jihatlarga alohida e'tibor berilgan. Intellektual tizimlarning bugungi kundagi o'rni va ahamiyati, qo'llanilish sohalari haqida ma'lumotlar berilgan bo'lib, talabalarning intellektual tizimlardan foydalanishning afzalliklari haqida bayon etilgan.*

Аннотация: *В данной статье основное внимание уделяется аспектам, которые считаются необходимыми для развития у студентов компетенций в использовании интеллектуальных систем в высшей школе. Приводится информация о современной роли и важности интеллектуальных систем, областях применения и преимуществах использования интеллектуальных систем учащимися.*

Annotation: *This article focuses on aspects that are considered necessary for the development of students' competencies in the use of intelligent systems in higher education. Information is provided on the current role and importance of intelligent systems, areas of application, and the advantages of using intelligent systems by students.*

Jamiyat taraqqiyoti ilgarilab borgan sari ta'lim sohasida faoliyat ko'rsatayotgan har qanday pedagogdan chuqur bilim, ta'lim sohasidagi turli xil innovatsiyalarni bilish va ularni amaliyotda qo'llash bo'yicha malaka, shu bilan birgalikda ta'lim oluvchilar tomonidan o'zlashtirilayotgan bilimlarni, egallanayotgan ko'nikma va malakalarni nazorat qilish hamda baholash bo'yicha mahorat talab etiladi.

Respublikamizda ta'limga internet texnologiyalarini joriy etish, ta'lim muassasalari faoliyatini axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida boshqarishning huquqiy-me'yoriy asoslari ishlab chiqildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 18-sentabrdagi «O'zbekiston Respublikasi yagona axborot siyosati kontseptsiyasi tasdiqlash to'g'risida»gi PQ-8050-son Qarori [1] respublikada axborotlashtirish siyosatini jadal olib borishga imkon yaratdi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yilning 17-fevraldagi «Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4996 sonli qarorida "Raqamli O'zbekiston — 2030" Strategiyasiga muvofiq hamda sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish va ularni mamlakatimizda keng qo'llash, raqamli ma'lumotlardan foydalanish imkoniyatini va ularning yuqori sifatini ta'minlash, ushbu sohada malakali kadrlar tayyorlash uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga oid ustuvor vazifalarni belgilangan [2]. Natijada sohada olib borilayotgan tub islohotlarni amalga oshirishning huquqiy asoslari yaratildi va intellektual tizimlardan foydalangan holda ta'lim berish uchun sharoitlar yaratildi.

Ta'lim jarayonida talabalarga intellektual tizimlar asosida darslarni tashkil qilish avvalo ta'lim samaradorligini oshirish xizmat qilish bilan birga ularning zamonaviy texnologiyalardan foydalanish kompetensiyalarini rivojlanishiga xissa qo'shadi. Axborot kommunikatsiya texnologiyalarning ta'lim jarayoniga integratsiyalashuvi ta'lim jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Intellektual tizimlar bugungi kunda eng rivojlanayotgan sohalardan biri hisoblanadi. Chunki zamonaviy axborot kommunikatsiya

texnologiyalari yordamida barcha ishlab chiqarish korxonalarida, transportni boshqarish tizimida, ta'limda, tibbiyot sohalarda va xalq xo'jaligidagi barcha sohalarda avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari intellektual tizimlar yordamida yaratilmoqda. Hozirgi kunda rivojlangan davlatlarda aqlli ko'chalar, haydovchisiz o'zi yurar transport vositalari hamda ishlab chiqarishda robotlar yordamida tayyorlanayotgan mahsulotlar orqali intellektual tizimlar rivojlanayotganini ko'rish mumkin.

Intellektual tizimlar - bu ba'zi bir predmetli sohadagi murakkab vazifalarni yechish uchun bilimlarni tashkil qilish, jamlash va qo'llash usullari va vositalarini majmuasidir [3]. Intellektual tizim mutaxassislar guruhining yuqori malakali tajribasiga suyangan holda qarorlarni tanlab olishda ko'p sonli muqobillarning oshiqchaligi hisobiga yuqoriroq samaradorlikka erishadi, yangi omillarning katta hajmining ta'sirini strategiyalarni qurishda ularni baholab, bashorat qilish imkoniyatlarini qo'shib tahlil qiladi. Intellektual tizimlarning asosi qarorlar qabul qilish jarayonini shakllantirish maqsadlarida tarkiblashtirilgan bilimlar (bilimlar bazasi)ning majmuasidan iborat.

Intellektual tizimlar an'anaviy o'quv dasturidagi materiallardan muayyan fanlar uchun moslashtirilgan darsliklarni yaratish uchun foydalanishi mumkin. Bunday tizimlar ushbu o'quv materialini raqamlashtiradi va barchaga yordam berish uchun yangi o'quv elektron ta'lim interfeyslarini yaratadi. Intellektual tizimlar mavzularni takomillashtirilishi kerak bo'lgan qismini ko'rsatishi mumkin. O'qituvchilar ma'ruza va o'quv materiallarida ta'lim oluvchilarni muayyan tushunchalar bilan chalg'itishi mumkin bo'lgan bo'shliqlar haqida doim ham xabardor bo'lmasligi mumkin. Intellektual tizimlar bu muammoning yechimini taklif qiladi [4]. Coursera, ochiq kodli onlayn kurslarning yirik provayderi, buni allaqachon amalda qo'llamoqda. Ko'p sonli o'quvchilar uy vazifasiga noto'g'ri javob berganliklari aniqlansa, tizim o'qituvchini ogohlantiradi va o'quvchilarga shaxsiy javobini yuboradi hamda to'g'ri javob uchun maslahatlar beradi. Bunday tizim kurslarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan bo'shliqlarini to'ldirishga va barcha o'quvchilar bir xil kontseptual asosni yaratishga yordam beradi. O'qituvchi javob berishini kutishning o'rniga, talabalar kontseptsiyani tushunishga va keyingi safar buni qanday qilish kerakligini eslashga yordam berish uchun darhol fikr-mulohazalarni qabul qilishadi.

O'quv jarayonida intellektual tizimlar ta'lim olish ko'lamini kengaytiradi. Umuman olganda, intellektual tizimlar va raqamli texnologiyalar butun dunyo bo'ylab o'quvchilar uchun ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirishga yordam beradi. Intellektual qidiruv tizimlari va yo'naltiruvchi mexanizmlar o'quvchilarga o'qishni davom ettirish uchun zarur bo'lgan ma'lumot va resurslarni taqdim etadi. Massive Open Online Course (MOOC) kabi platformalar kurslarni Internetga ulangan har bir kishi uchun bir zumda havola qiladi [5]. Bu intellektual tizimlarning o'quv jarayonidagi muhim afzalliklaridan biridir. Ta'lim olishning chegarasi yo'q va intellektual tizimlar bu kabi chegaralarni yo'q qilishga yordam beradi. Texnologiya dunyoning istalgan joyidan va istalgan vaqtda istalgan sohani o'rganishni osonlashtirib, keskin o'tishlarni olib keladi. Intellektual tizimlar asosidagi ta'lim o'quvchilarni axborot texnologiyalari sohasidagi fundamental ko'nikmalar bilan ta'minlaydi. Ko'proq ixtirolar bilan onlayn kurslar kengroq yoritilgan bo'ladi va intellektual tizimlar yordamida o'quvchilar qayerda bo'lishlaridan qat'iy nazar ta'lim olishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 18-sentaabrdagi «O'zbekiston Respublikasi yagona axborot siyosati kontseptsiyasi tasdiqlash to'g'risida»gi PQ-8050-son qarori
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yilning 17-fevraldagi «Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4996 sonli qarori
3. Корнеев В. В. , Гарев А. Ф. и др. Базы данных. Интеллектуальная обработка информации. - М. : «Нолидж», 2000. -282 с.
4. Nig'matov. H. "Sun'iy Intellekt tizimlari". O'quv uslubiy majmua. Toshkent 2013-yil 82-96betlar
5. Козлов, А. Н. Интеллектуальные информационные системы: учебник /А. Н. Козлов; Мин-во с-х. РФ, ФГБОУ ВПО Перм. ГСХА. Пермь, 2012. – 278 с.

O'QUVCHILAR BILAN ISHLASH JARAYONIDA O'QITUVCHI KASBIY KOMPETENTLIGINING ROLI

Bo'riboeva Shoiri Jiyanboyevna, Abdullayev Umirboy Xabibullayevich
Sirdaryo viloyati Sardoba tumani 4-umumta'lim maktabi biologiya fani o'qituvchisi
Sirdaryo viloyati Sardoba tumani 4-umumta'lim maktabi musiqa madaniyati fani o'qituvchisi
+99890 610 21 07

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'qituvchining kasbiy kompetentligini namoyon qila olishi, o'quvchilar bilan ishlashda va dars samaradorligini oshirishda tutgan o'rni yoritilgan.

Tayanch iboralar: kompetensiyalar, kasbiy kompetentlik, dars, pedagogik mahorat.

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, ta'lim samaradorligiga erishish va jahon talablari darajasida ta'lim olishi va kasb egallashni e'torof etadi. Shu sababli "Ta'lim to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga va ta'lim rivojiga oid chiqarilgan qarorlarga muvofiq, ta'lim bosqichlarining uzluksizligi va izchilligini ta'minlash, ta'limning zamonaviy metodologiyasini yaratish, davlat ta'lim standartlarini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirishni taqozo qiladi.

O'qituvchining kasbiy pedagogik bilimlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- o'qituvchi pedagogik fanining metodologik asoslari, ta'lim va tarbiya jarayonining ichki qonuniyat va qoidalari, maqsad va vazifalari, mazmuni, tashkiliy shakl va usullari;
- o'quvchi va bolalarning yosh psixologiyasi va ularning o'ziga hos xususiyatlari, bolalar anatomiyasi, fiziologiyasi va maktab gigenasi asoslari;
- xususiy fanlar nazariyasi va ularni o'qitish metodikasini chuqur bilishi zarur.

O'qituvchi uchun bilimni o'zi yetarli emas, balki, u nazariyani amaliyot bilan bog'lay olish ko'nikmasiga ham ega bo'lmog'i lozim. Buning uchun unga pedagogik ko'nikmalar kerak bo'ladi.

Pedagogik ko'nikmalar – bu o'qituvchi-tarbiyachining turli o'zgaruvchan sharoitlarda pedagogik vazifalarni hal etishga qaratilgan xatti-harakatlar majmuasidir. O'qituvchining pedagogik ko'nikmalarini o'z xarakter va xususiyatlarga ko'ra quyidagi tarkibiy qismlarga ajratish mumkin: tashxislash, loyihalashtirish va rejalashtirish, axborot berish, savarbar etish, qadriyatlarga to'g'ri yo'naltirish, muloqot qila olish, tashkil etish, tadqiqotchilik va refleksiv ko'nikmalar.

Bu pedagogik ko'nikmalarning har bir o'qituvchi faoliyatida alohida o'rin tutadi va biri ikkinchisini to'ldirib boradi.

O'qituvchi-sinf rahbari sifatida quyidagi ishlarni bajarishi shart:

1. O'z sinf bolalarini umumiy o'rganish;
2. Sinf o'quvchilari jamoasini tuzish va jamoa orqali bolalarni tarbiyalash;
3. O'quvchilar jamoat tashkilotlarga amaliy pedagogik yordam berish, faoliyatni ajratish va o'rganish;
4. Tarbiyasi og'ir bolalarni chuqur o'rganish va ular bilan alohida tarbiya olib borish;
5. Sinfda iqtidorli bolalarni aniqlash va ular bilan maxsus ishlarni uyushtirish;
6. O'quvchilar ota-onalari va keng jamoatchilik (mahalla qo'mitasi) hamkorligida ishlarni tashkil etish va xokazolar;

Bunlarni amalga oshirishda o'qituvchi o'zining kasbiy, shaxsiy, umummadaniy va maxsus kompetensiyaviy xususiyatlarini ham takomillashtirib borishi zarur.

Bugungi kunda yuqori malakali, mahoratli, pedagogik salohiyati yuksak darajada egallagan o'qituvchilar kerakligi davlat ta'lim siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biridir.

O'qituvchi shaxsini pedagogik faoliyatga tayyorlash, unda pedagogik mahoratining tarkibiy qismi bo'lgan pedagogik texnika estetikasini shakllantirish muammosiga doir ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil etish, uni pedagogik amaliyotda tarkib toptirish bo'yicha quyidagi xulosalarga keldik.

1. O'qituvchilik sharaflari va ma'suliyatli kasb bo'lib, u pedagogdan yuksak kasbiy-estetik fazilatlarni talab etadi. O'qituvchining shaxsiy estetik sifat va fazilatlari uning pedagogik faoliyatida namoyon bo'ladi.

2. Pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish o'qituvchi shaxsiga bir necha talablarni qo'yadi:

anatomo-fiziologik; kasbiy-psixologik; shaxsiy; kasbiy bilimdonlik; pedagogik mahorat va unga tegishla sifat, qobiliyatlarga ega bo'lish.

3. Pedagogik mahoratning estetik qirralari o'qituvchining pedagogik faoliyatida namoyon bo'ladi. Pedagogik faoliyatning samaradorligi o'qituvchi-tarbiyachining mahoratiga, uni yuksak san'at darajasida egallashiga bog'liq. Pedagogik mahorat – bu o'z pedagogik faoliyatini yuksak darajada tashkil etishini ta'minlovchi o'qituvchi-tarbiyachining kasbiy-shaxsiy xususiyatlari majmuidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. T-2020-yil. 23-sentabr.
2. Ergashev R. N. Pedagogik mahorat. O'quv-uslubiy majmua. – GulDU, 2004. - 87 b.

FIZIKA FANIDAN O'QUVCHILARNING BILIM VA KUNIKMALARINI BAHOLASHNING ASOSIY USULLARI VA TAMOYILLARI

Kunnazarova Zuxura Bisenbaevna

*Nukus shaxri 33-sonli tasviriy san'atga ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabi fizika
fani o'qituvchisi*

Fizika fanidan o'quv mashg'ulotlarini tashkil qilishning asosiy shakli u yoki bu turdagi dars hisoblanadi. Har bir dars tugallangan va biror-bir maqsadga (yangi bilimlarni berish, yangi tushunchalarni shakllantirish, bilimlarni amalda qo'llash malakasini o'rgatish, bilimlarni chuqurlashtirish, mustahkamlash, takrorlash, nazorat qilish) ega bo'lishi kerak. O'qituvchi darsga tayyorgarlik ko'rayotganda uning asosiy maqsadi va vazifasini belgilaydi, uni optimal hal qilish uchun o'qitish metodlarini (ular bir mashg'ulotning o'zida bir necha bo'lishi mumkin) va o'quv ishini tashkil qilish shakllarini tanlab oladi. Fizikani o'qitish metodlari mashg'ulotlarni tashkil qilish shartlari va dars tuzilishi bilan uzviy bog'liq, qator hollarda fizikani o'qitish metodlari dars tuzilishi va shaklini belgilab beradi.[1;56]

Dars - o'quv tarbiyaviy jarayonida asosiy qism sifatida pedagogika, psixologiya va didaktika prinsiplariga muvofiq quriladi. U o'qituvchi va o'quvchilarni, turli elementlarni o'zida mujassamlashtirgan murakkab va muvofiqlashtirilgan harakatlari majmuasidir. Darslarning tuzilishi va turkumlari masalasiga qator pedagogik tadqiqotlar bag'ishlangan.

Masalan, I.I Sokolov darslarni ularning asosiy mazmuniga qarab turlarga ajratib beradi, ya'ni:

- a) yangi o'quv materialini bayon qilish;
 - b) laboratoriya ishi;
 - v) yangi bayon qilingan material bo'yicha bilim va malakalarni mustahkamlash va mashq qilish;
 - g) o'zlashtirishni tekshirish;
 - d) kursning alohida qismlarini takrorlash. [2;34-35]
- B.A. Znamenskiy darsning quyidagi turlarini qarab chiqadi:
- a) yangi o'quv materialni o'rganish;
 - b) yakuniy fizik praktikum;
 - v) fizik masalalarni echish;
 - g) o'quvchilarni ekskursiyaga tayyorlash, ekskursiyani yakunlash;
 - d) o'tilgan materialni takrorlash va umumlashtirish;
 - e) o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini hisobga olish. [3;24]

Bu darslarda olib boriladigan o'quv ishlarining belgilariga qarab turlarga ajratishdir. SHuningdek, fizika darsining didaktik maqsadiga asosanib, turlarga ajratish mavjud, ularni quyidagi turlarga ajratish mumkin:

- 1) Yangi o'quv materialini o'rganish;
- 2) Bilimlarni mustahkamlash va amaliy masalalarni shakllantirish;
- 3) Bilimlarni nazorat qilish va hisobga olish;
- 4) Bilimlarni umumlashtirish va chuqurlashtirish;
- 5) Aralash dars.

Bir turdagi darslar nafaqat asosiy didaktik maqsadi, balki tuzilishi bo'yicha ham o'xshash bo'ladi. SHuningdek, dars tuzilishi quyidagi elementlarni o'z ichiga oladi;

a) darsda yangi tushunchalarni shakllantirish;

b) olingan bilimlarni qo'llash;

v) uyga vazifa;

g) takrorlash;

d) so'rash va boshqalar bu tuzilishi dars davomida ochib beriladi va aniqlashtiriladi ham o'qituvchi faoliyatini, ham o'quvchilar tomonidan bilimlarni o'zlashtirish jarayonini o'z ichiga oladi.

Dars tuzilishida bilishlikning bosqichlari aks etadi: dastlabki, omillar, muammoni qo'yish, g'oyani ilgari surish, mavxum modelni qurish, tushunchalar, qonunlar va prinsiplar tizimini kiritish, natijalarning nazariy xulosasi va ularni eksperimental tekshirish. Bu narsa o'quvchilarda nazariy fikrlashni shakllantirish uchun asos bo'lib, xizmat qiladi. [4;26]

Keyingi yillarda ta'lim tizimini isloh qilish jarayonida yangi pedagogik texnologiyalardan va axborot texnologiyalaridan keng foydalanilmoqda, boshqa fanlar qatori fizikani o'qitishda ham rivojlangan mamlakatlarda sinalgan, samarali natijalar bergan, dars turlari qo'llanmoqda. Bu darslarning muhim jihati shundan iboratki, unda o'quvchilarni ko'proq mustaqil ishlashga, darsni amaliy jihatini kuchaytirishga asosiy e'tibor qaratiladi.

Hozirgi paytda fan va texnika shunday tez rivojlanib bormoqdaki, uni o'quv dasturlariga kiritib ulgurish juda qiyin. SHu sababli, har bir fizika o'qituvchisi INTERNET tizimi va boshqa axborot xonalari orqali fan va texnika yangiliklariga tegishli axborotlarni olib o'quv jarayonida qo'llashlari zarur, aks holda o'quvchilarga zamon talabi darajasida bilim bera olmaydi.

Har bir o'qituvchi fizika o'qitish jarayonida qo'llanilayotgan yangi pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalanish bilan cheklanmasdan, o'zi ham dars o'tishning samarali usullarini yaratish ustida ishlashi va ijod qilishini davr talab qilmoqda.

Keyingi paytlarda ko'pchilik o'qituvchilar yangi materialni o'rganish darslarida o'quvchilardan so'rash va baholashni asosan dars boshida emas, balki dars davomida va oxirida, o'rganilgan materialni mustahkamlashda amalga oshirmoqda.

Bunda o'tilganni takrorlash yangi material uchun zarur bo'lsa, qisqacha, jonli suhbat shaklida olib boriladi va baholash shart emas. Darsning asosiy qismi yangi bilimlarni shakllantirish va mustahkamlashga qaratiladi.

O'quvchilarning bilimini, malaka va ko'nikmalarini hisobga olish, nazorat qilish va baholash juda katta ahamiyatga ega. Bunda fizika o'qituvchisidan avvalo o'quvchilar har bir sinfda o'qish natijasida qanday bilim va ko'nikmalarni olishlari kerakligini juda aniq tasavvur qilishi talab etiladi. O'quvchilarning nafaqat bilim va malakalarini, balki umumiy o'sishi hali baholanishi ham hisobga olinishi lozim.

Asosan o'quvchilarning bilimi ikki usulda tekshiriladi, og'zaki va yozma. Og'zaki so'rash quyidagi shaklda o'tkaziladi: yakka va umumiy (yoppasiga) so'rash, sinov. YOzma usul nazorat, referat va h.k. shakllarda amalga oshiriladi. O'quvchilarning malaka va ko'nikmalarini esa eksperimental va grafik masalalarni echish, nazorat va laboratoriya ishlari yordamida tekshiriladi. Qisqa vaqtli yoki bir soatli nazorat ishlari o'tkaziladi. [5;48-49]

Bilim, malaka va ko'nikmalarni tekshirishning yangi usullaridan, ya'ni test so'rovlaridan foydalaniladi. YAKka so'rashda javobning mustaqilligiga, to'g'riligiga, to'liqlik, mantiqiy va adabiy savodxonligiga alohida e'tibor beriladi; mustaqil va nazorat yozma ishlarini baholashda o'quvchilar yo'l qo'ygan xato va kamchiliklarning xususiyati hisobga olinadi, shunga asosan qo'pol va uncha qo'pol bo'lmagan xato va kamchiliklarga ajratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta'limda innovasion texnologiyalar (ta'lim muassasalari pedagog-o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). – T.: Iste'dod, 2008.–180 b.

2. Turdiev N.SH., Asadov IO.M., Akbarova S.N., Temirov D.SH. Umumiy o'rta ta'lim tizimida o'quvchilarning kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari, T.: 2015.-160.

3. Djoraev M. Fizika o'qitish metodikasi (umumiy masalalar). – Toshkent:TDPU, 2013
4. Matematika, fizika, informatika. //Jurnal. 2010-2017 yy.
5. Xalq ta'limi. //Jurnal 2011-2017 yy.

TALABALAR NUTQINI O'STIRISHDA BADIY MATNLARNING AHAMIYATI

Izzatullayeva Nigora Joraxanovna, Saydaliyev Alibek Baxtiyor o'g'li, Jangabaev Raxim

Maxmudovich

Toshkent davlat transport universiteti o'qituvchisi

Toshkent davlat transport universiteti talabalari

Annotatsiya: Ushbu maqolada rusiyzabon guruh talabalarini o'zbek tilidagi matnlarni o'qishda, tahlil qilishda va mazmunini qayta hikoya qilishda, shuningdek, insho, bayonlar yozish va rasmiy ish qog'ozlaridan foydalanishlarida mutaxassisligiga doir so'zlar leksikasini rivojlantirishda, ularning so'z boyligini oshirishda, soha atamalarining ma'nosini bilishlari va nutqda undan to'g'ri, o'rinli foydalanish malakalarini takomillashtirish kabi fikr va mulohazalar bayon qilingan.

Annotation: In this article, Russian-speaking students are taught to read, analyze and retell Uzbek texts, as well as to develop vocabulary in their field of essay, essay writing and use of official documents. to increase their knowledge of the meaning of field terms and to improve their ability to use it more accurately and appropriately in speech.

Kalit so'zlar: tasviriy san'at, musiqa, teart, sahna, taqdimot, badiiy asarlar, rasmlar, internet.

Keywords: fine arts, music, theater, stage, presentation, works of art, paintings, internet.

Badiiy asarning qimmati uning o'quvchilar qalbini rom etish darajasi orqali aniqlanadi. Ma'lumki, rusiyzabon talabalar o'zbek tilidagi matnlarni o'qishda, tahlil qilish va mazmunini qayta hikoya qilishda, shuningdek, insho, bayonlar yozish va rasmiy ish qog'ozlaridan foydalanishlarida so'z boyligining kamligidan qiynalib qoladilar. SHu sababli, rusiyzabon talabalarining mutaxassisligiga doir so'zlar leksikasini rivojlantirish, ularning so'z boyligini oshirish, ayniqsa, soha atamalarining ma'nosini bilishlari va nutqda undan to'g'ri hamda o'rinli foydalanish malakalarini takomillashtirishda badiiy matnlar mazmuniga singdirilgan mazmun va ma'nolar ham muhim ahamiyatga egadir. SHuning uchun ham, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda o'zbek tili darslarida tavsiya qilinadigan matnlarni o'rgatish jarayonida innovatsion yondashuvni amalga oshirishga intildik. Talabalar badiiy matnlardagi iste'mol doirasi keng - ya'ni kundalik hayotda, muomala-munosabatda, nutqda tez-tez qo'llaniladigan so'zlar ma'nolarini ilg'ashlari oson bo'lib, aksincha, badiiy jilo berilgan - badiiy uslubda qo'llaniladigan ko'pgina so'zlar ma'nolari ular uchun izoh talabdir. Badiiy asar tilini o'rgatishga yo'naltirilgan barcha innovatsion yondashuvlar, bunday darslarni tashkil etishga xizmat qiladigan barcha usullar, o'qitishning yangi vositalari talabalarda badiiy tahlil ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qilishi lozimligiga e'tibor qaratdik.

Badiiy asarni o'rganishning har bir bosqichi o'zining muayyan maqsadi va vazifalariga ega. Xuddi mana shu maqsad va vazifalar bilan bog'liq holda materiallar tanlanadi va uni o'zlashtirish jarayoni tashkil etiladi. Badiiy asarda ifodalangan tarixiy davrni o'rganish uning qahramonlari faoliyatini o'sha davr nuqtai nazaridan tahlil qilgan holda baholash hujjatli materiallarni ko'proq jalb etishni talab etadi. Bu esa muayyan vaqt va davr bilan tavsiflanadi.

Talabalar uchun tuzilgan "O'zbek tili" fanining ishchi o'quv dasturiga kiritilgan har bir mavzuga xos matn tanlanadi, xususan, "Nutq uslublari" ni o'qitish alohida rejalashtirilgan bo'lib, badiiy uslubdagi matnlarni o'rgatishda A.Qodiriyning "O'tgan kunlar" romanidan olingan parcha mazmuni orqali badiiy nutq uslubining boshqa nutq uslublari bilan farqli va umumiylik jihatlari haqida ma'lumot berish mumkin. Ushbu roman matnini to'liq o'qib chiqish talabalarga bir necha dars oldin uyga mustaqil topshiriq sifatida beriladi.

Badiiy asarni o'rganishda unga yaqin bo'lgan san'at turlarining imkoniyatlaridan foydalanish ham muhim ahamiyatga ega. Masalan, tasviriy san'at, musiqa, teart, sahna san'ati kabilar shular jumlasidandir. Taqdimot jarayonida badiiy asarlardan parchalarni o'qib berish yoki ko'rsatish lozim. Mavzuga yaqin bo'lgan illyustratsiyalar, rasmlar, mazkur asarga ishlangan minaturalar, teatrlashtirilgan lavhalar, asar ssenariysi asosida ishlangan kinofilmlar, musiqiy lavhalar qahramonlar

xatti-harakatlari va o'ziga xos xususiyatlarini yorqin gavdalandirishga xizmat qildi. Taqdimotlarni ishlab chiqish, qo'shimcha illyustratsiyalardan foydalanish, o'quvchilarda badiiy asarni o'rganish, uning qahramonlariga tanqidiy baho berishga nisbatan alohida qiziqish uyg'otdi. Ularning o'quv materiallarini o'zlashtirish darajalari ortib diqqatlarining barqarorlashganligi kuzatildi. Slaydga asoslangan ma'ruza texnologiyasi o'qituvchini o'quv jarayonidan uzoqlashtirmaydi. Ma'ruzalarning asosiy ovozli qismi – adabiyot o'qituvchisining o'z ovozi bo'lib, slaydlarni sharhlaydi, aniqlanmalarni shakllantiradi, ma'ruza maromi va slaydlarning almashinish jarayonini boshqaradi.

Zamonaviy yozuvchi va shoirlarning ijodiy faoliyati, yaratgan asarlarini o'rganish, talqin qilish orqali talabalarning ma'naviy dunyoqarashini yanada kengaytirishga erishiladi.

Har qanday o'quv predmeti, shuningdek, til o'qitish usuli jarayonidagi o'ziga xoslik - matnlar tahlili asosida o'quvchilar mustaqil fikrlashlarini shakllantiradilar. O'quv jarayonida o'quvchilar oldiga shunday vazifalar qo'yiladiki, ularning yechimi mustaqil fikrlashni talab qiladi.

Dars jarayonida o'quvchilar ma'lum topshiriqlarni bajarishlari davomida muayyan vazifalarni amalga oshirishga yo'naltiriladi. Bu jarayonda o'quvchilar o'zaro faol hamkorlikka kirishadilar.

Badiiy asarni o'qish va tahlil qilish o'quvchilarni badiiy asar qahramonlariga tanqidiy baho berishga o'rgatishda eng ko'p samara beradigan didaktik jarayondir. Bu jarayonda o'quvchilar yozuvchining ijodiy laboratoriyasiga nazar tashlash, asar qismlarini badiiy o'qish ustalari ijrosida tinglash imkoniyatiga ega bo'lsalar, kutilgan samaradorlikka tezkorlik bilan erishishlari mumkin. Asarni musiqa sadolari ostida o'qish uning ruhiyatiga yaqin bo'lgan musiqani tanlashni taqozo qiladi.

Badiiy asarni o'rganishda unga yaqin bo'lgan san'at turlarining imkoniyatlaridan foydalanish ham muhim ahamiyatga ega. Masalan, tasviriy san'at, musiqa, teart, sahna san'ati kabilar shular jumlasidandir. Taqdimot jarayonida badiiy asarlardan parchalarni o'qib berish yoki ko'rsatish lozim.

Badiiy asar yoki darslik majmua har doim adabiyot darslarining tarkibiy qismi sifatida o'z qimmatini yo'qotmasligi lozim. Ba'zi hollarda badiiy asarning muayyan qismini ifodalagan matn tahlili amalga oshirilayotganda Internet imkoniyatidan foydalanish maqsadga muvofiq. SHuningdek, ifoda vositalari, asar qahramonlarini tavsiflovchi o'rinlarni izlash va belgilashda ham Internet imkoniyatidan samarali foydalanish mumkin. SHu bilan bir qatorda, Internet saydlarida joylashtirilgan lug'atlar o'quvchilarning so'z boyligini oshirib, asar qahramonlari xarakterini tavsiflash uchun zarur bo'lgan so'z va iboralar, ularning ma'nolarini izlab topishlari uchun qulaydir.

O'quvchilarni badiiy asar matnini stilistik tahlil qilishga o'rgatish ularda tanqidiy baholash ko'nikmalarini rivojlantirishning muhim shartidir. Bu jarayonda o'qituvchi oldindan tayyorlangan reja asosida ish olib boradi. Bunday ish namunasi bilan tanishganlaridan keyin o'quvchilar matndan ajratib olingan, asar qahramonlarini tavsiflovchi stilistik birliklarni namoyish qiladilar. Bunday faoliyat darsda vaqtni muayyan darajada iqtisod qilib o'quvchilarda alohida qiziqish uyg'otdi. Buning uchun Internet saydlarida adabiyot nazariyasi hamda asar qahramonlarini tavsiflovchi ma'lumotlarni joylashtirish lozim. Bunday ochiq saydlar yordamida o'quvchilar o'qituvchilari bilan munozaraga kirishishlari mumkin. SHuningdek, badiiy asar qahramonlari haqida o'quvchilar o'z tengdoshlari bilan muhokamalar uyushtirishlari ham maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bunday ish turi ularda tanqidiy tafakkur va asar qahramonlariga tanqidiy baho berish ko'nikmalarini rivojlantirish bilan bir qatorda, ko'plab ijobiy sifatlarni ham tarkib toptirishga xizmat qiladi.

Axborot texnologiyalaridan foydalanishda samaradorlikka erishishni ta'minlashdagi vazifalardan biri – pedagogik texnologiyalarga metodik ishlov berishdan iborat. O'quvchilarni badiiy asar qahramonlariga tanqidiy baho berishga o'rgatish jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanish metodikasini alohida tatqiq qilish lozim. Bu sohada yondashuvlar dastlabki tavsiyalar darajasidadir. O'quvchilarni badiiy asar qahramonlariga tanqidiy baho berishga o'rgatishda Internetdan foydalanish mazkur jarayonda foydalanish mumkin bo'lgan o'ziga xos texnologiya bo'lib, istiqbolli vosita sifatida bu sohada yangi imkoniyatlarni yaratish, o'quvchilar bilan hamkorlik va muloqotning o'ziga xos shakllarini o'rnatish imkonini beradi. Biroq, mazkur jarayonda Internet bilan ishlash izchil xarakter kasb etishi lozim. Shundagina o'quvchilarni badiiy asar qahramonlariga tanqidiy baho berishga o'rgatishda mazkur texnologiyaning samaradorligi haqida fikr yuritish mumkin.

Pedagogik tajribalar shuni ko'rsatmoqdaki, faqatgina o'quvchining o'zi zarur bilim va

ma'lumotlarni o'zlashtirishi mumkin. O'qituvchi bilimlarni faqatgina o'quvchilar qabul qilgandagina ularni taqdim etishi mumkin. Buning uchun o'quvchilar muayyan faoliyatni amalga oshirishlari kerak. O'quvchilar asar qahramonlariga tanqidiy baho berish jarayoniga faol ishtirok etishlari uchun ularning o'zlari faoliyatlarini mazkur jarayonga yo'naltirishlari va nazorat qilishlari kerak. Shundagina o'quvchilarni bilish faoliyatiga jalb etishga yo'naltirilgan ta'lim jarayoni ularning moyilligiga tayangan holda amalga oshiriladi. Shundagina mazkur jarayon o'quvchilarda mustaqil o'rganish, mustaqil bilim olish, o'z faoliyatini mustaqil tarzda tashkil etish imkoniyatini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh. Mirziyoev. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib- intizom, va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Toshkent – "O'zbekiston", 2017 yil, 45-47 betlar.
2. A. T. Baltaeva O'quvchilarni badiiy asar qahramonlarini tanqidiy baholashga o'rgatish orqali kitobxonlik faolligini rivojlantirish. Pedagogika jurnal.i 2021. 6-son. 54-57 b.
3. A. T. Baltayeva. O'zbek tili darslarida zamonaviy innovatsion texnologiyalarni elektron tizim orqali tashkil etish samaradorligi. Ta'lim fidoiylari.
4. Respublika ilmiy-uslubiy jurnali. 11-son, 1-jild, noyabr-2021 yil, 1-qism 71-74-betlar

TRIGONOMETRIK SHAKL ALMASHTIRISHLAR, O'ZGARUVCHINI ALMASHTIRISH METODLARI

Nuraliyeva Gulbahor, Karimov Sarvar

Sirdaryo viloyati, Sayxunobod tumani 17-umumta'lim maktabi matematika fani o'qituvchilari

Annotasiya: Ushbu maqolada matematikani chuqur o'rganuvchi sinflarda to'g'arak mashg'ulotlarda yuqori sinf o'quvchilari tomonidan algebraik masalalarni yechish uchun trigonometrik almashtirishni qo'llash metodikasi to'g'risida gap boradi.

Annotation: This article discusses how to use trigonometric substitution to solve algebraic problems by high school students in elective classes in in-depth math classes.

Masalalarni yechish o'quv faoliyatining muhim ko'rinishi hisoblanadi, uning jarayonida o'quvchilar tomonidan matematik nazariya o'zlashtiriladi va mantiqiy fikrlash va ijodiy qobiliyatlar rivojlanadi. Yuqori sinf o'quvchilarini matematikaga o'qitishda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish ularni ijodiy faoliyatga jalb etish orqali yanada samarali amalga oshiriladi.

Matematika kursida uchraydigan ba'zi masalalarni ayniy shakl almashtirishlar orqali yechish optimal yechim hisoblanadi. Shunday holatlar ham borki yagona yechim bu shakl almashtirish bo'lib qoladi. Yangi belgilarga o'tish, noma'lumlarni almashtirish – qulay usul va metod, u elementar matematika kabi oliy matematikada ham turlicha masalalarni yechishda qo'llaniladi. Eng muhimi ushbu usul va metodni o'rganish orqali o'quvchini ijodiy fikrlashi rivojlanadi. O'zgaruvchanni almashtirish g'oyasi mukammal hisoblanadi va matematika chuqurlashtirib o'qitiladigan sinflarning algebrasida deyarli hamma bo'limlarida u yoki bu ko'rinishda uchraydi.

O'zgaruvchanni almashtirish metodini aniqlashga ikkita yondashuv mavjud. Agar $f(x) = 0$ tenglamasini $p(g(x)) = 0$ ko'rinishiga o'zgartirish, $u = g(x)$ yangi o'zgaruvchi kiritish zarur, $p(u) = 0$ tenglamasini yechish, so'ngra tenglamalar majmuini ko'rib chiqish

$$g(x) = u_1$$

$$g(x) = u_2$$

....

$$g(x) = u_n$$

bu yerda $u_1, u_2, \dots, u_n - p(u) = 0$ tenglamasining ildizlari. Almashtirishda ildizlarni yo'qotmaslik uchun $u = g(x)$ tenglamasini qanoatlanuvchi bitta bo'lsa ham qiymatning har bir x qiymatga ko'rib chiqilayotgan sohaga tegishliligiga ishonish yetarli.

Yuqoridagi tasvirlangandan farqli teng kuchli almashtirish metodi o'zgaruvchanning ko'pchilik qiymatlarining topilishini talab qiladi. Ushbu holatda talab hosil bo'ladi: ko'rib chiqilayotgan sohaning har bir x qiymatiga $u = g(x)$ tenglamasini qoniqtiruvchi m o'zgaruvchanning mutlaq bitta ahamiyatiga muvofiq bo'ladi. Bunday yondashuv dastlabki tenglama aniqlanish sohasining

saqlanishiga olib keladi.

Bunday almashtirishlar ba'zan yechimni sezilarli darajada soddalashtiradi. O'zgaruvchanlarni almashtirish va yangi belgilarga o'tish amallarni yengillashtiradi algebraik ifodani ixcham va soda ko'rinishga keladi. Mana shuning uchun ham masalalarni yechishda litsey o'quvchilariga almashtirishlarni boshlashga shoshmaslikni o'rgatish zarur: ular avval yangi o'zgaruvchini kiritib, tenglamani soddaroq yozish mumkinligini ko'rishsin. Bunda unutmazlik lozimki, birinchidan, har doim ham almashtirish zarur bo'ladi. Ikkinchidan, agar noma'lumni almashtirishni ishga solinganda uni shunday tanlashga kerakki, u yechishni qiyinlashtiruvchi noxush detallarning imkonini boricha katta miqdorini o'z ichiga olsin.

Yangi o'zgaruvchanni muvaffaqiyatli kiritish mahorati litsey o'quvchisi matematik madaniyatining muhim elementi. Bunda o'zgaruvchanlarni almashtirishni amalga oshirish moxirligi shundan iboratki, qaysi almashtirish yanada ratsional va tezroq muvaffaqiyatga keltirishini ko'ra bilish.

Yangi o'zgaruvchan gohida sezilarli, gohida bir muncha bekitilgan holda bo'ladi. Yanada murakkab hollarda, noma'lumning omadli almashtirilishini topish uchun, natijada soddaligi va yechimining bejirimligi bilan qoplanadigan qo'shimcha ijodiy ish zarur bo'ladi.

Almashtirish metodi, muvaffaqiyatli yangi o'zgaruvchanlarni tanlashga o'rgatish yana shuning uchun ham kerakki, o'quvchilar har doim ham mustaqil ravishda bu haqda o'ylab ko'rishmaydi. Bunday holatlarda qulay almashtirishni oldindan bilish maqsadga muvofiq bo'ladi. Ayniqsa o'zgaruvchan o'rniga trigonometrik funksiyani qo'yishni o'quvchilarga tasavvur qilish qiyin, modomiki bunda algebraik ifoda murakkablashadi. Biroq trigonometrik funksiyalarning ma'lum xossalari ayrim tenglamalarni, tengsizliklarni va ular tizimini soddalashtiradi, bu vaqtda bevosita algebraik yechim yanada texnik murakkablashadi. Shu tariqa, trigonometrik almashinuvi tenglamalar, tengsizliklar va ular tizimi masalalarini o'rnatish bo'yicha standart yechimining nostandart metodi deb atash mumkin.

Misol: Tenglamani yechish

$$8x^3 - 6x - \sqrt{3} = 0.$$

Bu tenglamani yechish faqat trigonometrik almashtirish bilangina yechish mumkin.

Trigonometrik almashtirish yordamida yechish.

Tenglama hadini ikkiga bo'lamiz. Tenglama quyidagi ko'rinishda bo'ladi.

$$4x^3 - 3x = \frac{\sqrt{3}}{2}.$$

Tenglamaning har bir ildizi birdan katta emasligini isbotlaymiz. Faraz qilaylik $|x| > 1$, u xolda $|4x^2 - 3| > 1$, $|x(4x^2 - 3)| > 1$. Demak, tenglamaning chap tomoni birdan katta, o'ng tomoni esa birdan kichik, bunday bo'lishi mumkin emas.

Demak $|x| < 1$.

U xolda $x = \cos \alpha$, $\alpha \in [0; \pi]$ belgilash olamiz. Tenglama quyidagi ko'rinishga keladi.

$$4 \cos^3 \alpha - 3 \cos \alpha = \frac{\sqrt{3}}{2} \Leftrightarrow \cos 3\alpha = \frac{\sqrt{3}}{2} \Leftrightarrow \alpha = \pm \frac{\pi}{18} + \frac{2\pi n}{3}, n \in \mathbb{Z}.$$

$\alpha \in [0; \pi]$ bu oraliqda 3 ta ildiz bor

$$\begin{cases} \alpha = \frac{\pi}{18} \\ \alpha = \frac{13\pi}{18} \\ \alpha = \frac{11\pi}{18} \end{cases}.$$

Ma'lumki 3 – darajali tenglama 3 tadan ziyot ildizga ega bo'lmaydi, demak tenglama 3 ta ildizga ega.

$$\text{Javob: } \left\{ \cos \frac{\pi}{18}; \cos \frac{13\pi}{18}; \cos \frac{11\pi}{18} \right\}.$$

Shunga uxshash masalalarni yechish uchun yechimning eng qulay metodi – trigonometrik almashtirish yordamida yechish. Agar bunday misollarni yechishda eng kam ahamiyatini aniqlash bilan qiyinchiliklar to‘g‘ilishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda masalalarni trigonometrik almashtirishlar usullari ayrim murakkab tipdagi masalalarni nostandart usulda yechish imkonini beradi. Maqolani yoritishda misollar orqali tushuntirishga harakat qilindi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alekseyev A. Trigonometrik almashtirishlar / A. Alekseyev, L. Kurlyandchik // Kvant. – №2. – 1995. – C. 40–42.
2. Balayan E. N. Matemaikadan masalalar to‘plami / E. N. Balayan. – Rostov–na–Donu: Izd-vo Feniks, 2003. – C. 736.

O‘QUVCHILARNING BILISH FAOLIYATINI JONLANTIRISH

Xakimova Gulzoda Abdukaxxarovna

Sirdaryo viloyat guliston tumani 19-umumta’lim maktabi matematika fani o‘qituvchisi

Annotasiya: *ushbu maqolada o‘quvchilarning bilimga bo‘lgan qiziqishlarini hosil qilish, bilimga bo‘lgan qiziqishning rivojlanish bosqichlari to‘g‘risida fikr yuritilgan.*

Annotation: *This article discusses the stages of developing students' interest in knowledge.*

Mamlakatimizning dunyo hamjamiyatiga integratsiyalashuvi, fan-texnika va texnologiyalarning rivojlanishi yosh avlodning o‘zgaruvchan dunyo mehnat bozorida raqobatbardosh bo‘lishi, fanlarni mukammal egallashini taqozo etadi. Bu esa ta’lim tizimiga, ilg‘or milliy va xalqaro tajribalar asosida standartlarni joriy etish orqali ta’minlanadi.

Fanni nazariylashtirgan holda o‘qitishga yondashishdan voz kechib, o‘quvchining kundalik hayotida matematik bilimlarni tatbiq eta olish salohiyatini shakllantirish va rivojlantirishga erishish, o‘quvchilarning mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini namoyon qilish va faollashtirishga e’tiborni kuchaytirish-davr talabi.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablari, akademik litsey va kasb –hunar kollejlarida o‘quvchilarni faqat muayyan fanlar bo‘yicha bilim, malaka va ko‘nikma olish bilan chegaralab bo‘lmaydi. Shu tufayli hozirgi sharoitda o‘quv jarayonini sifat jihatdan jiddiy qayta qurish lozim bo‘ladi. Shu munosabat bilan uzluksiz ta’lim tizimida o‘quvchilarning **bilish faoliyatini** jonlantirish muammosi alohida ahamiyat kasb etadi.

Bilish faoliyati masalalari taniqli psixolog va pedagog P.P. Blonskiyning ijodida yoritib berilgan.

Bilish faoliyatining faol qo‘zg‘atuvchilari quyidagilardir:

- konkret faoliyatga bevosita, faol qiziqish;
- axloqiy — estetik va ruhiy qoniqish (motivlari).

Bilish faoliyatini jonlantirish faqat bilimlarni o‘zlashtirish jarayonini yaxshilashgagina emas, balki shaxsning eng muhim sifati bo‘lgan faollik va mustaqillikning shakllanishiga ham yo‘naltirilgan bo‘lishi zarur.

O‘quvchilar o‘quv muassasalarida tahsil olish davrida bilim, malaka va ko‘nikmalarni egallashda barcha turdagi o‘quv jarayoniga jalb qilinadilar. Bu davrda ular shaxsining asosiy qiyofalari shakllanadi. Faoliyatining bu shakllarida ularning ehtiyojlari, qiziqishlari, moyilliklari, hissiyotlari, motivlari, shuningdek, umumiy va xususiy qobiliyatlari paydo bo‘ladi va rivojlanadi.

Olimlarning isbotlashlaricha, har qanday faoliyatning tarbiyaviy samaradorligi ko‘proq uning tashkil etilish darajasiga bog‘liq. Qachonki, yosh xususiyatlari faoliyat turlarining galma-galligi, me’yoriyligida amalga oshadi.

Bilish faoliyatini jonlantirishda **qiziqish** alohida ahamiyatga ega.

O‘rganishga bo‘lgan qiziqishni olimlar ijobiy, hissiy bo‘yoqqa ega bo‘lgan, bilim, malaka va ko‘nikmalarga bo‘lgan alohida munosabat deb baholaydilar.

Bilishga bo'lgan qiziqish — o'qitishdagi o'ziga xos qiziqish turidir.

G.I. Shukina **bilishga bo'lgan qiziqishni**, insonning predmet va atrof-muhit hodisalariga bo'lgan murakkab munosabati va ularning muhim xususiyatlarini har tomonlama, chuqur o'rganish va bilishi, deb qaraydi.

Bilishga bo'lgan qiziqish saralab olishga yo'naltirilgan va u shaxsning ehtiyojlaridan kelib chiqadi.

Bilishga bo'lgan qiziqish, bilish faoliyati mohiyati, fikrlarning obektga bo'lgan betinim yaqinligi bilan bog'langandir.

Bilimga bo'lgan qiziqishning belgilari quyidagilardir: intellektual xarakterda bo'lishi; ijodiy xarakterda bo'lishi.

Bilimga bo'lgan qiziqishning rivojlanish bosqichlari:

- qiziqsinish — mo'ljalning elementar darajasi — “mo'ljallangan qiziqish”;
- qiziquvchanlik — bilishga bo'lgan ehtiros, quvonch bilan obekt chegarasiga kirib borish;
- bilishga bo'lgan qiziqish — hodisalarning mohiyatiga kirib borishga intilish, haqiqatni qidirish.

- nazariy qiziqish — voqelikka faol ta'sir etish orqali nazariy asoslar, qonuniyatlarni bilishga intilish;

Qiziqishning paydo bo'lishi va rivojlanishini shartli ravishda quyidagicha sathlarga ajratish mumkin:

- yangi faktlarga, mashg'ulotlarda olinadigan axborotlarda gavydalanadigan mashg'ulotlarga bevosita qiziqish hamda har xil sharoitlarda harakat qiluvchi narsa va hodisalarning muhim xususiyatlarini bilishga qiziqish;

- o'rganishga bo'lgan barqaror qiziqish. U talabalarga ta'lim berishda muhim xarakterga ega va unda bilishga bo'lgan qiziqish tashqi omillarga muhtoj hamda u real o'quv jarayoni shart-sharoiti va usullari bilan bog'liq bo'ladi.

Bilishga bo'lgan barqaror qiziqishga quyidagilar kiradi:

- intellektual **faollik** (ko'rsatkichlari — savol va javob mustaqilligi, jonli faoliyatga o'z tashabbusi bilan kirishishga intilish);

- **malaka va ko'nikmalardan faolfoydalanish, ularningfaol aks ta'siri** (bilimlar yangi bilimlarni egallash metodlariga aylanadi, aksincha, bilishga bo'lgan qiziqish o'zining eng yuqori rivojlanish darajasiga ko'tariladi);

- **hissiyotni namoyish qilish** (nafrat, quvonch, bezovta bo'lish, intellektual holatdagi hissiyot);

- **irodani namoyish qilish** — jiddiy diqqat qilish, kuchsiz chalg'ish, o'quv ishlarini tugallashga intilish;

- **o'z xatti-harakatlarini erkin tanlash** — o'quv mashg'ulotlaridan boshqa vaqtlarda u yoki bu mashg'ulotlarni erkin tanlay olish.

Pedagogika va psixologiyaga oid adabiyotlar tahlili shunday xulosa qilishga izn beradi: o'qitishda bilish faoliyatini jonlantirish deganda tor ma'noda fikrlash ishining faolligi tushuniladi.

Bilish mustaqilligi quyidagi belgilarga ega:

- mustaqil fikrlay olish va unga intilish;
- yangi vaziyatlarda mo'ljalni ola bilishsa yoki yangi vazifalarni yechishga o'z yondashuvini topa bilish qobiliyati;

- o'zlashtirilayotgan bilimlarni nafaqat tushunishni istash, balki uni qo'lga kiritish usullarini topish;

- boshqa ishlarni baholashda tanqidiy yondashuv;

- o'z hukmlarining erkinligi.

O'quvchilarning bilish faoliyatini jonlantirish deganda, o'qituvchining talabalar tomonidan bilimlarni egallash, malaka va ko'nikmalarni shakllantirish, ulardan amaliyotda foydalanishga qiziqish uyg'otish faolligini, ijodkorligini, mustaqilligini oshirish maqsadida ta'limning mazmuni, shakli va usullari, metod va vositalarini takomillashtirishga qaratilgan faoliyati tushuniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.A. Adbullayeva, D.A.Ahatova. “Pedagogika” O'zbekiston Respublikasi Fanlar

akademiyasi Fan nashriyoti.

2. Matematika o'qitish metodikasi, Alixonov S. Toshkent, 1992y

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA TRIZ TEXNOLOGIYALARIDAN SAMARALI FOYDALANISH

Alkarov Shavkat

Jizzax viloyati Forish tumani, 43-umumta'lim maktabining boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi

Annotatsiya : *Ushbu maqolada boshlang'ich sinf darslarida Triz texnologiyalaridan foydalanish orqali o'quvchilarda kreativ fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish yo'llari keltirib o'tilgan*

Kalit so'zlar : *Triz texnologiyalari, qobiliyat, kreativlik, kreativ yondashuv*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются способы развития навыков творческого мышления учащихся с использованием технологии Триз в начальной школе.*

Ключевые слова: *Триз-технология, способность, креативность, творческий подход.*

Annotation: *This article discusses ways to develop students' creative thinking skills using Triz technology in elementary school.*

Keywords: *Triz technology, ability, creativity, creative approach*

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev xalq ta'limi tizimini rivojlantirish, pedagoglarning malakasi va jamiyatdagi nufuzini oshirish, yosh avlod ma'naviyatini yuksaltirish masalalariga alohida e'tibor qaratmoqda. O'tgan fursatda muallimlarning nufuzini oshirish bo'yicha bir qancha huquqiy-me'yoriy hujjatlar qabul qilindi. Oxirgi uch yilda pedagoglarning ish haqi bir necha barobarga oshirilgani, uzoq tumanlarga borib ishlayotgan pedagog kadrlar mehnatini rag'batlantirish bo'yichaaniq mezonlar belgilanib, ularga 50 foizgacha qo'shimcha oylik ustamalar to'lanayotgani, nafaqa yoshida ishlayotgan muallimlarga pensiyaning to'liq berilayotgani yoshlarning o'qituvchilikka bo'lgan qiziqishlarini oshirdi. Shu bilan birga "O'zbekistonsharoitida bugundan boshlab jamiyatdagi eng hurmatli inson muallimdir", deya barchanipedagoglarni hurmat qilishga chaqirdi, yurtimiz rahbari.

Jamiyatda muallimlarni eng hurmatli inson sifatida e'zozlash harakati boshlandi. Demakki, muallim zimmasiga juda katta mas'uliyat yuklandi. Mas'uliyatni his qilish uchun o'z ustimizda tinimsiz ishlashimiz, o'qib, izlanib, dunyoqarashimizni kengaytirishimiz, ma'rifatimiz, madaniyatimiz, ta'bir joiz bo'lsa, axloqimiz bilan nafaqato'quvchilar, balki xalqimiz mehriga sazovor bo'lishimiz kerak bo'ladi.

Bugun dunyoda yuz berayotgan jadal suratdagi ilmiy texnologik ozgarishlarni harakatga keltiruvchi kuch -- kreativlikdir. Atrofga boqsangiz, har tomonda inson ijodkorligining beqiyos va hayratlanarli namunalari uch kelasiz: elektron xizmatlar, virtual reallik, to'rtburchak tarvuzlar, tuproqsiz hosil olish... Bularning barchasi inson tasavvuri, tafakkuri mahsuli. Bugun biz uchun odatiy tuyulgan kitob, musiqa, bino, samolyot, hatto lampalar ham qachonlardir orzu va tasavvurda bo'lgan, keyinchalik aql-idrok samarasi o'laroq yaratilgan.

Kreativ yondashuv va yutuqlar dunyo bo'ylab fan va texnologiyadan tortib, falsafa, san'at va ijtimoiy fanlar kabi turli sohalarda insoniyat tamaddunini ilgari surgan. Kreativ fikrlash shunchaki tasodifiy g'oyalar berishdan kattaroq narsadir. U insonga ba'zan murakkab sharoitlarda, yanada yaxshiroq natijaga erishishga imkon beruvchi bilim va tajribagaasoslangan real ko'nikmadir. Butun dunyoda jamiyatlar va tashkilotlar muammolarni hal etishda innovatsion bilim va yaratuvchanlikka tobora ehtiyoj sezmoqda, bu esa, o'z navbatida, innovatsiya va kreativ fikrlashahamiyati niyanada kuchaytirmoqda. Kreativ fikrlash ta'siri butun jamiyatgasezilarli innovatsiya turlarining ortida turishi rost, lekin u ayni damda universal va tenglashtiruvchi xususiyatga ega fenomen hamdir, ya'ni harqanday shaxs, u yoki bu darajada, kreativ fikrlash qobiliyatiga ega. Kreativlik - bu bir vaqtning o'zida yangi va qadrlig'oyalarni yaratuvchi ijodkorlik qobiliyatidir.

Shaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirish uchun dastlab bu tushunchaningmazmunini bilish lozim. Kreativlik inglizcha "create" so'zidan olingan bo'lib, yaratish ma'nosini bildiradi. Kreativlik deganda insonning yangilik yaratish, muammolarni yechishga qaratilgan ijodiy qobiliyati tushuniladi. Uning tagzamidagi originallik, amaliylik, noodatiylik va erkinlik yotadi. Shuningdek, kreativ fikrlash muayyan

masala yuzasidan har tomonlama fikrlash, birnuqtaga turli yo‘nalishdan yondashishni anglatadi.

Kreativlik shaxsni rivojlantiruvchi kategoriya sifatida inson tafakkuri, ma‘naviyatining ajralmas qismi hisoblanadi, u shaxs ega bo‘lgan bilimlarning ko‘p qirrali ekanligida emas, balki yangi g‘oyalarga intilish, hayotiy muammolarni yechish jarayonida kutilmagan va noodatiy qarorlar chiqarishda namoyon bo‘ladi. Ya‘ni, berilgan bilimlarni takrorlash orqali kreativlikka erishib bo‘lmaydi, ijodiy fikrlash jarayonida yangi fikr, yangi g‘oyaning paydo bo‘lishi asosiy shartdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Mirziyoyev Sh.M. “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz” mavzusidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutqi. – T.: “O‘zbekiston”, 2016. – 56 b.

2. Mirziyoyev Sh.M. “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta‘minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovi” mavzusidagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma‘ruzasi. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 48 b.

3. PIRLS 2021 Assessment Framework. Ina V.S. Mullis, Michael O. Martin. International Association for the Evaluation of Educational Achievement (IEA), TIMSS & PIRLS International Study Center, Lynch School of Education, Boston College. 2019. www.timssandpirls.bc.edu.

4. PIRLS 2011 Assessment Framework. Ina V.S. Mullis, Michael O. Martin, Ann M. Kennedy, Kathleen L. Trong, Marian Sainsbury. International Association for the Evaluation of Educational Achievement (IEA), International Study Center, Lynch School of Education, Boston College Chestnut Hill. 2009.

5. Framework and Specifications for PIRLS Assessment 2001. Jay R. Pbell, Dana L. Kelly, Ina V.S. Mullis, Michael O. Martin, Marian Sainsbury. International Association for the Evaluation of Educational Achievement (IEA), International Study Center, Lynch School of Education, Chestnut Hill. 2001.

PEDAGOGLARNING O‘Z - O‘ZINI TARBIYALASHI IJODIY FAOLIYAT OMILI SIFATIDA

*Xodjabekova Muqaddam O‘tkirovna, Ismadiyarova Xurshida Gadayevna
Sirdaryo viloyati Oqoltin tumanidagi 17-maktabning boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchilari*

Bugungi axborot asri pedagogdan bilimlarni doimiy ravishda yangilab borish, paydo bo‘lgan muammolarga ijodiy yechim topish, ijtimoiy muhitga moslashish qobiliyati, faollik, boshqalar bilan o‘zaro hamkorlik, ilgari o‘zlashtirilgan usullarni takomillashtirishni talab qiladi. Yoshlarning bilim va tajribasidan to‘g‘ri foydalangan holda muayyan muammolarni hal qilishga yordam beradigan bu maxsus usul uchun mahorat kerak. Mahorat esa o‘zaro hamkorlik qilganda va o‘z ustida ishlaganda yaratiladi.

Pedagoglik faoliyati refleksiv xususiyat ya‘ni, o‘z – o‘zini tahlil va taftish etish, o‘z – o‘zini boshqarish orqali o‘zining kasbiy faoliyatga baho berish jarayoni tizimli ravishda rivojlanib boradi. Izlanuvchan pedagog vaqtni qadrllovchi, undan unumli foydalanishga intiluvchi bo‘lib, albatta, ijodkorlikka, o‘zida kreativ qobiliyatni shakllantirishga erishuvchi, eng muhimi o‘z – o‘ziga ishonuvchi shaxs hisoblanadiki, ko‘rib o‘tilgan jarayonning sintezi kasbiy o‘z – o‘zini tarbiyalashning mazmun – mohiyatini ifodalaydi. Ayni paytda izlanuvchi pedagog ijtimoiy faol, ma‘lum ma‘noda raqobatdosh hisoblanadi.

Mahoratli pedagoglar o‘z vaqtida iste‘dodli, iqtidorli o‘quvchilarni aniqlash, ularning iste‘dodini to‘g‘ri yo‘naltirish, ya‘ni turli to‘garak ishlariga jalb etish, mustaqil ta‘limni asosga qo‘yish orqali ijodiy faoliyatning mezonini ko‘rsatadi.

Kasbiy o‘z – o‘zini tarbiyalash mazmunida har bir pedagog o‘z – o‘ziga talabchan bo‘la olmasa, muammoli vaziyatlar yechimida qiynalsa, analitek tafakkuri sayozlik qilsa, undagi ijodkorlik, izlanuvchanlik so‘na boshlaydi va bu jihatlar albatta uning faoliyatida salbiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Soha mutaxassisi faoliyatini baholashda asosiy mezon kompetentlik, ya'ni daxldorlik hisoblanib, bu jarayon mutaxassisning faoliyati davomida shakllantirilmas ekan, kelgusida — professionallik ya'ni — o'z sohasining ustasi, mahoratli kasb egasi bo'lish qiyin kechadi.

Demak, ijodkor shaxs sifatida mutaxassisning bilim, ko'nikma va malakalarni egallashi, uning kasbiy o'z – o'zini tarbiyalashi mazmunida ma'naviy – axloqiy qiyofasining shakllanishi bilan uyg'un holda amalga oshuvi talab etiladi.

Izlanishlarimizning ko'rsatishicha, yosh kadrlarni rahbarlar pedagogik ilk faoliyatlarini boshlashlaridanoq ijodiy faoliyatga jalb etish, "Ustoz-shogird" an'anasiga qo'ra mahoratli ustozga birlashtirish, to'g'ri yo'naltira olish masalasi yetakchi omillardan biri hisoblanadi. Ana shunda kutilgan natijaga erishish mumkin.

O'qituvchi o'z-o'zini tarbiyalashi uchun, avvalo o'zini atroflicha chukur o'rganishi, o'z ishidagi yutuk va kamchiliklarni ko'ra olishi kerak. O'z-o'zini o'rganish va boshqa kishini anglash uchun xam zarurdir. Boshqa yutuklarni o'rganmay, o'zini boshkalar bilan qiyos kilmay turib, o'zini shaxs sifatida o'rganish mumkin emas. O'zini anglash, o'zini baxolash xususiyati boshqa kishilar bilan munosabat protsessida, birgalikdagi faoliyat vaktida tarkib topadi.

Shuni aytish joizki, kuplab insonlar uzining bebaxo vaktini bekorga o'tkazib yuboradi.

Inson o'z odatlarning bir hillik kun tartibi hukimronligi ta'siriga kirib, o'zining rejalarini keyingi kunga yoki haftaga yoki yillarga qoldira boshlaydi. O'z-o'zini ishontirish, sobit qadam iroda orqaligina o'zining qobiliyatlarini namayon etishga erishish mumkin. O'z-uzini tarbiyalash o'z faoliyatini tahlil kilishdan va o'z shaxsini takomillashtirishdan boshlanadi. O'qituvchi doimiy ravishda o'z ustida ishlashi va shu bilan birga o'z-o'zini tarbiyalashi shartdir. O'z-o'zini tarbiyalashda esa kuydagi uslublardan foydalanadi:

1. O'z-o'zini bilish:

a) o'zini kuzatish, b) o'z xarakterlarini tahlil etishi, v) o'z-o'zini sinashi, g) hamkasblari, o'quvchilarning fikrini tushuna olishi

2. O'ziga baho berish:

a) o'zini kuzatish, b) o'ziga xarakteristika berish, v) o'z-o'zini takdirlash.

Yosh kadrlarni ijodiy faoliyatga jalb etish masalasi quyidagi pedagogik printsiplarga asoslanadi. Bular:

* Hamijodkorlik printsiipi – rahbar, ya'ni ustoz va shogirdni hamkorlikda ijod qilishi, tanlangan mavzu tevaragida birgalikda izlanish olib borish, innovatsion yondoshuvlar asosida yangi ilmiy faktlarni qo'lga kiritish va ayni paytda yosh kadrlarning ijodiy qobiliyati hamda madaniyatini o'stirib borishdan iborat.

* Ilmiylik printsiipi- mavzu yuzasidan tegishli tadqiqot metodikasini ishlab chiqish va uning ijro muddatlarini belgilash, tajriba – sinov ishlari olib borish hamda uning statistik – matematik ishonchliligini aniqlab tegishli xulosalar chiqarish.

* Integratsiya printsiipi- o'quv- tarbiya jarayonini ilmiy ishlab chiqarish amaliyotiga tatbiq etish hamda uning samaradorligini tahlil etish.

* Kafolatli natijani qo'lga kiritish printsiipi – asosiy e'tibor ijtimoiy faol va raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga qaratilib, ijodkor shaxsning kasbiy o'z-o'zini tarbiyalashi takomilida ta'lim sifat, uning ilmiy – ijodiy faoliyat bilan bog'liqligi yosh kadrning kasbiy tarbiyalanganlik darajasi bilan o'z e'tirofini topishi lozim.

O'z-o'zini tarbiyalash tashabbuskorlik va mustakillikka undaydi. O'z shaxsiy fazilatlarini taxlil kilishga, xatti-xarakterlarini uylashga o'rgatadi. O'z-o'zini nazorat kilish uchun o'zining yurish-turishi, intizomi, ijobiy odatlarining ortib borishi va aksincha, salbiy odatlarining kamayib borishini kuzatib boradi. O'z-o'zini baxolash o'qituvchini, o'z imkoniyatlarini baxolashda, o'zidan qoniqish hosil kilishda yordam beradi.

O'qituvchi o'z-o'zini tarbiyalash bilan birga o'z ustida tinmay ishlab, o'zining g'oyaviy-siyosiy, ilmiy, metodik, psixologik ongini doimiy ravishda o'stirib va pedagogik maxoratini takomillashtirib boradi.

Demak, kasb kamolotiga erishish bevosita ijodiy faoliyat rivoji bilan chambarchas bog'liqlik, bu jarayonning tizimli ravishda amalga oshishi ustoz murabbiylar faoliyati bilan bog'liq hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdukarimov H. Kasbiy pedagogik faoliyat. – T.: O‘qituvchi, 2010.

BOSHLANG‘ICH TA’LIM O‘QUVCHILARI NUTQINI RIVOJLANTIRISHDA SHARQ MUTAFAKKIRLARI MEROSIDAN FOYDALANISH

Raxmonberdiyeva Nasiba Xasilovna, Abdurasulova Iqboloy

Sirdaryo viloyati Sayxunobod tumanidagi 41-IDUM boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisi

Sirdaryo viloyati Sirdaryo tumanidagi 27-maktabning boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisi

Yosh avlodning barkamol, yetuk, salohiyatli insonlar bo‘lib kamolga yetishi uchun ona tilining barcha boyliklaridan, uning imkoniyatlaridan foydalanish zarur. Shuning uchun ham maktabgacha ta’lim muassasasining eng muhim vazifalaridan biri milliy adabiy til asosida bolalarning ravon nutqini shakllantirish va rivojlantirishdan iboratdir.

Kuzatishlardan ma’lumki, kichik yoshdagi bolalar nutqi tafakkurni rivojlantirish bilan bog‘liq ravishda amalga oshiriladi. Tilni to‘g‘ri o‘rganish, uning grammatik tuzilishiga e’tibor berib so‘zlashish, bolalarda erkin muhokama yuritish, savollar berish, boshqalardan eshitgan fikrlari yuzasidan xulosalar chiqarish, narsa va hodisalar o‘rtasidagi bog‘lanishning turli ko‘rinishlarini anglab yetishga olib keladi. Ta’lim va tarbiya muammosi juda qadim zamonlardan beri mavjud. Buni o‘rta asrlardagi G‘arb va Sharq mutafakkirlarining asarlarida ham juda ko‘p uchratishimiz mumkin. O‘sha davrlarning buyuk mutafakkirlari Abu Nasr al-Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Jaloliddin Dovoniy, Alisher Navoiy va boshqa olim va allomalarning jahon fani, madaniyatiga, rivojiga qo‘shgan beqiyos xossalarini hammamiz yaxshi bilamiz. Monologik nutq bu — so‘zlovchining o‘ziga qaratilgan, boshqa shaxsning tinglash va javob berishini e’tiborda tutmaydigan nutq shaklidir. Ayrim dramatik asarlarda personajning monologik nutqi tomoshabinga qaratilgan bo‘ladi. Monologik nutq uchun, odatda, tuzilish va mazmun jihatdan o‘zaro bog‘liq, o‘ziga xos kompozitsion qurilishga va mantiqiy tugallikka ega bo‘lgan matnning ma’lum bo‘lagi xos bo‘ladi. Monologik nutq og‘zaki (nutq bayon qilish) yoki yozma (publitsistika, memuarlar, kundaliklar) shaklida ifodalanishi mumkin.

Monologik nutqning og‘zaki shaklida ohang (intonatsiya) muhim o‘rin

egallaydi, yozma monologik nutqda esa ohang matnning sintaktik konstruksiyasiga, mantiqiy urg‘u tushuvchi so‘zlarning joylashish o‘rniga bog‘liq. Monologik nutq notiqning asosiy nutqiy shakllaridan hisoblanadi; lingvostilistik usul bo‘lib, bir qancha turlari mavjud. Masalan, ta’sir qiluvchi (targ‘ib qiluvchi) monologik nutq, dramatik monologik nutq, lirik monologik nutq, hikoya qiluvchi (axborot beruvchi)ning ochiq nutq va ichki nutq kabi ko‘rinishlari mavjud; ochiq monologik nutqda personaj o‘z nutqini ovoz chiqarib bayon etadi; Ichki monologik nutqda monolog personajning ichki nutqi, o‘ylari shaklida namoyon bo‘ladi [2]. Bola nutqining rivoji ko‘p jihatdan uning ruhiyatiga, sog‘lom, tetik o‘sishiga bog‘liq. Axloqiy sifatlariga o‘quv dasturini o‘zlashtirishida me’yorli bajarilishining ta’minlanishiga, yo‘qlamalarning monandligiga bog‘liqdir. Bu masalalar maktabgacha ta’lim tashkilotlarida o‘z yechimi ifodasini topishi va aqli zaif bolalarda monologik nutqni shakllantirilishi, o‘z ona tilida ravon gapira oladigan qilib tarbiyalash soha olimlari oldida turgan hozirgi kunning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Nutqni o‘rgatish muammosi doimo maktabgacha didaktikaning yetakchi muammolari qatorida turgan va bundan keyin ham shunday bo‘lib qoladi. Bolaning ona tilini o‘zlashtirishida o‘qitishning tutgan ahamiyati to‘g‘risida Sharq allomalaridan Ibn Sino,

Alisher Navoiy va G‘arb allomalaridan Ya.A.Komenskiy, K.D.Ushinskiy,

Ye.I.Tixeyeva, A.P.Usova, L.A.Ренъевskiy va boshqa mutafakkirlar tomonidan kayd etilgan. Nutqni rivojlantirish metodikasi sovet davriga kelib mustaqil fan sifatida shakllandi. Ushbu davrning dastlabki yillaridayoq (1918) nafaqat Rossiyada, balki bolalar milliy tilda o‘qitiladigan barcha milliy hududlarda ham ommaviy ravishda bolalar bog‘chalarini tashkil qilish va bolalarni bog‘chalarga keng jalb qilish ommaviy tarzda amalga oshirila boshlandi. Umumiy maktabgacha ta’lim nazariyasi vujudga keldi. Bolalar nutqini rivojlantirishning mazmuni va uning eng samarali yo‘llarini aniqlash vazifasi paydo bo‘ldi. Ibn Sino o‘z bitiklaridan birida bolalar bilan baqirmasdan, xotirjamlik bilan va uning shaxsiga tegmagan holda suhbatlashish, suhbatni hikoyalar va afsonalardan boshlash

zarurligini ta'kidlagan. Ye.N.Vodovozova esa ertak bolalarning boy kuzatishlari va bilimlariga tayanadi, u bolalar xayolotini rivojlantiradi, bolalar nutqining boyishiga ko'maklashadi, ularga xalq iboralarini, nutq oborotlarini oddiy va jonli obrazlarda yodda saqlab qolishga yordam beradi, ma'naviy jihatdan tarbiyalashda ko'maklashadi. Vodovozovaning "Aqliy rivojlanish" nomli asarida maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirish uchun imkon doirasidagi va foydali bo'lgan xalq ertaklari turkumi bayon qilingan. K.D.Ushinskiy o'zining tadqiqotlarida til va uning bola ruhiyati shakllanishida tutgan o'rni haqidagi ta'limoti nutqni rivojlantirish metodikasini fanining mustaqil fan sifatida ajralib chiqishiga sababchi bo'ldi.

Ma'lumki, ravon nutqda bolalarning boshqalar bilan voqea-hodisalar ta'siri natijasida o'zaro munosabati, aloqasi ifodalanadi. Bu ifoda bir yoki bir necha jumalalarda o'z aksini topishi mumkin. Ravon nutqning shakllanishida bolaning tevarak-atrof bilan munosabati, muomala shakli katta rol o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yo'ldoshev M. Lingvopoetik tahlil tamoyillari. O'zbek tilshunosligining dolzarb muammolari. To'plam. -T. , 2007. 38-42-b.
2. Ahmedova H. O'zbek tili o'qitishning zamonaviy texnologiyalari. – T.: 2012.
3. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. –Toshkent: Universitet, 2006. – 397 b.
4. Yo'ldoshev J. G' ., Usmonov S. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. – T. : O'qituvchi, 2004. - 101b.

O'QITUVCHI KASBIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY YO'LLARI

Babayeva Dilfuza

Sirdaryo viloyati Guliston shahar 6-maktabning O'IBDO'

Yangi zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish fan va amaliyot uchun ta'lim tizimiga jiddiy o'zgarishlar kiritish vazifasini qo'yimoqda. Shunga ko'ra, ta'lim sohasidagi o'zgarishlar o'qituvchining malakasini, mahoratini va uning kasbiy kompetensiyasini oshirish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Buning uchun ta'lim jarayoniga, o'qituvchi shaxsini tarbiyalash va shakllantirish amaliyotiga samarali innovatsion pedagogik texnologiyalarni izlash va joriy etishni faollashtirish zarur. O'qituvchi muvaffaqiyatining ustuvor shartlaridan biri bu- pedagogik faoliyat uchun zarur bo'lgan o'z-o'zini rivojlantirish va uzluksiz malaka oshirishdir.

O'z kamchiliklarini ko'ra bilgan inson yuksalishda hech qachon to'xtamaydi. Muvaffaqiyatli pedagogik faoliyatning asosiy shartlaridan biri - o'qituvchining shaxsiy yetukligidir. Bunday o'qituvchi o'zining shaxsiy chegaralarini saqlab qolgan holda, barcha yangi, noma'lum narsalarga ochiq bo'ladi. U o'zini biladi va yangiliklarni qabul qiladi, bu esa o'z kamchiliklarini anglagan holda yangiliklarni izlaydi, qabul qiladi va faoliyatiga tadbiq etadi. Zamonaviy o'qituvchi doimiy harakatda bo'lib, o'quvchilarida kashfiyot, bilim va tadqiqotga bo'lgan intilishni qo'llab-quvvatlaydi. U hamma narsani bilishi shart emas, u har doim har qanday savollarga javob izlashga. Zamonaviy pedagog, zamon talablariga to'laqonli javob berishi uchun qanday bo'lishi kerak? Zamonaviy o'qituvchi bo'lish qiyin, ammo pedagogda xoxish-istak bo'sa albatta mumkin. Asosiysi, o'qituvchi o'zini yetuk shaxs sifatida bilishi, xatosini, kamchiligini, bo'shliqlarini ko'ra bilishi, doimo bilim olishga, o'z-o'zini tarbiyalashga, rivojlantirishga, o'z ustida tinimsiz ishlashga tayyor bo'lishi kerak. Zamonaviy o'qituvchi bu bilan hech qachon izlanishdan to'xtamaslik juda muhim, oldinga intilish kerak. Zamonaviy jamiyat- hayotining ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarini o'zgartirish, ta'lim tizimini yangilash mutaxassislarning va ayniqsa, bolalar bilan ishlaydigan mutaxassis o'qituvchilarning sifat jihatidan yangi kasbiy darajasini talab qiladi.

Shu munosabat bilan kasbiy muammolarni hal qilishga nazariy va amaliy jihatdan tayyor, kasbiy faoliyat tizimini yaratish, qo'llash va moslashtirishga qodir yuqori malakali kadrlarni tayyorlash hozirgi davrning kun tartibidagi global mavzularidan biri hisoblanadi. Bugungi kunda jamiyat o'qituvchi shaxsi va faoliyatiga tubdan yangi talablarni qo'yimoqda, ulardan biri uning kasbiy

mahoratini shakllantirishdir. O'qituvchining ijtimoiy mavqei, kasbiy obro'si ko'p jihatdan pedagogning o'ziga bog'liq: uning hayotiy pozitsiyasi, insoniy fazilatlari, bilimdonligi, kreativligi, kompetentligi pedagogik faoliyatining asosiy sifatidir.

Kompetentsiya bilimlarning to'liq zaxirasini emas: sanalar, faktlar, aniq ma'lumotlar, shaxsiy yetuklik, o'z pozitsiyasi, tanlov qilish, qaror qabul qilish, mas'uliyatni o'z zimmasiga olish va sodir bo'layotgan voqealardan xabardor bo'lish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Shuni tushunish kerakki, kompetentsiya mutaxassis yoki shaxsning rivojlanishidagi mavhum nuqta emas, aksincha, bu keng qamrovli jarayon: o'sish, doimiy o'rganish, kengaytirish, chuqurlashtirish, o'z bilimlarini tizimlashtirish va hayotiy ko'nikmalar. Kasbiy kompetentsiya - bu muvaffaqiyatli pedagogik faoliyati uchun zarur bo'lgan kasbiy va shaxsiy fazilatlar majmui. Pedagogik faoliyatni, pedagogik muloqotni yetarlicha yuqori darajada amalga oshiradigan, ta'lim jarayonida izchil yuqori natijalarga erishadigan, yangiliklarni tadbiiq etadigan bunday o'qituvchini kasbiy malakali deb atash mumkin. Kasbiy kompetentsiyani rivojlantirish - bu ijodiy individuallikni rivojlantirish, pedagogik innovatsiyalarga moyillikni shakllantirish, o'zgaruvchan pedagogik muhitga moslashish qobiliyatidir.

Kasbiy kompetentsiyani shakllantirish bosqichlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

1. o'z-o'zini tahlil qilish va ehtiyojni anglash;
2. o'z-o'zini rivojlantirishni rejalashtirish (maqsadlar, vazifalar, yechimlar);
3. tahlil qilish, o'z-o'zini tuzatish, o'zini namoyon qilish.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA BADIY ADABIYOTNING O'RNI

Saitqulova Ma'suma Inoyatullayevna, Mamatova Gulxayo Umarkulovna

Sirdaryo viloyati Oqoltin tumani 17-IDUM boshlang'ich sinf o'qituvchilari

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy qobiliyatini rivojlantirish va mamlakatning itimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bilan uzviy bog'liq bo'lgan yangiliklarni kiritishdir.

Kalit so'zlar: innovatsiya, pedagogik jarayon, ijodiy fikrlash, badiiy adabiyot, axborot texnologiya, individual rivojlanish

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, badiiy o'qishdarslarida bolaning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar.

Boshlang'ich maktab yoshidagi o'quvchilar shunday bir davrdalarki, bu vaqtda ularda nafaqat jamiyatda yashash qobiliyati, balki ijodiy fikrlash ham shakllantiriladi.



Ayrim hollarda biz ustozlar bolani o'qishga o'rgatish asosiy vazifa deb bilamiz. Biroq, boladagi iste'dodning yuzaga chiqmasligi asosiy muammo bo'lib qolmoqda.

Badiiy asarga bolaning ijodiy qobiliyati rivojlanishi muammosini hal qiluvchi vosita sifatida qarash mumkin. Aslida, ijodiy qobiliyat qobiliyatlarning standart tushunchasidan tashqariga chiqish qobiliyatini anglatadi. Badiiy asar o'qish darslarida o'qituvchi tomonidan qo'yilgan maqsadga bog'liq ravishda, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish jarayoni turli yo'llar bilan amalga oshirilishi mumkin.

Boshlang'ich sinflarda yozma va og'zaki nutqni rivojlantirishning innovatsion usuli sifatida turli xil o'yinlardan, ko'rgazmali vositalardan foydalaniladi.

4-sinf “O‘qish” darsligida yozuvchi Murod Xidirning “Oydin kecha” hikoyasi

misolida o‘quvchilarning ichki imkoniyatlarini ochishda o‘z isbotini topgan metodlar: suhbat, “Bilimlar chashmasi”metodi, “Sehrli fasllar” metodi, tushuntirish, ko‘rsatish, na‘muna, og‘zaki va yozma bayon qilish (debat), juftlikda ishlash, test, zanjir metodi, “To‘g‘ri va noto‘g‘ri mulohaza” metodi, “Kimga tegishli” mashqi.

O‘tilgan mavzu “Yoz o‘tadi soz” bo‘limidagi Shukur Sa‘dullaning “Yoz” she‘rini ifodali tarzda yodlab kelish. Savollarga javob berish. Bunda “Aqliy hujum” va “She‘rni davom ettir” metodidan foydalanish.

O‘quvchilar bilan dastlab yoz fasli haqida qisqacha suhbat uyushtiriladi. Suhbat “Sehrli fasllar” ko‘rgazmasi orqali olib boriladi. O‘quvchilar uy vazifasini so‘rashda yoz faslining topshirig‘i borligi aytiladi va o‘quvchilarga sovg‘a tariqasidagi topshiriq guruhlariga tarqatiladi. Bu topshiriqlarni o‘quvchilar juftlikda ishlashadi.



Yashil qutida - “Yoz ” she‘rini yoddan aytib bering.

Siyohrang qutida – “Yoz ” she‘ridagi qofiyadosh so‘zlarni yozing.

Ko‘k qutida - “Ko‘klam”, “Ko‘kda ” so‘zlariga manodosh so‘z topish topshirig‘i yozilgan bo‘ladi.

O‘quvchilar topshiriqni quyidagi tartibda bajaradilar.

O‘quvchilar topshiriqni bajarib bo‘lishgach belgilangan miqdorda ko‘zalariga chashmadan suv oladilar.

O‘quvchilar sehrli kuz faslida sayohatini davom ettiradilar. O‘qituvchi yangi mavzuni mavzuga oid slaydlar orqali tushuntirib beradi.

Mavzuni tushuntirilgandan so‘ng o‘quvchilar kuz faslining topshirig‘ini bajaradilar. Har bir guruhdan bittadan o‘quvchi chiqib, maktub ichidagi topshiriqni oladilar.

“Oy” guruhi: hikoyadan nechta meva nomi keltirilgan?

“Yulduz” guruhi: hikoyada nechta hayvon nomi keltirilgan?

“Quyosh” guruhi: hikoyada keltirilgan notanish so‘zlarni yozing.

Faol qatnashgan guruh o‘quvchilari rag‘batlantirilib, chashmadan suv olish imkoniyatiga ega bo‘lishadi.

“Dam olishdaqiqasi” o‘tkaziladi

Yangi mavzu “Zanjir” metodidan foydalanib, o‘quvchilarga o‘qitiladi.

Faol o‘quvchilar rag‘batlantiriladi. Ularga “Bilimlar chashmasidan” suv olish imkoniyati taqdim etiladi.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.

Ru metoddan keyin o‘quvchilardan test topshirig‘i olinadi

IPT

“Kimga tegishli” mashqi.

T/r	Hikoya qahramonlariga oid ma‘lumotlar va g
1	Soylikdan o‘tib, to‘g‘ri qirdagi chakalakzorga yo‘l
2	Manavi ko‘ksultonni qara-ya, salkam olxo‘ridek k
3	Dam oldingmi, tamom, bo‘shashasan
4	Yo‘lda zerikmaslik uchun Nosir vaj izladi
5	Endi yurish befoyda
6	Kunduzi tanasi kovak tutni ko‘rgan edik

1. Ozod bilan Nosir.... emasmi, darhol til biriktirib, sayrga chiqib ketdi. Nuqtalar o‘rniga so‘zlarni to‘g‘ri qo‘ying.

***Sinf dosh**

***O‘rtoq**

***Hamqishloq**

3. Ikki do‘stning sayrga chiqishdan maqsadlari nima edi?

- *Cho‘qqini zabt etish
- *Meva terish
- *Mehmonga borish

4. Ular qaysi daraxt kovagida tunamoqchi bo‘lishdi?

- *Chinor daraxti
- *Tut daraxti
- *Olma daraxti

5. bekordan-bekorga yomonlik qilavermaydi. Nuqtalar o‘rnida qaysi jonivorning nomi yashirilgan?

- *Ilon
- *To‘ng‘iz
- *Echkepar

- 1.Matchonov S. va boshqalar. "O'qish" kitobi, 4-sinf. –Toshkent.: "Yangiyo'l poligraf servis", 2020. 149-152-betlar.
- 2.Vigotskiy L.S. Bola rivojlanishining psixologiya si.-Moskva.: "Eksmo", 2010. 512 b.

BOSHLANG'ICH SINFLARDA XALQ OG'ZAKI IJODI ORQALI AXLOQIY SIFATLARINI SHAKLLANTIRISH OMILLARI

Qaraboyev Maxmud

Sirdaryo viloyati Sirdaryo tumanidagi 17-maktabning boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi

Boshlang'ich ta'lim - bu bola rivojlanishining alohida bosqichi. Ta'lim faoliyati birinchi marta etakchi bo'ladi. Ammo boshlang'ich sinf o'quvchisi ham o'ynashni yaxshi ko'radigan bola. Darsdagi bolalar qiziquvchan, qulay, ammo shu bilan birga fikrlashni, o'quv materialini bilan ishlashni, yangi bilimlarni o'zlashtirishni o'rganishlari uchun ishingizni qanday tashkil qilish kerak. Zamonaviy jamiyat o'zgaruvchan dunyoda to'liq muvaffaqiyatli yashay oladigan va ishlay oladigan, mustaqil ravishda tanlash, nostandart qaror qabul qilishga qodir insonga muhtoj.

Farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlashga ega bo'lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish ta'lim-tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo'lishi lozim» deb uqtirishi bejiz emas edi. Xalq bisotidagi eng yaxshi ertaklar, tabarruk so'zlar, duo-olqishlar ham tarbiyaga qaratilgan. Mustaqillikka erishib, o'zimizning yorqin milliy istiqbolimizga ega bo'lgach, umuminsoniy va o'zbekona qadriyatlarini har tomonlama chuqurroq anglay boshladik.

Ma'lumki, I–IV sinf o'qituvchisi o'quvchilarni kitob ustida ishlashga o'rgatadi, ularning obrazli mushohadalariga ta'sir etadi va ma'lum maqsadga yo'naltiradi, o'quvchilar bilan obrazlarning axloqiy sifatlarini o'rganish davomida mulohaza, muhokama yuritishga yo'llab, tarbiyaviy maqsadni amalga oshiradi.

Boshlang'ich sinflarda badiiy asarlarning eng bolalarbop turi ertaklardir. O'quvchilarni badiiy adabiyot olamiga olib kirishda ertaklar asosiy vosita bo'lib hisoblanadi. I–IV sinf darsliklaridagi eng qiziqarli ertaklar hayvonlar, qushlar, turli hasharotlar obrazlari bilan aloqadordir. Bu ertaklarda majoziylik asosiy o'rinni egallaydi. «Majoziy ertaklarda majoz poetik vosita sifatida hal qiluvchi hisoblanadi. Qatnashuvchi personajlar faqat hayvonlar bo'lib, doimo inson tilida so'zlab, o'zaro munosabatda bo'ladilar. Hayvonlarning o'zaro to'qnashuvi orqali insoniy munosabatlar ochiladi. Ertaklarda hayvonlar dunyosi shartli, aslida esa inson psixologiyasi hikoya qilinadi. Ular mazmunida xalqning ideal axloq va ma'naviy tushunchalari ilgari suriladi» .

Ertaklarni o'rganish hayotni obrazlar orqali idrok etishga yordam beradi, ular bolalar qalbida chuqur iz qoldiradi. Ertaklar o'quvchilarga axloqiy va estetik tarbiya berishning muhim vositasidir.

Darsliklardagi hayvonlar obrazi bilan bog'liq ertaklar alohida ajralib turadi. «Hayvonlar haqidagi ertaklarni kichiklar ham kattalar ham sevishadi. Ulardagi sodda syujetlar yengil hazm qilinadi.

Mushuk, xo'roz, qo'yon kabi tanish obrazlar inson ongida tez idrok qilinadi va unda hissiy aksado uyg'otadi. Hayotdagi oddiy hayvonlarning poetik obrazlari olalarni olamga yangicha ko'z bilan qarashga da'vat etadi.

Darsliklarda tanlab berilgan ertaklarning mavzu va g'oyasi hayot qadar rang-barangdir. Mehnatsevarlik va dangasalik, rostgo'ylik va yolg'onchilik, vafodorlik va xiyonat, rahmdillik va shafqatsizlik, saxiylik a axillik, donolik va laqmalik, ezgulik va yovuzlik, diyonat va vijdotsizlik, ahillik va janjalkashlik, qanoatlilik va ochko'zlik kabi ko'plab voqealarni o'z ichiga olgan ertak matnlari bolalarni tarbiyalashda eng muhim didaktik vosita sifatida xizmat qila oladi. Ushbu mavzularni o'z ichiga qamrab olgan ertaklar I sinfdan boshlab toki IV sinf darsligida ham davom etadi. Ular bolalarning yosh xususiyatlariga mos holda joylashtirilgan. Albatta, ertak qahramonlari nomlarining ma'nosiga tushunmay turib, uning mazmuni va g'oyasini anglab olish ancha mushkullik tug'diradi.

Bolalar bu ikki jonzotni umuman ko'rmagan bo'lishlari mumkin. Agarda bola ularga ushbu hasharotlarning rasmi ko'rsatilsa va imkoniyat doirasida ularning jonli qiyofasi namoyish etilsa, ish

oson ko'chadi. Bu jarayonda maktabda tashkil etilgan jonli burchak yoki zoomuzeydan foydalanish yanada yaxshi natija beradi. Ertaklardagi hayvonot va hasharotga aloqador jonzotlarning nomlari va qiyofasi masalasini yoritishda hamisha ko'rgazmalilikka asoslanish o'qituvchining birinchi galdagi vazifasi bo'lib qolishi kerak.

DARSLARDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH ORQALI DARS SAMARADORLIGIGA ERISHISH

Shafiyeva Dilshoda Karimjonovna, Sherova Dilnoza Shodmonovna

Sirdaryo tumanidagi 17-maktabning Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari

Pedagogik texnologiyalar mohiyati o'quvchiga bilim berish, ularni to'liq o'zlashtirishdan iborat. Ta'lim muassasalarida pedagogik texnologiyalar asosida dars o'tishda asosiy talab o'quvchining hayotiy tajribasi, avval o'zlashtirgan bilimi va qiziqishlari asosida yangi bilim berishni ko'zda tutadi. Pedagogik jarayonning mohiyati o'qituvchi va o'quvchining hamkorlikdagi faoliyati mazmunida aks etadi, mazkur jarayonda pedagog quvchiga yuzaga kelgan qiyinchiliklarni yengishga yordam beradi. Bu o'rinda ta'lim maqsadlarining belgilanishi (kimga va nima uchun?), ta'lim mazmunini tanlash va ishlab chiqish (nima?), ta'lim jarayonlarini tashkil qilish (qanday?), ta'lim metodi va vositalarining belgilanishi (nimalar yordamida?), shuningdek, o'quvchilarning ko'nikma va malaka darajasi (kim?), erishilgan natijalarni baholash metodi (qanday yo'l bilan?) inobatga olinishi lozim. Keltirilgan mezonlarning majmuaviy tarzda qo'llanishi o'quv jarayonining mohiyati va texnologiyasini belgilab beradi. Ta'lim jarayoniga ilg'or pedagogik texnologiyalarni tatbiq etishda pedagogic vazifaning qo'yilishi va uni hal etishga alohida e'tibor berilishi zarur. Qachonki maqsad va vazifalar aniq belgilab olinsa, ularni amalga oshirish yo'llari to'g'ri tanlansa darslarda samaradorlikka erishiladi.

Pedagogik vazifani belgilashda quyidagilarni inobatga olish lozim:

- ta'lim maqsadlari asosida o'quv predmeti mazmunini aniqlash;
- o'quv predmetining axborot tuzilmasini ishlab chiqish va uni o'quv mashg'ulotlari tizimi ko'rinishida ifodalash;
- o'quvchilarning o'quv mashg'ulotlarini o'zlashtirish darajalarini avvaldan belgilash;
- o'quvchilarning dastlabki bilim darajasini aniqlash;
- moddiy baza hamda ta'limning tashkiliy shakllariga qo'yiladigan chegaralarni belgilash.

Pedagogik vazifalarning hal etilishini ta'minlovchi o'qitish texnologiyasini loyihalashga qaratilgan texnologiyalardan barcha ta'lim muassasalarida samarali foydalanish biz kutgan darajada emas, chunki ayni vaqtda yuqorida sanab o'tilgan pedagogik texnologiyalarning mazmun-mohiyati, maqsadi, mexanizmini barcha pedagoglar to'laqonli biladi, ularni ta'lim jarayoniga samarali tarzda tatbiq etadi, deya olmaymiz.

Boshlang'ich ta'limda yangi pedagogik texnologiyalar asosiy yo'llardan hisoblanadi, chunki:

- o'quvchining talabi, moyilligi, istakxohishi, uning imkoniyatlari darajasida qondiriladi;
- o'quvchining mehnat mas'uliyati, javobgarligi, burchi oshadi;
- bilimlarni mustaqil egallash, erkinfikrlash, ijodiy yondashuv malakalari shakllanadi;
- har bir yangilikni o'zi tatbiq etish, o'zi kashf etishga intiladi;
- pedagogik texnologiyalarda muayyan muammoni ishlab chiqish ishtirokchilar o'rtasida taqsimlanadi;

– umumta'lim ta'lim dasturi qatnashchisip potentsial imkoniyatlarini o'zaro hamkorlik asosida, barchaning sa'y-harakatlarini integratsiyalash orqali rivojlantirishga tayaniladi;

– boshlang'ich ta'limda pedagogik texnologiyalardan barcha fanlar kesimida ta'lim berish jarayonida foydalanish eng samarali vositalardan biri hisoblanadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, boshlang'ich sinf o'quv jarayonini yuqorida ta'kidlangan pedagogik xususiyatlarni inobatga olgan holda tashkil etish dars samaradorligini oshiradi, vaqtni tejaydi, kutilgan pirovard natijaning qo'lga kiritilishini kafolatlaydi. Bunda pedagogik texnologiyaning boshqaruvchanligi shundan iboratki, u orqali ta'lim jarayonida rejalashtirish, tashxis qilish, natijalash, tuzatish kiritish imkoniyatlari mavjud. bo'lganligi sababli o'quvchilarda dars

jarayonini yaxshi tashkil etishga qulay muhit shakllantirish bilan bog'liq jarayondir. Umumta'lim tizimida pedagogik texnologiyalardan amaliy foydalanishning samarali bo'lishi uchun pedagogik texnologiyadan dars jarayonida oqilona foydalanilsa, o'quvchilarning bilimlarini yuqori darajada rivojlantirish uchun xizmat qiladi.

YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR- DARS SAMARADORLIGINING MUHUM OMILI

*Eshonqulova Mastura Saidmuradovna , Qlicheva Oydin Olimjon qizi
Sirdaryo tumanidagi 17-maktabning biologiya fani o'qituvchilari*

Ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanish samaradorligi o'zining ko'p qirraliligi bilan namoyon bo'lmoqda. «O'quvchining ruhiy holatlari, uning kelajakda rivojlanishi (yoki pasayishi) qanday hisobga olinyapti?», degan savollarning yechimiga bog'liq. Shu jihatdan olganda, pedagogik texnologiya shaxs rivojlanishi bosqichlarini loyihalashtirish, tashxislash va differentsiyalash imkoniyatlariga ega.

Ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida darsni tashkil etishda o'quvchi shaxsi asosiy o'rinda turishi, ya'ni o'quvchi ta'lim markazida bo'lishi kerak. Bizda esa hali-hanuz bosh rolda o'qituvchi bo'lishi holatlari kuzatilmoqda. U axborot berish, darsni tezroq o'tish, o'quvchilarni tezroq o'qitish bilan ovora, ammo o'quvchilarning qiziqishlari, bilim darajasi, yangiliklarni qabul qilishi, tushunishi turlicha. Bularni hisobga olish, qanday bo'lsa-da har bir o'quvchini darsda faol ishtirok etishga jalb etish lozim. Dars jarayonida o'quvchi harakatlanuvchi asosiy kuchga ega bo'lishi, ya'ni u o'qish, o'rganish, o'zlashtirish va mutolaa qilishda faol ishtirokchi bo'lishi kerak.

O'qituvchi esa o'quvchilarga o'qitishdan o'rganishga, bilim berishdan bilimlarni mustaqil egallashga ko'maklashishi zarur. Shu bilan birga, ularni faol ishtirokchi bo'lish uchun muhit yaratish va mas'uliyatni sezishga yo'llashi kerak. Ma'lumki, har bir dars uchun ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi, ya'ni bir-biri bilan uzviy aloqada bo'lgan uch yoqlama maqsad qo'yiladi. Darsni tashkil etish shakli dars ishtirokchilarining o'zaro aloqalariga bog'liq bo'lib, yuqorida keltirilgan maqsadlarga erishish o'quv materialini xususiyatlari, ta'lim metodlari, o'quv imkoniyatlari, o'qituvchi mahorati va texnikasiga bog'liq. Bularning barchasini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun o'qituvchi boshqaruvchi sifatida o'quvchilar bilan birgalikda harakat qiladi. Huddi mana shu jarayon faol amalga oshirilsagina, o'quv jarayonining samaradorligi ta'minlanadi. O'quvchilarda tashabbuskorlik va mustaqillik, bilimlarni puxta va chuqur o'zlashtirish, zarur bilim, ko'nikma va malakalar, kuzatuvchanlik, tafakkur va bog'lanishli nutq, xotira va ijodiy tasavvurlarni tarbiyalashga imkon beruvchi didaktik tamoyil – ta'limdagi faollikdir.

Bunday tizimda o'quvchi ham, o'qituvchi ham ta'lim-tarbiya jarayonini hamkorlikda amalga oshiradi. Ular ham ijodkorlikda har bir o'quvchining bilim va qobiliyati, individual intilish va ehtiyojlarini aniqlaydilar. Bunday holatda o'qituvchi faqat «baholovchi» emas, balki yangi bilim yetkazuvchi manbaga aylanadi. Darsda o'quvchilar faoliyatiga nafaqat o'qituvchi, balki o'quvchilar ham rahbarlik qiladi. Ta'lim tizimida dars samaradorligini oshirish uchun biz bugun, avvalo, o'quvchiga boshlang'ich sinfning dastlabki pallasidan boshlab «sen buni bilishing shart», degan majburlovchi da'vatdan olim A.Mallaboyev aytganidek, har bir bolaga individual yondashgan holda «menga bu zarur, men buni bilishga, uddalashga, uni hayotga tatbiq etishga qodirman», degan bir ichki tuyg'u, xohishistakni uyg'otishga harakat qilishimiz lozim. Ushbu holatdan ko'rinib turibdiki, har bir o'qituvchi o'qitishning mavzu mazmuniga mos ilg'or, samarali usullarini izlab topishi, ma'lum bo'lgan samarali usullarni unumli, ijodiy ravishda mashg'ulotlar jarayonida qo'llashi zarur.

Ta'lim- tarbiya jarayonining didaktik nuqtainazardan takomillashuvi faqatgina ushbu jarayonni tashkil etish va boshqarish yo'llarini to'g'ri tanlash orqali ta'minlanadi.

Pedagogik texnologiyalarni boshqarish o'zida ikki yo'nalishni mujassamlashtiradi:

1. Faoliyatni boshqarish.
2. O'quvchilar jamoasini boshqarish.

Ta'lim maqsadi, mazmuni, shakl, uslub va vositalari ta'lim jarayonlari mazmunini tahlil qilish uchun qo'llaniladigan an'anaviy kategoriyalardir. Aynan shu kategoriyalar ma'lum predmet,

mutaxassislik yoki ixtisoslik bo'yicha o'quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil qiluvchi pedagog faoliyatining predmeti sifatida yuzaga chiqadi. Qayd etilgan pedagogik kategoriyalar maqsadga muvofiq ravishda yo'naltirilgan pedagogik faoliyatning qonuniyat va mezonlarini tizimlashtiruvchi omil vazifasini bajaradi.

BOSHLANG'ICH TA'LIM DARSLARIDA O'QUVCHILARNI KREATIV FIKRLASHGA O'RGATISH

Abdukarimova Dilorom, Mamarafiqova Dilbar

Sirdaryo tumanidagi 27-maktabning boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari

Mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar faqatgina xalq manfaatlariga uchun, uning baxt-saodati uchun xizmat qilayotganining guvohi bo'lib turibmiz. Ta'lim jarayonida ilg'or texnologiyalarning yangi-yangi usullarining qo'llanilishi darslarning rang-barang qiziqarli tarzda o'tishiga olib keladi, o'quv materiallarining chuqur o'zlashtirilishiga ham keng imkoniyatlar yaratadi.

Ta'lim tizimining jamiyatdagi oshib borayotgan o'rnidan kelib chiqib, jamiyatdagi o'zgarishlarga moslashuvchan, tezkor javob berish mexanizmlarini yaratish uchun sharoit muhayyo etishga imkon beradigan innovatsion yondashuv masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Fikrimizni asosi sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 21-sentabrdagi "2019-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5544 Farmonida ta'kidlangan vazifani keltirish joiz. Unga ko'ra, "Jamiyat va davlat hayotining barcha sohalari shiddat bilan rivojlanayotgani islohotlarni mamlakatimizning jahon sivilizatsiyasi yetakchilari qatoriga kirish yo'lida tez va sifatli ilg'arilashini ta'minlaydigan zamonaviy innovatsion g'oyalar, ishlanmalar va texnologiyalarga asoslangan holda amalga oshirishni taqozo etadi".

O'qituvchi va o'quvchi gapirish vaqti? O'qituvchi darsda qachon va qancha gapirish kerak? O'qituvchi gapirish vaqti va o'quvchi gapirish vaqtini to'g'ri taqsimlashni dars samaradorligining muhim omillaridan biridir.

Matematika darsida o'quv tarbiya jarayonining barcha elementlari o'zaro uyg'unlikda bo'ladi. Bular maqsad va mazmun, vositalar, metodlar, ta'limni tashkil kilish shakllari bilan uzviy bog'liq. Boshlang'ich sinflarda ishlaydigan o'qituvchi vatanparvarlik burchini to'g'ri anglaydigan, o'z ixtisosligiga doir bilimlarni chuqur biladigan, milliy va umuminsoniy qadriyatlardan, dunyoviy, diniy ilmlardan ham xabardor, ma'naviy barkamol bo'lmog'i lozim. Boshlang'ich ta'lim asosiy poydevor hisoblanadi. Bolaning o'qishga bo'lgan munosabatining zarur bo'lgan o'qish savodxonligi, turli ma'lumotlar bilan ishlash, asosiy matematik amallarni bilish va ularni kundalik hayotda qo'llay olish, mantiqiy va ijodiy fikrlash, o'z-o'zini boshqarish, jamoada o'zini tuta bilish, yozma va og'zaki muloqot madaniyati qoidalarini egallash, ta'limiy faoliyatni tashkil etish kabi ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborotkommunikatsiya texnologiyalarini o'quv jarayonida keng qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan - kunga kuchayib bormoqda. Buning asosiy sabablaridan biri an'anaviy ta'limda o'quvchilarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, boshlang'ich ta'limda zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy salohiyati va ma'lumot darajasi, bolalar psixologiyasi, hozirgi zamon boshlang'ich ta'lim metodikasini bilishi hamda o'qituvchi tinmay o'z ustida mustaqil ishlashi fandagi barcha yangiliklardan xabardor bo'lishi ilg'or metodikalarga ega bo'lgan tajribali metodist-o'qituvchilar bilan o'z tajribalari to'g'risida o'rtoqlasha olishi, samarali o'qitish metodikalarini namoyish eta olishi lozim. Barcha umumta'lim maktablarining boshlang'ich ta'lim sifat va samaradorligini oshirish zamonaviy pedagogik, innovatsion va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta'lim jarayoniga keng tatbiq etish, ilg'or ish tajribalarini o'rganishni taqozo etadi.

Shuningdek hozirgi kunda matematika fanidan juda ko'p misol va masalalar to'plamlari, qiziqarli matematika o'quv adabiyotlari nashr etilgan. Ushbu fanga taalluqli qoshimcha adabiyotlardan foydalanib, darslarni mustahkamlash qismida foydalanib o'tish ham ijobiy samara beradi. Innovatsion muhit va kasbiy kompetentlikning uyg'unligini ta'minlash maqsadida, zamonaviy talablarga tayanib, zamonaviy ta'lim tizimlarini ishlab chiqish quyidagi tavsiyalar asosida yo'lga quyilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi.

O'QUVCHILARNING KREATIV FIKRLASHINI SHAKLLANTIRISHDA MANTIQUIY METODLARDAN FOYDALANISHNING O'RNI

Bekmatova Umida Toshqulovna, Irsaliyeva Shora Mahkamovna

Sirdaryo VPYMO'MM katta o'qituvchisi

Sirdaryo viloyati Guliston shahar 16-maktab biologiya o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada mantiqiy metodlar va ulardan biologiya darslarida o'quvchilarni kreativ fikrlashini rivojlantirishda o'tishda foydalanish usullaridan yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: mantiqiy metodlar, induktiv, deduktiv, bosh g'oyani ajratish, pedagogik jarayon, interfaol usullar.

The role of logical methods in shaping students' creative thinking.

Annotation: This article describes logical methods and how to use them in biology lessons to develop students' creative thinking.

Keywords: logical methods, inductive, deductive, main idea separation, pedagogical process, interactive methods

Hozirgi vaqtda ta'lim jarayonida o'qitishning zamonaviy usullarini qo'llash, o'qitish jarayonida yuqori natijalarga olib keladi. Ta'lim usullarini har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq sanaladi. Biologiya fanini o'qitish jarayonida tanlangan o'qitish metodlari biologik bilimlar va ko'nikmalarni egallashni ta'minlashi kerak. Biologiyaning ko'pgina mavzulari amaliy xarakterda bo'lib, ularni faoliyat orqali hal qilish talab qilinadi. O'quvchilar diqqatini nazariy bilimlarni o'rganishga va maqsadni arziqli natijalarni qo'lga kiritishga qaratish kerak, shuningdek, o'quvchilardan muhim nazariy bilimlarni egallash bilan bir qatorda, o'z ustida mustaqil ishlashlari ham zarurligi talab etiladi. Nazariy bilimlarni eshitib o'rganish orqali egallash xotira uchun ma'lum qiyinchiliklarni tug'diradi va yana o'z-o'zini boshqarish jarayonini buzadi.

Shu sababli, o'z-o'zini boshqarishni va dars davomida o'qitishni o'zida jamlagan o'qitish metodlaridan foydalanish juda muhim. Amaliy metodlarni qo'llashning ijobiy natijalari shundaki, ular o'quvchilarni tanqidiy o'ylashga, rejalashtirishga, savollarga javob topishga, bahslashishga va echim topishga ruhlantiradi.

Mantiqiy metodlar o'quv materiali mazmunining yo'nalishini belgilab, o'quvchilarning bosh g'oyani ajratish, o'rganilayotgan ob'ektni tahlil qilish, qiyoslash, umumlashtirish ko'nikmalari, aqliy faoliyat usullarini egallash, abstract tafakkurni rivojlantirish, sabab-oqibat bog'lanishlarni anglash imkonini yaratadi. Mazkur guruhga induktiv, deduktiv, tahlil, bosh g'oyani ajratish, qiyoslash, umumlashtirish metodlari kiradi.

O'quvchilar tahlil metodi yordamida axborotni anglab idrok etadi, o'rganilgan ob'ektlarning o'xshashlik va farqli tomonlarni aniqlaydi, o'rganilgan ob'ektlarni tarkibiy qismlarga ajratib, ular o'rtasidagi boshlanishlar, sabab-oqibatlarni aniqlaydi.

O'quvchilar qiyoslash metodi vositasida o'quv topshiriqlarida berilgan qiyosiy ob'ektlarni aniqlash, ob'ektlarning asosiy belgilarini aniqlash, taqqoslash, o'xshashlik va farqlarni aniqlash, qiyoslash natijalarini shartli belgilar bilan rasmiylashtirishga o'rganadi.

Umumlashtirish metodi muammolarni hal etish jarayonida o'quv materialidagi tipik faktlarni aniqlash, qiyoslash, dastlabki xulosalar, hodisaning rivojlanish dinamikasini tasavvur qilish, umumlashtirish natijalarini shartli belgilar yordamida rasmiylashtirish, umumiy xulosa chiqarishga zamin tayyorlaydi.

Bosh g'oyani ajratish metodi muhim ahamiyat kasb etib, o'quv materialidagi asosiy g'oyani

ajratish va saralash, axborotni mantiqiy tugallangan fikrli qismlarga ajratish, asosiy g'oya va ikkinchi darajali fikrlarni ajratish, tayanch so'zlar va tushunchalarni ajratish, asosiy fikr haqida xulosa chiqarishga zamin tayyorlaydi. Masalan:

“Sarlavha”

O'quvchilarga varaqda darslikdagi birorta matndan bir parcha beriladi. Matnni o'quvchilar diqqat bilan o'qib chiqib, undagi bosh g'oyani ajratib ko'rsatadi, matnga sarlavha qo'yishadi. Masalan:

“Organizm doimo o'zgarib turadigan muhit sharoitlarida yashaydi. Tashqi muhit omillari ta'sirining o'zgarishiga qaramay, tirik organizmlar o'zining morfologik, anatomik, fiziologik xususiyatlarini, kimyoviy tarkibini va ichki muhitini nisbatan doimiy saqlay olish xususiyatiga ega. Buni ta'minlashda organizm immunitetini yuzaga chiqaruvchi tizimlar, regeneratsiya muhim ahamiyatga ega. Regeneratsiya deb, organizmlarning hayot faoliyati davomida yoki biron ta'sir natijasida yashash muddati tugagan yoki shikastlangan hujayralar, to'qimalar yoki a'zolarining qayta tiklanishiga aytiladi.”

“Umumiy tushunchalarni aniqlash”

Umumlashtiruvchi so'z bilan mantiqiy bog'lits bo'lgan so'zlarni aniqlang va tagiga chizing.

1. Qirqbo'g'im (urug', ildizpoya, ko'p yillik o't, buta, spora, arxegoniy, urug'kurtak, endosperm, anteridiy, zigota, spora beruvchi boshqoq, sorus).

2. Mitseliy (bakteriya, zamburug', gifa, gommoy, vertitsill, penitsill, qo'ziqorin, kokk, achitqi, mevataka, vilt, lishaynik).

3. Tuban o'simlik (suvo'ti, tallom, rizoid, ildiz, xlorella, funariya, xromatofor, mikoz, poya, zoospora).

4. Achish (sut kislotasi, shakar, qatiq, sirka kislotasi, azot birikmalari, silos, kokk).

5. Zuhrasah (anteridiy, qirquqloq, qirqbo'g'im, gametofit, urug'kurtak, sorus, qubbameva).

Xulosa qilib aytganda, yoshlarning asosiy shakllanish va rivojlanish davri ta'lim sohasiga bog'liq holda kechar ekan. Demak, ta'lim-tarbiya sohasida ularni psixologik jihatdan shakllantiruvchi omillarga alohida e'tibor berish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Kompetensiyaviy yondasuvga asoslangan Davlat ta'lim standarti va oquv dasturi; Biologiya, Toshkent-2017 y

2. O.Mavlonov Biologiya (Zoologiya) 7-sinf darsligi. “O'zbekiston” nashriyot-matbaa ijodiy uyi, Toshkent, 2017 y

3. Shaxmurova G., Yunusova N., Po'latova Z. “Biologiya o'qitish metodikasi” moduli, 2019 yil

BIOLOGIYA FANINI O'QITISHDA O'QUVCHILAR KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISH BO'YICHA TOPSHIRIQLAR TAYYORLASH

Shatirov Bekzod Rashidovich

Sirdaryo viloyati Sirdaryo tumani 12-maktab biologiya o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada o'quvchilarning bilim, ko'nikma, malaka, kompetensiyalarini rivojlantirishga oid topshiriqlar tayyorlash usullari haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: O'quv topshiriqlari, ta'lim, maqsad, ma'lumot, fikriy operatsiya, xotirada saqlash

Prepare assignments to develop students' competencies in teaching biology.

Annotation: The article provides information on how to prepare assignments to develop students' knowledge, skills, abilities and competencies.

Keywords: Homework, education, purpose, information, mental operation, memory.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarini amaliyotda qo'llashda o'quv topshiriqlarini ishlab chiqarishga alohida e'tibor qaratiladi, chunki o'quv topshiriqlari yordamida ta'lim oluvchilarda mustaqil, ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyati rivojlanadi. O'quv topshiriqlari nima va ularning muayyan turlari mavjudmi? - degan savolga quyidagicha javob berish mumkin:

O'quv topshiriqlari – o'rganilayotgan mavzu bo'yicha ta'lim oluvchilar tomonidan

o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalar darajasini aniqlashga xizmat qiladigan ta'limiy vazifalar yig'indisi. O'quv materiallarini o'zlashtirishda ta'lim oluvchini faol harakatga undaydigan omil o'quv topshiriqlari hisoblanadi. Ko'zlangan maqsadlar tizimi ularning bajarilishini ta'minlovchi harakatlar tizimi bilan uzviy bog'lanadi. Shu sababli o'quv topshiriqlarini to'g'ri shakllantirish maqsadga muvofiqdir.

O'quv topshiriqlarini shakllantirishda quyidagilarga e'tibor qaratiladi:

1. O'quv topshiriqlarining murakkablik darajasini aniqlay olish;
2. Darsning maqsadini inobatga olgan holda unga muvofiq o'quv topshiriqlari tizimini tuzish.

Rossiyalik tadqiqotchi D.Tollingerova tomonidan taklif etilgan o'quv topshiriqlari taksonomiyasidan rivojlantiruvchi ta'lim jarayonida samarali foydalanish mumkin. Quyida o'quv topshiriqlari taksonomiyasi keltiriladi:

I. Xotirada saqlash, qayta yodga tushirishni talab etuvchi topshiriqlar:

II. Raqamlar va ma'lumotlar bilan ishlashda oddiy fikriy operatsiyalarni bajarishni taqozo etuvchi topshiriqlar:

III. Raqamlar bilan ma'lumotlar bilan ishlashda murakkab fikriy operatsiyalarni bajarishni taqozo etuvchi topshiriqlar:

IV. Ma'lumotlarni e'lon qilishga oid topshiriqlar:

V. Ijodiy fikrlashni talab etuvchi topshiriqlar:

Topshiriqlar namunalari

1-topshiriq. Berilgan xususiyatlardan lishaynik va zamburug'larga mosini topib yozing.

1.Sporalar va vegetativ yo'l bilan ko'payadi. 2.Sporalar, vegetativ va jinsiy yo'l bilan ko'payadi. 3.Avtotrof oziqlanadi. 4.Barcha joylarda o'sadi, tanasiga radioaktiv moddalar to'playdi. 5.Tanasi mitsilliy deb ataladi. 6.Tarkibi xitin, lixinin, saxaroza, amilaza, aminokislotalar, vitamin S,V6, V12 dan iborat. 7.Zamburug' va suv o'tlarining simbioz hayot kechirishi. 8.100000ga yaqin turi mavjud. 9. 26000 ga yaqin turi mavjud. 10.Yopishqoq, bargsimon, butasimon turlari bor.. 11.Tuproq hosil bo'lishida qatnashadi. 12.Tuban va yuksak turlari bor.

13. Geteratrof. 14. parazit turlari ham ko'p.

1-topshiqir javobi.

Lishaynik:1,3,4,6,7,9,10, 11 Zambrug'lar: 2,5,8,12, 13,14

2-topshiriq. Organoidlar nomini topib jadvalni to'ldiring.

Nº	Organoidlar nomi	tuzilishi	vazifasi
1		yassilangan bo'shliq, naycha, kanalcha, pufakchalardan tuzilgan.	oqsil sintezi, uglevod sintezi, lipidlar sintezi, moddalar transporti.
2		Katta va kichik bo'lakchalardan iborat yassi tanachalar	oqsil sintezi,
3		Yadro yaqinida joylashadi	glikoproteid, lipoproteidlar hosil qilish membronalarni shakllantirish
4		Unda bir qator organoid va organellalar joylashadi.Membranalari bor.	Membrana hujayra sitoplazmasini tashqi muhitdan ajratib turadi. Yarim o'tkazuvchanlik xususiyatiga ega.

3-topshiriq

O'simliklarda vegetativ ko'payish. Ko'payish usullariga ko'ra o'z o'rniga joylashtiring.

Ko'payishi	O'simliklar nomi
Tugunaklari	Kartoshka, batat, shoyigul
Qalamchalar	
Ildiz bachkisi	

Piyozechalari	
Ildiz poyasi	
Bargi	
Gajaklari	

Javob: 1. Lola, sarimsoq piyoz, boychechak, nargiz, gladiolus. 2. Kartoshka, batat, shoyigul. 3. Tol, terak, tok, qorag‘at, anjir, anor, malina, jiyda, atirgul.

4. Qulupnay. 5. Begoniya. 6. Kartoshkagul, iloq, g‘umay, ajriq, binafsha, shirinmiya, hilol, gulsafsar. 7. Olma, yantoq, olcha, terak, qorag‘at, na‘matak.

Turli murakkablik darajasidagi o‘quv topshiriqlaridan foydalanish o‘quvchilarning o‘quv faoliyati natijalarini xolis baholash imkonini beradi, shaxsning qobiliyatlarini rivojlantirish, ichki imkoniyatlarini to‘la ro‘yobga chiqarishga ko‘maklashadi

Foydalanilgan adabiyotlar va elektron ta‘lim resurslari:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limining davlat ta‘lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi № 187-sonli Qarori. 1- va 3-ilovalar.

2. Biologiya fani o‘quv dasturi (5-9-sinf), Toshkent, 2017.

3. Turdiev N.SH., Asadov YU.M., Akbarova S.N., Temirov D.SH. Umumiy o‘rta ta‘lim tizimida o‘quvchilarning kompetensiyalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan ta‘lim texnologiyalari. T.N.Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti. Toshkent, 2015.

4. TDPU huzuridagi Xalq ta‘limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi: www.giu.uz

BIOLOGIYA FANIDAN SINFDAN TASHQARI MASHG‘ULOTLARNI TASHKIL ETISH

Shamsiyev Rustam Botirovich

Oqoltin tumani 13-maktab biologiya fani o‘qituvchisi.

Annotasiya: Ushbu maqolada biologiya darslarida sinfdan tashqari mashg‘ulotlarni samarali olib borishda o‘simliklarni quritish va konservalash haqida tavsiyalar berilgan

Kalit so‘zlar: Sinfdan tashqari ish, to‘garak, gerbariy, kolleksiya, mulyaj, didaktik tarqatma, konservalash

ORGANIZATION OF EXTRACURRICULAR ACTIVITIES IN BIOLOGY

Annotation: This article provides recommendations for drying and canning plants for effective extracurricular activities in biology classes.

Keywords: Extracurricular activities, circle, herbarium, collection, modeling, didactic distribution, canning.

Sinfdan va maktabdan tashqari mashg‘ulotlarning tashkiliy shakllarini, mazmunini va maqsadini belgilash bugungi kunimizning barcha qirralarini hisobga olishni talab etmoqda. Sinfdan va maktabdan tashqari mazkur tarbiyaviy ishlar shaxs kamoloti bosqichlarini belgilab olishga qaratilganligi bilan tavsiflanadi. Mazkur muommoni ijobiy hal etish uchun sinfdan va maktabdan tashqari ishlarning turli shakllarini tashkil etish mumkin.

Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar o‘quvchilarning darsdan bo‘sh vaqtlaridagi o‘quv-tarbiya jarayonini to‘ldiradi va kengaytiradi. O‘quvchilarning mustaqil bilim olishlari, ijodiy qobiliyatlarini, tashabbuskorligini oshirishga imkoniyat yaratadi. Sinfdan tashqari tashkil etiladigan tadbirlarda, jumladan turli ko‘rinishdagi to‘garaklarda fan o‘qituvchilari o‘z faniga qiziqan o‘quvchilar bilan mashg‘ulot o‘tkazib, o‘quvchilarning qiziqishlarini oshiradi. Sinfdan tashqari ishlarni to‘la qamrab olgan to‘garaklar bir necha xil bo‘lishi mumkin. Fan to‘garaklaridan: “Mohir qo‘llar”, “Duradgorlar”, “Badiiy havaskorlar”, “Sport to‘garagi”, “Yosh o‘lkashunoslar”, “Qiziqarli botanika”, “Qiziqarli zoologiya” to‘garaklarini tashkil etish mumkin.

Bular ko‘pincha o‘zaro uzviy bog‘langan holda namoyon bo‘ladi. Sinfdan tashqari ishlarning

tarbiyaviy ta'siri ko'p darajada o'quv jarayonini tashkil etish saviyasiga hamda o'quvchilar jamoasining xilma-xil ishlarni qanday yo'lga qo'yilishiga bog'liqdir. Sinfdan tashqari faoliyat majburiy dastur bilan chegaralanmaydi, balki yoshlari har xil o'quvchilarni ixtiyoriy ravishda birlashtiradi. Umumiy o'rta umumta'lim maktablariga bu ishlarni fan o'qituvchlari, sinf rahbari va tarbiyaviy ishlar tashkilotchisi uyushtiradi. Sinf rahbari sinfdan tashqari ishlarni uyushtirishda to'g'arak rahbarlariga yaqindan yordam beradi. Bu mashg'ulotlarni o'tkazishda o'quvchilar albatta mehnat, tasviriy san'at fanlarini mukammal bilishlari kerak.

Masalan, biologiya fanidan ham turli xil to'garaklar tashkil etib, ularda o'quvchilar bilan birgalikda ko'rgazmali qurollar, gerbariylar, didaktik tarqatmalar, mulyajlar, tuluplar yasash mumkin. Bizga ma'lumki, biologiya xonasidagi ko'rgazmali qurollar turli xil bo'ladi. Ularning ko'pchiligi do'konlardan tayyor holda sotib olinadi. Ba'zi ko'rgazmali qurollarni o'qituvchi rahbarligida o'quvchilarning o'zlari tayorlashlari ham mumkin. Gerbariy, kolleksiya tayorlash, jadval, diagramma yoki sxema chizish kabi ishlarni ayrim o'quvchilar hech qanday qiyinchiliksiz bajarishlari mumkin. Biroq ho'l preparatlardan mulyaj yasashni ayrim o'quvchilarga tavsiya etib bo'lmaydi. Bunday ko'rgazmali qurollarni o'quvchilar biologiya xonasida guruh bo'lib tayyorlaydilar. Ko'pincha maktablarda tabiiy shaklini, hajmini tasvirlaydigan ko'rgazma qurollari yo'q. Shuni e'tiborga olib, uni maktablarda keng masshtabda tayyorlashga e'tiborni kuchaytirish zarur. "Qiziqarli botanika" to'garagida didaktik tarqatma va mulyajlarning tayyorlanish usullarlari bilan tanishib chiqishimiz mumkin.

O'simlikning tabiiy holatini buzmaganda qumda quritish usuli. O'simlikning tabiiy holatini buzmaganda qumda quritish juda qiziqarli bo'lishi bilan birga ko'p mehnat talab qiladi. Odatda uni qog'oz orasiga olib, presslab quritilganda o'simlik yassilanib tabiiy ko'rinishini yo'qotadi. Qumda quritilganda esa o'simlikning tabiiy shakli va ko'rinishi saqlanadi. Bu uning gerbariylarga nisbatan afzalligidir. O'simlikni quritish uchun tayyorlab qo'yilgan quticha (korobka)lar tagiga tekis qilib qizdirib sovitilgan qum solinadi, ustiga o'simlik qo'yiladi, ustidan qum bilan ko'miladi va quticha iliq joyda 2-3 kun saqlanadi. Qumga ko'milgan o'simlik o'z shaklini yo'qotmaganda holda quriydi.

O'simlik va uning qismlari konservalash. Botanikani o'qitishda laboratoriya mashg'ulotlari o'tkazish uchun konservalangan materiallar alohida ahamiyatga ega. Shu maqsadda ildiz, ildizpoya, ildizmevalar, poya, kurtak, barglar, gul va mevalar, zamburuqlarning meva tanalari saqlanadi. Konservalash uchun turli eritmalardan foydalaniladi.

5 foizli sirka kislotada konservalash. Odatda 5 foizli sirka kislotasida pomidor, bodring, garimdori, uzum, olma, nok, olcha, o'rik mevalari konservalansa, ularning tabiiy ranglari uzoq vaqtgacha o'zgarmay saqlanadi.

Formalin, spirt, glitserin va suv aralashmalarida konservalash. Bunday konservalash uchun oldindan ikkita alohida-alohida eritma tayyorlanadi. Birinchi eritma uchun 40 foizli formalindan 30 g. olinib, uni 300 ml distillangan suvda suyultiriladi. Ikkinchi eritmani tayyorlash uchun 100 ml distillangan suvga 96 foizli spirt va 1,5 g. glitserin olib aralashtiriladi. O'simlikni konservalash oldidan har ikkala eritma bir-biriga aralashtiriladi. O'simlik yoki uning qismlari ustiga bu aralashmani qo'yishdan oldin o'simlik 24 soat davomida 2 foizli mis eritmasiga solib qo'yiladi. Shundan keyin o'simlik eritmada olinib, konserva bankasiga solinadi va ustiga yuqorida keltirilgan eritmalarining aralashmasi qo'yiladi; bankaning og'zi havo kirmaydigan qilib berkitiladi. Shunday qilib konservalangan mevalarning rangi va sirtidagi mum g'ubori yaxshi turadi.

Sinfdan tashqari tashkil etilgan ishlar o'quvchilar hayotidagi tarbiyaviy faoliyatni to'ldiradi. Ularning dunyoqarashini to'g'ri shakllanishiga, axloqiy kamol topishiga ko'maklashadi. Nazariy bilimlarini amaliyotda ishlab chiqarish bilan chambarchas bog'lanishga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Prator O., To'xtayev A. va boshqalar. Biologiya (Botanika). Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik. "O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent-2017y

2. SHaxmurova G., Raxmatov U., Xo'janazarov O., Tog'ayeva G. "Biologiya fanini o'qitishda zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalar" moduli bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi xalq ta'lim xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini

BIOLOGIYA FANINI O‘QITISHDA INTERFAOL METODLARNI QO‘LLASH USULLARI

*Ablayarova Gulardon Ablayarovna
Sirdaryo viloyati, Shirin shahar biologiya fani o‘qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada talim jarayonini sifatli amalga oshirishda interfaol metodlarning o‘rni haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Metod, o‘qitish metodlar, kompetensiya, ilgor ta’lim texnologiyasi, pedagogik jarayon, matn-test, zig-zag, pochta qutisi.

WAYS OF USING INTERACTIVE METHODS IN TEACHING BIOLOGY

Annotation: This article discusses the role of interactive methods in the quality of the learning process.

Keywords: Method, teaching methods, competence, advanced educational technology, pedagogical process, text-test, zigzag, mailbox.

Ta’lim jarayoni o‘quvchilarning bilim olish, ko‘nikma va malakalarni egallash, ularning ilmiy dunyoqarashi, ijodiy izlanishlarini rivojlantirish maqsadiga yo‘g‘rilgan o‘qituvchi va o‘quvchilarning o‘zaro hamkorligi sanaladi, boshqacha aytganda, ta’lim mazmunining o‘qitish metodlari yordamida o‘zlashtirilishiga erishishdir. Metod so‘zi umumiy ma’noda muayyan maqsadga erishish usulidir. O‘qitish metodlari tom ma’noda o‘qituvchining bilimlarni o‘quvchilar ongiga yetkazish va ayni paytda ularni o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirib olish usulidir. Didaktikada o‘qitish metodlari quyidagi metodologik va nazariy qoidalarga asosan ta’riflanadi: o‘qitish metodi o‘qitish jarayonining o‘ziga xos pedagogik sharoitda obyektiv reallikni bilish metodlarining ifodasi sanaladi, ya’ni o‘qitish metodlari yordamida o‘quvchilarning bilish faoliyati tashkil etiladi va boshqariladi. O‘qitish metodlari o‘quvchilarni o‘qitish, tarbiyalash va rivojlantirish maqsadida qo‘llaniladi. Bu ularning asosiy funksiyalari sanaladi, shuningdek, mazkur metodlarning undovchi, rag‘batlantiruvchi, uyushtiruvchi va nazorat qiluvchi funksiyalari ham mavjud. Interfaol usullardan foydalanilgan darslarda bitta o‘quvchining ustunlik qilishi, uning o‘z fikrini o‘tkazishiga yo‘l qo‘yilmaydi, o‘quvchilar tanqidiy fikr yuritish, axborot manbalari va vaziyatni tahlil qilish, murakkab muammoli vaziyatlarni hal etish, o‘rtoqlarining fikrini tahlil qilib, asoslangan xulosalar chiqarish, munozarada ishtirok etish, boshqa shaxslar bilan muloqotga kirishish ko‘nikmalarini egallaydilar. Interfaol metodlarning fo‘llanilishi o‘quvchilarda, ayniqsa, kommunikativ, milliy va umummadaniy, axborot bilan ishlash kompetentsiyasi shakllanishiga imkon beradi.

Masalan:

1-topshiriq: "Matn+test" usuli.

Bunda o‘quvchilarga matn o‘qib beriladi yoki ovoqli moslama yordamida matn eshittiriladi. O‘quvchilar diqqat bilan tinglaydi va quyida beriladigan testlarning yechimini topishadi. Bu usul orqali o‘quvchilarning diqqat va xotirasi mustahkamlanadi. Bu usul butun sinf bilan ishlaganda qo‘llanadi.

Bir tup o‘simlik ildizining tukchalari bir-biriga ulab chiqilsa, uzunligi 20 kmga yetishi mumkin. Ildiz tukchalarining faoliyati 10-20 kun davom etadi. Ildizning po‘st hujayralari tirik, yumaloq va yupqa qobiqli bo‘ladi. Makkajo‘xoring 1 mm² so‘rish qismida 700 ta ildiz tukchalari bo‘ladi. G‘o‘za nihollarining ildizi bir kecha kunduzda 2-3 sm o‘sadi.

Test

1. Bir tup o‘simlik ildizining tukchalari bir-biriga ulab chiqilsa uzunligi qancha bo‘ladi?

a) 10 km b) 20 sm d) 20 km

2. Ildiz tukchalarining faoliyati necha kun davom etadi.

a) 10-20 kun b) 20-31 kun d) 18-48 kun

3. Ildizning po‘st hujayralari qanday tuzilgan?

a) o‘lik, yumaloq, yupqa qobiqli

- b) tirik, yumaloq, yupqa qobiqli
d) tirik, cho'ziq, qalin qobiqli
4. Makkajo'xorining 1mm² so'rish qismida qancha ildiz tukchalari bor?
a) 700 ta b) 500 ta d) 300 ta
5. Go'za nihollarining ildizi bir kecha kunduzda qancha o'sadi?
a) 5sm b) 10-20sm d) 2-3sm

2-topshiriq: Zig-zag usuli

Bu usulda 1-qatorning ikki o'quvchisi juftlikda ishlab, savolga javob yozishadi.
2-qatorning ikki o'quvchisi juftlikda ishlab, savolning javobini tekshirib berishadi.
3-qatorning ikki o'quvchisi juftlikda ishlab javobni baholashadi.

Masalan: Sutemizuvchilarning ter bezlari tana harorati doimiyligini saqlash bilan birga yana qanday vazifa bajaradi.

Bajaruvchi:

Tekshiruvchi:

Baholovchi:

3-topshiriq; "Pochta qutisi" usuli.

Bu usulni guruhlarda ham, kichik juftliklarda ham qo'llash mumkin. Bunda o'quvchilarga turli mavzular yuzasidan aralash atama va tushunchalar aralash holatda beriladi. Pochta qutisi berilgandan so'ng o'quvchilarga quti ichidagi so'z yoki atamalarni mos tarzda ajratishi aytiladi. Masalan:

Tobulg'i, archa, vergin, savr, maymunjon, itsigak, bo'ritaroq, afsonak, yeryong'oq, talg'ir lola, qarag'ay, sarvi archa.

Bunda ochiq urug'li va yopiq urug'li o'simliklarni ajtaring deb topshiriq beriladi. Topshiriqni bajarish uchun so'zlar soniga qarab vaqt beriladi. Bundan tashqari ikki oila o'rtasida (6-sinflarda), ikki sinfni, turkumni (7-sinflarda), ichki, tashqi, aralash bezlarni, odam organizmidagi organlarni (8-sinflarda) bir biridan ajratib olishida ham qo'llash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Tolipov O', Usmanbaeva. Pedagogik texnologiyalarni amaliyotga tadbiqu. T.O'qituvchi. 2006 yil.
2. Ishmuhammedov R. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. - T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2004, 2008 (qayta nashr). - 44 b.
3. Ishmuhammedov R. O'quv jarayonida interfaol uslublar va pedagogik texnologiyalarni qo'llash uslubiyati. - T.: RBIMM, 2008. - 68 b.
4. Ishmuhammedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar (ta'lim muassasalari pedagog-o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). - T.: Iste'dod, 2008. - 180 b. 2010. - 140 b.

DARS JARAYONIDA IJOBIY MUHITNI YARATISHDA O'QITUVCHI VA O'QUVCHINING GAPIRISH VAQTI

Achilova Aliya Abdurazzakovna

Sirdaryo viloyati Sayxunobod tumanidagi 41-IDUM boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi

Bugungi kunda yangi Milliy o'quv dasturi asosida 2021/2022 o'quv yilida foydalanish uchun 1-2-sinf o'qituvchilari uchun darslik, mashq daftarlari va o'quv-metodik qo'llanmalar namunalari

yaratildi.

E'tiborli jihati shundaki, yangi avlod darsliklari ham mazmunan, ham shakl jihatdan mutlaqo yangicha uslubda, xalqaro andozalarga mos holda tayyorlangan. Darsliklar bolalarning psixologik va fiziologik rivojlanish bosqichlaridan kelib chiqqan holda oddiydan murakkabga tamoyili asosida yaratilgan. Dunyoning yaxlit ko'rinishini shakllantirish uchun fanlararo integratsiya – STEAMga alohida e'tibor qaratilib, har bir darslik uchun media ilovalar tayyorlandi.

Xususan, til darsliklarida grammatikaga emas, balki muloqot uchun muhim bo'lgan to'rtta ko'nikmaga, jumladan o'qish, tinglash, yozish va gapirishga, matematika mantiqiy tafakkurni rivojlantirishga, musiqa va tasviriy san'atga o'quvchilarning estetik didini rivojlantirishga qaratilgan. abiiy fanlar bo'yicha esa ular da tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirish kompetenssiyalari nazarda tutilgan. Har bir fan bo'yicha Milliy o'quv dasturi, darsliklar va o'quv-uslubiy to'plamlar o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ularning mazmunini o'quvchilar tomonidan to'g'ri o'zlashtirish va respublikadagi o'quv jarayonining barcha vazifalarini amalga oshirish uchun o'qituvchilarning o'zlari o'rtasida ham maxsus treninglar o'tkazish zarur. Bugungi kun dars jarayonida "O'qituvchi va o'quvchi gapirish vaqti, dars davomida muloqot formatlari"ga asosan o'qituvchining gapirish vaqti va o'quvchining gapirish vaqtini to'g'ri taqsimlashni, sinfda o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida o'zaro muloqot formatlari va ularni tashkil qilish mezonlari ishlab chiqildi.

O'qituvchi gapirish vaqti nima? O'qituvchi nima uchun gapiradi:

- ✓ bilimni yetkazish uchun;
- ✓ dars uchun belgilangan materialni yetkazish uchun.

Sharpening (2008) fikricha bo'yicha o'qituvchining darsda gapirishi bu: takrorlash, to'g'irlash (qayta ko'rib chiqish) va maqsadli yo'naltirilgan savol berish (o'quvchilar bilimlarini tekshirib olish)

Mercerning (2000) fikricha o'qituvchining darsda gapirishi bu: xulosa yasash, maqsadli yo'naltirilgan savol berish, o'quvchilar tushunmasa boshqa so'zlar bilan tushuntirish, ko'rsatmalar berishdan iborat.

Sinkleyr va Kultardlar (1975) dars jarayonidagi kommunikatsiyani o'zi iligari surgan "IRF" modeli bilan izohlaydi:

I (initiation) – Tashabbus (o'qituvchi tomonidan)

R (response) – Javob (o'quvchi tomonidan)

F (feedback) – O'qituvchi tomonidan berilgan xulosa javob

O'quvchi gapirish vaqti:

- ✓ O'quvchilar savol berganida yoki savolga javob berganida;
- ✓ Sinfdozlari bilan berilgan topshiriqlarni bajarganda;

Dars davomida kim ko'proq gapirishi kerak? Muloqotni qanday tashkil qilish kerak?

O'qituvchi va o'quvchi o'rtasida muloqot so'z orqali, yozma va paralingvistik ko'rinishda amalga oshiriladi. Bu muloqot orqali o'quvchilar bilim olishadi yoki mavzu yuzasidan ko'rsatmalar qabul qilishadi. O'quvchi tomonidan muloqot qo'l ko'tarish yoki bevosita so'z orqali boshlanadi. Yozma shakldagi muloqot o'quvchi tomonidan yozma ishni bajarish va unga nisbatan berilgan taqriz orqali amalga oshadi.

O'quv jarayonida o'quvchilarning faol qatnashishini ta'minlashga harakat, har bir o'quvchining g'oyalari uchun minnatdorchilik bildirish, o'quvchilarni o'z g'oyalarini yaxshi oqlashga da'vat qilish, har bir o'quvchini muhokamaga jalb qilish, o'z g'oyalarini sinab ko'rishlari mumkinligiga ishonch berish, o'z g'oyalarini o'rganishlari uchun vaqt yetarli ekanligiga ishonch hosil qilish, hamkorlikda ishlash, fikrini boshqalar bilan baham ko'rish va boshqalarning g'oyalarini qadrlashga yordam berish, o'quvchilarni o'zlari qaror qabul qilishiga undash, turli xil savollardan foydalanish shu bilan birga o'quvchilar o'z savollarini tuzishga o'rgatish, dars jarayonini tabiiy, yoqimli va qiziqarli qilishga harakat qilish orqali o'qituvchi sinfda ijobiy muhitni yaratadi.

O'QUVCHILAR FAOLLIGINI OSHIRISHDA DIDAKTIK O'YINLARNING AHAMIYATI

Bekmirzayeva Ozoda

Sirdaryo viloyati, Sirdaryo tumanidagi 41- maktabning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Ta'lim sohasida olib borilayotgan keng ko'lamli islohatlar, uning mazmunini takomillashtirishga oid qabul qilingan hukumat qarorlari ta'limni xayot bilan bog'lashni, o'qitish samaradorligini oshirishni, tez taraqqiy etib jamiyat uchun har tomonlama rivojlangan barkamol avlodni tarbiyalab etishtirishni talab qiladi. O'quvchilarni barkamol shaxs sifatida tarbiyalash malakasi haqida gap ketganda nafaqat ularni fikrlash qobiliyatini tarkib toptirish, balki kuzatuvchanlik, tasavvur qilish, bilim olish yo'llarini egallash va ilm o'rganishga qiziqishtirish kabi jihatlarni nazarda tutadi.

Hozirgi kun ta'limning asosiy maqsadlaridan biri-bu dars jarayonida o'quvchilarni faollashtirish orqali ularga bilim olish yo'llarini o'rgatish va o'qitishdir.

Zamonaviy ona tili ta'lim berish nazariyasi va amaliyotni dars jarayonida turli o'qinlardan foydalanish orqali o'quvchilarni fanga bo'lgan qiziqishlarini o'rttirishni talab qiladi.

Ona tili mashg'ulotlarida o'yin texnologiyalaridan foydalanish jadallashtiruvchi va faollashtiruvchi faoliyat bo'lib, o'quvchilarning og'zaki va yozma nutq ko'nikmalarini tarkib toptiradi.

Ona tili mashg'ulotlari jarayoniga didaktik o'yinlarni tatbiq etish orqali ta'lim sifati va samaradorligini oshirish.

Ta'limiy o'yinlardan, avvalo, mavzuga oid oddiy qiziqarli savol-javoblardan darsning ma'lum qismida foydalanish lozim. Shu tarzda testlar, boshqatirma, tez aytish kabi o'yinlar muntazam o'tkazib turilsa, o'quvchilarda ma'lum bir ko'nikmalar to'planib boradi. Bu esa o'quvchilarda ma'lum bir tayyorgarlikni, mustaqil o'qishni, ommaviy axborot vositalarini kuzatib borishni talab etadi. Shunga ko'ra o'quvchilar egallashi shart bo'lgan ko'nikma va malakalar: qayta (ko'rsatma) olish, aniqlash (o'lchay) olish, tasvirlay olish, tushuntira olish va bashorat qila olish kabilarni hosil qiladi.

Didaktik o'yinlar mazmunan axloqiy, aqliy rivojlantiruvchi, ta'lim-tarbiyaviy sifatlarga ega bo'lish shart.

Dars jarayonida o'yinlarni muvaffaqiyatli o'tkazish uchun ularning tuzilishi, vazifalari, qoidalari, harakatlari, natijalarini tahlil qilish bosqichlarini aniq belgilab olish lozim.

Bu bosqichlarni quyidagicha belgilab olish mumkin:

1. Tayyorlov davri. O'yin natijasiga katta ta'sir etuvchi mas'uliyatli bosqich. Shu o'rinda asosiy vazifa o'quvchilarni o'yinning maqsadi, mavzusi, qoidasi, shartlari bilan tanishtiriladi.

2. O'yinni tashkil etish. O'quvchilarni guruhlariga bo'lib, vazifalar bo'lib beriladi.

3. O'yinni o'tkazish. Belgilangan vazifani yakka va guruhlariga birlashtirib, topshiriqlarni bajaritiriladi.

4. O'yin natijalari. Natijani baholash, xulosalash, ya'ni o'yinning o'quv-bilish natijalarini tahlil qilish.

Didaktik o'yinlarni o'tkazish o'quvchilarga quyidagicha mas'uliyat yuklaydi:

- o'yinlarni o'tkazish jarayonida faol bo'lish;
- diqqat va e'tiborli bo'lish, do'stlarini gapini bo'lmaslik;
- o'z vazifasini aniq bajarish;
- ko'rgazmali qurollar tayyorlash;
- birdamlik va hamjihatlik kuchini his qilish;
- o'zaro ishonch;

Didaktik o'yinlar texnologiyasi qisqa vaqtda amalga oshiriladigan tizimlashgan guruhviy mashg'ulotlar bo'lib, ularni o'tkazish oson va oldindan tayyorgarlik ko'rish shart emas. U ko'p vaqt olmaydi. O'yinlar o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishlarini kuchaytirib, darsning boshida, o'rtasida oxirida o'tkazish tavsiya qilinadi.

Yangi pedagogik texnologiyaga bag'ishlangan adabiyotlar va maqollarda bir qator didaktik o'yinlar haqida so'z yuritilib, innovatsion metod sifatida taqdim etilmoqda. Ana shulardan ona tili darslaridan qo'llanish mumkin bo'lgan ayrim o'yinlar haqida so'z yuritimiz:

SO'ZDAN SO'Z TUZISH

O'quvchilarning lug'at boyligini oshirishda, so'z zahirasi orttirishda yordam beradi.

O‘yinning sharti: O‘quvchilar 3-guruhga bo‘linadilar. Mavzuga oid bir necha so‘z yozib qo‘yiladi. So‘zdagi harflardan foydalangan holda, boshqa harf ishlatmasdan, o‘zgacha ma’noga ega bo‘lgan so‘zlarni topib yozish taklif qilinadi.

Masalan: “Gul suhbat” mavzusidagi guruhlar o‘yinini quyidagicha tashkil etish mumkin:

Ushbu so‘zlardan foydalanib, har bir guruh kichik matn hosil qilishlari va navbatdagi topshiriqni bajarishlari mumkin.

“Kamalak” guruhi	“Qaldirg‘och” guruhi	“Binafsha” guruhi
Gulsafar	Gultojixo‘roz	Namozshomgul
Gul	Gul	Gul
Asal	Toji	Shom
Asar	Xo‘roz	Oz
Rasul	Oz	Mosh
Fasl	Torozi	Zamon
.....	Zo‘r
.....

“YO‘QOLGANI QIDIRIB TOP”

Sharti: Yo‘qolgan harf, so‘z, gap zarur o‘yinga qo‘yib o‘qish talab qilinadi.

Bu o‘yinni sinonim so‘zlar o‘rgatishda qo‘llash mumkin. AKT-dan foydalanilsa yanada yaxshi samara beradi.

Masalan: Bolam nonni isrof qilmang.

Bolam nonni qilmang. (uvol)

Bolam nonni qilmang (oyoq osti)

MILLIY O‘QUV DASTURLAR BO‘YICHA QABUL QILINGAN YANGI O‘QITISH TIZIMI AMALDA

Matxalikova Firuza Isroilovna

Sirdaryo tuman XTB ning Ijtimoiy fan yo‘nalishi metodisti

Yangilanayotgan ijtimoiy munosabatlar ta’lim mazmuniga ilg‘or g‘oyalarni singdirishni taqozo etmoqda. Zero, pedagogik tizim barcha davrlarda ham jamiyat taraqqiyotini ta’minlovchi omillardan biri bo‘lib kelgan. Bu vaziyatni anglash hozirgi zamon o‘qituvchisining kasbiy mahoratini uzluksiz takomillashtirib borishni talab etadi. “Joyingda turish uchun, doimo olg‘a intilish kerak” – degan ekan pedagoglardan biri. O‘qituvchi zamon bilan hamnafas bo‘lishi, ta’limning sifat va samaradorligini ta’minlashi, fan-texnikaning eng so‘nggi yutuqlari orqali mashg‘ulotlarni tashkil etishi, fundamental bilimlardan o‘z o‘rnida foydalana olishi uchun o‘z ustida uzluksiz mustaqil ishlashi, bilimi va mahorati oshirib borishi kerak. Maqsad - jahon ta’limi standartlariga to‘la javob bera oladigan, mustaqil shu bilar birga kreativ fikrlashga ega barkamol shaxs va malakali mutaxassislarni tayyorlashdan iborat ekan, bunda o‘qituvchining o‘rni beqiyos ekanligini anglab yetishi lozim.

Mamlakatimiz rahbari 2020-yil O‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimda ta’lim sohasidagi qator kamchilik va muammolarga e’tibor qaratgan holda o‘quv dasturlaridagi muammolarni bartaraf etish dolzarb vazifalardan biri ekanligini ta’kidlab, unga barham berish uchun xorijiy ekspertlar va tajribali o‘qituvchilarni keng jalb qilgan holda, umumiy ta’limning Milliy o‘quv dasturi loyihasini ishlab chiqish va uni ilmiy-tadqiqot va ta’lim muassasalarida sinovdan o‘tkazish taklifini bildirgan edi.

Prezidentning 2022-yil 11-mayda qabul qilingan “2022 — 2026-yillarda Xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi №314 –sonli farmoniga ko‘ra maktab o‘quvchilarining bilimi va ko‘nikmalarini shakllantirish, ularni milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalash, o‘qituvchi kasbi nufuzini va pedagoglarning sifat tarkibini oshirish, darsliklar va o‘quv metodik majmualarni zamon talablari asosida takomillashtirish, xalq ta’limi muassasalarining xalqaro standartlarga javob beradigan zamonaviy modellarni barpo etish maqsadida, shuningdek, 2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot

strategiyasini “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturiga muvofiq 9 ta ustuvor yo‘nalish belgilandi. Bular :

*maktab ta‘limiga ilg‘or xalqaro tajribalar asosida ishlab chiqilgan Milliy o‘quv dasturini to‘laqonli joriy etish hamda mahalliy va xorijiy mualliflar tomonidan yaratilgan zamonaviy darsliklarni amaliyotga kiritish;

*jamiyatda o‘qituvchi kasbi nufuzini oshirish, pedagoglar uchun qulay ijtimoiy sharoitlar yaratish va mehnatini munosib rag‘batlantirish;

*o‘qituvchilarning yoshlarga ta‘lim va tarbiya berishdagi mas‘uliyatini, doimiy kasbiy rivojlanishdagi talabchanligini oshirish;

*umumiy o‘rta ta‘lim muassasalari uchun milliy kadrlar zaxirasini shakllantirish, ilg‘or maktab direktori va namunali o‘qituvchi mezonlarini ishlab chiqish hamda ular asosida rahbar va pedagog kadrlar faoliyatini baholab borish;

*umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarida ma‘naviy-ma‘rifiy ishlarni tizimli tashkil etish, mazkur yo‘nalishda uzluksiz monitoring, baholash va prognozlash mexanizmlarini yo‘lga qo‘yish, bola ta‘lim-tarbiyasida oila, ayniqsa, ota-onaning o‘rnini oshirish;

*o‘quvchilarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, ularni kasblarga yo‘naltirish tizimini takomillashtirish;

*alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning xalq ta‘limi tizimiga integratsiyasini kuchaytirish hamda inklyuziv ta‘lim jarayonlarini jadallashtirish;

*umumiy o‘rta ta‘limda barcha ma‘lumot almashinuvi jarayonlarini Xalq ta‘limi tizimini boshqarishning yagona dasturiy majmuasi orqali amalga oshirilishini hamda ushbu sohada elektron davlat xizmatlari ko‘lamini kengaytirish;

*umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarining navbatlilik koeffitsiyentini optimal darajaga yetkazish, zamonaviy modellar bo‘yicha maktablarni qurish, rekonstruksiya qilish, mukammal ta‘mirlash hamda zarur jihozlar bilan ta‘minlash.

Mazkur farmon bilan mamlakatimiz ta‘lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini takomillashtirish, jamiyatimizda o‘qituvchi va pedagog xodimlar, ilmiy va ijodkor ziyolilarga bo‘lgan hurmat-e‘tiborni yanada oshirish, o‘quvchilarning kasbiy mahoratini rivojlantirish maqsadida O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta‘lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini yanada rivojlantirishning maqsad qilib olingan.

Tahlillarga ko‘ra, avvalgi o‘quv dasturlari mazmuni 90 foiz nazariyadan iborat bo‘lib, o‘qitish metodikasi yodlatishga yo‘naltirilgan. Yangi Milliy o‘quv dasturi mazmuni 50 foiz nazariya, 50 foiz amaliyotdan iborat va bu o‘quvchining mustaqil faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga, ularning kreativ fikrlashlariga, hayotiy kompetensiyalarini shakllantirishga qaratilgan. Qolaversa, o‘quv dasturlarida baholash faqat eslab qolgan bilimlar hajmini aniqlagan. Yangi dastur asosida o‘quvchilarda shakllangan ko‘nikmalar baholanadi. Milliy o‘quv dasturi asosida fanlar chiziqli tartibda emas, spiralsimon tarzda – mavzular takroriy emas, bir-birini mantiqan davom ettiruvchi hamda soddadan murakkabga tomon yo‘naltirilgan tarzda o‘qitiladi.

Shuningdek, o‘quv-tarbiya jarayonida o‘qitish va baholashning maqbul metod, shakl va instrumentlaridan foydalanish bo‘yicha bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarni rivojlantirish, o‘quv-tarbiya jarayonida ta‘lim resurslarini o‘qitishning integrativ xususiyatlariga xos ravishda qo‘llash va o‘quvchilar faoliyati natijalarini baholashga o‘rgatish, o‘quv-metodik tavsiyalar va didaktik materiallarni takomillashtirish va samarali qo‘llash bo‘yicha ijodiy ko‘nikmalarini rivojlantirish Milliy o‘quv dasturlarimizning asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Milliy o‘quv dasturining oldingi standartdan farqi — XXI asrda o‘quvchi muvaffaqiyatga erishishi uchun kerak bo‘lgan asosiy kompetensiyalarni rivojlantirishni maqsad qilib olganligidadir. Bular — tanqidiy fikrlash, ijodiy fikrlash, kommunikativlik (muloqotga kirishish), axborot bilan ishlash, o‘z-o‘zini rivojlantirish va faol fuqarolik.

Ijtimoiy-gumanitar fan o‘qituvchisi mehnatining murakkabligi har bir o‘quvchi, har bir shaxsdagi imkoniyatlarning rivojlanishga sharoit yarata bilishida ko‘rinadi. Eng muhimi, o‘quvchilarning o‘zini shaxs deb tushinishda o‘qituvchi yordam berishi zarur, o‘zligini, hayotini, dunyoni idrok etishga ehtiyoj uyg‘otishi, unda insoniy g‘urur tuyg‘usini va uning tarkibiy qismi o‘z xatti-harakatlari uchun o‘zi, do‘stlari, maktab, jamiyat oldida mas‘uliyat hissini tarbiyalash kerak.

O'quvchilar bilim olishi yo'lidagi mashaqqatli mehnatida muvaffaqiyat qozonishi uchun o'qituvchi har bir o'quvchisining imkoniyatlariga ishonishi zarur. Bu yo'ldagi muvaffaqiyatlar o'qituvchining qat'iyatiga, toqatiga, o'z vaqtida yordamga kela bilishiga bog'liq.

Bizga qanday avlod kerak?

Bizga ilg'or fikrlaydigan, qat'iyatli, o'z maqsadi sari harakat qiladigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan, muammoni ijobiy yechadigan shaxslar kerak. Bunday shaxslar iqtisodiyotni rivojlantira oladi, jamiyatni boshqara oladi, hayotimizni o'zgartira oladi. Milliy o'quv dasturiga XXI asr ko'nikmalarini singdirish orqali shunday shaxslarni tarbiyalashga harakat qilamiz.

Ijtimoiy-gumanitar yo'nalishidagi fanlarning ta'lim tizimida o'rganilishining bugungi davrdagi ahamiyatli tomoni ular jamiyat rivojlanishida muhim rol o'ynaydi, yosh avlodning ijtimoiy ongini shakllantiradi va kishining falsafiy mushohadasini kengaytirib boradi. Shu bois bu fanlar porloq kelajagimizning munosib egalari bo'lmish yosh avlod hayot yo'lini yorituvchi chiroq bo'lib xizmat qilishi kerak. Ta'lim tizimini rivojlantirish yo'lida qilinadigan har bir ish, savobli albatta. O'zbekistonning nurli kelajagi yo'lida har birimiz yo'lchi yulduz bo'lib, yoshlarimizning yo'llarini yoritishimiz, har qanday qiyinchiliklarni yengib o'tishga o'rgatishimiz lozim.

MOTIVATSIYANI RIVOJLANTIRISHDA DIDAKTIK O'YINLARNING AHAMIYATI

*G'ulomjonova Tamanno G'ulomjonovna, Yuldoshaliyeva Marjonaxon Baxodir qizi
Guliston tumani 17-umumiy o'rta ta'lim maktabi matematika fani o'qituvchisi
Guliston shahar 1-umumiy o'rta ta'lim maktabi matematika fani o'qituvchisi*

Annotasiya: Ushbu maqolada didaktik o'yinlar va ularni ahamiyati, tarbiyalash, rivojlantirish vositasi sifatida qo'llanilishi. Bolalarning faolligini ma'lum yo'nalishga boshqarib avtomatik ravishda o'quv jarayonini qiziqarliligini oshirishi, motivatsiyani rivojlantirishda didaktik materiallarning o'rniga bag'ishlangan.

Annotation: In this article, didactic games and their importance, their use as a means of education and development. Directing children's activities in a certain direction and automatically increasing the fun of the learning process is devoted to the role of didactic materials in the development of motivation.

Didaktik o'yinning mohiyati o'quvchilar o'yin shaklida taklif etilgan aqliy masalalarni qiziqish bilan yechga o'ndaydi, ma'lum qiyinchiliklarni bartaraf etib o'quvchilar o'zlari yechimlarni topishadi. O'quvchi aqliy masalalarni amaliy, o'yinli sifatida anglashadi, bu uning bilish faoligini oshirishiga turtki bo'lishidir.

Matematika darsida didaktik o'yinni qarash uchun umuman o'yin nima, didaktik o'yin nima ekanligini tushunish kerak. O'qitish—bu ijtimoiy – tarixiy tajriba maqsadga muvofiq uzatish jarayoni; bilimlar, bilishlar, ko'nikmalarni shakllantirishni tashkil etish bo'g'ani uchun didaktik o'yin – sub'ekt uchun bilimlar, bilishlar, ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan shartli qiziqarli faoliyat deyish mumkin.

Didaktik o'yin mohiyatini tushunish uning eng muhim komponentlarini ajratish imkonini beradi:

-inson hayotining namoyon bo'lishi uning atrofdagi borliqga faol munosabatining muhim shakli sifatida tushuniladigan faoliyat; bu faoliyatda psixologik jarayonlar rivojlanadi, shaxsning aqliy, xayajonli va irodali sifatleri, qobiliyat va xarakteri shakllanadi;

-obraz va ob'ektning bir xil emasligiga ko'rsatuvchi borliqni aks ettirish alomati sifatida tushuniladigan shartlilik. Bizning xolda, "yolg'ondan", "rost emas" kabi anglanadigan faoliyat nazarda tutuladi. (K.S.Stonislovekiy buni "agar", yoki "xuddiki" so'zlar bilan ifodalaydi) ammo har qanday faoliyat ham shartli xolatlarda o'yinli bo'lavermaydi. Matematika bo'yicha darsliklardagi masala ham shartli: unda biror aniq shartli xolat aks ettirilgan va aniq savol qo'yiladi, uning javobi bu xolat yechimi bo'ladi. Ammo bu o'yin emas, ammo o'yinga aylaniishi mumkin agar masala shartlari maktab o'quvchisiga shunchalik qiziqarli tarzda yetkazilsa, uni masala sifatida anglamaydi, uni yechishda, o'quvchi avvalom bor o'ynaydi, undan keyin o'qiydi.

Masala shartlarini qiziqarli uzatish uni rolli o'yinga aylantirdi. Shunday qilib, motivatsiyali

faoliyat, o'yin bo'lishi uchun ishtirokchisi uchun qiziqarli bo'lishi kerak. Motivatsiyali faoliyat o'yinda maqsad emas, balki vosita. Qiziqarlilik maqsad. O'quv faoliyatida esa shartlilik o'qitishga, turli bilim va ko'nikmalarni mashq qilish imkoniga yo'naltirilgan. O'yin va o'qishni taqqoslashga qaytganda, agar o'yinda kutilmaganlik mavjud bo'lsa yashovchan bo'lishini belgilash muhimdir, agar faoliyat to'liq oldindan aytilsa, u holda u o'yin bo'lmaydi [2,69].

Aynan "Qiziqarli" termini o'yin mohiyatini aniq aks ettiradi ("ko'ngil ochar", "qiziq emas"). Qiziq va ko'ngil ocharda faoliyat yo'q; hamma o'yin ham musobaqali emas. Shu bilan bir vaqtda "qiziqarli" tushunchasi o'yinning sub'ektiv xususiyatlaridan iborat: bitta o'yinli xolat kimgadir o'yin bo'lishi mumkin, boshqasiga- yo'q. Qiziqarlilik ixtiyoriy o'yin uchun zarur xayajonli fandan iborat. O'yin qanday yaratiladi, uning strukturasi qanaqa?

O'yin 2 ta komponentga ega: faoliyatli va shartli, ular turli "narsa", "narsalar" bilan to'ldirilishi mumkin va bitta o'yinni boshqasiga umuman o'xshamaydigan qilishi mumkin, lekin bu 2 ta komponent har bir o'yinda ko'rinish turadi. Aynan shartli xarakter u yoki bu faoliyatni o'yinga aylantiradi. Agar biz faoliyat aspektini shartsiz qarasak u holda mehnat va mashq paydo bo'ladi. Faraz qilaylik 2 ta odam bir-biriga ko'tok otmoqda. Bu mashq, ammo agar bu mashqga shartlar qo'yilsa u o'yinga aylanadi. Yuqorida keltirilgan sxemadan kelib chiqqan holda, o'yin didaktik bo'lishi mumkin, agar material yoki qandaydir qismi o'yin mazmuni asosiga kirs: odatda ta'lim materiali shartli komponent mazmuni, rivojlantiruvchi material- bilish komponenti mazmuni bo'lishi mumkin. Maktab darsligidagi mashqlar va masalalar bu o'yin emas, chunki ko'pincha bolalarga masala yoki mashq mazmuni qiziq emas lekin agar qiziqarlilikka katta e'tibor berilsa, u holda o'quv topshiriq o'yin topshirig'i bo'lib qoladi, ayrim hollarda esa haqiqiy o'yinga aylanishi mumkin.

Didaktik o'yinda qoidalarga bo'ysunishi bilish shakllanadi, chunki qoidalarga aniq rioya qilishga o'yin natijasi bog'liq. Natijada o'yinlar erkin xatti- xarakat, tashkilotchilikning shakllanishiga ta'sir etadi. Bunday turdagi o'yinlarning ko'pchiligi jamoali bo'ladi. Qoidalarining mavjudligi bolalarning mustaqil tashkil etilganligi uchun sharoitlarni yaratadi, bu o'z o'rnida o'yinda do'stlik munosabatlari shakllanishiga asos bo'ladi.

Dars shaklidagi mashg'ulotlarda o'yin usullari va xolatlarini amalga oshirish quyidagi yo'nalishlar bo'yicha olib boriladi:

- didaktik maqsad o'quvchilarga oldiga o'yinli masala shaklida qo'yiladi;
- o'quvchilarning o'qish faoliyati o'yin qoidalariga bo'ysinadi;
- o'quv material o'yin vositasi sifatida qo'llaniladi;
- o'quv faoliyatiga musobaqa elementi kiritiladi, didaktik topshiriqni bajarishning muvaffaqiyatli o'yin natijasi bilan bog'liq.

Didaktik o'yin vaqtida tartib muhim mohiyat bo'ladi. O'qituvchilarning fikriga ko'ra matematika darsi tartib jixatdan ideal hisoblanadi, agar maktab o'quvchilar jiddiy, diqqatli, me'yorida faol, faqat individual mustaqil ish bilan shug'ullansa. Ular faqat qo'l ko'tarilganda va o'qituvchi ruxsat berganda o'z fikrini bildirishi yoki taklif kiritishi mumkin [2,45-49].

Tabiiyki o'qituvchi bolalarning sezgan xatolarni to'g'ridan – to'g'ri to'g'irlashga urinishni, o'zaro muloqat, bir – biriga yordam berishni to'xtatadi. Tartibsiz muloqat, aytib turishlar, ko'chirish zarar keltiradi. Agar o'quvchilarning muloqatini maqsadga yo'naltirgan qilib qo'yilsa, ya'ni ular bunday muloqotning bilish faoliyati jarayonida foydali ekanligini sezishsa, u holda o'qitishda ham, shaxsni shakllantirishda ham ijobiy natijalar olish mumkin, chunki bunday holda jamoada tarbiyalash prinsipi amalga oshadi. Bir vaqtda o'zaro yordam va o'zaro nazorat o'qituvchi ishini ham soddalashtiradi ham murakkablashtiradi. Yengillashtirishi shundaki qator xollarda o'qituvchi ayrim vazifalarini maktab o'quvchilariga yuklashi mumkin. Masalan, u ortda qolayotgan o'rtoqlariga maslahat berishini biror o'quvchiga topshirishi mumkin. Sir emas, ayrim xollarda qoloq o'quvchi o'zining o'rtog'i bilan erkinroq bo'lib o'qituvchiga qaraganda u bilan yaxshiroq shug'illanadi [2,46-48].

Har-bir o'yin qoidalariga ega, ular o'yin jarayonida o'quvchilarning xarakatlari va xatti-xarakatlarini aniqlaydi, darsda ish xolatini yaratishga yordam beradi. Shuning uchun o'yin qoidalari maqsadini va o'quvchilarning individual imkoniyatlarini e'tiborga olgan holda ishlab chiqilishi kerak. Bu bilan mustaqillikni, matonatni, fikrlash faollikni namoyon qilishga, har bir o'quvchiga

qoniqqanlik, muvafaqqiyat xissi paydo bo'lish imkoniga sharoitlar yaratiladi. Bundan tashqari, o'yin qoidalarini o'z xatti- xarakatini boshqarish, jamoa talablariga bo'ysunishi bilishni tarbiyalaydi.

O'z navbatida, didaktik o'yinlar material mazmuni, tashkil etish usuli, maktab o'quvchilarining tayyorgarlik darajasi, dars maqsadiga ko'ra har xil xarakterga ega bo'lish mumkin, masalan, reproduktiv, ijodiy, konstruktiv, amaliy, tarbiyaviy.

Matematika fanining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, o'yin-musobaqa, o'yin-olimpiadalarni farqlash kerak. Birinchi holda topshiriqni sifatli bajarishga ziyor keltirmagan holda hisoblashlar, shakl almashtirishlar tezligi hisobiga g'alaba ta'minlanadi, ikkinchisida- murakkablik darajasi yuqori bo'lgan masalalarni yechish yoki murakkab teoremlarni isbotlash sifati hisobiga g'alaba ta'minlanadi. Birinchisi xarakatlarning avtomotizmini ishlab chiqishga, ikkinchisi- matematikaga jiddiy munosabatni tarbiyalash uchun foydali [1,13].

Oxirgi natijada, o'yin shaklidagi mashg'ulotlarda hamkorlik, musobaqa, o'z-o'zini boshqarish, jamoa orqali tarbiya, bolalarni ilmiy-texnik ijodga jalb etish, xar birining sinfdagi o'qish va tartibga mas'uliyatlilikini tarbiyalash, asosiysi- matematika o'qitishga jalb etish g'oyalari amlga oshiriladi.

Oyin mazmunining matematik tomoni xar doim birinchi rejada bo'lishi kerak; faqat shu holda o'yin bolalarning matematik rivojlanishida va ularda matematikaga qiziqishni tarbiyalashda o'z rolini bajaradi.

Shunday qilib, o'quvchilarning bilish faoliyati motivatsiyasining rivojlanishida didaktik o'yinning o'rni juda katta, o'qitish jarayonida uning psixologik taxlili quyidagilarni ko'rsatadi:

- o'yin maktab o'quvchilariga erkin tasavvur qilishga, madaniy boyliklariga ega bo'lish va ma'lum ko'nikmalarni qayta ishlashga yordam beradi;

- o'quvchilar, o'yin faoliyatiga kirishganda o'qitishdagi o'z ehtiyojlarini qondiradi, boshqa misollar bilan o'zaro ta'sir etishni o'rganadi;

- O'yin bolalarning shaxsiy induvedualliklarini namoyish etishga va o'z ichki resurslariga yaqinroq yondashishga, kuzatuvchanlikni, topqirlikni, mustaqil fikrlashni, obrazli va mantiqiy fikrlashni, har bir bola intellektual rivojlantiradi;

- o'quvchi o'yindan xursand bo'ladi;

- o'yin dastur materialini o'rganishni yengillashtiradi;

- o'quvchilarning fikrlash faoliyatini, bolalar diqqatini, kuchi va bilim faoliyatini faollashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Habib R.A. "O'quvchilarning matematik tafakkurini shakllantirish". T: "O'qituvchi", 1971- y.

2. A.V.Petrovskiy tahririda. "Umumiy psixologiya".1992- y.

3. Alixonov S. "Matematika o'qitish metodikasi" T. 2010 y.

DAVLAT VA HUQUQ ASOSLARI DARSLARIDA HUQUQIY TARBIYA

Gulmurodova Sarvinoz Raxmonqulovna

Sirdaryo viloyati Boyovut tumanidagi 3-maktabning DHA fani o'qituvchisi

Biz qachonki "demokratik davlat" degan iborani aytadigan bo'lsak, albatta, "huquqiy" degan so'zni ham qo'shib ishlatamiz. Bugungi kunda xalqimizning siyosiy ongi oshishi bilan "huquq" degan so'z va unga bog'liq bo'lgan "huquqiy davlat", "huquqiy ong", "huquqiy madaniyat", "inson huquqlari madaniyati" kabi istiqbol davri uchun yangilik bo'lgan muhim tushunchalar o'zida ifoda qiladigan maqsadni teran anglash, bu tushunchalarning mohiyatiga yanada chuqur yetib borish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ma'lumki, huquq – davlat irodasini ifodalaydigan va uni kuch bilan himoya qiladigan umumiy majburiy normalar majmui (tizimi). Huquq avvalo fe'l-atvor normalari yoki qoidalar majmuasi, aniqroq qilib aytganda tuzilmasidir. SHu ma'noda, huquq erkinlik me'yorini belgilab yoki chegaralab, majburiyat yuklab va aniqlab, kishilar faoliyatini ijobiy yo'naltirish uchun ularning fe'l-atvoriga faol ta'sir ko'rsatadi.

Biz qonun ustuvorligiga erishgandagina o'zimiz uchun maqsad qilib qo'ygan adolatli, erkin

jamiyat, farovon hayot barpo etishimiz mumkin. Jamiyat hayotining mezoni bo'lgan Konstitutsiyani chuqur va har tomonlama o'rganishimiz, uning ma'nosiga yetib borib, amaliy hayotimizning doimiy qo'llanmasiga aylantirishimiz darkor"

Huquqiy ong bo'lmasa, demokratiya bo'lmaydi. Huquqiy ongning o'sishi – bu huquqiy madaniyatning o'sishi, qonunlarni ijro etish va hurmat qilish darajasining oshishi, demakdir.

Huquqiy ong qonunlarni nafaqat bilishni, balki qonun talablariga itoat etishni ham anglatadi. Albatta, inson hamma qonunlarni bilishi mumkin emas, ammo u eng muhim qonunlarni bilishga majbur. Bu konstitutsiyaviy majburiyatdir.

Odamlarimizda huquqiy ong, huquqiy madaniyatning yetarli darajada emasligi jamiyatda adolat mezonlarining buzilishiga olib kelmoqda. Ochig'ini aytganda, har birimiz ham Konstitutsiya va qonunlarimiz bergan haq-huquqlarimizni yaxshi bilmaymiz va uni himoya qila olmaymiz... Bir so'z bilan aytganda, Konstitutsiyamiz biz uchun nazariy-huquqiy hujjat – burch va majburiyatlarimiz majmuasigina emas. Balki u hayotimizni farovon etish, uni chinakam qonuniy asosda qayta qurish, o'z haq-huquqimizni ta'minlash, jamiyatda qonun va adolat ustuvorligini o'rnatishning hayotbaxsh manbaidir. Bu olijanob maqsadlarga erishish uchun barchamiz, avvalo, Konstitutsiyamiz va qonunlarimizning tub mohiyatini anglab yetishimiz va ularni hayotga tatbiq etish yo'lida birgalikda qat'iyat bilan kurashmog'imiz lozim"

Yoshlarni huquqiy merosimiz xazinasidagi asarlar bilan tanishtirish, hech shubhasiz, yosh avlodni o'zligini tanishiga, Vatanga muhabbat, kattalarga hurmat-e'tibor ruhida kamol topishiga xizmat qiladi. Shu bois buyuk allomalarimizning "Hidoya", "Sunani Termiziy", "Siyosatnoma", "Usulul fiqh" kabi huquqiy asarlarini nashr etish, ularning mazmun-mohiyatini ommaviy axborot vositalarida muntazam targ'ib etish dolzarb vazifalardandir.

Qisqa aytganda, ommaviy axborot vositalari aholining ayrim hollarda hali ham saqlanib kelayotgan eskicha psixologiyasini tamomila o'zgartirib, odamlarda yangi huquqiy ongni shakllantirishga xizmat qilishi zarur. Toki har bir yurtdoshimiz insonning huquq va erkinliklari ayni vaqtning o'zida burch, majburiyat va mas'uliyat ekanini chuqur his etadigan bo'lsin.

Albatta, huquqiy ong huquqiy bilimlarsiz shakllanmaydi va rivojlanmaydi. Har bir kishiga shuni tushuntirish lozimki, demokratiya sari yo'l – bu faqat qonunlarning soni bilan emas, balki ularning kishi ongiga nechog'lik singishi bilan belgilanadi.

Huquqiy ong uch mezonda yotadi, bular – shaxs, jamiyat, davlat. Har qanday jamiyatning belgilari jamiyat va davlat, shaxs va jamiyat o'rtasidagi o'zaro munosabatlar bilan aniqlanishi lozim. Davlat doirasida qonunlarni bajarish shart, jamiyatda esa axloqiy, ma'naviy qadriyatlarga amal qilish lozim. Inson jamiyatning a'zosi sifatida ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni hisobga olishi shart. Shaxsning jamiyatdagi o'rni uning ma'naviy qadriyatlarga, axloqiy normalarga hurmati bilan o'lchanadi.

Huquqiy madaniyat va ma'naviy qadriyatlar, axloq-odob haqida gap borganda, avvalambor, ko'hna zaminimiz odamlari ko'nglida ustuvor bo'lgan adolat, haqiqat, iymon, olijanoblik, bag'rikenglik, mardlik, tantilik kabi ulug' xislatlar Konstitutsiyamizdan munosib o'rin olganini alohida e'tirof etish joiz. Zotan, Asosiy Qonunimiz xalqimizning irodasini, ruhiyatini, ijtimoiy ongi va madaniyatini o'zida yaqqol aks ettiradi.

Binobarin, inson o'z huquqini anglab yetar ekan, unda huquq bilan birga, burch va mas'uliyat borligini ham unutmasligi lozim. Agarki jamiyatda hammamiz faqat huquqimizni talab qiladigan bo'lsak, Vatan himoyasi, yurt tinchligi, tinchlik-osoyishtalikni ta'minlash, mehnatga munosabat, atrofdagi voqealarga daxldorlik, vijdon amri degan tushunchalarning amaliy ifodasi qanday bo'ladi, degan mantiqiy savol tug'ilishi tabiiy.

Yuqoridagi fikr-mulohazalarni umumlashtirib aytganda, huquqiy madaniyat – bu qonunchilik bergan imkoniyatlardan, Konstitutsiyada muhrlangan va qonunlarimizda o'z ifodasini topgan, biz deyarli har kuni takrorlab gapiradigan masala, ya'ni, bizga berilgan shuncha huquqlardan imkon qadar ko'p foydalanish darajasi deganidir.

Shaxs huquqiy madaniyatini quyidagi ikki asosiy qismga ajratish mumkin;

- 1) huquqiy ong;
- 2) huquqiy faoliyat.

Huquqiy ong – ijtimoiy ong shakllaridan biri bo‘lib, u jamiyat taraqqiyotning ma’lum bosqichida – davlat, mulk va mulkiy munosabatlarning paydo bo‘lishi, aholining keskin sur’atda tabaqqalashuvi, huquq, huquqiy munosabatlar tushunchalarining paydo bo‘lish jarayonida ularga yondosh tushuncha sifatida qo‘llanilgan hamda ijtimoiy-huquqiy munosabatlarni tashkil etish chog‘ida ko‘zga tashlanadi.

DAVLAT VA HUQUQ ASOSLARI DARSLARIDA SINFDAN TASHQARI TARBIYAVIY ISHLARNING AHAMIYATI

Djumanov Zafarjon Gulyamovich

Sirdaryo viloyati Sirdaryo tumanidagi 21-maktabning DHA fani o‘qituvchisi

Maktabning o‘quvchilar bilan olib boradigan o‘quv mashg‘ulotlaridan tashqari xilma-xil ta’lim-tarbiya ishlari sinfdan tashqari ishlar nomini olgan. Sinfdan tashqari ishlar maktab ta’lim- tarbiya jarayonining tarkibiy qismi o‘quvchi-larning bo‘sh vaqtlarini yo‘lga qo‘yish shakllaridan biridir. Sinfdan tashqari ishlar shaxsni har tomonlama kamol toptirish va uni hayotga faoliyatga tayyorlash uchun keng imkoniyatga ega. Bu ishlar bolalarning qiziqishlariga muvofiq tarzda ko‘ngillilik asosida tashkil qilinadi. O‘quvchilar sinfdan va maktabdan tashqari ishlarda o‘zlarini qiziqtiradigan mashg‘ulotlarni tanlab olishadi ularda mustaqil tashabbuskorona ishtirok etishadi.

Maktab va sinfdan tashqari muassasalarning tashkiliy ishlarini, mazmuni va maqsadini belgilash bugungi kunimizning barcha qirralarini hisobga olishni ta-lab etmoqda. Sinf tashqari mazkur tarbiyaviy ishlar shaxs kamoloti bosqichlarini belgilab olishga qaratilganligi bilan tavsiflanadi. Mazkur muammoni ijobiy hal etish uchun sinfdan tashqari, tarbiyaviy ishlar tizimida quyidagilar bo‘lishi lozim:

- pedagoglar va o‘quvchilar o‘rtasida o‘zaro hurmat munosabatlarini shakllanganlikning o‘ziga xos an’ana vositalariga tayanish;

- ulg‘ayotgan inson shaxsini tarbiyada oliy ijtimoiy qadriyat deb tan olish, har bir bola, o‘smir va yosh yigitning betakror va o‘ziga xosligini hurmatlash, ijtimoiy huquqini e’tiborda tutish zarur.

Sinfdan tashqari ishlarni to‘la qamrab olgan to‘garaklar bir necha xilda bo‘lishi mumkin:

- a) fan to‘garaklari;
- b) mohir qo‘llar to‘garaklari;
- v) duradgorlik to‘garaklari;
- g) sport to‘garagi;
- d) badiiy havaskorlik to‘garagi.

Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarning samaradorligini oshirish avvalo komil insonni shakllantirishning eng zamonaviy va qulay yo‘nalishlarini topib joriy etishga bog‘liq. Sinfdan tashqari ishlar o‘quvchilar dunyoqarashini to‘g‘ri shakllanishiga, axloqiy kamol topishiga ko‘maklashadi.

Jamiyatni yangilash, mamlakatni modernizasiya qilish, demokratik davlat qurish va fuqarolik jamiyati barpo etish jarayonlarini yoshlarning ishtirokisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Ularning faolligi ko‘p jihatdan huquqiy bilimlarni mustahkamlash va huquqiy madaniyatni shakllantirishni ijobiy hal qilishga bog‘liq.

Huquqiy madaniyatni takomillashtirishda sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar muhim ahamiyatga ega. O‘quvchi yoshlar voyaga yetgan muhitda asosan, tabiiy huquqqa duch kelishadi, sun’iy(pozitiv) huquq normalari bilan esa ilk bor maktabda tanishadilar.

Shuni aytish lozimki maktab o‘quvchisida dastlab fuqarolik majburiyati emas, ma’naviy mas’ullik kuzatiladi. Maktab o‘quvchisi talabalik muhitiga o‘tgach, jamiyatning to‘la huquqli fuqarosiga aylanadi. Endi uning zimmasida nafaqat ma’naviy mas’uliyat, balki ushbu mas’uliyatni bajarish uchun yuridik javobgarlik ham bo‘ladi. Huquqiy madaniyat ushbu ikki jihatni ma’naviy mas’ullik va yuridik javobgarlikni dialektik uyg‘unlikda

shakllantiradi.

Jamiyatdagi faol ijtimoiylashuv holati insonlarning ushbu muhitda yashab o'z xulq-atvorini, so'z va amallarini ifoda etib, yo'naltirib borishga o'rgatadi, huquqiy madaniyat esa kishini jamiyat va davlat tomonidan qabul qilingan huquqiy normalar asosida yashashga o'rgatadi. Huquqiy madaniyat ana shu jarayonlar vositasi o'laroq shakllanib boraveradi.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'quvchi-yoshlar tomonidan sodir etilishi mumkin bo'lgan turli xil huquqbuzarliklarning oldini olish har bir ta'lim muassasasi pedagogik jamoasining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi va doimo diqqat e'tiborni talab etadi.

Ta'lim muassasalari ta'lim-tarbiya jarayonida pedagoglar, tarbiyachilar quyidagi holatlarga, xususiyatlarga e'tiborni qaratish hamda rioya etishlari lozim:

- o'quvchi shaxsi, qadr-qiymati hurmat etilishi hamda huquq va erkinliklari ta'minlanishi, uning paymol qilinishi va kamsitilishiga yo'l qo'ymaslik;

- o'quvchiga o'z haq-huquqlarini hamda burch va vazifalarini ado etishni yoshlikdan, bolalik davridan tushuntirish;

- sinf rahbari va ota-onalar o'rtasidagi o'quvchi xususida o'zaro axborot almashishning yo'lga qo'yilishi;

- o'quvchi bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish hamda ota-onalari bilan hamkorlikda uni nazorat etish;

- har bir o'quvchining oilasidagi muhitdan xabardor bo'lish;

- maktabdagi to'garaklar ishini faollashtirish, jonlantirish, o'quvchilarning qiziqishlariga ko'ra yangilarini tashkil etish;

- huquq-targ'ibot idoralari xodimlari bilan hamkorlikda maktablarda ota-onalar, o'qituvchi, o'quvchilar o'rtasida davra suhbatlari, muloqot kechalarining rejali tarzda o'tkazilishi;

- tarbiyasi "og'ir", huquqbuzarlikka "moyil" o'quvchilarning maktab ro'yxatiga olinishi hamda ota-onalar, mahalla noziri bilan hamkorlikda tarbiyaviy-profilaktik chora-tadbirlarini amalga oshirish;

- maktab "Davlat va huquq asoslari" fani o'qituvchilari rahbarligida o'quvchilar o'rtasida huquqiy-ma'rifiy ishlarning yo'lga qo'yilishi va amalga oshirilishi;

- maktab, sinf o'quvchilarini jamoatchilik ishlariga, turli xil huquqiy-ma'rifiy tadbirlarga, maktab ijtimoiy hayotiga keng ravishda jalb etish;

- asosiy diqqat e'tibor jinoyatchilikka va qonunbuzarlikka qarshi kurash emas, balki uning oldini olishga qaratilishi lozim;

- o'quvchi-yoshlar ongiga "jinoyat-jazosiz qolmaydi, har kim qilmishiga yarasha javobgarlikka tortiladi" degan qoidani yetkazish.

Xulosa qilib aytganda yoshlarda huquqiy madaniyatni shakllantirishda sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarning samaradorligini oshirilishi, ularning o'z davlati oldidagi huquq va burchlarini tan olishga, jamiyat tomonidan belgilagan yashash va axloq me'yorlariga ongli rioya etishga, ma'naviy yetuk shaxs bo'lishiga hizmat qiladi.

BOSHLANG'ICH SINFLARDA MASALALAR YECHISH JARAYONIDA HAYOTIY KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH

Xamidova Firuza Abdurashidovna

Sirdaryo viloyati Boyovut tumani 6-umumta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi

+99899 2808530

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang'ich sinf matematika darslarida masalalar yechish jarayonida hayotiy kompetensiyalarini shakllantirishda masala ustida ishlash bosqichlariga amal qilgan holda hayot bilan bog'lash yonalishlari misollarda keltirilgan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, matematika, masala, kompetensiya

Yurtimizda ta'lim-tarbiya tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar haqiqiy ma'noda bir-ikki yillik yoki qisqa davrda samaraga erishishga qaratilgan ish emas, balki chin ma'noda bir necha yuz yillarga tatiydigan o'zgarish bo'ldi, desak xato bo'lmaydi.

Ma'lumki, ta'limda ilg'or pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalarini tatbiq etish o'quv mashg'ulotlarining samaradorligini oshiribgina qolmay, ilm-fan yutuqlarini amaliyotda qo'llash orqali mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, har tomonlama barkamol yuksak ma'naviyatli shaxsni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Masalalar yechish matematika o'qishning muhim tarkibiy qismidir. Masalalar yechmasdan matematikani o'zlashtirishni tasavvur qilib bo'lmaydi. Matematikada masalalar yechilishi nazariyani amaliyotga tatbiq qilishning mutloqo tabiiy yo'lidir.

Masalalar yechish jarayonida o'quvchilar har bir amal ma'nosini va ularni qo'llashning asosiy hollarini o'zlashtiradilar: og'zaki va yozma hisoblash malakalari qo'llaniladi va mustahkamlanadi, **kommunikativ kompetensiyalari shakllantirib boriladi**. Masalalar yechishga o'rgatish o'quvchilarning mustaqil faoliyatlarini rivojlantirish uchun, ularda faollik va tashabbuskorlikni oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Bolalar o'qituvchi boshchiligida masalani qisqa va tushunarli yozishni, masala shartini rasm va chizmalar bilan namoyish qila olishni o'rganib olishlari, shu bilan masala yechish yo'llarini o'zlari uchun yengillashtirishlari, aniq bir masala shartini mavhumlashtirishni masalan, «baho», «miqdor», «qancha turishi» kabi mavhum atamalardan foydalanib va masalada berilgan miqdorlar bilan izlanayotgan miqdor orasidagi bog'lanishni ochishga yordam beruvchi usullarni o'rganib olishlari kerak.

Bu bilan bir qatorda masalalar ustida ishlashda masala mazmunidan kelib chiqqan holda integratsiya jarayoni ham o'z-o'zidan yuzaga keltirgan holda STEAM texnologiyasini ko'rishimiz mumkin va unga ko'ra matematikaga oid kompetensiyalarni ham shakllantirish imkoniga ega bo'lamiz.

Masalan: Qurilish haqidagi masalalar asosida texnologiya darsiga, tarbiya darslariga bog'liqlik bilan bir qatorda tayanch kompetensiyalardan **milliy va umummadaniy, matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish, ijtimoiy faol fuqarolik va o'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyalari** ham shakllantirilib boriladi.

Kutubxonada 18 ta "Bilimdon" jurnali bor edi. Kutubxonachi bir nechta jurnalni o'quvchilarga o'qish uchun tarqatgandan keyin 8 ta jurnal qoldi. Kutubxonachi nechta jurnal tarqatgan?

Bu masala asosida tayanch kompetensiyalardan o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasi ya'ni, mustaqil o'qib-o'rganish yo'nalishlari qamrab olingan.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasini shakllantirishda sayohatlarga oid, bayramlarga oid, ko'chatlar ekish, mevalar terish haqidagi masalalarda jamiyatda bo'layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va ularda faol ishtirok etish, o'zining fuqarolik burch va huquqlarini bilish, unga rioya qilish, mehnat va fuqarolik munosabatlarida muomala va huquqiy madaniyatga ega bo'lish layoqatlarini shakllantirish **imkoniyatiga ega bo'lamiz**.

Shuning uchun masalalar ustida ishlash jarayonida bolalarda to'la tusunchalar hosil qilish uchun quyidagilarga amal qilish muhim o'rin tutadi:

- 1) Masalani yechish bosqichlariga amal qilish;
- 2) Masalaning tarbiyaviy ahamiyatini ochish;
- 3) Qisqa shartning ma'qul, optimal variantini topish;
- 4) Ko'rgazmalilik asosida tashkil etish;
- 5) O'yin asosida amaliy tushuntirish;
- 6) Mustaqil ishlariga yo'naltirish;
- 7) Hayot bilan bog'lash;
- 8) Qiyin masalalarni hamkorlikda ishlashga yo'llash kabilar asosida tashkil etilsa masala mohiyatini tushunish va uni yechishga bo'lgan qiziqish kuchayib natija samarali bo'ladi.

Masala ustida ishlash jarayonida o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini inobatga olgan holda tashkil etish, ya'ni multimedia va taqdimotlar asosida masala yechish o'quvchining masalani yechishdagi imkoniyatlarini oshiradi. Shu bilan bir qatorda **axborotlar bilan ishlash kompetensiyalari rivojlanib boradi**. Masala asosida tenglama va yoki tenglama asosida masalalar

tuzish ham o'quvchilarda mustaqil ishlash va masala tuzish va yechish ko'nikmalarini shakllantirishdagi muhim omil hisoblanadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, o'quvchilarni masalalar yechishga o'rgatish asosida masala bosqichlarini ketma-ketligiga rioya qilish, uni mustaqil fikrlashga yo'naltirilgan holda tashkil etish va hayotiy kompetensiyalarni shakllantirishni asosiy maqsad etib qo'ydim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bikbayeva N.U, P.I.Sidelnikova, G.A.Adambekova Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi. Toshkent. "O'qituvchi" 1996-yil.

2. Jumayev M.E Matematika o'qitish metodikasi. (OO'Y uchun darslik.) — T.: "Turon iqbol" 2016.

Internet materiallari.

www.ziynet.uz

BIOLOGIYA DARSLARIDA INNOVASION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Xudoyqulova Adiba Habibovna

Sirdaryo viloyati Boyovut tumani 21-maktab biologiya fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada talim jarayonini sifatli amalga oshirishda innovasion texnologiyaning o'rni haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Pedagogik innovasiya, innovasion texnologiya, ilgor ta'lim texnologiyasi, pedagogik jarayon, rezyume, o'quvchilarni mustaqil o'quv faoliyatiga yo'naltirish.

USE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN BIOLOGY LESSONS

Annotation: This article discusses the role of innovative technology in the quality of the educational process.

Keywords: Pedagogical innovation, innovative technology, advanced educational technology, pedagogical process, resume, orientation of students to independent learning activities.

Pedagogik innovatsiya tushunchasi, jarayoni bizning mamlakatimizda ham keng qamrovda o'rganila boshlandi. Innovatsion xizmat, nashriyot faoliyati jurnal va information maqolalar ko'rinishida paydo bo'ldi hamda dunyodagi turli mamlakatlardagi pedagogik yangiliklarni umumlashtirib, ta'lim masalalari bo'yicha pedagogik jamoatchilikka maxsus nashrda ular haqida ma'lumotlar tarqatadi. Ehtiyojlardan kelib chiqib davlat, jamiyat yangicha talab qo'yadi. Madaniyat, fan, texnika tez o'zgarib borishi hamda jamiyatning yetakchi g'oyalari, o'zgarishlar ta'limni isloh qilishga sabab bo'ladi. Hozirda yangi bilimlarga bo'lgan talab kuchaygan. Ular innovatsion jarayonni tashkil etadi. Yangilik kiritish jarayonini o'zini bir soha muhitdan 2-sohaga olib o'tish mexanizmini hisobga olish bilan birga o'rganiladi. Tadqiqotchi diqqatini turli hil innovatsion vaziyatlarni tahlil etishga qaratadi hamda yangilik kiritish sohasidagi tavsiyanomalarini kiritadi.

Innovatsion faoliyat –pedagogning yaratuvchilik va ijodiy faoliyat natijasi. Pedagogning yuksak professionalizmga erishishning omillari: isted'dod nishonalari, uquvlilik, qobiliyat, iste'dod o'quv yurti, o'z xatti harakatidir

Ta'lim tizimiga ilg'or pedagogik texnologiyalar joriy etilishi natijasida kam vaqt sarflab ko'p natijaga erishish mumkin.

O'qituvchining innovatsion faoliyati aniq shakl va uslublarini quyidagilarda amalga oshirish tavsiya etiladi:

O'quv tarbiya faoliyatini aniq shakllar va uslublarni o'quv- tarbiya faoliyatini differentsiyalash;

O'quv ta'lim jarayonini har bir o'quvchi shaxs xislatiga qarab muvofiqlashtirishni moslash. Insonparvarlik ta'limini kuchaytirish

Ta'lim-tarbiya ishlarni muvaffaqiyatini ta'minlash.

Har bir o'quvchi rivojlanishi darajasining asoslanishi .

O'qituvchi har bir ta'lim oluvchi va tarbiyalanuvchi qobiliyati va qiziqishi rivojlanishi uchun kerak sharoitlarni yaratib beradi hamda yo'naltiradi

Biologiya darslarida o'qitishning yangi zamonaviy metodlaridan foydalanish jamiyatimiz hayotida yuz bergan ijobiy o'zgarishlar ta'limning maqsadi, mazmuni va vazifalarini ham qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi.

Zamonaviy usullardan foydalanish: sinf muhitini o'zgartiradi; mavzu qanday o'rganilishi kerakligini belgilab beradi; har bir o'quvchini faollashtiradi. Bugungi kunda o'qituvchi o'qitish uchun faqat zaruriy axborotlarnigina tanlab olishi va o'quvchini bevosita mustaqil bilim olishga o'rgatmog'i zarur. Bu jarayonda o'qituvchining pedagogik mahorati, uning chuqur bilimi, odob-axloqi muhim rol o'ynaydi. Hozirgi kunda zamonaviy usullardan foydalanib dars berishda o'qituvchi mohirlikdan ijodkorlikka intilishi va bu bilan ta'lim sohasi rivojiga hissa qo'shmog'i talab etiladi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llashda noan'anaviy dars usullaridan foydalanish orqali iqtidorli o'quvchilarni aniqlash, bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilarda o'z kuchlariga ishonch hosil qilishlari uchun imkon yaratish, sinfdagi o'quvchilar o'rtasida do'stlik, o'zaro hamkorlik aloqalarini shakllantirishga erishish nazarda tutiladi. Masalan:

"Rezyume" texnologiyasi.

Texnologiyaning tavsifi: Bu texnologiya murakkab, ko'p tarmoqli, mumkin qadar muammoli mavzularni o'rganishga qaratilgan. Texnologiyaning mohiyati shundan iboratki, bunda bir yola mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha axborot beriladi. Ayni paytda ularning har biri alohida nuqtalardan muhokama qilinadi. Masalan, ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik va kamchiliklari, foyda va zararlari belgilanadi.

Texnologiyaning maqsadi: O'quvchilarni erkin, mustaqil, tanqidiy fikrlashga, jamoa bo'lib ishlashga, izlanishga, fikrlarni jamlab taqqoslash uslubi yordamida mavzudan kelib chiqqan holda o'quv muammosini yechimini topishga hamda kerakli xulosa yoki qaror qabul qilishga, jamoaga o'z fikri bilan ta'sir etishga, uni ma'qullashga, shuningdek, berilgan muammoni yechishga o'rgatish.

Texnologiyani qo'llanilishi: Ma'ruza darslarida (imkoniyat va sharoit bo'lsa), seminar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarida yakka (yoki kichik guruhlar ajratilgan tartibda o'tkazish, shuningdek uyga vazifa berishda ham qo'llash mumkin.

Mashg'ulotda foydalanadigan vositalar: A-4formatdagi qog'ozlarida (guruh soniga qarab) tayyorlangan tarqatma materiallar, flomaster yoki rangli qalamlar.

Mashg'ulotlar o'tkazish tartibi:

o'qituvchi o'quvchilarning soniga qarab 3-5 kishidan iborat kichik guruhlariga ajratadi. o'qituvchi o'quvchilarni mashg'ulotning maqsadi va o'tkazilish tartibi bilan tanishtiriladi va har bir kichik guruhga qog'ozning yuqori qismida yozuvi bo'lgan, ya'ni asosiy muammo, undan ajratilgan o'quv muammolari va ularni yechish yo'llari belgilangan, xulosa yozma bayon qilinadigan varaqlarni tarqatadi.

har bir guruh a'zolari ularga tushgan varaqlardagi muammolarning afzalligi va kamchiliklarini aniqlab, o'z fikrlarini flomaster yordamida yozma bayon etadilar. Yozma bayon etilgan fikrlar asosida ushbu muammoni yechimini topib, eng maqbul variant sifatida umumiy xulosa chiqaradilar.

kichik guruh a'zolaridan biri tayyorlangan materialni jamoa nomidan taqdimot etadi. Guruhning yozma bayon etgan fikrlari o'qib eshittiriladi, lekin xulosa qismi bilan tanishtirilmaydi.

o'qituvchi boshqa kichik guruhlardan taqdimot etgan guruhning xulosasini so'rab, ular fikrini aniqlaydi, guruhlar fikridan so'ng taqdimot guruhi o'z xulosasi bilan tanishtiradi;

o'qituvchi guruhlar tomonidan berilgan fikrlarga yoki xulosalarga izoh berib, ularni baholaydi, so'ngra mashg'ulotni yakunlaydi.

Xulosa qilib aytganda, tajriba-sinov natijalari shuni ko'rsatadiki, agar darslar so'z, tushuntirish orqali olib borilsa, o'zlashtirish 10% ni, ko'rsatish, namoyishlar orqali tashkil etilsa, 50% ni, ta'lim jarayoni o'quvchilarning shaxsiy ishtiroki faolligida kechsa, o'zlashtirish sifati va samaradorligi 90% ni tashkil etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Tolipov O', Usmanbaeva. Pedagogik texnologiyalarni amaliyotga tadbiqu. T. O'qituvchi. 2006 yil.

2. Ishmuhammedov R. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. -T. :Nizomiy nomidagi TDPU, 2004, 2008 (qayta nashr). - 44 b.

3. Ishmuhammedov R. O'quv jarayonida interfaol uslublar va pedagogik texnologiyalarni qo'llash uslubi. - T. : RBIMM, 2008. – 68 b.

4. Ishmuhammedov R. , Abduqodirov A. , Pardaev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar (ta'lim muassasalari pedagog-o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). – T. : Iste'dod, 2008. -180 b. 2010. - 140 b.

MATEMATIKA DARSLARIDA O'QITISH MOTIVATSIYA MUHITINI RIVOJLANTIRISH

Niyazova Dilrabo

Sirdaryo viloyat Sirdaryo tumani 7-umumta'lim maktabi matematika fani o'qituvchisi

Annotasiya: *Ushbu maqolada dars jarayonida o'quvchining bilish faoliyati idrok, xotira, fikrlash, tasavvur qilish jarayonlari, shu bilan birga tetiklik holati e'tiborning bir joyga jamlanganligi, ko'rsatma ya'ni ma'lum xatti – xarakat yoki amalga ichki tayyorgarligi to'g'risidagi nazariy materiallar yoritilgan.*

Abstract: *This article describes the theoretical material on the cognitive activity of the student in the course of the lesson, the processes of cognition, memory, thinking, imagination, as well as the state of alertness, concentration, instruction, ie internal preparation for a particular action or action.*

Bilim olish faoliyati, boshqa faoliyat kabi, bolalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan, bolalar faoliyati mazmunida ham, ular tomonidan qo'llanilayotgan usullarda ham o'z xususiyatiga ega [1, 16-26]

Maktab bolalarning bilim olish faoliyatini tashkil etishda hal qilishi kerak bo'lgan bevosita masala – mos predmetlarni tuzish uchun tanlangan alohida fanlar mazmuni bo'lgan va insoniyat tomonidan jamg'arilgan bilimlarning ma'lum tizimi bilan bolalarni boyitishdan iborat. Bilimlarni o'zlashtirish o'quvchilardan turli toifali, murakkablik darajali, turli darajadagi mustaqil qator amallarni qo'llash, ularni tanlash va ratsional qo'llashni talab etadi. Buning uchun bolalar qator qoida, usul, uslublarga ega bo'lishi kerak, ularsiz xattoki yaxshi yodlangan bilimlarni qo'llash mumkin emas. O'quv faoliyatda o'qituvchi o'quvchilarda bilimga maksimal qiziqtirish va aqliy mehnatga extiyojni shakllantirishga intiladi. Bu masalaning muvafaqqiyatli amalga oshirilishi o'quvchilarning aqliy rivojlantirishning muhim va samaraliroq yechimi hisoblanadi.

Idrok etishning to'liqligi va aniqligi xotiraning ishlashini talab etuvchi tahlil, sintez, taqqoslash, moslashtirish, aniqlashtirishi kabi fikrlash amallarida namoyon bo'ladigan mos ko'rsatma, jamlangan diqqat va faol aqliy faoliyatda erishilishi mumkin.

O'quvchi charchoq, tormozlangan holatda bo'lsa, uning fikri yechimni talab etuvchi savol bilan uyg'otilmagan bo'lsa, maktab o'quvchilarda faol xarakatga ehtiyoj paydo bo'lmagan holda diqqatni bir joyga jamlash mumkin emas. Barcha bilish jarayonlarining o'zaro asoslashi ayrimlarining ahamiyatining ustunligini istisno qilmaydi. Shunday qilib, bilish faoliyatining markaziy komponenti – fikrlash va tasavvurning ishi. Aynan shu jarayonlar yangi dalil va bog'lanishlarni tushunishga, yangi uslublar va amallar usullarini topishga, masalalarni yechishning ratsional yo'llarini aniqlashga olib keladi. Fikrlash va tasavvurning rivojlanganligi bilan o'quvchilarning intellektuallik darajasi, ularning aqliy darajaning bir bosqichidan boshqasiga o'tishi aniqlanadi.

Darsda o'quvchilarning bilish faoliyatining tashkil etish - bu o'quv masalalarining mantiqiy va amaliy yechish uchun optimal sharoitlarni yaratishdir. Darsda o'qituvchi bunday sharoitlarni faqat har bir faoliyatli holatlarning qonuniyatlari va ularning o'zaro ta'sir xarakterini tushungandagina yarata oladi [2, 124]

Zamonaviy sharoitlarda matematika o'qituvchisining faoliyati shu paytgacha bo'lganiga nisbatan o'zgaradi. Yaqingacha, ayrim hollarda hozirgi vaqtda ham, bu faoliyat o'qitish bilan chegaralanadi. O'quvchilar shaxsini tarbiyalash, ularning o'quv faoliyatini shakllantirish masalalari matematika o'qituvchilarining e'tibori markazida bo'lmagan, ular tomonidan asosiy masala sifatida qaralmagan.

Hozirgi vaqtda matematika o'qituvchilarining asosiy masalasi o'quv predmeti orqali,

matematika o'qitishning o'quv – tarbiyaviy jarayonini tashkil etish, barcha o'quvchilarda o'quv mahoratini shakllantirish yordamida har tomonlama rivojlangan shaxsni tarbiyalashdan iborat.

Intellektual passiv bolalarning o'quv faoliyatiga o'yin katta ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Psixologlar A.S.Slavipaning tatqiqotlari, o'yin jarayonida intellektual passiv bola oddiy o'quv holatda umuman bajara olmaydigan o'quv ish xajmini bajarishi mumkin ekanligini ko'rsatadi. Psixologlarning tatqiqotlari, agar o'quvchilarda fanga chuqur va mustahkam qiziqish shakllangan bo'lsa, ularga tasavvur qilinadigan holat va rol kerak emas. Agar bunday qiziqish bo'lmasa va pedagog uni yaratishga intilsa, u holda o'yin o'qituvchining yordamchisi bo'lishi mumkin.

O'yin jarayonida hosil bo'lgan qiziqish o'quv jarayoniga emas o'yinga qiziqish ekanligidan qo'rqish kerak emas. Qiziqishni rivojlantirish o'z qonuniyatlariga ega: hodisalarning tashqi tomoniga ularning ichki mazmuniga qiziqishga o'sadi. Shuning uchun, hozirgi vaqtda o'qitish o'quvchilar orqali va ular vositasida, ularning individual va hamkorlikdagi faoliyati orqali amalga oshirilishi kerak.

K.D.Uminskiy quyidagicha yozgan, qiziqarli bo'lishi uchun fan faqat qisman yangi qisman tanish bo'lishi kerak. O'quv materialida yangi va kutilmagan narsalar oldindan ma'lum tanish narsa fanida aniqlanadi. Shuning uchun bilishli qiziqishni mukammallantirishda maktab o'quvchilarini tanish narsalarda yangisini ko'rishini bilishga o'rgatish muhimdir.

Bunday o'qitish atrofdagi olamning kundalik takrorlanuvchi hodisalarining ko'p qiziqarli tomonlarini darsda bilishi mumkinligi haqida anglashga olib keladi. Takrorlanuvchiligi sababli bolaga odatiy bo'lib qolgan hayotning muhim hodisalari uning uchun o'qitishda kutilmagan yangi, ma'noga to'la, umuman boshqa ega bo'lishi mumkin va shart. Bu albatta o'quvchining bilimga qiziqishga rag'bat bo'lishi mumkin.

Aynan shuning uchun o'qituvchi maktab o'quvchilarini olam haqidagi tor va qishloq tasavvuridan – qonuniyatlarini tushunish, umumlashtirish, ilmiy tushunchalar darajasiga o'tkazish zarur.

Bilim faoliyatining motivatsiyasi haqida gapirganda, uni o'quvchining qo'yilgan o'qitish maqsadiga qarab yo'naltirilgan va darslarda faolligiga (passivligiga) ta'sir etuvchi harakatlarni aniqlovchi motivlarning turli darajali tizimi sifatida qarash zarur. Ayrim motivlar ma'no beruvchi bo'lib, o'qish faoliyatiga shaxsiylik ma'noni beradi, boshqalari, parallel ravishda harakat qilib qo'shimcha sabablar, motiv – stimullar bo'lib xizmat qiladi.

Motivatsiya (lotincha movi-harakat qildiraman) – o'quvchilarga samarali bo'lish faoliyatiga, ta'lim mazmunini faol o'zlashtirishga jalb etuvchi jarayonlar, usullar, vositalarning umumiy nomi "Motivatsiya" tushunchasiga asosan ularning kasbiy majburiyatlariga munosabatlari bilan bog'liq birmuncha o'ziga ma'no beriladi [3,25-29]

Annotation: This article discusses the use of non-standard methods in solving complex mathematical problems. It is advisable to organize a work on the use of trigonometric substitution to solve algebraic problems in the circle. It covers students' ability to solve a variety of problems: rational and irrational equations, inequalities, their systems, tasks for finding the maximum and minimum values of a function, and the expediency of proposing parametric problems.

Matematika umumnisoniy madaniyatning salmoqli va ajralmas qismidir. Bu fanning o'qitilishi shaxsning shakllanishi va rivojlanishiga katta hissa qo'shadi, fikrni mukammalshtiradi, dunyoqarashni kengaytiradi, o'quvchilarning ma'naviy va ruhiy tarbiyasiga ijobiy ta'sir qiladi. Uni o'qitishning samaradorligi ko'p jihatdan tushunchalarning yoritilishiga, masalalarning tanlanishiga, ularning mantiqiy ketma-ketligiga ko'p jihatdan bog'liq.

Matematika bo'yicha fakultativ mashg'ulotlarda algebraik masalalarni yechish uchun trigonometrik almashtirish qo'llashga bag'ishlangan ishini tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Bunda o'quvchilarga turli xil masalalarni yechish uchun: ratsional va irratsional tenglamalar, tengsizliklar, ular tizimi, funksiyaning eng katta va eng kichik qiymatlarini topish topshiriqlari, parametrli masalarni taklif etish maqsadga muvofiqdir. Alohida sinfdagi masalalarni ko'rib chiqish bilan cheklanmasdan, trigonometrik almashtirishlar yordamida yechiladigan turli xil algebraik masalalarni o'zida to'plashni o'z ichiga oluvchi bunday ishini yaratish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Trigonometrik almashtirish o'zgaruvchanni almashtirish metodini amalga oshirish usullaridan biri hisoblanadi va trigonometrik funksiyasining qiymatlar sohasi bilan dastlabki tenglamaning aniqlanish sohasi bilan to'g'ri kelganda yoki bu sohaga qo'shilganda. Bunda u yoki bu funksiyani tanlash soddalashtirish zarur bo'lgan tenglamaning, tengsizlikning, ular tizimlari yoki algebraik ifoda ko'rinishiga bog'liq.

Agar masala shartidan kelib chiqib, x o'zgaruvchanning yo'l qo'yilgan qiymatlari $|x| \leq 1$ tengsizligi bilan aniqlansa, u holda $x = \sin \alpha$ yoki $x = \cos \alpha$ almashtirishlar qulay bo'ladi. Birinchi holatda $a \in \left[-\frac{\pi}{2}; \frac{\pi}{2}\right]$ ni ko'rib chiqish yetarli, binobarin ushbu oralikda $y = \sin x$ uzluksiz vazifa

ko'payadi, shuning uchun o'zining har bir ahamiyatini bitta nuqtada qabul qiladi. $y = \cos x$ uzluksiz vazifasi $[0; \pi]$ oralig'ida kamayadi, shuning uchun xudsi shunday har bir o'zining ahamiyatini bitta nuqtada qabul qiladi. Mana shuning uchun $x = \cos \alpha$ almashtirishda, $\alpha \in [0; \pi]$ ni olish yetarli bo'ladi.

Ikkitadan qaysi almashtirishni olish esa, konkret vaziyatga bog'liq bo'ladi.

Har qanday mavjud qiymatni qabul qila olgan holatlarda $x = tga$, $a \in \left[-\frac{\pi}{2}; \frac{\pi}{2}\right]$ yoki $x = ctga$,

$\alpha \in [0; \pi]$ almashtirishlari ishlatiladi, chunki $y = tgx$ va $y = cgx$ funksiyasining qiymatlar sohasi ma'lum oraliqlarda hamma mavjud sonlar ko'shshida mavjuddir.

$x = rsina$ yoki $x = rcosa$ almashtirishlari kam ishlatiladi, bundar $r \in R$, $r \geq 0$, $\alpha \in [0; 2\pi)$, α qiymatlarini tanlash esa konkret vaziyatga bog'liq bo'ladi.

Ifoda ikki o'zgaruvchan x va y ga bog'liq bo'lsa, $x = rcosa$, $y = rsina$ talarini qo'yish maqsadga muvofiq, bu yerda $r \in R$, $r \geq 0$, $\alpha \in [0; 2\pi)$. Bunday almashtirish qonuniydir. Haqiqatdan ham, har qanday x va y uchun $r \geq 0$ mavjud, bunda $x^2 + y^2 = r^2$. $r \neq 0$ da $\frac{x^2}{r^2} + \frac{y^2}{r^2} = \frac{x}{r} + \left(\frac{y}{r}\right) = 1$. Kvadratlar miqdori birga teng bo'lgan sonlar esa, modul bo'yicha birdan oshmaydi va ularni ayrim burchshshing sinus va kosinusi sifatida ko'rib chiqish mumkin. Bunday almashtirishning geometrik mazmuni quyidagidan tashkil bo'ladi: har qanday nuqta uchun (x, y) koordinatalar boshigacha absiss o'qining musbat yo'nalshpiga r masofa va (x, y) vektor qiyaligi α burchagianiqlanadi.

Va so'ngi mulohaza. Bunday almashtirishni amalga oshirish uncha qiyin emas, eng asosiysi, va balki eng murakkabi - uni ko'ra bilish. Shuning uchun o'quvchilarga trigonometrik almashtirishlarning "belgilarini" tanishni o'rganishga yordam berish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Masalan, trigonometrik almashtirish metodi.

Misol tenglamani yeching.

$$\sqrt{\frac{1+2x\sqrt{1-x^2}}{2}} + 2x^2 = 1.$$

Trigonometrik almashtirish yordamida yechish.

Ko‘rinib turibdiki $1 - x^2 \geq 0$, u holda $|x| \leq 1$. demak, $x = \sin \alpha$, $\alpha \in \left[-\frac{\pi}{2}; \frac{\pi}{2}\right]$ almashtirish olamiz. Noma'lum o'rniga qo'ysak tenglama quyidagicha bo'ladi.

$$\sqrt{\frac{1+2\sin\alpha\cos\alpha}{2}} = 1 - 2\sin^2\alpha \Leftrightarrow \frac{|\sin\alpha + \cos\alpha|}{\sqrt{2}} = \cos 2\alpha \Leftrightarrow \left|\sin\left(\alpha + \frac{\pi}{4}\right)\right| = \cos 2\alpha.$$

$\alpha + \frac{\pi}{4} = u$ belgilash olamiz, bu yerda $u \in \left[-\frac{\pi}{4}; \frac{3\pi}{4}\right]$, u holda

$$|\sin u| = \sin 2u \Leftrightarrow \begin{cases} \sin u > 0 \\ \cos u = \frac{1}{2} \end{cases} \Leftrightarrow \begin{cases} \sin u = 0 \\ \cos u = -\frac{1}{2} \end{cases} \Leftrightarrow \begin{cases} u_1 = \frac{\pi}{3} \\ u_2 = 0 \end{cases}$$

$$x_1 = \sin\left(u_1 - \frac{\pi}{4}\right) = \sin\left(\frac{\pi}{3} - \frac{\pi}{4}\right) = \sin\frac{\pi}{3}\cos\frac{\pi}{4} - \cos\frac{\pi}{3}\sin\frac{\pi}{4} = \frac{\sqrt{3}}{2} \cdot \frac{\sqrt{2}}{2} - \frac{1}{2} \cdot \frac{\sqrt{2}}{2} = \frac{\sqrt{6} - \sqrt{2}}{4}.$$

$$x_2 = \sin\left(u_2 - \frac{\pi}{4}\right) = \sin\left(-\frac{\pi}{4}\right) = -\frac{\sqrt{2}}{2}.$$

Javob: $\left\{-\frac{\sqrt{2}}{2}; \frac{\sqrt{6} - \sqrt{2}}{4}\right\}.$

Algebraik yechish

$$\sqrt{\frac{1+2x\sqrt{1-x^2}}{2}} + 2x^2 = 1 \Leftrightarrow \frac{1}{\sqrt{2}} \sqrt{(x + \sqrt{1-x^2})^2} = 1 - 2x^2 \Leftrightarrow \frac{|x + \sqrt{1-x^2}|}{\sqrt{2}} = 1 - 2x^2.$$

Ma'lumki $1 - 2x^2 \geq 0$, bundan $1 - x^2 \geq x^2$, $\sqrt{1-x^2} \geq |x|$. Demak, $x + \sqrt{1-x^2} \geq 0$, shunday qilib modulni tashlab yuborish mumkin bo'ladi.

$$\frac{x + \sqrt{1-x^2}}{\sqrt{2}} = 1 - 2x^2 \Leftrightarrow \frac{x + \sqrt{1-x^2}}{\sqrt{2}} = (1-x^2) - x^2 \Leftrightarrow \frac{x + \sqrt{1-x^2}}{\sqrt{2}} = (\sqrt{1-x^2} + x)(\sqrt{1-x^2} - x) \Leftrightarrow$$

$$\Leftrightarrow (\sqrt{1-x^2} + x) \left(\frac{1}{\sqrt{2}} - (\sqrt{1-x^2} - x) \right) = 0 \Leftrightarrow \begin{cases} \sqrt{1-x^2} + x = 0 \\ \frac{1}{\sqrt{2}} = \sqrt{1-x^2} - x \end{cases} \Leftrightarrow \begin{cases} 2x^2 = 1 \\ x \geq 0 \\ 4x^2 + 2\sqrt{2}x - 1 = 0 \end{cases} \Leftrightarrow \begin{cases} x \geq -\frac{\sqrt{2}}{2} \end{cases}$$

$$\Leftrightarrow \begin{cases} x = \frac{\sqrt{6} - \sqrt{2}}{4} \\ x = -\frac{\sqrt{2}}{2} \end{cases}$$

Javob: $\left\{-\frac{\sqrt{2}}{2}; \frac{\sqrt{6} - \sqrt{2}}{4}\right\}.$

Shunga uxshash masalalarni yechish uchun yechimning eng qulay metodi – trigonometrik almashtirish yordamida yechish. Agar bunday misollarni yechishda eng kam ahamiyatini aniqlash bilan qiyinchiliklar to'g'rilishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda bunday tipdagi misollarni hal qilishda bir necha usullardan foydalanish mumkin va qaysi usuldan foydalanish bu masalaning berilishiga qarab tanlash maqsadga muvofiq. Masalalarni trigonometrik almashtirishlar usullari ayrim murakkab tipdagi masalalarni nostandart usulda yechish imkonini beradi. Maqolani yoritishda misollar orqali tushuntirishga harakat qilindi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alekseyev A. Trigonometrik almashtirishlar / A. Alekseyev, L. Kurlyandchik // Kvant. –

ТЕХНОЛОГИЯ ФАНИНИ ИНТЕГРАЛЛАБ ЎҚИТИШДА ЁШЛАРНИ ЭКОЛОГИК МАДАНИЯТИНИ ШАКЛЛАТИРИШНИНГ БАЪЗИ ЙЎЛЛАРИ

М.Мухлибев, Д.Мамасолиева
Гулистон давлат университети доценти
Гулистон давлат университети талаба

Аннотация: Ушбу мақолада ёшларни экологик маданиятини шакллантиришда интегратив билимлар асосида фанларни мазмунидан келиб чиқиб ташиқил этиш орқали мамлакатимиздаги экологик инқирозни, аввало "экологик билимсизлик" фожиаси деб баҳоласа тўғри бўлур эди, ҳар қандай халқнинг турмуш тарзи экологик билимнинг яхши кўрсаткичидир деб бежиз айтилмаган. Халқ фаровонлиги ва турмуш даражасини юксалтириш кўп жиҳатдан экологик маданиятни шакллантириш бўйича олаётган билимлар самарадорлигига боғлиқ

Фан-техника тараққиёти жадаллашган ҳозирги даврда табиат билан жамиятнинг ўзаро таъсири ва алоқадорлигини мувофиқлаштириш, уйғунлаштириш жараёнида шундай экологик муаммолар вужудга келдики, улар давримизнинг долзарб муаммоси сифатида талқин қилинади.

Экологик инқирознинг бош сабабчиси табиий жараёнлар бўлсада, аммо улар антропоген омил-инсон фаолияти таъсирида вужудга келган. Шу туфайли бу инқирозни соф табиий-тарихий, тадрижий жараён сифатида баҳолаш ёки сув етишмаслигига боғлаб қўйиш ярамайди. Агар ушбу муаммо ижтимоий, иқтисодий, сиёсий ва маданий билимларнинг диалектик бирлиги асосида таҳлил қилинса, унинг ҳозирча кўзга ташланмаган муҳим жиҳати ёшларда зарурий экологик билим шаклланмаганлигида намоён бўлади. Шу нуқтаи назардан мамлакатимиздаги экологик инқирозни, аввало "экологик билимсизлик" фожиаси деб баҳоласа тўғри бўлур эди. Зеро, ҳар қандай халқнинг турмуш тарзи экологик билимнинг яхши кўрсаткичидир. Ҳозирги бозор шароитида ижтимоий-иқтисодий тараққиётни тезлаштириш, халқ фаровонлиги ва турмуш даражасини юксалтириш кўп жиҳатдан қишлоқ хўжалик ишлаб чиқариши самарадорлигига боғлиқ.

Бироқ кўпчилик ёшларда экологик билимнинг етишмаслиги туфайли ишлаб чиқариш жараёнида маҳаллий-табиий хусусиятлар, табиатни муҳофаза қилиш қонун-қоидалари эътиборга олинмаган. Техникадан кўпол фойдаланиш ва технология бузилишининг атроф-муҳитга салбий таъсир кўрсатиши мумкинлиги ҳақида деярли ўйлаб кўрилмаган. Оқибатда қишлоқ хўжалиги атроф-муҳитга кучли таъсир кўрсатувчи омилга айланганки, бу ҳол мамлакатимиз табиатида экологик инқирозларни содир қилишга сабаб бўлмоқда:

- ҳайдалма ер майдонининг ортиб, чорва яйловининг кенгайиши натижасида узок тадрижий тараққиёт жараёнида вужудга келган табиий экотизм биоценозлар ўрнида инсон томонидан сунъий яратилган экотизм-агробιοценозлар пайдо бўлди;

- қўриқ ерларни ўзлаштириш, тўқайларни йўқ қилиш, кўлларни илмий асоссиз қуритиш ишлари оқибатида намликнинг кескин камайиши кузатилмоқда;

- ерга нотўғри агротехник ва мелиоратив ишлов бериш, табиий ер қатламининг бузилиши туфайли тупроқлар таркиби ўзгарди, унумдорлиги пасайди, сув ҳавзаларидан намликнинг камайишига, ҳавода чанг зарраларининг кўпайишига имкон берди;

- экинларни суғориш усуллари ва меъёрига риоя қилмаслик, далаларнинг ортикча намланиши ва иккиламчи шўрланишига, сув исрофгарчилигига олиб келди;

- маъданли ўғитлар ва кимёвий воситалардан меъеридан ортикча фойдаланиш ва уларни ишлатиш қоидаларига риоя қилмаслик атроф-муҳитнинг табиатга ёт бўлган турли хил моддалар билан ифлосланиши тирик мавжудотлар ҳаёт фаолиятининг бузилишига сабабчи

бўлди;

- кўплаб йирик чорвачилик ва паррандачилиқ иншоотларининг қурилиши атроф-муҳитнинг ишлаб чиқариш чиқиндилари билан ифлосланиши имкониятларини оширди;

- қишлоқ хўжалиғи техникаси ва транспорт воситаларидан нооқилона фойдаланиш тупроқ зичлигининг ортишига, намлик сақлаш ва сув ўтказувчанлик хоссасининг бузилишига, атроф муҳитнинг ёнилғи-мой қолдиқлари, захарли газлар билан ифлосланишига олиб келди.

Қишлоқ хўжалиғи ишлаб чиқариши табиатдан оқилона фойдаланишнинг кўзда тутилган қуйидаги асосий йўналишлари билан қўшиб олиб борган пайтдагина атроф-муҳитни муҳофаза қилиш муаммоларини ижобий ҳал қилиш мумкин:

Ўрта умумтаълим мактабларида «иккиламчи хомашё» тўплаш ишларини уюштириш анъанага айланиб қолган. Ўқувчилар минглаб гектар майдондаги ўрмон бойлиқларини тежашга имкон берувчи чиқинди қоғоз ва латта-путталарни тўплаш ишларида, қимматли доривор ўсимликларни йиғиш ва кўпайтиришда, қора ва рангли металлларни тўплашда фаоллик билан иштирок қилдилар

Қуйида ўз иш тажрибаларимизга асосланиб, физика ходисаларидан «Намлик», «Буғланиш», «Капилляр ходисалар» мавзуларига оид материаллар мазмуни билан таништириб ўтамиз.

Тупроқ орқали буғланадиган сув массаси, аввало қатламнинг сув буғлари билан тўйинганлигига ва унинг капиллярлик хоссаларига боғлиқ. +уйи қатламларда нам ҳаво қанча кўп ва тупроқ тузилиши қанчалик майда бўлса, буғланиш жараёни шунчалик тезлашади. Зич тупроқ юмшатиш тупроққа қараганда сувни кўпроқ буғлатади. Сув билан таъминлаш, хусусан, суғориш ишлари, сувлардан тежамкорлик билан фойдаланилмаган тақдирда кўнгилсиз оқибатларга олиб келиши, яъни шўрланган жойлар пайдо бўлиши мумкин. Бу ходисанинг моҳияти шундаки, қурғоқчил иқлим шароитида ер ости сувлари таркибида кўп миқдорда сувда эрийдиган сульфат ва хлорид кислота тузлари бўлади. Экин майдони намиштирилиб суғорилганда, минераллашган ерости сувлари сатхи кўтарилади ва сувда эриган тузлар тупроқнинг устки қатламига кўтарилади.

Биз кузатишлар давомида шунга амин бўлдики, тарбиявий ишлар жараёнида ўзбек халқининг ер, сув, ўсимлик ва ҳайвонот оламига муносабатини ифодалаган, минг йиллар давомида шаклланган ажойиб ривоят ва хикматли сўзлардан фойдаланиш назардан четда қолган. Зеро, ота-боболаримиз ер-сув бойлиқларидан эҳтиёжига яраша фойдаланишган. Айниқса, сувга нисбатан тежамкорлик муносабатида бўлганлар, сувга тупуриш, унга бирор нарса ташлаб, ифлос қилиш, сувдан ноўрин фойдаланиш оғир ва кечирилмас гуноҳ ҳисобланган. Эндиликда авлодларимиз ўртасида бу анъаналарни қайта тиклаш, улардан таълим-тарбия жараёнида самарали фойдаланиш ўқувчи билими савиясига ва унинг шахсида экологик билимнинг қанчалик даражада таркиб топганлигига боғлиқ.

CU (II) IONINI INDIGO REAGENT BILAN ANIQLASH VA AYRIM OPTIMAL SHAROITLARINI O'RGANISH

Majidov Sardor, Egamqulova Hamida, Maxamadiyeva Qundizoy

Guliston davlat universiteti tayanch doktorant, magistrantlari


sardor.majidov92@gmail.com

***Annotatsiya:** Analitik kimyoning zamonaviy muommolaridan biri organik reagentlarni qo'llashdagi ayrim kamchiliklar mavjud bo'lib, hozirgi kunda bu muommolarni hal qilishning ko'plab usullari ishlab chiqilmoqda. Bu usullarning afzalligi shundan iboratki analitik ionlarning organik reagentlar bilan aniqlash selektivligi jihatidan ustun turadi.*

Hozirgi kunda analitik kimyo sohasida organik reagentlarni qo'llash selektivlikni va samaradorlikni ortishiga hamda bu sohani jadal rivojlanishiga olib kelmoqda. Og'ir metallar analitik kimyosi aynan shu jarayonda bevosita obekt sanalib, bizning tadqiqotimizda mis (II)-ionini indigo reagent bilan aniqlash usulining ayrim xususiyatlari yoritilgan. Indigo yoki indigokarmin tarkibidagi imino va karbonil guruhlarini hisobiga mis ionlari bilan donor-akseptor bog'lanish orqali birikib

kompleks birikma holatiga o'tadi.

Kimyoviy reaksiya borishini spektrofotometrik o'lchashlar natijasida asoslash mumkin bo'lib, uni quyidagi tajribalar orqali amalga oshirish mumkin.




a) Optimal nur filtrini tanlash

Ma'lumki, biron bir modda ma'lum to'lqin uzunligidagi elektromagnit nurlanishni yutadi, shuning uchun o'zaro ta'sir qilish sharoitlarini o'rganish va misni spektrofotometrik aniqlashning miqdoriy xususiyatlarini aniqlash uchun avvalo optimal sharoitni tanlash kerak edi. Reagent va mis ioni bilan kompleksning optimal to'lqin uzunligini tanlash uchun eritmaning va uning kompleksining optik zichligi turli xil to'lqin uzunliklarida o'lchandi.

Olingan ma'lumotlar 1-jadval va 1-rasmda keltirilgan.

Analitik signalning to'lqin uzunligiga bog'liqligi (1-jadval)

G	15	64	00	40	90	40	90	70	50	70	80
Aindigo	,09	,11	,11	,15	,25	,40	,49	,25	,09		
Akompl	.05	,06	,07	.08	.10	,14	.18	,25	,29	,17	



1-rasm. Maksimal filtrni tanlash.

1-jadval ma'lumotlaridan va rasmdan

ko'rinib turibdiki, indigo uchun eng maqbul to'lqin uzunligi 590 nm va mis bilan kompleksi 750 nm. keyingi sharoitlarda OP o'lchovlari o'tkazildi

b) O'rta pH darajasiga qarab fotometrik reaksiyani o'rganish.


Analitik signalni olishning muxim omillaridan biri bu eritmaning kislotaliligi (rN). Reaktivning mis ionlari bilan analitik signallari qitmatining rN ga bog'liqligi 1. 0-10. 0 oralig'ida o'rganiladi. Buning uchun ishlatiladigan mis eritmalari 50 sm³ xajmli kolbaga 50mkg konsentratsiyali eritma tayyorlanadi va xajmi ma'lum bir rN bo'lgan bufer

eritmasi bilan reaksiya o'tkaziladi. Taxlil natijalari 2-jadvalda

ko'rsatilgan bo'lib, pH=8 bo'lgan holda eritmaning optic zichligi eng yuqori ekanligi aniqlandi.

2-jadval

Nº	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
pH	1.8	2.0	3.0	4.0	5.0	6.0	7.0	8.0	9.0	10.0
A	-	-	0.08	0.2	0.25	0.3	0.33	0.35	0.3	0.2



2-rasm. pH ni o'zgarish grafigi

2-jadval va 2-rasmda kompleksning optik zichligi eritmalarning pH o'sishi ortib borishi ko'rinib turibdi. Kompleksning maksimal optik zichligi pH=7. 0-9. 0 oralig'ida kuzatiladi. Shunga asoslanib, pH=8. 0 optimal sharoit deb tanlandi. Mis kompleksining optik zichligining bufer eritmalari tarkibiga bog'likligini aniqlash uchun pH qiymati 8. 0-9. 0 bo'lgan universal ammiakli bufer eritmalar bilan o'lchovlar o'tkazildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. E. B. Sandell, H. Onishi. Photometric Determination of Traces of Metals. Pt. 1 Wley, New York, 1978
2. E. B. Sandell, H. Onishi. Photometric Determination of Traces of Metals. Pt. 2 Wley, New York, 1986
3. K. Burger. Organicheskie reagenty v neorganicheskom analize. Mir, Moskva, 1975
4. Z. Xolsbexer, L. Divish, M. Kral, L. Shuxa, F. Vlachil. Rukovodstvo po organicheskom reagentom v neorganicheskom analize. Mir, Moskva, 1979
5. N. Samandarova Azobo'yoqlarni analitik kimyoda qo'llanilishi Xorazm viloyati o'simliklari asosida. Magistrlik dissertatsiyasi. Toshkent-2020 yil.

MATEMATIK MASALALAR ASOSIDA O'QUVCHIDA RIVOJLANADIGAN SIFATLAR

Hikmatova Sarvinoz Farxod qizi, Jonibekova Nargizaxon Zoxidjanovna

Guliston shahar 18-umumta'lim maktabi matematika fani o'qituvchisi

Guliston tumani 17-umumta'lim maktabi matematika fani o'qituvchisi

Annotasiya: Ushbu maqolada o'quvchilarni mantiqiy fikrlashga o'rgatish, ularda izlanuvchanlik, ijodkorlikni o'stirish usullari borasida so'z boradi. O'qituvchi birinchi navbatda bolalarning bilimlarga qiziqishlarini, mantiqiy qobiliyat – mantiqiy fikrlash, umumlashtirish qobiliyatini, abstraksiyalashni, tasavvur va hokazolarini, shuningdek, bilim, ko'nikma va malakalarini mustaqil egallash va qo'llay olish imkonini rivojlantirishi kerak.

Annotation: This article discusses ways to teach students to think logically, to be inquisitive, and to be creative. The teacher must first develop children's interest in knowledge, logical abilities - the ability to think logically, generalize, abstraction, imagination, etc., as well as the ability to independently acquire and apply knowledge, skills and abilities.

O'quvchini mantiqiy fikrlashga, izlanishga, ijod qilishga, o'z navbatida mustaqil ta'lim olishga, o'z-o'zini rivojlantirishga tayyorlash maktabning asosiy vazifasidir. Mantiqiy fikrlashni shakllantirishga oid olib boriladigan ta'lim jarayonining asosiy mazmuni va mohiyatini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. Mantiqiylik, pedagogik tushuncha sifatida ta'limning maqsadi va vositasiga birdek tegishlidir. Ya'ni ta'limdan maqsad, avvalo, mantiqiy fikrlaydigan shaxsni tarbiyalashdan iborat. Ta'limning vositasi sifatida u o'quvchilarga taqdim etilayotgan bilimlarning mantiqiy jihatdan izchilligini ifodalaydi.

Ta'lim jarayonida mantiqiy fikrlashga harakat qiladigan o'quvchilarni tarkib toptirish maqsadida ko'plab mutaxassislar izlanmoqdalar. Ularning fikricha, yuqoridagi masalalarni hal etishning samarali yo'llaridan biri – bu muammoli o'qitishdir. Bunday o'qitishning vazifasi faol bilish jarayoniga undash va tafakkurda ilmiy-tadqiqot uslubini shakllantirishdir. Muammoli o'qitish ijodiy, faol shaxs tarbiyasi maqsadlariga mos keladi.

Muammoli darslar bilish jarayonining samaradorligini oshiradi, bilimlarni chuqur, ongli mustahkam o'zlashtirishga, mantiqiy fikrlash va izlanishlar natijasida o'ziga xos kashfiyotlar qilish imkonini beradi. Bunday ta'limdan maqsad o'quvchilarda o'quv topshiriqlarini hal etish, bilish va mantiqiy fikrlash faoliyatini shakllantirishdir.

Mantiq – o'ylashga, fikrlashga o'rgatadi. Fikrlash – o'qish, yozish, so'zlash va eshitishga o'xshash jarayon. U faol, muvofiqlashtiruvchi jarayon bo'lib, o'zida biror haqiqat to'g'risidagi fikrlarni qamrab oladi. Fikr yuritish ma'lum muammoli vaziyatda vujudga keladi. Muammoni yechish vaqtida bosh miyada chuqur tahlil, taqqoslash, umumlashtirish, hukm va xulosa chiqarish sodir bo'ladi.

Bilish jarayoni murakkab, ko'p qirrali jarayondir. U albatta insonning qobiliyati, izlanuvchanligi, mantiqiy tafakkurning xususiyati, voqelik hodisalarini kuzatish, uning mohiyatini ochishda ham bir narsa va hodisaga ijodiy yondoshishni talab qiladi.

O'quvchilarni yoshligidan mantiqiy fikrlashga o'rgatish, ularda izlanuvchanlik, ijodkorlikni o'stirish bugungi kunda har bir o'qituvchi oldida turgan muhim vazifalardan biri ekan, o'qitish kattadan bolaga bilimlarni oddiy uzatilishiga keltirmasligi kerak. O'qituvchi birinchi navbatda bolalarning bilimlarga qiziqishlarini, mantiqiy qobiliyat – mantiqiy fikrlash, umumlashtirish qobiliyatini, abstraktsiyalashni, tasavvur va hokazolarini, shuningdek, bilim, ko'nikma va malakalarini mustaqil egallash va qo'llay olish imkonini rivojlantirishi kerak.

O'qituvchilar darslarini muammoli izlanish usulidan foydalangan holda tashkil etmoqlari kerak, o'quvchilarga o'quv jarayoniga ijodiy yondoshishni o'rgatishlari lozim. Ta'lim jarayonida o'quvchining mantiqiy fikrlashini faollashtirish zarur. Ularni evristik muammoli vaziyatlarga tortish, tanqid, gumon holatlarini muhokama qilish, ulardagi muammolarni mustaqil holda topish va ularni yechish uchun o'z loyihalarini tuzish va himoya qilish o'quvchilar tafakkurining ma'nodor va unumdor bo'lishiga xizmat qiladi.

Biron bir muammoni turli usullarda mushohada yuritib yechish orqali o'quvchining mantiqiy fikrlashi ortadi, ular ijodiy izlanish, erkin fikrlash, narsa va hodisalarni taqqoslash, guruhlash, umumlashtirish hamda hukm va xulosalar chiqarishni o'rganadi. O'quvchida mustaqillik, ijodkorlik, zehnlilik, maqsadga intiluvchanlik kabi xislatlar tarbiyalanadi.

O'quvchilarni keng fikrlashga olib keladigan bir necha fanlardan bilim talab qiladigan ko'p usulli yechimga ega bo'lgan masalalarni tanlash va ularni yechib ko'rsatishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Misol tariqasida chiziqli funksiyaga tegishli masalarni yechish usullariga to'xtalib o'tamiz.

Masala yechishga qanday kirishmoq, uni qanday tamomlamoq kerak degan savol tug'iladi.

Bu savolga javob shuki, masala yechishning algoritmini («Algoritm» so'zi biror jarayonning aniq tasvirini, uni bajarishga oid instruksiyani bildiradi) avtomat bilish kerak, ya'ni algoritmnini bilish va uni amalda qo'llay olish, masalalarni yechish jarayonini tezlashtiradi.

Matematikadan masalalar yechish metodikasiga taaluqli bo'lgan metodik adabiyotlarni tahlil qilish va ko'p yillik ish tajribalarni umumlashtirish natijasida matematikaning barcha bo'limlariga tegishli masalalarni yechish algoritmining umumiy va har bir bo'limning o'ziga xos farq qiluvchi tomonlari borligiga amin bo'ldik.

Mantiqiy fikrlashni rivojlantirish oson ish emas. Uning shakllanishiga yordam beruvchi muayyan o'quv sharoitlarini hisobga olish kerak. Buning uchun:

o'quvchilarga fikr yuritish uchun imkoniyat berish;

turli-tuman g'oya va fikrlarni qabul qilish;

o'quvchilarning o'quv jarayonidagi faolligini ta'minlash;

har bir o'quvchining mantiqiy fikr yuritishga qodir ekanligiga o'zlarida ishonch hissini uyg'otish; ijodiy fikrlashning yuzaga kelishini qadrlash lozim.

Shu munosabat bilan o'quvchilar:

o'ziga ishonchni orttirish va o'z fikri hamda g'oyalarining qadrini tushunish;

o'quv jarayonida faol ishtirok etish;

turlicha fikrlarni e'tibor bilan tinglash;

o'z hukmlarini shakllantirishga hamda undan qaytishga tayyor turishi lozim.

O'quvchida ijodiy faoliyatning o'sishida o'quv topshiriqlari muhim ahamiyat kasb etadi. O'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish ularni aqliy faoliyatni shakllantirishga yo'naltirilgan.

O'quvchilar matematik qonuniyatlar va munosabatlarni anglashga o'rganadilar, o'zaro muomalaga kirishadilar, xulosa chiqaradilar. Bundan o'quvchining aqli o'tkirlashadi, topqirligi va ziyrakligi ortadi, fikrlashi tartibli, isbotli, mantiqli, nutqi esa aniq, ishonchli bo'ladi [6;182].

Masalaning rivojlantiruvchi xarakterdagi funksiyasi o'quvchilarni mantiqiy tafakkur qilish faoliyatlari tafakkur jarayonlari (taqqoslash, analiz-sintez, umumlashtirish, konkretlashtirish, abstraksiyalash va klassifikatsiyalash) orqali amalga oshiriladi. Maktab matematika kursidagi masalaning rivojlantiruvchi xarakterdagi funksiyasi o'quvchilarni matematika o'qitishi metodikasidagi barcha metodlardan masala yoki misollarni yechish jarayonida to'g'ri foydalanish malakalarini rivojlantiribgina qolmay, balki ularni biror matematik hukm va xulosalar to'g'risida aniq fikr yuritish imkoniyatlarini shakllantiradi hamda masalalar yechish qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Masalaning tekshiruv xarakterdagi funksiyasi. Masalaning tekshiruv xarakterdagi funksiyasi o'z ichiga quyidagilarni oladi:

O'quvchilarning nazariy olgan bilimlari darajasi;

O'quvchilarning nazariy olgan bilimlarini amaliy misol va masalalar yechishga tatbiq qilish;

Matematik hukmlardan xulosalar chiqarish darajalari;

O'quvchilarning matematik tafakkur qobiliyatlarining rivojlanish darajasi.

Masala. Radiusi r ga teng bo'lgan doiraning yuzi integral yordamida hisoblansin.

Topish kerak: $S=?$

Yechish:

$x^2 + y^2 = r^2$ aylana tenglamasidan $y = \pm\sqrt{r^2 - x^2}$ ni yozib olamiz. Yuzlarni integral yordamida hisoblash formulasi $S = \int_a^b f(x)dx$ edi, shuning uchun

$$S = \int_0^r \sqrt{r^2 - x^2} dx \quad (1)$$

$$x = r \sin t, \quad x = 0, \quad t = 0, \quad x = r \sin t, \quad x = 0, \quad t = \frac{\pi}{2}.$$

Bu almashtirishlarni (1) ga qo'ysak, u quyidagi ko'rinishni oladi:

$$\begin{aligned} S &= \int_0^r \sqrt{r^2 - x^2} dx = 4 \int_0^{\frac{\pi}{2}} \sqrt{r^2 - r^2 \sin^2 t} \cdot r \cos t dt = 4 \int_0^{\frac{\pi}{2}} r^2 \sqrt{1 - \sin^2 t} \cdot \cos t dt = 4r^2 \int_0^{\frac{\pi}{2}} \cos t \cdot \cos t dt = \\ &= 4r^2 \int_0^{\frac{\pi}{2}} \cos^2 t dt = 4r^2 \int_0^{\frac{\pi}{2}} \frac{1 + \cos 2t}{2} dt = 4r^2 \left(\frac{1}{2}t + \frac{1}{2} \frac{\sin 2t}{2} \right)_0^{\frac{\pi}{2}} = 4r^2 \left(\frac{1}{2} \cdot \frac{\pi}{2} + \frac{1}{2} \frac{\sin \pi}{2} \right) = 4r^2 \frac{\pi}{4} = \pi r^2. \\ S &= \pi r^2. \end{aligned}$$

1) Bu masalani yechish jarayonida o'quvchilarda integral yordamida hisoblash mumkin degan tushuncha shakllanadi, bu esa ana shu masalani yechishdagi asosiy ta'limiy funksiyasi hisoblanadi.

2) Bu masalaning tarbiyaviy funksiyasi esa shundan iboratki, o'quvchilarda bu masalani yechishga bo'lgan qiziqish shakllanadi, chunki ular integral yordamisiz doiraning yuzi nimaga teng ekanini biladilar, integral yordamida hisoblaganda ham uning yuzi $S = \pi r^2$ ekanining kelib chiqishi o'quvchilarni shu fanga bo'lgan hamda uning turli metodlariga bo'lgan qiziqishlarini orttiradi.

3) Bu masalaning rivojlantiruvchi xarakterdagi funksiyasi esa masalani yechish jarayonida hosil bo'lgan muammolarni hal qilishning matematik qonuniyatlarini o'rgatadi, o'quvchilarda matematik tafakkurni shakllantiradi.

4) Bu masalaning amaliy ahamiyati esa shundaki, bunda o'quvchilarning masalani yechish imkoniyatlariga qarab ularning olgan nazariy bilimlarining darajasi aniqlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sharofat Nematova "Matematika fanini o'qitishning nazariy masalalari va metodikasi" "Tafakkur nashriyot" T.: 2011
2. D.I.Yunusova "Matematikani o'qitishning zamonaviy texnologiyalari" T.: "Fan" nash.-2010 yil.

MATEMATIK MASALALARNING TURLARI VA YECHISH BOSQICHLARI

Mamadaliyeva Zulfiya Yuldashaliyevna

Sirdaryo tumanidagi 14-umumta'lim maktabining matematika fani o'qituvchisi

Matematik masalalar algebraik hamda arifmetik masalalarga bo'linib o'rganiladi. Algebraik masalalar o'quvchilarga boshlang'ich sinfda hattoki maktabgacha ta'lim muassasasidan boshlab o'rgatiladi. Maktabda esa 7-sindan alohida "Algebra" bo'limiga bo'lib o'rganiladi. Algebraik masalalarni yechishda bir nechta tushunchalarga duch kelinadi va bu tushunchalarni bilishi o'quvchida qiyinchilik tug'dirmaydi.

Masalani yechish — bu masalada bevosita yoki bilvosita mavjud bo'lgan sonlar, miqdorlar, munosabatlar ustida amallarning mantiqan to'g'ri ketma-ketligi orqali masalalarning talabini bajarish (uning savoliga javob berish) demakdir. Biz hozirgacha masalalar yechishning ikkita usulini bilamiz: algebraik usul (u allomalarimiz asarlarida "al-jabr val-muqobala" usuli deb atalgan), arifmetik usul.

Odatda algebraik usulda masalalarni yechish uch qadamdan iborat bo'ladi:

1. Noma'lumlarni tanlash;
 2. Masalada keltirilgan shartlarga mos holda tenglama tuzish (yoki tengsizlik);
 3. Tenglamani (yoki tenglamalar sistemasi) yechish, kerakli noma'lumni yoki noma'lumlar kombinatsiyalarini topish.
- Shu qadamlar haqida batafsilroq to'xtalamiz.

Noma'lumlarni tanlashda, kiritishda noma'lumlar soni kam bo'lishi shart emas. Noma'lumlar soni qancha ko'p bo'lsa, masalalar shartiga mos tenglama yoki tengsizlik tuzish shuncha osonlashadi.

Noma'lumlarni tanlash bilan biz masala shartida bayon etilgan vaziyat yoki holatning matematik modelini tuzgan bo'lamiz. Aniqroq aytadigan bo'lsak noma'lumlar to'plami modelni aniqlab beruvchi parametrlar ro'yxatidir. Tuzilgan munosabatlar faqat masala shartiga mos bo'lishi kerak, har bir noma'lum (yoki parametr) ma'lum bir oraliqda o'zgarishi kerak.

Masalani birinchi o'qish uni tushunish uchun bo'lsa, ikkinchi o'qish noma'lum tanlash uchun. Bunda biz sonlarga va boshqa narsalarga e'tibor bermaymiz.

Tenglama tuzish. Noma'lumlarni tanlagandan so'ng, biz masalani uchinchi marta o'qib uni mantiqiy qismlarga ajratamiz. Bu qismlar har biri biror xulosa yoki cheklashlar beradi. Odatda biz noma'lumlar va tenglamalar soni teng bo'lgan tenglamalar sistemasiga kelamiz. Agar tenglama soni noma'lum sonidan kam bo'lsa va bunda masala shartidan to'liq foydalangan bo'lsangiz yana bitta tenglama tuzishga harakat qilish shart emas, balki masalani yana bir marta o'qib nimani topish kerak ekanligini aniqlab olish. Topilishi kerak bo'lgan noma'lumni boshqalari orqali ifodalashga harakat qilish. Agar masala shartidan to'liq foydalanilgan bo'lsa, kerakli noma'lumni albatta topish mumkin. Algebraik usulda masala savoliga javob tenglama tuzish va yechish natijasida topiladi. Harf bilan belgilash uchun noma'lum tanlashga, mulohazalar yuritish yo'llariga bog'liq ravishda ayni bir masala bo'yicha turlicha tenglamalar tuzish mumkin.

Matnli masalalarni arifmetik usulda yechish murakkab faoliyat bo'lib, uning mazmuni berilgan masalaga ham, masala yechuvchining malakasiga ham bog'liq. Shunday bo'lsada, unda bir necha bosqichni ajratish mumkin.

1. Masalaning mazmunini tushuntirib yechish va tahlil qilish.
2. Masalani yechish rejasini izlash va tuzish.
3. Yechish rejasini bajarish. Masalaning talabini bajarish haqidagi xulosani ifodalash (masalaning savoliga javob berish).

4. Yechimni tekshirish va agar xato bo'lsa, uni tuzatish.

Masalaning talabini bajarish yoki masalaning savoliga javob berish haqidagi uzil-kesil xulosani ifodalash. Shuni ta'kidlash kerakki, masala yechish jarayonida aytib o'tilgan bosqichlar qat'iy chegaraga ega emas va har doim ham birday to'la bajarilmaydi. Agar matn bo'yicha maxsus savollar berib va ularga javob berilsa, bu masalaning mazmunini tushunib yetish, uning sharti va talabini ajratib olish mumkinmi?

1. Bu masala nima haqida?
2. Masalada nimani topish talab etiladi?
3. «Shu butun vaqt mobaynida» so'zlari nimani anglatadi?
4. Masalada uning har bir qatnashchisining harakati haqida nima ma'lum?
5. Masalada nima noma'lum?
6. Nima izlanuvchi: sonmi, kattalikning qiymatimi, munosabatning turimi?

Arifmetik usullar bilan masalani yechish rejasini izlashning ancha ko'p tarqalgan usullaridan biri, matn bo'yicha masalani tahlil qilishdir. Matn bo'yicha masalani tahlil qilish masala shartidan ham, uning savollaridan ham boshlanishi mumkin bo'lgan mulohazalar zanjiri ko'rinishida o'tkazilishi mumkin. Masalaning shartidan savolga tamon tahlil qilishda berilganlar bo'yicha qanday noma'lum va arifmetik amal yordamida topilishi mumkinligini aniqlash kerak. Bu noma'lumni berilgan ma'lumot deb hisoblab, yana o'zaro bog'langan ikkita ma'lumotni ajratish, uning yordamida topilishi mumkin bo'lgan noma'lumni va shuningdek, mos arifmetik amalni aniqlash kerak va hokazo. Bu jarayonning bajarilishi noma'lumni hosil qilishga olib keluvchi amalni aniqlaguncha davom ettiriladi.

Ayni bir masalani yechishning turlicha arifmetik usullari berilganlar orasidagi, berilganlar bilan noma'lumlar orasidagi arifmetik amallarni tanlashda bu munosabatlarni bajarishdagi ketma-ketliklar bilan farq qiladi.

Hozirgi zamon didaktikasida masala va misollarning bajaradigan funksiyasini quyidagi turlarga ajratiladi:

Masalaning ta'limiy funksiyasi asosan maktab matematika kursida o'rganiladigan nazariy ma'lumot, matematik tushuncha, aksioma, teorema va matematik xulosalar, qonun-koidalarning aniq masala yoki misollarga tatbiqi natijasida o'quvchilarda mustahkam matematik bilim va malakalar hosil qilish orqali amalga oshiriladi.

Maktab matematika kursidagi masala yoki misollarni yechish o'quvchilarda matematik malaka va ko'nikmalarni shakllantiribgina qolmay, balki olingan nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq qila olishini ham ko'rsatadi. Agar o'qituvchi kvadrat tenglama mavzusini o'tib, uni mustahkamlash jarayonida kvadrat tenglamaga keltiriladigan masalalarni yechib ko'rsatsa, o'quvchilarni ana shu kvadrat tenglama tushunchasining tatbiqi haqidagi fikr o'quvchilar ongida shakllanadi.

Agar o'qituvchi geometriya darsida konusning hajmi mavzusini o'tib, unga doir misollarni integral tushunchasidan foydalanib yechib ko'rsatsa o'quvchilar algebra bilan geometriya fanlari orasidagi mantiqiy bog'lanishni ko'radilar hamda ularda fazoviy tasavvur qilish faoliyati yanada shakllanadi.

2-masala. Balandligi h va asosining uzunligi a ga teng bo'lgan to'g'ri burchakli uchburchakning Ox o'qi atrofida aylanishidan hosil bo'lgan to'g'ri doiraviy konusning hajmi hisoblansin.

Yechish:

$$V = \pi \int_a^b y^2 dx$$

bunda:

$$y = OA = tg \alpha \cdot x = \frac{a}{h} \cdot x;$$

$$V = \pi \int_a^b y^2 dx = \pi \frac{a^2}{h^2} \cdot \frac{x^2}{3} \Big|_0^h = \pi \frac{a^2}{h^2} \cdot \frac{h^2}{3} = \frac{1}{3} \pi a^2 h;$$

$$a^2 = r^2; \quad \pi r^2 = S \text{ bo'lgani uchun } V = \frac{1}{3} Sh.$$

Masalaning tarbiyaviy funksiyasi o'quvchilarda dialektik-materialistik dunyoqarashni shakllantiradi hamda ularni mehnatga muhabbat ruhida tarbiyalaydi. Bizga ma'lumki, matematika fanining o'rganadigan ob'yekti materiyadagi narsalarning fazoviy formalari va ular orasidagi miqdoriy munosabatlarni o'rganishdan iboratdir. Shunday ekan, fazoviy formalari va miqdoriy munosabatlar orasidagi bog'lanish analitik ifodalangan formula bilan yoziladi. Ana shu formulani kundalik hayotimizdagi elementar masalalarni yechishga tatbiqi o'quvchilarda dialektik-materialistik dunyoqarashni shakllantiradi. Albatta o'qituvchi bu yerda bilish prinsipiga asoslangan bo'lishi kerak. "Jonli mushohadadan abstrakt tafakkur va undan amaliyotga borish kerak".

O'qituvchi matematika darsida yechiladigan masalalar orqali o'quvchilarni mehnatga muhabbat ruhida tarbiyalash mumkin. Buning uchun o'qituvchi halol va sifatli mehnatga ulug'laydigan masalalarni tanlashi lozim.

1-masala. Ikki ishchi ma'lum muddatda 120 ta detal tayyorlashlari kerak edi. Ishchilardan biri ikkinchisiga qaraganda soatiga 2 tadan ortiq detal tayyorlab topshiriqni 5 soat oldin bajardi. Har bir ishchi soatiga nechtdan detal tayyorlagan?

Yechish:

x - birinchi ishchini ishlagan vaqti,

$(x-5)$ - ikkinchi ishchini ishlagan vaqti,

$\frac{120}{x}$ - birinchi ishchi tayyorlagan detallar soni,

$\frac{120}{x-5}$ - ikkinchi ishchi tayyorlagan detallar soni.

Tenglama quyidagidan iborat bo'ladi:

$$\frac{120}{x} = \frac{120}{x-5} - 2,$$

$$\frac{120}{x} - \frac{120}{x-5} = 2,$$

$$120x - 120x + 600 = 2x^2 - 10x,$$

$$2x^2 - 10x - 600 = 0,$$

$$x^2 - 5x - 300 = 0,$$

$$x_{1,2} = \frac{5}{2} \pm \sqrt{\frac{25}{4} + 300} = \frac{5}{2} \pm \frac{35}{2}; \quad x_1 = \frac{5}{2} + \frac{35}{2} = \frac{40}{2} = 20; \quad x_2 = \frac{5}{2} - \frac{35}{2} = -15.$$

Bulardan birinchi ishchi 20 soat, ikkinchi ishchi 15 soat ishlagani kelib chiqadi.

$$\frac{120}{x} = \frac{120}{20} = 6 \text{ ta birinchi ishchi 1 soatda tayyorlagan detallar soni;}$$

$$\frac{120}{x-5} = \frac{120}{15} = 8 \text{ ta ikkinchi ishchi 1 soatda tayyorlagan detallar soni.}$$

Masala yechib bo'lgandan keyin o'qituvchi masala mohiyatini quyidagi tartibda tushuntirishi mumkin. Agar biror kishi biror topshirilgan ishni ortig'i bilan bajarsa, uning mehnat unumi ortib, unga to'lanadigan haq ham ortib boradi. Bu o'quvchilarni halol mehnatga muhabbat ruhida tarbiyalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alekseyev A. Trigonometrik almashtirishlar / A. Alekseyev, L. Kurlyandchik // Kvant. – №2. – 1995. – C. 40–42.

2. Balayan E. N. Matemaikadan masalalar to'plami / E. N. Balayan. – Rostov-na-Donu: Izd-

OG'IR METALLAR BIOSORBTSIYASI

U. K. Abduraxmanova, X. K. Egamberdiev, M. Boboqulova
Guliston davlat universiteti

Annotatsiya: Ushbu tadqiqot ishida og'ir metall ionlarini tabiiy manbalardan aniqlash va sorbtion ajratishda *Chlorella vulgaris* mikro suvo'tidan foydalanilish va metall ionlari miqdorini fizik-kimyoviy usullarda o'rganishga doir ma'lumotlar keltirildi.

Kalit so'zlar: Mikro suvo'ti, selektivlik, ozuqa maxsulotlari, *Chlorella vulgaris*, biosorbent, biologik faol modda.

Mamlakatimiz ulkan tabiiy boylik zaxiralari va rivojlangan infratuzilma imkoniyatlariga ega bo'lgan mamlakat hisoblanadi.

O'zbekiston oltin, uran, mis, tabiiy gaz, volfram, kaliy tuzi, fosforitlar, kaolin kabi foydali qazilmalar zahirasi bo'yicha nafaqat MDH davlatlari o'rtasida, balki butun dunyoda yetakchi o'rinlarni egallaydi.

Ma'lumki, nodir metallar tahlilida ko'plab organik birikmalar reagent sifatida qo'llaniladi, ammo ularning aksariyati, selektivlik va boshqa analitik xarakteristikalarini jihatidan ko'pincha tahlil talablariga to'liq javob bermaydi. Fosfororganik birikmalarning alkaloidlar bilan hosil qilgan birikmalari metallar uchun ligandlarning yana bir sinfini tashkil qiladi, lekin bularning barchasi tahlil talablariga to'liq javob bermaydi. Bu reagentlarning tanlovchanligi yuqori bo'lsa, samaradorligi past yoki zaxarilik darajasi yuqoriligi bilan analizni mukammallik bilan amalga oshirishga imkoniyat yaratmaydi.

Tabiiy suv havzalarini og'ir metallardan tozalashda yoki bu metallarni ajratib olishda aypim holatlapda ekologik muhit holatidan kelib chiqqan holda mikropoorganizmlar va mikro suvo'tlapidan biosorbent sifatida foydalaniladi.

Mikro suv o'tlari yuqori o'sish va rivojlanish tezligi va o'ziga biogen elementlarning yaxshi sorbtisiya qilish xususiyatiga ega. Ushbu biosorbentlardan ko'p hollarda tabiiy muhitda og'ir metallar kontsentratsiyasini kamaytirish yoki muvozanatda ushlab tutishda foydalanish yaxshi samara beradi.

Bu mikro suvo'ti go'shtdan kam bo'lmagan va bug'doydan sezilarli darajada ustunlik qiluvchi ozuqaviy qiymatga ega. Agar bug'doyda 12% protein bo'lsa, xlorella tarkibida 50% dan ko'proq bo'ladi.

Ushbu xossalarga ko'ra xlorella oziq-ovqat qo'shimchasi sifatida qo'llaniladi. Xlorella tarkibi jixatdan temirga boy bo'lganligi uchun organizmda temir tanqisligi kamqonligini davolashda, shuningdek, mualliflarning bir qator tadqiqotlarida gepatit C va boshqa virusli infeksiyalarni davolashda qo'shimcha terapiya sifatida samaradorligini ko'rsatadi[1-2]. Bunday ta'sir ushbu suv o'tlarining hujayra devorini tashkil etuvchi komponentlarning immunostimulyatsiya qiluvchi xususiyatlari bilan bog'liq [1-2].

Tadqiqotlarimizda asosi xlorofildan iborat bo'lgan *Chlorella vulgaris*ni sanoat oqavalari tarkibidagi og'ir va nodir metall ionlarini aniqlash va tozalashda biosorbent sifatida qo'llanilishga asoslanilgan.

Tabiiy ruda va minerallar tarkibidagi nodir metallarni aniqlash va ajratib olishda ko'pincha metallarning miqdori juda kam va notekis tarqalganligi uchun analizning fotometrik usuli bilan kontsentrlash usullarining birga olib borilishi maqsadga muvofiqdir. Kontsentrlash va ajratish usullarining eng samaralisi - adsorbtsiya usuli hisoblanadi. Adsorbtsiya moddalarni ajratishning o'ziga xos, soddasidan biri bo'lib, amaliyotda azaldan o'simlik va mineral xomashyolarning tarkibiy qismlarini ajratib olishda, qo'llanilgan.

Ushbu tadqiqot ishida *Chlorella vulgaris* ning bir qator og'ir metall (kumush, temir, mis) ionlari uchun sorbtion-spetrofotometrik usulda biosorbentlik xossasi o'rganildi.

Biosorbent sifatida qo'llanilayotgan va tekshirilayotgan eritmalarning nur yutish qobiliyati tekshirilganda, natijalar ko'rsatishicha, Sorbent eritmasining yutilish spektri maksimumi 221 nm ga

tengligi ma'lum bo'ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Gorbunova, S. Yu., Lukyanov, V. A. Eksperimentalno-teoreticheskoe obosnovanie effektivnosti ispolzovaniya Chlorella vulgaris dlya utilizatsii stochno'x vod pitsefabrik i melioratsiya vodnoy sredo' G' S. Yu. Gorbunova, V. A. Lukyanov G'G' Vodno'e resurso' Ukraino' i melioratsiya zemel. 2013. S. 30-31.

2. Lukyanov, V. A., Stifeev, A. I. Gorbunova, S. Yu. Nauchno obosnovannoe kultivirovanie mikrovodorosley G' V. A. Lukyanov, A. I. Stifeev, S. Yu. Gorbunova G'G' Vestnik Kurskoy gosudarstvennoy selskoxozyaystvennoy akademii. 2013. № 9. S. 55-57.

3. X. K. Egamberdiev, Sh. Ismoilova, U. K. Abduraxmanova G' Tabiiy manbalarning nodir metallapga biosorbent sifatida qo'llanilishi Geografiya va ekologiya fanlar tizimining dolzarb muammolari va ularning yechimlari -2022.

MA'NAVIYATNING SHAKLLANISHIDA MILLIY G'OYA TUSHUNCHASI

Ibodullayeva Gulshan

Sirdaryo viloyati yangi metodikalarga o'rgatish milliy markaz xodimi

Insonni so'z ayladi judo hayvondin,

Bilkim guhari sharifroq yo'q ondin

Navoiy hazratlari ashorlarida bitilganidek insonni so'zlash madaniyati hayvondan ajralib turishini belgilagan bo'lsa, fikrlash qobiliyati insonni insondan ajratib turuvchi jihatdir. Ma'naviy komillik tushunchasi har bir insonga xos bo'lib, uni har kim o'zicha tahlil etadi. Binobarin, komillik sari intilgan har bir banda bu yo'ldan albatta o'tishadi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, ma'naviy boy, sermulohezali, dunyoqarashi keng, eng muhimi chiroyli notiq, qolaversa, ma'daniy shakllangan, o'z ustida tinimsiz ishlaydigan, insonlarga imkon topib yordam beradigan shaxslargina bunday baxtlarni yaxshi his qilishadi.

Inson ma'naviyatini shakllantirishda ilmiy va badiiy adabiyotlarning o'rni alohida ekanligi ma'lum. Jumladan, ma'naviyatli inson o'qishdan to'xtamaydi, buyuklar aytganidek:

"Insonlar o'qishdan to'xtashlari bilan fikrlashdan ham to'xtaydilar". Kitoblar insonni ma'naviyatini boyitish bilan bir qatorda, dunyoqarashini ham, fikrlash qobiliyatini ham o'zgacha charxlaydi. Bu bilan esa inson ma'naviyati yetuklik sari asta sekin qadam tashlab boraveradi. Borib-borib vaqtlar o'tishi bilan yig'ilgan tafakkur durdonalari jamiyat uchun xizmat qiladigan bir yo'nalish sifatida namoyon bo'ladi. Inson ongi qanchalik rivojlanib bormasin, u yana o'qishga, bilim olishga intilishi so'nmaydi, akchinchu kuchayib boradi.

Eng avvalo, dars jarayonidagi ma'naviyat haqida to'xtalib, o'qituvchining har bir xatti -harakati bola uchun o'rnak bo'lishligi aniq, deb hisoblaydigan bo'lsak, ikkinchi tomondan qaralganda u yo'naltirayotgan yo'nalish yoki berayotgan bilimning har bir nuqtasi ostiga bekitilgan ma'naviyat haqida ham to'xtalib o'tish kerak. Binobarin, har qanday jamiyatda kelajakni yoshlar qurishadi. Ertangi kun uchun bugundan boshlangan ijobiy tadbirlar albatta o'z samarasini beradi.

Milliylik tushunchasi har bir qadamimizda dush kelishimiz mumkin bo'lgan o'zligimizga xos va mos mentalitetimiz yig'indisidir.

Inson tafakkuri qanchalik rivojlansa, uning o'y fikrlari, dunyoqarashi, qolaversa, butun borliqni tushunish va anglash ko'nikmasi ham shu darajada shakllanib boradi.

Milliy g'oyni bola ongiga singdirishning yo'llaridan biri bu ularning ongiga ta'sir etish hisoblanadi.

Agar har bir ota-ona o'z farzandi o'qishi uchun jon kuydirib harakat qilsa, uning o'quv faoliyati haqida qiziqsa, maktablarga, kollejlarga lozim bo'lsa, oliygohlarga borib ularning nima ish bilan shug'ullanayotganliklarini ko'rib, ulardan xulosa chiqarib tursa, albatta, bola shaxsini komil inson sifatida kamol topishlari uchun qo'shgan dastlabki ishlari bo'lar edi. Afsuski, ko'pgina ota-onalar farzandining o'qish joylariga borish bu yoqda tursin, hatto telefon qilib farzandining qanday muammolari va yutuqlari borligidan xabar ham olishmaydi. Bu bilan biz ota-onalarni yomonlashdan ancha yiroqmiz, biroq shuni alohida ta'kidlash joizki, har bir inson kamolotga yetishish davrida o'z

ota-onalari mehri va e'tiboriga muhtoj bo'lishadi. Bu muhtojlik o'z vaqtida qondirilmasa, bola izdan chiqib ketishi mumkin. Shaharga o'qish uchun yuborilgan talaba dastlabki kunlarda o'qishga bo'lgan munosabati yaxshi bo'ladi (aksariyat hollarda). Keyinchalik ota-onalari farzandlariga haddan ziyod ishonib qolishlari natijasida bolalar turli yo'llarga kirib qolishlari mumkin. Bunda ta'lim muassasalarini ham ayblari bor, lekin muassasada 6 soat o'qishlari mumkin. Qolgan vaqtlardagi (18 soat) u muassasadan tashqarida bo'lishadi. Shu bois bolaning asosiy vaqtlari uyda va ko'chada bo'lishi bilan belgilanadi. Bola shaxsi tarbiyasi uchun har birimiz mas'ul ekanligimizni unutmagan holda, ta'lim muassasalarida berilgan bilim va tarbiya jarayonini uyda albatta mustahkamlash lozim. Aks holda, e'tiborsiz qoldirilgan o'quvchi turli bahonalar bilan dars tayyorlamaydi yoki davomadi pasayib ketadi. Bu esa borib-borib o'quvchini turli salbiy illatlar orttirib olishlariga xizmat qilsa ajabmas. Ko'rinib turibdiki, milliy g'oyasi shakllanmagan bolada jamiyat bilan aloqa qilish vositasi ham shakllanmaydi. Shu nuqtai-nazardan olib qaraladigan bo'lsa, bola tarbiyasi faqat ta'lim muassasalarida emas yoki faqat ota-onalarning imkoniyatlaridan emas balki ular orasidagi yoki ular o'rtasidagi tinimsiz muloqotlar natijasida yuzaga keladi.

Inson kamol topishida ma'naviyat, milliy go'ya darslarini o'tilishi katta o'rin tutadi. Bola tarbiyasi o'ta mashaqqatli ish bo'lganligi sababli unga berilayotgan tarbiya jarayoni ham keng ko'lamda o'ylanib, ishlab chiqilgan bo'lishi lozim.

Insonda Vatan hissi, uni sevis, ardoqlash, o'tmishga hurmat bilan qarash tushunchalari, o'zgalar fikrini hurmat qilish, o'z fikrini erkin bayon qila olish ko'nikmasi maktabdayoq shakllanib boradi. Maktab darsliklarida o'tilayotgan milliy istiqlol g'oyasi fani bugungi kun davr talabi bo'lib qolmoqda. Hozirda dunyo ahlini aqlini shoshirib qo'yayotgan ommaviy mafkura va g'oyalar ham bizni chetlab o'tayotgani yo'q. Ommaviy madaniyat atalmish bizning mentalitetimizga yot bo'lgan G'arbcha mafkuralar yoshlar ongida umuman iz qoldirmayapdi deyish qiyin, albatta. Sababi oddiy, biz ularni qalbiga begona g'oyalarning kirib ketishiga yo'l qo'yib bermoqdamiz. Buning uchun milliy g'oya targ'ibotini chuqurroq olib borish, Vatanni sevis, uni tom ma'noda anglay olish zarur.

M.S.Sovajiy(fors shoiri)aytganidek: Vatanga nafi yo'q yashalgan har kun,

Inson hayotini qilar bemazmun.

Hayotning mazmunsizlanishiga asos bo'luvchi beg'amlik haqida I.Karimov "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" asarida ham alohida to'xtalib dushmandan qo'rqmaslik, nari borsa u o'ldiradi, do'stdan ham hayiqmaslik u ham nari borsa siringni sotadi, ammo loqayddan qo'rqish, u qilayotgan ishlarga loqaydlik bilan jim qarab turaverishi insonning qalb-qalbigacha ta'sir etishligi alohida aytilgan.

Har bir o'quvchilarimiz qalbiga nur bag'ishlayotgan milliy istiqlol g'oyasi bugunning dolzarb mavzulari bo'lishi lozim. Bola tarbiyasi haqida fikr yuritish kerak bo'lsa, bolaning sog'lom bo'lishi bir tarafdan jismoniy harakatlar bilan bog'liq bo'lsa, boshqa tamondan qaralganda albatta bola ruhiy sog'lom bo'lishi talab etiladi. Bunda har bir o'quvchining fikrlashi, dunyoqarashi, bilim darajasi va saviyasi inobatga olinishi kerak. Bilim olish jarayonini kitoblar va turli gazeta va jurnallar bilan bog'lash mumkin, ammo shuni alohida takidlash joizki, bilim olishning zamonaviy usullaridan biri bu fan texnikaning rivojlanishiga ham bog'liqdir. AKT va YPT davr talabi bo'lib turgan bir paytda izlanuvchan o'quvchi va talabalar (o'qituvchilar ham) internet atalmish o'rganmchak to'ri ta'siriga tushib qolish holatlari ham kuzatilmoqda. Bu jarayonning ilk ko'rinishlari telefonlardir. Ota-ona o'z farzandlari haqida ma'lumot olib turishlari uchun telefon olib berishadilar. Keyinchalik bu telefonlar yaxshirog'iga (oxirgi modeldagi-internet ishlatish uchun qulay bo'lgan) almashtirish hollari ularning internet haqida dastlabki tushunchasini shakllanishiga asos bo'ladi. Bu bilan esa dastlab maktab o'quvchilari internetdan qanday foydalanish sirlarini tengdoshlaridan o'rganishlariga to'g'ri keladi. Bora-bora bu o'rganmchak to'ri ta'siriga tushib qolishlariga xizmat qiladi. Biz farzandlarimizga noto'g'ri tarbiya berayapmiz deyishimiz to'g'ri emas, lekin telefondagi internet ma'lumotlarining aksariyat qismi bola shaxsini to'g'ri shakllanishida salbiy oqibatlar keltirishi mumkin.

Shu boisdan farzand tarbiyasida telefonlarni ham qandaydir salbiy illatlarga olib kelishi mumkinligi haqida ogohlantirishimiz, lozim bo'lsa, bu haqda tarbiya soatlari(uy sharoitida ota-onalar) o'tishimiz kerak. Internetni ishlatilishi bilim olish uchun keng imkoniyat albatta, biroq uning illatlari haqida ham tushunchalar berib borilishi foydadan holi bo'lmaydi. O'rganmchak to'ridagi

keraksiz deb topilgan ma'lumotlarni qanchalik sir saqlamaylik ular haqida yoshlarimizning qiziqishlari shu darajada kuchayib bormoqdaki, uni to'xtatish juda mushkul.

Bizga ma'lumki, har qanday bola turli yoshlarda o'tish davrini boshdan kechiradi. Bu jarayonda bola o'zidagi bo'layotgan o'zgarishlarni tushunib yetmaydi. Undagi kechayotgan ruhiy holatlarni ham ota-onalar hisobga olishmay qo'yadilar. Bu esa bola ongida shunday bir jarayonni yuzaga chiqaradiki, ularni boshqarishda faqatgina pedagoglarning kuchi yetmay qoladi. Bunda har bir pedagog o'z imkoniyatidan kelib chiqqan holda, bola psixologiyasini o'rgana boshlaydi va turli yechimlar topishga harakat qilishadi. Binobarin har bir o'quvchining dunyoqarashi turlichadir. Bu holatlarda aksariyat ota-onalar nima qilishlarini bilishmay bolani o'z holiga tashlab qo'yishadi. Bu esa bora-bora bolaga bo'lgan e'tiborni susayishiga olib keladi. Vaqtlar o'tishi bilan o'tish davrida hech qanday ma'lumotga ega bo'lmagan bola keyingi davrlarni ham shu o'jizlik bilan o'tkazishadi. Keyinchalik shaxs bo'lib shakllangan o'quvchi psixikasida tormozlanish vujudga keladi. Buning salbiy oqibatlarini haqida esa ma'lumotlar ko'p.

Ba'zi o'quvchilar hamisha ustozlarining gaplariga quloq tutadilar va ular bergan bilim bilan bemalol bellashishlari ham mumkin. Ota-onalarining gaplarini ikki qilsa qiladilarki, ustozlarining fikrlariga ergashishadi. Bu esa pedagoglik kasbimizdagi sharaflilik nuqta hisoblanadi.

Inson ma'naviyati shakllanmas ekan, u olayotgan bilimlar behuda. Shunday ekan har bir olinajak bilim va xulosa muhimdir. Ma'naviyatga e'tibor sust bo'lgan muhitda hech qanday sivilizatsiya bo'lmaydi. Ma'naviyat esa bu bilim, odob, dunyoqarashlarning mujassam shaklidir. Manaviyatli shaxs uchun lozim bo'lgan yana bir tushuncha bor, bu yurt ishq. Yurt ishqini esa albatta milliy istiqloq g'oyasi beradi.

NAJOT – TA'LIMDA

Mo'minova Manzura Mamasodiqjonovna

*Andijon shahridagi Prezident maktabi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi
manzuram855@ gmail. com*

Annotatsiya: ushbu maqolada jahon adabiyoti vakili Nodar Dumbadzening "Hellados" hikoyasini o'qitishning zamonaviy texnologiyalari yaratilgan. Dars mashg'ulotini sifatli tashkil qilishning inversiya usuli kashf qilingan va bu usul amaliy tahlil qilib berilgan. Bundan tashqari, badiiy asar tahliliga doir nuqtayi nazarlarga ham to'xtalib o'tilgan.

Annotation: This article is a modern technology for teaching the story "Hellados" by Nodar Dumbadze, a representative of world literature. The inversion method of qualitative organization of lessons is developed and this method is given as a practical analysis. In addition, the views on the analysis of the work of art are discussed.

Аннотация: Данная статья представляет собой современную технологию обучения рассказу «Элладоса» Нодара Думбадзе, представителя мировой литературы. Разработан инверсионный метод качественной организации уроков и дан его практический анализ. Кроме того, обсуждаются взгляды на анализ художественного произведения.

Bugungi hamma sohalar qatorida ta'lim tizimiga ham juda katta e'tibor qaratilmoqda. Prezidentimiz Sh. Mirziyoyevning "Najot - ta'limda, najot - tarbiyada, najot - bilimda" ¹⁴ degan so'zlarning o'zi ham bu sohada olib borilayotgan keng islohotlardan nishonadir. Ta'lim mazmunini sifatli va tog'ri tashkil qilishda talim shakli, o'quvchi va o'qituvchilarning faoliyati, faolligi juda muhimdir.

Bugungi zamonaviy o'qituvchi-pedagogik-psixologik jihatdan har tomonlama o'rnak bo'luvchi, ijtimoiy hayotda faol, yuksak insoniy xususiyatlar sohibi bo'lishi kerak. U o'quvchilarni mustaqil va tanqidiy, tahliliy fikrlashga o'rgatadigan har bir nazariy tushunchasini amaliy ko'nikmalar asosida singdiradigan, sog'lom fikrlar qarama-qarshiligining xolis muhitini yarata oladigan, bo'lishi kerak deb o'ylayman, Shundagina o'quvchi erkin va mustaqil fikrlashga, yangidan yangi g'oyalar, tashabbuslar va o'z iqtidorini namoyon etishga qodir, barkamol avlod sifatida

¹⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev., Maktab ta'limini rivojlantirish masalalari yuzasidan videoselektor yig'ilishida so'zlagan nutqi. 29. 01. 2022yil

shakllanadi. Bundan tashqari, bugungi kun o'quvchisi esa an'anaviy eshituvchi, tinglovchi emas, bevosita dars mashg'ulotining ishtirokchisi, tashkil qiluvchisi, dars markazida harakat qiluvchiga aylanishi kerak. Buning uchun o'qutuvchidan samarali metod, texnologiyalar yaratish, qo'llash kifoya qiladi.

Ilmda inversiya degan tushuncha bor. Inversiya - gap bo'laklari odatdagi tartibining o'zgarishi. Inversiyaning semantik vazifasi gapning biror bo'lagini alohida ta'kidlash yo'li bilan nutqqa emotsional-ekspressiv ruh baxsh etishda. Demak, u uslubiy vazifa bajaradi. Dars jarayonini ham odatiy emas, noodatiy tashkil qilish dars sifatini bir necha barobar ko'tarishga yordam beradi. Ayniqsa, adabiyot darslarida, badiiy tahlilga asoslangan mashg'ulotlarda. Badiiy asar o'rgatishda uning badiiy tahliliga doir topshiriqlarni berish ahamiyatlidir. Negaki, chin san'at va uning go'zallik olamini san'at darajasida tushunmoq va tushuntirmoq muhimdir. "Biz ko'pincha "tayyor" asarlarni o'qishga moyil bo'lamiz. Va "tayyor" qarashlarga suyanib xuddi Amerika kashf qilgan kabi asarni maqtay ketamiz. Hech kim bilmasa, sezmasa, o'sha fikrlarni o'zimizniki qilib olamiz", deb yozgan edi Ulug'bek Hamdam.¹⁵ Keling, ta'limning an'anaviy usullaridan biroz chekinib, yangilikka intilamiz. Shuning uchun xattaxtaga hikoyaning ma'lum joylaridan dars avvalida yozib qo'yish, inversiya hodisasini qo'llash hikoya badiiyatini ta'kidlab ko'rsatilishiga, obrazlarga xos xususiyatlarni oldindan ko'ra bilishga (ketma ket emas) yordam beradi. O'qituvchi mashg'ulotning tashkiliy qismini (yo'qlama, mavzu bilan tanishtirish kabi) yangi mavzu bayonidan so'ng amalga oshiradi. Xo'sh, jarayonning inversiyaga monand qurilishi qanday samara beradi? Masalan, Nodar Dumbadzening "Hellados" hikoyasini o'rgatishning inversiya usuli. Xattaxtaga hikoyaning quyidagi gaplari yozilgan bo'lsin.

Nina xola, Nina xola Yanguli qaytib keldi

Tabiiy ravishda jumladan so'ng o'quvchilarda quyidagicha intuitiv bilish ko'nikmalari shakllanadi. Ular o'ylay boshlaydi: asar qahramoni Yanguli, Yanguli uyi, Vatanidan qayergadir ketgan, Yanguli ma'lum vaqtdan so'ng uyiga qaytgan, Yangulining qaytishidan kimningdir sevinishi... kabi.

Men Yangulining hamla qilishini kutardim... O'quvchilarning ong-u shuurida, demak, Yanguli degan qahramon kim bilandir yoqalashgan degan tushuncha paydo bo'ladi. Bundan tashqari ushbu jumlada metaforik tasvir bor. ***Hamla qilish*** bu odatda hayvonlarga xos xususiyat. Ammo Yanguliga nisbatan bu so'zning qo'llanilishi mana shu obrazning shavqatsizlarcha xujum qilishini ta'kidlab ko'rsatadi. Umuman har qanday asardagi har bir jumla, undagi obraz, ijodkor maqsadlari tomon harakat qiladi.

Keyin oyingni surishtirgan edi: kim, qayerda...Men nima deyin ...Shunaqa...shunaqa, ...Haligi...yo'q...O'lgan dedim. Shuning uchun ham so'kmadi-da seni...

Ushbu jumlarlar izohi ham hikoya mazmunini tushuntirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Yanguliga xos bo'lgan yana bir xususiyat, rahmdillik idrok qilinadi. Bundan tashqari, Kokaga tegishli ushbu nutqda, Kokaning duduqlanishida ham ekspressivlik bor. Onani yo'qotish- og'ir judolik. Kokaning mana shu ma'lumotlarni ravon gapira olmaganligi, Jamolga nisbatan uning qalbida yuksak mehr borligidan dalolat beradi. Ana endi hikoya matni bilan tanishishda o'quvchilar mana shu savollarga tasdiq, javob izlaydi. Asarni shavq bilan o'qishga, yoki tinglashga harakat qiladi.

Asar bilan o'quvchilarni to'liq tanishtirgach, darsning keying bosqichlari bajariladi. Ana endi o'quvchilarga "5" baho kartochkalari o'quvchilar soniga qarab tarqatiladi va uni saqlab qolish uchun turli topshiriqlarni bajartirish mumkin. Masalan, "+ va -" texnologiyasi. Asosan, asardan olinishi mumkin bo'lgan xulosa va izohlarga belgi qo'yish va uni izohlash sharti berilgan bo'lsin.

"Hellados" (+ va -)	
Asarda Ona ulug'lanishiga ishora bor, chunki...	
Asarda do'stlik ulug'lanadi...	
O'lmoq- yagona chora emas, negaki...	

¹⁵ Ulug'bek Hamdam. "Yoshlik" yoshlarning adabiy-ijtimoiy jurnali. - T 2019- yil 10 son

Agar men Yanguli bo'lsam huddi u kabi yo'l tutgan bo'lardim, chunki...	
Agar men Yanguli bo'lsam u kabi yo'l tutmagan bo'lardim, chunki...	

“False and true” texnologiyasini ham qo'llash mumkin. Ushbu texnologiya orqali badiiy asardan olingan hissiy ta'sirning qanchalik to'g'ri yoki, noto'g'ri ekanligini muqoyasa qilish mumkin.

Otaga qarshi ish qilish mumkin		Xola ham onadek mehribon		Hamma ko'ksiga “Hellados” deb yozib olishi kerak		Yanguli oriyatlidir		Yanguli gunohkor	
<i>false</i>	<i>True</i>	<i>False</i>	<i>true</i>	<i>False</i>	<i>true</i>	<i>false</i>	<i>true</i>	<i>false</i>	<i>true</i>

Bu ikki texnologiya savollarini istalgancha davom ettirish mumkin. O'ylaymanki, badiiy asar o'qish darslari mana shunday inversiya asosiga qurilsa, o'quvchilarning badiiy asardan oladigan hissiy ta'siri kuchayadi. Adabiyotni yanada seva boshlaydi. Badiiy asar o'qish va uni tahlil qilishga ehtiyoji ortib boraveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev., Maktab ta'limini rivojlantirish masalalari yuzasidan so'zlagan nutqi. 29. 01. 2022 yil
2. Ulug'bek Hamdam. “Yoshlik” yoshlarning adabiy-ijtimoiy jurnali. - T 2019

THE IMPORTANCE OF SPORTS AND PHYSICAL EDUCATION IN SOCIAL LIFE

Khudoyberdiyev Giyosiddin Bakhtiyor oglu, Shukurov Akmal Khudoykulovich
Gulistan state university, Republic of Uzbekistan

Annotation. *Physical culture and sports are an independent type of human activity, which plays an important role in the development of society. They have a significant impact on social production, the development of social relations, the formation of a person as a person. In this article, the author describes in detail the role of sports and physical education in public life.*

Keywords: *sports, physical education, physical activity, energy, health, prophylactic effects, willpower, exercise, etc.*

Sport develops self-discipline in a person, develops the habit of following a daily regimen and not allowing himself to be lame in any way. A person who does sports increases willpower, endurance, perseverance, self-confidence. An athlete can always stand up for himself and his friends, who also want to play sports. Sport plays an important role in improving human well-being. It will help to strengthen not only physical health but also morality for many years. Some people don't understand why they need sports. Sport helps a person to be in good physical condition, moreover, it cultivates character and will.

1. First, any exercise has a healing and prophylactic effect. For example, a student spends all day sitting (lessons at school, homework, computer work, television). As a result of this lifestyle, the muscles become peripheral and do not work at full capacity.

2. Second, exercise improves health, provides a healthy heart, lungs, controls blood pressure and prevents blood clotting. Remember that physical activity always maintains body tone.

3. Thirdly, sports strengthen the psyche. People become purposeful and responsible and learn to go towards a specific goal, organize themselves and their time properly.

4. Fourth, a person who engages in sports raises his mind. Concentration is improved due to sports, a person can not only master a lot of materials, but also apply it skillfully in life. Even Leo Tolstoy said that in order to be spiritually healthy, you really need to shake yourself physically.

5. Fifth, sport is a way to express oneself, to gain self-confidence. Success in sports helps in the recognition needed in every situation. In addition, various chemicals in exercise, such as endorphins

(“joy hormone”) or adrenaline (“stress hormone”), give a person a feeling of complete happiness and joy.

In the early years, when much has been said about the benefits of exercise to the human body and every child, he or she is already well aware of the need for physical education that promotes good health. Sport is a fun, exciting activity that not only strengthens a person’s muscles and will, but also gives him excitement, a spirit of fair competition and a confident desire to win. These feelings help a lot not only in sports success, but also in everyday life. A person who is accustomed to winning in sports has a similar approach to study, career, and daily work. A person who is constantly engaged in sports will change for the better, his character will be strengthened, he will be purposeful and determined. Equally important effects of sports are resistance to various diseases, even in the most severe cold season of winter and seasonal epidemics of colds, flu, sore throats. The body, accustomed to regular exercise, has a serious temperament, and now it is not afraid of any disease. There is an opinion that the practical importance of physical education is only to develop the motor skills necessary in life. That is, if the skill formed as a result of training with this or that type of exercise is applied. can be transferred to a working or military environment, then such physical training is life-related.

When a person engages in sports, he gains strength and confidence. Man’s spiritual and moral strength increases. Ideally, they form a stable personality. Physical strength helps solve many problems. Such a person can easily fight his enemies, even without the use of force. Impressive appearance commands respect. In addition, you can protect your loved ones, family, friends. Moral strength helps to cope with the difficulties of life, to get rid of bad habits, to overcome depression. The person is filled with energy and is ready for any success. Exercise helps promote good health. An active lifestyle has a positive effect on the body. A few hours is especially important for office workers who spend most of their work day sitting. Sports strengthen the immune system. Athletes are less sick and enjoy life more. A person who does sports is constantly acquainted with the emblems of beauties. Under the influence of exercise, body shapes develop harmoniously, movements and movements become more delicate, energetic, beautiful. Many engage in sports, pursuing only specific practical goals - improving health, setting records, and so on. In many ways, they have the opportunity to enjoy the lessons aesthetically, to constantly observe beauty, and to create it in the form of perfect beauty movements with the elegance of owning your own body. The connection between physical education and sports and aesthetic education is effective because it allows not only to create a beautiful appearance, but also to influence the moral and volitional qualities, aesthetics of actions and behavior in modern society.

Physical education solves the problems of strengthening health, comprehensive development of physical and spiritual strength, increasing the ability to work, longevity of creativity and prolonging the life of people engaged in all spheres of activity. In the process of physical education is carried out morphological and functional improvement of the human body, the development of physical qualities, the formation of motor skills, special knowledge systems and their use in public practice and in everyday life. Exercise affects labor productivity, which contributes to the high creative activity of people engaged in mental labor. Conducting regular sessions with specific sports and exercises, using them correctly in the training mode will help to improve the mental abilities of students, a number of necessary qualities - depth of thinking, combinatorial skills, operational, visual and helps improve auditory memory, sensory motor reactions. Physical education and sports are important factors in reducing the incidence of diseases and injuries in the workplace. Physical education and sports are necessary not only for people, but also for those whose professions require special physical strength or special mental strength, because modern living conditions (both in production and in everyday life) inevitably lead to a decline in physical condition. human activity. Decreased motor activity, in turn, leads to a decrease in the body’s flexibility, which is accompanied by a decrease in mental and physical functioning and a decrease in the human body’s resistance to disease. Physical culture and sports have great potential for nurturing a comprehensively developed personality. Ethical, mental, labor and aesthetic education is carried out during the training. However, the impact of physical culture and sports on the individual is very unique and cannot be replenished

in other ways.

Physical culture and sports contribute to the development of intellectual processes - attention, clarity of perception, memory, reproduction, imagination, thinking, improvement of mental activity. Healthy, hardened, physically well-developed boys and girls are generally more receptive to learning materials, less tired in school classes, and do not miss classes due to colds. Physical education is also the most important means of shaping an individual as a person. Exercise allows you to influence your mind, will, moral character, and character traits of boys and girls in many ways. They not only cause significant biological changes in the body, but in many ways determine the development of moral beliefs, habits, tastes, and other aspects that characterize a person's spiritual world.

References:

1. И. Азимов "Физиология человека", Ташкент - 1991 - yil.
2. Г. Azimov "Sport fiziologiyasi", Toshkent - 1993 - yil.
3. Брехман И. И. Валеология наука о здоровье, Москва - 1990.
4. Вилкин Я. "Организация работы по массовой физической культуре и спорта" Москва - 1995.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ ПО ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЕ

A. T. Захритдинов, A. X. Shukurov, A. S. Bolbekov

Преподаватель Гулистанский государственный университет, г. Гулистан, Узбекистан

Аннотация: В статье рассматриваются инновационные образовательные технологии, способствующие организации и формированию информационной компетентности будущих специалистов по физической культуре и спорту. Рассмотрены основные задачи развития системы образовательного процесса как одной из характеристик качественного образования. Основная необходимость рассмотрения готовности педагогов к осуществлению интеллектуального, профессионального и физического развитие личности и использования современных информационных технологий в системе подготовки профессиональной деятельности специалистов.

Ключевые слова: информационная компетентность, информационные технологий образования, стратегии использования информационных технологий, качество образования.

В XXI веке происходят качественные изменения во всех отраслях сферы человеческой деятельности. Важную роль в этих преобразованиях играют стремительное развитие научно-технического прогресса, глобальная технологизация и информатизация передовых стран мирового сообщества.

Процессы, происходящие в связи информатизацией общества, способствуют интеллектуализации различных видов деятельности, что позволяет создавать качественно новую информационную среду, обеспечивающую развитие творческого потенциала индивида.

В зависимости от сферы деятельности человека, решаемых им конкретных профессиональных задач использование информационных технологий имеет свои особенности и направления. В настоящее время прогресс передовых стран мира основан на концепции культурного, интеллектуального, профессионального и физического развитие личности.

Целью использования современных информационных технологий является создание нового информационно образовательного пространства для овладения специалистами физической культуры теоретико-технологическими основами систем инновационных преобразований в физическом воспитании подрастающего поколения, позволяющими обеспечить существенное повышение здоровье сберегающей и социокультурной эффективности сферы физического воспитания.

Внедрение современных информационных технологий в образование позволяет значительно эффективнее проводить сбор и обработки передачи информации, осуществлять самостоятельную работу, качественно изменить методы организационных форм обучения в

области физического воспитания. Единое информационное пространство затронуло весь процесс обучения. Обмен информационными ресурсами стало явью интеграции системы образования в современных условиях.

Применение информационных технологий в обучение высших и средне специальных учебных заведений не оставило в стороне физической культуры. Модернизация педагогической деятельности стала одним из шагов совершенствования процесса физического воспитания на всех ступенях образования.

Использование современных информационных технологий в области физической культуры прежде всего оно направлено на то, чтобы повысить эффективность наряду с традиционными средствами, обеспечить образовательный процесс и дальнейшую практическую деятельность специалистов.

Основное место в решении задач развития отводится системе образования, одним из главных инструментов которого являются современные информационные технологии. Они позволяют изменить системные свойства важнейших компонент нашего бытия. Разработка стратегии использования информационных технологий в сфере образования, в том числе физкультурного - одна из ключевых проблем стратегического планирования, как на национальном, так и на глобальном уровне. Несмотря на определенные трудности, связанные с организационными, материально-техническими, научно-методическими аспектами разработки и внедрения современных информационных технологий.

В сфере физкультурного образования они вызывают определенный интерес у ряда специалистов, в области физического воспитания и спорта, так как здесь, как и в других областях, назрела необходимость перехода от традиционных форм подготовки, направленных в первую очередь на накопление определенных знаний, умений и навыков. Использование современных информационных технологий, позволяют значительно эффективнее осуществлять сбор, обработку и передачу информации, вести самостоятельную работу и самообразование, качественно изменить содержание, методы и организационные формы обучения.

Компьютерные технологии как часть информационных технологий формируют принципиально отличный стиль учебной деятельности, который оказывается более комфортным, мобилизующим творческим возможностям и интеллектуальным потенциалом учащихся.

Быть успешным человеком можно только хорошо владея информационными технологиями. Ведь деятельность людей все в большей степени зависит от их информированности, способности эффективно использовать информацию. Для свободной ориентации в информационных потоках современный специалист любого профиля должен уметь получать, обрабатывать и использовать информацию с помощью компьютеров, телекоммуникаций и других средств информационных технологий. Потребность общества в квалифицированных специалистах, владеющих арсеналом средств и методов информатики, превращается в ведущий фактор образовательной политики. Целостная реализация этой потребности невозможна без включения информационной компоненты в систему подготовки будущего специалиста.

Основная идея использования современных информационных технологий в системе подготовки и профессиональной деятельности специалистов по физической культуре состоит в том, чтобы качественно преобразовать образовательную и практическую их деятельность в современном информационном мировом сообществе.

Список используемой литературы:

1. Богданов В. М., Пономарев В. С., Соловов А. В. Информационные технологии обучения в преподавании физической культуры// Теория и практика физической культуры, №8– 2001,
2. Любецкий Н. Здоровье российской молодежи и физическая культура// журнал RELGA №14 -05. 10. 2007

3. Угринович Н. Д. Информатика и информационные технологии – 2 изд. – М. : БИНОМ. Лаборатория знаний. 2005
4. Самсонова, А. В. Использование информационных технологий в
5. физической культуре и спорте /А. В. Самсонова, И. М., Козлов,
6. А. В.Таймазов // Теория и практика физической культуры. 2000. – С. 9

SCIENTIFIC AND THEORETICAL FUNDAMENTALS OF DEVELOPING INFORMATION COMPETENCY ON THE BASIS OF INNOVATIVE TEACHING FOR TEACHERS OF GENERAL SECONDARY EDUCATION BIOLOGY

Tursunova Jamila, Sherboyev N, Farmanova B

Teacher of Gulistan State University

GulDU magistranti, Guliston shahar 2-IDUM o'zbek tili fani o'qituvchisi

Abstract: *The article states that a study conducted to determine the effectiveness of modern education shows that the level of achievement of educational goals is measured by the degree of increased mental activity of a student. The organization of the activation of the student's activity in the learning process by the teacher means an independent, active, purposeful study of the educational material, based on the use of methods and techniques of selfgovernment, self-control of students. The form states the purpose of the study*

Keywords: *information technology, multimedia, differentiation, competence, individualization, integration, synthesis, project, polytechniceducation,*

A school Biology teacher must be able to use and apply modern information and communication technologies in the organization and effectiveness of the educational process:

1. the use of modern information and communication technologies in the educational process;
2. Ability to work with multimedia, its hardware and software;
3. access to basic services and resources of the Internet;
4. have the skills to work on the educational portal ziyonet. uz and educational sites;

Teacher:

1. the use of information and communication technologies in the educational process in their specialty;

2. the use of multimedia capabilities when creating lesson plans;
3. use basic Internet services when organizing training;
4. use of multimedia, its hardware and software;
5. Be able to organize classes using the educational portal ziyonet. uz and educational sites.

Teaching the subject of information technology based on multimedia lessons provides a wide range of opportunities to differentiate and individualize education in the context of modern pedagogical technologies in order to increase the effectiveness of learning. Solving the problem of modern education requires direct reliance on new information technologies in education. The use of information technology is aimed at individualization and differentiation of educational content from standardization, which leads to individualization of education and the ability to manage the acquisition of knowledge.

Liberalization of education is one of the most important problems in education. Liberalization of education depends on when students realize the importance of self-improvement and self-study.

One of the most important tasks is to develop students' ability to work independently, which plays an important role in increasing the effectiveness of learning. In order to increase the effectiveness of teaching, the integration and synthesis of disciplines based on a new approach to goals, methods, content, form, tools and learning processes is based on the design method, since it is purposeful. The project method is focused on the study of personal skills and abilities

required to acquire knowledge. The main goal of the project method is to gain all the knowledge and skills necessary to complete a task in the process, with students sharing tasks by working independently as part of a project team, from planning to implementation and drawing conclusions. Studies to determine the effectiveness of modern education show that the level of achievement of goals in education is measured by the degree of increase in the mental activity of a student.

The organization of the activation of the student's activity in the learning process by the teacher means an independent, active, purposeful study of the educational material, based on the use of methods and techniques of self-government, self-control of students. understood. As the expected outcome in education depends more on the relationship between teacher and student, there is a growing need for the development of collaborative pedagogy that serves to solve the problems associated with these relationships.

The main studied factors of interaction between a teacher and a student in achieving educational goals are:

1. knowledge and skills of teachers and students in effective teaching height;
2. Increased student need for education to intensify activity, in turn, the teacher himself performance
3. and skills development;
4. to simulate the teaching of students in small groups;
5. Creation of conditions for self-assessment of students.

Based on theoretical and practical research, the following conclusions can be drawn about the effective study of information technology:

1. learning should be encouraged (by praise);
2. whether students are aware of their academic achievements;
3. interest increases;
4. it is necessary to organize active periods of study;
5. use many opportunities during study, study you need to adapt to your situation;
6. The more actively students learn, the more continuous learning and will be successful using
7. interactive teaching methods and conduct group training;
8. The effectiveness of teaching using auxiliary methods in the learning process can be increased.

REFERENCES:

1. A. Karimov. Organizational and pedagogical foundations of improving the system of competitive training. Magazine "National education" No. 5 T. : 2017.
2. A. Abdukodirov, A. Pardaev. Theory and practice of distance learning. Monograph. T. : "Fan", 2009.

O'QUVCHILARNI SHAXSIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHDA GEOMETRIK MASALALARNING O'RNI

Sidiqov Jamshid Abduvali o'g'li

Sirdaryo viloyati Guliston tumani 14-umumiy o'rta ta'lim maktabi matematika fani o'qituvchisi

Geometriya materiallarini o'rganish jarayonida o'quvchilarda ziyraklik, diqqat rivojlanadi. Ular geometrik shakllarni tasniflash, tabaqalashtirish, taqqoslashga o'rganadilar. O'lchash malakalarini egallash orqali ularda mustaqillik va ishonch rivojlantiriladi.

Maktab geometriya kursining asosiy maqsadi o'quvchilarni mantiqiy tafakkur qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan ekan, shu maqsadni amalga oshirish uchun o'qish jarayonida bir qancha isbotlashga va hisoblashga doir masalalarni yechish talab qilinadi.

Geometriya so'zi grekcha bo'lib, «geo» - yer, «metriya» - o'lchash so'zlaridan tashkil topgan. Bu «yerni o'lchash» degan fikrni bildiradi. Geometriyaning tekislikdagi shakllarining xossalarini o'rganuvchi bo'limi planimetriya deb ataladi.

Geometriya fanining vazifalaridan biri shakllarni uzaro taqqoslash masalasidir. Shakllarni o'zaro taqqoslashda ularning chizmalaridan (tasvirlaridan) foydalaniladi. Shakllarning chizmasini xosil qilishni geometriyaning eng birinchi masalasi deb aytish mumkin. Shakllarning ba'zi ma'lum xossalaridan foydalanib, uning yangi xossalarini o'rganish geometriyaning umumiy vazifasidir.

Bugungi kunga kelib har bir fan o'qituvchisi kompyuterda mavzuga muvofiq dars materialiga mos keladigan qilib, estetik did bilan o'zi xoxlagandek namoyishlar qilishi, ko'rgazmalar tayyorlashi

uchun to'liq imkoniyatlar mavjud. Bundan tashqari hozirda maktablarga barcha fanlar bo'yicha turli mavzularda tayyor dasturlar ham yetkazib berilmoqdaki, bulardan o'qituvchilar unumli foydalanishlari kerak.

VII sinfda masalani umumiy shaklda yozish foydali; bunda sonli ma'lumotlar oxirgi formulaga qo'yilib, hisoblanadi. Masala yechishning bunday usuli ko'pincha figuraning biron umumiy xossasini topishga imkon beradi va ayni zamonda hisoblashni ixchamlashtiradi. Yuqorida bayon qilingan qoidalarni ochiq ko'rsatish uchun ikkita masalaning yechilishini ko'rib chiqamiz.

1-masala. ABC uchburchak teng yonli; bunga tashqi chizilgan aylananing OA radiusi uchburchakning AC asosi bilan $\angle OAC = 20^\circ 38'$ burchak hosil qiladi. BAC burchagi topilsin (ikki hol).

Masalaning shartida "ikki hol" deyilgan; o'quvchilar chizmani bajarishda OA radiusi ABC uchburchakning ichidan o'tishi ham, tashqarisidan o'tishi ham mumkinligini o'zlari aniqlashlari kerak.

Buning uchun, tashqi chizilgan aylananing markazi uchburchakning ichida, uning tashqarisida yoki unung tomonida yotishi mumkinligini esga olishi kerak (uchinchi hol o'z-o'zidan tushib qoladi, chunki OA radius uchburchakning tomoni bilan qo'shib ketgan bo'ladi). Bir yo'la ikkala chizmani chizish foydali, lekin yechishni hozircha bir hol uchun o'tkazish lozim.

O'quvchilar quyidagicha muhokama qilib, yechish rejasini taxminan bunday tuzishadi:

a) $\angle BAC$ burchakni topish kerak; bu ichki chizilgan burchak, ya'ni bu burchak tiralgan yoy necha gradus ekanligini aniqlash kerak.

b) BC yoyni aniqlash uchun biron ma'lum yoyni topish kerak. Berilgan $\angle OAC$ ham ichki chizilgan burchak bo'lgani uchun, u tiralgan yoyda ya'ni CD yoy (AO radiusni aylana bilan kesishguncha davom ettiramiz) necha gradus ekanligini topa olamiz.

c) AD – diametr bo'lganidan, ABD yoyning necha gradus ekanligi ma'lum.

d) Ammo AC yoy AB yoyga teng (AB va BC vatarlar teng bo'lgani uchun), ya'ni ABC yoyning yarmiga teng, ABC yoy esa ABD va DC yo'ylar yig'indisidir.

Masalaning analizi tugadi. Buni yozishning hojati yo'q, lekin shunday tushintirish kerakki, o'quvchilar bundan chiqarilgan yechish rejasining bayon qilib bera oladigan bo'lsin.

Yechishni ketma-ket keelaigan xossalarini hammasini bajarish bilan yoki umumiy shaklda o'tkazish mumkin. Agar hamma amallar bajarilsa, u vaqtda yechishning quyidagi yozuvda hosil bo'ladi:

1) $20^\circ 38' \cdot 2 = 41^\circ 16'$ (AC yoydagi graduslar o'lchovi).

2) $180^\circ + 41^\circ 16' = 221^\circ 16'$ (ABC yoydagi graduslar o'lchovi)

3) $\frac{221^\circ 16'}{2} = 110^\circ 38'$ (BC yoydagi graduslar o'lchovi)

4) $\angle BAC = \frac{110^\circ 38'}{2} = 55^\circ 19'.$

Agar OAC burchakdagi graduslar miqdorini α bilan belgilasak, unda ketma-ket quyidagilarni hosil qilamiz:

1) 2α . 2) $180^\circ + 2\alpha$. 3) $\frac{180^\circ + 2\alpha}{2} = 90^\circ + \alpha$. 4) $\angle BAC = 45^\circ + \frac{\alpha}{2}.$


Endi α ning uringan berilgan qiymatini qo'yish qoladi. Yechishning ikkinchi usuli abzal ekani ravshan.

Ikkinchi hol uchun masalaning yechilishi (3-rasm) qo'yilgan qilmaydi. Javobda $45^\circ - \frac{\alpha^\circ}{2}$ yoki $\angle BAC = 34^\circ 41'$ hosil qilamiz.

Yechishning umumiy formulasi shu bilan ham qiziqarliki, u teng yonli uchburchakni burchagi tashqi chizilgan doira markazining qanday joylashganiga bog'liq ekanligini ko'rsatadi. Agar doiraning markazi uning tomonlarida yotsa, u vaqtda $\alpha=0$ va uchburchakning asosidagi burchak 45° ga teng, ya'ni uchburchak to'g'ri burchakli (α burchak kattalashganda uchburchakning asosidagi burchak kattalashdi, lekin 90° dan kichikligicha qoladi, ya'ni $\alpha < 90^\circ$ bo'ladi).

Masalaning yechishini biz qarab chiqqan yo'li eng tabiiy yo'ldir, lekin boshqa yo'lni taklif qilish ham mumkin; ulardan birini ko'rib chiqamiz. $OE \parallel AC$ ni o'tkazamiz; u vaqtda $\angle DOE = \angle OAC = \alpha$ bo'ladi). Bu markaziy burchak, demak, DE yoy α gradus, EC yoy ham α gradus.

$\angle BOE$ -to'g'ri burchak; demak, BE yoy 90° , butun BEC yoy esa $90^\circ + \alpha$ gradus (4-rasm). Ikkinchi holda ham yechishni shu holda olib borish mumkin. Ba'zi o'quvchilar ba'zan masala yechishning juda original usullarini topishadi. O'quvchilarning masala yechishda o'z usullarini izlab topish tashabbuslarini har tomonlama rivojlantirish kerak.



4-rasm

O'qituvchi darsga tayyorlanishda yechishning turli variantlarni o'ylab chiqishi va o'quvchilar tomonidan taklif etilgan usullarning eng maqulini tanlab olishi lozim. Chizmaning qanday joylanishi, yechish rejasining asosiy chizig'i va yozuvni qanday olib borish haqida oldindan o'ylab chiqishi kerak.

Biz yuqorida hisoblashga doir murakkabroq masalalar yechilishini ko'rib chiqdik. Lekin ishni oson masalalardan boshlash va bu masalalar ustida yechish rejasi tuzishni o'rgatish, yechishning har bir bo'g'inini asoslash, sxematik tarzda yozishni o'rgatish kerakligini unutmaslik lozim.

O'quvchilarga masalaning yechilishini mufassal izohlab yozishni o'rgatish uchun o'qituvchi o'quvchilar bilan birgalikda bir necha masalaning yechilishini yozib chiqish kerak.

Ammo har bir masalaning ham yechilishini mufassal yozish bilan birga olib borishning keragi yo'q. Odatda o'quvchi sinfda masala yechishda masalaning yechilishini batafsil izohlamasdan, qisqacha yozadi; lekin, agar o'qituvchi talab qiladigan bo'lsa, hammasini asoslab berishga tayyor bo'lishi lozim. Uyga vazifa berishda o'quvchilar masalaning yechilishini batafsil asoslab chiqishlari kerakmi yoki qisqacha yozuv bilan kifoyalanishi kerakmi ekanligini o'qituvchi aniq ko'rsatadi. O'quvchi uyda masalani qanday yechganligini aytib berishda yechishning har bir qadamini og'zaki asoslab o'tishi kerak. Nazorat ishlarida o'quvchilarning masalani tushunib yechganligini va yechishni to'la to'kis asoslab bera olishligini tekshirish uchun, odatda yechishni oxirigacha batafsil izohlab berish talab qilinadi.

b) Isbotlashga doir masalalar .

Isbotlashga doir masalalar yechish o'quvchilarning mantiqiy fikrlarini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega; mustaqil ravishda chiqariladigan xulosa teoremlarning isbotini yaxshi tushinishga yordam etadi; ilgari isbotlab o'tilgan teoremlarni tadbiq etish, u teoremlar yangi faktlarni ko'rish uchun qanchalik muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Yaqin vaqtlargacha maktablarda isbotlashga doir masalalarga kamroq ahamiyat berib kelindi. Holbuki, eng yaxshi o'qituvchilarning tajribalari isbotlashga doir masalalar o'quvchilarning fikrlarini juda yaxshi ochishni va kursni o'zlashtirishni juda oshirishni ko'rsatadi. Odatda isbotlashga doir masalalarni qo'llamaydigan o'qituvchilar bu masalalarning o'quvchilarga qiyinlik qilishini bahona qiladilar. Bu bahona to'g'ri emas: oldindan tayyorgarlik ko'rmasdan turib yasashga doir murakkab masalalar yechish o'quvchilarga qiyinlik qiladi, holbuki, murakkab bo'lmagan xulosalar o'quvchilarga tushinarligina bo'lib, balki ularda qiziqish ham paydo qiladi.

Xulosa qilib aytganda o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlanishida planimetriya kursining imkoniyati katta. Haqiqatdan ham geometriyaning planimetriya kursi deduktiv asosga

qurilgan bo'lib, bu dastur o'z-o'zidan o'quvchilarning mantiqiy madaniyatini o'stirish uchun maqbul tarzda tuzilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alixonov S. «Geometriya darslarida umumlashtirish» T., «O'qituvchi», 1989 yil.
2. Alixonov S. «Matematika o'qitish metodikasi» Qayta ishlangan II nashri. T., «O'qituvchi» 1997 yil.
3. B. Haydarov, E. Saripov, A. Qo'chqorov «Geometriya 9-sinf uchun darslik» T. «O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashryoti. 2010 yil.

O'QUVCHILARDA MATEMATIK QOBILIYATLAR RIVOJLANISHNI TA'MINLOVCHI PEDAGOGIK SHART-SHAROITLAR

Shamanov To'rabek Buriyevich

TerDU 1-kurs magistranti

Matematikani o'qitishda o'quvchilar qobiliyatlarini rivojlantirish, matematik fikrlashga o'rgatish ko'p jihatdan dasrda yechilayotgan misol va masalalarni hayot bilan, turmush tarzi bilan bog'lab, mazmunan boyitishga qaratilishi lozim. Bunda turli ta'lim shakli, metodlari va ko'rinishlarini qo'llash, dars tuzilishini shakllantirishga ijodiy yondashish, darsni yuksak pedagogik mahorat talablari asosida o'tkazishni ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

So'nggi yillarda o'quvchilarning matematik tayyorgarligi sifatining pasayib ketishiga sabab bo'lgan qator muhim jihatlar o'rganildi. Buning sabablari o'rganilganda, umumta'lim maktabida faoliyat yuritayotgan o'qituvchilarning kasbiy darajasini rivojlantirish zaruriyati mavjudligi, bitiruv imtihonlarida, oliy ta'lim muassasalariga kirish attestatsiyasida matematikadan test olinishi ommaviylashib ketishi o'quvchilarda matematik qobiliyatlar rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatayotganligi aniqlandi. Buni shunday izohlash mumkinki, matematika o'qitishda uning barcha bo'limlari bo'yicha o'quvchilar o'zlashtirishlari, shuningdek, ko'nikma va malakalarini test yordamida aniqlash imkonini yo'q[1, 2].

Matematika o'qitish metodikasida o'quvchilarning kreativ fikrlash imkoniyatlarini aniqlovchi testlar deyarli ishlab chiqilmagan. Ayniqsa, geometriyadan testlarni ishlab chiqish texnologiyasi imkoniyatlaridan foydalanish, aksariyat hollarda chetda qolmoqda. Shuning uchun bugungi kunda oldindan keng tarqalgan axborot-tushuntiruv yondashuvi kerakli natijani, ya'ni sifatli bilim berish imkoniyatiga zamin hozirlamaydi.

Psixologik va pedagogik nuqtai nazardan qaraganda, bunday yondashuv o'quvchilarga formal matematik bilim berish bilan chegaralanadi. Matematika o'qitishda berilayotgan o'quv materiallari faqat tushunchalarni mantiqiy rivojlantirishga asoslangan holda, tashkil qilish bilan chegaralanib qolmasligi kerak. Bu o'quvchilarda bilim o'zlashtirishning formal holatini vujudga keltiradi. Shuningdek, bu holat o'quvchilarda matematik qobiliyatlar rivojlanishiga to'sqinlik qiladi[3, 4].

Pedagog olim A. I. Markushevich ta'biricha, "bosh maqsadi, faktlarni berish va tipik misollar yechish yordamida malaka xosil qilishga qaratilgan matematik ta'lim tizimi o'zining natijalariga ko'ra turg'un emas" [5].

Shuning uchun, o'quvchilarda matematik qobiliyatlarni rivojlantirish masalasi o'z yechimini kutayotgan masalalar sirasiga kirib, mutaxassislarining bu boradagi matematik tayyorgarligi sifatini orttirishni taqozo etadi.

Bizning nazarimizda, maktab o'quvchilarining matematik qobiliyatlarini maqsadli rivojlantirishda mavjud metodikani takomillashtirish muhim hisoblanadi.

Bu masalani o'rganayotganda, matematik qobiliyatlar matematik bilim, ularni reproduksiya qilishni va mustaqil qo'llay olishni o'zlashtirishga qaratilgan o'quv qobiliyatlari va ilmiy yoki amaliy ahamiyatga ega bo'lgan original maxsulotni mustaqil yaratish bilan tavsiflanadigan ijodiy matematik qobiliyatlarga ajratilib o'rganilishiga e'tibor qaratish lozim.

Qobiliyatlarni, jumladan, matematik qobiliyatlarni o'rganish uning bir nechta aspektini ajratib olish imkonini berdi: bular ijtimoiy, psixologik, pedagogik va metodik aspektlar.

Qobiliyatlarni rivojlantirishning ijtimoiy aspekti o'quvchilarning ijodiy fikrlashi, individual

qobiliyatlarini rivojlantirish natijasida, ularning intellektual imkoniyatlari darajasini asrash va o'zlashtirish bilan bog'liq.

Psixologik aspekti esa, qobiliyatli shaxs shakllanishining ichki mexanizmlari, matematik qobiliyatlar tuzilishi, ularning diagnostikasi va rivojlanishining xususiyatlarini qarash zaruratidan kelib chiqadi.

Pedagogik nuqtai nazardan qobiliyatlarni rivojlantirish muammosi o'quvchilar qobiliyatlari rivojlanishini ta'minlovchi sharoitlarni yaratishdan iborat. Demak, o'quv fanlarini o'qitish jarayonida qobiliyatlarni rivojlantirish muayyan yo'llarini aniqlash-ushbu muammoning metodik aspektini tashkil qiladi.

Matematik qobiliyatlar tuzilishini ajratib olish uchun tadqiqotchilar matematik faoliyatlarni tahlil qilganlar: masalani yechish jarayoni, isbotlash usullari, mantiqiy mulohaza yuritish, matematik nazariyani eslab qolish qobiliyati va boshqalar. Bunday tadqiqotlar tarkibi va komponentlarining turlichaligi bilan murakkab bo'lgan juda ko'p tuzilishlarni ajratish imkonini berdi. Lekin barcha tadqiqotchilar fikricha, matematik qobiliyat-bu alohida individning yaqqol ko'rinib turadigan xislati emas, balki psixik jarayonlar xususiyatlari xotira, fikrlash, idrok va diqqat bilan aniqlanadigan sifatlarining butun bir majmuasi.

O'quv matematik qobiliyatlarni yuqoridagicha turkumlashni A. I. Markushevichning quyidagi turkumlashi muvaffaqiyatli to'ldiradi va aniqliklar kiritadi [5]:

- 1) miqdoriy va fazoviy tasavvurlarning rivojlanganligi;
- 2) savolning nomuhim jihatlaridan uzoqlashib, uning muhim jihatlarini ajratib olish (abstraktlashtira olish);
- 3) aniq qo'yilgan savoldan sxemaga o'tish, ya'ni sxemalashtira olish;
- 4) berilgan dastlabki shart-sharoitdan kelib chiqqan holda, mantiqiy xulosa chiqara olish, berilgan savolni tahlil qilib, xususiy hollarga ajrata olish (deduktiv fikrlash);
- 5) nazariy xulosalarni aniq savollarga qo'llay olish, ularni taqqoslay olish, umumlashtira olish, shartlarni natijaga ta'sirini baholay bilish, yangi savollar qo'ya olish;
- 6) fikrlashning matnli ifodasi aniqligi, ixchamligi va tushunarliqligi;
- 7) o'z diqqatini xohlaganday boshqara olish;
- 8) qo'yilgan maqsadga erishishdagi qat'iyliligi, tartibli ishlashga ko'nikmasi majudligi.

Pedagogik shart-sharoitlarga oid ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, umumiy va maxsus (matematik) qobiliyatlarni rivojlantiruvchi shart-sharoitlar quyidagilardan iborat:

- qulay psixologik muhitni, individuallashtirilgan muloqotlar yordamida o'ta muhim munosabatlarni yaratish;
- ta'lim mazmunining axborotlashtirilgan muhitini boyitish;
- jamoaviy ijodkorlikka tayanish;
- o'quvchiga individual yondashish asosida shaxs rivojlanishini faollashtirish;
- ta'limni texnologiyalashtirish: ijodiy metod va masalalardan foydalanish asosida rivojlantiruvchi va innovatsion ta'lim texnologiyalarini joriy etish;
- iqtidorli rivojlantirish, shaxsning ijodiy rivojlanishini boshqarish masalalarida pedagoglar kompetentligi;
- iqtidorli o'quvchilarni o'qitishda tadqiqotchilik, muammoli va evristik metodlar ustuvorligi;
- o'quvchilarni maxsus metodlardan foydalanish asosida ijodiy faoliyatga jalb etish.

Darsliklardagi ko'pchilik nazariy-sonli masalalar o'zlarining nostandartligi, yechish g'oyalarining turlichaligi, ularning ko'pchiligi bir nechta usulda yechilishi bilan ajralib turadi. Ular o'quvchi bilimi darajasiga mos va ularni yechish qo'shimcha yangi bilimlar talab qilmasligi aniqlandi. Maktab yoki oliy ta'lim muassasalari kurslaridagi ko'p masalalar o'quvchi yoki o'quvchilarga ular yordamida yangi masalalar tuzish uchun asos bo'ldi. Darsliklardagi nazariy-sonli masalalarning ko'rsatib o'tilgan xususiyatlari o'quvchi matematik qobiliyatlarini rivojlantirish, bilimlari sifatini yaxshilash, matematika darslariga qiziqishini orttirishda keng imkoniyatlar ochib berdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Берландина Е. Л. Психологическое сопровождение личностного развития учащихся в

- условиях профильного обучения: Автореф. дисс. канд. пед. наук. – Ставрополь, 2003. – 17 с.
2. Файбуллаев Н. Р. , Дырченко И. И. Развитие математических способностей учащихся. Метод, пособия для учителей. – Т. : Ўқитувчи, 1988. – С. 245.
3. Дружинин В. Н. Экспериментальная психология. СПб. : – Питер, 2000.
4. Ibragimov N. SH. Talaba o'quvchilarning matematik qobiliyatlarini rivojlantirish m//O'zMU xabarlari. – Toshkent. 2018. – 1/4/1-son. – B. 128-132.
5. Маркушевич А. И. Об очередных задачах преподавания математика в школе //Математика в школе. 1962. , – №2. – С. 3-14.

O'QUVCHILARDA HAYOTIY KUNIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA AMALIY O'YINLARNING AHAMIYATI

Jumabaeva Zulfiya Bazarimbetovna

Nukus shaxar 33-sonli tasviriy san'atga ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabi qoraqalpoq tili va adabiyoti fani o'qituvchisi

Zamonaviy sharoitda talabalarning o'quv-bilish faolliklarini kuchaytirish, o'qitish sifatini oshirish va samaradorligini yaxshilash maqsadida innovasion xarakterga ega ta'lim shakllaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bugungi kunda amaliy o'yinlar, muammoli o'qitish, interfaol ta'lim, modulkredit tizimi, masofali o'qitish, *blended learning* (aralash o'qitish) va mahorat darslari ta'limning innovasion shakllari sifatida e'tirof etilmoqda. Ayni o'rinda ta'limning innovasion xarakterga ega ushbu shakllari to'g'risida so'z yuritiladi.

O'yin – kishilik faoliyatining muhim turi hamda ijtimoiy munosabatlar mazmunining bolalar tomonidan imitatsiyalash (ko'chirish, taqlid qilish) asosida o'zlashtirish shakli sanaladi.

Zamonaviy sharoitda ta'lim amaliyotida amaliy-innovasion xarakterga ega o'yinlardan samarali foydalanilmoqda. Amaliy o'yinlar – muayyan amaliy harakatlarning tashkil etilishini imitatsiyalash imkoniyatini beradigan o'yinlar.

Ta'lim amaliyotida qo'llaniladigan amaliy o'yinlar o'z-o'zidan didaktik xususiyat kasb etadi, shu sababli ular ko'p holatlarda “didaktik o'yinlar” deb yuritiladi.[1] Kishilik tarixiy taraqqiyotining barcha davrlarida ham o'yin sub'ekt faoliyatining eng birinchi va muhim turi sifatida tan olingan. Binobarin, shaxs faoliyatining muhim turlari – mehnat, o'qish bilan birga o'yin ham uning shakllanishi va rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. O'yinlar vositasida katta avlod tomonidan to'plangan hayotiy tajriba, o'zlashtirilgan bilim, turmush tarzi va ijtimoiy munosabat asoslari, madaniy qadriyatlar yosh avlodga izchil uzatib kelingan. O'yin shaxsning tarbiyalash, rivojlantirish, unga ta'lim berish xususiyatlariga ega. Mavjud xususiyatlari tufayli o'yinlar qadimqadimdan xalq pedagogikasining muhim asoslaridan biri bo'lib kelmoqda. Bevosita o'yinlar bolalarda idrok, sezgi, xotira, tafakkur, nutqni rivojlantirishga yordam berish orqali ularni ma'naviy-axloqiy, aqliy, jismoniy va estetik jihatdan tarbiyalashga xizmat qiladi. “Maktabgacha yoshdagi bola o'yin faoliyatida o'qish va mehnatga tayyorlanadi. Yosh ulg'aygan sari o'yinning roli biroz kamayib boradi. O'yinlarning tarbiyaviy ahamiyati bolaning butun hayoti davomida saqlanib qoladi”.[2] Agarda jismoniy xatti-harakatlarni rivojlantirishga xizmat qiladigan o'yinlar bolalarda chaqqonlik, epchillik, chidamlilik, qat'iylilikni tarbiyalasa, intellektual, konstruksiyali o'yinlar ularni o'ylashga, fikrlashga, mantiqiy tafakkur yuritishga o'rgatadi. “O'yin inson hayotining hayotining har bir davri uchun uning ruhiy rivojlanishini belgilovchi etakchi faoliyat turi hisoblanadi. Faqat o'yinda va o'yin orqali bola voqelikni, shu jumladan, kishilar ijtimoiy munosabatlarini, hulqini, xatti-harakatlarini bilib oladi”.[3] Tarixiy taraqqiyot jarayonida o'yin nafaqat bolalar, balki kattalar hayotidan ham alohida o'rin egallashga muvaffaq bo'lindi. Zamonaviy sharoitda intellektual, kompyuter, iqtisodiy, harbiy, kasbiy, sport va maishiy hodiq chiqarishga ko'maklashadigan o'yin modellari ham kattalar orasida keng ommalashgan. Zamonaviy pedagogikada o'yinlar ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish, ta'lim oluvchilarning o'quv-bilish faolligini kuchaytirish maqsadida quyidagi tarzda qo'llaniladi:

- tushuncha, mavzu va alohida bo'lim mohiyatini o'zlashtirishda alohida texnologiya sifatida;
- pedagogik texnologiyalarning elementi sifatida;

- o'quv mashg'uloti shakli yoki uning bir qismi sifatida; -
sinf (auditoriya)dan tashqari ishlardan biri ("Zakovat", "Bilimon", "Huquq fani bilimdoni" va b.) sifatida[4]

O'yinning mohiyati va tuzilishi ma'lum ko'nikma, malaka, qobiliyat va sifatlarning har bir ishtirokchida butun o'yin davomida shakllanishini ta'minlaydi. Ta'lim jarayonda o'yin texnologiyalaridan foydalanishda o'qituvchi pedagogik vazifalarini ssenariyda aniq ifodalay olishi zarur. O'yin faoliyatining psixologik mexanizmlari shaxsning o'zini namoyon qilish, o'zining hayotda o'rnini belgilash, o'zini o'zi boshqarish, o'z imkoniyatlarini amalga oshirishan iborat asosiy ehtiyojlarni qondirish imkoniyatini yaratadi. O'yin ijtimoiy tajribalarni o'zlashtirish va qayta yaratishga yo'nalgan vaziyatlarda, faoliyat turi sifatida belgilanadi hamda o'yin jarayonida shaxsning o'z xulqini boshqarishi shakllanadi va takomillashadi. O'quv faoliyatining asosiy motivi – bu o'quv-bilish motivi bo'lsa, o'quv faoliyatining eng muhim motivasiyasi esa talabada o'zi tanlangan va asoslarini o'zlashtirayotgan kasbga bo'lgan qiziqishi sanaladi. Talaba o'quv jarayonidagi egallagan bilimlaridan, kasbiy malakalari va ko'nikmalaridan hissiy jihatdan qoniqa olishi lozim. Bu vazifani hal qilishda o'qitish jarayonida o'yinli texnologiyalardan foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi. O'yinli texnologiyalari, shuningdek, talabalarning ijodiy qobiliyati va kreativ tafakkurini o'stiradi. Pedagogik maqsadda foydalanilayotgan o'yinlar o'yin texnologiyalari deb nomlanadi.

O'yin texnologiyalari (o'yin ta'limi) – ijtimoiy tajribalarni o'zlashtirishning barcha ko'rinishlari: bilim, ko'nikma, malaka hamda hissiy-baholovchi faoliyat jarayonini hosil qilishga yo'naltirilgan shartli o'quv vaziyatlarini ifodalovchi shaxsga yo'naltirilgan ta'lim (pedagogik texnologiya) turlaridan biri.[5]

Har qanday o'yinlar kabi pedagogik jarayonlarda foydalaniladigan o'yinlar ham o'zining aniq maqsadi va natijasiga ega bo'ladi. Ta'lim muassasalarida ko'p holatlarda rolli va kasbiy xarakterga ega ishbilarmonlik o'yinlari foydalaniladi. Muhimi pedagogik maqsadlarda qo'llaniladigan o'yinli texnologiyalarining asosini talabalarning faollik va tezkorlikka asoslangan faoliyati tashkil etadi. Pedagogik o'yinlar yangi o'quv materialini o'zlashtirish, mustahkamlash, talabaning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish, umumiy kasbiy tayyorgarlik ko'nikma, malakalarini shakllantirish kabi masalalarni echishga qaratiladi. Ular yordamida talabalar turli holatlardan o'quv materialini tushunish, uning negizida ma'lum ko'nikma, malaka va sifatni o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Adabiyotlar:

1. Tarbiya / Ota-onalar va murabbiylar uchun ensiklopediya / Tuzuvchi: M.N.Aminov. Mas'ul muharrir: A.Majidov. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2010 – 432-bet
2. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta'limda innovasion texnologiyalar / Amaliy tavsiyalar. – T.: "Iste'dod" jamg'armasi, 2008–180 b.
3. Olimov Q.T. Pedagogik texnologiyalar. – T.: "Fan va texnologiyalar" nashriyoti, 2011 – 275 b.
4. Ro'zieva D., Usmonboeva M., Holiqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi / Metod.qo'll. – T.: Nizomiy nomli DTPU, 2013 – 115 b.
5. Fayzullaeva D.M., Ganieva M.A., Ne'matov I. Nazariy va amaliy o'quv mashg'ulotlarda o'qitish texnologiyalari to'plami / Met.qo'll. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limida innovasion ta'lim texnologiyalari seriyasidan – T.: TDIU, 2013 – 137 b.

ONA TILI VA O'QISH DARSLARIDA LUG'AT BILAN ISHLASH

Sapaeva Nodira Ishmuxamedovna

Nukus shaxri 33-sonli tasviriy san'atga ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabi o'zbek tili va adabiyoti fani o'qituvchisi

Har qanday nutqiy bayon grammatik jihatdan o'zaro bog'langan, mazmunga mos so'z va so'z birikmalarining ma'lum izchillikda joylashtirilishidan tuziladi. Kishining lug'ati qanchalik boy va rivojlangan bo'lsa, uning nutqi ham shunchalik boy bo'ladi; o'z fikrini aniq va ifodali bayon etishiga

keng imkoniyat yaratiladi. Suhning uchun lug‘atning boyligi, xilma-xilligi, harakatchanligi metodikada nutqni muvaffaqiyatli o‘stirishning muhim sharti hisoblanadi.

Hozirgi o‘zbek adabiy tili ulkan lug‘at boyligiga ega. Besh jildlik “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da 80000 dan ziyod so‘z va so‘z birikmasi berilgan bo‘lib, bular umumiy qo‘llaniladiganlaridir. Bunga o‘zbek tilida nashr etilgan turli terminologik lug‘atlarda, o‘zbek tili sinonimlari, antonimlari, frazeologik lug‘atlarida va turli izohli lug‘atlarda berilgan so‘zlar qo‘shilsa, lug‘at boyligi yana ming-minglab oshadi. Bulardan tashqari, juda ko‘p so‘zlar ko‘p ma‘noni bildiradi. Masalan, shu izohli lug‘atda bosh so‘zining 40 dan ortiq asosiy frazeologizm bilan bog‘langan ma‘noda ishlatilishi berilgan. [1]

Maktabda nutq o‘stirishning muhim vazifalaridan biri lug‘at ustida ishlashni yaxshilash, tartibga solish, uning asosiy yo‘nalishlarini ajratish va asoslash, o‘quvchilarning lug‘atini boyitish jarayonini boshqarish hisoblanadi.

Boshlang‘ich ta‘limda lug‘at ustida ishlashning umumiy yul-yuriqlar, yunalishlari, manbalari haqida metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan bo‘lsada, ularni hali qoniqarli ahvolda deb bo‘lmaydi. Lug‘at ustida ishlash maxsus dars turi emas. U barcha darslarida, asosan ona tili va o‘qish darslarida darsliklar materiallarini o‘rgatish bilan bog‘lik holda olib boriladi.

Ona tili darslarida lug‘at ustida ishlash o‘quvchilar nutqini o‘stirishda, savodxonligini oshirishda, ularning so‘z boylig‘ini keng‘aytirishda, nutq madaniyatini yuksaltirishga qaratilg‘anligi sababli maktablarda 1-sinf dan boshlanadi va butun o‘quv jarayonida davom ettiriladi.

Yuqori sinfda savod o‘rgatish davri tugaganidan keyin Ona tili darslari boshlanadi. Ona tili darslari o‘quvchilar fikrini va nutqini o‘stirish, ahloqiy tarbiyani amalga oshirish hamda o‘quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantiruvchi xususiyatlari bilan boshka o‘quv predmetlari orasida alohida o‘rin tutadi.

Ona tili darslari jarayonida o‘quvchilarning Ona tili malakalari akomillashib, to‘g‘ri, ongli va ifodali Ona tili, badiiy asar g‘oyasini tushunish qobiliyatlari usib boradi. [2]

So‘z ma‘nosini tushuntirish juda kam vaqt olishi va o‘quvchining diqqatini darsning asosiy mavzusidan chalgitmasligi kerak. Buning uchun o‘qituvchi har bir darsga tayorlanish jarayonida ma‘nosi tushuntirishi lozim bo‘lgan so‘zlarini, uni tushuntirishning qulay usullarini va darsning qaysi o‘rnida tushuntirishni belgilab olishi maqsadga muvaffiqdir.

Matn o‘qish jarayonida so‘z ma‘nosi tushuntirilmaydi. Agar shunga zarurat sezilsa, o‘quvchilar diqqati matn mazmunidan chalgitilmaydi, qisqa izoh berib o‘tib ketiladi.

Qo‘chma ma‘noda ishlatilg‘an so‘zlar, badiiy nutq iborolari matn o‘qilg‘andan keyin tushuntiriladi. Chunki ularning ma‘nosi matn mazmunidan, kontekstdan yaxshi tushuniladi. Masallar o‘qilg‘anda, undag‘I allegorik, qo‘chma ma‘noda ishlatilgan so‘zlarni asarni o‘qishda noldin yoki o‘qish jarayonida tushuntirib bo‘lmaydi.

Lug‘at ustida ishlash ayni paytda o‘qish darslarining ham asosiy vazifalaridan biri. Lug‘at ustida ishlashda xanuzgacha maqsadga muvofiq yo‘nalish va izchillikning mavjud emasligi, o‘quvchilarining kam qo‘llaniladigan lug‘atidagi so‘zlarini faol lug‘atiga aylantirmaslik, ona tili darslarida olib boriladigan lug‘at ishlarining o‘qish darslaridagi lug‘at ishlari bilan bog‘lanmasligi, ona tili va o‘qish darslarida lug‘at ustida ishlash masalasining metodikada biyotlarida etarlicha yoritilmag‘anligi o‘quvchilarning bilim doyrasini kengaytirish va boyitishga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Lug‘at ustida ishlash ona tili darslarida ham, o‘qish darslarida ham reje asosida izchil olib borilishi lozim. [3]

Lug‘at ustida ishlash ishini to‘g‘ri tashkil etish uchun har bir sinf bo‘yicha so‘z minimumi va so‘z maksimumi belg‘ilanishi lozim. Hozirg‘I paytg‘acha bunday me‘yor belgilanadi.

O‘qish kitoblaridagi matnlarda birinchi marta uchragan, bolalar ma‘nosini bilmaydigan ayrim so‘zlar matnni o‘qishdan oldin tushuntiriladi. Masalan o‘qish kitobida ulamalar, qonun shunos, naql, donishmand, hikmatli so‘z, vaqt– g‘animat kabi so‘z va iboralarini o‘quvchilarning tushunishlari mushkil. Bu so‘zlarining ma‘nosini o‘qituvchi oldin o‘quvchilarning o‘zlaridan so‘rashi, keyin o‘zi izohlashi zarur. Bus o‘zlarini plakatlariga yozib sinfning birchekasiga ilib qoyilsa, bolalar uni vaqti – vaqti bilan o‘qib, ma‘nosini esda saqlab qoladilar. [4] Har bir o‘qituvchi bola nutqining eng oddiy

jihatini ham e'tibordan qochirmasligi zarur. Yozma nutqqa e'tibor keyinchalik bolalarni sof adabiy tilda so'zlashishga o'rgatadi.

Ta'lim jarayoni o'quvchilarni mustaqil fikrlash faoliyatlarini kengaytirish, ularda erkin fikrlay olish, o'zgalar fikrini an'glash, o'z fikrlarini og'zaki va yozma ravishda ravon bayonqila olish, jamiyat a'zolari bilan erkin muloqatda bo'la olish ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga xizmat qilishi lozim. Bu o'rinda ona tili ta'limiga o'quv fani emas, balki, butun ta'lim tizimini uyushtiruvchi ta'lim jarayoni sifatida qaraladi.

Ona tili ta'lim standarti ko'rsatkichlari bolani fikrlay olish, fikrni anglash va o'z fikrini savodli, manti qiyizchilikka rioya qilgan holda bayon qila olishga o'rgatish nuqtai nazaridan belgilanadi. Tilning lug'at boylig'ini o'rgatish tizimini belgilashda quyidagilarga e'tibor beriladi.

1. Ona tili lug'at boylig'ining xarakteri va tarkibi haqida o'quvchilarda to'liq tasavvur hosil qilishni ko'zda tutish.

2. O'quvchilarga o'rgatiladigan lug'aviy birliklarni tanlab olish, o'quvchining kommunikativ savodxonligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan leksik vositalarni ajratish, asoslash hamda tizimlashtirish.

3. Ona tili lug'at tarkibining dinamik xarakterge ega ekanligini hisobga olgan holda ta'lim mazmuni doirasida leksik birliklar tizimini belgilash.

4. Tildagi lug'aviy birliklarni muayyan tizimga solishda tadrijiylik, izchillik tamoyiliga qat'iy amal qilish.

5. Ona tilidan leksiki foda vositalarini konentrlashtirilgan ta'lim mazmuniga kiritishda shu vositalarning mazmun va ifoda yaxlitligini saqlab qolishga erishish. [5]

Lug'at ustida ishlash orqali o'quvchilarning nutq madaniyotini shakllantirish o'qituvchidan ortiqcha mehnat talab qilinmaydi. Bunga erishish uchun qunt, e'tibor, qat'iyatlilik zarur.

Adabiyotlar

1. Raxmanova.V.S. Ona tili o'qitish maxsus metodikasi..T.: Iqtisod, 2007
2. O'zbek tilining izohli lugati. I t. Magrufova Z.M. Taxriri ostida - T.: 1991. 228-6
3. Rasulov R. Umumiy tilshunoslik. –Toshkent. Fan, 2007. – B. 255
4. Rasulov R. (2020). Kelajak – til sohiblariniki. Til va adabiyot ta'limi, 63- 64.
5. O'zbek tilining izohli lugati. 1 jild. Madvaliev A. tahriri ostida. –T.:O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006. 624-b.

СЮЖЕТНО-РОЛЕВЫЕ ИГРЫ КАК СРЕДСТВО РАЗВИТИЯ КОММУНИКАТИВНЫХ УМЕНИЙ И НАВЫКОВ В МЛАДШИХ КЛАССАХ

Умирзакова Галия Нуратдиновна

*Учитель начальных классов специализированной школы по изобразительному
искусству № 33 г. Нукус Республики Каракалпакстан*

Введение национальной учебной программы в младших классах повлекло за собой изменение цели современного школьного образования. От признания знаний, умений и навыков как основных итогов образования произошёл переход к пониманию обучения как процесса, подготовки учащегося к реальной жизни, готовности к тому, чтобы занять активную позицию, успешно решать жизненные задачи, уметь сотрудничать, быть готовым к быстрому переучиванию в ответ на обновление знаний. Развитие личности обеспечивается, прежде всего, через формирование универсальных учебных действий, которые выступают инвариантной основой образовательного и воспитательного процесса и создают возможность самостоятельного успешного усвоения новых знаний, умений и компетентностей. [1]

Успешно формировать коммуникативные универсальные учебные действия возможно в процессе сюжетно-ролевой игры. В такой форме коммуникативная задача решается участниками путём импровизированного разыгрывания определённой ситуации. Такие игры позволяют ребятам занимать новые привлекательные позиции и этим облегчать себе выполнение реальной действительности, в которую они вводятся. Общение в игре протекает органично и естественно, командование и подчинение без принуждения, а игровые типы

отношений затем ученики переносят в жизнь. Важно помнить, что большую роль в этом процессе играет обучение таким приёмам и правилам общения, которые потом могут быть использоваться в сходных по форме ситуациях различного содержания. А проигрывание одной и той же ситуации несколько раз, позволяет участникам поменяться ролями, предложить свои варианты поведения, обсудить наиболее удачные, провести рефлексию своей деятельности.[2]

Вот некоторые примеры сюжетно-ролевых игр, которые можно использовать на любом этапе урока, вовлекая учеников в активную творческую деятельность.

Маршрутные игры (воображаемое путешествие, заочная экскурсия) – это особая форма урока, когда учащиеся переносятся в прошлое или будущее, путешествуют в определённой пространственной среде. Например, на уроках чтения в 4 классе на «машине времени» мы попадаем в зарубежную детскую литературу, где ученик в роли журналиста поведает нам о зарубежных писателях и поэтах. На уроках окружающего мира мы путешествуем по природным зонам, летим к далёким звёздам. Каждый раз перед игрой вместе с учениками мы намечаем наш маршрут, придумываем остановки и станции, заранее определяем роли участников и составляем фрагменты их бесед с людьми, которых мы «встретим» в путешествии. Для таких уроков возможности информационно-компьютерных технологий просто незаменимы.[3]

Очень интересно проходит игра «Журналисты». Мы выбираем главного редактора журнала, класс делится на «отделы», в которых журналисты работают по определённой теме. Журнал мы называем по теме урока, например, «Славные предки нашей страны». Задача учеников - журналистов подобрать интересный по теме материал, обсудить его в группах, проанализировать, потом «представить материал в номер». Конечно, первоначально учащихся нужно познакомить с правилами необходимыми для успешности делового общения членов каждой группы, на которые разбит класс для познавательной деятельности. Это, и что такое групповая работа, и какова её последовательность внутри каждой группы, и знакомство с заданием и планирование работы, и распределение заданий внутри группы, выполнение и обсуждение их результатов. Такая форма организации урока настолько увлекает ребят, что в группах часто возникают споры по поводу отбора материала, его оформлении, для того чтобы его «приняли в печать». Важно, чтобы в каждую группу входили учащиеся с разным уровнем подготовки, и каждому нашлось занятие по интересам. На последней стадии мы обсуждаем получившийся журнал, каждый проводит самооценку и самоанализ своей деятельности.[4]

В процессе такой игры учащиеся учатся критически оценивать себя и других, учитывать личный вклад каждого в общение, принимать правильные решения, выражать согласие (несогласие), одобрение (неодобрение), оценивать эмоциональное поведение друг друга, проявлять чуткость, отзывчивость, сопереживание к партнёрам.

«Угадай, кто я?» Дети получают необычное домашнее задание: представить себя в роли какого-нибудь сказочного героя, писателя, художника, животного и, придя в класс на урок, двигаться и изъясняться от его имени. Можно использовать групповые роли (например, Красная шапочка и серый волк). Остальные учащиеся должны догадаться, в кого превратился их одноклассник. Заранее надо договориться, можно ли использовать элементы костюма, декорации. После окончания игры, анализируя результаты её проведения, необходимо отметить успешное исполнение той или иной роли, но, ни в коем случае нельзя делать прямых оценивающих замечаний, иначе в следующий раз ребёнок просто не захочет играть и откажется от участия.

«Продолжи сказку». Сочиняем сказку, а затем снимаем фильм – продолжение сказки. Заранее распределяем между детьми роли сценаристов, режиссёра, актёров и т.д. В процессе сочинения сказки, учащиеся могут предлагать новых действующих героев, поэтому развитие сюжета в большинстве случаев зависит непосредственно от предпринимаемых участниками игры действий. И каждый свободен в выборе своей стратегии поведения, которая только изначально имела установку на определённые ограничения, определяющие образ персонажа, которого предстоит играть, и правила игры. Такая игра не только побуждает детей

фантазировать, развивает речь, но и способствует формированию культуры поведения, дружеских коллективных взаимоотношений.[5]

Сюжетно-ролевая игра превращает учебный процесс в занимательную деятельность, её эмоциональность активизирует все психические процессы младшего школьника. Игра – неиссякаемый источник развития ребёнка, которая позволяет ему раскрыться всеми гранями своей личности, только в ней возможны высшие достижения ученика, которые завтра станут его реальностью

Литература:

1. Указ Президента Республики Узбекистан «О мерах по развитию сфер образования и воспитания, и науки в новый период развития Узбекистана» от 6 ноября 2020 года №УП-6108

2. Осипова Н.В., Головинская И.А., Брюханова С.В. Показатели сформированности универсальных учебных действий обучающихся // Управление начальной школой. – 2010. - №10. – с.26-33

3. Под редакцией Ковалевой Г.С, Логиновой О.Б Планируемые результаты начального общего образования. - М: «Просвещение», 2009. - 119с.

4. Акбарова М., Аекеева Г. Методические рекомендации по планированию урока с использованием технологии сотрудничества // «Инновационный процесс в системе непрерывного повышения квалификации: проблемы адаптации педагогических кадров» Республиканская научно-практическая онлайн конференция

5. Жуманиязова Г. Урок игра - как средство развития ребёнка// «Инновационный процесс в системе непрерывного повышения квалификации: проблемы адаптации педагогических кадров» Республиканская научно-практическая онлайн конференция

YOSHLARNI MA'NAVIY QADIRYATLAR ASOSIDA TARBIYALSHNING O'RNINI VA AHAMIYATI

Shoxista Nazarova

Sirdaryo tuman 21-Umumta'lim maktab amaliyotchi psixologi

Tayanch so'zlar: *Yoshlar, milliy qadriyatlar, tarbiya, ahloqiy tarbiya*

Keywords: *Youth, national values, education, moral education*

Ключевые слова: *Молодежь, национальные ценности, образование, нравственное воспитание*

Annotatsiya: *Qadriyatlar va ijtimoiy taraqqiyot» nomli ilmiy ishlar to'plamida «Qadriyat deyilganda, inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan millat, elat va ijtimoiy guruhlarining manfaatlari va maqsadlariga xizmat qiladigan va shu tufayli ular tomonidan baholanib, qadrlanadigan tabiat va jamiyat ne'matlari hodisalari majmuini tushunmog'imiz lozim», deb ta'kidlab o'tilgan.*

Qadriyatlarni teran anglagan yoshlar ota-onalari yaratib bergan imkoniyatlar va sharoitlardan foydalanibgina qolmay, o'zlari ham kelajaklari uchun harakat qiladilar. Bu borada mukammal bilim olib, uni hayotga tadbiq eta bilish katta ahamiyatga egadir. Qadriyatlar uyg'unligi insonning komil inson darajasiga yetish uchun intilishida, erkin yashashida, farovon hayot kechirishida alohida vosita hisoblanadi Qadriyatlarni asrab-avaylash, rivojlantirish ijtimoiy taraqqiyot uchun muhimdir.

Yoshlarda, qadriyatlarni shakilantirishni oiladan boshlashimiz kerak. Agar biz bolalarni ma'naviy qadriyatlar asosida tarbiyalasak ularda oilaga, vatanga, tabiatga, mexr muhabat shakilanadi, buning natijasida misol uchun oilalarda ajralishlar soni qisqaradi, hatoki ekologik muamolarning ham oldini olish mumkin ilmiy jihatdan mehr tushunchasi falsafa, psixologiya, teologiya, sotsiologiya kabi bir qator fan sohalar bilan bog'liq, biz masalaning ijtimoiy jihatiga to'xtalamiz. Umuman olganda insondagi mehr tuyg'usining ijtimoiy ahamiyati nimalarda o'z aksini topadi? Shaxslararo munosabatlarda u nimalarda namoyon bo'ladi? Jamiyatda mehr tuyg'usini qanday oshirish mumkin? Bu barcha davrlarda eng dolzarb masalalardan biri bo'lib kelgan. Mehr - bu insonning borliqqa nisbatan eng yuksak va samimiy muhabbati.

Jamiyatda shaxsning individual yuksak insoniy tuyg'ular – emotsiyalarini ta'sirchan, doimiy asosda shaxslararo ijtimoiy munosabatlarda ifodalanishi, deya ta'rif berish mumkin. Oilaviy munosabatlarda ma'naviy ehtiyojga asoslangan aloqalardan biri-muloqot qilish jarayoni muhim hisoblanib, shaxs shakllanishida katta rol o'ynaydigan namuna va taqlid singari shu darajada hal qiluvchi vazifani ado etadi. Chunki, kishi o'zaro shaxslararo munosabatlar jarayoniga kirishishi bilangina atrof-muhitda sodir bolayotgan voqeiliklardan xabardor bo'lib, ular o'rtasida axborot ayirboshlash yuzaga keladi. Mehribonlik esa jamiyatda shaxsni muayyan muhit – xotirjamlik, ishonch, samimiyat, erkinlik, baxtiyorlik hissini tuyish kabi tuyg'ular qamrovida bo'lishiga xizmat qiladi. Bular shaxsga baxt hamda yashashga ishonch, ezgulikka umid, intilish hissini uyg'otadi. Ayni paytda ijtimoiy munosabatlarda kelishmovchilik va nizoli jarayonlarni oldini olibgina qolmay, balki hamfikrlik, hamkorlikni rag'batlantiradi. Insonga mehr yetishmovchiligi jamiyatda bir qancha muammolarni keltirib chiqaradi. Bola xarakteridagi tajovuzkorlik (agressivlik)ni keltirib chiqaruvchi omillardan biri – onalik mehriga zorlik, ota – onalar tarbiyasiga muhtojlikdir¹⁶. Jamiyatda mehribonlik muhitini yanada mustahkamlash, shaxslararo munosabatlarda, ayniqsa bugungi kunda ota-onalarning farzandiga, farzandlarning ota-onalariga, bobo- buvilarning nevaralariga, qaynonani keliniga, aka-ukalarni, qarindoshlarni, umuman jamiyat a'zolarining bir-birlariga nisbatan mehrini oshirish jamiyatda barqarorlikni yanada mustahkamlaydi. Ushbu yo'nalishdagi ishlarni ta'lim tizimining dastlabki bosqichi bo'lmish boshlang'ich ta'limdan boshlash ahamiyatli va foydali hamda istiqbolli ekanligi hozirda hech kimga sir emas. Chunki, bu orqali o'quvchilar jamiyat taraqqiyotining ma'naviy asoslarini egallagan, vatanning istiqbolini o'ylaydigan, vatan ravnaqiga, yurt tinchligiga va xalq farovonligiga munosib hissa qo'sha olish mumkinligini ongli ravishda his qila oladilar, bu tabiiyki, boshlang'ich ta'lim mazmuniga katta mas'uliyat yuklaydi.

Muammoning yechimini boshlang'ich sinf o'quvchilari ongi va qalbiga ma'naviy va milliy qadriyatlarni singdirish orqali hal qilish mumkin. Bunga sabab mazkur qadriyatlar o'quvchilarning ma'naviy dunyoqarashi va intellektual salohiyatini kengaytirib, ularning tashabbuskorlik va fidoyilik hamda ijodkorlikka bo'lgan moyilliklarini yanada oshiradi.

Zotan, donishmandlarimiz tomonidan qoldirilgan va bizgacha yetib kelgan boy milliy va ma'naviy merosimiz hamda umuminsoniy, jumladan, milliy qadriyatlarimizni o'quvchilar ongiga singdirish kelajakda ularning ma'naviy barkamol shaxs bo'lishida muhim ahamiyat kasb etadi. Natijada o'quvchilarning turli tahdid va salbiy ta'sirlar domiga tushib qolishining oldi olinadi, chunki, ma'naviy jihatdan yetuk va intellektual salohiyatli o'quvchilar hech qachon turli salbiy ta'sirlar domiga tushib qolmaydi. Ma'lumki, ta'lim tizimida milliy qadriyatlardan foydalanish muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi. Chunki milliy qadriyatlar har bir millat farzandiga o'zligini anglash, xalqi, vatani uchun sadoqatli bo'lib yetishishi uchun eng muhim tarbiya manbai bo'lib hisoblanadi. Zero, o'zini anglamagan, o'z millatini, milliy qadriyatlar va an'alarini bilmaydigan inson o'zgalarni ham, o'zga millat an'alarini ham tushunib, qadrlay olmaydi milliy qadriyatlar boshlang'ich sinf o'quvchilarini kundalik faoliyatida odat, an'ana tusiga kirib qolgandagina, u ma'naviy shakllanishga bevosita ta'sir etadi.

Qadriyatlarning bolalarga bo'lgan ta'siri kattalarga bo'lgan ta'siridan ancha ustun turadi, chunki kattalarning dunyoqarashi va e'tiqodlari, odatlari qaror topgan bo'lsa, bolalarda endilikda ularning poydevori qo'yilayotgan bo'ladi A. N. Leontev. Boshlang'ich sinf o'quvchilari o'z tabiatiga ko'ra ta'sirchan bo'lganliklari uchun ularga borliq va undagi voqealarning ta'siri kuchlidir. Borliqdagi voqea va hodisalar turli-tuman bo'lganidek, qadriyatlarning shakl va mazmuni ham rang-barangdir. Ayniqsa, o'zbek oilalarida qadim-qadimdan meros sifatida o'tib kelayotgan o'git va nasixat qilish, rivoyatlar aytish usuli bolalarda insoniy fazilatlarni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

Chunonchi; insonlarni inson tomonidan qadrlash; insoniylik burchini anglash; halol va rostgo'y bo'lish; yaxshilik haqida teran fikr yuritish kabilar meros sifatida alohida ahamiyatga ega.

Qiyomiddin Nazarov «Falsafa: qomusiy lug'at»

Dj., Servon D. Psixologiya lichnosti. – M.: Piter, 2003. Giddens Entoni. Sotsiologiya. Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma. – T.: Sharq, 2002.

Halq pedagogikasida quyidagi vositalar orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarini milliy qadriyatlar asosida tarbiyalashni yo'lga qo'yish mumkin xalq milliy o'yinlari; milliy qo'shiq va laparlar; milliy raqslar; an'anaviy marosimlar; sayllar – dala sayli, gul sayli, qovun sayli; usullaridagi musoboqalar, tadbirlar milliy qadriyatlarni shakllantirishda katta ahamiyatga ega. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini “odobnoma”, “o'qish”, “atrofimizdagi olam”, “mehnat”, “jismoniy tarbiya”, “musiq”, “tasviriy san'at” kabi darslarda milliy qadriyatlar, an'ana va urf-odatlar asosida tarbiyalash maqsadga muvofiq bo'ladi. Demak, mana shunday tarbiya manbalariga boshlang'ich sinf o'quvchilarini milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash, imkoniyatni kuchaytirish va kerakli shart-sharoitlarni yaratish o'quv muassasalarida pedagoglar, oilada esa har bir ota-onaning muqaddas burchidir. Milliy qadriyatlar asosida tarbiyalashga Ota-Onalarning farzandiga qancha vaqt ajratishlari bola bilan ishlashlarini taqozo etadi.

Yoshlarimiz o'z fikrlash tarziga ega bo'la borgan sari o'zligini, ma'naviy merosimizning ahamiyatini anglay boshlaydilar. Shuning uchun avvalo yoshlarimiz fikrlash qobiliyatini shakllantirishga alohida e'tibor berish kerak. Donolik insonni shahardagi o'nta hukmdordan qudratliroq qiladi. Qadriyatlar tizimi, ustanovkalar, emotsional munosabatlar xarakteri, bola tomonidan kattalarning qabul qilinishi, xulq-atvorda namoyon bo'ladigan katta bilan bolaning o'zaro munosabati – bola shaxsi rivojlanishida asosiy omillar xisoblanadi, Ma'naviy–ahloqiy tarbiya, ijtimoiy munosabatlari xarakteri, . oila, maxalla, milliy urf odatlarga ijobiy munosabat motivlarining shakllanishi o'quvchi ongida milliy g'urur, milliy qadriyatlarni xurmat qilish va o'z millatidan faxrlanish tuyg'ularini rivojlanishiga ta'sir ko'rsatishi ma'lum bo'ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Qiyomiddin Nazarov «Falsafa: qomusiy lug'at»
2. Karpara Dj., Servon D. Psixologiya lichnosti. – M. : Piter, 2003.
3. Giddens Entoni. Sotsiologiya. Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma. – Sharq, 2002.
4. Shoumarov G'. B., . Muhabbat va oila.
5. Eydemelir E. G, Yustetskiy V. V Semeynaya psixoterapiya “Leningrad” 1989. Entsiklopediya semeynoy jizni. V 2-x tomax. — Donetsk: (Moskva), 1993.

ПРОБЛЕМЫ ПРОЦЕССА ОБУЧЕНИЯ МАТЕМАТИКЕ В ШКОЛЕ

Даулетова Эльмира Елбаевна

*Учитель математики специализированной школы по изобразительному искусству № 33
г. Нукус Республики Каракалпакстан*

Математика в системе школьного образования занимает одно из ведущих мест, как в силу своей специфики, так и в силу той роли, которую математика играет в современной науке. Школьное математическое образование – это организованный процесс и результат усвоения предусмотренных учебной программой математических знаний, умений и навыков, а также приемов мышления и способов познания. [1;12]

В истории развития школы сложились определенные методы преподавания математики. Они проверены временем и оправдали себя. Тем не менее, в дидактике математики существует проблема отыскания новых более совершенных форм обучения. Это связано, как и с тем, что совершенствуются содержание и структура школьное математическое образование, так и с появлением новых технических средств обучения. Традиционные методы обучения давно подвергались справедливой критике, и творчески работающие учителя постоянно ищут новые, передовые методы обучения, а также пытаются усовершенствовать традиционные. В последнее время все более широко распространяются методы обучения, направленные на активизацию познавательной активности учащихся, более широкое использование их самостоятельной работы на уроке под руководством учителя. Разрабатываются новые формы обучения: программированное обучение, дистанционное обучение. Это связано с развитием компьютеров, интернета. Причем, поскольку процесс совершенствования как самого школьное математическое образование, так и техники бесконечен, то и проблема совершенствования форм обучения практически становится «вечной». [2;42] Эта проблема

будет также существовать постоянно и в связи с постоянно накапливанием опыта работы учителей, которые также совершенствуют различные методы обучения. Оптимизация деятельности учителя позволяет ему постоянно совершенствовать свое педагогическое мастерство, к которому в последнее время предъявляются все большие требования. В традиционной методике оно сводилось в основном к умению доходчиво и понятно объяснять материал, а в настоящее время этого явно недостаточно, ибо учитель обязан также целесообразно организовать процесс обучения на различных стадиях и эффективно управлять этим процессом. И в последнее время появляется все большее количество публикаций на это счет, и появился новый термин – «технология образования». [3;23] Облегчить труд учителя и помочь овладеть ему педагогическим мастерством – такую цель преследует оптимизация деятельности учителя. В условиях всеобщего неполного среднего образования старая трудная проблема мотивации обучения приобретает особое значение. Это значение усиливается и новыми реалиями сегодняшнего дня, когда интеллектуальный труд не совсем высоко ценится в нашем обществе. Для побуждения школьников к учебе, и в частности, к изучению математики следует использовать и индивидуальные устремления школьников, даже если они имеют к математике лишь косвенное отношение. Не следует мотивацию сводить лишь к постоянному напоминанию о необходимости получения среднего образования для того, чтобы продолжить его в ВУЗе. Для того чтобы мотивация хорошо работала необходимо также, чтобы сам учитель был увлечен математикой, постоянно искал что-то новое, необычное как для себя, так и для ребят. По-новому встает также задача поддержания интереса у тех ребят, которые изучают математику по углубленной программе. Как правило, интерес к изучению математики у таких ребят повышен, однако если учитель будет замыкаться только рамками школьной программы, этот интерес будет падать. При этом следует различать увлечение математикой и развлечение. Конечно, такой прием как развлечение во время проведения урока, особенно если тема достаточно сложная, следует использовать, однако не следует слишком увлекаться. Для повышения интереса или для его поддержания следует активно использовать как старые, так и новые формы внеклассной работы: олимпиады, дни и недели математики в школе, математические бои, научные конференции школьников и другие. [4;34]

Учебный процесс должен быть ориентирован на усвоение учащимися, прежде всего, основного материала; при проведении текущего и итогового контроля знаний и умений учащихся, качество усвоения этого материала проверяется в обязательном порядке. Итоговому контролю не подлежит материал, который отнесен к необязательному изучению и отмечен либо квадратными скобками, либо звездочкой. Значительное место в учебном процессе должно быть отведено самостоятельной математической деятельности учащихся – решению задач, проработке теоретического материала, подготовке докладов, рефератов и т.д. Очень важно организовать дифференцированный подход к учащимся, позволяющий избежать перегрузки и способствующий реализации возможностей каждого из них.

Литература:

1. Колягин Ю .М. Методика преподавания математики. Москва. Просвещение. 1977 г.
2. Саранцев Г.И. Гуманизация и гуманитаризация школьного математического образования. //Педагогика. -1999. №4. 39-45с.
3. Мавлянов А., Абдалова С., Алламбергенова М. «Ижтимоий-гуманитар фанлар мавзулари ўқув мақсадларини аниқлаштириш ва уларни топшириқларга айлантириш». Услубий тавсиянома. - Тошкент, 2013, 100 б.
4. Мирзаев Ч.Э. Ўрта таълим муассасаларида математика ўқитиш муаммолари. махсус курси учун замонавий педагогик технологиялар асосида тайёрланган Ўқув-услубий мажмуа. Гулистон, 2010 -128 б.

TA'LIM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA DARSDAN TASHQARI MASHG'ULOTLARNI LOYIHALASHTIRISH

Kenjayeva Barno Xolmo'minovna

Sirdaryo viloyati Yangiyer shahar 9-umumiy maktab fizika fani o'qituvchisi

Annotatsiya: o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishda va ularni rivojlanishida fizikadan uyushtiriladigan sinfdan tashqari ishlarning ahamiyati kattadir.

Fizikadan sinfdan tashqari ishlar deganda, darsdan tashqari sharoitda, bevosita fizika o'qituvchisining rahbarligida, reja asosida ma'lum maqsadni ko'zlab, o'quvchilarning hohishlarini hisobga olgan holda uyushtiriladigan mashg'ulot nazarda tutiladi.

Sinfdan tashqari ishlarni uyushtirishda o'quvchilarning ta'lim olishi, tarbiyalanishi va rivojlanishi dielektrik birlikda hal etilishiga alohida e'tibor beriladi. bu ishlar bir necha tashkiliy elementlar (maqsadi, vazifasi, mazmuni, shakli, xili, tashkil etish metodi) dan tashkil topadi. Fizikadan sinfdan tashqari ishlarning maqsadini belgilashda quyidagilar hisobga olinadi:

- 1) o'quvchilarning bilim darajasi;
- 2) o'quvchilarning bilishga qiziqishi;
- 3) uning o'quv mehnat faoliyatidagi o'ziga xos xususiyatlari;
- 4) aqliy taraqqiyot darajasi;
- 5) shaxs sifatida shakllanish darajasi;
- 6) kasbga yo'naltirish.

Sinfdan tashqari ishlarning maqsadlaridan kelib chiqqan holda vazifalari belgilanadi. Ular quyidagilarga bo'linadi:

- 1) o'quvchilar ilmiy dunyoqarashini rivojlantirish;
- 2) o'quvchilarni umumiy ta'lim olish yo'nalishini rivojlantirish;
- 3) o'quvchilarning umumtexnikaviy rivojlanishini ta'minlash;
- 4) o'quvchilarning shaxsiy qobiliyatini rivojlantirish;
- 5) o'quvchilarda amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirish;
- 6) kasbga yo'naltirish vazifasi.

Bu didaktik vazifalarga mos holda, sinfdan tashqari ishlar tashkil etiladi. O'quvchilarning sinfdan tashqari ishlarining mazmunini tanlash muhim ahamiyatga ega.

Umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilari fizikadan hali chuqur va mustahkam bilimga ega emasligini, mustaqil ishlash qobiliyati ham yetarli shakllanmaganligi hamda ularning yosh xususiyatlaridan kelib chiqqan holda sinfdan tashqari ishlarning mavzusi va mazmunini tanlashda uning ilmiyligiga emas, uning amaliyligiga asosiy e'tibor qaratish kerak.

Sinfdan tashqari uyushtiriladigan ishlarning qaysi turi bo'lishidan qat'iy nazar o'quvchilarda estetik didni rivojlantirish borasida ham o'qituvchi ish olib borishi zarur. Shuningdek, mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilarni tabiatga, tabiat go'zalligiga muhabbat hissini uyg'otishni ham o'qituvchi yodidan chiqarmasligi kerak. O'quvchilarni vatanparvarlik va baynalminallik ruhida tarbiyalash borasida ham fizikadan uyushtirilgan sinfdan tashqari ishlar katta imkoniyatga ega.

Buyuk mutafakkirlarimizdan IbnSino, Beruniy, Ulug'bek va boshqalarning qilgan ishlarini, ularning hayotlaridan lavhalarni yoki bo'lmasa

XX asrda fizika sohasida U. Aripov, S. Azimov, R. Bekjonov va boshqa vatanimiz olimlari qilgan ishlarni sinfdan tashqari o'tkaziladigan tadbirlarda ko'rsatish, devoriy gazetalarda ma'lumotlar berish yaxshi samara beradi.

Shuningdek, keyingi paytlarda vatanimiz fizik olimlari boshqa mamlakatlar olimlari bilan hamkorlikda ishlab erishayotgan yutuqlari haqida, bu yutuqlar turli millat vakillarining xamkorlikdagi ishining natijalari ekanligini o'tkaziladigan tadbirlar orqali o'quvchilar ongiga yetkaza olsak maqsadga erishgan bo'lamiz. Maktablarda tashkil etiladigan hamda o'tkaziladigan sinfdan tashqari mashg'ulotlar o'quvchilarning umumiy ta'lim va politexnik saviyasini oshirish, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ijodiy tashabbuskorligini oshirish uchun keng imkoniyatlar ochib beradi.

Shuningdek, o'quvchilarning fizika darsiga bo'lgan qiziqishini orttiradi.

Sinfдан tashqari ishlar o'quvchilarning qiziqishlarini hisobga olgan holda tashkil qilinadi. Fizikadan tashkil etiladigan sinfdan tashqari ishlardan biri to'garaklardir. Fizikadan to'garaklarni nafaqat maktabda, shuningdek akademik litsey, kasb-hunar kollejlari ham tashkil etilsa, nur ustiga a'lo nur bo'ladi. Fizikadan o'tkaziladigan to'garak ishining eng qimmatlisi shuki, bunda o'quvchilar o'z bilimlarini amalda qo'llashni o'rganadilar, hayotga ishlab chiqarish mehnatida ishtirok etishga tayyorlanadilar. Fizika to'garagining mazmuni masalasi eng muhim hisoblanadi. Ko'pincha o'qituvchi to'garak uchun qandaydir qisqa, texnik sohalarni - aviamodel, radiotexnika, kinotexnika va xokazolarni tanlaydi. Fizika o'qituvchisi rahbarlik qiladigan to'garak ishi o'quvchilarning to'garakdagi ishini fizikani o'qitish bilan to'laroq bog'lash imkoniyati bo'lishi uchun ko'proq fizika va texnika tematikasi bo'yicha olib boriladi.

Fizika-texnika to'garagini tashkil etish bilan o'qituvchi o'quvchilarning shaxsiy qiziqishlarini hisobga olishi, rejalashtirayotgan to'garak faoliyatini ular bilan birga tashkillashtirishi, mavzularning zamonaviyligi katta ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, o'quvchilarni avtomatika, radio, yadro energiyasi, yarim o'tkazgichlar, raketa-texnikasi, kosmanavtika informatika kabi masalalar qiziqtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. P. Habibullayev, A. Boydedayev A. Bahromov, M. Yo'ldosheva —Fizikadan umumta'lim maktablari uchun darslik.
2. B. F. Izbosarov, I. R. Kamolov. Umumiy fizikadan laboratoriya ishlari.
3. B. F. Izbosarov, I. R. Kamolov. Mexanika va molekulyar fizikadan laboratoriya ishlari.

BOSHLANG'ICH SINFDA INTERFAOL METODLARDAN SAMARAI FOYDALANISH

Tangirova Ma'rifat

Guliston tumani 11-maktab Oliy toifali boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Interfaol mashg'ulot – o'qituvchi va o'quvchilar o'zaro faol ishtirok etadigan mashg'ulot, bu jarayon hamkorlikda olib boriladi.

Darsda o'qituvchining vazifasi o'quvchilarga ma'lumot berish, o'quvchilar vazifasi esa, bu ma'lumotni yod olishdan iboratdek bo'lib qoladi. Keyingi darsda esa, oldingi darsdagi —saboqlarni xotirada tiklash va amalda qo'llashga to'g'ri keladi.

Agar o'quvchilar bilimlarni axborot sifatida qabul qilib olmay, ularni o'rganishga o'rtoqlari bilan birgalikda harakat qilsa-chi?, uni eshitishsa, u ham boshqalar fikriga quloq solsa, birgalikda umumiy xulosaga kelinsa, bu jarayon o'qituvchi tomonidan maslahatlar, takliflar orqali bildirmay boshqarib borilsa-chi? Ta'limning samaradorligi o'quvchining bilim olishdagi faolligiga bog'liq proporsional ravishda oshib borgan bo'lar edi.

Ta'lim – kelajakdagi muvaffaqiyatlar kaliti ekan, uning mahsuli bo'lgan bugungi o'quvchi kelajakda huquqiy – demokratik jamiyat a'zosi sifatida bu jamiyat hayotida to'laqonli ishtirok eta olishi, zamonning bozor iqtisodiyoti qo'yayotgan talabalariga to'la javob bera olishi kerak. Axborot oqimi keskin ortgan, turli yangiliklar hayotimizga shitob bilan kirib kelayotgan davrda mustaqil tanqidiy fikrlash ko'nikmalariga ega bo'lgan, yangilikni o'rganishga doim tayyor bo'lgan, hamkorlikdan cho'chimaydigan, muloqotga erkin kirisha oladigan shaxsni tarbiyalash ta'lim – tarbiya jarayoninig asosiy maqsadi bo'lishi kerak va bu borada ta'limda yangi texnologiyalarning qo'llanishiga yo'l ochilishi maqsadga erishish yo'lidagi to'g'ri qadamdir.

Interfaol metodidan foydalanishning maqsadi o'quvchilarda hozirjavoblik, hissini rivojlantirish, bahs – munozara, erkin fikrlashga asoslangan tafakkur tarzini shakllantirishdan iborat. Hozirda keng qo'llanib kelayotgan interfaol metodlar turlari juda ko'p bo'lib, ularning hammasi ham boshlang'ich ta'limda qo'llash uchun yaroqli emas. Bunga 1 – navbatda boshlang'ich sinf o'quvchisining o'qish, yozish tezligining kichikligi va sinfda aksariyat hollarda 30 tadan ortiq o'quvchi o'qishi bo'ladi. Interfaol metodlar nisbatan kichik auditoriyalarga (30 tagacha) va ko'proq uzluksiz ta'lim tizimining o'rta va yuqori bo'g'inlariga mo'ljallangan bo'lib, boshlang'ich sinflarda qo'llash tajribalari juda kam. Shuning uchun yangi texnologiyalarning faqat boshlang'ich sinf

matematika darslarida qo'llash mumkin bo'lganlari haqida gapirsak, avvalo o'yin texnologiyasiga to'xtalish kerak bo'ladi. O'yin boshlang'ich sinf o'quvchisi uchun eng tabiiy holat bo'lib, u o'yin vaqtida o'zini erkin sezishi, qo'rquv va tortinchoqlikni unutishi mumkin.

Boshlang'ich sinf matematika darslarida interfaol o'yinlardan foydalanish bo'yicha umumiy xolatlari quyidagilar:

- Sinfidagi hamma o'quvchilarning jarayonda faol qatnashishlariga erishish kerak. Buning uchun hamma o'quvchi ishtirok eta oladigan mavzuni va unga mos metodni tanlash kerak bo'ladi. O'yinlar ham shu asosda tanlanadi, agar rolli o'yinlar o'ynalsa, har bir o'quvchi hamma rolda bo'lib chiqishi uchun o'yin bir necha marta takrorlanadi.

- Interfaol o'yin texnologiyalardan foydalanish uchun o'quvchilarni psixologik tomondan tayyorlash masalasiga e'tibor berish kerak. Chunki hamma o'quvchi ham darsda faol ishtirok etishga, biror rolga kirishish va fikrini erkin bildirishga tayyor bo'lavermaydi. Uyalish, qisilib– qimtinish, odatdan tashqari vaziyatdan cho'chish kabi holatlar yuz berishi mumkin. Buning oldini olish uchun avval kichik hajmdagi, qisqa vaqtli mashqlardan foydalanish, faollikni rag'batlantirish va ixtiyoriylikdan ko'ra navbat bilan ishtirok etishni joriy qilish kerak bo'ladi.

- Aslida interfaol metodlar kichik guruhlar bilan ishlashda ko'proq samara beradi. Shuning uchun ularni 30 kishidan ortiq bo'lmagan o'quvchili sinflarda o'tkazish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki o'qitishning sifati o'quvchilar soniga teskari proporsional bog'liq bo'lishi mumkin. Har bir o'quvchi fikrini eshitish, har birini faoliyatga jalb qilish, har bir o'quvchining harakatlarini kuzatib borish uchun sinfda o'quvchilar juda ko'p bo'lmagani ma'qul. Xonada o'qituvchi tomonidan kichik guruhlar atrofida aylanib yurush uchun, erkin harakatlanish uchun etarli kenglik ham bo'lishi kerak.

- Sinf xonasini ham alohida tayyorlash kerak. Kichik guruhlar uchun stol va partalarni birlashtirish, ularni nomerlash va nomlash, atrofda joy almashtirish, ijodiy ishlash uchun etarli yo'lkalarni qoldirish kerak. Agar doska va —sahna da ishlash kerak bo'lsa, stullar doskaga qaratib yoki yarim qaratib qo'yiladi, o'quvchilarning doskaga orqa o'girib o'tirishi noto'g'ri hisoblanadi. O'yin uchun va metod uchun kerakli hamma jihozlar oldindan o'qituvchi tomonidan, kerak bo'lsa, o'quvchilar ishtirokida tayyorlanadi.

- Metodning mohiyati va o'yinning qoidalari avval yaxshilab tushuntirilishi va hamma shartlar oldindan aytib, kelishib olinishi kerak. Masalan, guruhda ishlansa, guruhning vazifalari, natijalarni e'lon qilish shakli, har bir ish turi uchun ajratiladigan vaqt, baho mezonlari e'lon qilinadi. Demak, har bir o'quvchi o'zining vazifasini aniq bilgan va uni bajarishga psixologik jihatdan tayyor bo'lishi kerak. Yana bir masalaga alohida e'tibor berish kerakki, har qanday fikr – mulohaza, taklifni sabr bilan eshitish, bir–birini hurmat qilish va bahamjihat bo'lib ishlashga ham kelishiladi va o'rganib boriladi.

- o'quvchilarga vazifalarni va rollarni taqsimlash, o'quvchilarni guruhlariga ajratish masalasiga e'tibor bilan qarash kerak. Agar faqat o'quvchilar ixtiyoriga qo'yib berilsa, guruhlar tarkibi doimiy bir xil bo'lib qoladi, o'yinda esa faqat dadilroq, faol va qiziquvchan o'quvchilar ishtirok etadi va uyatchan, sust o'quvchilar chetda qoladi. Guruhda ham ayrim o'quvchilar doimiy lider bo'lib, ba'zi o'quvchilarning deyarli ishtiroki sezilmay qoladi. Shuning uchun ham tanlov tasodifiy bo'lishiga harakat qilish kerak. Masalan: o'quvchilar orqasi o'girilgan jetonlarni olib, ulardagi rasm, nomer yoki rang bo'yicha guruhlariga ajratiladi, rollar esa, konvert ichiga solinib, tanlab olinishi mumkin bo'ladi.

TABIIY FANLAR DARSLARIDA SHARQ MUTAFFAKIRLARINING MA'NAVIY MEROSINI O'RGANISHDA O'QITISHNING FAOL USULLARIDAN FOYDALANISH

Mustafaqulov Muminjon Tursunqulovich

Boyovut tumani 19- umumiy o'rta ta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi.

Annotatsiya. Mazkur maqolada tabiatshunoslik darslarida sharq mutaffakkurlarining ma'naviy merosini o'rganishda interfaol metodlar, ta'limiy o'yinlardan foydalanish imkoniyatlari ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: tabiat, mutaffakkirlar, ma'naviy meros, interfaol metodlar, ta'limiy o'yinlar.

Bizga meros bo'lib qolgan bebaho tabiatimizni o'rganish va uni asrash haqidagi bilimlarini

boyitishda sharq mutaffakirlarining ma'naviy merosi faol usullar, o'yinlar bilan uyg'unlashtirilsa bola shaxsini komillik darajasini ta'minlab, ularni topqirlikka va hushyorlikka o'rgatadi, bolaning ta'lim olishga qiziquvchanligini ortirib boradi. Faol usullar, ta'limiy o'yinlar sharq mutaffakirlari ma'naviy merosi bilan uyg'unlikda olib borilishi bolalarda bilim, ko'nikma va malakalari o'zlashtirilishiga erishiladi. Bolalarga berilayotgan bilim, ko'nikma va malakalar orqali axloqiy, hamkorlik, mustaqillik, o'ziga ishonch sifatleri va taffakuri shakllanadi.

Imom al-Buxoriyning-"Al-jome' as-saxix" asarida yolg'on gapirish, va'daga vafo qilmaslik va omonatga xiyonat qilish haqida fikr yuritilishi tabiat hodisalarida ham uchrashi nazarda tutilib, tabiatshunoslik darslariga uyg'unlashgan holatda "SWOT" texnologiyasi asosida tashkil etish mumkin. "Qor" so'zi berilib, texnologiya asosida tahlil etiladi:

<u>S-KUCHLI</u> Kishiga zavq beruvchi,turli shakllarga egaligi, oppoqligi, uzoq masofadan shaklini o'zgartirmay tushishi	<u>W-OJIZ</u> Faqat qish faslida namoyon bo'lishi
<u>O-IMKONIYATI</u> Erib suvga aylangach-daryolar suvga to'yinadi va ekinlar sug'oriladi,tabiat uyg'onadi.	<u>T-XAVF-HATARI</u> Havo harorati keskin sovib boradi, sovuq natijasida shamollash kasaligi vujudga kelishi mumkin. Muzga aylanib, insonlar uchun noqulayliklar keltirib chiqarishi mumkin.

2-guruh shamol, 3-guruh-yomg'ir, 4-guruh sel va boshqalar bo'lishi mumkin.

Hadisshunos alloma at-Termiziy o'z hadislarida odamlarni ahil bo'lishga, barchaga foydali ish qilishga, bir-birlariga yomonlikni ravo ko'rmaslikka chorlovchi fikrlari mujassamlshgan. Ushbu fikrlar asosida tarqatmali rasmlardan foydalangan holda qo'yidagi ta'limiy o'yinni bolalarga havola qilinadi: "Berilgan rasm bo'laklarini yig'ing, hosil bo'lgan tabiat manzarasini izohlang". Bunda tabiat manzarasida foydali ishga aloqador tabiat manzarasi aks etgan rasmlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Abu Nasr Farobiy baxtga erishmoq uchun faqat foydali bilimlarni o'zida jamlash kerakligi haqida fikr yuritadi.Shunday ekan hozirgi zamon talabi ham foydali bilimlar inson ongini butunlay egallab olishini,bo'shliq paydo bo'lmasligi uchun kurashishdan iboratligini ta'kidlashimiz mumkin. Tabiatshunoslik darslarni tashkil etishda har bir mavzuning bolalar ongiga singdirishda ta'limiy o'yinlarning nechog'lik ahamiyatli ekanligini yana bir bor isbotlash maqsadida qo'yidagi ta'limiy o'yindan foydalanish mumkin. "Mo'jizakor tabiat" intellektual o'yini. Bunda har bir guruh tabiat mo'jizalarini sanaydi va ularni sharxlaydilar. Bunda o'quvchining ma'naviy dunyoqarashi, teran fikrlash doirasi, nutq madaniyati oshib borib ona tili, o'qish, odobnoma fanlariga yug'unlashgan holatda namoyon bo'ladi. Masalan 1-guruh Uyatchan mimosa, chaqmoq, zilzila...

Qomusiy olim Abu Rayxon Beruniy barcha illatlarning asosiy sababi bilimsizlik ekanligini aytgan. Darhaqiqat o'quvchini faqatgina o'qitib qolmay uni mustaqil izlanishga kitob mutola qilish orqali ta'lim olish ko'nikmasini tarkib toptirish joizdir. Sharq mutaffakirlarimiz ham faqat o'rganib, kitob mutalo qilib komillik darajasiga erishganligi hammaga ma'lum. Shunday ekan tabiatshunoslik darslarida "Kim topqir?" o'yinini tashkil etishda darslikdagi berilgan mavzularga oid so'zlar tarqatma materiallar shaklida tarqatilib, bu qaysi mavzuga tegishli ekanligi aniqlanadi. Masalan uy va yavvoyi hayvonlar mavzusiga oid so'zlar beriladi o'quvchilar mavzuga tegishliligini topadilar. Bu o'yin orqali o'quvchilarda barcha mavzularni qunt va sabot bilan o'qishiga erishiladi.

Ibn Sino ilmning shakllanishida uning atrofini o'rab turgan muhit alohida ahamiyat kasb etishini, ana shu muhit insonning atrof dunyoni bilishigina emas, balki uning xulqiga ijobiy yoki salbiy jihatlarining tarkib topishiga ham ta'sir etishini uqtirgan.

Darhaqiqat yaxshi bilim egallash uchun avvalo yaxshi xulq-atvorimizga bog'liqligi barchaga ma'lum, zero yaxshi bilim go'zal xulq bilan bezanmog'i lozimligi haqida sharq mutafakkirlari hikmatlaridan bilishimiz mumkin. Shunday ekan ta'limiy o'yinlarni darsga tatbiq etishda bir-birlarini fikrlarini eshita olishga, fikrlarni hurmat qilgan holda fikr bildirishga, xatolarini to'g'rilash jarayonida tushkun kayfiyatni yuzaga keltirmaslik maqsadga muvofiqdir. Agar biz ushbu holatlarni inobatga

olmasak o'quvchida o'z fikrini erkin bayon qila olmaydi, natijada darsga va ta'limiy o'yinga qiziqishi so'nib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Pedagogika tarixi (ma'ruzalar matni. Tuz K. Hoshimov va boshqalar) Toshkent 2001.
2. Nuriddinova M. "Tabiatshunoslik o'qitish metodikasi". O'quv qo'llanma. T.: 2005.

MUAMMOLI TA'LIMNI JORIY ETISHNING PSIXOLOGIK JIHATLARI

Mallayeva Umida Omonqulovna

Sirdaryo viloyati Sirdaryo tumani 22-umumta'lim maktabi amaliyotchi psixologi

Tel: +99891 102 3328

Annotatsiya. Mazkur maqolada dars jarayonida muammoli ta'limning joriy etish jarayoni unda o'quvchilarni psixologik jihatdan tayyorlashda interfaol metodlar, o'rinlarni ahamiyati ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: muammoli ta'lim, psixologik xususiyatlar, dars, psixologik muhit.

O'quv jarayonini muammoli tarzda tashkil etish auditoriyaga o'ziga xos psixologik jihatdan yondashuvni talab etadi. Buning uchun o'qituvchi va auditoriya o'rtasida hech qanday psixologik g'ov bo'lmasligi, iliq psixologik muhit yaratilishi lozim. Psixologik g'ovdan xalos bo'lishi uchun tanishuv treningi o'tkazish tavsiya etiladi. Tanishuv treningida har bir o'quvchi ismini, ismining ma'nosini aytishi yoki ismini aytib, o'zida mavjud bo'lgan biror fazilatni ifoda etishi lozim. So'ngra bugungi mashg'ulotni samarali o'tkazish qoidasi qabul qilinadi. Ushbu jarayon auditoriya bilan birgalikda amalga oshiriladi. O'qituvchi bugungi mashg'ulotning samaradorligini ta'minlash uchun o'quvchilar qanday qoidalarga amal qilishi lozimligini auditoriyadan so'raydi. Mashg'ulotning samaradorligini ta'minlash uchun quyidagi qoidalarga amal qilinishi tavsiya etiladi: gapni bo'lmaslik; bir-birini eshita bilish; bir-birini tinglash, tinglay olish ko'nikmasi; navbat bilan gapirish ko'nikmasi; qo'l ko'tarish qoidasiga amal qilish; sabr-toqatli bo'lish, o'zaro hurmat.

Darsni muammoli tarzda tashkil qilish uchun birinchi galda o'quvchilar bahs-munozara yuritishga, fikrlarini erkin bayon etishga, tanqidiy munosabat bildirishga tayyor bo'lishi lozim. Buning uchun qo'yiladigan muammolarga bog'liq bo'lgan tushunchalar yuzaga keltiriladi. So'ngra muammoga aniqlik kiritilib, ma'lum xulosalar chiqariladi. Bu jarayon fikr-mulohazalarda ifodalanadi.

Muammoni hal etish jarayonida o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlash maqsadida bu jarayonni shartli ravishda quyidagi uch fazaga ajratish mumkin:

chaqiruv fazasi; anglash fazasi; fikrlash fazasi.

Birinchi faza chaqiruv fazasi bo'lib, unda o'quvchilarda mavjud tushunchalar aniqlab olinadi va o'quvchilarning diqqati muammoga jalb qilinadi. Chaqiruv fazasini tashkil etish uchun quyidagi savollardan unumli foydalanish mumkin:

Bu haqda qanday ma'lumotlarga egasiz? Bu xususda nimani bilishni xohlaysiz? Nima uchun bu muhim? va h.k.

Anglash fazasida qo'yilgan muammoni anglab etish va hal etish nazarda tutiladi. Bunda turli interfaol usullardan foydalanish yaxshi samara beradi. Jumladan, mikrogruplar tuzish, munozara tashkil etish va quyidagi tartibda savollar qo'yish mumkin:

Siz uchun yangi ma'lumotlar bormi? Ushbu masala yuzasidan sizning fikringiz qanday? Sizda qaysi jihat eng katta taassurot qoldirdi? Buning ahamiyati nimada deb o'ylaysiz? Qanday natija beradi deb o'ylaysiz?

Fikrlash fazasida muammoning yechimi chiqarilib, mulohazalar bildiriladi. O'quvchilar o'zi xulosalar chiqaradi. O'quvchilarni fikrlash fazasiga jalb etish uchun quyidagi savollar bilan murojaat qilinishi samarali sanaladi:

Bilim oluvchining oldiga muammo qo'yilgandan keyin uning mohiyatini tushunish zarur bo'ladi. Muammoning ma'lum bo'lgan shartlari asosida ongda muvaqqat bog'lanish (assotsiatsiya) amalga oshadi. Muvaqqat bog'lanishlar yechimga olib boruvchi farazlarni keltirib chiqaradi.

Farazlarning to'g'riligi sinab ko'rilgandan keyin, agar u tasdiqlansa, muammo yechilgan hisoblanadi. Faraz tasdiqlanmagan holda yangi faraz ilgari suriladi. Yangi farazning to'g'riligi tasdiqlanguncha davom etadi. Shu tahlitda bilim oluvchi o'rganayotgan materiallarni mukammal o'zlashtiradi va amaliyotga tatbiq etish ko'nikma, malakalariga ega bo'ladi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning zarur shartlaridan biri ta'lim jarayonida o'qituvchi, o'quvchilarning mustaqil bilim olishlarini ta'minlovchi, yo'naltiruvchi, maslahat beruvchi, tafakkurini rivojlantirishning to'g'ri yo'llarini ko'rsatuvchi, hamkorlik qiluvchi shaxs sanaladi. Bunga muammoli ta'lim orqali erishish eng ma'qul yo'l hisoblanadi.

Muammoli ta'lim mustaqil, ijodiy va faol o'zlashtirishni ta'minlash bilan birga, keng qamrovli fikr yuritishga, avvaliga o'zi uchun yangi bilimlarni kashf etishga va keyinchalik ilmni, fanni rivojlantiradigan kashfiyotlar qilishga zamin hozirlaydi. Bular bilan bir qatorda o'quvchilarning psixologik va yosh xususiyatlarini ham inobatga olish eng muhim omillardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Расулов А.И. Психодиагностика.-Тошкент, —Мumtozso'z-2010,-169 б.
2. Нишоновна З.Т.Психологик хизмат.Т.,2006.

YOSHLAR TARBIYASINING AHAMIYATI

*Rasulova Sayyora Uskanovna. Asrarova Asal Isakovna
Sardoba tumani 11-sinf o'qituvchilari*

Annotatsiya: *Maqolada mamlakatimizda barkamol avlodni shakllantirish, yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismonan sog'lom etib tarbiyalash, ularni olib borilayotgan islohotlarning faol ishtirokchisiga aylantirishga qaratilgan chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda.*

Аннотация: *В нашей стране принимаются меры по формированию гармонично развитого поколения, по воспитанию молодежи духовно, нравственно и физически здоровой, по превращению ее в активных участников проводимых реформ.*

Resume: *The article analyzes in our country, measures are being taken to form a harmoniously developed generation, to educate young people spiritually, morally and physically healthy, to turn them into active participants in the ongoing reforms. It is advisable to use the ideology of national independence in shaping the outlook of the younger generation.*

Tayanch so'zlar: *Yosh avlod, milliy mafkura, farzand, tarbiya, yuksak ma'naviyat, pedagog, qadr-qimmat, ijtimoiy muhofaza, ehtiyojmand, ma'naviy qo'llab-quvvatlash*

Ключевые слова: *Молодое поколение, национальная идеология, дети, воспитание, высокая духовность, педагог, достоинство, социальная защита, нуждающиеся, духовная поддержка.*

Keywords: *Young generation, national ideology, children, upbringing, high spirituality, teacher, dignity, social protection, those in need, spiritual support.*

Respublikamizda umuminsoniy qadriyatlar va milliy madaniyatimizni asoslarini e'tiborga olib ta'lim-tarbiya mazmunini va milliy mafkurani shakllantirib borish imkoniyatlari yaratilmoqda. Bunga xalq og'zaki ijodi, pedagogikasi, mutafakkir, ma'rifatparvar pedagog va olimlarning tarbiyaga axloq-odobga doir g'oyalarini o'rgatib komil insonni ishlari amalga oshmoqda. "Kelajak bugundan boshlanadi" deydi dono xalqimiz.

Yosh avlodni kelgusi hayoti uni inson qilib ko'rsatuvchi ruhiy va ma'naviy jarayonning mezonini belgilaydi. Bu borada ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirish va dunyo talablari darajasiga olib chiqish ta'limni ilg'or tajribalar asosida boyitib borish, yangi pedagogik tajribalar asosida olib borish ayniqsa muhimdir. Xalq musiqasi og'zaki ijodiyoti, an'analari, urf-odatlarini asosida barkamol avlodni voyaga yetkazish ularni ko'proq o'z millatini sevishga g'ururlanishga shorqano g'oya va ta'limotlarni o'rganib ularni kelajakka tadbiriq etishga zamin yaratiladi.

Mustaqil Respublikamizda milliy madaniyatimizni o'ziga xosligini tiklash, umumta'lim maktablarida o'quvchilarni badiiy, axloqiy tarbiyalash va kamol toptirish hozirgi kunda dolzarb vazifalardan biridir. Demak, jamiyat ma'naviyatining o'sishi qadriyatlardan keng foydalanish uchun shart-sharoitlarni yaratib, qadriyatlarni yanada rivojlantirishga zamin hozirlaydi.

Yoshlarning ta'lim-tarbiyasi har bir ota-onaning, o'qituvchi, tarbiyachining Vatan oldidagi muqaddas burchidir. Barkamol avlodni tarbiyalash g'oyat nozik san'at bo'lib, unga juda jiddiy yondashish kerak. Yosh avlodni dunyo qarashini shakllantirishda milliy istiqlol mafkurasidan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Shu bilan birga, amalga oshirilgan ishlarning tahlili bu borada ayrim muammolar saqlanib qolayotganligini ko'rsatmoqda. Xususan:

-birinchidan, yosh avlod ongiga Vatanga sodiqlik va uning taqdiri uchun daxldorlik hissini singdirishga, ularda yot g'oya va qarashlarning salbiy ta'siriga nisbatan mafkuraviy immunitetni shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlar yetarli darajada samara bermayapti;

-ikkinchidan, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlikni mustahkamlash, shuningdek, ekstremizm, terrorizm va boshqa buzg'unchi g'oyalarga nisbatan murosasizlikni shakllantirish yuzasidan davlat organlari va jamoat tashkilotlarining faoliyati hamon talab darajasida emas;

-uchinchidan, o'quvchi-yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish uchun zarur bo'lgan madaniy-ko'ngilochar obyektlar, maktabdan tashqari ta'lim muassasalari, shu jumladan, joylarda turli ijodiy va ta'lim to'garaklari, sport seksiyalarining yetishmasligi bolalarning sog'lom ruhda tarbiyalanishiga va to'g'ri hayot yo'lini tanlashiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda;

-to'rtinchidan, o'qituvchi va murabbiylarning ijtimoiy mavqei va nufuzi pasayib ketganligi, ularni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimi bugungi kun talabiga mutlaqo javob bermasligi yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash hamda mustaqil dunyoqarashini shakllantirish borasida jiddiy muammolarni keltirib chiqarmoqda;

-beshinchidan, yoshlarning oliy ta'lim muassasalariga qamrab olinish darajasi pastligi, yetakchi xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan o'zaro hamkorlik yetarlicha yo'lga qo'yilmaganligi malakali kadrlarning yetishmasligiga va olib borilayotgan islohotlardan ko'zlangan maqsadga to'liq erishilmasligiga sabab bo'lmoqda;

-oltinchidan, sohada qonun buzilishi holatlarining saqlanib qolayotganligi, shu jumladan, yoshlarni qo'llab-quvvatlashga ajratilayotgan mablag'larning maqsadli sarflanishida nazoratning yetarli darajada emasligi tizimli muammolarni yuzaga chiqarmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. M. Maktab ta'limini rivojlantirish umumxalq harakatiga aylanishi zarur. T. 2019-y. 23-avgustdagi videoselektor nutqidan.
2. SH. Mirziyoyev "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak" 2017-yil
3. Kaldibekova A. S., Xodjayev B. X. O'quvchilarning bilish faolligini oshirish yo'llari – T., 2006.

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING YOZMA NUTQINI RIVOJLANTIRISH

*Mirzanova Dilafuruz, Berdimuradovna, Ernazarova Shaxnoza Toshnazarovna
Sirdryo viloyat, Sayxunobod tumani. 28-umumta'lim maktab o'qituvchilari*

Barkamol avlodni tarbiyalash insoniyatning eng yorqin orzusi bo'lib kelgan. Biroq dunyo xalqlarining barchasi ham bu haqda o'ylayvermagan. Bunday orzudagi insonlar azaliy-azaliy ma'rifatga, madaniyatga mansub bo'lgan yurtlarning donishmandlari eng mo'tabar ziyolilari hisoblangan. Ona tili o'qitishning bosh maqsadi til imkoniyatlaridan to'g'ri, aniq, o'rinli va unumli foydalanish ko'nikma malakalarini hosil qilish; mantiqiy-ijodiy tafakkurni rivojlantirish, kommunikativ savodxonlikni oshirish; milliy istiqlol g'oyasini, sharqona tarbiyani shakllantirish; o'quvchi shaxsini ma'naviy boyitishdan iborat. Jumladan, 2017 yil 7 fevral kuni prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida gi Farmonida mamlakatimizni yillarda rivojlantirish bo'yicha beshta ustuvor yo'nalish belgilab berdi. Uning to'rtinchi yo'nalishi: Ijtimoiy sohani rivojlantirish deb nomlanadi. Mazkur yo'nalishda ta'lim sifatini yaxshilash hamda ularni rivojlantirish chora-tadbirlarini amalga

oshirish rejalashtirilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida 2017 yil 20 apreldagi PQ sonli Qarorida: Ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlarni maqsadli (muayyan ta'lim muassasalari uchun) tayyorlash tizimini joriy etib, tegishli sharoit yaratish kabi masalalar o'rin olgan.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yozma nutqini rivojlantirish, xatolar ustida ishlashga kreativ yondashish mavzusida bitiruv malakaviy ishning dolzarbligini ko'rsatadi. Ma'lumki, boshlang'ich ta'lim barkamol avlodni tarbiyalashdagi muhim bosqich hisoblanadi. Dastlabki sinflardan boshlab o'quvchilarning husnixat malakalari ustida ishlash, ularga chiroyli yozuv qoidalarini o'rgatib borish, alifbodagi har bir harfni yozuvda to'g'ri va aniq ifodalab berishga o'rgatish boshlang'ich sinf o'qituvchisidan juda katta mas'uliyatni talab qiladi. Ma'lumki, insoniyat tomonidan yaratilgan eng katta kashfiyotlardan biri bu yozuvdir. Yozuv inson tomonidan hayotiy ehtiyojlar va zaruriyatlardan tufayli o'ylab topildi va insoniyatning o'ziga, jamiyatning mislsiz taraqqiyotiga xizmat qilib kelmoqda. Yozuv fikrni tovush yetmaydigan joy va kelajakka yetkazish ehtiyojidan kelib chiqqan. Shunday qilib, yozuv insoniyat tarixini kelajak avlodga yetkazib berishdek juda katta vazifani bajarib kelayotgan buyuk ne'matdir. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning husnixat malakalari ustida ishlash bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. 1-sinf o'quvchilari Alifbe gacha bo'lgan davrda tayyorgarlik mashqlari bilan tanishadilar. Alifbe davrida 70 soat mobaynida yozuv mashg'ulotlarida barcha harflar bilan mukammal tanishadilar. Savod o'rgatishning ilk bosqichida o'qituvchi oldida so'zlarning yozuvda ifodalanishi, harf va tovush haqida tushuncha, so'zni bo'g'in va tovushlarga ajratish, bog'lanishli nutqni o'stirish, boshlang'ich orfografiya qoidalarini xususida tasavvurni rivojlantirish, umuman, ona tilining to'g'raligi va rang-barangligini anglatishdek muhim vazifa turadi, deb ta'kidlanadi R.Safarovning Savod o'rgatish darslari nomli asarida. Umumiy o'rta ta'limning Davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturida husnixat darslariga quyidagi talablar qo'yiladi: Yozuv vaqtida gigiyenik malakalarni (to'g'ri o'qitish, yozuv qurollaridan to'g'ri foydalanish) hosil qilish.

Ma'lumki, kreativ atamasi yunoncha so'z bo'lib, ijodkorlik ma'nosini ifodalaydi. Kreativ yondashuv tadqiqot xarakteriga, xususiyatiga ega bo'lib, o'quvchilarda maqsadga yo'naltirilgan ijodiy tafakkurni jadal rivojlantirish maqsadida o'tkaziladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yozma nutqini rivojlantirish hamda xatolar ustida ishlashda o'ziga xos uslub, ijodiy yondashish kreativlik vujudga keltiradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yozma nutqini rivojlantirish savod o'rgatish davrida yozuvga o'rgatish bilan boshlanadi. Umumiy o'rta ta'limning Davlat ta'lim standartlari (DTS) va o'quv dasturining Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabiga ko'ra,

1-4-sinflarda husnixat mashg'ulotlari o'tiladi. Dasturga ko'ra, 1-sinfda yozuvga o'rgatish uchun 70 soat ajratilgan, bu sinfda husnixatga o'rgatish savod o'rgatish bilan bir paytda amalga oshiriladi. Bunda o'quvchilar husnixatning gigiyenik talablariga rioya qilishlari, harflarni grafik jihatdan to'g'ri shakllantirishlari, ulashlari, ritm asosida yozishlari nazarda tutiladi. 1-sinfda xat savod o'rgatish davrida bolalar yozuvga bevosita Yozuv daftarlaridagi materiallar asosida

o'rgatiladi. 1-sinfda o'quv mashqlarini tashkil etish birmuncha murakkab bo'lib, u bir necha davrlarga bo'linadi va bir necha vazifalarni o'z ichiga oladi. Bolalar o'qituvchining so'zini tinglaydilar, ayrim matnlarni ko'chirib yozadilar, so'z va bo'g'inlarni tahlil qiladilar.

O'quvchilarda chiroyli, aniq va toza yozuvga qiziqish va muhabbat uyg'otish uchun, birinchi navbatda, o'qituvchining o'zi chiroyli yozishi lozim, bu sohada o'quvchilarning taqlidchanligini unutmash lozim. Savod o'rgatish jarayonida o'quvchilar o'qishga o'rganish bilan parallel ravishda yozuvdan ham elementar malaka hosil qiladilar. Dasturga muvofiq o'quvchilar yozuvdan quyidagi malakalarni egallashlari lozim: analitik-sintetik tovush metodi tamoyiliga muvofiq, o'qish va yozuv birligi saqlanadi. Harflarni yozishda o'qishga o'rgatishdagi tarkib asos qilib olinadi, ya'ni o'qish darsida o'quvchilar harfni o'zlashtiradilar, matnni o'qiydilar, yozuv darsida esa shu harfli so'zni yozadilar.

1. Turli shakllar andozasi ustidan chizish. Erkin rasmlar chizish. Yozuv qurollarini to'g'ri tutish, turli qiya elementlar chizish, uzunlikni, oraliq masofani chamalash va hokazo.

2. Harf elementlarini yozish, baravar masofada qisqa va uzun elementlar, osti va usti ilmoqli elementlar chizish.

3. Bosh va kichik harflarni alohida yozish.

4. Harf birikmalarini, bo'g' inni yozish, harflarni to'g'ri yozish malakasini hosil qilish uchun so'z yozish. Yozuv qurollari va ulardan foydalanish. Dastur talablari bo'yicha 1-sinf o'quvchilari «Alifbe» kitobiga ilova tariqasida chiqarilgan «Yozuv daftari»dan foydalanishlari lozim. «Yozuv daftari» sifatli qog'ozdan ishlangan, silliq va chiziqlari aniq ko'rinib turadigan bo'lishi lozim. Daftardagi qiya chiziqlar oralig'i 25 mm, qiyaligi 65, kichik harflar yoziladigan satr chizig'i oralig'i 5 mmga teng bo'lishi lozim. O'quvchilar uchun tavsiya etiladigan sharikli yoki gelli avtoruchkalarning yog'onligi ularning qo'l barmoqlariga mos bo'lib, uzunligi 130 mmdan oshmasligi lozim. O'quvchilar yozuvining sifati ko'p jihatdan yuqorida ko'rsatib o'tilgan yozuv qurollariga bog'liq. Yozuv sifatini shakllantirish: Yozuv sifatini aniq va toza, bir xil qiyalikda va balandlikda bo'lishini, bir tekis silliq yozilishini shakllantirishda Harf unsurlari va harflarni tog'ri bog'lab yozish, sinfdagi barcha o'quvchilarni bir xil tezlikda ravon qilib yozishlariga erishish, Yozuvni 65 qiyalikda yozishga o'rgatish, har bir qatordagi harflarning bir xil balandlikda bo'lishiga erishish Harf unsurlari, harflar va so'zlar orasidagi masofalarni bir xilda saqlash.

Xulosa qilib aytganda boshlang'ich sinf o'quvchilarini yozma nutqini shakllantirishda, o'quvchilarni yozuv malakalari, mustaqil fikrlashi, intellekti o'sib boradi. Yozma nutq orqali dunyoqarashi shakllanib boradi. Buning uchun biz pedagoglar doimiy izlanishda bo'lishimimiz zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdullaeva Q., Rahmonbekova S. 2-sinfda o'qish darslari. O'qituvchi kitobi. -T.: O'qituvchi, 2004.
2. Abdullaeva Q., YUsupova M., Mahmudova M., Mavlonova M. O'qish kitobi. (2-sinflar uchun darslik). -T.: «O'qituvchi». 2001.
3. Abdullaeva Q., Nazarov K., Yo'ldoshev SH. Savod o'rgatish metodikasi. -T.: «O'qituvchi». 2006.

O'YIN FAOLIYATINING BOLA RIVOJLANISHIDAGI O'RNI VA AHAMIYATI

Rasulova Zohida Sindarovna

GulDU "Boshlang'ich ta'lim metodikasi" kafedrasi katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'yinlar orqali kasbiy kompetentlik elementlarining paydo bo'lishi va uning ahamiyati haqida bayon etilgan bo'lib, o'yinning maktab yoshidagi o'quvchilar hayotidagi vazifasini aks ettirgan.

В данной статье рассматривается возникновение и значение элементов профессиональной компетентности через игру у учащихся начальных классов, а также отражается роль игры в жизни школьников.

This article discusses the emergence and significance of the elements of professional competence through the game among primary school students, and also reflects the role of the game in the life of schoolchildren.

Tayanch so'zlar: o'yinlar, analiz, marosimlar, nazariyalar, tadqiqotlar, ilmiy izlanishlar, jarayon, bilish, tushunish, anglash.

“O'yin” atamasining yagona ta'rifi yo'q. Mahalliy fanda quyidagilar eng ko'p e'tirof etilgan: o'yin - bu ijtimoiy tajribani qayta yaratish va o'zlashtirishga qaratilgan vaziyatlardagi faoliyat turi bo'lib, unda hatti-harakatlarning o'zini o'zi boshqarishi shakllanadi va takomillashtiriladi. O'yin - bu samarasiz faoliyat turi bo'lib, uning motivi uning natijalarida emas, balki jarayonning o'zida. Kishilik jamiyati tarixida o'yin sehr-jodu, xulq-atvori va boshqalar bilan o'zaro bog'langan; sport, harbiy va boshqa tayyorgarlik, san'at (ayniqsa, uning ijro shakllari) bilan chambarchas bog'liq. O'yin bolalarni tarbiyalash, o'qitish va rivojlantirishda psixologik tayyorgarlik vositasi va kelajakdagi hayotiy vaziyatlarda muhim ahamiyatga ega. O'yin pedagogikada (pedagogik o'yin) deb qo'llaniladi. Pedagogik o'yin muhim xususiyatga ega - o'rganishning aniq belgilangan maqsadi va tegishli pedagogik natija, uni asoslash, aniqlash va ta'lim va kognitiv yo'nalish bilan tavsiflash mumkin. Xorijiy pedagogika va psixologiyada o'yin faoliyati muammosi haqida J.J. Russo, Z. Freyd, J. Piaget va boshqalar; mahalliy fanda - K.D. Ushinskiy, P.P. Blonskiy, S.L. Rubinshteyn, D.B. Elkonin va

boshqalar o'z fikrlarini bildirib o'tgan. O'z asarlarida o'yinning shaxsning ontogenezidagi roli, asosiy psixik funktsiyalarning rivojlanishi, shaxsning o'zini o'zi boshqarishi va o'zini o'zi anglashi, shuningdek, sotsializatsiya jarayonlari - o'zlashtirish va foydalanishda. shaxsning ijtimoiy tajribasi tekshiriladi va asoslanadi. XVIII asrda Jan-Jak Russo bolani bilish va tushunish uchun uning o'yinini kuzatish kerakligini juda to'g'ri ta'kidladi. Til muloqot uchun tabiiy muhiti bo'lgan kattalardan farqli o'laroq, bola uchun muloqot uchun tabiiy muhit o'yin faoliyatidir. O'yin nazariyasi rivojiga katta hissa qo'shgan nemis psixologi K.Gross, masalan, o'yinni instinktlar tomonidan ularni takomillashtirish maqsadida belgilanadigan mashqlar deb hisoblagan ("o'yinning maxsus shakllari – instinktlarning maxsus shakllari"). . Biogenetik yo'nalish nazariyotchilari (S. Xoll va boshqalar) o'yinda "sirli" instinktlarning namoyon bo'lishini, insoniyatning o'tmish tarixining individual tajribasini ko'rdilar ("o'yinda bola yo'qolgan chiroyli damlarni eslaydi"). Nega, masalan, bola ota rolini afzal ko'radi? Ushbu nazariya tarafdorlarining fikriga ko'ra, uni bu rolni o'ynashga boshqa hech narsa undamaydi, balki onasiga muhabbatda raqib sifatida otasiga bo'lgan rashki tufaylidir. Psixolog A.Adler va uning izdoshlarining fikricha, o'yinda bola o'zining pastlik va ba'zi bir salbiy tuyg'usini g'arq qilishga, yo'q qilishga harakat qiladi. Shuning uchun, bolalar peri, sehrgar o'ynashni yaxshi ko'radilar va shuning uchun "ona" qo'g'irchoq "qizi" ga shunchalik avtokratik munosabatda bo'ladiki, uning barcha qayg'ularini va haqiqiy hayot bilan bog'liq muammolarini o'z zimmasiga oladi. O'yinni atrofdagi voqelikdan uzilgan, bola o'z kechinmalarida yakkalanib qoladigan illyuziya dunyosi sifatida boshqa ba'zi xorijiy psixologlar, masalan, K. Koffka, K. Levin, J. Piaget ham ko'rib chiqdilar. Gollandiyalik psixolog F.Buitendiykning o'yin nazariyasida o'yin K.Gross tomonidan atrofdagi voqelik ob'ektlariga nisbatan o'ziga xos yo'naltiruvchi-tadqiqot faoliyati sifatida belgilab berilgan funksiyaga nisbatan yangi funksiyada ko'rib chiqiladi. Bir qarashda bir-biridan farq qiladigan bu nazariyalar ularni birlashtiruvchi umumiy platformaga ega – ularning mualliflari o'yin instinktlarga, ular yetukligida paydo bo'ladigan biologik ehtiyojlarga asoslanganligini ta'kidlaydilar. Bola uchun juda muhim bo'lgan ushbu turdagi faoliyatda kattalar faqat passiv kuzatuvchi, tafakkur rolini bajaradi. Xorijiy adabiyotlarda keltirilgan o'yinning kelib chiqishining asosiy nazariyalari quyidagicha ta'riflanadi:

1. Ortiqcha nerv kuchlari nazariyasi, kompensator. Bu nazariya 19-asrda paydo bo'lgan. Uning ajdodi ingliz faylasufi G. Spenser (1820-1903) hisoblanishi kerak, u o'yinni haddan tashqari faollik natijasi deb hisoblagan, uning imkoniyatlarini oddiy faoliyatda tugatib bo'lmaydi. Spenserning so'zlariga ko'ra, o'yin muhim ahamiyatga ega, chunki u ortiqcha hayotiy energiyani chiqarishga imkon beradi. Ochlik yoki xavf ta'sirida hayvon yoki odam ma'lum bir maqsadga erishish uchun bor kuchini sarflaydi.

Bolalar ortiqcha kuchga ega bo'lmagan holda charchoq holatida o'ynaydilar va bu o'yin ularning tiklanishiga, bolada yangi energiya paydo bo'lishiga yordam beradigan omil bo'ladi. 20-asrning boshlarida Shveytsariya olimi K. Gross tomonidan profilaktika nazariyasi alohida mashhurlikka erishdi. Uning g'oyalariga ko'ra, o'yin abadiy hatti-harakatlar maktabidir. K.Gross o'z nazariyasini "mashqlar nazariyasi" deb atagan. Jismoniy mashqlar o'z-o'zidan ma'lum ko'nikmalarni muntazam ravishda yaxshilashni anglatadi. Jismoniy mashqlar - bu rivojlanish amaliyotidir. Bolalar uchun o'yin keyingi jiddiy faoliyatga, hayotga tayyorgarlik, tabiiy o'zini o'zi tarbiyalash vositasidir. O'yinda bola jismoniy mashqlar qilib, o'z qobiliyatlarini yaxshilaydi. O'yin bolalar tajribasida takrorlanadi. Bola unga qayta-qayta murojaat qiladi, takrorlashning zavqini his qiladi. Kattalar uchun o'yin hayot haqiqatiga qo'shimcha, dam olish, rivojlanish vositasidir. Shunday qilib, K. Gross o'yinni bolaning rivojlanishi bilan bog'laydi va uning ma'nosini rivojlanishda o'ynaydigan roldan izlaydi. G.S. Xoll bolaning rivojlanish jarayonida, uning turli o'yinlarida, insoniyat sivilizatsiyasining butun tarixi davomida ketma-ketligini kuzatish mumkin bo'lgan faoliyat turlari hayotga kirib borishiga ishongan. Bolalar o'yinlarida bu o'tmishning belgilarini ko'rish mumkin - ov, urush, yig'ish, yozish, oilaviy hayot va boshqalar. O'yin, bu nazariya tarafdorlarining fikriga ko'ra, o'tmishdagi instinktlarni yengishga, yanada madaniyatli bo'lishga yordam beradi. Ushbu tadqiqotchilar bolalarning odatiy yugurishlarini, ularning nayzalarini, otishmalarini, kamonlarini uzoq o'tmishdagi ovning takrorlanishi sifatida qabul qilishadi. Bolalar karnavallari, teatrlashtirilgan liboslar, niqoblar, bosh kiyimlar - diniy marosimlarning aksi va boshqalar. Biz bolalar o'yinlarida o'tmishning ba'zi ildizlarini

kuzatamiz, lekin ular madaniy an'analar asosida, bolalarning o'ynoqi tasavvurlarini oziqlantiradigan qiyin manbalarda paydo bo'ladi. Shuningdek, bolalar o'yinlarida kelajakni kutish (oldindan ko'rish) g'oyasi mavjud. Uning tarafdori fransuz o'qituvchisi A. Vallon: "... O'yinlar keyinchalik paydo bo'lishi kerak bo'lgan faoliyat turlarini kutish va o'rganish sifatida ko'rish mumkin". O'g'il bolalar va qizlar uchun o'yinlar har xil, chunki ular ularni kutayotgan hayotiy rol bilan belgilanadi. O'yin har doim bir vaqtning o'zida ikkita vaqt o'lchovida harakat qiladi: hozirgi va kelajakda. Bir tomondan, u bir lahzalik quvonch baxsh etadi, shoshilinch ehtiyojlarni qondirishga xizmat qiladi. Boshqa tomondan, o'yin har doim kelajakka qaratilgan, chunki u ba'zi hayotiy vaziyatlarni taqlid qiladi yoki insonning ijtimoiy, kasbiy, ijodiy funktsiyalarini bajarishi uchun zarur bo'lgan xususiyatlar, fazilatlar, holatlar, ko'nikmalar, qobiliyatlarni birlashtiradi.

A. Adler o'yinning ko'rinishini va uning o'ziga xosligini bolaning haqiqatda amalga oshira olmaydigan istaklarini amalga oshirishi bilan izohlaydi. Nemis psixologi K. Byuler (1879–1963) ham o'yinni funksional zavq olish maqsadida bajariladigan faoliyat deb ta'riflagan. Byuler nazariyasida e'tibor o'yinda amaliy natija emas, balki o'yin faoliyati jarayonining o'zi muhim bo'lib, undan bola zavqlanishiga qaratiladi. Bolalar uchun o'yin dunyosiga sho'ng'ish - muhim hayot ma'nosi. Bunday ichki munosabat, o'ziga xos shaxsiy munosabat va "libido" holatini - qudratli quvonch, tajriba va zavqlarning to'liqligini yaratadi deb taxmin qilinadi. A.N. Leontiev quyidagi g'oyasi mavjud: "O'yin samarali faoliyat emas, uning motivi natijada emas, balki harakatning o'zida". Bolaning unga to'g'ridan-to'g'ri erisha olmaydigan kengroq harakatlarni o'zlashtirishi faqat o'yinda amalga oshirilishi mumkin. S.L. Rubinshteyn, A.N. Leontiev va ularning izdoshlari o'yinni bolaning dunyoni tushunish va o'zlashtirishning qulay usuli sifatida tushuntirdilar. Shuning uchun o'yin faoliyatining o'ziga xosligi amaliy faoliyat bilan birlikda namoyon bo'ladi va shuning uchun faol, samarali xarakterga ega hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Anikeyeva N.P. "Vospitaniye igroy". Moskva "Prosvesheniye" 1987y. 138b
2. Usova A.P. Rol igri v vospitanii detey M.: "Prosvesheniye" 1976y 48b

BOSHLANG'ICH SINFLARDA OTA-ONALAR BILASH ISHLASHNING TARBIYAVIY AHAMIYATI

Xodjanazarova Nozima

*Sirdaryo viloyati Guliston shahar 15-umumta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi
+99897904 1716*

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'qituvchisining ota-onalar bilan hamkorlik ishlarida bolalar bilan birgalikda ishlash yo'nalishlarini tashkil etish orqali bola tarbiyasiga samarali ta'sir etish omillari misollarda keltirilgan

Kalit so'zlar: boshlang'ich sinf, oqituvchi, ota-onalar, tarbiya, hamkorlik.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev yoshlar tarbiyasiga alohida to'xtalib "Bolalarimizni birovlarining qo'liga berib qo'ymasdan, ularni o'zimiz tarbiyalashimiz lozim. Buning uchun yoshlarimiz bilan ko'proq gaplashish, ularning qalbiga ko'proq quloq solish, dardini bilish, muammolarini yechish uchun amaliy ko'mak berishimiz kerak.", deya ta'kidlab o'tdi.

Ota-onaning bola tarbiyasidagi mas'uliyati va farzandning ota-ona oldidagi burchlari ham o'zbek millatida oliy qadriyat hisoblanadi. Bu kabi masalalarga bizning ma'naviyatimiz xazinalari bo'lmish "Qur'oni Karim", "Hadislar", ajdodlarimiz merosi bo'lmish "Qobusnoma", Alisher Navoiyning "Hayratul Abror", "Farhod va Shirin", "Maqbul - qulub", Sa'diy Sheroziyning "Guliston" va boshqa bir qator didaktik asarlarda katta e'tibor qaratilgan. Bunday asarlar yoshlarda oilaga e'tiqod va mas'uliyatni tarbiyalashda katta ahamiyat kasb etadi.

Ko'pchilik ota-ona-o'qituvchi hamkorligi deyilsa, maktab direktorining o'quv ishlari bo'yicha o'rinbosari va sinf rahbar boshchiligidagi o'tkaziladigan rasmiy majlisni tushunamiz. Ayrim ota-onalar borki, ular bu kabi yig'ilishlarda faqat muammolar va moddiy ehtiyojlar haqida so'z boradi, deb o'ylaydi. Aslida bu uchrashuvlar zamirida farzandlarimizning bilim olishi va axloqi borasidagi

muammolarga yechim topamiz. Ota-onalarni faqat darsga emas o'tkaziladigan tarbiyaviy soat darslariga ham ko'proq jalb etish, farzandining tashkiliy ishlarda ishtirokini kuzatishga qiziqish uyg'otish kerak deb hisoblayman. O'quvchilarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasida o'qituvchiga eng katta yordamni ota-ona beradi. Bu jarayonda o'zaro muloqot sinf, ota-onalar majlisi yoki individual tartibda amalga oshiriladi. O'qituvchining vazifasi ota-onani farzandi uchun izza qilish emas, balki boladagi muammolarga oila va maktab hamkorligida yechim topish mumkinligini tushuntirishdan iborat. Chunki biror narsaga qiziqmaydigan layoqatsiz bolaning o'zi yo'q deb hisoblayman. O'qituvchi bilan yaxshi hamkor bo'la olgan ota-onaning farzandi tarbiyasida ko'p ham muammolarga duch kelinmasligi tajribalarda sinalgan. O'qituvchi ayrim o'quvchilarning fanlarni yaxshi o'zlashtira olmayotgani yoki xulqidagi o'zgarishlarga javob izlaydi. Shu daqiqalarda unga ota-onaning ko'magi suv va havodek zarur. Sinf rahbari bilan oila o'rtasidagi bu xildagi o'zaro xabarlashuvlar o'quvchini to'la o'rganishga, ta'lim va tarbiyada shu o'quvchi uchun eng maqbul tarbiya va ta'sir vositasini topishga yordam beradi. Sinf rahbari o'z kuzatishlari, oiladan olgan axborotlari natijasini kundalikka yozib borsa, undagi to'plangan ma'lumotlarni vaqti-vaqtida o'rganish bilan shularga asoslanib tegishli xulosalar chiqarsa, bola xulqini va fazilatlarini yaxshilash yo'llari, keyingi rejalarni belgilasa, erishilgan darajani hisobga olib yangi pedagogik talablar qo'yib bo'lsa, tarbiya albatta samarali natija beradi.

Hamkorlikda olib borilayotgan ishlar mahalla hududidagi barcha yoshlar va toifadagi fuqarolarni qamrab olishi hamda ularning qiziqish va intilishlariga mos bo'lishi lozim. Hamkorlik tadbirlarining mavzulari "Sog'lom avlod uchun", "Ota-onangga rahmat", "Odobinga balli", "Sog'tanda-sog'lom aql", "Mehr chashmasi", "Zumradoylar davrasida", "Bir yigitga qirq, hunar oz", "O'g'lim posbonim", «Hayot-ustoz, xalq-muallim", "O'zbekiston Vatanim manim!", "Oila baxti - Vatan baxti", "Sportchi oila", "Oilamiz ohanglari", "Vatan ostonadan boshlanadi", "Biz kimmiz?" kabi tadbirlardan iborat bo'lishi mumkin. Bahslar, bellashuvlar, uchrashuvlar va turli sanalarga bag'ishlangan anjuman va tantanalardan iborat bo'lishi mumkin. "Kitobcha yasash usuli" – bu usulda ota-onalar va o'quvchilar birgalikda o'qituvchining ko'rsatmasiga ko'ra qog'oz, kartondan "kitobcha" yasashadi. Bundan ko'zlangan maqsad o'qituvchining bergan ko'rsatmasini har bir ota-ona turlicha qabul qiladi, o'quvchilarning ham xuddi shunday yo'l tutishlarini ko'rsatib berishdan iborat. Bu usulda har bir ota-ona farzandining qiziqishiga quloq tutadigan, uy vazifalarini bajarishda yordam beradigan, ularni nazorat qiladigan va ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchiga ko'maklashadigan bo'lishadi.

"Bir farzandga uch kitob", "Eng yaxshi kitobxon o'quvchi" yoki "Kitobxon oila" usulidan ham ota-onalar bilan hamkorlikda foydalanilsa maqsadga muvofiq deb hisoblayman. Bunda o'quvchilar ota-onalari bilan birgalikda ertak, hikoyalarni o'qib o'rganishadi va ota-onalar majlisida mana shunday ertklarni sahnalashtirib, namoyish etishadi. Tabiiyki ertak bilan tanish ota-ona farzandining ijrosidan faxrlanadi. Bu usul orqali boladagi tortinchoqlik, o'z fikrini erkin bayon qila olmaslik xususiyatlari yo'qolib boradi va kitobga mehri yanada ortadi.

"Quvnoq viktorina" usuli. Ushbu usulda ota-onalar va o'quvchilar bilan birgalikda kichik guruhchalar tuziladi va guruhlarga savollar, qiziqarli topshiriqlar taqdim etiladi. Ota-onalar farzandlari bilan birgalikda topshirilarga yechim topishga harakat qilishadi. Bu usul o'quvchini ota-onasi bilan hamkorlik qilishga, ota-onaning esa farzandiga shu yo'l bilan vaqt ajratishga erishiladi.

Xulosa shuki, tarbiyaviy soatlarda ota-onalarning faol bo'lishi uchun o'qituvchining mahorati, tajribasi, faolligi muhim deb hisoblayman. O'rtadagi hamkorlikning mustahkamlanib borishi va ildiz otishi bolaning ta'lim-tarbiyasida o'z aksini topib, keljakka tomon odimlashida muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Axmedova N. Axloq tarbiyasi: oila va murabbiylar hamkorligi- «Boshang'ich ta'lim;» 2021-yil. №2
2. Turonova O. Oilada bola tarbiyasi – T- 1995-yil.
3. Usmonov I. Odobni hayotdan o'rgandim. T- 1995-yil.

O'SMIRLARNING YOSHGA XOS PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Achilov Baxodir Babaevich

Sirdaryo tumani 20- Umumta'lim maktabi amaliyotchi psixologi

Tayanch so'zlar: O'smir, bola, o'zgarishlar, , dars, pedagog.

Keywords: Adolescent, child, change, , lesson, educator

Ключевые слова: Подросток, ребёнок, перемена, урок, воспитатель.

Annotatsiya: O'smirlik yoshi 11-12 yoshdan 14-15 yoshlargacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. O'smirlik insonning balog'atga yetish davri bo'lib, o'ziga xos xususiyati bilan kamolotning boshqa pog'onalaridan keskin farqlanadi.

O'smirda ro'y beradigan biologik o'zgarishlar natijasida uning psixik hayotida tub burilish nuqtasi vujudga keladi. Kamolotning mazkur pallasida jismoniy o'sish va jinsiy yetilish amalga oshadi. Bolaning bo'yi 11-12 yoshida yiliga 6- 7 sm, xatto 10-sm gacha o'sishi mumkin. Biroq bu bosqichda qizlar o'g'il bolalarga qaraganda tezroq o'sadilar. Bu o'sish 13-14 yosh oxirlarida o'g'il bolalar va qizlarda tenglashadi. O'n besh yoshga qadam qo'yganda o'g'il bolalar qizlarni ortda qoldirib ketadilar. Shundan keyin to umrining oxirigacha o'sishda o'g'il bolalar ustunlik qiladilar. O'smirlik davrida bo'y bilan tana nomutanosib ravishda o'sadi, natijada bolalar oriq, nimjon va novcha bo'lib ko'rinadilar. Bo'ylari tez o'sganligi uchun kiyimlari qisqa vaqt ichida kalta bo'lib qoladi, bu esa ularning ruxiyatiga qattiq ta'sir qiladi, go'yoki atrofdagi odamlar unga qarayotganday, «ukasining kiyimini kiyib olganday» tuyuladi.

O'smir ichki organlarining o'sishida ham shunday nomutanosiblik bo'ladi. O'pka sig'imi kattalashadi, yurak faoliyati kuchayadi, lekin qon tomirlari kengayishi bundan ortda qoladi, natijada o'smir tez charchaydigan, tezda rangi uchadigan, holsizlanadigan, boshi aylanib, xatto yiqilib qoladigan bo'ladi. Tez o'sayotgan organizm ko'proq oqsil moddalarini, ko'proq kislorodni talab qiladi, ularni esa bola tez xarakter qilish orkaligina oladi. Shuning uchun ham o'smirning xarakatsiz bir yerda turib kolishi unga qiyinchiliklar keltirib chiqaradi.

O'smirning sinfda, dars paytida ham o'rnidan turib ketishi, u yon – bu yonga qarashi, qimirlashi, sumka-sidan biror narsani olib yeb o'tirishining sababini ham shu bilan izoxlash mumkin. Shuning uchun bu yoshdagi bolalar bilan mashg'ulot olib borayotgan o'qituvchi birmuncha «raxmdil, kechirimli, ba'zan o'zini ko'rmaganga oladigan» ham bo'lishiga to'g'ri keladi. Mazkur davrda tananing umumiy xajmidan 7-8 foizini qon tashkil qiladi, qon bosimi birmuncha oshadi, simob ustunining 110-115 mm darajasida bo'ladi. Yurak qisqarishining chastotasi sekinlashadi, masalan, 11 yoshda minutiga 85-90 marta ursa, 14-15 yoshlarda 70 martagacha pasayadi. O'pkaning tiriklik sigimi kuyidagicha bo'ladi: o'g'il bolalarda – 11 yoshda 1900-2000 ml, 15 yoshda – 2600–2700 ml, qizlarda – 11 yoshda 1800-1900 ml, 15 yoshda 2500-2600 ml. Shuning uchun nafas olish xar daqiqada 2 marta kamayadi. O'smirlarda ichki sekretsiya bezlari funksiyasi ham o'zgaradi, bu esa jinsiy yetilishni tezlatadi. Markaziy nerv tizimida qo'zgaluvchanlik o'zgaradi, natijada yaqqol xis-tuygular paydo bo'ladi. Qalqonsimon bez faoliyatining kuchayishi qo'zgaluvchanlik, asabiylashish va toli-kishni keltirib chiqaradi. Bosh miya qobig'ida tormozlanish jarayonining susayishi shiddatli emotsional kechinmalarni vujudga keltiradi, xulq-atvorda parokandalik, g'ayritabiiylik paydo bo'ladi. O'smirlar jinsiy yetilish sirlarining 17 foizini ota-onadan, 9 foizini o'qituvchilaridan, 4 foizini maktab vrachidan va qolganlarini kucha-kuydan, o'rtoqlaridan va dugonalaridan bilib oladilar.

Goho o'smirlar orasida axloqan tubanlashuv xollari ro'y berishi mumkin. Ularni bunday qiliqlardan, nopok gurux va to'dalardan xalos etish maqsadga muvofiqdir. O'smirlik yoshida bolalikdan kattalik xolatiga ko'chish jarayoni sodir bo'ladi. O'smirda psixik jarayonlar keskin o'zgarishi bilan aqliy faoliyatida ham burilishlar seziladi. O'qituvchining yangi Ma'ruzani batafsil tushuntirishi, darslarni ma'ruza shaklida olib borilishi uni zeriktiradi, o'qishga loqaydlik tug'diradi. Ilgari o'quv materialini ma'nosiga tushunmay yodlab olishga odatlangan o'smir endi zarur o'rinlarni mantiqiy xotira va tafakkurga suyangen xolda o'zlashtirishga xarakter qiladi, talabchanlik unda kuchayadi. Shu vaqtgacha odobli, dildash bo'lgan o'smir kutilmaganda qaysar, intizomsiz, qo'pol, serzarda bo'lib qoladi. Kattalarning talablari, ko'rsatmalari mantikan ixcham, dalillarga asoslangan, yetarli ob'ektiv va sub'ektiv omillarga ega bo'lishi kerak.

O'smir xulqidagi bunday o'zgarishlar tajribasiz o'qituvchi yoki ota-onalarni qattiq tashvishga soladi, munosabatlarini o'zgartiradilar. Natijada kelishmovchiliklar, anglashilmovchiliklar kelib chiqadi. Ayrim pedagoglar o'smirlik davri inqirozi sabablarini bilishga intiladilar. 20 O'smirning psixik o'sishini xarakterga keltiruvchi kuch – uning faoliyatini vujudga keltirgan yangi ehtiyojlar bilan ularni qondirish imkoniyatlari o'rtasidagi qarama-qarshiliklar tizimining namoyon bo'lishidir. Vujudga kelgan ziddiyatlar va qarama-qarshiliklarni psixologik kamolotni ta'minlash, faoliyat turlarini murakkab-lashtirish orqali o'smir shaxsida yangi psixologik fazilatlarni tarkib toptirish bilan asta – sekin yo'qotish mumkin. O'smirlik chog'ida rivojlanishning jadallashuvi – akseleratsiya yaqqol ko'zga tashlanadi.

O'smirlik inson shaxsi kamolotining muxim bosqichi hisoblanadi. O'smirlik chog'ida g'oyat katta ahamiyatga ega bo'lgan psixologik o'zgarishlar ro'y beradi, bolaning muayyan ijtimoiy turmush sharoitida keyingi kamol topishi uchun zarur sifatlar ta'lim – tarbiya ta'sirida paydo bo'ladi, barqaror, mustaxkam iz koldiruvchi ijobiy xislatlar namoyon bo'ladi. O'smir kamolotga erishgan sayin uning psixik dunyosida yangi fazilatlar va sifatlar paydo bo'la boshlaydi, psixikasida keskin qayta qurish sodir bo'ladi. O'zgarishlar uning oldiga yangi talablar qo'yadi, bu esa o'z navbatida ko'proq xuquq va erk berilishini, eng avvalo mustaqil qarorga kelish va xulq – atvorini maqbul deb hisoblab amalga oshirishni taqozo qiladi.

Psixik takomillashish, kamolotga intilish, nisbiy barkarorlik o'smirlik davrining eng muxim xususiyatlari hisoblanadi. Xozirgacha balog'atga erishish va jinsiy yetilishning jadallashishi to'g'risida bir butun, yaxlit ilmiy nazariya mavjud emas. Shuning uchun o'sishdagi jadallashuv, ya'ni akseleratsiya bo'yicha ham muayyan nazariya yaratilmagan. Bizningcha, mana shu omillar qatoriga shaxslararo munosabat-larning to'g'ri yo'lga qo'yilishi, odamlarning oqilona, odilona muloqotga o'rgangani, jamoa va guruxlarda ijobiy psixologik muxit yaratilgani, asabiylashish, parokandalik kamayganini ham qo'shish maqsadga muvofikdir.

Bola alohida olingan shaxs sifatida o'z-o'ziga munosabatini shakllantirish jarayonida asosan ikki bosqichni boshidan kechiradi. Bu bosqichlar o'smirlik yoshining ikki xil davriga – kichik o'smirlik davri va katta o'smirlik davriga to'g'ri keladi. Birinchi bosqichda bola o'zini «bolalar» dan ajratib, endi o'zini kattalar olamiga mansunbligini ta'kidlamokchidek bo'ladi. Bu davr uchun kattalarning xatti-xarakatlariga taqlid qilish va o'zining mana shu yarashmagan qiliqlariga tanqidiy baho bera olmaslik, uning katta yoshli kishilarga yaqin bo'lishi uchun yordam berayotgan bir gurux tengdoshlari bilan ortiq darajada bog'liq bo'lib qolishi va shu singari xolatlar xarakterlidir. Ikkinchi bosqichda endi o'zining yosh bola emasligiga shubxa qilmaydi va u o'zligini aniq anglay boshlaydi, o'z shaxsini ulug'lab, o'ziga xos xarakterlar qila boshlaydi. Bu davrga kelib, uning xarakatlari o'zi bilan o'rtoq bo'lgan bir gurux tengdoshlariga bog'liq bo'lmay qoladi.

Atrofidagi xar qanday kishining uning shaxsi haqidagi tanqidiy fikrni eshitgisi kelmaydi, xato bo'lsa ham o'z fikrida qat'iy turishga xarakter qiladi. Shuning uchun ham bu davrda bolaga ta'sir o'tkazish metodikasiga jiddiy e'tibor berish darkor. O'smirlik yoshida yuz bergan o'zgarishlar, jumladan fiziologik o'zgarishlar nafaqat uning xulqiga, xatti-xarakatlariga ta'sir etibgina qolmay, uning bilishga bo'lgan munosabatlariga, mehnat va uning turlariga munosabatlarini ham o'zgartirib yuboradi. O'smirning nerv tizimi jiddiy o'zgarishlarga duch keladi. Miya po'stlog'ining analitiksintetik faoliyati murakkablashadi. Xotiraning xajmi ko'rsatmali material va faktlarni eslab qolish hisobiga emas, balki mantiqan bog'langan materialni eslab qolish hisobiga oshib boradi. O'smirlar o'zlashtirib oladigan mavxum tushunchalar doirasi kengayadi. Ayni vaqtda muxim narsalarni muxim bo'lmagan narsalardan ajrata bilmaslik ham kuzatiladi. Ijtimoiy faoliyatga qiziqish ortadi. Faollik, tashabbuskorlik, bahodirona ishlar va romantikaga, do'stlik va o'rtoqlikka intilish bu yoshga xos bo'lgan xususiyatdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1) Usmanova E. Z. O'quvchilarda mustaqil tafakkurni qanday qilib rivojlantirish mumkin. – T. : O'zbekiston, 2000.. E. G'oziev

2) «Oliy maktab psixologiyasi» T.. 1997 y. . D. B. Raxmonova Etnopsixologiya. (ma'ruza matni) T. 2010

3) Arutyunyan Yu. V. Etnosotsiologiya. M. 2004.

- 4) Bromley Yu. V. Etnos i etnografiya. M. 1999 g.
- 5) Stefanenko T. G. Etnopsixologiya. M. 1999 g.
- 6) R. S. Nemov "Psixologiya". V. 3 —x knigax. M. 2000.
- 7) A. I. Sherbakov "Slovar". M. 1990
- 8) A. Sherbakov "Yosh va pedagogik psixologiyadan praktikum". T. 1992.

XALQ MAQOL VA MATALLARINI O'RGANISHDA INNAVATSION TEXHOLOGIYALAR

Muratkulov O. Mamatkulov A.

(Gul.DU)

Annotatsiya: Ushbu maqolada innovatsion ta'lim texnologiyalarining xalq maqol va matallarini o'rganishdagi samaradorligi tahlil qilingan.

Аннотация: В данной статье анализируется эффективность инновационных образовательных технологий при изучении народных пословиц и поговорок.

Annotation: This article analyzes the effectiveness of innovative educational technologies in the study of folk proverbs and sayings

Kalit so'zlar: Maqol, zarbulmasal poslovitsa, naql, ata so'zi, o'z va ko'chma ma'no, qavlun, gapirmoq, aytmoq, shaxsi umumlashgan gap, tazod, alliteratsiya, istiora

Ключевые слова: Пословицы, притчи, пословицы, личные и переносные значения, qavlun, высказывания, аллюзии, намеки.

Keywords: Proverbs, zarbulmasal sayings, naql, personal and figurative meanings, utterances, personal generalizations, allusions, alliterations, istiora

Maqol – og'zaki ijodning eng faol janri. Maqol deb xalqning ijtimoiy-tarixiy, hayotiy-maishiy tajribasi umumlashgan badiiy, obrazli mulohazalardan iborat hikmatli so'zlarga aytiladi. Maqol o'zbek tilida maqol, tojiklarda zarbulmasal, ruslarda poslovitsa, arablarda (jonli so'zlashuvda) naql, turklarda ata so'zi atamasi bilan yuritiladi. Maqol atamsi arabcha [قول] – qavlun – gapirmoq, aytmoq so'zidan olingan.

Maqollarning janr xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1. Maqollarning hajmi qisqa va cheklangan.
2. Maqollar mazmunan serko'lam va chuqur ma'noni ifodalaydi.
3. Xalq maqollari shaklan she'riy va nasriy bo'ladi. Ammo nasriy maqollar ham she'riy misralarni eslatadi. Masalan: Ko'za kunda emas, kunida sinadi.
4. Maqollarda hayotiy voqyea-hodisa haqida qat'iy hukm ifolanadi. Bu hukm musbat yoki manfiy mazmunda aks etadi.
5. Maqol shaxs hayotidagi xususiy vaziyatni xalq, omma, hayot nuqtai nazardan umumlashtiradi.
6. Maqol matni tilshunoslikda shaxsi umumlashgan gap hisoblanadi.

Xalq maqollari tarixi o'nlab asrlar bilan o'lchanadi. O'rxun-Enasoy bitiglarida "Oriq va semiz buqani (birov) tezagidan bilsa, birov oriq va semiz buqani ajrata olmaydi", "Yupqa qalin bo'lsa, tor-mor qiladigan bahodir emish, ingichka yo'g'on bo'lsa, uzadigan bahodir emish" kabi maqolni eslatuvchi parchalarni o'qiymiz.

Xalq maqollarining mazmun ko'lami inson hayotining turli sohalarini qamraydi. Inson hayotidagi voqea-hodisalarning cheki yo'q ekan, maqollar mazmuni chegarasini ham o'lchab bo'lmaydi. Maishiy hayotdagi kichik bir e'tiborga arzimaydigandek ko'rinuvchi lavhadan tortib chuqur falsafiy mushohada ifodasigacha maqollar mazmunida o'z aksini topgan. Agar "Uyga palos yarashur, xotinga libos" maqoli maishiy hayotga taalluqli bo'lsa, "Yozda miyang qaynasa, qishda qozoning qaynar" maqolida vaqtni bekor o'tkazmaslik, aql bilan ish ko'rish insonga hayot imkonini yaratishi qayd etiladi, "Vaqting ketdi – baxting ketdi" maqolida esa falsafiy mazmun ifodalangan bo'lib, inson taqdirida Vaqt tushunchasining qanchalar muhim ekanligi ta'kidlangan.

Maqollarni tasnif qilishning bir turida mazmun yetakchi hisoblanadi. Unga ko'ra Vatan, mehnat, xalq, ilm-hunar, mardlik, mehmon, tadbirkorlik, muhabbat va vafo, yaxshi so'z – jami 30 ga

yaqin mavzular qayd etilgan. Ammo bu mavzularni yana ko‘paytirish ham, kamaytirish ham mumkin. Muhimi, mazmun yetakchi bo‘lgan tasnifda masalani har tomonlama ifodalashga urinish aniq seziladi.

Xalq og‘zaki ijodidagi maqollar janri tarixiy hayot davomida son va mazmun jihatdan boyish xususiyatiga ega. Ya‘ni maqollar zamon o‘tishi bilan iste‘moldan chiqishi va ayni paytda yangi-yangi namunalari vujudga kelishi mumkin.

2. Maqollarda o‘z va ko‘chma ma‘no. Maqollar o‘z va ko‘chma ma‘nolarga ega bo‘lishi bilan yana ham diqqatga sazovordir. “Yomon xotin olguncha, bo‘ydoq yurgan yaxshiroq”, “Qizi borning nozi bor”, “Quda bo‘lguncha, ko‘p sinash, quda bo‘lgach, ko‘p siylash” kabi maqolar o‘z ma‘nosida qo‘llanadi. Ayrim maqollar faqat ko‘chma ma‘noda qo‘llanadi. “Shamol bo‘lmasa, daraxtning uchi qimirlamas”, “Egrining omochi yerga botmas”, “O‘tin ayirgan bolta maydonda qolar” kabi maqollar bilan tanishganimizda ko‘chma ma‘no yashiringanini his qilamiz.

Xalq maqollarining badiiy jihatdan mukammalligi taniqli olimlar va shoir, yozuvchilar tomonidan tan olingan. Bu jihatdan maqollar so‘z san‘atining oliy namunasi sifatida baholanishga loyiq. Hajm jihatdan kichikligi, mazmunan serma‘noligi, mavzu jihatdan hayotiyliqi maqollarning asrlar davomida og‘izdan og‘izga o‘tib yashashini ta‘minlagan omillardir.

Ayni choqda badiiy go‘zallikning bevosita so‘z tanlash, tasvir vositalaridan unumli foydalanish jihatlari ham bor. Ularning ayrimlarini esga olib o‘tamiz:

1. Qarshilantirish (tazod).

“Yaxshidan bog‘ qolar, yomondan dog‘”.

Bu maqolda “yaxshi”, “yomon”; “bog‘”, “dog‘” so‘zlari qarama-qarshi ma‘nolarni bildiradi va shu bilan birga “bog‘” – “dog‘” so‘zlari chiroyli qofiyani ta‘minlaydi.

2. Tovushdoshlik (alliteratsiya, assonans).

“Boy boyga boqar, suv soyga oqar”.

Maqolda “B”, “Y”, “R”, “S” kabi undosh tovushlar alliteratsiya – undosh tovushlar uyg‘unligini, “O”, “A”lar esa assonans – unli tovushlar o‘xshashligini ko‘rsatadi va maqol qimmatini oshiradi.

5. Белозеров В. С., Черкасов А. А. Исследование этнических аспектов урбанизации в России с помощью ГИС технологий // Вестник Ставропольского государственного университета. 2012. Вып. 80 (3).
6. Белозеров В. С., Щитова Н. А., Панин А. Н., Чихичин В. В., Фурщик М. А., Черкасов А. А. и др. Миграционные процессы в России: Атлас. Ставрополь: Изд-во СГУ, 2011.
7. Белозеров В. С., Черкасов А. А. ГИС-мониторинг этнических процессов в России // Современная наука и инновации. Ставрополь. 2013. № 1.
8. Берлянт А. М. Картографический метод исследования. М.: Изд-во МГУ. 1978 (2-е изд. 1988).
9. Зайончковская ж. А. Миграционные связи России после распада СССР // Миграционные процессы после распада СССР. М., 1994.
10. Панин А. Н. Атласная информационная система «этнодемографические процессы в Ставропольском крае»: автореф. Дис. канд. геогр. наук. Ставрополь, 2005.
11. Тикунов В. С. Моделирование в картографии. М.: Изд-во Моск. Ун-та, 1997.
12. Раужин И. Г. Полимасштабный мониторинг демографических процессов в России с использованием геоинформационных технологий: автореф. Дис. канд. геогр. наук. Ставрополь, 2011.
13. Черкасов А. А. Мониторинг этнических аспектов урбанизации на основе ГИС-технологий: автореф. Дис. канд. геогр. наук. Ставрополь, 2013.
14. Vitaly S. Belozеров, Vladimir S. Tikunov, Alexander A. Cherkasov, Aydyn Ibrahimov, Vedat Caliskan Geoinformation technologies in the study of ethnic aspects of urbanization in Russia // Geography, environment, sustainability. 2013. № 4(6).

ABU ABDULLOH AL-XORAZMIY – ATOQLI QOMUSIY OLIM VA BADIY SAN'ATLAR BILIMDONI

Erkin Raxmanov

Sirdaryo viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi o'qituvchisi

Hozirgi avlod esa buyuk ajdodlarimiz tarixi, ularning siyosiy, adabiy, ilmiy merosini chuqur o'rganishni asosiy maqsad qilib olmog'i kerak. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev mazkur masalaning ustuvorligini ko'p marotaba ta'kidaganlar: "O'zbek xalqining necha ming yillik tarixida qanday murakkab davrlar, og'ir sinovlar bo'lganini barchamiz yaxshi bilamiz... Biz ajdodlarimizning yorqin xotirasini asrab-avaylab, qalbimizda, yuragimizda abadiy saqlaymiz. Bukilmas iroda, fidoyilik va jasorat namunasini amalda namoyon etib, o'z hayotini aziz Vatanimizning har tomonlama ravnaq topishiga bag'ishlagan ustoz va murabbiylarimiz, zamondoshlarimiz bilan biz cheksiz faxrlanamiz".

[1]

Ajdodlarimiz merosining muhim bir qismi sifatida "Ilmi sanoe", she'riy san'atlar ilmini

ko'rsatishimiz mumkin.

O'rta asrlarda yashagan hamda ilm-fan rivojiga, ularning tasnifiga ulkan hissa qo'shgan olimlardan biri X asrda yashagan atoqli mutafakkir Abu Abdulloh Muhammad bin Ahmad bin Yusuf kotib Xorazmiydir. Uning "Mafotihul-ulum" asarida ham she'riy san'atlar to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Mazkur olim tarjimai holiga oid ma'lumotlar juda kam. Al Xorazmiy yoshligi o'zi tug'ilgan yurt – Xorazm shaharlari: Xiva, Zamaxshar, Kotda o'tgan. Bu erda u ulg'ayib, o'qib, ilmning ko'plab tarmoqlarini egalladi. Olim bir muncha vaqt davomida Xurosonda yashadi. Nishopurda, somoniylar sulolasidan bo'lgan Nuh II (975-997) vaziri Abul Hasan Ubaydulloh al Utbiy (977-982)ning kotibi lavozimida ishlagan paytda ilmda shuhrat qozondi. Xizmat taqozosi bilan u Somoniylar davlati poytaxti – Buxoroda ancha vaqt yashagani va amirlik kutubxonasidan unumli foydalangani va ko'plab zamondosh olimlar bilan muloqot qilgani ehtimoldan uzoq emas. Abu Abdulloh al Xorazmiy 997 yilda vafot etgan.

Ovrupoda niderlandiyalik sharqshunos van Floten "Mafotihul-ulum" asarini birinchi bo'lib o'rgangan hamda asarning to'liq matnini 1895 yilda Leydenda nashr ettirgan. U o'z tadqiqotida eng qadimiy arabcha qo'lyozma (1160)ga tayangan (Liber Mafatih al-Olūm. Auctore Abu Abdallah Mohammed ibn Ahmed ibn Jusof al-Katib al-Khowarezmi Ed., indices adjecit G. Van Vloten. Lugduni; Batavorum, 1895.).

"Mafotihul-ulum" asarini o'rgangan kashshoflardan biri germaniyalik olim E.Videman fikricha: Abu Abdulloh al Xorazmiy "eng birinchi musulmon qomuslaridan birining tuzuvchisidir".

Yuqorida keltirilgan sharqshunoslardan tashqari, "Mafotihul-ulum" asarini o'rganishga G.Sarton, Y.Rusk, E.Braun, K.de Vo, A.Adnan, A.De Xudo, T.Bakir, K.Bosvort, F.Sezgin, I.Krachkovskiy, V.Bartold, P.Bulgakov, M.Hayrullaev, R.Bahodirov kabi olimlar katta hissa qo'shganlar.

H. Hadyuyjam "Mafotihul-ulum" asarini to'liq fosi tiliga tarjima qilib, 1969 yilda so'zboshi va izohlar bilan nashr ettirdi. M.Ziyovuddinova esa, mazkur asarni o'zbek tiliga o'giran.

Al Xorazmiy ta'biricha, u asarni ikki qismli etib tuzgan, birinchi qismi shariat va unga mansub ilmlarga bag'ishlangan bo'lsa, ikkinchi qismi Ajam (arablarniki emas) ilmlari: falsafa, mantiq, tabobat, arifmetika, geometriya, astronomiya, musiqa, mexanika hamda kimyoni o'z ichiga olgan. "Birinchi bo'limning 5-bobi aruz, qofiya ilmi hamda ilmi sanoe'ga bag'ishlangan. Bob o'z navbatida besh qismdan iborat6 1-qism mazkur fanning tarkibi, aruz tizimidagi atamalar4 2-qism aruz variantlari va illatlarning nomlari; 3-qism qofiya va uning tarkibi4 4-qism mazkur atamalarning kelib chiqishi va ulardan foydalanish usullari4 5-qism she'riyat tanqidi va undan foydalanish yo'llari haqida". [3] Muallif aruz, qofiya, she'riy asarlar strukturasi keng to'xtalgan bo'lsa-da, ilmi sanoe' tasnifiga e'tibor qaratmagan: tashbeh, istiora, tajnis singari keng qo'llaniluvchi san'atlar to'g'risida umumiy ma'lumotlar keltirgan, xolos. She'riyatning o'ziga tomonlari hamda strukturasi tahlilida Imrul Qays, Abu Tamom, Jarir, al Ja'diy, Bashar ibn Burd, Durayd ibn Somm va boshqa shoirlar she'rlaridan keng foydalanilgan.

Asar matnidan bilish mumkin-ki, Abu Abdulloh al Xorazmiy o'zigacha yaratilgan arab tilidagi poetik manbalar: Xalil bin Ahmad lug'ati, Ibn al Mu'tazzning "Kitobul-bade'", [4] Qudama bin J'farning "Naqdush-she'r" [5] kabi asarlardan unumli foydalangan.

Garchi vatandoshimiz bo'lsa-da, mamlakatimizda deyarli o'rganilmagan Abu Abdulloh al Xorazmiy singari buyuk olimlar hayoti hamda ilmiy merosini o'rganish – Vatanimiz ilm-fanini yanada yuqori bosqichga olib chiqishi shubhasiz.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O'zbekiston, 2016.
2. Хайруллаев М. М., Бахадиров Р. М. Абу Абдаллах ал-Хорезми. – М.: Наука. 1988.
3. Boltaboev H. Sharq mumtoz petikasi manbalari. – T.: O'zbekiston milliy entsiklopediyasi. 2008.
4. Крачковский И.Ю. Избранные сочинения. – М-Л.: Издательство Академии наук СССР. 1960. том VI.

5. Гафарова У. Становление и развитие арабской риторики до XIV века. Ученые записки Худжандского государственного университета им. академика Б. Гафурова. – Хужанд; 2012.

BIOLOGIYA FANINI O'QITISHDA O'QUVCHILARDA MUSTAQIL VA IJODIY FAOLIYATNI TARKIB TOPTIRISH

Ismailova Shahlo Ne'matovna

Namangan viloyati Uychi tumani 31-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi II- toifali biologiya fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada biologiyaning o'qitishda o'qituvchi o'quvchilarning mustaqil va ijodiy fikr yuritish ko'nikmalarini rivojlantirish tanqidiy va ijodiy fikr yuritishni shakllantirish yuzasidan ko'rsatmalar berilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, baholash, intellektual, tanqidiy fikr, axborot, ijodiy, ko'nikma, mustaqil

Annotation: In this article, the teacher whose in the teaching of biology is given instructions on the development of independent and creative thinking skills of students on the formation of critical and creative thinking.

Keywords: education, assessment, intellectual, critical thinking, information, creative, skills.

Uzluksiz ta'lim tizimida pedagogik faoliyat ko'rsatayotgan o'qituvchilarning oldidagi muhim vazifalardan biri o'quvchilarning fan asoslarini o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishlarini orttirish, mustaqil va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish asnosida ularning barkamolligini ta'minlash sanaladi.

O'qituvchilar o'quvchilarning nafaqat bilish, tushunish, amalda qo'llash, balki fikrlashning yuqori darajasi bo'lgan tahlil, sintez, baholash kabi o'quv maqsadlariga erishishni ta'minlaydigan tayyor o'quv topshiriqlarini tanlashlari yoki zarur hollarda o'zlari tuzishlari kerak. Bu esa o'quvchilarning intellektual rivojlangan shaxs sifatida shakllanishiga zamin yaratadi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, jumladan, rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalarini amaliyotda qo'llashda o'quv topshiriqlarini ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratiladi, chunki o'quv topshiriqlari yordamida ta'lim oluvchilarda mustaqil, ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyati rivojlanadi.

Biologik ta'lim mazmunining uchinchi tarkibiy qismini ijodiy faoliyat tajribalari tashkil etib, mazkur faoliyatni tarkib toptirish uchun, avvalo, o'quvchilarda mustaqil va ijodiy fikr yuritish ko'nikmalarini tarkib toptirish lozim. Fikr inson faoliyati, uning o'z kuchi, qudrati va bilimni tashkil etuvchi ma'naviy-insoniy sifatidir. Fikr rivoji ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi bo'lganligi uchun, biologiyaning o'qitish jarayonida o'quvchilarning mustaqil va ijodiy fikr yuritish ko'nikmalarini rivojlantirish zarur.

Biologiyaning o'qitishda o'qituvchi o'quvchilarning mustaqil va ijodiy fikr yuritish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun o'qituvchi, avvalo:

– o'quvchilarning darsda mustaqil ishlashlari uchun o'quv topshiriqlarini tuzishi, biologik ob'ektlar, tabiatdagi mavsumiy o'zgarishlarni o'rganish maqsadida tajriba va kuzatish o'tkazish yuzasidan ko'rsatmalar tayyorlashi;

– o'quvchilarning qiziqishlarini hisobga olgan holda ularning mustaqil ta'limi uchun qo'shimcha adabiyotlar va multimedialarni tanlashi lozim;

– o'quvchilarning mustaqil va ijodiy fikr yuritish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun ta'lim-tarbiya jarayonida rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyasini qo'llash zarur.

Rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyasining asosiy g'oyasi o'quvchilarni har tomonlama rivojlantirish sanaladi. Mazkur texnologiyaning asosiy xususiyatlari:

– o'quvchilarni o'z bilish faoliyatini sub'ektiga aylantirib, fikr yuritish mexanizmini shakllantiradi, rivojlantiradi;

– o'quvchilarning bilish faoliyati empirik va nazariy bilish yaxlitligida tashkil etilib, o'qitish jarayonida bilimlarni deduktiv usulda o'rganish ustuvor bo'ladi;

– o'qitish jarayonining asosini o'quvchilarning o'quv topshiriqlarini bajarish orqali vujudga keltiriladigan mustaqil faoliyat tashkil etadi;

–o‘quvchilarning aqliy rivojlanishiga zamin tayyorlab, bu jarayonda tanqidiy va ijodiy fikr yuritishni shakllantirish ustuvor yo‘nalish sanaladi.

Fikr yuritishning bu ikki tipi bir-birini to‘ldiradi va taqozo etadi.

Tanqidiy fikr yuritish shaxsning voqea va hodisalar haqidagi munosabati va fikrini vujudga keltirib, uning tarkibiga quyidagilar kiradi: tahliliy fikr yuritish (axborotni tahlil qilish, zarur faktlarni tanlash, taqqoslash, faktlar va hodisalarni chog‘ishtirish).

O‘quvchilarda tahliliy fikr yuritish ko‘nikmalarini shakllantirish uchun biologiya o‘qituvchisi har bir darsda avval o‘rganilayotgan ob‘ektlar bilan o‘rganilgan ob‘ekt o‘rtasidagi bog‘lanishlarni aniqlaydigan topshiriqlarni berishi kerak. Jumladan, “Daryo qisqichbaqasining ichki tuzilishi” mavzusini o‘rganganda o‘quvchilarni kichik guruhlariga ajratib, ularga o‘quv topshiriqlari bilan bir qatorda quyidagi jadvalni to‘ldirish tavsiya etiladi:

Organlar sistemasi	Oq planariya	Yomg‘ir chuvalchangi	Suv shilliq qurti	Daryo qisqichbaqasi
Tana bo‘shlig‘i				
Ovqat hazm qilish				
Qon aylanish				
Nafas olish				
Ayirish				
Nerv sistemasi				
Sezgi organlari				
Ko‘payish				

O‘quvchilar darslikda berilgan o‘quv axborotini tahlil qiladi, organlar sistemasi haqidagi faktlarni tanlaydi, ularni avvalgi ob‘ektlar bilan taqqoslab, xulosa chiqaradi. Demak, daryo qisqichbaqasining ichki tuzilishini tahlil qilib, avval o‘rganilgan oq planariya, yomg‘ir chuvalchangi, suv shilliq qurti bilan taqqoslab o‘rganadi. O‘quv materiallarining bu tarzda o‘rganilishi o‘quvchilarda tahliliy fikr yuritish ko‘nikmalarining tarkib toptirishga zamin tayyorlaydi.

Bog‘lanishli (assotsiativ) fikr yuritish (avval o‘rganilgan bilimlar, faktlar orasidagi bog‘lanishlarni aniqlash, tanish ob‘ekt va hodisalarning yangi xususiyatlari va sifatlarini topish).

Mustaqil fikr yuritish shaxs hayotida muhim ahamiyat kasb etadi. SHu sababli biologiyani o‘qitishning barcha shakllarida, o‘quvchilarda mustaqil fikr yuritish ko‘nikmalarini rivojlantirishga ahamiyat berish zarur.

Mustaqil fikr yuritish quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1. Muammoli vaziyatlarni tahlil qilish. farazlarni ilgari surish.
2. Avval o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikma va malakalarni yangi vaziyatlarda qo‘llab, yangi bilim, ko‘nikma va malakalarni egallash.
3. O‘z fikrini dalillash. javobning to‘g‘riligini tekshirib ko‘rish.

O‘quvchilarda mustaqil fikr yuritishni rivojlantirish uchun o‘qituvchi har bir mavzuni o‘rganishda muammoli vaziyatlarni vujudga keltirishi va o‘quvchilarning bilish faoliyatini muammoli vaziyatlarni hal qilishga yo‘llashi lozim. Masalan, “Loladoshlar oilasi” mavzusini o‘rganishda muammoli vaziyat vujudga keltirilib, o‘quvchilarning ikki urug‘pallalilar sinfi oilalarini o‘rganishda o‘zlashtirgan bilimlarini yangi kutilmagan vaziyatlarda qo‘llashga imkon yaratishi lozim.

Shunday qilib, tanqidiy fikr yuritish tahliliy, bog‘lanishli, mustaqil, mantiqiy, tizimli fikr yuritishni mujassamlashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shavkat Mirziyoyev. “Buyuk kelajagimizni mard va jasur xalqimiz bilan birga quramiz” Toshkent- O‘zbekiston. 2017-yil.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi 187- sonli “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limining davlat ta‘lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori.
3. G‘ofurov A. T., Tolipova J. O. va boshqalar. Biologiya o‘qitish metodikasi. Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. Toshkent, 2013
4. Niyozov Q. Biologiya fanini o‘qitish metodikasi. O‘quv-metodik qo‘llanma -Namangan.

ПОВЫШЕНИЕ МОТИВАЦИИ ШКОЛЬНИКОВ ПУТЕМ ВНЕДРЕНИЯ СОВРЕМЕННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

Бекчанова Сабохат Матрасулов

*Магистрантка I-курса Чирчикского государственного педагогического института
Ташкентской области СОП Могилевский государственный университет республики
Белорусь направление общая психология.*

В настоящее время в Узбекистане происходит изменение системы образования, которое ориентированно на вхождение в мировое образовательное пространство.

Все время растет потребность в людях, умеющих самостоятельно принимать решения, инициативных и изобретательных. Школа должна поставить для себя главную задачу: научить детей жить в динамичном, меняющемся мире. Причем задача стоит не только в передаче знаний и технологий, но и в формировании различных компетенций: коммуникативных, информационных, интеллектуальных...[1.]

На современном этапе развития нашей цивилизации на детей обрушивается океан информации. Как успеть принять, обработать и применить такое количество информации? Не каждый взрослый с этим справляется. Чтобы помочь современному школьнику, нам необходимо самим не отставать от современности. В этих условиях учителю необходимо ориентироваться в широком спектре современных инновационных технологий, идей, направлений.

Целью обучения является внедрение современных технологий обучения, способствующих повышению мотивации, формированию функциональной грамотности учащихся и ключевых компетенций. [2.]

Что же дало нашей школе, внедрение современных образовательных технологий и чего мы ждем от этого в будущем:

1. повышение качества знаний учащихся;
2. изменение микроклимата в школе, уменьшение числа конфликтных ситуаций между участниками образовательного процесса. Диагностика, проводимая в школе, показывает, что мы на пути к равенству “учитель – ученик”;
3. меняется профессиональная позиция педагогов – это творческий подход к организации учебно-воспитательного процесса в классе;
4. активная жизненная позиция всех: и взрослых и детей;
5. создание воспитательной системы в школе, способствующей повышению степени самостоятельности учащихся в образовательном процессе, самостоятельности суждений в дебатах и дискуссиях. Совершенствование качественных характеристик личности учащихся.

Возникает вопрос. Достаточно ли учителю просто знать набор современных технологий? Конечно же, нет. На мой взгляд, ему необходимо уметь их использовать с учетом особенностей класса, в котором работает и условий, которые есть в школе, только тогда они принесут свой эффект. [3.]

Наиболее продуктивным у нас в школе считаются технологии, основанные на личностно-ориентированном обучении. Современный учитель – философски образованный человек с высокой культурой и профессиональной компетентностью. Поэтому иными стали задачи его – не научить, а побудить, не оценить, а проанализировать. Учитель – организатор получения информации. Чтобы информация стала знанием, надо пропустить ее через собственный опыт. Новый подход к понятию образования: собственный опыт самостоятельное решение развитие личности. [4.]

Личностно ориентированный подход к образованию призван решать и задачу качества обучения. Качество – это не только качество конечного результата, но и всех процессов, влияющих на результат

Из всего многообразия современных технологий наши учителя используют ИКТ, проектное обучение, учебно-деловые игры, дискуссии, технологию развития критического

мышления и здоровьесберегающие технологии.

В нашей школе есть разные дети: и отличники, победившие на олимпиадах разного уровня, и средние ребята, и дети, которым необходима индивидуальная коррекция знаний в силу разных причин. Поэтому наши учителя пришли однозначно к необходимости внедрения в учебно-воспитательный процесс новых педагогических технологий, которые позволили бы отказаться от уравнивания всех учеников и создание условий для успешного обучения каждого ребенка. Работа ведется в тесном контакте со школьной социальной службой. (Психологи, логопед, социальный педагог). Достоинства проблемного обучения в том, что учитель не сообщает готовых знаний, а организует учеников на их поиск. А это способствует развитию критического мышления, творческих сил и интереса к учению.

Целью проектного обучения является создание условий, при которых учащиеся самостоятельно и охотно приобретают недостающие знания из различных источников; учатся пользоваться приобретенными знаниями для решения познавательных и практических задач; приобретают коммуникативные умения, работая в различных группах; развивают у себя исследовательские умения и системное мышления. Сегодня на уроках будут предложены краткосрочные проекты. (А помимо использования проектной деятельности на уроках, в школе запланирован День Проектов к концу 3 четверти, где смогут поделиться своими наработками все учащиеся...)

Использование на уроках ИКТ, а в особенности мультимедийных возможностей компьютера, интерактивных досок позволяет развивать интерес к предмету, способствует наглядному представлению изучаемых явлений, делают общение с учеником более наглядным, содержательным, индивидуальным и деятельным. Созданная серия уроков по предметам применяется для проведения дополнительных занятий с отсутствовавшими, или отстающими учащимися, для самостоятельного изучения материала. Так же могут быть подготовкой учащихся к самостоятельным работам и другим видам оперативного контроля знаний, что позволяет интенсифицировать и индивидуализировать процесс повторения заданного материала учащимся. [5.] Это и дополнительные задания с выходом в Интернет, с поиском и обработкой информации, выполнение творческих, исследовательских работ.

В чем же сущность интерактивного обучения?

В переводе с английского *inter* – взаимный, *to act* – действовать, т. е. действовать вместе, на равных, взаимно необходимо. Интерактивный – включенный в действие, взаимодействующий, находящийся в состоянии (режиме) беседы, диалога с кем-либо (компьютером) или кем-либо. Таким образом, интерактивное обучение – это диалоговое обучение. Ученик не потребитель, а искатель, чувствует свою интеллектуальную состоятельность и необходимость. Занятие организуется так, что практически все учащиеся вовлекаются в процесс познания, они имеют возможность думать, понимать

и рефлексировать.

Совместная деятельность предполагает вклад каждого, обмен знаниями, идеями, способами действия. Каждый свободен высказывать свое, соотносить со знанием товарищей, происходит взаимообогащение и коррекция собственной позиции: от взаимопонимания – через взаимодействие – к взаимообогащению.

В заключение хотелось бы сказать, что современный педагог просто обязан уметь работать с современными средствами обучения, чтобы обеспечить одно из главных прав обучающихся – право на качественное образование.

Использованная литература :

1. Маркова А. К., Матис Т. А., Орлов А. Б. Формирование мотивации учения: Книга для учителя. – М. : Просвещение, 1990.
2. Бернс Р. Развитие Я – концепции и воспитания. – М., 1986.
3. Хекхаузен Х. Мотивация и деятельность. – М., 1986.
4. Синицкая В. А. Организация коллективной деятельности учащихся на уроке. //Нравственное формирование личности ш. в коллективе. – Л., 1975.
5. Педагогическая диагностика в школе /Под ред. А. И. Кочетова. – Минск, 1987.

РАЗВИТИЕ СОЦИАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ УЧАЩИХСЯ В УСЛОВИЯХ ШКОЛЬНОГО САМОУПРАВЛЕНИЯ

Мансуров Хусин Тохирович

магистрант I-курса Чирчикского государственного педагогического института
Ташкентской области СОП Могилевский государственный университет республики

Белорусь направление общая психология.

э-почта. : man-khusan@mail.ru, тел: +998903108686

Аннотация: школьное самоуправление – это процесс протекания совместной и самостоятельной школьной жизни, в которой каждый ученик может определить свое место и реализовать свои особенности. И самым эффективным способом достижения этой цели является ученическое самоуправление. Следовательно, одной из главных задач современной школы является подготовка успешной личности, умеющей выстраивать стратегию взаимодействия с другими людьми, выбирать правильные социальные ориентиры и организовывать свою деятельность в соответствии с этими ориентирами.

Ключевые слова: в процессе модернизации, современного узбекского образования, одной из основных задач является обучение, социальных компетенций личности, в процессе его или ее субъективной реализации, в образовательной среде.

Abstract: School self-government is a process of joint and independent school life, in which each student can determine his place and realize his peculiarities. And the most effective way to achieve this goal is student self-management. Therefore, one of the main tasks of a modern school is to prepare a successful person who is able to build a strategy of interaction with other people, choose the right social guidelines and organize their activities in accordance with these guidelines.

Keywords: in the process of modernization, modern Uzbek education, one of the main tasks is to teach the social competencies of the individual, in the process of his or her subjective realization, in the educational environment.

Самоуправление есть ни что иное, как самый демократичный способ организации общественной жизни. Школьное самоуправление – это процесс протекания совместной и самостоятельной школьной жизни, в которой каждый ученик может определить свое место и реализовать свои особенности. Сегодня государство стремится через школу воспитать социально активных граждан. И самым эффективным способом достижения этой цели является ученическое самоуправление. Следовательно, одной из главных задач современной школы является подготовка успешной личности, умеющей выстраивать стратегию взаимодействия с другими людьми, выбирать правильные социальные ориентиры и организовывать свою деятельность в соответствии с этими ориентирами. Социальные компетенции неотрывно связаны с профессиональной компетенцией и интеграция этих составляющих характеризует современный тип личности, составляет основу человеческого ресурса. [1].

В процессе модернизации современного узбекского образования одной из основных задач является обучение социальных компетенций личности в процессе его или ее субъективной реализации в образовательной среде. Необходимость решения этой проблемы определяется миссией, возложенной на учебные заведения, и ожиданиями общества, определяющими потребности граждан в развитии социальных компетенции в процессе обучения [2]. Результатом процесса социализации обучающихся, то есть результатом фактического взаимодействия школы и окружающей среды, является новый уровень социальных компетенции школы. Таким образом, развитие социальных компетенции сегодня становится для современной школы одной из важных педагогических задач. Микрофакторами, которые влияют на обучающегося, являются семьи, сверстники, различные образовательные и общественные организации. Школа должна активно участвовать в процессе социализации учащихся, взаимодействуя с перечисленными микрофакторами, принимая во внимание их непосредственное влияние на развитие личности ученика. Поэтому

одной из целей образовательного учреждения сегодня является создание необходимых условий для развития высокого уровня социальных компетенции, выбора методов и приемов педагогики и социальных психологии. Эти условия могут быть созданы с использованием возможностей образовательной среды образовательного учреждения, направляя образовательные усилия не на детей, а на окружающую среду вокруг них, на среду обитания, с которой могут жить дети. [3].

Компетенция – это система компетенций, наличие определенных знаний и опыта, необходимых для эффективной деятельности в данной области. У компетентного человека есть определенная структура, которая включает в себя элементы, связанные с способностью человека решать основные проблемы в различных областях деятельности: самопознание, гражданское и общественное, социальное и трудовое, культурное и досуговое [4]

Таким образом, анализ существующих подходов к определению «социальных компетенции» позволяет определить социальную компетенцию как интегративное качество личности, включая знания, опыт и возможности, необходимые для социализации и адаптации, адекватной в обществе. Социальная компетенция делает его достаточно эффективным для решения проблем в социальной среде. Социальные компетенции человека включает:

- знание структуры и функционирования социальных институтов в обществе; о социальных структурах; о различных социальных процессах, происходящих в обществе;
- знание требований к ролям и ожиданий роли, представленных в обществе обладателям социального статуса;
- ролевые игры, ориентированные на конкретный социальный статус;
- знание норм и общечеловеческих ценностей, а также норм (обычаев, традиций, законов, табу и т. д.) в различных областях общественной жизни - национальной, политической, религиозной, экономической, духовной и т. д.
- навыки и способности для эффективного социального взаимодействия- (владение вербальными и невербальными средствами коммуникации, механизмы взаимопонимания в процессе коммуникации);
- знание и понимание человеком себя, самовосприятие как социального- субъекта и т. д.

Использованная литература:

1. Адамич А. В., Васильева О. А. Школьное ученическое самоуправление как ресурс личностного роста участников образовательного процесса Слово учителю, 2018. - 30с.
2. Алымова Н. А., Надточий Е. И. Школьное самоуправление. Структура, рекомендации, нормативы. - Волгоград, 2012. – 17-22с.
3. Ананьев Б. Г. Личность, субъект деятельности, индивидуальность. – М. : Директ-Медиа, 2012. – 14с.
4. Андреева Г. М. Социальная психология: учеб. для высших учебных заведений. — М. : Аспект Пресс, 2008. — 365с.

MIKROSUV O‘TLARINING BIOSORBENTLIK XUSUSIYATLARI

U. K. Abduraxmanova, X. K. Egamberdiev, Sh. Ismoilova, M. Boboqulova
Guliston davlat universiteti

Annotatsiya: *Ushbu tadqiqot ishida kumush ionini tabiiy manbalardan aniqlash va sorbtion ajpatishda Chlorella vulgaris mikro suvo‘tidan foydalanilinish va metall ionlari miqdorini spektrofotometrik usulida o‘rganishga doir ma’lumotlar keltirildi.*

Kalit so‘zlar: *Chlorella vulgaris mikro suvo‘ti spektrofotometriya, biosorbent, biologik faol modda.*


Tadqiqotning dolzarbligi halq xo‘jaligining nodir metallar analitik kimyosii sohasining rivojlanishi bilan bog‘liqdir. Ma’lumki ishlab chiqarishda mis metali ko‘plab miqdorda ishlab chiqariladi, tarkibida mis bo‘lgan rudada ko‘p hollarda kumush, oltin va platini guruhi metallari ham birgalikda uchraydi. Albatta bu manbalarda nodir metallar miqdori misga qaraganda juda kam va notekis tarqalgan. Bu esa metall ionlarini miqdoriy jihatdan tahlil qilishda qiyinchiliklarni yuzaga

keltiradi [1]. Shuning uchun nodir metallarni kontsentrlash usullari analitik kimyoning muhim muammolaridan hisoblanadi. Odatda bu muammoni yechish usullaridan biri tanlovchan biosorbentlar yaratish yo‘li bilan amalga oshiriladi [1-4]. Shuni hisobga olib, Ag^+ ionini tabiiy manbalardan aniqlash va sorbtion ajratishda ba’zi holatlarida ekologik muhit holatidan kelib chiqqan holda suv o‘tlari va mikroorganizmlardan foydalaniladi, shunday mikrosuv o‘tlaridan biri *Chlorella vulgaris*dir.

Ushbu biosorbentni ko‘p hollarda tabiiy muhitlarda (ichimlik suvi, ochiq suv havzalari, oqava suvlar) og‘ip metallar kontsentratsiyasini kamaytirish yoki muvozanatda ushlab tutishda foydalaniladi. Sorbent biomassasini tanlashda asosiy omil ularning oddiyliigi va kam xarajatliligi bo‘lishi lozim. Dastlabki biomassani biotexnologik ishlab chiqarish sanoati chiqindilardan va tabiiy muhitdan olish yoki ma’lum sharoitlarda oson etishtirish mumkin [2-3].

Hap xil tupdagi biomassalardan sorbentlar sifatida foydalanish bo‘yicha O‘zbekistonda va xorijda ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan [1-4]. Adabiyotlarda qayd etilishicha, og‘ip va nodir metallarni ajratib olish japyoni biosorbentning quruq vazniga nisbatan 50% gacha etkazilgan [2].

Ushbu yo‘nalishda biosorbentlar biomassasini olish ko‘p vaqt va mablag‘ talab qilmasligi bilan ahamiyatli. Shunga ko‘pa ushbu tadqiqotda kumush ionlari uchun biosorbent sifatida mikro suv o‘ti *Chlorella vulgaris* lardan foydalanilishi *Chlorella vulgaris* larning oson ko‘paytirilishini hisobga olganda metall ionlariga sorbent sifatida qo‘llanilishi iqtisodiy jihatdan ahamiyatlidir.



*Chlorella vulgaris*ning *Chlorella vulgaris*dan tayyorlangan kukun mikroskopdagi ko‘rinishi xolidagi sorbent

Kumush qimmatbaho metall bo‘lib, u qadimdan ma’lum. Er po‘stlog‘ining $6 \cdot 10^{-6} \%$ ini tashqil qiladi. Tabiatda kumush juda kam tug‘ma holda uchraydi. Ko‘p birikmalar mis yoki surma bilan birga minerallar holda uchraydi. Kumush dunyoning ko‘plab mamlakatlarida asosan rudalar tarkibidan ajratib olinadi. Kumush shuningdek, oltin bilan tabiiy qotishma shaklida hamda mis, qo‘rg‘oshin va rux rudalarida uchraydi. Er qobig‘idagi kumushning nisbati milliondan biriga teng deb taxmin qilinadi. Sof kumushning eng yirik konlari Afina va Neva joylashgan. Shimoliy va Janubiy Amerikaning g‘arbiy qismlaridagi qo‘riqxonada dunyodagi kumush zaxirasining 60 foizini tashkil etadi, Meksika jahon kumushining 35 foizini, Peru 12 foizini va Amerika Qo‘shma Shtatlari (AQSh) 11 foizini ishlab chiqaradi. Taxminan 40 foiz ishlab chiqarish boshqa mamlakatlar o‘rtasida taqsimlangan.

Sog‘liqni saqlash tizimida qo‘llaniladigan kumush “kolloid kumush” bo‘lib, bu kumushning turli oqsillar bilan birikmasi kuchli antiseptik xususiyatga ega. Kumush issiqlik va elektrni boshqa metallarga qaraganda yaxshi o‘tkazadi, yorug‘likni yaxshi qaytaruvchi, nurlanishdan himoya qiluvchi xossaga ega. Kumush ionlari kuchli bakteritsid xususiyatga ega bo‘lib, 450 xil bakteriyalarni yo‘qotadi, virus va zamburug‘lar o‘sishining oldini olib, ularni o‘ldiradi hamda ko‘plab teri kasalliklariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Shularni hisobga olib, ilmiy tadqiqotlarimizda turli xil ishlab chiqarish korxonalari va metallurgiya sanoati oqavallari tarkibidagi kumush metalli ionini tabiiy birikmalar yordamida spektrofotometrik aniqlashning optimal sharoitini aniqlash bilan birga, eritmada hosil bo‘ladigan kumush kompleksining tarkibiy mollar nisbati, kompleksning barqarorligi, aniqlash usuliga begona ionlar ta’sirini o‘rganib, tabiiy ekologik namunalar tarkibidan kumushni aniqlash usuli ishlab chiqildi. Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib shunday xulosa qilish mumkinki, sorbtion samaradorligi sorbentning tuzilishi va miqdoriga, shuningdek kislota tabiati va kontsentratsiyasiga bog‘liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abduraxmanova U. K., Babaev B. N., Dalimov D. N. i dr. \ Eksraktsiya zolota i serebra 5-S-alkil-3-fenil-1, 3, 4-tiadiazolin-2-tionam iz kislo'x sred G'G' Sb. Nauka obrazovanie proizvodstvo v reshenii ekologicheskix problem. Ufa. 2002. S. 209-211.
2. Abdurahmanova U. K., Babaev B. N., Dalimov D. N. et all \Study of silver-110 ion extraction with derivatives of ethylksantogenic acids G'G' II Eurasian conference: "Nuclear science and its application". -Almaty. 2002. P 394.
3. Gorbunova, S. Yu., Lukyanov, V. A. Eksperimentalno-teoreticheskoe obosnovanie effektivnosti ispolzovaniya *Chlorella vulgaris* dlya utilizatsii stochno'x vod pitsefabrik i melioratsiya vodnoy sredo' G' S. Yu. Gorbunova, V. A. Lukyanov G'G' Vodno'e resurso' Ukraino' i melioratsiya zemel. 2013. S. 30
4. X. K. Egamberdiev, Sh. Ismoilova, U. K. Abduraxmanova\ Tabiiy manbalapning nodip metallapga biosorbent sifatida qo'llanilishi Geografiya va ekologiya fanlar tizimining dolzarb muammolari va ularning yechimlari -2022.

KASB TANLASHDA IKKILANAYOTGAN O'QUVCHILAR BILAN ISHLASH

To'rayeva Madina Mirzo qizi
Oqoltin tumani I- IDUM amaliyotchi psixologi

Annotatsiya: Kasb tanlashda yo'l qo'yiladigan tipik xatolarni bilish sizni ortiqcha yoki noto'g'ri qadam qo'yishingizdan himoya qilib, vaqtingizni tejab, o'zingizning imkoniyatlaringiz, qiziqishlaringizga mos kasbni tanlashingizga yordam beradi. Mehnat bozoridagi holatni tahlil qiling. Yildan-yil yangi kasblar paydo bo'layotganligiga e'tiboringizni qarating.

Tayanch so'zlar: Kasb, o'smirlar, o'qituvchi, maslahat, ota-onalar.

Keywords: Profession, teenagers, teacher, counselor, parents.

Ключевые слова: Профессии, подростки, учителя, вожаемые, родители.

Doimiy malakani oshirish, qo'shma kasblarni egallashga to'g'ri kelishiga tayyor bo'ling. Hozirgi kunda, Siz maktabni tugatayotgan paytda kasb tanlashingiz, Sizning taqdiringizni butunlay hal qiladi deb qo'rqmang. Keyinroqdagi tanlovdagi o'zgarishlar, yangi mutaxassislikni o'zlashtirish, Sizni fanlararo faoliyat bo'yicha qimmatli mutaxassis qiladi. Birinchi kasb, garchand Siz keyinroq undan voz kechishingiz va o'zingiz uchun qiziqrog'ini topsangiz ham hayotning turli kutilmagan holatlarida Sizga asqotadi. Bundan tashqari, e'tibor qiling-ki, har bir erkak uchun uyda chilangar ham, sartarosh ham, elektrchi ham, haydovchi ham bo'lishga to'g'ri keladi. Ayollar uchun esa, tikuvchi, oshpaz, kir yuvish va boshqa maishiy mashinalar —operatori bo'lishga to'g'ri keladi. Albatta, kasbning nufuzliligi u yoki bu holda Siz tomoningizdan inobatga olinadi, lekin buni o'zingizning qiziqishlaringiz va qobiliyatlaringiz, sog'lig'ingizning holatini hisobga olgandan so'ng amalga oshiring. Mehnat birjasidagi bo'sh o'rinlar to'g'risidagi gazetalarni tahlil qilish juda foydali (u yerda odatda har bir bo'sh o'rin uchun qaysi ta'lim lozimligi ko'rsatiladi). Shunday kasblar borki, ular Sizga mos kelmaydi, chunki ular sizning sog'lig'ingizni yomonlashtirishi mumkin. Bunday kasblar ko'p emas va ular asosan u yoki bu jismoniy tizimlarning uzoq muddatli zo'riqishini talab etadi. O'zingiz tanlamoqchi bo'lgan kasbning mohiyat va mazmunini o'rganib chiqing. Shu kasb bilan kunma-kun uzoq yillar davomida shug'ullanishingiz lozimligini ko'z oldingizga keltiring. Kasb tanlashda va hayot tarziga aniqlovchi ta'sir ko'rsatishda, ya'ni lavozimga erishishda har bir inson o'zining kelajakdagi kasbiy mehnatini fuqarolik majburiyati sifatida anglashi, o'z mamlakatining va o'z oilasining manfaatlari yo'lidagi hissasi, davlatning va ota-onalarning bizning o'sib ulg'ayishimizga va o'qishimizga sarflagan xarajatlarini qaytarish sifatida anglashimiz lozim O'quvchilarni kasb tanlashda fiziologik holatlarini e'tiborga olish zarurligi to'g'risida maslaxatlar tavsiyalar berib borish kerak. Kasb tanlashda o'quvchilar qobiliyatlaridan tashqari salomatlik holatini ham hisobga olishlari zarur, chunki kasb tanlovchilarning barchasi ham sog'liklarini e'tiborga olgan holda kasbni to'g'ri tanlaydi deb bo'lmaydi. To'g'ri, batafsil tavsiyalarni tegishli tekshiruvlardan so'ng vrach beradi, lekin dastlabki cheklovlarni (agar ular mavjud bo'lsa) tanlovchining o'zi belgilashi lozim. Bu undan qandaydir maxsus bilimlarni talab qilmaydi, chunki, ko'pchilik asosiy qarshi ko'rsatgichlar organizm anomaliyasining (normadan chetga chiqish) to'rt guruhi bilan belgilanadi:

A. Skelet mushak apparati anomaliyalari-skelet, bo'g'imlar, umurtqaning jarohatlanishi yoki kasalligi, muskullar kamchiligi bor bo'lgan o'quvchilar uchun quyidagi kasblarni tanlashlari tavsiya etilmaydi. Ko'plab jismoniy energiyani, uzoq vaqt oyoqda turishni, tez-tez engashib turishni talab qiladigan kasblar (yukchi, g'isht teruvchi, stanokchi, temirchi, metallurgiya ishlab chiqarishdagi bir qator kasblar va boshqalar).

B. Sezgi organlari (ko'rish, eshitish, hid bilish, ta'm bilish) da kamchiligi bor o'quvchilar uchun quyidagi kasblar tavsiya etilmaydi.

Haydovchilik mutaxassisligining barcha turlari, mayda detallar bilan ishlash, oziq-ovqat, parfyumeriya sanoatining qator kasblari, oshpaz, degustator (mazasiga qarab ta'm bilish) va boshqalar.

V. Asab tizimining buzilishi – bosh aylanishi, qo'lning qaltirashi kabi kasalliklarga chalingan o'quvchilar uchun quyidagi kasblar tavsiya etilmaydi.

Balandlikda (montajchi, minorali kran mashinisti, va h.k.z.) transportda ishlash bilan bog'liq kasblar (yig'uvchi, soatsoz, zargar, va boshqalar) tavsiya etilmaydi. G. Ichki organlar-yurak-tomir va nafas tizimi kasalliklariga chalinganlar uchun quyidagi kasblar tavsiya etilmaydi:

Changlangan, gazlangan muhitda, havoning siyrakligi muhitida yoki uning teskarisi bo'lgan yuqori atmosfera bosimi ostida, yoki yuqori harorat sharoitlari bilan bog'liq kasblar va boshqalar. Shunday qilib, kasb tanlashda yana bir qadam-bu o'zining qobiliyatlari va sog'lig'iga baho berishdir. Bunda ushbu baholashning zarur, lekin yetarli bo'lmagan muolaja ekanligini inobatga olish lozim. Shaxsga mehnat faoliyatining turli sohalarida o'z qobiliyatlarini baholash, kasb tanlash jarayonida kerakli yordamni ko'rsatishda kasbiy maslahatning o'zni muhim hisoblanadi. Kasbiy maslahat-axborot, ko'mak beruvchi sifatida mijoz shaxsidagi qiziqish, moyillik, motivatsiyani tadqiq qilish, kasbiy o'zini o'zi anglashdagi qiyinchiliklarni aniqlash hamda faoliyatning ma'lum bir turlariga psixologik yaroqliligini o'rganish bilan bog'liq. Kasbga yo'naltirish ishlarining boshqa turlaridan farqli ravishda kasbiy maslahat har doim individual tarzda o'tkaziladi. Kasbiy maslahat-bu mijoz va psixologning o'zaro aloqasi, hamkorligi jarayonidir. Kasbiy maslahatning maqsadi-mijoz o'zini o'zi tushunishiga mavjud haqiqiy holatini anglashga, o'zini va kasbiy imkoniyatlarini tanqidiy baholash, shaxsini rivojlantirishning turli usullarini ongli qo'llashi va o'zining hayotiy vaziyatiga ijobiy ta'sirini o'rganishga intilishidir. O'z navbatida psixologiya fanida kasbiy maslahatning quyidagi turlari ajratib ko'rsatiladi: Birlamchi kasbiy maslahat shaxsning kasbiy o'zini o'zi anglashiga tayyorgarligi, kasbiy rejani mavjudlik darajasi hamda kasbiy shakllanish jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklarni aniqlash asosiy maqsaddir. Ma'lumotli maslahat mijozning tanlagan kasbi bo'yicha yetarlicha axborotga ega bo'lmaganida o'tkaziladi. Diagnostik kasbiy maslahat mijoz shaxsida o'zi va imkoniyatlari haqidagi to'liq va ob'ektiv tasavvurlarini shakllantirish maqsadida o'tkaziladi. Qo'llab-quvvatlovchi kasbiy maslahat-psixologga murojaat qilishning sababi kasbiy o'zlikni anglashdagi qiyinchiliklar emas, balki undagi murakkab psixologik vaziyatdir.

Ma'lumki, kasbiy maslahat asosan, kasb tanlash jarayonida amalga oshiriladi. Lekin shuni yodda tutish kerakki, uni amalga oshirish bir necha bosqichlardan iborat bo'ladi:

1. Erta kasbiy maslahat. Kasb tanlashga bir necha yil qolganda o'tkaziladi

2. Katta o'smirlarning maktab jarayonidagi kasbiy maslahati. Bu asosan o'smirlarning ichki olamini anglashga yo'naltirilgan.

3. O'quvchilar va ota-onalarning kasbiy maslahati. Bu jarayonda otaonalar ikki rolda chiqadilar ya'ni, bir tomondan, kasbiy maslahatchining o'smir bilan faoliyatidagi hamkori, ikkinchi tomondan, ota-onalarning o'zlarida muammolar ko'p shu nuqtai nazardan ularni ham imkoniyat darajasida mijoz deb qabul qilsa bo'ladi.

4. O'smirlar va o'qituvchilarning kasbiy maslahati. Yuqoridagi tipga

yaqin bo'lgani bilan ular o'rtasida ma'lum farqli jihat ko'zga tashlanadi. Xususan, mazkur jarayonda o'qituvchilar ham mutaxassislardir, shu bois, ular maslahatchisiga o'smir haqida ko'p narsalarni aytib bera oladilar.

5. Tanlagan kasbini mutaxassisligini aniqlashtirishda ko'rsatiladigan yordam. Bu kasbiy tanlov bo'yicha kasbiy maslahat.

6. Ishsizlarga ishini o'zgartirish jarayonida ko'rsatadigan yordam. Bu jarayon mutaxassisni yana

qayta ta'lim olishini ya'ni yangi kasb, yangi o'quv muassasasi yangi ish joyini tanlashdan iborat.

7. Tashkilotlarning kadrlar xizmatlari, ishchilariga kasbiy maslahat jarayoniga ko'rsatiladigan yordam. Bu asosan mutaxassis-kadrlarni tanlash va samarali faoliyatga jalb qilish bilan bog'liqdir.

8. Tashkilotlar ishchilarining kasbiy maslahati. Ko'pincha mutaxassislarda lavozimini o'zgartirish vaziyati yuzaga keladi. Bunday holatda uning vazifasi insonga o'z imkoniyatlarini anglash va o'z kuchiga ishonishiga yordam berishdan iborat.

9. Nogironlarni kasbiy o'zini o'zi anglashiga yordam berish.

Psixolog N.S. Pryajnikovning ta'kidlashicha, kasbiy konsul'tatstsia faoliyatining strategiyasi har doim kasb bo'yicha maslahatchi tomonidan qabul qilingan nazariy-metodologik yo'nalishga tayanadi. Ma'lumki, barcha strategiyalar kuchli va kuchsiz tomonlarga ega, ammo ular faqatgina mutaxassisning kasbiy dunyoqarashi bilan mos tushganda samarali bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Abdullayeva X.A. Mashg'ulotlarda faol ta'lim usullaridan foydalanish – Farg'ona: FarDU, 2008.
2. Axliddinov R.Sh. Maktabni boshqarish san'ati.-T: "Fan", 2006 yil.
3. Baxmutskiy A.E. Monitoring shkolnogo obrazovaniya. M.: Izd-vo MIOO, 2004.
4. Bulatova O.S. Pedagogicheskiy artistizm: ucheb. posobie dlya stud.vo'ssh. ped. ucheb. zavedeniy. – M., 2001.
5. Berkaliyev T.I., Zair-Bek E.S., Tryapitsa A.P. Innovatsii i kachestvo shkolnogo obrazovaniya: Nauchno-metodicheskoe posobie dlya pedagogov innovatsionno'x shkol. SPb.: KARO, 2007.
6. Djurayev R.X., Inoyatova M.E. Iste'dodli farzand tarbiyasi. Ota onalar kitobi. Toshkent, 2013
7. Do'stmuhamedova Sh.A., Nishonova Z.T. va boshqalar. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya T.: Fan va texnologiyalar, 2013 21
8. Ibragimov X.I., Yo'ldoshev U.A., Bobomirzayev X. Pedagogik psixologiya. O'quv qo'llanma. O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2007
9. Ibragimov X.I., Abdullayeva Sh.A. Pedagogika G' O'quv qo'llanma. – Toshkent: Fan, 2004.
10. Yo'ldoshev J.G', Usmonov S. Ta'lim menejmenti.-T, 2006 yil.
11. Muslimov N.A. va b. Kasbiy malaka va pedagogik mahorat. Uzluksiz malaka oshirish yo'nalishi bo'yicha o'quv materiallari. –T., 2009.
12. Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To'rayev A. B. Innvatsion ta'lim texnologiyalari - T.: "Sano standart" nashriyoti, 2015.
13. Nelson Djouns R. Teoriya i praktika konsultirovaniya. Uchebnoe posobie. M., 2001
14. Nishonova Z.T., Alimova G.K. Bolalar psixologiyasi va psixodagnostikasi T.: TDPU, 2017

OILADA FARZAND TARBIYASINING O'RNI VA AHAMIYATI

Xudaynazarova Nafisa Ummatovna

Guliston tumani 5- Umumta'lim maktabi boshlaang'ich ta'lim o'qituvchisi

Annotatsiya: *Axloqiy tarbiya oila tarbiyasining o'zagini tashkil etadi. Oilada uyushtirilajak axloqiy tarbiyaning maqsadi bolalarda eng oliy axloqiy sifatlar ota-ona hamda oilaning boshqa a'zolari, shuningdek, atrofdagilarga nisbatan mehr-muhabbat, kattalarga hurmat, kichiklarga muruvvat, ijtimoiy burchni anglash shakllantirishdan iboratdir.*

Tayanch so'zlar: *Axloqiy tarbiya, oila, ota-ona, farzand, tarbiya*

Keywords: *Moral education, family, parents, children, education*

Ключевые слова: *Нравственное воспитание, семья, родители, дети, воспитание*

Shaxsda mazkur sifatlarning qaror topishida oiladagi sog'lom muhit, oila a'zolarining psixologik jihatdan o'zaro yaqinliklari, ehtiyoj, qiziqish va hayotiy yondoshuvlaridagi umumiylik, bir-birlarini har qanday vaziyatda qo'llab-quvvatlay olishlari, ota-onalar tomonidan barcha

farzandlariga nisbatan qo'yilayotgan talablar, shuningdek, ularga ko'rsatilayotgan e'tiborning bir xil bo'lishi oila tarbiyasida ijobiy natijalarga erishishning omillari sanaladi. Bugungi kunda psixologiya fanida oiladagi turmush munosabatlarining juda ko'p qirralari o'rganilgan. Jumladan, har bir oila a'zolarining yashayotgan mikro muhitda tutgan o'rni va erishgan obro'si, oilalarda er-xotin munosabatlari, ota-onalarning farzandlarga nisbatan muomalalari, turli yoshdagi farzandlarning o'zaro muloqoti, ularning ota-onalarga munosabatlari, oila a'zolarining begona kishilar bilan muloqotga kirishish xususiyatlari, ular o'rtasida o'zaro yordam va birdamlik xususiyatlari, uy-ro'zg'or yumushlari taqsimoti, hordiq chiqarish, oila a'zolarida muloqot ko'lamining kengayishi kabi shaxslararo munosabatlarning rang-barang jihatlari tadqiq qilingan. Jamiyatimizda kam uchrasa-da, anormal munosabatga ega bo'lgan oilalar mavjuddir. Bunday toifaga ajralish darajasiga yetib borgan, bola oilaviy nizo manbai deb tushunuvchi, "bola" bahonasi tufayli qil ustada turgan, ichuvchi - alkogol yoki giyohvand oilalar kiradi. Oiladagi anormal holat osoyishta yashash, tinch ijod qilish, muayyan o'qish uchun zarur imkoniyatlar yaratib berishga qodir emas.

Oiladagi munosabatlar ta'sirida ilk bolalikdan umumiy ishga -sodiqlik, vatanparvarlik, insonparvarlik, qat'iylik, qadr-qimmat hissi kabi yuksak insoniy hislar shakllana boshlaydi. Asta-sekin tug'ishganlarga g'amxo'rlik, aka-ukalik va opa-singillik mehri, ota-onalarga muhabbat va shafqat kabi tuyg'ular namoyon bo'la boradi. Turmushdagi samimiy va oqilona munosabatlar, iliqlik ruhiy iqlim ta'siri natijasida oila a'zolarida kamtarlik, ko'ngilchanlik, iltifot, sabr, uyatchanlik, to'g'rilik, yaxshilik, yumshoqlik, dilkashlik, mehribonlik, talabchanlik, mehnatsevarlik, vijdonlilik, mehnatga ma'suliyat, ozodalik, izzat-nafs, tejab-tergashlik kabi shaxs xislatlari tarkib topadi. Oila boshlig'i hisoblangan ota-onalarning asosiy diqqat-e'tibori axloq normalari va qoidalari talabidan kelib chiqqan holda o'z farzandlarida ijobiy xarakter xislatlarini zamon ruhiga mos shaxs fazilatlarini shakllantirishga qaratiladi. Mazkur toifadagi oila a'zolari davrasidagi suhbatlar, munozaralar, mulohazalar o'zaro tenglik, o'zaro hurmat ruhiga bo'ysundiriladi. Oila munosabatlarining ushbu ko'rinishida turli yoshdagi o'g'il-qizlarga maqsadga yo'naltirilgan tarbiyaviy-pedagogik ta'sir o'tkazish sistemasi o'z xususiyati bilan ajralib turadi. Bunday oilada shaxslararo munosabatda ta'sir o'tkazish sehri yashiringan holda bo'ladi. Shu boisdan, tasodifan voqea va hodisalarning sodir bo'lishi turlicha baholanadi va ularga bevosita aloqador oila a'zolari turmush tajribasidan kelib chiqqan holda, yo rag'batlantiriladi yoki jazolanadi. Mana bunday odilona amalga oshirilgan muloqot ta'sirida o'g'il-qizlarda do'stlik, dilkashlik, xushmuomalalilik, shaxsiy xatti-harakatida va mulohaza yuritishida mustaqillik, shaxsiy qarashlari saqlangan holda yangi norma va talablarga moslashish, o'z faoliyati uchun javobgarlik, emotsional zo'riqish davrida o'z-o'zini qo'lga olishlik kabi muhim fazilatlar paydo bo'ladi.

Oilalarning munosabatlarining yana bir turi "avtoritar" deb atalib, bunda ota-onaning obro'si hal qiluvchi rol o'ynaydi. Shaxslararo teng huquqlilik, erkin xatti-harakat qilish, tashabbuskorlik o'z ahamiyatini yo'qota boshlaydi. Oila a'zolarining yurish-turish, xatti-harakati ko'pincha cheklab qo'yiladi. Ota-ona tomonidan tarbiyaviy ta'sir o'tkazishning asosiy metodi - jazolash hisoblanadi. Biroq onda-sonda rag'batlantirish foydalanilganda ham, u bolaga ma'naviy ozuqa bermaydi. Farzandlarda ota-onaga yaqinlik, mehr hissi kamayadi, keyinchalik bu tuyg'u uzoqlashish, "begonalashish" kechinmasiga aylanadi. Oiladagi shaxslararo munosabatlar ularni qondirmaydi; natijada odamovi, tund, ichimdagani top, tashvishlik, xavotirlik kabi sotsial norma va qoidalarga qiyinchilik bilan moslashishdan iborat xarakter xislatlari vujudga keladi. Shu sababdan oila a'zolari ruhiy dunyosida simpatiya (yoqtirish), empatiya (hamdardlik), samimiylik, hayrixohlik kabi yuksak insoniy his-tuygular juda nursiz ifodalanadi. Ko'r-ko'rona va so'zsiz bo'ysunishga asoslangan munosabatlar negizida yotgan tarbiyaviy ta'sir qo'rqqoq va irodasi kuchsiz shaxsni tarkib toptiradi.

Xalqimiz "Qush uyasida ko'rganini qiladi" deb bejiz aytmaydi. Binobarin, inson tarbiyasining barcha jihatlari, tarkibiy qismlari farzandlar ruhiyati va ma'naviyati olamiga oila davrasidagi suhbatlarda, o'git-nasihatlarda, yaqqol xatti-harakatlar vositasida singdirib boriladi. Mehr-muhabbat, ahillik, kamtarlik, hotamtoylik, mehmondo'stlik singari milliy xislatlar oila bag'rida nish uradi va asta-sekin har bir oila a'zosining xulq-atvorida mujassamlashadi. Inson zoti uchun zaruriyatga aylangan odamiylik xislatlari - odillik, oqillik, samimiylik, sahiylik, adolatlilik, kamtarlik, tantilik, nazari to'qlik ham oilaviy tarbiya ta'siri natijasida namoyon bo'ladi. Umuman olganda, inson butun

umr davomida to'plagan insoniy durdonalarining aksariyat qismini xuddi shu bolalik yillarida to'playdi. Shu sababdan, oilaviy tarbiyaviy ta'sir umuminsoniyat barkamolligi negizi, qolgan ijtimoiy tarbiyaviy muassasalar esa axloqiy va aqliy taraqqiyot ustqurmasi vazifasini bajaradi, deb komil ishonch bilan aytish mumkin.

Oilaning o'ziga xos xo'jaligi (tomorqasi, hosil yetishtirish maydoni, dov-daraxtlari, parrandasi, chorva mollari va boshqalar) va uning byudjeta mavjuddir. Xo'jalik yuritish, asosan, oila boshlig'i tomonidan tuzilgan rejaga suyangan holda (bir necha bor muhokamalardan so'ng kuchga kirish ehtimoli mavjud) amalga oshiriladi. Ana shundan kelib chiqqan holda xo'jalik yuritishga ayrim tuzatishlar va o'zgarishlar kiritib boriladi. Yig'ishtirilgan mahsulot, olingan ish haqining yig'indisi oila jamg'armasini hosil qiladi va bu jamgarmadan sarishtali, o'z o'rnida foydalaniladi. Oila boshlig'i mavjud oilaviy jamg'armani hisob-kitob qilgandan keyin chiqimlar ro'yxatini va sarflanishi (qanday va nimalarga) mumkin bo'lgan sarmoyani ajrim qiladi. Ana shunday rejalashdan keyingina tug'ilgan kun, yubiley xarajatlari, to'y va bayramlarni nishonlash, bayram sovg'alari to'g'risida oila a'zolariga ma'lumot beriladi. Oila a'zolari daromadga qarab buromad qilishlari maqsadga muvofiqdir. O'rinsiz, tubsiz chiranishlar, isrofgarchiliklar oila iqtisodini sindirishga olib keladi. Iloji boricha, yosh bo'g'inni oila jamg'armasini saqlashga, undan tejab-tergab foydalanishga tayyorlab borish muhim ahamiyatga ega. Chunki tejamkorlik ijtimoiy noyob va nodir xislat hisoblanib, yaratish, asrash avaylash orqali mahsulot va obidalarini kelgusi avlodga meros tariqasida qoldirishni o'zida aks ettiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. –T., A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti,
2. Boymurodov. N. Amaliy psixologiya .T.: Yangi asr avlodi. 2009y. –
3. Vohidov. M. Bolalar psixologiyasi. T.: O'qituvchi
4. Davletshin. M. Umumiy psixologiya. T.: 2002 y
5. Karimova V. va boshq. Psixologiya. T.: A.Qodiriy nom. xalq merosi nash. 2002 y
6. Jabborov A. Ma'naviyat psixologiyasi. Qarshi. Universitet. 2001 y.
7. Jabborov A. Pedagogik psixologiyaning etnik asoslari. T.: Zarqalam. 2006 y.
8. Nishonova Z. va boshq. Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi. T.: O'z. yozuv. uyush. nash. 2006 y
9. Platanov. K. va boshq. Psixologiya. T.: O'qituvchi. 1982 y.
10. Petrovskiy. A. Umumiy psixologiya. T.: O'qituvchi.
11. Mahkamov U. Axloq-odob saboqlari. T.: Fan. 1994 y.
12. To'laganova G. Tarbiyasi qiyin o'smirlar. T.: Universitet, 2005

KASB TANLASHDA QOBILYATNING O'RNI VA AHAMIYATI

Usmonqulova Feruza Eshbekovna

Sayxunobod tumani 27- Umumta'lim maktabi amaliyotchi psixologi

Tayanch so'zlar: *Kasb, qobiliyat, mehnat, individ, o'smir.*

Keywords: *Profession, ability, labor, individual, teenager.*

Ключевые слова: *Профессия, способности, труд, индивидуальный, подросток*

Shaxs - qaytarilmas, u o'z sifatлари va borlig'i bilan noyobdir. Ana shu qaytarilmaslik va noyoblikning asosida uning individual psixologik xususiyatlari majmui yotadi. Shu o'rinda shaxs tushunchasi bilan yonma-yon ishlatiladigan yana ikki tushunchaga izoh berish o'rinli. Bu – «individ» va «individuallik» tushunchalaridir. «Individ» tushunchasi umuman «odam» degan tushunchani to'ldirib, uning ijtimoiy va biologik mavjudot sifatida mavjudligini tasdiqlaydi va uni bir tomondan, boshqa odamlardan farqlovchi belgi va xususiyatlarini o'z ichiga oladi, ikkinchi tomondan, o'ziga va o'ziga o'xshashlarga xos bo'lgan umumiy va xarakterli xususiyatlarni qamrab oladi. Demak, individ – insonga aloqadorlik faktini tasdiqlovchi ilmiy kategoriyadir. «Individuallik» - yuqoridagi ikkala tushunchaga nisbatan torroq tushuncha bo'lib, u konkret odamni boshqa bir konkret odamdan farqlovchi barcha o'ziga xos xususiyatlar majmuini o'z ichiga oladi. Shu nuqtai nazardan shaxs tizimini tahlil qiladigan bo'lsak, shaxsning individualligiga uning qobiliyatlari, temperamenti,

xarakteri, irodaviy sifatlari, emotsiyalari, xulqiga mos motivatsiya va ijtimoiy ustanovkalari kiradi. Aynan shuni qayd etib o'tilgan kategoriyalar shaxsdagi individuallikni taminlovchi kategoriyalardir. Shulardan biri qobiliyatdir. Qobiliyatlar – shaxsdagi shunday individual, turg'un sifatlarki, ular odamning turli xil Mexnat faoliyatidagi ko'rsatgichlari, yutuqlari va qiyinchiliklari sabablarini tushuntirib beradi. Odamlarning o'quv, Mexnat va ijodiy faoliyatidagi o'ziga xoslikni tushuntirish uchun psixologiya fani birinchi navbatda qobiliyatlar va iqtidor masalasiga murojaat qiladi. Chunki qobiliyatli odamdan avvalo jamiyat manfaatdor, qolaversa, o'sha insonning o'zi ham qilgan har bir xarakatidan o'zi uchun naf ko'radi.

Kasbga yo'naltirish va kasb tanlash asoslarida qobiliyatlar muammosi eng avvalo inson aqlu-zakovatining sifati, undagi malaka, ko'nikma va bilimlarning borligi masalasi bilan bog'liq. Ayniqsa, biror kasbning egasi bo'lish istagidagi mutaxassis bo'lib yetishishini kafolatlagani uchun ham psixologiyada ko'proq qobiliyat tushunchasi aql zakovat tushunchasi bilan bog'lab o'rganiladi. har bir normal odam o'zining aqlli bo'lishini xo'laydi.

Demak, qobiliyatlar kishining shunday psixologik xususiyatlaridirki, bilim, ko'nikma, malakalar orttirish shu xususiyatlarga bog'liq bo'ladi. Shu bilan birga psixologik tadqiqotlar va pedagogik tajriba ma'lumotlari guvohlik berishicha, bazan dastlab nimalarnidir bajara olmagan va bu bilan tevarak-atrofdagilardan o'ng'aysiz ajralib turgan kishi talim olish natijasida favqulodda ko'nikma va malakalarni tez o'zlashtirib oladi. Unda boshqalarga qaraganda zo'r qobiliyatlar nomoyon bo'ladi. Qobiliyatlar bilim, ko'nikma va malakalarni egallashda namoyon bo'lsa ham, bilimlar va ko'nikmalarni egallash bilan bog'lanib qolmaydi. Qobiliyatlar va bilimlar, qobiliyatlar va malakalar, qobiliyatlar va ko'nikmalar aynan bir-biriga o'xshash emas.

Qobiliyatlar - bu imkoniyat, u yoki bu ishda maxoratning zarur darajasi esa voqelikdir. Bolada nomoyon bo'lgan musiqiy qobiliyat uning musiqachi bo'lishi uchun biron bir darajada garov bo'la olmaydi. Bolaning musiqachi bo'lishi uchun unga maxsus talim berilishi, pedagog va bola namoyish qilgan qatilylik, salomatlikning yaxshi bo'lishi, musiqa asbobi, notalar va boshqa ko'plab shart-sharoitlar bo'lishi zarur. Bularsiz qobiliyatlar rivojlanmay turg'un so'nib ketishi mumkin.

Psixologiya qobiliyatlar va faoliyatning ma'lum komponentlari bo'lmish bilimlar, malakalar va ko'nikmalarning aynan bir xilligini inkor qilar ekan, ularning birligini ta'kidlaydi. Qobiliyatlar faqat faoliyatda, shunda ham faqat ana shu qobiliyatlarsiz amalga oshirilishi mumkin bo'lmagan faoliyatdagina nomoyon bo'ladi. Shunday qilib, qobiliyatlar shaxsning mazkur faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish sharti hisoblangan va buning uchun zarur bilim, ko'nikma va malakalarni egallash dinamikasida yuzaga chiqadigan farqlarda namoyon bo'ladigan individual – psixologik xususiyatdir. Agar shaxsning ma'lum sifatlari yig'indisi odamning pedagogik jixatidan asosanib berilgan vaqt ichida egallangan faoliyati talablariga javob bersa, bu narsa bizga unda mazkur faoliyatga qobiliyat borligi to'g'risida xulosa chiqarishga asos bo'ladi. Agarda boshqa kishi xuddi shunaqa boshqa sharoitlarda uning oldiga faoliyat ro'baro' qilayotgan talabalarning uddasidan chiqqa olmasa, unda tegishli psixologik sifatlari, boshqacha so'zlar bilan aytganda, qobiliyatlar yo'q deb taxmin qilishga asos bo'ladi. O'z-o'zidan ma'lumki, bunday odam zarur ko'nikma va bilimlarni umuman egallay olmaydi, degan mano kelib chiqmaydi. Bu ko'nikma va bilimlarni egallash cho'zilib ketadi, pedagoglardan ancha zo'r berish va vaqt sarflashni talab qiladi, natijasi nisbatan oz bo'lsa ham favqulodda ko'p kuch-g'ayrat sarflashni va shu kabilarni talab qilishini bildiradi. Bu xol biroz vaqt o'tgach, shuningdek, qobiliyatlarning rivojlanishi mumkinligini ham inkor etmaydi. Qobiliyatlar individual – psixologik xususiyatlar bo'lish bilan birga ularni shaxsning bizga ma'lum boshqa xususiyatlari va xislat-lariga - aql-idrok fazilatlariga, xotira, xarakterning o'ziga xos xususiyatlariga, emotsional xususiyatlarga va shu kabilarga qarama-qarshi qo'yib bo'lmaydi, lekin ular bilan bir qatarga qo'yilishi mumkin. Agar u fazilatlardan birontasi yoki ularning yig'indisi faoliyat talablariga javob bermasa yoki ana shu talablar ta'siri ostida shakllansa, unday paytda bu shaxsning individual – psixologik xususiyatlarini qobiliyatlar deb hisoblash uchun ham asos bo'ladi. Qobiliyatlar sifatida namoyon bo'ladigan fazilatlar yig'indi-sining tuzilishi oqibat natijada konkret faoliyat talablari bilan belgilanadi va faoliyatning har xil turlari uchun turlicha bo'ladi. Konkret qobiliyatlar strukturasini tashkil etadigan shaxs xislat-lari va xususiyatlari orasida bazi birlari yetakchi o'rinni egallasa, ba'zi birlari yordamchilik rolini o'ynaydilar. Jumladan, pedagogik qobiliyatlar tuzilishida pedagoglik

odobi, kuzatuvchanlik, bolalarga muhabbat, ularga nisbatan yuksak talabchanlik bilan qo‘shib olib boriladigan bilim berishga ehtiyoj, yordamchilik tarzida shular jumlasiga kiradigan bir qator tashkilotchilik qobiliyatlari kompleksi va boshqalar yetakchi fazilatlar hisoblanadi. Pedagogik qobiliyat-larning yordamchi komponentlari talim va tarbiyaning muvaffaqiyatini taminlaydigan birlikni xosil qiladi va shu bilan birga pedagog shaxsi va uning xususiyatlari bilan bog‘langan individuallashtirishni tashkil qiladi. Qobiliyatlarda tug‘ma va orttirilgan sifatlar mavjud. Bazan o‘ta iqtidorli va qobiliyatli talaba haqidagap ketsa, undagi bu sifat tug‘ma ekanligiga ishora qilishadi. Talantli mutaxassis haqidagap ketsa ham xuddi shunday. Umuman qobiliyatlarning tug‘ma yoki orttirilgan ekanligi masalasi ham olimlar diqqat markazida bo‘lgan muammolardan. Kasbga yo‘naltirish va kasb tanlash asoslarida tug‘malik alomatlari bor individual sifatlar layoqatlar deb yuritildi va uning ikki xili farqlanadi: tabiiy layoqat va ijtimoiy layoqat. Birinchisi odamdagi tug‘ma xususiyatlardan – oliy nerv tizimi faoliyatining xususiyatlari biologik va fiziologik sifatleri, bilish jarayonlarini taminlovchi sezgi organlar xususiyatlaridan kelib chiqsa (bular nasliy ota-onadan genetik tarzda o‘tadi), ijtimoiy layoqat – bola tug‘ilishi bilan uni o‘ragan muhit, mulqot uslublari, so‘zlashish madaniyati, qobiliyatni rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlar (ota-ona tomonidan yaratiladi)dir. Layoqatlilik belgisi – bu o‘sha individga aloqador bo‘lib, u bu ikkala layoqat muhitini tayyoricha qabul qiladi. har bir kasb egasi o‘zidagi qobiliyat va zehnni bilib, o‘sha o‘zi yaxshi ko‘rgan, «yuragi chopgan» ish bilan shug‘ullansa va undan qoniqish olib, qobiliyatini o‘stirishga imkoniyat topib, yutuqlarga erishsa, biz uni iqtidorli deymiz.

Fodalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. G‘oziev E.G‘., Mamedov K.Q. Kasb psixologiyasi. Toshkent 2003.
2. G‘oziev E.G‘. Kasb va shaxs. Toshkent 1996.
3. G‘oziev E.G‘. va b. Kasb psixologiya kursidan ma‘ruzalar matni. Toshkent 2000.
4. G‘oziev E.G‘. Umumiy psixologiya. Toshkent 2010
5. Davletshin M.G. Zamonaviy maktab o‘qituvchisining psixologiyasi. Toshkent 1999.
6. Davletshin M.G. Psixologiyadan qisqacha izohli lug‘at. Toshkent. 1999.
7. Kulagin. V.B. Osnovi professionalnoy psixodiagnostiki. Moskva 1998
8. Qodirov B.R. , Qodirov K.R. “Kasbiy tashxis metodikalari” Toshkent-2000y.
9. Qodirov B.R. Sinf zukkolarini tanlash metodikasi (Yosh iste’dodlarini izlaymiz): Metodik qo‘llanma. T., 1998.

YOSHLARNING SOG‘LOM TURMUSH TARZI TO‘G‘RISIDAGI TASAVVURLARI SHAKLLANISHIDA OTA-ONA VA BOLA MUNOSABATLARI

Ibragimova Xurshida

Boyovut tumani 7-Umumta‘lim maktabi amaliyotchi psihologi

Annotatsiya: *Har qanday jamiyat taraqqiyotida oilalarning, oilalar mustahkamligining o‘rni beqiyos hisoblanadi. Chunki tirik organizmning salomatligi uni tashkil qiluvchi har bir hujayraning sog‘lomligiga bog‘liq bo‘lganidek, oila ham davlat, jamiyat deb atalgan butun bir organizmni tashkil etuvchi hujayradir.*

Tayanch so‘zlar: *Axloqiy tarbiya, oila, ota-ona, farzand, tarbiya*

Keywords: *Moral education, family, parents, children, education*

Ключевые слова: *Нравственное воспитание, семья, родители, дети, воспитание*

Har bir oilaning sog‘lom bo‘lishi, ularda ijobiy psixologik iqlimning hukm surishi, bevosita iqtisodiy, ijtimoiy taraqqiyotga ham ta’sir ko‘rsatadi. Zero, oilaviy muhitda dunyoga kelib, shaxs sifatida shakllanib, so‘ng o‘zi yashayotgan davlatning fuqarosi sifatida tarkib topadigan inson kamolotida oila muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan, oila - davlat, jamiyatning rivojlanishida muhim o‘rin tutadigan makondir.

Ma‘lumki, oila hayotning abadiyligini ta‘minlaydi, ota-ona boshlagan ishni vorislar amalga oshirishini ta‘minlovchi muqaddas dargoh ham hisoblanadi. Bu dargoh millatning ma‘naviyati, qadriyati, urf-odatlarini saqlashga ko‘maklashadi.

Keyingi yillarda keng jamoatchilik va olimlarning diqqatini o‘ziga jalb qilib kelayotgan

masalalardan biri shaxs va oila, oilaviy munosabatlar muammosidir. Bu muammoni o'rganish bugungi kunda o'zining tarixiy, madaniy, milliy va umumbashariy qadriyatlarini tiklayotgan O'zbekiston davlati ravnaqi uchun ham katta ahamiyatga ega.

Avlodlar o'rtasidagi, ayniqsa oilada turli avlod vakillari, ota-ona va bolalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar masalasi insoniyat taraqqiyotining ilk davrlaridan buyon eng dolzarb muammolardan biri bo'lib kelgan. Chunki odamzot erishgan hayotiy tajriba, bilim, malaka, ko'nikmalar avlodlardan avlodga aynan shu munosabatlar tizimi, yana ham aniqroq aytadigan bo'lsak, ona va bola munosabatlari orqali uzatiladi va bu meros avlodlardan avlodga boyitib boriladi.

U yoki bu xalqning milliy qadriyatlariga aylanib qolgan urf-odatlar, xulq-atvor me'yorlari aynan shu avlodlararo munosabatlar orqali asrlar davomida saqlanib, sayqallanib yoki aksincha yemirilib boradi. Agar avlodlararo munosabatlar maqsadga muvofiq tarzda tashkil qilinmagan bo'lsa, ota-ona va farzandlar o'zaro munosabatlarida salbiy jihatlar namoyon bo'lsa, bunday qadriyatlar yo'q bo'lib ketishi, ularning o'rnini yot, destruktiv aqidalar egallashi mumkin.

Gap sog'lom avlod, sog'lom bolani shakllantirish masalalari haqida borar ekan, uning ildizini shu avlod dunyoga kelgan vaqtdan emas, balki o'tmishdagi ajdodlar turmush tarzidan, ular amal qilgan urf-odatlar xarakteridan va shu kabi ko'plab an'anaviy, milliy qadriyatlar mohiyatidan qidirish lozim bo'ladi. Bunday qadriyatlar esa avlodlardan avlodga avlodlararo munosabatlarning eng yaqin, eng mustahkam bo'g'ini bo'lmish ona va bola o'zaro munosabati orqali uzatiladi.

Shuning uchun, bizning nazarimizda sog'lom bolani shakllantirish bilan bog'liq bo'lgan muammolar yechimini dastavval ota-ona va bola o'zaro munosabatlaridan, mazkur munosabatlar dinamikasidan, bu jarayonda yuz berayotgan o'zgarishlar xarakteridan qidirish lozim. Shu kabi mulohazalardan kelib chiqqan holda, o'tmishi ulug' bo'lgan kelajak avlodlarimiz davomchilarining tom ma'noda sog'lom avlod, sog'lom bola, buyuk kelajagimizning munosib vorislari bo'lib yetishishlari uchun zarur omillarni tahlil qilishda ajdodlarimiz so'zsiz amal qilgan va bugungi kunda unutilayotgan ayrim ijtimoiy-psixologik vaziyatlarga e'tibor qaratishga jazm etdik. Bunda esa ota-ona va bola munosabatlarining o'tmishi va buguni misolida solishtirishga harakat qilindi.

Ota-ona va bola o'zaro munosabatlarining psixologik va ijtimoiy-psixologik jihatlari haqida gapirishdan oldin shuni aytib o'tish joizki, odamlar turmush tarzi rivojlanib, unda urbanizatsiyalashuv darajasining ortib borishi, insonlar kundalik hayotiga fan-texnika taraqqiyoti, ilg'or texnologiya yutuqlari singishi natijasida bu munosabatlar ham murakkablashib, takomillashib, jiddiylashib boraveradi.

Hech kimga sir emaski, hozirgi zamon oilalarida ota-ona va bolalar o'zaro munosabati xakteri oldingi avlodlar vakillari o'rtasidagi o'zaro munosabatlardan ancha murakkabligi, o'zgachaligi bilan farqlanib turadi. Haqiqatan ham, hozirgi zamon ota-onalari o'rtasida farzandlari bilan bo'ladigan o'zaro munosabatlardan, ularning xulqi, xatti-harakatlari, xakteri, psixologik dunyosining shakllanishi va rivojlanish holatidan qoniqmaydigan, bu borada qator muammolarga duch kelayotganlar oldingi zamonlardagiga qaraganda ko'pchilikni tashkil qiladi.

Faoliyatlari bevosita farzand tarbiyasi muammolari, bolalar xulqida va ularning atrofidagilar bilan bo'ladigan shaxslararo munosabatlari tizimida kuzatiladigan noxush hodisalar, xulqiy og'ishlar, ruhiy rivojlanishdagi kechikishlar va shu kabi muammolarni o'rganish bilan bog'liq bo'lgan pedagog va psixolog mutaxassislar bunday holatlarning sababini ko'proq shu bolalarning o'ziga emas, balki ularning ota-onalari, aniqrog'i onalariga bog'liq deb hisoblaydilar. Haqiqatan ham bolalar xulqida kuzatiladigan noxush hodisalarning aksariyati bola tarbiyasi borasida ota-onalar tomonidan yo'l qo'yilgan xato-kamchiliklarning asorati hisoblanadi. Ular ko'pchiligining yechimi bola xatti-harakati, xulqi emas, balki ota-ona va ular tomonidan oilada yaratilgan psixologik muhitga bog'liq bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

13. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. –T., A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti,
14. Boymurodov. N. Amaliy psixologiya .T.: Yangi asr avlodi. 2009y. –
15. Vohidov. M. Bolalar psixologiyasi. T.: O'qituvchi
16. Davletshin. M. Umumiy psixologiya. T.: 2002 y
17. Karimova V. va boshq. Psixologiya. T.: A.Qodiriy nom. xalq merosi nash. 2002 y

18. Jabborov A. Ma'naviyat psixologiyasi. Qarshi. Universitet. 2001 y.
19. Jabborov A. Pedagogik psixologiyaning etnik asoslari. T.: Zarqalam. 2006 y.
20. Nishonova Z. va boshq. Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi. T.: O'z. yozuv. uyush. nash. 2006 y

ФАРЗАНД ТАРБИЯСИДА ОТА-ОНА ВА МАКТАБНИНГ ЎРНИ

Niyazova Salomat Salijanov

Guliston shahar 6-maktab

Annotatsiya: *Ota-onalar qat'iy ravishda farzandining maktabidagi, sinfidagi sharoitini o'rganishi, uning vaqtini qanday o'tkazayotganligi bilan qiziqishi o'ta muhim. Shu bilan bir qatorda ota-ona farzandining birga o'qiydigan sinfdoshlari, do'stlari bilan qiziqishi, muloqotda bo'lishi kerak.*

Farzandlarimiz maktab o'quv jarayoniga ko'nikkunga qadar ayrim fiziologik hamda psixologik qiyinchiliklarga duch keladi. Bu qiyinchiliklarni birgalashib qanday yengishimiz mumkin? Bugun shular haqida suhbatlashamiz. Sizlarni qiziqtirgan savollarga javob berishga harakat qilamiz. Fikr-mulohazalaringizni eshitamiz va o'zaro muhokama qilamiz. Bolalar bog'chadan maktabga kelganda jismoniy toliqishi ko'payadi. 1-sinf o'quvchisi uchun uyda shunday sharoit yaratish kerakki, u dars tayyorlayotgan vaqt oraliqlarida 5-10 daqiqa dam olishi lozim. Shuningdek, farzandimizning sog'ligi bilan bog'liq, xususan, dars tayyorlayotgan vaqtda uning to'g'ri o'tirishiga ahamiyat qaratish borasida atroflicha tushuncha berish e'tiborga molik. Jumladan, quyidagi masalalarga alohida e'tibor qaratish lozim:

- umurtqa pog'onasining to'g'ri o'sishi;
- kitob o'qishda ko'zlar zo'riqlashining oldini olish;
- bola organizmida vitaminlar yetishmovchiligiga yo'l qo'ymaslik;
- bolaning tartibli va ratsional ovqatlanishini tashkil qilish;
- sport bilan shug'ullanishga e'tibor qaratish;

Shuningdek, bolaga o'z salomatligi uchun o'zi javobgar bo'lishini tushuntirish kerak. Ota-onalar bolaning maktabda erishgan ilk yutuqlarini e'tibordan chetda qoldirmasliklari kerak.

Ota-onalar qat'iy ravishda farzandining maktabidagi, sinfidagi sharoitini o'rganishi, uning vaqtini qanday o'tkazayotganligi bilan qiziqishi o'ta muhim. Shu bilan bir qatorda ota-ona farzandining birga o'qiydigan sinfdoshlari, do'stlari bilan qiziqishi, muloqotda bo'lishi kerak. Ayniqsa, bu yoshdagi bolaga jismoniy jazo berish, qo'rqitish, urish, bironi oldida, xususan do'stlarining ko'z oldida obro'sizlantirish aks natija berishi mumkin. Ota-ona bolasining temperamentini bilishi kerak. Masalan, og'ir bosiq, kirishimli bola maktab muhitiga tez o'rgana olmaydi. U sizning nazoratingizda arziyas ko'ringan sabab uchun ham maktabga bo'lgan qiziqishini tez yo'qotishi mumkin. Uyda ota-ona bolaning dars tayyorlashiga zarur sharoit yaratgan holda u bilan qo'shimcha tayyorgarlik ko'rishi, uyga vazifalarni bajarishda ko'maklashishi ham zarur. Bolani faqat maktabdagi darslarda olgan a'lo baholari uchungina rag'batlantirish bilan kifoyalanmasdan, ruhiy-ma'naviy tomondan ham qo'llab-quvvatlash orqali unda o'z-o'zini boshqarish hamda o'zini himoya qilish ko'nikmasini shakllantirish zarur.

Taniqli pedagog va psixolog S. Soloveychin ota-onalar uchun bolani maktabga ko'niktirish yuzasidan ba'zi qoidalarni ishlab chiqqan. Bu qoidalarni har bir ota-ona bilishi maqsadga muvofiqdir. Agar ushbu qoidalar bolaning xonasiga osib qo'yilsa, doimo esda saqlashga turtki bo'ladi. Har haftaning oxirida mazkur qoidalar bo'yicha ota-ona bolasini tekshirib turishi ahamiyatlidir.

Qoidalar: -o'zgarar narsasini uning ruxsatisiz olma;

-baho uchun o'qituvchi bilan tortishma va o'qituvchidan xafa bo'lma;

-yaxshi natijalar haqida o'yla;

-do'stlaringni yomonlama, hech kimning izidan so'zlama va gap tashima;

-hamma vaqt ozoda yur;

-ko'proq "Qani do'st bo'laylik", "Birga o'ynaylik", "Uyga birga boraylik" degan so'zlarni ishlat;

-yodingda saqla! Sen ota-ona va o'qituvchi uchun birdek suyuqlisan!

Qadimda ota-onalar o'z bolalarini oilada o'zlari tarbiyalaganlar. Lekin ota-onalar ham har xil boladi. Bolaga ta'lim-tarbiya berish hamma ota-onalarning ham qo'lidan kelmaydi. Chunki bola tarbiyasi uchun ba'zilarining vaqti bo'lmaydi.

O'zbek xalq pedagogikasida murabbiy, ustoz eng xurmatli mo'tabar inson sifatida ulug'lanadi. "Otang bolasi bo'lma odam bolasi bo'l", "Ustoz otangdan ulug'", "Ota-ona bolani dunyoga keltiradi, ustoz esa uni yuksaklikka, osmonga ko'taradi", "Avval bil, keyin qil", "Avval o'rgan, keyin o'rgat", "Aql ko'pga yetkazar, hunar –kokka", "Ustoz ko'rmagan shogird – har maqomga yo'rg'alar" kabi maqollarning aha miyati juda katta bo'lgan. Bolalarga go'zal tarbiya berish uchun ota-onalarning o'zlari go'zal axloqli, tarbiyali bo'lishlari shartdir. Tarbiya usullari yoshlarga o'zaro izzat-hurmatda bo'lish, qadr-qimmanini anglash; samimiylik, iltifotlilik, haqiqatgo'ylik, mardlik, jasurlik, mehribonlik kabi insoniy fazilatlarini singdirishga xizmat qiladi. Bolani elga manzur, odobli farzand qilib tarbiyalash ota-onaning burchi hisoblanadi. "Har kim ekanini o'radi", "Hurmat qilsang hurmat topasan", "Bola aziz, odobi undan aziz" maqollari shular jumlasidandir.

Masalan Yaponiyada uztozlar yo'lda ketayotgan bo'lsa, 10 qadam orqada yurar ekan chunki soyasini bosib olmaylik deb hurmat qilisharkan. Bolani yoshligidan tarbiya qilish kerakligi xalqimiz o'rtasida shunday rivoyat bor: Kunlarning birida yosh er-xotin buyuk xakim Ibn Sino huzuriga kelib: "Ey donishmand, bizga farzandimizni tarbiya etish xususida maslahat bersangiz", deb murojaat qilishadi. "Bolangiz necha yoshga kirdi", deb so'radi hakim. "Olti oylik", deb javob berishdi ota-ona, "Attang, olti oyga kechikibsizlar-da!" dedi hakim.

Bola haq bo'lsa ham, nohaq bo'lsa ham ota-ona tarafini olaversa bola erkanib noma'qul ishlarni qilishga odatlanib qoladi. Ota-ona bolani yoshligidan mehnatga chiniqtirmasa, qiyinchiliklarni yengishga odatlantirmasa, bola katta bo'lganida ham qoqiladi, hayot zarbalariga bardosh beraolmaydi.

Bolalarni tarbiyalashdagi asosiy ta'lim-tarbiya o'chog'I maktabdir. Maktabga turli-tuman oilalardan har xil fe'l atvorli o'g'il-qizlar kelishadi. Shuning uchun ularni maktabning qonun-qoidalariga ko'niktirib borish, jamoa bilan birga bo'lish odobini tarkib toptirish talab etiladi. Bu jarayonni oila, maktab va mahalla bilan hamkorlikda ado etsa, bolalar tabiatidagi salbiy xususiyatlar bamaslahat hal qilinsa, u holda tarbiyasi og'ir o'quvchilar bo'lmaydi.

Demak, biz o'qituvchilar aziz bolajonlarimizning barkamol voyaga yetishi uchun ota-onalar bilan hamkorlik ishlarini to'g'ri tashkil qilishimiz o'ta ahamiyatlidir. Ta'lim sifatini yaxshilash va samaradorligini oshirishda maktab, mahalla va oila hamkorligi alohida o'rin tutadi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Ishmuxamedov R. J. , Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. –T. : Nihol, 2013, 2016.
2. Inoyatov U. I. , Muslimov N. A. , va boshq. Pedagogika: 1000 ta savolga 1000 ta javob. 2012 y. Toshkent
3. Madayev O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. «Mumtoz so'z», T. : 2010.

ISLOHOTLARNING MUHIM BO'G'INI – INNOVATSIYALAR

*Shoimqulov Farhod Shodiqul o'g'li
Guliston tumani 26-maktab*

Annotatsiya: Ushbu maqola, innovatsion texnologiya, bu yangiliklarning pedagogik hamjamiyat tomonidan o'zlashtirilishi va ulardan ilmiy asosda amaliyotda samarali foydalanishning o'zgarib boruvchi sohada innovatsion yondashuvning samarasi haqidadir.

Kalit so'zlar: Innovatsiya, keys-stadi, chizmatasvir, texnologiya, amaliyot, pedagogika, metod.

Bugungi zamonaviy jamiyatda inson faoliyatining eng keng sohalaridan biri - bu ta'lim hisoblanadi. Oxirgi yillarda ta'limning ijtimoiy roli ortib, dunyoning aksariyat davlatlarida ta'limning barcha turlariga bo'lgan munosabat tubdan o'zgardi. Ta'lim ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotning bosh, yetakchi omili sifatida qaralmoqda. Bunday e'tiborning sababi zamonaviy jamiyatning eng muhim

qadriyati va asosiy kapitali - bu yangi bilimlarni izlash, egallash va nostandart qarorlar qabul qilishga qodir bo'lgan inson hisoblanadi. Shunday ekan, ozirgi davrda ta'lim shaxs va jamiyatni rivojlantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Yangilanayotgan barcha sohalar muvaffaqiyati bilimli insonlarga bog'liqligi, oxirgi to'rt yilda ta'lim sifatini yaxshilash, o'qituvchilarda strategik fikr, pedagogik tafakkurni rivojlantirish texnologiyalari, o'qituvchilarga metodik yordam berish uchun texnologiyalashtirilgan dars ishlanmasi, ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish, ilmiy bilimlarni, amaliy faoliyatlarni tashkil etish, ijodiy va intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarish bugungi kunda dolzarb ahamiyatga ega.

Davlat va huquq asoslari fanini yangicha pedagogik texnologiyalar asosida o'qitish muhim ahamiyatga ega bo'lib, bir tizimda shakllangan yangicha yondashuvlardir. Ular tashabbuslar va yangiliklar asosida tug'ilib, ta'lim mazmunini rivojlantirish uchun istiqbolli bo'ladi. Shuningdek, umuman ta'lim tizimi rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Innovatsiya – ma'lum bir faoliyat maydonidagi yoki ishlab chiqarishdagi texnologiya, shakl va metodlar, muammoni yechish uchun yangicha yondashuv yoki yangi texnologik jarayonni qo'llash natijadir.

Davlat va huquq asoslari fanini o'qitishda innovatsion jarayon – bu pedagogik yangiliklar, bu yangiliklarning pedagogik hamjamiyat tomonidan o'zlashtirilishi va ulardan ilmiy asosda amaliyotda samarali foydalanishning o'zgarib boruvchi yaxlitligidir.

Ta'lim jarayonidagi innovatsion o'zgarishlar, tizimga har qanday yangilikning kiritilishi bevosita o'qituvchi faoliyatini yangilash va o'zgartirish orqali amalga oshirilishi ham atroflicha o'rganilgan. Davlat va huquq asoslari fanini o'qitishda noan'anaviy usullardan keng foydalanib yangi innovatsion texnologiyalar asosida o'qitish o'qituvchining pedagogi mahorati alohida ahamiyatga ega. Huquqshunoslik darslarida ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati katta. Chunki o'quv jarayoni ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilsa, o'quvchilarning erkin fikr yuritish qobiliyati shakllanishiga va rivojlanishiga xizmat qiladi.

O'zbekiston davlati va huquqi asoslari va Konstitutsiyaviy huquq darslarida o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish quyidagi uch jihatdan muhimdir:

Oquvchining hayotda o'z nuqtai nazariga ega bo'lishiga zamin yaratadi.

Oquvchi egallagan bilimi orqali shakllangan salohiyati va dunyoqarishi bilan to'g'ri yo'lni tanlashga yo'naltiradi.

Oquvchida shakllangan huquqiy-siyosiy madaniyat o'z fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lishiga ko'maklashadi.

Shu nuqtai-nazardan o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish har bir darsning maqsadi bo'lmog'i lozim. O'quvchilarga huquqshunoslik darslarining o'tilishida bilish faoliyati orqali mustaqil fikrlash qobiliyatini faollashtirish va samaradorligini oshirishga qaratilgan pedagogik texnologiyalar ohgli intizomning yuqori darajada bo'lishini va ongli fikrlashning ortib borishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ana shunaday texnologiyalar jumlasiga didaktik o'yin, muammoli ta'lim, modulli ta'lim, kommunikativ ta'lim, hamkorlikda o'qitish texnologiyasi kiradi. Bunday noan'anaviy shaklda tashkil qilingan darslar o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishlarini orttiradi. Huquq darslarini yanada qiziqarliroq olib borish uchun ahu kunning dolzarb mavzusi bilan bog'lash, mamlakatimizda chop etilayotgan gazeta va jurnallardagi tarixiy, huquqiy, siyosiy maqolalardan, qabul qiligan qonunlar va qonun osti hujjatlaridan keng ko'lamda foydalanish zarur. Bu kabi darslar o'quvchi faolligi va erkinligiga qaratiladi, ularning mustaqil fikr yuritishiga imkoniyat yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

Ishmuxamedov R. J. , Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. –T. : Nihol, 2013, 2016.

2. Inoyatov U. I. , Muslimov N. A. , va boshq. Pedagogika: 1000 ta savolga 1000 ta javob. 2012 y. Toshkent

3. Madayev O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. «Mumtoz so'z», T. : 2010.

4. Urazova M. B. , Eshpulatov Sh. N. Bo'lajak o'qituvchining loyihalash faoliyati. // Metodik qo'llanma. – T. :

5. <https://n.ziyouz.com/kutubxona/category/38-o-zbek-xalq-og-zaki-ijodi>

BIOLOGIYA DARSARIDA O'QUVCHILARGA EKOLOGIK TA'LIM-TARBIYA BERISH

Rahimova Muxabbat Normirzayevna

*Namangan viloyati To'raq'o'rg'on tumani 2-umumiy o'rta ta'lim maktabi biologiya fani
o'qituvchisi. tel: +998913451501*

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'quvchilarga biologiya darslari orqali, tabiatni muhofaza qilishni asrab-avaylash haqida tavsiya berilgan.

Kalit so'zlar: Ekologiya, tabiat, o'simlik, ta'lim-tarbiya, hayvonlar, qizil kitob

Аннотация: В данной статье даны рекомендации о воспитании учащихся бережному отношению к окружающей среде в процессе обучения на уроках биологии.

Ключевые слова: Экология, природа растение, учебно - воспитательный, животные, красная книга

Annotation: In this article, Students are advised to conserve nature through biology lessons.

Key words: ecology, nature, plant, education, animal(s), red book.

Ilm-fan texnika jadal rivojlangan ijtimoiy ekologik holat munosabatlari uzluksiz o'rganib borayotgan hozirgi vaqtda biologiya fani jadal rivojlanmoqda. Biologiya sohalari tirik xususiyatlari biologiyaning o'rganish usullari rivojlanayotgan davrda ekologik tarbiya dolzarb masalalaridan biri bo'lib turibdi. Yer yuzida aholi soni yil sayin o'sib borishi bilan, tabiiy resurslarni iste'mol qilishning ko'lami kengayib bormoqda. Bu esa insonning tevarak atrofdagi muhit bilan o'zaro munosabatining yanada murakkablashishiga olib keladi. Atrof muhitni muhofaza qilish va tabiat boyliklaridan unumli foydalanish masalasi hozirgi kunda butun insoniyat uchun tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Tabiat boyliklaridan unimli foydalanish, tabiatni muhofaza qilish masalalarini ongli ravishda hal etish uchun oila, bog'cha, maktab, o'rta maxsus va oliy o'quv yurtlarida, ishlab chiqarish va jamoat joylarida tabiat sirlari va undan to'g'ri foydalanish usullarini har tomonlama puxta o'rganish lozim. O'quvchilar tabiat haqidagi elementar bilimlarni egallash davomida o'simliklarni o'stirish ularni ko'paytirish, hayvonlarni parvarish qilishning oddiy usullarini o'rganib, tabiatni kuzatish, uning go'zalliklarini ko'ra olishni bilib olgan taqdiridagina, ularda ona tabiatga nisbatan ehtiyotkorlik va g'amxo'rlik bilan munosabatda bo'lishni tarbiyalash imkoniyati tug'iladi. Tabiatdan unumli foydalanishga o'rgatish uchun o'quvchilar ongida ekologik madaniyatni shakillantirish zarur. Ekologik tarbiya insonning atrof-muhitga nisbatan munosabatini tarbiyalashdir. Ekologik ta'lim tarbiya berish jarayonida o'quvchilar tabiat boyliklarini tejab tergashga, tabiatni muhofaza qilishga o'rgatib boriladi. O'quvchilarga ekologik ta'lim tarbiya berishni maqsadi uning nazariy asoslarini, ushbu yo'nalishdagi ko'nikma va malakalarni chuqur egallagan, tabiatga nisbatan oqilona munosabatda bo'ladigan ekologik ma'naviyati yuksak o'quvchilarni tarbiyalashdan iborat. O'quvchilar botanika fanida dorivor, zaxarli, sporali bir va ko'p urug'li o'simliklar haqida umumiy ma'lumotlarni o'simliklar dunyosi bilan tanishtirib, ya'ni unda o'lkamiz va dunyo miqyosida o'simliklar olami, ularning xilma xilligi haqida ma'lumotlarni o'rganadilar. Masalan hayotiy shakliga ko'ra doimiy yashil buta bo'lgan shamshod, archa o'simliklari barglarda alkaloidlar bo'lib, ular biologik aktiv moddalar bo'lganligi tufayli xalq tabobatida ichni bo'shatuvchi, turli zararli kasal tarqatuvchi mikroorganizmlarning rivojlanishini to'xtatuvchi sifatida ishlatilishi, shuningdek barglarini bolalar yostig'i, ko'rpachalari tagiga tashlab qo'yish ularni viruslar, bakteriyalar, zamburug'lar tarqatadigan kasalliklardan saqlashini o'rganadilar.

O'ylaymizki biologiya fanini o'qib o'simliklarning inson uchun eng muhim ozuqa ekanligini tafakkur qilishadi. Biologiyaning bo'limi Zoologiya darslari orqali ular hayvonot dunyosi bo'yicha mavjud yangiliklar bilan yaqindan tanishadilar., „Baliqlar“ sinfini o'rganish davrida o'lkamiz va dunyo miqyosida mavjud bo'lgan baliqlar, ularning turkumlari, turlari haqidagi ma'lumotlar beriladi. Shu o'rinda ularning ko'payib rivojlanishida o'ziga xos qiyinchiliklar hosil bo'lishi hisobiga baliqlarning nasli haqida g'amxo'rlik qilish ham muhit sharoitiga juda bog'liq ekanligi, ularning yashash uchun kurashi davomida insonning ham juda muhim o'ringa ega ekanligi to'g'risida ko'proq materiallar berish o'quvchilarning baliqlarga nisbatan ularni asrash va e'tibor bilan yondashishlariga yordam beradi. Shuningdek o'lkamizda noyob va yo'qolish arafasida turgan baliq turlarini asrab-

avaylash, ularning ko'payish davrida baliq ovlashni taqiqlash, yaqin atrofdagi daryo, ko'l, soy va zovurlarning atroflari ifloslanishiga yo'l qo'ymaslikka e'tibor berish ham ekologik ta'lim tarbiyaning asosiy natijasi hisoblanib baliqlar inson uchun muhim ozuqa vitamin ekanligi uni asrashga ekologik yondashuvga o'rgatiladi.

Qushlarning tabiatda tarqalishi, yashash tarzi, ularning xilma-xilligi, ko'payib-rivojlanishi to'g'risidagi ma'lumotlarni berish davomida o'lkamiz va umuman ta'biatdagi qushlar, ularga to'g'ri munosabatda bo'lish, asrab-avaylash, jo'ja ochib uchirma qilish mavsumlarida ovlash sayohat qilish mashg'ulotlarini taqiqlash, ularning nasli uchun qayg'urushida imkoniyatlar yaratishga intilish zarurligi haqida tushunchalar hosil qilish ham bevosita o'quv jarayoni davomida qushlarni sevis, ko'payishi uchun uyalar yasab salqanishiga g'amho'rlik qilish tushuntirib boriladi.

"Sut emizuvchilar" bo'limi doirasidagi mavzularni o'rganish davomida sut emizuvchi hayvonlarga nisbatan yuqoridagi xususiyatlarni tarbiyalashga ham e'tibor qaratish tavsiya etiladi. Shuni takidlash kerakki, O'zbekiston, "Qizil kitobi" ga kiritilgan qushlar va sut emizuvchi hayvon vakillari haqida ko'proq ma'lumot berish zarur bo'ladi. Chunki atrofimizdagi ko'pgina qushlar va sut emizuvchi hayvonlar e'tibor va himoyaga muhtojdirlar. Lekin darslik va jadvallarda o'lkamiz va uning atrofida keng tarqalgan hayvonot dunyosining ko'pchiligi bilan tanishish imkoniyati bo'lmaydi. Darslik va jadvallarda bu kabi ma'lumotlar qisqa bayon etganligi bois ularni o'quv jarayoniga yangi pedagogik texnologiya vositasida joriy qilish mumkin. Buning uchun hayvonot olami haqidagi ma'lumotlar, tasvirlar, ular bilan bog'liq hodisalar umumlashtirilgan holda kompyuter orqali multimedialar, jonli ko'rgazmalar dastur asosida chuqurroq o'rgatiladi. Dastur bir darsning o'zida juda ko'plab ma'lumotlarni rangli, qiziqarli, harakatli va ovoz vositasida berish vazifasini bajaradi va o'quvchilarni tabiatni sevis, tabiat bilan uzviy bog'liqlikka tabiat ham onamiz qatori muqaddas ekanligini tushuntiriladi.

Internet ma'lumotlari o'quvchining tabiatni, hayvonni real tasavvur etish, undagi jarayonni teran anglashi, nafaqat o'lkamiz hayvonot olami, balki dunyo faunasidagi ko'pgina hayvonot vakillari bilan tanishish imkonini beradi. Shu bilan birga ularga do'stona munosabatda bo'lish, asrab avaylashva ularga yordam berish tuyg'ularini tarbiyalaydi. Yuqoridagi mashg'ulotlarni bevosita suhbat, har xil kechalar, shoular, sayohatlar, tadbirlar shaklida ham amalga oshirish foydadan holi emas. Masalan, Hayvonot bog'i tabiat muzeyi, maktab tajriba maydonchalari, maktab bog'i, dalalar, tog' va yaqin atrofdagi istirohat bog'lariga uyishtirilgan sayohatlar ham o'ziga hos ekologik tarbiya shakllariga misoldir. O'quv jarayonida mavzular asosida tashkil etilgan. Maktab jonli burchagi, Gullar va qushlar bayrami, Men parvarish qilayotgan hayvon kabi kecha va tadbirlar o'quvchilarimizni tabiatga uzviy bog'laydi. Biologiya darslarida o'quvchilarga ekologik ta'lim tarbiya berish jarayonida o'qituvchilar quyidagilarni asosiy vazifa sifatida belgilashlari mumkin: - Ekologik ta'lim tarbiya orqali o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish;-tabiatni asl holicha saqlash va muhofaza etish, ona zaminimizni asrab avaylash borasida o'quvchilarning ma'suliyatini javobgarlik hissin oshiribborish; -o'quvchilar ongida ekologik salbiy ta'sir ko'rsatayotgan omillarga qarshi ekologik madaniyat tushunchasini rivojlantirish; - ekologik ta'lim-tarbiya berishda tarixiy merosimizdan foydalanish, ularni hozirgi zamon talablariga bog'lab o'rganish; -buyuk ajdodlarimiz pand –nasihatlaridan, ibratli fikrlardan foydalanish, ajdodlarimizning obodonchilik, atrof muhitni yashil makonga, bog'u-rog'lar yaratish borasida olib borgan ishlari muhim ahamiyatga ega ekanligin ta'kitlab borish; -Konstitutsiya va ekologiyaga oid qonunlarning ezgu maqsadlarini, tabiiy muhitni muhofaza qilish g'oyasini o'quvchilarga aniq ko'rsata bilish, ekologik ta'lim tarbiyaning muhim vazifalaridan biri bo'lib qolishi kerak.

TARBIYANING TA'LIMDAGI O'RNI

Shukurova Dildora Xabibullayevna,

Guliston tuman 3-umumta'lim maktab tarbiya fani o'qituvchisi

Abstract: *In this thesis, observations were made on the speech requirements of educators and their practical significance in order to achieve a high level of quality in education. Methodological recommendations on the development of their professional and intellectual potential were given.*

Experience has shown that the human factor is a leading resource in the foreign experience and labor market, and that it is necessary to continue it in the right direction in education and the work of teachers.

Keywords: *Speech, modern education, pedagogical style, synthesis of ideas, conflict of ideas, speech problems and shortcomings, experimental method.*

O'zbekistonning dastlabki ostonasi bo'lmish maktab dargohini pedagog kadrlarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Shu o'rinda bugungi kunda pedagog kadrlar fondimiz bilim-salohiyati, ma'naviy dunyosi, zamonaviy qarashlari va ilq'or fikrlari ta'lim tizimidagi o'zgarish va yangiliklarga xos va mosmi degan savol bo'lishi tabiiy. Darhaqiqat, bugun sohada faoliyat yuritayotgan pedgog kadrlar qanday sifat yoki bilim - malaka ko'nikmalariga ega bo'lmog'i lozim.

Pedagog adabiy tilning normalariga amal qilish, nutq texnikasi ustida ish olib borish, uq'ularni to'q'ri qo'yish, fan kategoriyalarini aniq bilish talablariga to'liq rioya qilishi hamda o'quv - tarbiya jarayonini to'g'ri tashkil qilishi, pedagogik texnikani talablariga amal qilishi darkor. Pedagogik texnika ma'lum kasbiy va shaxsiy malakalar yiq'indisidirki, u o'qituvchining pedaggik faoliyatiga ta'sir ko'rsatish, tashkil qilish va boshqarish ishlarida asosiy yo'l ko'rsatuvchi bo'lib xizmat qiladi. Ilq'or va novator pedagoglarning ish tajribalarini kuzatish, mimikasini, ovozini idora qila olish xususiyatlari kuzatiladi. Bu shundan dalolat beradiki, bunday o'qituvchilar pedagogik texnikani yaxshi egallagan. Uning malakalarini o'zlarida aniq shakllantirganlar va bu malakalarni turli vaziyatlarda qo'llay olish qobilyatlariga ega bo'lganlar. O'qituvchi materiallarni aniq, to'q'ri, tushunarli ifodali bayon qilishda ovozi ritmi ham muhim ahamiyat kashf etadi. O'qituvchi nutqini lo'nda, aniq, puxta, chiroyli bayon etsa, u tinglovchilarga shuncha tushunarli bo'ladi va ular qalbida uzoq saqlanadi. Pedagog faqatgina nutqi emas, balki mimika va pontamimika harakatarini ham nazoratda tutishi lozim. Chunki qo'l, yuz, qosh, ko'z, bosh harakatlari ham nutqimizning qay darajada ishonarli ekanligini ta'minlab beradi.

Nutq inson aqliy faoliyatining eng oliy va asosiy vositasidir. Chunki insonni boshqa jonzotlardan ajratib turadigan ham nutq emasmi? Shunday ekan, inson aqliy faoliyatining eng oliy maxsullari tafakkur mevalari til va nutq orqali ro'yobga chiqadi. Til tafakkur mahsullarining hayotga tadbiq etilishiga vosita bo'luvchi qudratli quroldir. Navoiy til va nutq munosabatlarini shunday izohlaydi: «Til shuncha sharafi bilan nutqning qurolidir». Demak, til har qancha qudrati zo'r bo'lmasin, u nutq uchun qurol sifatida xizmat qilarkan. Uning kuch-qudrati nutq jarayonida namoyon bo'lar ekan. Agar til o'q bo'lsa, nutq kamondir. O'qning qudrati kamonning qobiliyatiga ham boq'liq. Nutq madaniyati o'qituvchilarda ijodiylik, mustaqil fikrlash, ijodiy fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda oq'zaki, yozma shakllarda to'q'ri, ravon ifodalash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish, til sezgilarini tarbiyalashga xizmat qilmoq'i lozim.

Hozirgi kunda o'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalayotgan pedagoglarning nutqini o'stirish bilan bir qatorda chet tillariga o'qitish sifatini ta'minlash, chet tillarida erkin so'zlasha oladigan mutaxasislarni tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chet tillarini o'zlashtirish orqali jahon ta'lim standartlariga javob beradigan yetuk kadrlarni tayyorlash yurtimizda amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlarining asosiy maqsadlaridan biridir. Til o'rgatishdagi imkoniyatlarni aniqlash va ularni yuzaga chiqarishda o'qituvchining bilimi ijodkorligi o'quvchilarda o'z faniga nisbatan muhabbatini uyq'ota bilishi hamda o'z navbatida o'quvchilar bilan hamkorlik munosabatini o'rnatish hozirgi davr talabini taqozo etadi. Shu o'rinda aytish mumkinki, chet tilida o'quvchilarimiz bemalol so'zlashish darajasida bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlari uchun ingliz tili fani pedagoglari bilan birgalikda boshqa aniq va ijtimoiy – gumanitar fan o'qituvchilariga ham bu - mas'uliyat yuklaydi. Shu asosda bugungi ta'lim tizimida faqat o'quvchilar emas, balki barcha fan o'qituvchilari chet tillarini bilish darajasini oshirish kerakligi dolzarblik kasb etadi. Shu yo'nalishda filologiya fan yo'nalishi pedagoglari ham ona tili va adabiyot fanlarini chet va milliy tillar integratsiyalashuvi orqali tashkil etsa, ta'limdan ko'zlangan natijalarga erishishda birmuncha jadallik birlamchilik qiladi. Bundan ko'zlangan maqsad o'sib kelayotgan yosh avlodni intellektual – aqliy va ilmiy salohiyatini yanada oshirish, inson kapitalining mehnat bozoridagi o'rnini mustahkamlashdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A. Ma'ripov. Paronimlar lug'ati. -Toshkent, 1974 y. 2. S. Inomxo'jayev. Notiqlik san'ati asoslari. - Toshkent, 1982-y. 3. B. N. Golovin. Odatiy nutq va nutq madaniyati me'yorlari. -Moskva, 1980-y. 4. R. Jumaniyozov O'quvchilarning nutq madaniyati haqida. - Toshkent, 1957

ALGEBRALAR. ASSOTSIATIV ALGEBRALAR TATBIQLARI

Xakimova Maftuna

Termiz davlat universiteti 1-kurs magistranti

Annotatsiya: Li algebrasi talqini. Transponirlangan Puasson algebralari va ularning yarim differensiallashlari mavzusini o'rganish.

Tayanch so'zlar: algebra, assotsiativ algebra, chiziqli fazo, Li algebrasi, antikommutativlik, izomorfizm.

Annotation: Interpretation of Lee algebra. To study the topic of transposed Poisson algebras and their semi-differentiation

Keywords: algebra, associative algebra, linear space, Lee algebra, anticommutative, isomorphism

Ma'lumki, algebra atamasi yurtdoshimiz, buyuk mutafakkir olim, matematik va astronom Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy (783-850) tomonidan yozilgan "Al-jabr va al-muqobala" asari nomi bilan befosita bog'liqdir. Muhammad al-Xorazmiyning asarlarida sonlar ustidagi arifmetik amallar keltirilgan bo'lib, birinchi va ikkinchi darajali algebraik tenglamalarga keltiriladigan masalalarni yechishning umumiy usullari berilgan. Keyinchalik nafaqat sonlar ustida, balki, ixtiyoriy to'plam elementlari, obyektlar ustida amallar kiritilishi natijasida algebraning abstrakt tushunchasi hisoblangan algebraik sistemalar paydo bo'lgan.

Bu mavzularning yoritilishida D. S. Malik, J. N. Monderson, M. K. Sen Fundamentals of "Abstract algebra", P. A. Grillet "Abstract Algebra", T. W. Hungerford

"Algebra" kitoblaridan hamda Moskva Davlat universiteti Oliy algebra (Высшая алгебра) kafedrasi materiallaridan keng foydalanish mumkin.

Bizga $(L, +, \cdot, \lambda)$ chiziqli fazo berilgan bo'lsin.

Agar L to'plamda bichiziqli $*$ amal aniqlangan bo'lib quyidagi munosabatlar o'rinli bo'lsa:

$$(x + y) \cdot z = x \cdot z + y \cdot z \text{ va } x \cdot (y + z) = x \cdot y + x \cdot z \quad (1)$$

u holda L to'plamga algebra deyiladi. Agar L algebrada

$$\forall x, y, z \in L (x \cdot y) \cdot z = x \cdot (y \cdot z). \quad (2)$$

bajarilsa, u holda bu algebra assosiativ algebra deyiladi.

F maydonda L vektor fazo berilgan bo'lsa, $L \times L \rightarrow L$ akslantirish bilan, $(x, y) \rightarrow [x, y]$ ifodani belgilaymiz, va x va y elementlarni qavs yoki kommutator deb ataymiz, F maydonda Li algebrasi deb quyidagi aksiomalar bajariluvchi algebraga aytiladi:

(L1) aniqlangan amal bichiziqli amal;

(L2) $[x, x]=0$ tenglik barcha $x \in L$ uchun o'rinli;

$$(L3) [[x, y], z] + [[y, z], x] + [[z, x], y] = 0 \quad (x, y, z \in L). \quad (3)$$

Ushbu (3) aksiyoma Yakobiy ayniyati deb ataladi.

Shu ta'kidlash joizki, $[x+y, x+y]$ ko'paytmaga (L1) va (L2) aksiyomalarni qo'llash orqali quyidagi munosabati kelib chiqadi:

$$(L2') [x, y] = -[y, x].$$

(va aksincha, agar char $F \neq 2$ bo'lsa, u holda (L2') tengsizlikdan (L2) kelib chiqadi.)

(L2') tenglik esa antikommutativlik ayniyati deb ataladi. Agar vektor fazolar o'rtasida

$\varphi : L \rightarrow L'$ akslantirish mavjud bo'lib,

$$\varphi([x, y]) = [\varphi(x), \varphi(y)]$$

munosabat barcha $x, y \in L$ elementlar uchun o'rinli bo'lsa, u holda F maydon ustida berilgan L va L' Li algebralari izomorf deb ataladi. Ushbu $\varphi : L \rightarrow L'$ akslantirishga esa izomorfizm deyiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ayupov Sh. A. , Omirov B. A. Xudoyberdiyev A. X. , Haydarov F. H. Algebra va sonlar nazaryasi. „Tafakkur bo‘stoni“, 2019 y. 296 b.
2. Fraleigh J. B. , Brand N. A First Course in Abstract Algebra. 8th Edition. “Pearson Education”, 2020, p. 443.
3. Сборник задач по алгебре. Под редакцией, Кострикина А. И. “Физмат-лит”, 2001. 464 с.

SHAXMAT OLAMIGA ILK QADAM

Rustamova Gulmira Yoriyigit qizi

Guliston davlat universiteti 2-bosqich tayanch doktoranti

Annonatsiya: Maktabgacha ta’lim tizimi maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishining ijtimoiy holati uchun shart-sharoitlarni yaratishga, bolaning ijobiy ijtimoiylashuvi, uning har tomonlama shaxsiy, axloqiy va kognitiv rivojlanishi uchun imkoniyatlar ochishga qaratilgan. Maktabgacha yoshga to‘g‘ri keladigan faoliyat turlariga asoslangan tashabbuskorlik va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish, uning proksimal rivojlanish zonasida kattalar va tengdoshlar bilan hamkorlik qilishdir. Maktabgacha yoshdagi bolalarni shaxmat o‘ynashga o‘rgatish ushbu tamoyilni amalga oshirishga hissa qo‘shadi va bugungi kunda juda dolzarbdir.

Kalit so‘zlar: Shaxmat, shaxmat taxtasi, shaxmat donasi, maktabgacha yosh, maktabgacha ta’lim tashkiloti, xotira, diqqat, mustaqil fikrlash.

Shaxmat o‘yini yer yuzidagi eng qadimgi va eng qiyin o‘yinlardan biri bo‘lib, ba’zilar hatto shaxmatni jumboq deb atashadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirish uchun shaxmatning katta imkoniyatlari haqida aytib o‘tmoqchiman. Birinchisi, albatta, vaqt isbotlagan shaxmat - bu aqlning ajoyib mashg‘uloti, turli xil mantiqiy kombinatsiyalarni takomillashtirishdir. Benjamin Franklin: “Olmosni kesish uni olmosga aylantirganidek, shaxmat o‘ynash aqliy qobiliyatlarni ochishga imkon beradi”, deb bejiz aytmagan. Raqibning navbatdagi harakatini oldindan sezmay turib, shaxmat o‘ynashning iloji yo‘q, ya’ni, shaxmat o‘ynash jarayonida bolada sabab-natija munosabatlarini o‘rnatish qobiliyati shakllanadi, uning kombinatsion tafakkuri, mantiqiy mulohaza yuritish qobiliyati rivojlanadi, strategiya tuzadi.

Shaxmat o‘ynashning yana bir muhim jihati shundaki, maktabgacha yoshdagi bola shaxmat o‘yini davomida qoidalarga muvofiq harakat qilishni o‘rganadi. O‘z xatti-harakatini yetarlicha uzoq vaqt davomida qoidalar doirasida ushlab turgan holda, bola asta-sekin o‘zining asosiy yangi shakllanishini - mustaqillikni shakllantiradi. Diqqat, xotira, his-tuyg‘ularini boshqarish qobiliyati, ya’ni hissiy intellekt rivojlanadi. Ushbu dono xotirjam o‘yinni o‘ynash orqali biz bolani ham g‘alabalari, ham mag‘lubiyatlari bilan munosib munosabatda bo‘lishga o‘rgatamiz. Chunki mag‘lubiyatsiz musobaqalar bo‘lmaydi va hayotda biz nafaqat g‘alabalarni balki mag‘lubiyatlarni ham boshdan kechiramiz.

Hamma bolalar ham o‘ziga xos shaxmat donalarining nomlarini darhol eslay olmaydi. Shuning uchun, bolaning qaysi shaxmat donalarini eslab qolganligini aniqlash lozim. Bolalar bilan TRIZ texnologiyasiga asoslangan quyidagi o‘yinlarni o‘ynaymiz:

“Sehrli xaltacha”. Tarbiyachi shaxmat donalarini shaffof bo‘lmagan xaltachaga soladi va tarbiyalanuvchining ko‘zlarini bog‘lab, xaltachadan 1ta shaxmat donasini olib, bu qaysi dona ekanligini taktil retseptorlar ya’ni paypaslash orqali aniqlashini so‘raydi.

“Katta va kichik”. Bolaning oldiga olti xil shaxmat donalarini qo‘ying. Bolaga eng baland shaxmat donasini tanlashini ayting va uni nomi nima ekanligini so‘rang. Keyin bola qolgan shaxmat donalarining eng balandini tanlaydi va hokazo.

Преподавание и обучение, основанные на технологиях, могут внести много изменений в школу, что требует надлежащего планирования и выработки политики. Исследователи должны иметь одинаковое представление о будущем плане. Дудени (2010) отметил, что национальная политика в области ИКТ может выполнять несколько важнейших функций. Они содержат обоснование, набор целей и видение того, как работают системы образования, если ИКТ интегрированы в процесс преподавания и обучения, и они приносят пользу учащимся, учителям, родителям и населению в целом в данной стране.

Преподавание и обучение, основанные на технологиях, могут внести много изменений в школу, что требует надлежащего планирования и выработки политики. Исследователи должны иметь одинаковое представление о будущем плане. Дудени (2010) отметил, что национальная политика в области ИКТ может выполнять несколько важнейших функций. Они содержат обоснование, набор целей и видение того, как работают системы образования, если ИКТ интегрированы в процесс преподавания и обучения, и они приносят пользу учащимся, учителям, родителям и населению в целом в данной стране. Первая политика настаивает на том, чтобы всем учащимся была предоставлена возможность использовать ИКТ. Это направлено на сокращение цифрового разрыва между школами. Вторая политика сосредоточена на роли и функциях, которые играют ИКТ в образовании. Кроме того, в другой политике подчеркивалось использование ИКТ для доступа к информации, коммуникации и в качестве инструмента повышения производительности.

Список использованных литератур

1. Капан, С. А. (2012). Отношение учителей к использованию компьютера в классах EFL. Границы языка и преподавания.
2. Кассим, К. М. , и Обоно, С. Е. (2011). О факторах, влияющих на внедрение ИКТ для преподавания словесных задач. В трудах Всемирного конгресса по инженерным и компьютерным наукам.
3. Chan, F. M. (2002). ICT in Malaysian schools: policy and strategies. Paper presented at a workshop on the promotion of ICT in education to narrow the digital divide, 15-22 October. Tokyo Japan.
4. Chapelle, C. (2011). Computer applications in second language acquisition: Foundations for teaching, testing and research. Cambridge University Press.
5. Chien, S. P. , Wu, H. K. , & Hsu, Y. S. (2014). An investigation of teachers' beliefs and their use of technology based assessments. Computers in Human Behavior, 31, 198-210.
6. Cox, M. J. , & Marshall, G. (2007). Effects of ICT: Do we know what we should know? Education and information technologies, 12(2)

ГОССИПОЛ СИРКА КИСЛОТАСИНИ ОЛИШ

Алимов А. Э.

Гулистон давлат университети, катта ўқитувчи


Аннотация: Ушбу тадқиқот ишида техник госсиполдан госсипол сирка кислотасини олиш натижалари баён қилинган.

Калим сўзлар: техник госсипол, соапсток, госсиполнинг натрийли тузи, госсипол сирка кислотаси (ГСК), эркин госсипол.

Техник госсипол ажратиб олиш учун кўп госсиполли мойнинг кислота сонига мувофиқ ҳисоб қилинган натрий гидроксиди (NaOH) нинг суюқ эритмаси билан мойни юмшоқ рафинация-форрафинация жараёни ўтка-зилади. Бу жараён натижасида ўз таркибида госсиполнинг натрийли тузи, совун фосфатидлари ва бошқа йўлдош моддалар тутган суюқ соапсток ҳосил бўлади.

Суюқ соапстокни мойдан ажратиб, сульфат кислотаси эритмаси ёрдамида парчаланеди, натижада госсиполнинг натрийли тузи парчаланиб госсипол эркин ҳолатга ўтади ва ёғ кислоталари, фосфатидлар ва бошқа йўлдош моддалар билан аралашган ҳолда сув юзига қалқиб чиқади.

Ҳўл, ёғли, ўзида госсипол тутган бу масса филтрланади, экстракт бензинида ёғсизлантирилади ва куригилади ҳамда майдаланади. Бу усул икки босқичда олиб борилади. Биринчи босқичда госсиполни натрий гидроксид иштирокида сувда эрувчан натрийли тузи ҳосил қилинади. Бу кимёвий жараён 1-схемада келтирилган.




Пахта мойи таркибидаги эркин госсипол

Госсиполнинг натрийли тузи

1-схема. Натрий гидроксид иштирокида госсиполнинг сувда эрувчан натрийли тузини ҳосил бўлиши.

Иккинчи босқичда госсиполнинг натрийли тузини сульфат кислота иштирокида парчалаш натижасида эркин госсипол ҳосил бўлади. Бу жараёнинг кимёвий реакцияси қуйидаги 2-схема бўйича олиб борилади.



Госсиполнинг натрийли тузи


Эркин госсипол

2-схема. Госсиполнинг натрийли тузини сульфат кислота иштирокида парчалаганда эркин госсипол ҳосил бўлиши.

Техник госсиполдан госсипол сирка кислотаси (ГСК) ни олиш. Техник госсипол таркибидаги эркин госсиполни экстракция усли билан эритувчига-ацетонга ўтказилади, йиғилган ацетонли эритма вакум бўғлатиш аппаратида қўйилтирилади ва концентрланган муз сирка кислотаси ёрдамида госсипол сирка кислотаси чўктирилади чўкма аввал сирка кислотаси: ацетон 1:1 нисбатдаги аралашмасида кейин гександа ювилади ва куригилади сўнг эса майдаланади. Биринчи чўктиришда олинган 1-ГСК таркибидаги асосий модда миқдори 50-80% атирофида бўлади. 1-ГСК ни тозалаш жараёни; уни яна ацетонда эритиш ва муз сирка кислотаси ёрдамида қайта чуқтириб, чўкмани филтрлаш жараёнида сирка кислотаси ва ацетон аралашмасида сўнг гександа ювилиб куригилади ва майдаланади. 2-ГСК сининг тозалик даражаси 92% дан кам бўлмаслиги керак.


Олинган моддалар юпка қатламли хроматография (ЮҚХ) йўли билан бензол: аце-тон (5:1) ва гексан:ацетон (3:1) системаларда текширилганда бу моддаларнинг R_f қий-матлари

бензол:ацетон (5:1) системасида 0, 7-0, 8 ва гексан: ацетон (3:1) системасида 0, 26-0, 33 интервали оралиғида намоён бўлади. Госсипол сирка кислотасини структура формуласи 2-расмда келтирилган.



2-расм. Госсипол сирка кислотасини структура формуласи.

Фармакопик госсипол сирка кислотаси (ГСК) ни олиш учун 2-ГСК ни яна қайта кристаллаш жараёни ўтказилди ва ҳамма босқичлардан сўнг ҳосил бўлган 3-ГСК нинг тозалиги 98-99%ни ташкил этади.



госсипол госсипол сирка кислотаси

2-схема. Госсиполни сирка кислотаси билан чўктириш.

Госсипол сифатини янада яхшилаш мақсадида уни эритиб яна чўктириш иши олиб борилди, яъни 2-ГСК ни 3-ГСК га ўтказилди. Бунинг учун озроқ 2-ГСК ацетонда эритилди ва унга аралаштирилиб турган ҳолатда эритмани аралаштирилган ҳолатда ацетон: муз сирка кислотаси 1:1 нисбатда қўшдик ва эритмани икки соат тиндириб сўнг филтрлаб олдик. Чўкма хона хароратида қуритилди ва 2-ГСК дан фармакопик 3-ГСКни чиқиш унуми 75-85%, тозалик даражаси 98-99% бўлди.

Хулоса ўрнида шуни айтиш мумкинки, ўрта махсус, академик – лицей ва олий таълим муас-сасаларида таълим олаётган талабаларга ҳам госсиполнинг мураккаб органик модда эканлиги, ёғлар мавзусини интерфаол методлар ёрдамида тушунтиришда, пахта ёғи таркибида госсипол моддаси бўлиши ва саноатда бу модда баъзи органик эритувчиларда экстракция қилиниши орқали ёғларнинг тозаланиши ҳақида қўшимча маълумот бериб ўтиш мақсадга мувофиқдир.

FAN OLIMPIADASIDA FOYDALANILGAN ARIFMETIK MASALALARNI XOSILA YORDAMIDA YECHISH USULLARI

Mirzaaxmedova Aziza Kadirovna, Toshtanova Dilbar Bayjigitovna

Sirdaryo viloyati Guliston shahar 15-umumta'lim maktabi matematika fani o'qituvchilari

Аннотасија: Ushbu maqolada matematika olimpiadalari va ularni o'tkazishdan ko'zlanadigan maqsad va vazifalari. Shu bilan birga fan olimpiadasida foydalanilgan arifmetik masalalarni xosila yordamida yechish usullari qarab chiqilgan.

Annotation: This article describes the Mathematical Olympiads and their goals and objectives. At the same time, the methods of solving arithmetic problems using the product used in the Science Olympiad are considered.

О'қувчиларнинг қобилият ва иқтидорларини қуйи синфлардан бoshлаб аниқлаш ва ривожлантириш, мактабларда sog'lom рақобатни ташкил етиш орқали о'қувчиларнинг bilim оlishga bo'lgan qiziqishlarini oshirish, Davlat ta'lim standartlarida belgilangan talablarning bajarilish holatini tahlil qilish hamda ta'lim sifati ko'rsatgichlari asosida ta'lim muassasalari va hududiy xalq ta'limi boshqaruvi idoralarining reytingini aniqlash orqali ta'lim sifatini oshirishdan iborat.

Математика умумнисоний маданиятнинг салмоқли ва ажралмас қисмидир. Бу фanning o'qitilishi shaxsning shakllanishi va rivojlanishiga katta hissa qo'shadi, fikrni mukammalshtiradi, dunyoqarashni kengaytiradi, o'quvchilarning ma'naviy va ruhiy tarbiyasiga ijobiy ta'sir qiladi.

Инсоният тарихидagi taraqqiyot bosqichlarining mazmuni, mohiyati, nomlanishi qanday bo'lishidan qattiq nazar inson (bola shaxsi) omili, unga ta'lim berish, uni tarbiyalash jamiyat rivojining ijtimoiy buyurtmasi bo'lib qolavergan. Chunki, "Barkamol shaxs - jamiyat taraqqiyotining

asosi” sanaladi.

Matematik turnirlar va musobaqalar ham uzoq tarixga ega: masalan, kubik tenglamalarni yechish uchun Tartalya-Kardano formulasi kashf qilinish tarixi shunday turnirlar bilan bog‘liq.

1894 yildan buyon Vengriyada maktab o‘quvchilari musobaqalarini muntazam o‘tkazib kelindi. 1934 yilda Rossiyada, Leningrad shahrida, shu yili Gruziyaning Tbilisi shahrida bo‘lib o‘tgan. 1935 yilda Moskva shahrida birinchi Moskva olimpiadasi tashkil etildi. 1959 yilda Ruminiyada o‘quvchilarning birinchi xalqaro olimpiadasi bo‘ldi. 1961 yildan boshlab har yili o‘quvchilar uchun matematika olimpiadasi o‘tkazildi.

60-yillardan boshlab har yili respublikamizda, maktab o‘quvchilarning umum ta’lim fanlari bo‘yicha tuman, shahar, viloyat va respublika olimpiadalarini o‘tkazish an’anaga aylandi. Shubhasiz aytish mumkinki, bu olimpiadalar yoshlarning ilm-fanga, o‘qishga qiziqishlarini, etuk mutahassis bo‘lishga intilishlarini orttirishda ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Olimpiadaning asosiy maqsadi birgina g‘olibni aniqlash bo‘lmay, balki barcha qatnashchilarni original masalalar bilan qiziqitirish, ularni matematik to‘garaklar mashg‘ulotlariga muntazam ishtirok etishga, ma’ruzalar tinglashga, kitob bilan mustaqil ishlashga jalb qilishdir.

Hamma matematikaga qiziqadigan o‘quvchilar ham olimpiada qatnashchisi yoki g‘olibi bo‘lgan emas. Muvaffaqiyatsizlikdan so‘ng, albatta, keyingi olimpiadaga puxtarroq tayyorgarlik ko‘rish kerak. Buning uchun ustoz ko‘rsatmalariga amal qilish, mustaqil “Olimpiada masalalari to‘plami”dan mashqlar bajarish, matematik to‘garaklarga qatnashish kerak [6].

Biz ushbu maqolada o‘quvchilarni matematik qobiliyatlarini rivojlantirish uchun fan olimpiadalarida mavzuli masalar majmualaridan foydalanishga to‘xtalib o‘tamiz. Maqsad: o‘quvchini matematikaga va uning tadbiqlarini ko‘rsatishda turli syujetli masalalar, turli yechish usullarini talab etadigan masalalar va isbotlash, asoslashni talab etadigan masalalarni hamda matematikani turli vaziyatlarda amalda qo‘llay olishga o‘rgatish talab etiladi. Shu sababdan quyida keltirayotgan masalalar berilgan mavzu tevaragida o‘quvchilarning mustaqil matematik faoliyatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan.

Matematika fan olimpiadalarida matematik masalalar yechish usullariga o‘rgatish: umumta’lim, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarni ko‘zda tutadi. Shu sababdan matematika o‘qitish jarayonida fanning o‘quv dasturi rivoji va uning tadbiqlarini aks ettiruvchi tushunchalar va ularga doir masalalardan matematik to‘garaklarda va olimpiadalariga tayyorlanish jarayonida ko‘rib chiqish asosiy ahamiyatga ega ekanligi tajribadan ma’lum va shuning uchun mazkur mavzularga doir asosiy qoida va teoremlarni muhokama etish va ularni o‘quvchilar mustaqil isbotlashlariga erishish maqsadga muvofiq.

1-masala. 50 sonini shunday ikki natural son yig‘indisi ko‘rinishda ifodalangki, bu sonlar kvadratlari yig‘indisi eng kichik bo‘lsin.

Yechish: Bunda birini x desak, ikkinchisini $50-x$ deymiz va

$$f(x)=x^2+(50-x)^2$$

funksiyani tuzamiz. Bu funktsiyadan xosila olib nolga tenglab x ni topamiz. Xosila nolga teng bo‘lganda maksimum yoki minimum qiymatga erishadi.

$$f'(x)=2x-2(50-x);$$

$$2x-100+2x=0;$$

$$4x=100; x=25.$$

$$\text{Demak: } 50=25+25.$$

Javob: 25; 25.

2-masala. 625 sonini shunday ikki natural son ko‘paytmasi ko‘rinishda ifodalangki, bu sonlar kublari yig‘indisi eng kichik bo‘lsin.

Yechish: Bunda birini x deb belgilash olsak, ikkinchisini $\frac{625}{x}$ ko‘rinishda bo‘ladi va

$$f(x)=x^3+\left(\frac{625}{x}\right)^3$$

funktsiyani tuzamiz. Bu funktsiyadan xosila olib nolga tenglasak x ni topamiz. Xosila nolga teng bo‘lganda maksimum yoki minimum qiymatga erishadi.

$$f'(x)=3x^2-3\cdot 625^{\frac{1}{3}}\left(\frac{1}{x}\right)^4;$$

$$3x^6 - 3 \cdot 25^6 = 0; x^6 = 25^6;$$

$$x = 25.$$

$$\text{Демак: } 625 = 25 \cdot 25.$$

Javob: 25; 25

3-masala. Perimetri p bo'lgan to'g'ri to'rtburchakning yuzi eng katta bo'lishi uchun uning tomonlari qanday bo'lishi kerak?

Yechish: To'g'ri to'rtburchakning bir tomonini x desak, ikkinchi tomonini y desak,

$$p = 2(x + y);$$

$$y = \frac{p}{2} - x;$$

$$S(x) = x \cdot \left(\frac{p}{2} - x\right);$$

Bu funktsiyadan xosila olib nolga tenglab x ni toramiz. Xosila nolga teng bo'lganda maksimum yoki minimum qiymatga erishadi.

$$S'(x) = \frac{p}{2} - x - x;$$

$$\frac{p}{2} - x - x = 0;$$

$$2x = \frac{p}{2}; x = \frac{p}{4};$$

$$y = \frac{p}{2} - \frac{p}{4} = \frac{p}{4}; y = \frac{p}{4}.$$

$$\text{javob: } x = \frac{p}{4}; y = \frac{p}{4}.$$

4-masala. Yuzy 9 bo'lgan to'g'ri to'rtburchakning perimetri eng kichik bo'lishi uchun uning tomonlari qanday bo'lishi kerak?

Yechish: To'g'ri to'rtburchakning bir tomonini x desak, ikkinchi tomonini y desak,

$$S = x \cdot y;$$

$$x \cdot y = 9;$$

$$y = \frac{9}{x};$$

$$p(x) = 2 \cdot \left(x + \frac{9}{x}\right).$$

Bu funktsiyadan xosila olib nolga tenglab x ni toramiz. Xosila nolga teng bo'lganda maksimum yoki minimum qiymatga erishadi.

$$p'(x) = 2 \cdot \left(1 - \frac{9}{x^2}\right);$$

$$2 \cdot \left(1 - \frac{9}{x^2}\right) = 0;$$

$$\frac{9}{x^2} = 1; x^2 = 9;$$

$$x = 3; y = \frac{9}{3} = 3.$$

Javob: $x=3; y=3$.

Bunday tipdagi misollar rosa ko'p biz bir nechtasini ishlanishiga to'xtalidik. Olimpiadaga tayyorlanish jarayoni oldingi olimpiadalarda berilgan masalalar bilan tanishish, undagi amallarni bajarishni o'z ichiga olishi lozim. Olimpiada masalalarining o'ziga xos tomonlari mavjud. Ular nostandart bo'lib, yechimlari ham original fikrlashni, topag'onlikni talab qiladi.

Hozirga kelib o'quvchilarni olimpiada misollarini o'rgatish qat'iy zaruriyati paydo bo'ldi. Bu o'quvchilarga oddiy munosabatlarda yuqori murakkab mantiqiy munosabatlarga o'tish va tegishli xulosalar chiqarish, tahlil qilish va baholash natijalarini olishga imkon beradi.

Xulosa tarzida shuni aytishimiz mumkinki o'quvchilarni fan olimpiadalari va "Bilimlar bellashuvi" musobaqalariga tayyorlash usullari juda ko'p, bunda asosiy e'tibor beriladigan jarayon o'quvchilar bilan individual ishlab, o'quvchilarni yangi manbalar bilan ta'minlashdir. Bu sohada internet manbalardan foydalanishni maqsadga muvofiq deb bilaman.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Matematikadan mavzular bo'yicha testlar to'plami" (1996-2004yy).
2. "Olimpiada materiallaridan" masalalar.
3. "Matematika olimpiadalari masalalari" Sh.A.Ayupov, B.B.Rixsiyev va O.Sh. Qo'chqorov.

MATEMATIKA TO'GARAGINING TASHKILIY MASALALARI

Abdullayev Anvar Omonovich,
Termiz davlat universiteti 1-bosqich magistrant
e:abdullayevanvar777@gmail.com

Annotatsiya: ushbu maqolada matematika to'garagida matematika fanidan o'quvchilarga mavzuni to'liq yetkazish, o'tilgan mavzularni mustahkamlash, mashg'ulot mohiyatini yoritib berish jarayonida o'quvchilarda zukkolik, topqirlik, tezkorlik va nafosat fazilatlarini tarbiyalab boorish, matematik topshiriqlarni bajarish orqali o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: fan, mental matematika, mashg'ulot, tajriba, seksiya, natija, masala, arifmetika.

Аннотация: В данной статье в кружке математики учащиеся будут знакомиться с предметом математики в полном объеме, закреплять пройденные темы, развивать качества интеллекта, находчивости, ловкости и деликатности в процессе охвата сути предмета. урок, для выполнения математических задач развитие навыков логического мышления учащихся.

Ключевые слова: наука, ментальная математика, обучение, эксперимент, секция, результат, задача, арифметика.

Matematikadan to'garak mashg'ulotlarini tashkil etish diyilganda o'quvchilarning matematik bilimlarini kengaytirish, chiqurlashtirish maqsadida tashkil qilinadigan darsdan tashqari, qatnashish ixtiyoriy bo'lgan mashg'ulotlarni, ya'ni matematika dasturining o'rganish majburiy bo'lgan qismiga kiritilmagan nazariy materiallarni, amaliy ishlarni o'rganish va dastur materialini yana ham chuqurroq o'rganish maqsadida o'tkaziladigan mashg'ulotlarni tushunamiz.

O'quvchilarning fanga qiziqishi, avvalo dars jarayonining tashkil etilishiga bog'liq. Shu bilan birga, yaxshi tashkil qilingan sinfdan tashqari tadbirlar orqali ham o'quvchilarning matematikaga qiziqishlarini ancha orttirish mumkin.

Adabiyotlarda V-VI, VII-IX, X-XI sinflarni birgalikda matematika to'garaklarini o'tkazish bo'yicha tavsiyalar berilgan. Tajribamizga ko'ra, matematika to'garaklarini alohida sinflarda tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Matematika to'garakni tashkil qilish va o'tkazish muddatlarini har haftada bir marta (sinfiga qarab 1-2 soatdan) o'tkazish o'quvchilarning matematikadan bilim darajasining o'sishiga yordam beradi. Matematikadan to'garaklarni nomini to'garak mavzusidan kelib chiqib tanlansa o'quvchilarda to'garakga bo'lan qiziqish paydo bo'ladi va to'garakga qatnashuvchi o'quvchilar soni ko'payadi.

Matematika to'garagi mashg'ulotlarini sentabr oyining boshidanoq jonlantirib yuborish va may oyining oxirigacha davom qildirish yaxshi natija beradi. Har qaysi matematika to'garagida qatnashadigan o'quvchilar soni 15-20 dan oshmasligi kerak, ko'p a'zosi bo'lgan matematika to'garagi bilan ishlash, bir tomondan, o'qituvchiga qiyinlik tug'diradi, ikkinchi tomondan esa o'quvchilar to'garakda aktiv ishtirok qila olmaydilar. Agarda to'garak a'zolari soni ko'payib ketsa, ularni seksiyalarga yo'lish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Seksiyalarni o'rganiladigan materialning mazmuniga qarab tashkil qilish yaxshi natija berishi mumkin. Masalan, Matematika tarixi, mental arifmetika, qiziqarli matematika, masalalar yechish, oliy matematika elementlarini o'rganish va shunga o'xshash seksiyalarni tashkil etish mumkin. Hozirgi kunda hududiy Oliy ta'lim muassalari professor-o'qituvchilari bilan hamkorlikda matematikadan to'garaklar tashkil etilsa o'quvchilarning matematikadan bilim samaradorligi o'sadi.

To'garak ishini boshlashdan oldin o'qituvchi kamida 3-4 mashg'ulotga yetadigan material tayyorlab, uni planlashtirishi va to'garakni tashkil qilishga tayyorgarlik ko'rish kerak bo'ladi. Yetarli tayyorgarliksiz boshlangan to'garakning dastlabki mashg'ulotlariga ko'p o'quvchi qatnashib, keyingi mashg'ulotlarida juda kam o'quvchi qoladi, chunki ko'pchilik o'quvchilar matematika to'garagining maqsad va vazifalarini oldin bilmasdan keladilar. Bunday bo'lmasligi uchun to'garakni boshlashga katta tayyorgarlik ko'rish kerak bo'ladi. Buning uchun to'garak mashg'ulotini boshlashdan oldin to'garakning maqsad, vazifalarini darsda va boshqa vaqtlarda tushuntirish, ayrim o'quvchilarga yakka-yakka tarzda vazifalar berish bilan matematikaga qiziqqan o'quvchilarni to'plab, matematika

to'garaklarini boshlash uchun zamin yaratiladi. To'garak ishini boshlashdan oldin bir necha dars davomida mavzuga bog'liq ravishda turli xil misol, masala, matematik sofezm va fokslar berilib, ularni yechish, xatosini topish kabi vazifalar topshiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Перельман Я. И. Живая математика, Наука, М. , 1973 год.
2. Выгодский М. Я. Арифметика и алгебра в древнем мире. Наука. М. , 1967 год.
3. Гарднер М. Математические новеллы. Перевод с англ. М. , 1974 год.
4. Мавашев Д. А. Математикадан тўгарак машғулоти. Ўқитувчи. Т. 1972 год.
5. Вопросы преподавания математики в школе. Классные и факультативные занятия, Куйбышев, 1971 год.

БУХОРО АМИРЛИГИДА БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМ ВА УНИНГ МУАММОЛАРИ

Райимқулов Акмал

ГулДУ Тарих йўналиши, магистратура 1-босқич талабаси

Аннотация. XIX аср охири ва XX асрнинг бошларида Бухоро амирлигида сиёсий тузум давридаги бошлан амал қилган анъанавий таълим муассасалари савод чиқариш ўчоги сифатидагина эмас, балки суд тизими, масжид, мадрасалар учун кадрлар тайёрлаш маскани сифатида, диний-ахлоқий қадриятларни шакллантириш, жамиятни маънавий қиёфасини белгилашда ҳам муҳим аҳамият касб этган. Ўз даврининг илгор фикрли маърифатпарвар кишилари томонидан англаб етилган ва кун тартибига уларни ислоҳ қилиш вазифалари муҳим восита бўлиб ҳисобланаётган тушунчалар баён этилган.

Калим сўзлар: Ўрта Осиё, Бухоро амирлиги, мактаб, мактабхона, мадраса, масжид, вақф, домла, устоя устоз, муаллим, отинойи, отинбиби, бибиҳалифа, бибиотин, элтибиби, араб тили, форс тили.

XIX аср охири ва XX асрнинг бошларида Бухоро амирлигида сиёсий тузум монархия тартибига асосланган бўлиб, манғитлар сулоласи вакиллари томонидан бошқарилар эди. Россия империясининг мамлакатга 1866-1868 йиллардаги ҳарбий юришларидан сўнг амирликнинг империя қўшинлари томонидан босиб олиниши натижасида тузилган 1868 йилдаги Россия-Бухоро сулҳ битимига кўра, мамлакат сиёсий мустақиллик ва ҳудудий яхлитликдан маҳрум этилиб, Жиззах, Каттакўргон, Ўратепа, Самарқанд ҳудудларини Туркистон генерал-губернаторлиги тасарруфига ўтишига асос бўлди, Бухоро амирлиги ўз сиёсий мустақиллигини йўқотиб, вассал мамлакатга айланиб қолди.

Сиёсий ҳуқуқсизлик, ташқи алоқалар чекланиши натижасида кучайган шароитида мамлакатда нафақат ижтимоий соҳада, балки маданий ҳаётда ҳам турғунлик, давр талабларидан ортда қолиш тенденциялари намоён бўла бошлаган эди. Хусусан, таълим тизимида бу ҳолат яққол кўзга ташланар эди. Мамлакатда анъанавий таълим тизими амалда бўлиб, Бухоро амирлигида ва хусусан, Ўрта Осиёда фаолият кўрсатган бошланғич мактабларда таълим олган, сўнгра мадрасаларда таҳсил олиб дунёни лол қолдирган буюк зотлар Форобий, Ибн Сино, Беруний, Махмуд Хоразмий, Имом Бухорий, Махмуд Замахшарий, Улуғбек, Али Қушчи, Имом Термизий, Имом Марғинонийлар каби кўплаб йирик олим мутафаккирларни илгарилари етказиб берган илм маскунлари бу даврда анча эскирган, давр талабларидан ортда қолган эди.

Бошланғич анъанавий мактаб мусулмон болалари учун умумий маълумот берадиган хат-савод чиқариш масканлари бўлиб, араб имлосида савод олиш, ёзиш ва ўқиш кўникмаларини шакллантириш¹⁷, ҳисоблаш қоида ва кўникмаларини ҳосил қилиш табиат ва жамият, атроф-муҳит, ислом дини ҳақида билим тушунчалар бериш, одоб-ахлоқ меъёрларига амал қилишни ўргатишдан иборат эди.

Бухородаги биринчи анъанавий мактаб 714 йили Кутайба ибн Муслим томонидан

¹⁷ ЎзР МДА, 47-фонд, 1-рўйхат, 333-иш, 7-варак.

Бухоро аркида, зардуштийлар эҳроми ўрнида бунёд этилган¹⁸. “Мактаб” сўзи арабча “катаба” — ёзмак феълидан ясалган бўлиб, ёзишга ўргатиладиган жой¹⁹ дейилса, бошқаларида “мактаб” термини мирзалар мактаби маъносини билдирган. 1896 йилда Санкт-Петербургда нашр қилинган энциклопедияда: “Мактаб-мусулмонларнинг масжидлар қошидаги хат-савод чикариш ва диний удумларни ўзлаштириш даргоҳи”²⁰ дея таъриф берилган. Бундай анъанавий таълим тизими Ўрта Осиё ерлари Араб халифалиги томонидан босиб олингандан кейин (VIII асрда) зардуштийларнинг “дабиристон”лари ўрнида шаклланиши маълум.

Ўрта Осиёда анъанавий таълим икки босқич: куйи — бошланғич мактаб ва юкори — мадраса босқичидан иборат эди²¹. Ушбу тизим мактаблари давлат томонидан тўлиқ маблағ билан таъминланмаган²², улар доимий равишда хусусий шахслар маблағи ва вақф мулклари ҳисобига яшаб келган²³.

Шариат қоидаларига мувофиқ, мактаб, мадраса, масжидларга вақф қилинган мулклардан биноларни таъмирлашга, мадраса талабалари, мактаб мударриси ва боишча хизматчиларни таъминлашга ва давлат солиқларини тулашга сарфланган²⁴.

Ўрта Осиёнинг барча шаҳар, қишлоқ ва овулларида мактабхоналар мавжуд бўлган. Мактаблар кўпинча бир синф хонасидан иборат бўлганлиги учун ҳам уларни мактабхона деб аташган. Мусулмон қоидаларидан келиб чиққан ҳолда ўғил ва қиз болалар алоҳида-алоҳида мактабхоналарда ўқитилган. Ўғил болалар мактабхоналарининг аксарияти масжидлар, мадрасалар, қорихоналар қошида ёки хусусий мактабдорлар хонадонларида, қиз болалар мактабхоналари эса отин аёллар уйларида ёки бадавлат кишиларнинг мактаб ёшидаги қизлари учун уларнинг уйларида ташкил этилган.

Мактабларда ўғил болаларни ўқитган киши “домла, устоя устоз, муаллим” деб аталган. Қизларни ўқитган аёлларни эса “отинойи” ёки “отинбиби” (Тошкентда) “бибихалифа” ёки “бибиотин” (Бухорода), “элтибиби” (Хоразмда) деб аташган. Шунинг эътиборига олиш лозимки, ҳозирги Қорақалпоғистон ҳудудидаги мактабхоналарда ўша даврда ҳам ўғил ва қиз болалар биргаликда бир муаллим томонидан ўқитилаверган.

Мактаблар куп ҳолларда айрим бадавлат шахсларнинг хайр- эҳсонлари эвазига, баъзан эса масжидларга тушган даромад эвазига қурилган. Масалан, Мир Мансурнинг қизи Нозикой етти хонали уй ва болохонадан иборат бўлган ҳовлисини мактаб ўқувчилари фойдасига диний таълим олишларига ёрдам сифатида вақф қилдирган.

Бухоро амирлигидаги мактабхоналар фаолиятини Абдурауф Фитрат шундай таърифлайди: “Мактаб шундай жойдирки, бир муаллими бор, уни мактабдор дейдилар, болалар у ерда етти йилдан то ўн йилгача зарурий хат-саводларини чикаргунга қадар қоладилар, ундин кейин хоҳишларига қараб, мадрасага бориб, дарс ўқий бошлайдилар”.

XIX асрнинг ўрталарида Бухорода бўлган Н.Ханиковнинг қайд этишича, бошланғич мактаблар ёки мактабхоналар Бухоро шаҳрида ва бошқа шаҳарларда, шунингдек, қишлоқларда жуда кўп эди. Архив маълумотларига қараганда Бухоро шаҳрининг ҳар бир кўчасида ўзининг мактабхонаси бўлган. Мактабхоналар асосан мусулмонларнинг хайр- эҳсонлари ёки амирнинг буйруғига мувофиқ кўчада яшовчиларнинг умумий маблағи эвазига ҳам ташкил этилган²⁵.

Шариатга кўра, илм ўрганиш учун мурожаат қилган кишига рад жавоби бериш оғир гуноҳ ҳисобланган, ўқишга келган ҳар бир боланинг қайси ижтимоий тоифадан бўлиши ва ўқиш учун қанча ҳақ тўлашидан қатъий назар, ўқитувчилар зиммасига уларни ҳар қандай эътирозсиз ўқитиш вазифаси юклатилган. Чунки ҳар бир мусулмоннинг билим олиши ҳам

¹⁸ Солижанова Г.Ф. Туркистонда ўқитиш-маърифатчилик ўчоқлари уларнинг ижтимоий аҳамияти (XIX аср охири - XX аср бошлари). Тарих фан. номз. дисс. ... — Тошкент, 1998. — Б. 31.

¹⁹ Долимов У. Эски мактаб // Тафаккур. — Тошкент, 2010. — №1. — Б. 66-73.

²⁰ ЎзР МДА, 47-фонд, 1-рўйхат, 333-иш, 6-варақ.

²¹ ЎзР МДА, 1010-фонд, 1-рўйхат, 333-иш, 12-варақ.

²² ЎзР МДА, 1010-фонд, 1-рўйхат, 333-иш, 23-варақ.

²³

²⁴ Алимов И. Ўзбекистонда вақф мулкларининг тугатилиши (1917-1929 йиллар). — Тошкент: Фан, 2009. — Б. 57.

²⁵ Ханыков Н.В. Описание Бухарского ханства. - СПб. 1843. - С.210.

қарз, ҳам фарз бўлганлиги ҳали ҳам ўз аҳамиятини йўқотмаган эди.

1910 йилда Бухорода 350 га яқин анъанавий (бошланғич мактаблар фаолият кўрсатган²⁶. Бошланғич мактабларда ўқувчиларнинг сони 10 нафардан 50-60 нафаргача бўлган. Ўғил болалар мактабхонасида ўртача 30-40 нафар бола ўқиган²⁷, бўлса овул мактабларида ўқувчилар сони 10 нафардан ошмаган. Қизлар ўқийдиган мактабхоналардаги ўқувчилар сони ўғил болаларга нисбатан 25-30 фоизни ташкил этган²⁸.

Мактаблар идора қилиниши ва таъминоти жиҳатидан умумий ва хусусийга бўлинган. Уларнинг асосий фарқи – мактаб биносининг ким томонидан қурилиши ва таъминланишида эди.

Хусусий мактаблар алоҳида шахслар, яъни мансабдор, давлатманд кишилар томонидан қурилган бўлса, умумий мактаблар жамоатчилик томонидан қурилган. Мактаблар саховатли кишилар томонидан қилинган хайр-эҳсонлар, ўқувчиларнинг ўз ота-оналари ҳисобидан таъминланган.

Мактабхонада ўқишга қабул қилиш ёши Бухорода 5 ёшдан 12 ёшгача бўлган даврни ташкил этган. Садриддин Айний ўзи яшаган уч юз хонадонлик қишлоғида тўрт яшардан ўн икки яшаргача бўлган болалар мактабнинг шогирдлари ҳисобланганлиги ҳақида маълумот беради²⁹. Анъанавий бошланғич мактабларда ўқувчи беш йилдан кам ўқимаган. Ёз ойлари ва рамазон ойида ўқувчилар таътилга чиқшган. Мактабхонада таҳсил оладиганлар ўқишининг давомийлиги бир қатор омилларга, яъни домланинг маҳорати, ўқувчининг зеҳни ҳамда оиладаги муҳитига боғлиқ бўлган.

Қиз болалар учун ўқиш 7 ёшдан бошланиб, 13 ёшгача, айрим ҳолларда 10-11 ёшгача давом этган. Одатда қиз болаларга уйда таълим бериш тажрибаси кенг тарқалган. Умуман олганда, аёлларнинг мактабда ўқиши қийин кечган, фақат бой хонадонларнинг қизларигина ўқиб саводини чиқара олган, қишлоқларда ўқиган қизлар жуда камчиликни ташкил этган.

Мактабхоналарда олиб борилган ўқиш муддати 4 йилдан 10 йилгача давом этган. XIX асрнинг ўрталарида Бухоро амирлигидаги мактабларда ўртача ўқиш муддати ўртача 7 йил деб кўрсатилган. Абдурауф Фитрат ҳам мактаблардаги ўқиш муддатини 7 йилдан 10 йилгача деб кўрсатган³⁰.

Мактабхоналарда таълим жараёнининг ташкил этилиши бир хил бўлмаган. Анъанавий бошланғич мактабларда дарс жадвал қатъий дастур ва муайян ўқув курси бўлмаган. Таълим бериш синф-дарс тизимида бўлмасдан, бир домладан сабоқ олувчиларнинг барчаси бир хонада ўқишган.

Асрлар давомида фаолият юритиб келган мактабларда фойдаланилган кўп дарсликлар 8-9 аср олдин ёзилган эди.

Барча мактабларда шарқ ва мусулмон педагогикасининг ёрқин манбаи бўлган Саъдийнинг “Ғулистон” ва “Бўстон” асари кенг ўқитилгани ҳам маълум. Кейинги босқичда мактабхоналарда Хожа Ҳофиз Шерозийнинг “Девон”ига ўтилган.

Бухорода мактаб ўқувчилари форс-тожик ва ўзбек тилида сўзлашишлари назарда тутилиб, уларга араб тилини форс тили орқали ўргатувчи дарсликлар, шунингдек, араб тили билан бирга форс тили грамматикасини ўргатувчи дарсликлар ҳам бўлган³¹.

Мактабларда бадий адабиётга, айниқса, шеърятга алоҳида эътибор берилиши талабаларнинг ички дунёсини бойитиб, уларни ижодий фикрлашга ўргатган ва эстетик дид эгаси қилиб тарбиялаган. Бошланғич мактабларда юқорида қайд этилган бадий-адабий намуналар, дарсликлар сони ёки ўрганиш тартиби турлича бўлса-да, асосий учта китоб, яъни

²⁶ Ниёзий Ражабзода. Ибтидоий мактабларимизнинг тартибсизлиги ёхуд тараққийнинг йули // Ойина, 1914. № 38.

²⁷ Наливкин В. Школа у туземцев Средней Азии // Туркестанские ведомости, 1898. — 8 августа.

²⁸ Солижонova Г. Мактабхона // Ўзбекистон Миллим Энциклопедияси. V жилд Тошкент: Давлат илмий нашриёти. 2003. - Б. 412-413.

²⁹ Айний С. Эски мактаб // Асарлар VIII томлик. - Тошкент: Бадий адабиёт, 1965. IV том. - Б. 140.

³⁰ Фитрат А. Мунозара // Шарқ юлдузи, - Тошкент, 1997. - № 1. - Б.121.

³¹ Бухоро Давлат меъморий-бадий музей-қўриқхонаси қўлёзма фонди. 25563/11 инвентар.

“Ҳафтияк”, “Чаҳор китоб” ва “Сабот ул-оҷизин” албатта ўқитилган³².

Амирликдаги таълим тизимида тарбия масалалари жуда муҳим аҳамият касб этган ва диний эътиқодни мустаҳкамлашга, иймон ва ахлоқий покликка эътибор қаратилган. Хуллас, бошланғич мактаб ўқиш ва ёзиш, ҳисоб-китоб қоидалари қаторида ўқувчининг маънавий қиёфасини ислом таълимоти доирасида шакллантириш вазифасини ҳам бажарган.

Хулоса қилиб айтганда, XIX аср охири ва XX асрниш дастлабки йилларида Бухоро амирлигида фаолият кўрсатган бошланғич мактаблар ўз иш тартиби, ташкил этилиши ва молиявий хўжалик таъминоти жиҳатидан ўтган асрлар анъанаси ва даражасини сақлаб қолган эди. Мактаблар халқнинг саводини чиқариш, араб имлосида ўқиб ёзишни, арифметик ҳисобни ўзлаштиришга ўргатувчи маскан сифатида бу даврда ҳам ўз аҳамиятини йўқотмади.

Мактабларнинг ўқув дастури бошланғич диний таълим, ислом асослари, диний ибодат, ахлоқий тарбияга йўналтирилган, атроф-муҳит, жамият ҳақида ҳам тушунчалар берган. Аммо, мактабхоналардаги таълим усули, уларнинг моддий-молиявий таъминоти, ўқиш муддатлари, санитария-гигиена шароитлари талабга жавоб бермаслиги, уларнинг кўпчилиги хайрия ҳисобидан ёки хусусий ва жамоат маблағлари асосида иш юритиши ва давлат томонидан таъминланмаганлиги, ўқув дастурида дунёвий билимларга эътиборсизлик, ўқитувчиларнинг билими етарли эмаслиги уларни замон талабларига ҳамоҳанг бўлишига имкон бермади.

THE ROLE AND IMPORTANCE OF ENGLISH IN DIFFERENT AREAS

Kudrat Ortikov, Umida Maksadbekova, Mushtariy Kakhkhorova

Sirdarya regional representative of agency for promoting foreign language learning under the cabinet of ministers of the Republic of Uzbekistan

Abstract: *This article highlights the role and importance of English as a global language as the most world's communications is done in English. It also reveals how English is being widely used in scientific research, business and education.*

Keyword: *education, communication, language, sphere, occupation, science, technology*

Present day industrialization is developing enough fast not only in developed countries, but also in developing countries, that this aspect comprises almost all spheres of professional life. So, today no business is possible without knowing foreign language and IT. This is especially true about automated manufacturing of products and robotics. But in this case, we mean here English.

With the ever-growing levels of interconnectivity and globalization around the world, the significance of immediate and appropriate modes of communication has been increasing very fast in our modern world. It is an undeniable fact that there is a need for a common language to communicate with the present growing commerce, IT sphere, logistics and trade between companies from all over the world. With the development of informatization as well as globalization, it is evident that most specialists all over the world are communicating with the people of other regions in only one internationally recognized language, that is, English. So, English is the language that is almost used between an agent and an international company. Present day English is convenience and the first world language in the world in international trade, diplomacy and mass entertainment, international telecommunications and scientific publications as well as publishing newspapers and other books.

Moreover, most of the students who go to foreign countries to pursue their higher studies should know this language as almost all the books of science, engineering, information technology, medicine, tourism, and business and so on are written only in English. Almost all the courses are taught in English in foreign countries. Additionally, present day English has become an essential tool for those who wish to work in a foreign country or in any multi-national company. It is also the language mostly used on the internet and in the electronic media and press. English is the only language where 85% of the scientific journals are published in that language.

English in field of Education

Today we have to accept the fact that English plays a huge role in the field of education all over the world. It has become a compulsion to learn English as most of the books of higher education are

³² Билялов Г.М. Из истории культуры и просвещения в Хорезме. — Ургенч, 1957. — С.39.

written in English. English has been widely used by the students as well as the teachers and researchers around the world. Another word, today English is the main medium which is used in the various fields of education and it is the only language where the information is stored in the form of books and journals in both printed and electronic forms. As there have been rapid changes in the field of educational system in the world, including Uzbekistan, the students can make use of the resources available all around the world just by accessing the internet.

Besides, the learners can learn the subjects independently and develop self-learning potential. Nowadays, more and more Uzbek students, perhaps students of other countries would prefer to study in a foreign country in order to get better employment opportunities around the world and English will be a nice opportunity for them. So, the learners of English as a foreign language are encouraged to learn English in order to promote their learning abilities in the fields of science and technology, IT, engineering, medicine, law, business, tourism, and so on. Even today, we can be evidence though English is not an official language in Uzbekistan, but despite of it, the syllabi in science and engineering is going on to be written in English because most of the literature in these areas around the world is available only in English and Russian.

To increase the role of foreign languages and betterment of their learning, in May 19, 2021 Uzbek government established a new Agency known as Language Promotion Agency under the Cabinet of Ministers. So, today the main intention of Language Promotion Agency under the Cabinet of Ministers is implementation qualitative English materials and their usage not only in higher educational institutions and universities, but also in schools and kindergartens. So, English present day is a major factor that significant for the learners and the teachers wherever they are located in Uzbekistan or somewhere else, most of the students, teachers and research scholars realized without English they can't enhance their qualification as well as knowledge. So, there is also a possibility for them to improve their language skills and also with the learning knowledge of other (needed) subjects. Therefore, the importance of English in the field education is of immense use as most of the books are published in English and the research that is done is education is also in English.

English in field of Science and Technology

It is no secret English is the language widely used in the field of science and technology. This language has also been adopted as the de facto as a universal language and more convenient language in field of science and technology. As a result, scientists all around the world can make use of the available scientific literature and communicate with the scientists of the other regions wherever they are in the world. So, present day the working knowledge of English has become a minimum requirement in a number of professions and occupations such as a research, medicine, and computer and so on.

Conclusion

In this paper, the importance of English as a global language has been shown in some details, but its role wider because English is the only language that is internationally spoken and accepted language in the world. First of all, the importance of English in the field of education has been discussed in detail. Then, the importance of English in the field of science and technology has been thoroughly discussed. It's necessary to underline English is also actively using in sphere of entertainment, press and media, travel and tourism and IT – Global Internet usage.

References

1. (2006). "Chapter 9: English worldwide". In Denison, David; Hogg, Richard M. A History of the English language. Cambridge University Press. pp. 420– 439. ISBN 978-0-511-16893-2.
2. (2010). Evolving English: one language, many voices: an illustrated history of the (2018). English language. London: British Library. Cambridge: Cambridge University Press.
3. Hwang, Kumju. (2005). Science Communication: An International, interdisciplinary Social Science Journal. The Inferior Science and the Dominant Use of English inn Knowledge Production: A Case Study of Korean Science and technology. 26(4): 390-427.

MANZARALI DARAXTLAR VA ULARNING SHAHAR EKOLOGIYASIDAGI O'RNINI

Xudoyberdiev Norbek Erkin o'g'li
O'zbekiston Milliy universiteti magistratura talabasi

Tabiatni muhofaza qilish bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan biriga aylandi. Fan-texnika taraqqiyoti, turli demografik jarayonlar, global iqlim o'zgarishi kabi bir qator ekologik muammolar bugun jahon hamjamiyatini asosli ravishda tashvishga solmoqda.

Bu borada mamlakatimizda ham keng ko'lamdagi islohotlar amalga oshirilib, yerosti va yer usti boyliklari, o'simlik va hayvonot dunyosi Konstitutsiyamizning alohida bandi, shuningdek bir qator tegishli qonunlar bilan davlat muhofazasiga olinib, ulardan oqilona foydalanish, asrab-avaylab kelgusi avlodlarga ham yetkazish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Mavjud daraxtzorlarning kamayib borishi hamda iqlim o'zgarishi oqibatlariga qarshi kurashish, odamlarni ixtiyoriy ravishda ommaviy birlashtirish orqali qulay atrof-muhitni yaratish, O'zbekistonda daraxtlarni saqlash, tiklash hamda ko'paytirish muammolariga jamoatchilikning e'tiborini qaratish bugungi kunning dolzarb masalasidir. O'lkamizda noyob turdagi daraxtlarning turlarini ko'paytirish iqlimni mutadillashtirish bilan birga turizm sohasini rivojlanishiga ham sabab bo'ladi.

Daraxtlar hayotimizning bir qismi. Ular bizni kislorod, yemish, uylar, issiqlik va qurilish materiallari bilan ta'minlaydi. Yer yuzida barcha tirik o'simliklarning to'rtidan bir qismini o'z ichiga olgan holda taxminan 100 mingga yaqin ko'rinishdagi daraxt turlari mavjud. Dunyo bo'ylab milliardlab daraxtlarning ichida boshqalarga mutlaqo o'xshamas namayondalari ham bor. Ularning orasida non, sut, sovun va hatto kolbasa daraxtlari ham bor.

Shunday noyob manzarali daraxtlarni O'zbekiston iqlim sharoitiga moslarini topish hamda ularni o'zimizda ekish ko'paytirish. Tabiatimizni rang-barang qilish bilan birga shaharlarimizni manzarasini ham chiroyli qilib ochib beradi.

Mutaxassislar fikricha, shahar markazlarida bog'lar, xiyobonlar, yo'llar, daryo va ko'llar, uylar hamda bo'sh sanoat zonalarini ham qurilishi lozim. Yani, shaharlarda binolar joylashgan hududlardan kam bo'lmagan miqdorda yashillik, parklar, bog'lar, sayilgohlar bo'lishi shart. Aks holda ekologik balans yo'qoladi.

Bugun shaharlarda yashillik yo'qolib borayotgani haqida ko'p gapirilmoqda. Chindan katta shaharlarimizga qarasangiz, asosan, binolar va asfaltni ko'rasiz.

Ilgari tabiat va shahar bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan hamda istirohat bog'lari shaharlarda sun'iy ravishda yaratilgan tabiat makoni edi. Endi shaharsozlik tendensiyasi o'zgarib, arxitektorlar unda ekologik asoslar yaratish ham muhim ekanini ta'kidlashmoqda. Ya'ni istirohat bog'lari va ularni tabiiy infratuzilma sifatida bog'laydigan yashil yo'laklar (xiyobonlar, daryolar, kanallarni) yaratish shaharsozlikning muhim bo'lagiga aylanmoqda. Bunday sharoitda istirohat bog'lari yagona tabiiy tarmoq yaratishi va yashil yo'laklar ular orasidagi ekologik aloqani ta'minlashi kerak.

Istirohat bog'larida daryolar, kanallar va tepaliklardan foydalanib, turli xil landshaftlarni yaratish mumkin. Bunda holatni ozgina o'zgartirish yetarli bo'ladi va ular yangicha ko'rinishga ega bo'ladi. Hatto qishda ham istirohat bog'lari rang-barang bo'lishi mumkin: oq, yashil rang, qora tanalar, kulrang va qizg'ish novdalar. Shahardagi salqin istirohat bog'laridagi daraxtlar soni oz bo'lishi mumkin, ammo yirik va sershox daraxtlarning bo'lishi yetarli bo'ladi.

Issiq va mo'tadil bog'larda o'stiriladigan ekzotik daraxtlarning ko'p turlari mavjud. Ba'zilar juda yaxshi tanilgan, chunki ular o'zbekiston bozorida uzoq vaqtdan beri bor, ammo boshqalar orasida unchalik mashhur bo'lmaganlar uchraydi.

Shunday daraxtlardan biri bu katalpa daraxti hisoblanadi. Katalpa (lot. Catalpa) — kattakondoshlar oilasiga mansub subtropik o'simliklar turkumi. Aksariyat vakillar bargli daraxtlar va butalar gullaydi. Tabiiy yashash joyi - Uzoq Sharq, Shimoliy va Janubiy Amerika. G'ayrioddiy ko'rinish tufayli katalpa parklar, bog'lar va uy hududlarini bezash uchun ishlatiladi. Barglari, gullari, qobig'i dorivor xususiyatlarga ega. Bu ekzotik daraxtlar ko'pincha "baxtli", "makaron", "fil" deb ham ataladi.

Tabiatda jami 30 ga yaqin katalpa turlari mavjud. Tropik kelib chiqishiga qaramay, ular yaxshi moslashuvchan xususiyatlarga ega, ba'zilar sovuqqa chidamli.

Yuqori dekorativ va moslashuvchan fazilatlarini tufayli katapalar ko'chalarni obodonlashtirish, to'siqlar va bog' ansambllarini yaratish uchun juda mos keladi. Katta zich barglar juda ko'p kislorod chiqaradi, changni

ushlab turadi. Gullaydigan daraxtlar juda go'zal, ular guruh va bitta ekishda yaxshi ko'rinadi, ular har qanday landshaftni bezashlari mumkin. Katalpalar ignabargli butalar, yasemin, do'lana, xolli bilan bir joyda yaxshi o'sadi.

Katalpa - yorug'likni yaxshi ko'radigan daraxt. U kuchli shamollardan himoyalangan joylarda ekilgan bo'lishi kerak - daraxtning nozik katta barglari ulardan aziyat chekishi mumkin. Deyarli barcha turlar namlikni yaxshi ko'radilar, ammo ba'zilar qurg'oqchilikka chidamli. Joy tanlashda tuproq ozgina kislotali yoki neytral bo'lishiga e'tibor qaratish lozim, bo'sh, yorug'likni afzal ko'radi.

Katalpa ham urug'lar, ham qalamchadan ko'paytirilishi mumkin. Gullari oq, pushti yoki fil suyagi rangida bo'lib, o'lchami 30 sm gacha, gulbarglarning ichki qismida to'q qizil nuqta bor. Mevalar uzun, osilgan, birinchi sovuqning boshlanishi bilan jigarrang rangga aylanadi.

Xilma-xillik juda dekorativ, namlikni yaxshi ko'radi, haddan tashqari issiqlikka, qurg'oqchilikka toqat qilmaydi, tuproq tarkibiga talabchan. Bo'shashgan to'yimli qumloqlarni afzal ko'radi.

O'zbekiston sharoitiga moslashuvchan bo'lib, ekologik jihatdan sho'rlikni oladi.

Bunday turdagi ekzotik tipdagi daraxtlarni dam olish maskanlari va kungilocharbog'larda ekish shahar ko'rkini ochish bilan birga shahar havosini tozalaydi. Daraxtlar umuman o'simliklar shahar va tumanlar iqlimiga ta'sir etib, havosini tozalagan holda kislorod bilan boyitib turadi.

Chunki o'simliklar dunyosi sayyoramizdagi hayotning birlamchi manbai. Uning kundalik hayotida ahamiyati katta. Daraxtla insonlarning kundalik hayotida ham mavqei katta. Ular yer yuzasida suv oqimiga, bug'lanishga, tuproqda nam saqlashga, atmosferaning quyi qismidagi havo oqimiga, shamolning kuchi va yo'nalishiga ta'sir etadi.

BOSHLANG'ICH TA'LIM VA BOSHLANG'ICH TEXNOLOGIYA DARSLARIDA XORIJ TA'LIM TIZIMIDAN FOYDALANISH

Musurmankulov Qilichbek O'rolovich, Boboqulova Gulnora

Guliston davlat universiteti o'qituvchisi

Sardoba tumani 5-umumta'lim maktabi o'qituvchisi

Anotatsiya.*Maqolada texnologiya darslarida xorijiy ta'lim tizimi; Janubiy Koreya ta'lim tizimi haqida so'z yuritilgan.*

Islohotlarimizdan ko'zlangan maqsad va Prezidentimiz siyosatining bosh omillaridan biri teran fikrlovchi, o'z mustaqil dunyoqarashiga ega bo'lgan iqtidorli yoshlarni qo'llab quvvatlash va tarbiyalashdir. Shuning uchun zamonaviy talablar asosida ta'lim mazmunini boyitish, rivojlangan Evropa davlatlari (Germaniya, Angliya, Fransiya, Kanada), Osiyo mamlakatlari (Yaponiya, Janubiy Koreya) va Amerika Qo'shma Shtatlari kabi davlatlarning o'quv, o'quv - uslubiy, ilmiy - tadqiqot jarayonlari, modulli ta'lim tizimi mohiyati, Evropa yagona ta'lim muhiti (Bolonya jarayoni), modulli - kredit tizimi mohiyati, ESTS kreditlari, uning asosiy tamoyillari va xususiyatlari haqidagi pedagogik kadrlarining kasbiy kompetentlilik darajasini raqobatbardosh ta'lim tizimi doirasida shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi Psixologik adabiyotlar tahlilidan bilamizki, 7 yoshgacha inson bilimlarni 70% ni, qolgan 30% ni butun qolgan umri davomida o'zlashtirar ekan. Mazkur teoriyaga yapon xalqi jiddiy e'tibor qaratgan bo'lib, ularda maktabgacha tarbiya odatda oiladan boshlanadi. Milliy mintalitetimiz nuqtai nazar doirasida solishtirganimizda, yapon ayollari uchun onalik birinchi o'rinda turadi.

Yaponlar bolaning erta voyaga yetishi tarafdoridirlar. Ular bolalarning yosh xususiyatlariga qarab tarbiyaning barcha jihatlariga urg'u beradi. Masalan, 1 yoshda – o'ziga ishonch hissini uyg'otish, 2 yoshda – amaliy san'at qo'l mehnatini ko'rsatish, 3 yoshda – burch hissini tarbiyalash, 4 yoshda – yaxshilik va yovuzlikni farqlashga o'rgatish. Yapon tajribasidan kelib chiqib aytish mumkinki, 5 yoshda – liderlik xislatlarini tarbiyalash, mustaqillikka, reja tuzish va ularni bajarishga o'rgatish, bolalarda qiziqishlariga doir yo'nalishlarni belgilab olish uchun, eng muhimi o'zgalar oldida maqsadlarini ifoda qilishga o'rganishlari uchun katta e'tibor berilgan. O'rta maktabda xanlar doimiy emas, ular yangi sharoitlarga tezroq ko'nikish uchun har 5 oyda o'zgartirib turiladi. Yaponiya bog'chalariga 3-5 yoshdagi bolalar qabul qilinadi. Bolalar bog'chalarining maqsadi bolalarning aqliy va jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish, mustaqillik va ichki tartib ko'nikmalarini tarbiyalash, jamiyat hodisalariga to'g'ri munosabatda bo'la olishni o'rgatishdan iborat. Shuningdek, matematik savodxonlik, og'zaki nutq, so'zlarni to'g'ri qo'llashni o'rgatishga ham katta e'tibor beriladi. Ertaklar,

kitoblar, musiqa, sport o'yinlari, rassomlik kabi shaxsning ijodiy xususiyatlariga qiziqish uyg'otiladi. Yaponiyada maktabga 6 yoshdan boriladi.

Boshlang'ich maktabga 6 yoshdagi yapon bolalarning 99 % qatnaydi. 99 % yapon boshlang'ich maktablari davlat tasarrufida, 1 % - xususiy. O'quv rejasiga yapon tili, gumanitar fanlar, arifmetika kabilar kiradi. Maktablarda o'qitish dasturi o'zgaruvchan, lekin Ta'lim vazirligi tasdiqlagan standartlarga asoslanadi. Boshlang'ich ta'limni moliyalashtirish, o'qituvchilar bilan ta'minlash, maktab dasturlarini yaratish mahalliy hokimiyat zimmasida. Boshlang'ich ta'limda bolalar davlat hisobidagi 1945 ta kandji ieroglifdan 1006 tasini yod olishi kerak. Boshlang'ich ta'lim "syogakko" quyidagi vazifalarni hal qiladi: Janubiy Koreya Respublikasi ko'plab tadqiqotchilarning diqqatini o'ziga tortmoqda, sababi bu davlat postindustrial sivilizatsiya yutuqlarini egallagan Osiyo – Tinch okeani regionining noyob davlatlaridan biridir.

Koreyaliklar bajarilishi shart bo'lgan asosiy vazifa - o'z an'anaviy madaniyatini saqlash, siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni o'z madaniy-siyosiy identivlik, Sharqning an'anaviy qadriyatlari va markazlari bilan bog'lashga intilish deb hisoblaydilar. Bu davlatning ta'lim tizimi YUNISEF ekspertlari xulosasiga ko'ra sanoati rivojlangan davlatlar ichida "eng samaralisi" deb tan olingan. Ko'pchilikning yagona fikricha, Janubiy Koreyaning iqtisodiyoti va texnikadagi yutuqlari "inson resursiga investitsiyani to'g'ri tikkanligida" deb ta'kidlashadi. Ko'p rivojlanayotgan davlatlarda ta'lim bugungi kunda jamiyatning faqat sarf-harajatlar sohasi emas, balki asosiy ishlab chiqaruvchi kuchiga aylandi. Ya'ni, ta'lim raqobatbardosh, jiddiy moliyaviy mablag'larni olib keluvchi soha bo'lishi kerakligi isbotlandi. Ta'limning deyarli 1-bosqichiyoq davlat va iqtisodiyotning rivojlanishiga qaratilgan bo'lishi kerak. Faqat bilim olish uchungina emas, balki olingan bilimlarni amaliyotda samarali qo'llash uchun o'qish zarur. Koreya o'qituvchilarining fikricha 3 yoshgacha bog'chaga borgan bolalarning fanlarni qabul qilishi, uydan to'g'ri kelgan bolalarning qabul qilishidan yaxshiroq. Yasli bog'chaga qatnab kelgan bolalar faolroq, qiziquvchan, o'zlashtirish darajasi yuqori bo'ladi.

Darhaqiqat, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev aytganlaridek, bolalar tarbiyasi jarayoniga o'z ishini puxta biladigan, malakali va har bir bolaga individual yondasha oladigan pedagog kadrlarni jalb qilgan holda, ularni go'dakligidan ongi va tafakkurini to'g'ri shakllantirib bormasak, kelajakda yuksak saviya, bilim va ma'naviyatga ega bo'lgan barkamol avlodni tarbiyalash qiyin bo'ladi

Koreyada davlat tasarrufidagi boshlang'ich maktablardan tashqari qator xususiy maktablar ham mavjud. Bu maktablarning o'quv dasturlari davlat maktablari o'quv dasturlariga birmuncha mos keladi, lekin o'qitish yuqori darajada amalga oshiriladi. Masalan, kam sonli o'quvchilarga ko'p o'qituvchilarning jalb etilishi, qo'shimcha fanlarning kiritilishi, umuman ta'limning yuqori standartlarga egaligi va h.k. Shu bois ko'pchilik ota-onalar o'z farzandlarini xususiy maktabga berishga intiladilar. Lekin bunday maktablarda o'qish narxining balandligi ota-onalarni o'ylantirib qo'yadi. Boshlang'ich maktabni bitirgan o'quvchilar keyingi bosqichlarga imtixonsiz o'tadilar. Kanadaliklarning eng muhim yutuqlaridan biri - bu ularning ta'lim tizimidir. Ilg'or universitet va kollejlardagi ta'lim sifati juda yuqori va Kanada diplomlari butun dunyoda tan olinadi.

Xalqaro reytingda Kanada ta'limi AQSHdan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Maqsadi: Davlat ta'limi standartlari asosida shakllantirib, bilim ko'nikma va malakalarni hamda shaxsiy fazilatlar tizimini o'z ichiga oladi. Bu yaxlitlik tizim bo'lib, o'qitishning maqsadi, o'quv fani maqsadi, mavzuning o'quv maqsadi, mavzuning tayanch tushunchalari o'quv maqsadidan shakllanadi.

EKOLOGIK TURIZMNING RESPUBLIKAMIZ IJTIMOIIY IQTISODIIY HAYOTIDAGI O'RNI: SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA

M.M.Badayev

O'zbekiston Milliy universiteti magistratura talabasi.

badayevmusurmon@gmail.com

Annotatsiya: *Surxondaryo viloyatining ekoturizm saloxiyati xamda ekoturistik zonalar to'g'risida malumotlar berilgan. Surxondaryo viloyatida ekoturizmni shakllantirish asosida tabiatni*

muhofaza qilish takomillashtirish va samaradorligini oshirish yo'llari va ekoturistik imkoniyatlardan foydalanish masalalari yoritilgan.

Turizm-hozirgi kunda jahon mamlakatlari iqtisodiyotini yuksaltiruvchi va qisqa vaqt ichida eng tez rivojlanayotgan asosiy serdaromad sohalardan biriga aylandi. Shu bois dunyo hamjamiyati davlatlari mavjud turistik infrastrukturani yanada takomillashtirishga va jahon standartlariga mos ravishda tashkil qilishga harakat qilishmoqda. Qadimiy karvon yo'li markazlaridan birida joylashgan, ham tarixiy yodgorliklar, ham tabiiy yodgorliklari bisyor, xalqaro turizm tashkilotlari tomonidan "Ochiq osmon ostidagi muzey" deya e'tirof etilgan diyorimizda ham sayyohlik tarmoqlarini yanada ravnaq toptirish maqsadida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Respublikamizni 2017-2021 yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida mintaqalarni kompleks rivojlantirish va turizmni asosiy o'sish omili sifatida qayd etildi. Turizm mintaqalarni kompleks rivojlantirishda va asosiy o'sish nuqtasi sifatida muhim ahamiyatli. Turizmning barcha yo'nalishlarini jadal rivojlantirish maqsadida Prezidentimizning 2019-yilning 5-yanvardagi farmoniga muvofiq 2019-2025 yillarda O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish Konsepsiyasi tasdiqlandi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yilning 24-yanvardagi Oliy Majlisga qilgan Murojatnomasida "Turizmni iqtisodiyotning strategik tarmog'iga aylantirish biz uchun ustuvor vazifa bo'lib qolishi va hukumat oldidagi eng muhim vazifalardan biri- joriy yilda yurtimizga keladigan turistlar sonini 7,5 millionga yetkazishdan iborat ekanligi va qator nufuzli xorijiy ommaviy axborot vositalari 2020-yilda O'zbekistonni sayohatga albatta borish tavsiya etilgan mamlakatlar qatoriga kiritilganligidir.

Katta salohiyatga ega bo'lgan ziyorat va tibbiyot turizmini ham jadal rivojlantirish zarur. Yurtimizda 8 ming 200 dan ziyod madaniy me'ros obyekti mavjud bo'lib, turizm marshrutlariga ularning atigi 500 tasi kiritilgan". 2022–2026 yillarga muljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'grisida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonida "O'zbekiston buylab sayoxat qiling" dasturi doirasida mahalliy sayyohlar sonini 12 mln nafardan oshirish hamda respublikaga tashrif buyuradigan xorijiy turistlar sonini 9 mln nafarga yetkazish rejalashtirilgan. Mazkur yo'nalishning tarkibiy qismi ekologik turizmni rivojlantirish mamlakatimiz tabiiy xilma-xilligi va boy rekreatsiya resurslari salohiyatidan samarali foydalanish, tabiiy va madaniy me'rosni asrab-avaylash, ulardan oqilona foydalanish va muhofaza qilish, mahalliy aholini ish bilan ta'minlash va farovonligini oshirishga salmoqli hissa qo'shishni ko'zda tutadi

Tadqiqot obyekti Surxondaryo viloyatining tabiiy yodgorliklari, muhofaza etiladigan tabiiy hududlari va tabiat komplekslari, fauna va florasi, madaniy-tarixiy obyektlari yoritilgan..

Bugungi kunda Surxondaryo viloyatida xam ekoturizm salohiyati yildan yilga rivojlanib bormoqda. Surxondaryo viloyatida ekoturistik zonalar xam ko'payib turistlar etiborini tortmoqda. Xususan

"Sangardak dam olish maskani" (sangardak sharsharasi) – sharsharadan o'ynoqlab tushayotgan suv jozibasiga qishin-yozin ko'rk bag'ishlab turuvchi sunbula o'tlari xech kimni befarq qoldirmaydi.

"Termiz agro fish eksport" eksport baliq etishtirish va qayta ishlash agrofirmasi – zamonaviy xorij texnologiyasi asosida baliq parvarishlash va qayta ishlash yo'lga qo'yilgan. Bundan tashqari mijozlar baliq ovlab estetik zavq olishlari mumkin.

"Janubiy surxon suv ombori" Surxondaryo viloyatining qoq markazida joylashgan janubiy surxon suv ombori manzarasi va uning tevarak atrofi maftunkorligi bilan kishini diqqat etiborini tortadi. Suv omborida ko'pgina baliq turlari urchitiladi va ovlanadi.

"Marvarid dam olish maskani" Termiz tumanida joylashgan dam olish maskanida 40 o'rinli zamonaviy ko'rinishdagi 3 qavatli bino oilaviy dam oluvchilar uchun kottejlar 120 o'rinli restaran 100 kishilik 3D kenoteatr oshmarkazi xamda maxsus kabobxonalar barbekyular barpo etildi.

"Surxon davlat qo'riqxonasi" Qo'riqxona o'simlik va xayvanot dunyosiga juda boy. Umumiy er maydoni 23 ming 802 gektar bo'lib shundan 12 ming 239 gektardan ziyodi yashil boylik bilan burkangan. Dengiz satxidan 850 metrdan 3137 metrgacha balandlikdagi xududda 900 dan ortiq turdagi o'simliklarni uchratish mumkin.



“Surxon” davlat qo‘riqxonasi tabiati

Surxondaryo viloyatida turizm va ekoturizmni rivojlantirishda barcha imkoniyatlar yetarli, obyektiv shart-sharoitlar mavjud. Boy tarixiy me‘rosi, an‘analari, o‘ziga xos tabiati, xilma-xil landshaft ko‘rinishlari ya‘ni turistik resurslarga boyligi buning tasdig‘idir. Shunday ekan, viloyatimizda ushbu sohadagi imkoniyatlardan yanada keng foydalanish iqtisodiyotni rivojlantirishda, tabiatni va tabiiy landshaftlarni asrab qolishda, madaniy saviyasi va ekologik dunyoqarashining o‘sishi hamda turmush sifatining yaxshilanishida, aholini ish bilan bandligini ta‘minlashda muhim o‘rin tutadi. Tabiiy jihatdan to‘liq imkoniyatlarga ega bo‘lgan Surxondaryo viloyatida ekoturizm salohiyatidan samarali foydalanish, mavjud resurslardan oqilona foydalangan holda yangi turmarshrutlar ishlab chiqish hamda uni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish turizm sohasidagi eng dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni.
2. “Turizm to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. 2019-yil 18-iyul 45 modda
3. O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi 2020-yil 26 Yanvar
4. Mirzaev M.A. Alieva M.T. Turizm asoslari. O‘quv qo‘llanma. Toshkent, 2011 yil
5. Xayitboyev R., Matyaqubov U. Ekologik turizm. Uslubiy qo‘llanma. – Samarqand, 2010. 60-b
6. Uzoqov N. Turizmni rivojlantirishda xorij tajribasidan foydalanish. «O‘zbekistonda turizm infratuzilmasini takomillashtirishda xorijiy tajribani qo‘llash» Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari, 2015 y. 25 sentabr.

ҚАШҚАДАРЁ ВИЛОЯТИНИНГ ЭКОТУРИСТИК ИМКОНИАТЛАРИ ВА УНИНГ ИСТИҚБОЛЛАРИ

Д.Ш.Ёдгорова, М.М.Бадаев

*Мирзо Улугбек номидаги Ўзбекистон Миллий Университети доценти
Мирзо Улугбек номидаги Ўзбекистон Миллий Университети магистранти*

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 13 августдаги «Ўзбекистон Республикасида туризм соҳасини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги фармони қабул қилинди. У Республикамиз иқтисодиётининг стратегик тармоғи сифатида қаралаётган туризмни жадал ривожлантириш учун қулай географик муҳит мавжудлигига қарамасдан ҳозирги кунда туризм инфратузилмасидаги мавжуд муаммоларни ҳал этиш, тақдим этилаётган хизматлар сифатини ошириш ва жаҳон бозорларида миллий туризм маҳсулотларини тарғиб қилишни назарда тутади.

Ўзбекистонда экотуризмнинг ривожланиши унинг маънавият, илм-фан, маданият, маърифат, табиатни муҳофаза қилиш, экотуристларнинг она табиатимизга қизиқишини ошириш, ноёб ўсимликлар ва ҳайвонот дунёсини сақлаш ва муттасил бойитиб бориш муаммоларини ҳал қилиш имкониятларинигина эмас, балки иқтисодий масалаларни маҳаллий аҳолининг турмуш даражасини яхшилаш, уларни иш жойлари билан тўлароқ таъминлаш, ҳорижий саёҳатчиларни ўзига жалб қилувчи дунёга машҳур қадимий шаҳарларимиз, тарихий ёдгорликларимиз асраб авайланишини, Ватанимиз янада гуллаб яшнаб, юртдошларимиз фаровонлигини тобора ошира боришга салмоқли ҳисса қўшиш имкониятларини ҳам кенгайтиради.

2017–2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясида ҳам, «Туризм индустриясини жадал ривожлантириш, иқтисодиётда унинг роли ва улушини ошириш, туристик хизматларни диверсификация қилиш ва сифатини яхшилаш, туризм инфратузилмасини кенгайтириш, ўрта муддатли истиқболда Ўзбекистон Респуб ликасида туризм соҳасини ривожлан тириш концепциясига асосан, аниқ чора-тадбирлар дастурини ишлаб чиқиш режаштирилган»³³. Мазкур йўналишнинг таркибий қисми экологик туризмни ривожлантириш мамлакатимиз табиий хилма-хиллиги ва бой рекреация ресурслари салоҳиятидан самарали фойдаланиш, табиий ва маданий меросни асраб-авайлаш, улардан оқилона фойдаланиш ва муҳофаза қилиш, маҳаллий аҳолини иш билан таъминлаш ва фаровонлигини оширишга салмоқли ҳисса қўшишни кўзда тутади.

Диёримизнинг жаннатмакон ҳудудлари қаторида Қашқадарё вилояти ҳам ўзига хос, ранг-баранг ва бой табиий, тарихий-маданий меросга эга. Вилоятда мавжуд туризм салоҳиятидан табиатни муҳофаза қилиш ва иқтисодий самарадорликка эришиш учун нафақат табиий экотуристлик объектлар ҳамда маданий-тарихий обидалардан тўлақонли фойдаланиш, балки янги туризм қўшма корхоналарини ташкил этиш, мавжуд экотуристлик салоҳиятни модернизация қилиш ва технологик янгилашга йўналтирилаётган хорижий инвестицияларни янада кенг қўламда жалб этишга ҳам жиддий аҳамият қаратилиши зарур.

Қашқадарё вилояти ҳудудида моддий-маданий мерос объектлари жами 1321 та бўлиб, шундан Шаҳрисабз шаҳридаги тарихий объектлар ЮНЕСКОнинг Бутунжаҳон маданий мерос объектлари рўйхатига олинган. Жумладан, ҳисобга олинган тарихий ва маданий мерос объектларининг 1043 та археологик, 208 та меъморий, 27 та диққатга сазовор жой, 43 та монументал санъат ёдгорликлари, 54 та жойлаштириш воситалари (2282 ўрин), хостел 1 та, меҳмон уйлари 41 та, санаториялар 4та, 100 дан ортиқ миллий ва европа таомлари тайёрловчи ресторан ҳамда миллий услубдаги чойхоналар, туристик автотранспорт корхоналари 3 та, гидлар 26та, ахборот марказлари 26 та, СГШ юқ газ шахобчалари) 370 та, 21 та туроператорлик субъектлари фаолият юритмоқда. Шунингдек вилоят ҳудудида 8 та ўрмон хўжалиги, 2 та кўриқхона, экотуристлик аҳамиятга эга бўлган 3 та сув омбори мавжуд.

Жаннатмонанд диёримиз шу даражада гўзал ва бетакрорки, унинг бутун ҳудуди экосайёҳлик манзилларидан иборат, дейиш мумкин. Кейинги пайтда туризмнинг бу турига қизиқиш ва эътибор тобора ошиб борапти. Негаки, экосайёҳлик одамларнинг кайфияти, саломатлигига ижобий таъсир кўрсатибгина қолмай, аҳоли бандлигини таъминлаш, даромадларини ошириш, пировардида мамлакатимиз иқтисодиётини янада ривожлантириш

³³ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида” ги ПФ-4947-сонли Фармони.

имконини ҳам беради.

Бизда асосан баҳорнинг иккинчи ярмидан қисқа муддатли сайр-саёҳатлар мавсуми бошланади. Кўпчилик ҳаво энди илий бошлаб, офтоб танга хуш ёқадиган кунлари яшилликка бурканган яйловлар, қир-адирларни, кунлар исиб кетгач эса иқлими мўътадил тоғ ён бағирларини маъқул кўради. Куз фаслида ҳам тоғларга чиқиб, сокин табиат кўйида ором олаётган, дов-дарахтларнинг оловранг япроқларига боқиб, ҳайратланаётган, ерга тўшалган хазонлар устида оҳиста қадам ташлаб, вақтнинг югуриклиги, ҳаётнинг бебаҳолиги тўғрисида ўйга толган кишиларни кўп учратасиз. Шак-шубҳасиз, қишки экотуризм ривожланадиган пайтлар ҳам келади. Одамлар қалин ва оппоқ қорлар билан зийнатланган тоғу тошлар, дов-дарахтлар кўринишидан завқ оладилар, умуман, қиш саломатлик учун бошқа фасллардан ҳам фойдалироқ эканлигини ҳис қиладилар...

Воҳамизнинг юқори қисми - Ҳисор ва Зарафшон тизма тоғлари этагид, хусусан, Китоб, Шаҳрисабз, Яккабоғ туманлари ҳудудида сайру саёҳатбоп жойлар, сўлим табиат қучоғидаги зиёратгоҳлар жуда кўп. Дам олиш мавсуми бошланиши билан бу масканлар одамлар билан гавжумлашиб кетади. Бу жойларнинг таърифи бутун республикамиз бўйлаб кетганки, ҳатто бошқа вилоятлардан ҳам тез-тез сайёҳлар, дам олувчилар, зиёратчилар келиб туришади. Ҳатто иқлими нисбатан салқин бўлган Самарқанд вилояти аҳли ҳам Тахти Қорача доводидан тушаверишдаги Роҳатбулоқ, Мингчинор, Мингбулоқ каби соя-салқин жойларга келиб, дам олиб кетишни, шифобахш сувидан, мусаффо ҳавосидан баҳраманд бўлишни хуш кўришади.

Бетақрор табиатимиз хориждан келаётган меҳмонларни ҳам ҳайратга солмоқда. Дарҳақиқат, тоғлар ён бағридаги саёҳатбоп масканларимиз ана шундай гўзал ва ҳайратланарли. Бироқ сайёҳлар ва дам олувчиларга хизмат кўрсатиш ҳам гўзал табиатимизга мосми? Сервис хизмати қандай ташкил этилган?

Аввало шуни айтиш керакки, бизда экосайёҳлик манзиллари болалар оромгоҳлари, санаторийлар, расмий ва норасмий дам олиш масканлари, шунингдек, зиёратгоҳлардан иборат. Кейинги йилларда аксарият болалар оромгоҳлари замонавий дизайн асосида, дид билан шундай таъмирланмоқдаки, уларнинг кўриниши, болаларни соғломлаштириш учун яратилаётган шарт-шароитлар ва қулайликлар юксак талабларга ҳам жавоб беради. Бу энг аввало, мамлакатимизда ёшлар камолоти йўлида кўрсатилаётган ғамхўрликнинг бир ифодасидир. Китобдаги "Ёш алангачи", Шаҳрисабздаги "Лочин", Яккабоғдаги "Ниҳол" оромгоҳлари бугун болаларни соғломлаштириш масканлари қандай бўлиши кераклигини кўрсатиб турибди.

Бизда ҳам халқаро андозаларга тўла мос келадиган, дунёдаги энг яхши соғломлаштириш муассасаларидан қолишмайдиган сиҳатгоҳ ва оромгоҳлар ташкил этиш мумкинлиги яқинда капитал реконструкция қилинган "Мингчинор PLAZA" санаторийси мисолида ўз исботини топди. Умуман, довон йўли атрофида бундай санаторий ва оромгоҳлар тармоғини кенгайтириш, экотуризмни ривожлантириш учун катта имкониятлар мавжуд. Экзотик кўриниши, юмшоқ иқлими, мусаффо ҳавоси ва шифобахш булоқ сувлари бу жойни келгусида шуҳрати етти иқлимга кетадиган туризм манзилига айлантириши мумкин.

Истиқболли сайёҳлик дам олиш масканларини замонавий кўринишда ташкил этиш билан бирга реклама, алоқа-коммуникация, қулай транспорт, умуман, хизмат кўрсатиш ва сервис соҳаси билан боғлиқ кенг қамровли тизимни юзага келтиришни талаб этади.



Сайёҳларнинг сайёҳатидан лавҳа

Фойдаланилган адабиётлар:

1.Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 13 августдаги «Ўзбекистон Республикасида туризм соҳасини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги фармони.

2.Тухлиев Н., Абдуллаева Т. Экологический туризм: сущность, тенденции и стратегия развития.- Т.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006.

3.Нигматов А., Шомуратова Н. Экологик туризм-янги фан соҳаси //ж.Экология хабарномаси ,2003. 6-сон. 14 -17-б.

USING MULTIMEDIA IN CLASSROOM TEACHING

Otajonova Shakhnoza Shavkatovna, Yodgorova Dilfuza Shavkatovna
National University of Uzbekistan

Annotation: *The article discusses the use of multimedia technologies in the educational process, allowing to move from a passive to an active way of implementing educational activities, in which the student is the main participant in the learning process.*

Аннотация: *В статье рассматривается использование мультимедийных технологий в учебном процессе, позволяющие перейти от пассивного к активному способу реализации образовательной деятельности, при котором обучающийся является главным участником процесса обучения.*

Аннотация: *Мақолада таълим жараёнида мультимедияли технологиялардан фойдаланиш масалалари кўриб чиқилади, бу эса ўқув жараёнида асосий иштирокчи бўлган таълим фаолиятини амалга оширишнинг пассивдан фаол йўлига ўтишига имкон беради.*

Introduction

The population of student learning English as a foreign language has been steadily increasing from year to year. To succeed in college, these students must develop not only linguistics, but also academic skills. These skills involve using English to acquire and articulate knowledge by reading academic texts, writing acceptable academic prose, conducting and reporting research. To meet the students' academic needs and help them develop strong English language skills, there are a number of ways need to be applied. One of the techniques to improving the students is using multimedia in the process of teaching and learning in the classrooms. Multimedia use in classroom will provide opportunity for interacting with diverse texts that give students a solid background in the tasks and content of mainstream college courses. Furthermore, because educational technology is expected to become an integral part of the curriculum, EFL students must become proficient in accessing and using electronic resources. This article describes the method that could help the students to develop their skills in English through multimedia: print text, film, video, radio, computer, and Internet. As students, they must be dealt with the subject found in resource material; also they are able to choose the resources that best suitable the points they wish to make. However, the courses are not included research skills, making research reports to challenging their English language skills.

Multimedia Classroom

Traditionally classroom situation is teachers stand in front of the students, giving explanations, informing, and instructing. They usually use chalk to write something on the blackboard. These technique needs slightly to be modified regarding with the development of the technology. The using of multimedia in classroom cannot be denied anymore. That will make possible for teachers giving more opportunity to students being happier and more enjoy during the course. Traditional classrooms have different settings from the multimedia classrooms. Students seat in rows and a chalkboard in the front. The teacher is standing in front of the class giving a lecture. Compared with traditional classrooms, multimedia classrooms setting differ greatly from traditional classrooms. Traditional classrooms have the seats in rows and a chalkboard in the front. In the multimedia classrooms, students' seat can be modified according to the situation needed. Inside the classrooms, all the equipment is available and makes the students feel comfortable to study. They sit at wide tables in comfortable chairs and have plenty of room to spread work. Furthermore, they also have the opportunity to move the furniture around for group discussions. A large teaching station is located at the front and to one side of the room. Inside the station cabinet there are controls for the rooms built – in equipment. The use of multimedia described here makes use of print texts, film and Internet to develop and enhance linguistics and knowledge. Through their interactions with multimedia texts on topic of interest, students become increasingly familiar with academic vocabulary and language structures. As they pursue sustained study of one content area through focus discipline research, the students become actively engaged in the process of meaning construction within and across different media. Working though the complex intermingling of meanings, embedded within different texts encourages students to make connections as they build a wider range of schemata, which are then available to help them grasp future texts. Using print, film and Internet as resources for studying

provides students with opportunities to gather information through stimuli that will stimulate their imaginations, engage their interest and introduce them to the raw materials for analysis and interpretation of both language and context. Students develop solid foundation in several subject areas and become “content experts” in one. Thus they greatly increase their overall knowledge base, as well as their English language and critical literacy skills, facilitating their performance in future college courses. Although various studies support the application of multimedia in the classroom, Liu Jones and Hem Street (1998) point out that the design of multimedia is useful when technology is to have any effect on learning. One of the main purposes of software in writing is to facilitate the development of academic writing skills for students through the use of the objects matter for writing assignments. The program is presented as a simulation game to interest and motivation. Students using the program found themselves in the virtual world of education.

The Computer Internet

Computer technology has given us Internet, which has various uses. Dealing with education, Internet presents the students a wide range of collection of English language texts in many discipline departments. Before the general use of computers in colleges and universities to teach writing, students met in a traditional classroom and were taught to write standard essay. Instruction was personified commonly by the teachers standing behind a lectern or by the teacher marking errors on student texts (Blair, 1997). With the rapid proliferation of the personal computer, many institutions of higher education created “computerized writing courses” emphasizing word processing skills and collaborative critiquing; believing that using the technology “democratizes the classroom discussion, allowing students to transcend the limits of the traditional Computer technology has given us Internet, which is an electronic medium in which both print and visual resources are invariably bound. At the click of a mouse, text resources present students with a diverse collection of authentic English language texts dealing with a wide variety of interdisciplinary topics, and at each web page link, students have the advantage of reading print texts with the benefit of immediate visual reinforcement provided by pictures and slide shows, facilitating the collaborative effects of print and visual information processing. Integrating the Internet yields the additional benefit of increased student motivation. Students are eager to begin class and often arrive early at the computer lab, logging on to the Internet and beginning research on their own. They also often stay after class to continue working on the Internet.

Overall, students develop greater confidence in their ability to use English because they need to interact with the Internet entirely through reading and writing. Using the Internet for focus discipline research not only teaches higher order thinking skills, but also promotes critical and social literacy as students encounter a variety of information, synthesizing that information through cooperation and collaboration with their peers. Members of focus discipline groups generally form strong multicultural friendship fostered by their collaborative efforts throughout the semester.

However, the general uses of computers are rarely found in traditional classroom. For instance, students attend the regular classes that were taught to write the standard essay. With the technology use, the students do not only literate the ability to read and write but also to be able to understand music, video, hypertext and networked communications. Whitaker (1995) points out clearly that technology as something to expand human potential rather than substitute for it and which enhances the thought process rather than cripples it.

The Print Text

The Print text used in presenting students with sophisticated reading that contains cognitively demanding language and introduces a wide range of vocabulary.

However, these texts may be difficult to understand. This is suggested to present in printed and visual text. By reading print texts will the benefit of immediate visual provided by pictures or slide show. In writing class of using multimedia, students watch the selected video novel. After watching students are asked questions about the video and assigned essay topics, then divided into brainstorming groups. They discuss and develop the topics in their group. They then make rough draft before presenting in front of other groups. It is obviously that in the multimedia classroom students are engaged to learn how to brainstorm, how to use groups for draft and how to critique other

presentations.

However, to benefit from the Internet, the students have to learn to navigate and then evaluate the information found there. The students must know how to use search engines, web browsers, and met sites evaluate information in terms of its validity and reliability, as well as its relevance to the topic (Carlson, 1995). Therefore to guide the students in determining whether an Internet source is reliable and credible, students should consider the source and time frame, as well as the evidence supporting the information provided. As the students become more comfortable surfing the Internet, they discover it can be used to develop not only content area knowledge but also to improve their language skills. They know how to compose an essay, using information from the sources they have found in the Internet; also they learn how to cite references in a bibliography.

A study conducted by Kasper (1997) illustrate that teaching English using multimedia such as print, film, video, Internet to students encourage them to write a critical analysis on assignments.

Overall, the students' achievement increased significantly. 92 % of the students passed on departmental reading and writing examinations. In addition, their feedback on discussions is very positive. They express confidence in their ability to use English. They attribute this improvement to the multimedia model that the texts teach them English and provide helpful information in other courses and the film and Internet help them make material easier to understand because they see, hear, and read about the topic.

Conclusion

Through the interaction with multimedia, the students become increasingly familiar with academic vocabulary and language structure. Connecting with the Internet will make the benefit of increased student motivation. Students are eager to begin class and often arrive early at the computer lab, logging on the Internet and beginning research on their own. They also often stay after class to continue working on the Internet.

Overall, students develop greater confidence in their ability to use English because they need to interact with the Internet through reading and writing. Using multimedia provides the students to gather information through media that encourages their imaginations, interests. Also it using this technology combined with the sense of teaching will create a successful teaching method.

References

1. Multi-Media Becomes Multi-Image, [http:// www.avsquad.com/page8/page8.html](http://www.avsquad.com/page8/page8.html), retrieved 2010-04-30
2. Vaughan, Stay, 1993, Multimedia: Making It Work (first edition, ISBN 0-07-881869-9), Osborne/McGraw-Hill, Berkeley, pg. 3.
3. Stewart, C and Kowalski, A. 1997, Media: New Ways and Meanings Loretta F and Robert Singer. (1997). "Reading, Language Acquisition, and Film (second edition), JACARANDA, Milton, Queensland, Australia. pp.102.
4. Jennifer Story, from Next Online, 2002.
5. Lynch P., Yale University Web Style Manual, Http://info.med.yale.edu/caim/manual/sites/site_structure.html

ЎҚУВ ЖАРАЁНИНИ САМАРАДОЛИГИНИ ОШИРИШДА ДИДАКТИК ЎЙИНЛАРНИНГ АХАМИЯТИ

Хатамов Н.О.

ГулДу магистранти

Аннотация: Ушбу мақолада таълим самарадорлигини оширишда дидактик ўйинларнинг аҳамияти нечоғлик муҳим эканлиги ўқувчиларга дидактик ўйинларнинг билим олишларидаги ҳаётга боғлаб ўқитилиши кераклиги назарда тутилган.

Калит сўзлар: Дидактика, имитацион модели, компонентлар, теварак-атроф, х, амкорлик, куникма ва малакалар, предмети.

Психологияда бола психикасининг ривожланишида уйин ҳал қилувчи аҳамиятга эга, деб қаралади. Фақат уйиндагина болада шахснинг ҳамма томонлари бирликда ва узаро таъсирда

шаклланади. Уйиндагина бола психикасида ривожланишнинг юкорирок боскичига утиш учун муҳим замин яратади. Дидактик уйин урганилаётган воқеа ва ҳодисаларнинг имитацион модели яратилиши соҳасидаги муҳим фаолиятдир. Уйиннинг бошқа фаолият турларидан муҳим фарқи шундаки, унинг предмети инсон фаолиятидир. Дидактик уйинда фаолиятнинг асосий тури ҳамкорликдаги укув фаолиятидир. Дидактик уйинларнинг бошқа фаолият турларидан фаркланадиган муҳим белгилари унинг таркибий катъийлигидир. Дидактик уйинларнинг таркибий компонентлари куйидагилар:

1. Уйин мантиғи.
2. Уйиннинг ҳаракати.
3. Уйин қоидаси.

Уйин мантиғи асосан унинг сарлавҳасида акс этади.

Уйин ҳаракати жараёнида укувчиларнинг билиш фаоллигини ошириш, укувчиларнинг уз қобилиятини намоён қилиш, уйин максимал даражада эришиш учун уз билими, қуликма ва малакаларини қўллашга имконият яратилади.

Уйин қоидаси уйин жараёнини туғри ташкил этишга ёрдам беради. У укувчилар ҳули, уларнинг узаро муносабатларини тартибга солади.

Дидактик уйинларда маълум бир натижага эришилади. Уйинда маълум бир дидактик мақсад қўйилади ва бу мақсадга эришиш укувчиларда маънавий ва ақлий қонилиш ҳиссини шакллантиради. Дидактик уйинлар укувчи учун укувчиларнинг билимларни узлаштириши ёки узлаштирилган билимларни амалиётга қўллаш қўрсаткичи ҳисобланади.

Дидактик уйинларнинг барча таркибий қонпонетлари узаро боғлиқ бўлиб, улардан бирортасининг бўлмаслиги мумкин эмас.

Ҳалқ педагогикасида шаклланиб қелган болаларни укутиш ва тарбиялашда дидактик уйинлардан қенг қўйдаланиш аҳаналари укувчиларнинг амалий тажрибалари ва олимларнинг ишларида ривожлантирилди.

Чех педагоги Я.А.Коменский уйинни бола фаолиятининг асосий шакли эканлигини таъкидлаб, айнан уйин боланинг табиати ва қизи-қишларига мос қелишини айтган эди¹. Олим уйин боланинг ақлий қобилиятларини ҳар томонлама устириши, унинг тевақал-атроф ҳақидаги тасаввурларини қенгайтириши, нутқини устиришини таъкидлайди. Шунингдек, боланинг тенгдошлари билан биргаликдаги уйини уни тенгдошларига яқинлаштиради. Қуйида дидактик уйин технологиялари амалга ошириладиган уйинларга тухталиб утаимиз.

Ишчанлик уйини дарси — дарс мавзуси бўйича масалаларни ҳал этиш жараёнида укувчиларнинг фаол иштирок этишини таъминлаш орқали янги билимларни узлаштириш машқи.

Ролли уйин дарси — дарс мавзуси бўйича масалаларни урганишда укувчиларга олдиндан маълум ролларни тақсимлаш ва дарс жараёнида шу ролни бажаришларини ташкил этиш асосида билимларни муштаҳкамлаш дарси.

Театрлаштирилган дарс — дарс мавзуси билан боғлиқ сахна қуринишлари ташкил этиш орқали дарс мавзуси бўйича қукур, аниқ маълумотлар бериш дарси.

Компьютер дарси — тегишли укув фани бўйича дарс мавзусига доир компьютер материаллари (мультимедиа, виртуал укув қўрси ва шу қабилар) асосида утиладиган дарс.

Қим ошди савдоси дарси — укув фани айрим бўлимлари бўйича билимларни ҳар бир укувчи қанчалик қўп қилишини намоёиш этиш дарси.

Ярмарка дарси — дарс мавзусини булақлар бўйича олдиндан узлаштирган укувчиларнинг узаро мулоқот асосида синфга қизикарли тушунтириш орқали утиладиган дарс мавзусини узлаштириб, эслаб қолишлари учун қулайлик яратилади.

Бундай дарслар укувчиларга фанлараро боғлиқликни ургатиш орқали уларда олам тузилишининг илмий асосларини тулик идрок этиш, илмий дунёқарашларини шакллантириш, ижодий тафаккурларини ривожлантиришга ҳизмат қилади.

Шуни таъкидлаш лозимки, укувчи дарс жараёнида дидактик уйинлардан қўйдаланар экан. Бунинг учун албатта уйин мазмун-моҳиятидан қелиб қикиб энг зарур қосита-ларни

танлай билиши керак. Чунки зарурий воситалар дидактик уйин самарадорлигини таъминлайди.

Укитувчилар дидактик уйинларни ташкил-лаштиришда улар учун ишлатиладиган хар бир материал билан ишлаш, улардан тегишли дидактик воситаларни тайёрлаш ҳамда хавф-сизликни таъминлаш технологияларини пухта билишлари ва риоя қилишлари лозим. Чунки дидактик воситаларнинг сифати, кузда тутил-ган мақсадларга мослиги, қулайлиги ва улардан туғри фойдаланиш машғулотлар самарадорлигини оширишга ижобий таъсир қурсатади.

Юқорида келтирилган дидактик уйин дарс-ларини ўқитиш жараёнини қўллашда бошланғич синф ўқитувчиларидан юқсак маҳорат ва ташкилотчилик қобилияти талаб қилинади. Шунингдек, ўқитувчи ўйинли ўқитиш техноло-гияларидан фойдаланиб машғулотларни ташкил этганда, қуйидаги асосий вазифаларни қатъий белгилаб олиши лозим.

Дидактик ўйинда бола яхши ҳулки сифат-ларга эга бўлади. Дидактик ўйинлар бир неча босқичга бўлинади. Хар бир босқичда бола-нинг маълум бир имкониятлари намоён бўлади. Тарбиячининг бу босқичлар характе-рини билиши дидактик ўйинларнинг самара-дорлигини аниқлашда катта аҳамиятга эга.

Дидактик ўйинлар ўқувчиларда мустақил фикрлашни тарбиялашнинг энг туғри ва самарали методидир. У маълум бир материаллар ёки шарт-шароитларни талаб этмайди, балки ўқитувчидан ўйинни ташкил этиш соҳасидаги билим ва малакаларни талаб этади. Ўйиннинг маълум бир тизим ва методик асосда ташкил этилиши ўқувчиларда мустақил фикрлаш қобилиятини тарбиялашда муҳим урин тутати. Ўйин машғулотлари таълим жараёнида ўқувчиларнинг эгалланган билим, қўникма ва малакаларига таянади ва шундагина ўқувчилар ўйиннинг самарали ечимларини топа билади-лар, ўзлари ва атрофдагиларга талабчанлик намоён қиладилар.

Ўйиндан таълим шакли сифатида фойдала-ниш ўқитувчидан ўзига ишонч ва ўйинни қўллашда моҳирлик талаб этади.

Хулоса қилиб шуни айтиш мумкинки, ўзлук-сиз таълим жараёнининг барча босқичларида, айниқса, бошланғич таълим жараёни самара-дорлигини оширишда дидактик ўйин дарс-ларидан мақсадли фойдаланиш ўқувчиларнинг ўқишга бўлган қизиқиши, билимларни ўзлаш-тириши, ҳамкорликдаги фаолият динамикаси-нинг ошишида ижобий натижаларга эри-шишни таъминлайди. Таълим жараёнида замонавий педагогик технологиялардан фойдаланиш бугунги кун талаби.

Адабиётлар рўйхати:

1. Олимов К.Т. ва бошқалар. Мутахассислик фанларини ўқитиш методикаси. Ўқув қўлланма. - Т.: «Фан», 2009.
2. Авлиёкулов Н.Х., Мусаева Н.Н. Педагогик технологиялар. - Т.: «Фан ва технология», 2006. -162-б.
3. Рашидов Х. ва бошқалар. «Қасбий педагогика» блокинни ўқитиш методикаси. - Т.: УМКХТТҚМО ва УҚ.ТИ, 2007.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QISH DARSLARIDA BADIY ASARLARNI JANRIY XUSUSIYATLARIGA KO'RA O'RGANISH YO'LLARI

Usmonova Shaxnoza

Sirdaryo viloyat Sirdaryo tuman 27-IDUM ning boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada boshlang'ich sinf darslarida maqollar va ular ustida ishlash yo'llari haqida ma'lumotlar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *O'qish savodxonligi, tahliliy fikrlash, maqol.*

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan har sohadaги islohotlar ulkan iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlariga erishilmoqda va bu holat malakali kadrlar va etuk mutaxassislarга bo'lgan talabni yanada oshirib borishga turtki bo'lmoqda. Bunday talabni bajarishda o'z navbatida yoshlar o'rtasida kitobxonlikni oshirish va darslarga qiziqtirish va o'quvchilarning har tomonlama ta'lim tarbiyaga e'tiborini kuchaytirishning zamonaviy ijtimoiy innovatsiyalar orqali amalga oshirish ehtiyojini

vijudga keltirmoqda.

Boshlang'ich sinflarning o'qish darslarida garchi ilmiy jihatdan bo'lmasa-da, amaliy jihatdan turli janrga mansub asarlar o'qib o'rganiladi. O'qish darsliklariga, asosan, hikoya, she'r, ertak, masal, maqol, doston, rivoyat va topishmoq kabi janrdagi asarlar kiritilgan. Bulardan tashqari, ilmiy-ommabop asarlar ham o'qitiladi.

Turli janrdagi badiiy asarlar qurilishi, uslubi jihatidan o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularning o'quvchilarga ta'siri ham har xil bo'ladi. Tabiiyki, har bir janrga oid asar matni lingvistik jihatdan ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. Masalan, she'riy asarlar matni hikoya matnidani, ertak matni she'r matnidani, ilmiy-ommabop maqola matni masal janriga taaluqli asarlar matnidani tubdan farq qiladi.

Turli janrdagi badiiy asarlardan foydalanish, stilistik jihatidan o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, o'quvchilarga ta'siri ham har xil bo'ladi. Shunga ko'ra, turli janrdagi badiiy asarlarni o'qitishda o'qituvchi unga mos metodlar tanlashi talab etiladi. Endi sizlar bilan maqollarga to'xtilib o'tsak.

Bolalar xalq og'zaki ijodida maqollar yetakchi o'rinda turadi. Xalq yaratgan g'oyat ixcham, chuqur va tugal ma'noli gaplar *maqol deb* yuritiladi. Maqol xalqning, bir necha avlodlarning aql-u farosati hamda turmush tajribasining yakuni, ular donishmandligining mahsulidir. Maqollarda hayotning achchiq-chuchugini tatib ko'rgan, turmushdagi hodisalarga aql ko'zi bilan qaraydigan, sof vijdonli, oliyjanob, mehnatkash kishining biror voqea-hodisadan, biror kishidan yoki biror ishdan chiqargan xulosasi bayon qilinadi. Bu xulosa biror kishi uchun (ko'proq bolalar uchun) yo'l ko'rsatuvchi bo'lib xizmat qilishi mumkin. Maqollar xalqning aql-idroki, ijtimoiy-tarixiy tajribasi, kurashi hamda mehnatining badiiy ifodasi sifatida yaratilib kelinmoqda.

Maqollar chuqur ma'noni ifoda eta bilishi, ixcham, pishiq va puxtaligi bilan xalq og'zaki ijodining boshqa janrlaridan farq qiladi. Ularda mehnatkash xalqning orzu-umidlari, o'zaro munosabatlari, vatanparvarlik, insonparvarlik xislatlari, o'yfikrlari o'ziga xos shaklda aks etgan bo'ladi. Shu sababdan ular bolalarni to'g'ri, mantiqiy fikrlashga, maqsadni qisqa, ixcham va lo'nda bayon etishga o'rgatadi, ularning badiiy didini oshiradi, tarixiy hodisalarning mohiyatini yaxshiroq, chuqurroq payqab olishga yordam beradi. Bundan tashqari, maqollar ona tilining eng nozik badiiy xususiyatlarini bilishga va so'z boyligini ham oshirishga ko'maklashuvchi bir vosita sifatida xizmat qiladi. Kuzatishlarimizdan shunday xulosaga keldikki, deyarli barcha maqollarda, birinchi navbatda, bola tarbiyasi — odob yotar ekan. E'tibor bering: „Avval salom, ba'daz kalom“, „Avval o'yla, keyin so'yla“, „Bola aziz — odobi undan aziz“, „Inson odobi bilan, osmon oftobi bilan“, „Odob bozorda sotilmas“, „Odobning boshi til“, „Otang bolasi bo'lma, odam bolasi bo'l“, „Yaxshi xulq kishining husni“, „Ustozingga tik qarasang, to'zasan, hurmat qilsang, asta-sekin o'zasan“, „To'g'ri o'zar, egri to'zar“. Bunday iboratomuz maqollar ro'yxatini yana davom ettirish mumkin. Bola to'g'riso'z, odobli, aqlli bo'lib kamol topmog'i lozim.

Xalq maqollarida yaxshilik, halollik, to'g'rilik va rostgo'ylik ulug'lanib, yomonlik, yolg'onchilik, qalloblik qoralanadi. Yuqoridagi sharhlardan ko'rinadiki, xalq maqollarini qo'llab, yetti o'lchab bir kesib yashagan inson hech qachon kam bo'lmaydi. Shu tariqa maqol janri takomillashib, bolalarning ong-tushunchalarini rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

1—2-sinflarda maqolni ifodali o'qish va yod olishga ahamiyat beriladi. 1-sinf darsligida bo'lim yuzasidan berilgan savol-topshiriqlarda ham maqollarni o'rganishga katta e'tibor berilgan. Masalan, „Xalq o'giti — baxt kaliti“ bo'limidagi savol-topshiriqlarda „Rostgo'ylik haqidagi maqollardan ayting“, „Odob insonga husn“ bo'limida „Qanoatda — barakat“ maqolining ma'nosini tushuntirib bering“, „Ko'klam — yashnadi olam“ bo'limidan so'ng „Bilim olish haqidagi maqollarni ayting“ kabi vazifalar berilgan. Har bir bo'lim yuzasidan berilgan vazifalarda u yoki bu maqolni o'rganish ko'zda tutilgan.

1—2-sinfda maqolning mazmunini o'rganish va yod olishdan tashqari, uning matnidagi izohtalab so'zlar, birikmalar ustida lug'at ishi o'tkazish, badiiy til vositalari, ko'chma ma'noli, qarama-qarshi ma'no bildiruvchi, maqolda takrorlanib kelayotgan so'zlar ma'nosi yuzasidan ish olib borish talab etiladi.

Vaqt tog'ni yemirar,
Suv toshni kemirar.

Uch kun barvaqt turgan
bir kun yutar.

Yoqut bilan vaqt topilmas,
Vaqt bilan yoqut topilar.

Vaqting ketdi –
naqding ketdi.

2-sinf ona tili o'qish savodxonligi darsligida **“Vaqtning qadri”** bo'limini o'tganda ushbu maqol bilan tanishishadi. Shu tarzda maqol mazmuni ham ochiladi. Maqol tili ustidagi I-sinfda uyushtirilgan ishlar 2-sinfda ham davom ettiriladi.

Maqol ustida ishlash orqali o'quvchilar uning yaratilishi sababini, oddiy gapdan farqini bilib oladilar. 1-sinfda maqollarni to'g'ri o'qish va yod olishga e'tibor ko'proq qaratiladi, 2-sinfda esa o'quvchilardan matn mazmuniga mos maqollar aytishni talab qilish mumkin.

Adabiyotlar

1. K. Qosimova, S. Matchonov “Ona tili o'qitish metodikasi” 2009.
2. Mamasoli Jumaboyev. Bolalar adabiyoti va ifodali o'qish “2017
3. Iroda Azimova. Ona tili o'qish savodxonligi. Darslik. 2-sinf. 2021 yil

BOSHLANG'ICH SINF DARSLARIDA INTERFAOL METODLARNING O'RNI

Boy chayeva Sharifa Saidkulovna

*Sirdaryo VPXQTMOHM Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikalari kafedrasi
katta o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinfda interfaol metodlar va ularning samarasi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: interfaol, metod, ta'lim jarayon.

Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash borasida katta tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda. Interfaol ta'lim metodlari hozirda eng ko'p tarqalgan va barcha turdagi ta'lim muassasalarida keng qo'llanayotgan metodlardan hisoblanadi. Shu bilan birga, interfaol ta'lim metodlarining turlari ko'p bo'lib, ta'lim-tarbiya jarayonining deyarlik hamma vazifalarini amalga oshirish maqsadlari uchun moslari hozirda mavjud. Boshlang'ich sinflarda o'tiladigan ona tili, matematika, o'qish, odobnoma, tabiatshunoslik darslari o'z mohiyati, maqsad va vazifalariga ko'ra ta'lim tizimida alohida o'rin tutadi. Negaki ularning zaminida savodxonlik va axloqiy-ta'limiy tarbiya asoslari turadi. Shuning uchun ham boshlang'ich ta'lim darslariga o'quvchilar qiziqishini oshirishga alohida e'tibor berish lozim. Chunki bolalar boshlang'ich sinflardan o'qish «dars» degan muqaddas so'zdan bezib qolmasliklari lozim. Bugungi kunda o'quvchilarni darsga bo'lgan qiziqishlarini oshirish uchun tajribali o'qituvchilar turli didaktik o'yinlardan foydalanishmoqda.

Interfaol metod – ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi faollikni oshirish orqali ularning o'zaro harakati ta'sir ostida bilimlarni o'zlashtirishni kafolatlash, shaxsiy sifatlarni rivojlanishiga xizmat qiladi. Ushbu usullarni qo'llash dars sifati va samaradorligini oshirishga yordam beradi. Uning asosiy mezonlari – norasmiy bahs – munozaralar o'tkazish, o'quv materialini erkin bayon etish, mustaqil o'qish, o'rganish, seminarlar o'tkazish, o'quvchilarni tashabbus ko'rsatishlariga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi bo'lib ishlash uchun topshiriq, vazifalar berish, yozma ishlar bajarish va boshqalarda iborat.

Interfaol ta'lim o'z xususiyatiga ko'ra didaktik o'yinlar orqali evristik (fikrlash, izlash, topish) suhbat – dars jarayonini loyihalash orqali muammoli vaziyatni hosil qilish va yechish orqali kreativ – ijodkorlik asosida axborot kommunikatsion texnologiyalar yordamida amalga oshirish metodlarini o'z ichiga oladi.

Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning yosh xususiyatlari, savodxonlik darajalari, shaxsiy

tabiatlariga ko'ra didaktik o'yinlar orqali evristik suhbatlar loyihalashtirish asosidagi metodlar keng qo'llanilmoqda. Agar o'qitish jarayonida har bir o'quvchi o'zining o'zlashtirish imkoniyati darajasida topshiriqlar olib ishlaganida u yuqori sifat va samaradorlikni ta'minlagan bo'lar edi. Bunday holatni faqat tabaqalashtirgan ta'lim orqaligina amalga oshirish mumkin. Endi ta'lim jarayonlarini didaktik o'yinlar orqali amalga oshirish haqida fikr yuritamiz:

Interfaol o'yinli metodlar o'quvchi faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan. Ular o'quvchi shaxsidagi ijodiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish va rivojlantirishning amaliy yechimlarini aniqlash va amalga oshirishda katta ahamiyatga ega.

Interfaol o'yinlarning asosiy turlari: intellektual (aqli) va harakatli hamda aralash o'yinlardan iborat. Bular o'quvchilarda aqliy, jismoniy, axloqiy, ma'naviy, ma'rifiy, psixologik, estetik, badiiy, tadbirkorlik, bunyodkorlik, mehnat, kasbiy ko'nikmalarni rivojlanishiga yordam beradi.

Bu metod o'quvchini ichki imkoniyatlarini ishga tushishga, o'ylashga, erkin fikr yuritishga, mulohazaga, ijodkorlikga yetaklaydi. Ayniqsa, unda atrof –muhit, hayotni bilishga qiziqish ortadi, uchragan qiyinchilik, to'siqlarni qanday yengish va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantiradi.

«Kim chaqqon?» o'yini

Bu o'yinda ham barcha o'quvchi qatnashadi. Har bir guruhga oldindan oq qog'ozga narsa va shaxsni nomini, harakatini, belgisini bildirgan so'zlarning so'roqlari yozib qo'yilgan bo'ladi.

1- guruh: «Qanday?»

2- guruh: «Nima qildi?»

3- guruh: «Nima?» so'rog'i yozilgan qog'oz tarqatiladi.

O'quvchilar shu qog'ozga yozadilar. So'zlar to'g'ri va xatosiz yozilgan bo'lishi kerak. Bunda o'quvchilarga yozilgan so'z takror ishlatilmasligi shart. Yozib bo'lgandan so'ng guruh sardori taqdimot qilib beradi.

Bu o'yin ham o'quvchilarni ziyraklikka, topqirlikka, tez fikrlashga o'rgatadi.

«Zinama-zina» o'yini

1-, 2- sinflar uchun mo'ljallangan mazkur o'yin o'quvchlarni sanoqni yaxshi o'rganish, ortib borish tartibini tushinib o'ynashiga yordam beradi. O'quvchilarni uy hayvonlari va yovvoyi hayvonlarni farqlashga o'rgatadi. Bir-birlari bilan do'stona harakat qilishadi. «Zinama-zina» o'yini o'quvchlarni topqirlikka, chaqqonlikka o'rgatadi. Bu o'yinda mevalarni, hayvonlarni nomidagi harf soniga qarab, zinalarga joylashtiriladi. O'yin guruhlarda o'tkaziladi. Uy hayvoni, yovvoyi hayvonlar, mevalar rasmlari stol ustiga qo'yilgan bo'ladi. O'quvchilar shu yerdan olib zinaga joylashtiradilar.

Ta'lim – tarbiya jarayonida asosan o'quvchilarda ta'lim olish motivlarini, ularni turi yo'lanishlardagi qobiliyat va qiziqishlarini oshiradigan, biror kasbga moyilliklarini ko'rsatadigan, interfaollikka asoslangan didaktik o'yinlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Umumiy o'yinlar nazariyasiga ko'ra, mavjud barcha o'yin turlarini tasniflashga ularni funksional, mavzuli, konstruktiv, didaktik, sport va harbiy o'yinlarga ajratiladi.

Bularning bari o'quvchilarga fanlararo bog'liqlikni o'rgatish orqali ularda olam tuzilishini ilmiy asoslarini to'liq idrok etish va ilmiy dunyoqarashlarini shakllantirish, ijodiy tafakkurlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalangan adabiyotlar

1. R.H.Shernazarova."ona tili va adabiyot fanlarida pedagogik texnologiyalar"G. 2013

2.<http://www.sadikov.uz/news/adabiyot-darslarida-zamonaviy-interfaol-uslublardan-foydalanish>

BOSHLANG'ICH SINIF DARSLARIDA INTERFAOL METODLARNING O'RNI

Muxiddinova Adiba Ro'zimatovna

Sirdaryo viloyat Boyovut tuman 33-umumiy o'rta ta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada dars samaradorligini oshirishda interfaol metodlarning o'rni va foydalanishning samarasi haqida fikr yuritilgan

Kalit so'zlar: dars, axborot, texnologiya, jarayon, maqsad, natija, interfaol

Fan va texnika jadal sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan davrda bolalarning aqliy rivojlanish tezligi ham o'sib bormoqda. Natijada ta'limning umumiy darajasi ham oshayotgani shubhasiz. Boshlang'ich ta'lim uchun zarur va ustuvor yo'nalishlardan biri ta'lim mazmunining yangilanishi, darsni ilg'or tajriba va g'oyalarga tayanib, zamonaviylashtirilgan, takomillashtirilgan hamda ilmiy-pedagogik texnologiyalar asosida o'tish zaruriyatini keltirib chiqardi. Chunki dars ta'lim-tarbiya berishning asosiy o'zagidir. O'quvchining o'quv fanlarini chuqur o'rganib borishi davomida uning bilimi mustahkamlanadi, savodxonligi oshib boradi. Ta'limning asosiy bo'g'ini hisoblangan boshlang'ich sinf o'quvchilarini sog'lom avlod qilib voyaga yetkazishda dars va darsdan tashqari mashg'ulotlar muhim vosita hisoblanadi. Dars ta'limning asosiy shakli ekan, o'qituvchi shu jarayon o'z shogirdlarining ongli va faol bo'lishi, jamiyatning vatanparvar, adolatparvar, mehnatsevar va fidoiylar kishilar bo'lib ulg'ayishlari uchun mustahkam zamin tayyorlashi lozim. O'quvchilarni ijodiy ishlashga yo'naltiruvchi metodlar namunalarini ko'rib chiqamiz.

Interfaol darslarni tashkil etish boshlang'ich sinf uchun bilim, ko'nikma, malakani qiziqib o'rganishlari uchun imkoniyat yaratsa, o'qituvchining tajribasi oshib borishida ko'mak beradi. Boshlang'ich sinflarda interfaol darslarni tashkil etish o'z o'rnida juda samarali. Masalan, darsda ko'zlangan maqsadga erishishda, o'quvchilar diqqatini bir joyga jamlashda, ularni darsga qiziqishini oshirish va faollikka undashda katta ahamiyat kasb etadi. O'qituvchi dars jarayonlarida uchraydigan muhim muammolaridan biri bu o'quvchilar diqqatini darsga jalb etish va uni boshqara olishdir. Shunday ekan, o'qituvchi bu muammodan mohirona chiqib ketishi va o'quvchilar e'tiborini darsga qarata olishi uchun doimo samara berib kelgan interfaol darslarni tashkil etish lozim. Interfaol darslarni tashkil etish boshlang'ich sinflar uchun qanday vazifani bajaradi? Interfaol darslarni tashkil etish boshlang'ich sinf o'quvchilari ta'lim-tarbiyasida bir nechta xususiyatlarga ega. Ularga alohida e'tibor qaratamiz. Interfaol darslarni tashkil etishning boshlang'ich sinf o'quvchilarida motiv(qiziqish)hosil qilishdagi o'rni beqiyos. Interfaol metodlar orqali boshlang'ich sinf o'quvchilari hamkorlikda ishlashni o'rganadilar. Misol uchun quyidagi "Charxpalak" metodi bilan tanishsak. O'qish darsligi asosida tayyorlangan ushbu topshiriq o'quvchilarni birlashtirib o'tilgan mavzular yuzasidan bilimlarini mustahkamlab ularni birgalikda ishlashga yo'llaydi. Bunda boshlang'ich sinf o'qish darsligidagi adiblar va ular yozgan she'r va hikoyalari o'rin olgan. O'qituvchi bu metodni mustahkamlash darslarida foydalansa o'quvchilarning bilim saviyasi yanada ortib boradi deb o'ylayman. Adib va matn mavzulari berilgan o'quvchilar qaysi mavzu qaysi adibga tegishli ekanligini topishlari kerak.

Shoir va yozuvchilarni qalamiga mansub asarlarni topinglar	Yaxshi bo'ld	Qodir bilan Sobir	Savollarga javoblar	Odobli bo'lish osonmi?	Bordir kulol amakim.	G'oz – hunaring oz.	Notinch mamlakatlarda	Moychechak	Qish ham chiroqli	Hunarni sev	Yurtim kamoli	Uzumlar oilasi
A. Obidjon												
H. Nazir												
Sobit G'afurov												
Tolib Yo'ldosh												
Obid Rasu												
N. Fozilov												
Tavfiq Fikrat												
Quddus Muhammadiy												
Zahro Hasanova												
Tolib Yo'ldosh												

Interfaol metodlar boshlang'ich sinf o'quvchilarida bilimga ishtiyoq va qiziqishni uyg'otadigan uchqundir. Ular orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarida bilimlarni o'zlashtirish jarayoni qulaylashadi.

Bolaning shaxsi shakllanadi, munosabatga kirishishi o'sib boradi. Interfaol metodlar orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarida inson faoliyatining shakllanishi rivojlanib, mehnatga layoqati va mas'uliyati shakllanib boradi. Ayniqsa, bola shaxsining psixologiyasi shakllanishida yordam beradi.

Interfaol usullarning barchasida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida hamkorlik, o'quvchining ta'lim jarayonidagi faol harakati ko'zda tutiladi. Boshlang'ich sinf darslaridan interfaol usullarining qo'llanishi, kutilgan natijaga erishishning asosiy omili sanaladi. Shunday ekan, har bir darsda interfaol usullardan foydalanish yuqori darajada ijobiy natija bera oladi deb o'ylayman.

Foydalangan adabiyotlar

1. G'afforova T., Nurillaeva Sh., Mirzahakimova Z., O'qish kitobi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 2-sinfi uchun darslik. – T.: O'qituvchi. 2016.

2. Xalqaro tadqiqotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholash (Boshlang'ich sinf o'qituvchilari, metodistlar va soha mutaxassisilari uchun metodik qo'llanma) «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. T. 2019

BOLA TARBIYASIDA OILA, MAKTAB VA MAHALLANING O'RNI

Qulmanova Nasiba Urinbayevna, O'rinboyeva Dilorom

Sirdaryo VXTB ga qarashli 70-maktab internatining boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Sirdaryo VXTB ga qarashli 70-maktab internatining boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada "Oila, mahalla va maktab hamkorligi"ni oshirishda tashkil etilgan tadbirlar va ularning farzand tarbiyasidagi ahamiyati, tarbiyaviy soatlarda intrfaolusullardan foydalanish yo'llari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: oila, mahalla, maktab, tadbir, musobaqa, tarbiya, hamkorlik, tarbiyaviy soatlar

***Tarbiya bizlar uchun yo hayot – yo mamot,
yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir".***

Abdulla Avloniy

Farzand – inson hayotining mazmuni, nasl-nasabini davomchisi, oilaning mustahkam zanjiri hamdir. Aqlli, bilimdon, mehnatsevar, imon-e'tiqodli farzand nafaqat ota-onaning, balki butun jamiyatning eng katta boyligi hisoblanadi. Odatda, farzand oilada ham jismonan ham ma'nan ulg'ayib, shakllanadi. Ularning voyaga yetishi davomida oiladagi ahillik muhim rol o'ynaydi.

Ma'lumki, o'zbek oilasining va oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlarning o'ziga xos milliy xususiyatlari mavjud bo'lib, ota-bobolar va momolardan meros qolgan ma'naviy qadriyatlar, urf-odatlar zahirida tarkib topgan oiladagi ma'naviy tarbiyaning asosiga suyaniladi. Oilada bolalarning ruhan va jismonan sog'lom bo'lib o'sishiga oila muhitining ta'siri kattadir, chunki oilaviy muhit qanday bo'lsa, bolalar xuddi shu muhit ta'sirida ulg'ayadilar. Oila muhiti bolalarga ta'sir ko'rsatishi bilan birgalikda uni atrofidagi hayotga moslaydi. Jamiyatda esa bolalarni ruhan va jismonan sog'lom qilib voyaga yetkazish ota-onaning nafaqat shaxsiy ishi, balki ijtimoiy burchi hamdir. Shunday ekan har bir ota-onaning burch va vazifasiga mas'uliyat bilan yondoshib, oilada har tomonlama sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, uning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligi, farovonligiga erishish bilan bir qatorda, bilimli, aql-zakovatli, uddaburon, zukko, ruhan va ma'nan barkamol insonni voyaga yetkazish, shuningdek, oila an'analari, kasb-kori, shajarasining davomiyligini ta'minlash, farzandni bo'sh vaqtini unumli o'tkazishga erishish, g'iyohvandlik, maishiy nopoklik, axloqsizlik, nosog'lom e'tiqod, aqidaparastlik, xoinlik kabi ba'zi bir illatlarning paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslik va boshqalar kiradi.


Oila, mahalla va maktab hamkorligini yanada chuqur olib borishi uchun menimcha ular birgalikda reja-dastur ishlab chiqishi va shu reja -dastur asosida ish olib borishi lozim. Reja dasturlarda esa turli xil o'quvlar bilan birgalikda tadbirlar ham joy olishi lozim deb o'ylayman.

Hamkorlikda olib borilayotgan ishlar mahalla hududidagi barcha yoshlar va toifadagi fuqarolarni qamrab olishi hamda ularning qiziqish va intilishlariga mos bo'lishi lozim. Hamkorlikolib borilayotgan tadbirlarining mavzulari "Sog'lom avlod uchun", "Ota-onangga rahmat", "Odobinga balli", "Sog' tanda sog'lom aql", "Mehr chashmasi", "Qizlar ibosi", "Bir yigitga qirq, hunar oz", "O'g'lim posbonim", «Hayot-ustoz, xalq-muallim", "O'zbekiston Vatanim manim!", "Milliy burch va

mas'uliyat", "Oila saboqlari", "Oila etikasi", "Oila tinch-mahalla tinch", "Mustaqil hayot bo'sag'asida", "Askarlik -yigitlik o'quv muassasasi", "Oila baxti-Vatan baxti", "Sportchi oila", "Oilamiz ohanglari", "Vatan ostonadan boshlanadi", "Biz kimmiz" kabi tadbirlardan iborat bo'lishi mumkin, yoki bahslar, bellashuvlar, uchrashuvlar va turli sanalarga bag'ishlangan anjuman va tantanalardan iborat bo'lishi mumkin.

Bu kabi tadbir va musobaqalarni har oy davomida yoki ikki oy davomida mahalla, maktab va oila hamkorligida o'tkazilib borilsa menimcha bolalar o'rtasida bo'lyotgan turli xil yomon vaziyatlarni oldini olgan bo'lamiz deb o'ylayman.

Bolaning tarbiyasida maktabda ota-onalar majlislarining ham o'rni beqiyos. Biz ota-onalar majlislarida ular bilan so'rovnomalar tashkil etishimiz mumkin. Bu so'rovnomadagi savollar; sizning farzandingiz nimani yaxshi ko'radi?, siz uni qanday erkalaysiz?, u qanday taomni yoki shirinlikni xush ko'radi?, siz uni nima deb uyg'otasiz va shunga o'xshash savollardan iborat bo'lishi mumkin. Yoki yana maktabda tarbiyavi soatlarda ham shunga oxshash savol javoblarni o'tkazdirsak bo'ladi. Misol uchun quyida berilgan so'zlarni qaysi holatlarda ishlatishimizni ayting. Shunga o'xshash savollarni har darsda mustahkamlash yo'lida berib borishimiz mumkin.



Insonning shakllanishida, hayotda o'z o'rnini topishida, el-yurt ichida izzat-hurmatga sazovor bo'lishida, yuksak axloq-odob qoidalarini singdirishda oilaning o'rni beqiyosligini bir so'z bilan ta'riflash kamlik qiladi. Yoshlarni o'z burchiga sadoqat ruhida tarbiyalashda mas'uliyatlilik, vijdoniylik, fidoyilik kabi fazilatlari har bir hatti-xarakatida namoyon bo'lishi bilan yuksak ma'naviyatliligini ko'rsatadi.

Oila boshqa tarbiyaviy muassasalardan farqli pavidashda odamning butun hayoti davomida uning barcha tomonlariga, qirralariga ta'sir ko'rsatishga qodirdir va odatda ta'sir ko'rsatadi. Oila tarbiya vazifasining bu ulkan miqyosi uning mafkuraviy va psixologik ta'sir ko'rsatiishning chuqur o'ziga xosligi bilan uyg'unlashib ketadi. Bu esa uni oliy darajada ta'sirchan qilibgina qolmay, shu bilan birga shaxsni shakllantirish jarayonining zarur buginiga ham aylantiradi.

Xulosa sifatida Liza Uingeytning quyidagi so'zlarini sizlarga eslatmoqchiman.

–“Farzand – Yaratganning ota-onaga eng yuksak in'omi. Farzand qalbi esa – Allohning ota-ona qo'liga parvarishlash uchun bergan eng katta omonati. Bolangizga vaqt ajrating, ularni Allohga e'tiqodli, odamlarga ishonchi baland qilib tarbiyalang. Ularning hayotdagi eng ishonchli do'stiga aylaning. Keksalikda shulardan boshqa amallarning hech biri ish bermaydi”.

Foydalangan adabiyotlar

1. O.Hasanboyeva, D.Xoliqov va boshqalar. Oila pedagogikasi. Toshkent.2007-yil.
2. <http://www.ziyouz.com/index.php?option.com>

O'QISH SAVODXONLIGI DARAJASINI O'RGANISHDA PIRLS TOPSHIRIQLARIDAN FOYDALANISH

Isaqova Sadiya Qaxxarovna

Sirdaryo viloyat Xovos tuman 26-maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligi darajasini o'rganish bo'yicha PIRLS xalqaro tadqiqot topshiriqlari maqsadi va mazmuni haqidagi umumiy ma'lumotlar tahlil qilingan.

Kalit soʻzlar: Oʻqish savodxonligi, tahliliy fikrlash, PIRLS, IEA, ePIRLS

PIRLS - oʻqish savodxonligi darajasini oʻrganish boʻyicha xalqaro tadqiqot Taʼlim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasi (IEA-(International Association for the Evaluation of Educational Achievement)ning asosiy tadqiqotlaridan biridir. Boston kolleji qoshidagi TIMSS va PIRLS xalqaro oʻquv markazi tomonidan boshqariladigan va 2001-yildan beri har besh yilda bir marta oʻtkaziladigan PIRLS toʻrtinchi sinfda oʻqish savodxonligini baholashning global standarti sifatida tan olingan.

2021-yilda IEAning oʻqib tushunish boʻyicha oʻquvchilar oʻzlashtirish darajasini monitoring qilishning butun dunyo boʻylab "de-facto" standarti sifatida qoʻllanilayotgan Oʻqish savodxonligi darajasini oʻrganish boʻyicha xalqaro tadqiqoti - PIRLS(Progress in International Reading Literacy Study) oʻzining 20 yilligini nishonladi. PIRLS 2021 yigirma yil davomida mantiqiy fikrlab, taqqoslab oʻqib tushunish boʻyicha oʻquvchilarning oʻzlashtirish darajasi haqidagi maʼlumotlarni taqdim etdi. PIRLS 2001-yildan buyon har besh yilda bir marta toʻrtinchi sinf oʻquvchilari ishtirokida oʻtkaziladi. 2016-yildan esa maʼlumot olish uchun oʻqib tushunishning ePIRLS onlayn innovatsion baholash shakli PIRLS tadqiqotining ixtiyoriy tarkibiy qismi sifatida joriy etildi.

PIRLS taʼlim-tarbiya jarayoniga kiritilgan yangi yoki qayta koʻrib chiqilgan taʼlim siyosati, islohatlarining amaliyotda taʼlim samaradorligiga taʼsir darajasini oʻrganish uchun samarali vositadir. PIRLS oʻqish savodxonligini baholash tadqiqoti badiiy matnni oʻqib tushunish, oʻz munosabatini bildirish, maʼlumot olish va olingan maʼlumotdan foydalanish hamda internetdan maʼlumot qidirish kabi asosiy oʻqish maqsadlarini qamrab oluvchi keng qamrovli baholash tizimiga asoslanadi.

Men har bir darsimi PIRLS topshiriqlariga oid savollar bilan boyitishga harakat qilaman. Misol uchun sinfdan tashqari oqish darslarida "Soqov qabila" ertagini oʻtish jarayonida quyidagicha savol va topshiriqlardan foydalanaman.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Ertakdagi qabila qayerda yashar ekan?
 - A) Baland togʻlarda.
 - B) Olis shaharda.
 - C) Togʻli hududdagi qishloqda
 - D) Baland togʻlar bilan oʻralgan kenglikda
2. Qabila aholisi oʻz fikrlarini qanday bayon etishardi?
 - A) Soʻzlashuv orqali
 - B) Imo-ishoralar, koʻz qarashlari bilan
 - C) Gap va soʻzlar orqali
 - D) Faqat koʻz qarashlari orqali
3. Tabib giyohni qayerda uchratdi?
 - A) Togʻ choʻqqisida.
 - B) Togʻ yonbagʻrida.
 - C) Qishloq chekkasida.
 - D) Adirlikda.
4. Tabib tayyorlagan malham qanday taʼsir koʻrsatdi?



5. Tabibning giyoh orqali davolash jarayoni izohlangan ketma-ketlikni toping.
 - A) Hammaga moʻjiza giyohdan tayyorlangan malhamdan beribdi.
 - B) Odatiga koʻra malhamni oʻzida sinab koʻrdi.
 - C) Kampiriga ham malhamdan berdi.
 - D) Baland togʻ yonbagʻridan topgan giyohlaridan malham tayyorladi.
6. Chol-u kampir kimga shukronalar aytisharkan?
 - A) Qabiladoshlariga
 - B) Yaratganga
 - C) Giyohga
 - D) Tabibga

7. Voqeadan xabar topgan qabiladoshlar nima qilishdi?

- A) Tabibning oldiga kelishibdi
- B) Toqqa chiqib o'sha giyohni izlay boshlashibdi
- C) O'zlari malham tayyorlashibdi
- D) Hech narsa qilishmabdi

8. Qabiladoshlarning so'zlashish jarayonlarini tasvirlang.



9. Bir kuni tabib nimaning ustidan chiqib qoldi?

- A) Qabiladoshlarining suhbat qurishayotganini
- B) O'g'lining yaqin o'rtog'i bilan janjallashayotganini
- C) O'g'lining yaqin o'rtog'i bilan suhbatlashayotganini
- D) O'g'lining xursandchiligini

10. Nima uchun tabibning ko'ksiga og'riq kirdi?



1. Ertak yakunida tabibning xayolidan nimalar o'tdi?



Tabib qabiladoshlarini davolab to'g'ri ish qildimi? Siz nima deb o'ylaysiz?



Adabiyotlar:

1. O'quvchilarni xalqaro tadqiqotlarga tayyorlashga mo'ljallangan "Axborotnoma". 3-son. Toshkent: "Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazining matbaa bo'limi", 2021.

2. G'afforova T., Nurullayeva Sh., Mirzahakimova Z. O'qish kitobi (Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 2-sinfi uchun darslik). T.: Sharq, 2018

BOSHLANG'ICH SINFDA MANTIQUIY TOPSHIRIQLAR, ULARNING O'ZIGA XOSLIGI

Ergasheva Nargiza Xudoyberdiyevna

Sirdaryo viloyat Guliston shahar 6-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf darslarida mantiqiy topshiriqlar va ular ustida ishlash yo'llari haqida fikr yuritilgan

Kalit so'zlar: mantiq, fikr tafakkur, mustaqil


Biz mantiqiy fikrlash, mantiq kabi so'zlarni ko'p gapiramiz va tez-tez eshitib qolamiz. Mantiqiy mashqlar bolalarning narsa va atrof-muhit haqidagi bilimlarini tartibga soladi va ularga to'g'ri fikrlash usullarini o'rgatadi. Mantiqiy masalar ustida ishlash asosida o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlari shakllanib boradi. Mantiqiy fikrlashni rivojlanishi asosida bolada mustaqil fikr, mulohazalar paydo bo'ladi. Fikrlash yangi g'oyalar va ular ustida ishlash imkoniyatlarini yaratadi.

Matematika fanidan o'quvchilarning qiziqishini oshirish uchun qo'shimcha mashg'ulotlarning o'rni katta. Qo'shimcha mashg'ulotlarda odatdagi misol va masalardan tashqari qiziqarli va mantiqiy masalalardan foydalanilsa, o'quvchining fikrlash doirasi yanada kengayib, matematik bilimlarini amaliyotda qo'llash ko'nikmasi hosil bo'lar edi. Mantiqqa asoslangan xulosalar chiqarish, matematikaning qiziqarli yo'nalishini belgilaydi. O'quvchining tafakkur doirasi kengayib boradi. Mantiqiy masalalar ustida ishlash imkoniyatlarini egallash borasida bolaning yosh va individual xususiyatlarini inobatga olish muhimdir. Berilgan mantiqiy masala bolaning bilim va qabul qilish darajasida bo'lishi muhimdir. Bolalarga songa oid, miqdorga oid, o'lchov birliklariga oid, geometrik shakllarga doir mantiqiy masalar berilishi darslarda olgan bilimlarini mustahkamlaydi, ularning mustaqil ishlash imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu bilan bir qatorda boshqa fanlardan olgan bilimlari

bilan to'ldirish va bog'liqlikni ta'minlaydi

O'quvchi qanday masala yechishidan qat'iy nazar, albatta, fikrlaydi. Odamning aktiv faoliyati, uning mehnati hamma vaqt masalalarni yechish kaliti bo'ladi. Bola aqliy kuchlarini ishlatib, predmet va hodisalar o'rtasidagi aloqalarni aniqlashga intilib, muayyan ish qiladi. Tevarak olamda minglab masalalar bor.

Bo'sh katakchalarga quyidagi shakllardan shunday joylashtiringki, qator va ustunlarda har bir shakl bir donadan ishtirok etsin.



(?) so'roq belgisi o'rniga quyidagi namunalardan mosini topib belgilang



Har bir bolaga 2 tadan nok berilsa, jami nechta nok beriladi?



Men har bir darslarimni oxirida o'quvchilar bilan mantiqiy savol va topshiriqlardan foydalanishga harakat qilaman. Bu o'quvchilar fikrlash doirasini kengaytirib darsga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshirishga yordam berdi. Bundan qiziqqan o'quvchilarim o'zlari ham shunday masalar bilan darsda qatnashishga harakat qilishadi.

Chap tarafdagi jadvalda berilgan sonlarga qarab, o'ng tarafdagi jadvalni kerakli doira va kvadratlar bilan to'ldiring.

6	0
5	1
4	2
3	3
2	4
1	5
0	6

●	●	●	●	●	●
●	●	●	●	●	■

Xulosa qilib aytganda, yuqorida ta’kidlangan o‘quvchilarni mantiqiy mashqlar bajarish asosida tafakkur doirasini kengaytirish ko‘nikmalarini shakllantirish imkonini beradi. Buni mantiqiy topshiriqlar, ta’limiy o‘yinlar asosida tashkil etish o‘quvchilarning amaliy ishlay olish ko‘nikmalari rivojlantiradi.

Adabiyotlar:

1. Sharipov M, Fayzixo‘jayev D. Mantiq.T.: 2004
2. Kudratova A.I., Fuzailova X., Saidova D., Tugulova M. “Matematika atrofigimizda”

ИННОВАЦИОН МАСОФАВИЙ ТАЪЛИМ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШДА МУЛЬТИМЕДИЯ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИНИНГ ЎРНИ

*Равшанов Хусан Абдуқул ўғли
Педагогика психология 1 курс магистранти*

Бугунги ахборот ва телекоммуникация технололгияси ривожланган асрдава пандемия даврида барча ўрта, махсус ва Олий таълим муассасаларида жаҳон тажрибасидан келиб чиққан ҳолда масофавий таълим тизимини шакллантириш ва такомиллаштириш муҳимдир. Илм-фан ва техниканинг жадал ривожланиши шароитида барча соҳаларда яънииктисодий вабермоқда. Ривожланган мамлкатлар тажрибаси шуни кўрсатмоқдакимамлакатни жадал ривожлантириш стратегиясининг энг муҳим вазифа ва омилларидан бири бу таълим соҳасини янги таълим технологиялари билан таъминлаш ваўқитиш шакллариини интеграциялаш орқали ўқув жараёни самарадорлигини оширишга эришиш ва ривожлантиршдир. [5]Бу ҳар бир давлатнинг энг муҳим вазифаларидан бири ҳисобланадики ҳам назарий ва амалий жиҳатдан исботланмоқда. Ҳеч кимга сир эмаски, жаҳон иқтисодий кризиси ва пандемия авж олган пайтда асосий вазифаларидан бири бу мамалакатни ижтимоий-иқтисодий ривожланиши учун энг муҳим бўлган салоҳиятли мутахассислар билан таъминлаш ва уларни илм-фан, техника ва ахборот технологияларининг сўнги янгиликларини етказиш ватаъминлашдан иборат. Бунинг учун масофавий таълимни (МТ)шаклини ва тизимини яратишда, интернет тизими сифатли бўлиши, унинг моддий базасини юқорида даражада таъминланганлигимуҳим масала ҳисобланади. Ва шундагина ўрта ва Олий ўқув юртларида янги билимларни эгаллаш, сақлаш, қайта ишлаш ва узатиш ҳамда амалий қарорлар қабул қилиш воситасига айлантириш ҳисобига кадрларнинг сифат даражасини тубдан яхшилашнинг имкониятлари тобора кенгайиб боради.

Масофавий таълим бу замонавий ахборот ва телекоммуникация технологияларидан, хусусан қайд қилиб ўтиш жоизки, ўқув жараёнини амалга ошириш усули бўлиб, ўқутувчиларва талабаларнингбевосита амалдаги шахсий иштирокисиз масофадан ўқитишга имкон берадигантаълим мулоқоти ҳисобланиб бунинг бугунги кунда жаҳон тажрибаси кўратмоқда. Назарий ва амалий жиҳатдан бунинг учун технологик саводхонлик талаб қилинадиган жараён бўлиб шу асосда фуқаролар кундузги, масофавий ва сиртки, кечги ва бошқа таълим шаклини танлаш ҳуқуқига эга булишади. [2]

Масофавий таълимнинг муҳим элементи бу интернет технололгияси ҳисобланади. Компютерва мультимедия тармоқлари билан ўқитиш шакли ХХИ аср интерфаол мулоқот қилиш жараёни деб номлашмақсадга мувофиқдир. Чунки ҳозирги пайтда интернет туфайли

бутун дунё буйлаб турли мультимедия манбаларига тўғридан -тўғри кириш имконияти мавжуд. Интернет зарур алоқа востиси ва компьютер технологиялари масофавий ўқитиш мультимедиясини янада қизиқарли ва қулай қилади. Унинг афзаллиги нафақат ўқув жараёнининг мослашувчанлигида, балки янги таълимдаражасининг пайдо бўлишида, шунингдек, ўқитувчилар ва талабаларнинг компьютерда ишлаш кўникмаларини эгаллашда ҳам намоён бўлади.

Масофавий таълим ўқитишнинг ваколатли ёндашувида ёндашувига асосланган бўлиши керак. Одатда, ваколат бу – онлайн билимларни қўллашнинг рефлексив амалиёти эканлиги бугунги кунда тан олинган. Малака, тажриба ва билимқасбий вазифаларни бажаришда уларни янгилаш қобилиятини талаб қилади ва барча қарорлар ва ҳаракатлар учун шахсан жавоб беради. Ваколатли одам қасбий муаммоларни ҳал қилишда мослашувчанлик ва мустақилликни намоён қила олади.

Таъкидлаш жоизки, жамиятнинг ҳозирги эҳтиёжини қондириш механизмини рағбатлантирадиган ва тезкор иқтисодий ўсишгатуртки берадиган таълим тизиминиянада ривожлантириш ва масофавий таълимни тўлиқ жорий этиш, шунингдек мультимедия технологияларидан фойдаланишда учун қўйидаги ҳулосаларга эътибор қаратиш зарур:

-ўрта ва олий ўқув юртлари моддий-техника базасини мустаҳкамлаш , ўқув-услугий адабиётлар ва интернетга уланган замонавий компьютерлар билан таъминланганлик даражасига қатъий эътибор бериш;

- халқаро стандартларга жавоб берадиган таълим дастурларини ишлаб чиқариш ва алмашиш;

- минтақа олий ўқув юртларива илмий марказлар илмий-тадқиқот фаолияти билан яқин алоқаларни ўрнатиш;

- олий қасбий таълим тизимий ўналтирилган ва меҳнат бозори талабларига жавоб берадиган илмий-педагог қадарларнинг малакасини ошириш ва қайта тайёрлашнинг аниқ тизимини ташкил этиш;

Масофавий таълимда кўпроқ турли хил модуллардан фойдаланилади ва модулли усул одатда атрибутхусусиятларини хисобига олган ҳолда тайёр бўлинмалар шаклида ўқув материалларини жойлаш сифатида талкин этилади.

Бизнинг фикримизча, ҳозирги пайтда мамлакатимизда масофавий таълимни юқоридаражада жорий этиш учун қуйидаги чоралар кўрилиши керак: 1) техник жиҳозлар билан тўла таъминлаш; 2) ишлаб чиқарилган дастурий таъминотва ўқитиш усуллари; 3) устувор вазифаларни ечиш ва ҳал қилишда интернетга доимий киришни таъминлаш.

Хулоса қиладиган бўлсак, масофавий таълим концепциясини ишлаб чиқиш муҳим. Масофавий таълимнинг илмий асосларини, унинг инновацион ўқув-услугий тизими ва асосларини такомиллаштириш, бу борада хорижий давлатларнинг илғор тажрибасидан самарали фойдаланиш ва амалда реал жорий қилиш масофавий таълимнинг самарадорлигини ошишига хизмат қилади.

Адабиётлар:

1. Қонуни Ҷумҳурии Тоҷикистон “Дар бораи маориф” аз 26. 07. 2014 с.
2. Леонтьева И. А. Дистанционное обучение как одно из средств повышения качества образования студентов в вузе // [хтпс://сйберленинка. ру/артислe/н/виeвeр](http://cyberleninka.ru/article/n/viewer)(дата обращения: 13. 02. 2020).

КОМПОЗИЦИЯ И СЮЖЕТОСТРОЕНИЕ УЗБЕКСКИХ ВОЛШЕБНЫХ СКАЗОК

Умарова Дилсора

учитель русского языка школы №43 Кизилтупинского района

Аннотация: В статье рассматривается композиция и сюжетостроение узбекских народных волшебных сказок

Ключевые слова: элементы мифологического мышления, джинны, властители мира, джахангир, ковер-самолет, самоубьющая дубинка, волшебный нож или кольцо.

Composition and plot-building of Uzbek fairy tales

Abstract: *The article discusses the composition and plot-building of Uzbek folk fairy tales*

Keywords: *elements of mythological thinking, djinn, rulers of the world, Jahangir, flying carpet, self-beating baton, magic knife or ring.*

Ўзбек эртаклари композицияси ва сюжети

Аннотация: *Ушбу мақолада ўзбек халқ эртаклари композицияси ва сюжети ҳақида сўз боради*

Калим сўзлар: *мифологик тафаккур элементлари, жин, дунё ҳукмдорлари, жаҳонгирлар, учар гилам, ур -тукмок, сеҳрли пичоқ ёки узук.*

Сказка - это один из основных жанров устного народнопоэтического творчества и является наиболее известным для самого широкого круга читателей (детского и взрослого возраста).

Сказками называют разнообразные виды устной художественной прозы (это могут быть нравоучительные и поучительные рассказы о животных (*звери, птицы, рептилии и т.п.*), волшебные сказки, бытовые и авантурные повести, сатирические анекдоты), из этого следуют различия и определенные сложности в определении ее специфических жанровых особенностей. Сказка очень близка следующим видам устной прозы: саге, преданию, легенде, сказу, от которых она отличается тем, что сказочник подает (рассказывает) ее, а слушатели воспринимают рассказ сказочника прежде всего, как поэтический вымысел, как игру фантазии, иллюзорное и приукрашенное отражение действительности не имеющее место в реальной жизни, т.е. является плодом воображения сказочника.

В сказках народов мира много общего, что объясняется сходными культурно-историческими условиями жизни разных народов. Вместе с тем сказки имеют и свой особый, неповторимый национальный характер, отражают уклад жизни того или иного народа, географические условия, труд в этих условиях, бытовые особенности среды, в которой сказки бытуют. Сказочники привносят в исполняемые ими сказки свои индивидуальные черты, поэтому каждая сказка известна обычно во многих вариантах, различных пересказах и обработках.

«Прислушайся к легендам, и ты узнаешь истину», именно такое утверждение бытует на Востоке. Узбекские сказки воплотили в себе все те верования, обычаи и традиции, которых придерживались древние народы этой страны. Передаваясь из уст в уста, сказания обрастали все новыми фактами, отражающими самые заветные мысли, стремления и чувства жителей того времени.

В поэтическом творчестве любого народа можно выделить наиболее характерные группы сказок - это сказки о животных, волшебные, авантурно-новеллистические и бытовые. Каждый тип сказки имеет особую морфологическую структуру.

Сказки - не произведение гениального ума одного человека, а отражение духовного облика всего народа. Именно поэтому они являются своеобразной летописью жизни целых эпох.

На земле нет такого народа, который не складывал бы сказки, их герои и сюжеты часто бывают схожи, несмотря на разницу культур. И начинаются они одинаковой присказкой: «Бор экан, йук экан» - «Было ли, не было». Узбекскую народную сказку населяют могущественные волшебники джинны, властители мира джахангиры, прекрасные мифические девушки пери и храбрые богатыри, подобные легендарному Фархаду. Мужественному джигиту, смело идущему к своей цели, в самый трудный момент помогают таинственные предметы, например, ковер-самолет, самобьющая дубинка, волшебный нож или кольцо. На стороне положительного героя всегда оказываются чудесные помощники: мудрый старик, крылатый огненный конь Тулпар, легендарная птица Семург, на крыльях которой джигит взмывает к небесам или поднимается из-под земли. Эти волшебные герои и чудесные предметы не умаляют роли смелого юноши, а наоборот, подчеркивают его достоинства. Ведь чтобы завладеть сказочными атрибутами или подчинить себе мифических животных, герой проявляет немалую силу, мужество и смекалку. Таким образом, подчеркивается моральное и физическое превосходство человека над самым сильным и коварным волшебством. В

узбекских сказках восхваляются трудолюбие, честность и бесстрашие, которые помогают уверенно победить темные силы: злую старуху Ялмогиз-кампыр, страшного великана дева, коварного дьявола шайтана, дракона аждара. Но узбекские сказки - это не только фантастические повести, но и рассказы о животных, и сатирические истории. В них рассказывается о том, как трудолюбивые звери своим упорством и сплоченностью справляются с кровожадными хищниками, защищая слабых и обездоленных. В то время как сатирические рассказы высмеивают людскую праздность, леность, восхваляя ремесло и знания людей.

Волшебные сказки первоначально были связаны с мифами и имели магическое значение, были своего рода заклинаниями. С течением времени в них сохранились лишь отдельные элементы мифологического мышления. Мораль волшебной сказки определяется представлениями народа о добре и зле, его оптимизмом, народными идеалами, стремлением к счастью. Эти представления воплощаются в образах положительных героев, неизменно выходящих победителями в борьбе против носителей зла и несправедливости.

Волшебные сказки народов отличаются богатой словесной орнаментикой, им свойственны затейливые присказки и концовки, сказочные формулы, многочисленные повторы.

Сказки волшебного типа включают в себя волшебные, приключенческие, героические. В основе таких сказок лежит чудесный мир. Чудесный мир - это предметный, фантастический, неограниченный мир.

Благодаря неограниченной фантастике и чудесному принципу организации материала в сказках с чудесным миром возможного «превращения», поражающие своей скоростью (дети растут не по дням, а по часам, с каждым днем все сильнее или краше становятся).

В основном волшебные сказки древнее других, они несут следы первичного знакомства человека с миром, окружающим его.

Волшебная сказка имеет в своей основе сложную композицию, которая имеет экспозицию, завязку, развитие сюжета, кульминацию и развязку.

В основе сюжета волшебной сказки находится повествование о преодолении потери или недостачи, при помощи чудесных средств, или волшебных помощников. В экспозиции сказки присутствуют стабильно 2 поколения - старшее (отцы, родители и т.д.) и младшее - сыновья с братьями или сёстрами. Также в экспозиции присутствует отлучка старшего поколения. Усиленная форма отлучки - смерть родителей. Завязка сказки состоит в том, что главный герой или героиня обнаруживают потерю или недостачу или же здесь присутствуют мотивы запрета, нарушения запрета и последующая беда. Здесь начало противодействия, т.е. отправка героя из дома.

Развитие сюжета - это поиск потерянного или недостающего.

Кульминация волшебной сказки состоит в том, что главный герой, или героиня сражаются с противоборствующей силой и всегда побеждают её (эквивалент сражения - разгадывание трудных задач, которые всегда разгадываются).

Развязка - это преодоление потери, или недостачи. Обычно герой (героиня) в конце «воцаряется» - то есть приобретает более высокий социальный статус, чем у него был в начале.

Существенными для отличия волшебной сказки от сказки другого жанра являются ее композиционные особенности: замкнутость сказочного действия, троекратные повторы, типичные сказочные зачины и концовки, особенное пространственное временное построение и др. Поэтому при изучении волшебных сказок нужно уделить внимание и их композиции.

Мы выделили следующие основные направления работы с детьми в этом плане:

- сформировать у детей представление о традиционных зачинах и концовках как неотъемлемой части художественного построения волшебной сказки, отличающейся условностью и информативной насыщенностью;
- сформировать умение видеть специфическое начало сказки - «зачин» - и благополучный для положительных героев конец - «концовку»;

- сформировать представление детей о таком характерном приеме в построении сказки, как тоекратные повторы;
- наугчить их находить повторы в тексте сказки и определять в каждом конкретном случае их функцию и роль в развитии сюжета и образов героев сказки;
- сформировать представление об условности сказочного пространства и времени (*хромотона* волшебной сказки);
- наугчить детей видеть пространственно-временные рамки волшебной сказки, определять особенности сказочного пространства и времени в связи с развитием сюжетного действия сказки.

В работе над зачином и концовкой волшебных сказок дети должны уловить их повторяемость из сказки в сказку и в то же время их варьирование, многообразие. Уже в начальных классах можно вводить литературоведческие термины “зачин” и “концовка”, опираясь на этимологию этих слов. При этом важно, чтобы дети усвоили функцию зачина и концовки как устойчивых приемов сказочного повествования и их информативную функцию.

Но помимо волшебных и фантастических повествований, народ с удовольствием складывал и пересказывал необыкновенные истории о животных и сатирические сказки. В повествованиях о животных обычно маленькие и трудолюбивые звери одерживают победу над большими и кровожадными хищниками. И если в таких сказках появляется человек, он всегда побеждает и подчиняет себе больших и сильных зверей, становясь на сторону слабых и беззащитных. В сатирических сказках народ часто высмеивал различные человеческие пороки и недостатки, поэтому они имели большое воспитательное значение. Полные народной мудрости и житейского юмора, они воспевают искусство, ремесла, знания людей. Высмеивая леность и праздность, такие сказки поучают, что не богатство красит человека, а труд.

Сказка в разных формах и масштабах стремится к воплощению идеала человеческого существования.

Вера сказки в самоценность благородных человеческих качеств, бескомпромиссное предпочтение Добра основаны так же и на призыве к мудрости, активности, к подлинной человечности.

Сказки, у детей (младшего и старшего возраста) расширяют кругозор, пробуждают интерес к жизни и творчеству народов, воспитывают чувство доверия ко всем обитателям нашей Земли, занятым честным трудом.

Использованная литература:

1. Имомов К. Узбек халк прозаси. Тошкент: Фан, 1981.
2. Имомов К. Узбек сатирик эртаклари. Тошкент: Фан, 1974.
3. Мудрец. Узбекские народные сказки. Тошкент: Ёш гвардия, 1967.
4. Саримсоков Б. Узбек адабиётисида сажъ. Тошкент: Фан, 1978.
5. Саримсоков Б. Эпик жанрлар диффузияси. Кит.: Узбек фольклорининг эпик жанрлари. Тошкент: Фан, 1981.
6. Шермухаммедов П. Детская литература в Узбекистане. - М.: Детская литература, 1974.

INSON FAOLIYATIGA ALTRUIZMNING TA’SIRI

M.E.Berdiqulova

Guliston davlat universiteti Masofaviy ta’lim kafedrasi o’qituvchisi

Annotatsiya: *Shaxs kamolotga yetib borar ekan, unga atrofdagi tashqi muhit, shaxslararo munosabatlar, ta’lim olayotgan muassasasi hamda oilaviy muhit tizimli ravishda ta’sir ko’rsatadi. Shuningdek o’smirlarda shaxslararo munosabatlarni to’g’ri yo’lga qo’yilishi ularning har tomonlama kamolga yetishishiga olib keladi. Yuqoridagi fikrlarni inobatga olib, barkamol shaxs va yetuk kadrlarni tayyorlashda ulardagi ijobiy sifatlarni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday xususiyatlardan biri – altruizmdir. Altruizmni aynan o’smirlik davridan boshlab shakllantirish , ulardagi ijobiy sifatlarni tarkib toptirib borish bugungi kundagi dolzarb*

masalalardan biridir.

Kalit soʻzlar: shaxs, oʻsmir, altruizm, egoizm, axloq, kognitiv soha, minnatdorchilik, barkamollik.

Аннотация: Взрослея человек, подвергается воздействию внешней среды, систематически затрагиваются межличностные отношения, учебное заведение и семейная среда. Кроме того, правильная организация межличностных отношений у учащихся-подростков приводит к их полному развитию во всех отношениях. Исходя из вышеизложенного, формирование у юношей положительных качеств имеет важное значение в воспитании гармонично развитого человека и подготовке высококвалифицированного специалиста. Одним из таких свойств является альтруизм. Одной из самых актуальных задач на сегодняшний день является формирование альтруизма у подростков, формирование у них положительных качеств.

Ключевые слова: личность, подросток, альтруизм, эгоизм, поведения, когнитивная сфера, благодарность, совершенство

Annotation: As a person grows up, he is exposed to the external environment, interpersonal relationships, educational institution and family environment are systematically affected. In addition, the proper organization of interpersonal relationships among teenage students leads to their full development in all respects. Taking into account the abovementioned opinions, the formation of positive qualities in young men is important in the upbringing of a harmoniously developed person and a highly qualified specialist. One of these properties is altruism. One of the most pressing tasks today is the formation of altruism in adolescents, the formation of their positive qualities.

Keywords: person, teenager, altruism, egoism, morality, cognitive sphere, thanks, perfection.

Inson doimo odamlar orasida yashar ekan, albatta, boshqa kishilar bilan munosabatga kirishadi. Shaxs xususiyatlariga koʻra inson turlicha boʻlishi mumkin. Agar kishi oʻz manfaatlari yoʻlida harakat qilsa, biz ularni xudbin deb ataymiz. Buning qarama-qarshi koʻrinishi esa, yaʼni agar inson boshqalarga yordam bersa, oʻz istaklari va ehtiyojlaridan voz kechib, ular uchun qoʻlidan kelgan hamma narsani bajarsa, bunday inson altruist deb ataladi. Keling, aslida altruizm nima ekanligini koʻrib chiqamiz.

Jamiyatda altruistik harakatlar ijobiy baholanadi. Bu nima degani? Bu boshqa odamlarga gʻamxoʻrlik qilishga intiladigan insoniy hatti-harakatlardir. Psixologik adabiyotlarda altruistlarning ikki turi ajratiladi: [1]

1. “Oʻzaro”- faqat oʻzlariga oʻxshash hatti-harakatlar qilganlar uchun oʻzlarini qurbon qiladigan odamlar.

2. “Universal” – barchaga yaxshi niyat bilan birdek yordam beradigan odamlar.

Inson orasidagi altruistik munosabatlar bir necha turlarga ajratiladi. Ota-onalar tomonidan altruistik munosabatlarning koʻrinishi bu oʻz farzandlariga nisbatan kattalarning fidoyiligi va jonkuyarligidir. Ular farzandlarini beminnat tarbiyalaydilar, taʼlim beradilar, barcha neʼmatlarni hattoki oʻz hayotini fido qilishga tayyor. Axloqiy jihatdan altruistik munosabatlarning koʻrinishi boshqalarga yordam berish orqali ichki xotirjamlikka erishishda namoyon boʻladi. Masalan, koʻngillilik va hamdardlik buning yaqqol koʻrinishidir. Ijtimoiy munosabatlarda altruizmning namoyon boʻlishi – bu yaqin odamlar, doʻstlar, qarindoshlar va boshqalar uchun jonkuyar boʻlishdir. Bu altruizm odamlarga kuchli va uzoq muddatli aloqalarni oʻrnatishga yordam beradi. Kishiga beminnat yordam koʻrsatishning simpatik jihati qaygʻurish, boshqa odamlarga nisbatan hamdardlikning namoyon boʻlishida oʻz aksini topadi. Bunday vaziyatda biror kishi xuddi shunday vaziyatga oʻzini qoʻyib, oʻzining boshidan kechirilishi mumkin boʻlgan tuygʻularni his qiladi.

Altruizm turli sabablarga koʻra yuzaga keladi. Altruizmning namoyon boʻlishi insonning ruhiy xususiyatlari bilan bogʻliq. Altruizmning baʼzi sabablari bor va ular quyidagilarda oʻz aksini topadi.

1. “Boshqa odamlar buni koʻradimi?” Biror kishi faqatgina odamlar unga eʼtibor qaratganda altruistik harakat qilishga tayyor. Ayniqsa, harakat yaqin insonga qaratilgan boʻlsa. Odam oʻzini yaxshi koʻrsatish uchun oʻz manfaatidan voz kechishga tayyor boʻladi. Lekin aksincha, unga eʼtibor bermagan holatda u hech qachon oʻz manfaatini qurbon qilish uchun harakat qilmaydi.

2. Agar inson kimgadir yordam bermagani uchun jazolanadigan bo'lganda, u o'zini himoya qilish uchun ham altruistik harakat qilishi mumkin.

3. Altruistik harakatni ota-onaga taqlid qilish darajasiga qarab ham belgilash mumkin. Ota-onalar o'z farzandlari uchun qanchalik o'zlarini baxshiyda qilsalar, farzandlarda ham shu xususiyat shakllanadi.

4. Kuchli insonlar zaif insonlarga yordam berishi kerakligi jamiyat qoidalariga ayni mos keladi. Buni ommaviy tashviqot deb ham atash mumkin. Erkaklar ayollarga jismoniy harakatlar bajarishda yordam berishlari kerak. Chunki bu borada erkaklar ayollarga nisbatan ancha kuchlidirlar. [1,2]

Altruistik harakatlarni namoyish etish insonning tarbiyasi va dunyoqarashiga bog'liq. Jamiyat tomonidan altruistik harakatlarni rag'batlantiradigan bo'lganda, bunday harakatlarni amalga oshiradigan insonlar ko'pchilikni tashkil qilgan bo'lar edi. Chunki, inson tabiatan avvalo, o'z manfaatini ustun qo'yadi. Garchand, altruistik harakat o'zgalar manfaatini o'zinikidan ustun qo'yish bo'lsa ham, bunday holatda inson o'zining manfaati evaziga o'zga shaxsga yordam berishini ko'rishimiz mumkin. Bunda altruist o'zini yaxshi his qiladi.

Altruistik hatti harakatlar turli xil xususiyatlar bilan tavsiflanadi. Altruizmni minnatdorchilik xususiyatining mohiyati shundan iboratki, inson bajargan hatti-harakatlari, qilgan yaxshiliklari uchun minnatdorchilik kutmaydi, yordamni hech qanday foyda evaziga bajarmaydi. Altruizmnining yana bir xususiyati fidoyilik bo'lib, bunda inson doimo o'zgalar foydasi, manfaati uchun o'zini fido qilishga tayyor bo'ladi. Bunda insonning o'z manfaatlari hisobga olinmaydi. Altruistik harakatlarda mas'uliyat tushunchasi ham o'z aksini topadi. Biz bunda inson sodir etilgan harakatlar, erishilgan natijalar uchun javobgar bo'lishga tayyor ekanligini tushunishimiz mumkin. Sidqidildan kimdirga yordam bera olgan insonda doimo qoniqish hissi ustuvorlik qiladi. Bu his qilingan hatti – harakatlardan keyin odam o'zini to'la va baxtli his etish evaziga o'zini mukofotlashidir. [3]

Jamiyatda har qanday shaxslararo munosabatlar zahirida o'zaro manfaatdorlik yotadiki, shunga muvofiq altruizm – bu mehr-muhabbat, xurmat, g'amxo'rlik kabi psixologik hissiyot va ijtimoiy-psixologik qadriyatlarni o'zaro almashinishdir. Bunda kishilardagi o'z-o'ziga beradigan baho, o'z-o'ziga munosabat, emotsional soha muhim ahamiyat kasb etadi. Shaxs va jamiyat hayotida ijtimoiy ta'sirlarning roli beqiyosdir. Aynan ijtimoiy ta'sirlar, ya'ni, ijtimoiy norma, sanksiya, ijtimoiy mas'uliyat hissi va ijtimoiy rollarning o'zaro ta'siri natijasida kishilar altruistik xatti-harakatlarni sodir etadilar. Bundan tashqari altruizm, kishilar xulq-atvorida instinktiv ravishda namoyon bo'ladi deb qaraladi. Altruizmnining asl mohiyati kishilarning o'z naslini saqlashga qaratilgan bo'ladi, ya'ni ota-onaning o'z farzandiga nisbatan altruistik xatti-harakati negizida o'z naslini saqlab qolishga bo'lgan biologik ehtiyoj yotadi, deb tushuntiriladi. [4]

Namoyon bo'lish mexanizmiga ko'ra, altruizm barcha insonlarda mavjud, biroq turli emotsiogen vaziyat, ya'ni aybdorlik hissi, shaxs xususiyatlari, konformlik ta'sirida yuzaga keladi. Altruizm shakllanishiga oid ijtimoiy-psixologik yondashuvda esa asosiy e'tibor talabalarda barqaror altruistik ustanovkalarni shakllantirishga qaratilgan. Axloqiy omillar ya'ni, umuminsoniy, milliy qadriyatlarga va ijtimoiy me'yorlarga muvofiq harakatlanish istagi bilan bog'liq. Shaxsdagi altruizmnining ontogenezda paydo bo'lishi va ifodalanishi masalasini L.Kolbergning axloqiy rivojlanish nazariyasi orqali tahlil etish mumkin. [4]

Bolada "yaxshi" va "yomon" orasidagi farqni anglash bilan bog'liq ravishda axloqiy tushunchalar shakllana boshlaydi. Bolalar psixologiyasidan ma'lumki, tarbiyada jazolash va rag'batlantirish bolaning axloqiy mushohadalariga o'z ta'sirini o'tkazadi. O'zgalarga yordam beradigan bola o'zgalarning xis-kechinmalarini tushuna oladigan, o'zini boshqalar o'rniga qo'yib ko'ra oladigan bo'ladi. Masalan, o'zining sevimli o'yinchog'ini do'stiga o'ynashi uchun berib turgan bola do'stining aynan shu o'yinchoqni o'ynagisi kelayotganligi bilan bog'liq kechinmalarni his qila oladi.

Bolaning arzimagan ijtimoiy faolligini va mehribonchiligini rag'batlantirish ularning altruizmga moyilligini oshiradi. Ayniqsa, altruizmnining ichki motivatsiyasi bo'lib xizmat qiladigan dispozitsion rag'batlantirishning o'zni alohida ahamiyat kasb etadi. Masalan, ota yoki ona bolani rag'batlantirish maqsadida "menga nonushta tayyorlashga yordam berganing uchun rahmat", "senga ishonish mumkinligini bilanman, chunki sen o'z vaqtida yordamga kelasan" kabi jumalardan

foydalansa, bolada ham altruizmga moyillik shakllanadi va shu bilan bir qatorda uning “Men siymosi” va o‘z-o‘ziga beradigan bahosi ortishiga sabab bo‘ladi. Aynan mana shunday dispozitsion rag‘batlantirish orqali bolada “jamiyatga keraklik, jamiyat uchun foydalilik hissi” shakllanib, “Men” siymosining ijtimoiy ma’qullangan jihatlarini rivojlanib boradi. [5]

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, altruizm – bu o‘zga insonlar ehtiyoji va manfaatlariga yo‘naltirilgan xulq-atvor shakli bo‘lib, uning asosida hech qanday shaxsiy manfaat kutmaslik yotadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Atabayeva N., Ismoilova N. Bolada altruizm shakllanishiga ta’sir etuvchi omillar // Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy axborotlari. – Toshkent, 2017. №3 (12). B 139-144
2. Nishonova Z.T. Asomiddinova SH. Psixologik maslahat. -T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati. 2010. -248 b.
3. Ильин Е.П. Психология помощи. Альтруизм, эгоизм, эмпатия. СПб.: Питер 2013. 304с.
4. Немов Р.С., Алтунина М.Р. «Социальная психология» М.; Питер 2008 100-105с
5. Umarov B.M. “O‘zbekistonda voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining ijtimoiy-psixologik muammolari” Toshkent: Fan, 2008. B 41-42.

ФОРМИРОВАНИЕ И РАЗВИТИЕ ИНТЕРЕСА К МАТЕМАТИКЕ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

*Низамов Алишер Баязович
ст. преподаватель ГулГУ*

Аннотация: В данной статье показаны источники побуждения младших школьников к умственному труду. А также определены действия учителя для достижения указанной цели.

Annotation: This article shows the sources of motivation of younger students for mental work. It also defines the actions of the teacher to achieve this goal.

Ключевые слова: мыслительная деятельность, внеклассная работа, удивление, внимание, побуждения, любопытство, интерес, мысли, чувства.

Key words: mental activity, extracurricular activities, surprise, attention, motivation, curiosity, interest, thoughts, feelings.

Что может заставить младшего школьника задуматься, начать размышлять над тем или иным математическим заданием, вопросом, задачей, когда эти задания не обязательны для него? Во всяком случае не принуждения. Принуждения извне могут лишь угнетать а не возбуждать мыслительную деятельность ребёнка. Не всегда могут активизировать мысль ученика и словесные просьбы и убеждения.

Основным источником побуждения младшего школьника к умственному труду на внеклассных занятиях может послужить интерес. Поэтому учитель должен искать и находить средства и способы возбуждения интереса детей к тем математическим, логическим заданиям, которые он предлагает в процессе внеклассной работы. Вызванный у детей интерес к отдельным заданиям, к математике вообще, послужит стимулом для их участия в выпуске математической газеты, создание математического уголка, активного участия в математических викторинах, экскурсиях и т. д. Происходит обратное влияние: участие в математических экскурсиях, викторинах, в выпуске газет, в занятиях, на которых предлагаются занимательные упражнения могут возбудить интерес и к самой математике.

Чтобы возбудить интерес к внеклассной работе, надо постараться не только привлечь внимание детей к каким-то её элементам, но и вызвать у ребят удивление. У детей удивление возникает тогда, когда они видят что сложившаяся ситуация не совпадает с ожидаемой. Если при этом удивление связано с возникновением некоторого удовольствия, то оно превращается в приятное удивление. При непродуманной ситуации может быть и наоборот: возникнуть неприятное удивление. Поэтому важно на начальной стадии организации внеклассной работы по математике создавать ситуации для приятного удивления. Надо учитывать, что удивление вызывает у детей более острое, сосредоточенное внимание. Удивление должно соседствовать с любопытством ребят, со стремлением их увидеть на математическом фоне что-то новое,

узнать что-то до сих пор неизвестное. Удивление в сочетании с любопытством поможет возбудить активную мыслительную деятельность учащихся.

Привлечь первоначальное внимание детей к внеклассному занятию по математике, например, можно разными способами, разными средствами: особым красочным оформлением классного помещения, в котором отражалось бы удивительное сочетание знакомого детям мира сказок и рассказов. Математика и сказки! Математика и любимые герои! Разве это не привлечёт внимание детей и не вызовет радостного удивления? Удивление и интерес вызывают у детей занимательно сформулированные вопросы, задачи, загадки, шарады, ребусы...

Интерес как и другой вид эмоционального состояния, имеет явное внешнее выражение на лицах детей, в их поведении, в словесных откликах. По этим внешним признакам учитель всегда сможет судить о том, вызван ли у детей интерес к данному внеклассному виду работы или нет. Однако приходится иногда сожалеть, что некоторые учителя на внеклассных занятиях в моменты повышения интереса детей, сопровождаемый внешним их возбуждением, бывают слишком строги к их поведению, стараясь заглушить в зародыше естественное внешнее проявление детьми своих чувств. При соблюдении определённой меры, на внеклассных занятиях можно допускать более свободное, чем на уроках, переживание детьми удовольствий, с более свободным их проявлением. Тогда у детей будет дольше сохраняться тот заряд интереса, который возник во время внеклассной работы, и служит стимулом к участию в последующих видах этой работы. Значительно лучше, скорее и прочнее запоминаются те мысли, которые были эмоциональны, вызвали живые, яркие чувства, чем те, которые оставляли человека равнодушным.

Привлечь внимание детей и вызвать удивление - это лишь начало возникновения интереса, и добиться этого сравнительно легко; труднее удержать интерес к внеклассной работе и сделать его достаточно стойким.

Использованная литература

1. Кашкина В.В. Пути повышения качества уроков математики в основной школе // Мастер-класс, 2017. № 9. С. 45-49.
2. Кондратьева Е.С. Развитие познавательного интереса у младших школьников через использование информационных технологий на уроках математики // Проблемы педагогики, 2015. № 1 (2). С. 34-39

PEDAGOGNING NUTQ MADANIYATI VA ADABIY NORMANI O‘Z FAOLIYATIDA SHAKLLANTIRISHI

Alisher Bolibekov, Iroda Kenjayeva

p.f.n. GulDU dotsenti

GulDU magistri

Annotatsiya: *Ushbu maqola pedagogning notiqlik madaniyati va adabiy normalarga oid nazariy tushunchalarga bag‘ishlangan. Unda tilshunoslikning nazariy qonuniyatlaridan ham foydalanish zarurligi asoslab berilgan.*

Аннотация: *Данная статья посвящена теоретическим концепциям ораторской культуры педагога и литературным нормам. Обосновывается необходимость использования теоретических законов языкознания.*

Annotation: *This article is devoted to the theoretical concepts of the educator's oratory culture and literary norms. It justifies the need to use the theoretical laws of linguistics.*

Kalit so‘zlar: *Leksik-semantik me‘yor, orfoepik me‘yor, yozuv (grafik) me‘yori, fonetik me‘yor, grammatik me‘yor (morfologik va sintaktik me‘yor).*

As you read different texts, you can apply several key strategies to help you increase your comprehension. For instance, when previewing a text, you might identify the text structure as informational, persuasive or instructional. You might also determine key elements of different texts like the central themes, problems and solutions or comparative ideas presented in what you read. Using strategies like identifying text features, determining the purpose and taking notes can all work to help you improve your reading skills.

6. Take notes while you read.

Another highly effective method for improving your reading skills is to take notes while you read. For instance, you might take notes while reading a fiction novel to gain a deeper understanding of the author's choice of language, or you might write down new vocabulary while reading a science journal. Effective note-taking can prompt you to ask questions about and make connections to what you read.

Similarly, creating visual representations like charts, tables or diagrams can clarify themes and ideas and can help you form inferences from your reading. Note-taking can be highly beneficial for comprehension exercises like summarizing, too.

7. Apply what you read by summarizing.

Summarizing what you read can also improve your reading skills. Summarizing forces you to remember specific details and central topics about what you read in your own words and through your own unique perspective. You might try verbally summarizing what you read by sharing information with a friend or write a short summary to help you retain and comprehend what you read.

As you develop your reading skills, your communication and overall ability to interact with others and perform in your career can develop as well.

References

1. <https://www.indeed.com/career-advice/career-development/how-to-improve-reading-skills>
2. <https://www.indeed.com/career-advice/career-development/literacy-strategies>
3. Boche, B. (2014). "Multiliteracies in the classroom, Emerging conceptions of first-year teachers". *Journal of Language and Literacy Education*. **10** (1): 114–135.
4. David R. Cole (2009). *Multiple Literacies Theory: A Deleuzian Perspective*. Sense. ISBN 9789087909093.
5. Reid, Gavin; Soler, Janet; Wearmouth, Janice (2002). Reid, Gavin; Soler, Janet; Wearmouth, Janice (eds.). *Addressing Difficulties in Literacy Development*.

**PYTHONDA requests, BeautifulSoup4 va fuzzywuzzy TASHQI KUTIBXONALAR
BILAN ISHLASHNING AVZALLIKLARI**

Kurbanov Abduraxmon Alishboyevich

Sirdaryo viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi "Aniq va tabiiy

Pythonning kutibxonalari bilan ishlashda avval bu kutibxonalar loyihamizga o‘rnatib olamiz. Buning uchun pip install “kutinxona nomi” formati ishlatiladi. “kutinxona nomi” ga zarur kutibxona nomi yoziladi.

Request kutibxonasi bilan ishlash

Bu paket yordamida Pythonda veb sahifalarga murojat qilishimiz (so‘rov yuborishimiz) va ulardan qaytgan ma’lumotlar ustida turli amallar bajarishimiz mumkin. Misol uchun quyida requests yordamida kun.uz sahifasini to‘liqligicha toritib olamiz:

```
import requests
from pprint import pprint
sahifa = "https://kun.uz/news/main"
r = requests.get(sahifa)
pprint(r.text)
```

Ko‘pincha requests paketidan APIlar bilan ishlashda foydalaniladi. API bu ma’lum bir veb xizmatga so‘rov yuborish orqali undan foydalanish. Misol uchun yandex tarjimonga yoki google haritalari xizmatiga requests paketi yordamida API so‘rov yuborish va o‘zimizga kerakli ma’lumotlarni olishimiz mumkin. API haqida kelgusida batafsil dars qilamiz. Hozir esa sodda misola bilan cheklanamiz.

Internetda restcountries.eu sahifasi mavjud. Bu sahifa orqali dunyodagi davlatlar haqida turli ma’lumotlarni olishingiz mumkin. Sahifadan foydalanish qulay bo‘lishi uchun esa, sahifa yaratuvchilari bir nechta tayyor API lar e‘lon qilishgan. Misol uchun O‘zbekiston haqida ma’lumot olish uchun quyidagi manzilga so‘rov yuborasiz: <https://restcountries.eu/rest/v2/name/Uzbekistan> API dan qaytgan natija JSON (lug‘at) ko‘rinishda bo‘ladi va biz bu lug‘atdan o‘zimizga kerakli ma’lumotni sug‘urib olishimiz mumkin. Misol uchun quyidagi kodimiz APIga yuborilgan davlatning poytaxtini ko‘rsatadi:

```
country = "Uzbekistan"
url = f"https://restcountries.eu/rest/v2/name/{country}"
r = requests.get(url)
r_json = r.json()[0]
# print(r_json.keys())
print(r_json["capital"])
```

Natija: Tashkent

BeautifulSoup4 kutibxonasi

BeautifulSoup juda kuchli modullardan biri bo‘lib, bu modul yordamida turli veb sahifalardan istalgan ma’lumotlarni yig‘ishtirib (scarping) olish mumkin. Biror kishining instagram sahifasidagi barcha rasmlar deysizmi, Facebook guruhidagi barcha postlar va izohlar deysizmi, oldi-sotdi bozoridagi e‘lonlar deysizmi, marhamat, bs4 moduli yordamida buni bimalol avtomatlashtirish mumkin.

Odatda bs4 moduli requests moduli bilan hamkorlikda ishlaydi. Keling, sodda misol ko‘ramiz. Avvalgi bo‘limda, requests yordamida kun.uz sahifasining html kodini olgan edik. Endi esa bs4 yordamida html sahifadan oxirgi yangiliklarning mavzusini ajratib olamiz.

```
import requests
from bs4 import BeautifulSoup
sahifa = "https://kun.uz/news/main"
r = requests.get(sahifa)
soup = BeautifulSoup(r.text, 'html.parser')
news = soup.find_all(class_="news-title")
print(news[0].text)
```

fuzzywuzzy kutibxonasi

Bu modul yordamida so‘zlarni bir-biriga solishtirish yoki matnlar tarkibida kerakli so‘zni topishda

foydalanamiz.

Quyidagi misolda "salom" soʻzini "assalom" va "salim" soʻzlari bilan naqadar oʻxshashligini tekshrib koʻramiz:

```
from fuzzywuzzy import fuzz
print(fuzz.ratio("salom", 'assalom'))
print(fuzz.ratio("salom", "salim"))
```

Foydalanilgan adabiyotlar

1. <https://python.sariq.dev/last-words/39-pip-pypi>
2. <https://github.com/anvarnarz/python-darslar/blob/main/39-pip-pypi/darslar-openCV.py>
3. ["Changelog - pip documentation v21.1.1". pip.pypa.io. Retrieved 2 May 2021.](#)
4. Gahlot, Gaurav (6 November 2018). ["Most Important pip Commands for a Python Developer - DZone Open Source". dzone.com. Retrieved 23 June 2019.](#)
5. Bicking, Ian (24 September 2008). ["pyinstall: A New Hope". Archived from the original on 27 September 2008. Retrieved 4 March 2020.](#)


RAQAMLI TA'LIM JARAYONIDA TABIIY FANLARNI AKT YORDAMIDA O'QITISH

Isayeva Sanobar

SVXTXQTMOHM O'quv jarayonini tashkil etish bo'limi bosh mutaxassisi

Hayotimiz har jihatdan texnika va texnologiyalar bilan bogʻliq: ertalab soat bongidan boshlab to kun rejasini tuzish va oʻqish bilan yakunlashgacha. Taʼlim sifatini oshirish va rivojlantirish uchun texnologiyalardan samarali foydalanish imkoniyatini yaratish lozimdir. Bilimli avlod, professional kadrlar bu jamiyatning keng miqyosida rivojlanishi garovidir.


Taʼlimda masofaviy taʼlimni yoʻlga qoʻyish va raqamli darsliklarni ishlab chiqish ularni amalda qoʻllash samarasi taʼlimda oʻqitishning innovatsion usuli boʻlib, taʼlim sifatini oshirish, korruptsiyani yoʻq qilishga va uni oldini olishga qaratilgan. Raqamli darsliklarni qay koʻrinishda boʻlishini loyihalashdan avval koʻp jihatlarini oʻrganiladi, yaʼni uni oʻqitish boʻyicha tadqiqotlar olib boriladi. Natijada yaratilayotgan oʻquv darsliklar bilim olish jarayonida qiziqarli, yengil, esdaqolarli va zararsiz boʻlishiga yoʻnaltiriladi. Birgina sahifada birvaqtning oʻzida ham matnli, ham audiotovushli tushuntirish, ham videorolik, ham 3D-animatsiya boʻlishi mumkin. Bunday darsliklar asosan fizika va anatomiya darsliklari ustida olibborilgan tadqiqotlarga koʻra, darsliklar virtual, multiformatli va interaktiv boʻlganligi sababli ishtirokchilarning 80 foizi axborotni eslab qolaoladi. Taʼlim oluvchining oʻquvjarayoniga qamrab olishuni rejadagi darslarga bilim va koʻnikmalarini hosil qilishda 3D animatsiyadan foydalanish ham maqsadga muvofiqdir. 3D gologramma orqali ushbu laboratoriyalarni virtual amalga oshirish mumkin. 3D gologrammali virtual laboratoriyaning afzalligi shundaki buni ixtiyoriy fizika, kimyo, biologiya, geografiya fani oʻqituvchisi va oʻquvchisi tayyorlashi va amalda qoʻllashi mumkin. Buning uchun avvalo bizga 3D gologramma hosil qiluvchi qurilma, video tasvir hosil qiluvchi ekran (telvizor, planshet, noutbukdan xam foydalanish mumkin) oʻlchamiga qarab esa qurilma oʻlchamlari olinadi.




dyuyim	A	B	C	D	E
1	1	12	8	9	12
2	3	24	23	18	25
3	4	36	30	28	37
4	5	48	38	37	50
5	7	60	53	46	62
6	8	71	60	55	74
7	9	83	68	64	87
8	10	95	75	73	99
9	12	107	90	83	111
10	13	119	98	92	124
11	14	131	105	101	136
12	16	143	120	110	149
13	17	155	128	119	161
14	18	167	135	128	173
15	20	179	150	138	186
16	21	190	158	147	198
17	22	202	165	156	210
18	24	214	180	165	223
19	25	226	188	174	235
20	26	238	195	183	248

dyuyim	A	B	C	D	E
21	28	250	158	193	260
22	29	262	165	202	272
23	30	274	173	211	285
24	31	286	180	220	297
25	33	298	188	229	310
26	34	310	195	238	322
27	35	321	203	248	334
28	37	333	210	257	347
29	38	345	218	266	359
30	39	357	225	275	371
31	41	369	233	284	384
32	42	381	240	293	396
33	43	393	248	303	409
34	45	405	255	312	421
35	46	417	263	321	433
36	47	429	270	330	446
37	48	440	278	339	458
38	50	452	285	348	470
39	51	464	293	358	483
40	52	476	300	367	495


dyuyim	A	B	C	D	E
41	54	488	308	376	508
42	55	500	315	385	520
43	56	512	323	394	532
44	58	524	330	403	545
45	59	536	338	413	557
46	60	548	345	422	570
47	62	560	353	431	582
48	63	571	360	440	594
49	64	583	368	449	607
50	65	595	375	458	619
51	67	607	383	468	631
52	68	619	390	477	644
53	69	631	398	486	656
54	71	643	405	495	669
55	72	655	413	504	681
56	73	667	420	513	693
57	75	679	428	523	706
58	76	690	435	532	718
59	77	702	443	541	730
60	79	714	450	550	743



Yuqoridagi rasmda turli o'lchamli ekran bilan qurilma o'lchamlariga bog'liq grafik keltirilgan. Grafikda qurilmaning A,B,C,D va E o'lchamlari bir biriga mutanosib tarzda berilgan, bu o'lchamlardan qurilmamizni ya'ni asosi to'rtburchakli piramidani yasashda ishlatamiz.(jadvalda berilgan o'lchamlar sm larda berilgan). Talabalarga tasvir sifatli ko'rinishi uchun 1:1m o'lchamiga yaqin ekranda tajribani video tasvirini namoyish qilish tavsiya etiladi. Buning uchun avvalo 3D gologramma qurilmasini tayyorlab olamiz. Dastlab qurilmani tayyorlashdan oldin qalinligi 1-3 mm oraliqdagi va o'lchami ekran o'lchami bilan teng bo'lgan masalan 1m ga 4m bo'lgan shaffof plastinka (yoki shisha)dan 3D gologramma tasvirini hosil qiluvchi qurilmani tayyorlab olamiz. Bu qurilmani tayyorlash qanday amalga oshiriladi: shaffof plastinkani 1:1 m o'lchamdagi 4 ta kvadratga ajratamiz.



Ajratgan kvadratlarimizni har biridan teng yonli trapetsiya shaklidagi bo'lak tayyorlaymiz. Bunda tayyorlanadigan trapetsiyaning pastki asosi 1 m yuqori asosi esa 10 sm balandligi 75 sm bo'ladi. Tayyorlanadigan trapetsiyaning bunday o'lchamlarda olinishiga sabab 3D tasvir sifatini taminlash xisoblanadi. Tayyor bo'lgan 4 ta trapetsiyamizni yon tomonlarini bir biriga ketma ketlikda maxsus kley yoki skouch bilan mahkamlaymiz. Natijada asosi kvadratdan iborat bo'lgan kesik piramida xosil bo'ladi. Bu piramidaning apofemasi asos tekisligi bilan 45°burchak tashkil qilishi kerak bu tasvirining aniqligini ta'minlovchi eng asosiy omil bo'lib, balandligi esa 75sm bo'ladi.Yuqorida aytganimizdek talaba o'z ekraniga mos holda yuqoridagi jadvaldan foydalanib o'lchamlarni olishi mumkin. Kesik piramida shaklidagi plastinkadan tayyorlangan mazkur jismni video tasvir xosil qiluvchi ekran markaziga yuqori kichik asosi orqali qo'yiladi.



3D gologramma xosil qiluvchi qurilmani ishga tushirish uchun ekranda virtual laboratoriyaning maxsus 3D tayyorlangan videosini namoyish etamiz. Yuqorida aytganimizdek agar bunday video mavjud bo'lmasa amalda qo'llash uchun ishlab chiqilgan dastur Delphi XE 10.2 dasturlash muhitida yaratilgan hamda html, css, javascript tillari imkoniyatlaridan foydalanilganilgan dasturdan foydalanamiz.

Bu dasturning asosiy vazifasi dasturga kiritilgan video rolik yoki virtual laboratoriyani ekran dioganali bo'yicha markaziy 4 ta teng bo'lakka bo'lish va har bir bo'lakda aynan bir xil tasvir namoyish etish xisoblanadi. Bu dasturni ishga tushirganda video faylni tanlash so'raladi, video

tanlaniganidan so'ng dastur turgan katalogda video.html fayl hosil bo'ladi. Bu faylni Chrome dasturi yordamida kompyuterda ochiladi. 3D tasvir sifatini oshirish uchun xonani qorong'u qilish yoki qurilmani orqa tomonini qora mato bilan yopish mumkin.

Mazkur qurilma yordamida talabalarga istalgan laboratoriya yoki namoyish eksperimentlarini virtual 3D gologramma ko'rinishida bajarishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ландсберг Г.С. "Оптика" Т 1981.
2. Калитеевский Н.И. "Волновая оптика" М.1971. М. 2006.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINI KASBIY KOMPETENTSIYASINI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI

Rasulova Maxbuba , Kodirova Dildora

Sayxunobod tumani 26-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchilari

Bugungi kunda zamonaviy ta'limning asosiy maqsadi jamiyat va davlat uchun har tomonlama rivojlangan, jamiyatga, mehnat faoliyatiga ijtimoiy moslashuvchan, o'z ustida ishlay oladigan shaxsni tayyorlashdan iborat. Demak, har tomonlama rivojlangan shaxs tarbiyasida pedagoglarning kompetentlik darajasi muhim ahamiyatga ega. Kompetentlik tushunchasi pedagogning ta'lim-tarbiya jarayonida eng yuqori darajada natijaga erishishi, yuqori kasbiy salohiyat, shuningdek, muloqotchanlik va ijobiy fazilatlariga ega bo'lish degan xulosaga kelinadi. "Kompetentlik" tushunchasi ta'lim sohasiga psixologik izlanishlar natijasida kirib kelgan. Kasbiy-pedagogik kompetentlikka ega bo'lishda o'z ustida ishlash, o'z-o'zini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. O'z-o'zini rivojlantirish vazifalari o'zini o'zi tahlil qilish va o'zini o'zi baholash orqali aniqlanadi. Bugungi kunda ijodkorlik, yaratuvchanlik, yangilik yaratishga qaratilgan faoliyat o'qituvchining kreativ faoliyati deb tushuniladi. Boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy kompetentsiyaga ega bo'lishi, iste'dod darajasi, yangi g'oyalarni yaratishga tayyorgarlikni xarakterlovchi, shuningdek, muammolarni o'zgacha tarzda bartaraf etish, iqtidorning mustaqil faktori sifatida qabul qilingan ijodiy qobiliyatlaridir. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi kompetentli shaxs bo'lish, bizning nazarimizda, kreativ o'qituvchi bo'lish, bugungi dunyoda afzalliklarga ega bo'lish, boshqa o'qituvchilar ichida ajralib turish, boshqalarga qaraganda qiziq suhbatdosh bo'lish, hayotda uchraydigan qiyinchiliklardan noodatiy tarzda chiqib ketish demakdir. Ta'lim-tarbiyadan kuzda tutilayotgan maksadlarga erishish, o'quvchilarning xilma-xil faoliyatini uyushtirish, ularni bilimili, odobli, etikodli, mehnatsevar, barkamol inson qilib o'stirish o'qituvchi zimmasiga yuklatilgan. O'qituvchi xaqida xar qancha gapirsak, uni xar qancha madx etsakda kamdek tuyuladi. Negaki ilk bora qo'limizga qalam tutqazib, alifbodan sabok bergan xam ana shu ulug' zotdir. Kompetentli o'qituvchi o'quvchiga nafakat ta'lim beradi, uni kamol toptirish uchun qo'lidan kelgan barcha ishlarni qiladi, tarbiyani xam dars mobaynida teng olib boradi. O'qituvchilik kasbi sharaflil, lekin juda murakkab kasb. Yaxshi o'qituvchi bo'lish uchun pedagogika nazariyasini egallashni o'zigina etarli emas. Chunki nazariy bilimlar bolalarni o'qitish va tarbiyalash xakida umumiy konun qoidalari umumlashtirilgan usullarda bayon etiladi. Zamonaviy ta'limda boshlang'ich sinf o'qituvchisini pedagogik imidji, AKT va ZPT hamda, yuksak maxoratga ega bo'lishi bilan ajralib turishi kerak. Bu esa o'qituvchidan keng bilimdonlikni, puxta amaliy tayyorgarlik, tinimsiz mehnatni, o'z ustida ishlashni, ijodkorlikni talab qiladi. Biror kasbning ustasi bulish uchun kishida tabiiy kobiliyat, ma'lum jismoniy va ruxiy xislat bo'lishi zarur. O'qituvchilik kasbini egallash uchun avvalo bolalarni sevish, ularni tushunish, xarakterlarini bilish zarur. O'quv materialini o'quvchilarga tushunarli qilib bayon eta olishi, so'ngi video darslardan, zamonaviy texnologiyalarni qo'llagan holda, multimediya darslaridan unumli foydalana olishi, o'quvchilarni mustakil fikrlashga kizikish uygotish lozim. O'qituvchi zarur hollarda o'quv materialini o'zgartirishi, qiyin narsalarni oson, murakkab narsani oddiy qilib tushuntirishi kerak. Kompetentli o'qituvchini muammoli vaziyatlarga to'la xisoblanib, jodiy yondashishni, o'quvchilarning ta'lim tarbiyasida yangi samarali yul va vositalarni qidirib topishni tushunamiz. Muffakiyatli ishlash uchun xar bir o'qituvchi pedagogik maxoratga ega bo'lishi zarur.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi dars mashg'ulotlari, ta'lim tarbiyani amalga oshirishning eng kulg'ini, eng zarur omilidir, xayotimizda tub burilish bulayotgan bir paytda darsning shakli va mazmuni, g'oyaviyligi, ta'sirchanligi samaradorligi xam uzgarmaydi. Zamonaviy darsning poydevori tarbiya turlarini o'quvchiga singdirib, ularga ta'lim berishni takazo etadi.

Zamonaviy dars 10 ta talabga javob berishi kerak. 1. Tarbiyaviy maksadni ta'lim bilan mushtarikligi. 2. Mavzu, mazmuning ilmiyligi. 3. Darisni xayot bilan boglash. 4. Kasbiy yunalishga karatilganligi. 5. Mavzu mazmuniga mos ta'lim vositalarini kullash. 6. Ukuvchilarning mustakil malakalarini mustaxkamlashga karatilishi. 7. Mavzu mazmuniga mos metod va usullaridan foydalanish. 8. Fanlararo bog'liqligi. 9. Tug'ilib o'sgan joy bilan bog'liqligini ta'minlash. 10. Egologik tarbiya. Zamonaviy darsda milliy marosimiz kadriyatlarini, madaniyatimiz, buyuk ajdodlarimiz o'g'itlari, xikmatga to'la xodisalarimiz, rivoyatlardan unumli foydalanib borilsa, maksadga muvofik buladi.

Xulosa qilib aytganda, bugun yosh avlodga nafaqat bilim berish, balki ularni dunyoda, yon-atrofimizda sodir bo'layotgan voqea-hodisalardan to'g'ri xulosa chiqaradigan, mustaqil fikrlaydigan yigit-qizlar qilib tarbiyalash, eng muhimi, navqiron avlod qalbida mamlakatda yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarga daxldorlik hissini yanada kuchaytirish doimiy e'tiborimizdagi masaladir. Ana shunday ezgu ishlar ta'lim tizimiga munosib pedagoglarning asosiy vazifasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. - T.: 2003.
2. Ziyomammedov B. Pedagogik mahorat asoslari. - Toshkent, 2009.
3. Ziyomammedov B., Tojiyev M. Pedagogik texnologiya. Zamonaviy o'zbek milliy modeli. Toshkent, «Lider Press», 2009-y.
4. Ishmuhamedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. - Toshkent, 2004-y.

TA'LIMDA INNOVATSIYON TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI

Rasulova Mashhura Baxrimurodovna, Butayeva Xafiza Xamro qizi

Sayxunobod tumani 34 maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Sayxunobod tumani 17 maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Hozirgi davrda mamlakatimizda ta'lim-tarbiyaning axborot kommunikatsiya tizimi, internet tarmoqlari va zamonaviy ped texnologiyalar bilan bog'liq yangi imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Ta'limni an'anaviy usullari o'rnida intefaoal usullarni qo'llash orqali uni samaradorligiga erishish dolzarb bo'lib turibdi.

Innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qizikish, kundan-kunga rivojlanib bormoqda. Bunday bo'lishini sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilarni faqat tayyor bilimlarini egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy pedagogik texnologiyalar dars jarayoniga tadbiq etishda esa, ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, taxlil qilishlariga, xatto xulosalarni xam o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahoratga oid bilim, tajriba va interfaol usullar o'quvchilarni bilimli, ko'nikma va malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi.

Innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qizikish, kundan-kunga rivojlanib bormoqda. Bunday bo'lishini sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilarni faqat tayyor bilimlarini egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy pedagogik texnologiyalar dars jarayoniga tadbiq etishda esa, ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, taxlil qilishlariga, xatto xulosalarni xam o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahoratga oid bilim, tajriba va interfaol usullar o'quvchilarni bilimli, ko'nikma va malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi.

Interfaol metodlar bu-jamoa bo'lib fikrlash deb yuritiladi, ya'ni pedagogik ta'sir etish usullari o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va boshlang'ich sinf o'quvchilarning kichik guruxlarga bo'lib, birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi. Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:

- o'quvchining dars davomida befark bo'lmashga, mustakil fikrlash, ijod etish va izlanishga majbur etishi;

- o'quvchilarni o'quv jarayonida fanga va bilim olishga bo'lgan qiziqishlarini doimiy ravishda bo'lishini ta'minlashi;

- o'quvchining bilimga bo'lgan qiziqishini mustaqil ravishda bajarishi va xar bir masalaga ijodiy yondoshgan holda kuchaytirishi;

Pedagog va o'quvchilarning hamisha xamkorlikdagi faoliyatini tashkil qilinishi nazarga tutiladi..

Jamiyat taraqqiyoti xech qachon to'xtab qolmaydi, uning g'ildiragi doimo oldinga qarab aylanaveradi, bu albatta tabiiy, tarixiy jarayondir. Shuning uchun ham biz uqituvchilar bu borada ilg'or pedagogik texnologiyalarni dars jarayoniga keng tadbiiq etishimiz darkor. Dars jarayonida o'quvchilarga ta'lim- tarbiyani birgalikda olib borish maqsadga muvofiqdir.

O'qituvchi o'quvchilarni ma'naviy, badiiy va axlokiy madaniyatlarini shakllantirishi, ularda milliy g'urur va vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirishini ta'minlashi zarur.

Biz bilamizki «Pedagogika» ta'lim - tarbiya xaqidagi fan sifatida tarbiyaning mohiyatini tushunishini va uning qonuniyatlarini ochib berishi hamda shu orqali inson manfaatlari tarbiya jarayoniga ta'sir etishini nazarda tutadi. Bu albatta ko'pgina muammolarni hal etishda yaqindan yordam beradi. Ilg'or pedagog murabbiylar tajribasi bilan bir qatorda oddiy o'qituvchilarning faoliyatlari ham o'rganib boriladi. Chunki tajribalarni o'rganish jarayonidagi muammo: yutuq va kamchiliklar aniqlanadi. Bunda kuzatish, intervyu olish, anketalashtirish, o'quvchilarning yozma va og'zaki hamda amaliy va ijodiy ishlari, pedagogik xujjatlarni urganish metodlaridan unumli foydalaniladi.

O'qituvchi-o'quvchi darsning maqsaddan natijaga erishishida qanday texnologiyani tanlashlari ular ixtiyorida, chunki har ikkala tomonning asosiy maqsadi aniq natijaga erishishga qaratilgan, bunda o'quvchilarning bilim saviyasi, gurux xarakteri, sharoitga karab ishlatiladigan texnologiya tanlanadi, masalan: natijaga erishish uchun balkim film, tarqatma material, chizma va plakatlar, turli adabiyotlar, axborot texnologiyasi kerak bo'lar, bular o'qituvchi va o'quvchiga bog'liq.

O'qituvchi o'qitish jarayoni oldindan loyixalashtirish zarur, bu jarayonida pedagog o'quv predmetining o'ziga xos tomonini, joy va sharoitini, eng asosiysi, o'quvchining imkoniyati va extiyojini xamda hamkorlikdagi faoliyatini tashkil eta olishini xisobga olishi kerak, shundagina, kerakli kafolatlangan natijaga erishish mumkin. Qisqa qilib aytganda, o'quvchini ta'limning markazita olib chiqish kerak.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, bunday natijaga erishish amaliyotda o'quv jarayonida innovatsion va axborot texnologiyalarni qo'llashni taqazo etadi. Ular juda xilma - xildir. Bular yangi interfaol usullar va ta'lim metodlari hamda hozirda dars jarayonida qo'llaniladigan yangi pedagogik texnologiyalar shular jumlasidandir. Shu bilan birgalikda aytish lozim-ki, yuqorida keltirilgan zamonaviy metodlar, yoki o'qitishning samarasini oshirishga yordam beruvchi texnologik treninglardan keng foydalanilsa, o'quvchilarda mantiqiy, aqliy, ijodiy, tanqidiy va mustaqil fikrlash shakllanadi. Ayniqsa, o'quvchilarni qobiliyatlarini rivojlantirishga, raqobatbardor, yetuk mutaxassis bo'lishlariga hamda mutaxassisga kerakli bo'lgan kasbiy fazilatlarni tarbiyalashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. - T.: 2003.
2. Ishmuhamedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. - Toshkent, 2004-y.
3. Yo'ldoshev J.G', Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etish. Toshkent, 2008-y.

BARKAMOL SHAXS TARBIYASIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR VA ULARNING PEDAGOGIK MOHIYATI

*Azimova Shaxlo Saydaliyevna, Nomozova Gulsara Raxmatullayevna
Sirdaryo tumani 22 maktab*

Ta'lim asosida tarbiya berish printsipli uning maqsadi va vazifasini to'laqonli amalga oshirishga qaratiladi. Ta'limda bo'lganidek tarbiyaning ham o'ziga xos maqsadi va vazifalari mavjud. Ta'lim asosida tarbiya berishda aynan tarbiyaning maqsadi va vazifalariga to'laqonli erishib bo'lmaydi. Ma'rifatparvar Abdulla Avloniy ta'kidlaganidek, «... dars oluvchi biluvchi, tarbiya oluvchi amal qiluvchi demakdir»

Innovatsion texnologiyalar tatbiqida asosan ta'lim texnologiyasiga e'tibor qaratilmoqda. Tarbiya texnologiyasi va unga oid muammolar o'z echimini hamon kutmoqda. Barkamol shaxs tarbiyasida pedagogik jarayon to'lig'icha amal qilmasa, kutilgan natijaga erishib bo'lmaydi. Ammo shu narsani alohida ta'kidlash lozimki, tarbiya texnologiyasi o'quvchi uchun «Hayot qonuni» bo'ladi degan da'vodan yiroqmiz. Pedagogika tili bilan aytganda, tarbiya texnologiyasi yo'nalish beruvchi vazifani o'taydi desak, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bugungi pedagogika an'anaviy yo'sindagisidan pedagogikadan milliy demokratik xarakterdagi, ya'ni muayyan texnologik jarayonda ijtimoiy munosabatlar, tuyg'u va ruhiy kechinmalar pedagogikasiga aylanib borayotganligiga asosiy e'tiborni qaratish lozim.

Insonparvarlikka asoslangan huquqiy-demokratik davlat qurish mamlakatimizning ezgu maqsadi ekan, «...yangi davlat barpo etishda milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalangan, mamlakatimizni modernizatsiya qilish yo'lidagi murakkab va keng ko'lamli vazifalarni hal etishga qodir bo'lgan yangi avlod kadrlarini tayyorlash masalasi muhim printsiplial va hal qiluvchi ahamiyatga ega».

Yangicha fikrlaydigan, yangicha tafakkurdagi yosh avlod zamonaviy bilim, ko'nikma va malakalarni egallashga qodir. Yangi faktlardan yangi xulosalar chiqarish fanda kumulyatsiya deyiladi. Pedagogik nuqtai nazardan har bir fan yo'nalish va fanlararo hamkorlik integratsiyasi bo'yicha yangilikni tatbiq etishning intensiv metodikasini ishlab chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Egallangan ko'nikma va malakalar borki, bir umr harakatda bo'ladi. Bu jarayon milliy g'oya va uning tarkibiy qismi hisoblangan pedagogik g'oyaning izchilligi hamda uyg'unligidan kelib chiqadi. Innovatsion texnologiyalar va ularning pedagogik mohiyatidan kelib chiqib, yangi bilimlarga xos ko'nikma va malakalar paradigmasi qaytadan ko'rib chiqilmog'i lozim. Ana shunda eskicha qolipdagi ko'nikma va malakalar o'z-o'zidan harakat faoliyatini to'xtatadi. Fikrlar xilma-xilligining shakllanishida pedagogik g'oya o'z o'rnini topadi. Davr muammosini o'rganish va hal etishda, tarbiyaning hamda tarbiyachining mavqei tobora ortib boradi. G'oya maqsadni belgilaydi. O'z navbatida maqsad anglangan ehtiyoj va e'tiqodga aylanadi. E'tiqodga aylangan bilim, ko'nikma va malakalar shaxsning mulkiga aylanadi. Shundan kelib chiqib, barkamol shaxs modelini quyidagicha izohlash mumkin.

Barkamol shaxs modeli:

- kasbiy bilmi va ko'nikmalar;
- siyosiy-xuquqiy bilim va madaniyat;
- mafkuraviy immunitiv va g'oyaviy kurashganlik
- diniy bilim va madaniyat
- ekologik bilim va madaniyat
- sog'lom hayot tarzi va jismoniy madaniyat;
- iqtisodiy bilim ko'nikma va malakalar;
- Pedagogik-psixologik bilim, ko'nikma va malakalar

Ko'rinib turibdiki, barkamol shaxs tarbiyasida pedagogik-psixologik bilim, ko'nikma va malakalarning alohida o'rni bor. Innovatsion texnologiyalar tatbiqida aksariyat professor-o'qituvchilar o'zlarining bilim, ko'nikma va malakalar yo'nalishiga asosiy e'tborini qaratish bu, aksariyat hollarda kasbiy bilimlarning pedagogik va metodik mohiyatiga to'xtalib o'tirishmaydi. Bunday holatlar shaxsning ma'naviy- axloqiy qiyofasini shakllanishiga o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi. Shuning uchun ma'naviy-kasbiy barkamol shaxs tarbiyasi o'zining yaxlit tizimiga ega ekanligi modelda o'z aksini topgan.

Pedagogik jarayonda ko'nikmadan tashqari, ko'nikish tushunchasi ham bor. Tabiatan inson

hamma narsaga ko'nikishi mumkin. Har xil shovqin, transport ovozi, signallar, issiq, sovuq, ochlik, to'qlik degandek, inson tinimsiz ro'y berib turgan o'zgarishlar, axborotlar oqimi va yangiliklarga ham ko'nikadi. Pedagogik texnologiyalar tatbiqi, jumladan interfaol metodlarni qo'llash, bu borda uzluksiz metodik xizmatni yo'lga qo'yish pedagogik innovatsiya oldida turgan dolzarb vazifa hisoblanadi.

Bugungi pedagogika ta'lim va tarbiya jarayonida oqibatdan ko'ra sababni o'rganuvchi fanga aylanmog'i lozim. Buning uchun prognostik metodlardan foydalanish, uni innovatsion texnologiyalar darajasiga olib chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Hozirda ta'lim va tarbiya jarayoni holatining monitoringi ko'proq oqibatni o'rganishga qaratilgan. Davomat, o'zlashtirish darajasi, innovatsion texnologiyalar tatbiqining holati va boshqa ko'plab ta'lim-tarbiyaviy ko'rsatkichlarda «oqibat» tahlil etiladi. Oqibatning kelib chiqish sabablari prognostik va diagnostik tahlillardan chetda qolib ketadiki, bunday pedagogik yondashuvlar ma'naviy-kasbiy barkamol shaxs tarbiyasida muayyan bo'shliqning paydo bo'lishiga olib keladi.

Shunga ko'ra oqibatni sababga zid qo'ymaslik lozim. Ta'lim va tarbiyada oqibatga bo'lgan sabab o'zining to'g'ri va ijobiy yo'nalishini olsa, oqibat samarali bo'ladi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, ta'lim-tarbiya jarayonini boyitish va uni takomillashtirishni innovatsion texnologiyalar tatbiqisiz tasavvur etib bo'lmaydi. bugungi oliy ta'lim mazmuni innovatsion texnologiyalar rejimi asosidagi rivojlanishga o'tmoqda deyilsa, o'rinli bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. - T.: 2003.
2. Ishmuhamedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. - Toshkent, 2004-y.

O'QUVCHILARDA AQLIY TARBIYAN SHAKLLANTIRISHNING MAZMUNI

Mavlonova Mexri, Misirova Mahfirat

Guliston shahar 15 - maktab o'qituvchilari boshlangich

Boshlang'ich sinflarda aqliy tarbiyani shakllantirishda quyidagi metodlardan foydalanish zarur deb hisoblaymiz. Bu esa o'quvchilarning aqliy tafakkurining shakllanishida muhim o'rin egallaydi.

Kuzatish va nazorat qilish, suhbat va hikoya, tushuntirish, rag'batlantirish va tanbeh berish, ma'qullash, ku'rgazmalilik, na'muna ku'rsatish, ishontirish, bahs, munozara kabilar.

Kuzatishlar shundan dalolat beradiki, boshlang'ich sinf o'qituvchilari dars jarayonida yozma ishlardan faqat ona tili darslarida foydalanishadi. Bunday mashg'ulotlar aksariyat hollarda, o'quvchilarning yozma savodxonligini tekshirishga qaratilgan bo'ladi (insho, diktant). Vaholanki, "o'qish", boshqa darslarda ham yozma ish turlaridan foydalanish yaxshi natijalarga olib keladi. Yozma ishlar bolalarni mustaqil fikrlashga, dunyoqarashini o'stirishga hizmat qilishi bilan birga, barcha o'quvchilarning mavzu yuzasidan olgan bilimlarini tekshirib ko'rishga imkon beradi. Bo'lim yoki mavzu yakunida yozma ishlar tashkil etilganda o'quvchilar darsda olgan bilimlarini mustahkamlaydilar, mavzuga qayta murojaat etish orqali asar haqidagi tasavvurlari yanada teranlashadi, xotirasidan mustahkam joy oladi. Yozma ishlarni bajarish jarayonida o'quvchilarda Vatanga nisbatan g'urur, muhabbat tuyg'ulari tarbiyalanadi. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi yozma ish uchun o'zi mustaqil holda mavzu tanlashi ham mumkin, albatta, bu mavzular ham shoir asarlaridagi asosiy g'oyalarga qaratilishi lozim. Mavzular quyidagi mazmunda "Men sevgan shoir", "Vatanim kuychisi", "O'zbekiston – vatanim manim", "Men nechun sevaman O'zbekistonni" kabi mavzularda bu'lishi mumkin.

Dunyoqarash tabiat, ijtimoiy jamiyat, tafakkur hamda shaxs faoliyati mazmunining rivojlanib borishini belgilab beruvchi dialektik qarashlar va e'tiqodlar tizimidir. Muayyan dunyoqarashga ega bo'lish shaxsda atrof-muhit, ijtimoiy munosabatlar, mehnat faoliyati va ishlab chiqarish jarayoni, sub'ektlarga nisbatan ma'lum munosabatning qaror topishi, shuningdek, shaxs tomonidan zimmasidagi ijtimoiy burchlarini to'laqonli anglash va ularni bajarishga nisbatan mas'uliyat tuyg'usiga ega bo'lishi uchun zamin yaratadi.

Shaxsda dunyoqarash izchil, tizimli, uzluksiz hamda maqsadga muvofiq tashkil etilayotgan

ta'lim-tarbiyaning yo'lga qo'yilishi, uning turli yo'nalish va mazmundagi ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etishi, shuningdek, o'z-o'zini tarbiyalab borishi natijasida shakllanadi. Yosh avlod dunyoqarashining shakllanishida ta'lim muassasalarida o'qitilishi yo'lga qo'yilgan tabiiy, ijtimoiy va gumanitar fanlar asoslarining ular tomonidan puxta o'zlashtirilishi muhim o'rin tutadi. O'z mazmunida ezgu g'oyalarni ifoda etgan dunyoqarash shaxs qiyofasida namoyon bo'layotgan ijobiy fazilatlarining boyib borishiga yordam beradi.

Dunyoqarash o'z mohiyatiga ko'ra, ilmiy (muayyan falsafiy tizimga ega) va oddiy (muayyan falsafiy tizimga ega bo'lmagan) dunyoqarash tarzida farqlanadi. Ilmiy dunyoqarash asosida uzluksiz, izchil ravishda mavjud fanlar asoslarini puxta o'zlashtirib borish, ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etish natijasida barqarorlik kasb etgan g'oyalar yotadi.

Shaxs dunyoqarashini shakllantirish uzoq muddatli, dinamik xususiyatga ega murakkab jarayon sanaladi.

Aqliy tarbiya va ilmiy dunyoqarashning asosiy belgilari va mohiyati. Shaxs dunyoqarashining shakllanishida aqliy tarbiya muhim o'rin tutadi. Aqliy tarbiya shaxsga tabiat va jamiyat taraqqiyoti to'g'risidagi bilimlarni berish, uning aqliy (bilish) qobiliyati, tafakkurini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat bo'lib, uni samarali yo'lga qo'yish asosida dunyoqarash shakllanadi.

Aqliy tarbiya o'quvchilarni ilm-fan, texnika, texnologiya hamda ishlab chiqarish sohalarida qo'lga kiritilayotgan yutuqlar bilan tanishtirish, ularda ijodiy, erkin, mustaqil fikrlash ko'nikmalarini hosil qilishga zamin yaratadi.

Aqliy tarbiya jarayonida quyidagi vazifalar hal etiladi:

Tarbiyalanuvchilarga ilmiy bilimlarni berish.

1. Ularda ilmiy bilimlarni o'zlashtirishga nisbatan ongli munosabatni qaror toptirish.
2. Mavjud bilimlardan amaliyotda foydalanish ko'nikma va malakalarini tarkib toptirish.
3. Bilimlarini doimiy ravishda boyitib borishga intilish tuyg'usini shakllantirish.
4. Bilimlarni o'zlashtirishga yordam beradigan psixologik qobiliyatlar (nutq, diqqat, xotira, tafakkur, ijodiy xayol) va xususiyatlar (aniq maqsadga intilish, qiziquvchanlik, kuzatuvchanlik, mustaqil fikrlash, ijodiy tafakkur yuritish, o'z fikrini asoslash, mavjud ma'lumotlarni umimlashtirish, guruhlashtirish, mantiqiy xulosalar chiqarish va hokazolar)ni rivojlantirish.

Aqliy ta'lim va tarbiya birligi asosida shaxsda tafakkur (ijtimoiy voqea-hodisalarning ongda to'laonli aks etishi, inson aqliy faoliyatining yuksak shakli) rivojlanadi. Manbalarning ko'rsatishicha, aqliy tafakkurning mavjud darajasini belgilash bir qadar murakkab bo'lib, quyidagi belgilarga ko'ra aniqlanishi mumkin:

1. Ilmiy bilimlar tizimining mavjudligi.
2. Mavjud ilmiy bilimlarni o'zlashtirib olish jarayoni.
3. Fikrlash ko'nikmasiga egalik.
4. Bilimlarni egallashga bo'lgan qiziqish hamda ehtiyojning yuzaga kelganligi.

Aqliy tafakkur uzoq muddat hamda tinimsiz izlanish natijasida yuzaga keladi. Uning shakllanishida ilmiy qarash va e'tiqod o'ziga xos o'rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. - T.: 2003.
2. Ishmuhamedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. - Toshkent, 2004-y.
3. Yo'ldoshev J.G', Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etish. Toshkent, 2008-y.

SINF DAN TASHQARI MASHG'ULOTLARDA AQLIY TARBIYANI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI

*Gaipova Iroda Kusherbayevna, Nurmatova Surayyo Obitjonovna
Sirdaryo tuman 22 maktab Rus tili fani oqituvchisi
Sirdaryo tumani 22 maktab Boshlangich sinf oqituvchisi*

Dars jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarining dunyoqarqshi shakllana boradi, mustaqil fikrlashga o'rganadi, dunyoviy bilimlar bilan tanishadi va ularning uzluksizligi rivojlanib boradi. Xar bir darsning muvaffaqiyati uning oldiga qo'ygan maqsadiga bog'liqdir. Qachonki, maqsad aniq va puxta, o'quvchini xar bir taraflama rivojlantirishga qaratilgan bo'lsa, darsning samaradorligi ta'minlanadi.

Maktab o'quvchini o'qish malakasi bilan qurollantirish bilan birga mustaqil o'qiy oladigan faol kitobxonni tarbiyalaydi. Shu jixatdan sinfdan tashkari o'qish tarbiyaning asosiy quroli sifatida xizmat qiladi, ko'p narsani bilishga xavasni orttiradi. Sinfdan tashqari mashqulotlar bevosita sinfdan olib boriladigan o'quv darslari bilan boqliq qisoblanadi. Sinfdan tashqari o'qish darslarida o'quvchilar o'zlari mustaqil kitob tanlab uni mutaola qiladilar, o'qiganlari yuzasidan baxs-munozora uyushtiradilar, bu esa ularda aqliy tarbiyaning shakllantirib, dunyoqarashini o'stirishga erkin muloxazalar tutishga o'rgatadi. Bundan tashkari sinfdan tashqari o'qish mashqulotlarida mustaqil bajarish uchun mashqulotlar eng yaxshi ishonarli taqrizlarni yozuvchi qaqida to'plagan ma'lumotlarni o'qish "tez aytish", "topishmoqlar" "maqollar aytish" bilimlar anjumani kabi ko'rik tanlovlar tashkil qilish, muayyan mavzular bo'yicha savol-javoblar uyushtirishb o'yin tarzidagi ish turlaridan foydalanish zarur. O'qigan asarlar yuzasidan suxbatlar o'tkazish "Kitob xaftaligi" tashkil etish asarlar asosida kichik insho yozishni mashq qilish, o'quvchilar aqliy faoliyatini shakllantirishda muhim omildir.

Bundan tashqari boshlanqich sinflarda matematika darslarida ham o'quvchilarda aqliy tarbiyani shakllantirish maqsadida sinfdan tashqari mashqulotlar olib borish mumkin. Masalan: darsdan tashqari holatlarda to'garaklar joriy qilish. Matematika fani xaftaligi o'tkazish, sinflar o'rtasida matematika fani yuzasidan bellashuvlar tashkil qilish. "eng yaxshi matematik" tanlovni o'tkazish va boshqa bir qator sinfdan tashqari mashg'ulotlar olib borish yo'llari bilan amalga oshiriladi. Shuningdek ona tili fani yuzasidan o'quvchilar aqliy salohiyatini oshirish maqsadida sinfdan tashqari mashg'ulotlar tashkil etish mumkin. Bunda o'quvchilar va sinflar o'rtasida "Kimning xati chiroyli", "Eng yaxshi insho" ko'rik tanlovlri sinfdan tashqari xolatlarda turli tadbirlar o'tkazish, to'garaklar tashkil etish "Navoiyxonlik" kechalarini o'tkazish bilan o'quvchilar ma'naviyatini yuksaltirish, aqliy saloxiyatlarini oshirishga erishishi mumkin.

Atrofimizdagi olam, tabiat darslarida sinfdan tashqari mashqulotlar olib borishda ularni jonli tabiat olamiga olib chiqish, sayoxatlar uyushtirish, xayvonot bog'lariga olib borish, vohamizda uchraydigan o'simliklar turlarini ko'rsatish tabiat in'om etgan boyliklarni asrab-avaylab kelgusi avlodlarga yetkazish to'g'risida tushunchalarni shakllantirish orqali erishish ko'zda tutiladi. Bundan tashqari o'quvchilarga sinfdan va sinfdan tashqari darslarida tabiat haqida turli video lavxalar qo'yib ko'rsatish va eshittirish orqali ularda ongni anglash xislatlarini rivojlantirish qam sinfdan tashqari olib boriladigan mashqulotlarning muqim shartidir.

Jismoniy tarbiya darslarida esa sinfdan tashqari olib boriladigan mashqulotlarda o'quvchilarni sport musobaqalariga olib borish, darsdan bo'sh vaqtlarida sport bilan shug'ullanishini nazorat qilish, maktablarda boshlanqich sinflar o'rtasida sport musobaqalarini tashkil etish, bolalarni sportga qiziqtirib, turli sport musobaqalariga jalb qilish. "Sog'lom tanda- sog' aql" degan xikmatli so'z asosida sportning sog'ligimizga foydasi haqida tushuncha berish ongiga singdirish orqali aqliy tarbiyani shakllantirish amalga oshiriladi. Sinfdan tashqari olib boriladigan mashqlar asosan o'quvchilarni nazariyada olgan bilmlarini amaliyotda ko'rib ishonch hosil qilishga o'rgatiladi. Boshlanqich sinflarda (1-4) sinfdan tashqari olib boriladigan barcha fanlar bo'yicha mashqulotlar o'quvchilarni nafaqat aqliy tarbiyasini balki ularda axloqiy jismoniy istetik tarbiya shakllarining rivojida muhim omil bo'lib hisoblanadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida aqliy tarbiyani shakllantirishi o'z tarixiy ildizlariga ega. Bu borada milliy va umumbashariy qadriyatlariga tayanish va ta'lim jarayonida ularning samarali imkoniyatlaridan maqsadga muvofiq ravishda foydalanish muhim axamiyat kasb etadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida aqliy tarbiyani shakllanganligining bugungi kundagimavjud holati o'rganildi, o'quvchilarning o'ziga xos xususiyatlari aniqlandi. Bunda ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanishning samaradorligi ta'minlandi.

O'quvchilarda aqliy tarbiyani shakllantirishning mazmuni boyitildi. O'quvchilarda aqliy

tarbiyani shakllantirishda innovasion metodlardan foydalanish zarurligini tajriba tasdiqladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Ziyomammedov B., Tojiyev M. Pedagogik texnologiya. Zamonaviy o'zbek milliy modeli. Toshkent, «Lider Press», 2009-y.
2. Ishmuhamedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. - Toshkent, 2004-y.
3. Yo'ldoshev J.G'. «Ta'lim yangilanish yo'lida». - T.: O'qituvchi. 2000

O'QISH DARSLARIDA "KEYS" TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH YO'LLARI

*Xo'jamurodova Malika O'ktamovna, Absatova Dilnoza Xudoynazarovna.
Sayxunobod 12 maktab*

Jamiyat hayotining jadal tarzda rivojlanishi, taraqqiyot ehtiyojlari va imkoniyatlarining kengayishi, turli-tuman axborotlar oqimining tezlashishini hisobga olib, pedagogik texnologiya fani pedagogik prognostikaning yangi shakl, vosita va usullaridan foydalanish mexanizmini yaratishni o'z zimmasiga olmog'i talab etiladi. Bugungi kunda turli tipdagi ta'lim muassasalarida amalgam oshirilayotgan ta'limning o'rni va darajasini aniqlashga yo'naltirilgan tadqiqotlarda pedagogik prognostikaning imkoniyatlaridan keng foydalanishni taqozo qiladi. Shundagina ta'lim jarayonining natijalari fan, ishlab chiqarish, madaniyat, iqtisod hamda jamiyat hayotining barcha sohalarini rivojlantirishga xizmat qila oladi. Pedagogik prognostikaga tayangan holda yaratilgan nazariyalargina uzluksiz ta'lim jarayonini uning bosqichlari va komponentlarining mazmuni, shakli va vositalarini, ta'lim natijalarining jamiyat hayotiga ko'rsatadigan ta'sir darajasini oldindan loyihalashtirishga asos bo'la oladi. Demak, shundagina o'quv-tarbiya jarayonini yangi prinsiplar va yangi mafkuraviy negizda qayta qurish, ta'lim sohasida islohotlarni amalga oshirish mumkin.

Ta'lim jarayoniga tatbiq qilinadigan har qanday pedagogik texnologiya, uning komponentlari xoh ta'lim mazmuni, xoh o'quv dasturi yoki darslik, xoh o'qituvchi faoliyati orqali o'tishidan qat'iy nazar, o'quvchining jonli tarzda erkin va ijodiy faoliyatini jadal rivojlantirishga xizmat qilishiga erishish talab qilinadi. Bunda pedagogik texnologiyalar, birinchi navbatda, har bir o'quvchi-talabaning boshqa o'quvchi-talabalar, dars materiallari hamda o'qituvchi (pedagog) bilan erkin tarzda mulohaza qilishini, fikr almashishini ta'minlaydi. Pedagogik texnologiyalar pedagogik amaliyotning o'quvchi yoki talaba shaxsiga qonunlar majmuini, tabiat va jamiyat hodisalarini, kishilik madaniyati va axloq-odobini, muayyan fan asoslarini tanituvchi shakli sifatida namoyon bo'lishi lozim. Bu sohada nazariy jihatdan qat'iy asoslangan, har tomonlama sinovdan o'tgan hamda aniq amal qiluvchi qonuniyatlarga tayanish maqsadga muvofiqdir.

Pedagogik texnologiyaning asosiy mohiyati har bir shaxsda mavjud bo'lgan uning ehtiyoji, qiziqishi, iqtidori va imkoniyatlari asosida ularda ijobiy xislat va fazilatlarni shakllantirish, rivojlantirish sanaladi.

Bu o'rinda ta'lim mazmuni shaxsning shakllanishi va rivojlanishi uchun muhit sanaladi. Shuning uchun ta'lim mazmuni insonparvarlikka yo'naltirilgan gumanistik g'oya va me'yorlarni o'zida mujassamlashtirgan bo'lishi lozim.

Pedagogik niunosabatlarni insonparvarlashtirish va demokratlashtirish asosidagi pedagogik texnologiya yakka hokimlik texnologiyasiga tubdan qarshi bo'lib, pedagogik jarayonda hamkorlik, g'amxo'rlik. o'quvchi-talabalar shaxsini hurmat qilish. e'zozlash orqali shaxsni rivojlantirish va ijod qilishga qulay muhit yaratadi. An'anaviy ta'limda o'qituvchi (pedagog) ta'lim mazmunining subyekti, o'quvchi-talabalar pedagogik jarayonning obyekti deb qaralsa, hamkorlik pedagogikasida o'quvchi-talaba o'z o'quv faoliyatining subyekti sanaladi. Shu sababli hamkorlik pedagogikasida yagona ta'lim jarayonining ikkita subyekti hamkorlikda o'quv-tarbiya vazifalarini hal etadi.

Usullarni ma'lum bir uslubda qo'llash jarayonida har bir harakat maqomi muayyan maqsad ko'rsatkichlariga bo'ysundiriladi. Undan tashqari, inson maqsadga yetish jarayonida bir qator qonuniyatlarga ham tamoyil sifatida amal qiladi.

Ta'lim uslubi — o'qituvchi (pedagog) bilan o'quvchi-talabalar orasida bilim berish va uni olish

maqsadida amalga oshiriladigan o‘zaro aloqalarni tizinig soluvchi pedagogik tadbiridir. O‘qitish uslublari o‘quv jarayonining asosiy qismi hisoblanadi. Tegishli uslublarsiz pedagogik faoliyatni amalga oshirib bo‘lmaydi.

Uslublar bilimlarni uzatish va qabul qilish xarakteriga qarab so‘z orqali ifodalash, ko‘rgazmali va amaliyga bo‘linadi. Ta’lim mazmunini o‘zlashtirishda o‘quvchi-talabalarning ta’lim faoliyatiga munosib ravishda quyidagi uslublari: tushuntirish — illyustrativ, reproduktiv, muammoli bayon, xususiy qidirish yoki evristik hamda yarim tadqiqot uslublari qo‘llaniladi.

Ta’limning og‘zaki uslublari: hikoya, ma’ruza, suhbat va boshqalar kiradi. Bu uslublarni qo‘llashda o‘qituvchi (pedagog) so‘z vositasida o‘quv materialini bayon qiladi, tushuntiradi, o‘quvchi- talabalar esa tinglash, eslab qolish orqali uni faol qabul qiladi.

Ilg‘or ijodkor pedagoglar, an’anaviy ta’lim texnologiyasidagi kamchiliklarga javob topish, talabaning aqliy mehnatini amalga oshirish usullarini izlanishlari natijasida o‘ziga xos ta’lim usuli vositalarini yaratadilarki, buning oqibatida yangicha pedagogik fikrlash tarzi vujudga keldi. Mana shu izlanishlar zahirida pedagogik texnologiyaga asos solgan pedagogik texnologiyalar yaratila boshlandi. Pedagogik texnologiya ta’lim jarayoniga bir qator yangi elementlarni olib kirishni taqozo qiladi. Bular quyidagilar:

1. Diagnostika.
2. O‘quv birliklarini (mezonlarini) belgilash.
3. Diagnostik tahlil.
4. Tuzatish kiritish (korreksiya).
5. Qayta to‘latish (ketma-ketlikni yo‘qotish).
6. Kutilishi lozim bo‘lgan natijani olish.
7. Reytinq.

Yuqorida keltirilgan tamoyillar va elementlarga asoslangan holda pedagogik texnologiyalarni ta’lim jarayoniga joriy qilish, xorijiy hamda hamdo‘stlik davlatlaridagi pedagogik texnologiyalardan foydalanib, o‘zimizning pedagogik texnologiya tizimini vujudga keltirish borasida amalga oshirilayotgan ishlarni umumlashtirish va amalda qo‘llash uchun quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Ziyomammedov B., Tojiyev M. Pedagogik texnologiya. Zamonaviy o‘zbek milliy modeli. Toshkent, «Lider Press», 2009-y.
2. Ishmuhamedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta’lim samaradorligini oshirish yo‘llari. - Toshkent, 2004-y.
3. Yo‘ldoshev J.G‘. «Ta’lim yangilanish yo‘lida». - T.: O‘qituvchi. 2000

КУРАШ СПОРТИНИНГ АНЪАНАЛАРИ УРФ ОДАТЛАРИ–ТАРБИЯ ВОСИТАСИДИР

Ишмуратова Шахруз Анварбековна, Худойбердиева Д. Б, Расулов Ш. М

Гулистон олимпия захиралари спорт мактаб- интернати уқитувчиси, ГулДУ магистранти, ГулДУ талабаси

Анотация: ушбу маколада юртимизда, балки бутун дунёда оммалашиб бораётган кураш спорт турининг аънаналари, урф одатлари хакида батафсил маълумотлар берилган. Курашнинг миллий ва умуминсоний қадрият эканлиги илмий асосланиб, маълумотлар етказилди.

Калит сўзлар: Кураш, кураш аънаналари, жисмоний тарбия, спорт, полвон, ўзбек спортчилари, буюк аждодларимиз, урф-одатлари, мусобақа.

Юртимизда жисмоний тарбия ва спортни ривожлантириш, оммалаштириш ҳамда уни умуммиллий ҳаракатга айлантириш, фуқаролар саломатлигини мустаҳкамлаш, ёш авлоднинг баркамол этиб вояга етишида муҳим омил ҳисобланади. Шу боис юртимизда жисмоний тарбия ҳамда спортга давлат сиёсатининг муҳим йўналишларидан бири сифатида алоҳида эътибор қаратилмоқда. Ўзбек спортчиларининг халқаро майдонларда юксак натижаларга эришиб

келаётганларининг муҳим омилларидан бири бу ўқувчи-ёшлар ўртасида оммавий спортга алоҳида эътибор қаратилаётганидир. Мамлакатимизда жисмоний тарбия ва спортни оммалаштириш ижтимоий сиёсатнинг муҳим йўналишларидан бири этиб белгиланган. Чунки спорт аҳоли саломатлигини мустаҳкамлаш, ёш авлодни соғлом ва баркамол этиб тарбиялаш орқали жамиятда соғлом турмуш тарзини қарор топтиради. Турли касалликлар, ёшлар ўртасида зарarli одатларнинг олдини олади. Спорт юксак маданият, ватанпарварлик туйғуларини шакллантиришда ҳам муҳим ўрин тутди. Бу соҳада эришилган ютуқлар мамлакатни дунёга танитади, барча юртдошларга ғурур-ифтихор бағишлайди.

Мамлакатимизда спортни оммалаштириш бўйича беш йиллик миллий концепция ишлаб чиқиш зарур. Аҳолини жисмоний тарбия билан мунтазам шуғулланиб, соғлом турмуш кечиришга жалб этиш, шу орқали касалликларнинг олдини олиб, одамларнинг умрини узайтириш концепциянинг асосий йўналиши ва натижаси бўлиши керак, – дейди Президентимиз Ш.М.Мирзиёев.

Қадимий қадриятларимиз, хусусан мардлик, жасурлик, Ватанпараварлик, гуманизм ғояларини ўзида мужассам этган миллий спортимиз бўлган курашни оммалаштириш, кенг қўламда тарғиб қилиш ва ривожлантириш, дунёга танитиш ва ушбу қадриятимизни умумжаҳон дурдонасига айлантириш бўйича қатор ишлар амалга оширилмоқда.

Шу билан бирга, курашнинг тобора оммалашиб бораётганлиги нуфузли халқаро мусобақаларни ташкил қилишга, мавжуд инфратузилма ва моддий-техник базани модернизация қилишга, спорт инвентарлари ва кийимлари таъминотини яхшилашга, бу борада ишлаб чиқаришни кенгайтиришга, шунингдек соҳада малакали кадрлар, мураббийлар ва ҳакамлар тайёрлашга бўлган эътиборни янада кучайтиришни талаб этмоқда.

Буюк аждодларимиздан мерос қолган кураш спортининг бой анъаналари ва қадриятларини келажак авлодларга етказиш, ўзбек спорти бренди номи билан курашнинг жаҳон аренасидаги ролини ошириш, ёшларни миллий спортга бўлган қизиқишларини қўллаб-қувватлаш ва рағбатлантириш орқали уларда ватанпарварлик туйғусини янада мустаҳкамлаш, аҳолининг барча қатламлари, айниқса, ёшларни, шунингдек жаҳон халқларини мазкур спорт тури билан шуғулланиши учун зарур шароитлар яратилиб келинмоқда.

Кураш анъаналари- халқнинг тарихий шаклланиши ва ривожланиши жараёнида яратилган ва авлодларга муқаддас мерос сифатида ўтиб келаётган бебаҳо бойликдир. Миллатнинг асосий белгиларидан бирига айланган урф одатларни асраш ва камол топтириш ҳар бир авлоднинг муқаддас бурчи ҳисобланади. Аждодларимиз анъаналари барҳаёт бўлиши учун, аввало уни келажакимиз буниёдорлари бўлган ёшлар онгида барқарорлаштириш лозим, акс холда ёшлар томонидан аждодлар аналарининг қадирланмай қўйилиши авлодлар ўртасида маънавий узулишни вужудга келтиради. Авлоддан авлодга ўтиб келаётган халқ анаалари шўролар даврида жиддий тўсиқларга учраган бўлсада, ўзбек халқи мустақилликка эришгандан сўнг, қайта тиклана бошлади. Чунки анаалар халқ манавиятининг таркибий қисми, муҳим ахлоқий қадрият, тарбия воситасидир. Халқ анъаналари, маросимлар жараёнида намоён бўлаётган одоб-ахлоқ, меҳр-оқибат, иззат-икром каби ҳислатлар ёшлар манавиятининг шаклланишида муҳим аҳамият касб этмоқда. Бундай улкан ва ўта маъсулиятли ижтимоий-педагогик жараёнларни амалга ошириш долзарб вазифалардан биридир.

Ҳар қандай халқнинг миллий анъанаси, шу миллатнинг ҳаёт эҳтиёжи, турмуш тақозоси натижасида дунёга келади. Миллатимизнинг фахри бўлган кураш анъанаси бир неча минг йиллик тарихга эга бўлиб, ўзида ўзбек халқимизнинг кўплаб урф-одатлари, удумларини мужассамлаштирган ўзига хос санъатдир.

Кураш анъанасини ўзбек халқи кўз қорачиғидек асраб-авайлаб, авлоддан-авлодга мерос қилиб шу кунгача етказиб келди.

Халқимиз ҳаётида муҳим аҳамият касб этиб келаётган, аждодларимиз мероси ҳисобланган кураш анъанаси, урф-одатлари, удумлари ҳалоллик, поклик қонунияти асосида тарихан ривожланиб халқимизнинг маънавий бойлиги сифатида авлодларимизга етиб келган. Демак, бу буюк мерос аждодлар билан авлодларимизни боғловчи асосий халқалардан бири ҳисобланади. Ўзида ҳалоллик ва покликни мужассамлаштирган, ёшларимиз тарбиясида ҳар

томонлама бекиёс аҳамиятга эга бўлган тўй кураши асосида дунёда янги спорт тури сифатида тан олинган ўзбек миллий спорт тури сифатида “Кураш” вужудга келган. Мерос асосида вужудга келган янгилик ҳеч вақт енгилмайди деган фалсафани ҳам унутмаслигимиз керак. Минг йиллар бурун юртимизда ҳозирги вақтдаги футбол, теннис, волейбол каби спорт турлари бўлмаган.

Қадимги юнон ёзувчиси Элиан Клавдийнинг маълумотларига қараганда, ҳозирги Ўзбекистон сарҳадида сак қабилалари истиқомат қилган бўлиб, улар ўртасида кураш ниҳоятда кенг тарқалган экан. Ўзбеклар шу қабилаларнинг авлодларидир. Лашкарбошилар ўз аскарининг жисмоний тайёргарлиги, кучи, чаққонлиги ва сезгирлигини кураш орқали ривожлантирганлар. Қадим замонларда Ўзбек элида ривожланган бир анъана бўлган экан. Унга биноан, деҳқонлар экинларини, чорва учун ем-хашакларини ғамлаб олгандан кейин қиш фаслидан то баҳор бошлангунига қадар чўлларга, тоғ-адирларга чиқиб, чодирлар тикиб кураш тушганлар. Чавандозлар улоқ чопган. Бундай тўйларда асосан тўй кураши бўлиб, уларда ёш болалардан тортиб, отахон полвонлар эртадан кечгача курашганлар. Ҳалойиқ мириқиб, завқ-шавқ билан дам олганлар, хордиқ чиқарганлар. Оталар ўзининг 4-5 ёшли болаларини қўшнисининг ёки қариндош уруғларининг уйларига етаклаб келган ва давра қуришиб, гилам ёки кийгизнинг устида кураштирганлар, кимнинг боласи зўрлигини аниқлаганлар. Бундай воқеалар ўзбек халқининг ҳаётида кенг тарқалган урф-одатлардан ҳисобланган. Давра суҳбатларининг асосий мавзуси кўпчилик ҳолатларда полвонлар тўғрисида бўлган. Айниқса, курашли тўйлар ва тўйлар мавзусидан кейин полвонларнинг кураши, энг кучли полвонлар тўғрисидаги қизғин суҳбатлар, ҳар хил баҳслар авжига чиққан. Даврага чиққан ҳар полвоннинг курашини халқ йиғинларида, чойхоналарда, давра суҳбатларида астойдил муҳокама қилганлар. Бу муҳокамалар тўйлардан кейин ҳам бир неча ойлаб, йиллаб давом этган.

Кураш спортида полвонликда асосан: инсон учун зарур бўлган куч, чаққонлик, эпчиллик, эгилувчанлик, чидамлилиқ каби жисмоний сифатлар билан бирга иродавий, руҳий, ўз кучи ва имкониятларига ишонч, жанговорлик фазилатлари мавжуд бўлади. Ана шу фазилатлар полвонни ғолибликка чорлайди. Халқимизда “Полвонлик-баркамоллик” мақоли бекорга тўқилмаган. Полвонларнинг ўзаро беллашувларидаги ҳаракат фаолиятларини кузатувларимиз, таҳлил ва хулосаларимиз юқорида қайд этилган фикрларимиз исботидир.

Олиб борган тадқиқотларимиз, кузатиб ўрганиш орқали олган маълумотларимиз ва таҳлил натижалари шуни кўрсатмоқдаки, кураш киши организмига ижобий таъсир этибгина қолмай, балки, у билан шуғулланувчиларнинг ҳар томонлама ривожланишига ёрдам берадиган ва ёшларни маънавий тарбиялашнинг самарали воситаларидан биридир.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Кураш Миллий спорт турини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғриси”да Қарори.2.10.2017
2. Ахмедов Ф. Қ. Жисмоний таълимда миллий ананаларнинг ўрни. Тошкен 2010 йил “Фан нашрети” 110-бет.
3. К. Юсупов Кураш Халқаро қоидалари, техникаси ва тактикаси. Тошкент 2005 йил 129-бет.
4. Ф.Қ.Ахмедов, А.Р.Абдулахатов Ўзбек кураши миллий ва умуминсоний қадриятлар дурдонаси.Тошкент 2017 йил 128- 6

YUQORI SINF DARSLARIDA ELEKTRON DARSLIK LARDAN FOYDALANISHNING TA'LIM SIFATIGA TA'SIRI

G. N. Safarova, D. I. Rajabova

Teacher of IDUM 2, Gulistan. safarovagavxar22@gmail.com

teacher of alternative education of the 24th school. rajabovadilafroz44@gmail.com

Annotatsiya: *darslarda multimedia vositalaridan foydalanish, multimedia ilovalarda berilgan*

animatsiya, multfilm, test topshiriqlari, mantiqiy topshiriqlar, video materiallar, didaktik o'yinlar o'quvchiga muhimligi.

Kalit so'zlar: *multimedia, didaktik o'yinlar, foydalanuvchi interfeysi.*

Annotation: *the use of multimedia in the classroom, animation in multimedia applications, cartoons, tests, logic assignments, videos, didactic games are important for the student.*

Keywords: *multimedia, didactic games, user interface.*

Аннотация: *для школьника важно использование мультимедиа на уроках, анимация в мультимедийных приложениях, мультфильмы, тесты, логические задания, видеоролики, дидактические игры.*

Ключевые слова: *мультимедиа, дидактические игры, пользовательский интерфейс.*

Mamlakatimiz kelajagi bugun maktablarda ta'lim–tarbiya olayotgan farzandlarimizga, ularning har tomonlama yetuk va barkamol insonlar bo'lib yetishishlariga bog'liq. Bu ma'suliyatli vazifani bajarish hozirgi zamon o'qituvchisi, ayniqsa boshlang'ich sinf o'qituvchilaridan o'z mahoratlarini doimiy tarzda oshirib borishlari, ilg'or pedagogik texnologiyalarning izchil metodlari mohiyatini to'g'ri anglashlari va uni o'z darslarida mohirona foydalanishlarini taqazo etadi. Bugungi ta'lim jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalarni faol qo'llash, ta'lim samaradorligini oshirish, tahlil qilish va amaliyotga joriy etish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir.

O'quvchilarning fikr doirasi, ongi, dunyoqarashini o'stirish, ularni erkin fikrlaydigan, erkin ishtirokchiga aylantirish nihoyatda muhimdir.

O'qituvchi darsda boshqaruvchi, o'quvchilar esa ishtirokchiga aylanmog'i lozim. Ana shu vazifani uddalashga innovatsiya faoliyat ustunligi ko'p qirrali samara keltiradi. Hozirgi kunda ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan–kunga kuchayib bormoqda. Buning asosiy sabablaridan biri an'anaviy ta'limda o'quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi. Shuning uchun yuqori sinf o'qituvchisi zamonaviy o'qitish metodlarni va axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalanishni yaxshi bilmog'i lozim.

Darslarda multimedia vositalaridan foydalanish ham bir qancha afzalliklarga ega. Multimedia deganda turli shakldagi ma'lumotlarni qayta ishlovchi vositalar majmuasi tushuniladi. Multimedia bir vaqtning o'zida turli ko'inishdagi axborotlardan: matn, grafika, tovush va boshqalardan foydalanishni ko'zda tutgan foydalanuvchi interfeysining konsepsiyasi.

Multimedia – bu informatikaning dasturiy va texnikaviy vositalari asosida axborotning an'anaviy va original turlari asosida o'quv materiallarini o'quvchilarga yetkazib berishning mujassamlashgan holdagi ko'rinishidir. Multimedialardan dars jarayonida foydalanish bir qancha imkoniyatlarni beradi:

- o'quvchilarda fanga qiziqish uyg'otadi;
- mavzuni tez tushunib olish, berilayotgan materialni chuqurroq va mukammalroq o'zlashtirish;
- vaqtni tejash va vaqtdan unumli foydalanish;
- axborotlarni tezkor olish;
- olingan bilimlar kishi xotirasida uzoq vaqt saqlanib, kerak bo'lganda amaliyotda qo'llash;
- darsni zamonaviy tarzda modellashtirish;
- fan bo'yicha qo'shimcha ma'lumot, axborotlarga ega bo'lish kabi bir qancha imkoniyatlarni beradi.

Ta'limda yuqori sinflar uchun yaratilgan multimedia ilovalar biz pedagoglar uchun juda katta imkoniyat eshiklarini ochdi. Multimedia ilovalarda berilgan animatsiya, multfilm, test topshiriqlari, mantiqiy topshiriqlar, video materiallar, didaktik o'yinlar, lug'at ishi, dam olish daqiqasi uchun mo'ljallangan materiallar, qo'shiqlar o'quvchilarga nafaqat puxta bilim beribgina qolmay, ularda mustaqil fikrlash va mustaqil ishlash malakasini shakllantirishga yordam beradi.

Shuninigdek, o'quvchilarning ijodiy fikrlash doirasini rivojlantirish, vatanparvarlik va milliy g'ururni shakllantirish, ona vatanga sadoqat, milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirish, tabiatga ongli munosabatni tarkib toptirishga yordam beradi.

Yuqori sinf o'qituvchisi ta'limning davlat ta'lim standarti bo'yicha o'quvchilarning mantiqiy tafakkur qila olish salohiyatini, aqliy rivojlanishini, dunyoqarashini, kommunikativ savodxonligini va o'z-o'zini anglash salohiyatini shakllantirishga, moddiy borliq go'zalliklarini his eta olishga o'rgatish, tafakkur qilish qobiliyatini kengaytirish, erkin fikrlay olish, o'zgalar fikrini anglash, o'z fikrini ravon bayon qila olish ko'nikmalarini egallashlariga erishishi lozim. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda elektron darsliklar, multimedia ilovalar o'qituvchiga yaqin ko'makdoshdir.

Shu o'rinda buyuk olim Konfutsiyning "Aytib ber-men unitaman, ko'rsat-tushunaman, bu narsani o'zim bajarishim uchun sharoit yarat va men o'rganaman" degan ta'limotiga nazar tashlaydigan bo'lsak, o'z tajribamdan shunga amin bo'ldimki, o'quvchi eshitsu 60%, eshitsu va ko'rsa 80%, eshitsu, ko'rsa va bajarsa 100% bilimga ega bo'lar ekan. Buning zamirida o'qituvchining mahorati va albatta bilim darajasi alohida o'rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.Sharq.1997.
2. Ziyomuhamedov.B, Abdullayeva Sh. Pedagogika.-T.O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2000 y.
3. Matematika.(5 sinf o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma) T-2014 y.
- 4.Muslimov N.A., et al. Technology for the formation of professional competence of teachers of vocational education // Monograph.-T.: Science and Technology Publishing House, 2013. - 96 p.
- 5.Markova A. N. Psychology of teacher's work / Book. for teachers. – M.: Enlightenment, 1993. – 190 p.

ABAY IJODIDA PAND-NASIHAATNING FODALANISHI

*Uralov Azamat Begnarovich
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Abay ijodiyoti haqida gap boradi. Uning ikki asrdan beri o'qilib, tahlil etilayotgan "Nasihatlar"ga fikrlar bildiriladi. "Nasihatlar"idan ayrimlari badiiy tahlilga tortiladi. Ijodkor fikrlari, qarashlari ochib beriladi. Maqola so'ngida berilgan fikrlar asosida tegishli tartibda xulosalarga kelinadi.

Аннотация: В этой статье рассказывается об искусстве Абая. Его комментарии были прочитаны и проанализированы в течение двух столетий. Некоторые из «Nasihatlar» подлежат художественному анализу. Творческие мысли и идеи раскрываются. На основании комментариев, приведенных в конце статьи, выводы сделаны соответственно.

Annotation: This article talks about Abai's art. His comments have been read and analyzed over two centuries. Some of the "Nasihatlar" is subject to artistic analysis. Creative thoughts and ideas are revealed. Based on the comments given at the end of the article, conclusions are drawn accordingly.

Abay Qo'nanboyev ijodiga barcha turkiyshunos ijodkorlar qatori barcha kitobxonlar ham qiziqsa kerak. Abayni novator shoir sifatida "Bahor", "Yoz", "Kuz", "Qish" she'rlari o'zining notiqlik san'ati bilan tanilganligi barchamizga sir emas. Ularda yaxshilikka intil va yomonlikka qarshi tur degan g'oyalar ilgari surilganligi ham ayon. Biz uning pand-nasihat yo'nalishida yozilgan "Nasihatlar" nomi bilan mashhur bo'lgan "naqliya so'zlar" asariga to'xtalmoqchimiz. Asar pand-nasihat janrida yozilgan bo'lib 44 bo'limni o'z ichiga qamrab oladi. Bu asar Abay ilmiy me'rosining katta qismini qamrab oladi, desak xato bo'lmas. Ulug' adib va shoir bu asarini inson hayotida katta o'rin tutadigan ilm-ma'rifat, aql-zakovat, insof va adolat, yoqimli xulq, muomala madaniyati, estetik did, din-u diyonat, e'tiqod, xalqlarning va insonlarning ahil va inoq bo'lishi, turli tafakkurlar kurashi,

insoniylik singari yuzlab jihatlarni qamrovi bilan ham ko'rsatib berishga harakat qilgan hamda bunga erishgan ham. Bu bilan ijodkor, yoshlarni yomon xulqdan yiroq bo'lishga, ezgulik va yaxshilikka undashga, insonni har bir yomonlikdan ogoh bo'lishga undagan. Yaxshi inson bo'lishga chaqirgan va bularni misollar asosida ko'rsatib berishga harakat qilgan.

Har bir inson o'z hayot yo'lini o'zi belgilaydi. Yaxshi bo'lsada, yomon bo'lsada jamiyatning bir bo'lagi bo'lib xizmat qiladi. Shu tariqa jamiyat hayotida o'rin egallar ekan, qaysidir faoliyat bilan shug'ullanishi lozim. Har kim imkoniyatiga qarab ish boshlar ekan, bu hususiyatni Abay "Nasihatlar"ining o'ttiz yettinchi so'zida "Insonni insonligi ishni qanday boshlaganidan bilinadi, lekin qanday tugatganidan emas" deya e'tirof etadi. Bunda insonga xos bo'lgan qaysidir faoliyatning boshlash jarayoni insonning nechog'liq maqsadli ekani ko'zda tutiladi. Biror ishni boshlolmaslik holatini qoralaydi. Maqsadning qo'yilishi ishning boshlanishi ekanligini ko'rsatishga urinadi. Uning natijasi va davomini bajarish muhim emasligi, muhimi, boshlab olishlik ekanligi ta'kidlanadi. Bu bilan ijodkor yoshlarni biror ishning qo'lini tutishga undaydi, biror faoliyat bilan mashg'ul bo'lishga chorlaydi. Darhaqiqat, barcha yomonliklar – fisq-u fasodlar bekorchi insonlardan chiqishiga sha'ma qiladi.

Insonlarning yaxshi bo'lishi, insof-diyonatli bo'lishi, mehr-oqibatli bo'lishi, nafs bandasi bo'lib qolmasligi hayot so'qmoqlarida qoqilmasligining garovidir. Shu sababli insonga xos bo'lgan tafakkur tushunchasi keng va to'g'ri bo'lishi lozim. Ijodkor o'z asarida bu jihatlarni ham albatta tilga oladi va shunday yozadi: "Yaxshi odam ko'p so'raydi, ammo oz bersang ham rozi bo'ladi. Yomon odam oz soraydi, ammo ko'p bersang ham rozi bo'lmaydi". Yaxshi va yomon tushunchalarni qarama-qarshi qo'yib, yaxshi qanday xislatga ega bo'lishi kerag-u qanday insonlar yomon sifat bo'lishini ko'rsatadi. Insonga xos bunday fazilatlar chiroyli o'xshatishlar yordamida ochib beriladi. Xalqning ming yillar davomida to'plangan tafakkur mevalariga tayanadi. Qanday insonlar oz so'rasa ham nafs yomonlik bilan so'rashini izohlaydi. Yomon odam oz so'raydi, ammo ko'p bersang ham rozi bo'lmaydi, deganda so'ragan odam yomondir degan xulosaga kelinmaydi, aksincha nokasning ko'zi to'yamaydi, degan naqlga tayanadi. Odamlarni ajrata bilishlik lozimligini uqtiradi. Yaxshi insonlarga yondashish, yomon insonlardan yiroq yurish to'g'ri bo'lishini bir nasihat – bir so'z bilan ko'rsatib beradi.

Davrni, muhitni va zamonni inobatga olgan holda bildirilgan fikrlarni ham tahlilga tortib ko'rish mumkin. Bir gap bo'lib boshimizga ish tushib qolsa, darhol zamonni ayblashni yaxshi bilamiz. Ayniqsa yoshlarimiz xato qilishsa, "o'zing aybdorsan", deyishdan ham tiyilmaymiz. Aslida, har bir inson jamiyatda qoqilishi, xato qilishi mumkin. Farzandlarning xato yo'lga kirib qolishlariga biz kattalar sababchi ekanligimiz ko'pchilikning yodiga kelmaydi. Berilayotgan ta'lim-tarbiya ularni shu holga tushishiga sababchi bo'lishini til nazariyasida o'rganganmiz. Barchamizga ma'lumki, jamiyatdan ayro shaxsning tili chiqmaydi, gung yoki saqov bo'lib qoladi. Shu boisdan ham "Inson bolasini zamona parvarish qiladi. Kimda kim yomon bo'lsa, ayb zamondoshlarida" degan purma'no fikrlarni keltiradi. Aybni birovdan qidirish oson, ammo zamondoshlar, atrof muhit befarq bo'lsa, natija ham shunga yarasha ekanligini ta'kidlaydi.

Har bir inson hayoti davomida ko'plab yutuqlarga, muvoffaqqiyatlarga erishishi mumkin. Bu bilan mag'rurlanib ketmasligi, kerilmasligi shart, chunki mag'rurlanish bu yashash oldida uyqudek gap. Mag'rurlangan insonni ko'zi ko'r deyishgani ham bejizga emas. Ijodkor "Quvonch va mag'rurlik mastlikdir. Faqat mingdan bir kishigina bu narsadan o'zini ehtiyot tutib yura oladi" degan hikmatida ana shunday g'oyalar jamlangan. Binobarin, bunday illat kishilar qalbida asrlar davomida yashab kelmoqda. Ularni bunday uyqudan uyg'otish, kamtarlikka undash bilan bir qatorda, yoshlarni manmanlikdan asrash lozimligi chiroyli hikmatga solib qo'yilgan. Hayotiy tajriba, insonlar quvonchi uzoq davom etishi uchun ham manmanlik qoralangan.

Har bir ishning o'z vaqti soati bo'ladi. Bajarilmay qolgan ishga nisbatan xalq maqoli ham mavjud: "Qolgan ishga qor yog'ar". Bu hikmat nechog'liq topib aytilgan bo'lsa-da, "Bugungi ishni ertaga qo'yma" degan maqol ham shu o'rinda ayni muddaodir. Ammo Abay ijodida ham bunga e'tibor qaratilgan. "Ishning omadi – o'z vaqti" deya berilgan hikmatda huddi shu jihat ko'rsatilmoqda. Yana aytish mumkinki, har bir ishning o'z vaqti-soati bo'lganidek taqdir degani ham borligiga ishora qilinmoqda. Ijodkor taqdirdan qochib bo'lmasligini ta'kidlagan holda ishga ham befarq bo'lmaslik

lozimligini ko'rsatmoqda. Shu sababli bunday hikmatlar hayot qonuniyatidan vujudga kelgan desak xato bo'lmas.

Abay ijodini tahlil etarkanmiz, undagi teran fikrlar, xalqlarning minglab yillik maqollari qatorida bildirilgan hikmatlarni o'qib o'zimizga xulosalar chiqaramiz. Sharq xalqlariga xos bo'lgan pand-nasihat qilish har bir ulug' insonga xos bo'lsa-da, shoir va yozuvchilarning zimmasiga yanada ko'proq mas'uliyat yuklaydi. Buni kimdir angelaydi, kimdir befarq bo'lishi mumkin. Abay Qo'nonboyev ana shunday yukni erta anglagan va xalqqa yetkazib berish asnosida xalq mehrini qozongan ijodkorlardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Fayziyeva X. "Abay buyuk qozoq shoiri va vatanparvari" –Toshkent, 2008.
2. Bukeyxonov A. "Abay Qo'nonboyev" gazetadan.
3. Axmedov S., Qochqorov R., Rizayev Sh. "Darslik-majmua" –Toshkent, 2017.

XALQARO BAHOLASH DASTURLARI HAQIDA

Uralov Azamat

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Dunyoda ta'lim sifati, saviyasi va darajasini aniqlab beruvchi PISA (O'quvchilarni ta'limdagi yutuqlarini baholash xalqaro dasturi), PIRLS (Matnni o'qish va tushunish darajasini aniqlovchi xalqaro tadqiqot), TIMSS (Maktabda matematika va aniq fanlar sifatini tadqiq qiluvchi xalqaro monitoring) kabi bir qator xalqaro dasturlar mavjud bo'lib, ular rivojlangan davlatlardagi ta'lim sifatini yanada oshirishdagi mezon sifatida keng qo'llanilib kelinmoqda.

PISA - o'quvchilarni ta'lim sohasidagi yutuqlarini baholash bo'yicha xalqaro dastur bo'lib, undagi test jahon davlatlaridagi maktab o'quvchilarining bilimi va ularni amaliyotda qo'llay olish mahoratini baholaydi. Maktabdagi ta'lim sifatini monitoring qilishga qaratilgan PISA dasturi asosiy uch yo'nalishda: o'qish, matematika va ijtimoiy fanlar savodxonligi bo'yicha olib boriladi.

Birgina 2018-yilning o'zida 70 dan ortiq davlatlar PISA xalqaro dasturi sinovida ishtirok etgan. Umuman olganda, PISA dasturi davlatlarning ta'lim sohasidagi siyosatiga sezilarli darajada ta'sir o'tkazadi. Har bir davlat o'tkazilgan tadqiqot natijalari asosida o'zining ta'lim sohasidagi kuchli va kuchsiz tomonlarini xolisona aniqlab, boshqa davlatlarga nisbatan mavqeini ko'radi hamda ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini takomillashtirishda o'z yo'nalishlarini va strategiyasini belgilab oladi. Bu borada Sirdaryo viloyatida o'tkaziladigan jarayonlar bo'yicha ham talaygina ishlar amalga oshirilmoqda.

PIRLS - tadqiqotida 50 dan ortiq davlatlar ishtirok etib kelmoqda. Mazkur xalqaro tadqiqotning maqsadi turli xil ta'lim tizimidan iborat bo'lgan davlatlardagi boshlang'ich maktab o'quvchilarining matnni o'qish va qabul qilish bo'yicha tayyorgarligi hamda o'quvchilarning har xil yutuqlarga erishishga sabab bo'luvchi ta'lim tizimidagi o'ziga xos xususiyatlarni aniqlash va baholashdan iborat. Albatta bunday tadqiqot xalq ta'limi sohasidagi ishchilar, olimlar, metodistlar, o'qituvchilar, ota-onalar va jamoat vakillari uchun katta ahamiyatga egadir.

TIMSS - ham jahon mamlakatlari ta'lim tizimida keng tadbiq etilmoqda. TIMSS dasturi Ta'lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasi IEA (International Association for the Evaluation of Educational Achievements) tomonidan tashkil etilgan bo'lib, ushbu tadqiqot 4- va 8-sinf o'quvchilari orasida matematika va ijtimoiy fanlar bo'yicha ta'limning sifati, darajasi, fanga bo'lgan munosabati, qiziqishini aniqlaydi. Har 4 yilda bir marotaba olib boriladi. Ushbu tadqiqot PIRLS tadqiqotiga o'xshab, o'quvchilar, maktab ma'muriyati va o'qituvchilari orasida qo'shimcha so'rovnomalar o'tkazadi va fan sohasida to'sqinlik qilayotgan asosiy omillarni aniqlaydi. Bu esa o'sha mamlakatda ishlab chiqilgan ta'lim standartlarini va ta'lim samaradorligini boshqa davlatlar bilan solishtirib ko'rish imkonini beradi. 2015-yil TIMSS tadqiqotlari natijalariga ko'ra AQSh, Singapur, Gonkong, Koreya Respublikasi, Yaponiya, Rossiya, Buyuk Britaniya kabi davlatlarning ta'lim tizimi eng yuqori ko'rsatkichlarni egallagan. Shuni e'tirof etish lozimki, ayni shu davlatlarda yuqori texnologiyalarni o'zlashtirish, sanoatlashtirish va yuksak darajadagi taraqqiyot erishish maqsadida aniq fanlarni yuqori darajada o'zlashtirishga alohida e'tibor qaratilib, unda o'quvchilar

tugʻma isteʼdod va qobiliyatlardan koʻra oʻz ustida doimiy ishlash hamda aniq fanlarni oʻqitishda guruh yoki sinfdagi oʻquvchilar sonining 16 nafardan oshmasligi belgilangan. Bunday tajriba AQShda ham mavjud boʻlib, 1999-yildan boshlab bitta oʻqituvchi 40 minutlik dars mashgʻuloti davomida 16 ta bolaga bilim va tarbiya bera olish imkoniyatiga ega ekanligi inobatga olgan holda Prezident qarori bilan taʼlim muassasalaridagi guruhlarda oʻquvchilar soni 16 nafar etib belgilangan.

Maʼlum boʻldiki, 2015-yilgi tadqiqotlardan keyin dunyo boʻyicha birinchi, ikkinchi va toʻrtinchi oʻrinlarni qitʼadoshlarimiz - Singapur, Yaponiya va Xitoy Taypeyi oʻquvchi-yoshlari egallagan. PISA xalqaro baholash dasturi testlari uch yilda bir marotaba oʻtkazilib, oʻquvchilar bilimi uchta asosiy yoʻnalish boʻyicha, 1000 ballik tizimda baholanadi. Har galgi monitoring jarayonida yuqorida sanalgan uchta yoʻnalishdan biriga alohida eʼtibor qaratiladi. Masalan, 2000-yilda tadqiqotning asosiy yoʻnalishi oʻqish savodxonligiga, 2003-yil matematik savodxonlikka, 2006-yilda esa tabiiy fanlar savodxonligiga qaratilgan. Bu holat davriy takror boʻlishini inobatga olganda, 2021-yil asosiy fan qilib matematika tanlanishi ayon boʻladi. Test savollari dasturga aʼzo mamlakatlarning mutaxassislari bilan kelishilgan holda xalqaro konsultantlar guruhi tomonidan tuziladi.

Shu nuqtayi nazardan qaralganda, mamlakatimiz taʼlim tizimi xodimlari oldida turgan asosiy muammolar nimalardan iborat?

Birinchi - oʻquvchilarning bilim darajasidagi nuqsonlar. Joriy yil mamlakatimiz 1035 ta maktabda oʻtkazilgan monitoring natijalariga koʻra oʻquvchilarning oʻrtacha oʻzlashtirishi 70 foizni, sifat koʻrsatkichi 44,8 foizni tashkil etgan, xolos. Matematika fanidan bu koʻrsatkich yanada past ekanligi aniqlangan.

Ikkinchi - bizda mavjud darsliklarda PISA topshiriqlariga oʻxshash masala va misollarning kamligi. PISA topshiriqlari esa odatda uzundan-uzun matnlar yordamida tasvirlanib, ulardagi real vaziyat va muammolarni hal qilish usulini tanlash uchun matematikaning qaysi boʻlimiga murojaat qilish haqida koʻrsatmalar yoʻq. PISA topshiriqlari (matnli, rasmlı, diagramma va jadvallar, real bogʻlanish grafiklari) turli shakllarda taklif qilinadi. Ularni matematik tilga oʻgirish va yechim topilgandan soʻng uni yana real sharoit bilan bogʻlab baholash hamda sharhlash talab qilinadi. Bizdagi matematika darsliklarida standart masalalar beriladi va ular standart usullar yordamida yechiladi.

Bundan koʻrinib turibdiki, PISA dasturida mantiqiy fikrlash asosiy oʻringa koʻtariladi. Masalan, oʻquvchi matnda "aylana" soʻziga duch kelinmasa-da, aynan mazkur obyekt haqida soʻz borayotganini anglab yetishi lozim. Demak, birinchi navbatda matematika darsliklarini oʻquvchi mantiqiy fikrlashiga undaydigan masalalar bilan boyitish vazifasi yuzaga keladi. Shuningdek, bizda 130 dan ortiq millat va elat vakillari istiqomat qilishi, taʼlim 7 tilda olib borilishi ham tarjima masalasida qoʻshimcha qiyinchiliklar tugʻdirishi mumkin.

MATEMATIKA FANINI OʻQITISHNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Mavlyanov Musurmon Ashirovich

Mirzaobod tumani xalq taʼlimi boʻlimi aniq fanlar metodisti

Annotatsiya: Yurtimizda taʼlimga va taʼlim sohasida faoliyat yuritayotgan xodimlarga boʻlgan eʼtibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Ularning bu sohada yanada samarali mehnat qilishlari, yuqori natijalarga erishishlari va jamiyatimizda oʻz oʻrinlariga ega boʻlishlari uchun judayam koʻplab arzigulik ishlar olib borilmoqda. Taʼlim sohasidagilar uchun koʻplab qulayliklar va imtiyozlar ishlab chiqilmoqda.

Kalit soʻzlar: matematika sohasida taʼlim sifatini oshirish, matematika fanini oʻqitishda muammo va kamchiliklar, matematika fanini oʻqitish taʼlim tizimi, rivojlangan mamlakatlar taʼlim tizimi, davlatimizdagi matematik kadrlar salohiyati

Maʼlumki, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 7-maydagi № PQ-4708 sonli **“Matematika sohasidagi taʼlim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”**gi qarori chiqdi. Mamlakatimizda matematika 2020-yildagi ilm-fanni rivojlantirishning ustuvor yoʻnalishlaridan biri sifatida belgilandi. Unda matematikani oʻrganishda yuzaga keladigan bir qator xato va kamchiliklar ham keltirib oʻtilgan. Ularni bartaraf etish uchun

chora-tadbirlar ham ishlab chiqilgan. Matematika fanini o'qitadigan o'qituvchi va matematika fani bilan chuqur shug'ullanadigan o'quvchi yoshlarga ham bir qator imtiyozlar joriy etish yuzasidan buyruqlar ishlab chiqilgan. Bularning barchasi biz matematiklarni va matematikaga qiziquvchi o'quvchi yoshlarni quvontiradi, albatta. Lekin maktabda matematika fanini o'qitishdagi ta'lim tizimi esa kamchiliklardan holi emas deb hisoblayman va matematika fanini ham, xuddi, xorijiy tillar kabi ikki guruhga bo'lib o'tish taklifini bildiraman. Buning uchun esa sabablar yetarlicha. Jumladan:

birinchidan, maktab darsligidagi ba'zi mavzulardagi misol va masalalar o'quvchilarning yoshlariga nisbatan murakkablik qilishi;

ikkinchidan, darslikdagi mavzularning joylashishidagi ketma-ketlikning ayrim hollarda buzilish holatlari;

uchinchidan, matematika fani qolgan fanlarga nisbatan murakkab fan bo'lganli;

to'rtinchidan, sinflarda o'quvchilarning soni 25ta, hattoki, 30tadan oshiqiligi;

beshtinchidan, maktablarda ilg'or pedagogik texnologiyalar va AKT vositalar yetishmasligi;

oltinchidan, dars vaqtida o'quvchilar bilan individual shug'ullanish uchun vaqtning yetishmasligi;

yettinchidan, Oliy ta'lim muassasalariga kirish imtihonlarida o'quvchilar matematika fanidan majburiy testlarning topshirish kerak ekanligi. Shu va shunga o'xshash sabablarni ko'plab keltirishimiz mumkin. Bularni sanayverganimiz bilan muammolar hal bo'lib qolmaydi. Ularni yechish yo'llarini izlashimiz darkor. Albatta, men berayotgan taklif moliyaviy tomondan yana sarf-xarajatlarni oshishi va kadrlar yetishmaslik muammolarini keltirib chiqarishi tabiiy. Zero, ta'lim va ilm-fan rivojlangan mamlakatlarning faoliyatiga nazar soladigan bo'lsak, ular ta'limga investitsiya kiritish orqali yuqori natijalarga erishgan. Xalqaro miqyosida o'z o'rnini topganlar. "Ta'limga kiritilgan investitsiya bu - eng yaxshi investitsiya" deb bejizga aytishmagan. Kadrlar yetishmaslik muammosini esa oliy ta'limga qabul qilishda o'rinlar soni oshirilganligi, o'qishning kechki va sirtqi ta'lim turlari ochilganligi va xorijiy davlatlarning yurtimizda nufuzli universitetlarini filiallari ochilganligi bilan ham bartaraf etsa bo'ladi. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Miromonovich ta'kidlagan: "Matematikani fanini bilgan va yaxshi o'qigan bola hamma fanni biladi. Uning fikrlashi va dunyoqarashi o'zgacha bo'ladi", "Avval matematika, keyin hammasi" kabi so'zlari ham bu fanni qanchalik inson hayotida chuqur o'rin egallashini ko'rsatib bera olgan. Ushbu fanning sir-asrorlarini mukammal o'zlashtirgan o'quvchilar xalqaro olimpiadalarda yurtimiz bayrog'ini yuqorilarga ko'tarishiga, kelajakda iqtisodiy soha bormi, ta'lim sohasi bormi, qaysi sohada faoliyat yuritishidan qat'iy nazar, shu sohalarni yuqori cho'qqilarga olib chiqadigan, mamlakatimiz rivojlanishida o'z hissasini qo'shadigan, kerak bo'lsa jonini berib ishlaydigan yetuk kadrlar bo'lib yetishishiga hecham shubha qilmayman. Zero, bizning matematika fanini o'qitishdan maqsadlarimiz ham shunday emasmi?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. www.lex.uz sayti
2. Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti huzuridagi Xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi "Ilg'or ta'lim-tarbiya texnologiyalari va jahon tajribasi moduli" bo'yicha o'quv-uslubiy majmua Toshkent – 2017

TA'LIM JARAYONIDA INTERFAOL METODLARNI QO'LLASH

Ergasheva Nilufar Abdullaevna

Guliston davlat universiteti.

Interfaol metodlarni tanlash mezoni – ularning ta'lim va tarbiya, rivojlantirish masalalarini echishga yuqori yo'nalganligidir. Bu mezon turli xil metodlarni u yoki bu doiradagi vazifalarni echish imkoniyatlarini baholash yo'li bilan joriy etiladi, chunki ijtimoiy tajriba elementlarini o'zlashtirishda ularning imkoniyatlari turlichadir.

Hozirgi vaqtda ta'lim jarayonida o'qitishning ilg'or usullarini qo'llash, o'qitish jarayonida yuqori natajalarga olib keladi. Ta'lim usullarini har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib

tanlash maqsadga muvofiq sanaladi. An'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda, uni turli-tuman zamonaviy usullar bilan boyitish ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasining ko'tarilishiga olib keladi. Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta'lim beruvchi tomonidan ta'lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta'lim jarayonida faolligi muttasil rag'batlantirilib turilishi, o'quv materialini kichik-kichik bo'laklarga bo'lib, ularning mazmunini ochishda interfaol usullarni qo'llash va ta'lim oluvchilarni ommaviy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi. Bu usullar qo'llanilganda ta'lim beruvchi ta'lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta'lim oluvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi.

Metod tanlash nafaqat o'quv maqsadidan, balki o'quv material mazmuniga va bu fanning murakkabligiga bog'liq. Bundan tashqari metodlarni tanlashda talabalarning soni, ularning o'quv imkoniyatlari, ta'limning davomiyligi, o'quv-moddiy sharoitlar va o'qituvchining mahoratiga bog'liq.

Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda o'quvchilarning o'quv va ijodiy faolliklarini oshiruvchi hamda ta'lim – tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi pedagogik texnologiyalarni qo'llash borasida katta tajriba to'plangan bo'lib, ushbu tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda.

Oliy o'quv yurti o'zining yuqori ilmiy saviyasi bilan o'rta ta'limdan farqlanadi. Fanni o'rganish fanda erishilgan zamonaviy yutuqlarni amaliyot bilan bog'lash, dolzarb muammolarni aniqlash, ularning echimini topishga yo'naltirish bilan ajralib turadi.

Shuning uchun ko'proq talabalarni o'ylashga undaydigan dars o'tish metodlarini qo'llash muhim ahamiyatga ega.

O'qituvchi yangi fanni o'rganishni yoki yangi mavzuni o'tishni boshlar ekan, albatta ularga taalluqli, axborotni qayta tiklashi hamda yangi fanni, mavzuni o'zlashtirish uchun asos hosil qilishini ta'minlaydigan metodlarni tanlashi zarur. Bunda shu yoshdagi o'quvchi, talabalarni qiziqtiradigan savol, muammoli vaziyatning yaratilishi ularni fanni, mavzuni o'rganishga qiziqishini va faolligini kuchaytiradi.

Mutaxassislik fanlarini o'qitishda muammoli vaziyatlarga asoslangan pedagogik texnologiyalari (keys-stadi, baliq skleti, loyiha, nilufar guli metodi) dan foydalanish, talabalarni fikrlashga, muammolarni hal etish ko'nikmalarini xosil qilishga, kashfiyotlarga intilish, hamkorlik va sheriklik sifatlarini shakllantirishga, o'qituvchi tomonidan berilgan vazifalarni hal etish rejasini tuzishga va eng asosiysi talabalar oldiga qo'yilayotgan muammoni hal qilishga, uni mustaqil muxokama qilishga qodir qilib ta'lim va tarbiya berish imkoniyatini yaratadi.

Biologiya yo'nalishiga oid mutaxassislik fanlarini o'qitishda keys stadi texnologiyasidan foydalanishning ahamiyati juda kattadir. Keys-stadi (inglizcha sase - to'plam, aniq vaziyat, stadi - ta'lim) keysda bayon qilingan va ta'lim oluvchilarni muammoni ifodalash hamda uning maqsadga muvofiq tarzdagi echimi variantlarini izlashga yo'naltiradigan aniq real yoki sun'iy ravishda yaratilgan vaziyatning muammoli-vaziyatli tahlil etilishiga asoslanadigan ta'lim uslubidir.

Bunda talabalarni, mustaqil ishlarning turli shakllarini bajarish jarayonida keys bo'yicha aniq turdagi tabiiy fanlarning (botanika, zoologiya, odam anatomiyasi va fiziologiyasi va x.k.) o'qitish jarayonidagi muammoli vaziyatlarga tegishli bo'lgan topshiriqlarni berish talabalarni maxsus fanlardan egallagan bilimlarini chuqurlashtirishga va mustaxkamlashga, amaliy – muammoli masalalarni hal qilish va hayotiy vaziyatlarni echa olish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, ta'lim beruvchi tomonidan tanlangan metodlar nafaqat o'quv maqsadidan, balki o'quv material mazmuniga va talim oluvch uchun bu fanning qay darajada murakkabligiga, shuningdek talabalarning soni, ularning o'quv imkoniyatlari, ta'limning davomiyligi, o'quv-moddiy sharoitlar va albatta o'qituvchining mahoratiga bog'liqdir.

ТЕХНОЛОГИЯ ВЫРАЩИВАНИЯ *AMARANTHUS CRUENTUS*

Дилноза Тагаева, Ирода Ахаткулова

*преподаватель студентка 4-го курса факультета Естественных наук Гулистанский
Государственный Университет*

Аннотация. Сегодня ориентация на народную медицину требует разработки технологий выращивания и переработки лекарственных растений. Этот тезис посвящён растению *Amaranthus Cruentus* и его лечебным свойствам, агротехнике. В данной работе приведены агротехнические сведения, которые следует учитывать при выращивании растения.

Ключевые слова: *Amaranthus Cruentus*, агротехника, влажность, сорняки, орошение, выращивание, органическое удобрение, белок.

Annotation. Today, the focus on traditional medicine requires the development of technologies for the cultivation and processing of medicinal plants. This thesis is devoted to the *Amaranthus Cruentus* plant and its medicinal properties, agricultural technology. This work provides agrotechnical information that should be taken into account when growing a plant.

Key word: *Amaranthus Cruentus*, agrotechnics, moisture, stranger plant, irrigation, cultivation, organic fertilizer, protein.

Annotatsiya. Bugungi kunda xalq tabobatiga bo'lgan e'tibor, dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlash texnologiyalarini ishlab chiqishni taqozo etadi. Ushbu tezis *Amaranthus Cruentus* o'simligi va uning dorivorlik xususiyati, agrotexnikasi haqida. Tezisda o'simlikni yetishtirishda e'tibor berilishi lozim bo'lgan agrotexnik ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: *Amaranthus Cruentus*, agrotexnika, namlik, begona o't, sug'orish, kultivatsiya, organik o'g'it, oqsil.

Amaranthus Cruentus - это растение из Центральной Америки, произрастающее в тропических и субтропических странах. Его выращивают в Америке, Европе, Азии и России. Уход за растением не является сложным и аналогичен агрономическим приемам всех культурных растений. Это теплолюбивое растение.

Поле для *Amaranthus Cruentus* осенью вспахивают на глубину 25-28 см. Почву удобряют органическими и минеральными удобрениями. Ранней весной землю выравнивают и очищают от сорняков. Рекомендуются высаживать растение в стабильную погоду (апрель-май), когда глубина заделки почвы прогреется до 10-12°C. Правильный выбор времени и времени посадки являются важными факторами для обеспечения равномерного прорастания семян. Следует отметить, что в почве, куда попадает семя, помимо тепла должно быть достаточно влаги, чтобы оно проросло.

Требуется достаточное количество воды, потому что растение покрыто твёрдой семенной оболочкой. *Amaranthus Cruentus* следует высаживать в грядки с междурядьями в 30, 40, 60 см и 70 см на семенные делянки. При междурядье 60 см высевает в среднем 1-2 кг семян на гектар. Для посева семян используют песок, перепревший навоз, суперфосфат и другие вещества в качестве наполнителя семян они используются в соотношении 1:10 или 1: 5.

Для посева семян растения используются сеялки для овощей. При этом готовят орошаемые поля с междурядьем 60-70 см. Наличие 25-30 хорошо развитых побегов на одном метре - лучшая плотность для посадки. Через 5-8 дней после посадки необходимо разрыхлить почву и удалить сорняки. По прошествии первых 2-3 недель после появления всходов основное внимание следует уделять прополке, рыхлению рядков и удалению сорняков.

Для ускорения роста растений при достижении ими высоты 10-15 см производят культивацию на глубину 5-6 см, применяя 40 кг азота и 20 кг калийных удобрений на гектар. Вторую подкормку производят когда растение вырастет до 30-35 см в высоту, при этом вносят 30 кг азотных и фосфорных удобрений на гектар,. Подкормку следует производить перед поливом.

После подкормки и полива, рост и развитие растения ускоряется. Последняя подкормка завершается азотными и калийными удобрениями, когда растение достигает высоты 70-80 см. За сезон амарант поливают 6-7 раз и подкармливают 95-105 кг азота, 70 кг фосфора, 50 кг калия на гектар и 15-20 тонной навоза перед вспашкой.

Растение *Amaranthus Cruentus* начинают косить со стадии цветения до стадии молочно-воскового созревания семян. К июлю растение можно косить 2-3 раза. Это позволит новой

траве прорасти из корневой системы к концу июля. *Amaranthus Cruentus* широко используется в животноводстве для производства силоса и других кормов из-за высокого содержания белка.

Использованная литература.

1. У.Ахмедов, А.Эргашев, А.Абзалов – «Доривор ўсимликлар ва уларни ўстириш технологияси» Тошкент-2008.
2. Б.Ю.Тухтаев, Т.Х. Махкамов, А.А. Тулаганов, А.Б.Махмудов «Доривор ва озуқабоп ўсимликлар плантацияларини ташкил этиш ва хомашёсини тайёрлаш» йўриқнома Тошкент-2015.
3. Х.Х.Холматов, У.А.Ахмедов, Н.А.мусаева «Фармакогнозия ва ботаника асослари» ўқув қўлланма «Укитувчи» нашриёт-матбаа ижодий уйи Тошкент-2017.

PAULOWNIA CULTIVATION TECHNOLOGY

Maloxat Abdurashidova, Raxmonberdiyev Shoxrux

teacher of Gulistan State University

student of Gulistan State University

Annotation:

Interest in Pavlovnia has been growing in our country for the last 5-6 years. Pavlovniya is distinguished not only by the fastest growing trees on the planet, but also by the discovery and flowering of fantastic beauty, as a source of valuable wood, honey, biomass, it decorates parks and alleys as a decorative tree. Of course, Pavlovniya is a new plant in our country, so there are a lot of questions.

Keywords: *pavloniya, nav, paulownia catalpifolia, katalpa, paulownia, paulownia fargesii, paulownia fortunei hemsl, paulownia kawakamii, paulownia tomentosa steud, aulownia shan tong.*

There are many types and varieties of Pavlovnia. We will consider all the varieties, but due to their valuable properties, we will focus on the most promising varieties for cultivation in Uzbekistan.

- **Paulownia catalpifolia** - Catalpa Pavlovnia or Yoydok Pavlovnia
- **Paulownia elongata** - Uzunchoq Pavlovniya.
- **Paulownia fargesii** - Fargez Pavlovniyasi.
- **Paulownia fortunei HEMSLE.** - Fartuney Pavlovniya.
- **Paulownia kawakamii** - Kavakami Pavlovniyasi.
- **Paulownia tomentosa STEUD.** - Tolali Palovniya.
- **Paulownia Shan Tong** - Shan Tong Pavlovnia.

1. Paulownia catalpifolia or Yaudak Pavlovnia - belongs to 7 climatic zones (-17.5 ° to -12.5 °) in terms of frost resistance. The flowers are large, light pink, poppy-like, clustered in large branches at the top of the tree. It can grow as a small tree or as a solitary shrub in homes. This type of Pavlovnia grows more slowly than others. From the age of 4, there is a significant increase in width, and the annual growth is 1-2 centimeters, which leads to the formation of annual thin rings. Due to this property, Catalpifolia wood is the most expensive and is 3 times more expensive than ordinary, for example, Tomato wood. It should be noted that the first pruning takes place in the 20th year of development. The longer the catapult grows, the thinner the annual rings and the higher the price. Grows well in favorable climates and cold climates.

2. Paulownia elongata - belongs to 7 climatic zones (-17.5 ° to -12.5 °) in terms of frost resistance. Elongat Pavlovnia is one of the fastest growing species, with a broad conical crown and a slender trunk. The broom is light pink, up to 30 cm long. This species is suitable for cultivation in warmer regions of Central Europe, such as Italy and Spain. Because of its rapid growth, Elongata is also easy to grow for biomass. This species grows almost everywhere in Uzbekistan, but is not as popular as Tomentoza and SHanTong.

3. Paulownia fargesii - A tree with deciduous leaves, crown-shaped, conical, broom-shaped inflorescences up to 1 meter, bell-shaped and purple flowers up to 20 meters in height. It grows on mountain slopes and forests at an altitude of 1200-3000 meters. There is no data on its cultivation in Uzbekistan.

4. *Paulownia fortunei* HEMSL - belongs to 8 climatic zones (-12° to -6.5° C) in terms of frost resistance. *Paulownia fortunei* is a heat-loving species with a very straight-growing body, the crown above the trunk is elongated and reaches a height of 30 meters. Inflorescences are broom-like, the color of the broom is white, purple, light purple. It grows in southern China, in warmer climates such as Southern Europe and Africa. This species is characterized by very high quality wood. Pure *Paulownia fortunei* is rare today, and is replaced by a hybrid of *Paulownia tomentosa* and *Paulownia fortunei*.

5. *Paulownia kawakamii* (Kavakami Pavlovniya). This tree grows very fast up to 12 meters, has a straight densely branched body. In the spring, it is covered with purple flowers and decorates parks and alleys. These trees are very hardy, winter hardy, and extremely beautiful. There is no information about its cultivation in Uzbekistan.

6. *Paulownia tomentosa* STEUD. In terms of frost resistance, it belongs to 6 climatic zones (-23° to -18° C) and is the most cold-resistant wild species of *Paulownia*. It is grown as an ornamental tree and grows more slowly than the hybrids of *Paulownia tomentosa* and *Paulownia fortunei*. The body is straight, the crown is spreading, the flowers are large, purple, sometimes almost white, the flowers are ball-shaped. It grows mainly as an ornamental tree in all regions of Uzbekistan. In all respects, especially in terms of wood quality, it is much lower than the *Paulownia fortunei* hybrid.

7. *Paulownia ShanTong* - belongs to 6 climatic zones (-23.5° to -18° C) in terms of frost resistance. *Paulownia ShanTong* is a hybrid derived from the species *Paulownia tomentosa* (P. *Paulownia tomentosa*) and P. *Paulownia fortunei* (P. *Paulownia fortunei*). The *Paulownia ShanTong* hybrid, which is derived from a hybrid of them, is characterized by cold resistance, rapid growth, proper body growth, elongated crown shape and beautiful flowering. *Paulownia ShanTong* can be grown in all regions of the globe, whether it is cold or hot. Due to the elongated shape of the crown, many trees can be planted on 1 hectare of land. *Paulownia ShanTong* is now a valuable species of *Paulownia*, suitable for creating plantations for large quantities of biomass. Popular varieties such as Nordmax 21 and Royal treeme are also hybrids from the *Paulownia tomentosa* (P. *Paulownia tomentosa*) and P. *Paulownia fortunei* (P. *Paulownia fortunei*) species. The study of the characteristics of *Paulownia* species and cultivars has led to the conclusion that the man-made *Paulownia ShanTong* hybrid can be grown as a decorative tree for all purposes, providing quality wood, obtaining large amounts of biomass, as well as landscaping.

Paulownia ShanTong is the newest and best hybrid of *Paulownia*, derived from a cross between *Paulownia tomentosa* (P. *Paulownia tomentosa*) and P. *Paulownia fortunei* (P. *Paulownia fortunei*). *Paulownia ShanTong* has the following advantages compared to other types:

- rapid growth;
- resistance to diseases, parasites, insects;
- high resistance to drought and cold;
- high wood yield;
- excellent quality of wood;
- adaptation to a wide area;
- Rapid regrowth after cutting.

A comparison of *Paulownia ShanTong* hybrids and the oldest N1 YUZA variety grown in exactly the same area showed that the average size of the *Paulownia ShanTong* hybrid was 63.7% higher than that of the old N1 YUZA variety. Also, *Paulownia ShanTong* begins to recover quickly after cutting, so the period between cuts is shorter than in other species of *Paulownia*.

High quality high wood productivity.

The body of the *Paulownia ShanTong* variety is straight, tall, hollow wood, high quality. *Paulownia ShanTong* is completely different from the *Paulownia tomentosa* type in the length of the crown, the crown of the *Paulownia tomentosa* type is conical. The wood yield of the *Paulownia ShanTong* tree, which has grown individually in China for 7 years, has reached 0.4-0.8 m³, which is 42-96% more than other species of *Paulownia*.

Saving crop areas.

All types of *Paulownia* are divided into two categories according to the shape of the crown: long / medium and wide conical. The crown of a tree with an elongated crown is 40 percent thinner than that of a tree with a broad conical crown. For example, *Paulownia tomentosa* has a wide conical crown, and *Paulownia ShanTong* has an elongated crown, so more *Paulownia ShanTong* trees can be planted on 1 hectare

than Tomentoza. It is also very convenient to grow along with annual plants on the plantations of Shan Tong Pavlovniya for additional income, such as corn, cotton, tomatoes, cucumbers and others.

The width of the growing area.

The parent forms of the Shan Tong variety, P. fortunei and P. tomentoza, are common in wild and artificial plantations in three major areas of China, and they are adapted to these regions. Because the Shan Tong variety combines the best genes of both forms, it is more adaptable to different regions and can grow even in places where the parent forms do not grow. Many years of experience have shown that Shan Tong can be grown not only in the new northern regions of China, but also in the United States, Germany, Bulgaria, Iran, Nepal, Vietnam, Burma, Laos, Uganda, Indonesia, Russia and Uzbekistan.

References:

1. <https://agro-olam.uz/pavlovniya-daraxti-haqida-toliq-malumat/>
2. <https://yandex.ru/images/search?text=pavloniya%20daraxti&stype=image&lr=10335&parent-reqid>
3. <https://ru.wikipedia.org/wiki/>

TA'LIM SIFATINI BOSHQARISH MEXANIZMLARINI BAHOLASH METODOLOGIYASI

Abdullayev Farrux Rustam o'g'li

*A. Avloniy nomidagi Pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o'rgatish
milliy-tadqiqot instituti tayanch doktoranti*

Annotatsiya: Maqolada ta'lim sifati va uni ta'minlovchi omillar, boshqaruv sikli tuzilmasi, ta'lim sifatini boshqarish va uning mexanizmlarini baholash masalalari yoritilgan, Rossiya tajribasi keltirilgan, taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: Ta'lim sifati, ta'lim sifatini boshqarish, miqdoriy baholash tamoyillari, boshqaruv sikli tuzilmasi, baholash indikatorlari va mezonlari.

В статье освещаются вопросы качества образования и обеспечивающие его факторы, цикл структуры управления, управление качеством образования и оценки его механизмов, приводится опыт России, даются предложения и рекомендации.

Ключевые слова. Качество образования, управление качеством образования, принципы количественной оценки, цикл структуры управления, показатели (индикаторы) и критерии оценки

The article highlights the issues of the quality of education and the factors that ensure it, the cycle of the management structure, the management of the quality of education and the evaluation of its mechanisms, the experience of Russia is given, suggestions and recommendations are given.

Keywords. Quality of education, quality management of education, principles of quantitative assessment, management structure cycle, indicators (indicators) and evaluation criteria

Pedagogik faoliyat tashkilotchilariga har doim ta'lim jarayoni, uning natijalarining xususiyatlari va tarkibiy qismlarini o'rganish hamda tahlil qilishga to'g'ri keladi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy va ijtimoiy o'zgarishlar, iqtisodiyotning innovatsion yo'nalishda shakllantirilishi, jahon iqtisodiyotiga integrallashuvi ta'lim tizimi oldiga dolzarb masalalarni vazifa sifatida qo'yimoqda. Ulardan eng muhimi maktablarda ta'lim sifatini yaxshilash va o'quvchilarimizga sifatli ta'lim berish.

Ta'lim sifati har qanday davlatning muvafaqqiyatli rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Rivojlangan mamlakatlarda ta'lim sifati bilan belgilanuvchi intellektual salohiyat jamiyat farovonligining muhim omiliga aylanmoqda.

“Sifat” tushunchasi turlicha, ba'zan bir-biriga zid ma'noda talqin qilinadi. Pedagogika fanida u: bir predmet yoki hodisani boshqasidan farqlovchi muhim ahamiyatga ega bo'lgan belgilar, xususiyatlar, o'ziga xosliklar, shuningdek u yoki bu xususiyat, qadr, yaroqlilik darajasi, ma'naviy-ahloqiy kategoriya yoki sof iqtisodiy tushuncha kabi talqin etiladi. Ba'zi olim va amaliyotchilar uni ta'lim tizimining o'zlashtirish sifatiga erishishga intilishi, boshqalar o'qitish va tarbiyalashning sifati,

uchinchilar, shaxs iqtidori rivojlanish darajasining oshishi, to'rtinchilar, oliy ta'lim muassasalariga qabul qilingan umumiy o'rta ta'lim va kasb-hunar kollejlari bitiruvchilari sonining ko'payishi, beshinchilar, oliy ta'lim muassasasi bitiruvchisining ijtimoiy hayotga tayyorgarligi darajasini tushunadilar.

Ta'lim sifati va uni ta'minlovchi omillar: ta'lim mazmunining fundamentalligi, ma'lum ehtiyojlarning qondirilishi, maqsad va natijalarning mutanosibligi, ta'lim oluvchilarning mustaqil ishlashi, ta'lim jarayoni ishtirokchilarining ijodiy faoliyati, boshqarishga kompleks yondashuv, fanlararo integratsiya va boshqalar orasidagi bog'liqliklarni tavsiflashga nisbatan turli qarashlar mavjud.

Ta'lim sifati – bu nafaqat ta'lim oluvchilar bilimining davlat standartlariga mosligi, balki ta'lim muassasasining muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatishi, shuningdek har bir pedagog va rahbarning ta'lim xizmatlari sifatini ta'minlashdagi faoliyati hamdir.

Zamonaviy ta'lim muassasasida ta'lim sifati erishilgan miqdoriy va sifat natijalarining darajasini, o'quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil etish va amalga oshirish darajasini, u kechadigan sharoitlarni aks ettiruvchi tavsiflar to'plamida ifodalanadigan maqsad va natijalarning nisbati sifatida aniqlanadi.

Ta'lim sifatini boshqarish (ta'lim sifati menejmenti) ta'limni boshqarishning umumiy tuzilmasi tarkibiga kiradi. Bunda ta'lim sifati menejmenti rahbarning yakkaboshchiligi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan va amalda o'z samaradorligini ko'rsatgan boshqarishning chiziqli tuzilmasini inkor etmaydi. O'z o'rnida, sifat menejmentining joriy etilishi umumiy boshqaruv samaradorligini sezilarli darajada oshiradi – ta'lim muassasasi rahbari, xodimlari va manfaatdor jamoat tashkilotlari vakillari o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi. Vazifalarning bajarilish ketma-ketligi, vazifalarning o'zi, bajarish yo'llari, alohida usul va xarakterlarning batafsil tartibi, ta'lim sifatini ta'minlovchi asos sifatida, qabul qilingan boshqaruv qarorlarining samarali ijrosini kafolatlaydi.

Demak, ta'lim sifatini boshqarish ta'lim tizimidagi boshqaruv faoliyatining mavjud nazariyasi va amaliyotini muhim elementlar bilan to'ldiradi, ya'ni u ta'limni boshqarish yaxlit tizimining tarkibiy qismi sifatida amalga oshiriladi.

O'quv muassasalarida ta'lim sifati menejmenti tizimining mavjudligi kelajakda ta'lim jarayoni sifati va natijalarini baholashning tashqi nazorati tadbirlarini ichki nazorat va o'zini-o'zi baholash natijalaridan foydalanish bilan almashtirish imkoniyatini yaratadi, mazkur jarayonlarning jamoatchilik nazoratiga ochiqligi esa ta'lim muassasasiga bo'lgan ishonch darajasini oshiradi. [1]

Ta'lim sifatini boshqarish – “boshqaruv subyekti” tomonidan ta'lim sohasidagi barcha obyektlar va jarayonlarga nisbatan ta'lim sifatining shakllanishi va rivojlanishini ta'minlash jarayonlariga ta'sir ko'rsatish hamda ta'riflangan maqsadlar, me'yorlar va standartlarga muvofiq ravishda ularga qayta aloqa (nazorat qilish, baholash va tahlil qilish) tadbirlarini tashkil qilib berish. [2, 18-19]

Ta'lim sifatini boshqarishda uni nazorat qilish va baholashga alohida e'tibor qaratiladi. Bunda eng muhimi baholashning shakli va metodlarini, indikatorlarini to'g'ri tanlash hisoblanadi.

Har qanday obyekt, jumladan, ta'lim sifatini miqdoriy baholash ma'lum tamoyillarga rioya qilish asosida amalga oshiriladi.

Quyidagi tamoyillar ta'lim sifatini baholash uchun eng muhimlari hisoblanadi.

1. Obyekt sifatiga xususiyatlarining ierarxik majmuasi sifatida qarash.
2. Obyekt sifatini aniq ifodalangan maqsad asosida tadqiq qilish.
3. O'rganilayotgan obyekt ko'rsatkichlarining andozasini, tayanch qiymatini aniq tanlash.
4. Har bir konkret holatda obyekt xususiyatlarining salmog'i, ahamiyatini aniqlash.

Ta'lim sifatini boshqarish mexanizmlarini baholash bo'yicha Rossiya tajribasi to'g'risida mulohaza yuritsak.

Rossiya Federatsiyasi ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini boshqarish mexanizmlarini baholash muassasaning shakllanish darajasini aniqlash maqsadida amalga oshiriladi.

Bu esa muassasada ta'lim sifatini boshqarish tizimlarining faoliyati samaradorligi va quyidagi bir qator vazifalarni hal qilish imkonini beradi:

- muassasada ta'lim sifatini boshqarishda muammoli yo'nalishlarni aniqlash, keyinchalik

ularni yaxshilash bo'yicha tadbirlarni tashkil etish;

- ta'lim sifatini boshqarishning mexanizmlari samaradorligiga ta'sir etuvchi asosiy omillarni aniqlash;

- ta'lim sifatini boshqarishning mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha yo'nalishlarni belgilash;

- ta'lim sifatini boshqarish bo'yicha ilg'or tajribalarni aniqlash.

Bunday baholash har yili o'tkaziladi. Baholash ta'lim sifatini boshqarish mexanizmlarini tavsiflovchi hujjatlar va materiallarni ekspertizadan o'tkazish natijalari bo'yicha amalga oshiriladi.

Baholash ta'lim sifatini boshqarish mexanizmlarini baholash mezonlariga muvofiq amalga oshiriladi. Ushbu mezonlarni qo'llash baholashning miqdoriy natijalarini shakllantirish va ularni izohlashda yagona yondashuvni ta'minlaydi.

Baholash sakkiz yo'nalish (tizim) shaklida taqdim etilgan ikkita ko'rsatkich (mexanizm) bo'yicha amalga oshiriladi.

I. "Ta'lim natijalari sifatini boshqarish mexanizmlari":

- "Ta'lim oluvchilarni tayyorlash sifatini baholash tizimi";

- "Ta'lim natijalari past bo'lgan maktablar va/yoki noqulay ijtimoiy sharoitlarda faoliyat yurituvchi maktablar bilan ishlash tizimi (mintaqaviy baholashda)";

- "Bolalar va yoshlarda qobiliyat va iste'dodlarni aniqlash, qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish tizimi";

- "O'quvchilarning o'z taqdirini o'zi belgilash va kasbiy yo'naltirish bo'yicha ishlar tizimi".

II. "Ta'lim faoliyati sifatini boshqarish mexanizmlari":

- "Rahbarlar faoliyati samaradorligini monitoring qilish tizimi";

- "Pedagogik kadrlar malakasini oshirishni ta'minlash tizimi";


- "Ta'lim oluvchilar ta'limini tashkil etish tizimi";

- "Maktabgacha ta'lim sifati monitoringi tizimi".

Har bir yo'nalish to'liq boshqaruv siklini amalga oshirishni belgilaydigan baholash pozitsiyalari to'plami sifatida taqdim etiladi.

To'liq boshqaruv sikli quyidagilarni o'z ichiga oladi: maqsadlar, ko'rsatkichlar, axborotni yig'ish va qayta ishlash usullari, ko'rsatkichlar monitoringi, monitoring natijalarini tahlil qilish, tahlil natijalari asosida maqsadli/manzilli tavsiyalar, chora-tadbirlar, boshqaruv qarorlari, ko'rilgan chora-tadbirlar samaradorligini tahlil qilish. [3]

Baholashda boshqaruv sikli va uning har bir tarkibiy qismlariga e'tibor qaratiladi. Boshqaruv sikli - tegishli hujjatlar bilan belgilangan, aniq vositalar yordamida kamchiliklarni aniqlashga, shuningdek, ushbu kamchiliklar asosida ishlab chiqilgan aniq chora-tadbirlar yordamida ularni bartaraf etishga qaratilgan bosqichma-bosqich harakatlar tizimi.



1-rasm. Boshqaruv sikli tuzilmasi

Xulosa qilib aytganda, samarali boshqaruvni amalga oshirish uchun to'liq boshqaruv siklini yaratishga va uni doimiy ravishda baholab borishga e'tibor qaratish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. M.Yuldashev, "Ta'lim sifati va uni boshqarish". "Xalq ta'limi" ilmiy-metodik jurnali-2015
2. Sh.Qurbonov, E.Seytxalilov. Ta'lim sifatini boshqarish. /T.: "Turon-Iqbol", 2006. 592 b.
3. Методические рекомендации по организации и проведению оценки механизмов управления качеством образования в субъектах Российской Федерации. Федеральный институт оценки качества образования – 2021.
4. Л.А.Гаджиева. "Мониторинг качества образования обучающихся в условиях профильного обучения" (<https://short.link/sb7z2k>)
5. <https://short.link/shjz8d>

TARIX DARSLARINI SAMARALI TASHKIL ETISHDA INNOVATSION YONDASHUV

Axmadvova Muqadas Marufovna

Sirdaryo viloyati Boyovut tumani 42-umumta'lim maktabi tarix fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola, Tarix darslarini samarali tashkil etishda innovatsion texnologiya, bu yangiliklarning pedagogik xizmatdan o'zlashtirilishi va ulardan ilmiy asosda amaliyotda samarali foydalanishning o'zgarib boruvchi sohada innovatsion yondashuvning samarasi haqidadir.

Kalit so'zlar: Innovatsiya, novatsiya, ijtimoiy modernizatsiya, texnologiya, amaliyot, pedagogika, metod.

Ilm-fan, texnika, ishlab chiqarish va texnologiyaning jadal rivojlanishi jamiyat hayotining barcha sohalarida taraqqiyotining yangi istiqbollarini ochib berdi. Insoniyatning davlat va jamiyat qurilishiga doir asriy tajribalari ijtimoiy munosabatlarni yangicha yondashuvlar asosida tartibga solish borasidagi ilg'or yondashuvlarning qaror toptirilishiga olib keldi. Jamiyatda inson faoliyatining eng keng sohalaridan biri - bu ta'lim hisoblanadi. Oxirgi yillarda ta'limning ijtimoiy roli ortib, dunyoning aksariyat davlatlarida ta'limning barcha turlariga bo'lgan munosabat tubdan o'zgardi. Ta'lim ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotning bosh, yetakchi omili sifatida qaralmoqda. Bunday e'tiborning sababi zamonaviy jamiyatning eng muhim qadriyati va asosiy kapitali - bu yangi bilimlarni izlash, egallash va nostandart qarorlar qabul qilishga qodir bo'lgan inson hisoblanadi. Shunday ekan, ozirgi davrda ta'lim shaxs va jamiyatni rivojlantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Yangilanayotgan barcha sohalar muvaffaqiyati bilimli insonlarga bog'liqligi, oxirgi to'rt yilda ta'lim sifatini yaxshilash, o'qituvchilarda strategik fikr, pedagogik tafakkurni rivojlantirish texnologiyalari, o'qituvchilarga metodik yordam berish uchun texnologiyalashtirilgan dars ishlanmasi, ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish, ilmiy bilimlarni, amaliy faoliyatlarni tashkil etish, ijodiy va intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarish bugungi kunda dolzarb ahamiyatga ega. Ijtimoiy modernizatsiya jamiyatning ijtimoiy tizimdan ochiq fuqarolik jamiyatiga aylanishini anglatadi. Ushbu turdagi modernizatsiya negizida jamiyatning ijtimoiy qatlamlarida umumiy yoki xususiy xarakterdagi yangilanishlar sodir bo'ladi. Jumladan, ta'lim sohada yangilanishlar ham shular jumlasidandir.

Tarix darslarini yangicha pedagogik texnologiyalar asosida o'qitish muhim ahamiyatga ega bo'lib, bir tizimda shakllangan yangicha yondashuvlardir. Ta'lim-tarbiya jarayoniga pedagogik texnologiyani tadbiq etish yuqorida qayd etilgan dolzarb muammoni ijobiy hal etishga xizmat qiladi. O'qituvchining samarali faoliyat ko'rsatishga undovchi darsning metodik ishlanmasini puxta ishlab chiqishdan farqli o'laroq, ta'lim texnologiyasi talabalar faoliyatiga nisbatan yo'naltirilgan bo'lib, u o'quvlarning shaxsiy hamda o'qituvchi bilan birgalikdagi faoliyatlarini inobatga olgan holda, o'quv materiallarini mustaqil o'zlashtirishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga xizmat qiladi.

Tarix darslarini o'qitishda innovatsion jarayon – bu pedagogik yangiliklar, bu yangiliklarning pedagogik hamjamiyat tomonidan o'zlashtirilishi va ulardan ilmiy asosda amaliyotda samarali foydalanishning o'zgarib boruvchi yaxlitligidir.

Ta'lim jarayonidagi innovatsion o'zgarishlar, tizimga har qanday yangilikning kiritilishi bevosita o'qituvchi faoliyatini yangilash va o'zgartirish orqali amalga oshirilishi ham atroflicha

o'rganilgan. Tarix darslarini o'qitishda noan'anaviy usullardan keng foydalanib yangi innovatsion texnologiyalar asosida o'qitish o'qituvchining pedagogi mahorati alohida ahamiyatga ega. Huquqshunoslik darslarida ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati katta. Chunki o'quv jarayoni ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilsa, o'quvchilarning erkin fikr yuritish qobiliyati shakllanishiga va rivojlanishiga xizmat qiladi.

Ilmiy adabiyotlarda "novatsiya" (yangilanish, yangilik) hamda "innovatsiya" (yangilik kiritish) tushunchalarining birbiridan farqlanishiga alohida e'tibor qaratiladi. Misol uchun, V. I. Zagvyazinskiyning e'tirofi etishicha, "yangi", "yangilik" tushunchasi nafaqat muayyan g'oyani, balki hali amaliyotda foydalanilmagan yondashuv, metod hamda texnologiyalarni ifodalaydi.

Darhaqiqat, yangilik – vosita sanalib, u aksariyat holatlarda yangi metod, metodika, texnologiya va b. ko'rinishida namoyon bo'ladi.

Tarix darslarida o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish quyidagi uch jihatdan muhimdir:

O'quvchining hayotda o'z nuqtai nazariga ega bo'lishiga zamin yaratadi.

O'quvchi egallagan bilimi orqali shakllangan salohiyati va dunyoqarishi bilan to'g'ri yo'lni tanlashga yo'naltiradi.

O'quvchida shakllangan huquqiy-siyosiy madaniyat o'z fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lishiga ko'maklashadi.

Shu nuqtai-nazardan o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish har bir darsning maqsadi bo'lmog'i lozim. O'quvchilarga Tarix darslarining o'tilishida bilish faoliyati orqali mustaqil fikrlash qobiliyatini faollashtirish va samaradorligini oshirishga qaratilgan pedagogik texnologiyalar ohg'li intizomning yuqori darajada bo'lishini va ong'li fikrlashning ortib borishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ana shunday texnologiyalar jumlasiga didaktik o'yin, muammoli ta'lim, modulli ta'lim, kommunikativ ta'lim, hamkorlikda o'qitish texnologiyasi kiradi. Bunday noan'anaviy shaklda tashkil qilingan darslar o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishlarini orttiradi.

Innovatsion faoliyat – yangi ijtimoiy talablarning an'anaviy me'yorlarga mos kelmasligi yoki yangi shakllanayotgan g'oyalarning mavjud g'oyalarni inkor etishi natijasida vujudga keladigan majmualari muammolarni echishga qaratilgan faoliyatdir.

Tarix darslarini yanada qiziqarliroq olib borish uchun ahu kunning dolzarb mavzusi bilan bog'lash, mamlakatimizda chop etilayotgan gazeta va jurnallardagi tarixiy, siyosiy maqolalardan, qabul qilgan qonunlar va qonun osti hujjatlaridan keng ko'lamda foydalanish zarur. Bu kabi darslar o'quvchi faolligi va erkinligiga qaratiladi, ularning mustaqil fikr yuritishiga imkoniyat yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Innovatsion ta'lim texnologiyalari G' Muslimov N. A. , Usmonboeva M. H. , Sayfurov D. M. , To'raev A. B. – T. : "Sano standart" nashriyoti, 2015. – 150 b.
2. Yo'ldoshev J. G' , Ilg'or pedagogik texnologiyalar. – T. : O'qituvchi, 2004.
3. Ro'zieva D. , Usmonboeva M. , Holiqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi G' Met. qo'll. – T. : Nizomiy nomli DTPU, 2013. – 115 b.
3. Madayev O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. «Mumtoz so'z», T. : 2010.
4. Urazova M. B. , Eshpulatov Sh. N. Bo'lajak o'qituvchining loyihalash faoliyati. G'G' Metodik qo'llanma. – T.

ФИЗИКА ФАНИНИ ЎҚИТИШДА ВЕРТУАЛ ЛАБОРАТОРИЯНИ ЎРНИ

Мурадова Дилдора Эшпулатовна, Насриддинова Дилфуза Пулатовна

Сирдарё вилояти Гулистон тумани 31-умумтаълим мактаби физика фани ўқитувчиси

Сирдарё вилояти Гулистон тумани 3-умумтаълим мактаби физика фани о'қитувчиси

Фан – техниканинг ривожланиши ва ахборот технологиялар соҳасидаги эришилган ютуқлар инсоният олдида турган турли туман янгидан янги муаммоларни ечишга имкон беради. Таълим тизимида ўқув жараёнларини ташкил қилишни сифат кўрсаткичлари бўйича жаҳон андазалари даражасига кўтариш, таълим жараёнида замонавий педагогик ва ахборот технологияларни кенг жорий этиш методикасини яратиш долзарб услубий масалалардан

ҳисобланиб, бу ўзининг кучли таъсирини ўтказди. Физика фанини ўқитишда хорижий ва маҳаллий компанияларнинг ҳозирда яратаётган дастурлари (компьютер программалари) кундан кунга кўпайиб бормоқда. Шу дастурлардан биз унумли фодалана олмакдамизми? деган бир ўринли савол пайдо бўлади. Компьютер технологияларининг шиддат билан ривожланиши баъзи соҳалар олдига янги талаблар қуймоқда. Таълимнинг масофавий ўқитиш усули ҳозирги кунда ўзининг долзарблигини кўрсатмоқда. Физика фанини масофавий ўқитишда виртуал лабораторияларни яратиш ҳозирги вақтда муаммолигича қолмоқда.

Бу муаммонинг ечими сифатида Interactive Physics (IP) дастур пакетидан фойдаланган ҳолда Физика фанининг айрим бўлимларига оид лаборатория ишларини ташкил қилиш мумкин. Бунда ўқитувчи ўқувчиларга маълум бир физик жараёни мустақил равишда уйда ўрганиш учун IP да яратилган физик моделнинг файлини уларга тақим этади. Ўқувчилар шу моделни уйда ўзининг шахсий компютерида физик жараёни мустақил ўраганиди. Ўқитувчининг берган топшириғига қараб виртуал IP да лаборатория ишини бажариш, масала ечиш ва таҳлил қилиш топшириқларининг ҳисоботини электрон почта орқали ўқитувчига юборади. Interactive Physics Кинематика масалаларини моделлаштиришда Эркин тушиш деб, жисмнинг оғирлик кучи таъсирида ҳавосиз жойда ерга тушишига айтилади. Жисмлар эркин тушганда бир хил тезланиш билан ҳаракатланиладилар. Қуйида келтирилган моделда жисмнинг эркин тушиши келтирилган. Бу моделда жисмнинг Y ўқи бўйича бошланғич тезлигини, баландлигини ўзгартиш мумкин. Горизонтга бурчак остида отилган жисмнинг ҳаракат траекториясига оид модель.

Горизонтга бурчак остида отилган жисмнинг ҳаракати ва траекториясини Interactive Physics дастур пакети орқали ўрганамиз. Қуйидаги масалани кўриб чиқайлик: Футболчи коптокни V_0 - бошланғич тезлик билан горизонтга бурчак остида отган бўлсин. Биздан коптокнинг қандай траектория билан ҳаракатланишини топиш талаб қилинсин. Айнан шу масалани биз дастур пакетида моделлаштирамиз. Моделлаштириш мобайнида биз ҳавонинг қаршилигини эътиборга олмаймиз. Биз тажриба давомида коптокнинг траекторияси у отилган нуқтадан бошлаб параболадан иборатлигини кўрамыз. Демак, копток фақат оғирлик кучи таъсири остида бўлади. Бунда ўқувчи (талаба) тажриба давомида коптокнинг бошланғич тезлигини ўзгартириши ва копток траекториясининг ўзгаришини мониторда яққол кўриши мумкин бўлади.

Бойль-Мариотт қонунига оид модельда IP дастур пакетида ҳавонинг қаршилигини эътборга олсак ҳам бўлади, лекин моделимизни соддалаштириш мақсадида уни эътборга олмадик.

Газнинг ҳолати унинг массаси, ҳажми, босими ва температураси билан аниқланади. Бу катталиклар газ ҳолат параметрлари дейилади. Одатда, айтиб бериш учун бу параметрлар орасидаги боғланиш ўрганилади. Берилган газ массаси учун ўзгармас температурада ҳажмнинг босимга боғланиши Бойль-Мариотт қонуни деб аталади ва у қуйидагича таърифланади: Берилган газ массаси учун ўзгармас температурада газнинг ҳажми унинг босимига тескари пропорционалдир. $T = \text{const}$ $PV = \text{const}$. Interactive Physics дастур пакети орқали ўзгармас 400 0K температурада тажриба ўтказамиз. Поршень остидаги газни изотермик равишда сиқсак, унинг ҳажми камайиб босими ортади.

Натижада биз босим ва ҳажм орасидаги боғланиш графигини кўрамыз. Маълумки, микдоран тенг, лекин қарама- қарши ишорали бирбиридан L масофада турган $+q$ ва $-q$ зарядлардан иборат система электр диполи дейилади. Электр диполига $-q$ заряд яқинлаштирилган бўлсин. Interactive Physics дастур пакетида шу фаразнинг моделида кўрсатилгандек бўлади.

Кўриниб турибдики, улар ўртасидаги ўзаро таъсирлашиш манзарасини ва электр диполь билан заряд ўртасидаги таъсирлашув графигининг ўзгаришини кўриш мумкин бўлади. Шунингдек, улар ўртасидаги Кулон таъсир кучларининг вектор йўналишларини анимация вақтида кўриш имкониятига эгамиз. Параллел уланган R_1 ва R_2 қаршиликлардан ўтаётган ток кучи тенг. Бунда ўқувчи (талаба) тажрибада контуридан ўтаётган ток йўналишини стрелка ёрдамида кузатади ва қаршиликларни ихтиёрий кетма-кетликда улаши ва тажрибага

“аралашиб” туриши мумкин бўлади. Электр занжир Лоренц кучи Магнит майдонда ҳаракатланаётган q электр зарядига таъсир этувчи Лоренц кучи F_L деб аталади. Бу моделда магнит майдон индукциясини ва заррачанинг зарядини ўзгартириш мумкин. Одатда электрон ўқув дастурларида ўқувчи тайёр физик моделлар билан ишлайди. IP да эса ўқувчининг ўзи ихтиёрий моделни яратади. Дастурнинг айнан шу хусусияти бошқа дастурлардан афзал ҳисобланади. IP дастури электрон дарслик эмас, балки физик лойиҳалар муҳити ҳисобланиб, виртуал тажрибалар қилиш имкониятини яратади. Фойдаланувчининг қўл остида ускуналар мажмуаси бўлиб, у ерда ихтиёрий геометрик шаклдаги жисмларни яратиш тугмалари ва физик моделларга керак бўладиган ҳар хил қуйида кўрсатилган ускуналар мавжуд: Ўлчагичлар, Регуляторлар, Боғланмалар, Мотор, Пружина, Поршенлар, Иплар, блоклар. Қисқаси, физикага оид тажрибалар ўтказиш учун керак бўладиган барча ускуналар мужассам. Шу билан бир қаторда, дастур ёрдамида муҳитнинг параметрларини ўзгартириш, ҳар хил майдонларни ва ҳаво қаршилигини киритиш, жисмнинг физик хусусиятларини ўзгартириш мумкин. Дастурнинг бундай имкониятлари виртуал лаборатория ишларини ташкил этиш учун жуда муҳим ҳисобланади.

Адабиётлар

1. А. Х. Косимов, Ш. А. Каримова. Ўқитишда янги педагогик таълим технологияларини қўллаш. Фан ва Таълимда Ахборот-Коммуникация технологиялари, III-том, Тошкент 2006 й, 222-224 бетлар.

2. Адамбаев К. , Бобожанов К. , Раҳимбоева М. Д. Физика масалаларини ўрганишда компьютер технологияларидан фойдаланиш. Фундаментал ва ижтимоий-гуманитар йўналишлар бўйича мутахассислар тайёрлашда физика фанини ўқитишда физика фанини ўқитиш муаммолари. , тошкент 2003, 96-97б.

3. Хамидов В. С. , Қурбонов М. Физика фанини ўқитишда замонавий ахборот технологияларидан фойдаланиш. 218-221 б. “Ёш истиқболли педагог ва илмий кадрларнинг касбий маҳоратини ошириш муаммолари. Республика илмий семинари материаллари” 27-28 май, 2004 й.

O'RTA OSIYO TARIXIDA RO'Y BERGAN EPIDEMIYALAR VA ULARNING OQIBATLARI HAQIDA

Bekmurodova Umida Xudayberdiyevna

Sirdaryo viloyati guliston shahar 10 - umumiy o'rta ta'lim maktabining tarix fani o'qituvchisi

Insoniyatni jar yoqasiga bir necha marta olib kelgan kasalliklardan biri bu o'lat ya'ni vabodir. Ushbu kasallik XIX asrning eng keng tarqalgan epidemiyalardan biri bo'lib, million- million odamni yostig'ini quritdi. Bu esa bir nechta pandemik holatni keltirib chiqardi.

Xususan, beshinchi pandemiya 1881-1896 yillarda bo'lib o'tdi. Aynan ushbu pandemik holat vatanimiz tarixida ham o'chmas qora kunlarni chizib ketdi. Tariximizda mashhur “Vabo isyoni” aynan shu epidemiyaning eng cho'qqiga chiqqan 1892 yilida sodir bo'ldi. Afg'onistonda tarqalgan ushbu kasallik o'chog'i O'rta Osiyoga ham kirib keldi. May oyida [Jizzaxda](#), [Sirdaryo](#) viloyatida va iyun oyida [Toshkentda](#) ham vabo tarqaldi.

O'sha yillar oralig'ida 12 marta xolera epidemiyasi Turkiston o'lkasini qamrab oldi. Markaziy Osiyoda bu epidemiya o'ziga xos sharoitda yuzaga keldi. 1865-yil ruslar tomonidan Toshkentning egallanishidan keyin 1867-yildan boshlab Markaziy Osiyoning ruslar tomonidan egallangan hududlarida Turkiston general-gubernatorligi tashkil etildi.

1892 yil 7 iyunda [Toshkent](#) shahar ma'muriyati 12 ta eski qabristonni yopadi va yangi 4 ta qabriston ochilishini, shahardan chiqish cheklanganligini e'lon qildi. Va'da qilingin 4 ta yangi qabriston o'rniga faqat bittasi ochildi. Shahar murdalarga to'lib ketganligidan ruxsat olish uchun 3-4 kunlab kutish kerak edi, chunki bittagina stasionar ishlar, u ham bo'lsa butun shahar bo'ylab kezib yurar edi. Odamlar noiloj islom qoidalariga tayanib, murdani yashirincha eski mozorlarga ko'ma boshlashdi. Turli din vakillari, hattoki dinsizlar ham bir qabristonga ko'mila boshlandi.

Buni eshitgan polisiya hodimlari “gunohkor” marhumlar qarindoshlarini topib hibsga ola boshladi. Qabrlar ochilib tahqirlanib, ruhi bezovti qilindi. Bu esa 24 iyunda mashhur “Vabo isyoni” yoki “Toshotar voqeasi”ni boshlanishiga sabab bo‘ldi. Qo‘zg‘olonchilar o‘qqa tutilib, ertasiga 80 kishining o‘ligi Anhordan olib chiqildi. Mustamlakachi ma’murlar qo‘zg‘olon qatnashchilaridan 60 kishini sudga berib, 3 kishini o‘limga va 20 kishini turli muddatli qamoq jazosiga hukm qilishdi.

1892 yil may oyida hukumat [Jizzax](#)da epidemiya tarqalganligi tan olgach [Toshkent](#) va [Sirdaryo](#) o‘rtasida Chinoz shifoxona punktini qurishga kirishdi.

Shu paytdan boshlab Turkiston Rossiyaning ajralmas qismi sifatida to‘g‘ridan to‘g‘ri boshqaruv ma’muriyatiga bo‘ysunar edi. Turkistonda ham o‘sha davrga xos bo‘lgan koloniyalardagi hududlarni segregatsiya qilish amaliyoti joriy etildi. Bu narsa Toshkentda ham amalga oshirildi. Bunda Bo‘zsuv kanali shaharni ikki qismga, yevropaliklar va mahalliy aholi yashaydigan qismga ajratib turardi. Ammo 1872-yilgi epidemiya segregatsiya siyosatini qayta ko‘rib chiqish va o‘zgartirish zarurati yetib kelganini ko‘rsatib berdi.

1872-yilgi, keyin 1892-yilgi epidemiyalar kolonial sog‘liqni saqlash tizimining o‘zgartirilishiga olib keldi. Rasmiylar aholini ushbu dahshatli vabodan xabardor qilish uchun an‘anaviy jamiyatning turli ustunlariga, oqsoqollar, imomlar va hokazolarga murojaat qilishga majbur bo‘ldi. Vaboning avj pallasi Turkistonda 1872 va 1892-yillarga to‘g‘ri keldi. 1872-yilgi epidemiya 72 205 nafar odamni olib ketgan bo‘lsa, 1892-yilgisida 47 520 kishi halok bo‘ldi. O‘liklarning an‘anaviy dafn qilish maqsadida yashirilishi vafot etganlar sonining aniq hisob-kitobini olishga imkon bermagan.

Toshkent markaz bilan iqtisodiy aloqalar kuchliligi sababidan eng ko‘p kasallik qayd etilgan shahar bo‘ldi. Qiyoslash uchun, 1865-yilda Toshkentda 70 ming aholi istiqomat qilar edi. Bu raqam 90-yilga kelib 107 705 mahalliy aholi, 12 981 rus millatiga mansub aholi va 10 289 nafar rus harbiylarini tashkil qilardi. Turkistonning markaziy viloyatlari kamroq zarar ko‘rgan bo‘lsa-da, 1892-yilga kelib bu yerlarda ham 38 ming kishini hayotdan olib ketdi.

Kasallikning birinchi haftasida o‘nlab kasal bo‘lganlardan hech biri davolanib chiqolmadi. Kasallar 2-3 kun oralig‘ida jon berib, ularning jasadlari, shu shifoxona yaqinidagi Xoja Ismat qabristoniga yashirincha dafn etildi. Bu esa mahalliy aholi o‘rtasida vahima keltirib chiqardi. [Bozorlar](#) yopildi, hukumat hattoki shifoxonalarni ham berkitib tashladi. Karantin postlari [Qarshi](#) va Karmana yo‘llarida ham o‘rnatildi. U yerda bir buxorolik shifokor va bir guruh amir askari xizmatni o‘tayotgan edi. Mazkur tashkil qilingan postlarda askarlar yo‘lovchilarni qozonlarga kiritib, yoki ustidan chelak bilan kimyoviy dorini sepishar edi. Usti boshi ho‘l bo‘lgan yo‘lovchilar yo‘lida yurishni davom etardi. Eng achinarlisi, shifokorlar, mutasaddilar aholining tibbiy bilimi va madaniyatini oshirishga qaratilgan ma’lumotlarni yetarli darajada berishmas edi.

Kasallik oqibatida [Toshkent](#)ning yangi shahar qismida 417, eski shahar qismida 1462 nafar, jami 1879 aholi kasallikka chalindi. Ulardan 1657 nafari (217 nafar yangi shaharda, 1440 nafar eski shahar qismida) vafot etishdi. Bu qo‘zg‘olon [Toshkent](#) shahrida yuz bergan bo‘lsa-da, uning aks-sadosi, oqibatlari tutun Turkiston o‘lkasi bo‘ylab tarqaldi.

O‘sha paytlarda kasallikning keng yoyilib ketishiga temiryo‘l xizmatining ishga tushirilishi ham sabab bo‘ldi. Jumladan, 1888-yilda Kaspiyorti temiryo‘li Samarqandgacha yetib keldi. 1892-yilgi epidemiya mazkur temiryo‘l orqali Erondan kirib keldi.

Toshkent shahrida isyonning boshlanishiga mustamlakachi hukumat tomonidan ko‘rilgan majburiy choralar sabab bo‘ldi. Ular dafn marosimlarini taqiqlash, ohak va simob xlorid bilan majburiy dezinfektsiya qilinishi, jasadlar, buyumlar va shaxsiy jihozlarning yoqib yuborilishi kabilar edi. Bundan tashqari, shahardagi 12 ta eski qabriston berkitilib, o‘rniga to‘rtta yangi qabriston ochilishi e‘lon qilindi. Amalda esa bittasi ochildi. Shahardan chiqib ketish taqiqlandi. Bozorlarning yopilishi asosiy daromadi savdodan bo‘lgan mahalliy aholining ahvolini og‘irlashtirdi.

“Vabo isyoni” mustamlakachi hukumat boshqaruvining zo‘ravonlik va majburlashga asoslanganini yana bir bor ko‘rsatib berdi. Vaholanki, bu paytga kelib bakteriologiya sohasida yetarli yutuqlarga erishilgan, hatto vaboga qarshi vaksina ishlab chiqilgan edi. Ammo Chor hukumati vaksinani ishlatishdan bosh tortadi. Xolera haqida yetarli tasavvurga ega bo‘lmagan mahalliy aholi esa unga xurofot nazari bilan qaradi va ba‘zida imperialistlarning quroli sifatida baholadi.

Bir qarashda qo‘zg‘olon vaboga qarshi ko‘rilgan choralarga qarshi ko‘tarilgandek tasavvur

uyg'otsa-da, uning sabablari chuqurroq edi. Chor ma'muriyating bosqinchilik siyosati va milliy zulmiga, repressiv va mustamlaka aholisini epidemiya paytlarida himoya qilishga qodir bo'lmagan boshqaruv ma'muriyatiga qarshi ko'tarilgan qo'zg'alon edi.

Vabo va koronavirus orasidagi vaqt, ijtimoiy muhit va siyosiy tuzumlar turlicha bo'lsa-da, ularning o'xshash tarafi chegara bilmasligidir. Nafaqat chegara, balki til, din, irq tanlamasligi, boy-u kambag'alligiga qaramasligidir. Mana shunday murakkab vaziyatlarda hukumat tomonidan to'g'ri qarorlar qabul qilinishi va odamlarning bu qarorlarga to'g'ri munosabat bildirib, aytilgan choralarga amal qilishi muhim omil ekanini unutmazlik lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. <https://aniq.uz/uz/yangiliklar/tarixda-toshkentdagi-vabo-buxoro-amirligiga-ham-katta-talofat-etkazgan-edi>
2. <https://daryo.uz/2020/04/14/koronavirus-eng-qorqinchlisi-emas-markaziy-osiyodagi-epidemiya-tarixi/>

AMALIYOTCHI PSIXOLOGLAR UCHUN O'QUVCHILAR PROFAYLINI O'RGANISH USULLARI

Xudoyberdiyeva Nargiza Bozorboyevna

Sirdaryo viloyati Guliston shahar 10 - umumiy o'rta ta'lim maktabining amaliyotchi psixologi

Profayling ([inglizcha](#): *profile* — „profil“) — shaxsni tashqi ko'rinishi, noverbal va verbal xulqidagi eng ko'p axborot beruvchi maxsus belgilari, xususiyatlarini tahlil qilish asosida inson xulqini baholash va prognozlashga qaratilgan psixologik usul va metodikalar majmuini bildiruvchi tushuncha.

Profayl metodi asoschilari psixolog olimlar Paul Ekman, V. Frizen, M. Sukerman va B. De Paulo hisoblanadi. 2012-yilda esa Y. Spiritsa tomonidan yolg'onni tadqiq qilish bo'yicha Xalqaro akademiyada kriminal profayling usuli taqdim etildi. Uning fikricha: kriminal profayling — jinoyatchi deb taxmin qilinayotgan shaxs xususiyatlarini tashxislovchi kompleks usullar yordamida uning psixologik profilini tuzish tushuniladi.

Profayling — bu shaxsning psixologik qiyofasini tuzishdir. [1888-yilda](#) psixologik portret tuzishga uringanlardan biri britaniyalik jarroh [Thomas Bond](#) (u bu usulni chavaqlovchi Jack shaxsiga nisbatan qo'llagan) hisoblanadi.

So'ngi vaqtlarda, ayniqsa havo transportida, profayl-metod yoki profayling iborasi keng tarqaldi. Ushbu profayling metodi tajribasi Isroil, AQSH, Rossiya kabi davlatlarda bir necha yillardan beri takomillashib kelayapti. Profayling metodi ikkita bir-birini to'ldiruvchi metoddan, ya'ni psixologik kuzatish va so'rov (suhbat) metodidan tashkil topgan.

Profayling o'zining tarkibiga — tezkor psixodiagnostika, emotsiyalarni tahlil qilish, manipulyativ texnikalar, gipnotexnologiya, so'zamonlik, grafologiya, yuz ifodalari tahlili, mushaklar faoliyatini tahlil qilish va ijtimoiy psixologiyani qabul qiladi.

Inson xulqi va uning xatti-harakatlarini oldindan bashorat etish uchun alohida qobiliyatga ega bo'lish yoki ko'plab kitoblar o'qish shart emas. Buning uchun insonlarga, ularni xatti-harakatlarini o'rganishga qiziqish bo'lsa bo'ldi. Guruhiy tartibbuzarlik va ommaviy tartibsizliklarda profayling usulidan foydalanishni o'rganishdan asosiy **maqsad** bu jamiyatga zid qarashlari mavjud, jinoiy harakatlarni sodir etishga moyil shaxslarni tezkorlik bilan tanish ko'nikmasini shakllantirishdir. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi bilim va malakalarni **egallash vazifasi** belgilanadi:

- vizual (ko'rish va kuzatish asosida) psixologik tashxis yordamida shaxslarni baholash;
- qaltis, kutilmagan vaziyatlarda hissiy xususiyatlarini boshqarish; □ olomonga ruhiy ta'sir o'tkazish borasidagi tajribalarini takomillashtirish; □ jamiyatga zid qarashlari mavjud hamda jinoiy harakatlarga moyil shaxslarni
- og'zaki (so'zda ifodalangan) sur'ati (portreti) va xulqidagi alohida belgilari asosida tanish;
- terroristik va ekstremistik tashkilotlar, ularning tashkilotchilari haqida atroflicha to'liq bilimlarni bilish;

□ maxsus elektron texnik moslamalar (akustik va vizual kuzatish moslamalari) yordamida jamoat joylarida yoki ommaviy tadbirlar o'tkaziladigan jamoat joylardagi shaxslarning xatti-harakatlarini o'rganish;

□ jamoat joylarida, ommaviy tadbirlar tashkil etiladigan ob'yektlarda kuzatish (zahira yoki yordamchi kuchlar, faol qarshilik ko'rsatish guruhi va hokazo) uchun qulay joyni tanlash;

□ jamiyatga zid hamda jinoiy harakatlarga moyil shaxslarning xatti-harakatlarini nazorat qilish;

□ xizmat vazifalarni amalga oshirish jarayonida muhim ahamiyatga ega ma'lumotlarni olish va ulardan samarali foydalanish borasida malaka va tajribalarni shakllantirish.

Yuqorida keltirilgan vazifalarni amalga oshirish uchun xodimlar quyidagi yo'nalishdagi bilimlarga ega bo'lishlari zarur:

□ etnopsixologiya; □ klinik psixologiya;

□ jamiyat uchun xavfli, jinoiy harakatlarga moyil shaxslarga xos ruhiy omillar; □ shaxslarning ruhiy xususiyatlari bilan uning tashqi namoyon bo'luvchi (imomishora, tana harakatlari, nutq (verbal va noverbal vositalari) jihatlari o'rtasidagi bog'liqlikni ko'ra olish;

□ shubha uyg'otuvchi shaxslar bilan muloqotni to'g'ri shakllantirish;

□ portlovchi moslamalarni topish va ularni aniqlash borasida xizmat itlari va texnik vositalardan samarali foydalanish;

□ kuch va imkoniyatlarini to'g'ri taqsimlash maqsadida, hissiy zo'riqishlarni yengish va ularni boshqarish usullarini egallash;

□ fuqarolar bilan psixologik aloqa o'rnatish, ularni vizual baholash va ruhiy ta'sir o'tkazish, kutilmagan xavf hamda qaltis vaziyatlarda o'z xatti-harakatlarini nazorat qilish;

Yuqorida keltirilgan fikrlardan ko'rinib turibdiki, profayling metodining **asosiy maqsadi** olomon tarkibida shubha uyg'otuvchi shaxslarning xatti-harakatlaridagi mavjud nomuvofiqlikning paydo bo'lish sabablarini aniq belgilashdir.

Bunga shaxsning muayyan ob'yektda qonunga zid xatti-harakatni sodir etishga tayyorgarlik ko'rishi va uni amalga oshirishga aloqadorligi ham sabab bo'lishi mumkin. Har qanday vaziyatda yuqorida qayd etilgan holatlar shubhali shaxsni ko'zdan kechirish va hujjatlarni tekshirish jarayonini puxtaroq o'tkazilishi uchun asos bo'ladi.

Profayling quyidagi xususiyatlarga ega:

1) profayling tarkibiga xavf tug'dirish ehtimoli bo'lgan shaxslar xatti-harakatini kuzatish, ularga savollar berish, ekspress psixodiagnostika qilish, ularning xatti-harakatlaridagi normadan og'ishlarni qayd etish hamda ularni o'rganishga qaratilgan boshqa harakatlar kiritiladi;

2) profaylingning mantiqiy sxemasida g'ayriqonuniy aralashish harakatlarini tayyorlash chog'ida xavf tug'dirishi mumkin bo'lgan shaxslarning harakatlari modelini tuzish; bunday harakatlarni tayyorlash belgilarini aniqlash; xavf tug'dirishi mumkin bo'lgan tiplar (profililar) – bunday harakatlarning ehtimol tutilgan ijrochilari tasnifini yaratish; kuzatuv hududidagi har bir shaxsning maqomini rejalashtirilayotgan g'ayriqonuniy aralashuv harakatiga aloqadorligi ehtimolligi nuqtai nazaridan aniqlash; har bir shaxsni muayyan tipga (yoki profilga) kiritish, ya'ni profillash;

3) profaylingni amalga oshirish uchun vizual psixodiagnostika, diagnostik ekspress-suhbat, neyrolingvistik dasturlash metodlari haqida bilimlarga ega bo'lish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ahrorov, Voris Sotsial psixologiya. O'quv qo'llanma: Samarqand davlat universiteti. – Samarqand: SamDU nashri

2. Кудин В.А., Статный В.М. Профайлинг в деятельности органов внутренних дел: от теории и методологии к практике // Вестник Санкт-Петербургского университета МВД России. 2013. №3 (59). [1] [Архивная копия](#) от 31 октября 2020 на [Wayback Machine](#)

3. Психология лжи и обмана: как разоблачить лжеца / Евгений Спирица, ПИТЕР, 2017. - 272 с. [2] [Архивная копия](#) от 31 октября 2020 на [Wayback Machine](#)

4. Психологический профайлинг. Практикум: учебное пособие для студентов высших учебных заведений, обучающихся по укрупненной группе специальностей "Юриспруденция" / Т. В. Мальцева, В. Е. Петров. - Москва: РИОР: ИНФРА-М, 2020. - 93 с. [3] [Архивная копия](#) от 26 ноября 2019 на [Wayback Machine](#)

5. Профайлинг в деятельности органов внутренних дел / О. А. Ульянина, В. В. Вахнина, Т. В. Мальцева, Т. В. Михайлова. — Академия управления МВД России Москва, 2019. — 100 с. [4] [Архивная копия](#) от 2 ноября 2020 на [Wayback Machine](#)

THE IMPORTANCE OF DIALOGIC READING IN LANGUAGE LEARNING

Vahidov Svetlana Samadovna
English teacher of 30th school in Sirdarya region

Dialogic reading involves an adult and child having a dialogue around the text they are reading aloud together. Learn how to use this strategy effectively to help kids build vocabulary and verbal fluency skills and understand story structure and meaning. Downloadable handouts to help guide parents in using dialogic reading are available in English and 14 other languages.

Parents and teachers alike nearly universally accept the importance of reading to children. Even [pediatricians and hospitals encourage it](#). However, reading aloud can have greater educational value than serving as a filler activity before bedtime or lunch.

It is easy to simply take a book off a shelf, read it, and maybe ask a few questions at the end of the story without giving much thought to the selection of the book or the purpose of reading the story. Maybe it is the child's favorite, or it is just the right length for the time allotted. Maybe it fits with the class theme of the week. However, these are all adult-directed examples. The adult selects the book, reads the story, and asks the questions or leads the discussion.

A more engaging and productive alternative is interactive reading or dialogic reading. Dialogic reading involves an adult and child having a dialogue around the text they are reading. Their conversation includes defining new vocabulary, improving verbal fluency, introducing story components, and developing narrative skills.

When parents and teachers properly plan and execute dialogic reading, research suggests it can be particularly effective at improving skills such as print awareness, oral language, and comprehension. Most importantly, it helps model how good readers think about the text as they are reading it. The benefits of dialogic reading are not just for young children. Although the concept originated with picture book reading for preschoolers (Whitehurst et al., 1988), a wide body of research has extended its use to other ages and populations including students with disabilities (What Works Clearinghouse, 2010), struggling readers (Swanson et al., 2011), and English language learners (Brannon & Dauksas, 2014).

Different levels of questions in dialogic reading

A traditional implementation of dialogic reading involves repeatedly reading the same book and interacting around three levels of questions (Flynn, 2011).

- **Level 1** questions are basic "wh" type questions focused on what can immediately be seen (or read) in the text. Level 1 also includes introducing new vocabulary. For example, while pointing to a picture, the adult reader may ask, "What type of feet does this animal have?" Here the adult is looking for a specific, correct response to expand the child's oral vocabulary.

- **Level 2** questions are open-ended and are used to solicit the child's feedback. For example, the adult reader might ask, "What is happening in this part of the story?" Here the adult is trying to encourage the child to share what he or she is thinking about and make meaning from the text.

- **Level 3** questions are more advanced and introduce concepts like text features and story components. For example, the adult reader might ask, "Who was the main character and how did he feel?" This also may include questions that distance the student from the text and connect the story to their own life. For example, "How would you feel if that happened to you?"

Correct and incorrect ways to use dialogic reading

Dialogic reading...

- **Is not** "teacher reads, students listen"
- **Is not** teacher led
- **Is not** limited to narrative text with questions and discussions at the end
- **Is not** only for very young children

Dialogic reading...

- **Is** interactive
- **Is** student centered
- **Is** conducted with narrative and expository text with questions and discussion throughout
- **Is** an activity requiring careful planning
- **Is** for students at all levels

Although several strategies exist to facilitate the three tiers of questions in dialogic reading, the two most popular are known by the acronyms [CROWD](#) and [PEER](#). Both have been covered in previous IRRC blog posts, and this post will expand on the two strategies and provide another resource to help with planning a dialogic reading activity.

Teaching vocabulary through dialogic reading

Recall that an important goal of dialogic reading is to expand the oral language skills of students, particularly vocabulary. One way to do this is to engage in pre-reading activities to teach key vocabulary. Just as there are levels of questions to facilitate dialogue about the text, it is easy to think about vocabulary words in three tiers:

- **Tier 1** words are basic vocabulary words that should be in the child's receptive and expressive vocabularies. Tier 1 words in the story of The Three Little Pigs would include: house, pig, wolf.

- **Tier 2** words occur with high frequency in texts for mature language users. These words should be taught to help expand the receptive and expressive vocabularies of the child. A Tier 2 word in the story of The Three Little Pigs might be eldest (some versions of the story characterize the first pig as the eldest of the three).

- **Tier 3** words are domain specific and best learned when needed in a content area or in a specific context. These words are less likely to occur in a story like The Three Little Pigs. However, a more sophisticated version of the story might include the Tier 3 word for the bricklaying tool the third pig used: trowel.

Although some words can be introduced during dialogic reading, it is important to carefully identify and pre-teach any words that might otherwise interfere with a student's comprehension of the book. The adult reader can identify Tier 2 words that will be helpful for understanding the current text and that the child is likely to use or read in other settings.

The **Interactive Reading Guide** below can be put in every book to help you plan the vocabulary and questions you will include. The questions should be asked throughout the text, not just at the end, so do not forget to record a page number for each! This will make it easier for you or someone else to locate the targets for the conversation starters while implementing dialogic reading.

References:

1. Jessica Sidler Folsom, Iowa Reading Research Center "Dialogic Reading: Having a Conversation about Books"
2. <https://www.readingrockets.org/article/dialogic-reading-having-conversation-about-books>
3. <https://www.topyx.com/lms-blog/lms-supports-english-language-teaching-workplace>
4. http://englishenglish.com/english_facts_4.htm
<http://www.internationalteflacademy.com/blog/bid/205659/Report-from-TESOL-2014-1-5-Billion-English-Learners-Worldwide>
5. <https://www.theguardian.com/education/2012/jun/19/elt-diary-june-technology-innovation>

ДИПЛОМАТИЧЕСКИЕ И ТОРГОВО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ВЗАИМООТНОШЕНИЯ СРЕДНЕЙ АЗИИ И ИРАНА В XIX

*Сапарова Зарема Абдукадировна
школа 39, Сырдарьинский район, учитель история.*

Актуальность темы исследования Средняя Азия и Иран в системе межгосударственных отношений в XIX в. занимали особое место. Из-за своего выгодного стратегического и географического положения территория названных государств часто являлась ареной совпадения и столкновения интересов мировых держав. Вступление европейских государств на путь капиталистического развития внесло ряд изменений в приоритетах и направлениях внешней политики этих государств. Странами Востока, и в частности Ираном и среднеазиатских государств, ведущие державы начала интересоваться, как возможными рынками сбыта для своей год от года увеличивавшейся продукции. С каждым годом все более отставая в экономическом развитии от Запада, Иран и среднеазиатские ханства попадали в сети зависимости от европейских стран. Страны, оказавшиеся в XIX в. втянутые в орбиту международных отношений, не выступили в них в качестве самостоятельного игрока.

Изучение истории Ирана и среднеазиатских государств в 19 в. представляет большой научный интерес для исследователей истории и культуры региона, так как именно в этот период произошли большие политические, экономические и культурные изменения, определившие их дальнейшую историю.

Одним из первых уделил внимание рассмотрению вопроса экономического и политического положения Ирана в первой половине XIX в. генерал А.П. Ермолов, сделавший вывод об упадочном состоянии иранского государства. Данная точка зрения получила широкое распространение в русской историографии. Исследователи пристально рассматривали преимущественно политическую и социально-экономическую ситуацию, сложившуюся в Иране в период его втягивания в борьбу великих держав за влияние на Среднем Востоке (И.П. Петрушевский, М.С. Иванов, А.Г. Подольский, Н.А. Кузнецова, Д.М. Анаркулова и др.).⁶

Френ Х.Д. Хронологический список ста сочинений, преимущественно исторического и географического содержания, на арабском, персидском и турецком языках, недостающих большей частью в европейских библиотеках, коих отысканием в оригиналах или в верных копиях следовало бы заняться для пользы ради особам, имеющим свое пребывание на Востоке. СПб., 1834. Он же: Некоторые указания, взятые из историко-географической литературы арабов, персов, турков, для наших чиновников и путешественников в Азии.

Однако следует отметить, что во многих исследованиях проблема экспорта и импорта только лишь поставлена. В освещении вопросов неравномерного развития этих взаимоотношений зачастую можно столкнуться с неправильными или поверхностными, на наш взгляд, выводами и обобщениями. Исследуя торговые взаимоотношения среднеазиатских ханств с Ираном накануне присоединения в России, большая часть советских историков необоснованно пыталась показать отсталость края в вопросах международной торговли, что также, на наш взгляд, было неверно. Таким образом, история развития торговых отношений среднеазиатских ханств с 5 Ираном, получив разное освещение в изданных работах, требует специального научно-практического исследования. Кроме того специального и всестороннего анализа требует и история дипломатических, военно-политических взаимоотношений Ирана и среднеазиатских ханств, имевших общую историю до проникновения ведущих европейских держав.

Ремез А. Внешняя торговля Бухары до мировой войны. - Ташкент, 1922 русских и таджикских авторов, иностранных путешественников, архивные документы, дневники и воспоминания иранских, таджикских, русских государственных деятелей, особенно тех, кто побывал в этих странах по посольскими поручениями, для ведения переговоров по различным темам. В источниках, посвященных непосредственно Ирану и Центральной Азии и путешествиям в соседние страны, дискуссия ведется все по тем же проблемам. Среди них следует назвать работы венгерского путешественника А.Вамбери,¹ П.И. Пашино,² А.Бера,³ И.Шаврова,⁴ и др. « Путешествие в Среднюю Азию» А. Вамбери является одним из замечательных памятников историко-географической и этнографической литературы XIX в. Вамбери дал живое и яркое описание природно-экологических условий, особенностей жизни населения Туркменистана, Хивинского ханства и Бухарского эмирата, его хозяйственной и

социальной жизни. Путешественник отметил большую роль искусственного орошения для экономики всего края, охарактеризовал * главные ирригационные системы земледельческих оазисов. Весьма интересны и его зарисовки хозяйства кочевников, самобытных нравов и обычаев скотоводческого населения. Примечательны его сведения о внутренней торговле, а также о торговле с сопредельными восточными 4 странами и европейскими государствами. Путешественник описывает главные рынки сбыта и называет основные товары, ввозившиеся из России, Англии, Ирана, Афганистана и Сибиря. Он отмечает чрезвычайно оживленный характер торговли Хивы, Бухары и Коканда с Астраханью, Оренбургом, Уралом и Южной Сибирью. Отсюда в среднеазиатские ханства поступали сукна, льняные и ситцевые ткани, металлическая посуда, оружие, железо, медь, скобяные изделия.

С учетом всего вышесказанного, можно заключить, Бухарское ханство занимало центральное место в географическом положении, через это ханство пролегали торговые пути в Персию, Афганистан, Индию. Иранские купцы были очень активны на среднеазиатских рынках и экономические связи с Бухарой играли важную роль в торговле Ирана с азиатскими государствами. Последний поход в Хорасан принца Аббас-Мирза также притормозил торговые отношения Бухары с Ираном. Несмотря на то, что в результате открытия морских путей и потери своего стратегического значения как перекресток мировой торговли, торговые отношения между Ираном и среднеазиатскими ханствами продолжали развиваться в своем традиционном русле.

Список литературы

1. Мехди Джафаризаде Дипломатические и торгово-экономические взаимоотношения Средней Азии и Ирана в XIX в.
2. Амин-од-доуле Али хан. Хотирот-е сийаси. (Политические мемуары). Ба кушиши Хофиз фарман фарма Моайен. Техран, Амир-е кабир. 1962 (1381 к)
3. Шемс-Бухари Мирза. О некоторых событиях в Бухаре, Коканде и Кашгаре/пер.В.В.Григорьева-Казань, 1861;

MATLAB DA ODDIY NEYRON TARMOG'INI QURISH

С.А. Тишликов, Расулова Зайнаб Бахтиёровна

(ГулДУ, Амалий математика ва ахборот технологиялари)

(ГулДУ, Таълимда ахборот технологиялари мутахассислиги магистранти)

Ikki kirishli bitta perseptrondan iborat tarmoqni tanlaymiz. Tarmoqni o'qitish jarayonida kirish ma'lumotlari uning kirishlariga etkazib beriladi va chiqishda olingan qiymat maqsadli (bo'lishi kerak) bilan taqqoslanadi. Taqqoslash natijasiga (olingan qiymatning kerakli qiymatdan farqi(og'ishi)) asosanib, og'irlik va siljitish koeffitsient qiymatlari hisoblab chiqiladi, bu og'ishni kamaytiradi.


Shunday qilib, tarmoqni yaratishdan oldin siz o'quv va maqsad ma'lumotlari to'plamini tayyorlashingiz kerak. **VA(AND)** mantiqiy funksiyasi uchun chinlik jadvalini tuzamiz, bunda I_1 va I_2 kirishlar, O esachiqishdir. **VA** mantiqiy funksiyasi chinlik jadvali.

I_1	I_2	O
0	0	0
0	1	0
1	0	0
1	1	1

To'rt qatorli vektordan iborat matritsani kiritish uchun "**New Data**" tugmasidan foydalaniladi. Yaratish(**Create**) tugmasini bosib, ko'rsatilgan oynada I_1 va I_2 kirish vektorlarini kiriting. **Create** tugmachasini bosgandan so'ng, **Targets** bo'limida target1 vektori paydo bo'ladi. Qiymat (**Value**) maydonidagi ma'lumotlar, MATLAB da ruxsat berilgan, har qanday ifodalarni yozish mumkin. Masalan, maqsadli vektorning miqdorini O ustunidan hosil qilinadi:


$O = [0 \ 0 \ 0 \ 1]$.

Endi biz neyron tarmog'ini yaratishni boshlash kerak. **New Network** tugmasini bosib va shaklni to'ldiring.



Kirish vektorlari kiritish

Tarmoqning maqsadli vektorini kiritish.




Yangi Neyron tarmoqi yaratish oynasi.

Bundagi maydonlar quyidagi ma'noga ega:

- Tarmoq nomi (**Network Name**) - bu yaratilgan tarmoqob'ektining nomi
- Tarmoq turi (**Network Type**) - tarmoq turini belgilaydi va tanlangan tur kontekstida ushbu element ostida joylashgan oynaning qismida kiritish uchun turli parametrlarni taqdim etadi. Shunday qilib, har xil turdagi tarmoqlar uchun oyna o'z tarkibini o'zgartiradi. Qulaylik uchun NT ro'yxati quyidagi jadvalda takrorlanadi. NNTool interfeysi faqat bitta yoki ikkita qatlamli neyron tarmoqlarni yaratishga imkon beradi.
- Kirish diapazonlari (**Input ranges**) – tarmoq qatorlari sonining kirishlari soniga teng bo'lgan matritsa. Har bir qator ikkita elementdan iborat vektordir: birinchisi – tarmoqning o'rgatish paytida mos kirishiga beriladigan minimal signal qiymati, ikkinchisi - esa uning maksimal miqdori. Ushbu qiymatlarni kiritishni soddalashtirish uchun **Kirishdan tanlash (Get from input)** ochiladigan ro'yxat taqdim etilgan bo'lib, bu sizga kirish o'zgaruvchisining nomini ko'rsatish orqali kerakli ma'lumotlarni avtomatik ravishda yaratishga imkonini yaratadi.
- Neyronlar soni (**Number of neurons**) - qatlamdagi neyronlar soni.
- Uzatish funktsiyasi (**Transfer function**) - shu banddagi neyronlarning uzatish funktsiyasi (faollashtirish funktsiyasi)ni tanlash.
- O'rgatish funktsiyasi (**Learning function**) – o'rgatish jarayonidatarmoqning og'irligi va siljitishi koeffitsientlarini yangilash uchun mas'ul funktsiya.

Ko'rish (**View**) tugmasi yordamida siz yaratilgan tarmoq arxitekturasini ko'rishingiz mumkin (8.21-rasm). Shunday qilib, bizda barcha harakatlar to'g'ri bajarilganligiga ishonch hosil qilish imkoniyati mavjud. Rasmda qattiq cheklov bilan uzatish funktsiyasini amalga oshiradigan chiqish blokiga ega perseptron tarmog'i ko'rsatilgan. Qatlamdagi neyronlar soni bittaga teng bo'lib, u qatlam

chiqishidagi ustunvektorining o'lchami bilan ko'rsatilgan va uzatish funktsiyasi blokining darhol ostidagi raqam bilan ko'rsatiladi. Ko'rib chiqilayotgan tarmoqkita kirishga ega, chunki kirish ustuni vektorining o'lchami ikkitaga teng.



Yaratilgan tarmoqni oldindan ko'rish.

Shunday qilib, tarmoq tuzilishi bizning vazifamizga mos keladi. Endi siz Yopish (**Close**) tugmasini bosish orqali oldindan ko'rish oynasini yopishingiz va tarmoq yaratish oynasida Yaratish (**Create**) tugmasini bosish orqali tarmoq yaratish niyatingizni tasdiqlashingiz mumkin. Amalga oshirilgan operatsiyalar natijasida NNTool asosiy oynasining Tarmoqlar bo'limida (**Networks**) tarmoq1 nomli ob'ekt paydo bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. [Crevier, Daniel](#) (1993). *AI: The Tumultuous Search for Artificial Intelligence*. New York, NY: BasicBooks. [ISBN 0-465-02997-3](#).
2. [McCorduck, Pamela](#) (2004), *Machines Who Think* (2nd ed.), Natick, MA: A. K. Peters, Ltd., [ISBN 1-56881-205-1](#).
3. [Newquist, HP](#) (1994). *The Brain Makers: Genius, Ego, And Greed In The Quest For Machines That Think*. New York: Macmillan/SAMS. [ISBN 978-0-672-30412-5](#).
4. [Nilsson, Nils](#) (2009). *The Quest for Artificial Intelligence: A History of Ideas and Achievements*. New York: Cambridge University Press. [ISBN 978-0-521-12293-1](#).
5. ["Platform Road Map for MATLAB and Simulink Product Families"](#). [de.mathworks.com](#). Retrieved December 22, 2021.
6. ["Matrices and Arrays - MATLAB & Simulink"](#). [www.mathworks.com](#). Retrieved May 21, 2022.

SUN'IY INTELLEKTNING ASOSIY XUSUSIYATLARI VA UNDA YECHILADIGAN MASALALAR

S.A Tishlikov, B.M. Tishlikova

GulDU, Amaliy matematika va axborot texnologiyalari kafedrasini mudiri

Guliston shahar 6-umumta'lim maktabi inforlatika va axborot texnologiyalari fani o'qituvchisi

Sun'iy intellekt formallashtirmagan masalalar uchun mo'ljallangan, ya'ni formallashtirmagan masalalar yechimiga mo'ljallangan dasturlarni ishlab chiqishda an'anaviy yondoshuvni o'zgartirmaydi va rad etmaydi.

Formallashtirmagan masalalar odatda quyidagi xususiyatlarga ega bo'ladi:

- xatolikli, birxilliksiz, to'liqlilik va boshlang'ich ma'lumotlarning qarama-qarshilikligi;
- xatoli, muammo haqidagi bilimlarning to'liqliligi va qarama-qarshilikligi;
- yechim fazosi o'lchamining kattaligi, ya'ni yechimni izlashda perebor(birma-bir tekshirish) katta bo'lishi;
- ma'lumotlar va bilimlarning dinamik o'zgaruvchanligi;

Shuni ta'kidlash kerakki, formallashtirmagan masalalar katta va juda muhim masalalar sinfini tashkil qiladi. Ko'pchilik mutaxassislar bu masalalarni EHM da yechiladigan masalalar sinfi deb hisoblaydilar.

ET va SI tizimlari qayta ishlash tizimlaridan shu bilan farq qiladiki, ularda asosan

(sonli emas) belgili (simvolli) namoyish usuli, belgili xulosa va (ma'lum algoritmnini bajarish emas) yechimni evristik qidirish, izlash bajariladi.

ET faqat murakkab amaliy masalalarni yechishda qo'llaniladi. Yechimning sifati va samaradorligi borasida ET yechimlari inson – ekspert yechimlaridan qolishmaydi. ET yechimi «shaffofligi» bilan ajralib turadi, ya'ni foydalanuvchiga sifatli darajada tushuntiriladi.

ETning bu xususiyati o'z bilimlarini biror xulosaga kelish qobiliyati bilan ta'minlaydi.

ET o'z bilimlarini ekspert bilan ta'sirlanishi vaqtida to'ldirib boradi. Ta'kidlash lozimki, hozirgi vaqtda ET texnologiyasi moliya, neft va gaz sanoati, energetika, transport, formasevtika, ishlab chiqarish, kosmos, metallurgiya, tog'-kon ishlari, ximiya, ta'lim, sellyuza-qog'oz sanoati, telekommunikasiya va aloqa xamda boshqa turli muammoli sohalarining turli xil tipdagi masalalarini yechish (interpretasiya, oldindan aytish-bashorat qilish tashxis, loyihalashtirish, konstruksiyalash, boshqarish, tushuntirish) da ishlatiladi.

SI tizim ishlab chiqaruvchilariga omad darrov kelgani yo'q. 1960—1985 yillar orasida sun'iy intellektning rivojlanishi ko'plab amaliy masalarni yechish bilan bog'liq. 1985 yildan boshlab asosan (1988-1990 yillarda) birinchi navbatda ET, keyinroq ekspert tizimda tabiiy til (TT) – tizimlar va neyronli tarmoqlar(NT) savdo sohalarida ham faol ishlatila boshlandi.

E'tiborni qaratish lozimki, ba'zi mutaxassislar (qoida bo'yicha, SI'dagi emas, dasturlashtirishdagi mutaxassislar) ET va SI tizimlar(SIT) kutilgan natijalarni bermaganligini ta'kidlashda davom etmoqdalar. Bu adashuvlarning sababi shundan iboratki, mualliflar ETni an'anaviy dasturlashtirishning alternativi sifatida qaraganligi, ya'ni ular ET alohida (boshqa dasturiy vositalarsiz) buyurtmachining har qanday masalasini yechib beradi degan fikrdan kelib chiqqanligidir. Ta'kidlash joizki, ETning paydo bo'lishida unda ishlatiladigan tillar spesifikasi, sohalarini qayta ishlash texnologiyalari va ishlatiladigan qurilmalar (masalan, Lisp -mashinalar) shunday xulosa chiqarishga olib keldiki, ET va an'anaviy dasturli tizimlarni birlashtirish murakkab va bajarib bo'lmaydigan masalalar degan asosni berdi. Hozirgi kunda ETni hosil qilish uchun texnik vositalar to'liq holda an'anaviy dasturlashtirishning zamonaviy texnologik tendensiyasiga mos holda qayta ishlanayapti. Ular ET da integrallashgan sohalar yaratishda kelib chiqadigan muammolarni bartaraf etadi.

SIT ni *yutuqqa* olib kelgan sabablar quyidagilar.

Integrallashganlik. SIning boshqa axborot vositalari (CASE, SUBD, kontroler, berilganlar konsentratori va boshqalar) bilan oson integrallashadigan texnik vositalari ishlab chiqilgan.

Ochiqlilik va ko'chimlilik. SI ning texnik vositalari ochiqlik va ko'chimni ta'minlaydigan standartlarni kuzatish orqali ishlab chiqiladi.

An'anaviy dasturlashtirish tillari va ishchi stansiyalardan foydalanish. SI tizimlarida Lisp, Prolog va boshqa texnik vositalardan ana'naviy dasturlashtirish (S, S++ va boshqalar) tillariga o'tish integrallash ta'minotini qisqartirdi, EHM da operatsiya bajarish tezligini oshirdi va operativ xotira hajmini kamaytirdi. Ishchi stansiyalardan foydalanish sohalar doirasini kengaytirdi.

Mijoz-server arxitekturasi. Mijoz – server arxitekturasi bo'yicha taqsimlangan hisoblashlarni qo'llab quvatlaydigan SI ning sohalarini ishlab chiqarilgan. Ular qurilmalar qiymatini tushiradi, ishonchni va umumiy ishlab chiqarishni yuksaltiradi.

Muammoli sohaga mo'ljallangan intellektual tizimlar. Umumiy masalalarni yechishga mo'ljallangan intellektual tizimlardan muammoli, fanga mo'ljallangan intellektual tizimlarga o'tish, sohalarini qayta ishlash muddatini qisqartiradi, sohalaridan foydalanish samaradorligini oshiradi, ekspert ishini tezlashtiradi va osonlashtiradi xamda axborot va dasturiy ta'minotdan (obyektlar, klasslar, qoidalar, proseduralar) qayta foydalanishni ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. [*Crevier, Daniel* \(1993\). *AI: The Tumultuous Search for Artificial Intelligence*. New York, NY: BasicBooks. ISBN 0-465-02997-3.](#)

2. [*McCorduck, Pamela* \(2004\), *Machines Who Think* \(2nd ed.\), Natick, MA: A. K. Peters, Ltd., ISBN 1-56881-205-1.](#)

3. [Newquist, HP](#) (1994). *The Brain Makers: Genius, Ego, And Greed In The Quest For Machines That Think*. New York: Macmillan/SAMS. [ISBN 978-0-672-30412-5](#).
4. [Nilsson, Nils](#) (2009). *The Quest for Artificial Intelligence: A History of Ideas and Achievements*. New York: Cambridge University Press. [ISBN 978-0-521-12293-1](#).

ТАЪЛИМДА РАҚАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАР ВА СУНЪИЙ ИНТЕЛЛЕКТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИНИ ЖОРИЙ ҚИЛИШНИНГ ИСТИҚБОЛЛАРИ

С.А. Тишликов, С.П. Турдиев

(ГулДУ, Амалий математика ва ахборот технологиялари)

(ГулДУ, Таълимда ахборот технологиялари мутахассислиги магистранти)

Ўзбекистон Республикаси президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномасида таъкидланганидек, рақамли иктисодиётни ривожлантириш Ўзбекистон учун келгуси йилларда энг долзарб ва устувор йуналишлардан биридир.

«Рақамли Ўзбекистон — 2030» Стратегиясига мувофик ҳамда сунъий интеллект технологияларини жадал жорий этиш ва уларни мамлакатимизда кенг қўллаш, рақамли маълумотлардан фойдаланиш имкониятини ва уларнинг юқори сифатини таъминлаш, ушбу соҳада малакали кадрлар тайёрлаш учун қулай шарт-шароитлар яратиш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 17 февралдаги "Сунъий интеллект технологияларини жадал жорий этиш учун шарт-шароитлар яратиш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПҚ-499-сон қарори қабул қилинди. Бу қарорда мамлакатимиздаги иктисодиёт тармоклари ва ижтимоий соҳада, давлат бошқаруви тизимида сунъий интеллект технологияларини ишлаб чиқиш ва улардан фойдаланишда ягона талаблар, жавобгарлик, хавфсизлик ва шаффофликни белгиловчи норматив-ҳуқуқий базани ишлаб чиқиш мақсад қилиб олинган.

Таълим жараёнини рақамлаштириш факат рақамли технологиялардан фойдаланишдан иборат эмас, балки сунъий интеллект (СИ) технологияларини ҳам таълим тизимида жорий этиш тобора истиқболли долзарб масалалардан бири сифатида қаралмоқда.

СИ деярли ҳар қандай соҳада қўллаб ихтироларни кучайтирмоқда, бу эса инсонларга аксарият мураккаб муаммоларни ҳал қилишда ёрдам беради.

Сунъий интеллектни таълим жараёнига интеграцияси қандай ҳолатларда намоён бўла бошлаши мумкин? каби саволга қуйида жавоб излашга ҳаракат қиламиз:

1. Ҳозирги вақтда бир қанча “Репититор” илова дастурлар яратилган бўлиб, бу иловалар ёрдамида Сиз исталган вақтда тушунарсиз бўлган мавзуларни қўшимча равишда ўрганишингиз мумкин. Бу шундан далolat берадики, СИ репититорлик қилиши мумкин.

2. Яқин вақтлар ичида СИ ўқувчилар билимини назорат қилиши ва баҳолаб бериши имкониятлари кутилмоқда, бунда белгилаб берилган меъёр ва мезон бўйича ўқувчиларни ёзма иш ҳамда имтихон материалларини баҳолаб беради. Бу эса ўқитувчининг ноҳолислигини таъминлаши ва лойқайд бўлишини олдини олиш каби имкониятларни тақдим этади. Демак СИ имкониятларини таълим жараёнига қўллаш орқали ўқувчилар билимини баҳолашни автоматлаштириши мумкин бўлади.

3. СИ ўқувчиларни хатти ҳаракати, ўзини тутиши каби ҳолатларни таҳлил қилиб бериши мумкин. СИ махсус видео камералар асосида ўқувчиларни ҳар хил фан мавзуларига ва топшириқларига бўлаётган муносабатларини юз тузилишини, уларнинг хатти ҳаракатларини таниб олиш орқали таҳлил қилади. Бундан ташқари, СИ ўқитувчиларга ўқувчиларнинг кучли ва кучсиз томонларини аниқлаб беради. Шунингдек, ўқувчиларни айни вақтда ҳиссиёти, жисмоний жиҳатдан ҳолати ва дарс машғулотларини қолдириши сабабларини аниқлаши ҳамда ўқитувчиларнинг профессионал кўникмаларини қандай даражада эканлигини таҳлил қилиши мумкин.

Таълим тизимида СИ ни барча имкониятлари очилмаган бўлсада, олимлар СИ ёрдами билан таълимда рўй бериши мумкин бўлган бир қатор асосий ўзгаришлар ҳақида хулосалар чиқаришган. Биз қуйида таълимда кутилаётган ижобий ўзгаришларга тўхталиб ўтамиз:

1. СИ таълимни мослашувчан ва тартибли қилади. Таълим олувчилар турли қобилиятга эга бўлади, баъзилар матнли маълумотни ўқиш ва визуал ахборотни тушунишлари (ўзлаштиришлари), бошқаларга эса маълумотларни эшитиш ва эслаб қолиш орқали тушунишлари осонроқ кечади. СИ ўқув муҳитини муаян ўқувчи учун энг самарали бўлишини мослаштиришга ёрдам беради. Бундай мослашувчанликнинг ўқувчига таълимий ва тарбиявий таъсири жуда катта бўлади. Аънанавий таълим тизимида ҳамда ўқув дастурларида ўқувчиларни қобилиятлари ва имкониятлари етарли даражада ҳисобга олинмаган. СИ ўқувчининг таълим эҳтиёжларига мослаштирадиган ва таълим олишларини самаралироқ қиладиган ўқув муҳитини яратиши мумкин. Бу шундан далолат берадики, СИ таълим тизимини тартибга туширилган муҳитини яратиш имконини тақдим этади.

2. Сунъий интеллект ўқув жараёнини тезлаштиришга ва таълим билан боғлиқ қўл меҳнатини камайтиришга қодир. Афсуски, ҳозирги кунда ўқитувчини ташкилий ва айрим маъмурий ишлар билан шуғулланиши кўп вақтини олишига сабаб бўлаётганлигини кузатишимиз мумкин. СИ ушбу жараёнларни автоматлаштириши ҳамда таълим самарадорлигини ва сифатини ошириши мумкин. Келажакда ўқитувчилар ва ўқувчилар кўп вақт талаб қиладиган ва самарсиз жараёнлардан халос бўлади. Мисол учун, ўқитувчилар ҳужжатлар ва бошқа маъмурий ишларга (ўқитувчи томонидан тайёрланадиган ўқув дастурлари, услубий ишланмалар) сарфлайдиган вақтини қисқартириши ҳамда ўқувчилар учун ҳақиқий билим олиш вақтларини иқтисод қилиш мумкин бўлади.

3. СИ туфайли ўқувчилар нафақат ўз эҳтиёжларига мослаштирилган таълим платформасига киришлари мумкин бўлади, балки уларни инсон-ўқитувчи ўқита олмайдиган (қила олмайдиган) соҳаларда ҳам ўқитиши мумкин. Масалан, сунъий интеллектни ўрганиш платформалари одатда бир нечта манбалардан тўпланган, синчковлик билан таҳлил қилинган ва текширувлардан ўтган маълумотлар асосида ишлайди. Инсон-ўқитувчи эса СИ билан бир хил даражада тенденциялар ва воқеалардан хабардор бўла олмайди. Шундай экан, биз яқин келажакда СИ га асосланган таълим платформаси яратилишини ҳам кузатишимиз мумкин бўлади.

4. Мактабгача ва бошланғич таълимда аллақачон ўйин дастурлари орқали билим олиш, ўрганиш оммалашмоқда, болалар таълимга йўналтирилган баъзи дастур ўйинлари орқали дунё қандай тузилганлиги ва дунёда қандай фаолият олиб борилишини билиб олмақадлар. Таълимга бўлган бундай ижобий ёндошувларни юқори даражадаги таълимда ҳам амалга ошириши мумкин, бу эса ўз навбатида ўқувчиларга ўзлари эгаллашни хоҳлаган қўникмаларни шакллантиришларига ва ривожлантиришларига ёрдам беради.

СИ интеллект ёрдамида замонавий таълимни ташкил этишга қуйиладиган муҳим талаблардан бири қисқа вақт ичида юксак натижаларга эришишдир. Бундай муҳим ва долзарб талабларни амалга ошириш таълим тизимида ўқув жараёнини аънанавий методларини замонавий педагогик ва рақамли технологиялар билан қўшиб олиб боришни тақозо этади.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. [Crevier, Daniel](#) (1993). *AI: The Tumultuous Search for Artificial Intelligence*. New York, NY: BasicBooks. [ISBN 0-465-02997-3](#).
2. [McCorduck, Pamela](#) (2004), *Machines Who Think* (2nd ed.), Natick, MA: A. K. Peters, Ltd., [ISBN 1-56881-205-1](#).
3. [Newquist, HP](#) (1994). *The Brain Makers: Genius, Ego, And Greed In The Quest For Machines That Think*. New York: Macmillan/SAMS. [ISBN 978-0-672-30412-5](#).
4. [Nilsson, Nils](#) (2009). *The Quest for Artificial Intelligence: A History of Ideas and Achievements*. New York: Cambridge University Press. [ISBN 978-0-521-12293-1](#).

PYTHON DASTURLASH TILI KUTUBXONASI

Ismadiyorov Sarvarjon G'ulomjon o'g'li

Dots. Qulmamatov Sindor

GulDU magistratura 1-kurs talabasi

Annotatsiya: Python dasturlash tili kutubxonasi tarkibidagi random modulining strukturasi

bilan yaqindan tanishish.

Kalit so'zlar: *random, randint, print, import, sum, start, stop, step.*

Kirish. Python dasturlash tili kutubxonasi bilan tanishish.

Modullar – alohida faylda yozilgan bo'lib, turli dasturlarda qo'llanilishi mumkin bo'lgan kodlar majmui.

Modul loyihamiz ichidagi alohida fayl bo'lib, dasturimiz davomida ishlatiladigan funksiyalarni va o'zgaruvchilarni mana shu faylga joylab, ko'zdan yashirib qo'yishimiz mumkin. Bu bizga asosiy dasturimizdan chalg'imasdan kod yozish imkoniyatini beradi.

Modul va uning ichidagi funksiyalarni istalgan payt asosiy dasturimizga yuklab olishimiz, modullarni boshqa dasturchilar bilan ulashishimiz yoki kelajakda o'zimizning boshqa loyihalarimizda foydalanishimiz mumkin.

Umuman olganda, katta dasturlar bir necha o'nlab modullardan iborat bo'lishi tabiiy hol.

Modul nomi	Modul tavsifi
math	Modul murakkab matematik ifodalarni hisoblash uchun qo'llaniladi.
random	Modul tasodifiy sonlarni tanlab oladi yoki ro'yxat elementlarini tasodifiy tartibda joylashtiradi.
tkinter	Modul foydalanuvchi va dastur o'rtasida o'zaro aloqa o'rnatish uchun oyna, tugmacha va boshqa grafik elementlardan foydalanish imkonini beradi.
datetime	Modul joriy sana va vaqtni ko'rsatish hamda sanalarni hisoblash, sanalar ustida amallar bajarish imkonini beradi.
socket	Modul kompyuterlarni internet orqali bir biriga ulash uchun qo'llaniladi.
turtle	Modul ekranda chiziq va figuralarni chizish uchun qo'llaniladi.
locale	Modul sonlarni formatlashda belgilangan tartibni aniqlash muammosini hal qilish uchun qo'llaniladi.
decimal	Modul o'nli kasr sonlari bilan ishlash va ularni yaxlitlash uchun qo'llaniladi.
os	Modul katalog va fayllar bilan ishlash uchun bir qancha imkoniyatlarni beradi.
copy	Modul nusxalash bilan bog'liq masalalarni hal qilishga mo'ljallangan.
sys	Python interpretatorida dasturni bajaruvchi muhit hisoblanadi

Random MODULI

Random moduli tasodifiy sonlar bilan ishlash uchun qulay funksiyalarga boy. Ulardan ayrimlari bilan tanishamiz.

`randint(a,b)` funksiyasi, *a* va *b* oralig'idagi tasodifiy butun sonni qaytaradi.

`randint(start, stop, step)`- *step* qadamlar soni, agar son berilmasa 1 ga o'zlashtiriladi.

1-misol

```
import random #random modulini chaqirib oldik
son = random.randint(1,100) # 1 dan 100 gacha tasodifiy butun son
print(son) # o'ylangan sonni chop etish
```

NATIJA:

```
14
```

Har safar qayta ishga tushirilganda natija o'zgaraveradi.

belgisi bilan izoh qoldirish mumkin buni dastur inobatga olmaydi.

Savol: 1 dan 100 gacha sonlar ro'yxatidan bitta tasodifiy son tushib qoldi. Mana shu sonni topuvchi dastur yozing.

Endi keling kompyuter o'ylagan sonni topamiz. Buning uchun 3 xil yo'lini ko'rib chiqamiz va dasturning optimal yo'lini ko'ramiz.

2-misol

```
import random #random modulini chaqirib oldik
```



```
n = 100 # chegarani 100 ga tenglab oldik
numbers = list(range(1,n+1))
# 100 gacha bo'lgan sonlar ro'yxati yaratildi
x = numbers.pop(random.randint(1,n+1))
# numbers ro'yxatidan bitta son tasodifiy tanlab olindi
print(x) # o'sha son ekranga chop etildi
```

NATIJA:

48

Bu dastur yuqoridagi dastur bilan ishlash prinsipi bir xil lekin yuqoridagi dasturimizda ro'yxat mavjud emas. Bunda chegarani o'zgartirishimiz va pop() funksiyasi orqali ro'yxatdan sonni sug'urib olish imkoiyatini beradi. Natijaga keladigan bo'lsak 1dan 100 gacha ro'yxat yaratib shu ro'yxatdan tasodifiy bitta sonni sug'urib olib ekranga chop etayabdi.

Endi keling shu o'ylagan sonni biz ham topib ko'ramiz. Qani ketdik!

1-USUL.

```
import random #random modulini chaqirib oldik
n = 100 # chegarani 100 ga tenglab oldik bu istalgan son bo'lishi mumkin
numbers = list(range(1,n+1))
# 100 gacha bo'lgan sonlar ro'yxati yaratildi

x = numbers.pop(random.randint(1,n+1))
# numbers ro'yxatidan bitta son tasodifiy tanlab olindi

print(x) # o'sha son ekranga chop etildi

numbers2 = list(range(1,n+1))
#huddi shunday yana bitta ro'yxat yaratib olinayabdi

print(sum(numbers2) – sum(numbers))
# ikkinchi ro'yxat yig'indisidan birinchi ro'yxatning yig'indisini ayirayabdi
```

NATIJA:

97
97

Natija to'g'ri lekin bu mukammal yechim emas. Dasturning kamchiligi dasturda chegara katta son beriladigan bo'lsa dastur ishlash jarayonida yangi ro'yxatni yaratib uning yig'indisini topgungacha biroz qiynaladi va biz katta dastur yaratganda resurslarni hisobga olishimiz kera : xotiradan joy, vaqt. Javobni topganda bizga nima kerak? 1-si tez bo'lishi kerak. 2-si optimal bo'lishi kerak.

2-USUL.

```
import random
n = 100
numbers = list(range(1,n+1))
x = numbers.pop(random.randint(1,n+1))
print(x)
for i in range(1, n+1): #1dan n gacha sikl i ni aylantiradi
    if i not in numbers: #agar i ro'yxatda bo'lmasa
        print(i) #ekranga chop etadi
        break # sikl tanasi to'xtatiladi
```

NATIJA:

34
34

Bu usulda for sikldan foydalanib ro'yxatdan har bitta elementni tekshirib ko'radi va agar shu son ro'yxatda bo'lmasa ekranga chiqaradi. Buning afzalligi for sikli iterator bo'lib xotiradan katta joy olmaydi, shunchaki sikl aylanadi va shartni tekshirib ko'radi. Lekin bu ham optimal yechim emas. Keyingi usulni ko'ramiz.

3-USUL.

```
import random
n = 100
numbers = list(range(1,n+1))
x = numbers.pop(random.randint(1,n+1))
print(x)

summa = n*(n+1)/2
print(summa - sum(numbers))
```

NATIJA:

```
68
68.0
```

Bu usulda biz biroz matematikaga tayangan holda arifmetik progressiyaning yig'indini hisoblash formulasidan foydalandik. ($summa = n*(n+1)/2$) bu formula soddagina formula bo'lib kundalik hayotimizda ham duch kelamiz.

Xulosa

1 dan 10 gacha bo'lgan sonlarni yig'indisini topish uchun $10*(10+1)/2=55$ formuladan foydalanish dasturchilar tomonidan optimal yechim deb tan olingan.

Mana shu yerda bizdan so'rashadi dasturchiga matematika kerakmi deb?

O'zingiz guvoh bo'lganingizdek dasturchi matematik formulalardan xabardor bo'lishi kerak, bu degani har doim formula yod olib yurish kerak degani emas. Shunchaki yuqoridagi kabi formulalar bor ekanligini bilishi va mantiqan fikrlay olish qobiliyatini rivojlantirishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "PYTHON DASTURLASH ASOSLARI". Anvar Narzullayev
2. "Informatika va axborot texnologiyalari" 9-sinf darsligi.

MUSIQA DARS JARAYONINI ILMIY SHAKLDA TASHKIL ETISH YO'LLARI

Abdug'aniyeva Gulnoza Mamatkarim qizi, Nahalova Shoxista Yusup qizi

Sirdaryo viloyati Guliston shahar 16-umumta'lim maktabi musiqa madaniyati fani o'qituvchisi

Sardoba tuman 12-sonli maktab musiqa fani o'qituvchisi,

abduganiyevagulnoza161@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berish jarayonida musiqa darslari faoliyat turlarini ilmiy asosda tashkil etishning o'ziga xos jihatlari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: musiqa madaniyati, dars faoliyat turlari, texnik vositalar, ko'rgazmali qurollar, video kitoblar, musiqali albomlar, asbob uskunalar, kinoproektor, musiqa darslari, kompyuter, metodist, ta'lim.

Annotation: This article is about educating students in the process of organizing music lessons on a scientific basis specific aspects are described.

Keywords: Music culture, types of activities, technical means, visual aids, video books, music albums, instruments, film projector, music lessons, computer, methodologist, education.

Har tomonlama yetuk barkamol avlodni tarbiyalab yetishtirish mustaqil Respublikamiz ta'lim tizimi oldida turgan muhim vazifa hisoblanadi. Shunday ekan, barcha fanlar qatori musiqiy fanlarni o'qitish ishini yanada yaxshilash, uning samaradorligini oshirish uchun barcha imkoniyatlardan

foydalanmoq kerak. Ayniqsa, bunday imkoniyatlarning qaysi biridan yaxshiroq natija chiqarish ustida bosh qotirish lozim.

Bizga ma'lumki, umumta'lim maktablarida o'qitiladigan musiqa madaniyati darsi faqatgina o'quvchilarning bilim olish va dunyoqarashining kengayishi zamiriga ko'rilmagan, balki ma'lum ma'noda ularning qobiliyatlarining o'sishi, ijodkorlik va ijro malakalarining shakllanishini ham taqozo etadi. Chunki, bu darslar ko'proq amaliy faoliyat, ya'ni jonli harakatlar asosida o'qitiladi. Bu esa ta'lim beruvchi pedagogdan faqatgina chuqur musiqiy bilim va keng dunyoqarashni emas, balki yuksak ijrochilik mahoratini ham talab qiladi. O'qituvchining shaxsan ijro etgan har bir musiqiy asari o'quvchilar uchun ko'rgazmalilik vazifasini bajaradi. Dars jarayonida o'quvchilar pedagogdan ovoz ishlatish texnikasi, milliy ohanglar hosil qilish, so'zlarni burro talaffuz qilish, intonatsiya va boshqa qo'shiqchilikning o'ziga xos sirsinoatlarini o'rganadilar. Zero, boshqa fanlar kabi musiqiy fanlarni o'qitishda ham ko'rgazmalilik muhim o'rin egallaydi.

Xalqimiz «yuz marta eshitgandan ko'ra bir marta ko'rgan afzal», deb bejiz aytmagan. Ko'rgazmalilik jonli va tasviriy vositalar orqali amalga oshiriladi. Umumtalim maktablarida musiqa madaniyati darslarini ilmiy asosda tashkil etish uchun avvalo shuni aytish kerakki, hozirgi zamonaviy pedagogik texnologiyalar bir vaqtning o'zida ta'lim vositalari (asbob uskunalar, laboratoriya jixozlari, axborot va texnik vositalar, ko'rgazmali qurollar, adabiyot, radio televideniya, kompyuter va x.k) ni bir necha yunalishlarda, musiqa darslarida esa foaliyat turlarida qo'llash imkoniyatini beradi. Shuningdek, musiqa fanlarini o'qitishda ham ta'lim loyihalarini yaratish pedagog va metodistlarning kasbiy mahoratalarini oshirishga yordam beradi.

Quyidagi tizim, ya'ni «buyurtma, vosita, uslub, yondashuv, ta'lim turi» tizimi kinoproektor, o'quv magnitafoni, radio va televideniya, lingafon xonasi, avtomatlashtirilgan ta'lim tizimlari, multimedia va gipermatnli ta'lim turlarining intellektual tizimi yordamida o'zlashtiriladi.

Yangi ta'lim turlarining shakllanib borishi hamda zamonaviy ilg'or o'quv vositalarining ta'limga to'liq tadbiq qilish samaradorligini o'rganish, ular o'rtasida ma'lum uzviy bog'liqlik mavjud ekanligini ko'rsatmoqda. Bunday bog'liqlik mohiyati jihatidan quyidagi tartibga asoslanadi:

- zamonaviy ta'limga ijtimoiy zaruriyatning vujudga kelishi;
- ta'lim tizimiga jamiyat tomonidan ijtimoiy buyurtma berilishi;
- ilg'or o'quv vositalarining yaratilishi;
- ilg'or o'quv vositasini ta'limda qo'llash texnologiyalarining zaruriyati;
- ta'lim tamoyillari tizimining yaratilishi.

Demak pedagogik texnologiyalar ta'lim vositasining yangi avlodi va turlari sifatida va ulardan foydalangan holda namoyon bo'ladi. Zamonaviy texnologiyaga asoslangan yangi paradigmaning mohiyati interfaol ta'limni keng ko'lamda va mavjud imkoniyatlar asosida yo'lga qo'yishdan iborat.

Unga ko'ra har bir ta'lim oluvchi o'quv axborotlarini 3 manba:

1. O'qituvchi yordamida
2. Ma'lumotlar bazasi yordamida (muayyan fan bo'yicha, yoki o'quv darslarida).
3. O'quvchilar guruhi yordamida (ular bilan o'zaro fikrlashish) egallaydi.

Pedagogik texnologiya modelida quyidagi paradigma aks etadi:

1. Muammoni qo'yish;
2. Kuzatish va tajriba asosida dalillar to'plash;
3. Dalillarni sharhlash va ilmiy farazni ilgari surish;
4. Testlar yordamida, nazariy g'oyalarni amaliyotga tadbiq etish yo'li bilan birga ilmiy farazning haqiqatligini tekshirish;
5. Xulosa va tavsiyalar tayyorlash.

Musiqa ma'daniyati ta'limida qo'llanilayotgan pedagogik texnologiyalarning samaradorligini o'lchash mezonlari shu soha bo'yicha ta'limning davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlari mazmunidan kelib chiqqan holda ishlab chiqiladi. Musiqa madaniyatining standart asosdagi yangi ta'lim mazunidan bu fan bo'yicha o'quvchilar o'zlashtirgan bilimning, ko'nikma va malakalarning, shu bilan birga ulardagi kuzatuvchanlik, xotirani mustahkamlash, obrazli tasvir

hosil qilish, ijodkorlik, mustaqil fikrlash, badiiy va musiqiy didning shakllanishini belgilaydi. Ayni vaqtda bu borada samaradorlikka erishish yo'li musiqa darslariga, uning tashkil etilishiga nisbatan texnologik yondoshuvni taqozo etmoqda. Pedagogik texnologiyalarning samaradorligi musiqiy ta'limni ma'lum maqsad asosida, shuningdek maqbul usul, shakl vositalar yordamida tashkil etish orqali ta'minlanadi. Jumladan: texnik vositalar (kompyuter va boshqalar) musiqiy cholg'ular ijro uslublari, ko'rgazmali jihozlar, amaliy mashg'ulotlar, pedagogik va psixologik vositalar, ilg'or o'qituvchilarning ish-tajribalari, noan'anaviy dars shakllari, baholashning yangi tizimi kabilar yangi ped texnologiya samaradorligini aniqlashning muhim mezonlari bo'lib xizmat qiladi.

Pedagogik texnologiyalarning samaradorligi dars jarayonida o'quvchilarning quyidagi o'quv faoliyatlarini nazariy hamda amaliy tarzda bajarish borasidagi bilim ko'nikma va malakalarning egallanish darajasi bilan belgilanadi.

O'quvchilar umumiy musiqiy dunyoqarashini kengaytirish ularda ijrochilik (kuylash, ritmik harakatlar bajarish, cholg'u sozlar chalish) malakasini shakllantirish, musiqiy bilim doirasini kengaytirish musiqiy ta'limning umumiy maqsadidir. O'zbek xalq, musiqasi jahon xalqlari musiqa asarlari, shashmaqom va boshqa yo'nalishdagi o'zbek maqomlaridan, yurtimiz xududiga mos mahalliy musiqa uslublari namunalari, tinglash orqali o'quvchilarda musiqa asarlari turlari, janrlari, milliy va akademik ijro uslublari bir-biridan farqlash, dramatik saxna asarlarini farqlash kabi musiqiy savodxonlik darajalari shakllanadi.

Jamoa bo'lib kuylash faoliyati o'quvchilarning musiqiy o'quv qobiliyati hamda ijrochilik malakalarini ivojlantirish uchun zarurdir. U orqali o'quvchi o'z ovozi ya'ni ovozda ijro etish iste'dodini boshqarish, ustozlari ijrosini tinglash, undan ibrat olish, kuzatish, unga taqlid qilish va u bilan birga kuylashga intiladi.

O'zbek xalq qo'shiqlari bastakorlar ijodi mahalliy musiqa uslublari o'ldirilgan qo'shiqlar va qardosh xalqlar qo'shiqlari, maqom yo'llaridan namunalari ijro yetish orqali ularda ijrochilik malakalari shakllana boradi. Musiqiy savodxonlik barcha bilimlarni nazariy jihatdan birlashtiruvchi faoliyat sifatida muhim ahamiyatga ega. Dars va darsdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida qanday faoliyat (tinglash, ijro etish, musiqiy harakatlar, cholg'u ijrochiligi) tashkil etilmasin, muayyan mavzudagi musiqiy asar o'rganiladi va o'quvchilarda ularning janri, shakli, tuzilishi, ladi, tempi, dinamikasi, jo'rovozlari, ritmi to'g'risida yangi tushunchalar hosil bo'ladi. Shu bois musiqiy savodxonlik faqat nota yozuvini o'rganish emas, balki o'quvchilarning umumiy musiqiy bilimlarini shakllantira boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. N.Abrayqulova. Raqs jamoasi bilan ishlash uslubiyoti. –T.: “Xalq merosi” nashriyoti. 2003-y
2. M.Qosimova. Bolalar bog'chasida o'zbek xalq milliy raqslari. T.: “Xalq merosi” nashriyoti. 2003-yil.
3. Nizomiy nomli TDPU (Res.ilm.anjuman). Uzlusiz ta'lim tizimida musiqa fanlarini o'qitish masalasi. –T.: 2009-yil.

5–SINF O'QUVCHILARINING MATEMATIKA FANIDAN XALQARO TADQIQOTLARGA TAYYORGARLIKNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI

Aymaxanova Mayra Adilbekovna

Guliston shahar 16-umumta'lim maktabi matematika fani o'qituvchisi

aymaxanovamayra16@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada, pedagoglarni kompetensiyaviy yondashuvga asosan bilimlarini rivojlantirish, pedagoglarning egallagan bilim, ko'nikma va malakalaridan samarali foydalanib xalqaro baholash dasturlariga tayyorgarlik ko'rish, namunaviy testlarni tuzishga targ'ib qilish, 5-sinf o'quvchilarining matematik savodxonligining muntazam rivojlanishiga shart-sharoit yaratishlari haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: baholash, xalqaro baholash, matematik savodxonlik, dolzarb muammolar,

islohotlar, ilg'or tajribalar, kompetensiyalar.

Annotation: *In this article, students will be able to apply their knowledge in real life, develop their knowledge based on a competency-based approach, prepare effectively for international assessment programs using the knowledge, skills and abilities of teachers, promote the development of sample tests, and it is said that they create the conditions for the continuous development of mathematical literacy.*

Keywords: *assessment, international assessment, mathematical literacy, current issues, reforms, best practices, competencies.*

Hozirgi kunda mamlakatimizda ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha bir qator islohatlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, xalqaro baholash dasturlarini o'rganish va ushbu dasturda ishtirok etish bilan milliy ta'lim tizimiga haqqoniy baho berish, rivojlangan davlatlar ta'lim tizimi yutuqlarini o'rganish va tajriba almashish imkonini berayotgani eng muhim jarayonlardan biridir. Ta'lim tizimini rivojlantirish bugungi kun uchun nechog'lik muhim bo'lsa, xalqaro baholash dasturlarida ishtirok etish ham shunchalik keraklidir.

Ayni damda har bir insonning hayoti va kasbiy faoliyatida texnogen komponentning o'sishi kuzatilmoqda. Shuning uchun nafaqat kelajakdagi mutaxassisni, balki har bir maktab o'quvchisini to'laqonli matematik savodxonlik bo'yicha tayyorlashning ahamiyati ortib bormoqda. Matematikani o'qitishning maqsadlari ham kuchaytirilmoqda. Ular matematikaning o'ziga xos jihatlariga, fanni o'rganishni va amaliy qo'llanilishini ham rivojlantiradigan shaxsiy xususiyatlariga mos kelishi kerak. Matematik savodxonlikni o'rganish doimiy e'tiborni, qat'iyatni, diqqatni jamlay olish qobiliyatini talab qiladi, ya'ni aqlni rivojlantirishda ham, xarakterni shakllantirishda ham muhim rol o'ynaydi. Chunki amaliy hayot uchun zarur bo'lgan hisoblash, geometrik tasvirlar, formulalar, funksiyalar, grafiklar, diagrammalar, jadvallar bilan bog'liq bilimlar uchun zarur bo'lgan materiallarni o'zlashtirish lozim. Demak, matematik savodxonlik – bu shaxsning turli hayotiy vaziyatlar (kontekstlar) va masalalar ustida matematik mulohaza yuritish, berilgan muammoni matematika yordamida ifodalay olish, muammoni yechishda matematikani qo'llay olish va olingan natijalardan muammoning yechimini talqin qilish va baholashda foydalana olish qobiliyatidir.[1]

Xalqaro tadqiqoti doirasida baholash uchun test topshiriqlarini tuzishda mazmun sohasini mukammal tushunish talab qilinadi. Shu bilan birga tasavvur qilish va kreativlik ham talab etiladi. Xalqaro tadqiqoti doirasida baholash uchun test topshiriqlari quyidagi ko'rinishlarda bo'ladi:

✓ Javobi tanlanadigan test topshiriqlari – Javobi tanlanadigan test topshiriqlari va javob formatlari savol yoki topshiriq bilan birga to'g'ri javob hamda ehtimoliy javob variantlari taqdim etiladi. Mufaffaqiyatli javob berish uchun o'quvchilar berilgan variantlar orasidan to'g'ri javobni tanib olishlari va tanlashlari zarur. Javobi tanlanadigan formatlar nisbatan qisqa test o'tkazish vaqtida katta hajmdagi mazmun sohasini valid, ishonchli va tejamkor tarzda baholashga imkon beradi. Ko'pincha, ushbu test topshiriqlarining to'g'ri javoblarini yaqqol ajratib olish mumkin va ular avtomatik tarzda baholanadi. Javobi tanlanadigan test topshiriqlarining bitta javob tanlanadigan va bir nechta javob tanlanadigan turlari mavjud.

Bitta javob tanlanadigan test topshiriqlari, odatda, bitta savol yoki topshiriq bilan birga to'rtta javob varianti (ya'ni A, B, C, D) ga ega bo'lib, ulardan bittasi to'g'ri sanaladi.

Bir nechta javob tanlanadigan test topshiriqlari biror bir tushunchaga oid bitta savolni o'z ichiga oladi, bunda javob variantlarining deyarli yarmi to'g'ri va yarmi noto'g'ri bo'ladi.

✓ Konstruktiv javobli test topshiriqlari – O'quvchilar konstruktiv javobli test topshiriqlariga javob berishda o'zlarining javoblarini yozishlari kerak, bunda javobi tanlanadigan test topshiriqlarida bo'lganidek, javob variantlari tayyor holda berilmaydi. [2]

Bitta javob tanlanadigan test topshiriqlari namunalari:

1-topshiriq: Sonlar yozuvidagi 3 raqami xona birligi nimani anglatadi? 328 623547 126381539

A. yuzlik, minglik, yuz minglik

B. o'nlik, minglik, millionlik

C. yuzlik, o'n minglik, yuz minglik

D. o'nlik, bir minglik, o'n millionlik

Baholash mezon	
Mazmun sohasi	sonlar va amallar
Mavzu sohasi:	butun sonlar
Kognitiv soha	qo'llash
Maksimal ball	1
Kalit	A

2-topshiriq. Malikada 3ta oq, 2ta qora va 2ta kulrang qog'oz varag'i bor. U qora bo'lmagan barcha qog'ozlarni ikkiga bo'ldi. Keyin barcha oq bo'lmagan qog'ozlarini ikkiga bo'ldi. Malikada nechta qog'oz varag'i hosil bo'ldi? Javob: _____

Baholash mezon	
Mazmun sohasi	Sonlar va amallar
Mavzu sohasi:	Shakllar va munosabatlar
Kognitiv soha	Mulohaza yuritish
Maksimal ball	3
Kalit	18 ta

3-topshiriq. $2500+3744+4500+2366 =$

Quyidagi ifodani qo'shishning guruhlash xossasi asosida hisoblang:
J: _____

4-topshiriq. Madinaning harfli, harfsiz, katta, kichik kubiklari va koptoklari bor. U o'yinchoqlarini ikkita qopga soldi. Katta o'yinchoqlarini birinchi qopga, kichiklarini ikkinchi qopga soldi. Masala shartiga mos o'yinchoqlarni Eyler doirachasida tasvirlang.

Javob: _____

Baholash mezon	
Mazmun sohasi	Geometriya va o'lchashlar
Mavzu sohasi:	O'lchashlar
Kognitiv soha	Mulohaza yuritish
Maksimal ball	3
Kalit	

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'quvchilarni xalqaro tadqiqotlarga tayyorlashga mo'ljallangan axborotnoma 2. "O'qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent — 2020y

2. Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi. O'quv qo'llanma

3. G'aniyeva G. A. — "Rasmi testlar." Toshkent. Bayoz 2021-yil. 68 b.

MATEMATIKANI O'QITISHDA KOMBINATORIKA MASALALARINI YECHISH USULLARI

Do'smurotova Zarifa Xasanovna

Guliston shahar 16-umumta'lim maktabi matematika fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ko'pgina hayotiy masalalarni yechishning bir necha xil usullari mavjud. Turmushda uchraydigan bunday masalalarni kombinatorika yordamida yechish ancha maqbul usul hisoblanadi. Kombinatorika-matematika keng tatlbiqlariga ega bo'limlaridan biri bo'lib, tatbiqiy nuqtai nazardan juda muhim bo'lgan tushuncha.


Kalit so'zlar: kombinatorika raqamlar, variantlar daraxti, matematik savodxonlik, dolzarb muammolar, metodika.

Annotation: There are several ways to solve many life problems. Solving such problems in marriage using combinatorics is a very acceptable method. Combinatorics is one of the branches of mathematics with wide applications, and it is a very important concept from an applied point of view.

Key words: combinatorics numbers, tree of options, mathematical literacy, current problems, methodology.

Hozirgi kunda kombinatorikaga oid ma'lumotlar inson faoliyatining turli sohalarida qo'llanilmoqda. Umumta'lim maktablarida kombinatorika elementlari 6-sinf dan o'quv dasturlariga kiritilgan. Quyidagi masalani qaraylik:


1-Masala. 1,2,3 raqamlari yordamida nechta ikki xonali son tuzish mumkin? Yechish: Javoblarni birortasini qoldirib ketmaslik yoki takroriy yozib qo'ymaslik uchun "variantlar daraxti" dan foydalanamiz.



Jami 9 ta kombinatsiya hosil bo'ldi. Javob: 9 ta.

2-masala. 1,2,3 raqamlaridan ularni takrorlamay, jami nechta turli ikki xonali sontuzish mumkin?

Yechish: Variantlar daraxtini tuzamiz.



Barcha kombinatsiyalar soni 6 ta. Javob: 6 ta.

Har ikkala masala shartiga e'tibor beradigan bo'lsak, deyarli bir xil masalaga o'xshaydi. Lekin javob 2 xil: 1-masalada kombinatsiyalar soni 9 ta, 2-masalada esa 6 ta. 2-masaladagi "ularni

takrorlamay”, “turli” deb qo‘yilgan shart bu masalaning mohiyatini anglatadi. Mana shunaqa masalalarni yechish jarayonida o‘quvchilar biroz chalg‘iydi. Xatolikka yo‘l qo‘ymaslik uchun esa “variantlar daraxti”ni to‘g‘ri tuzib olish muhimdir.

3-masala. 1,2,3 raqamlari yordamida hammasi bo‘lib, 1) raqamlar takrorlanmasa, 2) raqamlar takrorlanishi mumkin bo‘lsa, nechta 3 xonali son tuzish mumkin? Yechishni ikki usulda ko‘rib chiqamiz:

1) Raqamlar takrorlanmasa 2-masalada ko‘rib chiqqanimizdek, kombinatsiyalar soni 6 ta bo‘ladi, ya‘ni 1-raqamni tanlash imkoniyati 3 ta bo‘ladi. 2-raqam qolgan 2 ta raqamning ixtiyoriy bittasi bo‘lishi mumkin, ya‘ni 2-raqamni tanlash imkoniyatlarimiz ikkita, 3-raqamni tanlash imkoniyatimiz bitta qoladi.

Demak, raqamlar takrorlanmasa, jami 3 xonali sonlar $3 \cdot 2 \cdot 1 = 6$ ta bo‘ladi. Javob: 6 ta.

2) Agar raqamlar takrorlanadigan bo‘lsa, 3 xonali sonning 1-,2-,3-xonalariga yoziladigan raqamini tanlash imkoniyatlari 3 tadan bo‘ladi, chunki berilgan raqamlar soni 3 ta. 3 xonali sonlar soni $3 \cdot 3 \cdot 3 = 3^3 = 27$ ta bo‘ladi. Javob: 27 ta.

Shuni ta’kidlash joizki, kombinatorika matematikaning eng qiziqarli bo‘limlaridan biridir. Kombinatorik masalalarni yechish jarayonida o‘quvchi zerikib qolishiga yo‘l qo‘ymaslik kerak. Bir xillilik o‘quvchini zeriktirib qo‘yadi va darsga befarq bo‘lishiga olib keladi. Bunday muammoga duch kelmaslik uchun dars jarayonida turli xil metodlardan foydalanish maqsadga muvofiq.

4-masala. Bir bola yozayotgan she’rining 1-qatorida “A’lo o‘qisang yaxshi-da!” deyilgan. Bola 1-qatoridagi so‘zlarning o‘rnini almashtirib, keyingi qatorlarni hosil qilmoqchi. Bu she’rda nechta qator bo‘ladi? Qani shu “she’r”ni yozib ko‘ringchi? Yechish: Bu masalani yechish jarayonida 3 ta qatorga 3 xil vazifa berish mumkin. Bunda 3 ta qatordagi o‘quvchilarga 3 ta so‘zni bo‘lib berib, shu so‘z bilan boshlanuvchi qatorlarni tuzish vazifasini topshiramiz.

1-qator “A’lo” so‘zi bilan boshlansin.

2-qator “o‘qisang” so‘zi bilan boshlansin.

3-qator “yaxshi-da” so‘zi bilan boshlansin.

Bu vazifani bajarish jarayonida 1-qatordagi o‘quvchilar:

1. A’lo o‘qisang yaxshi-da !

2. A’lo yaxshi-da o‘qisang !

2-qatordagi o‘quvchilar:

1. o‘qisang a’lo yaxshi-da !

2. o‘qisang yaxshi-da a’lo !

3-qatordagi o‘quvchilar:

1. yaxshi-da a’lo o‘qisang !

2. yaxshi-da o‘qisang a’lo ! misralarni tuza olishadi.

Ko‘rib turganimizdek, har bir qator faqat 2 tadan qator tuza oladilar. Demak, jami kombinatsiyalar soni 6 ta. Javob: 6 ta.

Kombinatorik masalalarni o‘quvchilarga tushuntirishda noaniqlikka yo‘l qo‘ymaslik lozim. O‘quvchi har bir kombinasianing qanday hosil bo‘lganligini tushunib olishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.M. A. Mirzaahmedov, A. A. Rahimqoriyev, Sh. N. Ismailov, M. A. To‘xtaxodjayeva. Matematika 6.-“O‘qituvchi”, Toshkent, 2017-206-208 b.

2. Sh. A. Alimov, O. R. Xolmuhammedov, M. A. Mirzaahmedov. Algebra 7-sinf uchun darslik. “O‘qituvchi”, T-2017, 154-156 b.

3. Sh. A. Alimov, O. R. Xolmuxammedov, M. A. Mirzaahmedov. Algebra 8. Toshkent-2019.200-202 b.

4. Norqulov J. SH, Axmadova M. O. : Kombinatorika va Nyuton binomi.
@mat_fiz_inf_olami.

ONA TILI VA ADABIYOT DARSLARIDA DIQQATNI TAQSIMLASH USULLARIDAN FOYDALANISH

Ismoilova Lola Ismatdinovna, Suleymaova Ixbal Shaxabiddinovna
Guliston shahar 16-umumta'lim maktabi onatili va adabiyot fani o'qituvchisi
Guliston shahar 2-IDUM Ona tili va adabiyoti fani oqituvshisi
ismoilovalola161@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'quvchilar diqqatini taqsimlashga o'rgatish orqali o'quvchilarni hozirjavoblikka o'rgatish, notanish vaziyatda ham to'g'ri qaror qabul qilishga erishish, bilim olishga bo'lgan qiziqishlarini oshirish haqida so'z boradi. Ona tili va adabiyot fanlaridan bir mavzu orqali nazariy fikrlar amaliyot bilan bog'langan.

Kalit so'zlari: Olmosh, "Qutadg'u bilig", Yangi O'zbekiston, Davlat ta'lim standarti, diqqatni taqsimlash, kompetentsiya.

Annotation: This article talks about teaching students to be present, to make the right decision even in an unfamiliar situation, and to increase their interest in learning by teaching them to divide their attention. Theoretical ideas are connected with practice through a topic from the subjects of mother tongue and literature.

Key words: Pronoun, "Kutadgu bilig", New Uzbekistan, State educational standard, distribution of attention, competence.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Murojaatnomasida "Yangi O'zbekistonni, albatta, yoshlar bilan birga quramiz", deb ta'kidlaganliklari keng fikrli, tashabbuskor, zamonaviy bilimlar bilan qurollangan, eng muhimi, vatanparvar yoshlarga talab har qachongidan kuchli ekanligini anglatmoqda. Bunday keng tafakkurli, ma'naviy barkamol yoshlarga bo'lgan ehtiyoj bugungi kun til va adabiyot ta'limining oldiga ham juda dolzarb vazifalarni qo'yadi.

Biz bu o'rinda diqqatni taqsimlashga o'rgatish orqali ta'lim sifatini oshirish yo'llari xususida o'z kuzatishlarimizni bayon etmoqchimiz.

Ma'lumki, amaldagi Davlat ta'lim standartlari kompetentsiyaviy yondashuvning joriy etilganligi bilan avvalgilaridan farqlanadi. O'quvchilarda diqqatni taqsimlash ko'nikmasining to'g'ri shakllanishi olingan bilimni notanish vaziyatda ham qo'llay olish, tez va to'g'ri qaror qabul qilish imkoniyatini yaratadi. Psixologiyada diqqatni taqsimlash atamasiga quyidagicha ta'rif beriladi. "Diqqatni taqsimlash deganda diqqatning barcha xususiyatlarini: ham hajmi, ham kuchi, ham ko'chuvchanligi, ham idora qilinishi, ham ishga solinishining taraqqiy etgan bo'lishi mumkinligi tushuniladi".

Fikrimizning isboti uchun umumta'lim maktablarida adabiyot fanidan o'rganiladigan bir mavzuni olaylik. 8-sinf adabiyot o'quv dasturida Yusuf Xos Hojibning hayoti va ijodini o'rganish tavsiya etilgan. Darsning yangi mavzuning bayoni bosqichida shoirning hayot yo'li, "Qutadg'u bilig" asari haqidagi nazariy ma'lumotlar bilan tanishilgach, darsning mustahkamlash bosqichida diqqatni taqsimlash usulini qo'llash orqali mavzuga bo'lgan kompetentsiyaviy yondashuvni yuzaga chiqarish mumkin.

O'quvchilarga Yusuf Xos Hojib va uning "Qutadg'u bilig" asari bilan bog'liq davlat va shahar nomlari yozilgan tarqatmalar beriladi:

Misr	Namangan	
Qirg'iston	Qirg'iston	
Vena	Xitoy	
Turkiya	O'zbekiston	

O'quvchilarga bu tarqatmalar orqali bir vaqtning o'zida 3ta topshiriq beriladi:

1-topshiriq. Shahar yoki davlatning geografik o'rnini dunyoning siyosiy xaritasidan toping.

2-topshiriq. Xaritadan shahar yoki davlatni izlash jarayonida o'zingiz yoqtirgan she'rni aytib bering.

3-topshiriq. Bu shahar yoki davlatning Yu. X. Hojibga qanday aloqasi bor?

Bu usulni barcha ijodkorlar hayot yo'lini o'rganish, olingan bilimlarni mustahkamlash jarayonida qo'llash mumkin.

Shuningdek, ona tili darsida o'quvchilar diqqatini taqsimlashga o'rgatishning yana bir usulini tavsiya etmoqchimiz. 7-sinf ona tili darsida olmoshning ma'no turlari o'rganiladi va bu mavzular yuzasidan mustahkamlash darsi o'tkaziladi. Olmoshning ma'no turlari tartib asosida kodlanadi:

- Ko'rsatish olmoshlari
- Kishilik olmoshlari
- O'zlik olmoshi
- So'roq olmoshlari
- Belgilash olmoshlari
- Gumon olmoshlari
- Bo'lishsizlik olmoshlari

Bu diqqatni taqsimlashga oid ta'limiy o'yin oddiydan murakkabga taomili asosida 3 bosqichda tashkil etilishi mumkin.

1-bosqich. O'qituvchi aytgan raqamdagi olmoshning ma'no turiga misol aytish. Masalan: 5-gumon olmoshi, kimdir.

2-bosqich. Aytilgan raqamdagi olmosh ishtirok etgan gap tuzish. Masalan: 2- kishilik olmoshi. Biz 7-sinf o'quvchilarimiz.

3-bosqich. O'qituvchi aytgan raqamdagi olmoshning ma'no turi haqida ma'lumot berish.

Bu ikki usul o'quvchilarning diqqatini taqsimlashga o'rgatish bilan birga, didaktik o'yin sifatida bilim olishga bo'lgan motivatsiyani oshiradi. Bu usullarni mustahkamlash darslarida, darsning o'tilgan mavzuni takrorlash, yangi mavzuni mustahkamlash bosqichlarida qo'llash mumkin. Bunda o'quvchilar o'rganilayotgan mavzu yoki uning bir qismini olingan nazariy bilimlardan foydalangan holda mustaqil o'zlashtiradilar va og'zaki tarzda javob berishga odatlanadilar. Darslarda bu kabi usullarni qo'llanilishi o'quvchini notanish vaziyatda ham to'g'ri qaror qabul qilishga, og'zaki nutqini o'stirishga, hozirjavoblikka o'rgatadi. Zero, barkamol avlod tarbiyasi jamiyat taraqqiyotining, millat ma'naviy kamolotining muhim belgisidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh. M. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga murojaatnoma. 2020y
2. Karimov I.A . Adabiyotga e'tibor- kelajakka, ma'naviyatga e'tibor. Toshkent. 2009

3. To'xliiev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. Toshkent. [Yangi asr avlodi. 2006.
4. To'xliiev B. Va boshqalar. Darsliklar ustida ishlash. Toshkent. Fan. 2007.

ONA TILI DARSLARIDA LINGVISTIK TAHLIL USULLARIDAN FOYDALANISH

Jo'rayeva Aziza Xoliqulovna

Guliston shahar 16-umumta'lim maktabi onatili va adabiyot fani o'qituvchisi,

djurayevaaziza0101@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada boshlang'ich sinf ona tili darslarida lingvistik tahlil ustida ishlash xususida fikr yuritilgan. Ona tili darslarida lingvistik tahlil usullarini qo'llashning o'quvchilar savodxonligi va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishdagi ahamiyati ifodalangan.

Kalit so'zlar: lingvistik tahlil, grammatik-orfografik tahlil, fonetik-orfografik tahlil, morfologik-orfografik tahlil, leksik-orfografik tahlil

Annotation: Linguistic analysis in elementary school mother tongue classes in the article thought about working on it. Linguistic analysis in mother tongue classes students' literacy and creative abilities of using methods importance in development is expressed.

Key words: linguistic analysis, grammatical-orthographic analysis, phonetic-orthographic analysis, morphological-orthographic analysis, lexical-orthographic analysis

Аннотация: Текст научной работы на тему «Лингвистический анализ на уроках родного языка в начальной школе» задумался над работой. Лингвистический анализ на уроках родного языка грамотность и творческие способности учащихся в использовании методов значение в развитии выражено.

Ключевые слова: лингвистический анализ, грамматико-орфографический анализ, фонетико-орфографический анализ, морфологический анализ, лексико-орфографический анализ

Boshlang'ich sinf ona tili darslarida lingvistik tahlil turlaridan foydalanish o'quvchilarning tilga oid bilimlarni egallashlarida muhim hisoblanadi. Lingvistik tahlilni boshlang'ich sinflarda ko'p qo'llaniladigan orfografik mashqlarning quyidagi turlari misolida o'tkazish mumkin: grammatik-orfografik tahlil, ko'chirib yozuv, diktantlar, leksik-grammatik tahlil, bayonlar kiradi. Grammatik-orfografik tahlil quyidagicha guruhlanadi:

1. Fonetik-orfografik tahlil
2. Morfologik-orfografik tahlil
3. Leksik-orfografik tahlil

Fonetik-orfografik tahlil oldiga qo'yilgan vazifalar quyidagilardan iborat:

✚ Aytilishi va yozilishida farqlanadigan tovush va harflarni belgilash ("Jarangli va jarangsiz undosh tovushlar, ularni harflar bilan ifodalash" mavzusi).

✚ *Dil – til, gul – kul, ziyrak – siyrak, joy – choy, bol – pol.*

✚ Aytilishida tushib qoladigan undosh tovush va harflarni belgilash ("Aytilishda tushib qoladigan undoshlar" mavzusi"). *Toshkent, Samarqand, do'st, rost, past, sust, xursand, go'sht*

✚ Qo'sh undoshlarni belgilash ("Ketma-ket kelgan bir xil undoshlar" mavzusi). *Tilla, katta, hassa, jizza, ikki, yetti, gramm.*

✚ Qator undoshlarni belgilash ("Ketma-ket kelgan har xil undoshlar" mavzusi). *Samarqand, do'st, rost, past, sust, xursand, go'sht*

✚ Tutuq belgisi so'zlar imlosi bo'yicha orfografik tahlil: *A'lo: 3 ta harf, 3 ta tovush, 2 bo'g'in, 1 ta belgi. Sa'va: 4 ta harf, 4 ta tovush, 2 bo'g'in, 1 ta belgi.*

✚ Ayrim harf birikmali soʻzlar imlosi boʻyicha orfografik tahlil: *Mosh* – 2 ta harf, 1 ta harfiy birikma, 3 ta tovush (*m, o, sh*).

Morfologik-orfografik tahlil oʻzak va qoʻshimchalardagi oʻzgarishlarni aniq belgilab beradi. Bu tahlil yordamida oʻquvchilar oʻzakka qoʻshilgan qoʻshimchalar qoʻshilishi natijasida soʻzning talaffuzi va yozilishi oʻrtasidagi farqlarni ongli ravishda tushunib oladilar.

Oʻquvchilar ayrim feʼl oʻzaklariga (“Boʻlishli va boʻlishsiz feʼllar” mavzusi) boʻlishsiz feʼl yasovchi –ma qoʻshimchasi qoʻshilganda, bormadi feʼlini bomadi, kelmadi feʼlini kemadi, somadi, omadi, temadi tarzida aytishadi va shunday yozib qoʻyishadi. Shuning uchun bunday soʻzlarni quyidagicha morfologik-orfografik tahlil qildirib borish yaxshi samara beradi. *Olmadi: Ol – oʻzak; -ma – boʻlishsizlik shaklini yasovchi qoʻshimcha; -di – qoʻshimcha.* Morfologik-orfografik tahlil (“Otlarning egalik qoʻshimchalari bilan qoʻllanilishi” mavzusi) namunasi: *Oʻrtogʻim – oʻrtoq –im – q – gʻ; yuragim – yurak –im – k – g.*

Yuqoridagi soʻzlarda otlarga egalik qoʻshimchasi qoʻshilganda, oʻzakdagi jarangsiz undoshlarning jaranglilashishi kuzatildi. Bu jaranglilashish faqat ogʻzaki talaffuzda emas, balki yozma nutqqa ham taʼsir koʻrsatadi va soʻzlar fonetik tamoyil asosida yoziladi. Ayrim soʻzlarda esa oʻzakda unli tovushning tushib qolishi kuzatiladi. Shahar, bagʻir, koʻngil, singil, ogʻiz, burun, oʻgʻil kabi soʻzlarda ikkinchi boʻgʻindagi a, i, u unli tovushlari tushib qoladi va bu soʻzlar ham fonetik tamoyil asosida yoziladi: **shahar – shahrim, bagʻir – bagʻrim, koʻngil – koʻnglim, singil – singlim, ogʻiz – ogʻzim, burun – burnim, oʻgʻil – oʻgʻlim** kabi. Fanda “Kishilik olmoshlari” va “Kishilik olmoshlarining kelishik qoʻshimchalari bilan qoʻllanilishi” mavzulari asosida olmosh yuzasidan fikr yuritiladi. Men, sen kishilik olmoshlari qaratqich (-ning) va tushum (-ni) kelishigi qoʻshimchalarini qabul qilganda, odatda bitta n talaffuzda ham, yozma nutqda ham tushib qoladi. Masalan: **men – meni, men – mening, sen – seni, sen – sening.** U kishilik olmoshiga joʻnalish (-ga), oʻrin-payt (-da), chiqish (-dan) kelishigi qoʻshimchalari qoʻshilganda esa talaffuzda ham, yozma nutqda ham bitta n ortadi. Masalan: **u – unga, u – unda, u – undan** kabi. Bu holatlar oʻzbek orfografiyasi qoidalarida eʼtirof etilgan. Bu qoidani oʻquvchilarga oʻrgatish va ularning olmosh soʻz turkumi boʻyicha olgan bilimlarini mustahkamlash uchun darslikdagi mashqlardan foydalanish tavsiya etiladi. Oʻquvchi oʻzlashtirgan qoidani amalda tatbiq etib borsagina, u turli oʻrinlarda, turli shakllarda qoidaga oid birliklarni (orfogrammalarni) koʻra olsa va maxsus berilgan shart asosida muayyan vazifani izchil bajarib borsagina, qoida uning xotirasidan mustahkam joy oladi. Demak, qoidani shunchaki yodlash yoki bilish kifoya qilmaydi, balki uni mashq orqali toʻla oʻzlashtirish, shaxsiy nutq faoliyatining tarkibiy bir elementiga aylantirish kerak.

Orfografik tahlil ogʻzaki va yozma ravishda oʻtkaziladi. Ogʻzaki orfografik tahlilda imlosi mustahkamlanadigan soʻzning qanday yozilishi tahlil qilinadi. Leksik-orfografik tahlilda toʻgʻri yozish bilan bogʻliq vazifalar bajariladi. 1. Rus tili va rus tili orqali kirib kelgan soʻzlarni shakily yozuv asosida yozish. Masalan, stol, stul, shkaf, stakan, kompyuter, stadion, televizor. 2. Paronim (talaffuzdosh soʻzlar) soʻzlarni qoʻllashda ularning maʼnosiga eʼtibor berish orqali bir-biridan farqlash. Masalan, ahl (odamlar jamoasi) – ahil (inoq, totuv), asr (vaqt oʻlchovi – 100 yil) – asir (mahbus, tutqun) kabilar. Yozma orfografik tahlilda imlosi mustahkamlanadigan soʻzlar turli belgilar va sxemalar bilan izohlanadi. Uning ahamiyati shundaki, oʻquvchilarning mustaqil fikrlash darajalrini oʻstirib boradi. Yozma orfografik tahlilning yana bir qulay tomoni shuki, oʻqituvchi undan oʻquvchilarning yozgan matnlarini tekshirib, mavzu yuzasidan olgan bilimlarini atroflicha baholash imkoniyatiga ega boʻladi.

Adabiyotlar:

1. Uzviylashtirilgan Davlat taʼlim standarti va oʻquv dasturi. Ona tili. T.:2017.16-bet.
2. Oʻzbek tilining asosiy imlo qoidalari. T.,”Oʻqituvchi”, 1995.

3. Qosimova K va b. Ona tili o'qitish metodikasi. T.: "Noshir", 2009.
4. Yunusov Q. Boshlang'ich sinflarda orfografiya o'qitish masalalari. Andijon. 1991

TEXNOLOGIYA FANINIG MODDIY VA MA'NAVIY DUNYOQARASHINING SHAKILLANTIRISHDAGI O'RNI

Sarimsoqova Ziyoda O'ktamboyevna, R.B.Davkarova
Guliston shahar 16-umumta'lim maktabi texnologiya fani o'qituvchisi,
Bayovut tumani 16-umumta'lim maktabi texnologiya fani o'qituvchisi
sarimsoqovaziyoda707@gmail.com

Annotatsiya: *Texnologiya fanining o'ziga xos xususiyati o'quvchilarni ma'naviy va moddiy madaniyat dunyosiga jalb qilishdir. Agar o'quvchilar adabiyot, tarix va boshqa darslarda ma'naviy madaniyat bilan tanishsalar, unda zamonaviy inson bo'lgan moddiy madaniyat dunyosi boshqa maktab fanlarini hisobga olmaydi, bu esa o'quvchilarni zamonaviy jamiyatga moslashishini qiyinlashtiradi.*

Kalit so'zlari: *Texnologiya, o'zgarmas ta'limiy maqsadlar, yo'nalish, ichki dizayn, elektrotexnika, zamonaviy ishlab chiqarish va kasbiy ta'lim, dizayn, ijodiy ish, etika.*

Annotation: *The unique feature of technology is to attract students to the world of spiritual and material culture. If students get acquainted with spiritual culture in literature, history and other classes, then the world of material culture, which is a modern person, does not take into account other school subjects, which makes it difficult for students to adapt to modern society.*

Key words: *Technology, fixed educational goals, direction, interior design, electrical engineering, modern production and professional education, design, creative work, ethics.*

Moddiy madaniyat, ma'naviy madaniyatdan farqli o'laroq, inson faoliyati va uning rivojlanishining barcha sohalarini qamra boladi. Bu vositalar, uy-joy, maishiy buyumlar, kiyim-kechak, oziq-ovqat va boshqalar. Moddiy va ma'naviy madaniyat bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, inson hayotining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Texnologiya fani o'quvchilarda sog'lom ovqatlanishni tashkil etish, qulay sharoitni tashkil etish va hokazolar orqali o'z salomatligini saqlashga ongli ehtiyojni yuzaga keltiradi. Umumiy ta'lim tizimida "Texnologiya" fanining vazifalari o'quvchilarning mehnat va texnologik madaniyatini, texnologik bilim va ko'nikmalar tizimini shakllantirish va mehnatni tarbiyalashni o'z ichiga oladi. Uning shaxsiyatining fuqarolik va vatanparvarlik fazilatlarini, mehnat bozori sharoitida ularning ongliylik va erkinlik bilan o'ziga maqul bo'lgan kasbni o'zi tanlashiga, gumanistik va pragmatik yo'naltirilgan dunyoqarashni shakllantirishda yordam beradi.

"Texnologiya" fani maktab o'quvchilari uchun umumiy ta'limining zaruriy qismidir, ularga qo'l mehnati va mexanizatsiyalashgan mehnat asoslarini, texnologiyani boshqarish va olingan bilimlarni amaliy faoliyatda qo'llash imkoniyatini beradi. Maktab o'quvchilarini uyni boshqarish texnologiyalari bo'yicha o'qitish - materiallarni, energiyani, ma'lumotni, tabiiy va ijtimoiy muhit ob'ektlarini konvertatsiya qilish va ulardan foydalanishning aniq jarayonlarini ishlab chiqishga asoslangan.

Boshlang'ich maktab bosqichida umumta'lim muassasalarida yoshlarni texnologik tayyorlashning **o'zgarmas ta'limiy maqsadlari** quyidagilardan iborat:

- texnologik savodxonlikni,
- texnologik madaniyatni,
- mehnat madaniyatini
- o'quvchilar o'rtasida ishbilarmon shaxslararo munosabatlarning etikasini shakllantirish,

- ijodiy faoliyatni rivojlantirish,
- kasbni o'zi ongli va mustaqil ravishda belgilashga tayyorlash va keyinchalik jamiyatda ijtimoiy va mehnatga moslashishdan iboratdir.

Shunga ko'ra, o'rganilayotgan texnologiyaning turidan qat'i nazar, ***“Texnologiya” yo‘nalishi bo‘yicha*** o‘quv dasturining mazmuni materialni quyidagi so‘nggi ta’lim yo‘nalishlarida o‘rganishni ta’minlaydi:

- texnologik madaniyat;
- zamonaviy ishlab chiqarishning umumiy texnologiyalari;
- mehnat madaniyati va estetikasi;
- texnik ma'lumotlarni olish, ishlov berish, saqlash va ulardan foydalanish;
- rasm, grafika, dizayn asoslari;
- kasblar olami bilan tanishish, kasb-hunar ta'limi va ishga joylashish rejalarini tuzish;
- texnologik jarayonlarning atrof-muhit va inson salomatligiga ta'siri;
- san'at va hunarmandchilik, dizayn faoliyati;
- texnika va texnologiyalar rivojlanishining tarixi, istiqbollari va ijtimoiy oqibatlari.

O‘quvchilar quyidagi umumiy mehnat tushunchalari bilan tanishadilar:

- ❖ mehnat mahsuloti, moddiy mahsulot yoki nomoddiy xizmat, dizayn, loyiha, qurilish mahsulotining ehtiyojlari, tovarlari, iste'mol qiymati;
- ❖ ishlab chiqarishning maqbul va mumkin bo'lgan texnik va texnologik vositalarini (qurilmalar, mashinalar, mexanizmlar) o'rnatish, montaj qilish, boshqarish va xizmat ko'rsatish;
- ❖ mehnatni mexanizatsiyalash va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish;
- ❖ ishlab chiqarishning texnologik madaniyati;
- ❖ mehnatni ilmiy tashkil etish, xavfsiz mehnat amaliyotidan foydalanishni ta'minlash vositalari va usullari;
- ❖ texnologik intizom;
- ❖ muloqot etikasi;
- ❖ ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishda axborot texnologiyalari; istiqbolli texnologiyalar;
- ❖ mehnat va texnologiya ob'ektlarining iqtisodiy funktsional tavsiflari; ishlab chiqarish tannarxi; xom ashyo, energiya, ishchi kuchini tejash; mehnat unumdorligi;
- ❖ ishlab chiqarish faoliyati, chiqindisiz texnologiyalar, chiqindilarni boshqarish va ulardan oqilona foydalanishning ekologik oqibatlari.

Texnologiyalarni o'rganish jarayonida o'quvchilar quyidagilarga ega bo'ladilar: ➤ o'qitish, ish joyida ishni tashkil qilish ko'nikmalari; mehnat madaniyatiga rioya qilish;

- ijodiy, transformatsion, ijodiy faoliyat ko'nikmalari;
- texnik hujjatlarni o'qish va kompilyatsiya qilish, texnologiya va mehnat mahsulidagi parametrlarni o'lchash ko'nikmalariga ega bo'lish; modellashtirish, loyihalash, kompyuter va bezak yordamida texnologiya, mehnat ob'ektini loyihalash usulini tanlash;
- materiallar, energiya va axborotni, ijtimoiy va tabiiy muhit ob'ektlarini o'zgartirish va ulardan foydalanishning asosiy usullari va vositalari;
- tarkibiy va tabiiy bezak materiallarining xususiyatlarini bilish va baholash qobiliyati; - uchrashuvda navigatsiya qilish, qo'l asboblari va jihozlardan foydalanish;
- ish joyini tashkil qilish ko'nikmalari;
- har xil ommaviy kasblar tomonidan taqdim etilgan shaxsning shaxsiy ehtiyojlari va xususiyatlariga moslashish qobiliyati.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ismoilov, T. (2020). Umumiy o'rta ta'lim maktablarida texnologiya ta'limi bo'yicha o'quvchilarni ijodiy faoliyatga yo'naltirishning ushbu mezonlari. Архив Научных Публикаций JSPI.
2. Ismoilov, T. (2020). Научные основы подготовки будущих учителей труда к работе по развитию технического творчества учащихся (на примере сельскохозяйственного профиля). Архив Научных Публикаций JSPI.

XALQ TA'LIMIDA MATEMATIKA TA'LIMI VA UNI RIVOJLANTIRISHNING KONSEPSIYASI TO'G'RIDA

Pardayev Abdurahmon Ibragimovich

Guliston shahar 16-umumta'lim maktabi matematika fani o'qituvchisi

pardayevabdurahmon161@gmail.com

Annotatsiya: Mamlakatimizda matematik ta'lim va matematika fani taraqqiyotiga katta e'tibor berilmoqda. 2019-yil 9-iyulda imzolangan "Matematika ta'limi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, shuningdek, 2020-yil "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili" deb e'lon qilinib, shu munosabat bilan matematika, kimyo, biologiya va geologiya fanlarini rivojlantirish dasturlari ishlab chiqilgani ana shu e'tiborning amaliy isbotidir.

Kalit so'zlar: konsepsiya, matematika, PISA, TIMSS, STEAM, fan, metodika.

Annotation: In our country, great attention is paid to the development of mathematical education and the science of mathematics. "State support for the further development of mathematics education and sciences" signed on July 9, 2019, as well as declaring 2020 as the "Year of Science, Enlightenment and Digital Economy Development", in this regard Development programs for mathematics, chemistry, biology and geology are a practical proof of this attention.

Key words: concept, mathematics, PISA, TIMSS, STEAM, science, methodology.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning matematika ta'limi va matematikani rivojlantirishga qaratayotgan alohida e'tiborining pirovard maqsadi — O'zbekistonni buyuk davlatga aylantirish, yoshlarimizni shunga munosib bilim va malaka bilan qurollantirishga qaratilgandir. Matematikaning ta'lim-tarbiya bilan bog'liq xususiyatlarini sanab chiqish yengil ish emas, ammo ulardan biri bugungi tub islohotlar davrida xalqimiz istiqboli uchun ham g'oyat muhimdir. Bu — o'quvchilar va talabalar, ya'ni ertangi kun kadrlari qiyin, murakkab masa-lalarning yechimini izlab topish malakasiga ega bo'lishi. Zotan, har qanday islohot yuzaga chiqqan biror muammoni hal etish maqsadida amalga oshiriladi. Bunday muammoni hal etish matematikadagi Puankare muammosidan ham murakkab bo'lishi mumkin. Holbuki, har qanday boshqaruv muammo yechishdan iborat, deyilsa, katta xato bo'lmaydi. Aynan mana shu qobiliyatni matematika fani shakllantiradi va charxlaydi. Ma'lum ma'noda matematikani masalalar yechish fani deb atash mumkin. Chin matematika o'qituvchisi bu — o'quvchilarga masala yechishni o'rgatuvchidir.

Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish maqsadida o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholashga yo'naltirilgan PISA (The Programme for International Student Assessment) umumta'lim maktablarida ta'lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratish" belgilab qo'yilgan. Umumiy o'rta ta'limning tarixida ilk bor joriy etilishi kutilayotgan Umumiy o'rta ta'limning Milliy o'quv dasturi amaldagi davlat ta'lim standarti, o'quv dasturlarini tanqidiy tahlil qilish, keng jamoatchilikning darsliklarning mazmuniga nisbatan bildirgan fikr-mulohazalari, ta'limning keyingi bosqichi hamda zamonaviy mehnat bozorining real talablari asosida, xorijiy davlatlarning ta'lim

sohasida erishgan natijalarini inobatga olgan holda ishlab chiqilmoqda. Matematika fanini o'qitishni rivojlantirish Konsepsiyasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-sonli Farmoni asosida qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi", Prezident Sh.Mirziyoevning 2020-yil 24-yanvarda Oliy Majlisga Murojaatnomasida belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan ishlab chiqilgan. Konsepsiya xalq ta'limi tizimida matematika fanini o'qitishni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini belgilab beradi. Xalq ta'limi tizimida matematika fanini o'qitishni rivojlantirish konsepsiyasi tizimda vujudga kelgan muammolarni hal qilish maqsadida ishlab chiqilgan. Matematika ta'limining amaldagi holati va mavjud muammolari umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarga bilim berishning zamonaviy pedagogik innovatsion uslublarini joriy etish, Respublikamizning barcha ta'lim maktablari uchun majburiy bo'lgan Davlat ta'lim standartlari talablarida berilgan tayanch ta'lim mazmuni bajarish, o'quv dasturiga zamon talablaridan kelib chiqib, fundamental, nazariy yoki eksperimental fan sifatida yondashish, fanning falsafiy va metodologik jihatdan yangilanishini, ta'lim mazmuni va o'qitish uslubiga nisbatan takomillashtirilgan, samarali boshqaruv usullarini ishlab chiqishni taqozo etadi. Matematika ta'limining ahamiyati uning fan-texnika taraqqiyotida, axborot-kommunikatsion texnologiyalarning ishlab chiqarish sohalarida va kundalik hayotda tutgan o'rni bilan belgilanadi. Konsepsiya rivojlangan davlatlar qatoridan o'rin olish uchun bilimli, tajribali va zamonaviy fikrlaydigan yuksak salohiyatli, raqobatbardosh, kompetent kadrlarni tayyorlash, umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlarida belgilangan talablar uchun asos bo'ladi. Konsepsiyada belgilangan maqsad va vazifalarni amaliyotga keng joriy etish o'quvchi-yoshlarning intellektual rivojlanishiga samarali ta'sir etadi.

O'quvchilarning matematik savodxonligi, mantiqiy fikrlashi va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan xalqaro baholash dasturlari (PISA, TIMSS) talablariga mos keladigan amaliy topshiriqlar bazasini yaratiladi va mamlakatimiz o'quvchilarining mazkur xalqaro baholash dasturlariga muosib qatnashishi ta'minlanadi, matematika fanlari bo'yicha sinflar kesimida o'quv-metodik majmualarni yangi avlodini ishlab chiqiladi va ta'lim jarayoniga joriy etiladi, matematika fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash bo'yicha innovatsion metodikalar yaratiladi. STEAM zamon talablari asosida xalqaro miqyosida o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishda umumta'lim fanlari bo'yicha fanlararo bog'lanish va amaliy yondashuvga e'tibor qaratiladi, o'quvchilarni o'quv loyiha va o'quv-tadqiqotchilik rivojlantiriladi, umumiy o'rta ta'lim fanlari bilan o'zaro integratsiyasi orqali o'quvchilar kasb-hunarga yo'naltirish ishlarini tashkil etiladi, matematika fani o'qituvchilarining fan bo'yicha bilim, ko'nikma va mahoratini uzluksiz yangilab borish maqsadida, o'qituvchining shaxsiy va kasbiy axborot maydoni yaratiladi hamda malaka oshirish tizimi zamonaviy raqamli texnologiyalar asosida tubdan yangilanadi, ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etilib, yagona virtual muhit - axborot ta'lim platformasi ishga tushiriladi, va unga matematika fani bo'yicha elektron kutubxona, darslarning o'quv-uslubiy ta'minoti bilan bog'liq bo'lgan barcha elektron resurslarni, video darslarni, virtual laboratoriya, multimediali interaktiv animatsion ilovalar joylanadi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Matematika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 7-maydagi PQ-4708-son qarori
3. <http://www.uzedu.uz> - O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi portali.

TARBIYA FANINI O'QITISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Aliyeva Marhabaxon Baxodirovna, To'ychiyeva Gulnora Boyqo'zi qizi

Guliston shahar 16-umumta'lim maktabi tarbiya fani o'qituvchisi

Guliston shahar 2-IDUM tarbiya va huquq fani o'qituvchisi

aliyevamarhabo666@gmail.com

Annotatsiya: yuqori sinflarda "Tarbiya" fanini o'qitish ta'limda darslarni shu asosda tashkil etish, avvalambor, o'qituvchining innovatsion faoliyatiga, ijodiy tafakkuriga bog'liqdir. Pedagogik innovatsiyalar ta'limning majmuaviy vazifalarini hal etish uchun xizmat qilishga yo'naltirilgan, o'zgarishlardan iboratdir.

Kalit so'zlar: tarbiya, interfaol, metod, usul, metodika, aqlni charhlash.

Annotation: the organization of lessons in teaching the science of "Education" in higher grades depends, first of all, on the innovative activity and creative thinking of the teacher. Pedagogical innovations consist of changes aimed at solving the collective tasks of education.

Key words: education, interactive, method, method, methodology, brainstorming.

Agar o'qituvchi qandaydir yangi usul, uslub yoki texnologiyani joriy etish orqali o'quvchida mustahkam bilim bilan birga, uni amaliy faoliyatda qo'llashning ko'nikma va malakalarini tarkib toptirib, yuqori samaradorlikka erishsa, yangi g'oyalar ustida muntazam ish olib borsa, ushbu innovatsiyalar kafolatlangan natijalarini beradi. Zamonaviy bilimlar sari keng yo'l ochish, ta'limni takomillashtirishda pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanish, noan'anaviy darslarni tashkillash va o'tkazish bugungi kunning asosiy talablaridan biridir.

Mustaqil O'zbekistonda uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilishni yangi Davlat ta'lim standartlari asosida ta'lim va tarbiya jarayonini tashkil etishga qaratilgan hozirgi kunda o'qituvchi faoliyatiga, uning pedagogik mahoratiga alohida e'tibor berilmoqda. Yurtimiz milliy mustaqillikka erishgan kundan e'tiboran mamlakatimizda ulkan o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Ijtimoiy hayotimizga "Tarbiya" fanining kirib kelishi, biz uchun qanchalik kata ahamiyatga ega.

Hayotimizda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan ta'lim-tarbiya tizimi haqida gapirganda, Abdulla Avloniy bobomizning dono fikrlarini takror va takror aytishga to'g'ri keladi: ta'lim-tarbiya – biz uchun hayot-mamot masalasidir, dedi prezident. Qaysi sohani olmaylik, biz zamonaviy yetuk kadrlarni tarbiyalamasdan turib biron-bir o'zgarishga, farovon hayotga erisha olmaymiz.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 19-oktabr kuni maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish masalalariga bag'ishlangan yig'ilishdan Ta'lim jarayonini zamon talablari darajasida moslashtirishga, muammolar yechimini topishga va ta'lim mazmuni, shakli va usullarini muntazam yangilashga qaratilgan zamonaviy pedagogik texnologiyalar dars sifatini oshiradi.

"Tarbiya" fani o'qituvchisi o'quv texnologiyasining bevosita yetkazuvchisi sifatida mashg'ulotlarga jiddiy tayyorlangan, yangilikdan boxabar bo'lgani holda dars jarayonini qiziqarli olib borishi lozim. Dars berayotgan sinfiga taaluqli didaktik materiallarni, darsliklarni, uslubiy qo'llanmalarni va elektron o'quv vositalarni ham mukammal o'rganishi, shuningdek, ularni darslarda qo'llay olishi, faoliyatini muntazam yangilab borishi darkor.

"Tarbiya" fanini o'qitishda foydalaniladigan interfaol metodlar – hozirgi kunda ta'lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarning o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda, bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchi-talabalarni faqat tayyor

bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi.

“Tarbiya” fanining o'qitilish targ'ibotida ham bunday yangi texnologiyalarda, interaktiv metodlardan foydalanilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu orqali ta'lim samaradorligi oshirilib, o'quvchiga “Tarbiya” fanining o'qitilish targ'ibotining mazmunini ochib berib, ularni erkin fikrlashga o'rgatadi. Interfaol metodlar: loli-lops (aqlni charhlash) usuli – metodni qo'llash jarayonida bizga muzqaymoq cho'plari (10 tacha) kerak bo'ladi. Bu muzqaymoq cho'plariga o'quvchilarning ismlari yoziladi va qutichaga solinadi, doskaga yoki ekranga 100 gacha bo'lgan sonlar yozib qo'yiladi. Bu jarayondan darsning o'tilgan qismini takrorlashda yoki yangi mavzuni mustahkamlashda foydalansa bo'ladi.

Qutichaga o'quvchilarning ismlari yozilgan muzqaymoq cho'plarini yordamchi o'quvchi birma-bir ismlarni o'qiydi, ismi chiqqan o'quvchi doskadagi sonlardan birini tanlab bo'lgach o'qituvchi o'sha sondagi savolni o'qiydi, o'quvchi esa javob beradi. Savollar orasida sovg'a bonusi yashiringan, qaysi o'quvchiga chiqsa bu bonus, o'quvchi bu sovg'ani olib hech qanday savolga javob bermasdan joyiga o'tiradi. O'ntacha savollarga o'quvchilar javob beradi. To'g'ri javob berilgan savollarga o'qituvchi tomonidan ballar to'plami berib rag'batlantirib boradi. Darsni mustahkamlash jarayonida o'quvchilar o'z og'zaki nutqdan, doskadan, muzqaymoq cho'plaridan foydalanadi(o'quvchi uchun bu juda qiziqarli tuyuladi).

“Step by step” metodi – Bu metoddan 4-5 yoshli bolaning oyog'ining panjasidan rangli yaltiroq qog'ozlardan chizib olinadi (har xil rangdagi qog'oz bo'ladi). Bu metoddan yangi mavzuni tushuntirish jarayonida qo'llasa bo'ladi. Deylik, o'qituvchi “Qonun ustivorligi” mavzusini o'ta turib, O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimovning “Taraqqiyotning o'zbek modeli”ning tamoyillarini, yana Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning “Harakatlar strategiyasi”ni ketma-ketlikda yozilgan oyoq panjalarini doskaga yopishtirib qadamba qadam qilib ilib taqqoslab aytib o'tsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Doskada rangli oyoq panjalari ketma-ket qoidalar yoki tamoyillar qadamba qadam qilib ilingani o'quvchilarning bu fanga yanada qiziqishlarini orttiradi . “Bibli g'oya” (turli adabiyotlardan foydalanish) metodi – bu metodni ko'proq o'qituvchi darsning oxirida, ya'ni uyga vazifa berish qismida foydalansa bo'ladi. O'qituvchi o'quvchilarga bugungi o'tilgan yangi mavzudan kelib chiqqan topshiriqni OAV, adabiyotlardan qo'shimcha ma'lumotlar topib kelishini aytadi.

O'quvchi kun yangiliklaridan, uyga vazifani bajarishda OAV va adabiyotlardan keying darsga biz uchun yangilik bo'lgan ma'lumotlarni topib kelishga harakat qiladi.

“Tropik yomg'ir” o'yini (Bu o'yin , “Ekologik madaniyat” mavzusida ishlatasa bo'ladi). Bu metod ko'proq 5-6-7 sinf o'quvchilari o'rtasida o'tkaziladi. O'qituvchi qo'l harkatlari orqali tabiatning turli hodisalarini avval sekin, so'ng tezlashgan holda ko'rsatadi. O'quvchilar soat millari bo'ylab ushbu harakatni davom ettiradilar. Shamol (qo'llar kaftlari bir- biriga ishqalanadi). Yomg'ir (o'rtancha barmoq va bosh barmoq ishtirokida qo'llar qarsillatiladi). Jala (qo'llar chirmashtirilib, yelkalarga qarsillatib uriladi). Do'l, sel (tizzalarga uriladi). Qor, izg'irin (qo'llar bir-biriga ishqalanib, galma-galdan sakraladi). Bu metoddan foydalanib o'tilgan mavzuda yoki takrorlash mavzusida foydalanilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. R. Mavlonova, N. Rahmonqulova, B. Normurodov “Tarbiyaviy ishlar metodikasi” darslik. “Tib-kitob” nashryoti. Toshkent-2010.
2. Tolstoy L. N. Asarlar to'plami, 22 jildlik, 1984-yil.

3. J. Hasanboev, X. A. To'raqulov, I. SH. Alqarov, N. O'. Usmanov "Pedagogika". "Noshir" Toshkent 2011-yil.

TARIXIY MANBALAR VA XARITALARDAN TARIX DARSLARIDA FOYDALANISH

*Turdiyeva Iroda Axmatovna, Z.E.Mahamedova
Guliston shahar 16-umumta'lim maktabi tarix fani o'qituvchisi,
Guliston shahar 6-maktab tarix fani o'qituvchisi
turdiyevairoga1444@gmail.com*

Annotatsiya: *Mavzuning ahamiyatligi shundaki, o'quvchi o'rganilayotgan mavzuga oid bilimlarni to'ldirish va mustahkamlash uchun tarixiy manbalar va qo'shimcha adabiyotlardan albatta foydalanishi zarur. Ikkinchidan, hozirgi tarix darsliklarida mavzularga oid qo'shimcha adabiyot va manbalar, hujjatlar berilmayapti yoki juda kam berilmoqda. Vaholangki, umumiy o'rta ta'limning tarix fanidan Davlat ta'lim standartlarida o'quvchilarda tarixiy manbalar va hujjatlar bilan ishlash ko'nikma va malakasini shakllantirish talabi qo'yilgan.*

Kalit so'zlar: *tarix, fan, DTS, o'q ildizi, tafakkur, balletistik, yosh tarixchi.*

Annotation: *The importance of the subject is that the student must use historical sources and additional literature to supplement and strengthen knowledge of the subject being studied. Secondly, in current history textbooks, additional literature and sources, documents related to the topics are not provided or are provided very little. However, the State educational standards for the subject of history of general secondary education require students to develop the skills and competence of working with historical sources and documents.*

Key words: *history, science, DTS, arrow root, thinking, ballet, young historian.*

Umumiy o'rta ta'limda tarixiy manbalar bilan ishlashning ahamiyati vazifalari: o'tmishni tarixiy manbalarsiz o'rganish mumkin emas. Shuning uchun umumiy o'rta, o'rta maxsus va oliy ta'limning Davlat standartlarida bu borada alohida talablar qo'yilgan. DTSga ko'ra o'quvchilar tarixiy jarayon va voqealar haqida ma'lumot berishda qo'shimcha adabiyot va manbalardan foydalana olishlari lozim. Tarixiy manbalarni fanning o'ziga xos "o'q ildizi", ya'ni o'zagi deyish mumkin. O'quvchilarni tarix bilan tarbiyalashda, ularda tarixiy xotira va tarixiy tafakkurni shakllantirishda manbalarning ahamiyati va roli beqiyos katta. Shunday ekan, tarix fani o'qituvchilari avvalo, o'zlari tarixiy manbalar va hujjatlar bilan ishlash malakasi va tajribalariga ega bo'lishlari zarur. Tarix o'qituvchisi qaysi manbadan qanday holatlarda foydalanish maqsadga muvofiqligini bilishi kerak. Chunki, manbalar, tarixiy hujjatlar va qo'shimcha adabiyotlardan dars mazmuniga, uning maqsadlariga mos tarzda, o'quvchilarning yoshi, ehtiyoj va qiziqishlarini hisobga olgan holda foydalanilgandagina u kutilgan natijani beradi. Aks holda, dars jarayonini va o'quvchilarni dasturiy yo'nalishdan, fanning asosiy maqsadi va vazifalaridan chalg'itishi mumkin. Tarixiy manba avvalo, o'qituvchining bayonini aniqlashtirish, berilayotgan ma'lumotlarni dalillash uchun xizmat qiladi, bayonning ishonchli va emotsional bo'lishini ta'minlaydi, o'tmishning yorqin obrazlarini, tarixiy voqealarning yaxlit manzarasini gavdalandirishga, o'rganilayotgan davr xususiyatlarini anglab olishga yordam beradi. Manba ustida ishlash o'quvchilarni faktlar va hodisalarni mustaqil ravishda aniqlash va tahlil qilishga, ularga tanqidiy qarashga, voqea-hodisalarni puxta anglab olib xulosalar chiqarishga o'rgatadi. Shu bilan birga manba ma'lum vaziyatni o'rganib baho berishga, ahamiyatini bilib olishga, tarixni obyektiv nuqtai nazardan tushunishga yordam beradi.

Tarixiy manbalar va hujjatlar bilan ishlashning yana bir muhim tomoni shundaki, bu ish o'quvchilarni tarixiy tadqiqot elementlari bilan tanishtiradi hamda ularda tadqiqotchilik

ko'nikmalarini shakllantiradi. Tarixni o'rganishda tarixiy manbalar, hujjatlar va badiiy adabiyotlardan foydalanish – tarix fani bilan bir qatorda fragistika, numizmatika, diplomatika, paleografiya, arxeologiya, toponimika, tekstologiya, etnonimika, geraldika, geneologiya, filateliya, xronologiya va metrologiya, tarixiy geografiya singari ko'makchi tarix fanlari mavjuddir. Bu fanlarning yutuqlari bizning tarix sohasidagi bilim va tasavvurlarimizni chuqurlashtirish va aniqlashtirishda muhim ahamiyatga egadir. Tarix darslarida badiiy adabiyotlardan foydalanish. Tarixiy-badiiy adabiyotlardan foydalanishda o'quvchilarning yosh psixologik xususiyatlarini inobatga olish zarur.

Badiiy adabiyot obrazlaridan foydalanish o'qituvchi bayonining emotsional ta'sirchanligini, tarbiyaviy ahamiyatini oshiradi, o'rganilayotgan tarixiy voqealarga nisbatan o'quvchilarda xayrixohlik, zavqlanish, afsuslanish, nafrat yoki hayrat tuyg'ularini tug'diradi. Tarixiy voqeahodisalarning esda qolishini, darsning qiziqarli bo'lishini ta'minlaydi hamda o'rganilayotgan tarixiy davr haqida to'liq tushuncha va tasavvur hosil qilishga xizmat qiladi. Tarix o'qitishda foydalaniladigan badiiy adabiyotlarni quyidagi ikki guruhga bo'lish mumkin:

➤ O'rganilayotgan davrning adabiy yodgorliklari. Adabiy yodgorliklarga tarixiy hodisa va voqealarni o'z zamondoshlari yozib qoldirgan asarlar kiradi: afsonalar, dostonlar, jangnomalar, qo'shiqlar, masallar.

➤ Tarixiy-belletristik asarlar. Belletristik asarlarga tarixiy romanlar, tarixiy mavzularda yozilgan asarlar, o'rganiladigan davr haqidagi badiiy asar va hikoyalar kiradi. Bu asarlar tarixiy manbalar, memuarlar va hujjatlar, ilmiy tekshirish ishlari va monografiyalarni o'rganish asosida yozilgan bo'lib, ularda o'tmish voqealari badiiy tasvirlar va badiiy obrazlar orqali ifodalanadi. Belletristika tarix fani uchun hujjatli manba bo'la olmasada, o'quvchilarga o'tmishni aniq tushuntirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

O'qituvchi tarix darslarida foydalanish uchun badiiy adabiyotlardan:

- a) ta'lim dasturida ko'zda tutilgan tarixiy voqealarni tasvirlashga;
- b) tarixiy arboblarning rolini ko'rsatishga;
- c) tarixiy voqealar bo'lib o'tgan joylarni va u yerlarning aniq sharoitini tasvirlashga bag'ishlangan asarlarni tanlaydi.

Zamonaviy tarix darsiga bo'lgan talab nima bilan belgilanadi?

Birinchidan, fikrimizcha, tarix ta'limining pirovard maqsadi - yuksak malakali va yuksak ma'naviyatli insondir. Demak, tarix ta'limini insonparvarlashtirish, shaxsga yo'naltirish bugungi kunning dolzarb masalasidir.

Ikkinchidan, tarix ta'limi davomida o'quvchi yoshlarni tarixiy bilim va ko'nikmalar bilan qurollantirib, ularni o'tmishda va bugungi kunimizda sodir bo'layotgan ijtimoiy hodisalarni to'g'ri baholash va xulosalar chiqarishga o'rgatish kerak. "Har bir insonning, ayniqsa endigina hayotga qadam qo'yib kelayotgan yoshlarning ongiga shunday fikrni singdirish kerakki, ular o'rta qo'yilgan maqsadlarga erishish o'zlariga bog'liq ekanligini, ya'ni bu narsa ularning sobitqadam g'ayrat-shijoatiga, to'la-to'kis fidokorligiga va cheksiz mehnatsevarligiga bog'liq ekanligini anglab yetishlari kerak".

Ya'ni, o'quvchilarda tarix ta'limi asosida tarixiy tafakkurni, tarixiy xotira tuyg'usini shakllantirish orqali ularni o'z oilasi, davlat va jamiyat oldida mas'uliyatini his qiladigan, o'z bilimi va intellektual salohiyatiga tayanadigan faol fuqarolar etib tarbiyalash zarur.

Uchinchidan, ota-bobolarimiz bizga meros etib qoldirgan Vatan - O'zbekiston har bir o'zbek fuqarosi uchun sajdagoh kabi azizdir. Bunday muqaddas g'oyani yoshlar ongiga aniq tarixiy voqe'liklar asosida singdirib borish har bir tarix darsi va uni o'qitadigan o'qituvchining muqaddas va sharafliligi burchidir. Zamonaviy tarix ta'limi o'quvchi yoshlarni vatanparvarlik, mustaqillik g'oyalariga

sadoqat ruhida, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar va ulkan bunyodkorlik ishlarining faol ishtirokchisi etib tarbiyalashi zarur.

To'rtinchidan, tarix o'qituvchisi o'zining pedagogik faoliyatida ilmiy bilimlarni tez suratlarda o'sib borayotganligini albatta hisobga olmog'i, ta'limda ilm-fanning so'ngi yutuqlarini, o'qitishning ilg'or texnologiyalari va metodlarini qo'llamog'i kerak.

Ilmiy texnika inqilobi davrida o'quvchi yoshlar ham o'z bilimlarini mustaqil holda uzluksiz takomillashtirib borishlari, axborotlar oqimidan to'g'ri xulosa chiqarishga erishmoqlari lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Toshpo'latov T., G'afforov Ya. Tarix o'qitish metodikasi. - Toshkent: TURONIQBOL, 2010.
2. Sagdiev A., Fuzailova G., Hasanova M. Tarix o'qitish metodikasi. - Toshkent: TDP, 2008.

TARIX DARSLARINI TASHKIL ETISH VA O'QUVCHILAR BILIMINI ZAMON TALABI ASOSIDA BAHOLASHNING SAMARALI USULLARI

Shodiyev G'iyos Zokirovich

Guliston shahar 16-umumta'lim maktabi tarix fani o'qituvchisi

shaodiyevgiyos901@gmail.com

Annotatsiya: *Yoshlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish-ta'limtarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo'lishi lozim. Ta'limning bugungi kundagi vazifasi o'quvchilarni kun sayin takomillashib borayotgan axborot-ta'lim muhiti sharoitida mustaqil ravishda faoliyat ko'rsata olishga, axborot oqimidan oqilona foydalanishga o'rgatishdan iboratdir. Buning uchun ularga albatta dars jarayonlarida turli pedagogik texnologiyalar yordamida mustaqil ishlash imkoniyati va sharoitini yaratib berish zarur.*

Kalit so'zlar: *kommunikatsiya texnologiya, xavfsizlik, islohot, yangi terminlar, tabaqalashtirilgan ta'lim, uyga vazifa.*

Abstract: *The main goal and task of the education sector should be to bring up our young people to become perfect people who have the ability to think independently and broadly. The task of education today is to teach students to work independently in the conditions of the information-educational environment that is improving day by day, to use the flow of information wisely. For this, it is necessary to create the opportunity and conditions for them to work independently with the help of various pedagogical technologies in the course of the lesson.*

Key words: *communication technology, security, reform, new terms, differentiated education, homework*

Mashhur o'zbek taraqqiyparvari, jadidchilik harakatining yirik namoyondasi Abdurauf Fitrat 1917-yilda tarixdan saboq chiqarish to'g'risida shunday yozgan edi: "Tarix millatlarning o'tmishini, taraqqiyotini hamda tanazzulining sabablarini o'rganaturg'on ilmdir". Darhaqiqat, tarix xalqqa saboq va ma'rifat beradi. Tarixni o'rganmasdan turib kelajakni anglab bo'lmaydi. Tarix inson aql-idroki va tafakkurining shunday bir nodir va mo'jizakor mahsuli, inson tarixdan ta'lim-tarbiya oladi, tarix kata saboq beradi. Tarix saboqlaridan o'ziga tegishli xulosa chiqara olmagan, kechagi kunini yaxshi bilmagan millatning kelgusi qismati o'z-o'zidan ravshan. Axborot kommunikatsiya texnologiyalari rivojlangan davrda yashayotganimizga qaramasdan, avvalambor tarixni bilish –bu hayotiy zaruratdir. Jumladan, Vatanimiz O'zbekistonda ijtimoiy hayotning barcha sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlarning maqsadi ham inson va uning manfaatlari, uning xavfsizligi va farovonligini ta'minlash hamda barkamol avlodni voyaga yetkazishga qaratilgan. Ana shu oddiy talabdan kelib chiqqan holda, innovatsion ta'lim texnologiyalarini pedagogik amaliyotga tatbiq etish uchun o'qituvchiga quyidagi

komponentlar-bilim, ko'nikma va malakalar zarur bo'ladi:

- O'z fanining asoslarini chuqur egallagan, ilmiy salohiyat va ma'naviy barkamollikka ega bo'lishi;
- O'z fanining ilg'or targ'ibotchisi, fidoiysi bo'lishi;
- Ilg'or pedagogik tajribani o'rganish va umumlashirish, o'zlari ham yangicha o'qitish uslublarini ishlab chiqishi;
- O'quv jarayonini tashkil etishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalardan keng foydalanish;
- Internet tarmog'i to'g'risida tushunchaga ega bo'lishi va undan o'z bilimini oshirishda foydalana olishi;
- Innovatsion ta'lim texnologiyalarining turlari, qoidalari va tamoyillari haqida tushunchaga ega bo'lishi;
- O'quvchilarning faolligini o'stirish, ularning mustaqil ta'lim olish jarayonlarini o'rganish, o'qitish jarayonini mazmunli, qiziqarli, ijodiy, samarali bo'lishi uchun ta'limning interfaol metodlarini qo'llay bilish;
- O'quvchilarning o'zlashtirish darajasini aniqlash va ularning monitoringini olib borish;

Zamon talablariga hamohang bo'lgan o'qituvchi o'quvchlarning bilim darajalariga qarab vazifalarni belgilashi lozim. Sababi darslardagi bir xillik, faqat kitobdagi ma'lumotlar bilan cheklanib qolish bugungi kun intellektual salohiyati yuqori bo'lgan yoshlarning darsga bo'lgan qiziqishlarini susaytirishi mumkin. Bugungi kun o'qituvchisi pedagogik va axborot texnologiyalar, interfaol uslublar bilan qurollansagina o'quvtarbiya jarayonini qiziqarli tashkil eta oladi. O'qituvchi o'zi o'qitayotgan o'quvchilarning bilim salohiyatiga mos ravishda vazifalarni belgilashi lozim. Shunday ekan men ham tarix darslarida o'z tajribamda qo'llanilgan va yuqori samara bergan interfaol usullar haqida to'xtalib o'tmoqchiman. "Ikki qismli kundalik" texnologiyasi darsning, yangi mavzuni o'rganayotgan qismida yoki yangi terminlar, tushunchalarni mustahkamlash uchun foydalaniladi. Bu texnologiya bilan ishlash asosan yozma shaklda amalga oshiriladi. Bunda o'quvchi o'zining konspekt daftarini ikki qismga ajratadi. Yangi o'rganilgan tushuncha, ta'rif yoki izohlar daftarning birinchi tomoniga yoziladi.

Ikkinchi tomonga esa har bir o'quvchi berilgan ta'rifdan kelib chiqib, o'zining ta'rifini bir nechta variantda yozishi kerak. Masalan:

Berilgan ta'rif:	O'quvchining ta'rifi:
Navkariya-Buxoro amirligida muntazam qo'shin	1. Muntazam qo'shin 2. Amir Haydar tomonidan tuzish boshlangan qo'shin 3. 1837-yilda Amir Nasrullo tuzgan qo'shin 4. 3-turda tuzilgan muntazam qo'shin

Bu metod o'quvchilarda fikrlash mahoratini rivojlantiradi. Eslab qolish qobiliyatini kuchaytiradi va o'zlashtirish darajasini oshirishga yordam beradi. Shuningdek, o'quvchilarga tushunish qiyin bo'lgan so'zlarni eslab qolish va tushunib olishlarida yordam beradi.

O'quvchi bu jarayonda o'zining bilim darajasini anglagan holda o'zini –o'zi baholay oladi va savol tanlaydi. Savollar oddiylikdan murakkablikka qarab belgilanadi. Bu jarayon o'quvchini tabaqaga ajratmaydi, balki o'z bilim darajasini anglashga ko'maklashadi. 1ballni qo'lga kiritgan o'quvchi 3 ballni qo'lga kiritgan o'quvchiga qarab harakat qiladi.

O'qituvchi uchun darsning "UYGA VAZIFA" berish jarayoni ham alohida bir ma'suliyatli

vazifa hisoblanadi. Sababi darsliklarimizdagi mavzu oxirida berilgan vazifalar barcha o'quvchilarga bajarish uchun topshiriladi. Lekin bu jarayon mavzuni yaxshi o'zlashtirgan va bilim darajasi yuqori bo'lgan o'quvchilarni qoniqtirmasligi mumkin. Shuning uchun mavzu yakunlangandan so'ng o'quvchilarning to'plagan ballariga ko'ra uyga vazifa belgilansa maqsadga muvofiq bo'ladi. Masalan:

Dars davomida 3 ball to'plagan o'quvchi mavzu oxiridagi savollarga javob yozib kelish topshirilsa u savollarga javob yozish jarayonida mavzuni yana bir karra takrorlaydi va keyingi darsda ko'proq ball to'plashga muvaffaq bo'ladi.

Dars davomida 4 ball to'plagan o'quvchiga mavzu oxiridagi savollarga javob yozib kelish topshirig'idan tashqari qo'shimcha 5 ta test tuzib kelish topshirilsa bu ham o'quvchini topqirlikka undaydi.

Dars davomida 5 ball va undan yuqori ball to'plagan o'quvchiga mavzu oxiridagi savollarga javob yozib kelish topshirig'idan tashqari mavzuga oid bo'lgan darslikdan tashqari qo'shimcha ma'lumotlar topib kelish topshirilsa, o'quvchi ham mavzuni o'zlashtiradi, ham qo'shimcha manba bilan ishlaydi.

Zamonaviy darslarni tashkil etishda oldimizda turgan asosiy vazifalardan yana biri o'quvchilarni tog'ri baholashdir. Men taqdim etayotgan baholash jadvalining afzalligi shundaki, dars jarayonida bu jadval guruh sardorining qo'lida yoki agar ulgura olsangiz doskada o'qituvchi tomonidan qayd etib borilishi ham mumkin. Baholash jadvalida o'quvchining har bir dars bosqichidagi ishtiroki alohida ballanadi va dars yakunida jamlanib, har bir o'quvchining alohida bali, o'rni va guruhning o'rni ham yaqqol namoyon bo'ladi.

Baholash jadvali: O'qituvchi, eng avvalo, o'quvchilarning bilim darajasi va intellectual imkoniyatlarini hisobga olishi darkor. Sababi bugun o'sib kelayotgan yosh avlod shunday bilim, tafakkur sohibi bo'lishi kerakki, ertaga u qo'rqmay Vatan yukini o'z zimmasiga ola bilsin va yurt uchun nimadir qila olishini isbotlasin.

Xulosa qilib aytganda, o'quvchi yoshlarni avvalo, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash uchun dars jarayonida butun rahbarlikni o'z qo'lga olib, mavzu mohiyatini to'liq tushuntirgan o'qituvchi emas, balki o'quvchilariga ishlash uchun sharoit va erkinlik yaratishga erishgan, ularni mustaqil fikrlashga o'rgatgan o'qituvchigina chin ma'nodagi pedagog va tarbiyachidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingan kunning 25 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasidan.-T.: 2017-yil
2. I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" -Ma'naviyat:2008-yil
3. R.Ishmuhammedov, M.Yuldashev "Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar"-T.:2017-yil
4. Q.Usmonov, M.Sodiqov, S.Burxonova "O'zbekiston tarixi"-T.:2006-yil

BOSHLANG'ICH SINIF RAHBARINING O'QUVCHILARNI TARBIYALASHDA TA'LIMIY – TARBIYAVIY JIHATDAN YONDASHUVI

*D.B.Abduraxmonova, M.T.Toshbekova, M.M.Tadjibayeva,
Guliston shahar 16-umumta'lim maktab boshlang'ich sinf o'qituvchilari,
toshbekovamugadas66@gmail.com*

Annotatsiya: O'qituvchi har bir bola bilan shug'ullanishga vaqt topishga harakat qilishi kerak. Biron bola nazardan chetda qolmasligi va ularning barchasini darsga jalb etishda o'z

mahoratini ishga solishi darkor. Bunda o'qituvchi, albatta, o'quvchining ota-onasi yoki tarbiyasi uchun mas'ul bo'lgan shaxslar bilan hamkorlikni yaxshi yo'lga qo'yishi kerak.

Kalit so'zlar: *boshlang'ich, odob, o'qituvchi, o'quvchi, tarbiya, erkin, ijodkor, mustaqil fikr, ta'lim, axloq.*

Abstract: *The teacher should try to find time to deal with each child. It is important that no child is left out and use his skills to involve all of them in the lesson. In this case, the teacher must establish a good cooperation with the parents or persons responsible for the education of the student.*

Key words: *primary, manners, teacher, student, education, free, creative, independent thought, education, morality.*

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini tarbiyalash va ularga ta'lim berish bu qiyin jarayon hisoblanadi. Sinf rahbari bilimli, tarbiyali, malakali, o'z kasbini sevadigan, tashkilotchi bo'lmasa, o'quvchilarni sal e'tiborsiz qo'ysa, ta'lim va tarbiyadan ko'zlangan maqsadga erishib bo'lmaydi. A.Novoiyning fikricha, ba'zan bir kishi bitta bolaga tarbiya berishga ojizlik qiladi. Endi sinf rahbarini oladigan bo'lsak, u bir emas bir qancha o'quvchilarga ta'lim va tarbiya beradi. Bu asnoda o'qituvchidan yuksak salohiyat talab etiladi.

“O'quvchilarning axloqiy xislatlari, uning yutuqlar va kamchiliklari shakllanishida, eng avvalo uning ta'lim va tarbiya olish jarayonida ijtimoiy uy sharoiti, tevarak-atrofi ham ahamiyat kasb etadi. O'quvchilarni o'rgatish dasturi ularni faqat maktabdagina emas, balki shu bilan birga uy sharoitda, oilada ham o'rganishni nazarda tutmog'i darkor” O'qituvchi juda yaxshi dars o'tishi, o'quvchilarni jalb eta olishi mumkin. Ammo oilada ham bola bilan shug'ullanadigan shaxs bo'lmasa, bolaning risoladagidek darslarni va tarbiyani o'zlashtira olmaydi. Biz ta'limni tarbiyadan ajrata olmaymiz. Chunki komil insonni tarbiyalashda birini ustun, birini past qo'yib bo'lmaydi. L.N. Tolstoy shunday yozadi: “Tarbiya, biz o'qitish, tarbiyalashni xohlamas ekanmiz, murakab va qiyinchiligicha qoladi. Agarda boshqalarni biz faqat o'zimiz orqali tarbiyalashimiz mumkinligini tushunib olsak, unda tarbiya masalasi yo'qoladi va hayot to'g'risidagi masala qoladi: O'zim qanday yashashim kerak!”

Tarbiya qiyin masala. Uni yillar mobaynida shakllantirib boriladi. Boshlang'ich sinf rahbari esa asosiy tarbiyani bola shaxsida shakllantiradi. Ayniqsa, o'qituvchining o'zi katta tarbiya maktabini o'taydi. Bola ustozining yurishi, turishi, muomala madaniyatiga qarab ko'p narsalarni o'rganadi. Chunki bola o'qituvchisini dunyodagi eng yaxshi va buyuk inson deb biladi. Agar o'qituvchi tarbiyali va bilimli bo'lmasa, uning bergan tarbiyasi mavhum bo'lib qoladi. O'qituvchi asosan ota-onalar bilan hamkorlikda aloqani muntazam o'rnatib borish kerak. Buning uchun biz bir nechta talablarni o'z oldimizga qo'yamiz:

✓ ota-onalar bilan har oyda bir martadan majlis o'tazish. Bunda ota-onalar bolalarining o'zlashtirishi va xulq-atvori haqida ma'lumotlarga ega bo'ladi;

✓ o'qituvchi har bir bolaning alohida tashkil etilgan kundaligini joriy etish kerak.

Bunda o'qituvchi har kunlik o'quvchining bilimi va hulq-atvori haqidagi o'zgarishlarni yozib boradi. Buni har kunlik ota-ona tasdiqlab imzo qo'yib boradi. Bunda ota-onaning yaqindan hamkorligini yo'lga qo'yamiz.

Asosan ikki shartni qo'yishimizdan maqsad bola nazoratini kuchaytirish hisoblanadi. O'qituvchi ta'lim va tarbiyaviy yondashuvda o'zi alohida yuqori natijaga erisha olmaydi. Albatta, bolaning maktabda, uyda nazoratini kuchaytirish uning kamoloti sari borishda porloq yo'l hisoblanadi. Shu o'rinda shuni ta'kidlab o'tish joizdir: “Bolalar, ota-onalar va o'qituvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar masalasiga alohida e'tibor berish lozim. Bu uchlik markazida bola, ya'ni o'quvchi turadi, maktab va oila esa unga ikki tomondan ta'sir etadi. Ayni vaqtda bola maktab bilan oilasidagi aloqani taminlovchi vosita rolini ham bajaradi”.

Bola maktabdagi ma'lumotni ota-onasiga boshqacha qilib yetkazishi mumkin. Shuning uchun ota-ona va o'qituvchi orasida anglashilmovchilik kelib chiqmaslik uchun o'zaro kundalik daftar tutish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Agarda ikki tomonning hamkorligi yaxshi yo'lga qo'yilsa, bola ta'lim va tarbiya o'rganish jarayonida qiynalmaydi. Bu jarayonda o'qituvchidan yuksak salohiyat va tirishqoqlik talab etiladi. "Tarbiya jarayonini tashkil etishda o'qituvchi tomonidan qo'llaniladigan metodlar ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular ijtimoiy jamiyat tomonidan ta'lim muassasalari oldiga qo'yilgan yosh avlodni har tomonlama barkamol, erkin, ijodkor, mustaqil fikr egasi etib tarbiyalash vazifalari bilan belgilanadi". Sinf rahbari tarbiya metodlarini ham yaxshi bilishi va tatbiq etish kerak. Metodlar yordamida o'qituvchining ishi anchayin yengil va unumli bo'ladi. O'quvchilarda zerikish sezilmaydi. Tarbiyani ta'limdan ajratib bo'lmaydi. Shuning uchun ikkisini bir jarayonda tashkil etish talab etiladi. Bunda sinf rahbari o'ziga xos yondashuvda ishga kirishmog'i darkor.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. R. Mavlonova, N. Rahmonqulova, B. Normurodov "Tarbiyaviy ishlar metodikasi" darslik. "Tib-kitob" nashryoti. Toshkent-2010. a
2. Tolstoy L. N. Asarlar to'plami, 22 jildlik, 1984-yil.; 19-j.
3. J. Hasanboev, X. A. To'raqulov, I. SH. Alqarov, N. O'. Usmanov Pedagogika". "Noshir" Toshkent 2011-yil.

MASOFAVIY TA'LIMDA BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING NUTQIY SAVODXONLIGINI O'STIRISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

*Sh.M.Mingboyeva, X.X.Esonova, S.X.Ismoilova,
Guliston shahar 16-umumta'lim maktab boshlang'ich sinf o'qituvchilari,
ismoilovasaboxat88@gmail.com*

Annotatsiya: *bugungi zamon talabi o'z fikrini ravon va lo'nda, go'zal va ifodali bayon qiluvchi nutqiy savodxonligi yuqori bo'lgan o'quvchini shakllantirishdan iboratdir. O'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatining rivojlanishi berilayotgan ta'lim sifatining samaradorligining yuqori bo'lishini ta'minlaydi, binobarin, erkin fikrlash barkamol shaxs sifatining bir ko'rinishi hisoblanadi.*

Kalit so'zlar: *boshlang'ich, odob, o'qituvchi, o'quvchi, tarbiya, erkin, ijodkor, mustaqil fikr, ta'lim, axloq.*

Boshlang'ich sinf o'quvchilarning nutqi ravon hamda tiniq fikrga ega bo'lishlarida ona tili fanining o'rni beqiyos. Endilikda bu masalaning yechimi sifatida darslarda o'quvchining passiv tinglovchi bo'lib qolmay bevosita dars jarayonida faol ishtiroki ta'minlanishi, o'qituvchi esa ma'ruzachi emas, dars jarayoni va o'quvchilar faoliyatini boshqaruvchi shaxs sifatida namoyon bo'lishiga alohida e'tibor qaratilmog'i kerak.

O'quvchilar nutqining ravonligini ta'minlashda ona tili darslarida grammatika uchun emas, grammatika amaliyot uchun tamoyiliga asoslanyapti. Dars jarayonlarini olib borishda har bir pedagog o'quvchilar faolligini ta'minlashda va ularning nutqini erkin bayon qila olishlari uchun turli grammatik o'yinlar, muhokamali topshiriqlar, testlar, rasmlar, topshiriqlar, rebuslar va shu kabilardan samarali foydalanmog'i lozim. O'quvchilarni yanada darsga qiziqishini oshirish, ularning nutq boyligini o'stirishda imkon darajasida videodarslar, audiodars hamda kompyuter texnikasidan foydalanish

maqsadga muvofiq. Yangi pedagogik texnologiya bo'yicha o'qituvchi ta'limni tashkil etadi, nazorat

qiladi. Bu borada buyuk ma'rifatparvar Abdulla Avloniyning quyidagi so'zlari fikrimizning dalili bo'la oladi: "Fikr tarbiyasi eng kerakli, ko'p zamonlardan beri taqdir qilinub kelgan, muallimlarning diqqatlariga suyalgan muqaddas bir vazifadur".

Bizning ta'lim tizimimizda ham yetakchilik qilayotgan chet el didaktikasining interfaol metodlari - Aqliy hujum, Munozara, Debat, O'z o'rningni top, Kichik guruhlarda ishlash, Tanqidiy fikrlash kabilarda bilish bilan birgalikda mustaqil o'z fikrini bayon qila olish ko'nikmalariga ahamiyat beriladi.

Bugungi kunda zamonaviy ta'lim jarayonida texnika taraqqiyoti mahsuli bo'lgan zamonaviy axborot texnologiyalari va uning moddiy asosi -kompyuter xizmatidan foydalanish elektron darslik va qo'llanmalardan, internet materiallaridan hamda masofadan o'qitishning dasturiy vositalaridan foydalanish davr taqozosi bo'lib qolmoqda.

Masofaviy o'qitish – davr ehtiyojidir. Chunki ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar, o'qitish ishlarini jahon andozalariga moslashtirishni va eng samarali usullarga asoslanishini taqozo etmoqda. Masofaviy o'qitishda asosiy e'tiborni o'quv-uslubiy materiallarni tayyorlashga qaratiladi. Chunki o'quv-uslubiy materiallarning sifati masofadan o'qitish sifatining eng asosiy omillaridan biridir. Masofaviy ta'limda o'qituvchi topshiriqlar beradi, o'quvchi ko'rsatilgan manbalar bilan ishlab, topshiriqlarni bajaradi va o'qituvchiga yuboradi. O'qituvchi uni tekshiradi, zarur hollarda ko'rsatmalar beradi.

Zamonaviy-onlayn ko'rinishidagi masofaviy ta'lim tizimida o'qituvchilarning o'quvchilarga beriladigan topshiriqlari internetdan foydalanish orqali amalga oshiriladi. Bu tizim orqali ta'lim olayotgan o'quvchilarda zamonaviy va sifatli ta'lim berish ko'zlangan. Bu tizimni rivojlantirishning asosiy yo'llaridan biri, eng yangi dasturiy-texnik vositalarni ta'lim jarayoniga jalb qilishdir. Bunday tizimlar o'z tarkibiga kerakli iqtisodiy-nazariy materiallarni, uy vazifalarini, testlarni va yakuniy imtihonlarni qamrab oladi.

Maktab ona tili ta'limining bosh maqsadlaridan biri o'quvchilarda mustaqil va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirib borishdir. Shuningdek, ona tili ta'limi jarayonida og'zaki va yozma nutqni rivojlantirish eng muhim omillardan. U izchillikni, tizimlilikni talab etadi. Ayni paytda ta'lim jarayonida pedagogik texnologiya unsurlari keng joriy etilib, o'zining muayyan samarasini berayotgan ekan, nutq o'stirishda va savodxonlikni tarkib toptirishda qo'llash mumkin bo'lgan ayrim pedagogik texnologiyalar haqida to'xtalib o'tamiz.

"So'zsiz suratni izohlash" metodi. O'quvchilarga faqatgina rasmlargina mavjud bo'lgan izohlarsiz suratlar jo'natiladi. Ular har bir rasmlarni kuzatib, gap tuzadilar va yozadilar. Tuzgan matnlarida xalq maqollari, hikmatli so'zlar va she'riy parchalardan foydalanishlari mumkinligi ta'kidlanadi. Bu orqali ularning tasavvurlari kengayadi, ijodiy fikrlash qobiliyati rivojlanadi. Ona tili va o'qish fanlaridan olgan nazariy bilimlarini amaliyotda mustaqil va samarali foydalana olish ko'nikmalari hosil bo'ladi.

"Yosh dasturchi" metodi. Bu usulda uyga berilgan topshiriqlar bo'yicha o'quvchilar o'zlari mustaqil holda slayd yoki videolavha tayyorlashi kerak bo'ladi. Bu metodni qo'llashdan maqsad, o'tilgan mavzularni puxta o'zlashtirishga erishish, o'quvchilarning mustaqil ijodkorlik qobiliyatini namoyon qilish, bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish, kompyuter va internetdan maqsadli foydalanishga o'rgatish va mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishdan iborat. Masalan, "Assalom, Navro'z" mavzusida o'quvchi tayyorlagan slaydlardan lavhalari aks ettiriladi. Barcha o'quvchilar tayyorlagan slaydlarini ijtimoiy tarmoq orqali telegram guruhlariga jo'natadilar. O'qituvchi tayyorlangan slaydlarni mavzuga mos holda tayyorlangani, undagi so'zlarning imlosi va mazmuni, matnning badiiy jihatdan yoritilganiga alohida e'tibor qaratishi lozim bo'ladi. Bu slaydlardan foydalangan holda o'quvchilarga insho yozishni vazifa qilib berish mumkin.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'rganilgan bilimlar yuzasidan nazorat qilish, olingan bilimlar o'quvchilar yodida uzoq saqlab qolish maqsadida test usullaridan keng foydalaniladi. Test sinovidan, asosan, mustahkamlash darslarida foydalaniladi. Masofaviy ta'limda ham mavzuga mos testlardan foydalanib, o'quvchilar bilimini doimiy nazorat qilib borish mumkin va bu usul bugungi kundagi eng keng qo'llaniladigan usullardan biri hisoblanadi. Bundan tashqari ovozli xabarlar orqali o'qituvchi o'quvchilari bilan muntazam aloqada bo'lishi, kunlik onlayn darslarning samaradorligida alohida o'rin tutadi. O'qituvchi o'z fikrlarini sinfda qanday bayon etsa, masofadan turib ham o'quvchilarga sinf muhitini yaratishi kerak bo'ladi. Albatta, bunda o'qituvchi mahorati, yangi –yangi g'oyalar o'ylab topishi, boshlang'ich ta'limda muhim o'rin tutadi.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar masofaviy ta'limda ham ustozining darslarini kutishi, ishtiyoq bilan topshiriqlarni bajarishi ko'p jihatdan o'qituvchi ijodkorligiga bog'liq ekanligi qisqa muddatli onlayn darslarda o'z isbotini topdi. Abu Rayhon Beruniy o'z asarlarida ta'kidlashicha, ilm izchil, ko'rgazmali, maqsadga qaratilgan bo'lishi lozim va muayyan tizim bo'yicha olib borilishi kerak. Uning fikricha, ko'rgazmalilik ta'limni ancha qulay, aniq va qiziqarli qiladi. Kuzatuvchanlik va fikrlashni rivojlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Al-Beruniy. Javohirat.- T.: Meros, 1991.- 78 b.
2. Abdullayeva Sh.A. Pedagogika darslik.-T.: Fan va texnologiyalar, 2016.-378 b.
3. Farberman B. Ilg'or pedagogik texnologiyalar.- T.: Fan, 2000.- 129 b.

ONA TILI VA ADABIYOT FANINI O'QITISHDA FANLAR INTEGRATSIYANING O'RNI HAMDA O'QUVCHILARNI XALQARO BAHOLASH DASTURIGA TAYYORLASH

*Begmuratova Moxidil Sabirjanovna,
Guliston shahar 16-umumta'lim maktabi onatili va adabiyot fani o'qituvchisi,
begmuratovamoxidil111@gmail.com*

Annotatsiya: Bugungi kun o'qituvchisi o'quvchiga har tomonlama mukammal ta'lim-tarbiya berish uchun universal (qomusiy) bilimga ega bo'lmog'i kerak. Bu esa "fanlararo integratsiya" tushunchasining nechog'li muhim atama ekanligini ko'rsatib bermoqda.

Kalit so'zlar: adabiyot, integratsiya, mezon, ko'nikma, "Biriktiruv bog'lovchilari", malaka.

Abstract: Today's teacher should have universal (encyclopedic) knowledge in order to provide the student with excellent education in all aspects. This shows how important the concept of "interdisciplinary integration" is.

Key words: literature, integration, criterion, skill, "Connecting connectors", qualification.

Mamlakatimiz yangi innovatsiyalar, raqamli iqtisodiyot taraqqiyoti yo'lida shiddat bilan rivojlanib borayotgan ushbu davrda O'zbekiston kelajagi bo'lgan yoshlarning intellektual salohiyati va fikrlash qobiliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarini davlat ta'lim standari asosida shakllantirish hamda xalqaro mezon va talablar asosida baholash tizimini takomillashtirish muhim ahamiyatga egadir.

Xalqaro baholash dasturlari deganda PISA, PIRLS, TIMSS kabi dasturlar tushuniladi. PISA – o'quvchilar savodxonligini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqot dasturi hisoblanishi barchamizga ma'lum. Dasturning asosiy maqsadi 15 yoshli o'quvchilarning 3 yo'nalishdagi: o'qish, matematik va tabiiy savodxonligini aniqlashdan iborat. Topshiriq qaysi fanga oid bo'lmasin, avvalo, uning zahirida o'qish yo'nalishiga alohida urg'u beriladi. O'qish –matnni tushunish demakdir. Shuning uchun ham

biz-ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari zimmamizdagi bu mas'uliyatni to'liq anglashimiz kerak.

Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tajribalarni o'rganish va joriy etish jarayonida ta'lim tizimimizda bir qancha bo'shliqlarga duch kelinyapti. O'quvchilarning olgan nazariy bilimlarini hayotga qo'llay olish darajasi yaxshi emas. Xalqaro baholash dasturlari shu kabi kamchiliklarni bartaraf etgan holda dunyo bozorida raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga asos bo'ladi.

O'zbekiston endilikda qator xalqaro baholash dasturlariga a'zo bo'lib, yoshlarining intellektual va kompetentlik darajasini bilishga, kerak bo'lsa, o'quvchining mantiqiy fikrlashi va layoqatligini oshirishni ko'zlamoda. O'quvchilar bilimini xalqaro baholash dasturlari sinovlarida yaxshi natijalarni qo'lga kiritish uchun har bir darsda fanlararo integratsiyani qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi.

Xo'sh, ona tili va adabiyot fanida fanlararo integratsiyani qanday qo'llash mumkin? Ona tili darsida o'quvchilarni mantiqiy fikrlashga o'rgatish, matn bilan ishlash ko'nikmasini rivojlantirish va sinchkovlik talab etiladigan topshiriqlarni qo'llash o'quvchining hayotiy va intellektual ko'nikmalarini oshirishga xizmat qiladi. Masalan, 7-sinf ona tili dasturida berilgan "Biriktiruv bog'lovchilari" mavzusini o'tishda o'qituvchi mavzuni mustahkamlash maqsadida darslikdan tashqari quyidagi matn asosida PISA topshiriqlari tuzishi mumkin: "Aljabr" matni asosida mantiqiy topshiriqlar: Riyoziyot olimi al-Xorazmiydan inson haqida so'rashdi. Olim shunday dedi: -Agar inson yaxshi xulq sohibi bo'lsa, u 1 ga teng. -Agar inson husn sohibi bo'lsa, birning yoniga nolni qo'shamiz, 10 bo'ladi. -Agar inson boy bo'lsa, yana bir nolni qo'shamiz-100 bo'ladi. -Agar nasl-nasabli bo'lsa, yana bir nolni qo'shamiz-1000 bo'ladi. -Agar 1

raqami yo'q bo'lib ketsa, insonning qiymati yo'qqa chiqib, nollarning o'zi qoladi.

1-topshiriq:Javobi tanlanadigan test

Al- Xorazmiy insonning qanday fazilatini 1 ga tenglashtiradi?

- A.Uning nasl-nasabini
- B.Yaxshi xulqini
- S.Husn sohibi ekanligini
- D. Boyligini

2-topshiriq: Bir necha javobli test (javobi: ha yoki yo'q)

1. *Al-Xorazmiy insonni yaxshi xulqli, chiroyli va boy bo'lishini uch xonali songa tenglashtiradi.*
2. *Agar yaxshi xulq yo'q bo'lib ketsa, 3 xonali son 2 xonali songa almashadi.*
3. *Xorazmiy ushbu ajoyib tenglamada insonning qiymati, avvalo, yaxshi xulqi bilan o'lchanishini ta'kidlayapti.*

3-topshiriq: Lingvistik topshiriq:

Matn mazmunidan kelib chiqib, bir o'rinda va bog'lovchisini, yana bir o'rinda ham bog'lovchisini qo'llang. Qo'llangan bog'lovchilar matn mazmuniga ta'sir ko'rsatmasin. Javob: Agar inson yaxshi xulq sohibi va chiroyli bo'lsa, uning qiymati 10 ga teng.

Agar inson ham yaxshi xulq sohibi bo'lsa, ham chiroyli bo'lsa, uning qiymati 10 ga teng. Ona tili darslarida bunday keng qamrovli topshiriqlarni qo'llash matematikadan o'rgangan nazariy bilimlarini hayotiy ko'nikmalar asosida idrok etish imkoniyatini beradi. Ona tili ta'limida shu vaqtga qadar matn bilan ishlashga juda kam e'tibor qaratilgan. Aksincha, qoidalar- til nazariyasiga e'tibor juda yuqori edi. Shuning hisobidan o'quvchilarda matn mazmuni bilan ishlash, matnda keltirilgan har bir so'zning ma'nosi yuklatilgan vazifani anglash, tinglab tushunish kabi ko'nikmalarni shakllantirish mantiqiy topshiriqlar yechimida asosiy omildir.

Adabiyot darslarida ham matn mazmunini tinglab tushunish kompetensiyasini o'stirish o'quvchilarni xalqaro baholash dasturiga tayyorlashda muhim omildir.Yangi avlod darsliklarida bu talablarga asosiy urg'u berilayotgani hech kimga sir emas. 9-sinf adabiyot darsligida Xojaning

“Kechadur” g‘azali keltirilgan. G‘azalni o‘rganish jarayonida quyidagi mantiqiy savollar bilan ishlash o‘quvchilarni xalqaro baholash dasturlariga tayyorlashda dastlabki qadamdir:

Kunduz avqotim sening hajringda nolon kechadur,

Kecha ham zulfing kabi holim parishon kechadur.

Anbarin zulfing xayolidin ko‘zumga, ey pari ,

Yil-u oy-u soat-u kun bori yakson kechadur.

1-topshiriq: Xojaning “Kechadur” g‘azalidagi 1-baytdagi “kechadur” so‘zlariga berilgan to‘g‘ri izohni toping.

1.1-misradagi “Kechadur” so‘zi kunduz so‘ziga qarama-qarshi qo‘yilgan .

2.1 va 2-misradagi “kechadur” so‘zining ikkitadan ma‘nosi mavjud. Ha-Yo‘q

2-topshiriq: Geografik bilimlaringiz asosida oy, yil, soat, kun so‘zlarini xronologik tartibda yozing va ushbu atamalarga ta‘rif bering.

Xulosa qilib aytganda, ona tili va adabiyot darslarida aniq fanlar, tabiiy fanlar bilan fanlararo integratsiyani qo‘llash o‘quvchilarni xalqaro baholash dasturlariga tayyorlashning muhim omili hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.Ta‘lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi. O‘quvchilarning savodxonligini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqot dasturi haqida qo‘llanma.- T.:2019.-6-bet.

2.N.Mahmudov, A.Nurmonov, A. Sobirov . Ona tili.Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik.

КОММУНИКАТИВНЫЕ МЕТОДЫ УСВОЕНИЯ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА

Мамасалиев Фарход Маруфович,

Самаркандская область, Иштиханский район, учитель средней 42-й школы по русской литературе

mamasaliyevfarxod42@mail.ru

Аннотация: Данные работы посвящены одному из способов решения проблем, с которыми сталкиваются почти все учителя школы – это отсутствие у учащихся мотивации. Некоторые учителя решают эту проблему, делая свои уроки живыми и интересными, выбирая стимулирующие виды учебной деятельности интересные материалы.

Цель самооценки - научить учащихся оценивать свои общие успехи, достижения на определённом этапе, насколько успешно они выполняют свои индивидуальные учебные задачи и специальные учебные цели. Это коммуникативное владение языком. Это лингвистическая компетентность – слова, которые он знает, которые он использует. Звуки, которые он может произнести. Учащимся это может показаться более трудным, чем оценка коммуникативных умений. Но если они не разовьют в себе способность самооценки этого вида, то как они смогут контролировать, исправлять и улучшать свою речь? В этом случае хороша работа на исправление ошибок друг у друга в разных видах заданий и в своих собственных работах.

С применением нового метода самоконтроля на уроках русского языка и литературы были проведены открытые уроки в 5, 6, 7 классах на тему: «Профессия, ряд занятий, должность», «Возраст лиц», «Выражение звукоподражания» и учебно-методическое пособие Валентин Катаев «Сын полка». Данные разработки подготовлены на основе рекомендаций

«Дарс мукаддас». Соблюдены все требования к составлению поурочного плана. Открытые уроки были обобщены на районном семинаре по русскому языку, организованный и проведённый в целях распространения передового опыта учителя.

Разработка урока 5 класса на тему: «Профессия, род занятий, должность» была рекомендована для обобщения в областном масштабе. Данное обобщение передового опыта «Применение методов самоконтроля на уроках русского языка» утверждено на заседании кафедры обучения языку и литературе от 26 июня 2015 года (Протокол № 6) и на учебно-методическом совете НамОИППКПК от 27 сентября 2015 года (Протокол № 3).

Учебно-методические пособия по литературному чтению для 7 класса по повести Валентина Катаева «Сын полка» и по рассказу Антона Павловича Чехова «Хамелеон» для 8 класса утверждены на заседании Наманганского областного управления народного образования от 19 декабря 2016 года за № 12/2 и 28 ноября 2019 года за № 8.

Этого бывает недостаточно, должна быть создана определённая система совместной деятельности ученика и учителя, которая разделяет ответственность за процесс обучения между ними. Вот как раз в том и помогает развитие самооценки.

Понятие самооценки шире, чем понятие самоконтроля и самопроверки. Традиционные методы контроля не всегда помогают учителю оценивать знания ученика. При использовании методов самоконтроля меняется, в первую очередь, отношение ученика к учёбе, появляется ответственность, а значит, растёт и интерес к изучению языка и главным стимулом для учащихся является более свободное мышление на русском языке. Каждый из вас очень любит на каждом уроке получать хорошие оценки. Мы с вами будем работать над своими оценками. А для этого я предлагаю вам следующую таблицу, в которой изображены ваши получаемые оценки. Во время мониторинга проверки усвоения ваших знаний при тестах применяется 20 вопросов.

Если вы правильно ответили на каждый вопрос – ставите одну палочку, где стоит цифра 5, если вы допустили одну ошибку – ставите одну палочку, где стоит цифра 4, если вы допустили две, три, четыре ошибки, ставите одну палочку, где стоит цифра 3. В конце урока вы считаете свои палочки, кто сколько набрал, и в графе «итог» выводит свою цифру. Например, вы набрали 25 палочек, значит вы очень хорошо подготовились к уроку, то есть вы хорошо поняли тему и, активно участвуя на уроке, набрали не 18, 19, 20, а больше чем необходимо правильных ответов, получая оценку 5, вы входите в список самых активных учеников.

При таком методе «Самооценки» вы уже сами начинаете готовиться к каждому уроку, выполняете домашнее задание, меняете каллиграфию, ответы становятся точными, речь развитой, появляется интерес к изучению русского языка.

С этого момента вы будете за каждое свое участие на уроке проставлять свои палочки в нужные клеточки. При устных ответах, при выполнении заданий на доске или в тетрадях будете сами себя оценивать, а также ваши одноклассники тоже будут вас оценивать и наблюдать правильность поставленных ваших оценок. Если вы правильно поняли, то начинаем новый метод «Самооценку».

Даётся общее обозрение по выполнению карточек «Самооценка». На уроке участвовали 29 учеников. Каждый из них принимал активное участие во время урока. Но при этом ученики набрали разные баллы. Девять учеников набрали до 17 баллов, получают 4, тринадцать учеников набрали 18, 19, 20 баллов и получают оценку 5, семь учеников набрали более 20 до 25 баллов, тоже получают оценку 5 и входят в список активных учеников. Как видите «Самооценка» даёт свои плоды, вы сами начинаете активно

изучать русский язык, начинаете глубже понимать значение каждого русского слова. За ваше активное участие на уроке награждаю вас блокнотиками, в которых будете вести «Самооценку» и записывать ваши баллы, следить за свое участие на уроках: сколько раз вы ответили без ошибок, когда допустили одну ошибку, а когда допускаете много ошибок и получаете только оценку 3. Значит, вы должны лучше готовиться к уроку.

Использованная литература:

1. Кельдиев Т. Т. Литература. ИПТД “Ўқитувчи”, 2010.
2. З.Р. Джураева. Русский язык. ИПАК “SHARQ”, 2010.
3. Учебники Русский язык для 2,3,4,5,6,7,8,9,10,11 классов.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI MATEMATIK SAVODXONLIGINI OSHIRISH YO'LLARI

*F.S.Abdushukurova, F.M.Mamasaliyeva, Sh.J.Raxmonova,
Guliston shahar 16-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi, Samarqand viloyati Ishtixon tumani 42-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi, Samarqand viloyati Ishtixon tumani 41-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi.*

Annotatsiya: *Konsepsiyani qayta ko'rib chiqish zamonaviy o'qish savodxonligi nazariyasiga asoslanadi, hamda zamonaviy hayotda o'qish sharoitini hisobga olib, o'quvchilar keng mazmundagi ma'lumotlarni qabul qilishadi va ulardan keng foydalanishadi.*

Kalit so'zlar: *boshlang'ich, nazariya, konsepsiya, TALIS, ta'lim, tarbiya, individual, metod.*

Abstract: *The revision of the concept is based on the theory of modern reading literacy, and considering the conditions of reading in modern life, students receive and use a wide range of information.*

Key words: *elementary, theory, concept, TALIS, education, upbringing, individual, method.*

Biz shiddat bilan o'zgarayotgan, son jihatidan va turli xil yozma materiallar borgan sari ko'payib borayotgani hamda ko'plab insonlar ushbu materiallarni mutlaqo yangi va murakkab usullar bilan qo'llayotgan dunyoda yashayapmiz. Hozirda jamoatchilik tomonidan o'qish savodxonligining rivojlanayotganligi jamiyat va madaniyat sohasidagi o'zgarishlar bilan hamohang ekanligi anglab tan olinmoqda. O'qish malakasi, individual rivojlanish, ta'lim faoliyatidagi yutuqlar, jamoatchilikdagi faollik uchun zarur. Chunki ushbu faoliyatlar 20 yil avval zamonaviy qarashlardan farq qilar edi. Albatta, bu 20 yildan so'ng yanada ko'proq o'zgarishi mumkin.

2018-yilda 46 mamlakat TALIS tadqiqoti ishtirokchisiga aylandi. Shuni ta'kidlash lozimki, TALIS yagona so'rovlar hamjamiyati bo'lib, ta'lim dargohidagi o'quv muhiti va o'qituvchilarning ish joylaridagi shart-sharoitlarni o'rganishga e'tibor qaratadi. Mazkur xalqaro tadqiqotning maqsadi turli xil ta'lim tizimidan iborat bo'lgan davlatlarni boshlang'ich maktab o'quvchilarining matnni o'qish va qabul qilish bo'yicha tayyorgarligi hamda o'quvchilarning har xil yutuqlarga erishishga sabab bo'luvchi ta'lim tizimidagi o'ziga xos xususiyatlarni aniqlash va baholashdan iborat. Albatta bunday tadqiqot xalq ta'limi sohasidagi ishchilar, olimlar, metodistlar, o'qituvchilar, ota-onalar va jamoat vakillari uchun katta ahamiyatga egadir.

Xalqaro ekspertlar ta'kidlashicha, boshlang'ich maktabda maktab o'quvchilarining keyingi tarbiyasida muvaffaqiyat qozonish uchun poydevor qo'yilgan. Shunday ekan bizning oldimizdagi bosh maqsadimiz o'quvchilarimizning xalqaro baholash dasturi asosida o'qitishimiz kerakligini har bir pedagog tushunib anglab yetishi lozimligini ko'rsatadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'z ko'nikma va malakalarini nazorat

qilish va ob'yektiv tarzda baholay olishga oid mas'uliyat ham shallangan bo'lishi kerak. O'quvchining o'zi berilgan o'quv materialni modellastira olish ko'nikmasiga ega bo'lishi zarur. Bu jarayonda o'quvchining o'zi mustaqil tarzda har qanday sxema model bo'la olmasligini tushunib yetishi kerak, bir so'z bilan aytganda unda faraz qila olish ko'nikmasi hosil bo'lishi kerak. Kichik maktab yoshida o'qishga, o'rganishga yo'naltirilgan faoliyat yetakchi mavqega ega bo'ladi. Shu bilan bir qatorda kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning rivojlanishida o'yin, sport, ijodiy faoliyat ham muhim o'rin tutadi. Lekin o'qish o'rganish, yani ta'limiy faoliyat, boshqa barcha faoliyat turlarini muayyan bir maqsadga-bolani mujassam rivojlantirish maqsadiga yo'naltirishi lozim. Jumladan, nutq va savodxonlikni rivojlantirishga, jismoniy taraqqiyotni taminlashga va boshqalar.

Ayni shu rivojlantiruvchi ta'lim jarayoni o'quvchining ongini, tafakkurini rivojlantirishga hamda uning shaxsiy taraqqiyotiga keng imkoniyat yaratadi. Matematikani o'qitish sistemasida masalalar yechish samarali mashq qilish turlaridan biridir. Masalalar yechish avvalo bolalarda mukammal matematik tushunchalarni shakllantirishi, ularning o'quv dasturida belgilab berilgan nazariy bilimlarni o'zlashtirishlarida muhim ahamiyatga ega.

Masalan : O'quvchida 14 ta rangli va 2 ta oddiy qalam bor. O'quvchida hammasi bo'lib nechta oddiy qalam bor?

Yechish :

14 ta rangli qalam 2 ta oddiy qalam $14 + 2 = 14$ ta

Jami qalam nechta? Javob: 14 ta

Bu masala orqali o'quvchilarda ayirish haqida tushunchani shakllantirish, mustahkamlash va yig'indini topishga doir bilimlar hosil bo'ladi. Masalalar yechish orqali o'quvchilarda yangi bilim vujudga keladi va mavjud bilimlar tatbiq qilinadi, shu orqali mustahkamlanadi. Masalan, bilimlarning shakllanishida nazariyani amaliyot bilan o'qitishni turmush bilan bog'liq olib borish imkonini beradi. Masala yechish orqali xarid qilingan narsaning narxini, kvartira ta'mirlashning bahosi, poyezdga kechikmaslik uchun uydan qachon chiqish kerak, degan turli xildagi amaliy hisoblashlarni hal qilib beradi.

O'quvchilar masalalarni yechayotganda turli xil matematik tushunchalar – son, arifmetik amal, qo'shiluvchi, yig'indi, qoldiq kabilar bilan tanishadilar, shuningdek atrof muhitdagi, fandagi, texnikadagi turli xil bog'liqli muammolar bilan tanishadilar va uni yechadilar.

Ustaxonada ko'ylaklar va shuncha kostyum tikildi. Har bir ko'ylakka 3 metr, har bir kostyumga 4 metr material ketadi, agar ko'ylaklar uchun 24 metr material ketgan bo'lsa, kostyumlar uchun qancha material ketgan. Masala tahlilini quyidagicha izohlaymiz.

Masala tahlili masala savolidagi berilganlarga qarab boradi:

1. Masalada nimani bilish talab qilinadi? (kostyumga ketgan materialni)
2. Buni birdaniga bilib bo'ladimi? (yo'q)
3. Nega? (nechta kostyum tikilganini bilmaymiz)
4. Nechta kostyum tikilganini bilib bo'ladimi? (bo'ladi)
5. Qanday qilib? (nechta ko'ylak tikilgan bo'lsa shuncha kostyum tikilgan) Nechta ko'ylak tikilgan? (24 m materialning har 3 m dan bitta ko'ylak tikilgan bo'lsa, $24:3=8$ ta ko'ylak tikilgan).
6. Kostyum ham 8 ta bo'lsa, har bir kostyumga 4 m dan material ketsa jami necha m material ketgan. ($8*4=32$ m)
7. Masala savoliga javob berdikmi? (ha)

Bundan keyin o'quvchilar masalalar yechishda sonli berilganlarni tasvirlovchi rasmlardan foydalanadilar. Masala yechish malakalari rivojlangan sari o'quvchilar tushunadigan predmet va hodisalar orasidagi bog'lanishga doir masalalarni yecha boshlaydilar. Noma'lum qo'shiluvchi qatnashgan masalalarni yechishga muhokama qilishdan foydalanish kerak. Bunday masalalarni

qiynalmasdan yechishi uchun o'quvchilarning o'zlariga kuzatish asosida masalalarni mustaqil tuzdirish kerak. Agar bolalarning mustaqil ishlarini turli masalalarni yechish bo'yicha tashkil qilinsa, o'tilayotgan dars yanada samaraliroq bo'ladi. Buni darslikdan bir qancha o'xshash masalalarni tanlab olish orqali amalga oshirish mumkin. O'zbekistonning ilg'or o'qituvchilari ish tajribasida ushbu ish usuli qo'llanilmoqda: o'qituvchilarning o'zlari masalalarni tuzadilar va tanlaydilar hamda ularni alohida ko'rgazmalarga

yozadilar, darsda bolalarga turli masalalarni beradilar, bu vaqtda bir partada o'tirgan qo'shni o'quvchilar boshqa-boshqa masalalarni yechishadi. Bu o'quvchilarga individual yondoshishni ta'minlaydi va to'la mustaqillik uchun qulay sharoit va har bir o'quvchining o'z qobiliyati bo'yicha ishlashiga qulay imkon beradi. O'qituvchi bolalarning masalani to'g'ri yechishlarini kuzatib turadi, yo'l qo'ygan xatolarini tuzatishni aytadi, navbatdagi ish uchun har bir o'quvchiga, ularni yo'l qo'ygan xatolarini tuzatishga yordam beradigan topshiriqlarni tanlaydi. Bunday ishlar masala yechish malakasini oshiradi va mustahkamlaydi.

Matematika o'qitishni turmush bilan bog'lash, bolalarda umumlashtirish malakasini rivojlantirish, bir qator matematik tushunchalarni chuqur o'zlashtirish, miqdorlar orasidagi funksional aloqa va bog'lanishlarni yaxshi tushunish uchun o'quvchilarni o'zlari masala tuzishlari katta ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Xalqaro baholash dasturi haqidagi jurnallar
2. Jumayev M. va b.q. "Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi" T- 2005 y 312 b
3. Mardanova F.I. "Matematikadan test topshiriqlari" 4-sinf T-O'qit 2007-y

O'QUVCHILARIMIZ TARBIYASIDA O'ZBEKISTON TARIXI FANINING AHAMIYATI VA O'RGANISH MANBALAR

Berdiyarova Matluba Rabimkulovna

Sirdaryo viloyat, Guliston shahar 2-sonli matematika faniga ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktabi tarix fani o'qituvchisi

Jamiyat taraqqiyotida tarbiya jarayonining ahamiyati beqiyos. Bunda insonni tarbiyalash, uni bilim olishga, mehnat qilishga undash va bu xatti-harakatini sekin-asta ko'nikmaga aylantirib borish lozim. Bu esa insonning mushohada qilish qobiliyatini tarbiyalaydi, mushohada qilish aqlni peshlaydi, aql ongni saqlaydi, ong esa moddiy va ma'naviy manbaga aylanadi. Inson tarbiyasi uzoq muddatli, uzluksiz davom etadigan murakkab jarayon. U tarbiyachi (ota-ona, ustoz-murabbiy, pedagog)lardan doimo xushyorlik, sergaklik, mahorat, bilim talab qiladi. Shu tarzda insonning asta-sekin aqliy salohiyati takomillashib, u komillikka intilib boradi. Bularni amalga oshirish uchun esa tarbiyachi va tarbiyalanuvchidan uzoq davom etadigan mas'uliyatli munosabat, sharaflı mehnat, qunt, iroda va shu kabi axloqiy xislatlar talab etiladi. Insoniy sifatlarning shakllanishida oiladagi, atrofdagi (mahalla, ko'cha, bog'cha, maktab, oliy o'quv yurti), ijtimoiy muhit va tarbiyalanuvchiga bo'lgan munosabat muhim rol o'ynaydi.

Tarbiya inson umrining oxirigacha davom etadigan jarayon bo'lib (inson umrining oxirigacha o'rganadi, degan naql asosida tarbiyalanib), doimiy ravishda rivojlanib, takomillashib, komillikka intilib yashaydi.

Yosh avlodga o'z ona yurti tarixini o'rgatmasdan, tarixiy voqea va xodisalarni tahlil etmasdan, tarixiy bilim va tarbiya bermasdan uning ongida milliy o'zlik va vatanparvarlik tuyg'ularini

shakllantirish mumkin emas. Shunday ekan, mustaqil O'zbekiston ta'lim tizimida Vatan tarixini mufassal, asosiy fan sifatida o'qitish bugungi xayotimizning eng dolzarb vazifalaridan biri bo'lib qolishi – bu davr taqozosidir.

Tarix fani turli xalqlar qanday yashagani, ularning xayotida qanday voqealar sodir bo'lganligi, odamlar xayoti qanday va nima uchun o'zgarib xozirgiday bo'lib qolganligini o'rgansa, O'zbekiston tarixi esa shu Ona zaminimizda o'tmishda yashagan xalqlarning va ularning rivojlanishi jarayonida sodir bo'lgan o'zgarishlar, voqea-xodisalar, ularning turmush tarzi iqtisodi, madaniyati va shu kabilarni to'laligicha o'rganadigan fandır. Yurtboshimizning shu xaqdagi fikrlari katta ahamiyatga egadir. Xozir O'zbekiston deb ataluvchi xudud, ya'ni bizning Vatanimiz nafaqat Sharq, balki umumjahon tsivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo'lganligini butun jahon tan olmoqda. Bu qadimiy va tabarruk tuproqdan allomalar, fozilu-fuzalolar, olimu-ulamolar, siyosatchilar, sarkardalar yetishib chiqqan. Diniy va dunyoviy ilmlarning asoslari ana shu zaminda yaratilgan, sayqal topgan. Eramizgacha va undan keyin qurilgan murakkab suv inshootlar shu kungacha fayzini mahobatini osori-antiqalarimiz, qadim-qadimdan yurtimizda dehqonchilik, hunarmandchilik madaniyati, me'morchilik va shaxarsozlik san'ati buyuk bo'lganidan dalolat beradi.

Bizning ongimizdan tashqarida va bizning ongimizga bog'liq bo'lmagan holda mavjud bo'lgan borliq voqelik O'zbekiston tarixi fanini o'rganish ob'ektidir. O'zbekiston tarixi faqat turli bilimlar tarzidagi fan emas, balki bir necha asrlar davomida to'planib kelgan o'zaro ichki qonuniyatlar bilim chambarchas bog'langan bilimlar tizimi sifatidagi fandır.

Shuni ta'kidlash lozimki, hali O'zbekiston tarixi fani oldida muammolar juda ko'p. Aniqlik kiritilishi lozim bo'lgan masalalar ham to'laygina. Xususan Vatanimiz xududida eng qadimgi davrlardan boshlab yashayotgan aholi va ularning joylashuvi; bu aholining qushni qabilalar va elatlar bilan turli munosabatlari; qadimgi mahalliy aholining xozirgi o'zbek xalqi paydo bo'lishiga ta'siri, o'zbek xalqi paydo bo'lishiga ta'siri, o'zbek xalqi paydo bo'lishining xronologik doirasi shular jumlasidandır.

Undan tashqari, dastlabki o'zbek davlatchiligining paydo bo'lishi va rivojlanishi ham muhim masaladir. Mahalliy qadimgi aholining o'rtoqlashuvi va bu jarayon natijasidan dastlabki aholi manzilgohlarining (Turkiston, Qozog'iston, Qirg'iziston) bitiklarida bu qadimgi diyorning aholisi, ayniqsa, uning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotiga doir nodir va qimmatli faktik materiallar qayd qilingan.

Vatan tarixini yoritshida nazariy-metodologik asarlarni bilish katta ahamiyatga ega. Bular ilmiylik, xolislik, tarixiylik metodlaridir.

O'zbekiston tarixining yaxlit kontseptsiyasini yaratish, buni amalga oshirish uchun bir butun tarixiy jarayonni nisbatan mustaqil bo'lgan bo'laklarga, yani davrlarga bo'lish va ularni chuqur tahlil qilish lozim. Asosiy vazifalardan yana biri – yangi yozilgan tarixni o'rganishni taxlil qilishdir. Mustaqillik sharofati bilan yaratilgan imkoniyatlardan fondalangan xolda, mavjud tarixiy xujjalarni ilmiy asosda umumlashtirish lozim.

Ilmiylik bilan bir qatorda xolislik turadi. Bunda xar bir tarixiy voqea-xodisalarni taxlil qilayotganda xolis, xaqqoniy ravishda o'rganish yoki tarixchining xoxish irodasidan tashqarida, voqea--xodisalar qanday sodir bo'lgan bo'lsa, shundayligicha yoritish kuzda tutiladi. Xar bir tarix yozuvchi shaxs sifatida o'zining muloxazalari, idroki va xis tuyg'ulari bilan atrofni o'rab turuvchi muxit uzviy ravishda bog'liq. Bu bog'liqlik unga o'z tassirini o'tkazadi. Xolislik talab etadigan qoidalar shundan iboratki, ushbu yo'nalishda tarixiy-madaniy tarayonida (tarixning turli davrlarida) o'rganish jarayonida bo'lib o'tgan, xuddi o'sha xolatda talqin va taxlil etish, tekshirish va xulosalar chiqarib, yaxlit keltirish juda muximdir. Bunday xollarda aniq manbalarga asosli ravishda tayanish, tarixiy jarayonlarining bog'liqligini asoslash kerak bo'ladi.

O'zbekiston tarixini o'rganishda tarixiylik ham muxim o'rin egallaydi. Bu metod tarix jarayonida sodir bo'lgan voqea-xodisalarni o'rganishda ketma-ketlikni talab qiladi. Bir voqea-xodisa bilan boshqasini sabab-oqibatli bog'lanishi ham ko'rsatiladi. Tarixiylik voqea-xodisalarni qay tarzda sodir bo'lganligini, jamiyat rivojlanishi ayrim shaxslar va ularning roli to'g'risida tugri xaqqoniy fikr yuritishiga o'rgatadi.

Xar tomonlama yetuk, komil insonni tarbiyalashda O'zbekiston tarixining o'zini beqiyosdir. Komil inson tushunchasiga yurtboshimiz yana shunday tarif beradi: «Komil inson deganda, biz avvalo, ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan o'zgalarga ibrat bo'ladigan bilimli, ma'rifatli kishilarni tushunamiz. Ongli, bilimli odamni xar qandai oldi qochdi gaplar bilan aldab bo'lmaydi, u xar bir narsani aql-mantiq tarozusiga solib ko'radi. O'z fikr, xulosasini mantiq asosida qo'rgan yetuk odam bo'ladi. Bugungi kunda yoshlar ma'naviy ruxini mustaxkamlash va rivojlantirish borasidagi ishlar davlatning oldida turgan muxim vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Mavnaviyat, ma'naviy barkamollik osongina kishi ruxiga kirib kolmaydi. Unga xar kuni va xar soatda sabr-bardosh bilan mexnat qilish orqali erishish mumkin. bu yuksak vazifani amalga oshirishda O'zbekiston tarixi fanining o'zini kattadir. O'zbekiston tarixi fani Oliy ta'lim tizimida o'zining jamiyatida tutgan bo'zini va mavqeiga ko'za asoiy va yetakchi fandir. Shuning uchun ham bu fan barcha Oliy o'quv yurtlarida bir xil xajmdagi soatlarda o'qitiladi.

Komil insonni tarbiyalashdek dolzarb vazifani amalga oshirishda O'zbekiston tarixi fani oldida quyidagi vazifalar turadi:

1. O'zbekiston tarixi fani yosh avlod ongida siysiyo, ilmiyo-nazariyo dunyo qarashi shakllantirtsh, vokea va xodisalarga tarixiy nuqtai nazardan yondoshadigan xar tomonlama etuk, barkamol insonni tarbiyalashi lozim

2. O'zbekiston tarixi mustaqil O'zbekiston yoshlari ongida milliy vijdonni uygotib, uning shakllanishiga ko'maklashadi. Yoshlar ajdodlarimizning taraqqiyot yulini, tarixiy tajribalarini o'qib-o'rgangandagina ularda istiqloq tafakkuri, milliy mafkura, milliy g'oya tushunchasi, xozirgi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy-ma'zrifiy turmushni o'xmish bilan qiyoslash va kelajakka nazar solish tuyg'usi shakllanadi.

3. O'zbekiston tarixi fani yoshlarni Vatanga sadoqat, xamda xarbiy vatanparvarlik ananalari ruxida tarbiyalash vositasidir.

4. O'zbekiston tarixi yoshlarimizni baynalminalchilik ruxida tarbiyalash qurolidir. Yoshlariimiz bu fanni o'qish, o'rganish va mutoala qilish jarayonida O'zbekiston jaxon xamjamiyatning ajralmas tarkibiy qismi va bir bo'lagi ekanligini tushunib oladilar, o'zbek xalqning buyuk allomalari va fan-madaniyax arboblarning jaxon tarqqiyotiga qo'shgan va qo'shib kelayotgan munosib xissasi bilan qonuniy suratda faxrlanadilar.

5. O'zbekiston tarixi fani yosh avlodni ulug' xalqimizning milliy qadriyatlari va axloqiy falatlari: xalollik, poklik, odillnk, insonparvarlik, rostgo'ylik, mexnatsevarlik va kamtarinlik, iymon va e'tiqodlilik ruxida tarbiyalamog'i lozim, ularda Vatan va xalq oldidagi burcha sadoqat xissini qaror toptirmog'i kerak.

Millatlararo totuvlik va bag'rikenglik oliy darajadagi insoniy fazilat ekanligini yoshlar ongiga ta'limning ilk bosqichlaridan singdirish lozim. Yoshlar ongida diniy bag'rikenglik, vatanga sadoqat, vatanparvarlik g'oyalarini shakllantirishda avvalo, muomala madaniyatini qaror toptirish muhim sanaladi. Tarix darsi jarayonlarida o'zaro hamkorlik tamoyillari va millatlararo totuvlik tushunchalarini qo'llamay turib, ta'lim tizimida islohotlarni amalga oshirish, har tomonlama yetuk shaxsni kamol toptirish mumkin emas.

Xulosa o'rnida, —Tariximizning og'riqli davrlardan ham xulosa chiqarib yashashimiz kerak. Ertaga bizning o'rnimizga keladigan yoshlar ham ana shu tarix haqiqati bilan qurollanishi lozim.

Chunki hech bir sohada hech kimdan kam bo'lmaydigan avlodgina buyuk davlat barpo eta oladi. Nega deganda, buyuk davlatni qurish uchun ma'rifatli, tarixni biladigan, undan saboq chiqara oladigan odamlar kerak, degan g'oya ertangi kunimiz poydevori bo'lgan yoshlarni ajdodlarga munosib avlod sifatida tarbiyalashda muhim omil hisoblanadi. Biz boshlagan islohotlarimizni izchillikda davom ettirib, ularni yangi bosqichga ko'tarishimizni davrning o'zi taqozo qilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. Xalq so'zi. 2017 yil 14 yanvar, №10.
2. Karimov I.A. Istiqloq va ma'naviyat. Toshkent.: O'zbekiston, 1994. B-83.
3. Globallashuv sharoitida falsafa va milliy g'oyaning dolzarb masalalari. Toshkent.: 2017. B-141.

TEXNOLOGIYA FANI DARSLARIDA TADBIRKORLIK KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING AHAMIYATI

Mamirov Bobur Abdug'ofurovich

Sirdaryo viloyat, Guliston shahar 16-umumiy o'rta ta'lim maktabi texnologiya fani o'qituvchisi

Faol va ishbilarmon yosh avlodni hayotga va mehnatga tayyorlash - bu 2030 yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasida rivojlanish konseptsiyasida va milliy o'quv dasturida belgilangan maqsadlarga javob beradigan davlatni rivojlantirishning strategik masalasidir. Jamiyat va davlat talablariga muvofiq, ta'lim tizimi jamiyat va taraqqiyotni axborotlashtirish sharoitida kasbiy o'sish va kasbiy harakatchanlikka qodir bo'lgan yuqori ma'lumotli yoshlarni va malakali mutaxassislarni tayyorlash va o'qitishni ta'minlashga mo'ljallangan. Yangi yuqori texnologiyalar mehnat bozori talablarini qondirish uchun ish beruvchilarni va boshqa mijoz-mutaxassislarni ijtimoiy sheriklik va kasbiy ta'limni tashkil etishga jalb qilish masalasi alohida dolzarblikka ega.

Ilmiy-uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish, o'tkazilgan ijtimoiy so'rov natijalari maktab bitiruvchilarining etarli mustaqilligi va kasbiy taqdirni o'zi anglashga ega emasligini, ularni samarali aniqlash uchun bilim va ko'nikmalarga to'liq ega emasligini tasdiqlashga imkon beradi. Ko'pchilik yoshlar muvaffaqiyatli martaba yaratish uchun maqsadlarni aniq belgilay olmaydi va ularni hal qilish yo'llarini topa olmaydi. Yoshlarni "o'zi uchun" ishlashning muqobil variantini baholash qiyin, ular mamlakatimiz ishbilarmonlik tafakkuri va ishbilarmonlik qobiliyatiga ega yoshlarga juda muhtojligi haqida kam tasavvurga ega. O'zbekistonning kichik va o'rta biznesini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlashi, mamlakat ichida o'z xalqiga ishlab chiqarishni samarali tashkil etishga yo'naltirilgan.

Yosh avlodda tadbirkorlik kompetentsiyalari va ishbilarmonlik fazilatlarini rivojlantirish zarurligi 2030 yilgacha O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan ta'lim konseptsiyasida asoslangan.

Yangi tez o'zgaruvchan iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlarda hayotga va mehnatga kirib kelayotgan yosh avlodni o'qitish talablari o'rtasidagi ziddiyatlar va ularni amalga oshirishning pedagogik asoslarining etarli darajada rivojlanmaganligi bilan ham bog'liq. Ishlab chiqarish va tadbirkorlikning inson salohiyati uchun ilmiy-texnik taraqqiyot talablari va maktab bitiruvchilarining tadbirkorlik kompetentligini shakllantirish jarayoni etarli darajada rivojlanmaganligi o'rtasida; o'rtasida faol, savodli, ishbilarmon, vakolatli yosh xodimlarga muhtoj bo'lgan ish beruvchilarning talablari va hozirda maktab o'quvchilari kelajakda mustaqil ishlashga, ishbilarmonlik dunyosiga moslashishga va muvaffaqiyatli karera qurishga tayyorlanmoqda.

Shu o'rinda bugungi kunda texnologiya fanining mazmunini bozor munosabatlari talablari

asosida amalga oshirishdagi vazifalar:

1. Texnologiya fanini bozor munosabatlari talablari asosida nazariy metodologik asoslarini yaratish.
2. Texnologiya fanini davr talablari asosida yangilash va ta'lim mazmunini belgilash.
3. Texnologiya fanini o'qitishda uning moddiy-texnik ta'minotini bozor munosabatlari talablari asosida yangilash.
4. Texnologiya fanini mazmunini yangilash va integratsiyalash orqali ta'lim-tarbiya samaradorligiga erishishdan iborat.

Texnologiya fani darslarida ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirishda texnologiya fani o'qituvchisi quyidagi omillarni ham hisobga olish kerak:

- o'quvchilarning yosh xususiyatlarini bilish;
 - ta'limning turli metodlarini qo'llash;
 - ta'lim-tarbiya jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalarini joriy etish orqali o'qitish sifatini oshirish;
 - o'quvchilar mustaqil ta'lim olish va mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish.
- Texnologiya fani darslarida o'quvchilar;
- dars jarayonida – mehnat jarayoni haqida to'liq bilimlarga;
 - mehnat haqidagi bilim, ko'nikma va malakalarga;
 - bozor munosabatlari talablari haqidagi bilimlarga;
 - bozor munosabatlari talablari va texnologiya fani talablarini bir-biriga bog'lay olishga;
 - kasb-hunarlar haqida ma'lumotga ega bo'lishga;
 - ishlab chiqarish va dizaynerlik to'g'risidagi bilimlarga;
 - tadbirkorlik sifatlariga ega bo'lish bilimlarini puxta

o'zlashtiradilar Texnologiya fani mazmunini bozor munosabatlari talablari asosida o'qitish orqali ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirishga, o'quvchi yoshlarni kelajakda barkamol avlodlar sifatida bilimli, yuksak intellektual salohiyatga ega bo'lgan shaxslar sifatida tarbiyalashga erishamiz.

ONA TILI VA ADABIYOT DARSLARINI ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TASHKIL ETISH

Yoldosheva O'g'iloy Rabimqulovna

*Sirdaryo viloyati, Guliston shahar 2-sonli matematika faniga ixtisoslashtirilgan umumta'lim
maktabi ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: ushbu maqolada ona tili va adabiyot darslarini samarali tashkil etish uchun foydalaniladigan ilg'or pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlar haqida bayon etilgan.

Kalit so'zlar: ona tili, mazmun va mohiyat usuli, bilim, ko'nikma, malaka

Barchamizga ma'limki, ona tili va adabiyot fani ta'lim tizimining poydevori bo'lib, o'quvchilarning

Boshqa fanlarni o'zlashtirishi unga bog'liq bo'ladi va ona tili o'qituvchisi zimmasiga katta ma'suliyat yuklaydi. Bugungi tezkor rivojlanayotgan zamonda ilm – fan, texnika ham shiddat bilan o'sib bormoqda.

Har bir sohada taraqqiyot ilgari qadam tashlamoqda. Xususan, ilm – fanda ham katta o'zgarishlar, sezilarli yutuqlarga erishilmoqda. Har bir fanni yangi innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanib o'quvchilarga yetkazib berish bugungi kundagi ta'limning asosiy talablaridan biri hisoblanadi. Boshqa xorijiy tilni yaxshi o'rganmoqchi bo'lgan kishi avvalo, o'z ona

tilini mukammal bilishi lozim.

Shunday ekan, o'z tilini mukammal bilgan kishi boshqa xorijiy tillarni o'rganish ga kirishishi tabiiy hol.

Buning uchun ona tili va adabiyot o'qituvchilari o'z daralarida zamonaviy interfaol matodlardan foydalanib, o'quvchilarning fanga va bilim olishga bo'lgan qiziqishlarini yanada orttirish lozim. Ona tili va adabiyot o'qituvchisining mahorati o'z o'quvchilarini ta'lim jarayoniga faol ravishda

Jalb qila olish darajasi va ularning mustaqil aqliy va amaliy darslarni to'g'ri tashkil qilishi bilan belgilanadi. Dars jarayonida inter faol usullardan foydalanish dars samaradorligini oshirishi o'quvchilarining bilim, ko'nikma va malakalarni yanada mustahkamlashi hech kimga sir emas. O'qitish jarayonida noan'anaviy ta'jim usullaridan : "Aqliy hujum", "Debat", "Tanqidiy tafakkurni rivojlantiruvchi usul", "Klaster", "Muammoli vaziyat", "Idrok xaritasi", "Mazmun va mohiyat", "Izohli test" usullaridan foydalanish yaxshi samara beradi. Bunda o'quv materiyyallarini bayon qilish emas, balki, o'quvchilarning faol ijodiy ishlashini tashkil qila olish muhimdir. Shuni alohida ta'kidlash Joizki, bolalar ko'proq eshitganidan ko'ra, ko'rganiga ishonadi. Demak, biz o'qituvchilarning vazifamiz faqat aytib o'tish yoki ta'kidlash emas, balki aytganlarimiznari ko'rsatib ham berishimiz lozim.

O'z tajribamdan kelib chiqib, ona tili va adabiyot darslarida quyidagi interfaol usullardan foydalanishni tavsiya etaman :

"Mazmun va mohiyat" usuli.

Bu usulni ona tili va adabiyot fanlarida o'tilgan mavzuni nazorat qilishda yoki yangi mavzuni mustahkamlashda qo'llash mumkin. Bu usulni amalga oshirishning afzalligi shundaki, guruhlardagi har bir o'quvchining ishtiroki ta'minlanadi. Mazmun, ya'ni tayanch tushuncha o'qituvchi tomonidan beriladi. Bunda ko'rgazmadan yoki mohitordan foydalanish mumkin. Mohiyat esa guruh tomonidan ochib beriladi. Masalan, 7- sinfda ona tili darsida, Yordamchi so'zlar mavzusini o'tishda bu usul qo'l keladi. Dastlab mazmun beriladi

- 1- guruh. Bog'lovchilar.
- 2- guruh. Ko'makchilar.
- 3- guruh. Yuklamalar.

So'ngra mohiyat izohlanadi, har bir guruh o'z rejasiga doir ma'lumot beradi, bergan ma'lumotlarini misollar orqali izohlaydi. Guruhlardagi har bir o'quvchi aniq, lo'nda ma'lumot aytadi, bunda tezkorlik bilan ish ko'rish talab etiladi.

Adabiyot darslarida ham bu usulni qo'llash yaxshi samara beradi. Masalan, 7-sinf darsligida berilgan "Abdulla Qodiriyning hayoti va ijodi" mavzusini o'tishda bu usuldan foydalanish mumkun.

Mazmuni beriladi;

- 1-guruh. Abdulla Qodiriyning yoshlik yillari.
- 2-guruh. Ijot korning faoliyati.
- 3-guruh. Abdulla Qodiriyning ijodi.

Mohiyat bosqichida har bir guruh o'z rejasini izohlab beradi.

Bu usulni qo'llash uchun oldindan o'quvchilarga yangi mavzu yuzasidan tayyorlanib kelish topshiriq beriladi. Bu usul orqali o'quvchilalarda izlanuvchanlik, mavzuni o'rganish uchun qiziquvchanlik sifatleri shakillantiriladi.

"Mazmun va mohiyat" usulini qo'llashdan kutiladigan natija;

- o'quvchilarning tashabbuskorligi ortadi;
- o'quvchilar mavzu yuzasidan keng ko'lamli tushuncha va ma'lumotlarga ega bo'ladi;
- darsda har bir o'quvchining ishtiroki ta'minlanadi;

--yangi mavzuga o'quvchilar oldindan tayyorlanib, ma'lumotlar yig'ishga intiladi.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan dars o'quvchilarning fang abo'lgan qiziqishini orttiradi, ularni mustaqil bilim olishga undaydi va dars samaradorligini oshiradi

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati;

1. A. G'afurov. Ona tili o'qitish prinsplari va metodlari. T. O'qituvchi. 1992
2. Mengliyev B. Xoliyov O'. O'zbek tilidan universal qo'llanma. T-2013

MATN USTIDA ISHLASH ORQALI O'QUVCHILARINI IJODIY FIKRLASHGA O'RGATISH

K.A.Nuraliyeva, L.M.Meliyeva

Guliston shahar 2-IDUM ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari,

nuraliyevakamola777@mail.ru

Annotatsiya: *Ushbu maqolada matn ustida ishlash va tahlil qilish orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarini ijodiy fikrlashga yo'naltirish haqida so'z yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *ijodiy fikrlash, matn, tasviriy matn, muhokama matni, matn yaratish, matn ustida ishlash.*

Аннотация: *Эта статья посвящена тому, чтобы научить учащихся начальной школы творчески мыслить посредством обработки и анализа текста.*

Ключевые слова: *творческое мышление, текст, описательный текст, текст обсуждения, создание текста, текстовая работа.*

Annotation: *This article focuses on guiding elementary students to creative thinking through text processing and analysis.*

Keywords: *creative thinking, text, descriptive text, discussion text, text creation, text work.*

Matn nutqi hodisa bo'lib, u ikki va undan ortiq gapning mazmunini birikishidir. O'z tuzilishiga ko'ra gap xat boshi, bo'lim qism, boblardan tashkil topadi. O'quvchilari tomonidan yaratilgan matnlar asosan gap, xat boshi va qismdan iborat bo'ladi. Bahor dalalarda ish qizg'in shaklidagi to'rtgina so'zning mazmun birikishidan tortib, butun boshli hikoyalar, ertaklar, badiiy asarlar hammasi matn hisoblanadi. Matn narsa va hodisalarni tasvirlaydi, so'zlovchining munosabatini aniqlaydi. O'quvchilar rivoyat va hikoyalash, muhokama qilish usullaridan ko'proq foydalaniladi. Bu xislatlar o'rtasida, aniq chegara bo'lmasada, ularning har qaysisi o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Tasviriy matnda voqealarda ishtirok etadigan shaxslar bo'lmaydi. Unda asosan tabiat manzarasi voqea - hodisalar, ish jarayonlari tasvirlanadi. Rivoyalash va hikoyalash matni tasviriy matndan, voqeaning izchillikda berilganligi, undagi ishtirok etuvchi shaxslarning borligi, dialogik nutqdan foydalanish kabilar bilan ajralib turadi. Matnning bu turida dalillar va ularning tafsilotiga alohida o'rin ajratiladi, voqealar hikoya tarzida tasvirlanadi [4; 36 - 37].

Matnlar ustida ishlash orqali o'quvchilarini ijodiy fikrlashga yo'naltirish, ular ongi va tafakkurini rivojlanishiga asos bo'ladi. Matnlar orqali o'quvchilarni ijodiy tafakkurini shakllantirish mumkin. O'quvchilar qanchalik ko'p matn o'qisa shunchalik nutqi rivojlanadi, matnning ma'nosini tushunish orqali dunyoqarashi va fikrlashi o'zgaradi. O'quvchilarini ijodiy fikrlashga yo'naltirish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

O'quvchilarida ijodiy tafakkur, ijodiy izlanish, tushunarli va ta'sirchan, chiroyli so'zlash, mavjud imkoniyatlardan eng maqbulini tanlash, tilimizning boy imkoniyatlaridan nutq

sharoitiga qarab to'g'ri, o'rinli va samarali foydalanish malaka va ko'nikmalarini singdirish, ularni milliy qadriyatlarimiz, udum va an'alarimiz ruhida tarbiyalashda ona tilining tutgan o'rni va imkoniyatlari benihoya kattadir. Darhaqiqat, ona tili orqali o'quvchilarida ijodiylik, mustaqil fikrlash, fikr mahsuli og'zaki va yozma shakllarda tog'ri, ravon ifodalash ko'nikmalarini shakllantirish lozim.

Mashg'ulotlarida asosiy e'tibor o'quvchilarga tilning grammatik qurilishini emas, balki ularning so'z boyligini oshirish, so'zdan to'g'ri va o'rinli foydalanish, fikrini sharoitiga mos ravishda ifodalay olish ko'nikmalarini kengaytirishga qaratishimiz zarur. A.Hamroyev ta'kidlaganidek, ona tili ta'limiga kognitiv-pragmatik usul elementlarini kiritish o'quvchilar tafakkuri va mustaqil fikrlash layoqatlarini o'stirish, ta'lim jarayoni samaradorligi bolalar o'zlashtirishining sifatini yaxshilashga olib keladi [1; 39 - 42].

So'zlarning ma'nolarini o'quvchilarga tushunarli tarzda yetkazib berish orqali ularni ijodiy fikrlashi rivojlanadi. Bolaning nutqi maktab ta'limiga tayyorgarlik bosqichida kattalar bilan muloqatga kirishib kishilarning fikrini uqib olish va to'g'ri idrok qilish darajasida shakllanib boradi. U eshitgan va ko'rganlari to'g'risidagi ma'lumotlarni tushuna oladi. O'zidagi axborotlarni muayyan tartibda bayon qila oladi. Shunday qilib unda fikrlash bosqichi paydo bo'ladi.

Umuman olganda, ona tili darsliklari so'zga ehtiyoj hosil qiladigan, so'z boyligini oshiradigan o'quv-topshiriqlariga, matnlarga boy bo'lishi, leksikologiya har bir til sathining tarkibiy qismiga aylantirilishi lozim va zarurdir, har bir dars matn tahlili bilan boshlanib, matn yaratish bilan tugallansagina, ona tili ta'minining bosh maqsadga erishgan, o'quvchilarning nutqiy taraqqiyotini ta'minlagan, ularni nutq sharoitiga mos ravishda go'zal ixcham va ravon so'zlashga o'rgatgan, so'z san'ati ilmiy bilan tanishtirgan bo'lamiz. Matn ustida ishlash boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqini o'stirishning eng ma'qul usullaridan biri hisoblanadi. Buning uchun ularning og'zaki va yozma nutqlarini baravar rivojlantirib borish kerak.

Biror asar matn ustida ishlashda ham bu talablarni unutmaslik lozim.

O'quvchilarda ijodiy fikrlash va ijodiy matn yaratish ko'nikmalarini shakllantirishga oid tashkiliy-metodik ishlarni asosan o'tilgan darsni mustahkamlash jarayonida, shuningdek, uy vazifalari bajarishga yo'llanma berish davrida amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Matn yaratishga o'rgatish orqali o'quvchilarning nutqiy ko'nikma va malakalarini oshirish ona tili mashg'ulotlarida ko'zlanadigan bosh maqsad bo'lib, u so'z ustida ishlash, gap ustida ishlash va matn ustida ishlash orqali amalga oshiriladi. Ona tilidan istalgan bir mavzuni o'tishda o'qituvchi o'z o'quvchilarini ijodiy fikrlashga o'rgatib, fikrni og'zaki va yozma shakllarda bayon qilish ustida ishlashni tashkil eta olishi lozim. O'quvchilarini ijodiy fikrlashga o'rgatishda matnlar ham o'ziga xos o'ringa ega. Matnlarni ifodali tarzda o'qiy olish, uning ma'nosini o'rganish orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarini nutqi va ijodiy fikrlashi rivojlanadi. Har bir o'quvchi o'z matnini o'qigandan so'ng, o'z fikrini bayon qilsa, uning nutqi rivojlanib ijodiy fikrlashi shakllanib boradi.

ADABIYOTLAR:

1. Sobirova M. Matn ustida ishlash jarayonida o'quvchi so'z boyligini oshirish. Til va adabiyot ta'limi. Toshkent. 1998. 1-son. 38 b.
2. G'ulomov A. Ona tili o'qitish prinsiplari va metodikasi. Toshkent. O'qituvchi. 1992. 326 b.

DARS TA'LIM JARAYONINI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA ASOSIDA TASHKIL QILISH USULLARI

Djurakulov Utkirjon Uktamkulovich,
Guliston shahar 16-umumta'lim maktabi informatika fani o'qituvchisi,
djurakulovutkirjon44@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu ko'rsatilgan maqolamda tadqiqotchilik tamoyillarini shakllantirishning zarurligi, samarali foydalanish orqali ta'lim sifatini oshirishning yangi shakl va usullarini aniqlash yo'llari ko'rib chiqilgan hamda amaliy ahamiyati ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: tamoyil, metod, innovatsiya, texnologiya, tadqiqotchi, mantiqiy fikr, kompetentlik.

Abstract: In this article, the necessity of forming the principles of research, ways of identifying new forms and methods of increasing the quality of education through effective use, and their practical importance are shown.

Key words: principle, method, innovation, technology, researcher, logic, competence.

Bugungi kun pedagogikasi pedagoglarning malakasidan, mahoratidan tashqari ta'lim oluvchilarning talablarini ham hisobga oladi. Demak, kecha biz uchun qiziq tuyulgan yangi metod bugun o'z samarasini bermasligi mumkin. Darhaqiqat, bizning o'zimiz ham yangiliklarga doim ehtiyoj sezganmiz.

Bugungi kunda Prezidentimiz sa'y-harakatlari bilan yosh avlodning barkamolligiga, kelajagiga qaratilgan islohotlar amalga oshirilmoqda. Yoshlarni qo'llab-quvvatlash, intellektual salohiyatini oshirish, qobiliyatini yuzaga chiqarish, ularni kasb-hunarga, hayotga tayyorlash borasida ta'lim muassasalarida ta'limning noan'anaviy turlaridan, yangi pedagogik va innovatsion texnologiyalardan foydalanib samarali ishlar tashkil etilmoqdaki, bu o'z-o'zidan ularning barkamol shaxs bo'lib etishishlarida muhim rol o'ynaydi.

Yosh avlodning har tomonlama yetuk, bilimli, yuksak ma'naviyatli, barkamol, vatanparvar shaxslar bo'lib yetishishini ta'minlash yo'lida amalga oshirilayotgan ulkan bunyodkorlik ishlarining eng asosiy bo'g'ini sifatida pedagog xodimlarning yuqori ilmiy metodik bilimlarga, yuksak mahoratga ega bo'lishi hal qiluvchi ahamiyatga egadir.

Davlatimiz tomonidan belgilab berilgan vazifalarning ijobiy yo'nalish kashf etishi, mamlakatni ma'naviy rivojlanishini ta'minlashi uchun eng avvalo, o'sib kelayotgan yosh avlodni ilmiy bilimlar bilan qurollantirish, tadqiqotchilikni, ularda ma'naviy tafakkurni rivojlantirish, aqliy salohiyat ma'naviy axloqiy sifatlarni rivojlantirishni yo'lga qo'yish va buning uchun ularga ta'lim tarbiya beruvchilarni yangi pedagogik texnologiyalar, yangi loyixalar bilan qurollantirishga bog'liq.

Xalq ta'limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risidagi qaroriga asosan bugungi kunda ta'lim sohasida amalga oshirilishi zarur bo'lgan masalalar, xalq ta'limi tizimini isloh qilish, ta'limda yangi pedagogik va innovatsion texnologiyalardan keng foydalanish, tadqiqotchilik zarurligi va mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda ko'rsatilgan vazifalarni amalga oshirish belgilab berilgan.

Pedagoglar kompyuter texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmasiga ega bo'lish bilan birga quyidagilarni amaliyotda qo'llay olishi lozim:

- yangi o'quv materiallarini tushuntirishda kompyuterning namoyish imkoniyatlaridan foydalanish;
- internet, o'rgatuvchi va nazorat qiluvchi dasturiy mahsulotlar asosida darslarni tashkil etishi;
- darsga metodik tayyorlanish, qo'shimcha axborotlarni izlash va tizimlashtirish, didaktik materiallarni tayyorlash;

- kompyuter texnologiyalari asosida darsni tashkil etish va boshqarishda foydalanish malakalari.

Elektron taqdimot – darsda slaydlardan ko‘rgazmali material sifatida foydalanish o‘qituvchi uchun keng imkoniyat yaratadi. O‘quv materialining elektron taqdimotida animatsiyalar asosida o‘tilayotgan materialning berilishi mavzuni o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilishini yengillashtiradi va ko‘rgazmalilikni oshiradi. Namoyish slaydlarini o‘quvchilarga tarqatma material sifatida ham berish mumkin. Slaydlarga o‘quvchilar o‘zlarini munosabatini bildirishi, uni tahlil qilishi mumkin (tarqatma materiallari va ko‘rgazmali qurollar sifatida ham).

Integratsion ta’limga har bir pedagog o‘z oldiga qo‘yilgan vazifalarni sidqi dildan bajarsa, kelajakni kafolatli bilim bilan ta’minlasa, maqsadga etrishish oson va samarali bo‘lishiga erishish mumkin.

Shunday ekan, bilimli, yetarli tajriba va ko‘nikmaga ega bo‘lgan, o‘z fanini yaxshi biladigan, ijodkor va tashkilotchi, bir so‘z bilan aytganda kasbiy kompetentligi rivojlangan o‘qituvchilarni qo‘llab-quvvatlash, ularga yetarli shart-sharoitlar yaratib berish, ilmiy-pedagogik, faoliyat bilan shug‘ullanishlari uchun yaqindan yordam berish, yosh tadqiqotchi o‘qituvchilarni ko‘p yillik ilg‘or pedagogik tajribaga ega bo‘lgan o‘qituvchilarga biriktirib qo‘yish, faoliyatni “Ustoz-shogird” tamoyillari asosida tashkil etish, yosh tadqiqotchi o‘qituvchilarda o‘zi tanlagan kasbga muhabbat va kelajakka ishonch tuyg‘ularini shakllantirish ushbu kunning dolzarb muammolaridan biri bo‘lgan ta’lim muassasalarini kompetentli o‘qituvchilar bilan ta’minlashda o‘z samarasini beradi.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – ... T.: —O‘zbekiston, 2017.
2. Abduraxmonov S, Akramov A. XXI asr ta’lim tizimi. Toshkent-2017. 131 bet.

GEOGRAFIYA FANINI O‘QITISHDA NAZARIYASI VA TA’LIMDAGI KAMCHILIKLARI

M.O‘.Tajibayeva, B.J. Ibrohimov, Mahmudova Husnida Mirzamaxmutovna
Guliston shahar 16-maktab geografiya fani o‘qituvchilari,
Guliston shahar 2-IDUM geografiya fani oqituvshisi
tadjiboyevamaftuna161@mail.ru

Annotatsiya: umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘qitiladigan jahon iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi fani dunyoning tabiiy resurslari, aholisi va xo‘jalik faoliyatini o‘rganishi hamda iqtisodiy-ijtimoiy hayotning hududiy tashkil etilishi qonuniyatlarini tavsiflaganligi uchun bu fan mamlakatimizning jahon hamjamiyati bilan yanada integratsiyalashuviga zamin yaratadi.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy, materik, okean, iqtisodiy, jahon, ilmiy, metodika, dastur, fan, ta’lim-tarbiya.

Abstract: the subject of world economic and social geography, which is taught in general secondary schools, is the study of the world's natural resources, population and economic activity, as well as the description of the laws of territorial organization of economic and social life. creates the ground for integration.

Key words: social, continental, ocean, economic, world, scientific, methodology, program, science, education.

Hozirgi kunda umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘qitiladigan Jahon iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi fanining ahamiyati yanada dolzarblashmoqda. O‘quvchilar jahon iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi faniga oid bilimlarni tayyor holidan emas, mustaqil bilim olish yo‘llarini o‘rgatish,

iqtisodiy-ijtimoiy geografiya darslarida o'quv jarayonini ilmiy-ijodiy tashkil etish hamda o'quvchilarga nostandart vaziyatlar yaratish orqali muammoni aniqlash va uni yechish yo'llarini bajarishi uchun amaliy ko'nikmalar shakllantirish masalasi ahamiyatlidir.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida jahon iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi fanini o'qitish sifatini yaxshilash va takomillashtirish muammosining dolzarbligi, zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etishning yetarlicha ilmiy asoslanmaganligi va amaliyotga tadqiq qilinmaganligi, fanni o'qitishda foydalaniladigan elektron resurslarini yaratish, onlayn ta'lim olish uchun ilovalarini yaratish, undan foydalanish metodikasini yaratish ishlab chiqish zarurati, yangi metodlar va innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida tayyorlangan uslubiy qo'llanma hamda tavsiyalarning yetishmasligi mazkur tadqiqot yo'nalishda ilmiy-metodik tadqiqotlarni rivojlantirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Jahon iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi fanida o'rganiladigan tabiiy, ijtimoiy hodisalar va tushunchalar, qonuniyatlarni o'quvchilarga tushunarli holda umumiy o'rta ta'lim maktablari darsliklarida sodda va aniq bayon etish, bunda asosiy e'tiborni o'quvchilarning yosh psixologik xususiyatlarini, bilim olish, o'quv materialini tushunish hamda puxta va mukammal o'zlashtirish imkoniyatiga e'tibor qaratilgan.

Jahon iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi kursi jahon mamlakatlarining tarkibiy tuzilishi, Yer shari tabiiy resurslarining jahon iqtisodiyotidagi ahamiyati, Yer shari aholisi, mehnat resurslari, jahon iqtisodiyoti tarmoqlari ularni tashkil etish va joylashtirish qonuniyalari, xalqaro geografik mehnat taqsimoti, mamlakatlar o'rtasidagi xalqaro iqtisodiy aloqalar va jahonning yirik davlatlari bilan tanishtirib, o'quvchilarni bilimlar bilan qurollantiradi. Bu kurs o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirish va rivojlantirishga juda katta ta'sir ko'rsatadi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida Jahon iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi kursidek o'quvchilar dunyoqarashining kengayishiga ta'sir ko'rsatadigan fan yo'qdir.

Dunyoning hozirgi tabiatdan foydalanish jadal rivojlanayotgan, ishlab chiqarishning texnik va texnologik rivojlanishi, iqtisodiy-ijtimoiy, demografik, geosiyosiy va ekologik sharoit o'zgarib borayotgan bir davrida maktablarning geografiya, xususan jahon iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi kursining ahamiyati ham ortib boradi. Shu nuqtai nazardan kursning mazmun mohiyatini zamon talablari asosida o'zgartirib borish ham maqsadga muvofiqdir. Jahon iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi fanining ahamiyati, uning ilm-fan taraqqiyotida, ishlab chiqarish, tabiatdan foydalanish va ijtimoiy-madaniy sohalarining kundalik hayotda tutgan o'rni bilan belgilanadi.

Jahon iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi fani 2 bo'lim, 7 bob va 60 mavzudan iborat. Jahon iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi dasturi o'quvchilarda kurs materiallarini o'rganish bilan birga mamlakatlarning tiplari haqida yetarli tushuncha tarkib topishini, mintaqalar va mamlakatlardagi hozirgi jahon iqtisodiyotida muhim rol o'ynayotgan mamlakatlar bilan tanishib chiqishlarini e'tiborga olgan holda tuzilgan.

Jahon iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi kursining o'rganish texnologiyasi. jahon iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi fanining biror bob, mintaqa yoki mamlakatini o'rganishda turli usullardan foydalaniladi. Xususan, og'zaki, amaliy, ko'rgazmali, modulli ta'lim, hamkorlikda o'qitish, muammoli ta'lim, loyihalash, tabaqalashtirib o'qitish, didaktik o'yinlar, kartografik texnologiyalar va interfaol metodlardan foydalaniladi. 8-9 sinflarning Iqtisodiy bilim asoslari fanlaridan olgan bilimlarga tayaniladi.

Dars jarayonida o'quvchilarga fanni o'rgatishda "Materiklar va okeanlar geografiyasi" kursida o'rganilgan bilimlar katta ahamiyatga ega. Bunda o'quvchi jahon iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi fanini o'rganishda biror mintaqa yoki mamlakatni o'rganib borar ekan 6-sinfda o'qigan va o'rgangan bilimlarga tayanadi. Bu esa o'quvchining biror hudud bilan tanishishini hamda o'rganishini osonlashtiradi.

Agar o'quvchi bilim, ko'nikmalarni hayotda qo'llay olmasa, agar bilimlar unga dunyoni mustaqil bilib olishi uchun yordam bermasa, bunday bilimlar foydasiz bo'lib qoladi. O'quvchi geografik ma'lumotlarni hayotda qo'llay olgandagina fanni o'zlashtirdi deyish mumkin. Maktabda ko'pgina geografiya o'qituvchilari bilimlarni o'zlashtirishga ahamiyat berib, ularning qo'llanilishini tashkil etish ishlariga yetarlicha baho bermaydi.

Geografiya fanida o'qitishning innovatsion yondashuvlari joriy etib borilayotgan sharoitda zamonaviy ta'limiy talab va ehtiyojlariga monand tarzda yanada mukammallashtirish va undan maktab geografiyasining boshqa sinflarida ham qo'llash borasida rivojlangan davlatlar tajribasidan unumli foydalanishni kengaytirish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mo'minov O. Geografiya ta'limi metodikasi. – T.: O'qituvchi, 1986. – B.
2. Qayumov A., Safarov I., Tillaboyeva M., Fedorko V. Jahon iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi. Darslik. – T.: O'zbekiston. 2019

TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING BIR QATOR INTERFAOL USULLARI

*M.K.Muxammadiyeva, H.K. Ismailova,
Guliston shahar 2-IDUM o'zbek tili fani o'qituvchilari,
ismoilovamakt1612@gmail.com*

Annotatsiya: ushbu maqola o'zbek tili faniga bag'ishlangan. Dars davomida ta'lim samaradorligini oshirishning bir qator interfaol usullari muhokama qilindi.

Tayanch so'zlar: o'zbek tili, samarali o'qitish, boshlang'ich sinf, o'quvchilar.

Аннотация: В данной статье речь идет о науке об узбекском языке. В ходе урока обсуждался ряд интерактивных методов повышения эффективности обучения.

Ключевые слова: узбекский язык, эффективное обучение, начальная школа, учащиеся.

Annotation: In this article, we will talk about the methodology of teaching the Uzbek language. In the course of the lesson, a number of interactive methods of increasing the effectiveness of education were discussed.

Key words: Uzbek language, effective teaching, elementary school, students.

Bizga ma'lumki, bugungi kunda ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlarning o'z oldiga qo'ygan eng muhim masalalaridan biri - bu yosh avlodni ma'naviy barkamol insonlar qilib tarbiyalashdir. Buning uchun har bir o'qituvchi avvalo o'z fanining yetuk mutaxassisi, salohiyatli, zamonaviy ilm-fan sirlarini puxta o'zlashtirgan bo'lmog'i lozim.

Umumi o'rta ta'lim maktablarida o'zbek tili darslarida ham ta'limiy, ham tarbiyaviy dars maqsadiga erishishda o'quvchilarning kundalik hayotdagi vaziyatlarda og'zaki nutqdan foydalanib, o'z fikrini ravon bayon etishini rivojlantirishga qaratilgan usullardan qo'llash va darslarni tashkil qilish o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Umumiy o'rta ta'limda ona tili va o'zbek tili fanini o'qitishdan maqsad ona tilining ulkan imkoniyatlaridan erkin foydalana olish va nutqiy vaziyatga mos holda qo'llay olishga o'rgatishdan, ya'ni kompetentli shaxsni kamolga yetkazishdan iborat.

Har bir mashg'ulot o'quvchining bilim olishga bo'lgan qiziqishini oshirishga xizmat qilishi

zarur. Audiova video resurslardan foydalanish ham dars samarali bo'lishiga yordam beradi. Har bir darsda ma'lum bir bilim, ko'nikma va kompetensiyalarni shakllantirish ko'zda tutiladi. Xususan, fanga oid kompetensiyalardan biri – bu sotsiolingvistik kompetensiyadir. U o'zaro muloqot hamda kundalik hayotdagi vaziyatlarda tildan foydalanib, o'z fikrini ravon bayon etish, ijtimoiy hayotda ro'y bergan voqea – hodisalarga o'z munosabatini bildirishni nazarda tutadi.

Davrimiz hozirgi yosh avloddan fikrlash va fikr mahsulotini to'g'ri ifodalashni talab qilarkan, o'quvchilarda bu ko'nikmalarni rivojlantirish uchun yangi usul va metodlardan foydalanishimiz kerak. Dars samaradorligining muhim shartlaridan biri barcha o'quvchilarning dars jarayonida faol ishlashlaridir.

Alabatta, bu o'rindao'qituvchiga axborot kommunikatsiya texnologiyalarini chuqur bilishining qo'l kelishini amaliyot ko'rsatib turibdi. Internet tarmog'ida o'qitish uchun mo'ljallangan portallar, saytlar keying vaqtlarda keskin ko'paydi.

O'zbek tili darslarida -ZiyoNET, -Kitob.uz, -Ziyouz. uz, shuningdek multimedia.uz, o'zbek tili.uz saytlaridan audio va video resurslar. Sizga ZiyoNET ta'lim portalining *Foydali video* bo'limidagi videodan foydalanishni tavsiya etamiz. "Aqlli va nodon", "Ota-ona haqida", "Do'stlik haqida", "Botirlik haqida", "Vaqt haqida rivoyat" kabi videofilmlardan ta'lim maqsadida foydalanish mumkin. Videolardan darsning turli qismlarida foydalanish mumkin: uy vazifasini so'rash, yangi mavzuni mustahkamlash, yangi mavzuni tushuntirish va, albatta, matn yaratish va ijodiy insho yozish. Masalan, "Aqlli" videoni namoyish etishdan oldin u o'qituvchi tomonidan yoziladi va ketma-ket o'quvchilarga beriladi. Bundan tashqari, o'zbek tili darslarida zamonaviy o'zbek tili vakillari ijodiga oid video materiallar o'qituvchilar tomonidan alohida o'rin egallaydi. Masalan, bugungi kunda o'zbek tilishunoslikning asosiy muammolaridan biri bu o'quvchilarimizning o'qish tushunchasining pasayishi. Ta'til kunlarida o'quvchilarimiz ishning videoyozuvidan uy vazifasi sifatida foydalanishlari mumkin va asarlar o'rtasidagi farqlar o'zbek tili darsining samaradorligini oshiradi. Buning sababi shundaki, talabalar jonli video va aniq va aniq til o'rtasidagi farqni o'qiy olishlari kerak. Bugun biz o'quvchilarimizni printsiipiallikka, o'z fikrlarini erkin bayon qilishga va har bir fikrni aniq dalillar asosida tahlil qilishga o'rgatish uchun ko'pincha interfaol usullardan, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanamiz. O'zbek tili darslarida videofilmlardan foydalanishning muhim jihatlari, darsning asosiy motivatsion nuqtasi bo'lish, mavzuni noan'anaviy tarzda mustahkamlash yoki uy vazifasini topshirishni so'rash, mavzu bo'yicha grammatik ko'rsatmalar yordamida hikoyani o'rganish jarayonida savollarga javob berish jarayonida ushbu materiallardan foydalanish kabilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. A. Zakirov, F.Xaitova. Мактабгача таълим муассасаларида меҳнат қонунчилигини тартибга солишнинг ҳуқуқий асослари // Ўқув қўлланма, —Navro'z, Лицензия №А1.170, ISBN: 978-9943-601-48-2, Тошкент- 2019

2. Development of interpersonal relations o senior preschoolers by means of plot-role games// International Conference —Process Manegement and Scientific Developments/, Novotel Birmingham Centre, Birmingham, United kingdom, November 30, 2019, Infinity publishing

O'ZBEK TILI DARSIDA MATN TUZISH ORQALI O'QUVCHILARINI IJODIY FIKRLASHGA O'RGATISH

*N.A.Primqulova, Sh.O.Bo'riboyeva, S.B.Sheraliyeva
Guliston shahar 2-IDUM o'zbek tili fani o'qituvchisi,
Sardoba tuman 12-maktab o'zbek tili fani o'qituvchisi
buriboyevashoxista32@gmail.com*

Annotatsiya: maqolamda o'zbek tili fanida matn ustida ishlash va tahlil qilish orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarini ijodiy fikrlashga undash, dunyoqarshlarini kengaytirish hamda ijobiy o'lashga yo'naltirish haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: fikr, matn, tasviriy matn, ijod, muhokama matni, matn yaratish, matn ustida ishlash.

Аннотация: в моей статье рассказывается о поощрении учащихся начальной школы к творческому мышлению, расширению их кругозора и направлении их к позитивному мышлению путем работы над текстом и анализа узбекского языка.

Ключевые слова: идея, текст, визуальный текст, творчество, дискуссионный текст, создание текста, работа над текстом.

Abstract: my article talks about encouraging elementary school students to think creatively, expand their worldviews, and guide them to positive thinking by working on the text and analyzing the Uzbek language.

Key words: idea, text, visual text, creativity, discussion text, creating a text, working on a text.

Matnning ko'plab turlari bo'lib boshlang'ich sinf o'quvchilariga har bir turi alohida o'rgatiladi. Tasviriy matnda voqealarda ishtirok etadigan shaxslar bo'lmaydi. Unda asosan, tabiat manzarasi, voqea-hodisalar, ish jarayonlari tasvirlanadi. Tasvirlash kuzatuvchanlik bilan bog'liq shuning uchun ona tili darslarida bolalarni kuzatuvchanlika o'rgatish, narsa, voqea, hodisalardagi eng muhim belgi va xususiyatlarni ko'ra bilishga odatlantirish zarur. Rivoyatlash va hikoyalash matnni tasviriy matndan, voqeaning izchillikda berilganligi, undagi ishtirok etuvchi shaxslarning borligi, dialogik nutqdan foydalanish kabilar bilan ajraib turadi. Matnning bu turida dalillar va ularning tafsilotiga alohida o'rin ajratiladi, voqealar hikoya tarzida tasvirlanadi. Ona tili mashg'ulotlarida bunday matnlardan juda ko'p foydalanishga to'g'ri keladi. Muhokama tarzidagi matnlar yaxshilik va yomonlik, mehnatsevarlik va ishyoqmaslik, halollik va tekinxo'rlik, to'g'rilik va egrilik, do'stlik va dushmanlik, sabr-qanoat va sabrsizlik kabi mavzularda bo'lishi mumkin. Ayniqsa, xalq maqollarini muhokama matnining mavzusi qilib tanlash maqsadga muvofiqdir. Badiiy uslubda yozilgan matnlarning o'ziga xos xususiyati ularda tasviriylik va ta'sirchanlikning kuchliligidir.

Ommabop matn ko'proq matbuotga xos bo'lib, u xabar, maqola kabilarda namoyon bo'ladi. Ona tili mashg'ulotlarida ommabop matnlar ustida ishlashda avvalo bu usulning til xususiyatlari ustida ishlashga to'g'ri keladi. Ilmiy matn ona tili mashg'ulotlarida ilmiy matnlardan keng foydalaniladi. Ramziy matnlar ona tili darslarida salmoqli o'rin tutadi. O'quvchilarga mashqlar davomida bu matnlardan foydalanishda buyruqlar, e'lonlar, ariza, tarjimai hol, telegramma, xat yozish kabilar o'rgatib boriladi [2; 8 - 9].

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ijodiy fikrlashga o'rgatish, ularning bilim darajasini shakllantirish har bir o'qituvchining asosiy vazifasi hisoblanadi. O'quvchilarga badiiy kitoblarni, darsliklarda berilgan matnlarni o'rgatish orqali ularning so'z boyligi va dunyoqarashi, salohiyati shakllanadi.

“Ta’lim to’g’risida”gi qonun, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” talablariga ko’ra “Boshlang’ich ta’lim umumiy o’rta ta’lim olish uchun zarur bo’lgan savodxonlik, bilim va ko’nikma asoslarini shakllantirishga qaratilgan ta’limdir”.

Shuning uchun ham “bolaning dunyoqarashi, didi, salohiyati shakllanadigan boshlang'ich sinflarga eng yetuk, eng tajribali murabbiylar bекitib qo'yilishini oddiy oddiy mantiqning o'zi talab etadi”. Darhaqiqat, shunday ekan boshlang'ich sinf o'quvchilari bizga erkin fikrlay oladigan ijodiy fikr mahsulini nutq shakliga mos ravishda og'zaki va yozma bayon qila olish ko'nikma

va malakalarini egallagan barkamol avlodning boshlang'ich avlodini yetkazib berishilari kerak.

Buning uchun esa DTS talablariga mos erkin matn yarata oladigan o'quvchilar tarbiyalash lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hamroyev A. Boshlang'ich sinf ona tili ta'limi jarayonida kognitiv - pragmatik usul elementlaridan foydalanish xususida. Pedagogik mahorat. 2014. 140 b.

2. Otaxonova Nasiba. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini matn tuzish orqali nutqini o'stirish. Bitiruv malakaviy ish. Nukus. 2018. 58 b.

3. G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh. Boshlang'ich sinflarda ona tilini o'qitish metodikasi. 2 - qism. Toshkent. 2002. 284 b.

РАЗЛИЧНЫЕ СПОСОБЫ МАСШТАБНОГО ВНЕДРЕНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ ПОДХОДОВ К ОБУЧЕНИЮ

Худайбердиева Сабира Рахимбердиевна,

*Сырдарьинская область, город Гулистан учитель средней 16-й школы по русской
литературе*

khudayberdiyevsabira133@mail.ru

Аннотация: *Исследования по расширению масштабов должны быть широкими по охвату и учитывать не только практику учителей и исследователей, но и практику других важных заинтересованных сторон, включая директоров школ, учителей-воспитателей, администраторов образования и политиков. Кроме того, поскольку условия преподавания существенно различаются как внутри регионов и стран, так и между ними, важно понять, как инновационные подходы к обучению могут быть адаптированы к местным условиям реализации при сохранении лежащих в их основе основных принципов.*

Ключевые слова: *подход, значимый, оптимистичный, неотъемлемый, учебный план, профессиональное развитие, инновации, математический.*

Далее, мы сначала проясним наше понимание концепта инновации. Наше прочтение анализа Фуллана (2001, 2006) и нашей собственной работы приводит нас к оптимистичному и осторожному взгляду на решение проблем, связанных с поддержкой разработки учителями инновационных подходов к обучению в больших масштабах. Инновационные подходы к обучению обычно внедряются в контексте новой учебной программы, программы обучения и повышения квалификации учителей или их комбинации. Однако важно подчеркнуть, что инновации хороши не сами по себе — не все инновации в обучении являются улучшениями. Во-первых, чтобы провести различие между изменениями и улучшениями в обучении, важно объяснить, что стоит знать и делать математически, в процессе определения целей математического обучения.

Инновация в обучении является улучшением, если есть доказательства (в широком смысле) того, что она может способствовать прогрессу учащихся в достижении определенных целей обучения более эффективно, чем типичные формы обучения в стране или регионе. Мы признаем, что этот взгляд на улучшение обучения имеет политическое измерение, поскольку часто возникают конфликты между взглядами исследователей математического образования на то, что стоит знать и делать математически. Как следствие, цели обучения, на которых сосредоточены инновационные подходы к обучению, часто расходятся с национальными оценками, в которых приоритет отдается процедурным компетенциям в ущерб концептуальному пониманию, процедурной беглости, решению проблем и математической коммуникации. Во-вторых, мы также признаем, что то, что явно является улучшением в одном

контексте (школа, страна и т.д.).

Может не быть улучшением в другом контексте, поскольку культурные и национальные приоритеты в математическом образовании могут отличаться, например, от акцента на приложения и моделирование или на формализацию и теорию. В-третьих, инновация - это не единичный акт в том смысле, что вы делаете это, а затем это делается, но вместо этого ее лучше рассматривать как процесс поддержки обучения учителей, который необходимо отслеживать, анализировать и пересматривать (возможно, в результате предпочтение отдается статус-кво). В-четвертых, инновация обязательно адаптируется к контексту местной школы и класса в процессе внедрения (Weatherley & Lipsky, 1977). В связи с этим исследователи образовательной политики рассматривают внедрение как предполагающую взаимную адаптацию инновации к местному контексту (McLaughlin, 1987).

В-пятых, учитывая, что наше внимание в данном случае уделяется инновациям в обучении, которые потенциально могут улучшить качество математического обучения учащихся, мы следуем за Элмором (2000), выдвигая на первый план обоснование инновационных подходов к обучению, оценку осуществимости внедрения, доказательства улучшения методов преподавания и внимание к контекстам реализации. Мы стремимся продвигать ориентацию на инновации, которая открыта для новых возможностей, но в то же время делает упор на анализ и заботу о фактических данных.

Внедрение инновационных подходов к обучению в масштабе, как пример улучшения обучения, не работает, когда оно оформлено в терминах передачи знаний от исследователей учителям (так называемый подход “сверху вниз”, см., например, Altrichter, Feldman, Posch, & Somekh, 2008; Ponte, Matos, Guimaraes, Leal, & Canavarro, 1994; Tirosh & Graeber, 2003). Учителя, безусловно, должны рассматриваться как важнейшие проводники перемен и решающие исполнители инновационных подходов к обучению.

Если мы рассматриваем студентов как учащихся, ориентированных на запросы, то учителя, имеющие соответствующее академическое образование и практический опыт, также должны рассматриваться как таковые (см., например, Krainer & Zehetmeier, 2013). Однако улучшение преподавания в масштабе не работает, как спорадические попытки учителей улучшить свое преподавание полностью самостоятельно в изоляции от других заинтересованных сторон (так называемый подход “снизу вверх”). Совершенствование обучения предполагает существенное обучение учителей и требует систематической поддержки, основанной на четких целях, научных знаниях, а также мониторинге и анализе прогресса на основе фактических данных.

Внедрение инноваций в одном классе может быть непростой задачей, и это еще более сложная задача для всей школы. Однако это становится экспоненциально более сложным, когда масштабирование инновации нацелено на охват многих школ, области или даже района. Поэтому понятно, что расширение масштабов стало проблемой для исследований в области математического образования за последние 10 лет (например, Adler, Ball, Krainer, Lin, & Novotna, 2005).

Список использованных литератур

- 1.Альтрихтер Х., Фельдман А., Пош П. и Сомех Б. (2008). Учителя исследуют свою работу: введение в исследование действий в разных профессиях (2-е изд.). Лондон, Нью-Йорк: Роутледж.
- 2.Эндрюс, П. (2013). Сравнительные исследования преподавания математики: определяют ли средства анализа результат? ZDM Математическое образование, 45, 133-144.

UMUMIY O'RTA TA'LIMDA MATEMATIKA TA'LIMI VA UNI RIVOJLANTIRISH KONSEPSIYASI

Nurimova Lola Tulkinjonovna

Sardoba tumani 12-sonli umumta'lim maktabi matematika fani o'qituvchisi,

nurimovalola111@gmail.com

Annotatsiya: matematikaning ta'lim-tarbiya bilan bog'liq xususiyatlarini sanab chiqish yengil ish emas, ammo ulardan biri bugungi tub islohotlar davrida xalqimiz istiqboli uchun ham g'oyat muhimdir.

Kalit so'zlari: matematika, konsepsiya, geologiya, STEAM, ta'lim.

Аннотация: перечислить особенности математики, связанные с образованием, задача не из легких, но одна из них чрезвычайно важна для мировоззрения нашего народа в сегодняшнюю эпоху кардинальных реформ.

Ключевые слова: математика, концепция, геология, ПАР, образование.

Mamlakatimizda matematik ta'lim va matematika fani taraqqiyotiga katta e'tibor berilmoqda. 2019-yil 9-iyulda imzolangan "Matematika ta'limi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, shuningdek, 2020-yil "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili" deb e'lon qilinib, shu munosabat bilan matematika, kimyo, biologiya va geologiya fanlarini rivojlantirish dasturlari ishlab chiqilgani ana shu e'tiborning amaliy isbotidir.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning matematika ta'limi va matematikani rivojlantirishga qaratayotgan alohida e'tiborining pirovard maqsadi — O'zbekistonni buyuk davlatga aylantirish, yoshlarimizni shunga munosib bilim va malaka bilan qurollantirishga qaratilgandir. Bu — o'quvchilar va talabalar, ya'ni ertangi kun kadrlari qiyin, murakkab masalalarning yechimini izlab topish malakasiga ega bo'lishi, har qanday islohot yuzaga chiqqan biror muammoni hal etish maqsadida amalga oshiriladi. Bunday muammoni hal etish matematikadagi Puankare muammosidan ham murakkab bo'lishi mumkin. Holbuki, har qanday boshqaruv muammo yechishdan iborat, deyilsa, katta xato bo'lmaydi. Aynan mana shu qobiliyatni matematika fani shakllantiradi va charxlaydi. Ma'lum ma'noda matematikani masalalar yechish fani deb atash mumkin. Chin matematika o'qituvchisi bu — o'quvchilarga masala yechishni o'rgatuvchidir.

Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish maqsadida o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholashga yo'naltirilgan PISA (The Programme for International Student Assessment) umumta'lim maktablarida ta'lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratish" belgilab qo'yilgan. Umumiy o'rta ta'limning tarixida ilk bor joriy etilishi kutilayotgan Umumiy o'rta ta'limning Milliy o'quv dasturi amaldagi davlat ta'lim standarti, o'quv dasturlarini tanqidiy tahlil qilish, keng jamoatchilikning darsliklarning mazmuniga nisbatan bildirgan fikr-mulohazalari, ta'limning keyingi bosqichi hamda zamonaviy mehnat bozorining real talablari asosida, xorijiy davlatlarning ta'lim sohasida erishgan natijalarini inobatga olgan holda ishlab chiqilmoqda. Matematika fanini o'qitishni rivojlantirish Konsepsiyasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-sonli Farmoni asosida qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi", Prezident Sh.Mirziyoevning 2020-yil 24-yanvarda Oliy Majlisga Murojaatnomasida belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan ishlab chiqilgan.

Konsepsiya xalq ta'limi tizimida matematika fanini o'qitishni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini belgilab beradi. Xalq ta'limi tizimida matematika fanini o'qitishni rivojlantirish konsepsiyasi tizimda vujudga kelgan muammolarni hal qilish maqsadida ishlab chiqilgan. Matematika ta'limining amaldagi holati va mavjud muammolari umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarga bilim berishning zamonaviy pedagogik innovatsion uslublarini joriy etish,

Respublikamizning barcha ta'lim maktablari uchun majburiy bo'lgan Davlat ta'lim standartlari talablarida berilgan tayanch ta'lim mazmuni bajarish, o'quv dasturiga zamon talablaridan kelib chiqib, fundamental, nazariy yoki eksperimental fan sifatida yondashish, fanning falsafiy va metodologik jihatdan yangilanishini, ta'lim mazmuni va o'qitish uslubiga nisbatan takomillashtirilgan, samarali boshqaruv usullarini ishlab chiqishni taqozo etadi. Matematika ta'limining ahamiyati uning fan-texnika taraqqiyotida, axborot-kommunikatsion texnologiyalarning ishlab chiqarish sohalarida va kundalik hayotda tutgan o'rni bilan belgilanadi. Konsepsiya rivojlangan davlatlar qatoridan o'rin olish uchun bilimli, tajribali va zamonaviy fikrlaydigan yuksak salohiyatli, raqobatbardosh, kompetent kadrlarni tayyorlash, umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlarida belgilangan talablar uchun asos bo'ladi. Konsepsiyada belgilangan maqsad va vazifalarni amaliyotga keng joriy etish o'quvchi-yoshlarning intellektual rivojlanishiga samarali ta'sir etadi.

O'quvchilarning matematik savodxonligi, mantiqiy fikrlashi va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan xalqaro baholash dasturlari (PISA, TIMSS) talablariga mos keladigan amaliy topshiriqlar bazasini yaratiladi va mamlakatimiz o'quvchilarining mazkur xalqaro baholash dasturlariga muosib qatnashishi ta'minlanadi, matematika fanlari bo'yicha sinflar kesimida o'quv-metodik majmualarni yangi avlodini ishlab chiqiladi va ta'lim jarayoniga joriy etiladi, matematika fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash bo'yicha innovatsion metodikalar yaratiladi. STEAM zamon talablari asosida xalqaro miqyosida o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishda umumta'lim fanlari bo'yicha fanlararo bog'lanish va amaliy yondashuvga e'tibor qaratiladi, o'quvchilarni o'quv loyiha va o'quv-tadqiqotchilik rivojlantiriladi, umumiy o'rta ta'lim fanlari bilan o'zaro integratsiyasi orqali o'quvchilar kasb-hunarga yo'naltirish ishlarini tashkil etiladi, matematika fani o'qituvchilarining fan bo'yicha bilim, ko'nikma va mahoratini uzluksiz yangilab borish maqsadida, o'qituvchining shaxsiy va kasbiy axborot maydoni yaratiladi hamda malaka oshirish tizimi zamonaviy raqamli texnologiyalar asosida tubdan yangilanadi, ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etilib, yagona virtual muhit - axborot ta'lim platformasi ishga tushiriladi, va unga matematika fani bo'yicha elektron kutubxona, darslarning o'quv-uslubiy ta'minoti bilan bog'liq bo'lgan barcha elektron resurslarni, video darslarni, virtual laboratoriya, multimediali interaktiv animatsion ilovalar joylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Matematika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 7-maydagi PQ-4708-son qarori
3. <http://www.uzedu.uz> - O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi portali.

FORMING INFORMATION AND WORKING CAPABILITIES IN STUDENTS THROUGH EDUCATIONAL GAMES IN CLASSROOMS

*Sh.T. Mamanova, A.Q. Abbasova, N.B. Shirinova,
English teachers of 16th school in Sirdarya region
shirinovamakt16@gmail.com*

Annotation: *In this article, instructions for the formation of compartments for working with information in students through educational games are given.*

Keywords: *creative activity, educational games, creative thought, creativity, grammatic,*

deductive riddle, problematic games, mobility, systematization.

Annotatsiya: Ushbu maqolada ona-tili darslarida ta'limiy o'yinlar orqali o'quvchilarda axborotlar bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha ko'rsatmalar berilgan.

Kalit so'zlar: ijodiy faoliyat, ta'limiy o'yinlar, ijodiy fikr, ijodkorlik, grammatik, deduktiv topishmoqli, muammoli o'yinlar, harakatchanlik, tizimlilik.

Boshlang'ich sinflarda bolalarni o'qitish ularda milliy va umuminsoniy tarbiya elementlarini shakllantirish zamonaviy boshlang'ich ta'lim jarayonida o'z ifodasini topishi kerak. Boshlang'ich ta'lim jarayonida turli usullardan foydalaniladi. Lekin, bir usul borki, bu o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi yaqinlikni ta'minlaydi, darsning mana shu jarayoni o'yin deb ataladi.

Ko'nikma –bu kutilgan natijaga olib keluvchi faoliyat belgisidir. U bilim mahsuli bo'lib, mutaxassis tomonidan uni amaliyotda qo'llay olish qobiliyatidir.

O'quvchilar muntazam ravishda mediamanbalardan foydalanish, radiodan eshitgan, televizordan ko'rgan lavhalarini tushunish va turli manbalardan kerakli ma'lumotlarni izlab topish hamda undan foydalana olish orqali axborotlar bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirish mumkin. Televizor, radio, telefon orqali

berilgan xabarlarni gapirib berish, darsda kitob bilan ishlay olish, o'rganilayotgan mavzuni, kerakli qoidani, mashqni topish, mashq topshiriqlarini tartibi bilan bajarish, media vositalaridan, didaktik materiallaridan foydalanib, topshiriqlarni bajarish kabi topshiriqlarni o'yinlar orqali amalga oshirish mumkin. Bunda deyarli barcha o'quvchilar qatnashadilar va harakat qiladilar. Bu jarayonda o'quvchilar nimadir o'rganadilar. Bunda hamma harakat qiladi, a'lochi ham, o'rta o'quvchi ham, ulgurmovchi ham sergak tortadi.

Chunki sinfda o'tirgan bolajonlar yaqingina o'yinlar olamidan kelgan. Agar o'qituvchi ta'limiy o'yinlarni o'ylab qiziqarli qilib o'tkazsa bolada - hayratlanish tuyg'usi uyg'onadi, ta'lim-tarbiyaning ana shu jarayoni o'quvchilarning yodidan chiqmaydi va o'yindan ko'zda tutilgan maqsad shakllana boradi. O'yinlar ikki xil ahamiyatga ega bo'lib, ular ta'limiy va tarbiyaviydir.

Ta'limiy ahamiyati shundaki, bolalarda o'qituvchi tomonidan berilayotgan bilim, ko'nikma, malakalar o'yin orqali o'zlashtiriladi. Bolalarga singdirilayotgan bilim, ko'nikma, malakalar orqali axloqiylik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik kabi sifatleri shakllantiriladi va tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Ta'limiy o'yinlarning bir necha turlari mavjud. Ular grammatik, deduktiv topishmoqli, muammoli o'yinlardir. Bolaning bilish faoliyati kichik yoshdanoq boshlanadi. Faqat u davrda bilish faoliyati o'yinlar asosida quriladi.

Maktab hayoti tashqi va ichki jihatlari bilan oila yoki bog'cha sharoitidan farq qiladi. Birinchi sinfga kelgan bola maktabni his etadi, lekin bu jarayonga moslasha olmaydi. Ana shuning uchun ham bolaga o'yin orqali bilim berishni amalga oshirish kerak. Bolalarga faqat jiddiy dars beraverish, ustma-ust nazariy bilimlar berish, qoidalar bilan qurollantiraverilishi ularni zerikishga olib keladi va bezillab qoladi. Aqliy zo'riqishdan charchagan bola o'qimay qo'yadi. Shu sababli bolalarga o'yinlar yordamida tinimsiz ravishda fikr yuritishga

undash, hayotot olamiga sayr qildirish, aqliy zo'riqishlarsiz istagan yo'llar bilan o'zlarini – o'zlari tarbiyalashlariga ko'maklashishimiz lozim.

O'yin orqali bolalar borliqni o'rganadi va dunyoni o'zgartirishga harakat qiladi. Shunday qilib, o'yin inson faoliyatining shakllanishiga asos soladi. O'yinda inson borliqni aks ettirish qobiliyatini namoyon

qiladi. O'yinning eng muhim ahamiyati shundaki, unda ilk bor bolaning dunyoga ta'sir etish ehtiyoji paydo bo'ladi va shakllanadi. Maktab yillarida o'yin shakllari yanada kengroq rivojlanadi. O'yingina bola psixikasida rivojlanishning yuqoriroq stadiyasiga o'tish uchun muhim zamin yaratadi. Masalan: topag'on o'yini – o'qituvchi biror belgi asosida savol beradi. O'quvchilar shu belgini

o`ziga jam qilgan predmetlar nomlarini yozadilar, eng ko`p to`g`ri javob topgan o`quvchilar g`olib sanaladi. Bu o`yinni o`tkazish o`quvchilarga so`z turkumlari haqidagi dastlabki ma'lumotlar berish jarayonini yengillashtiradi. Bundan tashqari ularning so`z boyligi ortib, ularda hozirjavoblik, ziyraklik, ijodkorlik kabi sifatlar shakllanadi.

1. Savol: Nima yumshoq?

Javob: Non, xamir, yostiq, ko`rpa, paxta.

2. Savol: Nima oq rangda?

Javob: Qog`oz, daftar, surp, bulut, parda, buvimning sochlari, qor.

3. Savol: Nigora nima qilayapti?

Javob: Kitob o`qiyapti, kir yuvayapti, qoshiq artayapti.

Bo`lishi mumkin emas – bu o`yinni o`tkazishda o`qituvchi matnni o`qiydi. O`quvchilar bo`lishi mumkin bo`lmagan voqealar ifodalangan jumla yoki gapni topishlari lozim. Hazilmutoyiba bilan o`tadigan bu o`yin ham o`quvchilar dan ziyraklik, sinchkovlik va kuzatuvchanlikni talab qilishi bilan birgalikda, ulardan atrofida sodir bo`layotgan voqea va hodisalarga befarq bo`lmaslikni ham talab qiladi.

a) Ibratjon yozgi ta`til kunlarida buvisinikiga dam olgani bordi. U qishloqda o`rtoqlari bilan qor bo`ron o`ynadi. Buvisi sigir sog`ayotganda sigirning uloqchasini ushlab turdi. Buvisiga sigirlarga don berishda yordamlashdi.

b) Abdulla juda bilimli bola. U bugun ham topshiriqni juda yaxshi bajardi. O`qituvchi uni maqtadi va nol ball qo`ydi. Abdulla yaqinda 2-sinfni tugatib, 1-sinfga o`tdi. Boshlang`ich sinflarda ishlash jarayonida o`ylashga, yangi o`quv vositalarini izlab topishga, ijod qilishga to`g`ri keladi. O`yinlarning jozibali nomlari bolalarni diqqatini tortadi, ularni charchatmaydi, darsga nisbatan ijodiy hissiyotlar uyg`otadi. Ularni dars o`rtasida, oxirida yoki boshlanishida ham kiritish mumkin, bunda mavzuga o`yinning maqsadi va xarakterini hisobga olgan holda tanlash lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Qosimova K., Matjonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. –T.: Noshir, 2009. – 163 b.

2. Internet materiallari: <http://go.mail.ru/search?>. —Ta'lim texnologiyalari"

METHODS OF ORGANIZATION OF EDUCATIONAL PROCESS ON THE BASIS OF NEW PEDAGOGICAL TECHNOLOGY

*D.N.Albekova, R.M.Mamatova, I.R.Ummatov,
English teachers of 16th school in Sirdarya region
mamatovamakt166@gmail.com*

Abstract: *The article discusses the ways of formulating research principles, identifying new forms and methods of improving the quality of education through their effective use, and highlights their practical significance.*

Key words: *research principles, innovative technology, logical thinking, professional competence.*

Аннотация: *В статье рассматриваются пути формулирования принципов исследования, выявления новых форм и методов повышения качества образования за счет их эффективного использования, выделяется их практическая значимость.*

Ключевые слова: *принципы исследования, инновационная технология, логическое мышление, профессиональная компетентность.*

Ishlab chiqarishning bir bo`lagi bo`lmish ta`lim sohasi ham bugungi kundagi o`ziga xos yondoshuvlarni ta`lab etayotgan turli texnologiyalarni qo`llash bilan belgilanmoqda. Bu fikrlar

nechoq'lik to'g'ri ekanligi ta'lim samarasining oshib borayotganligida sezilmoqda. Biroq hamma vaqt ham bunday holatga guvoh bo'layotganimiz yo'q. Ta'lim sohasidagi har bir pedagog ko'zlangan maqsad davlat qo'yayotgan talablarni bajarishga majburdir. Binobarin, ta'lim tizimida har xillik o'z natijasini bermaydi.

Ta'lim tizimiga oid tadqiqotlar, chet el tajribasi shuni ko'rsatadiki, o'z ustida tinimsiz ishlaydigan fan o'qituvchilarini rag'batlantirib borish ta'lim tizimini rivojlantirishga asos bo'la oladi. Zero, o'z fanini sevgan, tinimsiz izlanishda, jonkuyar ustozlar har doim ham davlatimiz e'tiborida bo'lishgan. Yangi o'qituvchilar o'z oldiga ulkan maqsadlar qo'yadi va ularni amalga oshirish uchun tinimsiz o'z ustida ishlaydi.

Umaman olganda, ta'lim jarayonida o'qituvchining o'rni beqiyos. Pedagog avvalambor, yaxshi tarbiya topgan, shirinso'z, samimiy, muhitni to'g'ri belgilay oladigan, aktyor, nafaqat aktyor balki rejissyor, yaxshi boshqaruvchi va albatta ta'limning so'ngi yutuqlari bilan qurollangan, fan-texnikani yaxshi biladigan hamda tushunadigan, eng asosiysi, kompyuter ilmini mukammal tarzda bilmog'i kerak. Bugun o'quvchilar ancha ilg'or. Ularning dunyoqarashi ham o'zgacha: ular ancha shoshqaloq va sabrsiz, lekin intiluvchan, ba'zi narsalarni tez ilg'ab ololmaydi. Bunda o'qituvchiga qo'yiladigan talab bir oz ortadi. Shuning uchun ham yangidan yangi metodlar va usullar, turli texnologiyalar, yangi usullar va o'yinlar pedagogikaga kirib keldiki, bulardan albatta samarali foydalanib, darsni tashkil etsak, maqsadli bo'ladi.

Sababi oddiy, hozirda ta'lim muassasalari yangi kompyuter, axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida jihozlanmoqda. Bu pedagoglarni o'z mehnat faoliyatlariga yangicha yondashuvlarini talab etadi. Yangi texnologiyalarning joriy etilishi pedagogni o'quv jarayonida ta'lim vositalari asosida faoliyat doirasining cheklanishiga emas, balki uning vazifalari va rolining o'zgarishiga, pedagogik faoliyatning mukammallashuviga olib keldi.

Eng qiziqarlisi shundaki, yillar o'tishi bilan tilshunoslikda ro'y berishi kuzatilgan yangi atamalarni kirib kelishi hodisasi bugungi kunda juda ham tezlashib ketdi. Birgina kompyuter tushunchasi bilan birgalikda yoki uning qaramog'ida kirib kelayotgan atamalar talaygina bo'lib qoldi: online ta'lim, platforma, kasbiy traektoriya, elektron kutubxona, portal, internet, provayder, disk singari ko'pgina yangi so'zlar shular jumlasidandir. Binobarin, bu atamalar qanchalik tezlikda kirib kelmasin nafaqat pedagoglar, balki har qanday soha vakillari ham bilmog'i, o'rganmog'i va albatta hayotga tadbiq qila olmog'i lozim.

Ta'lim va tarbiya egizak tushunchalar hisoblanadi. Sharqda ta'limni tarbiyadan ayro o'rgatishmagan. Sababi tarbiya jarayoni oiladanoq boshlanadi. Savodxonlik esa, maktabning ilk kunlaridan boshlanadi. Yuqori sinflarga o'tganimiz sari o'qituvchi va o'quvchi mas'uliyati ortib boradi. Endilikda o'quvchi erkin fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qiladigan, sinfdoshlari bilan bahs-munozara qila oladigan darajaga yetib kelishadi.

Dars jarayonida turli ananaviy va yangi metodlarni qo'llash o'z-o'zidan sodir bo'lavermaydi. Buning uchun o'qituvchi puxta tayyorgarlikka ega bo'lishi, o'quvchilarni ham jarayonga tayyorlashi lozim. Natijada dars samaradorligini oshirishga erishish mumkin.

Turli metod orqali darslar tashkil etilganda quyidagi xulosalarga kelish mumkin: dars jarayonida interfaol ta'lim metodlarini qo'llash, ulardan samarali foydalanish dars unumdorligini oshirishga olib keladi. O'quv faoliyatda erishilgan natijalar kelajakni kafolatlaydi. Kafolatlangan dars natijalari amaliyotda o'z tadbiqini amalga oshirish uchun o'qituvchidan yuqori saviyani talab etadi. O'quvchilarda fanga bo'lgan qiziqish ortadi hamda sohani o'rganishlari osonlashadi. Bashqa fanlar bilan aloqa uyg'unlashib, o'quvchilarda hayotga bo'lgan e'tibor o'zgaradi hamda mustaqil fikrlash va aql- zakovatiga tayangan holda qarorlar qabul qilishga erishiladi.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, har bir metodni o'z roli va funksiyasi bor, biroq

bulardan har birimiz qay darajada foydalanmoqdamiz? Ularni asl madsadida ishlatayapmizmi, aniqroq qilib aytganda ularni qoidasi bo'yicha bosqichma –bosqich ishlata olayapmizmi? Yoki har bir o'qituvchi o'z imkoniyat darajasida ishlatayapdimi?

Har bir metod nimaga qaratilganligini bilib olish va uni shu yo'nalishdagina ishlatishda moslashtirish tog'ri bo'ladi. O'qituvchi dars jarayonida o'z metodini tanlab oladi va shu usulda darsni qiziqroq o'tilishini ta'minlaydi.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, davlat va jamiyat talablarini chuqur anglab yetgan har qaysi pedagog, yangiliklarga va islohotlarga doimo tayyor turishi, unda faol ishtirok etishi, ta'lim tizimida yuqori samaradorlikka erishish uchun avvalo, o'z ustida tinimsiz ishlashi, kasbiy mahoratini oshirib borishi, yangi axborot va kompyuter texnologiyalardan xabardor bo'lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. T.: —O'zbekiston, 2017.
2. Muqimov K. Innovatsion fikrlash maktabdan boshlanishi zarur. Ma'rifat, 2017 yil 4- mart.

DEVELOPING SPEAKING LISTENING THINKING WRITING SKILLS THROUGH GAMES

F.U.Nurmamatova, F.A.Djurayeva, X.N.Usanboyeva,
English teachers of 16th school in Sirdarya region
[*djurayevamakt555@gmail.com*](mailto:djurayevamakt555@gmail.com)

Annotation: *before making an experiment we divided the class into two parts. Results have shown that when the lesson is taught with different kinds of games or activities, all of the students try to attend the lesson and listen to the voice of their partners and start speaking. In some way, the students' thinking ability has developed and appeared interested in knowing new vocabulary.*

Key words: *research, innovative technology, logical thinking, professional.*

Аннотация: *перед проведением эксперимента мы разделили класс на две части. Результаты показали, что, когда урок проводится с использованием различных видов игр или занятий, все ученики стараются присутствовать на уроке, слушать голос своих партнеров и начинать говорить. В некотором роде у учащихся развились мыслительные способности, появилась заинтересованность в изучении новой лексики.*

Ключевые слова: *исследование, инновационная технология, логическое мышление, профессионал.*

Understanding the characteristics of young learners is very important. This can influence in many aspects of teaching English to learners. In order to interest in learning process teaching materials and methods can be given to students. Children's characteristics can be distinguished from both biological and social point of view .So, biological character is to do with children's in born characteristics that will grow and develop, while in social point of view sees children the ones who need any help from knowledgeable people to expand their knowledge (Pinter, 2006). Regarded biological, Piaget in Pinter, 2006) explains four states of development that all children will go through i.e. sensory-motor stage (from birth to two years of age), pre-operational stage, (from two to seven years of age), concrete operational stage (from seven to eleven years of age), and formal operational stage (from eleven years onwards). Regarding learning foreign language some experts explain about characteristics of young learners as follows:

Pinter (2006) confirms that young learners have a great curiosity to try new things and to

explore concrete to abstract things. It is in line with Sadler (1974) who stated that children learn from concrete to abstract and also they are naturally curious and develop quickly as individuals. Therefore, teacher should avoid teaching abstract concepts and focus on concrete items that children understand and relate to. In addition to, teacher can use media or realia in delivering the materials in order that the students are able to understand easily. Giving many experiences for young learners in learning language is important to do because as Cameron (2001) said that young learners actively construct meaning from their experiences. Harmer (2001) also explains that young learners get their understanding not only from explanation but also from what they see and hear, learn when they have a chance to touch and interact with (experience it). In this notion, Scott (1990) and Mustafa (2003) state that children in primary or elementary setting generally learn by way of physical activities (learning by doing). They learn through hands-on experiences and through manipulation of objects in the environment. In other words, learning will come from the real experience from the children's life. It is highly suggested for teacher to create interesting, fun, enjoyable and fun lesson for young learners. It is because young learners have a quite short attention span and are easy to get bored (Slattery and Willis, 2001). It is similar to what Harmer (2001) says that unless activities are extremely engaging, they get bored easily, losing interest after ten minutes or so. While Brown (2001) exclaims that children have limit in intellectual development, attention span, and sensory inputs. Scott and Ytreberg (1990) also state that children have a very short attention and concentration span. it means that teachers should be able to maintain children's focus and attention. According to these points in teaching process giving suitable materials to learners will make the learning process meaningfully and successfully. Young learners are active learners and thinkers. Children construct knowledge from actively interacting with the physical environment in developmental stages. On this notion teachers should facilitate their students in having many experiences in order that they can construct knowledge through the experiences. Let them do various activities that enable them to experience many things. Young learners are keen to talk about themselves, and respond well to learning that uses themselves and their own lives as main topics in the classroom and the like (Harmer, 2001). This means that children have a tendency to relate what they are learning to what they are doing by themselves.

They love learning something having relation to their daily life. For this purpose teacher should be able to choose learning material related to their 'world'. Young learners learn best when learning is kept whole, meaningful, interesting and functional (Mustafa, 2002, Brown, 2001). Children should be given opportunity to make their own choices. They will relate these choices with their personal wants and needs so it will make English learning become meaningful. Young learners learn by thinking in term of theme (Shin, 2007). They are able to deal with one thing at a time without much difficulty. Teaching or presenting a lot of things to them at once may cause frustration and failure, both to children and the teachers.

The present research is aimed to experimental research that aimed to investigate the role of playing games during lessons. The experiment was carried with 16 students of fifth grade at school. Actually, there were 16 students, during the experiment we divided into two groups. One of them took part in pre-, and another one took part post. Firstly, with one group of students we learned new theme without games. Then, with one group of students we learned new lessons through games. Comparing these results of students according to their homeworks we can see that teaching with games were effectiveness than simple lessons.

References

1. Brown, H.D, Teaching by Principles: An Interactive Approach to Language Pedagogy, 654

(Addison-Wesley Longman Inc), San Fransisco, 2001

2. Cameron, L, Teaching Language to Young Learners, (Press. Cambridge), Cambridge University, 2001

3. Harmer, J, The Practice of English Language Teaching, (Pearson Education Limited), England, 2001

ТАСВИРИЙ САНЪАТНИНГ ЎҚУВ ЖАРАЁНИДАГИ АСОСИЙ ВАЗИФАЛАРИ

М.И.Азамова, Д.Н.Хазраткулова,

Гулистон шаҳар 11-мактаб тасвирий санъат фани ўқитувчиси,

Гулистон шаҳар 16-мактаб тасвирий санъат фани ўқитувчиси,

azamovamakt111@gmail.ru

Аннотация: умумтаълим мактабларида тасвирий санъат дарсларининг мазмуни, предмети ва вазифалари ҳамда бошқа фанлар билан боғлиқлиги тўғрисида фикр юритилган.

Калим сўзлар: тасвирий санъат, амалий санъат, одоб-ахлоқ, эстетик дид, фанлараро боғлиқлик

Abstract: the content, subject and tasks of visual art classes in general education schools and their connection with other subjects were discussed.

Key words: fine art, applied art, manners, aesthetic taste, interdisciplinarity.

Умумий ўрта таълим мактабларида ҳаддан зиёд болалар қийнаб қўядиган, ортиқча зўриқишга олиб келадиган топшириқлар беришга ҳаракат қилиш тўғри эмас. Мактабларда тасвирий санъатдан бериладиган элементар билим ва малакаларга яраша ўқитиш методларини қўллаш зарур бўлади. Бирок тасвирий санъатдан олий ва ўрта махсус ўқув юртларида қўлланилаётган ўқитиш методларнинг айрим жиҳатларидан фойдаланиш инкор этилмайди. Шунингдек, улардан тўлалигича умумий ўрта таълим мактабларида фойдаланиш ҳам педагогик жиҳатдан тўғри эмас.

Тасвирий санъат ўқув предметининг мақсади ва вазифалари ҳақида тўхталганда яна шуни қайд қилиш лозимки, у мактабда ўқитиладиган деярли барча ўқув предметлари билан боғланади ва улар юзасидан материалларни ўзлаштиришга самарали таъсир кўрсатади. Айниқса, у ўқиш, адабиёт, география, табиатшунослик, биология, тарих, математика, маҳнат дарсларида алоҳида аҳамият касб этади. Тасвирий санъат, ҳаттоки физика, жисмоний тарбия, кимё, мусиқа дарслари учун ҳам фойдалидир. Шуни ҳам қайд қилиш лозимки, тасвирий санъат эстетик тарбияни амалга оширишга қаратилган бўлсада, у ахлоқий, маҳнат, экологик, жисмоний тарбия дарслари самарадорлигини оширишга ҳам хизмат қилади.

Тасвирий санъат ўқув предметининг муҳим вазифаларидан бири, у болаларда кузатувчанликни ўстириш, борлиқни кўра билиш, қолаверса шу орқали хотирани ривожлантириш ҳисобланади. Маълумки, одамзот тевара-атрофдан олаётган ахборотларнинг деярли 90 фоиздан ортигини кўз орқали олади, қолган 10 фоизини кулоқ, бурун, оғиз в.б. орқали ўзлаштиради. Бундан кўриниб турибдики, кишилар фаолиятида кўз ва хотирани ривожлантириш ниҳоятда катта аҳамият касб этади. Бу сифатлар болалар томонидан борлиқни идрок этиш машғулотларида, шунингдек, натурадан тасвирлаш, санъатшунослик асослари машғулотларида алоҳида аҳамиятлидир. Бундай дарсларда ўқувчилар нарсалар ва ҳодисаларнинг тузилиши, шакли, ранги, ўлчовлари, фазовий жойлашуви, ҳаракат гўзаллигини кузатадилар ҳамда уларни ўз хотираларида сақлаб келишга ҳаракат қиладилар. Кузатувчанликни моҳияти шундаки, бунда болалар нарса ва ҳодисалар ҳақида кенг ва чуқур тасаввурга эга бўладилар.

Тасвирий санъат дарсларининг энг муҳим вазифаларидан яна бири тасвирий, амалий ва меъморчилик санъатлари асарларини ўқишга ўргатишдир. Тасвирий санъат асарлари эртақ, хикоя, дoston, роман каби маълум бир мазмунни акс эттиради. Бирок уни китоб ўқигандек ўқиб бўлмайди. Тасвирий санъат асарларини ўзига хос тили бор. Уларни билган кишиларгина ўқий оладилар. Хусусан рассомлар чизиклар, ранглар, ўлчовлар, композиция, пропорция, ритм, симметрия шакл каби

ифодалилик воситалари ёрдамида асар мазмунини очиб берадилар. Бу борада шуни алоҳида қайд қилиш лозимки, санъат асарлари, айниқса, тарихий, турмуш жанридаги асарлар, айрим халқ ва мамлакатлар ҳақида тўла-тўқис ва кенг қамровли маълумотларни ўз ичига олади. Буларни ўқий олган шахсларгина асарларда илгари сурилган ғояларни, тасвирланган мазмунни чуқур идрок эта оладилар. Шунинг улар асарнинг бадий қийматини аниқлай оладилар ва унга тегишли баҳони ҳам бера оладилар. Шу билан бир қаторда асарлардаги гўзаллик, ўтаринкилик, қаҳрамонлик каби сифатлардан мамнунлик ва завқланиш ҳосил қиладилар.

Айниқса, тасвирий санъат дарслари ёшларда миллий гурур ва миллий истиклол мафкурасини шакллантиришда, ватанпарварлик ва байналминал тарбияда, дўстлик ва ўзаро ёрдам ғояларини ташкил топтиришда катта кучга эга. Мактаб тасвирий санъат дастурига назар солар эканмиз унда Ватанимизнинг буюк ўтмиши, ватандошларимизнинг мустақиллик учун олиб борган курашлари, Ўзбекистоннинг нафосатга тўла табиати, халқлар дўстлиги ғояларни ифода этувчи тасвирий санъат асарлари билан тўлиб тошганлигини шохиди бўламиз. Шунини билиш лозимки, бадий маданият асосларидан ҳисобланган тасвирий санъат, бу болаларнинг кўнгил очувчи ўқув предмети эмас, балки болаларга ижодкорликни, тафаккурни бадий-эстетик дидни, фаҳм-фаросатни ўстирувчи, шунингдек кузатувчанлик ва ҳаётни билишга, уни ўзгартиришга, эзгуликни ёвузликдан фарқлашга ўргатувчи ўқув предметиدير.

Ҳар қандай ўқув предмети таълим мазмунида, албатта, ўзбек халқи яратган бекиёс бой, маданий ва маънавий меъросни ўзига асос қилиб олиши лозим. Шундай экан, ўзбек халқининг дунёга машҳур бўлган меъморчилик, амалий ва тасвирий санъат асарларини мактабларда бошқа материалларга қараганда кенгрок ва чуқуррок ўргатилиши талаб этилади.

Миллий санъатимиз бизнинг фахримиз, уни биз кенг ўрганишимиз табиий ҳолдир. Лекин, жаҳонда ҳамма халқлар томонидан тан олинган умуминсоний бадий қадриятлар ҳам мавжуд. Уларни ўқувчиларга ўргатмасдан туриб, халқимиз жаҳон маданиятида ўз ўрнини топа олмайди.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Тасвирий санъат. Умумий ўрта таълимнинг давлат таълим стандарти ва ўқув дастури. Т.: “Шарк”, 1999 й.
2. Р.Ҳасанов. Тасвирий санъат асослари. Т.: 2009 й.
3. Б.Н.Орипов. Тасвирий санъат ва уни ўқитиш методикаси. “ИЛМ ЗИЁ” Т.: 2016 й.

FAZOVIIY JISMLAR KOMBINATSIYASINING EKSTREMAL QIYMATLARINI ANIQLASHDA HOSILADAN FOYDALANISH

Abdukadirova Shalola Xurram qizi

Sirdaryo tumanidagi 14-umumta’lim maktabining matematika fani o’qituvchisi

Har bir o’qituvchi mutaxassis sifatida o’z fanini ilmiy va nazariy jihatdan chuqur o’zlashtirgan, pedagogik-psixologik hamda metodik bilim ko’nikma va malakalarni egallagan, ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga imkon beradigan zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan xabardor, ularni ta’lim jarayoniga qo’llay olish malakalariga ega bo’lishi lozim. Shu bois, vatanimizning buyuk kelajagini yaratuvchi barkamol avlodni, yangi zamon, yangi jamiyat kishisini tarbiyalashdek o’ta mashaqqatli va ayni zamonda sharaflı ish shu kunning eng muhim vazifalaridan biri bo’lib qoldi. Uni amalga oshirish fidoyi o’qituvchilar zimmasiga yuklanadi.

Shunday ekan maktabda geometriya kursni o’rganish jarayonida o’qituvchi o’quvchilarni zo’riqtirmasligi, ya’ni geometriyani o’rganishdan zada bo’lib qolishini oldini olishi lozim. Buning uchun esa mavzularning sonini bir oz bo’lsada kamaytirish, eng zarur deb hisoblangan tushunchalarni o’qitish, quyi sinflarda o’rganilgan tushunchalar keyingi sinflarda aynan takrorlanmasligi lozim.

Ma’lumki, geometriya moddiy dunyoning obyektlarini o’rganadi. Lekin boshqa fanlardan farqli o’laroq, unda miqdoriy munosabatlar va fazoviy shakllar asosiy obyekt sifatida qaraladi. Geometriya o’sib kelayotgan yosh avlodni kamol toptirishda o’quv fani sifatida keng imkoniyatlarga ega. U o’quvchi tafakkurini rivojlantirib, ularning aqlini peshlaydi, uni tartibga soladi, o’quvchilarda maqsadga yo’nalganlik, mantiqiy

fikrlash, topqiriik xislatlarini shakllantira boradi. Shu bilan bir qatorda teoremlarni isbotlash jarayoni va mulohazalarning to'g'ri, go'zal tuzilganligi, simmetriya tushunchasining shakllanishi bilan o'quvchilarni didli, go'zallikka ehtiyojli qilib tarbiyalab boradi.

Geometriya darslarida o'quvchilarni mantiqiy fikrlashga o'rgatish asosan teoremlarni isbotlash orqali amalga oshiriladi va bu teoremlar nazariy asos sifatida masalalar yechishga tatbiq etiladi. Shuning uchun o'qituvchi darslikdagi mavzular matnida isboti keltirilgan teoremlar va ularning isbotlanish metodlariga nisbatan o'quvchilarda qiziqish va ishtiyoqni hosil qila olishi lozim. O'quvchida bunday ishtiyoqni uyg'ota olish uchun esa o'qituvchidan izlanish va o'rganish talab qiladi.

Fazoviy jismlar kombinatsiyasi mavzusi umumta'lim maktablari, akademik litseylarda yetarlicha o'rganilmagan. Akademik litsey dasturida 2 soat miqdorida ajratilgan. Bu esa o'quvchilar ongida fazoviy jismlar kombinatsiyasini o'rganish va unga doir masalalarni yechish ko'nikmasini kam shakllantiradi. Biz ushbu maqolada aylanish jismlarining kombinatsiyalari, hosila yordamida jismlar kombinatsiyasini ekstremumga tekshirish haqidagi ma'lumotlar batafsil qaraymiz.

Stereometriyada jismlar deb ataluvchi fazodagi figuralar o'rganiladi. Geometrik jismni fazoning tabiiy jism bilan band qilingan va tekislik bilan chegaralangan qismi sifatida yaqqol tasavvur qilish kerak.

Matematik analiz kursida hosila yordamida funksiyaning ekstremumlarini topish masalasi o'rganiladi. Biz geometrik masalalarning ekstremal qiymatlarini aniqlash masalasi bilan shug'ullanamiz. Bu esa fanlarning o'zaro aloqadorligini ko'rsatadi. Masalaning berilishiga qarab Geometrik shaklning birorta o'lchamini o'zgaruvchi funksiya sifatida qarab, uning ekstremal qiymatini aniqlaymiz. Quyida beriladigan masalalar yordamida buni yoritamiz.

1 – masala. Radiusi R ga teng bo'lgan sferaga ichki chizilgan eng katta hajmli silindrning hajmini toping.

Yechilishi: Radiusi R ga teng bo'lgan silindrning balandligi H va asosining radiusi r bo'lsin deylik. Bunga ko'ra

$$(H/2)^2 + r^2 = R^2, r^2 = R^2 - \frac{H^2}{4}$$

kelib chiqadi. Silindrning hajmini aniqlaymiz,

$$V = \pi r^2 H = \pi \left(R^2 - \frac{H^2}{4} \right) H = \pi \left(R^2 H - \frac{H^3}{4} \right)$$

Masala shartiga ko'ra R berilgan shuning uchun V ni H ning funksiyasi sifatida qarab, V dan H ozgaruvchi bo'yicha hosila olamiz,

$$V' = \pi \left(R^2 - \frac{3H^2}{4} \right)$$

Ekstrmal qiymatni aniqlaymiz,

$$R^2 - \frac{3H^2}{4} = 0 \Rightarrow H = \frac{2R}{\sqrt{3}}$$

Bundan esa

$$V_{max} = \frac{4\pi R^3}{3\sqrt{3}}$$

ekanligi kelib chiqadi.

$$\text{Javob. } V_{max} = \frac{4\pi R^3}{3\sqrt{3}}.$$

2 – masala. R radiusli yarim sharga asosining markazi bilan ustma-ust tushadigan konus tashqi chizilgan. Konusning balandligi qanday bo'lganda uning hajmi eng kichik bo'ladi.

Yechilishi: Masala shartiga ko'ra chizmani chizamiz,

Konusning va sharning markazi bir nuqtada joylashgan. Konusning balandligini H va radiusini R1 deb olamiz. ABC va ACD uchburchaklarning o'xshashligidan

$$\frac{AB}{AD} = \frac{BC}{AC} \Rightarrow \frac{R_1}{R} = \frac{\sqrt{R_1^2 + H^2}}{H} \Rightarrow R_1^2 = \frac{R^2 \cdot H^2}{H^2 - R^2}.$$

Konusning hajmini aniqlaymiz.

$$V = \frac{1}{3}\pi R_1^2 H = \frac{1}{3}\pi \frac{R^2 H^3}{H^2 - R^2}$$

V ni H ning funksiyasi sifatida qarab,

$$H = \sqrt{3}R$$

ni aniqlaymiz.

$$\text{Javob. } H = \sqrt{3}R.$$

3 – masala. Radiusi R ga teng bo'lgan shar ichiga chizilgan eng kata hajmli konusning balandligini toping.

Yechilishi: Ichki chizilgan konusning balandligi H va asosining radiusi r bo'lsin, u holda

$$R^2 = (H - R)^2 + r^2 \Rightarrow r^2 = 2HR - H^2$$

Konusning hajmini aniqlaymiz,

$$V = \frac{1}{3}\pi r^2 H = \frac{1}{3}\pi(2RH^2 - H^3).$$

V ni H ning funksiyasi sifatida qaraymiz va ekstremumni aniqlaymiz. $H = \frac{4}{3}R$.

$$\text{Javob. } H = \frac{4}{3}R.$$

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, geometriya materiallarini o'rganish jarayonida o'quvchilarda ziyraklik, diqqati rivojlanadi. Ular geometrik shakllarni tasniflash, tabaqalashtirish, taqqoslashga o'rganadilar. O'quvchilarda analiz va sintez qilish, umumlashtirishga oid mantiqiy tafakkurlash qobiliyati rivojlanadi, aqliy faoliyati shakllanadi. O'quvchilarning nutqi maxsus geometrik atamalar, ifodalar bilan boyiydi va lug'atlari faollashadi. O'lchash malakalarini egallash orqali ularda mustaqillik va ishonch rivojlantiriladi. Ushbu maqolada o'quvchilarni geometrik tasavvurlarini kengaytirish, fazoviy jismlar kombinasiyasiga oid masalalar yechishga hosilani zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanib qo'llash masalasi qaraldi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Azamov A., Tilavov A. Chin qiziqarli matematika, I, II, III qismlar, Toshkent, "Tafakkur" nashriyoti, 2019- yil.
2. Alixonov S. Matematika o'qitish metodikasi. Darslik. Cho'lpon, Toshkent 2011.
3. Tojiyev M., Barakayev M., Xurramov A. Matematika o'qitish metodikasi (o'quv qo'llanma, 1-qism). – T.: T.: «Fan va texnologiya», 2017.
4. Tolagenov B. Matematikadan praktikum. T. "O'qituvchi" 1993 y.

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA IZLANUVCHANLIK QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH

O'sarova Muqaddas Rahmonberdiyevna

Guliston shahar 10 maktab o'qituvchisi

Ta'limning asosiy roli o'quvchilarni jamiyatda muvaffaqiyatga erishishlari uchun zarur bo'lgan kompetensiyalar bilan ta'minlashdan iborat. Izlanuvchanlik qobiliyatini rivojlantirish bugungi yoshlarning rivojlanishlari uchun kerakli kompetensiya hisoblanadi. Bu ularga globallashtirish sharoitida jadallik bilan o'zgarib borayotgan, savodxonlik va raqamlash ilgari surilgan hamda "21-asr" ko'nikmalariga ega moslashuvchan ishchilarni talab qiladigan dunyoga moslashishga yordam beradi. Izlanuvchanlik qobiliyatini o'rgatish bugungi kun o'quvchilari va yoshlariga dolzarb muammolarni yechish uchun yangi texnologiyalardan foydalangan holda hali yaratib ulgurilmagan sektorlarda yoki vazifalarda ishlash, shu bilan birga mashinalar bajara olmaydigan ishlarni osonlikcha amalga oshira olish hamda murakkab mahalliy va global muammolarning yechimini topish qobiliyatlarini rivojlantirishga imkon beradi.

Boshlang'ich maktabda o'qiyotgan bola uchun izlanuvchanlik, shaxsiy yutuqlari – o'qishda, sportda bolalar orasidagi nufuzi va obro'si katta ahamiyat kasb eta boradi. Eng muhimi, aynan bu davr axloqiy me'yorlarning ma'nosini tushunish, axloqiy qadriyatlarni o'zlashtirish va ma'naviy tasavvurlarning shakllanishi uchun uta sezgir va qulay hisoblanadi. Shuning uchun ham kattalarga hurmat, kichiklarni

e'zozlash, ota-onaga ehtirom ko'rsatish, Vatanni sevish, shaxsiy va ijtimoiy mulkka tug'ri munosabatli hislari tarbiyalanadi. Bola jazo bilan rag'batlantirish o'rtasidagi farqni ajrata boshlaydi va nima qilib bo'lsa ham jazolanmasdan, ko'pchilikning nazaridan qolmaslikka harakat qiladi. Shu bois ham oilada va ta'lim maskanida bolaning axloqiy va ma'naviy tarbiyasi uchun yaratilgan yaxshi shart-sharoit ayni bu davrda o'zining sezilarli samarasini beradi. Maktablarda ham o'quvchilarning izlanuvchanlik qobiliyatini rivojlantirishning ahamiyati mehnat bozori talabiga ko'ra ortib bormoqda. Maktablar o'quvchilarni o'z qobiliyatlarini kashf etishlariga, rivojlantirishlariga va aniqlashlariga shu bilan bir qatorda, izlanuvchanlik qobiliyatini namoyon etishlarida muhim o'rin tutadi. Maktablar o'quvchilarni o'zlari yashayotgan jamiyatning ajralmas qismi ekanligini va jamiyatning rivoji uchun o'zlarining muhim hissalarini qo'shishlari mumkinligi va buni his etishlarida katta ahamiyat kasb etadi. O'quvchining tasavvuri va qiziquvchanligi o'rganish jarayonini tezlashtirishi mumkin, bunda izlanuvchanlik qobiliyatini rivojlantirish esa tushunishga va o'zlarining oldiga o'rganishdan qo'yilgan maqsad uchun vosita bo'lib xizmat qiladi. O'quvchining maktabdagi o'rganishga bo'lgan qiziqishi va rag'batini oshirish uchun barcha o'quvchilarning ijodkorlikka oid imkoniyatlarini hamda qirralarini ochib bera oladigan yangi uslubdagi o'rganish shakllari rivojlantirilishi lozim. Bunday rivojlanish uslublari maktabda ta'lim olishga qiziqishlari sust bo'lgan o'quvchilarga yordam berib, ularga o'z fikrlarini ifodalash va oldiga qo'ygan maqsadlariga erishishga imkon beradi. Boshqa qobiliyatlar kabi izlanuvchanlik qobiliyatini rivojlantirish qobiliyati amaliy va maqsadli yondashuvlar orqali rivojlantirilishi mumkin. Ayrim o'qituvchilar uchun o'quvchilarning izlanuvchanlik qobiliyatini rivojlantirish ularni o'quv dasturida ko'rsatilgan fanlardan tashqari boshqa faoliyat turiga yo'naltirish bo'lib ko'rinishi mumkin. Aslida, o'quvchilar barcha fanlar kesimida kreativ fikrlay olishlari kerak. Izlanuvchanlik qobiliyatini rivojlantirish yodlatish usuli orqali o'qitishdan ko'ra o'quvchilarning izlanish va kashf qilish qobiliyatlarini rag'batlantiradigan yondashuvlar orqali asosiy bilimni egallashga undash bilangina rivojlantiriladi. O'qituvchilar izlanuvchanlik qobiliyatini rivojlantirish qanday aniqlanishini, uni yuzaga keltiradigan vaziyatlarni hamda o'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishning eng samarali usullari nimalardan iborat ekanini tushunishlari kerak. Boshlang'ich sinf o'quvchisining hayoli o'z o'quv faoliyatining ta'siri, talabi, imkoniyat va shart-sharoitlari orqali tarkib topadi. Bolaning hayoli tavarak - atrof taassurotlari, dunyo ajoyibotlari, ko'rsatmalilik, tasviriy san'at asarlarini yetarli darajada aks ettirish bilan vujudga keladi. Ta'lim jarayonida bolalarning yorqin, aniq, tiniq, yaqqol tasavvur obrazlari hayol yordamida muayyan voqelikka aylanadi. O'rganilayotgan Fan materiallari eshitilgan va o'qilgan badiiy asarlardagi obrazlar tartibga solinadi, yaxlit bir butunlikdan iborat umumlashgan obrazlar tizimi yaratiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari hayolning xususiyatlaridan yana bir hayotiy voqelik bilan fantaziyaning o'zaro aralashib ketishidir. O'quvchilar xayolparastlikka, fantasiyaga berilishining oldini olishga pedagoglar, umuman kattalar doimo ahamiyat berishlari kerak.

Boshlang'ich sinf o'quvchisining izlanuvchanlik qobiliyatini rivojlantirish uchun dars mashg'ulotlari davomida turli hil zamonaviy metodlar, tezkor savol javoblar, guruhlariga bo'lingan holda hamkorlikda ishlash texnologiyasi, didaktik o'yinlar, innovatsiyon texnologiyalarni qollagan holda tashkil etilsa biz kutgan samarali natijalarni beradi.

Interfaollik asosida o'tgan darsni tashkil etish shunday kechadiki, bu jarayonda birorta ham o'quvchi chetda qolmaydi, ya'ni ular ko'rgan, bilgan, o'ylagan fikrlarini ochiq – oydin bildirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. O'quvchilarning har bir bildirgan fikrlari, u to'g'ri yoki noto'g'ri bo'lishidan qat'iy nazar, tanqid qilinmaydi. O'quvchilar hamkorlik, hamijodkorlikda ishlashda mavzu mazmunini bilish va o'zlashtirishda o'zlarining shaxsiy xissalarini qo'shish imkoniyatiga ega bo'ladilar. O'zaro bilimlar, g'oyalar, fikrlarni almashish jarayoni sodir bo'ladi. Bunday holatlar o'zaro samimiylilikni ta'minlaydi, yangi bilimlarni olish, o'zlashtirishga havas ortadi.

Dars jarayonida bir – birlarini qo'llab – quvvatlash, o'zaro samimiy, do'stona munosabatlar vujudga keladi. Bu muhitni yaratilishi juda katta tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Boshlang'ich sinf o'quvchisining izlanuvchanlik qobiliyatini rivojlantirish uchun, o'quv jarayonida o'quvchining o'zi o'ziga baho berishi, tanqidiy qarashi rivojlanadi. O'quvchi uchun dars qiziqarli o'qitilayotgan predmet mazmuniga aylanadi. O'qish jarayoniga ijodiy yondashuv, izlanuvchanlik, ijobiy fikr namoyon bo'ladi. Har bir o'quvchining o'zi mustaqil fikr yurita olishiga, izlanishga, mushohada qilishga olib keladi. Interfaol usulda o'tilgan darslarda o'quvchi faqat ta'lim mazmunini o'zlashtiribgina qolmay, balki

o'zining tanqidiy va mantiqiy fikrlarini ham rivojlantiradi. Bunday sharoitda o'qituvchi yuksak rivojlangan fikrlash qobiliyatiga, muammolar bo'yicha chuqur mushohoda yuritishga, muammolarni o'z vaqtida echa oladigan qobiliyatga ega bo'lishi kerak. Interfaol metodlarda darsni tashkil etishda o'quvchi shaxsini rivojlantirish o'zi – o'ziga zamin yaratishdan boshlanishi kerak. O'zi mustaqil mutoala qilishi, o'qishi asosida bilim olishi;

- ✓ O'zini -o'zi anglab etishga, anglab tarbiya topishga;
- ✓ O'z kuchi va imkoniyatlariga ishonch bilan qarashga;
- ✓ O'quv mehnatiga mas'uliyat xissi bilan qarashga;
- ✓ O'z faoliyatini mustaqil tashkil eta olishi, har bir daqiqani g'animat bilishga;
- ✓ O'quv mehnatiga o'zida hoxish, istak uyg'ota olishga;
- ✓ Har qanday vaziyatda faollik ko'rsata olishga;

Ayniqsa, hozirgi tezkor axborot manbalaridan unumli foydalana olishni asosiy va bosh maqsad qilib olishga o'rganmog'i zarur. Shuning uchun ham hozirgi kunda o'quvchining o'zini – o'zi rivojlantirish texnologiyasini yaratish pedagogika, didaktika fani oldida echimini kutayotgan dolzarb muammolardandir.

Xulosa qilib, boshlang'ich sinf o'quvchilariga ta'lim va tarbiya berish jarayonining har bir nuqtasida har bir bolaning individual xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ularning har birining yuragiga ijodkorlik bilan mohirona yo'l topa olishi lozim. Vaholanki bola shaxsiga ta'limiy va tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishning samarali yo'llarini axtarish, qidirib topish va bu borada ilmiy tatqiqot ishlarini olib borish pedagogika fanining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi

Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati

1. A.Abduqodirov, R.Ishmuhammedov, "Ta'limda innovatsiya" T.; Istedod 2010 y
2. Xalqaro tadqiqotlarda o'quvchilarning kreativ fikrlashini baholas, "Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazining matbaa bo'limi"-2021 y.
3. Davletshin M.G. va boshq. Qobiliyat va uning diagnostikasi. T.: O'qituvchi , 1997. - 134 b.

BOSHLANG'ICH SINF DARSLARIDA ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH METODIKASI

Mamatqulova Tursunoy Burxanovna, M.E.Umurova, L.A. Xudoyarova

Sardoba tumani 12-maktab boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi,

Guliston shahar 2-IDUM boshlang'ich sinf o'qituvchilari

mamatqulovaturunoyl@gmail.com

Annotasiya: Ushbu maqolada umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinf darslarida zamonaviy axborot texnologiyalari foydalanish afzalliklari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Boshlang'ich ta'lim, axborot texnologiyalari, kompyuter, dars.

Anotation: This article discusses the benefits of using modern information technology in elementary school.

Keywords: Primary education, information technology, computer, course.

Hozirgi davr o'qituvchi va o'quvchi oldiga katta talablar qo'yimoqda, bu talablarning eng asosiysi - darsning sifatli, uning samaradorligi, o'quvchilarning bilim va ko'nikmalariga, maktablardagi turli xil o'quv mashg'ulotlari, ularni tashkil qilinishi va u orqali o'quvchilarni turli bilim va ko'nikmalarni egallab olishidir. Bugungi kunda ta'lim jarayonini sifatli, to'g'ri va samarali tashkil qilishda innovatsion texnologiyalar, texnik vositalarning, jumladan, zamonaviy kompyuterlarning o'rni beqiyosdir. Dars mavzusiga oid multimediya, animatsiya, grafika, diafilm va videofilmlardan foydalanish dars jarayonini yana-da qiziqarli bo'lishga ko'mak beradi, buning uchun esa o'qituvchi uzluksiz ravishda o'z ustida ishlashi va har bir darsga «men bugungi darsni qanday tashkil etaman, darsning yangiligi va qiziqarliligi nimada bo'ladi?» deya o'ziga savol berishi ya'ni, an'anaviy ta'limdan qochib, no'an'anaviy ta'lim berishga intilishi lozim.

Ma'lumki, ta'lim bu o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro hamkorligidagi faoliyat turi bo'lib, dars orqali o'qituvchi o'z bilimi, ko'nikma va malakalarini mashg'ulotlar vositasida o'quvchilarga yetkazadi, o'quvchilar esa uni o'zlashtirib olishi natijasida undan foydalanish kompetensiyalariga ega bo'ladi. Yangi

bilimlarni o'rganish jarayonida esa o'quvchilar o'zlashtirishning turli ko'rinishlaridan foydalanishlari tabiiy hol masalan, ma'lumotlarni qabul qilish, ularni qayta ishlash hamda amaliyotga tatbiq etish kabi jarayonlarda amalga oshadi.

Hozirgi kunda umumta'lim maktablarida zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini takomillashtirish, ta'lim jarayonida zamonaviy texnologiyalar imkoniyatlaridan to'laqonli foydalanish eng muhim ko'rsatkichlaridan biri ekanligi yetuk pedagog olimlar tomonidan e'tirof etilganligi xech kimga sir emas. Jumladan, U.Sh.Begimqulov ta'lim jarayonida hozirgi zamon talablariga javob bera oladigan kompyuter axborot muhitini yaratish hamda ta'lim jarayonida multimedia, o'qitishda imitatsiya, zarur axborotlarni kompyuter texnikasi yordamida kiritish, tizimlashtirish, saqlash va foydalanish uchun tavsiya qilinadigan ma'lumotlar bazasini yaratishni taklif etadi.

Mamlakatimizdagi deyarli barcha umumta'lim maktablari zamonaviy kompyuter va telekommunikatsiya texnologiyalari bilan jihozlangan. Bu esa, o'z navbatida, boshlang'ich sinf o'qituvchilarning o'z mehnat faoliyatlariga yangicha yondashuvlarini talab etadi. Boshlang'ich sinf darslari o'quv jarayoniga yangi texnologiyalarni joriy etilishi, o'qituvchini texnik vositalar tomonidan siqib chiqishiga emas, balki yangicha yondashuv orqali uning vazifasi va rolini o'zgartirib, o'qituvchilik faoliyatini yana-da serqirra, ijodiy va kreativ yondashuvga asoslangan kasbga aylantiradi.

Zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida dars jarayonini tashkil etishda o'qituvchi dastlab: darsning maqsadi, maqsadga erishish yo'llari, o'quv materiallarini taqdim etish usullari, o'qitish metodlari, o'quv topshiriqlarining turlari, muhokamalar uchun savollar, munozara va bahslarni tashkil etish yo'llari, o'zaro aloqa usullari va kommunikatsiya singari omillarni aniqlab olishi lozim bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tolipov U.K., Sharipov Sh.S. O'quvchi shaxsi ijodkorlik faoliyatini rivojlantirishning pedagogik asoslari. – T., Fan, 2012
2. Yo'ldashev J. G., Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish. – T: Fan va texnologiya, 2008.

FANINI O'QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI

Musurmonqulov Javohir Ortiqboy o'g'li

Sardoba tumani 12-sonli umumta'lim maktabi geografiya fani o'qituvchisi

musurmoqulovjavohir12@gmail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada geografiya fanini o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish, uning ahamiyatlari va ayrim metodlardan namunalari berilgan.

Kalit so'zlar: innovatsiya, innovatsion texnologiya, pedagogik texnologiya, ta'lim tizimi, ta'lim jarayoni.

Аннотация: В данной статье представлено использование инновационных технологий в обучении географии, ее актуальность и примеры некоторых методик.

Ключевые слова: инновация, инновационная технология, педагогическая технология, система образования, образовательный процесс.

Annotation: in this article, the use of innovative technologies in the teaching of geography science, its importance and examples from some techniques are given.

Keywords: innovation, innovative technology, pedagogical technology, educational system, educational process.

Bugungi kunda maktab va oliy ta'lim tizimidagi an'anaviy va ommaviy ko'rinishdagi ta'lim va tarbiya jarayonlari o'rniga ta'lim muassasalari rivojlanishida o'ziga xos yangilik bo'lib innovatsion jarayonlar kirib kelmoqda. Fanni va innovatsiyani kelajakda rivojlantirish strategiyasida "innovatsion insonni" yaratish, ya'ni ishlashidan qat'iy nazar u innovatsiya va yangi bilimlarga moyil bo'lishi kerak. Bugungi kunda zamonaviy innovatsion yaroqlilik yuzaga kelmoqda.

Hozirgi kunda mamlakatimizda kundan-kunga ta'lim sohasida ko'plab yangiliklar bo'lmoqda. Geografiya

darslarida o'quvchilarni bilim, ko'nikma, malakalarini shakllantirishda interfaol metodlari alohida o'rin tutadi. Interfaol mashg'ulot turlari ko'p bo'lib, ularni dars mavzusining xususiyatlari hamda ko'zda tutilgan maqsadlarga muvofiq tanlanadi va tegishliga tayyorgarlik ko'riladi. Interfaol mashg'ulotda ishtirok etish uchun o'quvchilarning tayyorliklariga o'ziga xos talablar qo'yiladi, bular mashg'ulotda faol ishtirok etish uchun zarur bilimlarni o'zlashtirganlik, muloqotga tayyorlik, o'zaro hamkorlikda ishlash, mustaqil fikrlash, o'z fikrini erkin bayon qilish va himoya qila olish ko'nikmalari va boshqalardan iborat.

Ta'lim jarayonida qo'llaniladigan usullar o'qituvchi va o'quvchi hamkorligida muayyan ta'lim tarbiya maqsadlarini, o'quv vazifalarini hal qilishga qaratilgan faoliyatni ta'minlovchi omillar tizimi deb qaralishi lozim. Shuning uchun ham ta'lim usullari o'quvchilar bilish faoliyati bosqichi bilan bevosita bog'langan bo'lib, ularni jadallashtirish, faollashtirishga xizmat qiladi va ko'zda tutilgan natijaga erishuvga xizmat qiladi.

Umumta'lim maktablari yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish borasida katta imkoniyatlarga ega. Mazkur imkoniyatlarni anglay olish, pedagogik texnologiyaga nisbatan bir oz ijodiy va texnologik yondashish mashg'ulotlarning qiziqarli bo'lishini ta'minlash bilan birga o'quvchilar tomonidan har bir mavzu bo'yicha bilimlarning puxta egallanishi uchun zamin yaratadi. Texnologik yondashuv asosida pedagogik faoliyatni tashkil etish individual va ijodiy xususiyatga ega. Shu bois ta'lim va tarbiya jarayonini yo'lga qo'yishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish har bir pedagogning shaxsiy imkoniyatlari, kasbiy mahorati hamda ijodkorlik layoqati darajasiga bog'liq.

O'quvchilarning geografik bilimlarni o'rganish jarayonidagi mantiqiy mulohazalari va mustaqil tafakkuri darsni o'qituvchi tomonidan tashkil ettirilishiga bog'liq. O'qituvchi o'quvchilardan murakkab masalalarni hal etishni talab etsa, o'quvchilar o'sha murakkab masalalarni bilishga intiladilar. Avvalo o'qituvchi o'quvchilar o'rganadigan bilimlarning mazmunini tahlil qilib, o'quv ishlaridagi usullarni aniqlaydi. Shundan keyin o'quvchilar fikrini qaysi vositalar bilan rivojlantirish mumkinligini bilib oladi. Geografik ko'nikma va malakalarni shakllantirish metodikasi bilim egallash, ko'nikma va malakani shakllanishlari bilan chambarchas bog'liq.

Geografiya ta'limi jarayonida foydalanilayotgan har qanday metod o'quvchilarni geografik bilimlar bilan qurollantirishga xizmat qiladi. Bunda o'quvchilarning bilish imkoniyatlari, ular amalga oshiradigan faoliyatning murakkablik darajasi, vaqt omili va geografiya xonasida zarur bilim manbalarining bor-yo'qligi metod turini aniqlab beradi. Shuning uchun ham o'qitish metodini tanlaganda o'quvchilarning bilish qobiliyatlarini hisobga olish tamoyili. Bunda o'quv mavzusining murakkabligi, sinf nazariy bilimlar xajmi, sinf o'quvchilari bilim darajasi, o'quvchilarning mustaqil ishlarni bajara olish qobiliyati kabilarga e'tibor beriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M.T.Mirakmalov, M.M.Avezov, E.Y.Nazaraliyeva. Tabiiy geografiyadan amaliy mashg'ulotlar. T: "Fan va texnologiya" nashriyoti. 2015
2. Ziyomuxammedov B.g. Abdullaeva Sh. Ilgor pedagogik texnologiya. T., Abu Ali ibn Sino, 2001.

JISMONIY TARBIYA DARSIDA O'QITUVCHISINING O'RNI

Ibragimov Sherzod Xujabekovich

Sardoba tuman 12-maktab jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi

ibragimovsherzod12@mail.ru

Annotatsiya: O'quvchilarni sport turlariga qiziqishini shakllanish uchun maqsad va vazifalarni to'g'ri qo'yish katta ahamiyatga ega. Bunda amaliy mashg'ulot o'qituvchisining so'zlaridan olinadigan bilim va amaliy ko'nikmalarining muhimligini va kerakligini o'quvchi his etishi kerak.

Kalit so'zlar: sport, musobaqa, usul, diqqat, mashg'ulot.

Abstract: It is very important to set goals and tasks correctly for the formation of students' interest in sports. In this case, the student should feel the importance and need of the knowledge and practical skills obtained from the words of the practical training teacher.

Key words: sport, competition, method, attention, training

Amaliy mashg'ulot o'qituvchisi o'quvchilardagi bilim, malaka va ko'nikma tayangan holda

tushunarli, ishonchli shaklda yangi materiallarni bayon etib, o'quv materiallarining usul va harakatlarini elementlar bo'yicha yoki to'raligicha aniq, tartibli ko'rsatish orqali tushuntiradi.

Amaliy mashg'ulot o'qituvchisi tomonidan safda bajarilgan gimnastik usul va boshqa amaliy harakatlarni namunali tarzda ko'rsatish ta'limning eng samarali usuli sifatida o'zini oqlagan. Amaliy harakatlarni o'rganishda odatda quyidagi tartib qo'llaniladi:

➤ O'rganilayotgan usul va harakatlarni qoida va tartiblarini bajarilishini tushuntirish bilan bir vaqtning o'zida ta'lim oluvchining erishishi kerak bo'lgan harakat me'yorlarini mashg'ulot o'qituvchisi tomonidan namuna ko'rsatilishi;

➤ Bajarilayotgan mashq va harakatlarni elementlarga bo'lib, ularni sekinlashtirilgan holda ko'rsatish;

➤ Ta'lim oluvchilarga ko'rsatilayotgan gimnastik mashq va harakat elementlarini, avval sekin, so'ng me'yordagi tezlikda bajartirib ularni anglab olishlariga imkon yaratish va mashq sinovlariga o'tish.

➤ Alohida elementlarni umumiy harakatga sekin-asta qo'shish va ko'nikma hosil qilish maqsadida ko'p marta takrorlash va berilgan me'yorgacha yetkazish.

Ta'lim berilishining boshlanishida ko'nikma haqida to'g'ri tasavvur yaratilmasdan turib, to'g'ri ko'nikma hosil qilib bo'lmaydi.

Amaliy mashg'ulot o'qituvchisi tomonidan namunali gimnastik harakatni ko'rsatilishi-bu o'quvchini intilishi kerak bo'lgan namuna bo'lib hisoblanadi. Bayon etishni o'quvchiga yanada tanish va yanada aniq bo'lgan materiallardan, asta-sekin uni murakkablashtirib, mavxum tushunchalarga o'tgan holda boshlash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Mashqlarni soddadan murakkabga, xususiyan umumiyga (individual uslub) yoki aksincha, avval hodisa tushunchasini berib, so'ng esa uni asoslab, sabab va natijalar bilan bog'liqligini ochib tushuntirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Amaliyotda ikki usulni bir mashg'ulotda, ya'ni o'quv materialini qismlarga bo'lib, birini induksiya usulidan foydalangan holda muvoffaqiyatli olib borish, boshqasini esadeduktiv uslubni qo'llagan holda tatbiq qilish mumkin.

O'quv materialini qismlarga bo'lib bayon etib, avval bayon etilgan materiallarni aytilayotgan qoidalar bilan bog'lanishi, fanning ichki va fanlararo bog'liqliklarni hisobga olgan holda keyingi o'quv materialining qismiga asos bo'lib xizmat qilishi uchun uning tuzilishidagi mantiqiylikka qaratish lozim.

Ko'rsatilgan gimnastik elementlarni yoki materiallarni o'quvchilar to'la o'zlashtirishlari uchun ba'zi bir qoidalarga og'ishmay amal qilish zaruriy shartlardan hisoblanib bular quyidagilardan iborat:

- umumiy va ortiqcha fikrlashlardan qochish, fikrni aniq va lo'nda ifoda etish;
- materialni tartib bilan bayon etganda, ularni alohida elementlarga bo'lish.

– amaliy mashg'ulotlarda o'quvchilarning diqqat-e'tibori va faoliyatini oshirishga kirishish.

Agarda o'quvchilar amaliy mashg'ulot jarayonida faol bo'lishmasa ko'pchilik mashg'ulot rahbarlarining ta'sir etish vositalari ularni chuqur va mustahkam bilimlar bilan ta'minlay olmaydi. Mashg'ulotlarda o'quvchilarning doimiy e'tiboriga erishish uchun o'rgatilayotgan sport elementlari va mashqlariga qiziqish uyg'otib va muntazam ravishda ushlab turiladi.

Ma'lumki, qiziqishni butun mashg'ulot mobaynida ushlab turishdan ko'ra, o'quvchilarda qiziqish uyg'otish yengil roq kechadi. O'quvchilarni qiziqtirish, ongli faoliyatini faollashtirish, butun mashg'ulot mobaynida mavzuga bo'lgan qiziqishni saqlab qolish vazifasi turlicha hal qilinadi. Bu amaliy mashg'ulot o'qituvchisining individual xususiyatlari, uning tayyorgarlik darajasi hamda pedagogik tajribasiga bog'liq bo'ladi.

Amaliy mashg'ulot jarayonida o'quv mashq elementlarni bayon etishda o'quvchilarga savollar bilan muroj'aat etib turish tavsiya etiladi. Mashg'ulot o'qituvchisi tomonidan savol berib qolinishi ehtimoli borligi uchun o'quvchilar uni diqqat bilan mashqlarni bajaradilar.

FIZIKA FANIDAN DARS SAMARADORLIGINI OSHIRISHDAGI INNOVATSION DASTURLARDAN FOYDALANISH MASALALARI

X.B.Mo'minova, I.N.Amanbayeva

Guliston shahar 16 -maktab Fizika fani o'qituvchilari

mumunovamakt166@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada fizikani o'qitishda raqamli texnologiyalar, dasturiy vositalar hamda internet resurslardan foydalanib virtual namoyish va tajribalarni o'tkazish borasida qisqacha bayon qilingan.

Аннотация: В статье обобщены результаты работ по виртуальных демонстраций и экспериментов в обучении физике с использованием цифровых технологий и Интернет-ресурсов.

Abstract: The article summarizes the results of virtual demonstrations and experiments in teaching physics using digital technologies and Internet resources.

Zamonaviy jamiyatda axborot texnologiyalaridan foydalanish inson faoliyatining deyarli barcha sohalarida zarur bo'lib qolmoqda. Ushbu texnologiyalar ko'nikmalarini maktabda o'zlashtirish asosan o'quvchilarning kasb-hunar ta'limi istiqbollarini belgilaydi. Fizikani o'qitish zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llash uchun eng qulay yo'nalishdir. O'quvchilarga axborot texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari to'g'risida kengaytirilgan tushuncha beradigan namoyish komponenti va informatika darslarida olgan bilimlaridan faol foydalanishni talab qiluvchi komponentlarni dars jarayoniga integratsiya qilish zarurati kun sayin muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Bugungi kunda maktabning, shu jumladan fizikani o'qitishning, eng muhim vazifasi uzluksiz ta'lim sharoitida axborot oqimida erkin harakat qila oladigan shaxsni shakllantirishdir. Maktabni rivojlantirishning hozirgi bosqichida an'anaviy ta'lim tizimini sifat jihatidan yangi ta'lim tizimiga aylantirish vazifasi - jamiyat hayotining yangi sharoitlariga moslashgan, malakali, samarali fikrlaydigan shaxsni tarbiyalash vazifasi qo'yildi. Bu vazifalarni amalga oshirishning muhim yo'nalishlaridan biri bu o'quv jarayoniga raqamli axborot texnologiyalarini kiritishdir.

So'nggi paytlarda o'quvchilarning tabiiy fanlarga, shu jumladan fizika faniga, bo'lgan qiziqishida ma'lum darajada pasayish tendensiyasi kuzatilmoqda. Ammo, shuni ham ta'kidlash lozimki, o'quvchilarning aksariyati o'quv-tadqiqot faoliyatiga qiziqishadi, ular ijodiy izlanish muhitida bo'lishdan mamnun bo'ladilar. Fizika fani dars jarayonida va bolalarning sinfdan tashqari ishlarida tadqiqot usullaridan foydalanishga katta imkoniyatlar yaratadi. Ta'lim jarayonida o'qitishning eng yuqori texnik vositalaridan bo'lgan raqamli texnologiyalardan to'g'ri foydalanish, o'qituvchi endi o'quvchilar uchun yagona ma'lumot manbai bo'lmaganda, yangi sharoitlarda o'quv jarayonini amalga oshirishga imkon beradi. Zamonaviy darsni metodik jihatdan yuqori saviyali tayyorlash va o'tkazishda AKT muhim rol o'ynashi haqida gapirishdan oldin, shuni aytilish kerakki, axborot texnologiyalari unga to'g'ri yondashilgan taqdirdagina yuqori samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.

Axborot texnologiyalaridan foydalanish bu - o'qituvchining rolini yangilash, uning bilim va tajribasini yangi vositalar bilan uzata olishga tayyorligidir. O'qitishda turli xil manbalardan foydalanishga imkon beruvchi Internet aloqasi tobora ommalashib bormoqda. Internet bilan ishlashda turli tanlovlarda, viktorinalarda, olimpiadalarda qatnashish mumkin bo'ladi. Internet-resurslardan foydalanish fan o'qituvchisidan kasbiy faoliyatini o'zgartirishni talab qiladi. Internet-resurslardan foydalanish ham bir o'ziga xos qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Turli saytlardan olingan ma'lumotlar har doim ham ishonchli emas, shuning uchun ularni bir necha bor tekshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ilmiy tashkilotlar va markazlar, universitetlar va boshqa o'quv muassasalarining veb-saytlari ko'proq ishonchli hisoblanadi.

Maktabda o'quv va sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishda raqamli texnologiyalardan foydalanish bola nuqtai nazaridan juda tabiiy ko'rinadi va uni o'qitish motivatsiyasi va individualligini oshirish, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish va shakllantirishning samarali usullaridan biridir. Har bir dars bolalarda ijobiy hissiyotlarni ko'taradi, hatto sust o'zlashtiruvchi o'quvchilar ham kompyuter bilan ishlashga katta qiziqish bilan qaraydilar. Raqamli texnologiyalardan foydalanib o'tilgan dars:

-pedagogik jarayonning barcha ishtirokchilari o'rtasidagi aloqalarni va uning barcha tarkibiy qismlarining o'zaro ta'sirini boyitadi;

- ta'limning differentsiatsiyasi va individualizatsiyasiga yordam beradi;

- o'quvchilarning o'quv faoliyatini rag'batlantiradi;
- o'z-o'zini tarbiyalashni rivojlantiradi;
- o'quv materialini yanada qulayroq qiladi va darsdagi ko'plab didaktik vazifalarni hal qilishni osonlashtiradi.

Fizika darslarida kompyuterlar, avvalambor, o'quvchilarning eksperimental, tadqiqot faoliyatini rivojlantirishga imkon beradi. Kompyuter modellari bunday tadbirlarni tashkil qilish uchun ajoyib vosita. Kompyuter simulyatsiyasi kompyuter ekranida fizik tajribalar yoki hodisalarning yorqin, esda qolarli dinamik tasvirini yaratishga imkon beradi va o'qituvchiga darslarni takomillashtirish uchun keng imkoniyatlar ochadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Д.И. Троицкий, Е.Е. Дикова. Виртуальные лабораторные работы в естественнонаучном образовании. Сборник научных статей XVIII Объединенной конференции «Интернет и современное общество» IMS-2015, Санкт-Петербург, 23-25 июня 2015 г.

2. Effectiveness of Simulation versus Hands-on Labs: A Case Study for Teach-ing an Electronics Course.

MAKTABDA SINIF O'QUVCHILARINI HUSNIXATGA O'RGATISH

Norboyeva Feruza Zayniddinovna, N.A.Kenjayeve

Sardoba tumani 12-maktab ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Guliston shahar 2 -IDUM ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi

[*norboyevaferuza12@gmail.com*](mailto:norboyevaferuza12@gmail.com)

Anotatsiya: *maqolada maktab sinf o'quvchilarida husnixat san'atining o'rgatishning ahamiyati, husnixat o'rgatishning metodikasi hamda husnixat gigeynasi haqida fikr yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *Chiroyli yozuv, qo'l harakati, bo'g'in, so'z*

Chiroyli yozuvga o'rgatish umumiy didaktik qoidalar bilan birga yozuv malakasini shakllantiruvchi qoidalarni ham o'z ichiga oladi. Umumiy didaktik qoidalar, takroriylik ko'rgazmalilik yosh va o'ziga xos xususiyatlarni hisobga olish, tushunarlik, onglik husnixat qoidalarini amalga oshirishda juda muhimdir. Ayniqsa, ko'rgazmalilik prinsipi chiroyli yozuv malakasini singdirishda muhim rol o'ynaydi. Har bir o'quvchi u yoki bu harfni tushunib, yozilishini, harflarning bir-biriga bog'lanishini, kichik va bosh xarflarning bir-biriga nisbatini, balandligini, qiyaligini, avtoruchkani ushlash va to'g'ri o'tirish qoidalarini yaxshi bilishlari lozim. Yozuvga o'rganish davrida olingan bilim va malakalar o'quvchilar uchun doimiy qoida bo'lib qolishi zarur.

Chiroyli yozuv malakalarini o'stirishda eng birinchi qoida bu gigiyenik talablar va yozuvning qiyaligini to'g'ri saqlashga o'rgatilib, so'ngra harf va harf elementlari orasidagi masofani chamalab yozish qoidalari singdirib boriladi. Bu qoidalarni o'quvchilar esda saqlab qolishi mumkin. Har bir yozuv mashqi aniq maqsad asosida oson tushunarli olib borilishi kerak. Buning uchun chiroyli yozuvga o'rgatishning turli usullaridan foydalanish lozim. Chiroyli yozuv mashinkalarini esdan chiqarmaslik uchun sistemali ravishda takrorlab borish juda muhimdir. Bolalarning yozuv malakalarini hosil qilishda ularning yosh va o'ziga xos xususiyatlari: barmoq va qo'l muskullarining harakat tezligi, markaziy nerv sistemasi tomonidan nerv muskullarining bajarilishi hisobiga olinishi lozim.

Chiroyli yozuv darslarida harflarning shakli ustida mashq o'tkazilganda oddiydan murakkabga tomon olib boriladi, chunki alfavitdagi barcha sharflar yozilish shakliga qarab gruppalariga ajratiladi. Bolalarni chiroyli yozuvga o'rgatishda o'qituvchi ularning o'ziga xos xususiyatlarini ham hisobga olishi shart.

O'qituvchi har bir o'qituvchining qanday o'tirishini, ruchkani qanday ushlashini, daftar tutish holatini, harflarni qanday yozayotganligini sekin yoki tez yozilishini kuzatib borishi zarur. O'quvchilardagi bu imkoniyatlarni kuzatib borgan o'qituvchi chiroyli yozuv darslarini to'g'ri tashkil etadi, ayrim o'quvchilarga yakka-yakka yordam ko'rsatishda qiyinmaydi va ota-onalarga ham to'g'ri ko'rsatma bera oladi. Chiroyli yozuv malakasini shakllantirish faqat boshlang'ich sinflarda emas, balki yuqori sinflarda ham davom ettiriladi.

Chiroyli yozuvga o'rgatish uchun bolalarning maktabga qadam qo'ygan kunlaridan boshlab quyidagi vazifalarni bajarishlari talab etiladi:

✓ Yozuv vaqtida partada to'g'ri o'tirish

- ✓ Avtoruchkadan to'g'ri foydalanish
- ✓ Daftardan to'g'ri foydalanish
- ✓ Yozma va bosma harflarning shakli bilan tanishtirish.
- ✓ Yozma shakldagi harflar yordamida bo'g'in, so'z va gap tuzishga o'rgatish.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan malakalar shakllangandan so'ng husnixat darslariga ular mustahkamlanadi. Husnixat malakasini shakllantirish uchun birinchi navbatda harflarning shaklini to'g'ri tasavur etishga, bir xil qiyalikda yozishga, so'zlarda harflarni to'g'ri bog'lashga so'zlarni qatorlarga to'g'ri joylashtirishga o'rgatiladi.

Daftar chiziqlarini birin-ketin almashuvi davomida harflarning qiyaligini va ular orasidagi masofani to'g'ri saqlash kichik va bosh harflarning nisbatini to'g'ri chamalab yozishga o'rgatish juda muhimdir. Shuningdek husnixat darslarida malum gruppaga oid hraflarni yozishga o'rgatishda o'quvchilarda uchraydigan ayrim tipik xatolarning oldini olish va tuzatish ustida ham ish olib borish lozim. Yozuvning tezligi oshishi bilan ayrim bir-biriga o'xshash harflarning shaklini buzib yozish xollari uchraganda esa ularni qayta mashq qildirish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G'ulomov M. "O'quvchilarini husnixatga o'rgatish" T.1970
2. G'ulomov M. "Chiroyli yozuvni shakllantirish" T. 1992

RESEARCH ACTIVITIES OF FUTURE TEACHERS

Djurayeva Dilfuza Khazratkulovna
Sardoba District, School №12 teacher of English
djurayevadilfuza121@mail.ru

Annotation: *In article features of modern educational system are characterized. The role of the personality as the main value of process of training is defined. The importance of interaction of the teacher with information environment is emphasized. Identifies the main tasks of a professional educator in the synthesis of creative activities with the research.*

Key world: *personality, the world community, innovative processes, interaction with the information environment, research tasks, the teacher of the new formation.*

Значимость исследовательской проблемы активизации научно-исследовательской деятельности в процессе непрерывного образования как инновационного регулятива повышения качества профессиональной подготовки будущего специалиста обусловлена социокультурными тенденциями общественного развития в контексте глобализации, информатизации, появления новейших технологий и становления новых секторов экономики; стратегическими ориентирами вузов в рамках изменения парадигмы образования (отобразования на всю жизнь к образованию в течение всей жизни) и повышения значимости самостоятельной активной познавательной деятельности каждого студента; ростом требований со стороны работодателей и потребностью студента как потребителя образовательных услуг, которому предстоит создавать и воплощать инновации.

Автором в ходе теоретического анализа и практического опыта работы (наблюдение за деятельностью преподавателей-руководителей научно-исследовательской деятельности студентов, за студентами в образовательном процессе вуза и вне учебного процесса, изучение научно-исследовательской работы студентов и др.), был сформулирован ряд трудностей (рисков), связанных со снижением эффективности научно-исследовательской деятельности в процессе непрерывного образования: (а) организационно-образовательные (недооценка интеграции образовательной и научной деятельности для конкурентоспособности и социальной успешности выпускника; организация научно-исследовательской деятельности без учета индивидуальных склонностей, возможностей студента, изменения профессиональной сферы, перспектив социально-экономического развития общества; неприятие преподавателем исследовательской инициативы студентов; отсутствие возможности внедрения инновационных студенческих идей, социально и профессионально значимых научных разработок в производственную сферу; недостаточность регулярных научных контактов с другими вузами; необязательный характер проведения научных

исследований в свободное от учебы время и т. д.); (б) личностные (мотивационная и инструментальная неготовность обучающихся к самостоятельной научно-исследовательской деятельности; неполная информированность о целевых ориентирах научной работы; нехватка времени; исследовательская пассивность; недостаточная исследовательская грамотность и др.).

В исследовании уточнены основные концептуальные положения:

(а) активизация научно-исследовательской деятельности будет выступать как комплексная система инновационных организационно-педагогических мер, осуществляемая во взаимоупорядоченной, целенаправленной деятельности субъектов образования. Она должна повышать уровень осмысления, личностной и профессиональной значимости исследовательской работы, развивать у студентов склонности к поисковой, исследовательской деятельности, формировать навыки самостоятельного проведения исследований; (б) замысел базируется на идее оказания компетентной помощи и поддержки инициатив студентов в определении своих научно-исследовательских интересов и нахождения оптимальной области для исследовательской самореализации; выстраивания взаимосвязи научно-исследовательской деятельности с будущей профессиональной областью; (в) при активизации научно-исследовательской деятельности в процессе непрерывного образования в качестве ведущих принципов выступают: принцип последовательности (учет вида научно-исследовательской деятельности и возраста студента); поуровневости (включение в управление научно-исследовательской деятельностью всех уровней организации работы вуза с учетом степени подготовленности каждого студента к научно-исследовательской деятельности, его интересы, склонности, способности и возможности); временного развития (определение временного промежутка для каждого студенческого исследования, этапов подготовки, организации и проведения, зоны рисков); разнообразия (вариативность тематики научно-исследовательской деятельности, кооперации научных руководителей, исследовательских групп, многообразия форм представления результатов); постоянного совершенствования (непрерывность развития научно-исследовательской культуры студентов, совершенствования и продолжения научно-исследовательской деятельности для достижения более высоких результатов); (г) реализация субъект-субъектного взаимодействия «преподаватель– студент– социальные партнеры – студент» на основе содействия, сотворчества, взаимопринятия и взаимоподдержки.

Список литературы

1. Марон А. Е., Л. Ю. Монахова Структурно-содержательная модель программно-технологического сопровождения образования взрослых// Человек и образование. – 2015. – Вып. №1 (42).

O'QUVCHINI MUSIQA OHANGI VA BADIY ASARNI IFODALI O'QISHGA O'RGATISHNING AHAMIYATI

K.A.Hasanova, N.Sh.Kunusheva,
Guliston Shahar 16 -maktab Musiqa fani o'qituvchilari,
kunushevamakt222@mail.ru

Annotatsiya: ushbu maqolada o'quvchilarning musiqa fani va undagi she'rlarni ifodali va ravon o'qishlariga erishish, mashg'ulotlarda nutq madaniyatini shakllantirish, fikrlarini ravon va mantiqan to'g'ri, mazmunli va ifodali bayon etishga odatlantirishi haqida so'z ifodalanadi.

Kalit so'zlar: ohang, badiiy asar, ifodali o'qish, nutq madaniyati.

Abstract: This article discusses how students can express themselves fluently and fluently in music science, how to form a culture of speech in class, and how to express their thoughts fluently and logically correctly, meaningfully and expressively.

Key words: melody, artwork, expressive reading, speech culture.

Ma'lumki, musiqa ohangi va badiiy asar o'qish endigina o'qishni o'zlashtirib olgan bolalar uchun zavqli mashg'ulot bo'lib, o'qish darslarida tashkil etiladigan sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlarida o'quvchilar badiiy asarlarni sevib o'qiydilar. Sinfdan tashqari o'qishni muntazam olib borish o'quvchilarda insoniy

fazilatlar, go‘zal axloq va ijobiy xarakterni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mardlik, to‘g‘rilik, mehnatsevarlik, do‘stlik, vatanparvarlik, halollik, mehr-muhabbat kabi insoniy fazilatlar ulug‘langan badiiy asarlar, ibratli kichik hikoya, she‘rlar, xalq og‘zaki ijodi namunalarini o‘rganish, ayniqsa, ertak, masallarni o‘qish o‘quvchilarga axloqiy tarbiya berishning asosiy omili bo‘lib xizmat qiladi.

Uni mukammal idrok etish orqali kichik yoshdagi o‘quvchilarnig ma‘naviy dunyosi boyib boradi. Boshlang‘ich sinflarda o‘qish uchun asar tanlashda, avvalo, uning kichik hajmliligiga, ya‘ni, o‘quvchi uchun zerikarli bo‘lmasligiga va esda saqlashi uchun oson bo‘lishligiga hamda g‘oyaviy-siyosiy mazmuniga e‘tibor beriladi, o‘quvchilarning mavjud bilim zaxiralariga, yosh xususiyatlariga mos, bola shaxsini rivojlantiruvchi, tarbiyaviy ahamiyatga ega mavzular tanlanadi.

O‘qituvchi mazkur asar paydo bo‘lish tarixi, o‘sha davrdagi ijtimoiy-siyosiy ahvol haqida ma‘lumot beradi (masalan: uchar gilam, oynai jahon...), asarni tarixiy va asosli fakt, misollarga bog‘liq holda hayotga bog‘lab o‘rgatadi. O‘quvchilarning ifodali va ravon o‘qishlariga erishish, nutq madaniyatini shakllantirish, fikrlarini ravon va mantiqan to‘g‘ri, mazmunli va ifodali bayon etishga odatlantirish, dunyoqarashini kengaytirishda sinfdan tashqari o‘qishning ahamiyati katta. Ifodali o‘qishsiz ta‘lim-tarbiya samaradorligini oshirish va o‘quvchilarning ijodiy tafakkurini o‘stirish mumkin emas. Sinfdan tashqari o‘qishning maqsadi, asosan, o‘quvchilarga ravon va ifodali o‘qishni o‘rgatish, asarning g‘oyaviy-badiiy asoslarini tahlil qilish orqali o‘quvchilarda qayta hikoyalash, analiz-sintez qilish, taqqoslash, mustaqil fikrlash, ayni vaziyatga to‘g‘ri baho berish, xulosa chiqarish, munosabat bildirish kabi xislatlarni shakllantirish, tarbiyaviy elementlarni singdirishdir. Bir so‘z bilan aytganda, sinfdan tashqari o‘qish o‘quvchilarning so‘z san‘ati bilan zavqli, samarali muloqotda bo‘lish orqali ma‘naviyatlarini shakllantirishga qaratilgan. Kichik sinflarda matnni avval o‘qituvchi namunali o‘qib beradi. Badiiy asarni grammatik va poetik qonun–qoidalarga rioya qilib o‘qish orqali o‘qituvchi asarni poetik va badiiy xususiyatlarini ochib beradi. Ifodali o‘qish adabiy asarni tushunarli, ta’sirchan o‘qish demakdir. Ifodali o‘qishning badiiy emotsional bo‘lishi uchun o‘quvchi asar mazmuni, g‘oyaviy-badiiy jihatlari haqida tasavvurga ega bo‘lishi lozim. Asarni o‘qishdan oldin unda qanday g‘oya ilgari surilgani, adibning maqsadi aniqlanadi. O‘qituvchi e‘tiborni, asosan, yozuvchining asarda ifoda etgan fikriga, uni to‘g‘ri talqin etishga qaratadi.

Ma‘lumki, hayotdagi muayyan voqea-xodisaga nisbatan har bir o‘quvchida ma‘lum bir munosabat uyg‘onadi. Badiiy asarda ham shunday, bir asar qahramoniga nisbatan o‘quvchilarda nafrat uyg‘onsa, biri o‘quvchilarda yumor, biri xayrixoxlik kayfiyatini uyg‘otadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari taqlid qilishga moyil va emotsional xissiyoti kuchli, ta’sirchanligi yuqori bo‘ladi.

O‘qish uchun mavzu tanlashda o‘qituvchi bunga e‘tibor berishi kerak. O‘qituvchi sinfdan tashqari o‘qish jarayonida o‘quvchilarning asar mazmunini tasavvur qilishlariga, ularda asarni estetik baholash elementlarini shakllantirishga, qayta hikoyalashda egallagan ma‘lumotlarini mantiqan ketma-ketlikda, xis-hayajon bilan so‘zlashlariga erishishi kerak. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari asarni asosan ovoz chiqarib o‘qiydilar. Bu asar mazmunini to‘la anglashlariga yordam beradi.

Sinfdan tashqari o‘qish uchun tanlangan mavzuni tushunishni osonlashtirish, ta’sirchanligini oshirish uchun, asar qahramonlari holatini anglash uchun, avvalo, asar ifodali va ravon o‘qilishiga erishish lozim. O‘qish- ijod, ifodali o‘qish esa san‘at darajasidagi ijoddur. Asar qanchalik mukammal bo‘lmasin uni ifodali o‘qilmasa muayyan ta’sir kuchiga ega bo‘lmaydi. O‘quvchilarni ifodali o‘qishga o‘rgatish o‘qituvchidan katta mahorat talab qiladi. Buning uchun o‘qituvchi nutq texnikasini bilishi, o‘quvchilarni nutq vositalariga oid texnik mashqlar bilan muntazam shug‘ullantirib borishi maqsadga muvofiqdir. Shunda o‘qituvchi o‘quvchilarning o‘qishini, ovozini, nutqini aniq, ravon, burro va jarangdor bo‘lishiga erishadi.

Xulosa qilib aytganda, badiiy asarni o‘qishni to‘g‘ri tashkil etish o‘quvchilarni to‘g‘ri va ifodali o‘qishga, matn mazmunini tushunish va tahlil qilishga o‘rgatadi, badiiy adabiyotga qiziqishlarini orttiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. “Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarni kitobxonlikka o‘rgatish m...” 2012-yil
2. Boshlang‘ich sinflar metod birlashma yig‘ilishidagi ma‘ruza (2-masala S. Maxmudova)

KIMYO FANI DARSLARINI MEDIA TA'LIM ORQALI TASHKIL ETISHNING AFZALLIKLARI

Misirova Karomat Botirovna

Sardoba tumani 12-sonli umumta'lim maktabi kimyo fani o'qituvchisi,
misirovakaromat99@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada biologiya darslarida media tizimidagi axborotlar asosida ma'lumotlar oqimini fan yuzasidan o'quvchilarga etkazish bo'yicha metodik tayyorgarligini ta'minlashda izchillik va uzluksizlik masalalarining nazariy qismi bayon etilgan, tavsiyalar berilgan.

Kalit so'z: mediata'lim, axborot, innovatsiya, media manbalar, o'quv jarayoni, davlat talablari

Abstract: The article describes the theoretical part of the issues of consistency and continuity in the provision of methodological training in biology lessons on the delivery of information flow to students on the basis of information in the media system, and provides recommendations.

Keywords: media education, information, innovation, media resources, educational process, government requirements.

Hozirgi davrda inson va axborot bazasi o'rtasida muvozanat ham ijobiy, ham salbiy munosabatlar asosida bir-biriga ta'sir kuchini ko'rsatmoqda. Hozirda ayrim statistik ma'lumotlarga ko'ra bu ko'rsatkich jahon miqyosida 70% ni tashkil etayotgan bo'lsa, kelajakda esa 85% gacha ko'tarilish prognozlarini berilmoqda.

Planetamizda esa qabul qilinayotgan va yuborilayotgan informatsiyalarni qayta ishlash muammolariga bag'ishlangan seminarlar, simpoziumlar, anjumanlar va hokazolarning uyushtirilishi bir tomondan ilmiy-didaktika sohasidagi jamiyat a'zolarini chuqurroq o'ylashga chorlasa, ikkinchi tomondan yuborilayotgan, qabul qilinayotgan axborotlarning sifat va saviyasini tahlil etib, adaptatsiya etishga qaratilgan tadqiqot natijalarini bizga havola etmoqda. Masalan, Rossiya Federatsiyasida olib borilayotgan biologik-ximik ta'limni takomillashtirishda innovatsion va axborot texnologiyalaridan foydalanishning optimal variantlarini o'zlarining asosiy ish tajribalari hamda ilmiy-tadqiqot ishlari natijalariga tayangan holda ta'lim jarayoniga tadbqiq etilayotgani biologik-ximik ta'limning takomillashtirilishidagi xalqaro talablarga qo'shilayotgan ijobiy hissa deb hisoblaymiz.

Kimyo darslarida media tizimidagi axborotlar asosida ma'lumotlar bazasini yaratishda quyidagi yo'nalishlardagi ilmiy-ulubiy ishlarni tashkil etish maqsadga muvofiqdir:

✚ Ta'limdagi ommaviy axborot vositalari orqali beriladigan axborotlarni qabul qilish va qayta ishlash jarayonini tashkil etishdagi ilmiy uslubiy majmua va yo'riqnomalarni, shuningdek, ommaviy axborot vositalari hamda elektron axborot manbalarining tili, yo'nalishi, nomi va ko'rinishlarini belgilashda muayyan aniq ko'rsatma berilishi zarur. 9-sinf biologiya fani bo'yicha, odatda, rus va o'zbek tillaridagi ilmiy-didaktik manbalarining nomlari, turlari va ro'yxati, ularning adaptatsiyasini tuzib, biologiya fani o'qituvchilariga tavsiya etish kerak.

✚ Media tarmoqli axborot tizimini tashkil etish va shakllantirishdagi ikkinchi muhim metodik yo'nalish, bu—ommaviy axborot vositalari, ya'ni ilmiy jurnallardagi materiallar bo'yicha o'quvchilarning tanqidiy faoliyatlarini shakllantirishga qaratilgan pedagogik ishlarni ham amalga oshirishga muvofiq bo'lamiz. Masalan, ilmiy jurnallardagi ilmiy maqolalar maktab o'quvchilariga mo'ljallanmagan bo'lib, ularning adaptatsiyasi qiyin atama (terminlar)ning izohi, shuningdek, berilgan mavzudagi materialning 9-sinf kimyo darsligi bilan qiyoslash asosida o'quvchilarda paydo bo'ladigan ilmiy faoliyat, albatta, tanqidiy ijodiy faoliyat sifatida baholansa maqsadga muvofiqdir.

✚ Maktab kimyo dasturi va darsligidan tashqari media tizimidagi axborotlar oqimini tartibga solish maqsadida umumiy bazoviy ta'limga ilmiy jihatdan chuqurlashtirilgan informatsiya (axborot)larni berish tizimini takomillashtirish maqsadida sitologiya va genetika kurslari yuzasidan o'quv yili boshida maktab darsligiga kirmagan materiallar asosida topshiriqlar bazasi ma'lumotlarini biologiya o'qituvchilariga avgust oyida etkazish hamda, bulardan dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarda foydalanish uchun tavsiyalar hamda mediya tizimli axborotlar bazasini yaratish zarur bo'ladi.

✚ 4. Media tarmoqli axborotlar bazasini "Sitologiya va genetika asoslari" kurslari yuzasidan yaratishda, bu axborotlar bazasini etkazish yuzasidan axborot vositalari instrumentlarini ishlash prinsiplarini

ham yo'lga qo'yish maqsadga muvofiqdir. Bu instrumentlar asosan quyidagilardan iborat ekanligi qo'llanilgan media tizimidagi axborotlar resurslarini jo'natishda erishilgan natijalarga qarab belgilash mumkin.

Media tizimidagi har bir materialni o'quvchi olgandan so'ng, ularni tanqidiy o'rganadi. Sayt materiallarini dasturda albatta choraklarga bo'lib joylashtirish maqsadga muvofiqdir. Media tizimli axborot tizimi yoki bazasidan foydalanish, ularning ma'lumotlar bazasini yaratish, nazarimizda, ta'limdagi qisqa fursatda e'tibor beriladigan innovatsion ta'lim texnologiyasi emas, balki XXI asr o'quvchi yoshlari- barkamol avlod uchun kundalik fanlarni o'zlashtirish didaktik manbasi bo'lib qolishi zarur.

Adabiyotlar:

1. Mediaobrazovanie, integrirovannoe s bazovim.// Pod.red. L.S. Zaznabinoy. – M.: “Prosveshenie”, 1999. s. 3-145.
2. Mediaobrazovanie, integrirovannoe s bazovim.// Pod.red. A.A. Jurina. – M.: “Prosveshenie”, 2001. s. 9-97

O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING OMILLARI

Ruziyev Shaxriddin Rustam o'g'li,

Sardoba tumani 12-sonli umumta'lim maktabi fizika fani o'qituvchisi,

ruziyevshaxriddin77@gmail.com

Annotatsiya: Bugungi kunda ta'lim muassasasi o'qituvchisi uzluksiz innovatsion izlanishda bo'lishi, fikrlashi, vaziyatga ko'ra o'z kasbiga bo'lgan munosabatlarini o'zgarishi, shuningdek, boshqalarda ham innovatsion g'oyalarni shakllantirish asosida faoliyat ko'rsatishi zarur.

Kalit so'zlar: kompetentlik, kasbiy kompetentlik, kasbiy sifatlari, ta'lim-tarbiya, rivojlantirish, mazmun, mohiyat, dastur, tizim, kasbiy tayyorgarlik, uzluksiz ta'lim, tajriba va ko'nikmalar.

Abstract: Today, the teacher of an educational institution is constantly in search of innovation, thinks, changes his attitude to his profession according to the situation, and also acts on the basis of the formation of innovative ideas in others. necessary.

Key words: competence, professional competence, professional qualities, yeduction, development, content, yessence, program, system, professional training, continuing yeduction, yexperience and skills.

O'qituvchilarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirishda motivlashtirish jarayoni samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni inobatga olgan holda, samaradorlikning o'zaro bog'liq bo'lgan quyidagi ko'rsatkichlarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- o'qituvchilarning bilimi, ko'nikma va malakasi hamda tajribasi darajasini, dunyoqarashi, tasavvuri, qiziqishi va imkoniyatlarining belgilangan maqsadlarga mos kelishini ifodalovchi xususiyatlar;
- belgilangan maqsadlarga muvaffaqiyatli erishish natijalariga mos keluvchi motivlar, omillar va vositalarning o'ziga xos xususiyatlari;
- o'qituvchilar uchun zaruriy va qulay shart-sharoitlar yaratuvchi ijodiy muhitning o'ziga xos xususiyatlari;
- davlat, jamiyat va shaxs ehtiyojlarining rivojlanishi, kasbiy kompetentlikni rivojlantirish jarayonlari ishtirokchilarining ehtiyojlari va qoniqish hosil qilish jarayonlari;
- kasbiy kompetentlikni rivojlantirish jarayonlari ishtirokchilarining ilmiy-metodik ta'minoti.

Bu o'z navbatida o'qituvchilarning kasbiy qiziqishlari ko'lamini kengaytirishga, ya'ni ularning adabiyotlar o'qib o'rganishdan to nazariy psixologik-pedagogik va fundamental tadqiqotlar olib borishiga ham imkoniyatlar yaratadi. Yaxshi ilmiy-pedagogik tayyorgarlik innovatsion faoliyatining samaradorligini ta'minlaydi. Innovatsion jarayonlarda faol ishtirok etuvchi o'qituvchilar muntazam ravishda o'zini-o'zi rivojlantirishi va ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirishning katalizatoriga aylanadi, ya'ni mazkur jarayonlarining tezlashishida muhim ahamiyat kasb etadi. O'qituvchining kasbiy tayyorgarligining asosiy kompetentlik deb belgilangan holda, ikki yo'nalishini, ya'ni ma'lum bir soha bo'yicha kasbiy va shaxsiy kompetentlikni ajratib ko'rsatadi. Birinchisi-bu kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni egallashdagi etuklik, ikkinchisi qator zaruriy umuminsoniy sifatlarga erishish. Umumiy holda, ta'lim muassasasida o'qituvchilarning innovatsion faoliyatini tashkil etishga ob'ektiv va sub'ektiv omillar sabab bo'ladi. Ob'ektiv

omillarga davlatning yangi ta'lim siyosati, ta'lim sohasidagi fundamental va amaliy tadqiqotlar, ta'lim muassasasining innovatsion faoliyat yo'nalishidagi tajribalarini keltirishimiz mumkin. Sub'ektiv omillarga ijtimoiy-hududiy ehtiyoj, ta'lim muassasasi faoliyatining rivojlanish jarayoni, o'qituvchilarning bilim, ko'nikma va malakalari, ilmiy salohiyatining o'sishi, boshqaruv xususiyatlarining o'zgarishi misol bo'ladi.

Ta'lim muassasasi o'qituvchilarining innovatsion faoliyatini tashkil etishning pedagogik shartlari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- innovatsion faoliyatning o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi nazariy-pedagogik qoidalar majmuini ishlab chiqish;
- nazariy-pedagogik qoidalar majmui innovatsion faoliyatining asoslari bilan belgilanishi;
- innovatsion faoliyatning maqsadi, vazifasi, mazmuni hamda uni tashkil etish tamoyillarini o'z ichiga olish. Ta'lim muassasasi o'qituvchilarini innovatsion faoliyatga jalb etuvchi omillar innovatsion faoliyatga ularni motivlashtirish (undash) vositalari sifatida xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. - T.: «O'zbekiston», 2017.
2. Muslimov N.A. va boshqalar. Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi/ Monografiya-T.: "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2013.

TA'LIMNI LOYIHALASHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR VA ULARNING MOHIYATI

Qurbonova Klara Ergashevna

Guliston shahar 10-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Ta'lim asosida tarbiya berish prinsipi uning maqsadi va vazifasini to'laqonli amalga oshirishga qaratiladi. Ta'limda bo'lganidek tarbiyaning ham o'ziga xos maqsadi va vazifalari mavjud. Ta'lim asosida tarbiya berishda aynan tarbiyaning maqsadi va vazifalariga to'laqonli erishib bo'lmaydi.

Ta'limni loyihalashda Innovatsion texnologiyalar asosida ta'lim texnologiyasiga e'tibor qaratilishi lozim.

Loyihalash texnologiyasining ahamiyati. Loyihalash- ta'lim berish jarayoni tashkil etish va uning muvaffaqiyatli kechishini ta'minlovchi muhim shartlardan biridir. Loyihalar predmet va uning yo'nalishga ko'ra bir-biridan farqlanadi. Loyihalarda pedagog tomonidan ketma-ket amalga oshiriluvchi va tashxisning qo'yilishi bilan yakunlovchi tahliliy faoliyat: oldindan ko'ra bilish va loyihalash kabi ijodiy faoliyatlar namoyon bo'ladi.

Ta'lim jarayonini loyihalash- Boshlang'ich sinf o'qituvchisi kasbiy faoliyatining ko'rinishi bo'lib, ta'lim jarayonining texnologik tuzilma, uning natijasini ta'minlovchi metod va vositalar yig'indisi bilan tavsiflanadi.

- Loyihalash mahsuli ta'lim jarayonining loyihasi sanaladi. Ta'lim jarayonini loyihalash qonuniyatlari.
- Ta'lim jarayonini loyihalash samaradorligi barcha tarkibiy qismlar ya'ni texnologik boshqaruv, vosita, axborot, ijtimoiy-psixologik muhitning loyihada maqsadga muvofiq yoritilishi asosida ta'minlanadi;
- Ta'limning texnologik vositalari o'qituvchilarning individual xususiyatlariga bog'liq holda tanlanadi;
- Loyihalash strategiyalari o'qituvchining individual uslubiga muvofiq tanlanadi;
- Loyihalash sifati teskari aloqa ya'ni o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi ko'lami, loyihalash mazmuni, shuningdek barcha omillar samaradorligiga bog'liq.

Ta'lim jarayonini loyihalashtirish 6- bosqichdan iborat bo'lib ular 1- soatlik dars jarayonini loyihalashtirish hisoblanadi

1-bosqich. Tashkiliy qism

2-bosqich. Uyga vazifani so'rash

3-bosqich. Yangi mavzuning bayoni

4-bosqich. Mustahkamlash

5-bosqich. O'quvchilar faoliyatini baholash

6-bosqich. Uyga vazifa berish

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi dars loyihasi davomida- faoliyatini nazorat qilish va test tizimini ishlab chiqish, vaqt o'rnini belgilash, mashqlar tizimini ishlab chiqish, loyihani o'quv jarayoniga tatbiq etish va tizimli yondoshish kiradi. Yangi faktlardan yangi xulosalar chiqarish fanda kumulyasiya deyiladi. Pedagogik nuqtai nazardan har bir fan yo'nalishi va fanlararo hamkorlik integratsiyasi bo'yicha yangilikni tatbiq etishning intensiv metodikasini ishlab chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Egallangan ko'nikma va malakalar borki, bir umr harakatda bo'ladi. Bu jarayon milliy g'oya va uning tarkibiy qismi hisoblangan pedagogik g'oyaning izchilligi hamda uyg'unligidan kelib chiqadi. Innovatsion texnologiyalar va ularning pedagogik mohiyatidan kelib chiqib, yangi bilimlarga xos ko'nikma va malakalar paradigmasi qaytadan ko'rib chiqilmog'i lozim. Ana shunda eskicha qolipdagi ko'nikma va malakalar o'z-o'zidan harakat faoliyatini to'xtatadi.

Fanlarini o'qitishda **innovatsion texnologiyalar** va interfaol metodlardan foydalanib dars o'tish o'qituvchi faoliyatiga yangiliklar, o'zgarishlar kiritadi. **Interfaol metodlar** - bu jamoa bo'lib fikrlashni, o'z navbatida o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikda faoliyat ko'rsatishini talab etadi.

Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:

- o'quvchilarni dars davomida befarq bo'lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod va izlanishga da'vat etish;
- o'quvchilarning o'quv jarayonida bilimga bo'lgan qiziqishlarini doimiy ravishda bo'lishini ta'minlash;
- o'quvchilarning bilimga bo'lgan qiziqishlarini mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondashgan holda kuchaytirish;
- o'qituvchi va o'quvchilarning hamkorlikdagi faoliyatini tashkil qilish.

Texnika fanlarini o'qitishda pedagogik texnologiya – faqat axborot texnologiyalar, o'qitishning texnik vositalaridan, elektron darsliklardan, kompyuter, masofali o'qitishdan foydalanishdan iborat emas. Bunda qo'llanilayotgan pedagogik texnologiyaning eng asosiy negizini o'qituvchi va o'quvchilarning hamkorligi tashkil qiladi. Bunday o'qitish jarayonida:

- maqsad bo'yicha kafolatlangan natijaga erishishda qo'llaniladigan har bir ta'lim texnologiyasi o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida hamkorlikdagi faoliyatni tashkil eta olsa;
- ijobiy natijaga erisha olsa;
- o'quv jarayonida o'quvchilar mustaqil fikrlay olsa;
- ijodiy ishlay olsa;
- izlansa, tahlil eta olsa;
- o'zlari xulosa qila olsalar ko'zlangan maqsadga erishish mumkin.

O'z navbatida o'qituvchi o'quvchilarning bunday faoliyati uchun imkoniyat va sharoit yaratib bersa, ta'limda yuqori natijalarga erisha oladi. Texnika fanlari o'qitilayotganda har bir darsni o'tishda o'qituvchi qaysi interfaol metodni qo'llashiga, natijaga erishishga qaratilgan bo'lishiga, guruq o'quvchilarining bilim saviyasiga qarab turli texnologiyalarni tanlash mumkin.

O'qituvchi yuqoridagilarni hisobga olgan xolda natijaga erishish uchun kompyuter bilan ishlashi, film, tarqatma material, chizma va plakatlar, turli adabiyotlar, o'zi tayyorlagan ma'ruza matnidan foydalanishi mumkin. SHu bilan bir qatorda o'qitish jarayonini oldindan loyihalashtirishi zarur, bu jarayonda o'qituvchi o'quv fanining o'ziga xos xususiyatlarini, auditoriya sharoitlarini, o'qitishning texnik vositalarini, eng asosiysi o'quvchilarning imkoniyat va ehtiyojlarini hamda hamkorlikdagi faoliyatini tashkil eta olishini hisobga olishi kerak.

Texnika fanlarini o'qitishda o'quvchining ixtisosligi, bilim va ko'nikmalari, dunyoqarashi, shaxsiy psixologik xususiyatlarini hisobga olish zarur.

Dars va amaliy mashg'ulotlarda savol berishni ham to'g'ri tashkil qilish lozim. Ko'proq ochiq, ijodiy, munozaraga chorlovchi savollar berilishi kerak, bunda javoblar xilma-xil bo'ladi, bu esa muloqotning davom ettirilishiga asos bo'ladi.

Amerikalik olim B.Blum tomonidan taklif qilingan o'rganish faoliyatining darajalari bo'yicha o'quv maqsadlari taksonomiyasi (bilim, tushunish, qo'llash, tahlil, sintez va baholash) asosidagi savollar shodasi zamonaviy ta'limda keng qamrovda qo'llanilmoqda.

O'rganish faoliyatining darajalari bo'yicha o'quv maqsadlari taksonomiyasi:

bilish - faktlarni izlash, tavsiflash, esda saqlash;

tushunish - o'zlashtirilganlarini isbotlay bilish;

tahlil - qiyoslash, xulosa chiqarish, o'zaro bog'lash;

qo'llash - faktlarni, qoidalarni, tamoyillarni ishlatish, boshqa sharoitlarda foydalanish;

sintez - axborotni qayta ijodiy ishlash;

baholash - yangi bilimga o'tish.

Savollar va ularga javob berish uchun ayrim faktlarni solishtirish, ma'lum axborotni eslash va namoyish etish kerak. Ular an'anaviy nazorat shakllarida ko'pincha qo'llaniladi, masalan, sinovlarda, testlarda va b.

O'qituvchi fanlarini o'qitishda yuqoridagilarni hisobga olgandagina innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirishi, kafolatlangan natijaga erishishi mumkin.

Pedagogik jarayonda ko'nikmadan tashqari, ko'nikish tushunchasi ham bor. Tabiatan inson hamma narsaga ko'nikishi mumkin. Har xil shovqin, transport ovozi, signallar, issiq, sovuq, ochlik, to'qlik degandek, inson tinimsiz ro'y berib turgan o'zgarishlar, axborotlar oqimi va yangiliklarga ham ko'nikadi. Pedagogik texnologiyalar tatbiqi, jumladan interfaol metodlarni qo'llash, bu borda uzluksiz metodik xizmatni yo'lga qo'yish pedagogik innovatsiya oldida turgan dolzarb vazifa hisoblanadi.

Xulosa qilib bu vazifalarni amalga oshirishga faqatgina mustahkam nazariy tayyorgarlikka, keng dunyoqarashga, chuqur bilimlarga, amaliy ko'nikma va malakalarga ega bo'lgan yuqori malakali mutaxassislariga qodir bo'ladilar.

O'QUVCHILARNING BILIM VA KOMPETENSIYALARINI BAHOLASHNING TURLI USUL VA VOSITALARI

Safarov Otabek Rasulovich

Sirdaryo viloyat Mirzobod tumani 4-maktab biologiya fani o'qituvchisi.

Annotasiya. *Ushbu maqolada o'quvchilar bilimini baholashning turli usullari haqida ma'lumot berilgan*

Kalit so'zlar: *Baholash, nazorat, shakl, metod, og'zaki [tekshirish](#), og'zaki ommaviy tekshirish, kombinatsiyalangan tekshirish, yozma tekshirish, shkalalash, test.*

Ta'lim tizimi uzluksiz ravishda islohotlarni amalga oshirishni talab etadigan sohadir.

Davlat ta'lim standartida belgilangan talablarni bajarilishida o'quvchilarning bilimlari, ko'nikma va malakalarini xolisona baholash, ularning bilim olishga bo'lgan qiziqishlarini rag'batlantirish va reytingini aniqlash masalalari aniq belgilab berilgan.

O'quvchilarning bilimlarini o'z vaqtida nazorat qilish va baholashning uchta vazifasi mavjud:

1. O'zlashtirishni nazorat qilish va baholash natijalariga qarab davlat ta'lim standartlari qanday bajarilayotganligi nazorat qilinadi va vazifalar belgilanadi.

2. Bilimlarni nazorat qilish va baholash natijasida o'quvchilarda bilimlar yanada kengayadi. Bu bilan ta'lim muassasalari oldida turgan ta'limiy maqsad bajariladi.

3. Ta'lim sohasida yaxshi natijalar yoshlar tarbiyasiga ham ta'sir ko'rsatadi, ularda ko'tarinki ruh, o'z kuchiga bo'lgan ishonch va qiziqish paydo bo'ladi. Shuning uchun ham ta'lim natijalarini nazorat qilish va baholash ta'lim tizimining ajralmas qismidir.

Ana shu vazifalardan kelib chiqib o'quvchilar o'quv faoliyatini hisobga olishning bir qator shakl va metodlari asoslangan.

Har bir fan bo'yicha o'quvchining o'quv faoliyatini nazorat qilish va baholash chorak yoki yarim yillik davomida muntazam ravishda olib boriladi va quyidagi nazorat turlari orqali baholanadi:

- joriy nazorat;
- oraliq nazorat;
- yakuniy nazorat.

O'quvchilarning faoliyatini hisobga olish metodlari og'zaki, yozma, test hamda amaliy topshiriqlarni bajarishga asoslangan bo'lishi mumkin.

Og'zaki [tekshirish](#). Bu metod bilimlarni nazorat qilish va baholashning ancha keng tarqalgan an'anaviy usullaridan biridir.

Og'zaki tekshirishning mohiyati shunda ko'rinadiki, o'qituvchi o'quvchilarga o'rganilgan mavzuning mazmunidan kelib chiqib, ularning o'zlashtirish darajasini aniqlaydi. Og'zaki tekshirish o'quvchilarning bilimlarini tekshirishni savol-javob usuli asosida amalga oshiriladi. Ushbu usul ayrim hollarda suhbat usuli deb ham atashadi. Og'zaki tekshirishda o'qituvchi o'rganilayotgan mavzuni alohida qismlarga ajratadi va ularni har biridan o'quvchilarga savollar beradi.

Og'zaki ommaviy tekshirish o'quvchilardan og'zaki so'rash bo'lib, ular guruhga qaratilgan savollarga javob beradilar. Bunday tekshirishda javoblar qisqa bo'ladi. Mazkur so'rash ko'pchilik o'quvchilarni nazorat qilishni ta'minlaydi va butun guruhni faollashtiradi, ammo o'quvchilarning nutqini o'stirmaydi. Bunday nuqsonlar individual so'rashda ko'zga tashlanmaydi. Ammo so'rashning bu shaklida guruhdagi boshqa o'quvchilarning to'laqonli ishlashlariga erishish juda qiyin.

Kombinatsiyalangan (tezlashtirilgan) tekshirishda o'qituvchi bir necha o'quvchini bir vaqtda doskaga chaqiradi, biri og'zaki javob beradi, 3-4 nafar o'quvchi esa kartochkalar bo'yicha yozma ishni bajarishadi va hokazolar. Bu tekshirishning murakkab usuli bo'lib, o'qituvchidan yetarlicha tajriba va diqqatlarini guruhdagi hamma o'quvchilarga taqsimlay bilishni talab qiladi.

Yozma tekshirish – o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish va baholashning eng samarali usullaridan biri bo'lib, ularning ijodiy qobiliyatlarini baholash imkonini beradi. Mazkur usulning mohiyati shundaki, o'qituvchi alohida mavzu yoki o'quv dasturining ma'lum bo'limini o'tib bo'lganidan so'ng o'quvchilarning bilimlarini nazorat qilish va baholashni tashkil etadi.

Amaliy topshiriqlarni bajarishga asoslangan tekshirish. Bajarilayotgan amaliy harakatlar (sport, mehnat harakatlari)ning to'g'riligini kuzatish yoki olingan natijalarga tayanishdan iborat bo'lishi mumkin.

O'quvchining butun dars davomidagi barcha faoliyatlarini nazorat qilish tekshirishning maxsus turi bo'lib, u o'quvchining darsdagi ishtiroki uchun ball qo'yish bilan yakunlanadi. Bu o'quvchini doimo harakat qilishga va faollikka undaydi.

Shkalalash – aniq jarayonlarni raqamlar tizimi yordamida modellashtirish. Uning turli uslublari sifat tavsiflarini miqdoriy o'zgarishlarga aylantirishga yordam beradi.

Reyting nazorati asosida o'quvchilarning o'quv faoliyatini hisobga olishning yuqorida keltirilgan metodlari bilan birga test usulidan ham samarali foydalanish mumkin.

Test – aniq maqsad asosida muayyan holat darajasini sifat va miqdoriy ko'rsatkichlarda belgilashga imkon beruvchi sinov vositasi.

Pedagogik amaliyotda testning bir qator afzalliklari ko'zga tashlanadi. Ular quyidagilardir:

- 1) nazorat uchun vaqtning kam sarflanishi;
- 2) nazariy va amaliy bilim darajasini ob'ektiv sharoitda aniqlash imkonining mavjudligi;
- 3) bir vaqtning o'zida ko'p sonli o'quvchilar bilan nazoratni tashkil etish mumkinligi;
- 4) bilim natijalarining o'qituvchi tomonidan qisqa muddatda tekshirilishi;
- 5) barcha o'quvchilarga bir xil murakkablikdagi savollar berilib, ular uchun bir xil sharoitning yaratilishi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, ta'lim tizimida islohotlarni amalga oshirish jarayonida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish va baholash ham yangicha mazmun kasb etdi. Davlat ta'lim standartlarining [ishlab chiqilganligi](#), yangi o'quv dasturining amaliyotga joriy etilganligi, erkin va mustaqil fikrlovchi shaxsni tarbiyalashga nisbatan yuqori talabning qo'yilayotganligi, ta'lim amaliyotiga pedagogik texnologiyalar olib kirilayotganligi, o'quvchilarni kasbga muvaffaqiyatli yo'llash maqsadida psixologik va pedagogik diagnostika barcha turdagi ta'lim muassasalarida keng ko'lamda amalga oshirilayotganligi kabi holatlar ko'zga tashlanayotgan bir vaqtda o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini eng samarali shakl, metod va vositalar yordamida nazorat qilish hamda baholash muhim ahamiyatga ega.

ЗНАЧЕНИЕ ФИЗИЧЕСКИХ НАУК В ОБЩЕСТВЕННОМ ПРОИЗВОДСТВЕ И НАУКИ В СРЕДНЕЙ ШКОЛЕ

Бурибоева Хайитбуви Гулбоевна
г. Гулистан, учитель физики 6-й школы
buriboyevaxayitbuvi6@mail.ru

Аннотация: Среди учебных предметов средней школы физика занимает одно из ведущих мест. Это является отображением того объективного общеизвестного факта, что физика - основа современной техники и многих современных производств и технологий.

Ключевые слова: Метод, современный, практика, научный, составная часть, теория.

Abstract: Physics occupies one of the leading places among the subjects of secondary school. This is a reflection of the objective well-known fact that physics is the basis of modern technology and many modern industries and technologies.

Key words: Method, modern, practice, scientific, component, theory.

Всю историю развития методики обучения физике нужно рассматривать с точки зрения связи с развитием общества и физической науки. Общественное развитие детерминирует пути совершенствования учебного процесса из физики, а новые достижения науки физики определяют содержание школьных учебных программ.

Механизация производства и электроэнергетика, новые материалы и вещества, сверхточные измерения и физический неразрушающий анализ, ядерная технология и энергетика, сверхточные технологии - это далеко не полный перечень отраслей современного производства, корни которых заложены в физике. Физика раскрывает общие законы и закономерности природы, устанавливает связи между явлениями природы, а специальные науки доводят их до конкретного технологического воплощения.

Знание законов природы, которые изучает физика, умение объяснять явления природы, свободно ориентироваться в ярком и быстром водовороте природных явлений - неотъемлемый признак и черта современного образованного человека. Это определяет не только его профессиональную подготовку, не только обеспечивает активное участие в общественном производстве, но и определяет интеллектуальный уровень человека в обществе. Поэтому не удивительно, что все экономически развитые страны мира уделяют много внимания совершенствованию системы физического образования. Значение физики в общественном производстве и науке отражено в учебном плане средней школы. Она занимает одно из ведущих мест среди естественных наук за количеством часов, которые отводятся на ее изучение.

На физику как учебный предмет средней школы положены такие задания: изучение основ науки физики; развитие познавательных и умственных способностей учеников; формирование современного научного мировоззрения; подготовка учеников к сознательному выбору профессии; воспитание учеников.

Функции учебного предмета физики реализуются в учебном процессе, который определяется четырьмя компонентами: содержание обучения; преподавание; изучение; материальные средства обучения.

Учитель является центральной фигурой в учебном процессе из физики. Он организует, направляет и корректирует учебную работу учеников. Для реализации на практике своих функций, он должен иметь определенную систему умений и навыков разнопланового характера. А именно:

- ✓ в совершенстве знать физику как науку, владеть методами физики и знать перспективы ее развития;
- ✓ уметь вооружить учеников определенной программой знаний и навыков из физики;
- ✓ владеть приемами и методами организации классного коллектива, реализации заданий, которые поставлены перед ними программой.

Все перечисленные задачи в теоретическом плане развязываются педагогикой (в частности, дидактикой) и психологией. Изучение общей физики обеспечивает специальную подготовку учителя

физики. Перенос психолого-педагогической теории учебы на учебный процесс из физики осуществляет методика обучения физике. По меткому определению известного физика-методиста П.А.Знаменского “Предмет методики преподавания физики - теория и практика обучения основам физики”. В последнее время постепенно входят в потребление понятия дидактики физики и технологий обучения физике, которые являются следствием существенных достижений педагогической науки. Методика обучения физике как педагогическая наука решает задачи обеспечения высокоэффективного учебного процесса из физики.

Литература:

1. Марголис А.А. и др. Практикум по школьному физическому эксперименту. - М.: Просвещение. 1987.
2. Методика преподавания физики в 6-7 классах. Ч.I / Под ред. В.П. Орехова и А.В. Усовой - М.: Просвещение, 1986.

ПРОФЕССИОНАЛЬНЫЕ КОМПЕТЕНЦИИ УЧИТЕЛЯ В СИСТЕМЕ

Ильсова Нилуфар Абдусаидовна

Сардобинский район, учитель начальных классов средней 12-й школы

ilyasovanilufar12@gmail.com

Аннотация: *Коммуникативную культуру – как важнейшее проявление общей культуры человека, как функциональная речевая компетентность гражданина современного общества, состоятельность речемыслительной деятельности будущего первоклассного специалиста, независимо от того, в какой сфере будет находиться его профессиональный интерес, дается определение коммуникативного подхода в обучении иностранным языкам, рассматриваются компоненты коммуникативной компетенции и их характеристика, приводятся различные формы и методы развития коммуникативных навыков.*

Ключевые слова: *коммуникативная компетенция, коммуникативный подход в обучении иностранным языкам, коммуникативные навыки.*

Современный этап развития методики преподавания школьных предметов характеризует новые подходы к определению целей и задач обучения. Всё шире входят в наш лексикон понятия «компетенция», профессиональная компетентность и компетентностный подход. Формирование речевой компетенции предполагает знания о речи, её функциях, развитие умений в области четырёх основных видов речевой деятельности (говорения, слушания и понимания, чтения, письма).

Коммуникативная компетентность предполагает способность к полноценному речевому общению во всех сферах человеческой деятельности, с соблюдением социальных норм речевого поведения. Основное же умение, формируемое в рамках коммуникативной компетенции – это умение создавать и воспринимать тексты – продукты речевой деятельности. Она включает в себя знание основных понятий лингвистики языка – стили речи, типы речи, строение описания, повествования, рассуждения, способы связи предложений в тексте и т. д. , умения и навыки анализа текста. Различаются компоненты ситуации или речевые условия, которые диктуют говорящему выбор слов и грамматических конструкций. Это, во-первых, взаимоотношения между собеседниками и их социальные роли. Следует сказать, что характер речевого общения будет разным в зависимости от того, с кем мы общаемся, каков социальный статус говорящих: учитель или ученик, преподаватель или студент, каков их возраст, пол, интересы и т. п. Во-вторых, место общения (например, общение преподавателя со студентом в учебной аудитории, учителя с учеником на уроке, во время перемены, учителя с учениками в беседе или библиотекаря с читателем (студентом, учеником) в библиотеке. Третий, очень важный компонент речевой ситуации, – цель и намерения говорящего.

Так, приказ, совет, просьба или требование, конечно, будут отличаться от сообщения, информации или их эмоциональной оценки, выражение благодарности, радости, обиды т. д.

Таким образом, собственно коммуникативные компетенции – это умения и навыки речевого общения с учётом того, с кем мы говорим, где говорим, и, наконец, с какой целью. Нет сомнения, что

формирование их возможно лишь на базе лингвистической и языковой компетенций.

Bola hayotida bog'chadan so'ng maktabning dastlabki davrlari muhim o'rin tutadi. Shu bois boshlang'ich ta'lim davri ta'lim jarayonidagi eng mas'uliyatli davrdir. Bu paytda bolaning savodi chiqishi bilan birga, uning dunyoqarashi shakllanadi, tafakkur qilish malakasi rivojlanadi.

Bu davrda bolaning zehni o'qitishga qaratilgan har bir mashg'ulot bola aqlining tarkib topishi va rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ham bu davrda, avvalo, ta'lim jarayonini qiziqarli, ta'sirli qilib tashkil etishga, motiv hosil qilish va uni rivojlantirishga e'tibor qaratish lozim. Chunki bu muddat bolaning o'yin faoliyatidan aqliy faoliyatga, ya'ni o'quv faoliyatiga o'tganligi bilan xarakterlanadi.

Bolaning o'quv faoliyatini rivojlantirishda turli o'yinlardan foydalanish katta ahamiyat kasb etadi. Bolalar o'yin orqali o'z bilimlarini mukammallashtiradilar va uni chuqur o'zlashtiradilar. Shu jihatdan qaraganda, ta'lim jarayonida qo'lanadigan didaktik o'yinlarning roli beqiyosdir. Didaktik o'yinlar ta'lim jarayoni samaradorligini oshiradi, ta'lim jarayonida o'quvchilar faolligini, o'qish motivlarini rivojlantiradi. o'qish motivlari ta'lim jarayonini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishda ham muhim o'rin tutadi.

Didaktik o'yinlar boshlang'ich sinflarda ta'limning samarali borishiga o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini muvaffaqiyatli boshqarishga ham katta yordam beradi, ya'ni didaktik o'yinlar vositasida nazariy bilimlar oson egallanadi, o'quv- chilarning bilim olishga qiziqishlari ortadi.

Didaktik jarayonning samarali o'tishida motivlar muhim o'rin tutadi. Chunki qiziqib, aniq maqsad asosida egallangan bilimlarga samarali bo'ladi.

Motiv kishini biror ish-harakatni bajarishga undovchi da'vat, turtki. Shunday ekan, muallimlar bolada o'qish motivlarini hosil qilishga intilishlari va uni o'qitishlari kerak. Motivlar o'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakalarni oson egallashlariga yordam beradi.

Motiv bolada bilim olishga ishtiyoq va qiziqish uyg'otadi. o'qituvchilar bundan mohirlik bilan foydalanishlari va o'quvchilarga beriladigan mustaqil ishlar tizimini ishlab chiqishlari foydadan xoli bo'lmaydi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining har bir darsni tashkil etish uchun turli didaktik o'yinlardan foydalanishlari yaxshi samara beradi.

Chunki 6-7 yoshli bolalar hayotida maktab davri ancha murakkab davr bo'lib, bolalar oldida jiddiy

sinov turadi. Bola yangi hayot - maktab hayotiga kirib boradi. Endi u yangi jamoaning a'zosi ekanligini his etishga, intizomga bo'ysunishga, yangi rejimga moslashishga majbur bo'adi. Bola yosh bo'lishiga qaramay, endi uning maktabda oqish, uy vazifalarini bajarish, murakkab materiallarni o'rganish kabi zarur yumushlari ko'p. Muhimi, o'yindan maktabga, kundalik majburiy va davomli mehnatga o'tish bola hayotida tub burilishdir. Hatto maktabgacha tarbiya muassasalaridan kelgan bolalar uchun ham bu oson kechmaydi. Uydan maktabga kelgan bolalarga esa yana ham qiyin. Ayniqsa, sinfda 40—45 daqiqalik darsda o'tirish, tinglash va topshiriqlarni bajarish, uzoq aqliy mehnat bolani tez toliqtiradi. Bola maktabdan, o'qishdan sovib ketishi mumkin. Shuning uchun ham o'qituvchilar bolalarning maktabdagi hayotini qiziqarli tashkil etishga intilishlari, motiv hosil qilish va uni rivojlantirishga harakat qilishlari lozim. Motiv o'z- o'zidan hosil bolmaydi. Uni bolalar yoshiga va psixologik xususiyatlariga mos didaktik o'yinlar va mustaqil ishlar vositasida hosil qilish mumkin.

Ayniqsa boshlang'ich ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda darslarni qiziqarli olib borish natijasida o'quvchilarni darsga jalb etish samarali bo'ladi. Shunday darslarda bolalar diqqati to'liq jalb etiladi, xotirasi yaxshi ishlaydi. Motivlar o'quvchilarning bilimlarini chuqur egallashlariga yordam beradi. Shuning uchun ham boshlang'ich sinf o'qituvchilari ta'lim jarayonini qiziqarli motivlar asosida tashkil etishga e'tibor qaratishlari zarur.

O'qituvchi o'quvchilarga darsga qiziqish uyg'otishi zarur. Yani, **Motiv hosil qilish:** Buni darsning o'tgan darsni mustahkamlash qismida va yangi darsni o'tishga tayyorgarlik qismida, butun dars davomida ham amalga oshiriladi. Motiv hosil qilishda turli didaktik o'yinlar, topshiriqlar, musobaqalar va boshqa ish usullaridan foydalaniladi.

Masalan matn mazmuni ustida ishlash. O'quvchilar matn mazmunini so'zlab berishlari yoki turli didaktik o'yinlar vositasida mazmunni o'zlashtirishi mumkin.

Yoki, «Davom ettir» o'yini: O'qituvchi matn mazmunini hikoya qilishni boshlaydi, bir o'quvchi uni davom ettiradi. Shu taxlitda barcha o'quvchilarni matn hikoyasiga qatnashtirish mumkin.

«Zanjir» o'yini: matndagi bir necha so'zlar vositasida bu o'yinni o'ynash mumkin. O'qituvchi boshlab bir so'z aytadi, so'zning tugagan harfidan boshlanadigan so'zni bir o'quvchi aytadi, shu taxlitda hamma o'quvchilarni o'yinga qatnashtirish mumkin.

«Tez javob»: O'qituvchi yoki boshlovchi o'quvchilar qatori oralab yurib, o'quvchilardan birini turg'izadi va biror tur nomini aytadi. O'quvchi shu turga kimvchi so'z topib aytishi lozim. Javob uchgacha sanaguncha aytilishi kerak. Javob berolmagan o'quvchi o'yindan chiqadi. O'yin toki bir o'quvchi qolguncha davom ettiriladi. Bunday o'yin davomida o'quvchilarda hozirjavoblik, mustaqil fikrlash malakasi rivojlanib, atrof-muhitni sinchkovlik bilan kuzatishga o'rganadi, atrofdagi sodir bo'ladigan voqea va hodisalarga qiziqishi ortadi.

Shu kabi o'yinlardan foydalanish orqali o'qituvchi o'quvchilarning o'qish motivini rivojlantiradi va ularning dunyoqarashlarining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi, o'quvchilarda topqirlik, chaqqonlik, bilimdonlik kabi sifatlarni rivojlantiradi, xulqiga ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda boshlang'ich sinf o'quvchilari boshqarishga moyil, qiziquvchan, ta'sirchan bo'lganliklari uchun ham o'qituvchidan o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos bo'lgan, darsni oson o'zlashtirishlarini, bilimlarni mustahkam o'rganishni kafolatlaydigan metodlarni tanlashi va foydalanishi talab etiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan o'qish darslari jarayonida erkin va mustaqil fikrlash qobiliyati shakllanadi. Mustaqil fikrlash qobiliyatining shakllanishi natijasida, o'quvchilar atrof olamdagi, jamiyatdagi qonunlarni, shuningdek, asardagi ijobiy va salbiy qahramonlar orqali ular insoniy fazilatlarini anglash, bilimlarni chuqur o'rganish, keng fikrlash, tegishli qarorlar qabul qilish ko'nikmalari shakllanadi.

O'QUVCHILARNING BIOLOGIYA FANIGA BO'LGAN KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHDA "KEYS-STADI" TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Ergasheva Gulmira Annotasiya

Sirdaryo viloyati Guliston shahar 11-maktab biologiya fani o'qituvchisi

Annotasiya: Ushbu maqolada o'quvchilarni biologik bilimlarini rivojlantirish uchun "Keys-stadi" innovatsion texnologiyasidan foydalanish yollari haqida fikr yuritilgan.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek "Ma'lumki, yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Ammo biz yashayotgan XXI asrda bu masala haqiqatan ham hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda" Darhaqiqat 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida ko'zda tutilgan mamlakatimizni modernizatsiya qilishning ustuvor vazifalari barcha soha va tarmoqlar qatori ta'lim tizimini ham takomillashtirish, soha uchun yangi imkoniyatlar yaratishni talab qilmoqda.

O'quvchilarni har tomonlama rivojlantirish, ularda bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni tarkib toptirishda o'qituvchining kasbiy kompetentligi muhim ahamiyatga ega. O'qituvchining kasbiy kompetentligi o'zida kompetensiyalar majmuini mujassamlashtiradi. Mazkur kompetensiyalar pedagogning muayyan sohadagi kasbiy bilimlari, ko'nikmalari, malakalari tizimini ifodalaydi. O'qituvchining kasbiy kompetentligi tushunchasi doirasida uning nazariy hamda tayyorgarlik darajasi tushuniladi. Shu ma'noda kompetentlik kasbiy mahoratning bosqichi sifatida talqin etiladi. Kasbiy kompetentlik o'qituvchi kasbiy faoliyatining asosini tashkil qiladi. O'qituvchining kompetentligi uning pedagogik vazifalarni turli darajalarda echa olish mahoratini ham ko'rsatadi.

Shunday ekan o'qituvchi biologiya darslrida o'quvchilarning fanga bo'lgan motivatsiyalarini shakllantirishda turli xil texnologiya va innovatsiyalardan foydalana olish kompetensiyasiga ega bo'lishi zarur.

Keys-stadi texnologiyasi hozirgi kunda o'zining innovatsion texnologiya sifatida ta'lim tizimida samarali qo'llanilib kelinmoqda. Bu metodning nomi inglizcha **"case-study"** so'zlaridan olingan. Bunda **"case"** – yashik, quti, gilof, jild, **"study"** – o'rganish, tadqiq qilish, ilm bilan shug'ullanish, o'quv fani, saboq olish, o'qish ma'nolarini bildiradi. Bu metod haqida inglizcha aytiladigan **"case-true life"**, ya'ni **"keys-haqiqiy hayot"** iborasiga ko'ra keys-real hayotning **«bir parchasidir»**. Shunga ko'ra bu metodni **"amaliy holatlarni o'qitish metodi"** deb ham ataladi.

Keys-stadi metodi bo'yicha o'rganilayotgan har bir muammo yoki mavzu yuzasidan amalga oshiriladigan ishlar rejasi, ularni bajarish tafsiloti, natijalar va xulosalar yig'indisi alohida keysni tashkil qiladi. Bu metod ta'lim jarayonida hayotiy vaziyatlardan foydalanishga qaratilgan. Bu esa, hozirgi kunlarda ta'lim sohasidagi dolzarb bo'lgan muammolardan hisoblanadi. Ushbu muammoni hal qilish imkonini berishi bu metodning alohida ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatib turibdi.

Shu sababli G'arb mamlakatlaridagi ta'lim muassasalarida keys-stadi metodidan, ya'ni keyslardan foydalanish o'quv rejasining 25 % ini tashkil qiladi. Shu munosabat bilan ta'lim muassasalarida hayotiy vaziyatdan foydalanishning ahamiyati haqida qisqacha to'xtalib o'tamiz. Barcha texnologiyalar kabi keys-stadi texnologiyasi o'z manbalariga ega. Ba'zi fikrlarga ko'ra keysning asosiy manbasi hayotiy vaziyatlar hisoblanadi. Hayotiy hodisalar baxslarga sabab bo'ladi, muammoni yechish jarayonini jadallashtiradi. Ijtimoiy hayotning barcha ko'rinishlari keysning faktologik va muammoviy bazasi bo'lib xizmat qiladi, shuningdek keys tarkibining asosini tashkil qiladi.

Keyslarning yana bir muhim manbasi ta'lim-tarbiya hisoblanadi. Uning yordamida keys texnologiyasining maqsadi, vazifalari, ta'lim tizimida tutgan o'rni belgilanadi.

Keysning uchinchi manbasi - bu fandir. U o'zida keys-stadi texnologiyasining ikkita metodologiyasini ifodalaydi va boshqa uslublar qatorida keys uslubini tahliliy sur'atini belgilaydi.

Amaliy jarayonlarda keys –stadi texnologiyasi qo'llashda yuqorida keltirib o'tilgan manbalardan bittasi asosiy o'rini egallaydi. Bitta vaziyatda uchta manbadan foydalanilsa ham bittasi baribir asosiy o'ringa chiqib oladi. Bu holatda keysning asosiy manbalaridan foydalanilishida, ularning ahamiyatini esdan chiqarmaslik kerak.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda keys-stadi texnologiyasi quyidagi turlarga ajratiladi: Amaliy keyslar (real xayotiy vaziyatlarni aks ettiruvchi); ta'lim –tarbiyaga yo'naltiruvchi keyslar (asosiy vazifasi ta'lim-tarbiya berish hisoblanadi); ilmiy-izlanish keyslari (ilmiy izlanishlarni amalga oshirishga yo'naltirilgan).

Masalan keys –stadi texnologiyasidan biologiya darslarida quyidagicha foydalanish mumkin:

“G.Mendel kashf etgan irsiylanish qonunlari va monoduragay chatishtirish” mavzusi bo'yicha keys topshirig'i

I-topshiriq. Quyidagi muammoli vaziyatning echimini toping va fikringizni asoslab bering:

Tug'ruqxonada endigina dunyoga kelgan ikkita chaqaloqni almashtirib qo'yishdi. Ulardan birining ota-onasi birinchi va ikkinchi qon guruhiga, ikkinchisniki esa ikkinchi va to'rtinchi qon guruhiga ega bo'lgan. Bolalarning qon guruhi tekshirilganda, ulardan birining qon guruhi birinchi va ikkinchisniki esa ikkinchi ekanligi aniqlandi.

1. Bolalarning qaysi ota-onaga tegishli ekanligini aniqlang.
2. Bolalarning qon guruhini aniqlamasdan ham ularning ota-onasini to'g'ri belgilash mumkinmi?

II- topshiriq. 1) Allel genlarning o'zaro ta'sir xillarni aniqlang.

2) Aniqlangan belgilar asosida 1 ta masala tuzing, uni ishleng va echimini izohlang.

III-topshiriq. Savol: Allel genlarning o'zaro ta'sirida Mendel qonunlari amal qiladimi?

Javobingizni FSMU usulida asoslang (F-fikringizni bayon qiling, S- fikringizga sabab ko'rsating, M- misol keltiring, U-umumlashtiring).

Keys-2

Nodirjonning buyragidan tosh topildi, u bir necha bor davolandi bu hol takrorlanavergach, shifokor Nodirjonga lor qabuliga borib, og'rigan tishini va anginasini davolashni maslahat berdi. Shifokor .Nodirjonga nima sababdan urolg emas, lor qabuliga murojat qildishni maslahat berdi.

Savollar:

Buyragida kasallanish alomatlari topilgan odamga nima uchun shifokor og'rigan tishini va anginasini davolashni maslahat beradi?

Siydik ayirish organlarining yallig'lanishida qanday kasalliklari ko'p uchrab turadi?.

Tinglovchi uchun ko'rsatmalar:

- 1.Keys mohiyatini yetarlicha anglab yeting
- 2.Muammoning yechimini topishda xizmat qiluvchi omillarni aniqlang
- 3.Ana shu omillar asosida yechimini asoslang
- 4.O'z fikringizni bayon eting.

O'qituvchi yechimi:

Siydik ayirish organlarining yallig'lanish, siydik yo'lida tosh hosil bo'lish kasalliklari ko'p uchrab turadi. Yallig'lanish tomoq, tish, og'iz bo'shlig'i va boshqa organ lardagi infeksiya manbai bilan bog'liq bolishi, shamollash yoki sovqotish oqibatida yallig'lanish kuchayishi mumkin. Buyrak har xil zaharli moddalarga juda sezgir bo'ladi. Shuning uchun og'rigan tishini va anginasini davolash yaxshi natija beradi

Kichik keyslar

1.Keys savoli Alohida o'rin tutadigan kislotalar qaysilar?

Siz bilasizki, qon tarkibidagi eritrotsitlar 120 kungacha yashaydi. Lekosidlar esa 8 kungacha yashaydi, lekin organizmda shunday kichik tanachalar borki, ulardan yirik polemer moddalar, jumladan, oqsillar sintezlanadi

2.Keys savoli aminokislotalarning tashilishida bevosita ishtirok etuvchi RNK turini ayting.

Hujayrada ko'plab organoidlar, orgonellalar mavjud bo'lib, ular o'rtasida go'yoki vazifalar taqsimlangan. Shunday nuklein kislotalar borki, ularga go'yoki kompyuterga o'xshatib dasturlangandek;

3.Keys savoli tarkibida qaysi uglevodlar uchraydi?

Odatda to'qimalar, organlar bajaradigan funksiyasiga qarab tuziladi va shu asosda differensiyallashib boradi. Nuklein kislotalarda ham funksiyasiga qarab uchta sinfga bo'linadigan kislotalar bor.

Xulosa qilib aytganda ta'lim sohasidagi barcha islohotlar zamirida malakali kadr tayyorlash eng dolzarb

masala sifatida kun tartibiga qo'yilayotgan ekan uzluksiz ta'lim tizimida malakali kadr tayorlash jamiyatning zaruriy ehtiyoji hisoblangan ta'lim-tarbiya tizimini yangicha ko'rinish va yangicha mazmunda amalga oshirish, dars jarayonida innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalarni samarali qo'llash orqali ta'lim samaradorligiga erishish lozim. Buning uchun mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalari hamda ilm-fan sahasidagi innovatsiyalarga asoslangan holda tashkil etish, ma'naviy barkamol va intellektual rivojlangan shaxsni tarbiyalash bugungi va ertangi kunimizning dolzarb masalasi bo'lib qolaveradi.

FIZIKA FANINI O'QITISHDA SINFDAN TASHQARI ISHLARNI OLIB BORILISHINING AHAMIYATI

Abduraxmonova Odina Kamoliddin qizi

Sirdaryo viloyati Guliston shahar 11-maktab fizika fani o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada sinfdan tashqari ishlari orasida fizika fani to'garak mashg'ulotlarini o'quvchilar bilimida, tarbiyasida muhim ahamiyatga ega ekanligi haqida.*

Fizikadan sinfdan tashqari ish deganda o'quvchilarning darsdan tashqari vaqtda qilingan dastur bilan bog'liq bo'lgan material asosida ixtiyoriylik tamoyiliga asoslangan mashg'ulotlar tushuniladi.

Sinfdan tashqari ishlar o'quvchilarning fizik bilimlarini chuqurlashtirish va kengaytirish, murakkab misol va masalalarni yechishni mashq qilish, fizikaning hayot bilan bog'liq bo'lgan tomonlarini ochadigan va dasturga kirmagan ba'zi savollar bilan tanishtirishni maqsad qilib oladi.

Sinfdan tashqari ishlarning qiyidagi turlari uchraydi: fizikaviy to'garaklar, olimpiadalar, qiziqarli matematik kechalar, qiziqarli matnli masalalar, ekskursiyalar, o'tkir zehnilikka oid masalalar, arifmetik rebuslar, o'yinlar, fokuslar, boshqotirmalar fizikaviy viktorina, matematik gazeta, burchaklar tashkil qilish.

Fizika fanini sifat va samaradorligini oshirish yuzasidan fizika fani togaraklari sinfdan tashqari olib boriladigan ishlar turli kechalar, viktorinalar, oquvchilarni fizika faniga bo'lgan qiziqishini yanada rivojlantiradi. Sir emaski fizika faniga ko'plab oquvchilarimiz qiziqmaydi, sababi fizika fanini oquvchilar o'ta qiyin fan deb tushunishadi. Oquvchi fanga tushunmasa mazkur fanga qiziqmaydi fizika fanini zerikarli fan deb tushunishadi, fanga qiziqtirishda o'qituvchining kasb mahorati tajribasi yangi pedagogik texnologiyalardan samarali foydalana olishi o'quvchilarga yakka tartibda yondoshishi o'quvchilar bilimidagi bo'shliqlarni to'ldirish asosiy omil bolib, muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda sinfdan tashqari ishlarga e'tiborni ko'proq qaratish zarur, har bir o'quvchidagi fizikadan bilimi oshishi yoki pasayishi yakka tartibda o'quvchi monitoringgi olib borishi zarur qaysi mavzuni o'quvchilar yetarli o'zlashtira olmayotanligini aniqlab sinfdan tashqari ishlarda o'qituvchi qiyin o'zlashtirilayotgan mavzularni yangi pedagogik texnologiyani tatbiq etgan holda qiziqarli etib o'yin tarzida o'quvchilarni zeriktirmasdan o'quvchilar ongiga yetgazishi lozim bunda o'quvchilarni rag'batlantirib borish muhimdir.

Maktabda o'tkaziladigan sinfdan tashqari ishlar xilma-xildir. Men sinfdan tashqari ishlar orasida matemaika kechalari va musobaqalar muhim ta'sir etuvchi kuchga ega ekanligini o'z pedagogik faoliyatimda ko'rdim. Fizika faniga zerikarli quruq fan deb qarovchi va unga yetarli darajada qiziqmaydigan o'quvchilar oz emas. Ammo bu 'o'rinda bunday o'quvchilarni fizika faniga qiziqtirishga sinfdan tashqari ishlar jumladan maktabda o'tkaziladigan fizika kechalarini ahamiyati haqida aytish joizdir.

Fizika bo'limlariga bag'ishlangan kechalar o'quvchilar bilimini chuqurlashtirish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Quyida 7-sinfdan o'tkazilgan "Assalom fizika" kechasining qisqacha mazmuni hamda 9-sinf o'quvchilari bilan "Zuxro yulduzi" va "Ona zamin" komandalari o'rtasidagi bellashuvning mazmuni beriladi.

Quyida "Assalom fizika" kechasining qisqa matni beriladi.

1-o'quvchi: Stol ustida turgan fizik asboblardan menzurkani toping, vazifasini tushuntiring.

2-o'quvchi: Menzurkani qo'lga oladi va uning hajmini, o'lchashdagi vazifasini tushuntiradi.

1-o'quvchi: Kishi tanasining harorati qanday asbob bilan o'lchanadi?

2-o'quvchi: Termometr kashf etilgunga qadar tana harorati qo'l bilan aniqlangan, keyinchalik esa termometr bilan o'lchanadi deb termometrni ko'rsatadi.

1-o'quvchi: Kuchni qanday asbob bilan o'lchanadi, uni toping va qaerlarda ishlatilishini tushuntiring?

2-o'quvchi: kuch dinamometr bilan o'lchanadi. U muskul kuchlarini aniqlashda, ikki jism orasidagi

tortishish kuchini aniqlashda ishlatiladi. SHunga o'xshash savollar davom ettiriladi. Savol-javob, munozaralarda kim ko'proq ball yig'sa, shu o'quvchi g'olib hisoblanadi.

Komandalarga tayyorlangan savollar.

- Metallni bolg'a bilan tez-tez urib isitish mumkin. Bu mexanikaviy ish nimaga sarf bo'ladi?
- Quvvat birliklarini ayting?
- CHoynak qancha ko'p isitilsa undagi suv shuncha sekin qaynaydi. Nimaga shunday?
- Elektromagnit induksiya hodisasini kim qachon kashf qilgan?
- Daraxt bargiga tuproqdan ildiz orqali ko'p miqdordagi suv uzluksiz kelib turadi. Bu suv qaerga ketadi?
- Bug' turbinalarida suv bug'ining qanday tur energiyasidan foydalaniladi? □ Siz issiqlik dvigatellarining qanday turlarini bilasiz?

Albatta, savollar va javoblar oralig'ida badiiy qism, ashula, o'yin, intermediyalardan foydalaniladi.

Xulosa qilib, aytganda fizikadan o'tkaziladigan sinfdan tashqari mashg'ulotlarning barchasi o'quvchilarni fizika va texnika fanlariga qiziqishini orttirishga xizmat qiladi.

Ta'kidlanishicha, fizika fanida darsdan tashqari ishlar aniq va samarali olib boriladigan maktablarda bunday fan o'quvchilar tomonidan yuqori baholanadi.

AJDODLAR BUYUK MEROSIDAN MATEMATIKA FANINI O'QITISHDA FOYDALANISH

Ergashova Shoir

*Sirdaryo viloyat, Guliston shahar 2-sonli matematika faniga ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktabi
matematika fani o'qituvchisi*

Matematika fani asoslarini yaratishga ulkan hissa qo'shgan buyuk allomalarimiz Muhammad al-Xorazmiy, Ahmad al Farg'oniy, Abu Rayxon Beruniy va Mirzo Ulug'beklar haqqi-hurmati ularning merosxo'rlari bo'lmish - mamlakatimiz yoshlari matematikaning barcha go'zal ne'matlaridan bahramand bo'lishlariga sharoit yaratib berish – biz matematika fani o'qituvchilari uchun ham qarz, ham farz hisoblanadi.

Bizning yurtimizda ajdodlarimiz bundan bir necha asrlar avval hozirgi zamonaviy ilm-fanning ilk poydevorini qo'ygan va rivojlantirgan. Allomalarimiz qomusiy olimlar bo'lib, ular bir vaqtning o'zida matematika, astronomiya, geodeziya, geografiya, tarix, arifmetika, farmakologiya, tibbiyot, falsafa va tilshunoslik ilmlari bilan ham shug'ullanganlar. Ayni jihat G'arbda "Nur Sharqdan taraladi" degan ibora paydo bo'lishiga sabab bo'lgan.

Darhaqiqat, allomalarimizning ilmiy izlanishlari samarasi o'laroq, ilm-fanda keskin o'zgarishlar bo'ldi. Ayniqsa, Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Al-Hakim at Termiziy, Abu Nasr ibn Iroq, Abu Mansur Qumriy, Abu Sahl Masihiy, Abu Ali ibn Sino, Ismoil Jurjoniy, Yusuf Hiraviy, Abu Abdulloh Jayxoni, Abu Nasr Farobiy, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi allomalarning asarlari bebaho ilmiy durdonalar sifatida, jahon ilmiga beqiyos hissa bo'lib, bu ilm-fan taraqqiy etgan davrni Sharq uyg'onish davri sifatida dunyo ilmiy jamoatchiligi tomonidan haqli ravishda tan olingan.

IX-XII asrlar O'rta Osiyo xalqlari tarixida moddiy va ma'naviy hayotning rivojlanishida oldingi davrlarga nisbatan keskin yuksalish yillari bo'ldi. Xorun ar-Rashid tashabbusi bilan Bag'dodda ilmiy Markaz-Akademiya («Bayt ul-Xikma»)-tashkil etilib, unga barcha musulmon o'lkalari, jumladan O'rta Osiyodan ham olim va fozillar to'plandi. Bu markazda Movaraunnahr va Xurosondan kelgan Muso Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Marvoziy, Marvarudiy, Javhariy kabi olimlar Bag'dod akademiyasini jahonga mashhur bo'lishida katta hissa qo'shdilar. Movaraunnahrda arab halifaligini hukmronligini o'rnatilishi hamda islom dinining keng yoyilishining ijobiy tomonlaridan biri shuki, Bag'doddagi ilmiy akademiyadan o'rnak olib Xorazmda ham X asrda Ma'mun akademiyasi vujudga keldi va uning a'zolari bo'lmish o'z davrining olimu-donishmandlari o'z ijodlari bilan Movaraunnahrni donishi olamga yoydilar.

Abu Abdullo Muhammad Ibn Muso al – Xorazmiy (783-850 y) - buyuk mutafakkir va olim al-Xorazmiyning arifmetika va algebraga doir «Kitob al-jabr val mukobala» (To'ldirish va qarama-qarshi qo'yish haqida kitob) asari matematika fanida yangi davrni boshlab beribgina qolmay, balki uning keyingi asrlardagi taraqqiyotiga ham katta asos bo'ldi. «Hind arifmetikasi haqida kitob» asari tufayli avval Sharq xalqlari, so'ngra

esa Evropa xalqlari ham Qadimiy Hindistonning katta yutug'i-o'nli pozitsiyasi hisoblash sistemasi bilan tanishdilar. (XII asrda lotin tiliga o'girilgan). Al-Xorazmiyning «Kitob surat al-arz» (erning surati) asari geografiyaga, «Astronomik jadvallari» astronomiyaga oid bo'lib, ular muallifning nomini jahonga yoydi. Shuningdek, «Kuyosh soatlari to'g'risida risola», «Tarix risolasi», «Usturlab haqida risola», «Musiqqa risolasi» singari ajoyib asarlari olimga katta shuxrat keltirdi, uning nomini abadiylashtirdi. Al-Xorazmiyning «Al-jabr val muqobala» asari keyinchalik Evropada «Algebra» deb yuritila boshlandi. Uning astronomiyaga oid asari esa faqat Sharqda emas, balki G'arbda ham asronomiya fani rivojida katta rol o'ynadi.

Abul Abbos Ahmad ibn Muhammad Al-Farg'onining tarjimai holiga doir ma'lumotlar tarixda kam saqlanib qolgan. 861 yilda vafot etgan. Astronomiya, matematika, geodeziya, gidrologiya fanlarining bilimdoni Bag'dod va Damashqdagi rasadxona qurilishlarida faol qatnashdi va u erda Ptolemeyning «Yulduzlar jadvalidagi» ma'lumotlarni tekshirish ishlarini olib bordi. Al-Farg'oni astronomiyaga oid «Astronomiya negizlari» asarida astronomiyaga oid bilimlarni tartibga soldi, o'zining yangi natijalari bilan boyitdi. O'sha davr an'anasiga muvofiq mamlakatlarni etti iqlimga bo'lib urgandi. Kuyosh soatlarini bayonini berdi, astronomik asboblari yaratdi. Farg'oniying bu asari N.Kopernik davriga qadar Evropada astronomiya fanidan asosiy qo'llanma sifatida foydalanildi.

Abu Rayxon Beruniy (973-1048 y) - Xorazmda tavallud topgan bu mutafakkir, serqirra olim astronomiya, tarix, tibbiyot, riyoziyot, jug'rofiya, geodeziya, meteorologiya, etnografiya, falsafa, filologiyaga oid 150 ga yaqin asarlar yaratgan. Bu asarlar Beruniy nomini jahonga taratdi. Shuningdek, uning xikoyalar, she'rlar bitganligi xam ma'lum. Beruniy o'rta asrda birinchi bo'lib globus yaratdi. U arab, fors, hind turkiy tillarni mukammal bilgan. Uning «Farmokanaziya», «Geodeziya», «Hindiston», «Minerologiya», «Ma'sud qonuni», «qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» asarlari o'zbek va rus tillariga tarjima qilingan. Maxmud G'aznaviy saroyda ham xizmatda bo'lgan. U Ibn Sino bilan ham zamondosh edi.

Abu Ali Ibn Sino (980-1037 yil) - u falsafa, mantiq ruxshunoslik, adabiyotshunoslik, she'riyat, musiqa, geologiya, minerologiya, fizika, matematika, tibbiyot, astronomiyaga oid yuzlab asarlar yaratdi. Abu Alining ilmiy qiziqishlari doirasi shu qadar keng bo'lganki, uning 40 dan ziyod tibbiyotga, 30 ga yaqin astronomiya va tabiatshunoslik fanlariga, 185 ta falsafa, mantiq va ilohiyotga bag'ishlangan asarlar yaratgani ma'lum.

Xulosa qilib aytganda, o'sib kelayotgan yosh avlodni mazkur asarlar bilan tanishtirish, ularning dunyoqarashini kengaytiradi, bilim saviyasini oshiradi. O'quvchi shaxsini barkamol rivojlantirish, uning imkoniyat va talab ehtiyojlarini hisobga olgan holda ta'lim berish, davlat va jamiyat talablari asosida rivojlantirishga erishish uchun matematika ta'limi jarayonida tarixiy materiallardan foydalanishi muayyan tamoyillar asosida tashkil etish kerakligi o'z tasdig'ini topdi.

Adabiyotlar:

1. “Xorazm Ma'mun akademiyasi: tarixi, buguni va kelajagi” mavzuidagi konferensiya materiallari, -Xiva: 2005.
2. Uvatov U. O'zbekiston - Buyuk allomalar yurti. -T.: 2010 y
3. Buyuk siymolar, allomalar: (Markaziy Osiyodagi mashhur mutafakkir va donishmandlar). K. 3. - T.: Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1997 y.

FIZIKA VA MATEMATIKA FANLARI INTEGRASIYALASHDA DARS SAMARADORLIGI

Shaimova Maxsuda Xalikovna, Krivonosova Nataliya Mixaylovna

Sirdaryo viloyat, Guliston shahar 2-sonli matematika faniga ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktabi fizika va matematika fani o'qituvchilari

Matematika fani ko'pgina fanlar bilan uzviy bog'liqdir ayniqsa fizika, chizmachilik, kimyo va astronomiya fanlari bilan uzviy aloqada bo'ladi. Matematika fanining boshqa fanlar bilan uzviy aloqasi quyidagi ikki yo'l bilan amalga oshiriladi:

- 1) Matematika tizimining butunligini buzmagani holda o'qishni fanlarning dasturlariga moslashtirish;
- 2) Boshqa fanlarda matematika qonunlarini, formulalarini teoremlarni o'rganish bilan bog'liq bo'lgan materiallardan matematika kursida foydalanish;

Hozirgi vaqtda matematika dasturini boshqa fanlar bilan moslashtirish masalasi ancha muvaffaqiyatli hal qilingan. Masalan, funksiyalar va ularni grafik tasvirlash haqida fizikada foydalaniladigan ba'zi malumotlarni o'quvchilar 7-sinfda boshlab o'rgana boshlaydilar. 8-sinfda beriladigan geometrik masalalarga doir ko'p bilimlar chizmachilik fani uchun boy material bo'ladi, chizmachilikning vazifasi bu bilimlarni turli chizmachilik ishlarini bajaritirish yo'li bilan mustahkamlashdan iboratdir.

Matematika hamda fizika fanlarini uzviylikda, o'zaro bog'liqlikda samarali o'qitishning ilg'or usullaridan biri integallashtirish, ya'ni qo'shma darslarni tashkil qilishdir, natijada o'quv jarayoni bir-biri bilan chambarchas bog'langan turli-tuman hodisalarga boy bo'ladi va mashg'ulot qiziqarli, jadal, izlanuvchan xarakterda bo'ladi. Matematika va fizika fanlari integratsiyalash orqali bir-birini to'ldiradi, izohlar bilan bilim olish jarayonini yanada takomillashtiradi.

Matematika darslarida boshqa fanlardan foydalanish masalasini dasturda aniq ko'rsatish qiyin, buni o'qituvchining o'zi amalga oshiradi, ya'ni o'quv materialini rejalashtirishda va darsga tayyorlanish vaqtida e'tiborga olishi kerak. Masalalarni, tenglamalarni o'rganish davrida fizik miqdorlar orasidagi bog'lanishlarni aks ettiradigan tenglamalarni, ya'ni issiqlik balansi tenglamasi, issiqlikdan chiziqli kengayish tenglamasi va shunga o'xshash tenglamalarni ham yechilishi mumkin. Dasturning foiz, proporsiya va boshqa boblarini o'rganishda ximiya va fizika masalalaridan foydalanish ma'quldir (aralashmalar, quymalar va shunga o'xshashlar), masalan:

- 1) 20% li eritma hosil qilish uchun eritiladigan moddadan 240 g. suvga qancha solish kerak;
- 2) 5% li 400 g eritmani qaynatib, 200 g. ga keltirildi. Endi eritmaning o'tkirligi qancha bo'ladi?

Qo'shni fanlarga doir materiallardan matematika darslarida foydalanish fanlararo uzviy aloqadorlikni yanada mustahkamlaydi.

Matematika hamda fizika kurslarini uzviylashtirish orqali ortiqcha takrorlanish va o'quvchilar zo'riqishining oldini oladi, shu bilan bir qatorda, asosiy mazmunli-metodik yo'nalishlarni (son, funktsiya, hosila, integral, differentsial hisob nazariyalari va h.k.) ajratib olishga va ularni rivojlantirishga zaruriy shart-sharoit yaratadi.

Yuqorida keltirilgan nazariy xulosalarga ko'ra ushbu tadqiqot yo'nalishi asosida matematika, fizika fanlarini integratsiyalashda asosiy tayanch tushuncha, bilim va ko'nikmalarni aniqlash uchun darsliklar qiyoslab tahlil qilindi. Tahlil natijasida o'quvchilarning matematika darslarida egallagan quyidagi asosiy tushuncha, ko'nikma va malakalari fizika ta'limida keng qo'llanilishi aniqlandi.

Bunday tushunchalardan biri - "sonning standart shakli"dir. Masalan: atom radiusi - 10^{-10} , Avogadro doimisi - $6,02 \cdot 10^{23}$ va h.k.

Fizika fanini o'rganishda muayyan mazmundagi masalani avval matematik tilga ko'chirib, so'ngra yechish ko'nikmasi - modelashtirishni muvaffaqiyatli amalga oshirishning zarur shartidir. Ko'pgina fizik masalalar tenglama (yoki tenglamalar tizimi) tuzish va ular bilan ishlash ko'nikmasining shakllangan bo'lishini taqozo yetadi. Fizikani o'qitishda matematika fani nafaqat hisoblash apparati sifatida qo'llanilmoqda, balki bugungi kunda matematik mulohazalar yordamida voqelik, hodisaning o'tish jarayonining xarakteri haqida fizikaviy xulosalar chiqarishga imkon tug'diradi va ular tadqiq qilinadi, matematik tenglamalar yechish orqali fizik hodisalar haqida fikr yuritish mumkin.

O'quvchilar fizika darslarida tenglamalar tuzib yechishga qiynaladilar. Bunday vaziyatning oldini olish maqsadida matematika darslarida aynan fizikaviy voqelik natijasi bo'lgan tenglamalarni yechish, shu bilan bir qatorda harfiy belgilashlarda uzviylikni ta'minlash kerak.

Fizika o'qitishda vektor va skalyar kattaliklar ko'p ishlatiladi. Fizika fanidagi funksional bog'lanish, kvadrat tenglama, limit, hosila tushunchasi keyinroq o'tiladi.

Funksional bog'lanish fizikada keng ishlatiladigan munosabat. Funktsiya tushunchasi, uning grafigi, ikki voqelik, to'plam orasidagi munosabat, moslik, uning xossalari kabilarni yaxshi o'zlashtirgan o'quvchi fizikadagi funksional bog'lanishlarni tez anglaydi va fizik munosabatlarni puxta o'rganadi. "Tekis to'g'ri harakat" (7-sinf) mavzusini o'rganishda o'quvchilarning matematikadan o'tilgan chiziqli funktsiya tushunchasi (7-sinf), uning grafigini ($f(x)=kx+b$) bilishi to'g'ri tekis harakat tushunchasini o'zlashtirishda asqotadi. Bunda uning chiziqli funktsiya qonuniyatlariga bo'ysinishi o'rgatiladi.

Xulosa o'rinda aytish mumkinki, matematika ta'limida integratsiyani amalga oshirish masalalarini

o'rganish, jumladan, matematika fizika, kimyo darsliklarining nazariy tahlili bu fanlar orasida uzviylik (vaqt ma'nosida) ta'minlanmaganligi, matematika darsliklarida ekologik mazmundagi masalalarning, yuqori sinflarda esa fizika, tatbiqiy masalalar miqdori kamayib ketganligi aniqlandi. Mazkur fanlarni integratsiya qilish maqsadida: ekologik, fizik, kimyoviy mazmundagi masalalar darsliklarning yangi avlodlarida ko'paytirish; mazkur fanlarda keng qo'llaniladigan tushunchalar, o'nli kasrlarni hisoblash, modellastirish ko'nikmasi, funksional bog'lanish, tenglamalarni yechish ko'nikmalarini shakllantirishga alohida ahamiyat berish va ularni malaka darajasiga yetkazish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alixonov S. Matematika o'qitish metodikasi. Cho'lpon, Toshkent 2011.
2. Tojiyev M., Barakayev M., Xurramov A. Matematika oqitish metodikasi (o'quv qo'llanma, 1-qism). – T.: T.: «Fan va texnologiya», 2017.
3. Roziqov U.F., Mamatova N.H. Matematika va turmush. – T.: O'zbekiston Respublikasi fanlar akademiyasi "Fan" nashryoti, 2020.

TABIIY FANLARNI O'QITISHDA SMART TEXNOLOGIYALAR VA AMALIY DASTURLAR

Abdukodirova Yulduz Baxtiyarovna, Xolmurodov Xurshid Shuxrat o'g'li
Sirdaryo viloyat, Guliston shahar 2-sonli matematika faniga ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktabi
kimiyo fani o'qituvchilari

SMART - ta'limning keng tarqalishi birinchi navbatda Internet - texnologiyalarni takomillashtirish bilan, ikkinchidan, Wi-Fi, 3G, 4G kabi simsiz texnologiyalarning rivojlanishi va uchinchidan, Internetda onlayn ta'lim resurslarining keng tarqalganligi bilan bog'liq.

SMART ta'limning asoslarini shakllanishida, shuningdek, Facebook, YouTube, Twitter va turli bloglar kabi, odamlarning o'z Internet-kontentini yaratishga imkon beradigan Web 2.0 texnologiyalarining rivojlanishi xizmat qildi.

Ta'lim dasturlarida Web 2.0 texnologiyalarining imkoniyatlarini qanday qo'llash mumkin?

Ushbu savolga bir qator javoblar mavjud:

- o'quv materiallarini bepul tarqatish uchun tarmoqli jamoalardan foydalanish;
- mustaqil o'quv materiallarini yaratish;
- informatika sohasida maxsus bilim va ko'nikmalarsiz faoliyatning yangi shakllariga qatnashish.

O'qituvchilar ushbu texnologiyalarni bir-biri bilan va o'quvchilarining ota-onalari bilan muloqotda bo'lishlari, kasbiy tajriba almashishlari, mashg'ulotlarning mazmunini yangi materiallar bilan boyitish, o'quvchilarning o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirish, kasbiy rivojlanish uchun foydalanishlari mumkin. O'qituvchi va o'quvchilar ta'lim jarayonida teng ishtirokchilarga aylanishadi: ularning har biri zarur ma'lumotlarga ega bo'lish imkoniyatiga ega bo'lishadi, umumiy tadqiqotning xulosasini har biri o'z ishi natijalari bilan to'ldiradi.

Microsoft Power Point yoki Macromedia Flash singari dasturiy ta'minot paketlaridagi multimediya prezentatsiyalaridan foydalangan holda o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish me'yoriga aylandi. Ammo odatiy taqdimot texnologiyalari (Microsoft Power Point, Macromedia Flash) bilan bir qatorda taqdimotning slayd-shou ko'rinishidan voz kechish imkonini beradigan interfaol texnologiyalar deb nomlangan vositalar paydo bo'ldi.

Smart Classroom Suite - interaktiv o'rganish uchun mo'ljallangan dastur. Smart Classroom Suite interaktiv o'quv dasturi kompyuterlashtirilgan sinflarda o'qituvchilar va o'quvchilar uchun mo'ljallangan maxsus dasturiy paket hisoblanadi. Ushbu paket

- Smart Notebook™ hamkorlikda ta'lim olish dasturiy ta'minoti;
- Smart Notebook™ CE o'quvchilar uchun dasturiy ta'minot,
- Smart Sync™ sinfni boshqarish dasturiy ta'minoti;
- Smart Response™ interaktiv so'rovlarni amalga oshirish dasturiy ta'minotlarini o'z ichiga oladi.

Smart Classroom Suite dasturi bilan o'qituvchilar sinfda o'rganish jarayonini samarali boshqarishlari va darslarni o'tkazishlari mumkin. Foydalanish oson bo'lgan vositalar o'qituvchilarga qiziqarli multimedia darslarini tayyorlashga yordam beradi. Asboblari panelini ishlatish orqali o'qituvchilar bir tegish bilan Smart Exchange™ veb-saytiga boshqa o'qituvchilar tomonidan yaratilgan darslarni topishlari yoki o'z tajribalarini boshqalar bilan baham ko'rishlari mumkin.

Fanlarni o'rganish uchun kerak bo'ladigan ba'zi mobil ilovalardan namunalari ko'rib chiqamiz.

«Matematik topqirlik» og'zaki hisob-kitob qobiliyatini o'stirish ilovasi. Ilova tez hisoblash uchun mavjud algoritmlarni aks ettiradi. Har bir o'quvchi ularni o'rganishi mumkin, so'ngra nazariy bilimlarni amaliy mashqlarda mustahkamlashi, shu tariqa og'zaki hisoblash amaliy tajribalarini boyitishi mumkin. Bu ilovani yaratuvchilari og'zaki hisobda tarmoqdagi boshqa foydalanuvchilar bilan raqobat qilish imkonini ham hisobga olishgan.

«GeoGebra» dasturi barcha darajalarda matematikani o'rganish uchun mo'ljallangan dastur hisoblanadi. Unda geometriya, algebra, statistika va boshqa ko'plab qo'llanmalarni topishingiz mumkin.

«Chemist» («Kimyochi») dasturi kimyo darslariga qo'shimchalar. Dastur virtual laboratoriya sifatida amalga oshiriladi. Bu erda har bir kishi «professor» sifatida eng ajoyib tajribalarni o'tkazishi mumkin. Dastur yuqori sifatli 3D va detallar bilan ta'minlangan. «Laboratoriya» omborxonasida ikki yuzga yaqin kimyoviy elementlar mavjud.

«Molecules» («Molekulyar») dasturi bilan o'quvchilar turli moddalar bo'yicha yangi bilimlarga ega bo'lishlari mumkin. Ilovada ko'plab molekulyar modellar mavjud. Har bir molekula va molekulyar tuzilmalar va moddalar haqida to'liq ma'lumot topish mumkin.

«Anatomy 3D Pro» («Anatomiya 3D») ilovasi. Ushbu dastur bilan o'quvchilar inson tanasining ichiga kiradilar. Dastur 3D formatdagi barcha nozikliklarning noyob detallari bilan tavsiflanadi. Dastur tezkor qidiruv funksiyasi bilan ta'minlangan. O'z bilimingizni tekshirish uchun qiziqarli viktorina taklif etiladi.

«Star Walk 2» ilovasi yulduz osmonni o'rganish uchun mo'ljallangan. Unda o'quvchilar barcha yulduzlar va galaktikalar nomini va manzili ko'rishlari, shuningdek, ular haqida ma'lumot olishlari mumkin. Shuningdek, yulduzlar turkumi va ularning tarixi ham bor.

«Edmodo» («Edmodo») ilovasi - o'qituvchilar va o'quvchilar uchun ta'lim jarayoniga yordam beradi uchrashuv joyi. Dasturning maqsadi - o'qituvchilar va ta'lim olayotganlarga vaqt va manzildan qat'iy nazar doimiy ravishda o'zaro aloqa qilish, bog'lanish imkoniyatini ta'minlash.

«Plickers» («Plickers2») dasturi sizga mobil telefondan foydalanib, o'quvchilar bilan so'rovlarni o'tkazishga imkon beradi. Uning asosini mobil ilovalar, sayt va QR (Quick Response, ya'ni tezkor javob) - kodlari bilan bosilgan kartachalari tashkil qiladi. «Plickers» dasturi bolalarning bilimlarini muntazam monitoringini amalga oshirishga imkon beradi, bu darsdan bir necha daqiqadan ko'proq vaqt talab qiladi.

Har bir fandan biron-bir mavzu bo'yicha interaktiv plakatlari va illyustratsiyalar yaratish uchun dasturlar: «LearningApps», «Thinglink»; mental kartalar – «WiseMapping», so'zlar buluti klasterlari – «Word It Out!» va boshqalar. Ro'yxatdagi uskunalar "SMART tools" ilovasi yordamida o'rnatilishi mumkin.

Xuosa qilib aytganda ushbu dasturlardan foydalanish dars samaradorligini oshiradi. Mazkur paketlarda ish olib borilganda, o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytiradi, bilim saviyasini oshiradi. O'quvchi shaxsini barkamol rivojlantirish, uning imkoniyat va talab ehtiyojlarini hisobga olgan holda ta'lim berish, davlat va jamiyat talablari asosida rivojlantirishga erishish uchun ta'lim jarayonida SMART texnologiyalardan foydalanish muayyan tamoyillar asosida tashkil etish kerakligi o'z tasdiqini topdi.

MATEMATIKA DARSLARI ORQALI O'QUVCHILAR MANTIQUIY FIKRLASH QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI

Arslanova Maxfuza Zaynitdinovna, Yuldashova Mavlyudaxon Ibroximjon qizi

*Sirdaryo viloyati, Guliston shahar 2-sonli matematika faniga ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktabi
matematika fani o'qituvchilari*

Annotasiya: Ushbu maqolada umumta'lim maktablarida matematika darslarida o'quvchilarni mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish yo'llari bayon etilgan.

Kalit soʻzlar: matematika, mantiqiy fikrlash, matnli masala, oʻquvchi

Masalalarni yechish matematikani oʻqitishning muhim tarkibiy qismidir. Masalalarni yechmasdan matematika fanini oʻzlashtirishni mutlaqo tasavvur qilib boʻlmaydi. Matematika darslarida masalalar yechish nazariyani amaliyotga tadbiq etishning eng yaxshi va ravon yoʻlidir. Faqatgina quruq matematik nazariya, uning tadbiqlarisiz uzoqqa bora olmaydi. Lekin shuni alohida taʼkidlash kerakki matematika fanining har bir mantiqiy qoidasining albatta amaliyotdagi oʻrni mavjud. Bu mavjudlikni tadbiqlari faqatgina matematik masalalar yordamida yuzaga chiqadi. Sodda va murakkab masalalar, bilimlarni oʻzlashtirishga, olingan bilimlarni mustahkamlash va mukammallashtirishga xizmat qiladi. Matematik masalalar bolalarning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishning foydali vositasi boʻlib, odatda oʻz ichiga “yashirin informatsiya” ni oladi. Bu muamoni hal etish masala yechuvchidan taklif, tahlil va sintez, mustaqil murojaat qilish, faktlarni taqqoslash, umumlashtirish va boshqalarni talab etadi. Masalalarni yechishda matematika faniga boʻlgan qiziqish oshadi. Mustaqilik, erkinlik, talabchanlik, mehnatsevarlik, maqsadga intilish kabi xislatlar rivojlanadi.

Oʻquvchilarni iqtisodiy, ekologik, mehnat tarbiyasida ham matnli masalalarning oʻrni katta. Masalalar oʻquvchilarning fikr doirasini kengaytirishga yordam beradi. Ularni oʻz shahri, qishlogʻining, fermer dehqon xoʻjaliklarining hayoti bilan, kishilarning ishlab chiqarish va qishloq xoʻjaligidagi mehnatlari bilan tanishtiradi. Insoniyat tarixida mavjud matematik qarashlar asosida cheksiz koʻp masalalar toʻplami tuzilganki, ularning har biri maʼlum maʼnoda matematika nazariyasini amaliyotga tadbiq etishga yordam berdi. Har bir masalaning oʻzining yechish yoʻli xossasi, shartli xulosasi bor.

Matematik taʼlim jarayonida masalalardan foydalanish qadim zamonlardan beri qoʻllanib kelinayotir. Shuning uchun ham matematika darslarida matematik masalaning roli va uning oʻrni haqida gap borganda quyidagi uch bosqichni koʻzda tutish maqsadga muvofiqdir.

1. Matematika fanining nazariy qismlarini oʻrganish matematik masalalarni yechish maqsadida amalga oshiriladi;

2. Matematika fanini oʻrgatish matematik masalalarni yechish bilan birgalikda olib boriladi.

3. Matematikani oʻrganish masala yoki misollar yechish orqali amalga oshiriladi.

Aytilganlardan koʻrinadiki, jamiyat rivojlanishining har bir bosqichida masalaning roli va uning oʻrniga har xil baho berib kelingan. Hozirgi davrda masala yoki misollar yechish orqali matematik taʼlim jarayonini olib borishning metodik usul va vositalari ishlab chiqilgan va bu usullar haqida koʻpgina ilmiy metodik va didaktik adabiyotlarda bayon qilingan. Matematik tushunchani masala yoki misollar yordamida kiritish va uning tub mohiyatini oʻquvchilarga tushuntirish murakkab boʻlgan pedagogik jarayondir. Shuning uchun ham bir maktab oʻqituvchisi dars jarayonida ishlatiladigan masalani tanlash yoki uni tuzishda juda ham ehtiyot boʻlmogʻi lozimdir. Tuzilgan masalalarni dars jarayonida qoʻllanish ana shu oʻquvchilarning oʻzlashtirish qobiliyatlarini hisobga olgan holda boʻlishi kerak. Har bir dars jarayonida ishlatiladigan masala yoki misol darsning maqsadiga mos kelishi kerak. Agar darsda oʻqituvchi oʻquvchilarga biror yangi matematik tushunchani oʻrgatmoqchi boʻlsa, tuziladigan masala yoki misol ana shu tushuncha mohiyatini ochib beruvchi xarakterda boʻlishi kerak.

Murakkab masalalar ham, bilimlarni oʻzlashtirish, olgan bilimlarni mustahkamlash va mukammallashtirishga xizmat qiladi. Sodda va murakkab masalalar bolalarning fikrlash qobiliyatlari rivojlantirishning foydali vositasi boʻlib odat oʻz ichiga yashirin nomaʼlumni oladi. Bu nomaʼlumni qidirish, masala yechuvchidan tahlil va sintezga mustaqil murojaat qilish faktlarini taqqoslash, umumlashtirish va boshqalarni talab qilish.

Masalalar yechish orqali oʻquvchilarda ushbu malakalar tarkib topilishi kerak.

1. **Masalani tinglashni oʻrganish va uni mustaqil oʻqiy olish.** Masala ustida ishlash uning mazmunini oʻzlashtirishdan boshlanadi.

2. **Masalani dastlabki analiz qilish (maʼlumni nomaʼlumdan ajarata olish malakasi).** Maʼlumni nomaʼlumdan, muhimni nomuhimdan ajratish, masalada berilganlar bilan izlanayotganlar orasidagi bogʻlanishni ochish - bu eng muhim malakalardan biri. Bunday malakaga ega boʻlmay turib, masalalarni mustaqil yechishga oʻrganib boʻlmaydi.

3. **Masalani qisqa yozish malakasi.** Masala matni ustida ogʻzaki ishlagandan keyin uning mazmunini matematik atamalar tiliga oʻtkazish va qisqa yozuv shaklidagi matematik strukturasini belgilash kerak

(rasmlar, chizmalar, sxemalar, jadvallar).

Shuni nazarda tutish kerakki, barcha hollarda ham qisqa yozuvni bajarish bilan bir vaqtda masala shartining tahlili ham amalga oshiriladi. Aslini aytganda, qisqa yozuvning vazifasi shundan iborat. Haqiqatan ham masala shartining qisqa yozuvi o'quvchilar xotirasiga tayanch bo'lib, son ma'lumotlarni tushunish va ajratish imkonini beradi, shu bilan birga ularning ratsional yozilishi masalada nima berilgan va nimani izlash kerakligini bayoniy tushuntirish imkonini yaratadi.

4. Sodda masalalarni yechishda amal tanlashni asoslab berish va murakkab masala tahlilini amalga oshirish, so'ngra yechish rejasini tuzish malakasi. Oldin sodda masalani yechishda amal tanlash masalasini qarab chiqishga to'xtalamiz. Bu malaka birinchi sinfdan boshlab tarkib topa boshlaydi, ikkinchi va uchinchi o'quv yillarida yanada rivoj toptiriladi, ya'ni ba'zi tanish masalalarga nisbatan amal tanlash ishini bajarish asosi o'zgartiriladi.

5. Yechimni bajarish, uni o'qituvchi talabiga mos qilib rasmiylashtirish va masala savoliga javob berish malakasi. Sodda masalalardan boshlaymiz. Sodda masalani arifmetik usul bilan ham, algebraik usul bilan ham yechish mumkin. Bu o'rinda masalalarni arifmetik usul bilan yechish haqidagina so'z boradi, masalani algebraik usulda yechish keyinroq alohida qaraladi.

6. Masala yechimini tekshira olish malakasi. Masala yechimining tekshirish quyidagi usullarda qo'llaniladi:

- olingan javob bilan masala sharti o'rtasida moslik o'rnatish;
- teskari masala tuzish va yechish;
- masalani boshqa usullar bilan yechish;
- javobning chegaralarini aniqlash (javobni chamalash);
- grafik tekshirish.

Ma'lumki o'quvchining mantiqiy tafakkurini o'stiradigan izlanish faoliyati bir qancha bosqichlardan iborat. Masalan, har qanday masalani yechish uning sharti va savoli bilan tanishtirishdan boshlanadi. O'quvchi o'zidagi bilim va tajribaga tayanib masala shartidagi ma'lumotlarga tayanib masala shartidagi ma'lumotlarning o'zaro munosabatlarni topishga harakat qiladi, ya'ni mantiqiy mushohada yuritiladi. Unda masalani yuritish haqida mulohaza vujudga keladi. Shu bilan o'quvchilar yangi bilim oladilar. Bu bilimlardan shunga o'xshagan masalani yechishda foydalanadilar. Ko'pgina masala va mashqlarda o'quvchilarni mustaqil izlanishga da'vat etadigan «savol tuzing», «teskari masala tuzing», «taqqoslang», «xulosa yasang» kabi ko'rsatmalari berilgan. Biroq tajribadan ma'lumki bunday ko'rsatmalar umumiy xarakterlarda bo'lgani sababli o'quvchilar mustaqilligini va dars samaradorligini oshirishi uchun yetarli emas. Shuning uchun matematik masalalar yechishda o'quvchilar fikrlashini yo'naltirib ularga yo'l-yo'riq ko'rsatib masalada misollarni yechish usullaridan foydalanish muvofiq bo'ladi.

Fikrimizning dalili uchun 7-sinf darsligidan bir necha misol keltiramiz.

1-masala. Idishda 1, 2, 3, ..., 10 sonlari yozilgan sharlar bor. Idishdan uchta shar olamiz. Nechta holda ularda yozilgan sonlar yig'indisi 9 ga teng bo'ladi? Nechta holda 9 dan katta bo'ladi?

$$C_{10}^3 = \frac{10 \cdot 9 \cdot 8}{3!} = \frac{10 \cdot 9 \cdot 8}{1 \cdot 2 \cdot 3} = \frac{10 \cdot 3 \cdot 4}{1} = 120;$$

$$10 - 3 = 7; 7 - 3 = 4;$$

4 ta holatda 9 dan kichik, 3 holatda 9 ga teng;

$$C_{10}^3 - 7 = 120 - 7 = 113 \text{ holda yig'indi 9 dan katta bo'ladi.}$$

$$3! \cdot 4 = 6 \cdot 4 = 24 \text{ holda 9 kichik, } 3! \cdot 3 = 6 \cdot 3 = 18 \text{ holda 9 ga teng.}$$

$$\text{Takrorlanish holatida } 3! \cdot (C_{10}^3 - 7) = 6 \cdot 113 = 678 \text{ holda yig'indi 9 dan katta.}$$

2-masala. 3 ta tovuq, 4 ta o'rdak va 2 ta g'oz bor. Bir nechta parrandani shunday tanlab olingki, ular ichida tovuq, o'rdak va g'oz bo'lsin. Shunday tanlashlar soni nechta bo'ladi?

$$(C_3^1 + C_3^2 + C_3^3) \cdot (C_4^1 + C_4^2 + C_4^3 + C_4^4) \cdot (C_2^1 + C_2^2).$$

$$1) C_3^1 + C_3^2 + C_3^3 = \frac{3}{1!} + \frac{3 \cdot 2}{2!} + \frac{3 \cdot 2 \cdot 1}{3!} = \frac{3}{1} + \frac{3 \cdot 2}{1 \cdot 2} + \frac{3 \cdot 2 \cdot 1}{1 \cdot 2 \cdot 3} = 3 + 3 + 1 = 7;$$

$$2) C_4^1 + C_4^2 + C_4^3 + C_4^4 = \frac{4}{1!} + \frac{4 \cdot 3}{2!} + \frac{4 \cdot 3 \cdot 2}{3!} + \frac{4 \cdot 3 \cdot 2 \cdot 1}{4!} = \\ = \frac{4}{1} + \frac{4 \cdot 3}{1 \cdot 2} + \frac{4 \cdot 3 \cdot 2}{1 \cdot 2 \cdot 3} + \frac{4 \cdot 3 \cdot 2 \cdot 1}{1 \cdot 2 \cdot 3 \cdot 4} = 4 + 6 + 4 + 1 = 15;$$

$$3) C_2^1 + C_2^2 = \frac{2}{1!} + \frac{2 \cdot 1}{2!} = \frac{2}{1} + \frac{2 \cdot 1}{1 \cdot 2} = 2 + 1 = 3;$$

$$(C_3^1 + C_3^2 + C_3^3) \cdot (C_4^1 + C_4^2 + C_4^3 + C_4^4) \cdot (C_2^1 + C_2^2) = 7 \cdot 15 \cdot 3 = 21 \cdot 15 = 315$$

Javob: Tanlashlar soni 315 ta .

3-masala. 1, 2, 3, ..., 8 raqamlaridan ularni takrorlamay tuzilgan 8 xonali sonlar ichida 1 va 8 raqamlari yonma – yon turadiganlari nechta?

Quyidagi hollar bo'lishi mumkin: 1 birinchi o'rinda, 8 ikkinchi o'rinda, ..., 1 yettinchi o'rinda, 8 sakkizinchi o'rinda, bunday hollar soni 7 ta. Bundan tashqari, 1 va 8 larning yuqoridagi 7 holda o'rinlarini almashtirib, yana 7 ta (ular yonma – yon turadigan) holni topamiz. Demak, 1 va 8 ni yonma – yon qilib, 14 usul bilan qo'yish mumkin. Bu usullarning har biriga boshqa qolgan raqamlarning 6! ta o'rin almashtirishlari mos keladi. Shunday qilib, 1 va 8 raqamlari yonmayon turadigan o'rin almashtirishlar soni $2 \cdot 7 \cdot 6! = 2 \cdot 7!$ ga

teng.

4-masala. Gul sotuvchida 5 ta qizil va 10 ta oq chinnigul qolibdi. A'zamxon singlisi Mubinabonuga 2 ta qizil va 3 ta oq chinniguldan iborat guldasta sovg'a qilmoqchi. Buni u necha xil usul bilan amalga oshirishi mumkin?

$$C_5^2 = \frac{5 \cdot 4}{2!} = \frac{5 \cdot 4}{1 \cdot 2} = \frac{5 \cdot 2}{1} = 10. C_{10}^3 = \frac{10 \cdot 9 \cdot 8}{3!} = \frac{10 \cdot 9 \cdot 8}{1 \cdot 2 \cdot 3} = \frac{10 \cdot 3 \cdot 4}{1} = 120.$$

$$C_5^2 \cdot C_{10}^3 = 10 \cdot 120 = 1200. \text{ Javob : } 1200.$$

Xulosa qilib aytganda, matematika o'qitishning muhim vazifasi o'quvchilarda faol fikrlash, turmushda uchraydigan turli masalalarni yechishda qiyinchiliklarni yengish, bu masallar yechimining rasional yo'llarini topish ehtiyojini vujudga keltirishdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Jumayev M.E. va boshqalar. Matematika o'qitish metodikasi (kasb-hunar kollejlari o'quvchilari uchun o'quv qo'llanma) – T.: "Ilm-Ziyo", 2003, 240-bet
2. Jumayev M.E. „Matematika o'qitish metodikasidan praktikum“- Toshkent.: O'qituvchi, 2004, 328 bet.

BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKANI O'RGATISHNING OGZAKI VA YOZMA METODLAR

Bekbayeva Qurbonoy Arzikulovna

Abduraxmonova Maqsuda Samandarovna Guliston tumani 2-IDUM boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Hisoblash malakalarini rivojlantirishda o'qituvchi o'qitishning bir qancha turlarini inobatga olish zaruru. Shulardan:

Didaktikaga doir qo'llanmalarda bilimlarni bayon qilish va mustahkamlashning formalari sifatida quyidagi o'qitish metodlari qaraladi:

kuzatish, o'qituvchining bilimlarni (bayon, suhbat, hikoya, mashq) o'quvchilar bilan darslik va boshqa kitoblar bilan ishlash, kuzatish, laboratoriya ishi, mustaqil ishlar.

Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish jarayonida o'qitish materialining mazmuni va o'quv sinfining katta-kichikligiga qarab bu metodlardan turli o'rinlarda foydalanish mumkin.

Matematika o'qitishda kuzatish.

O'quvchilar bilan matematik faktlarni kuzatish muhim ahamiyatga ega. Natural sonlarning xossalari, arifmetik amallarning xossalari, geometrik figuralarning xossalarini va hokazolarni kuzatish o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini o'stiradi. Arifmetik amallar va sonlarning ko'pgina xossalarini quyi sinflarda kuzatish bilan tushuntirilishi maqsadga muvofiqdir. Masalan, 1-sinf o'quvchilari qo'shishining o'rin almashtirish xossasini kuzatish orqali tez bilib oladi.

$$5+3=, 3+5=, 6+1=, 1+6=, 2+7=, 7+2$$

Shunday misollarni 1-sinf o'quvchilari echgandan keyin bir qatorning yechimlarini tenglashtirishni o'qituvchi tavsiya etadi.

$$5+3=8 \text{ va } 3+5=8. \text{ Natijada quyidagi xulosani keltirib chiqaradi. Xulosa (misollar nima bilan o'xshash).}$$

Bir xilda qo'shish amali bajariladi. 5 va 3 bir xil qo'shiluvchilar.

8 va 8 bir xildagi natijalar. farqi (nima bilan farqlanadi)

qo'shiluvchilarning qo'shish tartibi farq qiladi.

Shunga o'xshash boshqa misollarni ham yechib o'quvchilar quyidagi umumiy xulosaga keladilar: qo'shiluvchilarning qo'shish tartibini o'zgartirgan bilan yig'indi o'zgarmaydi.

Qaralgan holda kuzatish metodini qo'llash, shuningdek, o'qituvchi tomonidan bilimlarni bayon qilishda ham, hisoblashga doir masalalar yechishga doir bosqichlarda ham katta ahamiyatga egadir.

Suhbat metodi.

O'qituvchi biror metodni, masalan, suhbat metodini qo'llaganda o'quvchilarning bilish faoliyatini har tomonlama o'stirish mumkin. Masalan: 100 ichida raqamlashni o'qitishda o'quvchilarga qanday sonlar bir xonali va qanday sonlar ikki xonali ekanligini, undan keyin ikkita raqam bilan ifodalangan sonlarni ikki xonali sonlar deyilishini aytib o'tish lozim. Shuningdek, suhbat jarayonida nechta raqam bilan nol ifodalanilishini va 1 dan 9 gacha nechta son, 10 dan 99 gacha nechta son borligini bayon qilish kerak.

Bayon qilish metodi.

Bayon qilish metodi ikki turga bo'linadi:

ko'rgazmali bayon qilish. Bunda o'qituvchi bilimlarni bayon qilish bilan birga uning haqiqiylikini misollar orqali namoyish qiladi.

muammoli bayon qilish. Bunda o'qituvchi materialning muammosini qo'yadi, uni yechish yo'llarini ko'rsatadi, asoslaydi va isbotlaydi.

Masalan: agar ko'payuvchi va ko'paytuvchining o'rnini almashtirilib ko'paytirilsa, ko'paytma qanday o'zgaradi? O'qituvchi bu savolni tushuntirishda ilyustrasion ko'rgazmalardan foydalaniladi:

$3 \times 4 = 12$ ya'ni $3+3+3+3=12$ yoki $4 \times 3 = 12$ ya'ni $4+4+4=12$. Demak, ko'paytma va ko'paytuvchilarning o'rnini almashtirgan bilan ko'paytma o'zgarmaydi degan xulosani o'quvchilar ilyustrasion yordamida keltirib chiqaradilar. Har qatorda 3 tadan tugmani 4 qator olinadi.

2-sinfning darsligida ko'paytirishning o'rin almashtirish qonuni bir necha aniq misollarda qaralgan. O'quvchilarga nechta qator borligini bilishni buyuradi va nechta tugma borligini hisoblashni talab qiladi. Buni $4 \times 3 = 12$ yozuv bilan ifodalaydi. Ikkinchi marta o'qituvchi tugmani yuqoridan pastga qarab sanashni buyuradi va yuqoridan pastga qaragan nechta qator borligini aniqlab nechta tugma borligini bilishni talab qiladi. Natijalarni tenglashtirish bilan $3 \times 4 = 12$ va $4 \times 3 = 12$ yozuvni hosil qiladi. Shunga o'xshash ikkita misol keltirib, ko'paytuvchilarning o'rnini almashtirgan bilan ko'paytma o'zgarmaydi degan umumiy xulosani keltirib chiqaradi.

Mashq metodi.

Matematika o'qitishning o'ziga xos xususiyati shuki, yangi material bilan tanishish hamda tegishli bilim o'quv va malakalarni hosil qilish o'quvchilar tomonidan mashqlar tizimini, ya'ni, ma'lum matematik topshiriqlarni bajarish orqali amalga oshiriladi. Mashqlar material mazmuniga va matematik strukturasiga qarab turlicha bo'lishi mumkin: ifodalarning qiymatini topish, taqsimlash, tenglamalarni yechish, masalalar yechish va h.k. Mashqlar har xil bo'lishi mumkin: darslikdan olingan va uni o'qituvchi yozdirishi mumkin, odatdagi yoki qiziqarli ko'rinishda, didatik o'yin shaklida va h.k.

Darsda ayniqsa tayyorgarlik mashqlari muhim ahamiyatga ega. Bu mashqlar shunday xarakterda bo'ladiki, uning mazmunida oldingi o'quv materialini takrorlash, mustahkamlash va yangi materialni o'rganishga poydevor tayyorlash mumkin bo'ladi. Masalan, o'qituvchi oldin

$$8 \times 6 = 48 \quad 7 \times 9 = 63 \quad 6 \times 4 = 24$$

$$48 : 8 = 63 : 9 = 24 : 6 =$$

mashqlarni yechirgandan keyingina $x \times 3 = 21$ ko'rinishdagi tenglamani yechishga o'tadi.

Yangi material bilan tanishish asosan o'quvchilar bajaradigan mashqlar tizimi orqali amalga oshiriladi. Mashqlarni o'rinli bajarishning eng asosiy yo'li ko'rgazmali qilib bajarishdir. Shuning uchun matematik tushunchalar va qonuniyatlar bilan tanishtirishda to'plamlar ustida amallardan va tegishli arifmetik amallarning yozilishidan foydalaniladi.

Masalan, $4+3$, o'quvchi 4 ta qizil doiracha va 3 ta qizil doiracha olib ularni birlashtirib 7 ta doiracha hosil qildi. $4+3=7$ deb yozdi, keyin doirachalarni ranglar bo'yicha ajratib $7 - 4 = 3$ yoki $7-3=4$ ni hosil qildi: agar yig'indidan qo'shiluvchilardan birini ayirsa ikkinchi qo'shiluvchi hosil bo'ladi.

Boshlang'ich sinflarda matematik tushunchalarni o'rgatish bilan bog'liq nazariy va amaliy tadqiqot

natijasida tushunchalar mazmuni va uni ishlab chiqishning asosiy yo'nalishlari aniqlandi, bu muammoni boshlang'ich o'quvchilari matematik tayyorgarligiga nisbatan qo'llash shart-sharoitlari belgilandi.

Boshlang'ich sinflarda matematik tushunchalarni o'rgatish metodikasining asosiy yo'nalishi sifatida rag'batlantirish; psixologik jarayonlarni faollashtirish (qabul qilish, diqqat va hokazo) usullaridan foydalanish imkoniyatlari sinab ko'rildi;

Tadqiqotning asosiy maqsadi boshlang'ich sinflarda matematik tushunchalarni o'rgatishni tashkil etish masalalarini, ularni hal etish jarayonida takamollashtirish shart-sharoitlarini belgilashdan ham iborat bo'ldi.

Izlanishimiz yakuni boshlang'ich sinf o'quvchilarida matematik tushunchalarni o'rgatish matematika o'qitishning nazariy va amaliy muammolarini hal qilish xususiyatlarini nazarda tutib, tarbiyaviy ishlarga asos bo'la oladigan nazariy xulosalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish imkonini berdi.

Bu uslubiy tavsiyalardan boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'z ish faoliyatlarida foydalansalar o'quvchilarni matematik tushunchalar haqida to'g'ri umumlashtirish qobiliyatini rivojlanishiga erishishlari mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Bikboyeva.N.U. Yangiboyeva E.Ya. Ikkinchi sinf matematika darsligi. Toshkent. —O'qituvchi 2005 yil.
2. Jumayev M.E, Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasidan praktikum. (O O'Yu uchun) Toshkent. —O'qituvchi 2004 yil.
3. Jumayev M.E, Bolalarda matematik tushunchalarni rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. (KHK uchun) Toshkent. —Ilm Ziyol 2005 yil.

BOSHLANG'ICH SINFLARDA INTEGRATSIYALANGAN DARSLARNI SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILLARI

Umarova Sanobar Ummatqulovna

Guliston tumani 31-umumta'lim maktabi boshlang'ich ta'lim fani o'qituvchisi

Hozirgi kunda boshlang'ich maktab ta'limini integratsiya qilish haqida ko'p gapirilayashti. Bu tushunarli - kichik maktab o'quvchisi atrofida olamni bir butunligicha qabul qiladi. Uning uchun tabiatshunoslik, rus tili, musiqa va boshqa o'quv predmetlarini nomi emas, balki atrofida olam obektlarining tovushlar, ranglar, hajmlarning turli-tumanligi mavjuddir. Bolalarning tabiat va kundalik hayotdagi barcha narsalarning bog'liqligini ko'rishga o'rgatish kerakligini o'qituvchi sezadi, biladi. Shunday ekan ta'lim integratsiyasi hozirgi zamon talab. Bu savol qanday yechilishi kerak, uning mohiyati nimada? Ta'limni integratsiyalash fikri xalq ta'limida tabaqalashtirish va individuallashtirish bilan birga muhokama qilina boshladi. Agar kichik maktab ta'limini tabaqalashtirish asosida kitob, darslik va boshqa adabiyotlar bilan mustaqil ishlashga tayyorgarlik darajasi hamda kichik maktab yoshida qiziqishlarni faol shakllantirish yetsa, integratsiyaning asosi qilib turli fanlarni o'rganish obektlari bo'lgan ba'zi umumiy tushunchalarni chuqurlashtirish, aniqlashtirish va kengaytirish mumkin. Ta'limni integratsiyalashning asosiy maqsadi boshlang'ich maktabdayoq tabiat va jamiyat haqida yaxshi tasavvur asoslarini qo'yishi va ularning rivojlanishi qonunlariga o'z munosabatlarini shakllantirishdir. Mana shuning uchun kichik maktab o'quvchisi predmet yoki voqealik hodisalarning bir necha tomondan ko'rish muhimdir: mantiqiy va emotsional tomondan, badiiy asarda va ilmiy ommabop maqolada, biolog, so'z ustasi, rassom, musiqachi nuqtai nazardan va boshqalar. Asosiy fanlarni o'zlashtirish va olamdagi bor narsalarning qonuniyatlarini tushunishda predmetlar ichidagi va predmetlararo aloqalarini o'rnatish ta'limga integratsiyalashga yondoshuvning metodik asosidir. Bunga turli darslarga tushunchalarga ko'p marotaba qaytishi, ularni chuqurlashtirish va boyitish, shu yoshga tushunarli bo'lgan muhim belgilarni aniqlash orqali erishish mumkin. Shunday qilib yaxshi shakllangan tuzilish va o'tkazish tartibiga ega bo'lgan, tarkibiga shu o'quv predmetiga tegishli bo'lgan tushunchalar guruhi kiritilgan har qanday dars integratsiyaga asos qilib olinishi mumkin. Lekin integratsiyalangan darsga boshqa fanlar, boshqa o'quv predmetlari bilan bog'liq tushunchalar tahlil qilishning natijalari kiritiladi. Masalan, «qish», «sovuq», «bo'ron», kabi tushunchalar o'qish, rus tili, tabiatshunoslik musiqa, tasviriy san'at darslarida ko'rib chiqiladi. Tushunchalarning tahlil qilish boshqa o'quv darslarida o'zlashtirilgan bilimlarga murojaat qilinadigan darslar integratsiyalangan hisoblanadi. Dars ijodiy, erkin bo'lishi bilan birga, yaxlit, mantiqan ketma-ket, o'ziga hos o'tish metodikasiga ega bo'ladi. Umumiy ta'limning poydevorining qo'yadigan

boshlang'ich maktabdagi ko'p tushunchalar tabiatshunoslik, rus tili, musiqa, tasviriy san'at va boshqalar uchun umumiydir.

Hozirgi kunda bir qator o'quv predmetlari uchun umumiy bo'lgan tushunchalar orasidagi aloqalarni o'rnatish psixologik va metodik asosiy bo'lgan integratsiyalangan darslar tizimini ishlab chiqish va sinovdan o'tkazish lozim. Shu bilan birga predmetlararo aloqalar dars tarkibi darajasida o'rgatilishi va zarur o'qitish vositalari bilan ta'minlanishi kerak. Tekshirish davomida o'quv predmetlarini integratsiyalash jarayonida faol aqliy faoliyatga yordam beruvchi omillar; integratsiyalash uchun fanlarning ma'qul birlashishi, o'qituvchi va o'quvchi xarakterlarining mos kelishi, bolalarning yosh imkoniyatlarini hisobga olgan holda mazmun, metod, usullarni tanlash.

Integratsiyalangan darslarni samaradorligini oshirish omillari. Avvalo qaysi darslar integratsiyalash uchun mos kelishini aniqlab olish kerak. Bunday darslarning asosi - turli fanlar asosiy mavzulari mazmunining yaqinligi va mantiqiy aloqalari. Savod o'rgatish darslari (o'qish va yozishga o'rgatish).

Integratsiyalangan darslar. Boshdan integratsiyalangan kurs-bu sinfdan tashqari o'qish. Bu yerda yaxlit jarayon kechadi:

- a) kitob o'qish asbobi sifatida o'qish darslarida olgan o'qish ko'nikmalarini takomillashtirish;
- b) matn ustida ishlash;
- v) suhbatdoshlar doirasini tanlash kabi kitoblarni tanlash.

Matematika ham integratsiyalangan kurs-arifmetik materialni o'zlashtirishga imkon beruvchi arifmetika, algebra va geometriya elementlari va shu bilan birga algebra va geometriya, mehnat ta'limi asoslarini o'rgatishga tayyorgarlik. Boshdan integratsiyalangan kurs tabiatshunoslik (tabiatshunoslik asoslari, geografiya). Boshidan integratsiyalangan yuqoridagi kurslardan tashqari quyidagi fanlarning birikishi mumkin: o'qish-rus tili, o'qish-tabiatshunoslik, o'qish-tasviriy san'at, o'qish-musiqa, tabiatshunoslik-matematika, tabiatshunoslik- mehnat ta'limi, matematika-mehnat ta'limi, matematika-jismoniy tarbiya. Didaktik tizimda predmetlararo asosda integratsiyalash o'qituvchi (ta'lim berish) va o'quvchi (ta'lim olish) harakatlarining mos kelishini ko'zda tutadi. Ikkala faoliyat ham umumiy tuzilishga ega: maqsadlar, sabablar, mazmun, vositalar, natijalar, nazorat. Biroq o'qituvchi va o'quvchi faoliyatlarining mazmunida farq bor.

1. Maqsadli bosqichda o'qituvchi umumiy maqsadni qo'yadi. O'quvchilar o'qituvchi boshchiligidagi predmetlararo bog'liqliklarni tushunib yetishlari, turli predmetlardan kerakli bilimlarni tanlab olishlari kerak, bunda ular o'z e'tibor fikrlarini faqat umumiy bilimlarni o'zlashtirishga emas balki, ko'chirish tahlil qilish shaxsning belgilari qobiliyat va qiziqishlarining rivojlantirishga qaratishlari kerak.

2. Isbotlash bosqichida o'qituvchi o'quvchilarni dunyoqarashini o'stiruvchi bilimlarga, turli predmetlar tushunchalarini umumlashtirishga rag'barlantiradi. O'quvchilar o'z irodalarini dunyoqarashni kengaytiruvchi bilimlarga qiziqishga yo'naltiradilar.

3. Faoliyatning mazmun bosqichida o'qituvchi yangi o'quv materialini kiritadi, shu bilan birga integratsion dalillar, tushunchalar, muammolar majmui darajasidagi boshqa predmetlardan olingan tayanch bilimlarni jalb qiladi. O'quvchilar umumpredmetli tushuncha, muammolarni umumiy bilimlar darajasida o'zlashtiradilar.

4. Vositalar tanlash bosqichida o'qituvchi turli predmetlar bilimlarini umumlashtirishga yordam beruvchi ko'rgazmali vositalarni-darsliklar, tablitsalar, sxemalar savolnomalar, amaliy vazifalar. O'quvchilar ko'chirish, umumlashtirish, biriktirish xarakterlarini integratsioi masalalarni xal qilishda ko'rgazmali vositalar yordamida bajaradilar.

5. Keyingi bosqich - natija. O'qituvchi ta'lim berish, rivojlantirish, tarbiyalash maqsadida integratsiyani amalga oshirish uchun pedagogik bilimlarni qo'llaydi. O'quvchi bilimlar tizimida, umumlashtirish ularni amalda qo'llaydi.

6. Nazorat qilish bosqichida o'qituvchi bir- biri bilan bog'langan predmetlarga o'quvchilarning tayyorligini baholaydi, nazorat qiladi, o'zlashtirish sifatida baholaydi. O'quvchilar o'z bilimlarini baholashni, turli predmetlar bo'yicha o'z-o'zini ham, ularni birlashtirish ko'nikmalarini nazorat qiladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mavlonova R.A., Voxidova N., Raxmonqulova N. Pedagogika nazariyasi va tarixi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2010. – 464 b. - B. 121.

2. Абдуллаева Д.У. Бошланғич синфларда таълим жараёнини ташкил этишининг психологик хусусиятлари // *Замонавий таълим*. - № 8. – Тошкент, 2016. 37-42 б. - Б. 38.
3. Jumayev M “Matematika o‘qitish metodikasi“ o‘quv qo‘llanmasi. T-2004- yil.
4. Jumayev M.E. « Matematika o‘qitish metodikasidan praktikum” T-2003-yil.
5. Boshlang‘ich ta‘limni o‘qitish metodikasi bo‘yicha o‘quv-uslubiy majmua. II-qism T-2018-yil.
6. Z.Xusainova «O‘zbek topishmoqlari» «Fan» 1996.
7. E-Learning and Mathematics: a blended learning approach, *Michael James Malone and John O’Shea*

TARIX VA IJTIMOIIY FANLARNI O‘QITISHNING ZAMONAVIY METODLARI

Abduolimova Maxliyoxon Murodjonovna, Nizamova Shoxista Raximiddinovna

Guliston shahar 14-umumta'lim maktabi tarix fani o'qituvchisi

“Metodologiya” so‘zi qadimgi yunoncha “metodos” so‘zidan olingan bo‘lib, “tadqiqot yo‘li”, “bilish yo‘li” degan ma‘noni bildiradi. Uning ma'nosi har doim ham bir xil bo'lmagan, u metodologiyaning rivojlanishi, ilmiy asoslarining shakllanishi bilan o'zgargan.

Tarix o'qitish metodikasining dastlabki elementlari fanni o'qitish maqsadlari, tarixiy materialni tanlash va uni ochish usullari haqidagi amaliy savollarga javob sifatida o'qitishni joriy etishdan kelib chiqqan. Metodologiya fan sifatida murakkab rivojlanish yo'lini bosib o'tdi. Inqilobdan oldingi metodologiya o'qitish usullarining boy arsenalini ishlab chiqdi, individual usullarni umumiy pedagogik g'oya bilan birlashtirgan butun uslubiy tizimlarni yaratdi.

Sovet Ittifoqidan keyingi davr metodika oldiga yangi vazifalarni qo'ydi va olimlar, metodistlar, amaliyotchi o'qituvchilardan metodologiya fanining asosiy qoidalarini qayta ko'rib chiqishni talab qildi.

20-21-asrlar boshidagi ta'lim tizimi. jamiyat qoniqmaydi. Maqsadlar va o'quv natijalari o'rtasidagi nomuvofiqlik aniq bo'ldi. Bu butun ta'lim tizimini, jumladan, tarixni isloh qilishni talab qildi. O'qituvchi oldida yangi kuch bilan savol tug'ildi: bolaga nimani va qanday o'rgatish kerak? Tarixiy bilimlarning chinakam zarur va maqsadga muvofiq tarkibi va hajmini ilmiy jihatdan qanday aniqlash mumkin? Faqat ta'lim mazmunini takomillashtirish bilan cheklanib bo'lmaydi, biz uning ichki qonuniyatlariga tayangan holda kognitiv jarayonni takomillashtirishga harakat qilishimiz kerak.

Maktabda tarixni o'qitish murakkab, ko'p qirrali va har doim ham bir ma'noli pedagogik hodisa emas. Uning qonuniyatlari o'quvchilarning ta'limi, rivojlanishi va tarbiyasi o'rtasida mavjud bo'lgan ob'ektiv aloqalar asosida ochiladi. U talabalarning ta'limotiga asoslanadi. Metodika maktab o'quvchilarining ta'lim faoliyatini tarixni o'qitishning maqsad va mazmuni, o'quv materialini o'zlashtirishni boshqarish usullari bilan bog'liq holda o'rganadi.

Tarixni o'qitish, yuqorida aytib o'tilganidek, o'zaro bog'liq va harakatlanuvchi tarkibiy qismlarni o'z ichiga olgan murakkab jarayon: o'quv maqsadlari, uning mazmuni, bilimlarni uzatish va uni o'zlashtirishga rahbarlik qilish, maktab o'quvchilarining o'quv faoliyati, o'quv natijalari. Ta'lim maqsadlari ta'lim mazmunini belgilaydi. Maqsad va mazmunga muvofiq ta'lim va tarbiyani optimal tashkil etish tanlab olinadi. Pedagogik jarayonni tashkil etish samaradorligi ta'lim, tarbiya va rivojlanish natijalari bilan tekshiriladi.

O'quv jarayonining tarkibiy qismlari tarixiy kategoriyalar bo'lib, ular jamiyat rivojlanishi bilan o'zgaradi. Tarix o'qitishning maqsadlari jamiyatda sodir bo'layotgan o'zgarishlarni aks ettirishga moyildir. Ta'lim maqsadlarini aniq belgilash uning samaradorligining shartlaridan biridir. Maqsadlarni belgilashda tarix fanini o'qitishning umumiy vazifalari, o'quvchilarni, ularning bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish, o'quv jarayonini ta'minlash va hokazolarni hisobga olish kerak. Maqsadlar muayyan maktabda mavjud bo'lgan sharoitlar uchun real bo'lishi kerak.

Tarkib o'quv jarayonining muhim tarkibiy qismidir. Maqsadlarning tarixan aniqlangan qayta tuzilishi ta'lim mazmunini ham o'zgartiradi. Tarix, pedagogika va psixologiya, metodika fanlarining rivojlanishi o'qitish mazmuniga, uning hajmi va chuqurligiga ham ta'sir ko'rsatadi. Xullas, zamonaviy sharoitda tarix o'qitishda formatsion yondashuv o'rniga tsivilizatsiyaviy yondashuv ustunlik qiladi, tarixiy shaxslarga katta e'tibor beriladi. O'qituvchi bolalarni o'tmishni bilish jarayoni va odamlarning xatti-harakatlariga axloqiy baho berish jarayonini farqlay olishga o'rgatadi. O'quv jarayonida harakat ichki qarama-qarshiliklarni bartaraf etish

orqali amalga oshiriladi. Bunga ta'lim maqsadlari va erishilgan natijalar o'rtasidagi ziddiyatlar kiradi; optimal va amaliyotda qo'llaniladigan o'qitish usullari va vositalari o'rtasida.

Tarix o'qitish jarayoni o'quvchining individualligini, uning shaxsiy fazilatlarini rivojlantirishga qaratilgan. U o'zining barcha funktsiyalarini (rivojlanish, o'qitish, ta'lim) uyg'un tarzda amalga oshirishni ta'minlaydi. Tarbiyaviy ta'lim tushunchasi o'quvchilarning mustaqil fikrlashiga asos soladigan ta'lim tushunchasini o'z ichiga oladi. Ta'lim, tarbiya, rivojlanishning birligiga faqat o'quvchilarning o'zlari mehnati o'quv jarayonining barcha bosqichlarida faollashtirilgan taqdiridagina erishiladi. Ta'lim o'quvchilarda tarix tajribasini shaxsiy tushunish, insonparvarlik g'oyalarini idrok etish, inson huquqlari va demokratik qadriyatlarga hurmat, vatanparvarlik va o'zaro tushunish asosida qadriyat yo'nalishlari va e'tiqodlarini shakllantirish bilan bog'liq holda ham tarbiyaviy xususiyatga ega. xalqlar. Maktabda tarix fanini o'qitishning o'quv va tarbiyaviy vazifalarini to'g'ri hal qilish turli konsentratsiyalarda o'quvchilarning psixologik va yosh xususiyatlarini hisobga olmasdan mumkin emas.

Shunday qilib, kichik maktab o'quvchisi tarixiy bilimlarni to'plashga intiladi, o'qituvchidan ko'p so'raydi. U ritsarlarning kiyimlari, yurishlardagi jasorat va jasorat tafsilotlari bilan qiziqadi, ular tanaffus paytida darhol gladiator janglarini yoki ritsarlik turnirlarini boshlaydilar. O'rta maktab o'quvchisi tarixiy faktlarni to'plash uchun emas, balki ularni tushunish va umumlashtirish uchun harakat qiladi; tarixiy faktlar o'rtasida mantiqiy bog'lanishlar o'rnatishga, qonuniyatlarni ochishga, nazariy umumlashtirishga intiladi. Yuqori sinflarda o'quvchilarning mustaqil ravishda oladigan bilimlari salmog'i ortib bormoqda. Bu mantiqiy fikrlashning yanada rivojlanishi bilan bog'liq. Bu yoshda siyosat, axloq va san'at masalalari bilan bog'liq bilim elementlariga qiziqish ortib bormoqda. Maktab o'quvchilarining qiziqishlari farqlanadi: kimdir aniq fanlarga, boshqalari gumanitar fanlarga qiziqadi. Har xil turdagi ta'lim muassasalari: gimnaziyalar, litseylar, kollejlar, umumta'lim maktablari - bu qiziqishni amalga oshiradi. Shu bilan birga, kognitiv jihatdan qimmatli materialni jalb qila olish, maktab o'quvchilarining qiziqishini saqlab qolish va rivojlantirish kerak.

Demak, bu muammolarni hal etishda o'qituvchi tomonidan o'quvchilarning tarixiy tafakkurini rivojlantirish, tarix haqidagi ilmiy tushunchalarini shakllantirish ustida tizimli ish olib borishi zarur. Tarixni o'qitish bo'yicha vazifalarni belgilash - o'quv va tarbiyaviy, tarix kurslarining mazmunini aniqlash, bilimlarni maktab o'quvchilariga o'tkazish yo'llarini belgilash, ma'lum natijalarga erishishga ishonish kerak: talabalar tarixiy materialni o'rganishlari va tarixga o'zlarining munosabatlarini rivojlantirishlari uchun. faktlar va hodisalar. Bularning barchasi tarix o'qitish metodikasi bilan ta'minlanadi. Maktablarda tarix o'qitish metodikasi vazifalarini belgilashda uning mazmuni va pedagogika fanlari tizimidagi o'rnidan kelib chiqishini hisobga olish kerak.

Tarixni o'qitish metodikasi faqat unga xos bo'lgan o'ziga xos qonuniyatlari bilan ishlaydi. Ushbu naqshlar mashg'ulotlar va uning natijalari o'rtasidagi mavjud aloqalarni aniqlash asosida ochiladi. Yana bir qonuniyat (afsuski, bu mutlaqo yetarli hisobga olinmagan) shundan iboratki, uning qonuniyatlarini bilishda metodologiyani faqat o'z doirasi bilan cheklab bo'lmaydi. Tarixni o'qitish jarayonini o'rganuvchi metodik tadqiqotlar turdosh fanlarga, birinchi navbatda tarix, pedagogika va psixologiyaga asoslanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik maxorat.-T.: TDPU. 2003.
2. M.Karimov. I.Tursunov. Islom Karimovning «O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida» asarini o'rganish «Shark»-T. 1995.
3. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tomoyillar. T. O'zbekiston, 2000
4. J.G'.Yo'ldoshev, S.A.Usmonov. Pedagogik texnologiya asoslari.-T.: O'qituvchi. 2004.
5. J.G'.Yo'ldoshev. Ta'lim yangilanish yo'lida.-T.: O'qituvchi. 2000.
6. 5-sinf «Jaxon tarixidan hikoyalar» I.Jo'rayev, M.Lafasov, K. Normatov. T. 2000.

MILLIY KURASH SPORTINING ANANALARI URF ODATLARI-TARBIYA VOSITASIDIR

Jonibekova Dilnoza Mamirjanovna, Malikova Shoxista Xamidullayevna

*Sirdaryo viloyat, Guliston shahar 2-sonli matematika faniga ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktabi
jismoniy tarbiya fani o'qituvchilari*

Anotatsiya: ushbu maqolada yurtimizda, balki butun dunyoda ommalashib borayotgan kurash sport turining ananalari, urf odatlari xaqida batafsil malumotlar berilgan. Kurashning milliy va umuminsoniy qadriyat ekanligi ilmiy asoslanib, malumotlar yetkazildi.

Kalit soʻzlar: Kurash, kurash anʼanalari, jismoniy tarbiya, sport, polvon, oʻzbek sportchilari, buyuk ajdodlarimiz, urf-odatlari, musobaqa.

Yurtimizda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, ommalashtirish hamda uni umummilliy harakatga aylantirish, fuqarolar salomatligini mustahkamlash, yosh avlodning barkamol etib voyaga etishida muhim omil hisoblanadi. Shu bois yurtimizda jismoniy tarbiya hamda sportga davlat siyosatining muhim yoʻnalishlaridan biri sifatida alohida eʼtibor qaratilmoqda. Oʻzbek sportchilarining xalqaro maydonlarda yuksak natijalarga erishib kelayotganlarining muhim omillaridan biri bu oʻquvchi-yoshlar oʻrtasida ommaviy sportga alohida eʼtibor qaratilayotganidadir. Mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish ijtimoiy siyosatning muhim yoʻnalishlaridan biri etib belgilangan. Chunki sport aholi salomatligini mustahkamlash, yosh avlodni sogʻlom va barkamol etib tarbiyalash orqali jamiyatda sogʻlom turmush tarzini qaror toptiradi. Turli kasalliklar, yoshlar oʻrtasida zararli odatlarning oldini oladi. Sport yuksak madaniyat, vatanparvarlik tuygʻularini shakllantirishda ham muhim oʻrin tutadi. Bu sohada erishilgan yutuqlar mamlakatni dunyoga tanitadi, barcha yurtdoshlarga gʻurur-iftixor bagʻishlaydi.

Mamlakatimizda sportni ommalashtirish boʻyicha besh yillik milliy kontseptsiya ishlab chiqish zarur. Aholini jismoniy tarbiya bilan muntazam shugʻullanib, sogʻlom turmush kechirishga jalb etish, shu orqali kasalliklarning oldini olib, odamlarning umrini uzaytirish kontseptsianing asosiy yoʻnalishi va natijasi boʻlishi kerak, – deydi Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev.

Qadimiy qadriyatlarimiz, xususan mardlik, jasurlik, Vatanparavarlik, gumanizm gʻoyalarini oʻzida mujassam etgan milliy sportimiz boʻlgan kurashni ommalashtirish, keng koʻlamda targʻib qilish va rivojlantirish, dunyoga tanitish va ushbu qadriyatimizni umumjahon durdonasiga aylantirish boʻyicha qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, kurashning tobora ommalashib borayotganligi nufuzli xalqaro musobaqalarni tashkil qilishga, mavjud infratuzilma va moddiy-texnik bazani modernizatsiya qilishga, sport inventarlari va kiyimlari taʼminotini yaxshilashga, bu borada ishlab chiqarishni kengaytirishga, shuningdek sohada malakali kadrlar, murabbiylar va hakamlar tayyorlashga boʻlgan eʼtiborni yanada kuchaytirishni talab etmoqda.

Buyuk ajdodlarimizdan meros qolgan kurash sportining boy anʼanalari va qadriyatlarini kelajak avlodlarga etkazish, oʻzbek sporti brendi nomi bilan kurashning jahon arenasidagi rolini oshirish, yoshlarni milliy sportga boʻlgan qiziqishlarini qoʻllab-quvvatlash va ragʻbatlantirish orqali ularda vatanparvarlik tuygʻusini yanada mustahkamlash, aholining barcha qatlamlari, ayniqsa, yoshlarni, shuningdek jahon xalqlarini mazkur sport turi bilan shugʻullanishi uchun zarur sharoitlar yaratilib kelinmoqda.

Kurash anʼanalari- xalqning tarixiy shakllanishi va rivojlanishi jarayonida yaratilgan va avlodlarga muqaddas meros sifatida oʻtib kelayotgan bebaxo boylikdir. Millatning asosiy belgilaridan biriga aylangan urf odatlarni asrash va kamol toptirish xar bir avlodning muqaddas burchi xisoblanadi. Ajdodlarimiz ananalari barxayot boʻlishi uchun, avvalo uni kelajagimiz buniyodkorlari boʻlgan yoshlar ongida barqarorlashtirish lozim, aks xolda yoshlar tomonidan ajdodlar analarining kadrlanmay qoʻyilishi avlodlar oʻrtasida maʼnaviy uzulishni vujudga keltiradi. Avloddan avlodga oʻtib kelayotgan xalq ananalari shoʻrolar davrida jiddiy toʻsiqlarga uchragan boʻlsada, oʻzbek xalqi mustaqillikka erishgandan soʻng, qayta tiklana boshladi. Chunki ananalar xalq manaviyatining tarkibiy qismi, muxum axloqiy qadriyat, tarbiya vositasidir. Xalq anʼanalari, marosimlar jarayonida namoyon boʻlayotgan odob-axloq, mexr-oqibat, izzat-ikrom kabi xislatlar yoshlar manaviyatining shakllanishida muxim ahamiyat kasb etmoqda. Bunday ulkan va oʻta maʼsuliyatli ijtimoiy-pedagogik jarayonlarni amalga oshirish dolzarb vazifalardan biridir.

Har qanday xalqning milliy anʼanasi, shu millatning hayot ehtiyoji, turmush taqozosi natijasida dunyoga keladi. Millatimizning faxri boʻlgan kurash anʼanasi bir necha ming yillik tarixga ega boʻlib, oʻzida oʻzbek xalqimizning koʻplab urf-odatlari, udumlarini mujassamlashtirgan oʻziga xos sanʼatdir.

Kurash anʼanasini oʻzbek xalqi koʻz qorachigʻidek asrab-avaylab, avloddan-avlodga meros qilib shu kungacha etkazib keldi.

Xalqimiz hayotida muhim ahamiyat kasb etib kelayotgan, ajdodlarimiz merosi hisoblangan kurash

an'anasi, urf-odatlar, udumlari halollik, poklik qonuniyati asosida tarixan rivojlanib xalqimizning ma'naviy boyligi sifatida avlodlarimizga etib kelgan. Demak, bu buyuk meros ajdodlar bilan avlodlarimizni bog'lovchi asosiy xalqalardan biri hisoblanadi. O'zida halollik va poklikni mujassamlashtirgan, yoshlarimiz tarbiyasida har tomonlama beqiyos ahamiyatga ega bo'lgan to'y kurashi asosida dunyoda yangi sport turi sifatida tan olingan o'zbek milliy sport turi sifatida "Kurash" vujudga kelgan. Meros asosida vujudga kelgan yangilik hech vaqt engilmaydi degan falsafani ham unutmasligimiz kerak. Ming yillar burun yurtimizda hozirgi vaqtdagi futbol, tennis, voleybol kabi sport turlari bo'lmagan.

Qadimgi yunon yozuvchisi Elian Klavdiyning ma'lumotlariga qaraganda, hozirgi O'zbekiston sarhadida sak qabilalari istiqomat qilgan bo'lib, ular o'rtasida kurash nihoyatda keng tarqalgan ekan. O'zbeklar shu qabilalarning avlodlaridir. Lashkarboshilar o'z askarining jismoniy tayyorgarligi, kuchi, chaqqonligi va sezgirligini kurash orqali rivojlantirganlar. Qadim zamonlarda O'zbek elida rivojlangan bir an'ana bo'lgan ekan. Unga binoan, dehqonlar ekinlarini, chorva uchun em-xashaklarini g'amlab olgandan keyin qish faslidan to bahor boshlanguniga qadar cho'llarga, tog'-adirlarga chiqib, chodirlar tikib kurash tushganlar. Chavandozlar uloq chopgan. Bunday to'ylarda asosan to'y kurashi bo'lib, ularda yosh bolalardan tortib, otaxon polvonlar ertadan kechgacha kurashganlar. Haloyiq miriqib, zavq-shavq bilan dam olganlar, hordiq chiqarganlar. Otalar o'zining 4-5 yoshli bolalarini qo'shnisining yoki qarindosh urug'larining uylariga etaklab kelgan va davra qurishib, gilam yoki kiygizning ustida kurashganlar, kimning bolasi zo'rligini aniqlaganlar. Bunday voqealar o'zbek xalqining hayotida keng tarqalgan urf-odatlardan hisoblangan. Davra suhbatlarining asosiy mavzusi ko'pchilik holatlarda polvonlar to'g'risida bo'lgan. Ayniqsa, kurashli to'ylar va to'ylar mavzusidan keyin polvonlarning kurashi, eng kuchli polvonlar to'g'risidagi qizg'in suhbatlar, har xil bahslar avjiga chiqqan. Davraga chiqqan har polvonning kurashini xalq yig'inlarida, choyxonalarda, davra suhbatlarida astoydil muhokama qilganlar. Bu muhokamalar to'ylardan keyin ham bir necha oylab, yillab davom etgan.

Kurash sportida polvonlikda asosan: inson uchun zarur bo'lgan kuch, chaqqonlik, epchillik, egiluvchanlik, chidamlilik kabi jismoniy sifatlar bilan birga irodaviy, ruhiy, o'z kuchi va imkoniyatlariga ishonch, jangovorlik fazilatlar mavjud bo'ladi. Ana shu fazilatlar polvonni g'oliblikka chorlaydi. Xalqimizda "Polvonlik-barkamollik" maqoli bekorga to'qilmagan. Polvonlarning o'zaro bellashuvlaridagi harakat faoliyatlarini kuzatuvlarimiz, tahlil va xulosalarimiz yuqorida qayd etilgan fikrlarimiz isbotidir.

Xulosa qilib aytganda kurash kishi organizmiga ijobiy ta'sir etibgina qolmay, balki, u bilan shug'ullanuvchilarning har tomonlama rivojlanishiga yordam beradigan va yoshlarni ma'naviy tarbiyalashning samarali vositalaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kurash Milliy sport turini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risi"da Qarori.2.10.2017
6. Axmedov F. Q. Jismoniy ta'limda milliy ananalarning o'rni. Toshkent 2010 yil "Fan nashryoti" 110-bet.
7. K. Yusupov Kurash Xalqaro qoidalar, texnikasi va taktikasi. Toshkent 2005 yil 129- bet.
8. F.Q.Axmedov, A.R.Abdulaxatov O'zbek kurashi milliy va umuminsoniy qadriyatlar durdonasi.Toshkent 2017 yil 128- b

O'QUVCHILARNI EKOLOGIK TARBIYA BERISHGA TAYYORLASH MEZONLARI

Abdullayeva Xolida Xazratovna

*Sirdaryo viloyat, Guliston shahar 2-sonli matematika faniga ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktabi
geografiya fani o'qituvchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada, yoshlarni ekologik ong va ekologik madaniyatini shakllantirish hamda ekologik tarbiya berishga tayyorlash mezonlari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Ekologik ong, ekologik ta'lim, ekologik tarbiya, ekologik madaniyat, ekologik faoliyat, tabiat komponentlari.

Inson tabiat mahsuli bo'lish bilan birga, atrof muhit holatin o'zgartirishga qodir bo'lgan

geobiologik kuch hamdir. Insoniyatning tabiat, atrof-muhit bilan muloqoti muhim ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Bu muloqot ikki xil yo'nalishda: jismoniy (kuch) va ma'naviy (so'z) orqali bo'ladi. Inson tabiat bilan muloqot qilganda jismoniy xarakatidan foydalaniladi. Bu harakat o'ziga va atrof-muhitga nisbatan ijobiy yoki salbiy bo'lishi mumkin. Biosferada yashovchi jonli mavjudot hisoblanmish insoniyat bir-biri bilan so'z orqali muloqot qiladi. Insonlarning bir-birlariga aytayotgan so'zlari ijobiy yoki salbiy natija beradi. Bu natija insoniyatning o'ziga ham, atrof muhitga ham ta'sir etadi.

Inson atrof-muhit, tabiat komponentlari (suv, havo, tuproq, quyosh) bilan aqliy va jismoniy quvvati yordamida muloqot qiladi. Bu muloqot ijobiy va salbiy bo'ladi. Agar muloqot ijobiy bo'lsa atrof-muhit gullab yashnaydi. Salbiy bo'lsa atrof muhit vayron bo'ladi. Bunday jarayonlar tarixda bir necha bor sodir bo'lgan. Atrof-muhit talofat ko'rib, insoniyat aziyat chekkan. Hozir ham shunday holatlar kuzatilmoqda. Ayniqsa, insoniyatning atrof-muhit, tabiat bilan muloqot madaniyati hamda Avesto, Qur'oni Karim, Hadisi shariflarda, donishmand, alloma va shoirlarning asarlarida, xalq pedagogikasida batafsil fikrlar keltirilgan.

Tabiat bilan inson orasidagi munosabatlarni anglab etgan alloma, donishmand, olim, din arboblari insoniyatning o'zi va olam haqidagi tasavvurlarini oshirib, to'g'ri yo'lga boshlaganlar. Tajribalar shuni ko'rsatdiki, ajdodlarimizning tabiat, atrof-muhit haqidagi hikmatli, dono, mazmunli g'oyalarini o'rganish insonni yuksak ekologik ma'naviyatga yo'llaydi. Tabiat va inson orasidagi munosabatlarni anglatuvchi alloma, donishmandlarning duru-gavharlarini jamlash, ularni saralash. Tizimlashtirish va undan ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanish muhim ahamiyatga ega bo'lsa-da, biroq ushbu muammo hozirgacha ilmiy-pedagogik jihatdan hal etilmagan. Bu hol ta'lim-tarbiya sifatiga salbiy ta'sir etadi.

Ekologik ta'lim o'quvchiga aniq maqsadga muvofiq, izchil, tizimli va uzluksiz ravishda nazariy ekologik bilimlarni berishga yo'naltirilgan ta'limiy jarayonidir. Nazariy ekologik bilimlar (ekologik ong) hamda atrof-muhit va tabiat muhofazasi yo'lida olib borilayotgan faoliyat birligi ekologik madaniyatni shakllantirishga xizmat qiladi. Ekologik ong tabiat va atrof-muhitning mavjud holati, ularni muhofaza etish borasidagi tushunchalarning ongdagi ifodasi bo'lib, u murakkab ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Ekologik faoliyat esa ekologik bilimlarga tayanilgan holda tabiat va atrof-muhit muhofazasini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan xatti-harakatlar majmui demakdir.

O'zbekiston Respublikasida tabiat va atrof-muhit muhofazasini tashkil etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu yo'lida amalga oshiriluvchi ijtimoiy-ekologik harakat mazmuni «O'zbekiston Respublikasining Atrof-muhitni muhofaza qilish Milliy harakat rejasida» o'z ifodasini topgan.

Tabiat va atrof-muhitni muhofaza qilish, shuningdek, ekologik muammolarning ijtimoiy xavfi xususida to'xtalib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov quyidagi fikrni qayd etadi: «Ekologik xavfsizlik muammosi allaqachon milliy va mintaqaviy doiradan chiqib, butun insoniyatning umumiy muammosiga aylangan. Ekologiya hozirgi zamonning keng miqyosidagi keskin ijtimoiy muammolaridan biridir. Uni hal etish barcha xalqlarning manfaatlariga mos bo'lib, tsivilizatsiyaning hozirgi kuni va kelajagi ko'p jihatdan ana shu muammoning hal qilinishiga bog'liqdir».

O'quvchilarda tabiatga nisbatan to'g'ri munosabatni qaror toptirish, mehr-muhabbatni uyg'otish, atrof-muhit musaffoligiga erishish ekologik muammolarni hal etish yo'lida muhim bosqich sanaladi.

Bolalar atrof-olamni qiziqib, muntazam o'rganib borishlarini hisobga olgan holda, maktabgacha yoshdagi tarbiyalanuvchilarda o'zi yashayotgan joyi va tabiati, hayvonot va o'simliklar olami, tabiiy boyliklari haqida to'liq tasavvur shakllantirish zarur. Inson hamisha tabiat bilan uyg'unlikda yashaydi, tabiat bilan nafas olib, tabiat qo'ynida hayot kechiradi. Atrofimizni o'rab turgan olamda tabiatning bir qarashda juda oddiy va shu bilan birga juda murakkab sir-sinoatlari, mo'jizalari, jumboqlari ham hali juda ko'p.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni tevarak-atrof bilan, tabiat bilan tanishtirish mashg'ulotlari tabiatni chuqur anglash, ona tabiatga va ona yurtiga mehr-muhabbat uyg'otish, tabiiy boyliklardan foydalanish va ularni asrash yuzasidan sodda bilimlarni shakllantirishga qaratilgan. Ekologik tarbiyani olib borish chog'ida – o'quvchilarga ekologik bilimlar berish asosida shaxs, jamiyat va tabiat birligi hamda aloqadorligini o'quvchilarga tushuntirish, ularda ekotizimning inson, insoniyat, jamiyat taraqqiyotidagi muhim o'rni va mohiyati borasidagi tushunchalarni qaror toptirish, tabiatga nisbatan ehtiyotkorona va mas'uliyat bilan munosabatda bo'lish, tabiatni asrash to'g'risida g'amxo'rlik qilish kabi tuyg'ularni qaror toptirish, shuningdek,

ekologik madaniyatni shakllantirish lozim.

Ekologik tarbiyaning bosh maqsadi o'sib kelayotgan yosh avlod, fuqarolarda tabiatga va tabiiy muhitga nisbatan iste'molchilik munosabatini bartaraf qilib, u bilan uyg'unlikda yashash hamda unga mas'uliyatli munosabagai shakllantirishdan iboratdir. Tabiatdagi jamiki narsalar - butun borliq, tevarak-atrof, havo, suv, adiru dadalar, tog'u tosh, o'rmonlarning tozaliga, ularning ifloslanishining oldini olish va muhofaza qilish, o'simliklar va hayvonot dunyosini asrash, parvarish qilish va ko'paytirish ekologik ta'lim-tarbiya mazmunini tashkil qiladi.

Maktab yoshidagi bolalarda ekologik madaniyatni shakllantirish jarayonida pedagog quyidaga vazifalarga e'tibor berishi lozim:

1. Jonli va jonsiz tabiat, tevarak-atrofdagi kishilar mehnati haqidagi tasavvur va tushunchalarni shakllantirishhamda rivojlantirish.
2. Tabiat va kishilar mehnatidagi mavsumiy o'zgarishlarni kuzatish.
3. Bolalar dunyoqarashini shakllantirish maqsadida jonli va jonsiz tabiatdagi voqelikni bolalar bilan doimiy kuzatib borish.
4. Tabiat hodisalari o'rtasidagi o'zaro aloqani ochib berish tabiatning odamlar mehnatiga bo'lgan ta'sirini ko'rsatish.
5. Tabiatni asrashning ahamiyati haqidagi bilimlarni kengaytirib borish.
6. Sanitariya-gigiena haqidagi bilimlarni shakllantirish.

Tabiat, tevarak-atrof bilan tanishtirni mashg'ulotlarida bolalarga mantiqiy fikrlashni o'rgatishga, yoshi me'yorlari doirasida nutq, mehnat ko'nikmalari va malakalarini shakllantirishga, intizom, o'zaro yordam, mehnatga muxabbat uyg'otish, boshlab qo'ygan ishini oxiriga etkazish kabi xislatlarni tarbiyalashga alohida e'tibor berish zarur.

Ekologik ta'lim-tarbiya berish jarayonida badiiy adabiyot, qurish-yasash, tasviriy san'at mashg'ulotlarining o'zaro aloqasi muhim ahamiyatga ega. Ekologik ta'lim-tarbiya jarayonida kuzatish, ekskursiya, guruh maydonchalari va tabiat burchaklarida kattalar mehnatiga yordam berish, tajribalar o'tkazish ishlari etakchi o'ringa ega. Ekskursiyalar davomida tabiat hodisalariga, tabiat jismlariga katta e'tibor beriladi. Ta'lim tizimida islohotlar o'tkazish zaruriyati, ta'limning yangi modelining amaliyotga tatbiq etilishi maktabgacha ta'lim tizimiga ham yangi pedagogik texnologiyalar, interfaol usullar kiritilishini talab etmoqda.

Innovatsion ta'lim berishning asosiy mezonlari mashg'ulotlar davomida norasmiy munosabatlar, mavzuni erkin ifodalash, individual va jamoa bo'lib fikrlashni nazarda tutadi. Interfaol usullar pedagogik ta'sir etish usullari bo'lib, ta'lim mazmunining tarkibiy qismi xisoblanadi. Bu usullarning o'ziga xosligiga shundaki, ular faqat tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi. Tarbiyachi ta'lim jarayoni tashkilotchisi, rahbari va nazoratchisi hamdir. Tarbiyalanuvchi mashg'ulot davomida o'zini erkin his qilishi va jarayon emotsional jihatdan uni qoniqtirishi, ya'ni unga yoqiish lozim, shunda u o'z fikrlarini erkin bayon eta oladi. Tarbiyachi yangi bilim berganidan keyin, bola mavzuni qanday o'zlashgarganini, uning fikrini bilish, bilimini sinash, ko'nikma va malakalarini aniqlash uchun savolni, albatga, to'g'ri qo'ya olishi kerak. Savollar berishda quyidagilarga e'tibor berish zarur:

- savollar aniq va qisqa bo'lishi;
- bitta savol bilan bitta narsani so'rashi;
- savol aynan mavzuga doir bo'lib, bolaga tushunarli bo'lishi;
- savollar "yopiq" emas, balki "ochiq" bo'lishi;
- tez-tez "nima uchun?", "sen nega bunday deb o'ylaysan?", degan savollar bilan murojaat qilishi kerak bo'ladi.

Savol berganda, javobini ma'lum bir mudat kuyish kerak va zarur bo'lsa, savolni boshqacharoq talqinda takrorlash mumkin, lekin har qaysi vaziyatda ham javobni, imkon qadar aytib qo'ymaslik zarur. Interfaol usullar xilma-xil bo'lib, qaysi usulni tanlash pedagogning o'tayotgan mavzusi, darsning maqsadi va vazifalariga bog'liq bo'lishi lozim. Yoshlar tarbiyasida ishtirok etayotgan sub'ektlarning shaxsiy namunalari, o'quv manbalari, badiiy adabiyotlar, ommaviy axborot vositalari, internet resurslari va ularning g'oyalari yoshlarda ekologik madaniyatni shakllantirishning muhim vositalari sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. E.O. Turdiqulov. Ijtimoiy ekologik g'oyalardan ta'lim jarayonida foydalanish. -T.: 2014 y
2. Н.Н.Азизходжаева. Педагогические технологии и педагогическое мастерство. — Т.: ТГПУ, 2003г.

INTERFAOL METODLAR ORQALI O'QUVCHILARNING KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH

Saidova Sarvinoz Fayziyevna, Mamatqulova Moxidil G'anijon qizi

*Sirdaryo viloyat, Guliston shahar 2-sonli matematika faniga ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktabi
informatika va axborot-texnologiyalari fani o'qituvchilari*

Informatika va axborot texnologiyalari fanida bilim va ko'nikmalar boshqa predmetlarda bo'lgani kabi nafaqat maqsadlar, balki shaxsning o'z-o'zini rivojlantirish va o'zini o'zi anglashining muhim vositasi sifatida zarur. Maqsadlarning o'zgarishi o'qitish metodlarining o'zgarishiga olib keladi. Shuning uchun ham izlanish-tadqiqotchilik metodini, ya'ni o'quvchilar ilgari o'zlashtirgan bilimi va egallagan ko'nikmalarining yetarli emasligini aniqlash va tushunishlari, o'qituvchi bilan birgalikda o'quv vazifasini shakllantirishi, o'z-o'zini baholash, tahlil masalasini hal etishning aniqlangan usulini asoslashni birinchi o'ringa qo'yishi kerak. Buning natijasida o'qituvchi izlanish jarayoni ishtirokchisi, o'quvchi esa uning ishbilarmon raqibiga aylanadi. O'qituvchining vazifasi esa o'quvchining mustaqil ishlashi va o'z-o'zini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoit yaratish, uning maqsadlarini aniq tushunishi va belgilangan vazifani hal qilishda mustaqil faoliyatga undashdan iborat.

Bu esa o'z navbatida, o'quvchilarda informatika va axborot texnologiyalari fanini o'qitishda kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish uchun yo'naltiruvchi matn, didaktik masala, ishbilarmonlik o'yinlari, xususiy vaziyatlarni o'rganish, loyihali o'qitish metodikalarini qo'llash maqsadga muvofiq hisoblandi.

Ushbu metodikalarning har biri o'z xususiyatlariga ega bo'lib, biz ularni qarab chiqamiz:

- "Yo'naltiruvchi matn" metodikasi turli xil o'quvchilar tomonidan axborotni o'zlashtirishning sur'ati, boshlang'ich tayyorgarlik darajalari bo'yicha nomuvofiqlik muammosini hal qilishga imkon beradi; o'quvchilar axborot bilan mustaqil ishlaydilar, nazariy materiallarning o'zlashtirilgan darajasini baholaydilar, topshiriqlarni bajarishning eng yaxshi usulini tanlaydilar, maqsadga erishilganlik darajasini aniqlaydilar;

- "Xususiy vaziyatni o'rganish" metodikasi muammoni aniqlashning zarurligini, muammoli vaziyatni vujudga kelish sabablarini tushunishga yordam beradi. Guruhda fikrlar almashinuvi, so'ngra muammoni bartaraf etish yo'llarini qidirish, buning uchun esa kerakli ma'lumotni mustaqil yoki guruh bo'lib qidirish ro'y beradi;

- "Ishbilarmonlik o'yini" va "Loyihali o'qitish" metodikalari yuqorida qayd etilgan barcha metodikalarning xususiyatlarini, ya'ni avvalgi mashg'ulotlarda olingan bilimlardan foydalanish va ishning maqbul bajarilish usulini tanlash va maqsadning muvaffaqiyati tahlili uchun real vazifani shakllantirishni o'z ichiga oladi.

O'qitish metodlari esa informatika va axborot texnologiyalari darslarida o'quvchilarda kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirishda katta imkoniyatlarga ega bo'lib, unga seminar, diskussiya, debatlar, davra suhbatlari, ishbilarmonlik va rolli o'yinlar kiradi.

Bu metodlar real kommunikativ vaziyatlarni modellashtirish, aniq kommunikativ muammo yechimini topish va qabul qilingan qarorlarning natijalarini anglash imkonini beradi. Faol o'qitish metodlar juda samarali hisoblanadi, chunki ular o'quvchilar tipik vaziyatlar, shaxslararo muloqat ko'nikmalarini qayta ishlashga, qaytar aloqa ta'minotiga, fikr-mulohazalarini tahriray bilish va kommunikativ muammolarni hal qilishning muqobil usullarini topishlariga imkon beradi.

Har bir metod o'z qo'llanish sohasi va cheklanishlarga ega. Agar o'qitish metodlari to'g'ri tanlansa va kombinasiyalansa u holda kommunikativ ko'nikmalarni yanada samarali ravishda rivojlantirish mumkin. O'quvchilarda muloqot madaniyati darajasi informatika va axborot texnologiyalari bo'yicha tashkil etiladigan darslarda quyidagi metodlardan foydalanish evaziga oshishi mumkin:

- muloqotni tabiiy sharoitlariga yaqinlashtirish va so'zlashuv madaniyatini yuksaltirish imkonini

beruvchi kommunikativ-vaziyat masalalarni hal qilish;

- dialog, muhokama, bahs-munozarada ishtirok etish, ma'ruzachi rolida ishtirok va masalani muhokama qilishda ishtirok etuvchi opponet savol so'rash yoki javob berish;

- shaxsiy, hayotiy va boshqa ta'surotlar asosida ijodiy ishlarni bajarish;

- matnlarni interpretatsiya qilish va yaratish bo'yicha turli xil mashqlardan foydalanish (yozma xatlar, e'lonlar, plakatlar, matnni tahrirlash, turli xil matnni qayta tiklash, tayanch so'zlar asosida matn yaratish);

- loyihalar va multimedia taqdimotlarini yaratish.

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash mumkinki, informatika va axborot texnologiyalari bo'yicha tashkil etiladigan darslarda yuqorida qayd etilgan metodlardan foydalanish o'quvchilarda kommunikativ kompetensiyalarni samarali shakllantirishga imkon beradi.

KIMYO FANINI O'QITISHDA QO'LLANILADIGAN INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR

Malikova Nigina Rifkatovna, Yuldashova Mavlyudaxon Ibroximjon qizi

Sirdaryo viloyat, Guliston shahar 11-maktabi kimyo fani o'qituvchisi

Guliston shahar 2-sonli matematika faniga ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktabi kimyo fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada talim jarayonini sifatli amalga oshirishda innovatsion texnologiyaning o'rni haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Pedagogik innovatsiya, innovatsion texnologiya, ilgor ta'lim texnologiyasi, keys-stadi, pedagogik jarayon, o'quvchilarni mustaqil o'quv faoliyatiga yo'naltirish.

Hozirgi kunda umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim olayotgan o'quvchilar kimyo sanoatining har qanday sohaga kirganligini bilgan holda, mazkur fanning asoslarini bilishi, ta'lim olishi, yashashi va ishlashi uchun zarur ko'nikmalarni shakllantirish dolzarb masalaga aylanganligini his qilishi zarur.

Zamonaviy sharoitda o'quvchilarning o'quv-bilish faolliklarini kuchaytirish, o'qitish sifatini oshirish va samaradorligini yaxshilash maqsadida innovatsion xarakterga ega ta'lim shakllaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bugungi kunda amaliy o'yinlar, muammoli o'qitish, interfaol ta'lim, modul-kredit tizimi, masofali o'qitish, blended learning (aralash o'qitish) va mahorat darslari ta'limning innovatsion shakllari sifatida e'tirof etilmoqda.

Respublika ta'lim muassasalarida innovatsion ta'limni tashkil etishda quyidagi eng ommaviy texnologiyalar qo'llanilmoqda:

Interfaol metodlar: "Keys-stadi" (yoki "O'quv keyslari"), "Blitsso'rov", "Modellashtirish", "Ijodiy ish", "Munosabat", "Reja", "Suhbat" va b.

Strategiyalar: "Aqliy hujum", "Bumerang", "Galereya", "Zig-zag",

"Zinama-zina", "Muzyorar", "Rotatsiya", "T-jadval", "Yumaloqlangan qor" va h.k.

Grafik organayzerlar: "Baliq skeleti", "BG'BG'B", "Kontseptual jadval", "Venn diagrammasi", "Insert", "Klaster", "Nima uchun?",

"Qanday?" va b.

So'nggi vaqtlarda "Keys-stadi" metodi xorijiy mamlakatlar ta'limi amaliyotida muvaffaqiyatli qo'llanib kelinmoqda va bugungi kunda respublika ta'limida ham tobora ommalashib bormoqda. Shu sababli ayni o'rinda ushbu metod (texnologiya)mohiyati haqida so'z yuritiladi.

Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqea-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin.

Mazkur metod muammoli ta'lim metodidan farqli ravishda real vaziyatlarni o'rganish asosida aniq qarorlar qabul qilishga asoslanadi. Agar u o'quv jarayonida ma'lum bir maqsadga erishish yo'li sifatida qo'llanilsa, metod xarakteriga ega bo'ladi, biror bir jarayonni tadqiq etishda bosqichmabosqich, ma'lum bir algoritim asosida amalga oshirilsa, texnologik jihatni o'zida aks ettiradi

"Keys-stadi" metodining o'ziga xos xususiyatlari

-Izlanishga doir faoliyatning mavjud bo'lishi.

-Jamoaviy va guruhlarda o'qitish.

- Individul, guruhli va jamoaviy ish shakllari integratsiyasi.
 - Xilma-xil o'quv loyihalarini ishlab chiqish.
 - Muvaffaqiyatga erishish uchun talabalarning o'quv-bilish faoliyatini rag'batlantirish
- Masalan:

Keys bayoni.

O'zbekiston o'z er osti boyliklari bilan haqli suratda faxrlanadi, bu erda mashhur Mendeleev davriy sistemasining deyarli barcha elementlari topilgan. Hozirga qadar 2,7 mingdan ziyod turli foydali qazilma konlari va ma'dan namoyon bo'lgan istiqbolli joylar aniqlangan. Ular 100 ga yaqin mineral - xom ashyo turlarini o'z ichiga oladi. Shundan 60 dan ortig'i ishlab chiqarishga jalb etilgan. 900 dan ortiq kon qidirib topilgan bo'lib, ularning tasdiqlangan zahiralari 970 milliard AQSh dollarini tashkil etadi. Shu bilan birga, umumiy mineral - xom ashyo potentsial 3,3 trillion AQSh dollaridan ortiq baholanayotganini ham aytib o'tish kerak.

Keys savollari:

Mamlakatimizda rangli metallar rudalaridan mis, oltin va kumushning zahiralari haqida malumot bering.

Mamlakatimizda oltin, uran, mis, volfram, qo'rg'oshin, rux va shu guruhlariga kiruvchi boshqa eng muhim foydali qazilmalarning tasdiqlangan zahiralari va ularning ko'paytirish istiqbollari MDH da tutgan o'rni haqida nima deya olasiz?

Konlarni o'zlashtirishni jadallashtirish bo'yicha Avstraliya kompaniyasining o'rni qanday ?

O'qituvchining javobi:

Mamlakatimiz metall qazilmalarga ayniqsa, rangli metallar rudalariga boy. Bu o'rinda oltin, kumush, qo'rg'oshin, rux, mis hamda er bag'rida kam uchraydigan metallar zahiralari juda katta ekanligini aytib o'tish zarur. Hozirgi vaqtda 40 ta qimmatbaho metall konlari qidirib topilgan.

Qimmatbaho rangli va radioaktiv metallar tarkibida birga uchraydigan foydali komponentlar sifatida kamyob va nodir elementlarning kattagina miqdordagi zahiralari jamlanganki, bu ularning qiymatini ancha oshiradi.

Mamlakatimiz oltin, uran, mis, volfram, qo'rg'oshin, rux va shu guruhlariga kiruvchi boshqa eng muhim foydali qazilmalarning tasdiqlangan zahiralari va ularning ko'paytirish istiqbollari bo'yicha nafaqat MDH mamlakatlari o'rtasida, balki butun dunyoda etakchi o'rinlardan birini egallaydi. Masalan, oltinning tasdiqlangan zahiralari bo'yicha O'zbekiston dunyoda 4-o'rinda, uni qazib chiqarish bo'yicha 7- o'rinda turadi.

O'zbekiston dunyoda ulkan oltin resurslariga ega bo'lgan mamlakatlar qatoriga kiradi, 41 ta oltin koni, shu jumladan 33 ta oltin- ma'dan koni qidirib topildi. Evrosiyo qit'asida eng yirik hisoblangan Muruntov koni jahondagi ulkan konlar qatoriga kiradi.

Samarqand viloyatida oltin ma'danli Zarmitan va boshqa oltin konlari axtarib topildi. Shu konlarni o'zlashtirishni jadallashtirish bo'yicha o'tkazilayotgan tenderda dunyoda katta nufuzga ega bo'lgan Avstraliya kompaniyasi g'olib deb topildi. Toshkent viloyatining Angren shahri yaqinida infratizimi yuksak darajada rivojlangan Qizilolmasoy va Ko'chbuloq konlari topildi. Endilikda, ushbu konlarda cheklangan hajmda qazib chiqarish ishlari olib borilmoqda. Ana shu konlarni o'zlashtirish bo'yicha o'tkazilgan xalqaro tenderda mashhur Yaponiya kompaniyalari g'olib chiqishdi. Keyingi yillarda jahondagi eng yirik oltin rudali mintaqa Qizilqumda Ajibugut, Bulutkon, Balpantov, Aristantov, To'rboy singari yangi konlar qidirib topilmoqda va o'rganilmoqda.

Har o'qituvchi keys-stadiga asoslangan o'quv topshiriqlarining puxta asoslanishiga erisha olishi lozim. Keys topshiriqlarining amaliy didaktik xarakterga ega bo'lishi uchun ularni ishlab chiqishda quyidagilarga e'tiborni qaratish talab etiladi:

Tahliliy ko'nikmalar (ma'lumotlarni axborotlardan ajrata olish, ularni turkumlashtirish, ma'lumotlarni zarur va nozarurga ajratish, tahlil qilish, taqdim etish; buning uchun shaxs aniq, mantiqiy fikrlay olishi kerak).

Amaliy ko'nikmalar (muammoning murakkabligidan kelib chiqib, real vaziyatni tahlil qila olish, eng muhim nazariya, metod va tamoyillarni qo'llay bilish).

Ijodiy ko'nikmalar (bunda mantiqiylik asosida vaziyat (muammo)ni echish muhim emas, balki ijodiy yondashuv asosida muammoning bir necha echimlarini topish va ularni tahlil qilish talab etiladi).

Muloqot ko'nikmalari (unga ko'ra talaba bahs-munozara olib borish, o'z nuqtai nazarini himoya qilish, qaroriga boshqalarni ishontirish, juda qisqa va ishonarli hisobotni tayyorlash ko'nikmalarini o'zlashtira bilishi zarur).

Ijtimoiy ko'nikmalar (qarorni muhokama qilish jarayonida o'quvchilar boshqalarning xatti-harakatini tahlil qilish, boshqalarni tinglay bilish, bahsda o'zgalarning fikrlarini qo'llab-quvvatlash, ilgari surilgan fikrga qarama-qarshi fikrni bildirib olish va o'zini boshqara olishi lozim).

Xulosa qilib aytganda kimyo darslari samaradorligini oshirishda innovasion texnologiyalardan foydalanish o'quvchilarning kimyo faniga bo'lgan kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

O'QUVCHILARNI MURAKKAB MATNLI MASALALARNI YECHISHGA O'RGATISH

Nematjonova Nazokat Maxmadjanovna

*Sirdaryo viloyat, Guliston shahar 2-sonli matematika faniga ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktabi
matematika fani o'qituvchisi*

Annotasiya: Ushbu maqolada umumta'lim maktablarida matematika darslarida o'quvchilarni murakkab matnli masalalarni yechishga o'rgatish bayon etilgan.

Kalit so'zlar: matematika, masala, o'quvchi, matnli masala

Masala - bu kundalik hayotimizda uchraydigan vaziyatlarning tabiiy tildagi ifodasidir. Masala asosan uch qismdan iborat bo'ladi.

1. Masalaning sharti - o'rganilayotgan vaziyatni xarakterlovchi ma'lum va no'malum miqdoriy qiymatlar hamda ular orasidagi miqdoriy munosabatlar haqidagi ma'lumot demakdir.

2. Masalaning talabi - masala shartidagi miqdoriy munosabatlarga nimani topish kerakligini ifodalash demakdir.

3. Masalaning operatori - masala talabini bajarish uchun shartdagi miqdoriy munosabatlarga nisbatan bajariladigan amallar yig'indisi.

Murakkab masalalarni yechish, uni sodda masalalarga ajratish va shu sodda masalalarni yechishga keltiriladi.

Murakkab masalalarni yechish qo'yilgan savolga ma'lumot tanlash mashqlari bilan boshlanadi. Masalan: «Poezd 10 soatda qancha masofani o'tganligini topish uchun yana nimani bilish kerak?», «3 l sut uchun qancha pul to'landi?», «Polizni chopish uchun 5 fermer xo'jalik necha ish kuni sarf qilishdi?» va hokazo. Savollarni mana bunday shaklda ham qo'yish kerak: «Maktabning beshinchi sinflaridagi o'quvchilar sonini xisoblash uchun nimani bilish kerak?», «Bir nechta kostyum tikish uchun material sotib olish kerakligini qanday ma'lumotlardan topish mumkin?» va hokazo. O'quvchilar ma'lumotlarni aytishlari, ularning son qiymatlarini ko'rsatishlari, masalani yechadigan amalni aniqlashlari, shuningdek, masalaning yechilishini tekshirishlari kerak.

O'quvchilar tarkibida bir necha ma'lum sonlar va bir necha izlangan sonlar bo'lgan murakkab masalani yechishda bu murakkab masala ajraladigan sodda masalalarni tuzishda qiyinalib qolmasliklari uchun 2 ta yoki 3 ta sodda masaladan tashkil topgan murakkab masalalar tuzishni mashq qilishlari foydalidir. Buning uchun o'quvchilarga birin-ketin ikkita sodda masala beriladi, bu masalalardan birining javobi ikkinchisining son ma'lumotlaridan biri bo'ladi. So'ngra ikkala masala oraliqdagi savolni tashlab o'qiladi.

Masalan:

1-masala. Baliq ovlaydigan kema 4 oyda 162,8 t kilka ovladi. O'quvchilar: kema o'rta hisobda bir oyda necha tonna baliq ovlagan, degan savol qo'yadilar, amalni aytadilar (bo'lish) va uni bajaradilar: $162,8 : 4 = 40,7$ t.

2-masala. Baliq ovlaydigan kema norma bo'yicha bir oyda 25 t baliq ovlashi kerak edi, u bir oyda o'rta hisobda 40,7 t kilka ovladi. Kema o'rta hisobda bir oyda rejadani tashqari necha tonna kilka ovlagan?

Ikkinchi masala ayirish bilan yechiladi:

$$40,7m - 25m = 15,7m.$$

So'ngra ikkala masalaning shartlari bitta qilib birlashtiriladi, birinchi masalaning savoli tashlanadi.

Bunday masala kelib chiqadi.

Baliq ovlaydigan kema 4 oyda 162,8 t kilka ovladi. Oylik norma 25 t. Kema o'rta hisobda bir oyda rejadan tashqari necha tonna kilka ovlagan?

Yechim bunday yoziladi:

$$1) \quad 162,8 : 4 = 40,7(t);$$

$$2) \quad 40,7 - 25 = 15,7 (t).$$

Murakkab masalaning yechilishi quyidagi qismlardan iborat:

- 1) masalaning mazmunini o'quvchilar tushunib olishi;
- 2) masalani tahlil qilish va reja tuzish (murakkab masalani sodda masalalarga ajratish va yechish rejasini tuzish);
- 3) masalani yechish (amallar tanlash, ularni bajarish, yechishning borishini va hisoblashlarni yozish);
- 4) yechishni tekshirish.

1-masalaning mazmunini o'zlashtirish uchun o'quvchilar bilan quyidagi usulni tajriba qilib qurish mumkin. O'qituvchi masalaning raqamini aytadi va o'quvchilarga masalaning shartini ovoz chiqarmasdan o'qib chiqishni, shartlarini tushunib olishni buyuradi. Shundan keyin chaqirilgan o'quvchi masalaning shartini takrorlaydi. Bu usul o'quvchilarni kitobdan mustaqil foydalanishga o'rgatadi.

2-masala. *A* shahardan *B* shaharga bir vaqtda Matiz, Spark va Lasetti yo'lga chiqdi. Lasetti *B* shahargacha yetib borib tezda orqaga qaytdi. *B* shahardan 18 km yurib Sparkni, 25 km yurib esa Matizni uchratdi. Spark *B* shahargacha yetib borib tezda orqaga qaytdi va *B* shahardan 8 km yurib Matizni uchratdi. *A* shahardan *B* shahargacha bo'lgan masofa necha km?

Yechish: V_1 – Lasetti, V_2 – Spark, V_3 – Matiz tezligi, S -masofa

$$\frac{S-18}{V_2} = \frac{S+18}{V_1}; \quad \frac{S-25}{V_3} = \frac{S+25}{V_1}; \quad \frac{S-8}{V_3} = \frac{S+8}{V_2};$$

$$\frac{V_1}{V_2} = \frac{S+18}{S-18}; \quad \frac{V_1}{V_3} = \frac{S-25}{S+25}; \quad \frac{V_2}{V_3} = \frac{S+8}{S-8};$$

$$\text{Hadma-had ko'paytirsak: } \frac{V_1}{V_2} \cdot \frac{V_3}{V_1} \cdot \frac{V_2}{V_3} = \frac{S+18}{S-18} \cdot \frac{S-25}{S+25} \cdot \frac{S+8}{S-8};$$

$$(S+18)(S+8)(S-25) = (S-18)(S-8)(S+25)$$

$$2S^2 = 144 \cdot 50 \quad S^2 = 144 \cdot 25$$

$$S = 12 \cdot 5$$

$$S = 60$$

Javob: 60 km

3-masala. Hovuzga 2 ta quvur o'tkazilgan. Birinchi quvur bo'sh hovuzni 10 soatda to'ldiradi. Ikkinchisi esa 15 soatda bo'shatadi. Hovuz bo'sh bo'lgan vaqtda ikkala quvur birdaniga ochilsa, hovuz necha soatdan keyin to'ladi?

Yechish: Hovuzni 1- quvur x soatda to'ldirsiz,

2- quvur esa y soatda bo'shatsin, quvurlar bir vaqtda ochilsa, hovuz t soatda to'lsin. U holda $\frac{1}{x} - \frac{1}{y} = \frac{1}{t}$ tenglik o'rinli bo'ladi, bunda $x=10$, $y=15$, $t=?$

$$\frac{1}{t} = \frac{1}{10} - \frac{1}{15} = \frac{3-2}{30} = \frac{1}{30}, \quad t = 30$$

Javob: 30 soat

4-masala. 20 % li va 40 % li eritmalar aralashtirilib, 34 % li 500 gramm eritma hosil qilindi.

Har bir eritmadan necha grammdan aralashtirilgan.

Yechish: $p_1 = 20$; $p_2 = 40$; $p_{1+2} = 34$; $V_1 = V_2 = ?$

$$\begin{cases} \frac{20V_1 + 40V_2}{500} = 34 \\ V_1 + V_2 = 500 \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} V_1 + 2V_2 = 850 \\ V_1 + V_2 = 500 \end{cases} \Rightarrow V_2 = 350$$

$$V_1 = 500 - 350 = 150$$

Javob: 150g, 350g

Maqolada matematika darslarida o'quvchilarini tenglamalar tuzib masalalar yechishga o'rgatish metodikasini, algebraik materiallarni o'rgatishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish usullari ko'rsatib

berildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Azizxodjayeva N.H “Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat”- Toshkent.: TDPU, 2003, 174 bet.
2. Jumayev M.E. va boshqalar. Matematika o’qitish metodikasi (kasb-hunar kollejlari o’quvchilari uchun o’quv qo’llanma) – T.: ”Ilm-Ziyo”, 2003, 240-bet
3. Jumayev M.E. „Matematika o’qitish metodikasidan praktikum“- Toshkent.: O’qituvchi, 2004, 328 bet.
4. Jumayev M.E. Bolalarda matematika tushunchalarni shakllantirish nazariyasi.-T.: ”Ilm-Ziyo”, 2005, 240-bet

TABIIY FALARNI O’QITISHDA DIDAKTIK O’YIN TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Sulaymanova Sitorabonu Faxriddin qizi

*Sirdaryo viloyat, Guliston shahar 2-sonli matematika faniga ixtisoslashtirilgan umumta’lim maktabi
biologiya fani o’qituvchilari*

Ta’lim jarayonida didaktik o’yinli texnologiyalar didaktik o’yinli dars shaklida qo’llaniladi. Ushbu darslarda o’quvchilarning bilim olish jarayoni o’yin faoliyati bilan uyg’unlashtiriladi. Shu sababli o’quvchilarning bilim olish faoliyati o’yin faoliyati bilan uyg’unlashgan darslar didaktik o’yinli darslar deb ataladi.

Bola hayotida o’yin faoliyati orqali quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

1. O’yin orqali shaxsning ma’lum bir faoliyatga bo’lgan qiziqishi ortadi.
2. Kommunikativ - muloqot madaniyatini egallashga yordam beradi.
3. O’z iqtidori, qiziqishi, bilimi va o’zligini namoyon etishga imkon yaratadi.
4. Hayotda va o’yin jarayonida yuz beradigan turli qiyinchiliklarni engishga tayyorlaydi, mo’ljalni to’g’ri olish ko’nikmalarini hosil qiladi.
5. O’yin jarayonida ijtimoiy normalarga mos hulq-atvorni egallash, kamchiliklarga barham berish imkoniyati yaratiladi.

6. Shaxsning ijobiy xislat va fazilatlarini shakllantirishga zamin tayyorlaydi.

Insoniyat uchun ahamiyatli bo’lgan qadriyatlar tizimi, ayniqsa, ijtimoiy, ma’naviy-madaniy, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o’rganishga e’tibor qaratiladi.

1. O’yin ishtirokchilarida jamoa muloqot madaniyatini rivojlantirish ko’zda tutiladi.

O’yin bilan bog’liq faoliyat o’zining to’rtta xususiyati bilan ajralib turadi:

1. Erkin rivojlantiruvchi faoliyatning vujudga kelishi (bunda o’yin ishtirokchilari rollarni, vazifalarni tanlash, o’z faoliyatidan ko’ngli to’lishi nazarda tutiladi).
2. Ijodiy muhitning tarkib topishi (o’yin ishtirokchilari tegishli ijodiy va mustaqil faoliyatga ega bo’ladilar).
3. Xis-hayajonli vaziyatning paydo bo’lishi (o’yin davomida musobaqa, raqobat, hamkorlik, o’zaro yordam vujudga keladi).
4. O’yin davomida belgilangan qonun-qoidalarga qat’iy amal qilinishi (o’yin mazmuni, borishi, mantiqiy ketma-ketligi, vaqt balansi va h. k.).

O’yin tarkibiga quyidagi masalalar kiradi:

- a) o’yinning syujeti;
- b) muayyan rollar, vazifalar;
- v) ushbu rollarni amalga oshirish uchun bajariladigan amallar (usullar);
- g) aniq o’yinlar yoki shartli ravishdagi o’yin vositalaridan foydalanish;

d) o'yin ishtirokchilari o'rtasidagi munosabat, muloqot.

O'yin faoliyatining tarkibi quyidagilardan tashkil topadi:

1. O'yindan ko'zda tutilgan maqsadni aniqlash, loyihalash.
2. Ushbu maqsadni amalga oshirish yo'llarini belgilash.
3. Olingan natijalarni tahlil qilish.
4. O'yin strukturasiga tegishli o'zgartirishlar kiritish.

Didaktik o'yinlarning turlari: syujetli-rolli o'yinlar; ijodiy o'yinlar; ishbilarmonlar o'yini; konferentsiya, o'yin-mashqlar.

Kundalik hayotdagi ijtimoiy munosabatlarni, tabiat va tabiiy hodisalarning ob'ektlari o'rtasidagi aloqalarni badiiy ko'rinish tarzida yoritish asosida vujudga keltirilgan muammolarni o'quvchilarning o'zlaridagi bilim zahiralari tayangan holda hamkorlikda, bosqichmabosqich hal etish jarayonida yangi bilimlarni egallashga karatilgan didaktik o'yinlarni syujetli-rolli o'yinlar deb ataladi. Bunda o'yin syujeti jamiyatdan yoki tabiatdan olinadi. Ba'zan jamiyat va tabiatdagi muammolar uyg'unlashiriladi.

"Bilimlar zanjirining eng kuchsiz halqasi" o'yini: Mazkur o'yin texnologiyasini prof. O. Mavlonov taklif etgan. Bu o'yinni "Hasharotlarning xilma-xilligi", "Baliqlarning xilma-xilligi", "Qushlarning xilma-xilligi", "Sutemizuvchilarning xilma-xilligi", "Parazit chuvalchaglarning xilma-xilligi", "Umurtqasiz hayvonlarning xilma-xilligi", "Umurtqali hayvonlarning xilma-xilligi" kabi yirik mavzular bo'yicha o'tkazish mumkin. O'yin o'quv semestri, o'quv yili yoki yirik mavzularni yakunida bitta sinf o'quvchilari o'rtasida tashkil etiladi. O'qituvchi bir hafta oldin o'quvchilarga o'yin mavzusini e'lon qilib, ularni uyin qoidalar bilan tanishtiradi; uyinga tayyorgarlik ko'rish uchun zarur bo'lgan adabiyotlar to'g'risida ma'lumot beradi.

Mashg'ulotning maqsadi. O'quv predmeti yoki ayrim mavzular bo'yicha o'quvchilarning bilimini kengaytirish va mustahkamlash, fanga qiziqishini oshirish, ularning savollarga tez, qisqa va aniq javob berishga o'rgatish, kitob bilan ishlash, jamoa bilan muloqat qilish ko'nikmalarini hosil qilish va rivojlantirish. Misol tariqasida «Hasharotlar sinfi turkumlari» mavzusi bo'yicha bilimlar zanjiri o'yini texnologiyasi bilan tanishtiramiz.

O'yin ssenariysi:

Mazkur o'yinda barcha o'quvchilar ishtirok etishadi. O'qituvchining taklifiga binoan o'quvchilar qo'l ushlashib keng davra hosil qilishadi va davra bo'ylab asta-sekin aylana boshlashadi. O'quvchilar davrasini bilimlar zanjiriga, davradagi har bir o'quvchi esa bilimlar zanjiridagi halqalarga qiyoslanadi. O'qituvchi savolga to'g'ri javob berolmagan o'quvchiga "Siz bilimlar zanjirining eng kuchsiz halqasiz" deb murojaat qiladi va uni davradan chiqib turishini iltimos qiladi.

Mashg'ulotni o'tkazish tartibi. O'qituvchi sinfdagi barcha o'quvchilarni o'rtaga chichishib qo'l ushlashib davra olishlarini va davra bo'ylab bir maromda sekin harakatlanishlarini iltimos qiladi. O'qituvchining o'zi davra markazida turib olib, o'quvchilar faoliyatini, o'yin qoidalarini buzilmasligini, savol va javoblarni to'g'ri berilishini nazorat qilib boradi. O'qituvchi savolga o'z vaqtida javob berolmagan, noto'g'ri javob bergan yoki ilgari berilgan savollarni takrorlagan

o'quvchiga "Siz - bilimlar zanjirida eng kuchsiz halqasiz" deb murojaat qiladi va uni davradan chiqishini taklif etadi. So'ngra savol bergan o'quvchiga "savolni takrorlang va to'g'ri javobni o'zingiz ayting" deb murojaat qiladi. Shundan so'ng savol berishni navbatdagi o'quvchiga topshiradi. O'yin davrada oxirgi o'quvchi qolguncha davom etadi. O'yinda mashg'ulotga yaxshi tayyorgarlik ko'rgan, asosiy va qo'shimcha adabiyotlarni yaxshi o'rgangan, savollarga tez va mantiqan to'g'ri javob bera oladigan eng zukko o'quvchi g'olib bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda zamon bilan hamnafas ishlayotgan har bir o'qituvchi o'quvchilardagi bu istak va orzularni amalga oshirish uchun ta'lim jarayonida shunga o'xshash o'yinlarni o'z vaqtida o'tkazishi o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqishlarini orttirish va bilish faoliyatini faollashtirishga zamin tayyorlaydi.

ПРИВИВАНИЕ ЛЮБВИ К КНИГАМ МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ НА УРОКАХ ЛИТЕРАТУРНОГО ЧТЕНИЯ

Герашчинко Ирина Юревна, Сулеманова Фируза Рашидовна
Учителя начальных классов специализированной на предмет математики
общеобразовательной школы №2 г. Гулистана Сырдарьинской области

В последние годы наблюдается снижение интереса подрастающего поколения к чтению классической литературы для детей. Это явление обусловлено различными причинами. Одним из факторов, влияющих на снижение интереса к книге, является усиление воздействия средств массовой информации. Чтение литературы сменяется просмотром телепередач, а место домашних библиотек занимают компьютерные игры и видеотеки. Также с каждым годом возрастает число неблагополучных семей, в которых родители совершенно не интересуются воспитанием своих детей. В школах в основном отсутствует система целенаправленного формирования читательской самостоятельности младших школьников. В связи с этими явлениями вопрос формирования читательской самостоятельности остается очень важным и актуальным. Особое внимание на решение этой проблемы необходимо обращать в начальной школе, так как именно этот период обучения становится основой формирования устойчивого интереса к литературе. Но как же заинтересовать ребенка книгой? Как научить ребенка любить книгу? Ведь современные дети не любят читать, они читают мало и с неохотой. А ведь от их умения читать в дальнейшем зависит качество всего процесса обучения. Не научившись хорошо читать, ребенок не сможет прочесть задачу по математике, овладеть материалом по курсу «Окружающий мир» на должном уровне или без посторонней помощи. А подготовить реферат или сообщение по какой либо теме для мало читающего ребенка будет и вовсе непосильной задачей. Как показывает практика, если ребенок недостаточно хорошо читает, его грамотность оставляет желать лучшего, устная речь недостаточно развита. Поэтому научить ребенка читать, пользоваться книгой как источником знаний и информации, приобщить учащихся к миру книг и тем самым способствовать развитию самостоятельной читательской деятельности — главная задача учителя начальных классов. Дать понять учащимся, что чтение — это духовная пища каждого воспитанного человека. Со стремительным вторжением в нашу жизнь достижений научно-технического прогресса эта задача стала актуальна как никогда раньше. Формирование читательской самостоятельности проходит под влиянием как внутренних причин — возрастных особенностей школьников, так и внешних, к которым в первую очередь относится обучение.

Дети, которые приходят в первый класс, конечно, любят сказки, стихи и рассказы, но со временем интерес к художественной литературе начинает падать. Преподавание чтения в начальной школе играет одну из главных ролей в этом явлении. Учителя занимаются формированием, в первую очередь, чтеца, то есть: отрабатывается непосредственно навык механического чтения. В связи с этим, к окончанию начальной школы дети без особого труда способны прочесть любой текст, хорошо владеют техникой чтения, которая нацелена главным образом на количество прочитанных слов, а не на понимание текста в целом. Владения техникой чтения недостаточно для успешного овладения речевой деятельностью и культуры речи человека. Проблемой формирования читательской самостоятельности занимались многие ученые: Н.Н. Светловская, Т.Г. Рамзаева, О.Ю. Богданова, О.В. Джежелей, В.Г.Горецкий, Т.С.Пиче-оол, М.Р.Львов и др. Формирование читательской самостоятельности не ограничивается уроками литературного чтения. В начальной школе ставится задача приучить учеников к самостоятельному чтению, научить выбирать книги для чтения в свободное время.

Первый класс является одним из важнейших и самых трудных периодов в каждого ребенка. Начало обучения в школе приводит к эмоциональному стрессу: у ребенка изменяются привычки, психоэмоциональная нагрузка существенно возрастает. На первоклассника начинают влиять новые факторы: школьный коллектив, личность учителя, изменение привычного режима, появление новых обязанностей и другие. [6] В младшем школьном возрасте с поступлением в школу меняется и ведущий вид деятельности ребенка: игровая деятельность сменяется учебной. Именно смена ведущего вида

деятельности влияет на важнейшие изменения, которые происходят в развитии психики детей в этот период. Ребенок младшего школьного возраста обычно имеет конкретное мышление, то есть он привык мыслить конкретными категориями. Постепенно мышление переходит к стадии формальных операций, которая, в свою очередь, связана с определенным уровнем развития способности к абстрагированию и обобщению. Младший школьник, постепенно развиваясь, идет от анализа конкретного явления или предмета к анализу отношений и взаимосвязей между ними. К некоторым характерным особенностям младшего школьного возраста можно отнести: наивно-игровое отношение ко многим явлениям или предметам, повышенную восприимчивость, впечатлительность и другие. Такие психологические особенности, как доверчивость и исполнительность помогают в успешном воспитании и обучении. Также к окончанию дошкольного периода формируются психические новообразования, такие как: стремление к общественно значимой деятельности, умение делать простые обобщения, способность контролировать свое поведение, овладение речью, умение сотрудничать со своими ровесниками и взрослыми. [56] Каждая из перечисленных выше особенностей этого возраста выступает обычно с положительной стороны, и в этом состоит своеобразие данного возраста.

Научить ребенка читать — эта задача осуществляется на протяжении всего обучения в начальной школе. Техника, темп чтения, осознание прочитанного — основные составляющие продвижения младшего школьника к литературному образованию и развитию читательской самостоятельности.[14] По мнению известных психологов, основной особенностью детей в младшем школьном возрасте является преобладание непроизвольного внимания над произвольным. Исходя из этой особенности, можно сделать вывод: наличие интереса у детей на уроках литературного и внеклассного чтения наиболее сильно способствует развитию у младших школьников читательской самостоятельности. Уроки в начальной школе, в особенности уроки литературного чтения, должны быть яркими и насыщенными, полными разнообразных интересных и творческих заданий.[19] Задачами обучения на уроках литературного чтения являются: формирование интереса к детским книгам, знакомым и новым; развитие читательской памяти и кругозора; обучение детей полноценному восприятию доступных их возрасту книг и произведений; создание для младших школьников мотивации постоянно обращаться к книгам с учебными и внеучебными целями, соблюдая правила гигиены чтения и сохранности книг [13]. Процесс формирования читательской самостоятельности детей младшего школьного возраста будет наиболее продуктивным, если на уроках литературного и внеклассного чтения использовать следующие методы обучения: — краткий пересказ; — пересказ с изменением лица рассказчика; — пересказ от лица одного из героев произведения; — чтение по ролям; — инсценировка; — выставка книг.

Список использованной литературы:

1. Абдуллина А. А. Обучение младших школьников воссозданию образов художественных произведений: Научно-методические материалы. Часть 1 / А. А. Абдуллина. — М., 1997.
2. Арапова П. И. Кризисные периоды личностного развития школьника.- М.:МГПУ, 2015. 5.
3. Береснева Л. О. О роли чтения / Домашнее воспитание. — 2002. — № 6. — С.15-17.
4. Аверин В. А. Психология детей и подростков: учебное пособие. — 2-е изд., перераб. / В. А. Аверин. -СПб.: Изд-во Михайлова В.А., 1998.
5. Богданова О. Ю., Леонова С.А., Чертова В.Ф. Методика преподавания литературы / О.Ю. Богданова. — М.: Академия, 2002.
6. Боразнова Г.Д. Техника обучения чтению / Початкова школа. — 2002. -№ 10. — С.36-38.
7. Бугрименко Е.А., Цукерман Г.А. Чтение без принуждения / Е.А.Бугрименко. — М.: ИНТОР, 1998.
8. Бунеев Р.Н., Бунеева Е.В. Чтение и начальное литературное образование. Программа // Программно-методические материалы: Чтение. Начальная школа / Сост. Т.В.Игнатьева. -М.: Дрофа, 2000.
9. Волгуснова Е. А. Развитие творческого воображения у младших школьников в зависимости от условий обучения. — Шадринск: Шадринский дом печати, 2014.

YOSH AVLODGA MILLIY KURASHIMIZ TARIXINI O'RGATISH

Sulaymonov Jasur Urmonjon o'g'li, Eraliyev Sanjar A'zamjonovich

*Sirdaryo viloyat, Guliston shahar 2-sonli matematika faniga ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktabi
jismoniy tarbiya fani o'qituvchilari*

Kurash jang san'atining eng qadimiy turi bo'lib, uning ildizlari hozirgi O'zbekiston hududida joylashgan. So'nggi ilmiy tadqiqot ma'lumotlariga ko'ra, kurash uch yarim ming yillik tarixga ega. Kurash - insoniyatga ma'lum bo'lgan eng qadimiy jang san'ati turlaridan biri.

Kurash o'zbekcha so'z bo'lib, **“halol yo'l bilan maqsadga erishish”** ma'nosini bildiradi. O'sha qadimgi davrlarda bu an'anaviy bayramlar, bayramlar va to'ylarda jang san'ati va ommaviy jismoniy o'yin-kulgi edi. U haqidagi ma'lumotlarni ko'plab qadimgi adabiy manbalarda uchratish mumkin.

Bundan qariyb 2500 yil muqaddam mashhur qadimgi yunon faylasufi va tarixchisi Gerodot o'zining “Tarix” nomli monumental asarida qadimgi O'zbekiston xalqlarining urf-odat va an'analari tavsifida kurash haqida to'xtalib o'tgan.

Ming yil avval paydo bo'lgan afsonaviy “Alpomish” dostonida kurash jang san'atining eng sevimli va keng tarqalgan turi deb atalgan.

10-asrda yashagan buyuk sharq olimi va mutafakkiri, zamonaviy tibbiyot asoschisi Ibn Sino kurashni tana va ruh salomatligini saqlashning eng yaxshi usullaridan biri ekanligini yozadi.

XIV asrda Amir Temur o'z askarlarini jismoniy tarbiyalash va o'zini himoya qilish uchun kurashdan foydalangan.

Asrlar o'tdi va kurash hozirgi O'zbekiston hududida yashovchi xalqlar orasida eng sevimli va e'tiborli an'analardan biriga aylandi. Kurash genida, qonida bor deydi o'zbeklar. Bugungi kunda O'zbekiston bo'ylab ikki milliondan ortiq kurashchi bor.

Kurash uch ming yildan ortiq vaqt davomida O'rta Osiyo chegaralaridan tashqariga chiqmadi. Kurash texnikasi, an'analari, qoidalari va falsafasi avloddan-avlodga, otalardan bolalarga og'zaki o'tib kelgan. Kurash, dzyudo va sambo bo'yicha taniqli usta o'zbekistonlik Komil Yusupov kurash haqidagi bilimlarni umumlashtirdi va kurashning yangi universal qoidalarini ishlab chiqdi. Ular kurashning ming yillik mardlik va insonparvarlik an'analarni zamonaviy sport olami talablari bilan uyg'unlashtirdi. U kurashga 13 ta o'zbekcha so'z asosidagi vazn toifalari, imo-ishoralar va atamalarni, jang davomiyligini, sportchilar va hakamlarning formasi va boshqa zamonaviy sport elementlarini kiritdi.

Kurashda egilib turgan holatda kurashish taqiqlanadi. Siz faqat tik turgan holatda jang qilishingiz mumkin va faqat uloqtirish va supurishga ruxsat beriladi. Har qanday perkussiya, og'riqli, bo'g'uvchi usullardan, shuningdek, kamar ostidagi tutqichlardan foydalanish qat'iyan man etiladi. Bularning barchasi Kurashni oddiy, tushunarli, ajoyib, dinamik va xavfsiz sport turiga aylantiradi.

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov 1991-yildan boshlab, bu boradagi muhim vazifalarni belgilab berdi. Kurashni yangi xalqaro sport turi sifatida jahon miqyosida rivojlantirish maqsadida 1992 yilda O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov kurash qoidalari muallifi Komil Yusupov bilan uchrashuvda kurashni jahon arenasiga olib chiqish, u orqali keng jamoatchilikni qadimiy va boy tarix, madaniyat bilan tanishtirish bo'yicha qimmatli maslahatlar bergan edi.

O'sha uchrashuvdan so'ng O'zbekiston rahbari ko'magida Komil Yusupov boshchiligidagi bir guruh kurashchilar o'zbek kurashini xalqaro miqyosda rivojlantirish bo'yicha ish boshladilar. Ular O'zbekistonning turli hududlarida yangi qoidalar bo'yicha bir necha yirik turnirlar o'tkazdilar, ularning muvaffaqiyati katta bo'ldi. Janubiy Koreya, Kanada, Yaponiya, Hindiston, AQSh, Monako va Rossiyada turli vakillik sport forumlarida taqdimotlar tashkil etildi.

1998-yil sentabr oyida O'zbekiston poytaxti Toshkent shahrida Osiyo, Yevropa va Pan Amerikaning 30 ga yaqin davlati sportchilari ishtirokida kurash bo'yicha ilk xalqaro turnir bo'lib o'tdi. O'zbekistonda Kurash musobaqalari odatda katta futbol stadionlarida o'tkaziladi. O'zbekiston Prezidenti sovrini uchun o'tkazilgan ushbu turnir ham bundan mustasno emas edi.

Ushbu turnir davomida Toshkentda tarixiy voqea yuz berdi. 1998-yil 6-sentabrda Yevropa, Osiyo va

Panamerikaning 28 davlati vakillari o'zbek kurashini xalqaro maydonda namoyon qiluvchi rasmiy xalqaro sport organi — **Xalqaro Kurash Assotsiatsiyasini tuzildi (IKA)**. O'shandan beri 6 sentyabr Kurashning xalqaro maydonda tug'ilgan kuniga aylandi. Birinchi ta'sis kongressi davomida yangi tashkilotning Nizomi tasdiqlandi, Kurashning xalqaro qoidalari qabul qilindi, IKAning boshqaruv organi – Ijroiya qo'mitasi saylandi.

Kurash o'zbek xalqining ko'p asrlik falsafasi va qadriyatlari – insonparvarlik va mardlik, raqibga hurmat va oxirigacha borish qobiliyatini o'zida mujassam etgan, chuqur tarix va an'analarga ega bo'lgan eng qadimiy milliy jang san'atidir. Kurash eng yosh xalqaro sport turlaridan biri bo'lib, bugungi kunda u butun dunyoda – Boliviya, Braziliya, Dominikan Respublikasi va Urugvaydan tortib, Janubiy Afrika, Mavrikiy, Nigeriya, Fiji va Yaponiyagacha shug'ullanadi. Bu hamyonbop, qiziqarli, xavfsiz va tezkor sport turi. Bu minglab yillardagi donolik va falsafaning zamonaviy globallashayotgan dunyo dinamikasi bilan sintezidir.

Kurash olamidagi asosiy sport tadbiri jahon chempionati hisoblanadi. 1999-yilning may oyida O'zbekiston poytaxti Toshkentda kattalar o'rtasidagi jahon chempionati bo'lib o'tgan. Bu yerda kurash jahon sporti tarixida yana bir rekord o'rnatdi. Kurash vatani poytaxtimizga ilk jahon chempionatida ishtirok etish uchun Osiyo, Afrika, Yevropa va Panamerikaning 48 davlati vakillari keldi.

Foydalanilgan adabiyotlari

1. Atoev A.Q. Yosh-o'smirlarga o'zbek kurashini o'rgatish uslubiyoti. – T.: O'zDJTI nashriyot-matbaa bo'limi, 2005.
2. Nurillaev A. "O'zbek kurashi uslubiyoti" (O'quv uslubiy qo'llanma)- Navoiy, 2011.
3. Yusupov K. Kurash Xalqaro qoidalari, texnikasi va taktikasi. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot -matbaa ijodiy uyi, 2005.
4. Yusupov K., Kurash, Toshkent., 1999
5. Nurshin J. va boshqalar. O'zbekcha kurash usullari. O'quv qo'llanma.- T.:, 1987
6. <http://kurash-ika.org/istoriya-kurasha/>
7. <http://sport.ziynet.uz/ru/kinds/64>
8. <https://qomus.info/oz/encyclopedia/k/kurash/>

O'QUVCHILARDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH

Primqulova Iroda Berdimurodovna

*Sirdaryo viloyat, Guliston shahar 2-sonli matematika faniga ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktabi
geografiya va iqtisodiy bilim asoslari fani o'qituvchilari*

Qadimdan momolarimiz, bobolarimiz "Suvga tuflama, uni iflos qilma, chunki barcha jonivorlar uni ichib bahra oladi. Gullab turgan mevali daraxtning shoxini sindirma, u meva beradi, undan o'zing bahramand bo'lasan. Pishib etilmagan uzumni uzma, agar uzsang gunoh ish bo'ladi, chunki unda ahli – mo'minning nasibasi bor, ko'chat ekib bog' yarat, ona zamin rizqingni beradi" kabi ibratli o'gitlari bilan yoshlar ongiga tabiatga bo'lgan muhabbatni singdirib kelganlar.

Pedagoglar ham ta'lim – tarbiya berish jarayonida, yuqoridagi o'gitlarga hamohang tarbiyaviy soat mashg'ulotlarini tashkil etib, innovatsion usullar asosida samarali bilim bermoqlari lozim.

Tabiatni va atrof – muhitni faqat inson o'zining mehr – muhabbati bilan muhofaza qilishi va unga yordam berishi mumkin. Ana shunda ekologik faoliyatning oldi olinadi, insoniyat xavf – hatardan omon qoladi va bu jarayonni tashkil qilishda amaliyotchi o'qituvchilarning o'rni va roli beqiyosdir.

Ekomadaniyat asosida istiqbolga yo'naltirilgan hamda inson bilan tabiat o'rtasidagi bog'lanishlarni aks ettiruvchi ekologik munosabatlar yotadi.

Insonning tabiatga nisbatan ehtiyotkorona munosabati, shaxsiy va ijtimoiy qiziqishlarining o'zaro aloqadorligi, istiqboldagi ekologik andoza asosida mavjud vaziyat o'rganilgan. Biroq, insonning tabiatga munosabatidagi muhim ekologik madaniyati, ma'naviyatini shakllantirish, ekologik mafkurani rivojlantirish muammolariga e'tibor qaratilmagan.

Shaxsning ekologik tarbiyasi me'yoriy munosabatlarga asoslanmagan.

Ekologik madaniyatni samaradorligi jamiyat va tabiatning o'zaro aloqadorligini ekologik jihatlarini

muvofiqlashtirilgan me'yorlarning qay darajada shakllantirilganligi bilan baholanadi.

Atrof muhitdagi har bir qadam faqat ilmiy, iqtisodiy muammolarnigina emas, balki ekologik madaniyat, ekologik tafakkur muammolarini hal qilinishi bilan bog'liqdir.

Masalan, quyidagilarga e'tiborni qarataylik:

- inson tabiatga zarar etkazmasdan o'rmon ichida yurishi mumkinmi?
- sinov maydonchasida o'simliklarni oyoq osti qilmasdan, uning holatini qay tarzda tavsiflash mumkin?
- qushlarning inlarini tark etishga majbur qilmasdan ularning holatini qanday kuzatish mumkin?
- o'simlik va hayvonot dunyosidan foydalanmasdan yashash mumkinmi?
- tabiat, atrof muhitning go'zalligidan zavqlanmasdan yashashni iloji bormi?
- samolyot havo tarkibini ifloslamasdan ucha oladimi?
- millionlab kemalar dengiz suvlarini ifloslamasdan suzishi mumkinmi?
- havoni ifloslantirmasdan, atrof muhit go'zalligiga salbiy ta'sir etmasdan zavod, fabrika qurish mumkinmi?

- inson tabiat zahiralaridan foydalanmasdan yashashi mumkinmi?

Tabiat va jamiyat orasidagi munosabatlar sohasida ekologiya muammolar paydo bo'ladigan yo'nalishlarni aniqlash muhim pedagogik va psixologik muammo hisoblanadi. Bunday muammo – insoniyatning tabiatga nisbatan munosabatlari (maqsadsiz, shaxsiy qiziqish, atrof muhitga nisbatan loqaydlik, ma'lum bir maqsadga yo'naltirilgan, iste'molchilik ehtiyotkorona, faol - ijodiy) xususiyatini paydo qiladi.

Insonning tabiatga nisbatan munosabatidagi ekologik madaniyatni shakllantirish mezonlarini ishlab chiqishdagi eng samarali usul «ijtimoiy – ekologik madaniyat andozasi» tushunchasini shakllantirishdir. Ana shu andoza ta'sirida insonning tabiatga bo'lgan munosabati barqarorlashtiriladi. Ijtimoiy - ekologik andoza insonningtabiat bilan jamiyatning ijtimoiy, ekologik maqsadlariga muvofiq keladigan qulay aloqalarni belgilaydi.

Insonning munosabati har doim ochiqdan – ochiq sodir bo'lavermaydi. Ko'p hollarda u boshqa kishilar, ularning o'zaro munosabatlari tufayli namoyon bo'ladi. Ana shunday paytda odamlar ularning hatti – harakatlari, fe'l – atvorlari ekologik madaniyatiga baho berish predmetiga aylanadi.

O'qituvchi o'zining tabiatga bo'lgan shaxsiy hamda o'quvchilarning ekologik madaniyat me'yorlarini shakllanganlik sohasidagi faoliyatini baholay olishi zarur.

O'quvchilarning ekologik madaniyatini shakllantiradigan manbalar quyidagilardan iborat:

1. Jamiyatning atrof muhit bilan o'zaro munosabati:

a) tabiat, atrof muhitning inson faoliyatiga ta'siri va aksincha, o'zaro ta'sir oqibatida kelib chiqadigan ekologik muammolar;

b) tabiatda sodir bo'ladigan hodisalar go'zalligini his etish, zavqlanish, qo'rqish va hayajonlanish, ulardan himoyalash

2. Insonning tabiatga ta'siri:

a) o'quvchilar faoliyati;

b) turli xil kasb mutaxassislari faoliyati

O'quvchilar ekologik faoliyati uch yo'nalishga ega:

1. bilim olish;

2. o'yin;

3. mehnat;

O'quvchilarning tabiat bilan o'zaro munosabatlari quyidagilardan iborat:

Ijodiy munosabatlar – foydali, uyg'un, qulay, unumli, ekologik madaniyatli

Salbiy munosabatlar – uyg'unlashmagan, ekologik noqulay, ekologik unumsiz, ekologik mas'uliyatsiz, ekologik madaniyatsiz

Ekologik muammoga oid manbaalarni aniqlash, o'rganish, ilmiy tahlil qilish, tadqiqotning dastlabki tushunchalarini oydinlashtirish imkonini beradi.

O'quvchilarning ekologik madaniyatini shakllantirish ularda tabiatga nisbatan ijobiy tuyg'u, qarash va harakatlarning shakllanishini ko'zda tutadiki, ular mahalliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg'unlashib ketadi.

Ekologik ta'lim va tarbiyaning nazariy – ekologik me'yoriy asoslari quyidagilardan iborat:

1. Ekologik ta'lim – tarbiyaning umumiy metodologik va nazariy asoslarini ishlab chiqish
2. Ekologik materiallar mazmunini ilmiy amaliy jihatdan tanlash;
3. Ekologik materiallarni har bir fanning tarkibiy qismi sifatida dasturga oid bilimlar o'quvchilarga o'rgatish metodikasini yaratish
4. Ekologik bilimlarni o'quvchilarga o'rgatishda YaPT lardan foydalanish
5. Ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida fanlararo aloqalarni hisobga olgan holda egallanadigan ilmiy bilimlar va ularning amalda tadbiq etilishining tarkibiy qismi sifatida qarab chiqish
6. Ta'limning barcha darajasida o'quvchilar ekologik madaniyatni shakllantirish va rivojlantirish bosqichlarini tavsiflash
7. Atrof muhitni yaxshilash sohasida o'quvchilarning amaliy faoliyati turlari tuzilmasi va axborot vositalaridan foydalanish metodikasini ishlab chiqish
8. O'quvchi va talabalarning ekologik ta'lim – tarbiya bo'yicha tayyorlash
9. O'quvchilarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishni ilmiy metodik asoslash
10. Ekologik ta'lim – tarbiya jarayonida o'tmish allomalarning g'oyalariidan unumli foydalanish
11. Umuminsoniy qadriyatlarga tayanish
12. Qur'oni Karim, Hadislarda aks etgan ekologik g'oyalarga asoslanib o'quvchilarga tarbiya berish
13. Milliy urf odatlarini kuchaytirish

Bu muammolarni hal etish uchun tizimlashgan ta'limni yo'lga qo'yish zarur.

Xulosa qilib aytganda yoshlarga ekologik ta'lim berish orqali ularning ekologik majaniyatini shakllantirish tizimini yaratish zarurligini davr taqozo etmoqda. Chunki, xar bir insonning tashqi muhitga nisbatan munosabati darajasi uning ekologik madaniyatiga bog'liq bo'ladi. Yoshlarning ekologik madaniyatini shakllantirish maqsadida, ekologik tarbiyaning shakllari, metodlari va vositalaridan samarali foydalanish lozim.

IJTIMOIIY FANLARNI O'QITISHDA DIDAKTIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Suyundikov Shavkat Abdumalikovich, Mirzaliyeva Dilnoza Raxmonkulovna

*Sirdaryo viloyat, Guliston shahar 2-sonli matematika faniga ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktabi
tarix fani o'qituvchilari*

Ta'limning bugungi vazifasi o'quvchilarni kun sayin ortib borayotgan axborot — ta'lim muhiti sharoitida mustaqil faoliyat ko'rsata olish, turli sohalarida zamonaviy axborot texnologiyalarini samarali qo'llash va axborot oqimidan oqilona foydalanishga o'rgatishdan iborat. Shu maqsadda, o'quvchilarga uzluksiz ravishda mustaqil ishlash imkoniyati va sharoitini yaratib berish hamda ijodiy fikrlash va mustaqil qarorlar qabul qilishga o'rgatish zarur. Bu masalaning yechimi tabiiyki, mazkur jarayonning asosiy tashkilotchisi — pedagoglarni tayyorlash sifatiga bog'liq. Har bir jamiyatning kelajagi uning ajralmas qismi va hayotiy zarurati bo'lgan ta'lim tizimining qay darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi. Bugungi kunda mustaqil taraqqiyot yo'lidan ildam borayotgan mamlakatimizning uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilish va takomillashtirish, yangi sifat bosqichiga ko'tarish, unga ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish hamda ta'lim samaradorligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Mamlakatimizda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar ta'lim tizimida ham o'ziga xos o'zgarishlarni kiritish va yangiliklarni joriy etish zaruratini belgilab bermoqda.

O'quvchi bugungi kunda ta'lim sohasini egallar ekan, kelgusi ta'lim bosqichini davom ettirishi uchun zamonaviy dasturiy, texnik va kommunikativ vositalardan samarali foydalana olish salohiyatiga ega bo'lishi, xususan: zamonaviy taraqqiy etgan jamiyatda axborot va axborot texnologiyalarining o'rni bilishi; axborotni boshqarish vositasi sifatida axborotlarni olish, yig'ish, qayta ishlash ko'nikmalariga ega bo'lishi; global kompyuter tarmoqlarida ishlash va ular orqali foydali axborotlar olish va ulardan ijodiy fikrlashni o'stirishda foydalanish usullarini egallashi talab etiladi.

Jamiyatning axborotlashuvi ta'lim tizimida uzluksiz innovatsiyalarni talab etadi. Bugun har qanday

uslub darhol eskirishi va yangi metodlar bilan boyitilishi mumkin. Dunyoning turli mamlakatlarida ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan ta’limda innovatsiyalarni qo‘llash bo‘yicha izlanishlar olib borilgan. Ularda «innovatsiya», «interfaol usullar», «innovatsion texnologiyalar» to‘g‘risida yaxshi axborotlar to‘plangan, biroq axborot texnologiyalarini ta’lim muassasalarida o‘rgatish samaradorligini orttirish bo‘yicha aniq tavsiyalar yetarli emas. Shuning uchun asosiy maqsad yuqori darajada o‘zlashtirish natijalariga erishishni ta’minlovchi innovatsion texnologiyalardan foydalanishning samarali usullarini ishlab chiqish, xususan, zamon talab etayotgan axborot texnologiyalari bo‘yicha pedagogik innovatsiyalardan foydalanish masalalarini tadqiq etishdan iboratdir. Ta’lim jarayoniga innovatsiyalarni qo‘llash bugungi kunda quyidagi vazifalarni amalga oshirishni talab etadi:

- o‘quv fanining aniq maqsadini aniqlash;
- fanning hajmi va mazmunini aniqlash;
- zarur bo‘lgan ta’lim texnologiyalarini ishlab chiqish va tavsiya etish;
- fanning moddiy va texnik ta’minotini yaratish;
- ta’lim oluvchilarning xususiyatlarini o‘rganish;
- o‘qituvchining tayyorgarligi va dars mashg‘ulotini loyihalash.

Yuqoridagi vazifalar ichida eng muhimi, bu o‘quv jarayonini tashkil etish uchun eng maqbul bo‘lgan ta’lim texnologiyalarini ishlab chiqishdir. Bu muammolarni u yoki bu aniq bir usulni tavsiya etish bilan, ayniqsa, pedagog reproduktiv ta’lim usullarinigina qo‘llashni maqsad qilgan bo‘lsa, hal etib bo‘lmaydi. Maqsadga erishishning eng to‘g‘ri yo‘li, bu dars mashg‘ulotini loyihalashda integrallashgan ta’lim texnologiyalarini ishlab chiqish va ulardan darsning turli bosqichlarida samarali foydalanish imkoniyatlarini izlashdir. Informatika fanini o‘qitishda shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning quyidagi metodlarini qo‘llash maqsadga muvofiqdir o‘yinli texnologiyalar; muammoli o‘qitish; dasturlashtirilgan o‘qitish; kompyuterlashtirilgan o‘qitish; modulli o‘qitish.

Bu texnologiyalar tarix darslarida o‘quv mavzusi maqsadidan va mavzuning mazmunidan kelib chiqib, darsning turli bosqichlarida turlicha qo‘llanishi mumkin. Maktab o‘quvchilarining yosh xususiyatlarini hisobga olib, fanni o‘qitishda g‘oyat samarali bo‘lgan qator o‘yinli texnologiyalar ishlab chiqilgan. Mutaxassislarining fikricha, insonning asosiy faoliyat turi uch ko‘rinish: mehnat faoliyati, o‘yin faoliyati, o‘quv faoliyatida shakllanadi. Ularning barchasi o‘zaro bog‘liq holda sodir bo‘ladi. Ta’kidlashlaricha, bolalarning maktabdagi o‘quv materiallari asosidagi aqliy harakatlarini shakllanish qonuniyatlari o‘yin faoliyatlarida tarkib topadi. Biroq o‘yinli ta’limni o‘quvchilar bilan ishlashdagi asosiy ta’lim shakli deyish to‘g‘ri emas. U o‘quvchida bilish qobiliyatini shakllantirmaydi, biroq ularning bilish faolligini oshiradi, xolos. Tarix darslarida o‘quvchini aqliy rivojlantirishga yordam beruvchi quyidagi guruhdagi o‘yinlarni ajratish mumkin.

1-guruh. Buyumlar va arxeologik topilmalarga bog‘liq bo‘lgan predmetli o‘yinlar. Bunda o‘quvchi tarixiy manbalar-arxeologik topilamalar orqali moddiy olamni, ularning xususiyatini anglashi mumkin.

2-guruh. Intellektual faoliyatni shakllantiruvchi sujetli — rolli ijodiy o‘yinlar. Masalan, «Baxtli tasodif», «Nima? Qayerda? Qachon?» va boshqalar. Bunday o‘yinlar nafaqat ko‘ngil ochuvchi vosita, balki ulkan evristik va ishontiruvchi energiya manbaidir.

3-guruh. O‘quvchining aqliy qobiliyatini rivojlantiruvchi tayyor qoidalarga asoslangan didaktik o‘yinlar. Qoidalarga ko‘ra, u o‘quvchidan anglashni, taqqoslashni, qismlarga ajratishni, umumlashtirishni, muhimi bilishni talab etadi.

4-guruh. Kattalarning kasbiy faoliyatlarini ifodalovchi texnik-konstruktorlik o‘yinlari. Ular o‘quvchida o‘z ishini rivojlantirish, zaruriy materialni yig‘ish, o‘zini va o‘zgalar faoliyatini tanqidiy baholash imkoniyatlarini hosil qiladi. Mehnat faolligi bilish faolligiga undaydi.

5-guruh. Psixik muhitda sodir bo‘luvchi intellektual o‘yinlar. O‘quvchilarning tayyorgarlik darajalarini ko‘rsatuvchi taqqoslash imkonini beruvchi, musobaqa asosida o‘tkaziladigan o‘yinlar. Ular o‘zini shakllantirishga va demak, aqliy faollikka undaydi. Yuqorida tavsiflangan o‘yinlarni o‘quv jarayonida qo‘llash natijasida o‘quvchilarni o‘quv bilim faoliyatlarini keng boshqarish imkoniyatlari hosil bo‘ladi.

Tajribalardan kelib chiqib, quyida tarix darslarini o‘qitishda samarali qo‘llash mumkin bo‘lgan quyidagi o‘yinli texnologiyalardan namunalar keltirib o‘tamiz:

Breyn-ring. Bu o‘yin 2-guruhga kirib, unda har birida 5–6 nafardan o‘quvchi qatnashgan jamoalar soni

2 tadan 5 tagacha bo'lishi mumkin. Boshlovchi har bir guruhga qisqa javobli savollar beradi. Agar ishtirokchilardan biri birinchi bo'lib to'g'ri javob bersa, qolgan barcha savollar faqat shu ishtirokchiga beriladi va har bir to'g'ri javob uchun olingan ball to'planib boradi. Agar to'plangan ballni vaqtida o'z jamoasi hisobiga tushirib turmasa va o'yinni to'xtatmay, o'yin davomida noto'g'ri javob berib qo'ysa, o'sha ishtirokchi to'playotgan barcha ballar kuyib ketadi. Demak, qatnashuvchi o'zi istagan paytda o'yinni to'xtatishi va to'plagan ballini jamoa hisobiga tushirishi kerak. Qolgan savollarga endi boshqa ishtirokchilar javob berishi lozim va ular ham o'z jamoalari hisobiga ball to'plash imkoniga ega bo'ladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. N. Azizqo'jayeva "Pedagogik mahorat va pedagogic texnologiyalar" T. : 2011
2. H. X. Авлиякулов. Педагогическая технология. — Ташкент, 2009.
3. K. Ismanova. Amaliy dars mashg'ulotlarini innovatsion usullar yordamida tashkil etish. — Ta'lim muammolari jurnali. 2-son, 2012-yil.
4. R. Mavlonova "Umumiy pedagogika" 2010 yil 200-225 bet.

O'QUVCHILARNI TA'LIM OLISHGA QIZIQTIRISHDA INTERFAOL METODLARNING AHAMIYATI

G'aniyeva Umida Yusuf qizi, Umarova Nargiza Pulatovna

*Sirdaryo viloyat, Guliston shahar 2-sonli matematika faniga ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktabi
jismoniy tarbiya fani o'qituvchilari*

Annotatsiya: *Maqolada innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llash, pedagogik ta'sir etish usullari, ta'lim samaradorligini oshirish usullari to'g'risidagi ma'lumotlar berilgan.*

Ta'lim bilimlar sohasi va ijtimoiy amaliyot sohasi kabi jahon rivojlanish umumiy tendentsiyalari va qonuniyatlariga binoan rivojlanadi. Shuning uchun o'qituvchi chet el tajribalarini o'rganish uni ilmiy tushunish ilg'or g'oyalardan milliy ta'lim amaliyotida foydalanish, kreativ yondoshish ayniqsa dolzarb hisoblanadi. O'qituvchi o'zining aniq sharoitlari va imkoniyatlariga eng ko'p mos keladigan o'quv jarayonini ongli ravishda tanlab olishi foydadan xoli emas. Bu ish darsning muhim tomonlarini tanlashdagi tavakkalchilikka bilim ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish jarayonini boshqarishga qandaydir tasodifiy yondashishga yo'l qo'ymaydi.

O'zbekiston Respublikasida yoshlarning bilim olishlarini izchil, tizimli, uzviy, maqsadli tashkil etish, ularni jamiyatning faol a'zosi sifatida faoliyat ko'rsatishlariga erishish, eng avvalo, mazkur masalaning dolzarb muammo sifatida keng ko'lamli va chuqur tadqiq etilishini taqozo etadi.

Hozirgi davrda mamlakatimizda ta'lim-tarbiyaning axborot kommunikatsiya tizimi, internet tarmoqlari va zamonaviy pedtexnologiyalar bilan bog'lik yangi imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Ta'limni an'anaviy usullari o'rinda interfaol usullarni qo'llash orqali uni samaradorligiga erishish dolzarb bo'lib turibdi.

Innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, kundan-kunga rivojlanib bormoqda. Bunday bo'lishini sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilarni faqat tayyor bilimlarini egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy pedagogik texnologiyalar dars jarayoniga tadbiq etishda esa, ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, xatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. Pedagogik texnologiya va pedagogik maxoratga oid bilim, tajriba va interfaol usullar o'quvchilarni bilimli, ko'nikma va malakaga ega bulishlarini ta'minlaydi.

Interfaol metodlar bu-jamoa bo'lib fikrlash deb yuritiladi, ya'ni pedagogik ta'sir etish usullari o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o'quvchilarning kichik guruxlarga bo'lib, birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi. Bunday pedagogik xamkorlik jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:

– o'quvchining dars davomida befarq bo'lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod etish va izlanishga majbur etishi;

– o‘quvchilarni o‘quv jarayonida fanga va bilim olishga bo‘lgan qiziqishlarini doimiy ravishda bo‘lishini ta‘minlashi;

– o‘quvchining bilimga bo‘lgan qiziqishini mustaqil ravishda bajarishi va har bir masalaga ijodiy yondashgan holda kuchaytirishi;

Pedagog va o‘quvchilarning hamisha xamkorlikdagi faoliyatini tashkil qilinishi nazarga tutiladi..

Jamiyat taraqqiyoti hech qachon tuxtab qolmaydi, uning g‘ldiragi doimo oldinga qarab aylanaveradi, bu albatta tabiiy, tarixiy jarayondir. Shuning uchun ham biz o‘qituvchilar bu borada ilg‘or pedagogik texnologiyalarni dars jarayoniga keng tadbqiq etishimiz darkor. Dars jarayonida o‘quvchilarga ta‘lim- tarbiyani birgalikda olib borish maqsadga muvofiqdir.

O‘qituvchi o‘quvchilarni ma‘naviy, badiiy va axloqiy madaniyatlarini shakllantirishi, ularda milliy g‘urur va vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirishini ta‘minlashi zarur.

Biz bilamizki «Pedagogika» ta‘lim - tarbiya haqidagi fan sifatida tarbiyaning mohiyatini tushunishini va uning qonuniyatlarini ochib berishi hamda shu orqali inson manfaatlari tarbiya jarayoniga ta‘sir etishini nazarda tutadi. Bu albatta ko‘pgina muammolarni hal etishda yaqindan yordam beradi. Ilg‘or pedagog murabbiylar tajribasi bilan bir qatorda oddiy o‘qituvchilarning faoliyatlari ham o‘rganib boriladi. Chunki tajribalarni o‘rganish jarayonidagi muammo: yutuq va kamchiliklar aniqlanadi. Bunda kuzatish, intervyu olish, anketalashtirish, o‘quvchilarning yozma va og‘zaki hamda amaliy va ijodiy ishlari, pedagogik xujjatlarni o‘rganish metodlaridan unumli foydalaniladi.

O‘qituvchi-o‘quvchi darsning maqsaddan natijaga erishishida qanday texnologiyani tanlashlari ular ixtiyorida, chunki har ikkala tomonning asosiy maqsadi aniq natijaga erishishga qaratilgan, bunda o‘quvchilarning bilim saviyasi, guruh xarakteri, sharoitga qarab ishlatiladigan texnologiya tanlanadi, masalan: natijaga erishish uchun balki film, tarqatma material, chizma va plakatlari, turli adabiyotlar, axborot texnologiyasi kerak bo‘lar, bular o‘qituvchi va o‘quvchiga bog‘liq.

O‘qituvchi o‘qitish jarayoni oldindan loyiralashtirish zarur, bu jarayonida pedagog o‘quv predmetining o‘ziga xos tomonini, joy va sharoitini, eng asosiysi, o‘quvchining imkoniyati va ehtiyojini hamda hamkorlikdagi faoliyatini tashkil eta olishini hisobga olishi kerak, shundagina, kerakli kafolatlangan natijaga erishish mumkin. Qisqa qilib aytganda, o‘quvchini ta‘limning markaziga olib chiqish kerak.

Xulosa o‘rnida ta‘kidlash joizki, bunday natijaga erishish amaliyotda o‘quv jarayonida innovatsion va axborot texnologiyalarni qo‘llashni taqozo etadi. Ular juda xilma-xildir. Bular yangi interfaol usullar va ta‘lim metodlari hamda hozirda dars jarayonida qo‘llaniladigan yangi pedagogik texnologiyalardir. Shu bilan birgalikda aytish lozim-ki, zamonaviy metodlar, yoki o‘qitishning samarasini oshirishga yordam beruvchi treninglardan keng foydalanilsa, o‘quvchilarda mantiqiy, aqliy, ijodiy, tanqidiy va mustaqil fikrlash shakllanadi. Ayniqsa, o‘quvchilarni qobiliyatlarini rivojlantirishga, raqobatbardor, yetuk mutaxassis bo‘lishlariga hamda mutaxassisga kerakli bo‘lgan kasbiy fazilatlarni tarbiyalashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ishmuxamedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta‘lim samaradorligini oshirish yo‘llari. – T.: TDPU, 2005 y.
2. Беспалко О.В. Социальная педагогика: схемы, таблицы, комментарии (учеб.пособие). – М.: Центр учебной литературы, 2009. – 208 с. – ИСНБ 978-966-364-837-8.
3. О.Шонесси Дж. Конкурентный маркетинг: Стратегический подход (пер. с англ.) – СПб.: Питер, 2001. – 864 с. – ИСНБ 5-318-00030-4.
4. Ishmuxammedov R., Mirsolieva M. O‘quv jarayonida innovatsion texnologiyalar (metodik qo‘llanma). – Toshkent-2014.

TARIX O‘QITISH USULLARINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI

Ortiqboyev Dilshod Artikbayevich

Guliston shahar 13-umumta‘lim maktab tarix fani o‘qituvchisi

Tarix fanini o‘qitish metodikasining rivojlanishi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tarix bilan, tarixiy va pedagogika ilmlarining rivojlanishi bilan bog‘liq.

Metodikada to'plangan tarixiy tajribani o'rganish bugungi kundagi tarixiy talimning murakkab va dolzarb muammolarini ilmiy, haqiqiy yechimini topishga yordam beradi.

Maktabda tarix predmet sifatida o'qitila boshlaganidan keyin o'qitishning maqsadi va mazmunini belgilash, uni yoshlarga tushuntirish sohasidagi savollarga amaliy javob berish zaruriyati ostida tarix o'qitish metodikasining dastlabki elementlari yuzaga kela boshladi.

XIX asrning oxiri-XX asr boshlarida tarixiy bilim beradigan xususiy maktablar paydo bo'ldi. Yirik shaharlarda jamoatchilik pedagogik tashkilotlar vujudga keladi.

Maktab tarixiy talimining rivojlanishida P.G.Vinogradov, N.I.Kareev, S.F.Platonov kabi tarixchilar- "liberal" yo'nalishda to'rdi. Ularning darsliklarida jamiyatning siesiy, tarixiy- madaniy turmush h'aet, iqtisodiy rivojlanish bo'yicha faktlar berildi. O'lar tarix o'qitishda kursatmali obrazli o'qitish usullarini va o'quvchilarning fikrlashini faollashtirishni tavsiya qilgan.

M.N.Pokrovskiy, N.A.Rojkov, M.N.Kovalenskiy va boshqalar "radikal" yo'nalishda deb qaralgan. N.A.Rojkov darsliklarida 1- o'ringa manba, hujjatlarni qo'yib, ular bilan ishlash o'quvchilarning aqliy mustaqilligini uyg'otishi kerak edi. Kovalenskiy 5 jildli xrestomatiyasida va darsligida iqtisodiy va sinfiy kurash masalasiga ko'proq etibor qiladi.

Sotsiologik maktab vakili R.Yu.Viller-umumiy tarix bo'yicha darsliklarida induktiv metod asosida sotsiologik tushunchalarni va tarixiy jarayon qonuniyatlarini ochishni tavsiya qiladi.

O'quvchilarning bilish ishchanligini faollashtirishda o'qitishning "real", "laboratoriya", "referat", "dramatizatsiya" metodlari qo'llanildi.

XX asr boshida tarixiy manbalar asosida tarix o'qitishning "real" metodi tiklandi.

M.N.Pokrovskiy va N.A.Rojkovlar uning tarafdorlari bo'ldi.

Laboratoriya metodi o'quvchilarning tarixiy hujjatlar va ilmiy ommabop adabiyotlar bilan mustaqil ishlashiga asoslandi.

Referat metodining astoydil targ'ibotchisi N.P.Pokatilo bo'ldi. O'ning fikricha o'quvchi referat orqali bosh manoni ikkinchi darajalidan ajrata oladi. U referatni mustaqil ishlash ko'nikmasini shakllantirishning asosiy usuli deb hisobladi. Dramatizatsiya metodi A.F.Gartvich tomonidan tasvirlanadi. O'nda o'quvchilarga tarixiy materiallarini rollar bo'yicha o'qish tavsiya qilindi. Usullar har xil bo'ldi: badiiy va ilmiy ommobapdabietlar asosida tarixiy voqeani instsenirovka qilish, materialni mutah'kamlash uchun darsdaeshitganlarini dramalashtirish va h'akozalar. O'quvchilarda o'qitishda aniq obrazlarnishakllantirish tarix darslari uchun karta va kartinalarning ishlab chiqilishiga olib keldi. O'qitish jarayonining ajralmas bo'lagi sifatida ekskursiya ishlari paydo bo'ldi. Tarixnio'rganishda o'lkashunoslik materiallari h'am jalb qilina boshladi.

XIX asrning oxiri XX asr boshida o'qituvchilar uchun birinchi uslubiy qullanmalar paydo bo'ldi. Nijegorodli o'qituvchi A.Krolyunitskiyning "Tarixning elementar kursi metodikasi tajribasi" tarixni o'qitish masalasi bo'yicha qimmatli maqalolardan iborat bo'ldi.

N.P.Pokatiloning "Boshlovchi o'qituvchi uchun amaliy boshchilik" (Spb, 1912), kitobida o'z davri uchun etakchi tavsiyanomalar berildi. Qo'llanmada qo'shimcha berilgan bo'lib, unda darslik qullanmalar, badiiy, ilmiy-ammabop va uslubiy adabietlarning tizimi berildi.

XIX asr oxiri- XX asr boshida h'ar xil tipdagi darsliklar, kitoblar, ko'rsatma qurollarchiqarildi, lekin metodika ilmiy-nazariy umumiyashtirish darajasiga ko'tarila olmadi.

Sho'rolar hokimiyati o'rnatilgandan keyin xalq talimi ham mustamlakachilik tizimiga moslashtirildi. 1929 yilda eski imloning avval lotin imlosiga, keyin rus imlosiga o'tishieshlarning madaniyat va avlodlar boy tarixiy merosidan mah'rum bo'lib qolishiga sababbo'ldi. Maktablardan talim-tarbiya milliy zamindan uzib tashlandi. Bunday siesatga norozilik bildirganlar millatchilikda ayblanib, taqib ostiga olindi, 191i yilda Toshkentda ochilgan musulmon xalq dorilfunonini va uning xodimlari taqdiri shunday bo'ldi. 1920 yilda Turkiston xalq dorilfununi tugatilib, u O'rto Osie davlat universitetiga qo'shib yuborildi. Uning mudiri va o'qituvchilarining aksariyat ko'pchiligi xalq dushmoni-jadidchi, panturnizm g'oyasi targ'ibotchisi, millatchi tashg'asi bosilib, qatog'on qilindi. Shu dorilfunun mudiri, olim, ezuvchi va shoir, otashin marifatparvar, ijtimoiy-siesiy h'arakatlarning faol ishtirokchisi Mukovvarqori Abdurashidxonov h'isobga olinib, otib tashlandi.

20 yillar oxirlariga kelib, mamuriy buyruqbozlikka asoslangan mustabid markaz uzil- kesil shakllanib ulgirdi. Maktab tarix bilimlari tizimi h'am xuddi shu yillarda yani 30-yillar boshida shakllandi. Xalq talimiga rah'barlik qilishdagi demokratik printsipti butunlay buzildi. Tarix o'qitish o'rganishni bir xil tizimga solib, uni siesat manfaatiga bo'ysindirishda partiya va davlat rah'barlarining tegishli qarorlari h'amda ko'rsatmalari asosiy rol o'ynadi. Fanlar bo'yicha yagona, maxsus va majburiy h'amda barqaror darsliklarning bo'lishi, markazda rus tilida nashr qilinishi, joylarda, tarjima qilib, o'qitishni mamlakat miqyesida maktab talimiga vasiylik qilish va uning ustidan siesiy nazoratning kuchaytirilishi eshlarni davlat siesati, yagona partiya g'oyasiga sodiq kishilar qilib tayerlashni ko'zda tutar edi.

193i yilda "VKP(b) tarixi qisqa kursi" darsligi nashr qilinib markazda nashr qilingan barcha darsliklarga, shu jumladan tarix darsliklariga shu darslik tizimi asos qilib olindi.

Shu tariqa, 20 yillar oxiri 30 yillarning boshlariga kelib, maktab tarix bilimlari tizimi shakllandi. 40 yillarda esa darsliklar yaratildi. Bunda davlat siesatiga moslangan, yagona partiya g'oyasi singdirilgan darsliklar yaratildi. Umuman davlat siesati umrini iloji boricha uzoqqa cho'zish asosiy maqsad qilib quyilgan ei. 1934 yildan etiboran sobiq SSSR miqyesida, shu jumladan O'zbekiston maktablarida tarix qo'yidagicha o'qitildi:

III-IV sinflarda SSSR tarixining qisqacha kursi, V-VI sinflarda qadimgi dune va o'ota asrlar tarixining elementar kursi, VIII-X: sinflarda SSSR tarixi va yangi tarix kursi; Keyinchalik eng yangi tarix kursi kiritildi. O'zbekiston xalqlari tarixi mustaqil fan sifatida o'qitilmay, balki undagi bazi voqealarnigina Rossiya tarixi tarkibida o'qitish, eshlarni ajdodlarimizning boy merosidan, ananlaridan mah'rum etish maqsadida ularni chetga surib qo'yish ana shu davlat siesatining erqin ifodasi natijasi edi. Msunur darsliklarda tarixiy faktlarva nomlarga to'ldirib yuborgan edilar. Bazi muh'im tushunchalarning mazmuni chuqur ochib berilmasdan, ko'pincha ularga qisqacha izoh' berish bilan kifoyalaniqan edi, ularda o'quvchilarni mustaqil ishga rag'batlantiruvchi savollar va vazifalar hamda tarixiy hujjatlardan namunalar berilmagan edi.

Foydalalniqan adabiyotlar

1. *Professor Richard J. Evans. „The Two Faces of E.H. Carr“. History in Focus, Issue 2: What is History?. University of London (2001). Qaraldi: 10-noyabr 2008-yil.*
2. *Professor Alun Munslow. „What History Is“. History in Focus, Issue 2: What is History?. University of London (2001). Qaraldi: 10-noyabr 2008-yil.*
3. Tosh, John. *The Pursuit of History*, 4th, Pearson Education Limited. [ISBN 1-4058-2351-8](#), p 52
4. „Introduction“, *Knowing Teaching and Learning History, National and International Perspectives* Peter N. Stearns, Peters Seixas, Sam Wineburg (eds.):_. New York & London: New York University Press, 2000. — 6 bet. [ISBN 0-8147-8141-1](#).

IQTISODIY TAFAKKUR TARIXI FANINING AMALIY XO'JALIK OBYEKTI BILAN CHAMBARCHAS BOG'LIQLIGI

Rustamov A'zamjon Qo'shbaqovich

Guliston shahar 13-umumta'lim maktab iqtisodiy bilim asoslari fani o'qituvchisi

"Eskirgan nazariyalarni ular faqat inkor etilganligi sababli prinsipda ilmiy emas deyish mumkin emas" deb yozadi taniqli iqtisodchi T.Kun. Chunki, keyingi, nisbatan yangi qarashlar avvalgilari asosida, ularni qabul qilish, rivojlantirish yoki inkor etish natijasida paydo bo'lgan. Ba'zi mutaxassislar faqat yangi nazariyalarnigina o'rganishni taklif etishadi, ammo, bu so'nggi nazariya avvalgi ko'p yillik ilmiy, amaliy tadqiqotlarning yakuniy xulosasi sifatida namoyon bo'ladi yoki bugun biz "yangi" degan fikr ma'lum vaqtdan keyin o'zgarishi mumkin.

Bu fan boshqa iqtisodiy va tarixiy, ayniqsa, iqtisodiyot nazariyasi fani bilan bevosita bog'liq. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi ancha keng davrni qamrab olgan va mustaqil xarakterga ega. Bu fanni o'rganish orqali ekonomiks, xalq xo'jaligi tarixi, iqtisodiy tarix va iqtisodiy konsepsiyalar hamda aniq iqtisodiy predmetlarni o'zlashtirish osonlashadi, u yoki bu iqtisodiy o'zgarishning shartsharoitlari va oqibatlarini tahlil etishga katta ko'mak beradi.

Masalan, bizga bugun yangidek tuyulgan bozor iqtisodiyoti to'g'risidagi fikrlar Adam Smit

tomonidan 1776 yili chop etilgan "Xalqlar boyligi" asarida asosan to'la tahlil etib berilgan. Ba'zi iqtisodiy g'oyalar esa qadimdan ma'lum. Ularni o'rganish va eng muhimi, hayotga tatbiq etish yaxshi samara beradi, ko'p hollarda Amerikani yangidan kashf etishga hojat qolmaydi.

Hozirgi paytda dunyodagi ilg'or g'oyalarni o'rganish davomida hurfikrlilikka (pluralizmga) keng o'rin berish, har qanday fikrni atroflicha tahlil etish kerakligi aniq bo'lib qoldi.

Bu fanni chuqurroq o'rganish tufayli, bir qancha yechiminikutayotgan nazariy masalalarga oydinlik kiritish imkoni tug'iladi. Masalan,bozor munosabatlarining ibtidosi hanuzgacha aniq yechimga ega emas. Ayrim olimlar bu jarayonni xususiy mulk, sinfiy jamiyat yuzaga kelishi bilan bog'lasalar, ayrimlari (R.Xeylbroner, L.Turou) uni kapitalizm bilan, aniqrog'i, "ishlab chiqarish omillari" paydo bo'lishi bilan izohlaydilar (mehnat, yer va kapital tovarga aylangach, bozor tizimi yuzaga kelgan ekan). Keyingi fikr bo'yicha bozorning ibtidosi XVIII asrda Angliyada boshlandi.

O'z davrida ilg'or Sharqning ortda qolish, G'arbning ilgarilab ketish sabablari, kelajak to'g'risidagi prognozlar ham muammo bo'lib turibdi.

Taniqli iqtisodchi olim J.K.Gelbreyt: "Amalda iqtisodiy g'oyalar o'z davri va vujudga kelish joyining mahsuli bo'lib, ular bilan chambarchas bog'langandir; bu g'oyalarni ular tushuntirib berayotgan dunyodan mustaqil ravishda ajratib qarash mumkin emas; bu dunyo esa doimo o'zgarishda bo'ladi, agar bu g'oyalar o'z maqsadlariga to'la javob berishni ko'zlasalar, doimo shunga mos ravishda o'zgarib turishlari kerak",deb yozgan edi.

Kapitalizm davrida xo'jalik va ijtimoiy hayotda baynalmilallik (internatsionalizm) kuchayganligi tufayli, iqtisodiy fikrning rivojlanishi ham yagona jahon jarayoniga aylana boshladi. Oqibatda, klassik iqtisodiy maktab asoschilari A.Smit va D.Rikardoning qarashlari qisqa vaqt ichida butun jahonga ma'lum bo'ldi, vaholanki undan avvalgi ko'pgina nazariyalar ayrim mamlakatlarda ko'pchilikka ma'lum bo'lmasdan,"o'lik mol" sifatida yotgan.

G'arb mamlakatlarida yuzaga kelgan "Ekonomiks" va boshqa tadqiqotlar barchaning diqqat-e'tiborini jalb qilmoqda. Qadimdan to hozirgi davrgacha minglab turli-tuman iqtisodiy g'oya, qarash, konsepsiya, nazariya, ta'limotlar vujudga kelganligi aniq. Ularning barchasini to'la o'rganish alohida mavzu, maxsus muammo. Shu maqsadda yangidan yangitadqiqotlar olib borish, tahlil etish va umumlashtirib e'lon qilish zarur, bu yaqin kelajak vazifasi sifatida qabul qilinishi mumkin.

Ammo, hozirgi davrgacha jamlangan barcha iqtisodiy g'oyalarni ma'lum sistemaga solish va shu asosda o'rganish maqbuldir. Ammo o'tgan davr xodisalari va g'oyalarni hozirgi zamon qarashlari "qolipi"ga zo'rma- zo'raki kelishtirish, moslashtirish mumkin emas. Bu tarixni vulgar zamonaviylashtirishga, o'rganilayotgan davrning xususiyatlarini inkoretishga olib keladi.

Bu fan doim rivojlanishda bo'lib, bir-birini to'ldiruvchi evolutsion (mavjud g'oyalarning yanada chuqurroq takomillashuvi) va inqilobiy (butunlay yangicha konsepsiyalar vujudga kelishi) yo'llari mavjud. Inqilobiy o'zgarishga misol sifatida A.Smit va uning izdoshlari g'oyalari, marjinalistik to'ntarish, yangi klassik yo'nalish (A.Marshall), J.M.Keynsning iqtisodiy qarashlarini keltirish mumkin. O'tish davri iqtisodiyoti bo'yicha g'oyalar hozirgi davrning muhim qarashlari majmuasiga kiradi va nihoyatda dolzarbdir, bu masala O'zbekiston misolida qarab chiqildi.

Taniqli davlat arbobi Uinston Cherrchill (1874-1965) "Qayerga borishimizni bilish uchun, qayerdan chiqqan ekanligimizni bilishimiz kerak", deb aytgan edi. Bu g'oya nihoyatda ahamiyatli bo'lib, bosib o'tilgan yo'lni to'g'ri baholash va kelajak istiqbolni ko'zlash haqida gap boradi.

Iqtisodchilarning tadqiqotlaridagi asosiy bosh g'oya - jamiyat, insoniyat, ayrim shaxslarning boyligi masalasidir. Maqsad bir, lekin unga eltadigan yo'llar nihoyatda xilma-xil ekanligini ko'ramiz. Ilk kapitalistik munosabatlar vujudga kelgan davrgacha (XV asr) bo'lgan iqtisodiy g'oyalardagi umumiylik shuki, barcha donishmandlar va ularning yozgan asarlarida mehnat va yer boylikning asosiy vositasi ekanligi turli yo'llar bilan talqin etiladi, ularda ishlab chiqarish sohasi asosiy deb hisoblangan.

XV-XVII asrlarda (qisman XVIII asr boshlarida) yangi iqtisodiy ta'limot - merkantilizm vujudga keldi. Merkantilizm to'g'risida qisqa ma'lumot beradigan bo'lsak, uning mohiyati iqtisodiy siyosatda mamlakatda va davlat xazinasida nodir metallarni ko'proq to'plash, ta'limotda esa muomala (savdo, pul oboroti) sohasidagi iqtisodiy qonuniyatlarni izlashdir, ya'ni avvalgi davrdagi g'oyalardan keskin farq qiladi.

Keyingi muhim o'zgarish, bu klassik iqtisodiy maktabning yuzaga kelishidir (XVIII asr). Bu iqtisodiy ta'limot ichida fiziokratizm ham vujudga keldiki, uning umri uncha uzoq bo'lmadi. Klassik maktab g'oyalari hozirgi davrda ham turli shakllarda qayta namoyon bo'lmoqda (neoklassik, liberal, neoliberal...). Marks nomi bilan bog'liq bo'lgan marksizm ta'limoti (nobo'zor iqtisodiyot) ham tarixda muhim o'rinni egallaydi. Hozirgi davrda bu ta'limot to'g'risida imkoni boricha gapirmaslikka va ayniqsa, yozmaslikka harakat kuchayib bormoqda, ko'proq uning faqat salbiy tomonlarini tilga olish "moda"ga kirgan. Bunda "jon" bor albatta, chunki 1917 yili Rossiyada boshlangan marksizmni hayotga tatbiq etish jarayoni samarasiz tugadi. Keyinchalik shu yo'lga o'tgan bir qancha mamlakatlarda ham eksperiment samarasiz yakunlandi. Lekin tarix uchun insoniyatga bu saboq juda muhim, shu sababli uni chetlab o'tish adolatdan emas, deb hisoblaymiz. Darslikda xayoliysotsialistlar va markschilarning iqtisodiy g'oyalari ham o'rin olgan, uning tarixiy taqdiri berilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Общая экономическая теория (Политэкономия) Учебник. М., «Промомедиа», 1995.
2. Razzoqov A. Moziyga qarab ish tutish... //"Hayot va iqtisod", 1992, 4-son.
3. Кондратьев Н. Д. Проблемы экономической динамики. М., Экономика, 1989.
4. Razzoqov A. Rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyoti tahlili. O'quv-uslubiy qo'llanma. T., 2001.

THE BEST WAY FOR THE STUDYING OF ENGLISH LANGUAGE

Botirova Nigora Xabibilayevna

Sirdaryo viloyat, Guliston shahar 2-sonli matematika faniga ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktabi ingliz-tili fani o'qituvchisi

Using oral English is an excellent way of Studying of English Language. This type of learning methodology is called Communicative English Teaching, practised in many classrooms teaching English. By this method, students will be encouraged to talk English as much as possible as they learn the language. It is a satisfactory method proven to take only a minimum period of learning hours to learn English.

Grammar

Communicative English Teaching Methodology includes a range of proven English Teaching Techniques. The system does not discourage using grammar books and texts and does provide students to teach them. However, talking and using the language to practice as they learn grammar by writing and reading exercises, is much encourage by the Communicative English Teaching Method. With this method, they use grammar components without extra effort to learn them by memorising or engaging in English language exercises.

Vocabulary

The method also uses vocabulary expanding techniques. Day by day, students have to learn more and more English words. With the introduction of new words, a student may think that he may not be able to grasp every word even though he or she learns English for the whole of their life. But qualified teachers use comprehensive exercises to make them understand new words via fun filled activities such as completing puzzles, scrabble, engaging in word searching games, quizzes, and other games.

Spoken English

More and more classes now use Spoken English Teaching Techniques. Instead of written practices, in this way students can effortlessly keep in mind the usage of words and their different meaning. Teachers play the role of a facilitator with this method and supply and encourage methods where students participate in talking and express ideas in English. Discussion among children, individual and group presentations, singing, dramatizing and many such methods can increase the vocabulary strength of students without forcing them to engage in rote practices.

English Only Policy

In the classrooms, teachers ask students only to use English when they are talking and engaging in other classroom activities. It is called English Only Policy. The system allows students to use English the whole day. Students voluntarily engage in English conversation exercises keeping a check on the components of Grammar in their speech. Spoken English Only Policy teaches children to pronounce words correctly, use grammar and the right words in their sentences.

Proper listening

Also, the importance of listening properly and understanding what others say is taught in classrooms. Listening to audio and video tapes, speaking with native English people, listening and watching videos recorded on English people, listening to English news broadcasting, responding in English after the hearing, and reviewing past grammar and English papers are some of the methods being used to enhance the students' English listening skills.

Reading and Writing

Reading and Writing does not take a backseat in the classroom even though much importance to communicative methodology is given. Instant paragraph writing, writing formally as well as informally, resume and letter writing and many other techniques get the full attention of students and make them write in various ways. Students receive writing lessons according to their level and skills. Their interests, hobbies, approach and so on are taken into consideration when assigning writing exercises.

Here are our top tips on how to [learn English](#) quickly:

1. Read everything you can get your hands on

Classic literature, paperbacks, newspapers, websites, emails, your social media feed, cereal boxes: if it's in English, read it. Why? Well, this content will be full of juicy new vocabulary, as well as a fair amount you already know. This helps you improve quickly, as re-exposure to learned vocabulary gives you new examples in context, therefore reinforcing those words in your mind. On the other hand, learning new words and expressions is essential to building your vocabulary arsenal, particularly in a language like English with so many words! However, don't just read and move on – next, you've got to...

2. Actively take note of new vocabulary

This tip is a classic one for good reason: it works! When learning, we often enjoy a new word or phrase so much that forgetting it seems impossible. But trust us, not everything sticks the first time. To fight this, get into the habit of carrying around a funky notebook or using a tool like Evernote. Whenever you hear or read a new word or expression, write it down in context: that is, in a sentence and with its meaning noted. This saves you time as you won't return to that word and ask yourself: "What did that word/expression mean again?"

3. Talk with real live humans

What is a language for if not to communicate? Sure, we humans have become experts at communicating without opening our mouths – thanks Whatsapp! – but when push comes to shove, it's true that speaking a language helps it stick in your head far better than only reading or writing it. Just think of how many times you've heard people say that they "understand, but can't speak English." A lot of would-be English speakers have turned talking into a huge insurmountable barrier that only serves to psyche them out. Don't be like that. Seek out native speakers for an informal language exchange, enroll in a course, or take classes online.

4. Subscribe to podcasts or Youtube channels (in English)

Like humor? Politics? Blogging? Cooking? With topics covering every interest imaginable, there's an English-speaking podcast or Youtube channel out there for you. Subscribe to a few and listen while driving or watch during the commute to school or work. At first, you might find the native accents difficult, but stick with it and you'll soon start to understand what you hear (as well as learning lots of new vocab from a native speaker!)

5. Go abroad

If there's a better way to learn English than being immersed in it while living and studying in an English-speaking country, we'd love to know! It's no secret that English is the most widely-spoken language in the world, and with a long list of countries to choose between, you can select your ideal learning environment based on hemisphere, weather, or favorite city. Think [Australia](#), [New Zealand](#), [the UK](#), [the US](#), [Canada](#), and [South Africa](#) to name a few!

6. Use your friends

Have friends who post online in English? Don't gloss over them in your newsfeed: scan the items they share and commit to exploring one or two each day. They might be news or magazine articles, videos, talks, blog posts, songs, or anything else: if it's in English and the topic interests you, it's going to be helpful!

7 Simple Ways to Learn English Effectively

Learning English as a second language can be a challenging task. But once you get the hang of it, every effort and time you spend studying the language will be worth it. By being fluent in English, travelling will be more fun. Also, you don't have to wait for the latest best-selling book or Hollywood movie to be translated in your native language to enjoy them. To help you in this endeavour, here are some practical tips on how to [learn English effectively](#).

1. Study phrases not words

When you study English, or any language for that matter, you shouldn't learn individual words because memorising them makes no sense without context. Instead, you should study whole phrases. Memorising the meaning of words is much easier if you know what they mean and how they are used in a sentence.

2. Learn by listening

While reading textbooks can help you learn the English language, you mustn't rely solely on them. Textbooks are great for teaching you about grammar and vocabulary, but they may not be too much of a help when it comes to carrying out a conversation. If you want to learn how to speak English, learn by listening and not by reading. By listening more, you'll be able to learn useful vocabulary and grammar without even realising or memorising them.

3. Get a placement test

Finding out your current English proficiency level is crucial before you embark on any learning plan as it will determine the type of program you should follow.

For e.g. A comprehensive English program if your level is around Intermediate level or lower and a customised learning plan for Upper-Intermediate level and above.

4. Prioritise quality over quantity

When it comes to learning any language, it's all about quality over quantity. Instead of learning dozens of new words in a short time, you should focus on learning one word and repeating it dozens of time. This prevents you from suffering from information overload. In addition, this strategy allows you to place the meaning of words and phrases deeper into your brain. As a result, you won't forget them easily.

5. Learn grammar with "point of view" stories

One of the best ways to learn grammar is to listen to short stories told in various tenses. This will help you improve your English grammar automatically and more naturally. For example, if a story starts with "I don't like banana but I want to eat one," the other story should be "I didn't like bananas but I wanted to eat one."

6. Listen and answer, not listen and repeat

If you want to improve your English, don't use the strategy used by English textbooks, which is to "repeat after the speaker." Instead of mindlessly parroting the words or phrases spoken by the speaker, you should answer questions asked. For example, if you're listening to a podcast or video, pause it every 20 to 30 seconds and create a brief summary of what has been said.

7. Take an online lesson

There are many online courses available on the internet. A quick search in google will show you a list of training providers. However, it can get quite costly if you are fully dependent on the 1:1 Skype lessons to improve.

One way to cut cost is to supplement your lessons with an [online self learning English program](#). Overall you enjoy cost savings of more than 50% using the online program to supplement your ongoing classes.

Useful references

1. <https://www.englishexpress.com.sg/articles/5-simple-ways-to-learn-english-effectively/>
2. <https://www.ef.com/wwen/blog/language/how-to-learn-english-faster/>

3. <https://tv-english.club/articles-en/discover-great-britain-en/the-best-way-for-the-studying-of-english-language/>
4. <https://www.oxford-royale.co.uk/articles/efl-learn-english-faster.html>
5. <https://www.duolingo.com/>

ONA TILI DARSLARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYA USULLARIDAN FOYDALANISH AFZALLIKLARI

*Axmedova Gulruxsor Uktamjanovna, Xamraqulova Marxabxon Abdurashidovna
Guliston Shahar 11-sonli umumta'lim maktabi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi
Guliston Shahar 16-sonli umumta'lim maktabi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi*

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ona tili darslarida innovatsion texnologiyalardan foydalanishning afzalliklarini o'rganish haqida fikr yuritilgan.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются преимущества использования инновационных технологий на уроках родного языка.*

Annotation: *In this article discusses the benefits of using innovative technologies in mother tongue lessons.*

Kalit so'zlar: *innovatsiya, texnologiya, keys-stadi, blits-so'rov, zakovat, muzyorar, interfaol, aqliy hujum.*

Ключевые слова: *инновация, технология, кейс-стади, блиц-опрос, интеллект, интерактив, мозговой штурм.*

Keywords: *innovation, technology, case - study, blitz survey, intelligence, interactive, brainstorming.*

Zamonaviy maktab o'qituvchisi qator vazifalarni bajaradi. O'qituvchi sinfdagi o'quv jarayoni tashkilotchisi. O'qituvchi o'quvchilar uchun dars payti, qo'shimcha darslarda va shu bilan birga darsdan tashqari hollarda ham kerakli maslahatlar berishda bilimlar manbaidan biridir. Zamonaviy o'qituvchi ijtimoiy psixolog bo'lmashligi mumkin emas. Shuning uchun ham, u o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni yo'lga sola olishi, bolalar jamoasida ijtimoiy-psixologik mexanizmlardan foydalanishni bilishi zarurdir.

Ma'lumki pedagogik faoliyat - kishi mehnatining eng murakkab sohalaridan biri. O'qituvchi jamiyat tomonidan qo'yilgan talablar bilan bir qatorda o'z faoliyatida, tevarak-atrofidagi kishilar, maktab ma'muriyati, hamkasblari, o'quvchilar va ularning ota-onalari undan nimalarni kutishini ham esdan chiqarmasligi lozim. Dars o'tish qulay va jonli bo'lishi uchun turli ko'rgazmali qurollar ishlab chiqish zarur bo'ladi. Ulardan o'z vaqtida va o'z o'rnida foydalanishga harakat qilish dars sifatini va samaradorligini ta'minlaydi. Murakkab mavzuni o'quvchilar ongiga osongina etkazish uchun «Aqliy hujum», «Zakovat», «Zigzak», «Interfaol», «Fikriy hujum», «Munozarali-bahsli dars», «Klaster metodi», «Keys-stadi», «Muzyorar», «Tarozi» texnologiyasi, «Bumerang» texnologiyasi, «Blits-so'rov» texnologiyasi kabi usullardan foydalaniladi.

Darslarda o'rgatilgan manbalardan, savollar yoki testlardan unumli foydalaniladi. Ta'lim har doim takomillashib va yangilanib boradi. Shunga muvofiq ta'limning yangi usullari ustida izlanish talab etiladi.

Chunki o'quvchilarga doimo bir xil qolipdagi darslar yoqmaydi, ularni zeriktiradi. Natijada o'quvchi darsni yaxshi o'zlashtira olmaydi. Har bir usuldagi darslar ikki-uch marta o'tilganda o'zini oqlaydi. Me'yorida oshmasligi, o'quvchilarni zeriktirmasligi uchun usullarning turlicha bo'lishi darsning samaradorligini yanada oshiradi. Dars jarayonlarida notiqlik, suhbat, hikoya, mustaqil ish, yozma ish, zamon bilan bog'lash, mustaqil fikrga tayanish shakllariga katta e'tibor berishimiz lozim. Harbir o'tilayotgan darsga o'quvchilar tomonidan berilayotgan baho biz uchun ahamiyatlidir.

Bugungi taraqqiyot har bir o'qituvchidan ijodkorlikni, malaka va tajribani taqozo etmoqda. Bu, o'z navbatida, ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. XXI asr muallimi yuksak taraqqiy etib borayotgan bugungi fan-texnika yutuqlariga har doim hozirjavob bo'lishi, ulardan o'z darslarida samarali foydalana olishi kerak bo'lmoqda. Darslarda qo'llanadigan interaktiv usullar o'quvchilarda o'z ona tili va jondan aziz Vatanga mehr-muhabbat tuyg'ularini uyg'otish, ularni mukammal savodxonlik darajasiga ko'tarish, mantiqiy aniq va to'liq nutq sohibi bo'lishiga erishish kabi muhim vazifalarni bajarishni nazarda tutadi. Ona tili darslarida o'tiladigan mavzuga oid materiallarni topish, ularni bajarishda o'yin usullaridan foydalanish

yaxshi natija beradi. Masalan, o'quvchilar ikkiga bo'linib gap tuzadilar. O'yin sharti shundaki, birinchi gap qaysi harf bilan tugasa, ikkinchi gap shu harf bilan boshlanishi kerak. Gaplar ma'lum bir mavzuga oid bo'lib, natijada matn tuziladi. Masalan, «Odam odamsiz yashay olmaydi. Inson o'zining xushtabiati, shirin muomalasi bilan odamlar qalbidan joy oladi» kabi. Maktabda adabiy kechalar, turli ko'rik tanlovlar o'tkazish ham o'ziga xos samara beruvchi usullardandir. O'quvchilar bunday tadbirlarda she'rlardan namunalar yodlaydilar, vatanimizning timsollariga bo'linib, asarlardan parchalar ko'rsatadilar, sahnada o'zlari ijro etadilar. Bunda o'quvchi yodlagan har bir jihat uning ongida bir umr muhrlanib qoladi va xotirasidan chiqmaydi. Ona tili ta'limi maqsadi mazmunni, mazmun esa ta'lim usulini, ta'lim usuli ilg'or innovatsion texnologiyani, ilg'or innovatsion texnologiya esa axborot bankini taqozo etmoqda.

Endi esa innovatsion texnologiya usullari sifatida faol qo'llanayotganlardan usullardan ayrimlarini o'rganamiz.

KEYS-STADI. O'quv amaliy vaziyat: tushunchasi va maqsadi

O'quv vaziyat - keys-stadi (ingl. case - yig'ma, aniq, amaliy holat, stadi-o'quv) - o'quv uslubi bo'lib, u tashkilot, shaxslar guruh yoki alohida shaxslar hayotidan olingan real vaziyat yoki talabalarni muammoni aniqlash va uni maqsadga muvofiq yechish variantlarini qidirishga yo'naltiruvchi, tashkiliy hayotda vujudga keladigan muammolarni aks ettiruvchi yasama (sun'iy) vaziyatga asoslangan.

Keysda tavsiflangan aniq vaziyat o'rganishni voqelikka bog'lab qo'yadi: sizga muammoni hal etish bo'yicha vaziyatni tahlil qilish, taxminlarni shakllantirish, muammolarni aniqlash, qo'shimcha ma'lumotni yig'ish, taxminlarni aniqlashtirish va aniq qadamlarni loyihalashtirish imkonini beradi.

O'quv uslubi sifatida quyidagilarni ta'minlaydi:

- o'rganilgan o'quv mavzu, kursi bo'yicha (nazariy ta'limdan so'ng) bilimlarni mustahkamlashni;
- muammolarni tahlil qilish va qarorlarni yakka tartibda va guruhli qabul qilish ko'nikmalarini egallashni;
- ijodiy va o'rganish qobiliyatlar, mantiqiy fikrlash, nutq va muhit sharoitlariga moslashish qobiliyatlarini rivojlantirishni;
- yangilikka, qarorlarni mustaqil qabul qilishga tayyorgarlikni;
- mas'uldorlik, mustaqillik, kommunikativlik va empatiya, refleksiyaning shakllanishini; o'quv ma'lumotlarini o'zlashtirish sifatini o'z tekshirishini (o'quv dasturi yakunida).

O'zaro tanishuvda qo'llaniladigan texnikalar.

Muzyorar – *muomaladagi to'siqlarni yengib o'tishga va o'zaro munosabatlardagi «muzni» yorishga qaratilgan mashq.* Muzyorar, birinchidan, tanishuv jarayonini rivojlantiradi, ikkinchidan, ishtirokchilarni o'zini bemalol his qilishlariga yordam beradi.

Doirada koptokcha bilan o'ynash – bunda qo'lga koptokcha tushgan har bir ishtirokchi o'z ismini hamda o'zi haqidagi ma'lumotni aytishi kerak bo'ladi.

O'xshash va o'xshash bo'lmagan xususiyatlarini top. Agar trening vaqti kam chegaralangan bo'lsa, tanishuvning kengroq shakllaridan foydalanish mumkin. Masalan, trening ishtirokchilarini 5-6 ta ishtirokchidan iborat kichik guruhlariga bo'lib, har bir guruhga guruh a'zolarini o'zaro bog'laydigan 5 ta umumiy o'xshash xususiyatlarni yoki hammada har xil bo'lgan 3 ta xususiyatni topish topshirig'i beriladi. So'ngra guruhlar barcha guruh ishtirokchilarining ismini aytib, topshiriq natijasini taqdim etadilar.

«Aqliy hujum» (breynstorming - miyalar bo'roni) – amaliy yoki ilmiy muammolarni hal etish, fikrlarni jamoali generatsiya qilish usuli.

Aqliy hujum vaqtida ishtirokchilar murakkab muammoni birgalikda hal etishga intilishadi: ularni hal etish bo'yicha o'z fikrlarini bildiradi (generatsiya qiladi) va bu fikrlar tanqid qilinmasdan ular orasidan eng muvofiqi, samaralisi, maqbuli va shu kabi fikrlar tanlab olinib, muhokama qilinadi va rivojlantiriladi, ushbu fikrlarni asoslash va rad etish imkoniyatlari baholanadi.

Aqliy hujumning asosiy vazifasi - o'quv-o'rganish faoliyatini faollashtirish, muammoni mustaqil tushunish va hal etishga qiziqtirishni rivojlantirish, mulokat madaniyati, kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirish, fikrlash inersiyasidan qutilish va ijodiy masalani hal etishda fikrlashning oddiy borishini yengish.

- To'g'ridan-to'g'ri jamoali aqliy hujum - iloji boricha ko'proq fikrlar yig'ilishini ta'minlaydi. Butun o'quv guruhi (25dan ortiq bo'lmagan) bitta muammoni hal etadi.

- Ommaviy aqliy hujum - kichik guruhlariga bo'lingan katta auditoriyada (60 kishigacha) fikrlar

generatsiyasi samaradorligini keskin oshirish imkonini beradi.

- Har bir guruh ichida umumiy muammoning bir jihati hal etiladi.

“Blits-so‘rov” texnologiyasi. Maqsadi: ushbu usul orqali talabalarga tarqatilgan qog‘ozlarda ko‘rsatilgan harakatlar ketma-ketligini avval yakka tartibda mustaqil ravishda belgilash, kichik guruhlarda o‘z fikrini boshqalarga o‘tkaza olish yoki o‘z fikrida qolish, boshqalar bilan hamfikir bo‘la olish kabi ko‘nikmalarni shakllantirish.

FSMU texnologiyasi. F - fikringizni bayon eting; S - fikringizning bayoniga biron sabab ko‘rsating; M - ko‘rsatgan sababingizni isbotlab misol (dalil) keltiring; U - fikringizni umumlashtiring.

Ushbu texnologiya talabalarga tarqatilgan oddiy qog‘ozga o‘z fikrlarini aniq va qisqa ifoda etib, tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etishga yordam beradi. Mazkur texnologiya o‘quv reja asosida biron bir bo‘lim o‘rganib bo‘lingach, qo‘llanilishi mumkin, chunki bu texnologiya talabalarni o‘z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o‘z fikrini boshqalarga o‘tkazishga, ochiq holda bahslashishiga va bahslashish madaniyatiga o‘rgatadi.

“Bumerang” texnologiyasi. Mazkur texnologiya bir mashg‘ulot davomida o‘quv materialini chuqur va yaxlit holatda o‘rganish, ijodiy tushunib yetish, erkin egallashga yo‘naltirilgan. Asosiy tushunchalar quyidagilar:

1. Ochiq savollar - bu savollar muomala, so‘zlashuvni davom ettirishga imkon beradi. Ularga qisqa, bir xil javob berish mumkin emas.

2. Yopiq savollar - bu savollar oldindan “ha” yoki “yo‘q” tipidagi to‘g‘ri, ochiq javoblarni berishni ko‘zda tutadi.

3. Ko‘ndalang so‘roq - bir-biriga guruhlab beriluvchi qisqa savollar qatori bo‘lib, bu o‘ziga xos axborotlar izlash hamda dalillarni, opponentlarning pozitsiyasini aniqlash va muayyan qarorlar qabul qilish uchun ajoyib imkoniyat.

Ona tili mashg‘ulotlarida foydalaniladigan innovatsion texnologiyalarning har bir qirrasini ona tili ta’limining bosh maqsadi ro‘yobiga xizmat qilgandagina ahamiyatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ishmuhammidov R. va b. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. - T.:2008, 180b.
2. Shoyaqubov Sh. va b. Interfaol ta’lim usullari. - T., 2012. - 135 b.

ZAMONAVIY FIZIKANING MASALALARNI YECHISH YANGI USULLAR

Cho‘liyev Xudoyberdi

Guliston shahar 11-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabining fizika fani o‘qituvchisi.

Mamlakatimiz ayni paytda ta’lim tizimini takomillashtirishga juda kata e’tibor qaratilmoqda. Bu sohani tubdan isloh qilish jadal suratda amalga oshirilmoqda. Davr taqozosi ilmiy salohiyatli, aqliy barkamol avlodni shakllantirishni talab etmoqda.

Hozirgi davr talablariga mos barkamol avlodni tarbiyalab uchun o‘qituvchidan juda katta mahorat talab qilinadi.. Har bir fan o‘qituvchisi o‘z fanining boshqa fanlar bilan bevosita bog‘liq ekanini tushungan holda o‘quvchilarga ham buni tushuntirishi shart. Bunda faqat fanlarning bir-biriga bog‘liq ekanini shunchaki emas, balki integratsiyalab o‘qitish orqali o‘quvchilarga bu olamning yaxlitligi haqida tasavvur berish kerakligi ahamiyatlidir. Shu jumladan o‘quvchilarga fizika fanidan o‘rganayotgan bilimlari bilan boshqa fanlardan olgan bilimlari orasidagi uzviy bog‘liqlik borligini anglab yetadi. Fizika fanini matematika, kimyo, astronomiya, biologiya, adabiyot, tarix, geografiya fanlari bilan bog‘liqlikda o‘qitish mumkin. Fizika masalalarini yechishda yuqoridagi fanlarning bir nechtasini bog‘likligini quydagicha ko‘rsatish minkin.

Fizika va matematika fanlarining bog‘liqligi: Fizika fanida deyarli barcha masalalarni yechishda matematik hisob kitoblarga duch kelamiz. Masalan, xarakat tenglamari, mexanik va elektr tebranishlari mavzusiga oid masalarni yechishda funksiyaning o‘zgaruvchisi orqali hosila olishni bilish, kuchlarning geometrik yig‘indisini hisoblashda vektorlarni qo‘shish usullarini bilish shular jumlasidan. Bu bog‘likni quydagi masalani yechish yordamida yaqqol ko‘rishimiz mumkin.

1-masala. $X = 3 + 36t - 3t^2$ (m) harakat tenglamasi yordamida hakatlanayotgan avtomabilning 2

sekundan keying tezligini toping?

Yechish: Bu masalani yechishning ikki xil usuli mavjud.

1-usul: Malumki harakat tenglamsining umumiy ko'rinishi $X = X_0 + v_0 t - \frac{at^2}{2}$ (m) kabidir. Bunga ko'ra $X_0 = 3 \text{ m}$, $v_0 = 36 \frac{\text{m}}{\text{s}}$, $a = 6 \text{ m/s}^2$ bo'ladi. Bu topilgan qiymatlarni $v = v_0 - at$ ga qo'yib avtomobilning tezligini topib olamiz.

$$v = v_0 - at = 36 - 6 \cdot 2 = 36 - 12 = 24 \text{ m/s}^2$$

2-usul. Bizga ma'lumki $v(t) = X'(t)$ munosabat o'rinli (Bu yerda $X'(t) - X(t)$ funksiyadan t o'zgaruvchi bo'yicha hosila). Biz esa $v(2) = X'(2)$ topishimiz lozim. $v(t) = X'(t) = 36 - 6t$ bo'ladi. $v(2) = X'(2) = 36 - 6 \cdot 2 = 36 - 12 = 24$

Demak, ikkala usulda ham masalaning yechishda matematika xisob-kitoblarga duch keldik. Bu esa masalani yechishda algebra fani bilan bog'lik ekanligini ko'rsatadi.

2-masala: Quyidagi grafik bo'yicha harakatlanayotgan jisimning bosib o'tgan yo'lini hisoblang.

Yechish:

I-holada jism tekis tezlanuvchan harakatda bo'ladi. Bunga ko'ra $v_0 = 0 \frac{\text{m}}{\text{s}}$, $v = 6 \frac{\text{m}}{\text{s}}$, $t = 2 \text{ sek}$ $S_I = \frac{at^2}{2} = \frac{v-v_0}{t} \cdot t = \frac{(v-v_0)t}{2} = 6 \text{ m}$ bo'ladi. Bu esa A uchburchakning yuzasini bildiradi.

II-holatda jism tekis harakat qilgan. Bunga ko'ra

$t_1 = 2 \text{ s}$, $t_2 = 8 \text{ s}$, $v = 6 \frac{\text{m}}{\text{s}}$ $S_{II} = vt = v(t_2 - t_1) = 36 \text{ m}$ bo'ladi. Bu esa B to'g'ri to'rtburchakning yuzasini bildiradi.

III-holatda jism tekis sekinlanuvchan harakatda bo'ladi. Bunga ko'ra

$$v_0 = 6 \frac{\text{m}}{\text{s}}, v = 0 \frac{\text{m}}{\text{s}}, t_2 = 11 \text{ s}, t_1 = 8 \text{ s}, t = 11 - 8 = 3 \text{ s}$$

$S_{III} = \frac{v_0^2 - v^2}{2a} = \frac{(v_0 - v)(v_0 + v)}{2 \frac{v_0 - v}{t}} = \frac{(v_0 + v)t}{2} = \frac{(v_0 + v)(t_2 - t_1)}{2} = 9 \text{ m}$. Bu esa C uchburchakning yuzasini bildiradi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak bosib o'tilgan yo'l berilga grafikdan hosil bo'lgan trapetsiyaning yuzasini bildiradi. Bosib o'tilgan yo'l ham trapetsiyaning yuzasi ham bir xil qiymatga ega bo'ladi. $S_{yul} = S_I + S_{II} + S_{III} = 6 + 36 + 9 = 51 \text{ m}$

$$S_{trap} = \frac{(a+b)h}{2} = \frac{(11+6) \cdot 6}{2} = 51 \text{ m}$$

Demak, bu masalani geometrik yo'l bilan yechish imkoni borligini ko'rsatadi.

Fizika va kimyo fanlarining bog'liqligini yadro reaksiya, modda tuzulishi, modda miqdori, Faradey qonunlari kabi mavzularni o'rgatishda ko'rishimiz mumkin. Bu bog'liqlikni quyidagi masalani yechishda ko'rishimiz mumkin.

3-masala. 64 gramm kislorod atomining modda miqdorini toping?

Yechish: Bu masalani yechish uchun uchun kislorod atomining molyar massasini bilish talab qilinadi. Bu esa kimyo fani bilan bog'liq ekanligini bildiradi.

$$\mu = 32 \frac{\text{g}}{\text{mol}}, m = 64 \text{ g}, v = \frac{m}{\mu} = \frac{64 \text{ g}}{32 \text{ g/mol}} = 2 \text{ mol}$$


Demak o'qituvchi fanlararo integratsiyalashgan dars jarayoni tashkil etsa o'quvchilar fanlarni o'zaro bog'liqlikni teran tushunib yetadi, fikrlash doirasini o'stirib, ijodiy ishlash ko'nikmasini shakllantiradi.

INTEGRATSION TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH USULLARI

Qurolov Hasan Xolmurodovich

Guliston shahar 11-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabining huquq fani o'qituvchisi

Yangi O'zbekistonimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy – iqtisodiy islohotlar ma'naviy – axloqiy



yo'nalishlarni ham keng rivojlantirishni taqozo etmoqda. Chunki bu demokratik, insonparvarlik jamiyatini qurishning muhim omillaridandir. Mamlakatimizda xalq ta'limi tizimida uzluksizlik yuzaga keldi. U zamonaviy innovatsion va integratsion texnologiyalar asosida takomillashtirilmoqda. Ayniqsa, boshlang'ich ta'limni yuqori darajaga ko'tarish muhim ahamiyat kasb etayotir. Darhaqiqat, kelajagimizning taraqqiyoti ta'limning poydevori bo'lgan boshlang'ich maktabda ilm olayotgan bolalarning ma'naviy – axloqiy jihatdan mustahkam tarbiyalanishi, barkamol avlod bo'lib yetishishiga ko'p jihatdan bog'liqdir.

Maktab yoshidagi o'quvchilarni komil inson darajasiga ko'tarishga intilish, ma'naviyat sarchashmalaridan bahramand qilish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarimizga sodiq qilib tarbiyalash, istiqlolni talabidir. Buning uchun o'qituvchining o'zi ham yetuk pedagogik mahoratga ega bo'lishi, yuksak insoniy fazilatlarini o'zida mujassam etmoq'i lozim.

Bugungi kunda, ya'ni ta'lim – tarbiyaning hozirgi zamonaviy bosqichida o'qituvchining ishlash tizimi tubdan o'zgarmoqda va pedagogik texnologiyalar, integratsiyalar, innovatsiyalar amaliyotda keng qo'llanilmoqda.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki yillaridanoq yosh avlodni har tomonlama barkamol insonlar qilib tarbiyalashga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yoshlarni qo'llab – quvvatlashga doir o'ndan ortiq moddasi, «Yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida», «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunlarining mantiqiy davomi bo'lgan «Maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi», «2008-2012-yillarda Uzluksiz ta'lim tizimi mazmunini modernizatsiyalash va ta'lim - tarbiya samaradorligini yangi sifat darajasiga ko'tarish dasturi» hamda Prezidentimizning ta'lim sohasiga tegishli qator farmonlari va hukumat qarorlari mavjud. Ular keng miqyosda hayotga tatbiq etilib ta'limning mazmun-mohiyati tubdan o'zgarmoqda. Bu esa ta'lim – tarbiya jarayoniga yangicha mazmun olib kirishni, yangicha talqinlar, ilg'or tajribalarni amaliyotga tadbiq etishni talab qiladi. Ta'lim jarayonidagi ana shunday yangiliklardan biri bu integration ta'limidir.

Olimlar A.G'ulomov va H.Ne'matovlar ta'kidlashicha, integration ta'lim, ya'ni integration jarayonlar boshqa fanlardan olingan ma'lumotlardan foydalanib, o'quvchilarni har tomonlama bilimli qilish imkoniyatiga ega bo'lishdir. Bunda o'quvchilar badiiy uslubni adabiyot fanidan, ilmiy uslubni bialogiyadan, kimyo, fizika, matematika, ish qog'ozlari uslubini huquq fanlaridan olingan materiallar asosida o'rganishlari nazarda tutiladi.

Integratsiyaning mazmun-mohiyati Farididdin Attorning quyidagi fikrlariga hamohangdir: «Bu ro'yi zaminda mayda narsaning o'zi yo'q, hamma narsa bir-biriga bog'liq va bir-birini to'ldiradi.»

Integratsiya – *lotincha integratio – tiklash, qaytadan boshlash, to'ldirish* degani bo'lib, o'zbek tilida 3 ma'noda qo'llaniladi:

1. Ayrim qismlarning, elementlarning bog'liqlik holatini, ularni qo'shib birlashtirishni ifodalovchi tushuncha.

2. Fanlarning yaqinlashishi va o'zaro bog'lanish jarayoni.

3. Ikki va undan ortiq davlatlarning iqtisodiyotini o'zaro muvofiqlashtirish va birlashtirish.

«Integratsiya» – differensiatsiya jarayonlaridagi fanlarning o'zaro yaqinlashuvi va bog'liqligida ko'rinadi. Integratsiya jarayoni fanlararo bog'liqlikning yuqori shaklida nomoyon bo'ladi.

Integratsiyalash – *lotincha «integer» - umumiylik, «integra» - umumiylikni tuldirish, yaratish, tiklash* demakdir. Ta'lim mazmunidagi uyg'unliklarni ta'minlash muammolari ham integratsiyalashning shug'ullanadigan sohasi hisoblanadi. U tushunchalarni umumlashtirishni o'rgatish. Ta'lim va tarbiyada esa bilimlar, tushunchalar, ko'nikmalar va malakalarni shakllantirishlarni umumlashtirib, qonun yoki qoida ko'rinishiga keltirishni amalga oshiradi.

Integratsiyalash tushunchasi muhim ilmiy termin bulib, u umumlashtirish, xulosalashlarda metodologik vosita bo'lib hisoblanadi, chunki uning yordamida jarayon va hodisalar mazmunlari orasidagi umumiy uyg'unlik algoritmlari yaratiladi. Pedagogik tadqiqotlarda tadqiqot ob'ekti va metodologiyasiga tegishli ma'lumotlar o'rtasidagi aloqadorliklarni o'rnatish (funktsional bog'lanishlarni) masalalarini hal etishda integratsiyalashdan foydalaniladi.

Tadqiqot ishlarni bajarishda va turli fanlardagi ta'lim mazmunlarini umumlashtirish va to'ldirishda integratsiyalash jarayoni doimo qo'l keladi va ko'zlangan maqsadga erishishni kafolatlashga yordam beradi.

Integratsion tizim - bu to'liq dunyoqarashga ega, o'zida bor bilimlarni mustaqil tizimlash qobiliyati va

turli xil muammolarni yechishda noan'anaviy yondashadigan to'liq ma'lumotga ega yosh insonni tarbiyalashga imkon beruvchi o'qitishning differentsiyasidir (turlanishidir).

• *O'qitish maqsadidagi integratsiya* - bu o'quvchini o'qitishni birinchi qadamlaridanoq olamni bir butunlikda va uni barcha elementlari o'zaro bog'liqligi haqida tasavvur berishdir.

• *Integratsiya* — an'anaviy ta'lim vositasi; oldin mavjud turlangan bilimlar kesishuvida bilmaganlarni to'ldirib olish, ular orasidagi mavjud aloqani o'rnatish; o'qitishda mavjud tor ixtisoslashuvni yangilash bilan o'quvchini bilim darajasini oshirish.

Ta'lim jarayonida integral yondoshuvni amalga oshirishga yordam beruvchi usul va vositalarga:

- ☐ Evristik suhbatlar;
- ☐ Umumiy suhbatlar;
- ☐ Ekskursiyalar;
- ☐ Ona tili, tabiatshunoslik darslarida kuzatishlar, badiiy asarlar materiallari asosida nutq o'stirish uchun yozilgan ijodiy ishlar;
- ☐ Ta'limning ko'rgazmali, metodlari;
- ☐ Mustaqil ishlar;
- ☐ O'qish, matematika darslarida og'zaki rasm chizish;
- ☐ Imo-ishorali ko'rinishlar (pantomimalar);
- ☐ Tabiatshunoslik darslarida tabiat tasvirlarini ifodali o'qish;
- ☐ Ona tili darslarida tabiatshunoslikka oid diktantlar, matnlar yozish (shu sinfga tegishli orfogrammalarni takrorlagan holda);
- ☐ O'lkashunoslik asosida matematik masalalarni hal qilish, yechish va boshqalar.

Integratsiyalashgan darslardan maqsad, o'zi ishlayotgan olam haqida narsa va hodisalar orasidagi bog'liqlik, o'zaro yordam, moddiy va madaniyatning turli-tumanligi haqida keng va eng asosiysi, insonning ichki (ma'naviy) va (ijtimoiy) dunyosi haqida, olamda hukm suruvchi qonunlar (tabiiy, ilmiy, tarixiy, axloqiy) haqida tushuncha berish. Asosiy urg'u faqat ma'lum bilimlarni egallashgagina emas, obrazli fikrlashni rivojlantirishga beriladi. Olamning umumiy ko'rinishini tovushlar, obrazlar, ranglar orqali tanishtiriladi, bola esa ham dunyosi ham o'zini o'rganuvchi, tekshiruvchi o'rniga qo'yadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, integratsion ta'lim maqsadi sifatida olam tizimining alohida qismlari bog'likligini ko'rsatuvchi bilimlarni berishi emas, bolani barcha elementlari bir-biriga bog'liq yaxlit olamni tasavvur qilishga birinchi qadamlarida o'rgatishi kerak. Bu maqsadni boshlang'ich maktab amalga oshirishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бахарева Л.Н. Интеграция учебных занятий в начальной школе на краеведческой основе. Начальная школа, 1991, 8, С. 48-51.
2. Мадвалиев А. Ўзбек тилининг изохли луғати. Тошкент. Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат миллий нашриёти. 2013, 216 б.
3. Рўзимуҳаммад Б. Буюк шахслар силсиласи. Маърифат. 2002. №26, 6 б.
4. Ғуломов А. Неъматов Ў. Она тили таълим мазмуни. –Т.: Ўқитувчи, 1995. -38 б.

Internet manbalari:

1. lex.uz
2. wikipedia.uz
3. google.uz
4. Ziyonet.uz

BOSHLANG'ICHDA ONA TILI DARSLARI “SINF ICHIDA SINF” SHAKLIDA DARS O'TISH

To'ychiboyeva Dilfuza Bosimovna

Guliston tumani 28-umumta'lim maktab boshlang'ich sinf o'qituvchi
tuychiboyevadilfuza28@gmail.com

Annotatsiya: Tayanch o'quv rejada ko'rsatigan boshlang'ich sinflarda o'tiladigan fanlar ichida haftalik ajratiladigan soatlarning eng ko'pi ona tili darsiga ajratilgan. Bu esa yosh avlodning savodli bo'lishida katta samara beradi.

Kalit so'zlar: odob, o'qituvchi, o'quvchi, tarbiya, erkin, ijodkor, mustaqil fikr, ta'lim, axloq.

Abstract: Among the subjects taught in the primary classes specified in the basic curriculum, most of the weekly hours are allocated to the mother tongue lesson. This has a great effect on the literacy of the young generation.

Key words: manners, teacher, student, education, free, creative, independent thought, education, morality.

Mustaqillikka erishganimizdan so'ng o'zbek tili ham boshqa mustaqil davlat tillari singari xalqaro nufuzga ega bo'ldi. Bu esa shubhasiz barchaning e'tiborini qaratar edi. "Davlat tili to'g'risidagi qonunning yangi loyihasi tayyorlana boshlandi. 1995-yil 21-dekabrda qonunning yangi tahriri tayyor bo'ldi. Unda ba'zi qoidalarga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritildi. Hozirgi globalashuv, texnologiya, axborot asrida hamma narsa doimiy yangilanish va o'zgarishga muhtojdir. Inqiloblar davri kechayotgan bir paytda, zamondan ortda qolmaslik uchun yugurish, kerak bo'lsa uchish talab qilinmoqda.

Dunyoning narigi chekkasidan bu chekkasiga qadar axborot, ma'lumotlar muayyan biror til vositasida almashinadi. Inson esa doimiy yangi va ishonchli axborotga tashnadir. Jahon bo'ylab kechayotgan bu jarayonlarni biz o'zimizning tilimiz orqali kuzatishimiz, bevosita xabardor bo'lishimiz chinakam baxtdir. Kelajak avlodning, yurtdoshlarimizning, umuman, butun jamiyatning bu baxtdan masrurligi bizni yana ham quvontiradi. Birinchi Prezidentimiz o'zlarining "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" asarida ta'kidlaganidek: "Ma'lumki, o'zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, ajdodlar orasidagi ruhiy-ma'naviy bog'liqlik til orqali namoyon bo'ladi. Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili bu millatning ruhidir!"

Boshlang'ich sinflarda soddalashtirilgan, bola ongi va tafakkuri, qiziqish hamda ruhiyatidan kelib chiqqan holda oddiylilikdan murakkablikka tomon mo'ljallangan darslik, o'quv qurollari, ta'lim shakli shakllantirilgan bo'lib, ilm olishga chanqoq o'quvchilar tashnaligini qondirishga qaratilgan. Avvalombor, ota-onalar bilimli, saviyasi yuqori, ma'naviyatli bo'lsa, farzandiga ham to'g'ri tarbiya bera oladi. Boshlang'ich tarbiyani uyda olib maktabga keladigan bo'lajak kadrlar uchun ta'lim va tarbiya o'zaro bog'liqlikda, uzluksiz holda olib boriladi. Zero, "Bolalikda olingan bilim, toshga o'yilgan naqsh kabi" maqoli bejizga emas. Bola ongiga kerak bo'lsa naqqoshlar kabi sinchkovlik bilan naqsh soluvchi hunarmand timsolida o'qituvchi o'zini ko'rib, ma'suliyat hamda uddaburonlik bilan to'g'ri yondashishi zarur. Avvalo, ularga ona tilimizni mukammal darajada o'rgatishimiz lozim. 1-sinflarda tashkil etiladigan ona tili darslari dastlab tayyorgarlik davri bilan boshlanadi. 1-sinfda ona tili fani tushunchasi savod o'rgatish davridan so'ng boshlanadi.

Ungacha o'quvchi harflarning yozma va og'zaki shakllari bilan tanishadi.

Bu davrda, asosan, ularda yozma nutq shakllantiriladi. Harflarni o'rganish jarayonida uning talaffuziga ham katta e'tibor beriladi. Umuman olganda, boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi quyidagi qismlarga bo'linadi:

1. Savod o'rgatish metodikasi.
2. O'qish metodikasi.
3. Grammatika va imlo metodikasi.
4. O'quvchilar nutqini o'stirish metodikasi.

Bir haftada 5 kun o'qish bo'lsa, shuning to'rt kuni ona tili sabog'isiz o'tmaydi. O'zbek tilini o'rgatish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan ayni bir paytda bu kabi ta'lim tizimidagi islohotlar suv va havodek zarurdir. "Temirni qizig'ida bos" deganlaridek, mustaqillikka erishganimizdan so'ng ta'lim tizimi, xususan, boshlang'ich ta'lim tizimiga juda katta e'tibor va o'zgartirishlar kiritildi.

Boshlang'ich sinfda o'tiladigan darslarda zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanilib kelinmoqda. Jumladan, 1-sinf savod o'rgatish davrida "Alifbe" hamda "Yozuv" darslari o'zaro parallel va ketma-ket olib borilishi va bu darslarda ko'rgazmali multimedia vositalaridan unumli foydalanish bola diqqatining beqarorlashuvini oldini oladi. So'zda ma'no o'zgartiruvchi tovushlarning harfiy ifodasi yozuv darslarida o'rgatilsa, uning og'zaki shakli esa "Alifbe" darsida o'qitiladi. Oqish va yozish bir paytning o'zida

o'zlashtiriladi. Ta'limdagi bu kabi qulayliklar ta'lim sifatiga ijobiy ta'sir qilishi shubhasiz, ammo uning sifatini pasaytiruvchi jihatlari ham yo'q emas.

Bilamizki, boshlang'ich ta'lim – ta'lim tizimining asosi hisoblanadi. Asosni mustahkam va ishonchli qo'ya olsak, kelajak imoratlarini, baland binolarini yaratishimiz mumkin. Puxta o'ylangan reja va metodlar yordamida bu maqsadga erishish anchayin osondir. Ammo shuni unutmaslik kerakki bu reja, metodlarni qo'llash uchun yaxshi tashkillashtirilgan butun bir jamoa zarurdir. Sinfidagi o'quvchilarni bir maqsad yo'lidagi jamoa sifatida shakllantrish esa bu jarayonning boshlang'ich nuqtasidir. Bolalar uchun jamoa shakli notanish bo'lmaydi, chunki ular bog'chada kichik guruhlariga bo'lingan holda tashkil etilgan tizimning qatnashchisi bo'lib ulgurgan hisoblanadi. Yana o'yin faoliyatida jamoa nimaligini anglab yetgan bo'lishadi.

Bu boshlang'ich sinf o'qituvchisi uchun biroz yengillik beradi. Ammo quvonishga hali erta, chunki bola uchun birvarakayiga notanish bo'lgan muhit, kamiga notanish jamoa. Xo'sh, nima qilish kerak?

Buning uchun o'qituvchi bola psixologiyasini mukammal bilimdoni hamda malaka egasi bo'lishi kerak (tajriba hali mavjud bo'lmagan hollarda). Shuningdek, o'zaro jamoaviy o'yinlar, umumiy savol-javoblar uyushtirilishi ham maqsadga muvofiqdir. Bunda tayyorgarlik davri ham juda muhimdir. Bolaga bu davrda maktab qoidalari, tartib intizomlari, o'quvchining burch – majburiyatlari haqida boshlang'ich tushunchalar beriladi. Yana "sinf", "sinfidosh", "sinfxona", "tanaffus" va boshqa so'zlar ma'nosi ham o'zlashtiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Umumiy o'rta ta'lim tizimi uchun DTS. Toshkent – 2017.
2. Ernazarov G'. "Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi". Toshkent-"Ilm Ziyo" – 2013.
3. Safarova R.G. va boshqalar. Boshlang'ich ta'lim konsepsiyasi. Toshkent-2014.

BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILIGA E'TIBOR

M.Sh.Xomidova, M.T.Kadirova

*Andijon viloyati Shahrixon tumani 4-maktab boshlang'ich ta'lim o'qituvchi,
Guliston tumani 28-umumta'lim maktab boshlang'ich ta'lim o'qituvchi,*

kadirovamanzura28@gmail.com

Annotatsiya: *Bo'lajak pedagog sifatida, amaliyot jarayonida boshlang'ich sinflarda shu jarayonni kuzatish imkoniyati tug'ildiki, bu menda yangi fikr hamda metod tug'ilishiga sababchi bo'ldi.*

Kalit so'zlar: *tarbiya, erkin, ijodkor, mustaqil fikr, ta'lim, axloq.*

Abstract: *As a future pedagogue, I had the opportunity to observe this process in primary classes during practice, which led to the birth of a new idea and method.*

Key words: *education, free, creative, independent thought, education, morality.*

Hozirgi vaqtda dunyoda 6000 ga yaqin til mavjud bo'lsada, ularning atigi 0.6-0.7 foizigina davlat tili maqomiga erishgan tillar hisoblanadi. Ular ichidan 40 taga yaqin tillar o'zaro og'zaki va yozma jihatdan mukammal shakllangandir. Quvonarlisi shundaki, mazkur 40 til ichida o'zbek tili ham bordir. Dunyodagi qadimiy, boy, tarix silsilalaridan xuddi xalqimiz kabi bardosh bilan o'tib kelayotgan o'zligimiz, g'ururimiz timsoli bo'lgan o'zbek tili xalqaro va davlat miqyosidagi til hisoblanadi. Bunga tamal toshi 1989-yil 21-oktabrda qo'yilgan, unda o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilishi bilan birgalikda, mamlakatimiz bo'ylab yuritiladigan barcha davlat hujjatlari, qaror va farmoyishlar, o'quv adabiyotlari, xullas, jamiyat tili, turmushi barchasida o'zligimiz aks etib boshlagandi.

Ruhsiz tanada jon bo'lishining foydasi bo'lmaganidek, millat bo'la turib uning milliy tili bo'lmasa, xuddi quldek tobe bo'ladi. O'zbek tilining keng tarqalishi va ravnaqi uchun, albatta, ko'p sonli aholi zarur. Til jamiyatda o'zaro aloqa almashinuv quroli, ilm olishda asosiy vositadir. Insonni til o'rganmaslikka majbur qilish oxiri uning jamiyatdan uzilib, individ shaklida qolib ketishi bilan yakunlanadi. Biz esa oldimizga mustaqil fikrga ega bo'lgan, jahonda o'z so'zini baralla ayta oladigan, ham ruhan, ham jismonan sog'lom kelajak yaratish yo'liga tushib olganmiz. Allani uyda onalarimiz, momolarimiz aytib o'tiraversinlar, jamiyatdagi "allani" esa yosh avlodga aytish millatning taqdirini hal qiluvchi pedagoglar zimmasidadir. Ular bolani uxlatish uchun emas, balkim, onigini dunyo bilan tanishtirish, mustaqil fikrlash malakasiga ega bo'lishi uchun, olamni anglashi uchun uyqudagi aql-tafakkurni g'afolatdan halos qilish uchun aytishlari shart!

Ya'ni, amaliyot jarayonida shu narsa e'tiborimni tortdiki, aksariyat maktablarda 1-sinfga qabul

qilinadigan o'quvchilar sonining ko'pligi bo'ldi. Dars jarayonida o'qituvchi diqqat beqarorligiga ega bo'lgan o'quvchini shuncha tengdoshlari orasidan ilg'ashi qiyin, bu esa ko'proq barcha o'quvchilar bilan birgalikda shug'ullanishiga sabab bo'ladi. Uyga vazifalarni tekshirishda mashqlar javobi og'zaki o'qib qo'yiladi.

O'zlashtirishi va diqqati sust bo'lgan o'quvchilarga esa vaqt yetishmovchiligi to'siq bo'ladi. Mashhur chex pedagogi Yan Komenskiy sinfda o'quvchilar soni 20-22 tadan oshmasligini ta'kidlaydi. Bu sonlardan oshib ketdimi ta'lim sifatiga va bola bilimiga salbiy ta'sir ko'rsatishi haqida to'xtalib o'tadi. Bu fikrlar barcha fanlar uchun o'rinli emasdir, lekin ona tili darslari uchun muhimdir. Aksariyat davlatlarda boshlang'ich ta'lim tizimida kichik guruhlar asosida bo'lib o'qitishga o'tilgan. Buni men barcha o'zlashtirilishi kerak bo'lgan fanlar uchun o'rinli deyolmayman. Ammo boshlang'ich sinflarda ona tili o'rgatish darslari uchun bu usul juda ham kerakdir. Kuzatishlarim davomida, savod o'rgatish jarayonida umumiy jamoa bo'lib, butun bir sinf shaklida darslarni tashkil etish yaxshi, lekin 1- sinfning 2-yarmidan ona tili darslari boshlanishini inobatga olsak, sinf ichida sinf tashkil etish juda yaxshi hisoblanadi. Buning uchun o'quvchilarning o'zlashtirish darajalaridan xabardor bo'lgan holda, aralash tarzda ikkiga yoki uchga bo'lish kerak. Shunda o'zimdagi va boshqalarda quyidagi savollar tug'ilishi tabiiy:

✓ Xo'sh, bu sinflarda o'qitish qanday tashkillashtiriladi?

✓ Dars shakli qanday bo'ladi?

✓ Ta'lim beruvchi o'qituvchi ikkala sinfga ham o'zi dars beradimi?

✓ Ikki o'qituvchi o'qitishida farqlar kuzatilsa nima bo'ladi?

✓ Bu boshqa fanlarga ta'sirini o'tkazmaydimi?

✓ Ta'limning bu shakliga bag'ishlangan alohida metod va usullar bormi?

Bunda ona tili darslari ikkala guruhga ham bir vaqtning o'zida tashkil etiladi. Dars shakli o'quvchilar uchun tanish bo'lgan hamda o'qituvchi olib boradigan shakllarda bo'lgani ma'qul (boshida, albatta). Endi ta'lim beruvchilarga to'xtalsak, bunda assistent o'qituvchining bo'lishi juda ahamiyatlidir. Bo'lmagan taqdirda boshqa boshlang'ich sinf o'qituvchilarining jalb qilinishi maqsadga muvofiqdir. Bu boshqa fanlar o'zlashtirilishiga salbiy ta'sir bermasligi kerak, chunki bola notanish bo'lgan jarayon va narsalarga doimiy qiziqish bilan qaraydi. Darslardagi bu kabi rang-barangliklar ularning qiziqishlarini yanada oshishiga sabab bo'ladi. Masalan, sinfda o'quvchi soni 32 ta bo'lsa, ularni asosan shu paytgacha shakllangan sinf ro'yxati asosida taqsimlagan ma'qul. 16 tadan o'quvchi

shaklidagi sinf o'qituvchi uchun biroz yengillik beradi. Ular bilan shug'ullanishi uchun vaqtni to'g'ri taqsimlash imkoniyatiga ham ega bo'ladi. E'tibor ortganidan xursand bo'lgan o'quvchilar o'zlashtirishi esa sezilarli darajada ortishi tabiiy. Chunki ularning uyga vazifa va topshiriqlarni bajarishlari muntazam nazorat ostida bo'ladi. Har bir bo'lim yuzasidan takrorlash va mustahkamlash darslarida esa sinfni yana birlashtirgan ma'qul, chunki bunda kamchiliklar, tuzatilishi kerak bo'lgan xatolar yaqqol ko'zga tashlanadi.

Ikki o'qituvchi o'qitishidagi farqlar ham ko'rinib qoladi. Bunda o'qituvchilarning malakasi teng bo'lishi farqlarni yoqqa chiqaradi. Umumiy tashkil etilgan darslarda o'zaro fikrlar almashiniladi. Bu usul boshqa fanlarga ham ijobiy natijasini beradi deb o'ylayman, sababi o'zlashtirishi past bo'lgan o'quvchilar ham boshqa fanlarni o'rganishga qiziqishi paydo bo'ladi yoki ortadi. Albatta, bunda o'zgacha va yangi metodlardan foydalanish kerak. Masalan, 1- sinfning ona tili darsligi "Tovushlar va harflar" mavzusi bilan boshlanadi. Bunda 1-mashq audio yozuvdan eshitib tinglanadigan mashq hisoblanadi:

So'zlarni o'qing. Qaysi tovush so'z ma'nosini o'zgartiryapti?

Aka – uka, ota – ona – opa, bola – xola, buva – buvi

Bunda tarqatma materiallardan foydalanish kerak. O'qituvchi mashq ichidagi so'zlarni eshittirgandan so'ng, ularning yozma shakllari yozilgan qog'ozlarni 16ta (sinfidagi o'quvchilar soniga qarab) o'quvchiga tarqatib beradi:

O'quvchilar yuqoridagi tarqatma materiallar ichidan o'zaro o'xshash so'zlarni

topib, ularni tahlil qilishlari kerak (kamsonli o'quvchidan tashkil topgan guruhlarda qo'shimcha ravishda quyidagi savollarga ham o'quvchilar tomonidan javob beriladi).

➤ So'z nechta harf yoki tovushdan iborat?

- Soʻz maʼnosini oʻzgartirayotgan tovush qaysi tovush?
- Harflar nega ikki xil rangda?
- Soʻzlar nechta boʻgʻindan iborat?

Dam olish daqiqasiga esa quyidagi oʻyin yaxshi samara berib, oʻquvchini diqqatini jamlaydi: Oʻqituvchi sekin borib biron oʻquvchiga kam boʻgʻinli soʻz (echki, ikki, ukki kabilar)ni pichirlab qulogʻiga aytadi. Oʻquvchi esa eshitgan soʻzini yonidagi oʻquvchiga sekin aytadi. U esa boshqasiga. Shunday qilib oʻquvchilar tilida aylangan bu soʻz oʻqituvchining oʻziga qaytib keladi, u esa bu soʻzning oʻzi aytgan soʻz bilan toʻgʻri kelish – kelmasligini aytadi. Soʻz oʻzgargan boʻlsa, toʻgʻirlanadi, aksincha boʻlsa oʻquvchilar ragʻbatlantiriladi. Bundan tarbiya quroli sifatida ham foydalansa boʻladi. Masalan, “Oʻquvchilar, koʻrdingizmi? Sinf doshingizning arziyas xatosini deb toʻgʻri soʻz boshqa soʻzga aylanib ketdi. Maʼnosi va shakli ham oʻzgardi. Quloqdan quloqqa, ogʻizdan ogʻizga oʻtuvchi soʻzlar ham shunday oʻzgarishga uchraydi.

Shuning uchun, bolajonlar, har bir soʻz, voqeani oʻzimiz koʻzimiz, qulogʻimiz bilan eshitganimiz afzal” kabi. Yuqoridagi metodlar oʻquvchi eshitish qobiliyatini, shuningdek, zihnini ham oʻtkir qiladi. Eshitilishi bilan yozilishidagi farqli soʻzlar haqida ham tasavvurga ega boʻlishadi. Bu esa bolalarda toʻgʻri tasavvurni shakllantiradi. Ular keyinchalik har bir soʻz maʼlum bir tovushlardan iborat ekanliklarini fahmlay boshlaydilar.

Xullas, kamsonli kichik guruhlariga boʻlingan sinflarda bu kabi metodlarni qoʻllash juda yaxshi foyda beradi. Sifatli va puxta oʻylangan taʼlim esa isteʼdodli oʻquvchilarni yuzaga chiqarib beradi. Mahoratli pedagog butun bir millat taqdiri qoʻlida turganligini his qilib, oʻz vazifasiga maʼsuliyat bilan yondashishi shart. Zero, boshlangʻich taʼlimsiz taʼlimning keyingi bosqichlariga oʻtib boʻlmaydi. Asos qancha mustahkam va puxta oʻylanib yaratilsa, ishonch hamda umid shuncha yuqori boʻladi.

ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. Qosimova K., Matchonov S., Gʻulomova X. va boshqalar. “Ona tili oʻqitish metodikasi”. Toshkent – 2009.
2. Gʻafforova T., Shodmonov E., Gʻulomova X. “1-sinf oʻquvchilari uchun ona tili darsligi”. Toshkent – 2019 “Sharq” nashriyoti.

YOSH AVLODNI OʻZBEK XALQ MILLIY OʻYINLAR ORQALI TARBIYALASH – HOZIRGI DAVRIMIZNING ENG MUHIM VAZIFASI

*Mamatqobilov Faxriddin Xolboy oʻgʻli, Axilbekov Dilshod Murat oʻgʻli
Sirdaryo viloyati, Guliston shahar 2-sonli matematika faniga ixtisoslashtirilgan umumtaʼlim
maktabi jismoniy tarbiya fani oʻqituvchilari*

Annotatsiya: Ushbu mafolada oʻyin bola tarbiyasining muhim vositasi, milliy oʻyinlar bolalarning kuch va qobiliyatlarini oʻstirishda muhim omil ekanligi. Milliy oʻyinlar orqali bolaning nutqi, aqliy qobiliyati rivojlanish tamoyillari ochib berilgan. Jismonan epchil va baquvvat boʻlib oʻsishi taʼminlanadi.

Kalit soʻzi: urf-odat, lider, milliy qadriyat, milliy ruh, motorika, xurjun, xalq ogʻzaki ijodi, aqliy qobiliyat, estetik did, festival, tarbiya vosita.

Milliy xalq oʻyinlar bolalarni iymonli, eʼtiqodli, aqliy barkamol, sogʻlom qilib tarbiyalashda yordam beradi. Milliy xalq oʻyinlari bolalarning estetik didini oshiradi, odobli, axloqli qilib tarbiyalaydi. Ularning til boyligini, eslash qobiliyatini, ongini rivojlantiradi. Bolalar chek tanlash, sanash, qoʻshiq, sheʼr aytish orqali chaqqon va ziyrak boʻlib oʻsadi.

Milliy xalq oʻyinlari qadim-qadim zamonlardan boshlab, xalq marosimlarida, rasm- rusmlarida va urf-odatlarida mustaqil bir soha sifatida musobaqalarda, baxshilarda keng qoʻllangan. Jismoniy tarbiya xalqning urf-odatlarida, udum va rasm-rusumlarida shakllanib, ming yillar davomida rivojlanib, tokomillashib kelgan. Milliy xalq oʻyinlari ming yillar davomida bizgacha yetib kelgan — Otd chopish, — Qiz quvlash, — Uloq, — Kamonda otish, — Xoʻroz jangi, — Besh tosh, — Sapalak, — Jambalak xola, — Kurash, — Kim tez oʻraydi, — Chillak kabi va boshqa oʻyinlar orqali botirlik, epchillik, muvozanatni saqlash sifatlarini rivojlantirishda, hamda qaddi-qomatni shakllantirish, axloq-odob, ong, xotira, diqqat kabi xislatlarni sayqal toptirishda va

albbatda sog'liqni mustahkamlashda eng samarali vosita bo'lib kelgan.

Jumladan, o'zbek milliy o'yinlari barcha elatlar kabi musiqa, kulolchilik, gilam to'qish asboblari, ashula va raqs va boshqalar insoniyat tarixining turli ijtimoiy - iqtisodiy bosqichlarida ixtiro qilingan va shakillanib kelgan.

Milliy o'yinlarning o'ziga xos urf-odatlaridan, turmush sharoitlaridan, yashash iqlimi, tarixi obidalar, atrof-muhit sharoitidan kelib chiqqan bo'lib, shularga yarasha jinsiga, yoshiga, salomatligiga ko'ra qo'llangan.

Ma'lumki, milliy o'yinlari o'z ichiga xarakter jihatidan xar xil jismoniy sifatlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan o'yinlarni qamrab olgan. Shu bois milliy xalq o'yinlardan:

—Kurash – bu o'zbek xalqining Surxon voxasining qadimgi sport turlaridan biri xisoblanadi. Bu o'yin boladan epchillik va chaqqonlik hamda bardoshlilikni talab etiladi. Kurash bu, mard, paxlovon, epchil ikki yigit o'rtasida o'tkaziladigan olishuv, kuch sinashishdir.

O'g'il bolalarning xarakteriga qarab ularga bakavul tomonidan —Chala, g'irrom, halol, dakki kabi baholar berib boriladi.

O'yin jarayonidagi erishilgan natija

1. Jismoniy: Epchillikka, chaqqonlikka intiladi, chidamlilikka o'rgatadi.

2-Ijtimoiy ruxiy: Bardoshlilikka, irodaviylilikka, yetakchi bo'lishga intiladi.

3-Ma'naviy: Milliy qadriyatlarimizni xurmat qilishga, mardlikka o'rgatiladi.

—Besh tosh

O'yinning maqsadi - bolalarning o'ylash, fikrlash, so'zlashish qobiliyatlarini rivojlantirish. Qo'l va barmoqlarni chaqqon xarakterlantirishga o'rgatish.

O'yin uchun kerakli jixozlar: Mayda toshlar, xurjun.

O'yinning borishi - ikki yoki undan ortiq bolalar qo'llariga xurjunlaridan beshtadan tosh olishadi. Toshlarini ikkita qo'llari ustiga qo'yib, mo'jallangan doira ichiga toshlarni tashlaydilar. Doira ichidagi 1 ta toshni yuqoriga uloqtirib, qolgan doiradagi toshlarni navbat bilan yerni yelab qo'lga olib oladi.

Har bir yaloma qilib olingan toshni xurjunga solinadi - o'yin jarayonida tepaga otilgan tosh tushurib yuborilsa, yoki olib ololmasa o'yin to'xtatiladi. O'yin so'ngida xurjundan toshlar sanaladi. Kimda tosh ko'p bo'lsa, g'olib deb topiladi.

O'yin jarayonidagi erishilgan natija.

1-Jismoniy: choqqonlikka, epchilikka, olib olish malakasi mustahkamlanadi. Qo'l va barmoqlar motorikasi rivojlanadi, mo'jalga olish malakasi shakllanadi.

2-Ijtimoiy ruxiy: diqqatiga jamlanadi, taffakuri charxlanadi. (sengivinik bolalarda qo'llansa natija beradi).

3-Ma'naviy: bolalarda milliy ruhni shakllantirish, milliy qadriyatlarimizni mustahkamlash.

— Sapalak

O'yinning maqsadi - bolalarni chaqqon, epchil bo'lishga o'rgatish, ularning jismoniy rivojlanishini oshirish. Muvozanatni saqlagan xolda mo'ljalga olish malakalarini shakllantirish. Son-sanoq to'g'risidagi bilimlarini mustahkamlash.

O'yin uchun kerakli jixozlar: (katakalar chizilgan va raqamlangan tekis maydon, diagonal 6-8sm kattalikdagi silliq, yapaloq sopalak tosh).

O'yinning borishi - o'yinda 2 yoki undan ortiq o'quvchilar ishtirok etishi mumkin. O'yin oldidan raqamlangan kataklar chizib qo'yiladi. (1-5 sonigacha)

Birinchi o'yinchi 1-raqamli katakdan boshlab sapalak toshni mo'ljallab bir oyoqlab keyingikkinchi katakka tepib o'tqazadi va o'zi xam sakrab o'tadi. Shu tarzda 5-chi katakgacha boradi. O'yin jarayonida tosh chiziqdan chiqib ketsa, yoki chiziqni bosib qolsa, o'sha o'yinchi o'yindan chiqib ketadi.

O'yin jarayonidagi erishilgan natija:

1-Jismoniy: muvozanatni saqlash, bir oyoqlab sakrash rivojlantirish, mo'jallga olish, muvozanat sifatini rivojlantirish, son-sanoqlarning farqlashga o'rgatish.

2-Ijtimoiy ruxiy: irodaviylik va sabr toqat charxlanadi.

3- Ma'naviy: avlodlar o'rtasida o'tib kelayotgan milliy xalq o'yinlaridagi milliylikni his qilish, bir-birga do'stona munosabatlarining rivojlantirish.

Shunday qilib, yosh avlodni xar tomonlama kamol topgan, yetuk, jismoniy sog'lom, baquvvat qilib tarbiyalash hozirgi davrimizning eng muhim vazifalaridan biridir. Shunday ekan kelajagimiz bo'lmish bolaning ilk yoshlik chog'idan boshlab ularning o'sishi va tarbiyasi bilan jiddiy shug'unlanish ta'lim-tarbiya usuli va vositalaridan unumli foydalanish joizdir.

Tarbiya vositalari haqida gapirar ekanmiz, bolalar uchun eng sevimli va quvonchli vosita bo'lgan o'yinning o'rni beqiyosdir.

Milliy o'yinlar bolalarning kuch va qobiliyatlarini o'stiradi, ularni xayotga tayyorlaydi. Xalq og'zaki ijodining boshqa janrlari kabi milliy xarakatli o'yinlar xam uzoq tarix osha bizgacha yetib kelgan. Milliy o'yinlar orqali bolaning nutqi o'sadi, aqliy qobliyat rivojlanadi. Jismonan ephchil va baquvvat bo'lib o'sishi ta'minladi.

Milliy va xarakatli o'yinlar bolalarni iymonli, e'tiqodli, aqliy barkamol, sog'lom qilib tarbiyalashda yordam beradi. Milliy o'yinlarni xalq yaratgan, shuning uchun ular asrlar osha yashayveradi. Xalq o'yinlari bolalarning estetik didini oshiradi, odobli, axloqli qilib tarbiyalaydi. Ularning til boyligini eslash qobliyatini, ongini rivojlantiradi. Bolalar chek tanlash, sanash, qo'shiq, she'r aytish orqali chaqqon va ziyrak bo'lib o'sadi.

O'zbek xalqi xayotida kurash, uloq kabi xalqaro darajaga chiqadigan o'yinlar kam emas. Ularni chuqurroq o'rganishimiz va targ'ib qilishimiz zurur. Bu borada xalq o'yinlarining ko'plab turlariga bag'ishlangan festival, bayramlar o'tkazish bilan bir qatorda umumta'lim maktablarida ta'lim tashkilotlarida bolalarga milliy qadriyatlarimizni o'rgatib borishimiz lozim. Shunungdek, O'zbek milliy xalq o'yinlarini sport amalyotida qo'llash imkoniyati ham mavjud.

Bugungi axborot asrida bolalarning qo'l telefonlariga mukkasidan ketishini oldini olishda ham milliy harakatli o'yinlarimizning o'rni beqiyosdir. Ma'lumki, o'sib kelayotgan bolalarning tarbiyasi uchun, bolalarning sport bilan muntazam shug'ullantirishga jalb qilish zarur.

Milliy xarakatli o'yinlari bilan o'quvchilarimizni jismoniy tarbiya darslarida tanishtirib boorish va bu harakatli o'yinlardan dars jarayonida foydalanish, o'quvchilarni bu o'yinlarga qiziqishini oshirish bilan birgalikda hamkorlikda ishlashga, ularni bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish, jismonan sog'lom bo'lib o'sishida katta ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari bolalarda katta qiziqish uyg'otadi, ularni kayfiyati va boshqa ruhiy sifatlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu xolatlar esa organizmda charchash asoratlarni ertaroq vujudga kelishiga yo'l qo'ymaydi, zo'riqish xolatlarini oldini oladi.

Adabiyotlar ro'yhati:

1. Ishmuxamedov R.J., Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar.T.: —Нихол nashriyoti, 2016 y.
2. Qodirova F.R. va boshq. Maktabdaa pedagogika., Toshkent, —Ma'naviyat, 2013y. (O'quv qo'llanma).

MUNDARIJA

1-Sho'ba. DIGITAL TECHNOLOGIES IN IMPROVING THE QUALITY AND EFFECTIVENESS OF EDUCATION (Ta'lim sifat va samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalar)	5
ТЕОРИИ РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ ИННОВАЦИОННОГО ПОДХОДА THEORIES OF STUDENTS' CREATIVE THINKING DEVELOPMENT BASED ON INNOVATIVE APPROACH Muksin Tadjievich Xodjiyev, Baxtiyor Raximov Xudaeberdiyevich, Zokir Mamirovich Zikriyev	5
ТАЪЛИМДА РАҚАМЛИ САВОДХОНЛИК ДАРАЖАСИНИ БАҲОЛАШ С.С.Жуманазаров, Н.М.Халикова	7
APPLICATION OF MODERN PEDAGOGICAL AND INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN EDUCATION Dr. Rajappa. B., Dr. Raman Gopal., Prof. Lakshmanan Gopal.,	9
CONTEMPORARY APPROACHES TO EDUCATION Dr. Reddappa Naidu, Dr. Rajappa. B	13
EXPLORE INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN MODERN EDUCATION Prof. Lakshmanan., Dr. Raman Gopal	16
INNOVATION IN EDUCATION Dr. Snehalatha. M., Prof. Parthasarathy Murugesan	20
THE CHALLENGES OF MODERN EDUCATION Prof. Parthasarathy Murugesan, Prof. Dhanashree	22
МАСОФАВИЙ ТАЪЛИМНИ ТАШКИЛ ЭТИШНИНГ САМАРАЛИ МЕХАНИЗМЛАРИ К.А.Каримов.....	25
ANIQ VA TABIIY FANLARNI O'QITISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH USTUVOR OMIL SIFATIDA Masharipov Madiyor Palvannazirovich	27
ҚИСКА МУДДАТЛИ КУРСЛАР ОРҚАЛИ ЎҚИТУВЧИЛАРДА РАҚМЛИ САВОДХОНЛИКНИ ШАКЛЛАНТИРИШ МАСАЛАЛАРИ Daminov Otabek Abdualimovich, Жуманазаров Сирожиддин Салайдинович	30
KOMPYUTER GRAFIKASINING AXBOROTLASHGAN JAMIYATDAGI AHAMIYATI D.B.Abduraximov, T.Q.Nosirov, F.S.Alimov	31
ТАЪЛИМ МУҲИТИДА РАҚАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИ ТРАСФОРМАЦИЯЛАШ Мирзаев Акрамжон Ўктамжонович	33
PROFESSIONAL TIZIMINING INNOVATION TA'LIM TEXNOLOGIYALARI O. Burxiyev.....	34
TA'LIM OLISH SHAKILLARI VA MASAFAYIY TA'LIM Mardonqulov Jasur Amirddinovich	37
TA'LIM JARAYONIDA KORPORATIV TARMOQ TEXNOLOGIYALARINING O'RNI Taniberdiev Akbarjon Abduganievich,	39
TA'LIM SIFAT VA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O'RNI Norbekov Doston Keldibekovich.....	40
BULUTLI XIZMATLAR VAULARDAN TA'LIM JARAYONIDA FOYDALANISH IMKONIYATLARI Avazov Tohir Shakarovich.....	42
ЭЛЕКТРОН ЎҚИТИШ ЖАРАЁНИДА ЎҚУВ – МЕТОДИК ТАЪМИНОТНИ ЯРАТИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ Давронова Шахло Фармоновна	44
INFORMATIKADAN ELEKTRON AXBOROT-TA'LIM RESURSLARI MUHITINI YARATISH VA ULARDAN TA'LIMDA FOYDALANISH METODIKASI M. K. Ibragimova, K. A. Choriyev	46
ZAMONAVIY MAKTABDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR Xaydarov Anvar Djurayevich	48
VIRTUAL VOSITALARDAN FOYDALANGAN HOLDA AMALIY MASHG'ULOTLARNI TASHKIL ETISH USULLARI Rizayeva Ma'mura Ismoilovna.....	51
ADVANTAGES AND DISADVANTAGES OF USING INFORMATION TECHNOLOGIES IN CLASS Rakhmonova Barno Shagdarovna	53

БЎЛАЖАК МУҲАНДИСЛАРНИ КАСБИЙ ФАОЛИЯТГА ТАЙЁРЛАШГА ҚАРАТИЛГАН ДАСТУРИЙ ВОСИТАЛАРНИНГ ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИГА ТАДБИҚИ ВА МЕТОДИКАСИ <i>Санақулов Фурқат</i>	55
FANINI O‘QITISHDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARINING O‘RNI <i>Davletov Asqarali Aslanovich</i>	58
INTERNET RESOURCES AS A LEARNING TOOL <i>Imomova Nilufar Abditolibovna</i>	60
TA’LIM TIZIMI AXBOROT-KUTUBXONA MUASSASALARIDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISHNING O‘ZIGA XOSLIGI <i>Инсапов Исмоил Туйчиалиевич</i>	61
PYTHON DASTURLASH TILINING KELIB CHIQISH TARIXI VA SINTAKSISI <i>Avazov Tohir Shakarovich</i>	63
PYTHON DASTURLASH TILIDA STANDART KUTUBXONA MODULLARI <i>Nizamov Akmal Shaxobiddinovich, Mavlyanov Mo‘minjon Akramovich, F.X. Eshmonova</i>	64
AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH <i>Irgasheva Ch. A.</i>	67
TA’LIM JARAYONIDA MASOFAVIY TA’LIMNING O‘RNI <i>Juraqulova Muqaddas Rabbimovna, Abdulazova Mavjuda Ibrohimovna</i>	69
MASOFIY MALAKA OSHIRISH TA’LIMINI TASHKILY SHAKLLARI VA AFZALLIKKARI <i>Nasiba Yunusmetova, Pulatova Shoir</i>	70
HOZIRGI VAQTDA MASOFALI O‘QITISHDA O‘QUV-USLUBIY VOSITALARDAN FOYDALANISH <i>Musurmankulov Qilichbek O‘rolovich, Mirzajonova Shaxnoza</i>	73
TA’LIM AXBOROT MAKONIDA QAROR QABUL QILISH PSIXOLOGIYASI <i>Irgasheva Ch. A.</i> ..	74
TA’LIM JARAYONIDA MEDIYA SAVODXONLIKNING AHAMIYATI <i>Zarifa Normatova, Maftuna Esanova</i>	76
BIOLOGIYA FANINI O‘QITISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYUDALANISHNING NAZARIY ASOSLARI <i>Samatova Nigora Abduvaxobovna</i>	77
SCIENTIFIC, THEORETICAL AND METHODOLOGICAL BASES OF INFORMATION COMPETENCE DEVELOPMENT APPROACH TO TEACHERS OF GENERAL SECONDARY EDUCATION TECHNOLOGY <i>Muattar Kadiraliyeva</i>	79
TA’LIM SIFATINI TA’MINLASHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING IMKONIYATLARI <i>Allamuratova Amina Zariybaevna</i>	81
2-Sho‘ba. MODERN APPROACHES AND INNOVATIONS IN EDUCATION (Ta’lim sohasida zamonaviy yondashuvlar va innovasiyalar)	83
TA’LIM JARAYONIDA KREATIVLIKNI RIVOJLANTIRISH USULLARI <i>Himmataliyev Do‘stnazar Omonovich, Itolmazova Gulzoda Qurbongeldiyevna</i>	83
УМУМТАЪЛИМ МАКТАБЛАРИ ЎҚУВЧИЛАРИНИ ЎҚИТИШНИНГ КРЕАТИВ МЕТОДЛАРИ <i>Химматалиев Дўстназар Омонович, Абдиева Ўзоза, Тиловердиев Шохрух Музаффар ўғли</i>	85
“ИЛК ҚАДАМ” ДАВЛАТ ЎҚУВ ДАСТУРИ АСОСИДА РИВОЖЛАНИШ МАРКАЗЛАР ХАМДА “STEAM ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯСИ”НИНГ ИНТЕГРАЦИЯСИ <i>Ф.Р.Кадирова, Ю.Р.Махмутазинова</i>	87
“ИЛК ҚАДАМ” ДАВЛАТ ЎҚУВ ДАСТУРИГА МУВОФИҚ РИВОЖЛАНИШ МАРКАЗЛАРИДА ШАХСГА ЙЎНАЛТИРИЛГАН ЁНДАШУВ АСОСИДА ТАЪЛИМИЙ ЖАРАЁННИ ТАШКИЛ ЭТИШ <i>Ф.Р.Кадирова, М.З.Файзуллаева</i>	90
“ИЛК ҚАДАМ” ДАВЛАТ ЎҚУВ ДАСТУРИГА МУВОФИҚ РИВОЖЛАНИШ МАРКАЗЛАР ИНТЕГРАЦИЯСИ АСОСИДА БОЛАЛАРНИ КИТОБХОНЛИККА ТАЙЁРЛАШ <i>Ф.Р.Кадирова, Д.М.Махмудова</i>	92
ТАЪЛИМ ТИЗИМИ СИФАТ БОШҚАРУВИ ЖАРАЁНИ ШАКЛЛАНИШИ ВА РИВОЖЛАНИШИНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ <i>Халмонов Умид Очилович</i>	95
ПОДХОДЫ, ОСНОВАННЫЕ НА КОНСТРУКТИВИСТСКИХ ТЕОРИЯХ <i>Усманова Рахима</i>	97

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ СОВРЕМЕННЫХ МЕТОДОВ ОБУЧЕНИЯ В РАБОТЕ ПЕДАГОГОВ-НОВАТОРОВ <i>Нишанов Шавкат Турабович</i>	100
UMUMTA'LIM MAKTAB O'QUVCHILARINI TADBIRKORLIK KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING XORIY TAJRIBASI <i>Mansurov Muzaffarjon</i>	101
TA'LIM TURLARI O'RTASIDA UZLUKSIZLIK VA UZVIYLIKNI TA'MINLASH – SIFATLI TA'LIM GAROVI <i>S. S. Raximova</i>	103
УСЛОВИЯ ВНЕДРЕНИЯ ИННОВАЦИЙ В УПРАВЛЕНЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ РУКОВОДИТЕЛЯ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО УЧРЕЖДЕНИЯ <i>Темиров Анвар Амирович</i>	104
УМУМТАЪЛИМ МАКТАБ ЎҚУВЧИЛАРИДА ЎЗАРО ҲАМКОРЛИҚДА ТАДБИРКОРЛИК КЎНИКМАЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ <i>Химматалиев Дўстназар Омонович, Исакова Нозина Шердоровна, Искандарова Гулрух Пирмаматовна</i>	108
MUAMMOLI TA'LIM –FIZIKA O'QITISHDA INNOVATSION YONDOSHUV SIFATIDA <i>G.S. Uzoqova, S.Allanazarova</i>	111
INSONPARVARLIK PEDAGOGIKASI – ZAMONAVIY TA'LIM SOHASIDAGI USTUVOR YONDOSHUV <i>G.S. Uzoqova, M.Остонова</i>	113
АГЕБРА ДАРСЛАРИНИ КОМПЕТЕНСИЯВИЙ YONDOSHUV ASOSIDA TASHKIL QILISH USULLARI <i>O. Berdiyeva., Nazarova Gulsina, Raxmatova Feruza</i>	115
2-SINF MATEMATIKA FANINI MILLIY O'QUV DASTURI ASOSIDA O'QITISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI <i>Atayeva Baxrinisa Abduvaxidovna</i>	117
DARSLARNI INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TASHKIL ETISH <i>Azizova Dilnoz Yo'ldashevna,</i>	119
BOSHLANG'ICH SINFLARDA BADIY ASARNI TAHLIL QILISH KOMPETENTSIYASINI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI <i>Urimbayeva Vasila Begimqulovna</i>	120
ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA INTERFAOL METODLARNI QO'LLASH ASOSIDA DARS SAMARADORLIGINI OSHIRISH <i>Madraximova Dilafruz Abdujabborovna</i>	122
TA'LIM TIZIMIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN DARS JARAYONIDA FOYDALANISH <i>Ximmataliyev Do'stnazar Omonovich, Serikbayeva Aqmaral Xusanovna</i>	123
BOSHLANG'ICH SINFLARDA MILLIY O'QUV DASTURI ASOSIDA TABIIY FANLARNI O'QITISHNING MAQSAD VA VAZIFALARI <i>Bobobekova O'ringul, Eshbo'tayeva Gulnora</i>	126
BOSHLANG'ICH SINFLARDA MILLIY O'QUV DASTURI ASOSIDA STEAM TEXNOLOGIYASNI JORIY ETISH MASALASI <i>Xidirova Saodat Sattarovna</i>	127
HAMKORLIK TEXNOLOGIYASI - TALABALARGA YO'NALTIRILGAN TA'LIMNING SAMARALI USULLARIDAN BIRI <i>Muratkulov O.</i>	129
BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QUVCHILARINING KITOBXONLIKKA OID IJODIY QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISH <i>Kulaxmedova Mavluda</i>	131
BIOLOGIYA FANINI O'QITISHDA XORIJIY TAJRIBALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI <i>Sidiqova Mahfuza Aliqulovna</i>	132
TABIIY FANLAR DARSLARIDA TAJRIBALAR O'TKAZISH ASOSIDA KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH <i>Ortikova Maxpiratxon Abduxamitovna</i>	134
НОВЫЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ТЕХНОЛОГИИ В ПРЕПОДАВАНИИ РУССКОГО ЯЗЫКА <i>Рахманова Севинч</i>	135
STEAM TEXNOLOGIYASINI "IJODIY MEHNAT" METODI ASOSIDA AMALGA OSHIRISH IMKONIYATLARI <i>Mo'minova Barno Maxmudovna</i>	137
BOSHLANG'ICH TA'LIMGA MILLIY O'QUV DASTURINING JORIY QILINISHINING O'ZIGA XOS AHAMIYATI <i>Xayitboyeva Barno</i>	139
MILLIY O'QUV DASTURI ASOSIDA 1-SINFDA MATEMATIKA FANINI O'QITISHNING	

O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI <i>Abdullayeva Nazira Fayzullayevna</i>	140
DARS JARAYONIDA INTERFAOL METODLARNING AFZALLIKLARI <i>Zokirova Shaxlo, Saipova Ziyoda</i>	142
ONA TILI DARSLARIDA TA'LIMY O'YINLARDAN FOYDALANISH <i>Rasulova Dilbar Raimkulovna, Xalimova Rajabgul Xoliboyevna</i>	144
ONA TILI VA O'QISH DARSLARIDA TARQATMA MATERIALLARDAN FOYDALANISH METODIKASI <i>Eshonqulov Yaxyo Baxodirovich., Kenjayeva Gulnora Alimjonova</i>	145
TILLARNI O'RGANISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING O'RNI <i>Izzatullayeva Nigora Joraxanovna, Gamilov Abdulhay Abdulaxat o'g'li, Urzaliyev Begjon Muxammadali o'g'li</i>	147
O'QUVCHILARDA MUSTAQIL FIKRLASH ELEMENTLARINI SHAKLLANTIRISH <i>Mirzayeva Aziza Abdumutalovna, Muratova Xamida Nazarovna</i>	148
TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI <i>Qayumova Muazzam, Mamajonova Zulxumor</i>	150
ALIFBE DAVRLARIDA YOZUV DARSLARINI TASHKIL ETISH <i>Daniyarova Barno, Eshonqulova Hafiza Abdullayevna</i>	151
BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA IJODKORLIKNI SHAKLLANTIRISH <i>Raximova Gulchehra Berdikulovna, Hakimova Dildora Maxmudovna.</i>	153
BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA IJODIY FIKRLASH QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI <i>Davronova Iroda</i>	154
